

H. Mamedov, N. Muminov, A. Umarov, A. Ismailov

# IQTISODIYOT NAZARIYASI

II



**ALFRAGANUS UNIVERSITY**

**H. Mamedov, N. Muminov, A. Umarov, A. Ismailov**

# **IQTISODIYOT NAZARIYASI**

**(darslik)**

**II tom**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan  
“Iqtisodiyot nazariyasi” fanidan barcha yo‘nalishlar uchun darslik sifatida  
tavsiya etiladi

**“BOOKMANY PRINT”  
TOSHKENT – 2022**

**UO‘K: 330(075)**

**KBK: 65.9ya7**

**M 23**

**ISBN 978-9943-8628-6-9**

Mamedov, H., Muminov, N., Umarov, A., Ismailov, A.

Iqtisodiyot nazariyasi II tom [Matn] : darslik / H. Mamedov, N. Muminov, A. Umarov., Ismailov, A.– Toshkent: Bookmany print, 2022. – 536 b.

**Taqrizchilar:**

**H.P.Abdulqosimov** O‘zMU Iqtisodiyot nazariyasi kafedrası  
professori, iqtisod fanlari doktori

**M.A.Mahkamova** ToshDTU Iqtisodiyot va marketing kafedrası  
mudiri, iqtisod fanlari doktori, professor

**K.Q.Ismoilov** ToshFI Ijtimoiy fanlar kafedrası mudiri, iqtisod  
fanlari nomzodi, dotsent

Mazkur darslikda predmet, bilish metodlari, rivojlanish davrlari, jamiyatda iqtisodiy munosabatlarning tuzilishi va bozorning harakat qilishi; butun jahon va alohida mamlakatlar miqyosida mikro-, mezo-, makro-, mega iqtisodiyotning asosiy muammolari ko‘rib chiqilgan.

Material ommabop, yaqqol, keng va ko‘p sonli sxemalar, jadvallar, grafik-rasmlar orqali bayon etilgan.

Mualliflar o‘ziga xos dizayn orqali o‘quvchi tomonidan kitob mazmunini qabul qilish va asosiy jihatlarini yodda saqlashni yengillashtirishni ko‘zda tutadi. Mazkur darslik oxirida iqtisodiy tarixni xronologiyasi, jahon davlatlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari, iqtisodiyot fani bo‘yicha A.Nobel mukofoti sovrindorlari ro‘yxati keltirilgan.

© ALFRAGANUS UNIVERSITY

© Mamedov, H., Muminov, N., Umarov, A., Ismailov, A.

© “Bookmany print” nashriyoti, 2022.

### III BO‘LIM. MEZOIQTISODIYOT

## 21 BOB. TADBIRKORLIK FAOLIYATI VA UNI TASHKIL ETISH SHAKLLARI

*Agarda ishlab chiqarish sarf-xarajatlari taklifga ta'sir ko'rsatmaganda, ular raqobatli narx-navoga hech qanday ta'sir etmasdi.*

*Jon Styuart Mill*

### **21.1. Tadbirkorlikning mohiyati va uni tashkil etish shakllari**

Xo‘jalik yuritishning bozor tizimiga o‘tish – bu ayni vaqtning o‘zida tadbirkorlik turi iqtisodiyotga o‘tish hamdir. Shu sababli tadbirkorlikni rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaratilishi o‘tish davri iqtisodiyoti tub tarkibiy o‘zgarishlarining muhim qismi hisoblanadi.

#### ***Tadbirkorlikning iqtisodiy tabiati va uning belgilari***

Tovar ishlab chiqarishi tarixan va genetik jihatdan tadbirkorlikning boshlang‘ich nuqtasi hisoblanadi. Tadbirkorlikning iqtisodiy tabiati bozor xo‘jaligi bilan uzviy bog‘liq. Xo‘jalik faoliyatining xususiyati sifatida tadbirkorlik yuzaki almashuvdan qo‘shimcha foyda olishga intilish bilan farq qiladi. Vaholanki, almashuvning o‘zi tadbirkorlikning manbai hisoblanadi. U yagona xo‘jalik oborotining tarkibiy bo‘g‘iniga aylanganida, almashuv uchun ishlab chiqarish xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning belgilovchi vazifasi bo‘lib qolganida shunday jihatni kasb etadi. Almashuv, *birinchidan*, yangi imkoniyatlar izlashni, ya’ni tashabbuskorlikni rag‘batlantiradi. *Ikkinchidan*, aynan almashuv jarayonida tadbirkor bir vaqtning o‘zida u amalga oshirgan tashabbusning ham sababini, ham muvaffaqiyatining bahosi hisoblanuvchi bo‘lajak foyda manbaini ko‘radi. *Uchinchidan*, almashuv ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish mexanizmi sifatida tadbirkorlik faoliyatining ijtimoiy xarakterini izohlaydi. *To‘rtinchidan*, almashuv jarayonida o‘ziga o‘xshagan shaxslar bilan duch kelgan tadbirkor o‘z faoliyatini belgilash sifatida qabul qiladi.

Tadbirkorlikning iqtisodiy tabiatini bir qator belgilar tavsiflaydi: tashabbuskorlik, tijorat sohasidagi tavakkalchilik, ishlab chiqarish omillaridan foydalanish, yangilikka intilish shular jumlasidandir.

*Tadbirkorlikning tashabbusi.* Tadbirkorlik – tashabbuskorlik bilan bog‘liq faoliyatdir. Foyda olishning yangi imkoniyatlarini izlab topishga doimiy intilish, u yangi tovarlarni ishlab chiqarish yoki yangi bozorlarni o‘zlashtirish bo‘lishidan qat’i nazar, tadbirkorlikning o‘ziga xos jihati hisoblanadi. Tadbirkorlik tashabbusi – bozor almashuvi jarayonining, ana shu jarayon qatnashchilarining o‘zaro manfaati uchun amalga oshirilayotgan jarayonning berayotgan imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga intilishdir. Shu

munosabat bilan tadbirkorlikni aldash va zo‘ravonlik bilan emas, ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish evaziga foyda olishga intilish asnosida qiyoslash lozim, bu tadbirkorlik faoliyatining mazmun - mohiyatini belgilaydi.

Tadbirkorlik tashabbusini namoyon etish darajasi uning iqtisodiy erkinliklari bilan belgilanadi. Tadbirkorlik faoliyatini cheklash darajasi haddan tashqari yuqori bo‘lganida, tashabbuskorlik susayadi. Aksincha, xo‘jalik operatsialari sohasidagi erkinliklar uning faollashuviga xizmat qiladi. Shu ma’noda, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning tashabbuskorlik faoliyatini jadallashtirish uchun shart - sharoitlarni yaratish tadbirkorlikni rivojlantirishning tub vazifasi hisoblanadi.

### ***Tijorat sohasidagi tavakkalchilik xo‘jalik mas’ulyati***

Tadbirkorni o‘rab turgan voqelik o‘nga tobe bo‘lmagan mavhumiylik ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Mavhumiylik ham bozorning o‘ziga xos xususiyatlari (talab va taklif, narx-navo va iste’molchilar istagining o‘zgarishlari) munosabati bilan, bozorning tadbirkor odam tashabbuslariga bashorat qilib bo‘lmaydigan munosabatlarida ifodalangan tadbirkorlik xususiyatlarida namoyon bo‘ladi, shu asnoda tijorat sohasidagi tavakkalchilik kelib chiqadi.

Tijorat sohasidagi tavakkalchilik tadbirkorlik faoliyatining tarkibiy qismi bo‘lishi bilan birga, odatdagi tavakkalchilikdan farq qiladi. Unga rioya yetish shaxslarning tavakkal qilishga moyilligiga emas, ularning bozordagi mavhumiylikni ma’lum mukofot ko‘rinishida o‘z foydalariga aylantirishga intilishlari bilan bog‘liq. Tavakkalchilik yuz berishi mumkin bo‘lgan salbiy oqibatlarini xushyorlik bilan hisob - kitob qilish va inobatga olishga asoslangan. Shu asnoda muvoffaqiyatga intilish xo‘jalik mas’ulyati bilan muvozanatga keladi. Uning darajasi ma’lum ma’noda tadbirkor uchun maqbul bo‘lgan tavakkalchilik darajasini belgilaydi. Tavakkalchilik kamroq daromad olish yoki hatto zarar ko‘rish bilan bog‘liq bo‘lganida boshqacha, shaxsiy mulkni boy berish bilan bog‘liq bo‘lganida esa boshqacha bo‘ladi.

### ***Tavakkalchilikning hamrohi bo‘lgan xo‘jalik mas’ulyati***

Tadbirkor oldiga tavakkal qila olish va boshqara bilish vazifasini qo‘yadi. Tadbirkor bozordagi mavhumiylikni bartaraf etishga qodir emas, ammo xavf-xatarni birinchidan, tavakkalchilikni arzimagan chiqimlarga aylantirish imkonini beradigan sug‘urta qilish yo‘li orqali, ikkinchidan, ana shu xavf-xatarni boshqa manfaatdor shaxslar bilan baham ko‘rish evaziga kamaytirish mumkin. Vaholanki, ikkinchi usul xavf xatarni (ayrim qatnashchining yuz berishi mumkin bo‘lgan yo‘qotishlarini) kamaytirish bilan birga, tadbirkorlik asosini barbod etadi, chunki tadbirkorlikdan tushgan daromadni tadbir qatnashchilari o‘rtasida taqsimlashga to‘g‘ri keladi.

Tavakkalchilikka asoslangan intilish tufayli uning xatarlilik darajasi o'rtasida vujudga keluvchi ziddiyat xavf-xatarni boshqarish tizimini tashkil etish yo'li bilan bartaraf etiladi. Eng oddiy ko'rinishda bunday tizim xavf-xatar manbalari oqibatlarini aniqlash, yuz berishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlarni yengish bo'yicha ko'nikma tadbirlari amalga oshirilishini o'z ichiga olishi lozim.

## **21.2. Ishlab chiqarish omillaridan foydalanish**

Eng yaxshi variantlarni izlanish ishlab chiqarish omillaridan foydalanish bilan bog'liq, bundan ko'zlangan maqsad har bir resurs samaradorligini (foydaliligini) oshirishdan iborat. Ixtiyoridagi resurslar samaradorligini oshirishning eng oddiy ko'rinishi ularning muqobil qiymati yuqori bo'lgan va ular ko'proq foyda keltiradigan bozorlarga ko'chirish hisoblanadi. Bunday faoliyat hakamlik qilish, deb nomlanadi. Hakamlikni savdo sohasida va birjadagi faoliyatda aniqlash oson. Uning ko'rinishlari rang-barang bo'lishiga qaramay teng bo'lmagan bozor vaziyatlaridan yangi imkoniyatlarni izlanish usuli sifatida foylanish, qo'shimcha daromad manbai sifatida resurslarni unumli taqsimlashga intilish, ne'matlarni qayta taqsimlash orqali bozor muvozanati o'rnatilishiga yordam berish o'nga ko'proq xosdir. Yanada samarali qo'llash maqsadida resurslarni ko'chirish mazmunan resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish jarayonining yanada murakkab umumiy formulasigina xolos.

Resurslarni qo'llanish samaradorligini oshirishning boshqa, nisbatan murakkab ko'rinishini ishlab chiqarish omillaridan almashtirish tamoyili asosida foydalanish hisoblanadi. Uning mohiyati – bir omilning o'rniga boshqasidan foydalanish yo'li bilan ana shu omillarni birlashtirishning eng ratsional variantini izlashdir. Tadbirkor ishlab chiqarish omillarini tanlash bilan resurslarni qo'llanishning nisbatan samarali variantiga o'tilishini shunchaki ta'minlabgina qolmaydi, ayni vaqtda yangi texnologiyalarni vujudga keltirib, ijtimoiy ishlab chiqarish kuchlari rivojlanishining olg'a tomon borishini ta'minlaydi.

Omillardan foydalanishning mohiyatini resurslarni qo'llash samaradorligi masalasi bilan bog'lash soddalashtirish bo'lar edi. Tadbirkor ayrim elementlarni bozor sohasidan ajratib olib, resurslar qayta taqsimoti mexanizmining xarakterini o'zgartira borib, o'z tashkiloti tarkibiga kiritishi mumkin. Shuning uchun foydalanish vazifasining mazmuni «o'rnini bosish tamoyili»ga qaraganda kengroq, foydalanishning o'zi esa bozor muhitini o'zgartirish omili vazifasini o'tashi mumkin.

*Yangilikni izlanish.* Ma'lum bo'lmagan sharoitda faoliyat yuritish tadbirkordan topqirlik va ijodiy yondashuvni talab qiladi. Aytib o'tilgan elementlar u yoki bu darajada hamisha tadbirkorlik faoliyatida hozir bo'lishiga qaramay, iqtisodiyotning industrial bosqichiga o'tilgach, ularning ahamiyati yaqqolroq namoyon bo'ladi. Shu bosqichda yangi g'oyalarni ishlab chiqish va amalga oshirish qobiliyati tadbirkor muvaffaqiyatini belgilovchi omiliga aylanadi.

Yangilikni izlanish – mutlaqo yangi tovarlarni va texnologiyalarni amalda qo'llash, ishlab chiqarish va sotishni tashkil etishning usullarini, tadbirkorlik faoliyatining tashkiliy ko'rinishlarini joriy etishdir. Yangilikni izlanish shaxs ijodiy imkoniyatlari namoyon bo'lishining ko'rinishi sifatida inson omili bilan bog'liq. Yangilikni izlanishga moyillik individning shaxsiy xususiyatlariga naqadar bog'liq bo'lmasin, iqtisodiy hayot hodisasi sifatida yangilikni izlanish har holda tadbirkorlik faoliyatining xarakteri bilan izohlanadi. Ixtirochi – hali yangilik izlovchi emas. U o'zini tadbirkor sifatida, ya'ni xo'jalik yuritishning eng yaxshi natijalari uchun kurashuvchi shaxs sifatida namoyon qilgandagina yangilikni izlovchi bo'ladi. *Birinchidan*, bozor noaniqligini yengib o'tishning eng maqbul usuli – bozor noaniqligini o'zi uchun manfaatli yo'nalishda o'zgartirishdir, bunga faqat yangilikni izlanish bilan bog'liq faoliyat natijasida erishish mumkin. *Ikkinchidan*, barqaror bozor imtiyozlarini qo'lga kiritishga faqat yangiliklarni joriy etish vositasida erishish mumkin. Shu sababli, iqtisodiyot ma'nosida tadbirkorni yangilikni izlashga majbur qiluvchi haqiqiy sabab – ular o'rtasidagi raqobat hisoblanadi.

Tadbirkorlikning ichki xususiyati bo'lib qolgan yangilikni izlash bozordagi talab va taklifning o'zaro aloqalarini tubdan o'zgartiradi. Taklif bozor mexanizmining passiv elementi bo'lmay qoladi. U talab o'zgarishlariga moslashib, talab o'zgarishlarining va hatto shakllanishining muhim shartiga, bozor muvozanatining doimiy buzilishi manbaiga aylanadi. Bozordagi ahvolni his etish va oldindan ko'ra bilish emas, bozor shart-sharoitlarining o'zini o'zlashtirish bo'yicha yaratuvchilik faoliyati tadbirkorlikning belgilovchi omili rolini o'ynay boshlaydi. Yangilikni izlash xususiyatiga ega tadbirkorlik esa, fan-texnika taraqqiyotining favqulodda muhim omiliga va iqtisodiy o'sishning harakatga keltiruvchi kuchiga aylanadi.

### **21.3. Tadbirkorlik faoliyatining sabab va maqsadlari**

Tadbirkorlik faoliyati ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq bo'lsa ham tadbirkor mol-mulkka doir xavf-xatarni o'z zimmasiga xayriya maqsadlarida qabul qilmaydi. Aslida tadbirkorlik faoliyatiga da'vat etuvchi sabab bu – tadbirkor daromadi ko'rinishida ifodalangan moddiy manfaatdorlik

hisoblanadi. Tadbirkor faoliyatidan olinadigan daromad tabiatining xususiyatlari shundan iboratki, birinchidan, bozor almashuvi vositasida, ikkinchidan, xo‘jalik oboroti jarayonida resurslardan yaxshiroq foydalanish natijasida qo‘lga kiritilishidir. Shuning uchun mulkiy daromadlar (renta, ijara haqi, kapital foizlari) va mehnat faoliyati natijasida olinadigan daromadlar (ish haqi, qalam haqi) tadbirkorlikdan keladigan daromad, deb hisoblanmaydi.

Xo‘jalik amaliyotida tadbirkorning ichki sabablari aniq maqsadga qaratilgan intilish ko‘rinishini oladi, u ko‘pgina omillar ta’siri ostida shakllanadi. Tadbirkor mulk egasi imkoniyatini ishga solib, resurslarning qo‘llanishidan eng yuqori daromad olinishini ta’minlashi lozim. Ikkinchi tomondan, u boshqaruvchi sifatida tashqi ta’sirlarga o‘z munosabatini bildirmay qololmaydi, u bozor vaziyatlarining o‘zgarishlariga moslashishi lozim. Tadbirkor korxonaning uzoq muddatli barqarorligini ta’minlashga intilib, o‘z maqsadlarini amaldagi barcha omillarni inobatga olib shakllantirishga majbur, vazifalaridan birontasini esa ustuvor qo‘ya olmaydi.

Yuqoridagi fikr tadbirkorlikning ichki sabablarini inkor etishni anglatmaydi. Ustuvorlik sifatini qabul qilgan har qanday maqsad majburiy bir shartni – daromadlilikning maqbul me’yori ta’minlanishini taxmin etadi. Bunday chegaralash tasodifiy emas, u butun tadbirkorlik jarayonida daromadning o‘ynaydigan roli bilan izohlanadi. Daromad muvaffaqiyatning o‘lchovi va foydalanish samaradorligining ko‘rsatkichi, investitsiya imkoniyatlarining bahosi, tadbirkorlikni rivojlantirish manbai hisoblanadi.

### ***Tadbirkorlikning ta’rifi***

Tadbirkorlikning mazmuni unga xos bo‘lgan alomatlarining faqat bittasi bilan cheklanishi mumkin emas. Barcha alomatlar uning ajralmas xususiyatlari hisoblanadi, ulardan birortasining ustuvorligi ma’lum bir xo‘jalik vaziyatida tadbirkorlik kuch-g‘ayratining berilgan o‘zgarishlariga munosabat bildirish usulini aks ettiradi.

Tadbirkorlik faoliyati iqtisodiy tabiatining tahlili shuni ko‘rsatadiki, uning mazmuni xo‘jalik yurituvchi sub’ektining foyda keltirishi mumkin bo‘lgan manbaiga munosabat bildirish qobiliyatidan, ya’ni vujudga kelgan imkoniyatni ko‘ra bilish va undan foydalanish qobiliyatidan iborat. Shu o‘rinda gap tadbirkorning shaxsiy jihatlari bilan izohlanuvchi qobiliyat xususida emas, o‘z maqsadi sari harakat jarayonida u kirishadigan o‘ziga xos munosabatlar xususida bormoqda. Mazkur munosabatlar ham boshqa tadbirkorlik tashabbuslarining muvaffaqiyatini ta’minlashda tobora katta ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda. Bozor xo‘jaligi sub’ektlarining raqobatli o‘zaro munosabatlari sharoitida tadbirkorning faoliyati raqobatida imtiyozga erishish yo‘li bilan o‘zi uchun xo‘jalik yuritishning yaxshi sharoitlarini yaratishga



intilishida ro'yobga chiqadi, bu tadbirkorlikning xo'jalik fel'-atvorini o'ziga xos turi sifatidagi jihatlarini aks ettiradi. Demak, tadbirkorlikning mazmun-mohiyati o'z maqsadlariga erishishning shart-sharoitlari sifatida raqobat ko'rashida ustuvorlikka ega bo'lish va uni saqlab qolishdan iboratdir. Tadbirkorlik vazifasining tub zamini ana shundan iborat.

**Tadbirkorlik** – bu xo'jalik sohasidagi tavakkalchilik bilan bog'liq va raqobatda ustuvorlikni qo'lga kiritish, uni saqlab qolishga yo'naltirish, daromad olish va mol-mulknini ko'paytirish maqsadida olib boriladigan tashabbuskorona faoliyatdir.

#### **21.4. Tadbirkorlikning tadrijiy- ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishi**

Tadbirkorlikning tadrijiy rivojlanishi bilan uzviy bog'liq. Mazkur taraqqiyot tadbirkorlikning qo'llanish ko'lamlari va sohalarining, shuningdek, uning namoyon bo'lish shakllarining o'zgarishlariga xizmat qiladi.

Tadbirkorlik tashabbusini qo'llashning boshlang'ich nuqtasi tarixan hakamlik bilan, ya'ni tovarlarni bir bozordan ikkinchi bozorga ko'chirish bilan bog'liq savdo faoliyati bo'lgan, narxlar o'rtasidagi farq esa, daromad manbai edi. O'sha davrda tadbirkorlikning ikkinchi darajali yordamchi rolini o'ynagan, uning vazifasi esa kapitalni foydali joylashtirish sohalarini izlanish bilan cheklangan. Yuksak darajadagi xavf-xatar va u bilan bog'liq eng yuqori daromadni olishga intilish tadbirkorlikning ustuvor alomatlarini bo'lgan. Tadbirkorlik faoliyati mulk egasining monopoliyasi hisoblangan, u o'z faoliyatining barcha jihatlarini shaxsan o'zi belgilagan, uning natijalari uchun to'liq mas'uliyatni o'z zimmasiga olgan.

Ishlab chiqarishning industrilashish bosqichiga o'tilganidan so'ng moddiy ishlab chiqarish tarmoqlari tadbirkorlikni qo'llashning ustuvor sohasiga aylandi. Endi bozor narxlari o'rtasidagi farq emas, qo'llaniladigan resurslarning eng maqbul kombinatsiyalarini izlash, ya'ni ishlab chiqarishning eng samarali usullari tadbirkor muvaffaqiyatining sharti bo'lib qoldi. Faoliyat turi sifatida tadbirkorlikning roli beqiyos oshdi. Faoliyatning murakkablashib borishi tadbirkorlik vazifalarining murakkablashishiga olib keldi, tadbirkorlik tashkilotining boshqaruv tuzilmasiga muvofiq ravishda uning joylashishini izohladi. Tadbirkorlik faoliyati faqat mulk egalarining monopoliyasi bo'lmay qoldi.

**Tadbirkorlikning iqtisodiy kategoriya sifatidagi tavsifi**

Ta'rifi	Xo'jalik xavf-xatari bilan bog'liq, raqobatda imtiyozni qo'lga kiritish va saqlab qolishga yo'naltirilgan, daromad olish va mol-mulkn ko'paytirish maqsadida olib boriladigan tashabbuskorona faoliyat.
Alomatlari	Xo'jalik borasidagi tashabbus. Tijorat xavf-xatari. Xo'jalik mas'uliyati. Ishlab chiqarish omillaridan foydalanish. Yangilikni izlanish.
Sabablari (vazifasi)	Daromad olish va mol-mulkn ko'paytirish.
Mazmuni	Oldiga qo'yilgan o'z maqsadlariga erishishning sharti sifatida raqobat ko'rashida imtiyozlarni qo'lga kiritish va saqlab qolish.
Mohiyati	Musobaqalashish tamoyili asosida amalga oshiriladigan bozor almashuvi vositasi afzalliklarini qo'lga kiritish.
Shakli	Yakka tartibdagi tadbirkorlik: -mayda tovar ishlab chiqarish; -kapitalistik ishlab chiqarish. -Jamo'a shaklidagi tadbirkorlik. -Davlat tadbirkorligi.
Vazifalari	<p>1. <i>Xo'jalik muhitiga moslashish:</i> -kam chiqimlar bilan mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish; -korxonalar aktivlari qiymatining o'sishini va korxonaning moliyaviy barqarorligini ta'minlash; -resurslar bilan ta'minlashning bozor va bozorga aloqasi bo'lmagan shakllarini optimallashtirish; -xodimlarda tadbirkorlik faoliyatiga dahldorlik tuyg'usini shakllantirish; -iste'mol afzalliklarini belgilash.</p> <p>2. <i>Xo'jalik muhitini o'zgartirish</i></p> <p>Iqtisodiy – a) jamoa ishlab chiqarish samaradorligining o'sishiga yordam berish; b) bozor muvozanati qaror topishiga yordam berish.</p> <p>Institutsional – a) xo'jalik muhitini o'zgartirish; b) yangi bozor institutlarini tashkil etish.</p> <p>Ijtimoiy – a) jamiyat farovonligining o'sishiga yordam berish; b) boshqaruv va xususiy mulk munosabatlarini demokratlashtirishga yordam berish; v) jamiyatning ijtimoiy interatsiyasiga yordam berish.</p>

Jamiyat rivojlanishining industrilashtirish bosqichi o'ziga xos bo'lgan yangilikni izlanish va ishlab chiqarishni ijtimoiylashtirish xususiyatlari bilan

xo‘jalik yuritishning boshqacha ustuvorliklarini o‘rnatdi. Shu vaqtdan boshlab shunchaki resurslardan foydalanishni ratsionallashtirish emas, xo‘jalik yuritishning shakli va usullarining o‘zini ratsionallashtirish tadbirkorlik faoliyatining asosiy bo‘g‘iniga aylanadi. Aniq maqsadlar yakka tartibdagi natijalarni ko‘paytirish bilan emas, xo‘jalik tashkilotining uzoq muddatli barqarorligini ta‘minlash bilan bog‘liq bo‘lib qoladi. Endilikda o‘zgarayotgan shart-sharoitlarga moslashish emas, bevosita xo‘jalik yuritish sharoitlarining o‘zini ijtimoiy ehtiyojlar va ishlab chiqarishni rivojlantirish tamoyillariga muvofiq ravishda o‘zgartirish qobiliyati asosiy rolni o‘ynay boshlaydi. Shuning uchun innovatsiya faoliyati tadbirkorlikning belgilovchi alomatiga aylanadi, uning o‘zi esa ijtimoiy ishlab chiqarishda bosh rolni o‘ynay boshlaydi. Innovatsiya faoliyatini amalga oshirish butun jamoa kuch-g‘ayrati safarbar etilgan taqdirdagina mumkin bo‘lganligi bois, tadbirkorlik jarayoniga uning barcha qatnashchilarini jalb etish tadbirkorlikni amalga oshirishning ob‘ektiv shartiga aylanadi.

Tadrijiy rivojlanish mobaynida tadbirkorlikning nafaqat mazmuni, shu bilan birga, uning ijtimoiy bahosi ham o‘zgarib bordi. Antik davrda bosilgan va keyinchalik xristianlik aqidalarida mustahkamlangan tadbirkorlikning ma‘naviy ahloqiy yetishmovchiligi («munosib emasligi», «gunoh ekanligi») haqidagi muhr asrlar mobaynida unga rahna solib keldi. Ibtidoiy xo‘jalikka asoslangan, hayot bir maromda kechadigan jamiyatda ana shu hayot tarzini o‘zgartirishga yo‘naltirilgan faoliyatni boshqacha talqin etishning iloji ham yo‘q edi. Ishlab chiqarishning industrial tipiga o‘tilgach, resurslardan unumli foydalanish va yangilikni izlash barqaror iqtisodiy o‘rishni belgilovchi omiliga aylanganidan so‘ng, tadbirkorlik faoliyatiga ijtimoiy fikr ham ijobiy tomonga o‘zgardi. Albatta, tadbirkorlikka qandaydir oldinga boshlovchi faoliyat deb qarash xato bulardi. Ammo tadbirkorlikning boylik orttirish jihatiga e‘tiborni qaratib, u bajaradigan yaratuvchilik faoliyatini e‘tibordan chetda qoldirilishi ham adolatdan bo‘lmas edi.

Tadbirkorlikning tadrijiy rivojlanishi iqtisod fani tomonidan unga berilgan talqinlarda ham o‘z ifodasini topdi. Siyosiy iqtisod klassiklari (A.Smit, D.Rikardo, F.Kene)ning asarlariga tadbirkorlik havf-xatar bilan bog‘liq va daromad olishga yo‘naltirilgan faoliyat, deb talqin etiladi, tadbirkor shaxsi esa kapital egasiga qiyoslanadi. Mulkka egalik va boshqaruv vazifalari alohida ajralib borgani sayin, tadbirkorlik haqidagi tasavvurlar ham o‘zgarib bordi. Uning mazmuni ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqaruv sohasiga ko‘chadi (J.B.Sey, J.S.Mill). Ana shu tasavvurlarning neoklassik nazariya tomonidan rivojlantirilishi tadbirkorlikning boshqalardan ajralib turadigan boshqaruv vazifasi tadbirkorlikning ishlab chiqarish omillarini ulardan

samarali foydalanish maqsadida boshqaruvchi menejer, deb tushinilishiga olib keladi (A.Marshall, J.B.Klark). Tadbirkorlikni izlanish deb, tadbirkorni esa, iqtisodiyot tizimidagi ilg'or o'zgarishlarni harakatga keltiruvchi kuch, deb talqin etish ana shu yo'nalishning yakuniy shakliga aylandi (Y.Shumpeter).

Marksistik nazariyada tadbirkorlikka mutlaqo yangi nuqtai nazardan qaraladi. E'tiborni tadbirkorlikning ijtimoiy-iqtisodiy tabiatiga qaratib va uning mazmunini mulk egasi munosabatlarining xarakteri bilan bog'lar ekan, K.Marks tadbirkorda faoliyatining mohiyati qo'shimcha qiymat olish, ya'ni yollanma xodimlarni ekspluatsiya qilish maqsadida faoliyat ko'rsatayotgan kapitalistini ko'radi.

Tadbirkorlikning iqtisodiyotga ta'siri kuchayib borgani sayin uning yangidan-yangi talqinlari paydo bo'ladi. Agar neoklassik nazariyada tadbirkorlikning xizmat jihatlari tomonining mazmuni bozor shart-sharoitlariga moslashish bilan chegaralangan bo'lsa, institutsional yo'nalish vakillari (R.Kouz, O.Uilyamson) tadbirkorlik faoliyatida yanada faol xatti-harakatlarni ko'radilar, buni uning o'zgartirish vazifalari – bozorlarni qayta tashkil etish, resurslar tanlashning bozor usuliga muqobilini (firmalarni) yaratish bilan bog'laydilar.

### **21.5. Tadbirkorlik faoliyatining shakllari**

Tadbirkorlik ijtimoiy faoliyatining o'ziga xos ko'rinishi sifatida hamisha iqtisodiy munosabatlarning jamiyatda mavjud bo'lgan turini aks ettiradi. Tadbirkorlik faoliyatining vazifalari bilan bog'liq mazmuni, vazifalari va maqsadi ana shu iqtisodiy tizimga xos bo'lgan munosabatlar xarakteri bilan belgilanadi. Tadbirkorlikning quyidagi ko'rinishlarini: yakka tartibdagi, jamoa va davlat tadbirkorligini ajratib ko'rsatish mumkin (21.2 - jadvalga qarang).

***Yakka tartibdagi tadbirkorlik*** – tadbirkorlikning xususiy mulkka asoslangan, daromad olish hamda mol-mulkini ko'paytirish maqsadida alohida shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan ko'rinishidir. U tadbirkorlik faoliyatining nisbatan keng tarqalgan shakli bo'lib, ko'p asrlik tarixga ega.

Yakka tartibdagi tadbirkorlikning xarakterli alomati uning ijtimoiy-iqtisodiy jihatlari bir xil emasligidir. Yakka tartibdagi tadbirkorlik tadbirkor va uning oila a'zolari mehnati bazasida ham, yollanma mehnatni qo'llash vositasida ham amalga oshirilishi mumkin. Agar birinchi holda tadbirkorlik faoliyatining mehnatga asoslangan tabiati haqida gapirish o'rinli bo'lsa, ikkinchi holda uning kapitalistik mohiyatini ta'kidlab o'tish o'rinli bo'ladi. Yakka tartibdagi tadbirkorlik ana shu turlarining iqtisodiy sabablari ham turlicha: mayda tovar ishlab chiqarish bilan bog'liq tadbirkorlik uchun maqsad – daromad olish bo'lsa, kapitalistik tadbirkorlik uchun bu – foyda olishdir.

Basharti, chakana tashabbus bilan harakatga kelitiriluvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik alohida shaxs manfaatlarini ro'yobga chiqarishga qaratilgan bo'lsa, tadbirkorlik ana shu shaklining mazmunini, uning sub'ektlari esa raqobatchilarni siqib chiqarish hisobiga o'z xo'jalik ahvolini yangilashga intilishi tashkil etadi. Shuning uchun yakka tartibdagi tadbirkorlik qatnashchilarining yakka tartibdagi xatti-harakatlari antagonistik xususiyatga ega, ularning manfaatlari ko'pincha jamiyat manfaatlariga qarama-qarshi qo'yiladi.

Tashkil etilish usuliga ko'ra, yakka tartibdagi tadbirkorlik individual, guruh va korporativ shaklda bo'lishi mumkin.

**Jamoa tadbirkorligi** – tadbirkorlikning shunday bir ko'rinishiki, unda mehnat bilan ishtirok etish tadbirkorlik qonuniy huquqining manbai hisoblanadi, xodimlar esa qarorlar qabul qilinishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Aynan ana shu alomat jamoa tadbirkorligini guruh shaklida amalga oshiriladigan yakka tartibdagi tadbirkorlikdan farqlaydi.

Tadbirkorlikning umumiy tamoyillari asosida harakat qiluvchi ushbu shakli jiddiy o'ziga xos xususiyatlarga ega. Birinchidan, unda xodimlarning tadbirkorlik jarayonida ishtirok etuvchilar va bu jarayondan chetlashtirilganlarga bo'linishi yo'q. Ikkinchidan, tadbirkorlik faoliyati taqsimotining belgilovchi omili xususiy mulk emas, mehnat hissasi hisoblanadi. Uchinchidan, mehnatning kooperativ shakli saqlanib qolganiga qaramay, jamoa tadbirkorligi ekspluatatsiyani istisno qiladi.

Daromad olish tadbirkorlik jamoa shaklining sabab bilan bog'liq alomatlaridan biri bo'lib qolsa ham xodimlar ish bilan bandligini ta'minlashning sharti sifatida ishlab chiqarish birligining xo'jalik barqarorligini saqlab qolish uning uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Uning raqobatbardoshligini mustahkamlash belgilovchi ikki omilning harakati bilan bog'liq. Birinchidan, bu barcha xodimlarni jalb etish orqali tadbirkorlik jarayonini demokratiyalashtirishdir, bu tadbirkorlik vazifalari samaradorligining oshishiga xizmat qiladi. Ikkinchidan, bu tadbirkorlik resurslari haqini o'z ichiga olmagan chiqimlar tuzilishini o'zgartirishdir, zero, jamoa shakli sharoitlarida tadbirkorlik vazifalarini amalga oshirish jamoa a'zolari umumiy mehnat faoliyatining bir qismi hisoblanadi. Shu tufayli mazkur shakl chiqimlar bo'yicha raqobatda imtiyozga egadir.

Shu bilan bir qatorda, bozor muhitida harakat qiladigan jamoa tadbirkorligi tadbirkorlik sub'ektlarining hayoti va faoliyatini belgilovchi mezonlarni, misol uchun, rentabellik darajasini inkor eta olmaydi. Bu ichki ziddiyatni izohlaydi va tadbirkorlik mazkur ko'rinishi imkoniyatlarini cheklaydi. Ana shu sharoitni hamda u o'ynaydigan ijtimoiy rolni inobatga olib,

ko'pgina mamlakatlar jamoa tadbirkorligini qo'llab- quvvatlash dasturlarini amalga oshirmoqdalar.

Hozirgi vaqtda ishlab chiqarish shirkatlari va jamoa korxonalari jamoa tadbirkorligini amalga oshirish shakllari qatoriga kiradi.

***Davlat tadbirkorligi*** – tadbirkorlikning shunday bir shakli, unda tadbirkorlik faoliyatining maqsadlari borasida strategik qarorlar qabul qiladi va uning ustidan nazoratni davlat tashkilotlari amalga oshiradi.

Hozirgi vaqtda davlat tadbirkor rolini bajarayotgan ko'pgina sohalarni ko'rsatib o'tish mumkin. Kapital sig'imi yuqori darajada bo'lgan ishlab chiqarishlar (atom energetikasi, transport kommunikatsiyalari); tijorat natijasi yuqori darajada mavhum (Kosmonavtika, ilmiy tadqiqotlar) va jamiyat uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan (ijtimoiy ne'matlar) ishlab chiqarishlar va hokazolar hamisha davlat ishtirok etadigan sohalar bo'lib kelgan. Odatda, davlatning iqtisodiyotga aralashuvi zaruratini bozor mexanizimining kamchiliklari bilan bog'lashdi. Ammo bunday talqin, birinchidan, nima uchun davlatning iqtisodiyotga aralashuvi iqtisodiy dastaklar – soliqlar va sub'ektlar vositasi bilan cheklanmasligini izohlamaydi; ikkinchidan, nima uchun davlat tadbirkorligi ijtimoiy ne'matlarni tarqatish sohasi doirasidan tashqariga chiqadi, degan savolga javob bermaydi; uchinchidan, davlat tadbirkorligi sabablarini ochib bermaydi. Va nihoyat, bunday talqin davlat tadbirkorligini bozor munosabatlari sohasida tashqariga chiqarib, uni tadbirkorlik mazmunidan mahrum qiladi.

Aslini olganda, davlat tadbirkorligining vujudga kelishi va rivojlanishi sabablari chuqurroq bo'lib, ishlab chiqarishning umumiyloshuvi o'sishi bilan bog'liq, bu ijtimoiy ishlab chiqarish turli bo'g'inlarining o'zaro aloqasi kuchayib borishi va ular faoliyatining natijalari bir -biriga bog'liqligida ifodalanadi.

Bevosita xo'jalik faoliyati bilan bog'liq bo'lgan davlat tadbirkorligi davlat boshqaruvidan farqli ravishda makroiqtisodiy maqsadlarga erishishning mikroiqtisodiy usuli hisoblanadi, milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishning vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli uning asosiy vazifalari iqtisodiyotning tarmoq tuzilishini rivojlantirish hamda, resurslar taqsimotining ratsionallashuvi va bozor raqobatini qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq. Davlat tadbirkorligining maqsadi esa, umumiy farovonligining maksimallashtirish va ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hisoblanadi.

Davlat tadbirkorligi davlat korxonalari va davlat ishtiroki turli darajada bo'lgan korxonalar orqali hamda davlat korxonalarini ijaraga berish ko'rinishida amalga oshiriladi. Yuzaki qaraganda bunday korxonalarining

faoliyati xususiy korxonalaridan kam farq qilsa ham , aslini olganda, ular bir qator jiddiy xususiyatlarga ega. Avvalambor, bu ularning maqsadi va faoliyati samaradorligining mezonlariga daxldor. Jumladan, rentabellik ko'rsatkichi davlat korxonalari uchun samaradorlikning universal me'zoni bo'lib xizmat qila olmaydi, sababi ularning faoliyati qo'pincha davlat o'tkazayotgan siyosat ta'siri ostida shakllanadi.

Eng yuqori naxrlarni o'rnatish, subsidiyalarni ajratish yoki imtiyozlarni berish va hokozolar yo'li bilan bozor munosabatlari mexanizmlarini yangilab turish qolibiliyati davlat tadbirkorligining o'ziga xos xususiyati hisoblanadi. Bu uning iqtisodiyotdagi maqsadga muvofiq ko'lamlari haqidagi masalalarga, shuningdek, o'tkazilayotgan iqtisodiy siyosatning xarakteriga bog'liq. Tajriba shuni ko'rsatadiki, davlat tadbirkorligi milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligining oshishiga va shu tariqa uning samaradorligi va umumiy faravonlikning o'sishiga qay darajada yordam bersa, davlat tadbirkorligiga shu darajada yo'l qo'yish mumkin ekan.

## 21.2 - jadval

### Tadbirkorlik shakllarining tavsifi

Tadbirkorlik shakllari	Mohiyati	Mazmuni	Vazifalari	Realizatsiya shakli
Yakka tartibdagi tadbirkorlik	Raqobatchilarni siqib chiqarish va bozordagi hukumronlikni kuchaytirish hisobiga daromadni (foydani) maksimallashtirish va mulkni kuchaytirish.	Xo'jalik yuritishning eng yaxshi sharoitlarini yaratish yo'li bilan raqobatda ustuvorlikka erishish.	-Ishlab chiqarishni ratsionallashtirish. -Resurslar taqsimoti bozor va bozorga aloqasi bo'lmagan usullarini optimallashtirish . -Iste'molchi imtiyozlarini oldindan ko'ra bilish, boshqaruvni takomillashtirish.	Mayda tovar xo'jaligi. Xususiy korxonalar. Shirkat. Korporatsiya.
Jamoa tadbirkorligi	Tadbirkorlik vazifalarini birlashtirish hisobiga o'zlikni xo'jalik yurituvchi sub'ekt sifatida saqlab qolish.	Boshqaruvni demokratiyalashtirish va ishlab chiqarishning resurslar bazasini boyitish yo'li bilan raqobatbardoshlikni mustahkamlash.	- Tadbirkorlikning umumiy vazifalari . Boshqaruvni demokratiyalashtirish.	Ishlab chiqarish kooperativi.

Davlat tadbirkorligi	Umumiy iqtisodiy muvozanatni saqlab borish hisobiga ijtimoiy farovonlikni maksimallashtirish.	Resurslar taqsimotini ratsionallashtirish va bozorlar o'rtasidagi raqobatni saqlab turish yo'li bilan milliy iqtisodiyotning raqobatdagi afzalliklarini rivojlantirish.	-Iqtisodiy bosqichi tekislash (ya'ni talabni rag'batlantirish, narx-navo siyosati ). -Tarmoqlararo nomutanosibliklarni yengib o'tish (tarkibiy tuzilish siyosatini amalga oshirish). -Integratsiyani avj oldirish. -FTTni rag'batlantirish.	Davlat korxonasi. Davlat nazorati ostidagi korxonalar. Davlat korxonalarini ijaraga berish. Franchayzing.
----------------------	---	---	--	--

### 21.6. Tadbirkorlik muhiti

Tadbirkorlikni amalga oshirish ijtimoiy xo'jalikda tadbirkorlik faoliyatiga xos bo'lgan xususiyat va alomatlarini amalga oshirish imkonini beruvchi shart-sharoitlar mavjud bo'lishini taxmin qiladi. Tadbirkorlik faoliyatning shakllanishi, rivojlanishi va amalga oshirilishiga ta'sir etuvchi shart-sharoitlar yig'indisi tadbirkorlik muhitini tashkil etadi. Bu muhit bir qator muhim elementlardan tashkil topadi.

*Iqtisodiy erkinlik* tadbirkorlik muhitining asosiy alomati hisoblanadi. Iqtisodiy erkinlikning mavjudligi tadbirkor uchun faoliyatning nafaqat u yoki bu turi bilan shug'ullanish, resurslar va bozorlarga teng huquqli kirib borish imkoniyati emas, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishga berilgan ma'naviy-axloqiy ruxsatnoma hamdir.

*Shaxsiy manfaatdorlik* tadbirkorlikni harakatga keltiruvchi sabab bo'lish bilan birga, ayni vaqtda bozor xo'jaligi sub'ektlarining faoliyatini yo'naltirib turadigan «ko'z ilg'amas qo'l» hisoblanadi. Shuning uchun daromad olish va uni jamlab borish sharoitlarini ta'minlash tadbirkorlikning asosiy alomatlaridan biri hisoblanadi.

*Bozor hududi* tadbirkorlik vazifalarini amalga oshirish imkoniyatlarini belgilaydi. Bozor institutlari naqadar rivojlangan va yetuk bo'lsa, tadbirkor faoliyatida to'siqlarga shu qadar kam duch keladi, uning imkoniyatlari to'laroq namoyon bo'ladi. Aksincha, bozor tashkilotining rivojlanmaganligi tadbirkorlik faoliyati imkoniyatlarini chegaralaydi, uning yo'nalishini buzib ko'rsatadi, tadbirkorlarga bozor tashkiloti kamchiliklaridan foydalanib qo'shimcha daromad olishga turtki beradi.

Raqobat – bozorni tartibga soluvchi asosiy kuch vazifasini o'taydi. Aslini olganda, u iqtisodiy erkinlikni va shaxsiy manfaatni amalga oshirish



chegaralarini belgilovchi iqtisodiy dastak hisoblanadi. Bozor ho‘jaligining xususiyati shundaki, o‘zi uchun iqtisodiy erkinlikni talab qilish ko‘p hollarda boshqalar uchun iqtisodiy cheklashga initilish bilan bog‘liq bo‘ladi. Aynan shu tufayli xo‘jalik yuritishning eng yaxshi natijalari uchun kurashda musobaqa shartlarini saqlash tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay muhitni yaratishning muhim omili hisoblanadi.

*Davlatning cheklangan roli.* Davlatning bozor iqtisodiyotidagi roli g‘oyatda muhim, shu bilan birga, u birinchi navbatda, iqtisodiy erkinlik chegaralariga ta‘sir o‘tkazib, tadbirkorlik muhiti maromida faoliyat ko‘rsatishiga ma‘lum darajada xavf tug‘diradi. Asosiy muammo tadbirkorlik muhitiga va davlat aralashuvini taqozo etadigan sohalarga davlat aralashuvining maqbul usullari va ko‘rinishlarini tanlashdan iborat.

Iqtisodiyotga davlat aralashuvining ko‘lamlari va shakllari ko‘pgina ham iqtisodiy (iqtisodiyotning industrial rivojlanganlik darajasiga, iqtisodiy faollik darajasiga), ham milliy xususiyatiga (davlatning jamiyatdagi an‘anaviy roliga, ijtimoiy mentalitetiga) ega omillarga bog‘liq. Davlatning tadbirkorlikni rivojlantirish nuqtai nazaridan xo‘jalik hayotiga aralashuvi agar u iqtisodiy samaradorlikning oshishiga yordam beruvchi darajada va yo‘l qo‘yish mumkin bo‘lgan shakllarda bo‘lsagina, hamda tadbirkorlik faoliyati asoslarini buzmagani taqdirdagina o‘zini oqlaydi.

### **21.7. Tadbirkorlik omillari**

Tadbirkorlik omillari – bu tadbirkorlik vazifalarining xususiyatlarini amalga oshirish imkoniyatlarini belgilovchi o‘lchamlardir. Atrof-muhit xususiyatlari bilan izohlanuvchi tashqi omillarni va tadbirkorlikning ichki tashkil etilishi xususiyatlari bilan izohlanuvchi ichki omillari bir – biridan farqlanadi.

Tadbirkorlik faoliyatining muayyan shart - sharoitlarini belgilovchi *tashqi omillarga* quyidagilarni kiritishadi:

- Tabiiy-demografik omillarni iqlimiy sharoit va yerning sifati, xom ashyo bazasi, korxonalarining tarmoqlar bo‘yicha ixtisoslashuvi va joylashishi, ichki kuchidan foydalanish imkoniyatlari va chiqimlar ko‘lamini belgilovchi aholining soni va jinsi hamda yoshiga ko‘ra tarkibi va hokazolar shular jumlasidandir;

- ijtimoiy -ma‘daniy omillarni – ma‘naviy va ahloqiy me‘yorlar, diniy qarashlar, aholining ehtiyoj va talab xususiyatlarining shakllanishiga, tadbirkorlikni tashkil etish xususiyatlariga va ish yuritish odoibiga, tadbirkorlikning o‘ziga munosabatning shakllanishiga ta‘sir o‘tkazuvchi bilim darajasi shular jumlasidandir;

- texnologik omillarni ishlab chiqarishni amalga oshirishning xarakteri va shakllari ham, tadbirkorlik faoliyatining usullari ham izohlovchi mamlakatning industrial rivojlanganlik darajasi, hamda fan va texnika darajasi, texnologiyalar mavjudligi va ularning qo‘llanilishi shular jumlasidandir;

- iqtisodiy omillarni – bank tizimi, sug‘urta sohasining ta‘minot va sotish kanallari rivojlanganligi, bozor vositachilari (maslahat, huquqiy, reklama, transport agentliklari) mavjudligi, tovar almashuvi operatsiyalarining tezkorligi va tadbirkorlik faoliyati imkoniyatlarining kengaytirilishini izohlovchi aloqa vositalarining rivojlanganligi va axborot ta‘minoti shular jumlasidandir;

- huquqiy omillarni – xo‘jalik huquqining rivojlanganlik darajasi, xo‘jalik oboroti agentlarining o‘zaro munosabatlarini tartibga solinganligi, tadbirkorlikning qonun yo‘li bilan himoya qilinganligi davlatning nafaqat tadbirkorlik faoliyati uchun imkoniyatlar bilan ta‘minlovchi, shu bilan birga, uning faolligi darajasini belgilovchi tartibga soladigan boshqaruvning xarakteri shular jumlasidandir;

- siyosiy omillarni tadbirkorlikning jamiyatga ijtimoiy ingegratsiyasi va uning mafkurasini izohlovchi siyosiy institutlar barqarorligi, jamiyat va davlat o‘rtasidagi munosabatlar xarakteri, boshqaruv va qarorlar niqabul qilish usullari shular jumlasidandir.

Tadbirkorlikning ichki omillariga quyidagi jihatlarni aks ettiruvchi omillar kiradi:


- mulkchilik munosabatlarining rivojlanganligi, shu jumladan, bozor agentlarining xo‘jalik sabablari darajasini hamda resurslardan foydalanish ustidan nazoratni belgilovchi xususiy mulk kafolatlarini; xo‘jalik operatsiyalarini amalga oshirish imkoniyatlarini izohlovchi xususiy mulk huquqining aniq belgilanishi; kapital safarbarligini ta‘minlovchi mulk shakllarining rivojlanganligi;

- xo‘jalik bo‘g‘inlari ichki tashkil etilishining xususiyatlari – tashkil etilish ko‘lamlari; tabaqalar tarkibiy tuzilishining xususiyatlari; tadbirkorlik vazifalarini amalga oshirishning mazmuni va shakllariga bevosita ta‘sir etuvchi tashkilotni boshqarishning shakli va xarakteri.

Ijtimoiy xo‘jalikning rivojlanish jarayonida ba‘zi omillarning roli pasayishi yoki mutlaqo o‘z rolini yo‘qotishini, aksincha, boshqa omillarning roli oshib borishi yoki yangi, ilgari mavjud bo‘lmagan omillar amal qila boshlashini nazarda to‘tish muhimdir. Bunday jarayon ayniqsa, o‘tish davri iqtisodiyotlari uchun xos bo‘lib, bunda xo‘jalik yuritishning o‘zgarib borayotgan shart-sharoitlari tadbirkorlikning u yoki bu omillari roli va ahamiyatini tubdan o‘zgartirib yuborishi mumkin.

## 21.8. Tadbirkorlikning vazifalari

Hozirgi zamon bozor iqtisodiyotida tadbirkorlik faoliyatining barcha sohalarini qamrab olgan, uning faoliyati juda ko‘p turli tuman vazifalarni bajarish bilan bog‘liq (21.1- chizmaga qarang). Ana shu vazifalar ikki asosiy guruhga birlashtirilishi mumkin.



**21.1 chizma. Tadbirkorlik faoliyatining sohalarini va vazifalar**

Vazifalarning birinchi guruhi muhit shart -sharoitlariga moslashish va tadbirkorning muhit o‘zgarishlariga moslashish qobiliyatining joriy vazifalarini amalga oshirish bilan bog‘liq. Shu nuqtai nazardan qaraganda, tadbirkorlik vazifalari boshqaruv faoliyatining turlari: moliyani va ishlab chiqarishni, qoidalarni, materiallar oqimini va savdo-sotiqni boshqarish sifatida namoyon bo‘ladi.

Tadbirkorlik vazifalari sifatida ular shaklan boshqaruv hisoblansa ham o‘ziga xos mazmunga ega.

*Moliyani boshqarish* birinchi nazardagina pul mablag‘larini jalb etish va ulardan foydalanish masalalari bilan cheklanadi. Ana shu vazifaning tadbirkorlik mazmuni chuqurroq – xavf-xatarni kamaytirish bilan bir qatorda, imkoni boricha eng yuqori samaradorlikka erishishdan iborat. Tadbirkor ana shu vazifani bajara borib, bir tomondan, safarbar etiladigan moliyaviy resurslar narxini iloji boricha kamaytirishi, ikkinchi tomondan, investitsiya qilingan mablag‘lardan foydalanishning eng samarali usullarini qo‘llab, ana shu mablag‘larning eng yuqori samaradorligiga erishishi lozim. Bu tadbirkor mazkur vazifasining asosiy mazmuni korxonalar aktivlari qiymatining o‘shirishini va uning moliyaviy barqarorligini ta‘minlash ekanligini anglatadi.

*Moddiy texnika ta'minoti vazifasi* ishlab chiqarishni shunchaki zarur resurslar bilan ta'minlash emas, uni kam zaxiralar bilan uzluksiz ta'minlab turishdan iborat. Mazkur masalani hal etishning eng murakkab jihati uning tashkiliy tomoni emas, bozordagi talab va taklifni oldindan bashorat qilib bo'lmashligi hisoblanadi. Bundan tadbirkorning asosiy vazifasi – ishlab chiqarish resurslari bilan ta'minlashning bozor va bozorga aloqasi bo'lmagan shakllarini optimal uyg'unlashtirishdan iborat, degan xulosa kelib chiqadi.

*Ishlab chiqarishni boshqarish* ko'proq texnik va texnologik jihatlar bilan bog'liq, ammo uning tadbirkorlik vazifasi sifatidagi mazmuni kam chiqimlar bilan eng ko'p mahsulot ishlab chiqarish imkonini beradigan ishlab chiqarish omillarining kombinatsiyalarni aniqlashdan iborat.

*Kadrlarni boshqarish* hozirgi zamon tadbirkorligida xodimlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish bilan cheklanmaydi. Bir tomondan, inson omilining ahamiyati oshib borayotgani mehnat resurslari sifatini rivojlantirish haqida g'amho'rlik qilishni, mehnatni baholash va uni rag'batlantirishga boshqacha yondashuvlarni talab qiladi. Ikkinchi tomondan, mehnatning chuqur ixtisoslashishi va tadbirkorlik vazifasi boshqaruvchining turli darajalari bo'ylab tarqoqligi ularni jamlash va ishlab chiqarish barcha qatnashchilarining kuch-g'ayrati bir yo'nalishga qaratilishini ta'minlash muammosini keltirib chiqaradi. Shu sababli kadrlarni boshqarish «inson kapitali» ga eng qimmatbaho resurs sifatida qarab, tobora strategik xususiyat kasb etmoqda, mazkur vazifaning mazmuni esa, xodimlarda tadbirkorlik faoliyatiga dahldorlik tuyg'usini shakllantirishdan iborat bo'lmoqda, bu pirovard natijada uning muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

*Savdo-sotiqni boshqarish* ham ishlab chiqaruvchi emas, iste'molchi asosiy rolni o'ynaydigan, raqobat darajasi yuqori bo'lgan bozor sharoitlarida yangi jihatlarni kasb etmoqda. Savdo-sotiq kanallarini rivojlantirish, qadoqlash, reklama va tovar sifati katta ahamiyatga ega bo'lishiga qaramay sotuv faoliyatining muvaffaqiyatini ta'minlamaydi, muvaffaqiyatni iste'molchi nimalarga imtiyoz berishini aniqlash belgilaydi. Bu savdo-sotiq sohasida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishning tamal toshiga aylanmoqda.

*Vazifalarning ikkinchi guruhi* tadbirkorlikning xo'jalik muhitiga ta'sirini va keltirib chiqaradigan oqibatlarni tavsiflaydi. Shu ma'noda tadbirkorlik o'zini muhitning faol sub'ekti sifatida namoyon etar ekan, o'zgartiruvchilik rolini o'ynaydi, uning mazmuni iqtisodiy, institutsional va ijtimoiy vazifalar orqali ochiladi.

*Iqtisodiy vazifalar.* Raqobat kurashida ustunlikka erishishga intilish tadbirkorni uzluksiz izlanishlar olib borishga, resurslardan yanada samarali foydalanish usullarini qo'llashga majbur qiladi, bu pirovardida ijtimoiy ishlab

chiqarish samaradorligining o‘rishini ta‘minlaydi. Tadbirkor yangilik izlovchi sifatida harakat qilgan ekan, ham resurslarni tejatdigan texnologiyalarni, ham ishlab chiqarishni tashkil etish usullarini yaratadi, bu bilan u resurslarning cheklanganligi muammosini yengib o‘tishga va ekologiya vazifalarini hal etilishiga xizmat qiladi.

Bozor muvozanati o‘rnatishga yordam berish tadbirkorlikning iqtisodiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Tadbirkor bo‘lajak foyda manbaiga munosabat bildirib, taklifni ko‘paytiradi, shunga mos ravishda ne‘matlarni bir joydan boshqa joyga ko‘chiradi, ularni ishlab chiqarishni ko‘paytiradi. Tadbirkor bir bozordagi ortiqcha ne‘matlarni ular kamayib bo‘lgan boshqa bozorlarga ko‘chirgan ekan, tovar bozorlarida muvozanat o‘rnatilishiga xizmat qiladi. Ikkinchi tomondan, qo‘shimcha resurslarni jalb etish hisobiga tadbirkor ularning nisbatan bir tekis taqsimlanishiga xizmat qiladi, shu bilan resurslar bozorida muvozanat bo‘lishini ta‘minlaydi.

*Institutsional vazifalar.* Tadbirkor innovatsiya faoliyati vositasida bozordagi vaziyatni o‘ziga foydali yo‘nalishda o‘zgartirishga intilib, yangi ne‘matlarni, texnologiyalarni yaratibgina qolmaydi, shu bilan birga, u tarkib topgan bozor muhitini o‘zgartira borib, uning eski institutlarini yangilaydi va yangi institutlarini – bozorlarni, raqobatning shakl va usullarini, resurslarni muvofiqlashtirish usullarini va tadbirkorlikning yangi shakllarini yaratadi.

*Ijtimoiy vazifalar.* Xo‘jalik yuritishning eng yaxshi natijalari uchun kurash tadbirkorni ishlab chiqarilayotgan ne‘matlarning turlarini ko‘paytirish va yangilash, ularga yangi iste‘mol xususiyatlarini berish haqida muntazam g‘amho‘rlik qilishga majbur etadi. Natijada, iste‘mol tanlovini optimallashtirish uchun, bu demak, ijtimoiy farovonlikning o‘rishi borasida imkoniyatlar yaratildi. Tadbirkorlik vazifalarining murakkablashib borishi va tadbirkorlik jarayoniga ko‘proq qatnashchilarning jalb etilishi jamiyatning ijtimoiy integratsiyasiga xizmat qiladi. O‘z navbatida, ijtimoiy integratsiya zamirida tadbirkorlikni amalga oshirish boshqaruv va xususiy mulk munosabatlarning demokratiyalashuviga yordam beradi. Bu ijtimoiy -sinfy mavjudlikning yengib o‘tilishiga olib keladi va jamiyatning ijtimoiy taraqqiyotini ta‘minlaydi. Ro‘y berayotgan ijtimoiy o‘zgarishlar, o‘z navbatida, tadbirkorlik faoliyatini ma‘lum darajada cheklaydi: xo‘jalik oborotining barcha qatnashchilari manfaatini inobatga oluvchi tadbirkorlik shakllanadi va uni «madaniylashgan», deb atash mumkin bo‘ladi.

## **21.9. Tadbirkorlikni tashuvchilar**

Xo‘jalik faoliyatining hamda u orqali oshiriladigan tashkiliy tuzilmalarning (murakkab tabaqalashgan tashkilotlar) murakkablashib borishi

nafaqat maxsus bilimlarni va vazifalarning ixtisoslashuvini, shu bilan birga, qaror qabul qilish jarayonini parchalash yo‘li orqali tadbirkorlik vazifasining o‘zi ham taqsimlab yuborilishini taqozo etadi. Hozirgi zamon yirik ishlab chiqarishida qaror qabul qilish, shu jumladan, strategik ahamiyatga ega qarorlarni ham qabul qilish ma‘muriyat ixtiyoriga berilgan, xususiy mulk egasi uning faoliyatiga odatda, boshqa iloj qolmagan hollardagina aralashadi. Parallel ravishda boshqarma xodimlari faoliyati ustidan, ham mulk egasi tomonidan, ham jamiyat tomonidan nazoratning murakkab mexanizmi tarkib topadi. O‘z navbatida, ma‘muriyat boshqaruv vazifalarining bir qismini boshqaruvning quyi bo‘g‘inlariga topshiradi, bu raqobatlashish va nazoratning murakkab tizimi tarkib topishi bilan kechadi. Natijada, tadbirkorlik vazifasi tobora sochilib, boshqariladigan va nazorat qilinadigan bo‘lib qoladi.

*Tadbirkorlikni tuzuvchilar* – bu iqtisodiy faoliyatning tadbirkorlik vazifalari amalga oshirilishini ta‘minlovchi sub’ektlardir. Shu sababli tadbirkorlikni tashuvchilar haqidagi masalani hal etishning kaliti naqadar muhim bo‘lmasin, tadbirkorlikning u yoki bu alomatini biror shaxsga yuklash emas, tadbirkorlik vazifasini amalga oshirish yo‘sinini aniqlash hisoblanadi. Qarorlarni qabul qilish bo‘yicha barcha vakolatlar mulk egasida jamlangan hollarda aynan uning o‘zi tadbirkorlikning bevosita tashuvchisi vazifasini o‘taydi. Vakolatlar boshqaruvning turli darajalari o‘rtasida taqsimlangan bo‘lib, tadbirkorlik faoliyati butun jamoa kuch-g‘ayrati safarbar etilgan taqdirdagina mumkin bo‘lgan hollarda, tadbirkorlik jarayoniga uning barcha qatnashchilarini jalb etish tadbirkorlikni amalga oshirishning ob‘ektiv shartiga aylanadi, tadbirkorlikning o‘zi esa, jamoa faoliyatining vazifasiga aylanadi, tashkilot tadbirkorlikni tashuvchi bo‘lib chiqadi. Tashkilotning hozirgi zamon tadbirkorligining tashuvchisi sifatida qabul qilinishi uning tabiati yoki mazmun jihatida o‘zgarishini anglatmaydi, aksincha, tadbirkorlikni amalga oshirish modeli nazaridan eng muhim alomatlar (korxonani tashkil etish va tugatish, faoliyatining maqsadlarini) belgilash mulk egasi tomonida bo‘lgani sababli, har qanday holda ham boshqaruvni mulk egasining manfaatlarini amalga oshiruvchi faoliyat deb tushinish lozim. Sabab, tizimlarining tadbirkorlik vazifalari taqsimlanishiga o‘xshash – nazorat va tadbirkorlik faoliyati qatnashchilarining rag‘batlantirilishi ham, shakllantirilishi ham mulk egasi nazorati ostida kechadi.

### **21.10. Tadbirkorlikning tashkiliy shakllari**

Tadbirkorlikning ko‘pchilik turdagi tuzilishi tadbirkorlikning uchta tashkiliy shakllarini o‘z ichiga oladi: yakka tartibdagi, sherikchilik va korporativlik. Bunday shakllarni ikki turga bo‘lish kerak – xususiy va umumiy.

Birinchi guruhga yakka tartibdagi, tadbirkorlik va sherikchilikdagilar kiritiladi. Ikkinchisiga esa, korporativlik.

Bunday bo‘linish noformal xarajatlarga ega. Birinchidan, yakka tartibdagi va shirkatdagi shakllari.

**Yakka tartibdagi tadbirkorlar.** Yakka tartibdagi tadbirkorlar – tijorat faoliyatini o‘ziga qarashli mol-mulk asosida amalga oshiradigan, mol-mulkni bevosita boshqaradigan va ularga to‘la mas’ul bo‘lgan shaxslardir. Bir kishi olib boradigan tadbirkorlik – tadbirkorlikning eng oddiy va keng yoyilgan shaklidir. Odatda, u savdo va xizmat ko‘rsatuvchi kichik korxonalaridan, hunarmandchilik ustaxonalari va dehqon xo‘jaliklaridan iborat. Uning keng yoyilganligi nafaqat tashkil etish va rasmiylashtirishning soddaligi, shu bilan birga, uning bir qator afzalliklari – sababning kuchliligi, operativligi va qayishqoqligi bilan izohlanadi.

Yakka tartibdagi tadbirkorlikka da’vatning kuchliligi nafaqat butun daromadning o‘zlashtirilishi, shu bilan birga, shaxsiy qoniqish tuyg‘usini hosil qiluvchi, shuningdek, jamiyatdagi mavqeni ta’minlovchi boshqaruv faoliyatiga dahldorlik bilan izohlanadi. Bevosita iste’molchilar bilan ish olib boradigan yakka tartibdagi tadbirkorlar bozordagi talabdan ko‘proq xabardor bo‘ladilar, talab va taklifning arzimagan o‘zgarishlariga ham tezda munosabat bildirishga qodir. Ishlab chiqarishni kichik ko‘lamlarda amalga oshirar ekan, ular nisbatan raqobatbardoshli mahsulot ishlab chiqarishni tezda yo‘lga qo‘yishlari mumkin, bu sezilarli imtiyozlarni beradi.

Yakka tartibdagi tadbirkorlikning imtiyozlarini beradigan omillar ayni vaqtda teskari ta’sir o‘tkazishi ham mumkin. Birinchidan, yolg‘iz tadbirkorning moliyaviy imkoniyatlari cheklangan bo‘ladi, u yirik ishlab chiqarishni tashkil etishga qodir emas. Bu demak, u resurslarni oz-ozdan xarid qilari ekan, qimmatroq haq to‘lashga majbur, ishlab chiqarishning kichik ko‘lami esa, unga shu ko‘lam berishi mumkin bo‘lgan butun tejamkorlikdan foydalanish imkonini bermaydi. Bularning hammasi jiddiy iqtisodiy chiqimlarga olib keladi, mayda tadbirkorning raqobatbardoshligini kamaytiradi. Ikkinchidan, bir shaxsning turli vazifalarni – boshqaruv, ta’minot, moliya, marketing va kadrlarni boshqarish ishini bajarishda rahbarlik samaradorligini pasaytiradi. Bu umuman, zimmadagi vazifalarning ko‘pligi bilan ham izohlanadi. Shunday bo‘lsa ham tadbirkorlikning yakka tartibdagi ko‘rinishini asosiy kamchiligi tadbirkorning to‘liq xo‘jalik mas’uliyati hisoblanadi. U o‘z «ishi»ning tobesiga aylanib qoladi, chunki tadbirkor hususiy jihatdan nafaqat korxonalar bilan, ayni vaqtda o‘zining butun mol-mulki bilan javob beradi, bu tavakkalchilikning xavfini haddan tashqari oshiradi, yangiliklarni izlanish yo‘lida g‘ov bo‘ladi.

**Shirkat (shirikchilik).** Yuqorida aytib o‘tilgan kamchiliklarni shirkat tashkil etish vositasida bartaraf etish mumkin. Shirkat (shirikchilik) yopiq turdagi, mulkni ishga safarbar etish asosida birgalikda faoliyatni amalga oshiruvchi va boshqaruvda bevosita ishtirok etuvchi qatnashchilarning soni cheklangan birlashmadan iborat.

Shirkatni tavsiflovchi jihatlar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: 1) qatnashchilarni tarkibi cheklanganligi; 2) tadbirda pay qo‘shib ishtirok etilishi; 3) shaxsiy mol-mulk bilan javobgarlik.

Tashkiliy jihatdan olganda, shirkat qatnashchilari o‘rtasida shartnoma tuzilishini talab qilsa ham, tadbirkorlikning nisbatan sodda ko‘rinishi bo‘lib qolaveradi. U yakka tartibdagi tadbirkorlikning afzalliklarini saqlab qolgani holda, resurslarni jalb qilish, jumladan, kredit manbalarini jalb etish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Shirkat – bu tadbirkorlik sohasidagi xavf-xatarni kamaytirish usuli hamdir: xavf- xatar shirkat qatnashchilari o‘rtasida taqsimlanishi bois kamayib boradi. Bundan tashqari, ko‘pchilik bilimlarning qo‘shilishi, boshqaruvning muayyan vazifalariga ularning ixtisoslashuvi yakka tartibdagi tadbirkor duch keladigan muammolarni ma‘lum darajada bartaraf etadi.

Shu bilan birga, shirkat ham kamchiliklardan xoli emas. Birinchidan, boshqaruv vazifalarining shirkat qatnashchilari o‘rtasida taqsimlanishi yetakchilik uchun ko‘rashda ziddiyatlar keltirib chiqarishi mumkin. Bundan tashqari, qaror qabul qilish tezkorligi pasayadi. Ikkinchidan, shirkat qatnashchilarning haddan tashqari mas‘uliyatini saqlab qoladi, bu ma‘lum darajada o‘zgaralar yo‘l qo‘yishi mumkin bo‘lgan xatolar bilan izohlanadi. Bularning hammasi tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishning ana shu ko‘rinishini ma‘lum darajada zaif qilib qo‘yadi, shu sababli u nisbatan kam yoyilgan.

**Korporatsiya.** Korporatsiya – kapitalda paychilik bilan ishtirok etishga asoslangan birlashma bo‘lib, uning yuridik huquqi va majburiyatlari qatnashchilarning huquq va majburiyatlaridan farq qiladi.

Tadbirkorlikni tashkil etishning korporativ shakli XIX asr oxirlarida tarkib topgan bo‘lib, bu jamiyat ishlab chiqaruvchi kuchlarini rivojlantirish borasida sifat siljishlari bilan izohlangan edi. U shunday shakl bo‘ldiki, bir tomondan safarbarligini ta‘minlab, moliyaviy mablag‘larni jalb etish bazasini kengaytirdi, ikkinchi tomondan, moliyaviy mablag‘lar ko‘lami haddan tashqari kengayganligi munosabati bilan shaxsiy xavf-xatar darajasini chekladi. Hozirgi zamon iqtisodiyotida korporatsiyalar tarkibida kamtarona ulushga, ya‘ni 20–25 foizdan ko‘proq ulushga ega bo‘lishiga qaramay, xo‘jalik oborotining 80–90 foizini ta‘minlaydi.



Birinchi dan, mulkiy mas'uliyatning cheklanishi investitsiyalarga aholining keng qatlamlarini jalb etish imkonini berdi, nisbatan tez, qisqa vaqt ichida katta hajmdagi kapitalning markazlashtirilishini ta'minlaydi. Bundan tashqari, xavf-xatarning qisqarishi tadbirkorlikning yangilik izlanishi faollashuviga xizmat qildi. Ikkinchi dan, boshqaruvning xususiy mulkdan ajratilishi korporatsiyaga endilikda uning muassislari va qatnashchilaridan qat'i nazar, faoliyat yuritadigan xo'jalik tuzilmasi sifatida katta turg'unlik baxsh etdi. Uchinchi dan, qimmatbaho qog'ozlarning rivojlangan bozori sharoitlarida pay qo'shib ishtirok etishining aksiyalar savdo -sotig'i orqali to'siqsiz ko'chirilishi yana bir jiddiy imtiyozni – yuksak darajadagi qadrilikni ta'minlaydi, ya'ni investitsiya qilingan mablag'larni tezda pul ko'rinishiga aylantirish imkonini beradi, bu investorlarning keng ommasi uchun g'oyatda maqbul hisoblanadi.

Boshqa har qanday shakl kabi korporatsiya ham kamchiliklardan xoli emas. Avvalambor, bu tashkiliy qiyinchiliklar bilan bog'liq, mazkur shaklni rasmiylashtirish va ro'yxatdan o'tkazishda vujudga keladigan qiyinchiliklar shular jumlasidandir. Ularni bartaraf etish talaygina kuch-g'ayrat va mablag'larni talab qiladi. Bundan tashqari korporatsiyani tashkil etish tartibining o'zi nisbatan qattiq. Tadbirkorlikni tashkil etish korporativ shaklining jiddiy kamchiligi soliq ikki marotaba – avval korporatsiya daromadiga, so'ngra aksiyadorlarning dividendlariga solinishi bilan bog'liq ortiqcha soliq yuki hisoblanadi. Moliyaviy ahvol haqidagi yillik hisobotlarni majburiy e'lon qilish ko'rinishidagi oshkoralikning talab qilinishi korporatsiyani raqiblar oldida zaif qilib qo'yishdan tashqari, boshqaruvchilarni aksiyadorlar talablarini qondirish va investorlarni jalb etish uchun qisqa muddatli maqsadlarga rag'batlantiradi.

Shunga qaramay korporativ shaklning eng keskin muammosi – bu aksiyadorlar va boshqaruvchilar o'rtasidagi munosabatlarning murakkabligidir. Huquqiy jihatdan aksiyadorlarga qarashli bo'lgan korporatsiya kamdan-kam holda ularning o'zi tomonidan boshqariladi. Odatda, aksiyadorlarning boshqaruvga ta'siri rahbar organlarni saylash va iqtisodiy strategiyani ishlab chiqishda ishtirok etish bilan chegaralanadi. Amaliyotda aksiya egalarining boshqaruvga ta'sir o'tkazish borasidagi imkoniyatlari axborot hamda malaka yetishmovchiligi natijasida keskin chegaralanadi. Shu sababli aksiyadorlar ko'pincha rahbariyat takliflarini qo'llab-quvvatlashga moyil bo'ladilar, natijada, rosmi hokimiyat korporatsiyaga kundalik rahbarlik qiluvchi boshqaruvchilar yo'lida to'planadi.

Korporativ birlashmalar turli shaklda bo'lishi mumkin. Shular ichida eng keng tarqalgani – qimmatbaho qog'ozlarni – aksiya va obligatsiyalarni chiqarish yo'li bilan kapitalni safarbar etuvchi aksiyadorlik jamiyati

hisoblanadi. Aksiya egalari jamiyatning egalari hisoblanadi, ular boshqaruvda ishtirov etish huquqiga ega bo'lsalar ham, daromad borasida hech qanday kafolatlarga ega bo'lmaydilar. Obligatsiya egalari belgilangan daromadni olishsa ham, faqat kreditorlik rolini bajarib, boshqaruvda ishtirok etishmaydi. Aksiyadorlik jamiyatining eng asosiy, boshqalardan farq qiluvchi jihati uning qimmatbaho qog'ozlari ochiq bozorda erkin muomala qilishidir.

Korporativ tashkilotning boshqa bir turi – korporatsiya va sherikchilik jihatlarining uyg'unlashuvidan iborat bo'lgan S korporatsiya deb atalmish tashkilotlardir. Aksiyadorlik jamiyatidan farqli ravishda S korporatsiya qatnashchilarining soni qonun yo'li bilan chegaralanadi, tashkilotning o'ziga xos xususiyatlari ikki bora soliq to'lashdan qutilish imkonini beradi. Shuningdek, kasbiy korporatsiyalar ham keng yoyilgan, ular kasb alomatlari bo'yicha – huquqshunoslar, shifokorlar va hokazolar birlashmasidan iborat bo'lib, yopiq turdagi aksiyadorlik jamiyatining o'ziga xos shakli sifatida namoyon bo'ladi. Xoldinglar (nisbatan yuqori darajadagi korporativ tashkilotlar) boshqa korporatsiyalarga qarashli aksiyalarning egalari hisoblanadi, jamiki korporativ hamjamiyat boshqaruvining o'ziga xos ko'rinishi vazifasini o'taydi.

### 21.3-jadval

#### Tadbirkorlik tashkiliy shakllarining tavsiflari

Tavsiflar nomi	Yakka tartibdagi tadbirkorlik	Sherikchilik	Korporatsiya
Tashkil etish murakkabligi	Tashkil etishning soddaligi va osonligi, tashkil etish va rasmiylashtirish harakatlarining kamligi	Yakka tartibdagi tadbirkorning xususiyatlari bilan bir xil, o'nga qatnashchilar o'rtasidagi shartnoma qo'shiladi	Talaygina kuch-g'ayrat va moddiy xarajatlarni talab qiladi, bu maxsus qonun vositasida boshqarilishi bilan bog'liq
Kapitalni safarbar etish qobiliyati	Mulk egasining omonatlari hajmi bilan cheklangan	Qatnashchilar omonatlarini birlashtirish yo'li bilan kapitalni jalb etish imkoniyatini kengaytiradi	G'oyatda yuqori qimmatbaho qog'ozlarni muomalaga chiqarish yo'li bilan kapitalni tez safarbar etishi mumkin
Mulk egasi mas'uliyatining ko'lamlari	Barcha majburiyatlar, shu jumladan mol- mulk majburiyati bo'yicha to'liq javobgarlik	Subsidiyalar, jumladan, qatnashchilar mol- mulki bo'yicha to'liq taqsimlangan	Ushlab turilgan qimmatbaho qog'ozlar qiymati bilan cheklangan

Mulk egasi tomonidan nazorat darajasi	Butun faoliyat ustidan to'liq nazorat qilish	Qatnashchilar o'rtasida taqsimlangan, bu kelishmovchiliklar manbai hisoblanadi	Ushlab turilgan aksiyalar ulushiga muvofiq ravishda
Faoliyatining davomiyligi	Egasining hayoti bilan chegaralangan	Sheriklar o'rtasidagi bitim shartlariga bog'liq	Cheklanmagan, faqat bankrot bo'lgan taqdirdagina to'xtatiladi.
Soliq solinishi	Xususiy daromadlarga soliqlar stavkasi bo'yicha	Yakka shaxsga qarashli korxonalaridagi kabi	Ikki marotalab soliq solish
Qadriligi	Past, sotish mushkulliklari	Nisbatan past, nayni sotish mushkulliklari	Yuksak

### 21.11. Tadbirkorlik faoliyatining qatnashchilari

Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishning o'zi mulkiy vakolat munosabatlarining xarakteriga ko'ra bir xil emas, u tashkil etish va boshqarish tamoyillari turlicha bo'lgan shakllarni o'z ichiga olishi mumkin. Bu ularning tegishli ravishda rasmiylashtirilishini talab qiladi. Shu sababli amaliyotda tadbirkorlik faoliyati muayyan, nafaqat tashkiliy shaklning o'z xizmat xususiyatlarini, shu bilan birga, mamlakat huquqiy tartibining milliy xususiyatlarini aks ettiruvchi xo'jalik-huquqiy shakllarining tarkibiy tuzilishi O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi bilan belgilangan. Mazkur kodeks tadbirkorlik faoliyatining barcha qatnashchilarini huquqiy maqomiga ko'ra jismoniy va yuridik shaxslarga, faoliyatining maqsadiga ko'ra – tijorat va notijorat tashkilotlariga ajratadi.

**Jismoniy va yuridik shaxslar.** Yuridik shaxs maqomini olmay turib, o'z mol-mulki bilan javobgarlik asosida tadbirkorlik faoliyatini olib boruvchi fuqarolar jismoniy shaxslar qatoriga kiritiladi. Yakka tartibdagi tadbirkorlar va dehqon xo'jaliklari shular jumlasidandir.

Tashkilotlar, shu jumladan, ajratilgan mol-mulkka, mustaqil balansga ega, mulkiy va nomulkiy huquqlarni qo'lga kiritadigan, hamda ularga nisbatan majburiyatlar bo'yicha o'z mol-mulki bilan javob beradigan ayrim fuqarolar yuridik shaxs, deb e'tirof etiladi.

Yuridik shaxslar, birinchidan, faoliyatining maqsadi bo'yicha tijorat va notijorat tashkilotlariga tabaqalashadi. Ikkinchidan, ular yuridik shaxs mulkiga nisbatan muassislarning vakolati xarakteriga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Birinchi guruhni yuridik shaxs hisoblanuvchi qatnashchilari qonun va ta'sis shartnomasi bilan belgilangan majburiy huquqlarga ega xo'jalik shirkatlari va jamiyatlari, ishlab chiqarish va iste'mol kooperativlari tashkil etadi. Mulk

qatnashchilari egalik huquqiga ega, yuridik shaxslarning boshqa bir guruhiga qo'shma korxonalar va mulk egasi tomonidan ta'minlanadigan muassasalar kiradi. Uchinchi guruh – bu jamoat va diniy tashkilotlar, xayriya jamg'armalari, yuridik shaxslarning ittifoqlari va uyushmalaridir. Qatnashchilar ularga nisbatan mulkiy huquq va majburiyatlarga ega emas. Uchinchidan, yuridik shaxslar tashkilotning xususiyatlaridan kelib chiqib, bir qator shakliy turlarga taqsimlanadi (21.2- chizmasi).

**Tijorat tashkilotlari.** O'z faoliyatining asosiy maqsadi sifatida foyda olishni ko'zlovchi tadbirkorlik uyushmasi tijorat tashkiloti hisoblanadi. Xo'jalik shirkatlari va jamiyatlari, qo'shma korxonalar va ishlab chiqarish kooperativlari tijorat tashkilotlari qatoriga kiradi. Tijorat tashkilotlari faqat O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksida ko'zda tutilgan huquqiy shakllarda tashkil etilishi mumkin.

**Xo'jalik shirkatlari va jamiyatlari** – tijorat uyushmalarining nisbatan keng tarqalgan shakli hisoblanadi. Ular fuqarolar, yuridik shaxslar va mulk egasining ruxsati bilan muassasalar tomonidan tashkil etilishi mumkin. Qonun faqat davlat va munitsipal organlargagina xo'jalik shirkatlari va jamiyatlarning a'zosi bo'lishlarini man etadi. Kapitalda pay qo'shib ishtirok etish, shu jumladan, muassislarning omonatlari hisobiga tashkil etilgan, faoliyati jarayonida qo'lga kiritilgan butun mol-mulkning egalik huquqi bo'yicha qatnashchilarga qarashli ekanligi ularning asosiy xususiyati hisoblanadi. Qatnashchilarning favqulotda vakolatga ega yig'ilishlari ularni boshqaruvchi oliy organ hisoblanadi.

Omonatchilar birlashmasi shaklidagi farq ana shu shakllarni bir-biridan chegaralovchi alomat hisoblanadi. A'zolik va kapitalni birlashtirish asosida qurilgan tuzilmalar shirkatlarni tashkil etadi, ayni vaqtda jamiyatlar faqat kapitallarni birlashtirish zahirida tashkil topadi. Bu shunchaki rasmiy farq emas, chunki u bir tomonda muassasalarning xo'jalik mas'uliyatini darajasini, ikkinchi tomondan – ularning tashkil etilgan tadbirkorlik tuzilmasi bilan munosabatlar xarakterini izohlaydi. Shirkatning muassislari uning majburiyatlari bo'yicha birgalikda to'liq javobgardirlar, vaholanki, jamiyat qatnashchilarning xo'jalik borasidagi xatari ularning omonatlari bilan chegaralanadi. Shirkat muassislarining shirkat faoliyatida va uni boshqarishda bevosita shaxsan ishtirok etishini taxmin qiladi, jamiyat va uning muassislari o'rtasidagi munosabatlar fuqarolik huquqiy munosabatlari, ya'ni fuqarolik shartnomasi zahiriga quriladi.

Xo'jalik shirkatlari to'la xo'jalik shirkati va ishonchga asoslangan shirkat shaklida tashkil etilishi mumkin. To'la xo'jalik shirkati (TXSh) – yopiq turdagi, qatnashchilarining soni cheklangan, pay shaklidagi mulkka

asoslangan, uning qatnashchilari shirkatning majburiyatlari bo'yicha butun mol-mulklari bilan to'liq javobgardirlar. TXSh kamida ikki shaxs tomonidan tas'is etilishi mumkin, faoliyat yuritayotgan shirkatda bir qatnashchi qolgan taqdirda, u tugatilishi yoki boshqa shaklda tashkil etilishi lozim.

Shirkatning faoliyati hamda har bir qatnashchisi vakolatlari ta'sis shartnomasi bilan tartibga solinadi. TXSh faoliyatini boshqarish umum roziligi bilan amalga oshiriladi. Ayni vaqtda qatnashchilar qarorlarni yalpi ovoz berish, ish olib borishni uning ayrim qatnashchilariga topshirish orqali ham birgalikda ish yuritishlari mumkin. Shirkatning foyda va zarari yig'ma kapitaldagi ulushlarga mutanosib ravishda uning qatnashchilari o'rtasida taqsimlanadi.

Qatnashchilarning favqulotda yuksak darajadagi xo'jalik mas'uliyati TXShning asosiy o'ziga xos jihati hisoblanadi. Ular o'zlarining butun mol-mulklari bilan o'zaro to'liq javobgardirlar.

***Ishonchga asoslangan (kommandit) shirkat*** – shirkat majburiyatlari bo'yicha mol-mulklari bilan to'liq javobgar bo'lgan qatnashchilarni hamda javobgarligi qo'shgan ulushi hajmi bilan chegaralanadigan omonatchilarni o'z ichiga olgan yopiq turdagi birlashmadir.

Muassislar – to'liq qatnashchilar va omonatchilar o'rtasidagi xo'jalik mas'uliyati darajasidagi farq va shu farqdan kelib chiqadigan ularning vakolatlari o'rtasidagi tafovut ishonchga asoslangan shirkatning o'ziga xos xususiyati hisoblanadi. To'liq qatnashchilardan farqli ravishda omonatchilar shirkat nomidan ish yuritish huquqiga ega emas, ular shirkat faoliyatini boshqarishda ishtirok etmaydilar, hatto to'liq qatnashchilarning shirkat ishlarini olib borish bo'yicha xatti -harakatlarini muhokama qilishga haqli emaslar. Ammo shirkat tugatilgan taqdirda, shirkat mol-mulkdan omonatlarni qaytarib olish borasida to'liq qatnashchilarga qaraganda imtiyozli huquqqa egadirlar.

***Xo'jalik shirkati*** – mas'uliyati cheklangan jamiyat, qo'shimcha mas'uliyatga ega jamiyat va aksiyadorlik jamiyati shaklida tashkil etilishi mumkin.

Mas'uliyati cheklangan jamiyat – tadbirkorlikning tashkiliy shakllaridan biri bo'lib, jamiyat majburiyatlari bo'yicha mol-mulklari bilan javobgar bo'lmagan cheklangan qatnashchilar sonining kapitallarini birlashtirishga asoslangan.

Mas'uliyati cheklangan jamiyat bir yoki bir nechta qatnashchilar tomonidan ta'sis etilishi mumkin, ammo ularning soni qonunda belgilangan miqdordan oshmasligi kerak. Shu turdagi jamiyat o'z faoliyatida muassislar tomonidan imzolangan ta'sis shartnomasiga hamda ular tasdiqlagan va jamiyat boshqaruvning asosiy qoidalari aks etgan nizomga amal qiladi. Jamiyat

aktivlarini shakllantirish muassislarning omonatlari hisobiga amalga oshiriladi.

Jamiyatni boshqarish muassislarning umumiy yig'ilishi va ular tomonidan tashkil etilgan ijroiya organi orqali amalga oshiriladi. Umumiy yig'ilish nizomni, nizom jamg'armasi hajmini o'zgartirish va moliyaviy hisobotni tasdiqlash borasida favqulotda vakolatga ega. Jamiyat faoliyatiga joriy rahbarlik ijroiya organi orqali – muassislarning umumiy yig'ilishida qabul qilingan qaroridan kelib chiqib, ko'pchilik yoki yakka shaxs tomonidan amalga oshiriladi. Ijroiya organi o'z faoliyatida nizom qoidalariga ,xo'jalikka doir qonunlarga amal qiladi.

**Qo'shimcha mas'uliyatga ega jamiyat** – o'z zimmasiga jamiyat majburiyatlari bo'yicha qo'shimcha mulkiy mas'uliyatni qabul qiluvchi cheklangan miqdordagi qatnashchilarning kapitallarini birlashtirishga asoslangan tadbirkorlikning tashkiliy shaklidir.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatga berilgan barcha tavsiflarni qo'shimcha mas'uliyatga ega jamiyatga nisbatan ham qo'llasa bo'ladi. Qatnashchilarning mulkiy mas'uliyati miqdorigina bundan mustasno: ularning xavf-xatari qo'shgan omonatlari hajmi bilan cheklanmaydi, kreditorlar oldidagi o'z majburiyatlarini bajarish uchun jamiyatning mablag'lari yetishmay qolgan taqdirda, yetishmagan mablag'lar qatnashchilar tomonidan qo'shgan omonatlariga mutanosib ravishda kiritiladi.

**Aksiyadorlik jamiyati (AJ)** - aksiyalarning chiqarish yo'li bilan kapitallarni birlashtirishga asoslangan uyushma. AJ qatnashchilari jamiyatning majburiyatlari bo'yicha mulkiy javobgar emas, ular o'zlari sotib olgan jamiyatning qimmatbaho qog'ozlari qiymatiga teng miqdorda javob beradilar xolos.

Muassislar o'rtasida tuzilgan shartnoma aksiyadorlik jamiyatini tashkil etish uchun asos hisoblanadi. Ayni vaqtda AJ ni tashkil etish jarayonining o'zi aksiyadorlik jamiyatlari haqidagi qonun bilan tartibga solinadi. Aksiyadorlik jamiyati xususiylashtirilayotgan korxonada bazasida tashkil etilganida uni tashkil etish xususiylashtirish haqidagi qonun bilan tartibga solinadi.

Kapitalning qatnashchilar o'rtasida taqsimlanadigan aksiyalar ma'lum miqdorga bo'linishi AJ ning o'ziga xos xususiyati hisoblanadi, ammo bu AJning bir shaxs tomonidan tashkil etilishini istisno qilmaydi, bu holda aksiyalarning butun paketi ana shu shaxs qo'lida bo'ladi.

AJ ro'yxatga olingunga qadar uning majburiyatlari bo'yicha muassislar to'la mas'ul bo'ladilar, ammo keyinchalik yuridik shaxs maqomini qo'lga kiritganidan so'ng, o'z muassislaridan to'la mustaqil xo'jalik sub'ektiga va o'z mulkining yagona egasiga aylanadi. Bu holda AJ ulushlardan tashkil topgan

mulk shaklini qabul qilmaydi, uning aksiyadorlari esa, AJ mulkning egasi hisoblanmaydi. Aksiyadorlar faqat boshqaruvda ishtirok etish va ma'lum miqdordagi daromadni olish huquqiga ega bo'ladilar.

AJni boshqarish aksiyadorlarning favqulotda vakolatga ega umumiy yig'ilish va ijro organlari orqali amalga oshiriladi. Joriy rahbarlikni amalga oshiruvchi bevosita boshqaruv organi hamda aksiyadorlar soni ellik nafardan ko'p bo'lgan taqdirda Direktorlar kengashi yoki Kuzatuv kengashi ijro organi vazifasini o'tashi mumkin. Bu holda AJ ijro organlarining vakolatlari va qarorlarni qabul qilish tartibi nafaqat jamiyat nizomi, shu bilan birga, aksiyadorlik jamiyatlari haqidagi qonun bilan tartibga solinadi.

Aksiyalar muammosi xarakteriga ko'ra, AJ ochiq va yopiq turdagi aksiyadorlik jamiyatlariga bo'linadi. Qatnashchilari o'zlariga tegishli aksiyalarni boshqa aksiyadorlarning roziligisiz yagona shaxslarga berishi mumkin bo'lgan aksiyadorlik jamiyati ochiq turdagi AJ, deb e'tirof etiladi va ularning aksiyalari erkin sotuvga chiqariladi hamda qimmatbaho qog'ozlar bozorida muomala qiladi: yopiq turdagi aksiyadorlik jamiyatining aksiyalari faqat jamiyat muassislari o'rtasida tarqatiladi, ularning begona shaxslarga berilishi AJ nizomi qoidalari bilan tartibga solinadi. Ochiq turdagi AJdan farqli ravishda yopiq turdagi AJning qatnashchilari soni qonun bilan chegaralanadi.

AJni tugatish ko'ngilli ravishda umumiy yig'ilish qarori bilan yoki qonunda belgilangan tartibda ro'y berishi mumkin. AJ mas'uliyati cheklangan jamiyatga yoki ishlab chiqarish kooperativiga aylantirilishi mumkin.


***Ishlab chiqarish kooperativi (arteli)*** – shaxsiy ishtirok vositasida xo'jalik faoliyatini birgalikda yuritish uchun tashkil qilingan, a'zolikka asoslangan fuqarolarning ko'ngilli birlashmasidir.

Artel soni besh nafardan kam bo'lmagan fuqarolar tomonidan tashkil etilishi mumkin. Bu holda ularning birortasi ham boshqa shunga o'xshash kooperativda ishtirok eta olmaydi. Artel asosini jismoniy shaxslar tashkil etishi lozim bo'lsa ham, unda yuridik shaxslarning ishtirok etishiga yo'l qo'yiladi, bu kooperativ nizomida tilga olingan bo'lishi lozim.

Kooperativ aktivlari qatnashchilarining pul va mulkiy badallari hisobiga tashkil etiladi. Paylarga taqsimlangan kooperativ mulki mulkiy ulush hisoblanadi, artelning har bir a'zosi o'nga tegishli pul ko'rinishidagi paygagina emas, kooperativ mulkning bir qismiga ham o'z da'vogarligini saqlab qoladi.

Kooperativ shakli barcha qatnashchilarning boshqaruvda teng ishtirok etishini ko'zda tutadi. Pay miqdoridan qat'i nazar artelning har bir a'zosi bir ovozga ega bo'ladi. Ishlab chiqarish kooperativini boshqarish bevosita uning tomonidan amalga oshiriladi. Boshqaruv yoki Kengash faqat qatnashchilardan tarkib topadi.

**Unitar korxonalar** – yuridik shaxs maqomiga ega tijorat tashkilotidir, uning mulkka egalik huquqi uning muassislari tomonidan mustahkamlab qo‘yilgan.



**21.2-chizma. O‘zbekiston Respublikasida tadbirkorlik faoliyati qatnashchilari.**

Mulkning bir shaxs qo‘lida jamlanishi unitar korxonaning asosiy belgisi hisoblanadi. Unitar korxonaning mol-mulki ulushlarga, paylarga bo‘linishi yoki aksiyalarga aylantirilishi mumkin emas. Unitar korxonaning o‘zi o‘nga birlashtirilgan mol-mulkning egasi hisoblanmaydi. Bu mol-mulk muassisga tegishli.



Qonunda unitar korxonalarining ikki turi: xo‘jalik yuritish huquqiga asoslangan va tezkor boshqaruv huquqiga asoslangan korxonalarining faoliyat yuritishi nazarda tutilgan. Ular o‘rtasidagi farqlar vakolatlarining mazmuni va hajmidagi farqlariga borib taqaladi, bu vakolatlarni ular mulk egasidan o‘zlariga birlashtirilgan mulkni mulk egasi belgilagan sarhadlarda mustaqil idora qilishini nazarda tutuvchi xo‘jalik yuritish huquqi mulkdan faqat mulk egasining topshirig‘iga muvofiq foydalanishga, uni idora qilishga faqat mulk egasining roziligi bilan yo‘l qo‘yiladigan operativ huquqqa nisbatan kengroq hisoblanadi.

***Xo‘jalik yuritish huquqiga asoslangan unitar korxonalar*** ikki turda – O‘zbekiston Respublikasi va uning sub’ektlari (avtonom respublika, viloyatlar) tomonidan tashkil etilgan davlat korxonalar va munitsipial tuzilmalar (shaharlar, tumanlar va hokazolar) tomonidan tuzilgan munitsipial korxonalar bo‘lishi mumkin. Davlat va munitsipial korxonalarining ta‘sis etilishi tegishli darajadagi shunga vakolati bor idoralar tomonidan amalga oshiriladi. Davlat va munitsipial mulk shu korxonalar kapitalining shakllanish manbai hisoblanadi.

Unitar korxonani boshqarish mulk egasi tomonidan tasdiqlanadigan korxonalar nizomi hamda mulk egasining ko‘rsatmalariga muvofiq faoliyat yurituvchi yakka rahbar tomonidan amalga oshiriladi. Faoliyat turi, uning maqsadlari, boshqaruv va nazorat mexanizmlari mulk egasi tomonidan belgilanadi. Korxonalar mulkiga egalikni o‘zida saqlab qolgan mulk egasi korxonalar olgan foydaning bir qismini qo‘lga kiritish huquqiga ega bo‘ladi. Korxonani qayta tashkil etish va tugatish masalalari ham mulk egasining vakolati hisoblanadi.

***Tezkor boshqaruv huquqiga asoslangan unitar korxonalar*** – yuqorida qayd etib o‘tilgan o‘ziga xos jihatlardan tashqari yana bir jihatga ega – ular faqat O‘zbekiston Respublikasi tomonidan tashkil etilishi mumkin. Shuning uchun ular «davlatga qarashli korxonalar», degan nom olgan.

***Davlatga qarashli korxonalar*** – bu davlat mulkining alohida bir qismini tezkor boshqaruv huquqiga asoslangan, korxonalar majburiyatlari bo‘yicha subsidiar javobgar bo‘lgan korxonadir. Davlatga qarashli korxonalar davlatning qattiq nazorati ostida bo‘ladi. Ayni vaqtda korxonalar ko‘chma, ba‘zan, hatto, mahsulotlarni va ko‘chmas mulkni faqat egasining roziligi bilan idora qila oladi. Aksincha, mulk egasi xohlasa mulkning bir qismini korxonadan olib, uni uchinchi shaxsga topshirishi mumkin. Boshqa tomondan, davlat o‘ziga qarashli korxonalarining mol-mulki va boshqa majburiyatlari bo‘yicha javobgardir, vujudga keluvchi zararni budjet mablag‘lari hisobidan qoplab

boradi. Davlatga qarashli korxonalar faqat O‘zbekiston Respublikasi hukumati qarori bilan tugatiladi.

**Notijorat tashkilotlari.** Foyda olishni o‘z faoliyatining maqsadi qilib qo‘ymagan, olingan foydani qatnashchilar o‘rtasida taqsimlamaydigan tuzilma – notijorat tashkiloti hisoblanadi.

Industrial rivojlangan mamlakatlarda notijorat tashkilotlari juda faol harakat qiladi va ularning roli muntazam ravishda oshib bormoqda. Aholi turli guruhlarini harakatini muvofiqlashtirish va manfaatlarini himoya qilish notijorat tashkilotlari faoliyatining muhim jabhasi hisoblanadi. Bunday tashkilotlar fan va maorif sohasida, shuningdek, investitsiyalar sohasidagi vositachilik bo‘yicha ular loyihalarni tanlash va ekspertizadan o‘tkazish, qimmatbaho qog‘ozlar bozorida tadqiqotlarni olib borish va jamg‘arma papkalarini shakllantirish vazifalarini amalga oshiradilar.

Hozircha O‘zbekistonda notijorat tashkilotlarining faoliyati aytarlik darajada sezilarli emas, xo‘jalik tizimida kamtarin o‘rinni egallashadi, vaholanki, ularning oyoqqa turishi jadal sur‘atlar bilan kechmoqda. Shu bilan birga, hozircha ana shu turdagi tashkilotlar faoliyatini ta‘minlovchi tegishli qonunlar mavjud emas, O‘zbekistonning yangi Fuqarolar kodeksida esa, ularni tashkil etishning umumiy ta‘moyillari berilgan xolos.

Notijorat tashkilot degan maqom uning tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullana olmasligini anglatmaydi, unga bir qator alohida talablar qo‘yiladi xolos.

Tashkilot nizomida uning vazifalari, shuningdek, u foyda olishni o‘zining asosiy maqsadi qilib qo‘ymasligi; tadbirkorlik faoliyatini nizom faoliyatini ta‘minlash maqsadidagina amalga oshirish mumkinligi, olingan daromad qatnashchilar o‘rtasida taqsimlanmasligi; ularning mol-mulki va mablag‘laridan faqat nizom vazifalariga erishishi uchun foydalanish mumkinligi aniq qayd etilgan bo‘lishi, ta‘sis hujjatlarida qaror qabul qilish, tashkilotni qayta tashkil etish va tugatish tartibi aniq yozilgan bo‘lishi lozim.

Iste‘molchilar kooperativlari jamoat va diniy tashkilotlar, hayriya jamg‘armalari, muassasalar, yuridik shaxslarning ittifoqlari va uyushmalari notijorat tashkilotlar qatoriga kiradi.

**Iste‘molchilar kooperativi** – fuqarolarning va yuridik shaxslarning qatnashchilar moddiy va boshqa ehtiyojlarini qondirish maqsadidagi ko‘ngilli birlashmasidir.

Qatnashchilarining pay badallarini birlashtirish yo‘li bilan tashkil etiladigan turli-tuman ittifoqlar va jamiyatlar ana shu xo‘jalik huquqiy shakl talablariga mos keladi. Iste‘molchilarning kooperativlari notijorat tashkilotlari orasida alohida o‘rin egallaydi. Bu boshqa notijorat tashkilotlaridan farqli

ravishda uning yuridik shaxs maqomiga ega kooperativga nisbatan mulkiy huquq va majburiyatlarini saqlab qolishlari bilan bog'liq. Birinchidan, ular kooperativ majburiyatlari bo'yicha subsidar va hamkorlik mulkiy javobgardirlar, vujudga keluvchi zararlarni qo'shimcha badallar hisobiga qoplashlari lozim, ikkinchi tomondan – kooperativ faoliyatidan olingan foydani o'z a'zolari o'rtasida taqsimlash huquqiga egadirlar.

**Jamoat va diniy tashkilotlar** – fuqarolar manfaatlarining birligi zamiriga asoslangan, nomoddiy ehtiyojlarni qondirish maqsadidagi ko'ngilli birlashmalardir.

Mazkur tashkilotlarning mulki ularga qatnashchilar topshiradigan mulk va qatnashchilarning badallari hisobiga tashkil topadi. Tashkilot a'zolari tashkilotning majburiyatlari bo'yicha hech qanday mulkiy javobgarlikka ega emas, tashkilot ham o'z a'zolarining majburiyatlari bo'yicha javob bermaydi.

**Jamg'arma** – fuqarolar va yuridik shaxslarning ko'ngilli ravishdagi mulkiy badallariga asoslanib tashkil etilgan hamda o'z faoliyati bilan ijtimoiy foydali maqsadlarni ko'zlovchi, hech qayerga a'zo bo'lmagan tashkilotdir.

Jamg'armalar hayriya, ma'daniy-ma'rifiy, ijtimoiy, maorif va boshqa shu xildagi faoliyatni amalga oshirish uchun tashkil etiladi. Belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tganidan so'ng jamg'arma o'nga topshirilgan mulkning yagona egasiga aylanadi, uning muassislari esa, ta'sis etilgan tuzilmaga nisbatan har qanday mulkiy huquq va majburiyatlardan mahrum bo'ladilar. Jamg'arma tugatilgan taqdirda uning mulki nizam maqsadlarini bajarishga yo'naltiriladi. Jamg'armalarning o'ziga tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish taqiqlangan, ammo ular xo'jalik jamiyatlarini tashkil qilib, ularda ishtirok etishlari mumkin.

Jamg'arma boshqaruvi muassislar tomonidan tasdiqlangan nizomga muvofiq tashkil etiladigan rahbar organlar orqali amalga oshiriladi. Shu o'rinda jamg'arma faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiruvchi vasiylar kengashini tayinlash majburiy shart hisoblanadi. Jamg'armaning nizom qoidalari mazkur nizom bunga yo'l qo'ygan taqdirdagina o'zgartirilishi mumkin, aks holda o'zgartirishlar kiritish huquqi faqat sud organlariga berilgan bo'ladi. Jamg'armani tugatish ham faqat sud qarori bilan amalga oshiriladi.

**Muassasa** – notijorat xususiyatga ega vazifalarni bajarish uchun mulk egasi tomonidan tashkil etilgan va u tomondan to'liq yoki qisman moliyaviy ta'minlanadigan tashkilotdir.

O'z faoliyatining yo'nalishi bo'yicha muassasa ko'p jihatlariga ko'ra jamg'armaga o'xshaydi. Muassasalar jamg'armadan farqli ravishda ularga berilgan mulkning egasi hisoblanmaydi, ular tezkor boshqaruv huquqi bilan

idora qiladilar. Bu demak, mulk egasi muassasasining mulkiga nisbatan o'zining barcha huquqlarini saqlab qoladi, muassasaning majburiyatlari bo'yicha subsidar mulkiy javobgardir. Muassasa egasining qarori bilan tugatilishi mumkin.

*Yuridik shaxslar birlashmasi* – yuridik shaxslarning qatnashchilar faoliyatini muvofiqlashtirish yoki umumiy manfaatlarini himoya qilish maqsadlarida tashkil etiladigan, shartnomaga asoslangan birlashmasidir.

Bunday birlashmalar uyushmalar va ittifoqlarning turli ko'rinishlari bo'lishi mumkin. Ularning mulki birlashma majburiyatlari bo'yicha nizomda belgilangan tartib va hajmlarda mulkiy javobgar bo'lgan a'zolarining badallaridan tashkil topadi. Birlashmalarda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish taqiqlangan. Bunday faoliyatni ular ana shu maqsadda maxsus tashkil etiladigan xo'jalik jamiyatlari bilan yoki shunday jamiyatlarda ishtirok etish orqali olib borishlari mumkin. Birlashma tarkibi ayrim qatnashchilarning o'z xohishlari bo'yicha chiqishi yoki chiqarilishi mumkin. Ayni vaqtda birlashmadan chiquvchi qatnashchi chiqqan vaqtdan boshlab yana ikki yil davomida birlashmaga nisbatan subsidar mulkiy javobgar bo'lib qolaveradi.

Shu bilan birga, 2000–2011 yillar davomida ro'yxatdan o'tgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari soni qariyb 2,6 barobar oshdi. 2011 yilda O'zbekiston aholisining har 1000 nafariga 15,6 ta kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari to'g'ri keldi. Mazkur ko'rsatkich Moldavada – 12,3 ta, Qozog'istonda 6,9 ta, Rossiyada – 11,3 ta, Ukrainada – 7,3 ta, Belorussiyada – 7,3 ta, Ozarbayjonda esa 1,6 tani tashkil etadi (MDH davlatlarining ko'rsatkichlari 2009 yil bo'yicha olingan. Manba: MDH statistika qo'mitasi).

### **Qisqacha xulosa**

Odamlar o'z irodalarini va xohishlari (markazlashgan holda ishlab chiqarilgan reja bo'yicha emas) bilan tovarlar ishlab chiqargan va xizmat ko'rsatgan hamma yerda tadbirkorlik mavjuddir. Ammo adashish, xato qilish odamlarga xosdir. Tadbirkorlikdagi yutuq osmondan tushmaydi. Yutuqqa qanday erishish mumkin, o'zini va o'z biznesini xatolardan qanday qilib asrash lozim? Ko'pincha omadsizlikning negizilari tadbirkorlikni tashkil qilish bosqichida vujudga keladi. Bunday xatolarni tuzatish juda qiyindir. Shuning uchun tadbirkorlikning nazariy asoslarini bilish biznesdagi uzoq va muvaffaqiyatli hayotning zarur shartidir. O'zbekistonda bozor iqtisodiyotining vujudga kelishi, shakllanishi va qaror topishi tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi fuqarolar sonining oshishiga olib kelmoqda. Tadbirkorlik faoliyatiga universitetlarda, akademiyalarda, institutlarda va kollejlarda tayyorlanmoqda.

Tadbirkorlik deb foyda olishga qaratilgan, mustaqil amalga oshiriladigan biron-bir faoliyatga aytiladi.

### **Asosiy tushunchalar:**

Tadbirkorlik.

Tijorat tavakkalchiligi.

Novatorlik.

Tadbirkorlik tashabbusi.

Xususiy tadbirkorlik.

Tadbirkorlik vazifalari.

### **Ma'ruzalar bo'yicha namunaviy savollar**

1. Tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy faollik shakli sifatida o'ziga xos xususiyatlari.
2. Tadbirkorlik vazifalarining ishchanlik mazmunini qanday tushunish mumkin?
3. Ushbu vazifaning alohida komponentlarini ko'rsatib bering.

### **Seminar darsda muhokama qilinadigan savollar**

1. Tadbirkorlik tushunchasi va uning vazifalari nimalardan iborat?
2. Tadbirkorlikning asosiy maqsadlari va iqtisodiy mazmunlari nimalarni bildiradi?
3. Tadbirkorlik faoliyati faolligining sifatli ob'ekti qilib nimalarni ko'rsatish mumkin?

### **Mustaqil ta'lim uchun savollar:**

1. Tadbirkorlik faoliyatining shakllari va uning O'zbekistondagi rivojlanishi.
2. Tadbirkorlikning iqtisodiy mazmuni va vazifalari.
3. Hozirgi zamondagi O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlanishda tadbirkorlikning tutgan o'rni.

## 22 BOB. TADBIRKORLIK KAPITALI VA UNING AYLANISHI

### 22.1. «Kapital» tushunchasining mazmun-mohiyati va uning tabiatiga qarashlarning tadrijiy rivojlanishi

Iqtisodiy kategoriyalar amalda hamisha o'z davrining garovida bo'ladi. Bu kategoriyalarning o'zi ham, ularning tadqiqotchilari ham tarixan turli ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda yashaydi. Vaqt ijtimoiy-iqtisodiy shart - sharoitlarga ham, tadqiqotchilarning ana shu shart-sharoitlarni aks ettiruvchi iqtisodiy kategoriyalarga doir tushunchasiga ham o'z muhrini bosadi. Tarixiy yondashuv tadqiqotni boyitadi, o'z davrining ham ijtimoiy - iqtisodiy shart-sharoitlarida, ham ana shu shart-sharoitlarni aks ettiruvchi kategoriyalar tabiatida qolib ketgan jiddiy jihatlarni ajratib ko'rsatishga yordam beradi. U yoki bu iqtisodiy kategoriyaning tabiatida nima va nega o'zgarganligini tushunish ham katta ahamiyatga ega.

Kapital kategoriyasi xo'jalik yuritishning qariyb 300 yillik tarixga ega kapitalistik tizimi bilan birga vujudga keldi va rivojlanib bormoqda.

Kapital (ishlab chiqarish fondlari) asos soluvchi va tizimni tashkil etuvchi kategoriyadir. U faoliyatning har qanday ko'rinishlari-sanoat, qishloq xo'jaligi, transport, ijtimoiy xizmat sohalari, bank va moliya sohalari moddiy shart-sharoitlarini aks ettiradi. Shu sababli, kapital kategoriyasi iqtisodchilar barcha avlodlari tadqiqotlarining doimiy manbai bo'lib keldi. Ularning shu kategoriya tabiatiga qarashlari ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanish darajasi, iqtisodiyot tarkibiy tuzilishi, iqtisod fani taraqqiyoti darajasi hamda siyosat va mafkura tadqiqotlari ob'ektivligiga ta'sirning ifodasi bo'lib xizmat qilgan.

**Merkantilistlar** (manfaatparastlar) «kapital» kategoriyasining ilk kashfiyotchilari hisoblanadi. Savdo-sotiq kapitali ularga «kapital» kategoriyasini tushunish uchun asos bo'lib xizmat qilgan. Manfaatparastlar mamlakat boyligini oltin va kumush pullarda, uning manbaini esa, tengsiz tashqi savdo almashuvi hisobiga savdoning musbat balansi oshishini ta'minlaydigan tashqi savdoda ko'rishgan.

Savdo kapitali ham tovarlarning ham daromad keltiruvchi kapitalning ilk va yagona, alohida ajratilgan erkin shakli edi. Buning oqibati sifatida kapital harakatining real shakli manfaatparastlar uchun:  $P - T - P + \Delta P$  shaklda namoyon bo'ldi.

Mazkur formulaning mazmuni: qimmatroq sotish uchun sotib olishni anglatadi. Ishlab chiqarish faoliyati emas, chayqovchilik bitimi foyda keltirar edi. Manfaatparastlar uchun pul va kapital bir ma'noni anglatadi. Manfaatparastlarning qarashlari ularning davridagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar bilan belgilanadi. Ilk manfaatparastlik XV asrning so'nggi uchdan

bir qismidagi kapitalni boshlang'ich to'plash davridir. Hali ichki ishlab chiqarish va butun iqtisodiyot tizimi yetarli darajada rivojlanmagan sharoitda nodir tovarlarni va qimmatbaho metallarni tashib kelish juda katta pul daromadlarini keltirar edi. Kapitalni ishlab chiqarishning boshqa sohalariga va mamlakat ichkarisidagi savdo-sotiqqa sarflashga qadar arzimagan daromad keltirar ediki, kapitalning ishlab chiqarish ko'rinishi tushunchasi bo'lmagan bir vaqtda uni hisoblab chiqishning iloji yo'q edi. Ammo kapitalni bunday tor ma'noda tushunish faqat ilk manfaatparastlarga xos bo'lgan xolos.

Keyingi manfaatparastlarning (XVI asrning ikkinchi yarmi XIX asrlar) qarashlari o'sha davr jamiyati ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o'zgarishlarning ifodasi bo'ldi. Ular pulni hamon kapital deb tushunishardi. Ammo keyingi manfaatparastlarning markaziy nuqtasi musbat savdo balansi tizimi bo'lgan. Olib kirish va olib chiqish o'rtasidagi musbat farq o'z mamlakatining buyumlari hisobiga ta'minlangan. Ayni vaqtda xom ashyoni emas, tayyor buyumni olib chiqishga ijozat berilar edi, chunki tayyor buyumlar qimmatroq turardi; shuningdek, zeb-ziynat buyumlarini olib kirish taqiqlanardi; bir mamlakatda arzon buyumlarni sotib olib, ularni boshqa mamlakatlarda qimmatroq narxlarda sotish maqsadida pullarning chet mamlakatlarga olib chiqilishiga ruxsat berilardi.

Bu demak, keyingi davr manfaatparastlari o'sha davr mamlakatlari iqtisodiy rivojlanishidagi yangilikni mamlakatda ortiqcha tovarlar ishlab chiqarilishini va ularni pul kapitalini ko'paytirish uchun boshqa mamlakatlarga olib chiqilishini rag'batlantirishdan iborat bo'lgan yangilikni aks ettirganlar.

**Fiziokratlar** (fransuzcha – physiocrates, yunoncha – physis –tabiat va kratos – kuch, hokimiyat so'zlaridan olingan) – iqtisodiy tafakkurning manfaatparastlardan keyingi yo'nalishi vakillaridir. Ularning ta'limoti manfaatparastlarga va XVII asrning o'rtalariga kelib Yevropa mamlakatlarining iqtisodiyotida ro'y bergan o'zgarishlarga munosabat sifatida vujudga keldi. F.Keneni (1694 – 1774) ana shu yo'nalishning asoschisi, deb hisoblashadi. Fiziokratlar foydaning kelib chiqishi haqidagi tadqiqotlarni muomala sohasidan ishlab chiqarish sohasiga ko'chirdilar, shu bilan kapital nazariyasiga asos soldilar. Ammo sanoat ishlab chiqarishi rivojlanmaganligi bois fiziokratlar faqat dehqonchiliknigina unumli, deb hisoblashgan.

Ammo fiziokratlar uchun nafaqat yer, shu bilan birga, unga sarflanadigan mehnat ham hal qiluvchi ahamiyatta ega edi. «Daromadlar yer va inson mahsuli hisoblanadi»; «inson mehnati sarflanmas ekan, yer hech qanday qadr-

qiymatga ega emas», deb yozadi F.Kene.<sup>1</sup> Ana shu fikr bilan bugun ham kelishmaslikning iloji yo‘q, vaholanki o‘sha vaqtdan beri jamiyat iqtisodiy tizimida nihoyatda ulkan o‘zgarishlar yuz berdi.

Fiziokratlar kapitalning tarkibiy qismlarini tahlil qilib chiqishdi, ular kapitalning hozirgi asosiy va muomaladagi qismlarga taqsimlanishiga ma’lum darajada to‘g‘ri keladi.

Pul fiziokratlar uchun boylik hisoblanmaydi, ular o‘z-o‘zidan «samara» keltirmaydi, muomala vazifasini bajaradi xolos. Fiziokratlar pul to‘plashni zararli, deb hisoblashgan, chunki bu pullarni muomaladan chiqaradi va ularni tovarlar almashuviga xizmat qilish vazifasidan mahrum qiladi. Ular manfaatparastlardan farqli ravishda muomala sohasini emas, moddiy sohani – qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini savdo-sotiqning daromad manbai, deb hisoblashgan.

Fiziokratlarning kapitalga qarashlari kapitalistik xo‘jalikning va o‘z davri – ilk mayda tovar ishlab chiqarishi, yer va qishloq xo‘jaligidagi mehnat asosiy rolni o‘ynagan davrdagi ishlab chiqarish munosabatlarining rivojlanganlik darajasini aks ettiradi. Shu bilan birga, ularning kapital tabiatiga qarashlari kapitalning iqtisodiy mazmun-mohiyatini idrok etishda muhim bosqichdir. Kapitalning asosiy – daromad keltirish xususiyatini hali aniq tushunmay turib, fiziokratlar uning ana shu umumiy va kapitalning mazmun-mohiyatini belgilovchi xususiyatiga beixtiyor e’tibor qaratdilar.

Aynan xo‘jalik yuritishning kapitalistik tizimi rivoji ilk bosqichida sezgirlik bilan idrok etilgan kapitalning daromadni vujudga keltirish xususiyati keyinchalik kapital haqidagi turli nazariyalarda va uning harakati qayta ishlab chiqarishda ekanligini tushunishda tizimni tashkil etuvchi elementga aylandi. Siz, ehtimol, nazariya faqat amaliyotdan keyin borishi, uni tadqiq etishi, umumlashtirishi va xulosalar chiqarishi mumkin, demoqchi bo‘lgan fikrimizni ilg‘agan bo‘lsangiz kerak. Biz qayta va qayta ta’kidlaganimizdek, iqtisodiy tafakko‘rning rivojlanishi faqat jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi va ishlab chiqarish kuchlari hamda ishlab chiqarish munosabatlarining rivojlanganlik bilan belgilanadi. Shu sababli, klassik siyosiy iqtisodning XVIII asrda Angliyada paydo bo‘lganligi tasodif emas. Bu davr qishloq xo‘jaligining yuksak darajada rivojlanganligi, sanoat ishlab chiqarishi yuksalganligi, uning tarkibiy tuzilishi murakkablashgani, tashqi savdoning faollashgani bilan tavsiflanadi.

---

<sup>1</sup> Физиократы. Избранные экономические произведения. Франсуа Кенэ, Анн Робер Жак Тюрго, П. С. Дюпон де Немур. 2008. 1200 стр.



Klassik siyosiy iqtisodning asoschisi A.Smit o‘z o‘tmishdoshlari va zamondoshlarining qarashlarini umumlashtirib, «kapital» kategoriyasi tabiatini birinchi marta ochib berdi va uni aniq tavsifladi. A.Smitning fikriga ko‘ra, kapital – bu zaxiralarning «daromad olish kutilayotgan» qismidir. ***Kapital – bu ishlab chiqarish vositalari, buyumlarga aylantirilgan moddiy boylik, undan unumli foydalanish foyda olish imkonini beradi.*** A.Smit nafaqat qishloq xo‘jaligida band bo‘lgan kapitalni, birinchi navbatda, umuman, moddiy ishlab chiqarishda band bo‘lgan kapitalni ishlab chiqaruvchi kapital sifatida qarab chiqqan. Mazkur kategoriyani sinchiklab tahlil qilish uning vazifalarini ajratib ko‘rsatishga, shu asnoda uning asosiy va muomaladagi qismlarga taqsimlanishini o‘tkazishga yordam berdi. Asosiy kapitalga A.Smit bergan ta’rif juda katta qiziqish uyg‘otadi. Uning fikriga qaraganda, asosiy kapital boshqa jihatlari bilan bir qatorda «barcha aholining yoki jamiyat a’zolarining orttirilgan yoki foydali qobiliyatlaridan»<sup>2</sup> tashkil topadi, pgu bilan birga u ishlab chiqarish vositalari – bu buyumlarga aylangan jonli mehnat, asosiy kapitalda amalga oshgan odamlar bilimi va qobiliyatlarining yig‘indisi, deb taxmin qiladi. A.Smit foydaning vujudga kelishi ishlab chiqarish vositalariga xususiy mulkchilik faktidan kelib chiqishini ko‘rsatib, foydani ish haqidani aniq chegaralardi. A.Smit qarz foizini foydadan chiqarar va uni foydaning bir qismi, deb tushunardi. A.Smit rentani yerga xususiy mulkchilik bilan bog‘lar va mahsulot to‘liq tannarxidan yer egasi foydasiga chegirma sifatida ta’riflar edi.

A.Smitning izdoshlari ham «kapital» kategoriyasiga ulkan ahamiyat berishgan. Buyuk olimlar: J.B.Sey, T.R.Maltus, N.U.Senior, J.S.Mill va boshqalar shular jumlasidandir. Ushbu iqtisodchilar A.Smit iqtisodiy nazariyasining ommalashtiruvchilari bo‘lish bilan bir qatorda, kapital tabiatini idrok etishga ma’lum darajada aniqlik kiritdilar, kapital nazariyasini yangi tavsiflar bilan to‘ldirdilar. Jumladan, J.S.Mill uchun kapital «ilgarigi mehnat mahsulotlarining oldindan to‘plangan zaxirasi»<sup>3</sup> hisoblanadi. Ammo shunchaki to‘plangan zaxira kapital hisoblanmaydi, ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan ilgarigi mehnat natijalarigina kapital hisoblanadi. «Kapital» kategoriyasini tahlil qilar ekan J.S.Mill kapitalning harakat jarayoniga – boshqalar sezmay qoldirgai tavsifga e’tiborni qaratdi. Bu bilan u kapitalning hajmi sanoat hajmini cheklashini (belgilashini); kapitalning tejamkorlik natijasi ekanligini; tejamkorlik natijasi bo‘lgan kapitalning o‘zi ishlab chiqarish jarayonida iste’mol qilinishini isbotladi. Aynan kapitalning

---

<sup>2</sup> А.СМИТ. «Исследование о природе и причинах богатства народов». М.: Директ-Медиа, [https://biblioclub.ru/index.php?page=book\\_red&id=560822014](https://biblioclub.ru/index.php?page=book_red&id=560822014).

<sup>3</sup> John Stuart Mill. Principles of Political Economy. 1848

tejamkorlik jarayoni sifatidagi mohiyati ochib berilishi kapitalning o'ziga xos mehnat – investitsiyalik mazmunini belgiladi.

J.B.Sey daromadni belgilovchi omillar qatoriga ishlab chiqarish vositalari egasining tadbirkorlik, rahbarlik qobiliyatini ham kiritib, kapital nazariyasini to'ldirdi. Ammo A.Smit va uning ommalashtiruvchilari timsolidagi klassik siyosiy iqtisod «kapital» kategoriyasi ta'rifini bera olmadi, shu bilan birga, yanada chuqur tahlillar olib borish uchun real imkoniyatlarni vujudga keltirdilar.

K.Marks tomonidan qiymatning mehnat nazariyasi yaratilishi fanni va «kapital»kategoriyasi tabiatini rivojlantirishda navbatdagi bosqich bo'ldi. Uning tadqiqotlari bir tomondan, tovar – kapitalistik tizimning asosiy kategoriyalarini chuqur tahlil qilsa, ikkinchi tomondan, ana shu tizimni tugatishga qaratilgan mafkuraviy yo'nalishga ega. Afsuski, K.Marksning haqiqiy ilmiy yutuqlari uning ishlab chiqarish vositalariga xususiy kapitalistik egalik keltirib chiqaruvchi antagonistik qarama-qarshiliklarni hal etib bo'lmaydi, degan xulosalari tufayli yetarli baholanmadi yoki ongli ravishda buzib ko'rsatildi.

Shu bilan birga ,yana bir narsani nazarda tutish kerakki, K.Marks XIX asr o'rtalaridagi kapitalizm rivojining real vaziyatini tadqiq etgan, bu vaqtda kapitalizmning barcha ijtimoiy-iqtisodiy ziddiyatlari yuqori cho'qqisiga chiqqan va kapitalistik tizimni saqlab qolish imkoniyatlari muammo bo'lib turgan edi. Jumladan, P.Druker shunday deb yozgan edi: «Marks zamondoshlarining aksariyati uning kapitalizmga qarashlarini ma'qullashar edi», «hatto marksizm dushmanlari ham uning kapitalizm ichki ziddiyatlariga doir tahlillarini qabul qilishardi».

K.Marks ta'limotining jahonga keng yoyilganligi ta'siri ostida kapitalizm ana shu ziddiyatlarni oz yoki ko'p darajada muvaffaqiyatli hal ETISH usullari va vositalarini topishga muvaffaq bo'ldi. Ammo K.Marksning iqtisodiyot fani sohasidagi ob'ektiv yutuqlari mafkuraviy mulohazalar bois buzib yuborilgan.

Hozirgi zamon iqtisodiy tafakkuri sohasidagi ko'zga ko'ringan amerikalik mutaxassis B.Seligmen: «kapitalning markscha ta'rifi katta afzalliklarga ega», deb hisoblaydi, ammo ular Fisher va Uayt nazariyalarida izsiz yo'qotilgan, bu ularning maddohliklari xususida taassurot qoldiradi.

Marks ham kapitalizmning rivojlanishidagi, ham iqtisodchilarning xususiy kapitalistik ishlab chiqarishga qarashlaridagi avvalgi hamma tajribalarni tanqidiy tahlil qildi va umumlashtirdi. **1867 yilda Gamburgda chiqqan «Kapital»** asarida K.Marks iqtisodiyotning barcha asosiy kategoriyalarini ta'riflab, kapital tabiatini tadqiq etish va shu kategoriyaga ta'rif berishga katta e'tibor qaratgan.

K.Marks kapital tabiatini tadqiq etishni chuqurlashtirib borgani sayin ana shu kategoriyaning bir nechta ta'riflarini keltiradi. Shulardan eng qisqa va lo'ndasi: *kapital qo'shimcha qiymatni keltiruvchi qiymat hisoblanadi, ya'ni kapital o'z-o'zidan oshib boruvchi qiymatdir.*

K.Marks **P-T-P+d** ko'rinishidagi kapitalning umumiy formulasini keltiradi va qiymat qonuni doirasida mazkur formula ziddiyatlarini hal etadi, **d** – foyda muomala sohasida emas, ishlab chiqarish sohasida, ishlab chiqarish vositalarini o'ziga xos tovar – «ishchi kuchi» bilan birlashtirish natijasida vujudga kelishini isbotladi. Mazkur «tovar» noyob xususiyatga – tovar qiymati ishchi kuchidan kattaroq bo'lgan qiymatni vujudga keltirish xususiyatiga ega.

K.Marks butun kapitalni doimiy (ishlab chiqarish jarayonida o'z qiymatini saqlab qoladigan) va o'zgaruvchan (o'z qiymatini o'zgartiruvchi, o'z qiymatiga nisbatan kattaroq qiymatni vujudga keltiruvchi) kapitalga taqsimladi.

Kapital tabiatini tadqiq qilishni chuqurlashtira borib, K.Marks ushbu kategoriya moddiy ne'matlarini ishlab chiqarish jarayonida odamlar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabat, deb ta'riflaydi. «Kapital – deb yozgan edi K.Marks, – bu buyum emas, buyumda mavjud bo'lgan va shu buyumga o'ziga xos ijtimoiy xususiyat bag'ishlovchi muayyan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatdir». Bu demak, kapital – pul emas, ishlab chiqarish vositalari ham emas, kapitalistik jamiyatdagi munosabatdir, buning natijasida ishlab chiqarish vositalarining egasida yollanma xodimlarning haqi to'lanmagan mehnatining ma'lum bir qismini o'zlashtirish imkoniyati paydo bo'ladi. Ishlab chiqarish vositalariga xususiy mulk egaligi ana shu ijtimoiy munosabat faoliyat ko'rsatishining asosi va garovi hisoblanadi.

Ikki sinf – kapitalistlar sinfi va yollanma xodimlar sinfi hozirgi sharoitda birgalikda tinch yashashga va zo'ravonlikka murojaat qilmay, o'z manfaatlarini qondirishga o'rganayotgani ijtimoiy voqelik sifatida ekspluatatsiya mutlaqo yo'qolganligini anglatmaydi. Ekspluatatsiyaning asosi – ishlab chiqarish vositalariga xususiy mulkchilik, xodimni ekspluatatsiya qilish esa, yuqorida ta'kidlanganidek, ishlab chiqarish vositalari egasining, ya'ni kapitalist daromadining asosidir. Ammo xususiy mulk o'z navbatida bozorning jamiyat iqtisodiy tizimi sifatida faoliyat ko'rsatishining asosini o'zida aks ettiradi. Shunday qilib, to'lanmagan mehnat haqining bir qismini o'zlashtirish bozor xo'jaligi faoliyat ko'rsatishining muhim qonunlaridan biri hisoblanadi.

Shu bilan birga, yollanma xodimlarning mehnatiga haq to'liq to'lana olmasligi va to'lanmasligini ham inobatga olish lozim. Xodimlar mehnatining haq to'lanmagan qismini qanday atamaylik – qo'shimcha qiymat, qo'shimcha mehnat yoki foyda deb atamaylik, u ob'ektiv ravishda zarur, jamiyatni

ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda ilg'or rolni bajaradi, ishlab chiqarishni kengaytirish, budjet daromadlarini shakllantirish va faol ijtimoiy dasturlarni amalga oshirish uchun moddiy asos sifatida namoyon bo'ladi.

XX asrning *ikkinchi yarmidagi fan-texnika* inqilobi jamiyat ishlab chiqarish kuchlarining tarkibiy tuzilishi va sifatiga jiddiy o'zgartirishlarni kiritdi. Yangi, yanada murakkab va qimmatbaho texnikaning paydo bo'lishi xodimlarning ma'lumoti, kasb bilimi va malaka darajasi oldiga oshirilgan talablarni qo'ydi. O'zgargan shart-sharoitlarda inson kapitali nazariyasining shakllanishi o'z-o'zidan qonuniy edi. Inson, uning ishlab chiqaruvchi kuchlari, bilimlari va ko'nikmasi inson kapitali sifatida talqin etila boshlandi.

*Inson kapitalini insonning ishlab chiqarish qobiliyati*, deb ta'riflaydilar. «Odamlarning inson kapitali ularning buyumlarni ishlab chiqarish va xizmatlarni ko'rsatish qobiliyatini aks ettiradi», u «insonda mujassam bo'lgan daromad keltirish qobiliyatining o'lchovi. Inson kapitali tug'ma qobiliyat va iste'dodni, shuningdek, ma'lumotni va orttirilgan malakani o'z ichiga oladi».

Inson kapitali nazariyasining mohiyati shundaki, u o'qitishga qilingan xarajatlar *«insonga qilingan kapital sarfi»*, deb bilim, ko'nikma va qobiliyatlarning to'plab borilishiga inson – kapitalining jamlab borilishi deb qaraydi. Inson kapitali nazariyasiga ko'ra bilim uzoq muddat foydalaniladigan o'ziga xos kapitalni ishlab chiqaruvchi alohida tarmoqdir.

Ishchi kuchini inson kapitaliga aylantirish jarayoni zamirida insonning o'z bilimlari va ko'nikmalari hajmini ko'paytira borib, ishlab chiqarishning eng yangi vositalarini savodli boshqarish va shunday qilib, qo'shimcha qiymat (ish haqi va foyda)ni ishlab chiqarishda ishtirok etish qobiliyati yotadi.

*Inson kapitali* nazariyasining shakllanishi va uning jamiyat ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanishi nazariyasidagi rolni tadqiq etish ana shu kategoriyalarning miqdoriy baholash usullarini izlanish bilan birgalikda kechdi. BMTning rivojlantirish dasturi tomonidan inson imkoniyatlarini rivojlantirish indeksini baholash usuli ishlab chiqilgan va keng foydalanilmoqda. Mazkur indeks uch koeffitsiyentning: aholi jon boshiga real daromad, bilim darajasi va sog'liqni saqlash darajasi (umrning kutilayotgan uzunligi)ning jamlanma natijasi hisoblanadi.

Axborot texnologiyalarining paydo bo'lishi va yuqori darajadagi industrial jamiyat rivojini keltirib chiqargan fan - texnika inqilobining ikkinchi to'liqini aqliy kapital nazariyasi shakllanishini izohlab berdi.

Aqliy kapital insonning bilimlari, ko'nikmalari, qobiliyatlari yig'indisini, uning safarbarligini (uning yangi axborotlarni qabul qilish, o'qish, qayta tayyorlash, yangi shart-sharoitlarga moslashish qobiliyatini) va aqliy kapitalning harakati jarayonida mahsulot tayyorlash shuningdek, jamiyatning

to'plangan moddiy bo'lmagan imkoniyatlarini ta'minlovchi, ijodorlikni (boshqalardan o'zgacharoq fikrlash qobiliyati, g'oyalar shakllantirishni) o'z ichiga oladi.

Individual tushuncha hisoblanuvchi insonning aqliy kapitali shunchaki ma'lum bir malakani emas, fazilatlarining yaxlit majmuini (qobiliyatlarni – inson iste'dodini, axloqiy-ruhiy xususiyatlarini, tezda qaror qabul qilish qobiliyatini va nihoyat, ma'naviy imkoniyatlarini) o'z ichiga oladi, ularning yig'indisi foyda olish huquqini beruvchi kapital sifatida namoyon bo'ladi.

**Insonning aqliy kapitali** zamirida shaxsning harakati yotadi. Shaxsning nodirligi va qayta ishlab chiqarish mumkin emasligi insonning aqliy kapitaliga monopoliyani keltirib chiqaradi. Aynan shuning uchun ham hozirgi zamon iqtisodiy adabiyotlarida yollanma xodim asta-sekin mulk egalari qatoriga o'tadi, degan fikr keng yoyilgan. Ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojlanib borgani sayin, xodim mehnat bozorida o'z mehnat qobiliyatini shunchaki sotibgina qolmaydi, shuningdek, u ishlab chiqarishning muhim omillaridan birini-aqliy kapitalni orttiradi. Ana shu kapitalning ishlab chiqarishda qo'llanilishi uning egasiga o'z ishtiroki bilan ishlab chiqarilgan mahsulotni sotishdan keladigan daromadning bir qismini olishiga real imkoniyat beradi.

Yangi klassik nazariya zamirida naflilik nazariyasi yotadi, bu nazariya qo'proq Marksning qo'shimcha qiymat nazariyasiga javob tarzida vujudga kelgan. O'ta naflilik nazariyotchilari kapitalistik jamiyatda ekspluatatsiya mavjudligini inkor etish bilan birga, haqi to'lanmagan mehnat, qo'shimcha qiymat va qo'shimcha mahsulot, kapital bu xususiy mulkning ishlab chiqarish vositalariga ijtimoiy munosabati va oqibati degan va hokazo iqtisodiy kategoriyalardan voz kecha olmadilar. O'ta naflilik nazariyasini to'la qo'llab - quvvatlovchi K.Viksell: «kapital – bu tejab qolingan mehnat, foiz esa – tejab qolingan mehnat va yerning eng yuqori unumdorligi bilan joriy mehnat va yer o'rtasidagi farq», deb tasdiqlaydi.

Yollanma xodimlarning jonli mehnati, ularning foydani vujudga keltirishdagi ishtiroki tushunchalari esa, umuman, g'oyib bo'ladi. Omilli ishlab chiqarishga muvofiq, foyda faqat tadbirkor kuch-g'ayratiga mukofot va tadbirkorning o'z mulki sifatida kapitalga huquqini amalga oshirishi hisoblanadi.

Kapitalning sub'ektiv nazariyasi ijodkori Fisher kapital – bu diskont daromad, deb tasdiqlagan edi. Kapitalning bunday tushunilishiga ko'ra Fisher o'z egasiga daromad keltiradigan har qanday ne'matni, kapital qay sohaga safarbar etilishi va faoliyat ko'rinishidan qat'i nazar kapital sirasiga kiritadi.

Fond birjalarining gurkirab rivojlanishi, moliyaviy kapital ko'lamlarining kengayishi, fond birjalaridagi operatsiyalar hisobiga mo'may daromadlarni

olish imkoniyati kapital tabiatida monetaristik qarashlarning paydo bo'lishiga olib keldi<sup>4</sup>.

Kapitalni pul harakatining har xil ko'rinishlari, daromadni esa foiz, deb tushunish ana shunday yondashuvning o'ziga xos jihati hisoblanadi.

Boshqa iqtisodchilarning tasdiqlashiga qaraganda, kapital – bu vaqt. Vaqt – daromadni vujudga keltiruvchi mustaqil omil. Daromad esa kelajakni ko'zlab hozirgi vaqtdagi shaxsiy ehtiyojlardan voz kechishdir, deb tasdiqlashadi, ular.

Mazkur yondashuvlarning har birida haqiqatning ma'lum bir ulushi bor. Kapitalning maqsadi daromad, foyda olish ekanligi nazarda tutiladigan bo'lsa, o'nga erishish uchun puldan ham, vaqtdan ham, ishlab chiqarish vositalari va yollanma xodimlardan ham, tadbirkor kuch-g'ayratidan ham foydalaniladi. Ammo maqsadi foyda olishdan iborat bo'lgan chakana kapitalistik tizim sharoitlarida bir sub'ektning mulki bo'lgan ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqarish jarayonida boshqa, mulk sifatida ishlab chiqarish vositalariga ega bo'lmagan, faqat mehnat qilish qobiliyatiga va o'ziga xos tovar ishlab chiqarish kuchiga ega bo'lgan sub'ekt bilan birlashishi zarur. Shuning uchun B.Seligmendek muallif fikri bilan kelishishga to'g'ri keladi. Uning Marks kapitalga bergan ta'rifi katta imtiyozlarga ega bo'lib, ijtimoiy munosabatlar va hozirgi zamon bozor iqtisodiyotidagi iqtisodiy manfaatlar joylashuvini real aks ettiradi, deb hisoblaydi.

## **22.2. Korxonaga kapitalning (ishlab chiqarish fondlarining) davriy aylanishi**

Har birining kapitali (ishlab chiqarish fondlari) o'ziga xos, o'z xususiyatlariga ega. Uning o'ziga xosligi ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi, ya'ni bozorga olib chiqayotgan tayyor mahsulot va xizmatlarning turlari, ishlab chiqarish ko'lamlari, mehnatkashlar va ishlab chiqarish vositalarining munosabati va hokazolar bilan belgilanadi. Shu bilan birga, kapital (ishlab chiqarish fondlari) barchaga xos bo'lgan jarayonlar, tarkibiy tuzilish bilan tavsiflanadi.


Ishlab chiqarish fondlarining ixtisoslashuvi va xarakteridan qat'i nazar kapital (ishlab chiqarish fondlari) aylanishi har bir korxonaga doirasida qayta ishlash jarayoni harakatining asosi hisoblanadi. Kapital aylanishi – bu muayyan iste'mol qiymati (tovar, mahsulot) yaratilish davrini qamrab oluvchi ishlab chiqarish fondlari qiymatining harakatidir.

---

<sup>4</sup> С. Фишер, Р. Дорнбуш, Р. Шмалензи. Экономика (ECONOMICS). М.: ДЕЛО ЛТД, 1995. – 864 с.

Ishlab chiqarishning har bir turi aylanish xususiyatlari bilan, eng avvalo tayyor mahsulot yaratilish vaqti bilan farqlanadi. Shu bilan birga, har qanday ishlab chiqarishdagi individual kapital bir vaqtning o'zida **uch xil** xizmat ko'rinishlarida: **pul, ishlab chiqarish** va **tovar** kapitali sifatida mavjud bo'ladi, ularning har biri o'z vazifasini bajaradi va birgalikda uning harakatdagi uzluksiz jarayonini ta'minlaydi.

Individual kapital, ishlab chiqarish fondlarining aylanishi quyidagi formula bo'yicha amalga oshiriladi:



Bunda,

**P** – pul ko'rinishidagi dastlabki investitsiya kapitali;

**Tiv** – ishlab chiqarishning yirik turli moddiy - buyum omillari;


**Iq(I/xf)** - zarur bo'lgan ishchi kuchi yig'indisi va ish haqi fondining tegishli miqdori;

**I**–ishlab chiqarish kapitali;

**T** – tovar kapitali–mazkur muayyan ishlab chiqarishning qo'shimcha mahsulotini o'z ichiga olgan mahsulot;

**P** – tovar kapitalini sotish jarayonida qo'lga kiritilgan pul kapitali, uning miqdori dastlabki mazkur kapitalning foydasi hisoblanuvchi **p** (**P + p**) dan kattaroq.

Har bir korxonada aylanishning **birinchi bosqich**idanoq mustaqil alohida a'zo sifatida faoliyat ko'rsata boshlaydi, shu jarayon natijasida qiymatning pul ko'inishi kapital ko'inishining omillariga aylanadi:



Ana shu dastlabki mablag'ni biror mulkdor – xususiy tadbirkor, shirkat, aksiyadorlik jamiyati, davlat va nihoyat mulqdorlikning turli ko'rinishlarini birlashtiruvchi aralash mulk egasi investitsiya qiladi. Barcha hollarda mazkur tizimning qayta ishlab chiqarishi ma'lum miqdordagi pul mablag'i, ishlab chiqarishning muayyan ish (ishlab chiqarish, bank, savdo ishi va hokazolar) hamda tegishli ishchi kuchi birlashishi natijasidagina boshlanadi. Ishlab chiqarishning zarur omillarini sotib olish natijasida pul mablag'i kapital ko'inishini qabul qiladi. Ayni vaqtda shu aloqa teskari xususiyatga ega. Har bir ish dozalangan ma'lum muddatlarda va zarur miqdorlarda safarbar etilgan tegishli pul mablag'lari investitsiya qilinishini talab etadi. U shakllanib borgani

sayin shu kapitalni vujudga keltiradi. Investitsiya jarayoni ma'lum bir ish – muayyan ko'rinishdagi, hajmdagi, ishga tushirish, o'zini qoplash muddatlari va hokazo jihatlari belgilangan korxonani vujudga keltirish imkoniyatini talab qiladi. Bu tadbirkorning ixtiyoridagi pul mablag'i, uning yer yoki budget resurslariga sheriklarni jalb etish qobiliyatiga bog'liq. Shu bilan birga, ana shu imkoniyatlar oldindan hisoblab chiqilishi, qat'iy kafolatlangan bo'lishi kerak. Investitsiya borasidagi har qanday kechiqish sarflangan resurslarni bog'lab qo'yadi, ishlab chiqarish uchun foydalanish imkoniyatlarini orqaga suradi, kapitalning hisoblab chiqilgan loyihadagi samaradorligini pasaytiradi. Bu kapital aylanish jarayonining dastlabki bosqichdagi asosiy jihatlaridan biridir. Aynan shu investitsiya jarayonida kapitalning butun bo'lajak samaradorligiga, bundan keyingi harakati xususiyatiga zamin qo'yiladi.

Shunday qilib, kapital aylanishining dastlabki bosqichida quyidagilar pul kapitalining eng muhim vazifalari hisoblanadi: 1) yangi shakllanayotgan tizim uchun tegishli loyihani ishlab chiqish, uni amalga oshirish shartlari va imkoniyatlarini belgilash, korxonani vujudga keltirish, uni ishga tushirish, o'zlashtirish, keyinchalik faoliyat ko'rsatishida barcha ichki va tashqi sharoitlarni oldindan ko'ra bilish, ishlab chiqarishning zarur omillarini sotib olish, yangi tegishli ishchi kuchi tarkib topishi borasida sharoitlarni yaratish; 2) faoliyat ko'rsatayotgan kapital uchun avvalgi ishlab chiqarish bosqichida iste'mol qilingan ishlab chiqarish vositalarining o'rniga ishlab chiqarish vositalari elementlarini o'z vaqtida xarid qilish.

Birinchi bosqich nihoyasiga yetishi bilan kapital ishlab chiqarish kapitali shaklini qabul qiladi, unda ishlab chiqarishning ratsional jarayoni uchun zarur bo'lgan ma'lum ishlab chiqarish vositalari, axborot tizimi va ishchi kuchining yig'indisi mujassam bo'ladi. Mana shu, kapital ishlab chiqarish omillari va ishchi kuchi moddiy ko'rinishini qabul qiluvchi bosqichda uning ishlab chiqarishdagi iste'moli boshlanadi. Natijada, xodimlar ma'lum buyumlarni yaratadilar, xizmatlarni ko'rsatadilar, muayyan ishni bajaradilar. Ishlab chiqarish kapital harakatining umumiy ko'rinishi hisoblanadi, ko'p nuqtalar muomaladagi tanaffus va doimiy takrorlanishlarni anglatadi.

***Ikkinchi bosqich*** alohida xizmat mazmuniga ega .

1. Ishchi kuchini iste'mol qilish ro'y beradi, bu jarayonda xodimlar muayyan buyumni yaratish bo'yicha mehnat vazifalarining ma'lum yig'indisini bajaradilar. Har bir xodim o'z ish joyida ma'lum ishni bajarib kuch- quvvat sarflaydi, bu ularning qayta tiklanishini va haq to'lanishini talab qiladi. Ayni vaqtda xodim mehnat tajribasini orttiradi, o'z malakasini oshiradi, bu esa, hisob-kitoblarni va tegishli rag'batlantirishni talab qiladi.



2. Buyumlarni tayyorlash mobaynida ishlab chiqarishning moddiy va axborot omillari, pul kapitali iste'mol qilinadi, ularning qiymati ishlab chiqarishning asosiy chiqimlarini shakllantirib, tayyorlangan mahsulotga ko'chib o'tadi.

3. Ayni vaqtda har bir xodim o'zi sarflagan kuch-g'ayratni ishlab chiqarishning tegishli mahsulotlarida, qo'shimcha qiymat ko'rinishida amalga oshiradi. Investitsiya qilingan mehnat qiymati harakatining ma'lum xususiyati dastlabki mehnatni xodimlarning ish haqiga va korxonaning foydasiga aylantiradi. Shu bilan birga, qo'shimcha qiymatning har ikki qismi ishchi kuchi va kapital harakatining tarixiy, ob'ektiv omillari hisoblanadi, ularning har biri tayyorlangan mahsulotda unga qilingan chiqim (xarajat) qiymat ko'rinishida buyumga aylanadi. Bu tayyorlanayotgan mahsulot, xizmat, bajarilayotgan ish narxining moddiy asoslaridan biri bo'lib xizmat qiladi.

4. Mazkur iqtisodiy tizim faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishini, uning aylanishi muntazam takrorlanib turishini ta'minlashga qodir tegishli ishlab chiqarish chiqimlarining shakllanishi ro'y beradi. Ushbu vazifaning amalga oshirilishi aylanishning ishlab chiqarish bosqichida ham pul kapitalining harakatini belgilaydi, bu, avvalambor, pullarning hisob-kitob vazifasida namoyon bo'ladi. Sarflangan mehnatni, uning voqeliqdagi barcha ko'rinishlari – jonli, moddiy buyum, axborot, pul ko'rinishlarini aniq hisob-kitob qilish ishlab chiqarish bosqichida pul kapitalining asosiy xizmat roli hisoblanadi. Kapital aylanishining ***navbatdagi bosqichi*** – tovar kapitalini realizatsiya qilish bosqichi: **T – P**. Ishlab chiqarish iste'moli natijasida muayyan naflilikka (iste'mol qiymatiga) va individual qiymatga ega tovar, xizmat yaratiladi, qiymatning kattaligi ma'lum darajada individual chiqimlar bilan belgilanadi. Yaratilgan tovarni bozorda sotish; ishlab chiqarish individual chiqimlarini va jamiyatda ishlab chiqarish chiqimlarining yig'indisi, shu tovarga talab va taklif, bozorda realizatsiya qilish shart - sharoitlari bilan mazkur kapital ijtimoiy samaradorligini aniqlash tovar kapitali harakati mazkur bosqichining vazifasi hisoblanadi. Yaratilgan mahsulot qiymatining dastlabki taqsimoti ham shu bosqichda amalga oshiriladi. Ishlab chiqarish chiqimlarining miqdori, avvalambor, uni to'ldirish fondini, ya'ni mazkur iqtisodiy tizimni saqlab qolish maqsadida sarflangan resurslarning o'rnini qoplash uchun zarur bo'lgan pul kapitali miqdorini ajratish imkonini beradi. Bundan tashqari jamg'arma fondi ajratmalarga muhtoj, busiz tizimni rivojlantirish, ya'ni bir maromda hayot kechirishi mumkin emas. Qolgan mablag' korxonada va jamiyatning boshqa sub'ektlari (davlat, bank, sug'urta kompaniyalari va hokazolar) o'rtasida taqsimlanishi lozim.

Xaridor ehtiyojini qondirish tovar kapitali harakatining muhim vazifasi hisoblanadi. Bu – uning asosiy maqsadi va maromida aylanishining shartidir. Faqat muayyan iste'molchi ana shu buyumni xarid qilib, xizmatdan foydalanib, tovar kapitalining yana pul kapitaliga aylanishini ta'minlaydi, shunday qilib, kapital harakatining navbatdagi bosqichi tiklanishiga, uning faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishiga imkoniyat yaratadi. Realizatsiya jarayonida mazkur tovarning nafaqat nafliligi, shu bilan birga, uning ijtimoiy qiymati aniqlanadi, bu kapital aylanishi samaradorligini aniqlab beradi. Tovar kapitalini realizatsiya qilish jarayonida foyda miqdori, kapital harakatining tezligi va aylanish shart -sharoitlarini, mazkur kapital raqobat qobiliyatini uning milliy va xalqaro tizimlar ichidagi boshqa shu xildagi kapitallar bilan o'zaro hamkorligini, kapitalning boshqa tarmoqlarda band bo'lgan kapitallarga nisbatan rentabellik darajasini ta'minlovchi foyda miqdori aniqlanadi. Bu, o'z navbatida, kapitalni jamg'arish taqdirini, uning bundan keyingi harakatini belgilaydi, faoliyat ko'rsatayotgan firma, uning bozori oldi-sotdisi jarayoniga ta'sir o'tkazadi. Jumladan, kapitalning ma'lum tavsiflariga asoslangan iste'mol qiymati (korxonalar, firmaning nafliligi) sezilarli darajada uning qayta ishlab chiqarilishi ratsionalligiga bog'liq, bu daromadlilik darajasida ko'zga tashlanadi. Kapitalning asosi hisoblanuvchi mulkning qiymati faqat mehnat vositalari (asosiy kapital, fondlar) qiymatiga bog'liq bo'lishi mumkin emas. Bu – kapitalning elementlari xolos. Kapital – qayta ishlab chiqaruvchi, tabiatan yaxlit tizimdir. Aynan kapital tizim sifatida oldi-sotdi bozorida faoliyat ko'rsatayotgan korxonaning bozor bahosi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Bu yerda ham kapitalning samaradorligi uning bahosi uchun asos hisoblanadi. Gap shundaki, kapitalning birona ham elementi, qayta ishlab chiqarishdagi roli naqadar katta bo'lishidan qat'i nazar, baholash uchun yagona asos bo'lib xizmat qila olmaydi.

Ishlab chiqarish jarayoni uzluksizligi oqibatida fondlarning aylanishi birin - ketin takrorlanib turadi, oborot hosil qiladi.

Fondlar oboroti, alohida hodisa emas, vaqti-vaqti bilan takrorlanib turuvchi hodisa sifatida qaraladigan, buning natijasida qiymatning avans sifatida sarflangan jami miqdori o'zining boshlang'ich ko'inishiga qaytadigan fondlar aylanishiga aytiladi.

Fondlar oboroti – bir davr bo'lib, ana shu davr mobaynida fondlarning o'zi qayta yaratiladi, ya'ni takror ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etuvchi, avans sifatida sarflangan jami kapital qaytib keladi. Avans sifatida sarflangan kapital jami qiymatining qaytishi fondlar oborotini tashkil etuvchi qator aylanishlar natijasida sodir bo'ladi. Kapital aylanishi jarayoni kapitalning ishlab chiqarish va muomala vaqtidagi harakati o'ziga xos jihatlarini ko'rsatadi.

Ishlab chiqarish vaqti, ya'ni ishlab chiqarishning barcha omillaridan, kapitalning xizmat qiluvchi barcha ko'rinishlaridan unumli foydalanish vaqti aylanishning iqtisodiy asosi hisoblanadi. Birinchidan, ana shu vaqtda mahsulot yaratiladi; ikkinchidan, uning qiymati asosiy qismi ishlab chiqariladi; uchinchidan, buyumning hayot bosqichlari, bu demak, kapital harakatining o'z xususiyatlariga, tarkibi va tuzilishiga ega bo'lgan butun jarayoni dinamikasi oldindan belgilanadi.

Ishlab chiqarish vaqti o'zining iqtisodiy mazmuniga, mahsulot yaratishga uning chiqimlari (qiymati) shakllanishiga, kapital harakati dinamikasi ta'siriga ko'ra bir xilda emas. Ishlab chiqarish vaqtini quyidagilarga ajratish mumkin: 1) mehnat qilish vaqti, ya'ni xodimning mehnat samarasi bo'lmish buyumga bevosita ta'sir o'tkazish, bevosita buyumlarni yaratish, yetakchi texnologiya jarayonlarini bajarish vaqtlari; 2) mehnat jarayonidagi tanaffuslar vaqtiga, bu ham bir xil emas. Ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan texnologik tanaffuslar vaqti: g'alla, mevalarning yetilishi, ishlab chiqarishga tayyorgarlik, nazorat operatsiyalarini takomillashtirish vaqtlari va boshqalar shular jumlasiga kiradi. Bu – mahsulotning iste'mol qiymati yaratilayotgan va takomillashtirilayotgan, uning qiymati shakllanayotgan vaqtdir.

Tanaffuslarning bir qismi – texnologiya jarayonining buzilish natijasi: bekor turishlar, ta'mirlashlar (ko'zda tutilmagan), safsatabozlik, tamaki chekish va mehnat unumdorligini pasaytiruvchi, chiqimlarni ko'paytiruvchi ishlab chiqarish vaqtining behuda sarflanishi shular jumlasidandir; 3) zaxiralar vaqti ishlab chiqarish vaqtining salmoqli ulushini tashkil etadi. Ishlab chiqarish jarayonlari vaqtining har xilligiga asoslangan korxonalar oborotlarining farqi zaxiralar yaratish zarurligini izohlaydi, zavod, firmalararo, sex va operatsiyalar oralig'idagi zaxiralarni ajratib ko'rsatish mumkin. So'nggi zaxiralar odatda, tugallanmagan ishlab chiqarish sifatida ta'riflanadi. Ishlab chiqarish sohasidagi, yetkazib berish, boshqaruv sohasidagi fan-texnika taraqqiyoti ishlab chiqarish omillarining zaxirada bo'lish vaqtini sezilarli darajada qisqartirish imkonini beradi. Bu vaqtda ular maydonlarni egallab turadi, mehnatni band qiladi, korxonalar fondlarini bog'lab qo'yadi, ammo hech narsa yaratilmaydi. Buning ustiga zaxiralar hajmi kapital aylanishi tezligini, ya'ni uning samaradorligini belgilaydi. Zaxiralarning ko'payishi kapital harakatini, uning foydaliligini kamaytiradi. Aylanish vaqti quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Tayyor mahsulotning korxonalar omborida turish vaqti. Ana shu davr mobaynida buyumlarning iste'mol xususiyatlari saqlab turiladi, tayyor mahsulotni komplektlash amalga oshiriladi, buyumlarning «tranzit», deb atalmish partiyasi, ya'ni vagon, treyler, temir yo'l sostaviga va hokazolarga ortish uchun zarur miqdori jamlanadi.

2. Mahsulotni transportda iste'molchiga yetkazish vaqti. Bu yetkazib beruvchi va iste'molchi bir - biridan naqadar olisda joylashganligiga, yo'l sharoitlari va hokazolarga bog'liq.

3. Tayyor mahsulotni realizatsiya qilish vaqti, ya'ni uni tovar ko'rinishidan pul ko'rinishiga aylantirish vaqti. Bu vaqt mahsulotga bo'lgan talabga, ishlab chiqaruvchining marketing sohasidagi faoliyatiga va boshqa shart-sharoitlarga sezilarli darajada bog'liq.

4. Ishlab chiqarish omillarining yangi zaxiralarini sotib olish vaqti. Individual kapitalarning aylanish jarayonida ularning har biri uzluksiz ravishda ishlab chiqarish va aylanish vaqtini bosib o'tadi, ayni vaqtda individual ishlab chiqarish kapitali yaxlit tizimining elementi bo'lib qolaveradi.


### 22.3. Korxonaning kapitali (ishlab chiqarish fondlari)ning tarkibiy tuzilishi.

#### Asosiy kapitalning jismoniy va ma'naviy eskirishi

Kapital tarkibiy tuzilishini ko'rib chiqish kapital aylanishini, ishlab chiqarish chiqimlarini, amortizatsiya chegirmalarini, jismoniy va ma'naviy eskirishni tushunish uchun amaliy ahamiyatga ega (22.1 - chizma).

Aylanish xususiyatidan kelib chiqib kapital asosiy va aylanma qismlariga bo'linadi.

Korxonaning asosiy kapitali, asosiy ishlab chiqarish fondlari kapital harakatining moddiy asosi hisoblanadi. Binolar, ishootlar (passiv qismi), mashinalar, mexanizmlar, uskunalar, apparaturalar (faol qismi) shular jumlasiga kiradi.



22.1 -chizma. Korxonaning kapitalining tarkibiy tuzilishi.

Ishlab chiqarish kapitalining aylanishi – ishlab chiqarish kapitalining bir qismi bo‘lib, u har bir ishlab chiqarish bosqichida to‘liq iste‘mol qilinadi. Xom ashyo, materiallar, yoqilg‘i, yarim fabrikatlar, ish haqi shular jumlasidan, ularning ishlab chiqarishda iste‘mol qilinishi ularning natura ko‘rinishi o‘zgarishiga va mutlaqo yangi iste‘mol xususiyatlariga ega mahsulot ishlab chiqarilishiga olib keladi. Ishlab chiqarish kapitalining aylanishi (korxonalaridagi xom ashyo va materiallar zaxirasi) pul ko‘rinishidagi muomala fondi bilan birgalikda korxonaning aylanma pul mablag‘larini tashkil etadi. Ishlab chiqarish asosiy fondlarining aylanishi jarayonida ularning takror ishlab chiqarilishi amalga oshiriladi. Mazkur jarayonning iqtisodiy mazmuni iste‘mol qilingan eskirish ko‘rinishida asosiy ishlab chiqarish fondlari qiymatining qoplanishini bildiradi.

Ishlab chiqarishning asosiy fondlarini eskirishi – bu asosiy ishlab chiqarish fondlarining o‘z iste‘mol xususiyatlarini va ishlab chiqarishdagi foydaliligini asta-sekin boy berishi natijasida ularning qiymati kamayib borishini anglatadi. Eskirish jismoniy va ma‘naviy eskirish, deb ikkiga ajratiladi.

**Jismoniy eskirish** – binolar, inshootlar, mashinalar, jihozlar bunyod etilgan natural materiallarning (metall, yog‘och, sement va hokazolar) eskirishi natijasidir. Jismoniy eskirish hajmi asosiy ishlab chiqarish fondlaridan naqadar uzoq vaqt, muqim foydalanilganiga bog‘liq. Eskirish muddati, odatda, asosiy kapital elementlarini ishlab chiqaruvchilar tomonidan belgilanadi.

Eskirish miqdorlari ishlab chiqarish chiqimlari sirasiga kiritilishidan kelib chiqib, uning ikki turi farqlanadi. Birinchi turdagi jismoniy eskirish – bu ishlab chiqarish jarayonida foydalanilganligi natijasida ishlab chiqarish fondlarining o‘z iste‘mol xususiyatlarini yo‘qotishidir. Eskirishning mazkur turi tabiiy, deb hisoblanadi, ishlab chiqarish hajmi bilan bog‘liq va ishlab chiqarishning o‘zgarib turuvchi chiqimlari elementini tashkil etadi. Jismoniy eskirishning ikkinchi turi – bu korxonaning bekor turishi yoki asosiy ishlab chiqarish fondlaridan samarasiz foydalanish oqibatidagi yemirilish natijasidir. Eskirishning bu to‘rini doimiy chiqimlar sirasiga kiritishadi.

Jismoniy eskirishdan ko‘riladigan yo‘qotishlarni joriy va kapital ta‘mirlash hisobiga qisqartirish mumkin. Bu fondlarning jismoniy holatini ma‘lum darajada saqlab turish imkonini beradi, ammo vaqt o‘tgan sayin ularning samaradorligi kamayib boraveradi.

**Ma‘naviy eskirish** – bu, jismoniy eskirishdan qat‘i nazar, mehnat vositalari va ularning ishlab chiqarish qobiliyati qiymatining kamayib borishidir. Bozorga yangilangan yoki yangi texnikani yetkazib berayotgan fan-texnika taraqqiyoti ma‘naviy eskirishning moddiy asosi hisoblanadi.

*Ma'naviy eskirishning ikki ko'rinishi* farqlanadi. *Birinchi ko'rinishi* – korxonalarda ishlatilayotgan texnikaga o'xshagan yangi texnikaning paydo bo'lishi, ammo uning ishlab chiqaruvchi tarmoqlarda mehnat unumdorligi oshganligi sababli korxonada ishlatilayotgan texnikadan arzonroq sotilishi oqibatida vujudga keladi. Ma'naviy eskirishning bu ko'rinishi jismoniy eskirish muddatlari tugamasdan turib, eski texnikani yangisi bilan almashtirish zaruratini keltirib chiqarmaydi. Ammo eskirishning bu turi ham chakana yo'qotishlardan guvohlik beradi va ishlatilayotgan dastgohlardan yanada faolroq foydalanish zaruratini keltirib chiqaradi.

Ma'naviy eskirishning *ikkinchi ko'rinishi* bozorda yangi, korxonada ishlatilayotganiga qaraganda yanada unumliroq ishlab chiqarish vositalari paydo bo'lganida vujudga keladi. Ma'naviy eskirishning bu ko'rinishi jismoniy eskirish muddati tugamay turib dastgohning almashtirilishini taqozo etadi. Aks holda korxonada o'z mahsulotlarini yangi texnikadan foydalanayotgan boshqa korxonalarga qaraganda kattaroq chiqim bilan ishlab chiqaradi. Bunday korxonada o'rtachadan kam foyda oladi va o'zining raqobat qobiliyatini boy beradi.

Ma'naviy eskirishni doimiy chiqimlar sirasiga kiritadilar, chunki uning miqdori ishlab chiqarish hajmlarining o'zgarishi bilan bog'liq emas.

Ishlab chiqarish asosiy fondlarining eskirish qiymati yaratilayotgan mahsulotga ko'chiriladi va u realizatsiya qilish vaqtida qoplanadi. Tayyor mahsulot realizatsiyasidan tushgan mablag'lardan eskirish qiymati tegishli amortizatsiya hisobiga o'tkazilib, amortizatsiya fondi tashkil etiladi.

*Amortizatsiya* deganda, ishlab chiqarish asosiy fondlarining qiymatini oz-ozdan (eskirib borgani sayin) ishlab chiqarilayotgan mahsulotga o'tkazish jarayoni tushuniladi. Asosiy ishlab chiqarish fondlarini takror ishlab chiqarish yangi qurilishlarini olib borish va to'liq ta'mirlash (eski, ishdan chiqqan o'zellarni yangilariga almashtirish) yo'li bilan amortizatsiya fondi hisobidan amalga oshiriladi.

Yillik amortizatsiya miqdori ishlab chiqarish asosiy fondlarining qiymatiga va ularning xizmat muddatiga bog'liq. Ishlab chiqarishning asosiy fondlari *passiv qismi* (binolar, inshootlar) ning xizmat muddati anchagina (30 – 50 yil). Asosiy ishlab chiqarish fondlari faol qismining xizmat muddati nisbatan qisqaroq bo'lib, ko'proq ma'naviy eskirishga moyil.

*Asosiy tamoyil* – fan texnika taraqqiyoti sur'atlarining tezlashishi ta'siri ostida ishlab chiqarish asosiy fondlarining faol qismi xizmat muddatlarining qisqarishidir. Bu amortizatsiya siyosatini va uni amalga oshirish mexanizmlarini o'zgartirish zaruratiga olib keladi.

## **Qisqacha xulosa**

Bu yerda shuni hisobga olish kerakki, «kapital» tushunchasi (lat. Capital – asosiy, bosh) uchta asosiy ma'noga ega. Birinchidan, markscha, kapital – bu o'z-o'zidan o'sadigan qiymat yoki bu shunday qiymatki, u yollangan mehnatni ekspluatatsiya qilish natijasida qo'shimcha qiymat olib keladi. Bu yerda klassik mafkuraviy ma'noga ega: kapital burjuaziya tomonidan ishchilarni ekspluatatsiya qilishdir. Ikkinchidan, kapital keng ma'noda – bu har qanday mol-mulk (pullar, aksiyalar, oblegatsiyalar, stanoklar, mashinalar, ko'chmas mulk va boshqalar), ya'ni «bular doimo o'sish holatida bo'ladi» (Dadli Nort 1641 – 1691), u Angliya savdogori, iqtisodchi, klassik siyosiy-iqtisodning eng birinchi vakillaridan, ya'ni bu o'zining egasiga daromad olib keladi. Nihoyat uchinchidan, kapital tor ma'noda bu kishilar ishlab chiqaradigan ishlab chiqarish vositalarning bir qismi. Aynan mana shu – ishlab chiqarilgan kapital (yoki ishlab chiqarish fondi) bo'ldi. Shu bilan birga, kapital har xil shakllarni qabul qilishi mumkin:

- 1) sezib bo'ladigan, ya'ni imorotlar, inshootlar, asbob-uskunalar, mashinalar, xom ashyolar, materiallar va boshqalar;
- 2) yer unumdorligini yaxshilaydigan kapital qo'yilmalari;
- 3) inson kapitali, ya'ni ilm olish va amaliy faoliyat jarayonida oladigan bilarmonlik qobiliyati, tajribasi;
- 4) pul kapitali.

Ishlab chiqarishda kapital asosiy va aylanma kapitalga ajratiladi. Asosiy kapital – bu ishlab chiqarish vositalari bo'lib, ishlab chiqarish jarayonida bir necha bor foydalaniladi va o'zining qiymatini tayyor mahsulotga yoyish, yoyilib ketish, siyqalanish, eskirish o'lchami natijasida qisman-qisman o'tkaziladi.

Kapitalning yoyilishi jismoniy va ma'naviy bo'ladi. Asosiy kapitalning qiymatini yil sayin qisman hisobdan chiqarish amortizatsiya, deb ataladi. Aylanma kapital – bu ishlab chiqarish vositalari bo'lib, bular ishlab chiqarish jarayonida bir marta qatnashadi va o'zining qiymatini tayyor mahsulotga to'liq o'tkazadi (xom ashyolar, materiallar, yoqilg'i va boshqalar).

## **Asosiy atamalar**

Kapital.

Asosiy kapital.

Aylanma kapital.

Amortizatsiya.

Jismoniy eskirish.

Ma'naviy eskirish .

### **Mavzuning namunaviy savollari**

1. Kapital tushunchasi va uning turlari.
2. Kapital to'g'risida har xil maktablarning tahliliy qarashlari.
3. Kapital o'z-o'zidan o'sadi, degan fikrga siz qanday qo'shilasiz?

### **Seminar darslarida muhokama qilinadigan savollar**

1. Kapitalning har xil ma'noda tarifi qilinishi.
2. Kapital to'g'risida iqtisodchi olimlarning fikri va munozaralari.
3. Kapital bu iqtisodiy munosabatlarda asosiy ko'rsatkich ekanligi nimadan iborat?

### **Mustaqil ta'lim uchun savollar**

1. Kapital o'z-o'zidan o'sadigan qiymat.
2. Asosiy va aylanma kapital hamda uning uch bosqichini aytib bering.
3. Umuman, kapital korxonada rivojlanishining moddiy asosi sifatida ekanligini dalillab bering.



## 23 BOB. MENEJMENTNING USLUBIY ASOSLARI

### 23.1. Menejmentning mohiyati

*Menejment*—bu bozor va bozor iqtisodiyoti sharoitlarida boshqaruv bo‘lib, u quyidagilarini anglatadi:

– firmani bozor talab va taklifiga, iste‘molchilar ehtiyojiga javob beradigan firmalarga belgilangan daromad keltiradigan va talabga ega bo‘lgan mahsulot turlarini ishlab chiqarishni tashkil etishga yo‘naltirishni;

– ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga doimiy ravishda intilishni, kam xarajatlarni yuqori natijalarga erishishni;

– xo‘jalik mustaqilligiga ega bo‘lishni;

– bozordagi ahvolga muvofiq ravishda maqsad va dasturlarga doimiy ravishda tuzatishlar kiritishini;

– firma yoki uning mustaqil bo‘linmalari faoliyatining so‘nggi natijasi bozordagi ayirboshlash jarayonida namoyon bo‘lishini;

– kompyuter texnikasiga ega hozirgi zamon axborot bazasiga asoslangan va optimal qaror qabul qilishda, ko‘p variantli hisobotlarda foydalanish zaruriyatini.

«*Menejment*» atamasi mohiyatiga ko‘ra boshqarish atamasiga yaqin, uning sinonimi bo‘lsada, to‘liq ma‘noda emas.

«Boshqaruv» atamasi faqat firma doirasida bozor sharoitlarida ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni boshqarishga nisbatan qo‘llaniladi.

«*Menejment*» atamasi AQShda vujudga kelgan bo‘lib, boshqa tillarga tarjima qilinmaydi.

Kasbiy faoliyat turi sifatida menejment shuni taqozo etadiki, menejer o‘zi ishlayotgan firma kapitaliga mulkchilik borasida mustaqil firma aksiyalariga ega holda yoki aksiya bo‘lmagan holda menejer mehnati ishlab chiqaruvchi mehnat bo‘lib, u yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni, butun ishlab chiqarish jarayoni bilan aloqasini va birligini ta‘minlovchi yuqori malakali xodimlar faoliyati kombinatsiyasi natijasida vujudga keladi. Shuning uchun menejment turli mutaxassislikka ega xodimlarni muhandis, loyihachi, marketolog, iqtisodchi, stilist, psixolog, rejachilar buxgalterlarni birlashtiradi, ular korxonani, ishlab chiqarish bo‘limi yoki umuman, firmani boshqaruvchi menejer rahbarligi ostida ishlaydilar.

Menejmentda xo‘jalik faoliyati deganda firma faoliyatining quyidagi jihatlari tushuniladi:

– iqtisodiyotning har qanday tarmog‘ida: sanoat, savdo, transportda, bank va sug‘urta ishlarida hamda boshqalarda;

– firma faoliyatining har qanday sohasida ilmiy tadqiqot, tajriba, konstruktorlik izlanishlarini olib borish, tayyor mahsulotni o‘tkazish, moliya sohasi.

Shunday qilib, «menejment» faoliyati xususiyatlaridan qat’iy nazar o‘z maqsadini daromad olishga qaratgan firmalar, korxonalar kategoriyalariga taaluqlidir. Menejment nafaqat sanoat firmalari faoliyatini, balki bozorda mustaqil iqtisodiy sub’ekt sifatida chiquvchi banklar, sug‘urta jamiyatlari, sayyohlik agentliklari, mehmonxonalar, transport kompaniyalari, xo‘jalik birliklarini ham qamraydi.

Firmaning xo‘jalik faoliyati ishni shunday usulini qo‘llaydiki, uning asosida yangi imkoniyatlarni doimo izchil, qo‘yilgan vazifalarni hal qilish uchun ishlab chiqarish omillari samaradorligiga erishish, turli manbalardan resurslarni jalb qilish va ulardan foydalana bilish yotadi.

Firma faoliyatining yaqin va o‘zoq istiqboldagi maqsadlarini belgilash–menejmentning asosiy jihatidir.

Maqsadlar umumiy va maxsus bo‘ladi. Umumiy maqsadlar firma rivojining umumiy konsepsiyasini namoyon qiladi, maxsus maqsadlar esa, uning turlari bo‘yicha ishlab chiqiladi.

Moddiy va mehnat resurslaridan omilkorlik bilan foydalanish shuni taqozo etadiki, minimum sarflar bilan maksimum samaradorlik asosida maqsadga erishish bu esa, boshqaruv jarayonida amalga oshiriladi. Firma xodimlari mehnatga rag‘bat asosida o‘z harakatlarini umumiy maqsadlarga erishishga yo‘naltiradilar.

Menejment o‘z iqtisodiy mexanizmiga ega bo‘lib, u xo‘jalik faoliyati jarayonida vujudga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy, texnologik, ijtimoiy-psixologik vazifalarni amalga oshirishdagi o‘z ta’sirining muayyan muammolarini hal qilishga qaratilgan.

Menejmentning iqtisodiy mexanizmi uch blokdan: ichki firma boshqaruvi; ishlab chiqarishni boshqarish; xodimlarni boshqarishdan iborat.

### **23.2. Menejment tushunchalarining mazmuni**

«Menejment» tushunchasining mazmuniga boshqarish fani va amaliyoti, firmani boshqarishni tashkil etish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayoni sifatida qarash mumkin.

Boshqaruvning ilmiy asoslari deganda, boshqaruv amaliyotining nazariy asosini tashkil etuvchi, aniqroq aytganda, menejment amaliyotini ilmiy tavsiyalar bilan ta’minlovchi ilmiy bilimlar tizimi tushuniladi.

Boshqaruv to'g'risidagi fan quyidagi olimlarning asarlarida o'z rivojini topdi: D.M.Gvishiani, G.X.Popov, A.G.Agambegyan, A.I.Anchishkin, A.Fayol, P.Druker, M.X.Maskan, X.Volfgang, I.Aksoff va boshqalar.

Boshqaruv ilmi bo'yicha asarlarning mualliflari quyidagi ilmiy qoidalarni ilgari surdilar va asosladilar:

- muayyan vazifalarni hal qilish va maqsadlarga erishishning eng yaxshi usullarini aniqlashda ilmiy tahlildan foydalanish;

- muayyan vazifalarni bajarish uchun eng to'g'ri keladigan xodimlarni tanlab olishning muhimligi va ularni o'qitishni ta'minlash;

- vazifalarni samarali bajarish uchun talab qilinadigan resurslar bilan xodimlarni ta'minlash.

Ilmiy boshqaruv konsepsiyasi XX asr boshlarida AQShda o'z rivojini topdi. Uning asoschisi F.Pilor bo'lib, uning ilmiy boshqaruv tamoyillar kitobi menejmentni tan olishning boshlanishi bo'ldi.

F.Pilor menejmentni aniq qonunlar, qoidalar, tamoyillarga asoslangan haqiqiy fan deb hisoblar edi. F.Pilor boshqaruv bu ma'lum mutaxassislik bo'lib, xodimlarning har bir guruhi o'zi eng yaxshi bajaradigan ish bilan shug'ullansa, tashkilot umuman, yutadi degan xulosaga keladi.

Ilmiy boshqaruv konsepsiyasi mualliflari o'z izlanishlarini asosan, ishlab chiqarishni boshqarishnin asosiy muammolariga, xususan ishlab chiqarish samaradorligini oshirish masalalariga bag'ishlaydilar.

Ma'muriy boshqaruv konsepsiyasi tashkilotni boshqarishning umumiy muammolari va qoidalarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan tashkilotning maqsadlariga yaxshiroq erishmoq uchun uni tartib bilan boshqarish kerak, degan tushunchani ilgari suradi. Bu konsepsiya boshqaruvning klassik maktabi, degan nom oldi.

Klassik maktab nazariyasi vakillaridan biri A.Fayolning konsepsiyasiga binoan boshqarish – oldindan ko'ra bilish, tashkil qilish, muvofiqlashtirish, nazorat qilish demakdir. Olimning bu fikri boshqaruv nazariyasi endi rivojlana boshlagan 1923 yilga taalluqli. A.Fayol boshqaruvga firmaning resurslari va imkoniyatlaridan nihoyatda samarali, optimal foydalangan holda, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishiga qaratilgan qoidalar, usullarning majmui sifatida qaragan. A.Fayolning boshqaruv nazariyasiga qo'shgan asosiy hissasi shundaki, u boshqaruvga universal jarayon sifatida qarab, bu jarayon bir qancha o'zaro bog'liq: rejalashtirish, tashkil etish, nazorat qilish funksiyalaridan iboratdir, deydi. U ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish tamoyillarini ham ishlab chiqqan.

Bundan tashqari boshqaruvning bir qancha konsepsiyalari mavjudki, ular quyidagilardir: 1. Psixologiya va insoniy munosabatlar nuqtai nazaridan

boshqaruv konsepsiyasi. U 30–50 yillarda kengaygan bo‘lib, xodimlarning o‘z mehnatidan qoniqqanlik darajasi mehnat unumdorligining oshishini tashkil etadi. 2. Moslashuv konsepsiyasi, unga ko‘ra firmalar real xo‘jalik faoliyatida o‘zlari uchun eng foydali yo‘nalishni tanlar ekan, tashqi muhit omillarini albatta, hisobga oladilar. 3. Global strategiya konsepsiyasi, firma faoliyatini optimallashtirishga qaratilgan. O‘nga ko‘ra butun korporatsiya faoliyatini optimalashtirishga yo‘naltirilgan yagona strategiyani ishlab chiqish zarur. 4. Maqsadli yo‘nalish konsepsiyasiga ko‘ra, rejalashtirish, nazorat, tashkillashtirish va sabab-oqibat jarayonlari boshqaruvga asos bo‘lishi kerak. 5. Xatti-harakat to‘g‘risidagi fan nuqtai nazaridan boshqaruv konsepsiyasi zamonaviy nazariya bo‘lib, 60-yillarda o‘z rivojini topdi. Uning asosiy mohiyati – inson resurslari samaradorligini oshirish natijasida tashkilotning samaradorligini oshirishdir.

Bozor boshqaruvining konsepsiyasi sifatida menejment alohida korxonalar faoliyatini boshqarishni takomillashtirishga qaratilgan. Boshqalariga nisbatan bu konsepsiyada alohida korxonalarining bozor munosabatlari bilan aloqasi yaqqol namoyon bo‘ladi.

Menejment nazariyotchilari bozor munosabatlarini tartibga solishga muhim ahamiyat berar ekan, firmaning har bir aniq mahsulot bo‘yicha bozor talabiga moslashishi zarurligiga alohida urg‘u beradilar. Shuning uchun bu nazariyaning tashkiliy texnik jihatlari «mahsulotni rejalashtirish»ga yo‘naltirilgan bo‘lib, umuman tovar bozorini o‘rganish bo‘yicha tadbirlar tizimini, dasturlar va bashoratlarni, yangi tovarlarni ishlab chiqarish va bozorga joriy etishni, tovarlarga talabni shakllantirish va uning realizatsiyasidan yuqori daromad olish tadbirlarini qamrab oladi.

Boshqaruvga bir qancha yondashuvlar mavjud bo‘lib, ularga jarayon sifatida yondashuv e‘tiborga molikdir. Unga ko‘ra tashkilot maqsadga yo‘naltirilgan faoliyat bir marta qilinadigan harakat emas, balki uzluksiz o‘zaro bog‘liq harakatlar boshqaruv vazifalarining tarkibi sifatida qaraladi. Boshqaruv vazifalariga quyidagilar kiradi: rejalashtirish, tashkil qilish, buyruq berish, sabab-oqibatlar, rahbarlik, muvofiqlashtirish, nazorat, kommunikatsiya, izlanishlar, baholash, qarorlar qabul qilish, xodimlarning tizimli yondashuviga ko‘ra rahbarlar tashkilotga odamlar, tuzilma, vazifalar va texnologiya kabi o‘zaro bog‘liq elementning majmui sifatida qarab, boshqaruvni o‘zgarayotgan jamiki sharoitlarda turli maqsadlarga erishishiga yo‘naltiradilar.

Vaziyatli yondashuvga ko‘ra turli usullarning yaroqliligi vaziyat bilan belgilanadi. Tashkilotning o‘zida, atrof-muhitda nihoyatda ko‘p omillar

mavjud ekan, tashkilotni boshqarishning vaziyatga mos keluvchi yagona eng samarali usuli bo'lishi mumkin.

Vaziyatli yondashuv tashkilotning faoliyatiga ta'sir qiluvchi asosiy ichki va tashqi omillarni belglashni taqozo etadi. Amaliy maqsadlar uchun menejerlar har bir vaziyatga ta'sir ko'rsatuvchi omillarnigina ko'rib chiqadilar.

Tadbirkorlik faoliyati davomida firmaning ma'lum natijalarga erishishi menejmentni tashkil etadi.

Har qanday tashkilotning maqsadi so'nggi natijalarga erishish uchun resurslardan (kapital, materiallar, texnologiyalar, axborotlar, mehnat resurslaridan) samarali foydalanishdan iborat. Buni amalga oshirish uchun faoliyatning turli ko'rinishlarini – vazifalarini bajarish kerak. Bo'linmalar ma'lum guruh odamlaridan tashkil topgan bo'lib, umumiy maqsadga erishish uchun ularning faoliyati ongli ravishda yo'naltiriladi va muvofiqlashtiriladi.

Tashkilot-korxonaning o'ziga xos anatomiyasi, boshqarish esa, uning fiziologiyasi. Boshqacha qilib aytganda, turgan holat, boshqaruv esa, uning harakatidir.

Boshqaruv organi, deganda ko'pincha firmaning vakili va uning nomidan harakat qiladigan rahbariyat tushuniladi.

Yirik firma odatda, o'z amallarida uch darajaga ega bo'lib, ularning har biri ingliz tilida «menejment» so'zini bildiradi. Bu:

*Top management*–boshqaruvning amaliy bo'g'ini, bosh rahbariyat;

*Middle management*–boshqaruvning o'rta bo'g'ini;

*Bottom management*–boshqaruvning quyi bo'g'ini;

Odamlar, xodimlar va jamoa ishini tashkil qiluvchi menejment boshqaruvini tashkil qilish xodimlar ehtiyojiga mos kelishi va ularning ishini faollashtirishi, mehnat unumdorligini oshirishi lozim.

Boshqaruv tizimi menejmenti firma yoki uning bo'linmasini boshqaruvchi sifatida chiqadi. Yagona birlik, deb qaraladigan ob'ektlar majmui tizim deyiladi.

Boshqaruv tizimi boshqaruv harakatlari amalga oshirilishini ta'minlovchi moddiy, moliyaviy, mehnat va boshqa resurslarga ega bo'lishi kerak.

Boshqaruv ta'sir harakatlari ijroiya organlariga boshqarilayotgan ob'ektning hammasidan ham tashqarisidan, ya'ni tashqi muhitdan yondashadi. Tashqi muhit to'g'risida axborotning mavjudligi xulosalar tizimining samaraliligini oshiradi, chunki o'z vaqtida boshqaruv jarayoniga o'zgartirishlar kiritish va tashqi muhit o'zgarishlariga – bozor sharoitlari va ularni tartibga solish tizimiga moslashish imkonini beradi.

Boshqaruv jarayonida vujudga keladigan har qanday vaziyat rahbar-menejer uchun asosiy masala bo'lib, undan qarorlar qabul qilishni talab etadi.

Bu qarorlar ko‘pincha harakat maqsadlari va dasturlarini o‘zgartirishga oid bo‘lishi mumkin. Boshqaruvchi ob‘ekt tashqi muhitga – bozor munosabatlariga ega bo‘lib, uning holatiga qayta aloqa asosida moslashishi kerak. Har qanday boshqaruv qarori bozor va tashqi muhitning boshqa elementlari bilan teskari aloqaning natijasidir.

Boshqaruv qarorlari ularni tayyorlash jarayonida olinadigan va qayta ishlanadigan axborot asosida qabul qilinadi.

Axborotni tahlil qilish va shu asosda boshqaruv qarorlarini qabul qilish menejmentning texnologiyasini tashkil etadi.

Menejmentga boshqaruv tizimi sifatida yondashuvning statika va dinamika faoliyati doirasida joriy va istiqbol uchun o‘rganishni jalb qiladi. Bu esa, ularga erishishning maqsadlari va ta’sir uslublarini shakllantirishda, boshqaruvning tashkiliy strukturasi, boshqaruvga ob‘ekt sifatida firmaning faoliyat yurgizishida namoyon bo‘ladi.

### **23.3. Menejmentning maqsadi va vazifalari**

Menejmentning pirovard maqsadi foyda olish yoki daromadni ta’minlashdir. Firmaning daromadligi uning ishlab chiqarish faoliyati samaradorligidan dalolat beradi, bunga xarajatlarni minimallashtirish va ishlab chiqarish natijalaridan keladigan daromadlarni maksimallashtirish yo‘li bilan erishiladi.

Bozor sharoitida hamisha xavf mavjuddir. Bunday sharoitda menejmentning maqsadi nafaqat joriy davrda, balki kelajakda ham xavfli vaziyatlarning oldini olish bo‘lib, buning uchun zaxirada ma’lum pul mablag‘lari bo‘lishi va menejer harakati uchun erkinliklar, berilishi talab etiladi. Shundan kelib chiqqan holda, menejmentning vazifalariga quyidagilar kiradi:

- ishlab chiqarishni avtomatlashtiruvini ta’minlash va yuqori malakali xodimlardan foydalanishga o‘tish;
- firma xodimlarini bilim olish va mehnat sharoitlarini yaxshilash hamda yuqoriroq ish haqi belgilash yo‘li bilan rag‘batlantirish;
- firma faoliyati samaradorligini muntazam nazorat qilish, firmaning barcha bo‘linmalari ishini muvofiqlashtirish;
- doimiy izlanish va yangi bozorlarni o‘zlashtirish.

Menejment hal qiladigan vazifalarga quyidagilar kiradi:

- firma rivojining aniq yo‘nalishlarini belgilash;
- maqsadlarning afzalligi, ularning navbati va hal qilinishi izchilligini aniqlash;

– firma rivoji uchun zarur xo‘jalik vazifalarini belgilash va ularni hal etish yo‘llarini ishlab chiqish;

– turli davrlarga belgilangan muammolarni hal qilish uchun tadbirlar tizimini ishlab chiqish;

– zarur resurslarni va ular bilan ta‘minlash manbalarini belgilash;

– qo‘yilgan vazifalarning bajarilishi ustidan nazoratni o‘rnatish.

Ishlab chiqarish jarayonini tartibga solish, tashkil etish, muvofiqlashtirish va nazorat qilish bo‘yicha menejment vazifalarining bajarilishi va belgilangan maqsadlarga erishish – bozorda yuqori baholanadi.

Boshqaruv vazifalari ishlab chiqarish ko‘lami o‘sib borishi davomida murakkablashadi.

#### **23.4. Menejmentning o‘ziga xos belgilari va bosqichlari**

Menejmentga xos belgilar iqtisodiy, ijtimoiy, psixologik, huquqiy va tashkiliy-texnik jihatlardan iborat.

*Iqtisodiy jihatning* mazmuni ishlab chiqarish jarayonini boshqarishdan iborat bo‘lib, uning vositasida maqsadlarga samarali erishish uchun bo‘lgan moddiy va mehnat resurslari muvofiqlashtirilishiga erishiladi.

*Ijtimoiy-psixologik jihat* – qo‘yilgan maqsadlarga erishish yo‘lidagi firmaning butun faoliyatini tasvirlaydi.

*Huquqiy – jihat* davlat, siyosiy va iqtisodiy institutlar tarkibini, ular olib borayotgan siyosat va belgilaydigan qonunchilikni tashkil etadi.

*Tashkiliy-texnik jihat* – vaziyatga to‘g‘ri baho berish, maqsad va vazifalar tizimini tanlash, bu vazifalarni bajarish uchun strategiyani izchil ishlab chiqish, talab qilinayotgan resurslar tarkibi, harakatiga rahbarlik qilish va ularning ustidan nazorat o‘rnatish, ana shu ishlarni amalga oshiruvchi odamlardan iborat.

Menejment faoliyati turlari va izchilligiga qarab uch bosqichga: strategik boshqarish, operativ boshqarish, nazorat qilishga bo‘linadi.

Strategik boshqarishga:

– menejmentning maqsadini ishlab chiqish;

– mavjud omillar ta‘siri ostida sodir bo‘ladigan rivojlanish natijalarini oldindan ko‘ra bilish;

– istiqbolli rejalashtirish.

Operativ boshqarish yuqorida ko‘rsatilgan choralarni amalga oshirish bo‘yicha faoliyatni o‘z ichiga oladi va quyidagilarga bo‘linadi:

– kerakli tarkib va zarur resurslarni barpo etish borasidagi tashkilotchilik

– barpo etilgan tarkib sharoitlarida rahbarlik qilish.

Samarali menejment boshqaruv jarayonining barcha turlari va bosqichlari jihat birligini, boshqaruvning iqtisodiy, tashkiliy-texnik va sotsial-psixologik jihatlari birligini taqozo etadi.

### **23.5. Menejer va uning vazifalari**

«Menejer» atamasi hozirgi tushunchamizda muhim lavozimni egallovchi rahbar yoki boshqaruvchini anglatadi.

«Menejer» atamasi yetarli darajada keng yoyilgan bo‘lib, quyidagi hollarda qo‘llaniladi:

– alohida bo‘linmalar va dasturiy-maqsadli guruhlar doirasida ishlarning belgilangan turlarini tashkil qiluvchiga nisbatan;

– umuman korxonaga yoki uning bo‘linmasi (boshqarmalar, bo‘linmalar, bo‘lim) rahbariga nisbatan;

– qo‘l ostida xodimlari bo‘lgan rahbar shaxsiga nisbatan;

– hozirgi uslublarga muvofiq ravishda ishni tashkil qiluvchi boshqaruvning har qanday darajadagi ma‘muriyatga nisbatan.

Menejerga nisbatan quyidagi sohalarda yuksak talablar qo‘yiladi, xususan:

– korxonaga boshqaruviga doir umumiy bilimlarning mavjudligi;

– firmaga taalluqli sohaning ishlab chiqarish texnologiyasi masalalarida vakolatlilik

– nafaqat ma‘murlik uquviga, balki tadbirkorlik xislatlariga ega bo‘lish, bozorlardagi vaziyatni tushuna bilish, tashabbus ko‘rsatish va firma resurslarini eng foydali sohalarga faol qayta taqsimlash;

– rahbarlar va xodimlar bilan kelishib qarorlar qabul qilish va ularni bajarishda har bir xodimning ishtirokini ta‘minlash;

– faoliyat yurgizayotgan yoki ishlash mo‘ljallangan asosiy bozorlar yoki ularning bo‘limlaridagi iqtisodiy vaziyatni tahlil qilish sohasida amaliy bilim va tajribaga ega bo‘lish;

– raqobatchi firmalar faoliyati va harakatlarini tahlil qila bilish;

– xo‘jalik kon‘yunkturasi rivoji tamoyillarini firma o‘zini kuchaytirmoqchi yoki saqlab qolmoqchi bo‘lgan mamlakatlarda davlatning iqtisodiyotini tartibga solish choralarini oldindan ko‘ra bilish;

– har qanday darajada menejer oldiga qo‘yiladigan talabni boshqarishni bilish;

– o‘z qo‘l ostidagilarni, ularning qobiliyatlarini, topshirilgan ishni bajarish imkoniyatlarini mukammal bilish;

– korxonaga va xodimlarni bog‘lovchi shartlarni bilish, har ikki manfaatlarini himoya qilish;



– qobiliyatsizlarni ishdan chetlatish shular jumlasidandir.

Firma nafaqat o‘z mijozlari iste‘molchilarning, balki o‘z xodimlarining hayotiy ehtiyojlarini qondirishi haqida ham g‘amxo‘rlik qilishi kerak.

### **23.6. «Tadbirkorlik», «biznes», «tadbirkorlik tizimi» tushunchalarining mohiyati va mazmuni**

Tadbirkorlik – tadbirkor, deb ataluvchi jismoniy va huquqiy shaxslar amalga oshiradigan mustaqil xo‘jalik faoliyatining asosiy turidir. Bu bozor xo‘jaligi iqtisodiy sub‘ektlarining kapital va resurslardan eng yaxshi foydalanish orqali belgilangan natijaga erishishga yo‘naltirilgan faoliyatidir. Bu iqtisodiy sub‘ektlar o‘z faoliyatlari natijalari uchun to‘la mulkiy javobgardirlar va mamlakatning qonun-qoidasiga to‘la bo‘ysunadilar.

Tadbirkorlik faoliyatning alohida turi sifatida o‘z sub‘ektlarida ma‘lum fikrlash tarzining, xo‘jalik xatti-harakatining alohida yo‘nalishi mavjudligini taqozo etadi.

Tadbirkorlik faoliyatining eng muhim vazifasi firma yoki yakka tadbirkorning samarali faoliyatini ta‘minlash bo‘lib, bu innovatsiya va innovatsion muhit bo‘lishini, qo‘yilgan vazifalarni hal qilish uchun resurslarni turli manbalardan jalb qilish va ulardan foydalana bilishi nazarda tutadi.

Tadbirkorlik mustaqil faoliyat sifatida sub‘ektlarning turli yo‘nalishlarda erkin harakat qilishi va mustaqilligini nazarda tutadi, ya‘ni tadbirkor faoliyatning turi va sohasini, bu faoliyat yo‘nalishlari va uslublarini tanlashda; xo‘jalik qarorlarini qabul qilish va ularni amalga oshirish vositalarini tanlashda; ishlab chiqarish dasturlarini shakllantirish, moliya manbalarini tanlash, mahsulot va xizmatlarni yetkazib berish, mehnat resurslari manbalarini tanlashda; mahsulotni o‘tkazish kanallari va uslublarini tanlashda; yollanib ishlayotgan shaxslarning ish haqi va boshqa daromad turlarining o‘lcham va tizimlarini belgilashda; turli soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni bajargandan so‘ng qoladigan, tadbirkorlik faoliyatidan keladigan daromadni o‘z ixtiyoriga qarab ishlatishda mustaqildir.

Tadbirkorlik xo‘jalik faoliyati sifatida firma yoki yakka tadbirkorning faoliyat turi, sohasidan qat‘i nazar xo‘jalik jarayonini tashkil qilish va boshqarishni nazarda tutadi. Xo‘jalik faoliyati innovatsiya, ishlab chiqarish va savdo-sotiq, maslahatlar berish, patent-litsenziya, qimmatbaho qog‘ozlar bilan savdo qilish; ichki firma muhiti hamda bozor xo‘jaligining boshqa ishtirokchilari bilan moliyaviy, huquqiy, hisob-kitob munosabatlari kabi sohalarni o‘z ichiga oladi.

Tadbirkorlik faoliyati jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladi. Jismoniy shaxslar – bu xususiy, yakka tadbirkorlar bo‘lib, ularning

huquq va majburiyatlari amaldagi qonunlar bilan mustahkamlangan. Huquqiy shaxslar xo‘jalikni o‘z nomidan yuritadi, tarkibiga kiruvchi shaxslardan qat’i nazar mustaqil, o‘z zimmasiga olgan majburiyatlari bo‘yicha mulkiy javobgarlikka ega huquqiy shaxsning mulki boshqa ishlovchilarning shaxsiy mulkidan alohida bo‘ladi.

Jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan tadbirkorlik faoliyati yakka, xususiy tadbirlikka kiradi.

Huquqiy shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan tadbirkorlik faoliyati jamoa tadbirkorligiga kiradi.

Tadbirkor xo‘jalik faoliyatini o‘z nomidan, nafaqat o‘zi uchun amalga oshiradi. U jismoniy yoki huquqiy shaxs sifatida faoliyat natijalarga mulkiy javobgar.

Tadbirkorlik faoliyati doimiy ravishda olib boriladi. Tadbirkorning sof foydasi yoki daromadining katta qismi shaxsiy iste’molga emas, xo‘jalik faoliyatining eng istiqbolli yo‘nalishlarini yanada rivojlantirishga yo‘naltiradi. Tadbirkorlik faoliyati kapitaldan, xususiy va boshqa mulklardan, moliyaviy, moddiy-texnika, mehnat resurslaridan yanada yaxshi foydalanishga qaratilgan.

Tadbirkorlik bozor xo‘jaligining iqtisodiy, alohida sub’ektlari mavjudligini taqozo etadi, ular o‘zaro huquqiy, moliyaviy va boshqa munosabatlarga kirishadilar. Bunday sub’ektlarni sheriklar, kontragentlar, bitimning tomonlari deb ataydilar. Iqtisodiy alohidalik ularning xo‘jalik yuritish borasida mustaqilligini va faoliyat natijalari uchun mulkiy javobgarligini bildiradi.

Bozor xo‘jaligining iqtisodiy alohida sub’ektlaridan bozorning firmali tuzilmasi – tarmoq, milliy, xalqaro tuzilmalari tashkil topadi.

Tadbirkorlik sub’ektining xo‘jalik faoliyati natijalari uchun mulkiy javobgarligini nazarda tutadi. O‘z faoliyatini huquqiy shaxs sifatida rasmiylashtirmay olib borayotgan tadbirkor shu faoliyat bilan bog‘liq majburiyatlar bo‘yicha mamlakat qonunlariga muvofiq barcha mulki bilan javobgardir.

Huquqiy shaxs sifatida o‘z faoliyatini amalga oshiruvchi tadbirkor firmaning huquqiy holatiga qarab uning natijalari uchun shaxsiy mulki yoki nafaqat kapitali bilan mulkiy javobgardir.

Tadbirkorlik ish natijalari uchun jamoaning javobgarligini emas, shaxsiy iqtisodiy javobgarlikni nazarda tutadi.

«Tadbirkor» tushunchasining mazmuniga «biznes» tushunchasi ham kiradi.

Biznes – bozor amaliyotida vujudga kelgan muayyan faoliyat shakli va uslublaridan foydalangan holda bozorda iqtisodiy sub’ektlar o‘rtasida amalga

oshiriladigan tovar va xizmatlarni ayirboshlash operatsiyalari bilan bog'liq vazifalarini hal qilishga qaratilgan ish yoki ish faoliyatidir.

Biznes turli sohalarda – tovar ishlab chiqarish va ular bilan savdo qilish, xizmat ko'rsatish, bank ishi va sug'urta ishi, faoliyatining boshqa turlarida, shuningdek, transport, ijara va boshqa ko'pgina jarayonlarni amalga oshirib, faoliyat natijasidan foyda, daromad olish maqsadida qilinadi.

Biznesda sub'ektlar sifatida kapitalning yagona egalari jismoniy shaxslar hamda firmalar, kapital egalari sifatida yuridik shaxslar chiqishi mumkin. Bundan tashqari biznesning sub'ekti sifatida kapitalni qarz oluvchi, xo'jalik faoliyati yurgizish uchun bankdan qarz yoki kredit olgan shaxslar ham bo'lishi mumkin.

Biznesning barcha sub'ektlari o'z faoliyatlari bo'yicha natijasi firma yoki shaxsning huquqiy holatiga muvofiq o'z mamlakatlari qonunlari bo'yicha javobgardirlar.

Biznes – tadbirkorlik faoliyatiga nisbatan kengroq tushunchadir. Biznesga turli sohada daromad olishga qaratilgan har qanday bir marotabali tijorat bitimini amalga oshirish kiradi.

Biznesdagi sub'ekt biznesmen yoki kommertsant deb ataladi.

Amalda huquqning barcha milliy tizimlarida daromad olish uchun bitim tuzadigan mustaqil tadbirkorlar sifatidagi kommertsantlar faoliyatining alohida qoidalari mavjud.

Kommertsant maqomi qonun bo'yicha quyidagi belgilarga ega faoliyatni yurgizuvchi shaxsda tan olinadi: bitimlarni tuzish va tadbirkorlik ko'rinishidagi boshqa xo'jalik operatsiyalarini bajarish; bozor munosabatlarining mustaqil iqtisodiy sub'ekti sifatida o'z nomidan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish borasida.

Yakka tadbirkorlar ham tadbirkorlarning birlashmalari ham, kommertsant ham bo'lishlari mumkin.

Tadbirkorlar birlashmalari (firmalar) turli huquqiy shakllarda harakat qilib, yuridik shaxs sifatida chiqadilar. Kommertsant xo'jalik faoliyatini professional ravishda, faoliyatining aniq turlariga: tovar va qimmatbaho qog'ozlarni olish va sotish, sug'urta, transport, bank, savdo, dallollik va boshqa operatsiyalarni amalga oshirishga ixtisoslashib, olib boradilar.

Menejmentda «tadbirkorlik tuzilmasi», degan tushuncha keng qo'llaniladi. Tadbirkorlik tuzilmasi deganda bozor munosabatlari sub'ektlarining shunday tarkibi tushuniladiki, ularning qatoriga faqat faoliyatining so'nggi natijasi sifatida daromad olish maqsadi bo'lgan tashkiliy-xo'jalik birliklari kiradi.

Tasnif uchun asos sifatida bozor munosabatlari sub'ektini faoliyat maqsadi olinar ekan, iqtisodiy sub'ektlarning to'rt toifasini ajratish mumkin:

firmalar, banklar, sug'urta va trans kompaniyalari, investitsiya tuzilmalari. Bunda firmalar tadbirkorlik faoliyatning asosiy sub'ektlari bo'lib, banklar, sug'urta va trans kompaniyalari tadbirkorlik faoliyatiga xizmat qiluvchi sub'ektlar, deb e'tirof etiladi, ular hatto jahon bozorlarini qamrab oladilar.

Yuridik shaxs huquqlariga ega, tijorat maqsadlarini ko'zlab sanoat, savdo, qurilish, transport sohalarida tadbirkorlik faoliyatini yurgazuvchi har qanday tashkiliy xo'jalik birligi firma deyiladi. Menejmentda firmani nazarda tutilib ko'pincha «tashkilot» atamasi ishlatiladi.

Har bir firma tashkiliy xo'jalik birligi sifatida faoliyatning aniq bir turlariga ixtisoslashgan bir yoki bir nechta korxonalariga va boshqarish faoliyatni olib boruvchi xizmat bo'limlariga ega.

Korxonada deganda, oldinga qo'yilgan maqsadga erishish uchun ma'lum tarzda tashkil etilgan moddiy va odamlar bilan bog'liq ishlab chiqarish – xo'jalik birligi tushuniladi.

Ko'pgina mamlakatlarning qonunchiligida korxonada huquqining mustaqil sub'ekti, alohida mulk, o'z balansi va yuridik shaxs huquqidan foydalanuvchi xo'jalik tuzilmasi sifatida tan olinmaydi. Korxonada moddiy va nomoddiy elementlarni o'zida mujassam etgan, huquq ob'ekti bo'lgan ma'lum mulkiy majmua sifatida qaraladi. Bu mulkiy majmuaga tadbirkor (yakka yoki tadbirkorlar birlashmasi) egalik qiladi va u mazkur mulkni boshqaradi.

Korxonaning moddiy pul elementlari tarkibiga binolar, tovarlar, naqd pul mablag'lari, mulkchilik huquqlari – kashfiyot huquqlari, sanoat namunalari, tovar belgilari, firma nomi, qo'lga kiritilgan mualliflik, litsenzion, ijara va boshqa huquqlar, pul talabnomalari va qarzlari kiradi.

Shu bilan birga, nomoddiy jihatlar doimiy xizmat aloqalari, bozordagi ahvol, qo'lga kiritilgan obro', mijozlar ham korxonada tarkibiga kiradi.

Garchi korxonada yuridik shaxs sifatida tan olinmasa ham, u, ayrim huquq sub'ekti elementlariga ega bo'ladi. Chunki korxonada o'z nomiga ega bo'lishi, mustaqil korxonada yoki boshqa korxonaning firmasi sifatida savdo reyestrda ro'yxatdan o'tkazilishi mumkin.

Korxonada buxgalterlik hisob-kitobi olib boriladi va balans tuziladi. Agar tadbirkor yakka shaxs bo'lsa, buxgalterlik hisobi uning shaxsiy mulkiga taalluqli bo'lmaydi. Tadbirkorlar birlashmasiga qarashli korxonalarda bunday farq qilinmaydi.

Korxonada mustaqil yuridik shaxs sifatida qonunchilik tomonidan tan olinmagan ekan, tadbirkor qarzlari bo'yicha to'liq javobgar bo'ladi va korxonada majburiyatlari bo'yicha javob beradi. Korxonada mulki va shu bilan birga tadbirkorning shaxsiy mulki qarzi beruvchilarning talablarini to'liq qondirish

uchun ishlatiladi. Tadbirkor to'lovga qobiliyatsiz, deb e'lon qilingan holda, uning butun mulki qarzni to'lashga ketadi.

Har bir firma o'ziga topshirilgan mahsulotlar nomenklaturasini chiqarish ixtisoslashgan bir yoki ko'plab ishlab chiqarish korxonalariga ega bo'lishi mumkin. Korxonalar orasida kooperatsiya yo'nalishida yoki vertikal integratsiya (xom ashyo, yarim fabrikatlarni izchil yetkazib berish bo'yicha) asosida o'zaro aloqalar o'rnatiladi.

Boshqaruvruv jarayonida korxonalarning ishlab chiqarish faoliyati firma doirasida muvofiqlashtiriladi, rejalashtiriladi, nazorat qilinadi va bu yagona markazda yoki ma'lum boshqaruv darajasida amalga oshiriladi.

### **Qisqacha xulosalar**

Menejment atamasi inglizcha so'z bo'lib, boshqaruv degan ma'noga ega. Hech qachon mamlakat, davlat, millat, viloyat, mahalla boshqaruvsiz bo'lmagan.

Klassik (ma'muriy) menejmentning asoschisi Anri Fayol bo'lgan. U 30 yil davomida katta franso'z tog' koni va metallurgiya kompaniyasi «kamambo» ning rahbari bo'lgan. Uning shu kompaniyaga bosh rahbar etib tayinlayotgan vaqtida kompaniya bankrot bo'lish arafasida turgan edi. Buni qarangi, u iste'foga chiqayotganida kompaniya eng quvvatli bo'lib, texnika va ilmiy jihatdan fransuz konsernlari o'rtasida eng zo'r bilimdon yetakchi rahbar sifatida tanildi.

Fayol ko'p yillik rahbarlik faoliyati natijasida «ma'muriyat nazarda» tamoyilini yaratdi. Ma'muriy menejmentning maqsadi boshqaruvning universal tamoyillarini yaratish edi. Boshqaruv tamoyili o'zining tizimi harakatini aniqlab beradigan asosiy qoidalarni o'z ichiga oladi; uning asosiy talabi esa, samarali boshqaruvni ta'minlash edi. Boshqaruvning quyidagi tamoyili ma'lum:

1. Mehnat taqsimoti – ishchi kuchidan samarali foydalanish;
2. Rahbarlik va javobgarlik – bu ikkovi juda ham bir-biriga bog'langan.
3. Intizom – bu ma'noda rahbarning o'zi shaxsiy namuna bo'lishi kerak.
4. Yakka hoqimlik.
5. Rahbarlik birligi.
6. Shaxsiy mafaatning umumiyga bo'ysunishi.
7. Mukofotlash – rag'batlantirish.
8. Markazlashtirish.
9. Rahbariyatning pastdan yuqoriga zanjiri.
10. Tartib, saranjomlik.
11. Adolat.

12. Tashabbuskorlik.
13. Xodimlar uchun ish o‘rnining barqarorligi.
14. Korporatsiyaga oid ruhiy holat, ichki kayfiyat, ya’ni «kuchlarning hamjihatligi». Fayol aytganidek, bu tamoyillarni har xil tashkilotlarning ichki aniq sharoitlariga moslashgan holda qo‘llash kerak.

### **Asosiy tushunchalar**

Menejment – ishlab chiqarishni boshqarish; ishlab chiqarishning foyda olish maqsadida qo‘llaniladigan tamoyillari, uslublari, vositalari majmuidir.

Menejer (inglizcha – boshqaruv) – yollangan boshqaruvchi, boshqaruv faoliyati bo‘yicha qo‘llanadigan iqtisodiy kategoriya.

### **Mavzuning namunali rejalari**

1. Menejmentning nazariy uslublari.
2. Menejment tushunchasining mazmuni.
3. Menejment va uning vazifalari.
4. Menejment va uning tamoyillari.

### **Seminar darslarida muhokama qilish uchun savollar**

1. Sobiq ittifoqdagi boshqaruv tizimi va hozirgi zamon menejmenti.
2. Fanning boshqaruvga oid tamoyillari.
3. Bozor iqtisodiyoti va boshqaruv.

### **Mustaqil o‘qish uchun savollar**

1. Korxonaning boshqaruv tizimi.
2. Boshqaruvning asosiy tamoyillari.
3. Menejment va marketning bir-biridan farqi va umumiy jihatlari nimada?

## **24 BOB. MARKETING – BOZORGA YO‘NALTIRILGAN ISHLAB CHIQRISH FALSAFASI**

### **24.1. Marketing, uning mohiyati, vazifalari va qoidalari**

Marketing (inglizcha «market» –bozor so‘zidan olingan) – ishlab chiqarish va mahsulot sotishni tashkil etish tizimining butun bir majmui bo‘lib, u muayyan iste‘molchilar ehtiyojini qondirishga hamda bozorni tadqiq etish va talabni bashorat qilish asosida foyda olishga, eksportchi korxonaning ichki va tashqi muhitini o‘rganishga, marketing dasturlari yordamida bozordagi munosabatlarning strategiyasi va taktikasini ishlab chiqishga xizmat qiladi. Ana shu dasturlar asosida tovarlar sifatini yaxshilash va turlarini kengaytirishga, xaridorlar, raqobatchilar va raqobatni o‘rganishga, narx-navo siyosatini ta‘minlashga, talabni shakllantirishga, savdo-sotiqni rag‘batlantirish va optimallashtirishga, reklama, texnik xizmatlarni tashkil etishga va ko‘rsatiladigan xizmat turlarini kengaytirishga doir tadbirlar yotadi. Marketing bozor iqtisodiyotining hosilasi sifatida ma‘lum ma‘noda ishlab chiqarishning falsafasi hisoblanadi va u to‘la-to‘kis (ilmiy-tadqiqot va loyiha-konstruktorlik ishlaridan tortib to savdo-sotiq va xizmatlargacha) iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy omillarning keng ko‘lami ta‘siri ostida hamisha muqim rivojlanishda bo‘lgan bozor shartlari va talablariga bo‘ysunadi. Ishlab chiqaruvchi korxonalar va eksportchilar marketingga har bir muayyan bozor va uning rastalari bo‘yicha ma‘lum davrda ko‘zlangan maqsadlarga eng yuqori samaradorlik bilan erishish vositasi, deb qaraydilar. Ammo bu ishlab chiqaruvchi bozor ehtiyojlarining o‘zgarishlariga muvofiq ravishda o‘z ilmiy-texnik, ishlab chiqarish va savdo-sotiq rejalariga muntazam tuzatishlar kiritib borish, marketing tadqiqotlarining natijalaridan kelib chiqib, strategik va taktik vazifalarni hal etishda zarur murosani ta‘minlash uchun o‘z moddiy va ma‘naviy resurslarini boshqara olish imkoniyatiga ega bo‘lgan taqdirdagina kutilgan samarani beradi. Ana shu sharoitlardagina marketing korxonaning ishlab chiqarish tijorat faoliyatini uzoq muddatli va operativ rejalashtirish, ishlab chiqarishning eksport dasturlarini tuzish, ilmiy-texnik, texnologik, investitsiya va ishlab chiqarish, savdo-sotiq faoliyatini tashkil etish uchun poydevorga – korxonani boshqarish tizimining muhim vositasiga aylanadi.

Hozirgi zamon iqtisodiyoti o‘zining uch asosiy sub‘ektlari – o‘zaro harakati bilan tavsiflanadi: ishlab chiqaruvchilar, iste‘molchilar va davlatning xo‘jalik jarayonlarining bu ishtirokchilaridan har biri aniq maqsadga ega, shunga munosib ravishda o‘z faoliyatini quradi. Bu sub‘ektlarning muvaffaqiyatli ishlashi uchun bozor xo‘jaligi sharoitida bozorni chuqur bilish

va hozirgi zamon usulini qo'llash qobiliyati asosiy ahamiyatga ega. Bunday usullarning yig'indisi marketing asosini yaratadi.

Marketingning yuragi – biznesning yo'nalishi bozor vazifasini muvaffaqiyatli hal etishga qaratilgan. Marketingdagi dunyoqarashga ko'ra faqat bozorda sotiladigan, iste'molchilarning talabini qondiradigan narsalarni ishlab chiqarish mumkin. Xaridorlar hamma narsani kerakli hajmda, kerakli sifatda, kerakli joyda va kerak vaqtda olishi shart.

Marketing uslubi sivilizatsiyalashgan tadbirkorlikning, iqtisodiy madaniyatning organik elementi. Marketing majmui mahsulotlarni va xizmatlarni sotishni tashkil etishni, xaridorlar bilan o'zaro munosabatlarni mukammallashtirishni, talabga va umuman, bozorga faol ta'sir etishni hamda raqobat ko'rashi usullarini o'z ichiga oladi. Bozor sohasi bilan bog'liq bo'lgan marketing xalqaro yoki ichki, iste'mol tovarlari, ishlab chiqarish vositalari va xizmatlar bo'yicha bo'lishi mumkin. Marketingning muhim elementlari: sotuv bozorini tadqiq etish, korxonalar faoliyatini o'rganish, marketing siyosatini ishlab chiqish va amaliyotda realizatsiya qilish bo'ladi. Pirovard maqsad foydani maksimallashtirish, firma daromadining o'sishi, jamiyat talabini qondirishdir.

## **24.2. Marketingning asosiy tamoyillari**

Marketingning savdo ishlab chiqarish faoliyatini boshqarish tizimi sifatidagi asosiy xususiyatlari uning hozirgi zamon konsepsiyasidan kelib chiquvchi mohiyatini aks ettiradi va marketing faoliyatidan kuzatilgan maqsadlarga yuqori darajada erishilishini taxmin qiladi.

Marketingning asosiy tamoyillari:

1) xaridorlar ehtiyojini, bozordagi ahvolni va korxonaning haqiqiy imkoniyatlarini aniq bilgan holda mahsulot ishlab chiqarish;

2) xaridorlar ehtiyojini imkoni boricha to'liq qondirish, bu vazifani hal etish uchun vositalar yoki vositalar majmui bilan ta'minlash (muqobil tamoyil – keyinroq sotilishini oldindan ko'ra bilib tovarlarni ishlab chiqarish, xizmat turlarini joriy etish);

3) yangiliklarni samarali ravishda qo'llash, ma'lum bozorlarda, rejalashtirilgan hajmda va belgilangan muddatlarda xizmatlar ko'rsatish;

4) korxonaning uzoq vaqt samarali (foyda olib) ishlab chiqarish –tijorat faoliyatini olib borishini ta'minlash. Bu bozor uchun yangilik bo'lgan tovarlarni ishlab chiqarishga tayyorgarlik ko'rish uchun ilmiy-texnik g'oyalar va ishlanmalarning doimiy zaxirasi bo'lishini taqozo etadi;



5) xaridorlarning o'zgarib borayotgan talablariga faol moslashish, ayni vaqtda ehtiyojni shakllantirish va uni rag'batlantirishga ta'sir o'tkazish maqsadlarida ishlab chiqaruvchining strategiyasi va taktikasi birligi.

*Marketing dasturlari* – ishlab chiqaruvchi korxonalar va eksportchining aniq bir davrga marketingning barcha bloklari bo'yicha xatti-harakatini belgilovchi bir biri bilan uzviy bog'liq tadbirlar tizimidir. Marketingning dasturlari qisqa muddatli va uzoq muddatli dasturlarga bo'linadi. Marketingning qisqa muddatli dasturlari korxonaning faoliyati iker-chikirlarigacha puxta va aniq rejalashtirilgani bilan ajralib turadi. Uzoq muddatli dasturlar marketingning qabul qilingan strategiyasiga muvofiq uzoq muddatli davrga mo'ljallangan tadbirlarni qamrab oladi.

Marketingning yagona dasturi uning alohida bozorlar va bir turdagi mahsulotlar guruhlari bo'yicha bir biri bilan uzviy bog'liq dasturlari tizimi bo'lib, ilmiy-tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlari, ishlab chiqarish, savdo-sotiq, xizmatlar va hokazolarning rejalarini yaratish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Marketing dasturida ko'rsatkichlar, ilmiy-tadqiqot va tajriba – konstruktorlik ishlarini boshlash va tugallash muddatlari, mahsulotning tajriba namunalari sinovi, yalpi ishlab chiqarishni tashkil etish, savdo-sotiq va ishlab chiqarish nomenklaturasini aniqlash, omborda saqlash mumkin bo'lgan mahsulotlarning eng ko'p zaxirasi hajmi, qaysi bozorda tovarlarning har bir guruhi bo'yicha savdo-sotiqning dinamikasi va hajmiga doir ma'lumotlar, shu jumladan, savdo-sotiq, narx-navo (ichki va eksport) dinamikasi va darajasini aniqlash, dasturning har bir tadbiri bo'yicha moliyaviy xarajatlar hisob-kitobi, korxonaning ishlab chiqarish xo'jalik faoliyati asosiy ko'rsatkichlari (foydaning miqdori, rentabellik me'yori, tannarx va hokozolar) ni aniqlash bilan bog'liq tadbirlar mavjud bo'ladi.

Marketing dasturi bozorni har tomonlama tadqiq etish, xaridorlar talabini aniqlash asosida shakllanadi. Marketing strategiyasi va taktikasi korxonalar tijorat va savdo-sotiq xizmatlarining ilmiy-texnika, loyiha konstruktorlik va ishlab chiqarish bo'linmalari bilan o'zaro hamkorligini ta'minlovchi asos hisoblanadi.

*Marketing strategiyasi* – ishlab chiqarish tijorat faoliyatini bozordagi vaziyat va korxonaning imkoniyatlariga to'la muvofiq ravishda alohida olingan har bir bozor (bozor rastasi) va muayyan davrga (uzoq muddatga va o'rtacha muddatga) har bir tovar bo'yicha amalga oshirish uchun ishlab chiqaruvchi – korxonalar va eksportchining maqsadlarini shakllantirish, shu maqsadlarga erishish, oldinda turgan vazifalarni hal etishga xizmat qiladi.

Marketing strategiyasi tovar bozorida vaziyatni tadqiq etish va oldindan bashorat qilish, tovarlarni, xaridorlarni, raqobatchilarni va bozor xo'jaligining boshqa usullarini o'rganish asosida ishlab chiqiladi.

Firmaning strategiyasi ishlab chiqarish eksport dasturining alohida olingan bozorlar va tovarlar bo'yicha marketing strategiyasini o'z ichiga oladi. Nisbatan keng tarqalgan marketing strategiyasi quyidagicha: **M** tovar bilan **A** mamlakatning bozoriga chiqish; Sharqiy Yevropa mamlakatlarining o'zlashtirib bo'lingan bozorlariga shu bozorlar uchun yangilik bo'lgan **L** modelidagi tovarlarni joriy etish; **V** mamlakati bozorlarining rastalarida **R** modelidagi tovarlarning sotilish hajmini 2 baravar ko'paytirish; Lotin Amerikasi mamlakatlarining bozorlariga jadal kirib borishni ta'minlash uchun **A** va **V** mamlakatlaridagi sheriklarning butlangan jihozlar ishlab chiqarish sohasida xalqaro chiqishni ta'minlash uchun **A** mamlakatdagi sheriklar bilan **R** modelidagi ishlab chiqaruvchi qo'shma korxonalarini tashkil etish.

Qabul qilingan strategiyaga muvofiq marketing dasturlarining tadbirlari ishlab chiqildi. Ular tavakkal natijasi qanday bo'lishidan kat'i nazar, eng yuqori samadorlikka erishishga; samara katta bo'lmasa ham iloji boricha kamroq tavakkal qilishga; ana shu ikki yo'l yondashuvning turli kombinatsiyalariga yo'naltirilgan bo'lishi mumkin.

*Marketing taktikasi* – marketing strategiyasiga hamda talab, ehtiyoj va boshqa omillarda ro'y berayotgan o'zgarishlar (narx-navo indeksidagi o'zgarish, raqobat kurashining keskinlashishi, talabning mavsumiy pasayishi, xaridorlarning tovarga qiziqishi kamayishi va hokazolar) dan kelib chiqib, vazifalarga muntazam tuzatishlar kiritib borgan holda, bozordagi joriy vaziyatni baholashga asoslanib, korxonaning ma'lum muddatga (qisqa muddatga) har bir bozordagi va har bir tovar bo'yicha vazifalarini shakllantirish va shu vazifalarni hal etishdir.

Marketingning taktik vazifalarini belgilashga doir misollar: xaridorlarning ehtiyojlari haqidagi aniqlangan ma'lumotlarga asoslanib eksport tovarlari turlarini kengaytirish; talabning birmuncha pasayganligi munosabati bilan reklama tadbirlarini kuchaytirish; savdo-sotiqni rag'batlantirish maqsadida narxlarni arzonlashtirish; yangi xaridorlarni jalb etish maqsadida servis xizmatlari ko'rsatayotgan xizmatlarning turlarini kengaytirish; raqobatchining savdo hajmi qisqarganligi munosabati bilan bozor ulushini ko'paytirish; u yoki bu bozor talablaridan kelib chiqib, tovar konstruktivligini yaxshilash; korxonaning tijorat bitimlari samaradorligiga javob beruvchi xodimlarni rag'batlantirish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish shular jumlasidandir.

Umuman olganda, marketing taktikasi muayyan darajadagi foydaning muqim olinishini, tijorat xizmatlarining bozorda faol ish olib borishini, bozor vaziyatlarining o'zgarishlariga tezkor munosabat bildirilishini, korxonada xodimlarining tashabbuskorlik bilan ishlashini, raqiblarning xatti-harakatiga nisbatan javob choralari ko'rilishini, xaridorlar talabida ro'y bergan o'zgarishlarga muvofiq ravishda korxonaning ilmiy-texnik va ishlab chiqarish faoliyatiga tuzatishlar kiritilishini ta'minlashi lozim.

### **24.3. Marketingning vazifalari**

Korxonada faoliyat ko'rsatayotgan ichki va tashqi muhit tahlili; bozorlar tahlili; xaridorlar tahlili; raqobatchilar va raqobatni o'rganish; tovarlarni o'rganish; yangi tovar konsepsiyasining shakllanishi; marketing tadqiqotlariga asoslanib tovarlar ishlab chiqarishni rejalashtirish; tovarlar harakatini rejalashtirish; savdo-sotiq va xizmatlarni rejalashtirish; talabni shakllantirish; savdo-sotiqni rag'batlantirish va shakllantirish; narx-navo siyosatining shakllantirilishi va amalga oshirilishi; marketing dasturlarining ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi; marketingning axborotlar bilan ta'minlanishi; marketinglar (tavakkal darajasi foyda samaradorligini baholab, marketing tadbirlarini rejalashtirish, amalga oshirilishi ustidan nazorat) boshqaruvchidan iborat bir biri bilan uzviy bog'liq xatti-harakatlar marketing vazifalari majmuini tashkil etadi.

*Korxonaning marketing xizmati* – marketing tamoyillari va usullari asosida faoliyat ko'rsatuvchi maxsus bo'linmadir. Marketing xizmatining tarkibiy tuzilishi ishlab chiqarishning sohasi va hajmidan, korxonaning tashqi iqtisodiy aloqalari rang-barangligidan kelib chiqib tanlanadi. Odatda, uning vazifalari bilan bog'liq (mahsulot turlari bo'yicha, bozorlar bo'yicha, aloqalarning jug'rofiy yo'nalishlari bo'yicha) va divizional (aniq farqlanuvchi mahsulot bozorlariga ko'ra faoliyatni tashkil etish bo'yicha) tarkibiy tuzilmalardan foydalaniladi.

Marketing xizmatining asosiy vazifalari: bozorni har tomonlama o'rganish; bozorni ta'minlash; tovarning to'xtovsiz sotilishini ta'minlash; ishlab chiqarishni, ilmiy-tadqiqot va loyiha-konstruktorlik ishlarini bozorga yo'naltirish. Marketing-direktor va uning xodimlari eng maqbul bozorlarni tanlashlari, bozordagi vaziyatni tahlil qilishlari, tovarlarning yangi turlarini ishlab chiqarish bo'yicha tavsiyanomalarni tayyorlashlari, bozorning 5 talablarini bashorat qilishlari; marketing strategiyasi va taktikasini ishlab chiqib, amalga oshirishlari; marketing dasturlarini ishlab chiqishlari va ularning amalga oshirilishini ta'minlashlari; tovarga, uning turlariga asosiy talablarni tavsiya etishlari; korxonaning tovar, narx-navo va savdo-sotiq

siyosatini ishlab chiqishlari hamda uni hayotga joriy etishlari; talab-ehtiyojni shakllantirish, reklama va savdo- sotiqni rag'batlantirish bo'yicha ish dasturlarini belgilashlari kerak.

*Marketingni rejalashtirish.* Bu g'oyatda muhim, jiddiy e'tibor berish zarur bo'lgan masaladir. Strategiyani ishlab chiqish va rejalashtirish.

Korxonaning bazaviy, uzoq muddatli strategiyasi yaqin bir va ikki besh yillikda oldinga qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun qanday vazifalarni hal etish zarurligini belgilaydi. Mazkur strategiya, uning maqsadlari kabi, qandaydir bir martagina belgilanadigan, o'zgarmas hujjat emas. O'nga bozorda ro'y berayotgan o'zgarishlardan kelib chiqib, muntazam tuzatishlar va aniqliklar kiritilishi lozim. Maqsadlarga va strategiyaga tuzatishlar kiritish, odatda, qisqa muddatli yillik rejaning bajarilishi natijalari bo'yicha har yili amalga oshiriladi. Marketingga yo'naltirilgan firmalarda rejalashtirish jarayoni, rejaning o'ziga nisbatan muhimroq ahamiyatga ega. Sababi, ana shu jarayonda korxonada axborot-asosiy strategik imtiyoz oladi, shuningdek, ko'nikma hosil qiladi-raqobatchilar bilan ko'rashdagi asosiy strategik qurolni qo'lga kiritadi.

Shu narsa mutlaqo ayonki, moslashuvchan marketing rejalashtiruvchi iqtisodiyotni boshqarishning ma'muriy-buyruqbozlik usullariga, fondlarning markazdan rejalashtirilishi va taqsimotiga ziddir. Xo'jalik yuritishning ana shu eskirgan vositalarini tugatmay turib marketingni qo'llash mumkin emas.

#### **24.4. Raqobat turlari**

*Vazifalar doirasidagi raqobat* bir ehtiyojning o'zini turlicha qondirish mumkinligi natijasida kelib chiqadi. Bunga kitoblar, sport jihozlari va hokazolarni misol keltirish mumkin, ya'ni barcha kitoblar, plastinkalar va hokazolar raqobatchi tovarlar hisoblanadi.

*Tashqi ko'rinishiga ko'ra raqobat* – turli firmalar yoki bir firma tomonidan o'xshash, ammo turlicha bezatilgan tovarlarning ishlab chiqarilishi (masalan, bir rusumdagi, ammo turlicha jihozlangan avtomobillar) shunday raqobatni keltirib chiqaradi. Firma o'z ramziga ega bo'lish muhim (masalan, folkswagen – bir firmaning avtomobillari).

*Predmetli raqobat* – odatda, bunday raqobat turli firmalar tomonidan ishlab chiqarilgan bir xil tovarlar o'rtasida vujudga keladi. Unda buyumlarning sifati yoki firma ramzining jozibadorligi bilan yaxshi obro' qozongan firmalarning tovarlari (masalan, «ADIDAS» ramziga ega sport kiyimlari) g'olib chiqadi.

*Narxiga ko'ra raqobat* – raqobatning eng sodda ko'rinishi. Narxni arzonlashtira borib, bozorni egallash mumkin. Yaponiyaliklar yangi bozorni

o'zlashtirish vaqtida tovarlarning narxini ko'pincha 10 foizgacha arzonlashtirishadi. Ammo bozordagi boshqa firmalar ham narx-navoni pasaytirishlari mumkin. Har bir firma pasaytirish uchun narx-navo zaxirasiga ega bo'lishi lozim.

*Yashirin narxga ko'ra raqobat* – sifati yaxshiroq bo'lgan mahsulotning raqobatchi firmaning mahsuloti kabi bir narxda sotilishidir. Uning ko'rinishlaridan biri iste'mol narxlarining pasaytirilishi–tejamkorlikni kuchaytirish, elektr quvvati iste'molini kamaytirish va hokazolar, shuningdek, xizmatlarning keng majmui hisoblanadi.

*G'ayriqonuniy usullar* – raqobatchilarning tovarlarini badnom etish, ularnikiga o'xshash, ammo arzon narxli mahsulotlarni ishlab chiqarish (Gonkong, Marokash), masalan, sobiq ittifoq tashkilotlari orij mashinalarining ehtiyot qismlari ikkinchi darajali mamlakatlar tomonidan ishlab chiqarilganligiga duch kelishdi.

O'z raqiblarining yashirin imkoniyatlarini, bozordagi vaziyat o'zgarishlariga qay yo'sinda, qanday usul bilan munosabat bildirishlarini bilmay turib, raqobat ko'rashida muvaffaqiyatga erishib bo'lmaydi.

#### **24.5. Raqobat kurashining to'rt asosiy ishtirokchisi**

Raqobat ko'rashining to'rt asosiy ishtirokchilari quyidagilar bo'lib, ularning mavqei firmalarning bozordagi ulushi bilan belgilanadi:

Yetakchilar—40 foiz;

Izdoshlar (ergashib boruvchilar) —20 foiz;

Yetakchilikka da'vogarlar — 30 foiz;

Bozor pastqamliklarida joylashib olganlar—10 foiz.

Marketing turlari: konversiya marketingi, remarketing, rag'batlantiruvchi marketing, sinxromarketing, qo'llab-quvvatlovchi marketing, demarketing, qarshilik ko'rsatuvchi marketing, aniq maqsadga yo'naltirilgan marketing.

*Konversiya marketingi* tovarga talab bo'lmagan taqdirda qo'llaniladi. Marketing faoliyati talabni shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

*Rag'batlantiruvchi marketing* tovarga (masalan, xaridorlarga tanish bo'lmagan yangi buyumga) talab juda kam yoki mutlaqo bo'lmaganida asqotadi. Marketing faoliyati talabni tashkil etishga yoki buning uchun shart-sharoitlarni yaratishga yo'naltiriladi.

*Rivojlantiruvchi marketing* hali o'zini namoyon etmagan talabni real talabga aylantirish maqsadida qo'llaniladi. Buning uchun kuch-g'ayratni tovar sifatini yaxshilashga qaratish lozim.

*Remarketing* bozorning tovar bilan to'yinishi natijasida unga talab kamaygan vaqtda kerak bo'ladi. Remarketingning vazifasi talabni qayta

tiklash (jonlantirish)dan iborat. Bunga tovarga qo‘shimcha yangiliklar kiritish, yangi bozorlarga yo‘naltirish va hokazolar yo‘li bilan erishish mumkin.

*Sinxromarketing* tovar mavsumiy bo‘lgani, ehtiyoj muhim emasligi va boshqa sabablarga ko‘ra talab o‘zgarib turgan vaqtda qo‘llaniladi. Talab o‘zgarishlarini hisobga olib, savdo-sotiqni barqarorlashtirish zarur bo‘ladi.

*Qo‘llab-quvvatlovchi marketing* talab korxonaning imkoniyatlariga to‘la muvofiq bo‘lganida qo‘llaniladi. Savdo-sotiqni barqarorlashtirish, talabni qo‘llab quvvatlash zarur.

*Demarketingni* talab korxonaning ishlab chiqarish imkoniyatlaridan haddan tashqari katta bo‘lganida qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Narxini oshirish, tovar reklamasini to‘xtatish va boshqa yo‘llar bilan talabni kamaytirish zarur. Bunday holda shu tovarni ishlab chiqarish huquqini beradigan litsenziyani boshqa korxonalariga sotish mumkin.

*Qarshilik ko‘rsatuvchi marketing* irratsional talab (masalan, spirtli ichimliklarga, tamaki mahsulotlariga va hokazo) haddan tashqari yuqori bo‘lgan hollarda kerak bo‘ladi. Ishlab chiqarishni qisqartirish, ana shu tovarlar bilan savdo qilishni to‘xtatish maqsadga muvofiqdir.

*Aniq maqsadga yo‘naltirilgan marketing* bozor sohalarini chegaralash, ulardan bittasini yoki bir nechtasini tanlab olingan har bir sohaga muvofiq tovar va marketing ko‘rinishlarini ishlab chiqish maqsadida qo‘llaniladi.

*Marketingni tashkil etish* quyidagicha amalga oshirilishi mumkin:

1) marketingning ayrim vazifalariga ko‘ra, agar bozorlar soni va tovarlarning turi katta bo‘lmasa, ular bir-biridan jiddiy farq qilmasa;

2) tovarlarning turlariga ko‘ra, agar tovarlar ko‘p bo‘lib, ular ishlab chiqarish, sotish, xizmat ko‘rsatish va hokazolarning maxsus shart-sharoitlarini talab qilsa. Bunday holda axborot aloqalarini yo‘lga qo‘yish, yordamchi tadqiqot va savdo bo‘limlarini tashkil etishga mablag‘lar sarflash zarurati vujudga keladi;

3) bozorlarga ko‘ra, agar ayrim bozorlar o‘ziga xos jiddiy 8 xususiyatlarga ega bo‘lsa;

4) hududlarga ko‘ra, iste‘molchilar aholining tarkibi, madaniyati va boshqa alomatlari bo‘yicha jiddiy farqi bo‘lsa.

*Marketing rejasi* – bu tashkiliy-uslubiy hujjat bo‘lib, unda korxonada mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotish sohasida oldinga qo‘yilgan maqsadlarga erishilishini ta‘minlaydigan aniq vazifalar amalga oshiriladigan tadbirlarning muddati va davomiyligi, o‘tkaziladigan joyi va qanday ko‘rinishda o‘tkazilishi belgilanadi. Marketing rejasi korxonaning marketing faoliyati turli yo‘nalishlarini yaxlit tizimga birlashtirish uchun xizmat qiladi.

Marketing rejasi qisqa muddatli (1 yillik) , o‘rtacha muddatli (2–15 yillik ) bo‘lishi mumkin.

*Marketing dasturi*–ishlab chiqaruvchi korxonaning ma’lum vaqt mobaynida marketingning barcha yo‘nalishlari bo‘yicha xatti-harakatlarini belgilaydigan, bir-biri bilan bog‘liq tadbirlar tizimidir.

*Marketing dasturlari* (qisqa muddatli va uzoq muddatli) ishlab chiqarish-xo‘jalik faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlarini: ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari, mahsulot tajriba namunalarini sinash, seriyali ishlab chiqarishni tashkil etish muddatlarini, ishlab chiqarish hajmi va mahsulot turlarini, omborlardagi mahsulot zaxiralarining optimal hajmlarini, ma’lum bozorlarda har bir guruh tovarlarining sotilish dinamikasi va hajmini, narx-navo (ichki va eksport) dinamikasi va darajasini, dasturning har bir tadbiri bo‘yicha moliyaviy resurslarni va hokazolarni o‘zida mujassam etadi.

Marketing dasturlari bozorni kompleks tadqiq etish, talabni, marketing strategiyasi va taktikasini o‘rganish asosida shakllanadi, korxonada tijorat va savdo-sotiq xizmatlarining ilmiy-texnika, loyiha-konstruktorlik va ishlab chiqarish bo‘linmalari bilan o‘zaro aloqasini ta’minlaydigan zamin hisoblanadi.

*Marketing xizmati* korxonaning maxsus bo‘linmasidir, bozorlarni va ularni rivojlantirish istiqbollari atroflicha o‘rganish, tovarlar va xizmatlar bilan qondirilmagan ehtiyojlarni aniqlash, ishlab chiqarishni iste’molchilarning talablariga moslashtirish; raqobatchilar faoliyatini, ularning xaridorlarga ta’sir o‘tkazish (reklamalari, narx-navo siyosati, raqobat kurashi va boshqa usullari) strategiyasi va taktikasini o‘rganish, savdo-sotiq operatsiyalarini shakllantirish va amalga oshirish, tovarlar barqaror realizatsiya qilinishi uchun shart-sharoitlarni ta’minlash, ishlab chiqarishni, ilmiy-tadqiqot va loyiha-konstruktorlik ishlarini bozorga yo‘naltirish uning asosiy vazifalari hisoblanadi. Marketing xizmatining rahbari va uning xodimlari daromadli bozorlarni tanlashni, bozordagi vaziyatni tahlil qilishni bilishi, yangi tovarlarni ishlab chiqarish haqida tavsiyanomalar berishi, bozorlarda ahvol qanday bo‘lishini oldindan bashorat qilishi, marketing strategiyasi, taktikasi va dasturini ishlab chiqishi, tovarga, uning turlariga asosiy talablarni oldindan bilishi, korxonaning narx-navo va savdo-sotiq siyosatini belgilashi, ularning amalga oshirilishini nazorat qilishi lozim.

*Axborot tizimi.* Bu marketing sohasida faoliyatni amalga oshirish uchun foydalaniladigan axborotni yig‘ish, saralash, tahlil qilish, uzatish va tarqatishning uslublari, usullari va vositalari majmuidir.

*Marketing strategiyasi* korxonaning bozordagi vaziyatga moslashgan xatti-harakatlarini ishlab chiqishdan iborat. Strategiya tovar davrining turli

bosqichlariga qarab o'zgarishi mumkin. Tovarni joriy etish bosqichida tezkor marketing strategiyasi amal qiladi, bunda yuqori narx qo'yiladi va savdo-sotiqni rag'batlantirishga katta mablag'lar sarflanadi. Bu qisqa vaqtda bozordan keng o'rin olish imkonini beradi va savdo-sotiqdan yuqori foyda olinishini ta'minlaydi. Xaridorlarga keladigan bo'lsak, ularning asosiy qismi tovar bilan hali tanish emas, tanish bo'lganlariga esa, narxining qimmatligi rol o'ynamaydi.

Talabning oshish bosqichida saralab kirib borish strategiyasidan foydalaniladi, bunda basharti raqobat arzimagan darajada bo'lib, bozor sig'imi katta bo'lmasa, marketingga kam mablag' sarflanib, yuqori narxlar belgilanadi. Bu vaqtga kelib tovar xaridorlarning ko'pchiligiga tanish bo'ladi, ular tovarni qimmat narxda sotib olishga tayyor bo'ladilar.

Talabning yetilish (to'yinish) bosqichida keng kirib borish strategiyasidan foydalaniladi, bunda ishlab chiqaruvchi marketingga ko'p mablag' sarflagani holda, arzon narx qo'yadi. Bu holda bozor imkoniyatlari sig'imining kattaligi, raqobatning kuchliligi, yuqori narx xaridorlarning ko'pchiligiga ma'qul emasligi inobatga olinadi. Ishlab chiqaruvchi ishlab chiqarish ko'lamini kengaytirishi, ishlab chiqarishga va savdo-sotiqqa sarf-xarajatlarni kamaytirishi lozim. Mazkur strategiya bozorga tez kirib borish va uning imkoniyatlaridan yetarli darajada keng foydalanish uchun samarali hisoblanadi.

Talabning susayish bosqichida passiv marketing strategiyasi qo'llaniladi, bunda tovarga arzon narx qo'yiladi, savdo-sotiqni rag'batlantirishga arzimagan mablag'lar sarflanadi. Bozor imkoniyatlari sig'imi katta bo'lganida mazkur strategiya o'zini oqlaydi. Raqobat sezilarli emas, xaridorlar tovarni yaxshi bilishadi, ammo qimmat narxda sotib olishni xohlashmaydi, ya'ni talab darajasi asosan narxga bog'liq bo'ladi.

*Marketingning tarkibiy tuzilishi*—oldinga qo'yilgan maqsadga erishish va bozorni to'yintirish borasida marketingning asosiy elementlarini birlashtirishdan iborat.

*Marketing sub'ektlari*—mahsulot ishlab chiqaruvchilar, xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar, ulgurji va chakana savdo korxonalarini, marketing bo'yicha mutaxassislar, turli iste'molchilardir.

*Marketing taktikasi*—marketing strategiyasidan kelib chiqib, bozorda kechayotgan vaziyatni, ehtiyoj o'zgarishlarini va boshqa omillarni (narx-navo o'zgarishlari, raqobat kurashining kuchayishi, talabning mavsumiy pasayishi, tovarga xaridorlar qiziqishining susayishi va hokazo) baholab, korxonaning har bir bozor, har bir tovar uchun vazifalarini shakllantirishdan, tuzatishlar kiritishdan va amalga oshirishdan iborat.



*Marketingning vazifalari* quyidagilarni o'z ichiga oladi: 1) bozorni atroflicha o'rganish; 2) tovar turlarini rejalashtirish; 3) narx-navo siyosati; 4) reklama va savdo-sotiqni rag'batlantirish; 5) savdo-sotiqni boshqarish va sotilganidan keyingi xizmat ko'rsatish. Mazkur vazifalar marketingning faoliyati yo'nalishlarini belgilaydi, u ishlab chiqarish ko'lamidan, tovar yoki savdo-sotiq bozorlarining xarakteridan kelib chiqadigan xususiyatlarga ega. Masalan, yalpi iste'mol tovarlarining marketingni ishlab chiqarishga mo'ljallangan tovarlarning marketingidan ma'lum darajada farq qiladi.

*Eksport marketingi* – tashqi bozorlarni atroflicha o'rganishning yakunlovchi bosqichlaridan biri bo'lib, uning natijalarini eksport qiluvchilar joriy davrga, shuningdek, o'rtacha muddat va uzoq muddatga asos qilib oladilar.

*Tezavratsiya* (yunoncha thesouros–xazina so'zidan olingan) – 1. Qimmatbaho metallarni xazina sifatida to'plash 2. Aholi tomonidan pul kreditlarining muomaladan chiqarilib, uyushmagan tarzda to'planishi. Keng ma'nodagi tezavratsiya mamlakatning markaziy banklari, g'aznaxonalari va maxsus jamg'armalari tomonidan oltin zaxiralari tashkil etilishini ham o'z ichiga oladi.

*Futorologiya* (lotincha futurum–kelajak va yunoncha logos–ta'limot so'zlaridan tashkil topgan) – insoniyat va jamiyat hayoti, ayrim sohalarning kelajak taraqqiyotini oldindan bashorat qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan fanlar majmui.

*Inson taraqqiyoti indeksi* (ITI) – mazkur maxsus indeks uch ko'rsatkichni (YaIM – aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan yalpi ichki mahsulotni, savodxonlikni va kelajakdagi umr davomiyligini) birlashtiradi va inson taraqqiyotiga kompozit (murakkab) baho beradi. Ilk bor mazkur ko'rsatkich 1990 yilda BMT taraqqiyoti dasturning bir guruh tadqiqotchilari tomonidan taklif qilingan. Umumiy ITIdan tashqari erkaklar va ayollar, turli etnik va ijtimoiy guruhlar mintaqalar uchun ham ITI hisoblab chiqiladi. Bugungi kunda ITI o'zining ikki komponentida: ta'lim va daromad (aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan yalpi ichki mahsulot) ko'rsatkichlarida mujassamdir. Ta'lim ko'rsatkichi aholi savodxonligi sifatida o'qish yillari o'rtacha miqdori hisobga olinib belgilanadi. Daromadlar sohasida eng katta miqdor sifatida aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan YaIMning jahon bo'yicha o'rtacha qiymatdan foydalaniladi. Agar mamlakat YaIM jahondagi o'rtacha qiymatdan yuqorida tursa, aholi jon boshiga daromadning oshib borishi insoniyat taraqqiyotiga uning qo'shadigan eng ko'p ulushi kamayib borishi sifatida ko'rib chiqiladi. ITI ko'rsatkichi 0,5 dan kam bo'lgan mamlakatlar – insoniyat taraqqiyotining quyi darajasi, 0,5–0,8 o'rtacha daraja, 0,8 va undan ko'pi – taraqqiyotning yuqori darajasi deb hisoblanadi.

*Raqobat* – tovar ishlab chiqaruvchilarning va xizmat ko‘rsatuvchilarning imkon boricha ko‘p foyda olish huquqi uchun bozorga ko‘p sonli ishlab chiqaruvchilar va xaridorlar orasida hayot kechirish uchun, bozorda erkin kirib borish va bozordan erkin chiqish imkoniyati uchun o‘zaro qarama-qarshiligi, bir-biri bilan raqobat qilishi.

*Mukammal (erkin) raqobat*, deb bozorda sotuvchilar ham, xaridorlar ham ko‘p bo‘lgan, bir xildagi mahsulot sotiladigan va hech kim shu narxda sotasani deb hukm o‘tkaza olmaydigan ahvolga aytiladi.

*Nomukammal raqobat* – bu bozordagi shunday bir vaziyatki, unda xaridorlar yoki sotuvchilar narx-navoga mustaqil ta‘sir o‘tkazishga qodir bo‘ladi. Sof monopoliya, oligopoliya, monopolistik raqobat, monopsoniya mukammal bo‘lmagan raqobat turlari hisoblanadi.

*Oligopoliya* – bu standartlashtirilgan yoki tabaqalashtirilgan tovarlarni ishlab chiqaruvchi bir nechta yirik firma hukumronlik qiladigan bozor.

*Monopoliya* – bozorda ustuvor mavqega ega korxonalar yoki korxonalar guruhidir, bu ularga narx-navoni nazorat qilish va belgilash imkonini beradi; bozorning bir yoki bir nechta korxonalar nazorat qiladigan ko‘rinishi.

*Monopsoniya* – qandaydir ma‘lum bir tovar yoki xizmatning bozordagi yagona xaridori.

*Monopolistik raqobat* – turdosh, bir-biriga o‘xshash, ammo bir-birining o‘rnini bosa olmaydigan mahsulot ishlab chiqaruvchi ko‘p sonli firmalar savdo qiladigan bozor modeli.

*Sof monopoliya* – bozordagi vaziyat (bozor modeli) bo‘lib, unda tovarlar bozorida faqat bir sotuvchi o‘rnini boshqasi bosmaydigan tovar bilan savdo qiladi.

*Multiplikator* – nusxa ko‘paytirgich, multiplikatsiya samarasining o‘rni bo‘lgan joyda har xil aloqadorlikni tavsiflash va aniqlash uchun iqtisodiyot nazariyasida foydalaniladigan kategoriya. Masalan, multiplikator deganda, daromadning o‘zgarishi investitsiyalarning o‘zgarishiga bog‘liqligini tavsiflovchi koeffitsiyent tushuniladi.

*Tolerantlik* (lotincha toleania–sabr-toqat so‘zidan) –1) organizmning shunday bir immunal holatiki, bunda bu boshqa yot genlarga nisbatan immunal reaktivligini saqlab qolgan bo‘lishiga qaramay, kiritilgan ma‘lum yot genga javoban yot jismni sintez qilishga qodir bo‘lmay qoladi. Tolerantlik muammosi a‘zolarini va to‘qimalarni ko‘chirib o‘tkazishda muhim ahamiyatga ega; 2) organizmning atrof-muhitning u yoki bu omili noxush ta‘siriga bardoshlilik qobiliyati; 3) o‘zgalarning fikriga, diniy e‘tiqodiga, fe‘l-atvoriga sabr-toqatlik.

*Defolt* (inglizcha defanlt soʻzidan olingan) – pul bilan bogʻliq majburiyatni yoki bitim majburiyatlarini bajarmaslik, pul bilan bogʻliq majburiyatni yoki bitim majburiyatlarini bajarishdan boʻyin tovlash. Defolt davlat tomonidan eʼlon qilinishi mumkin, bu davlat moliyaviy tanazzulining, davlat bankrot boʻlganligining yorqin koʻrinishi hisoblanadi.

*Oʻsish surʼati* – maʼlum bir vaqtdagi maʼlum bir iqtisodiy koʻrsatkich miqdorining bevosita oʻsha vaqtdan avval kechgan davrdagi yoki qiyoslash uchun asos sifatida qabul qilingan boshqa, oʻnga teng davrdagi miqdorga koʻra nisbati.

*Qoʻshimcha oʻsish surʼati* – mutlaq qoʻshimcha oʻsish koʻrsatkichining qiyoslash uchun asos sifatida qabul qilingan koʻrsatkich darajasiga nisbati. Odatda, qoʻshimcha oʻsish surʼati berilgan har bir mutlaq qoʻshimcha oʻsish koʻrsatkichining avvalgi darajaga nisbati sifatida hisoblab chiqiladi, ammo baʼzan qiyoslash uchun asos sifatida qabul qilingan biron boshqa darajaga nisbatan ham hisoblanishi mumkin.

*Memorandum* (lotincha memoyaydum – nimani yodda tutish kerak soʻzidan) 1) masala mohiyatini batafsil bayon etuvchi hujjat; 2) biror narsani eslatib yozilgan maktub; 3) biron-bir masala yuzasidan xizmat maʼlumotnomasi; 4) sugʻurta polislarida, ayniqsa, dengiz sugʻurta polislarida, sugʻurta qilinmaydigan xavf-xatar turlarining birma-bir sanab oʻtilishi.

*Marketing turlari* – bozordagi vaziyatga qarab marketingning quyidagi turlari qoʻllaniladi: konversiyalangan, ragʻbatlantiruvchi, rivojlanuvchi, remarketing, sinxromarketing, qoʻllab-quvvatlaydigan marketing, demarketing, qarama-qarshi harakatdagi marketing, maqsadga oid marketing.

*Konversiyalangan marketing* tovarning sifatidan qatʼi nazar, tovarga talab yoʻq boʻlsa qoʻllaniladi. Marketing faoliyati talabni shakllantirishga qaratilishi shart.

*Ragʻbatlantiruvchi marketing* qolgan tovarga (masalan, xaridorlarga nomaʼlum mahsulotga) talab kuchsiz yoki umuman yoʻq boʻlsa qoʻllaniladi. Marketing faoliyati talabni yoki uning yuzaga kelishiga sharoit yaratishga qaratiladi.

*Rivojlanuvchi marketing* qachon talab yashirin holda boʻlsa va uni reallikka aylantirish zarurati tugʻilsa qoʻllaniladi. Buning uchun tovar sifatini koʻtarishni kuchaytirish kerak.

*Remarketing* agarda bozorda bir xil tovarlar koʻpligi natijasida talab kam boʻlsa qoʻllaniladi. Bu yerda maqsad talabni kuchaytirish zarur boʻlsa, tovarga qoʻshimcha yangilik kiritish yoʻli bilan amalga oshirish mumkin.

*Sinxromarketing* qachonki tovar mavsumiy bo‘lib, talab tebranib tursa qo‘llaniladi. Talab tebranishini hisobga olgan holda sotuvni barqarorlashtirish zarur bo‘ladi.

*Qo‘llab-quvvatlaydigan marketing* talab korxonaning ishlab chiqarish imkoniyatiga to‘liq to‘g‘ri kelsa qo‘llaniladi. Talabni qo‘llash yo‘li bilan sotuvni barqarorlashtirish kerak.

*Demarketing* maqsadga muvofiq, agar talab korxonaning ishlab chiqarish imkoniyatiga haddan tashqari kuchli bo‘lsa qo‘llaniladi. Unda narxlarni ko‘tarish, tovarlarga reklamalarni to‘xtatish yo‘li bilan talabni kamaytirish kerak. Bunday holda boshqa korxonalarga ishlab chiqarish huquqiga ega bo‘lish uchun litsenziyalarni sotish mumkin.

*Qarama-qarshi harakatdagi marketing* talab haddan tashqari oshib ketsa, uni nolga tushirish kerak (masalan, spirtli ichimliklarga, tamaki va hokazolarga). Bunday tovarlarni ishlab chiqarish va sotishni kamaytirish maqsadga muvofiqdir.

*Biron maqsadga oid marketing* – bozor segmentlarini ajratish, ulardan birontasini yoki bir nechtasini tanlab, tanlangan segmentlarda marketing turiga to‘g‘ri tovarlarni ishlab chiqarish lozim bo‘ladi.

### **Qisqacha xulosa**

*Marketing* – bozor qatnashchilarining eng muhim faoliyat turlaridan biridir. Bozor kelajagini va noziq ahvolini, uning asosiy segmentlarini bilmasdan turib bozor doirasida iste‘molchilar talabini qondirish, ularni kerakli tovarlar bilan ta‘minlamasdan ishda muvaffaqiyatlariga erishish mumkin emas. Tovarni kerakli iste‘mol xususiyati bilan yaratish lozim; tovarlarning qimmatbaholiligi g‘oyasini iste‘molchilarga eng qulay narxlar yordamida olib bormoq zarur; tovarlar keng miqyosda bo‘lishi va ommaga yaxshi ko‘rsatish uchun bilimdon vositachi topish, tovarlar shunday reklama qilinishi kerakki, iste‘molchilar u to‘g‘risida maksimal narsalarni bilishi va uni sotib olishga xohishi bo‘lishi kerak.

### **Asosiy tushunchalar**

*Marketing* – bozor funksiyasi bo‘lib, ishlab chiqarishda savdo faoliyati boshqaruvini tashkil etish, xaridorlar talabini iloji boricha maksimal imkoniyat bilan qondirish maqsadida bozorni o‘rganishga asoslangan kompleks tizimdir.

*Marketingning vazifasi* – bu marketing tizimi korxonalarining tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish va shartlangan narxda iste‘molchilar to‘lov qobiliyati bilan bog‘liq aniq turdagi faoliyatdir.

### **Mavzuning namunali rejalari**

1. Marketingning paydo bo'lishi va rivojlanishi.
2. Marketingning mohiyati va mazmuni.
3. Marketingning vazifasi.

### **Seminar darslarida muhokama qilish uchun savollar**

1. Marketingning paydo bo'lishi va rivojlanishi.
2. Marketing taktikasi va strategiyasi.
3. Marketing turlari va tamoyillari.

### **Mustaqil ta'lim uchun savollar**

1. Marketing, uning mohiyati, vazifalari va qoidalari.
2. Marketing tamoyillari.
3. Marketingning vazifasi.

## **25 BOB. KORXONA (FIRMA) SARF-XARAJATLARI VA FOYDASI**

### **25.1.Xarajatlarning mohiyati va tarkibiy tuzilishi**

Bozor sharoitida har qanday firma faoliyatining asosiy maqsadi foydani maksimallashtirishdir. Bu strategik maqsadni amalga oshirishning real imkoniyatlari barcha hollarda ishlab chiqarish xarajatlari va firma tomonidan chiqarilayotgan mahsulotga talab bilan cheklangan. Ayrim hollarda bozorda o‘z o‘rnini egallash, raqobat kurashi va boshqalar. Firma foydani vaqtincha pasaytirishi va hatto zarar ko‘rib ishlashi mumkin. Ammo firma uzoq vaqt davomida foydasiz yashay olmaydi. Xarajatlar foydaning asosiy cheklovchisi va bir vaqtning o‘zida taklif hajmiga ta’sir qiluvchi asosiy omil bo‘lgani tufayli firma rahbariyati mavjud ishlab chiqarish xarajatlarini, ularning istiqboldagi hajmini taxmin etmay turib, qaror qabul qilishi mumkin emas. Bu o‘zlashtirilgan mahsulot ishlab chiqarishga ham, yangi mahsulotlar ishlab chiqarishga ham taalluqli.

**Xarajatlar tavsifi.** Qiymatning mehnat nazariyasi nuqtai nazaridan qaraganda xarajatni ish haqiga, materiallarga, yoqilg‘iga, mehnat vositalari amortizatsiyasiga, mahsulot ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatishga qilingan sarf, deb qaraydi. Ularga yana savdo xodimlari ish haqi sarflarini, savdo binolari, transport va boshqa sarflarni ham qo‘shgan. Avvalgi xarajatlarni iqtisodiyot fanida ishlab chiqarish xarajatlari deb, keyingisi esa, muomala xarajatlari, deb ataladi. Ammo bozordagi vaziyat va boshqa qator sharoitlar hisobga olinmagan. Tovarining qiymati ishlab chiqarish va muomala, ishlab chiqarish jarayonini davom ettirish, masalan, tovarlarni reallashtirish, o‘rash, solish, qadoqlash, tortish, bo‘lak-bo‘lak qilish kabi jarayonlari sarflaridan tashkil topadi, deb hisoblanadi.

Hozirgi zamon iqtisodiyot nazariyasi xarajatlar talqiniga butunlay boshqacha yondashadi. Ishlatiladigan resurslarning cheklanganligidan va ulardan foydalanishning muqobil imkoniyatlaridan kelib chiqadi. Muqobil foydalanish deganda, masalan, yog‘ochdan (daraxtdan) qurilish materiallari, mebel, qog‘oz, qator kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyati tushuniladi. Shuning uchun firma masalan, yog‘ochdan mebel ishlab chiqarishga qaror qilar ekan, u bu bilan yog‘ochdan, aytaylik, dala hovlilari, uylar uchun bloklar ishlab chiqarishdan voz kechadi. Mazkur ishlab chiqarishda foydalaniladigan eng optimal usul uning qiymatiga tengdir. Bu jadvalda ilgari biz ko‘rib chiqqan ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig‘ida ifodalanadi.

Resurslarning cheklanganligi doimo tanlashga to‘g‘ri kelishini anglatadi, tanlash esa, birining foydasiga ikkinchisidan voz kechishni bildiradi.

**Xarajatlar turlari** avvalambor, xarajatlar tashqi va ichki xarajatlarga bo‘linadi. *Birinchi*, firmaning mazkur mahsulotni yaratishda o‘zi ishlab

chiqarmaydigan hamma narsa, chunonchi, xodimlar mehnati, yoqilg'i, jamlanuvchi mahsulotlar bilan bog'liq. Mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflanadigan xarajatlarning solishtirma og'irligi esa ko'proq.

Ichki xarajatlarga kelaylik: korxonaga yoki magazin egasi o'ziga ish haqi to'lamaydi. Magazin joylashgan bino uchun haq olmaydi. Agar u o'z pul mablag'larini savdoga qo'ysa, o'sha pulni bankka qo'yganda oladigan foizlarini olmaydi. Ammo mazkur firma egasi me'yoriy, deb ataluvchi foydani oladi. Aks holda u bu ish bilan shug'ullanmaydi. U olayotgan foyda (me'yordagi) xarajatlarning elementini tashkil etadi. Bundan tashqari yana sof, ya'ni iqtisodiy foyda ham bo'lib, u tashqi va ichki xarajatlarni chiqarib tashlagan holda, me'yoriy foydaning umumiy tushumidan minus tashqi xarajatlarga teng bo'ladi.

Amaliyot xarajatlari kattaligi chiqarilayotgan mahsulot hajmiga bog'liq ekanligidan dalolat beradi. Xarajatlari ishlab chiqarish kattaligiga bog'liq va unga bog'liq bo'lmagan xarajatlarga bo'linadi.

**Doimiy xarajatlari** mahsulot ishlab chiqarish hajmiga bog'liq bo'lmaydi, masalan, firma uskunalarining qiymati agar korxonaga to'xtab qolsa ham to'lanishi kerak. Doimiy xarajatlarga obligatsiya zayomlari bo'yicha to'lovlari, renta to'lovlari, bino va inshootlari amortizatsiya ajratmalari uchun chegirmalarning bir qismi, sug'urta to'lovlari (ularning bir qismi majburiy) va firma xodimlarining ish haqi va hokazolar kiradi.

**O'zgaruvchan xarajatlari** doimiydan farqli o'laroq bevosita ishlab chiqarilayotgan mahsulot miqdoriga bog'liq bo'ladi. Ular xom ashyo, materiallar, yoqilg'iga, transport va boshqalarga sarflardan iborat.

Doimiy va o'zgaruvchan xarajatlarning yig'indisi **yalpi xarajatlarni** tashkil etadi. Ishlab chiqarishni boshqarish uchun mahsulot birligiga ketadigan xarajatlari kattaligini bilish muhim. Firma ishlab chiqarayotgan mahsulot miqdorining birligi sarflari kattaligiga bo'linganda chiqadigan o'rtacha xarajatlardan hisoblab chiqiladi.

Xuddi shu yo'sinda o'rtacha, doimiy va o'zgaruvchan xarajatlari ham hisoblanadi. Firma faoliyatida maqsad foydani maksimallashtirish ekan, hisob-kitob predmeti vazifasini ishlab chiqarish hajmi o'taydi, bu o'z navbatida chegaraviy xarajatlari kategoriyasidan foydalanish zaruratini vujudga keltiradi. **Chegaraviy xarajatlari** – bu amaldagi yoki hisobdagi ishlab chiqarish hajmiga nisbatan har bir qo'shimcha birlikni ishlab chiqarishga ketadigan xarajatlardir. Turli xarajatlari o'rtasidagi nisbatni quyidagi raqamlar misolida ko'rish mumkin (25.1- jadval ).

25.1-jadval

Ishlab chiqarish hajmi	Xarajatlarning mutlaq kattaliklari			Chegaraviy xarajatlari	Xarajatlarning o'rtacha kattaliklari		
	Doimiy	O'zgaruvchan	Yalpi		Doimiy	O'zgaruvchan	yalpi
Q	TFC	TVC	TS=TR C+TVC	MC=TD M-Tp	ARS= T FC/Q	AVC=T VC/Q	ATS =T C/Q
0	200	0	200	80			
1	200	80	280		200	80	280
2	200	150	350	70	100	75	175
3	200	210	410	60	66.6	70	137
4	200	260	460	50	50	65	115
5	200	300	500	40	40	60	100
6	200	330	530	30	33.3	55	88/3

25.1- jadvalning mazmunini tushunish uchun ishlab chiqarish hajmi o'zgaranda doimiy va o'zgaruvchan xarajatlar nisbati o'zgarishiga e'tiborni qaratmoq zarur. Yuqorida aytilganidek, doimiy xarajatlar ishlab chiqarilayotgan mahsulot miqdoriga bog'liq emas.

O'zgaruvchan xarajatlar bevosita ishlab chiqarilgan mahsulot hajmiga bog'liq. O'zgaruvchan xarajatlarning turli tashkil etuvchilari ularning umumiy kattaligiga turlicha ta'sir qiladi. Masalan, ishsizlik bo'lganida va mehnat bozorida kerakli malakaga ega xodimlarni topish qiyin bo'lmaganida jonli mehnat massasi hisobiga ishlab chiqarish hajmini osonlik bilan oshirish mumkin. Xuddi shunday vaziyat qo'shimcha resurslar yoki yoqilg'i ishlatilganda ham sodir bo'lishi mumkin. Bunda ishlab chiqarish ixtisosligini hisobga olish tabiiydir. Mahsulot hajmining o'sishiga (masalan, individual buyurtmalar asosida mebel ishlab chiqarishda) qo'shimcha ishchilarni jalb qilish yo'li bilan oson erishish mumkin. Ammo ishlab chiqarish quvvatlarini, ishlab chiqarish maydonlarini kengaytirish zarur bo'lganda mutlaqo o'zgacha vaziyat vujudga keladi. Bu yerda zarur vaqt oylar bilan, ba'zida esa aytaylik og'ir mashinasozlik yoki metallurgiyada yillar bilan o'lchanadi. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, iqtisodiy tahlilda qisqa va uzoq muddatli davrlarni farqlash zarur. Iqtisodiyot nazariyasida ular o'rtasidagi farqning




mohiyatini ishlab chiqarish quvvatlarining o'zgarish imkoniyatlari tashkil etadi. Qisqa muddatli davr doirasida yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish mumkin emas, ammo ulardan foydalanish darajasini oshirish mumkin. Uzoq muddatli davr chegaralarida ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish mumkin. Albatta, bu davr turli sohalarida turlicha. Xarajatlarni ikki davrga bo'lish firmaning foydani maksimallashtirish borasidagi strategiya va taktikasini belgilashda katta ahamiyatga ega.

## 25.2. Qisqa muddatli va uzoq muddatli davr

**Qisqa muddatli davr.** Yuqorida keltirilgan 25.1- jadvali firmaning qisqa muddatli ko'rsatkichlari dinamikasin tavsiflaydi. Ko'rinib turibdiki, ishlab chiqarish quvvatlari o'zgarmaganda va ko'rsatkichlar dinamikasi uskunalar bandligining o'sishi bilan belgilanadi. 25.1- jadvalining tahlili shuning uchun muhimki, u har bir egri chiziq va ularda keltirilgan o'lchamlar xususiyatini kuzatish imkonini beradi. 25.1-jadvali ma'lumotlari asosida yangi chizmani ko'rib chiqamiz, u firma foydasini maksimallashtirish imkoniyatlari hamda firma mavjudligi chegaralarini yaqqol tasavvur qilish imkonini beradi.

Avvalo 25.1-chizmada tasvirlangan egri chiziqlar xususiyatiga to'xtalamiz. Firma tomonidan qarorlar qabul qilishda mahsulotlarning har bir donasiga doir tavsiflar g'oyatda muhim bo'lganligi tufayli turli xarajatlarning o'rtacha kattalikda berilganlarini ko'rib chiqamiz. Mahsulotning bir donasiga doimiy xarajatlar, ya'ni solishtirma doimiy xarajatlar mahsulot chiqarish oshib borgan sayin kamayadi, chunki ularning mutlaq kattaligi o'zgarmasdir. Amalda ularning kattaligi arizimagan o'zgarishlarga uchrashi mumkin.




25.1-chizma. Xarajatlarning egri chizig'i va firmalarning harakat qilish imkoniyatlari

Masalan, ishlab chiqarish o'sishi bilan o'g'irlik xavfi kuchayishi, bu demak qo'riqlov xarajatlari ko'payishi mumkin. Ishlab chiqarish o'sishiga o'zgaruvchan xarajatlarning qaramligi murakkabroqdir. Birinchi davrda AVC egri chizig'i solishtirma o'zgaruvchan xarajatlarning kamayishini ko'rsatadi: bu yerda ko'lam samarasi, ishlab chiqarish hajmining kengayishi ta'sir qilmoqda. Ammo keyin, solishtirma o'zgaruvchan xarajatlar o'sa boshlaydi: ko'lam samarasi ustidan kamayib boruvchi naflilik qonuni ustun keladi. Masalan, mashinasozlik korxonasida to'la uch smenada ishlash uskunalarning samaradorligi pasayishiga olib kelishi mumkin, chunki uchinchi smenada mahsulot chiqarilishi profilaktika ishlari imkoniyatini yo'q qiladi, bu shubhasiz mashina va uskunalarining ishdan chiqib, bekor turib qolishiga olib keladi. Birgalikdagi xarajatlar egri chizig'iga kelsak (ATS), u har kuni tashkil etiluvchi (AFC va AVC) larga nisbatan tezroq pastlashadi va bu qonuniydir.

Firma faoliyatida quyidagi vaziyatlar hal qiluvchi rol o'ynaydi. Chegaraviy xarajatlar (MS) o'rtacha xarajatlardan (ATS) kam bo'lar ekan, o'rtacha xarajatlarning kamayishi sodir bo'ladi va u chegaraviy xarajatlarning oxirgi o'sishi barcha avvalgilaridan kam bo'lgunga qadar davom etadi. MS va ATS egri chiziqlari kesishadigan  $K$  nuqtasida o'rtacha xarajatlarning (ATS)ning minimumi vujudga keladi.  $K$  nuqtasining o'ngrog'ida solishtirma yalpi xarajatlar o'sa boshlaydi. Demak, shu narsa ma'lum bo'ladiki,  $K$  nuqtasida bozor narxi o'rtacha yalpi xarajatlarga teng. Bu nuqta zararsizlik, ya'ni ishlab chiqarishning pirovard hajmi nuqtasi, deb ataladi. Bozor narxi  $K$  nuqtasidan pastga tushsa, korxonalar (yoki mazkur ishlab chiqarish) sohani tark eta boshlaydi. Agar boshqa mahsulot chiqarishga o'tish katta xavf bilan bog'liq bo'lsa yoki istiqbol tahlili talab o'sishi yoki raqiblar ahvoli yomonlashgani tufayli mahsulot narxlarining qisqa muddatda oshishi mumkinligi to'g'risida xulosa chiqarish imkonini bersa, shu nuqtada ishlashni davom ettirish mumkin. Agar firma  $V$  nuqtasiga tushib qolsa, ahvoli anchagina yomon, chunki bu yerda sotuv narxi faqat solishtirma o'zgaruvchan xarajatlarga teng (AVC). Bu holda mahsulot bilan savdo qilish uni ishlab chiqarishga ketgan barcha sarflarni qoplash imkonini bermaydi. Firmaning mazkur mahsulotni ishlab chiqarishni to'xtatishdan boshqa iloji qolmaydi. Firmani bankrot, deb e'lon qilish varianti ham ehtimoldan holi emas.

**Uzoq muddatli davr.** Firmaning uzoq muddatli davr strategiyasi qanday qurilishini ko'rib chiqamiz. Agar qisqa muddatli davr doirasida firmaning ishlab chiqarish apparatida o'zgarishlarni amalga oshirish mumkin emasligini eslasak, uzoq muddatli davr doirasida ishlab chiqarish infratuzilmasi va uskunalar hajmida ham, ularning tizimida ham o'zgarishlar sodir bo'lishi mumkin.



### 25.2-chizma. Firmaning uzoq muddatli davrdagi o'rtacha yalpi xarajatlari egri chizig'i (quvvatlarning besh varianti).

Firma yangi ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishi, yangi sexlarni barpo etishi, transport arteriyalarini kengaytirishi mumkin va hokazo. Teskari variant bo'lishi – ishlab chiqarish quvvatlarini kamaytirish ham ehtimoldan holi emas. Tarmoqqa yangi firmalar kirishi mumkin, bu esa, raqobat vaziyatini o'zgartiradi. Biz faqat alohida firmalardagi o'zgarishlarni ko'rib chiqamiz. Uzoq muddatli davrda ishlab chiqarish quvvatlari va unga mos ravishda xodimlar soni o'zgarar ekan, shu davrda barcha xarajatlar o'zgaruvchan bo'ladi, deb xulosa chiqarish mumkin. Firma kengaytirilganda yalpi xarajatlarda o'zgarish sodir bo'ladi. Qisqa muddatli davrdagi kabi avval ko'lam samarasi ta'siri tugaganda, ular minimumga yetadi. Keyin esa, yalpi xarajatlarning ko'payish jarayoni boshlanadi.


25.2 chizmada  $A_1 - B_1$ ,  $A_2 - B_2$  va ulardan keyingi koordinatalar ishlab chiqarish quvvatlari oshganda yalpi xarajatlar kattaligini ifoda etadi. Ular uchinchi variantda minimal ekanligini ko'rish qiyin emas, keyin esa, o'sa boshlaydi. Ishlab chiqarish quvvatlarining o'sishidagi yalpi xarajatlarning real dinamikasi  $B_1$ ,  $B_2$ ,  $B_3$ ,  $B_4$ ,  $B_5$  egri chizig'i bilan ifodalanadi, u siniq egri chiziqdan iborat, uning har bir elementi firma quvvati o'sishining ma'lum davrlarini belgilaydi. Shu bilan birga, mazkur egri chiziq – firma tanlovi egri chizig'idir. Bozorda vaziyat o'zgardimi, yangi qaror qabul qilish (quvvatlarni yo oshirish, yo kamaytirish) zarur.

### 25.3. Xarajatlarni minimallashtirish: ishlab chiqarish omillarini tanlash

Uzoq muddatli bosqichda ishlab chiqarish quvvatlarini oshirishga harakat bo'lsa, har bir firma oldida ishlab chiqarish omillarining yangi nisbatini tanlash muammosi turadi. Bu muammoning mohiyati shundaki, avvaldan belgilangan mahsulot ishlab chiqarish hajmini minimal xarajatlar bilan ta'minlash kerak. Bu fikrni tekshirish uchun ishlab chiqarishning faqat ikki omili bor, deb faraz

qilamiz: kapital  $K$  va mehnat  $L$ . Raqobat bozorida mehnat narxi ish haqi stavkasiga teng debqabul qilish qiyin emas. Kapital narxi (asbob-uskuna uchun ijara haqi)  $R$  ga teng. Izlanishni soddalashtirish uchun faraz qilamizki, barcha jihozlar (kapital) firma tomonidan sotib olinmaydi, balki masalan, lizing tizimi bo'yicha ijaraga olinadi, bunda mazkur davr doirasida kapital va mehnat narxlari doimiy bo'lib qoladi.

Ishlab chiqarish xarajatlari izokost, deb ataluvchi ko'rinishda berilishi mumkin. Shunda mehnat va kapitalning mumkin bo'lgan barcha uyg'unliklari tushuniladi va ular bir xil umumiy qiymatga ega bo'ladi yoki ishlab chiqarish omillarining yalpi xarajatlari bilan uyg'unlashadi. Yalpi xarajatlar  $TC=w+rk$  formulasi bilan aniqlanadi. Bu tenglama izokost bilan ifodalanishi mumkin.



### 25.3-chizma. Ishlab chiqarishning minimal xarajatlari amal qilganida chiqarilayotgan mahsulot miqdori.


Firma  $S_0$  izokostini tanlay olmaydi, u  $C_0$  ga teng qiymatli  $Q$  mahsulot chiqarishni ta'minlashga qodir omillarga ega emas. Topshirilgan ishlab chiqarish hajmi  $S_2$  ga teng xarajatlar bilan ta'minlanishi mumkin, bunda mehnat va kapital sarflari va  $K_2$  yoki  $L_3$  va  $K_3$  ga teng. Ammo bu holda xarajatlar minimal bo'lmaydi va bu qo'yilgan maqsadga javob bermaydi. Masalaning hal etilishi  $N$  nuqtada samaraliroq bo'ladi, chunki bunda ishlab chiqarish xarajatlarning minimal bo'lishi ta'minlanadi. Yuqorida aytilgan fikr ishlab chiqarish omillarining narxi o'zgarmas bo'lgan holdagina to'g'ri hisoblanadi. Amaliyotda esa bunday bo'lmaydi. Kapitallarning narxi oshadi, deb faraz qilamiz. Unda izokostning og'ish burchagi kichiklashadi,  $C_1$  egri chizig'i esa yotig'roq bo'ladi. Bu holda xarajatlarning minimallasuvi  $M$  nuqtada  $L_4$  va  $K_4$  lar bilan sodir bo'ladi. Kapitalning narxi oshgani tufayli firma kapitalni mehnat bilan almashtiradi. Texnologiyani almashtirishning chegaraviy me'yori – ishlab chiqarish hajmi o'zgarmas bo'lgan holda mehnatning qo'shimcha birligidan foydalanish hisobiga kapital sarflarining qisqarishi sodir

bo‘ladigan miqdordir. Texnologik almashtirish me‘yori *MPTS* bilan belgilanadi. U iqtisodiyot nazariyasida izokvantning teskari belgili burchak koeffitsientiga teng, deb isbotlangan. Unda:  $MPTC=K/L=MPL/MPK$  bo‘ladi.

Murakkab bo‘lmagan o‘zgarishlar yo‘li bilan  $MPL/w=MPK/r$  ni hosil qilamiz, bunda *MP*– kapital yoki mehnatning chegaraviy mahsulidir. So‘nggi tenglamadan shu narsa kelib chiqadiki, minimal xarajatlar ishlab chiqarilayotgan mahsulotga teng miqdorda bo‘ladi. Bu demak, yuqorida keltirilgan shartlarda firma ishlab chiqarish omillari orasidan tanlashi, arzonroq omilni sotib olishi va bunga ishlab chiqarish omillarining ma‘lum uyg‘unligi mos kelishi kerak.

#### 25.4. O‘rta muddatli davrda ishlab chiqarish xarajatlari dinamikasi

Tadbirkorlik amaliyotining darajasini baholash, foydani maksimallashtirish uchun o‘rta muddatli davrda sarflar dinamikasi ancha sezilarli ahamiyatga ega. Hozirgi zamon texnologik taraqqiyoti sharoitida raqobat ko‘rashi anchagina keskinlashdi va yangi shakllarga ega bo‘ldi, iste‘mol ehtiyojlari tobora tezroq o‘zgarmoqda. Texnologiya o‘rta muddatli davrda o‘zgaruvchan resurslarning oshib boruvchi natijali o‘rnini kamayib boruvchi natija egallashiga olib keladi. Bu borada alohida muammo yo‘q va dalilning qayd qilinishi bilan masala hal bo‘ladigandek tuyuladi. Ammo tarmoqlar va ishlab chiqarishlarning anchagina qismida doimiy resurslar bir xil bo‘ladi. Agar shunday bo‘lsa, uning bir qismi zaxira qilib qo‘yilishi mumkin. Unda o‘zgaruvchan resurslarning doimiy natijasi vujudga keladi. Yangilik shuki, doimiy sermahsullikning bu bosqichida o‘rtacha va chegaraviy mahsulotlarning egri chiziqlari qo‘shilib ketadi (25.4-chizma).




**25.4 –chizma. Doimiy sermahsullik maydoni va xarajatlari dinamikasi.**

Ilgari biz o‘rta muddatdagi davrda korxonalar ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasini o‘zgartirishlari mumkinligidan kelib chiqardik, lekin bu davrda ham ko‘pincha bir ko‘nga kechiqish xonavayronlikka olib kelishi mumkin. An‘anaviy nazariyaga asosan o‘rtacha o‘zgaruvchan xarajatlar minimal o‘rtacha sarflardan yuqori bo‘ladi.

V.M.Galperin va boshqalarning «Mikroiqtisod»<sup>5</sup> kitobidagi jadvalda oʻrtacha oʻzgaruvchan sarflar oʻzgarimas uchastka (boʻlimcha) tashkil topadi (25.4-chizmaga qarang). Bu oʻzgaruvchan sarflarning oʻsib borishi bilan tushuntiriladi, ishlab chiqarish sarflarining kamayib borishi tufayli boshqaruv sarflari oʻsib boradi. Mualliflarning fikriga prinsipial jihatdan bir arzimas eʼtiroz bildirmoqchimiz. Informatika va hisoblash texnikasidan, ishlab chiqarishni boshqarishning yangi usullaridan foydalanishning kengayishi bilan boshqaruv sarflarining oʻsishi tahlil nuqtasidan boshlanmoqda, u jadvalda anchagina koʻtarildi va bu tamoyil hozircha saqlanmoqda. Bundan tashqari jahonda asosan oʻrtacha va uncha katta boʻlmagan korxonalarni qurish davom etmoqda. Amalda bu jadvaldagi toʻgʻri chiziq uchastkaning kengayishini va raqobat koʻrashining yangi imkoniyatlarini bildiradi.

### 25.5. Uzoq muddatli davrda firmaning investitsiyali faoliyati

Investitsiyali faoliyat bilan uzoq muddatli davrda shugʻullanish mumkinligi aniq va uning oʻlchamlari har xil ishlab chiqarishlar, korxonalar va tarmoqlar uchun turlichadir. U metallurgiya va ogʻir mashinasozlikda anchagina davomli, qishloq xoʻjaligi xom ashyosini qayta ishlovchi tarmoqlarda nisbatan katta emas va hokazo. Lekin har qanday holda ham investitsiyalarni amalga oshirish vaqtini tanlash firma strategiyasining muhim jihatidir. Buni batafsilroq koʻrib chiqishga harakat qilamiz, chunki bu masala garchi prinsipial ahamiyatga ega boʻlsada, nazariy adabiyotlarda koʻrib chiqilmagan. Firmaning uzoq muddatli davrdagi xarajatlari jadvalini tahlil qilamiz (25.5-chizma).



**25.5 – chizma. Uzoq muddatli davrda firma xarajatlari dinamikasi va investitsiyalarni amalga oshirish vaqtining tanlanishi.**

<sup>5</sup> Гальперин В. М., Игнатьев С. М., Моргунов В. И. Микроэкономика. В 2-х томах. Институт "Экономическая школа", Санкт-Петербург, 2004.

Investitsiyalarni amalga oshirishning boshlanish onlari jadvali  $M$  nuqtaga to'g'ri kelishi kerak edi. Ammo investitsiyalar vaqt davomida amalga oshiriladi. Loyihani (unga marketing izlanishlari, zarur hujjatlarni rasmiylashtirish ham kiradi) tasdiqlash, qurilish ishlariga, birinchi partiya tovarlarni chiqarish va uni sinovdan o'tkazishga vaqt kerak. Shuning uchun agar yangi mahsulotni chiqarishni boshlash to'g'risida qaror qabul qilingan bo'lsa ( $M$  nuqta), investitsion faoliyat avvalroq boshlanishi kerak ( $N$  nuqta). Bunda bankdan kredit olish uchun ma'lum vaqt zarurligini unutmaslik lozim. Bozor sharoitlarida firma birinchi bo'lishga intiluvchi raqiblarning harakatlarini hisobga olishi kerak. Marketing izlanishlari davrida investitsiyalarni amalga oshirish vaqti bilan yangi mahsulot bozorida raqiblardan o'zib ketish uchun zarur vaqtni solishtirish zarur. Bundan tashqari, firma yangi tovar ishlab chiqarishga o'tayotganda qilinadigan tavakkal oqibatini hisoblash lozim. Tavakkal oqibati yangi mahsulot bilan bozorga chiqish vaqtigagina emas, balki qurilishning texnologiyasiga ham bog'liq. Shu vaqtgacha, biz yangi mahsulot bozorda so'zsiz raqobatbardoshli bo'ladi va raqobatlashuvchi firmalar mazkur firma bilan darhol bellasha olmaydilar, degan fikrdan kelib chiqayotgan edik. Bozor xo'jaligi sharoitida yangi mahsulot ishlab chiqarishga o'tish yangi uskunalarni, yangi texnologik liniyalar va hokazolarni o'rnatish muammosini keltirib chiqaradi. Siyosiy iqtisod nazariyasida buyruqbozlik iqtisodiyoti sharoitlarida kapitalizmdan farqli o'laroq sotsializm, yangi texnikani joriy qilishning chegaralari yo'q deb, da'vo qilinadi. Ko'pgina iqtisodchi olimlar bunga prinsipial e'tiroz bildiradilar. «Hozirgi zamon fan-texnika inqilobi» monografiyasida bu konsepsiya keng tanqid ostiga olingan va yangi texnikani joriy qilish chegaralari sotsializm, kapitalizm ham, kapitalizm ham bir xil, degan qoida ilgari surilgan. Faol konsepsiyaga qarama-qarshi amaliy qo'llash uchun ko'rsatma muddati va foyda me'yori, ya'ni o'sha vaqtlarda g'arb firmalari tomonidan keng foydalanilayotgan ko'rsatgichlar tasdiqlanardi. Qat'iy qilib aytganda, yangi texnika (mahsulot) chiqarish shartini quyidagi formula orqali aniqlash mumkin:

$$\frac{\text{foydaliklar } \Delta}{\text{xarajatlar } \Delta} > 1$$

«Kapital» da shunday xulosaga keladiki, uning xulosasiga qo'shilish sira mumkin emas. Kapitalizm, deb yozadi K.Marks, – mahsulotni arzonlashtirish nuqtai nazaridan mashinalarni qo'llash chegarasi shu bilan belgilanadiki, ishlab chiqarishga ketadigan mehnat mashinalar qo'llanishi bilan almashinadigan mehnatdan kamroq bo'lishi kerak. Ammo deb, davom etadi K.Marks, kapital uchun bu chegara torroq bo'ladi. Chunki kapital

qo‘llanilayotgan mehnatni emas, balki qo‘llanilayotgan ishchi kuchi qiymatini to‘lagach, uning uchun mashinalarning qo‘llanilishi mashina qiymati va u almashtirayotgan ishchi kuchi qiymati o‘rtasidagi farq chegaralaridagina maqsadga muvofiqdir. Marksning bu qoidasi kapitalistik amaliyotga zid ekanligini sezish qiyin emas va u nazariy jihatdan anchagina ziddiyatlidir. Shu o‘rinda foyda me‘yori mezon sifatida chiqmoqda.

Ushbu bobda ishlab chiqarish xarajatlari, ishlab chiqarish resurslari va omillari bilan birga, mahsulot ishlab chiqarishni tashkil etish tadqiq qilindi. Shuning uchun kelgusi bobda ishlab chiqarish resurslariga va omillariga narxni tashkil etishni ko‘rib chiqamiz, ungacha, yuqorida ko‘rib o‘tilgan bobning qisqacha xulosalariga to‘xtalamiz.

**Korxonalar (firma) va foyda:**

Foyda bu korxonaning xo‘jalik yuritish faoliyati natijasi hisoblanadi. Foyda iqtisodiy va normal sifatida farqlanadi. Iqtisodiy yoki sof foyda – bu korxonalar daromadi, bu umumiy tushuncha va ishlab chiqarish umumiy tushum, umumiy sarf-xarajatlardir. Iqtisodiy foydaning umumiy xarajatlari, bular yoki amaliy- ijobiy, yoki salbiy zararli bo‘lishi mumkin. Foydaning naqdiga va zararli har qanday faoliyatning unday yoki bunday turlarining jozibali hamda jozibasiz darajalari to‘g‘risida xabar berib turadi. Foyda tadbirkorlar uchun xizmat qiladigan narsa. Zarar esa – bozor, uni «tepki» deb nomlaydi.

Foyda normasi nima, u iqtisodiy foydani qanday farqlaydi ?

Demak, foyda normasi – bu ish haqi, yoki tadbirkor uchun mukofot.

Normal foydani to‘lash ishlab chiqarish sarf-xarajatlari sirasiga kiradi. Iqtisodiy foyda esa bu sarf-xarajatlarga kirmaydi. Sababi, iqtisodiy foyda – bu butun xo‘jalik faoliyati natijalarini bo‘lib, ya‘ni bu faqat bitta yoki bir guruh tadbirkorlar ishi emasdir.

### **Foydaning vazifasi va manbai**

Bozor iqtisodiyotda foydaning roli nimada? Bu savolga javob uning vazifalarini bilishdan iborat. Foydaning vazifasi: 1) foyda resurslaridan foydalanish darajasiga va ishlab chiqarish turlarini tanlash borasida ularni taqsimlashga samarali ta‘sir etadi; 2) foyda rag‘batlantirish sifatida yangilik kiritishda investirlash harakat qiladi, bu o‘z navbatida ishlab chiqarish; 3) foyda – bu ushbu aniq tarmoqning kengayishi jamiyat xohlashi haqida xabar beradi; zarar yoki keraksiz tarmoqlarni qisqartirish zarurligi to‘g‘risida xabar beradi.

Iqtisodiy foyda –bu bozor iqtisodiyoti sharoitida har qanday korxonalar-firmalarning asosiy maqsadlaridir. Statistik iqtisodiyot sharoitida sof foyda nolga teng. Nimaga? Javob statistik iqtisodiyotda shunday: 1) barcha asosiy ma‘lumotlar – resurslar tasnifi texnika va texnologiyalar yalpi talab doimiy va o‘zgarmaydi; 2) kelajak butunlay oldindan ko‘ra bilingan; 3) sarf-xarajatlari sof



foyda ko‘rinishida hech qanday qoldiqsiz to‘liq qoplanadi. Statistik iqtisodiyot uchun iqtisodiy nolga teng tushunchada xarakterlanadi. O‘shish yoki dinamik sharoitda, iqtisodiy foyda doimo o‘shib boradi. Nima uchun? Dinamik iqtisodiyotda javob shunday: 1) barcha asosiy ma’lumotlar – resurslar, texnika va texnologiyalar, ya’ni talab takliflari – hamma vaqt o‘zgarib turadi. 2) kelajagi noaniq bo‘lsa ham, ammo taxminan istiqboli porloq. 3) tadbirkorlar maksimal foyda olishga intiladilar, ko‘pincha tavakkachilikni o‘ziga oladilar. Shunday qilib, dinamik iqtisodiyot uchun foydaning o‘shish tushunchasi xarakterlidir. Sof foydani tavakkallik bilan bog‘lab, xavfli va xavfsiz tavakkallikni chegaralash kerak. Xavfli tavakkallikka shunday hodisalari kiradi, ya’ni ulardan xavfni yo‘qotishdan qochib kapital sug‘urta polesiga egalik qilish yo‘li bilan oldini olish mumkin. Shu bilan birga, tadbirkor zararini o‘z zimmasiga olishi shart. Iqtisodiyotda bunday xavfsizlik tavakkallik, sikllilik va tizimli siljishlar natijasida kelib chiqadi.

Iqtisodiy foyda manbalari odamlar va materiallar kabi resurslardan samarali foydalanishda ko‘rish mumkin. Bu deganimiz: 1) doimo ishchilarning malakasini oshirish zarurligi, ularning faoliyati uchun normal sharoit yaratishga intilamiz; 2) ishlab chiqarishda va sotuvda texnikaviy hamda texnologik ta’minlashni mukammallashtirish. Boshqacha aytganda, inovatsiyalar, ya’ni yangi texnika, yangi texnologiya, yangicha boshqaruv tizimi kerak.

Inovatsiyalar – bu hamma vaqt foyda manbai va dinamik siyosatning asosiy xususiyati bo‘lib hisoblanadi. Ammo raqobat sharoitida inovatsiyalarini qabul qiladi, shunday qilib iqtisodiy foydani yo‘qqa chiqaradi. Shunga qaramasdan, inovatsiyaviy foyda hamma vaqt dinamik iqtisodiyotda mavjud bo‘ladi. Tadbirkorlarning tavakkachilik vazifalaridan, boshqaruv tizimidan yangi texnika va texnologiyalardan farqlanadigan iqtisodiy foydaning boshqacha manbai mavjud bo‘lishi mumkin. Shunday manbalar bo‘lib monopoliyalarning hukumronligi ham hisoblanadi. Buning natijasi monopol foyda bo‘ladi, ya’ni foyda, monopoliyalarning hukumronligi bilan shartlangan. U monopoliyalar tomonidan ishlab chiqarish hajmi va narxlar ustidan qat’iy nazoratga asoslangan bo‘ladi.

### **Foyda me’yori**

Korxonalar (firma) larning foydaliligi mutlaqo pul ifodasida hamda nisbatan foyda me’yorida ifolanadi. Foyda me’yori pulda ifodalangan foyda barcha avanslangan kapitalning foizidagi ifodasiga nisbatan hisoblanadi.

Foyda me’yoring foyda avanslangan kapital x 100% yoki:

$$P^1 = P/K_x \cdot 100\%$$

Bu yerda,  $P^1$  – foyda me’yori;

$R$  – pulda ifodalangan foyda;

**K** – avanslangan kapital, ya'ni kapitalni ishlab chiqarishdan eng avval sarflangan.

Barcha, kimda – kim biznes bilan, maksimal foyda olishga intiladi. Maksimal foydani, kimda-kim o'zining ishlab chiqarishini va sotuvini ko'proq samarali qila oladi.

Foyda kelajakda amalga oshirish operatsiyalari uchun shunday yo'l ko'rsatuvchi bo'ladi.

### **Foydaning o'sish omillari**

Foydani ko'paytirish uchun, ikki shartni bajarish zarur:

- 1) Daromadni ko'paytirish yoki ishlab chiqarish sarf-xarajatlarini pasaytirish kerak.
- 2) Yoki ikkovini ham bir vaqtda bajarish lozim. Daromadni ko'paytirish mumkin, faqat shunday holatda: 1) ishlab chiqaradigan va realizatsiya qiladigan mahsulotlar miqdorini o'stirish yo'li bilan; 2) narx-navoni oshirish bilan.

Real mahsulotlarni ko'paytirish, shunga yarasha esa, daromadlarni ham ikki yo'l bilan amalga oshirish mumkin:

- 1) ekstensiv yo'l bilan, ya'ni resurslarning hajmini ko'proq jalb etish asosida;
- 2) instensiv yo'l bilan, ya'ni texnika va texnologiyalarini qo'llash yo'li orqali.

Ammo qo'shimcha mahsulotlarini qa'tiy raqobat sharoitida realizatsiya qilish ancha yengil emas. Shuning uchun bu yerda «yo dong'im chiqadi, yo changim chiqadi», yo ostidan yo ustidan, degan ya'ni foyda olish mumkin, yoki bo'lmasam, zarar ko'rish ham mumkin. Bunday vaziyat – narxdan navoning oshishi bilan ham sodir bo'lishi ehtimoldan holi emas. Agarda korxonalar narxini oshirsa, unda u xaridorni topa olmasligi mumkin, ya'ni o'zining ko'tarilgan narxda sotiladigan bo'lsa, hamma unday foyda vaqtincha xarakterga ega bo'ladi. Nimaga? Sababi, boshqa korxonalar ham narxni ko'taradi. Albatta, korxonalar ko'p vaqtlar davomida bir-birining hisobiga yasholmaydi. Shuning uchun foyda o'sishning ko'proq va mustahkam omili. Mehnat unumdorligining o'sish hisobiga ishlab chiqarish sarf-xarajatlarini pasaytirish kerak. Shu bilan birga, iqtisodiy o'sishga mamlakatda ijtimoiy, madaniy va siyosiy muhitlar katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

### **Qisqacha xulosalar**

Yuqorida aytib o'tilganidek, ishlab chiqarishni tashkil etish uchun ishlab chiqarish resurslari tayyor bo'lishi zarur, ular orasida quyidagilar ajralib turadi:

1. «Tabiiy resurslar» – bular mahsulot, tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishda foydalaniladigan tabiiy, moddiy boyliklardir (er, mineral, ruda, xom ashyo va boshqalar).

2. «Inson resurslari» – ishlab chiqarish jarayonida jismoniy va aqliy kuchlarini (mehnatini) sarflovchi ishchilar.

3. «Kapital resurslari» – bular jumlasiga zavod-fabrikalar, mashinalar, asbob-uskunalar hamda ularni sotib olish uchun xarajat qilinadigan pul mablag‘lari kiradi.

4. «Tadbirkorlik resurslari» – bu daromadli ishlab chiqarishni tashkil etish uchun kerakli boshqaruv bilimiga ega bo‘lgan biznesmenlar.

Lekin «resurslar» jamiyatning asosiy ishlab chiqarish salohiyati hisoblanadi. Amaliyotda resurslarning bir qismi jalb etiladi, bu jalb etilgan resurslar «ishlab chiqarish omillari» deyiladi.

Ishlab chiqarish jarayonlariga qilinadigan sarf-xarajatlar qisqa va uzoq muddatli davrlarga bo‘linadi, ular doimiy va o‘zgaruvchan bo‘ladi, birgalikda ular ishlab chiqarish xarajatlarni yuzaga keltiradi.

### **Asosiy tushunchalar**

Xarajatlar.

Doimiy xarajatlar.

Iste‘mol xarajatlari.

Ishlab chiqarish xarajatlari.

### **Mavzuning namunali rejalari**

1. Ishlab chiqarish xarajatlari, ularning mohiyati va neoklassik nazariyadagi talqini. Ishlab chiqarish xarajatlarining qiymatining mehnat nazariyasidagi talqini.

2. Ishlab chiqarish xarajatlari dinamikasi va firmalarning qisqa muddatli davrdagi xulqi.

3. Firmaning xarajatlar dinamikasi va investitsiya siyosati.

4. Firmalarning uzoq muddatli davrdagi xarajatlari dinamikasi va strategiyasi.

### **Seminar darslarida muhokama qilish uchun savollar**

1. Ishlab chiqarish nazariyasining asosiy qoidalari.

2. Ishlab chiqarish vazifasi. Ishlab chiqarishni kengaytirish va ko‘lam samarasi.

3. Firmaning investitsiyasi va strategiyasi.

4. Investitsiya vazifasi va uning jadvalda izohlanishi.

## 26 BOB. DAROMADLAR VA ULARNI TAQSIMLASH

### 26.1. Foydaning iqtisodiy tabiati

Bozor iqtisodiyotining muhim kategoriyasi foydadir. Foyda, aniqroq aytganda uni yuksalashtirish milliy iqtisodiyotning har qanday tarmog'idagi ishlab chiqarishning bevosita maqsadidir. Ammo shuni qayd etish lozimki, rivojlangan iqtisodiyotni mamlakatlarda foyda keltirmaydigan tashkilotlarning anchagina miqdori mavjud. Foyda bozor iqtisodiyotida asosiy rol o'ynashiga va bu kategoriya bir necha yuz yillar davomida iqtisodiy nazariyaning ob'ekti bo'lib kelayotganiga qaramay shu vaqtda uning mohiyati va shartlari to'g'risidagi qolgan munozaralar tinmaydi. «Ekonomiks» ning ko'p sonli daromadlarida ilmiy kitoblar va maqolalarda «foyda» kategoriyasi daromad, kapital, foiz va uning stavkasi, tutab turishlar, ko'tishlar va boshqa ko'pgina omillar bilan uzviy bog'lanadi.

Xarajatlarga bag'ishlangan bobda foydaning miqdoriy ifodalanishi berilgan. Foyda – umumiy tushum – minus: umumiy xarajatlarga tengdir. Xarajatlarga ish haqi, ijara to'lovchilar, materiallarga, yoqilg'iga, komplektlashtiruvchi mahsulotlarga, amortizatsiyaga sarflar, ssuda bo'yicha foizlar, soliqlar, rezervlar va hokazolar kiradi. Foyda kattaligi amalda bozor iqtisodiyoti barcha mamlakatlarda shunday belgilanadi. Foyda buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiyotli davlatlarda ish taxminan shunday belgilangan. Shu bilan birga, foyda kategoriyasi va undan foydalanish xarakterini kapitalistik tuzum bilan tenglashtirib bo'lmaydi.

**Foydaning «Kapital»dagi ta'riflanishi.** Avvalo, foydaga Markscha qanday ta'rif berilgani to'g'risida to'xtalamiz. K.Marks «Kapital»da foydani turlanuvchi, o'z mohiyatini qorong'ilashtiruvchi qo'shimcha qiymat sifatida ta'riflashga harakat qilgan.

«Kapital»ning muallifi, ekspluatatsiyani, yollanma ishchilarning to'lanmagan qo'shimcha mehnatini qo'shimcha qiymatining manbasi, deb hisoblardi. K.Marks bo'yicha, bu burjua iqtisodiy tuzumi, burjua ishlab chiqarish munosabatlari mohiyati ifodalanishining tashkiliy shakllaridir. Shunday qilib, ekspluatatsiya – bu foydaning Markscha ta'rifi negizida yotuvchi asosiy narsadir. «Kapitalist – yollanma ishchi» kapitalistik jamiyatning asosiy munosabati – uni sotsialistik inqilob birinchi navbatda yo'qotishi kerak edi. Foydaning bunday ta'rifiga quyidagi asosiy sabablarga ko'ra qo'shilish mumkin emas:

1. Ekspluatatsiyani xususiy mulk va bozor bilan bog'lash mumkin emas, o'z vaqtida Marks va yaqingacha sotsialistik mamlakatlarda ko'pgina iqtisodchi olimlar shunday qilgan edilar. Jahon tajribasi shundan guvohlik

berayaptiki, mulk emas, balki uning faoliyat yurgizish xarakteri, sharoitlari, mulk nisbati va boshqaruv xarakteri (asosiy, hal qiluvchi sifatida) chiqadi. Bozor iqtisodiga asoslangan mamlakatlar tajribasi aytilgan fikrining isboti bo‘lib xizmat qiladi.

2. Agar ekspluatatsiya – to‘lanmagan mehnat mahsulini o‘zlashtirish va kapitalizm atributi bo‘lsa, unda kapitalizm insoniyat sivilizatsiyasining deyarli butun tarixini egallaydi. Shuning uchun ekspluatatsiyani kapitalizm gagina xos bo‘lgan narsa, deb hisoblash mumkin emas.

3. Haqi to‘lanmagan mehnat mahsulini uzoqlashish fakti va uning miqdorigina emas, balki bu ajratilgan mahsulotdan keladigan manfaatlari uchun foydalanishini ko‘rish juda muhimdir. Aytilgan fikrning tasdig‘i sifatida Shvetsiya tajribasiga to‘xtalish mumkin. Bu yerda yollanma mehnat mahsulini uzoqlashtirish nafaqat firmalar tomonidan amalga oshiriladi, balki davlat tomonidan soliq solish shaklida amalga oshiriladi. Lekin shu narsa yaxshi ma’lumki, Shvetsiyadagi soliq stavkasi Yevropada eng yuqoridir. Shu bilan bir vaqtda, Shvetsiyada aholining, shu jumladan, yollanma ishchilarning turmush tarzi eng yuqorilaridan biridir. Shuni alohida qayd etish lozimki, sobiq ittifoqda ekspluatatsiyaning yuqori darajasi mavjud bo‘lib, davlat rahbarlari butun dunyoga, rivojlangan sotsializmni barpo etayotganliklarini, sotsializm mamlakatlarida ekspluatatsiya va u bilan bog‘liq, hamma narsaning tugatilganini jar solardilar. Xodimlardan ajratilayotgan, ular mehnati mahsulining anchagina qismi ularning farovonligiga mutlaqo bog‘liq bo‘lmagan maqsadlariga yo‘naltirilardi. Sovuq urushga tayyorlanish ittifoq xalq xo‘jaligini militarizatsiyalashtirishga qaratilgan ulkan sarflarni, ishlab chiqarish vositalarini rivojlantirishni afzal ko‘rilishi buning isbotidir.

4. Marks tomonidan ekspluatatsiyani ta’riflashning asoslaridan biri qiymatning mehnat nazariyasi. Iqtisodiy nazariya rivoji shuni ko‘rsatdiki, Marks ishchi va uning oilasiga qayta ishlab chiqarish uchun ijtimoiy zarur vaqt nima ekanligini isbotlay olmadi va demak, uning qo‘shimcha vaqt to‘g‘risidagi qoidasi ham isbotsiz qolmokda.

Agar K. Marks va uning izdoshlari ta’riflaganidek mazmundagi ekspluatatsiya yo‘q ekan, foydani ekspluatatsiya tushunchasiz ta’riflash mumkinmi, degan savol qonuniydir. Foydaning iqtisodiy tabiati va uni belgilovchi omili qanday?

**Foyda – daromad, to‘lov.** Hozirgi zamon iqtisodiy fikri foydani ishlab chiqarish omillari, ya’ni yer, mehnat va kapitaldan foydalanish natijasida vujudga keladigan daromad sifatida talqin qiladi. Ishlab chiqarish omili sifatida mehnatdan foydalanishdan keladigan daromad avvalgi boblarda ko‘rib chiqildi.

Foydani ekspluatatsiya natijasi, haqi to‘lanmagan yollanma mehnatni o‘zlashtirish natijasi ekanligini inkor qilinar ekan, foydaning o‘quv adabiyotida uchraydigan quyidagi ta’riflarini ajratish mumkin: birinchidan – bu tadbirkorlik faoliyati xizmatlari uchun to‘lovdir; ikkinchidan – bu novatorlik uchun, firmani boshqarishdagi iqtidor uchun to‘lovdir; uchinchidan – bu tavakkalchilik, xavf va tadbirkorlik faoliyati natijalaridagi noma’lumlik uchun to‘lovdir. Xavf boshqaruvning ilmiy- texnik yoki ijtimoiy qarorning u yoki bu varianti bilan bog‘liq, bo‘lishi mumkin. Xavf avvaldan aytib bo‘lmaydigan sharoitlar bilan – tabiiy sifatlar, mamlakatlararo, davlatlararo ziddiyatlar va shu kabilar bilan ham bog‘liq bo‘ladi. Xavfning natijalari tubdan turlicha o‘zgaradi– katta foyda va aksincha, uning kamayishi yoki hatto firmaning xonavayron bo‘lish oqibatlari kutiladi. Hozirgi vaqtda xavf nazariyasi ishlab chiqilgan bo‘lib, uning yordamida xavfning, ayniqsa, moliyaviy xavfning darajasini hisobga olish mumkin. To‘rtinchidan – bu monopol deb ataluvchi foyda. U ishlab chiqaruvchining (sotuvchining) bozorda yoki tabiiy monopoliya holatida vujudga keladi. Monopol foyda ko‘pincha o‘zgaruvchan bo‘ladi.

**Foydaning miqdori.** Firma uchun foyda o‘lchami katta ahamiyatga ega. Foydaning o‘lchamlari haqida fikr yuritish uchun uni o‘lchash usullari to‘g‘risida kelishib olish zarur. 10 mlrd. dollar kapitalga ega firma uchun 1 mlrd. dollarga teng yillik foyda yomon emas, ammo 1000 mlrd. dollar kapitalga ega firma uchun nihoyatda kam. Shuning uchun foydaning bir yillik kattaligini yo firmaning yillik aylanmasi bilan, yo uning kapitali bilan solishtiriladi. Statistik ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, jahonning yetakchi industrial mamlakatlari ilg‘or korporatsiyalarining foydalari dinamikasi ancha katta emas va bu yerda biron-bir yagona qonuniyatni ajratish qiyin. Quyida keltirilayotgan 26.1-jadval jahondagi yetakchi aksionerlik kompaniyalari daromadligi haqidagi ma’lumotlarni beradi:

26.1-jadval

**Top-50 naiboleye pribylnyx kompaniy mira po reytingu FORTUNE GLOBAL 500<sup>6</sup>**

pozitsiya	kompaniya	FORTUNE GLOBAL 500 dagi o‘rni	2020 yilda sof foyda, mln. \$	2019 yilga nisbatan foydani o‘zgarishi
1	Apple	6	57411	+3,9%
2	Saudi Aramco	14	49287	-44,1%
3	SoftBank Group	184	47053	--

<sup>6</sup> Топ-50 наиболее прибыльных компаний мира в 2021 году.  
<https://globalstocks.ru/materialyi/rejtingi/top-50-naibolee-pribyilnyih-kompaniy-mira/>

4	Industrial & Commercial Bank of China	20	45783	+1,3%
5	Microsoft	33	44281	+12,8%
6	Berkshire Hathaway	11	42521	-47,8 %
7	Alphabet	21	40269	+17,3%
8	China Construction Bank	25	39283	+1,7%
9	Agricultural Bank of China	29	31293	+1,9%
10	Facebook	86	29146	+57,7%

2021 yil Fortune Global 500 reytingi kompaniyalarning 2020 yildagi moliyaviy ko'rsatkichlari asosida tuzilganidir. COVID-19 koronavirus pandemiyasi dunyoni o'zgartirib yuborgan bo'lishiga qaramasdan reyting yetakchilariga u katta ta'sir ko'rsatmadi. Turizm, aviaqatnovlar va kruiz laynerlarida sayyohat industriyasi koronavirus natijasida katta zarar ko'rdi. Undan tashqari, 2020 yilda koronainqirozi neft kotirovkalarini keskin pasayishiga olib keldi. Natijada, reytingdan Royal Dutch Shell, ExxonMobil, Total, Petrobras, Gazprom va Lukoyl kabi yirik neftgaz kompaniyalari chiqib ketdi.

26.2-jadval

### O'zbekistondagi foyda darajasi bo'yicha top-10 kompaniyalari<sup>7</sup>

№	kompaniya	Sof foyda
1.	AJ AGMK	3,9 trln so'm
2.	AJ «Uzbekneftegaz»	3,4 trln so'm
3.	AJ «Ferganaazot»	292,6 mlrd so'm
4.	AJ Uzmetkombinat	218,5 mlrd so'm
5.	AJ «Xududgazta'minot»	211,2 mlrd so'm
6.	MChJ Coca-Cola Uzbekistan	205,7 mlrd so'm
7.	MChJ Coscom (Ucell)	199,8 mlrd so'm
8.	MChJ «Uzshaxar kurilish invest»	168,8 mlrd so'm
9.	AJ «Uzavtosanoat»	160,3 mlrd so'm
10.	AJ Tovarno-syrevaya birja	94,8 mlrd so'm

O'zbekiston davlat aktivlarini boshqarish agentligi ma'lumotlariga ko'ra 2020 yilda mamlakatda davlat ishtiroki bilan 2578ta korxonalar faoliyat yuritmoqda. Ulardan 675 tasi faoliyat ko'rsatmaydi.

### 26.2. Kapitalga foiz: mohiyati, dinamikasi omillari

Daromadlarning navbatdagi va so'nggi shakli - kapitalga foizga o'tamiz, avvalgi paragrafda ko'rib chiqilgan, foydadan farqlamoq, kerak. Daromadning

<sup>7</sup> 20 самых прибыльных и 10 убыточных компаний с госдолей в Узбекистане. <https://www.gazeta.uz/ru/2021/05/06/profit-and-loss/>

asosiy shakllari ishlab chiqarishning asosiy omillariga renta (tabiiy resurslar - yer, suv, havo kengliklaridan foydalanishdan keladigan daromadlar) va ish haqi (mehnat resurslari xizmatlaridan foydalanishdan keladigan daromadlar). Bu yerda mehnat xizmatining ikki ko‘rinishi nazarda tutiladi: o‘zining mehnat faoliyati va tadbirkorlik faoliyati. Bu paragrafdan biz kapital xizmatidan keladigan, kapitalda foiz shaklida namoyon bo‘ladigan daromadni ko‘rib chiqamiz.

Foiz asosida quyidagicha ifodalangan foyda me‘yori yotadi.

$$\text{Foyda me'yori} = \frac{\text{Sof daromad yoki sof ijara to'lovi}}{\text{Mazkur ob'ektga investitsiyalar summasi}}$$

Odatda, foiz me‘yori bir yil uchun hisoblanadi. Foizni yana biroz boshqacharoq hisoblash mumkin: bu firma va aholining moliyaviy aktivlaridan keladigan daromad. Aholi turli kredit muassasalari va tadbirkorlik firmalarini investitsiyalab va investitsiyalari bo‘yicha foizlar olib jamg‘armalarni yig‘adi. Amaliyot stavkalarining turlicha ko‘rinishlari anchagina miqdorini biladi: qisqa muddatli, uzoq, muddatli, qayd qilingan suzuvchi. Ularning ichida «it» stavkalari, deb atalmishi ham bor. Keyingilari ishonchsiz firmalarning foiz stavkalariga taalluqli bo‘lib, ular *har* qanaqasiga oid xonavayron bo‘lishi mumkin va hatto *hech* kayokda yo‘k, bo‘lib ketmaydi. Foiz stavkalari nominal va real bo‘ladi.

Foizni foydalanish maqsadida qarzga olingan pulga to‘lov sifatida ham ta‘riflash mumkin. Foizning quyidagi ta‘rifi eng ko‘p e‘tiborga molikdir. Foizshu onda resurslarga ega bo‘lish huquqi uchun to‘lov (narx)dir. Boshqacha aytganda, foiz - bu ma‘lum resurlardan o‘z manfaatlari yo‘lida foydalanish imkoniyati uchun to‘lovdir. Foiz, uning stavkalari to‘g‘risida yuqorida keltirilgan ta‘riflar mohiyatan nafaqat bir-biriga qarama-qarshi, balki muammoning turli tomonlarini ochib, biri ikkinchisini to‘ldiradi.

«Wirtschaftswoche» ma‘lumotlariga ko‘ra, investitsiyalardan keladigan o‘rtacha yillik daromad 20 yil ichida qo‘yilgan ob‘ekt bo‘yicha quyidagilarni tashkil etadi: qadimgi ustalarning rasmlari -12,3, aksiyalarda esa-11,6, Xitoy chinnisiga-11,6, oltinga-11,5, brilliantlarga - 10,5 pochta markalari -10,0, obligatsiyalar - 9,4, neft - 8,9<sup>8</sup> va hokazo ekan. Aytilganga yana shuni qo‘shish lozimki, foizni faqat pul muomalasining atributi sifatida ta‘riflash kerak emas. Foiz-bu bozor iqtisodiy tizimining kategoriyasidir. Foizsiz xo‘jalikni bozorga asoslanib tashkil qilish mumkin emas. Yuqorida aytilganlarning asosida

---

<sup>8</sup> Деловой мир, 1992, №19.



shunday tasdiq, yotadiki, bugungi resurslar kelgusidagidan qimmatliroq, negaki, odamlar hozirgi vaqtda egalik qilib turganlarini ko'proq, qadrlaydilar. Gap shundaki, hozirgi vaqtda resurslarning mavjudligi ularning egasi yoki ijarachisi tadbirkorlik faoliyatini shunday tashkil qiladilarki, kelajakda resurslardan foydalanish daromadlarning oshishiga olib keladi va navbatida daromadlarning o'sishi o'z natijasi sifatida mavjud resurslar hajmining o'sishiga sabab bo'ladi va ularni esa, o'z navbatida resurslar va foydaning keyingi ko'payishi uchun qo'llash mumkin. Ammo buning uchun to'lash kerak. Ana shu to'lov esa, foizdir.

Xo'jalikni me'yorida olib borishda uning kattaligi tadbirkor zayom vositalaridan foydalanish natijasida oladigan yutuqdan kam bo'lishi kerak. Bundan shu kelib chiqadiki, zayom vositalari egasiga korxonaga egalarning foizni qonuniy ravishda ishlab chiqarish harakatlari sifatida qo'llaydigan haqi deb qarash to'g'ri bo'ladi. Avval so'z yuritganimizdek, xarajatlardan farqli o'larok bular ma'lum ma'noda alohida xarajatlardan bo'lib, iqtisodiy agentning resurslarga ertaga emas, bugun daromad olish uchun egalik qilish xohishi bilan bog'liqdir. Shunday qilib, foizni, uning kattaligini bugungi ne'matlarning kelajakdagilaridan qimmatini ortiq ekanligini ko'rsatuvchi kattalik sifatida ta'riflash mumkin.

Qandaydir munosabatda foiz ikki yuzli Yanusni eslatadi. Bir tomondan bu resurslarni qarzga oluvchiga natija bo'lsa, boshqa tomondan esa, qarz beruvchi uchun natija bo'lib, uning resurslaridan foizdir.

### 26.3. Kapital

Iqtisodiy nazariya va tadbirkorlik amaliyotida shunchalik ko'p va bir vaqtning o'zida shunchalik turli ma'noda ishlatiladigan tushuncha bo'lmasa, kerak. Kapital deganda-ham atom reaktori, ham mitti traktor, ham napalma ishlab chiqarishlar va eng zo'r modadagi poyafzal ishlab chiqarish bo'yicha fabrikani nazarda tutadilar. Bu termin loyixa-konstruktorlik byurosiga nisbatan ham, talantli injenerga nisbatan ham, tadbirkor boshqaruvchiga nisbatan ham ishlatiladi. Keltirilgan barcha misollarda umumiylikni ko'rish qiyin emas: kapital-bu barcha boyliklar bo'lib, ulardan foydalanish kelgusida boyliklar ishlab chiqarishni oshirishga imkon beradi. Boshqacha qilib aytganda, kapital-ishlab chiqarishning turli-tuman shakllarda namoyon bo'luvchi iqtisodiy elementidir. Kapital ta'riflarini tahlil qilish ko'p sonli bu ta'rif o'rtasida, agar Marksning kapitalga yondashuvini hisobga olmaganda, alohida farqlar yo'k, degan xulosaga olib keladi. Biz ham, kapitaldan boshlaymiz.

**K.Marks «Kapitalning asosi.** «Kapital» da kapitalga uch xil ta'rif beriladi. Birinchidan, kapital - bu qo'shimcha qiymat keltiruvchi qiymatdir.

Agar Marksning qo‘shimcha qiymat tushunchasi orqali yondashilsa, Marks fikriga qo‘shilsa bo‘ladi: kapital foyda, foiz olib keladi. 1. Qadimiy Rim afsonalarida ilohiylashgan eshiklarning kirish va chiqish joylarida ikki yuzlama tasvirlangan (biri o‘tgan zamonga, boshqasi – kelajakka murojaat qilingan). Ko‘chma ma’noda «Ikki yuzli Yanus» – munofiq, riyokor, ikkiyuzlamachi odam, Bunga qarshi hech kim e’tiroz bildirmaydi. Bozor xo‘jaligi busiz mumkin emas. Darhaqiqat kapital – bu o‘zi o‘sib boruvchi qiymatdir. Ikkinchidan, kapital bu iqtisodiy munosabat, xususan, ekspluatatsiya munosabatidir. Bunday yondashuvga qo‘shilish qiyin. Yuqorida uni inkor etuvchi argumentlar keltirildi. Kapital ma’lum munosabatlarni ifodalashiga hech kim e’tiroz bildirmaydi. Ammo ekspluatatsiya munosabatlari emas, ko‘proq bu iqtisodiy agentlar o‘rtasidagi moddiy ne‘matlar va xizmatlar barpo etish uchun resurslardan foydalanish bo‘yicha munosabatlardir va nihoyat, kapital Marks bo‘yicha – qo‘shimcha qiymatni keltiruvchi qo‘shimcha qiymatdir. Bu yerda tushuntirishlar talab qilinadi. Qo‘shimcha qiymat yoki foydani ishlatilayotgan resurslar qiymatining o‘zi emas, ulardan foydalanish keltiradi. Shu bilan bir vaqtda, darhaqiqat agar harakat bo‘lmasa, ya’ni resurslardan foydalanish bo‘lmasa, ishlab chiqarish bo‘lmaydi. Kelgusi moddiy ne‘matlar va xizmatlarni barpo etish yo‘q, bozor iqtisodiyoti va umuman, iqtisodiyot yo‘q. Shuning uchun K. Marksning «Kapital» asari bebahodir.

**Kapitalning hozirgi zamon ta’riflari.** Endi hozirgi zamon iqtisodiy fanida ishlatiladigan kapitalning ta’rifiga o‘tamiz. Avvalo, kapital – bu foiz manbasidir. Mazkur holatda kapitalga abstrakt ishlab chiqaruvchi kuch sifatida qaraladi. Kapital foiz keltiradi, ammo konkret ishlab chiqarish vositalari keltiradigan narsa foiz emas, balki «renta» dir degan J. Klarkning pozitsiyasiga L. Valras ham qo‘shiladi. I. Fisher ham shunday pozitsiyani egallaydi. U kapitalni «diskontirlangan daromad oqimi» sifatida ta’riflaydi. Uzoq vaqt davomida egasiga doimiy daromad keltiruvchi boylikning har qanday elementiga kapital sifatida qarashni tan olish, demakdir. Kapital qiymati Diskontlash yo‘li bilan baholanadi. Bu yerga ham taalluqlidir.

Qator iqtisodchilar kapitalga pul sifatida, barchaga zarur bo‘lgan ishbilarmonlar dunyosining universal tovari sifatida qarashlarini qayd etishimiz lozim. Kapital hammaga kerakligi to‘g‘risida munozaraga o‘rin yo‘q. Buni hozir hamma yoki amalda deyarli hamma xis qilmokda. Ammo kapital– bu pul, degan fikrga aksent qilish hech bo‘lmaganda aniq emas. Bu defitsitlar davrida ayniqsa aniq ko‘rinadi. Chunki kapital tovarlar bo‘lmaganda pulning mavjudligi uni kapital, deb hisoblashga yo‘l qo‘ymaydi, chunki ular foiz olib kelmaydi.

Keltirilgan ta'riflarda kapitalning funksional jihatiga urg'u berilgan. Ko'pchilik izlanishlar va darsliklarda asosiy e'tibor kapitalning natural jihatiga, ya'ni kapital ne'matlarga qaratiladi. Masalan, D.Xayman kapitalning quyidagi ta'rifini beradi: «Kapital – tovar va xizmatlarning ko'p miqdorini ishlab chiqarish maqsadida barpo etiladigan uzoq, muddatli foydalanish resursidir. Jismoniy kapitalga mashinalar, bino va inshootlar harakat vositalari, asboblari, xom ashyo va yarim fabrikatlarning zaxiralari (fondlari) kiradi. Insoniy kapital turli malakalarni, masalan, turli tibbiy xizmatlar ko'rsatish uchun shakllangan amaliyotdagi vrachlarda mavjud bo'lgan mahoratlardan iboratdir»<sup>9</sup>. Kapitalning shunday ta'rifini P.Xeyne, E.Dolan, P.Samuelson va boshqa ko'p mualliflar ham beradilar. Kapitalning keltirilgan ta'riflari bir-birini to'ldirishi ko'rinib turibdi. Ta'riflarning bir guruhi sof iqtisodiy jihatni qayd qilsa, boshqasi kapital tovarlardan foydalanish maqsadini ochish bilan birlashadigan tabiiy (natural) jihatini qayd etadi.

#### **26.4. Resurslarning joriy qiymatini aniqlash – diskontlash**

Avvalgi ta'riflarda Fisher tomonidan kapitalga berilgan ta'rif keltirilgan va unda kapitalning qiymati daromadning diskontirlangan oqimi ekanligi ko'rsatiladi. Ana shunga batafsilroq, to'xtalamiz. Hozirda kapital ne'matlar ega bo'lgan qiymat bir yildan keyin ega bo'ladiganidan yillik foiz stavkasi miqdoridan kattadir. Bir yildan keyin olish nazarda tutilgan moddiy ne'matlarning bugungi qiymatini bilish uchun diskontlash operatsiyasini amalga oshirish zarurdir. Busiz savodli qarorlarqabul qilishni ta'minlash mumkin emas.

Diskontlash deganda quyidagi operatsiya tushuniladi. Foizning bozor stavkasi ma'lum. Daromadlar hozir va kelgusi yillar teng emas: 1992 yildagi 1 mln. so'm daromad 1993 yildagi kattaligi jihatdan xuddi shunday daromadga teng emas. Bu shunday tushuntiriladiki, 1992 yildagi 1 mln. so'm daromad 1993 yildagi shunday kattalikdagi daromadga teng qiymatli emas, chunki bu millionni haqiqiy ishbilarmon odam kreditlaydi va 1993 yilda bir millionga emas, balki million plyus foiz ( $g$ ) ga egalik qiladi.

Diskontlash operatsiyasini matematik jihatdan tasavvur qilish mumkin. Masalan, agar sizning yer uchastkangiz  $N$  daromad keltirsa va bozordagi foiz stavkasi  $i$  ga teng bo'lsa, joriy (bugungi) bahosi (qiymati)  $V$  quyidagi formula bilan aniqlanadi:


$$V = N / i.$$

---

<sup>9</sup> Хайман Д.Н. Современная микроэкономика: анализ и применение. Т.1-2.- М.: Финансы и статистика, 1992.

## 26.5. Foiz dinamikasi va uning omillari

Kapitalning foizi va stavkasini aniqlash talab va taklif nazariyasi bilan to'liq mos keladi. P.Samuelsion taklif qilgan yondashuvdan foydalanamiz. Kapitalga talabga kapitalni investirlash xohishi, taklifga esa, uning miqdori ta'sir qiladi. Demak, kapitaldan keladigan daromad (bugungi) iste'mol va jamg'arishga intilish o'rtasidagi nisbatning funksiyasi sifatida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, kapitaldan keladigan daromadga investitsion imkoniyatlar ham ta'sir qiladi. Tahlilning ko'rsatishicha kapitaldan keladigan daromad kattaligi va foizlar stavkasi qisqa muddatli va uzoq muddatli davrlar uchun turlichadir (26.1-chizma).




### 26.1-chizma. Qisqa muddatli va uzoq muddatli davrlar uchun kapitaldan keladigan daromad

Qisqa muddatli davrda faoliyat yurgizayotgan kapitalda o'zgarishlarning yuz berishi real emas. Bu grafikda  $S$  vertikal chiziqlari bilan ko'rsatilgan  $Ye$  nuqtada misolimizdagi kapitaldan daromad va foiz stavkasi 10% ga teng. Foizning past stavkasi kapitalga talab bildirgan kompaniyalar topiladi. Va aksincha, yuqoriroq stavkada bozorda qo'shimcha kapital paydo bo'lar va kapital taklifini oshirar edi. Ammo  $Ye$  nuqtadagi muvozanat qisqa muddatlidir, chunki vaqt o'tishi bilan jamg'armalarning to'planishi natijasida kapital taklifi o'sadi. Kapital taklifi o'sishi bilan qisqa muddatli ( $S_1, S_2, S_3 \dots$  to'g'ri chiziklar) biz  $S_2, S_2$  (o'zok, muddatli kapital taklifi) egri chizig'iga o'tamiz. Shunga muvofiq ravishda kapitaldan daromad me'vori va foiz stavkalari pastga  $Ye_2$  nuqtasigacha harakat qiladi (uzoq muddatli davrda muvozanat).  $E_2$  nuqtasi atrofida tebranishlar talab va taklif nisbatining natijasi sifatida muqarrardir. Yuqoriga harakat mumkin va kat'iy qilib aytganda, ishlab chiqarishda ilmiy-

texnik taraqqiyotning yutuqlaridan foydalanishning natijasi sifatida muqarrardir, hozirgi sharoitlarda bu nafaqat FTT, balki mamlakatlar o'rtasida ijtimoiy mehnat taqsimotining ham rivojlanishidir.

Foizni aniqlash uchun o'zgacha yondoshuv ham mumkin. Shu munosabat bilan chet el «Ekonomiks» kurslarida (26.2-chizma) ko'pincha foydalanadigan Fisher diagrammasiga murojaat qilamiz. Fisher diagrammasida foiz kattaligiga ikki eng muhim omillar: kutish va kapital unumdorligi qanday ta'sir qilishi ko'rsatilgan. Kapital unumdorligi FTT nuqtalaridan foydalanish darajasini ifodalovchi sifatida bevosita foiz darajasini belgilaydi, o'z navbatida joriy (bugungi) iste'molga moyillik investitsiyalarni cheklaydi va shunga muvofiq, jamg'arish multiplikatori kichikroq bo'ladi.



**26.2-chizma. Foiz darajasiga texnikaviy o'zgarishlar ta'sirini kutilishi**

Ishlab chiqarish imkoniyatlarining egri chizig'i iqtisod qanday qilib kelajak uchun joriy iste'molni o'zgarish qilishini ko'rsatmoqda. *Ye* nuqtadagi tegishish nuqtasi maksimallashgan iste'mol nuqtasidir. Ikki befarqlik egri chizig'ining oqishi yuqori va *Ye* muvozanat nuqtasidan pastligi minusga  $(1+g)$  muvofiq, bo'lib, bu  $g$  – foizning real darajasi yoki bugungi (joriy) iste'molning qurboni sifatida ertangi tovarlar iste'molining daromadidir.

### 26.6. O'zbekiston davlatining moliyaviy siyosatida foiz stavkalari

Kapitaldan foiz stavkalari va ssuda foizi stavkalari – iqtisodiy hayotning muhim tarkibiy qismlaridir. Tabiiyki, ularga hukumat va avvalo, mamlakatning markaziy banki tomonidan ta'siri butun iqtisodiy siyosatning yo'nalishini belgilaydi. Bozor islohotini amalga oshirishni ta'minlovchi ikki vosita – bu foiz stavkasi va soliq, solish tizimidir. Raqobatlashish jihatidan ular bilan, faqat xususiy lashtirish (privatizatsiyalar) bo'lishi mumkin. Foiz stavkasining birinchi darajali ahamiyati uning bozor iqtisodiyotida tutgan o'rni

bilan belgilanadi. Markaziy bank foizga ta'sir qilar ekan, tijorat banklari orqali va bevosita o'zi pulga bo'lgan talabni tartibga solib turishi mumkin va bu o'z navbatida inflyatsiyaga qarshi choralar tizimiga kiradi. Ma'lumki, Markaziy bank faoliyati muhim yo'nalishlaridan biri – ochiq bozordagi operatsiyadir. Qimmatbaho kog'ozlarni yuqori foiz bilan sotar ekan, markaziy bank banklardan pulni sug'irib oladi. Bunda multiplikatsion samara harakat qiladi. Tijorat banki rezervlarining kamayishi kredit berish hajmi va ssuda foizida ta'sir qiladi. Afsuski, O'zbekiston markaziy banki o'zining bu vazifasini yetarli darajada ishlatmaydi va bu bilan o'zining barcha imkoniyatlarini inflyatsiyaga qarshi ko'rashda ishga solmaydi. Bu holatga hukumat tomonidan salbiy munosabat uyg'onishi tasodif emas. Markaziy bankning pul muomalasiga foiz kattaligi orqali ta'sir bilan cheklanmaydi, o'z ssudalari bo'yicha foiz stavkasini kamaytirar ekan, Markaziy bank banklarining rezervlarini ko'paytiradi. Multiplikatsion samara keyinchalik pul taklifining oshishiga olib keladi.

### **Qisqacha xulosa**

Bu yerda yuqorida tadqiqot qilinganlardan kelib chiqqan holda, shuni aytish kerakki, jamiyat tarixida hech qachon ishlab chiqaruvchi, tadbirkor, biznesmen va umuman, mulk egasi foyda daromad olmasdan. mahsulot. tovar va xizmat ishlab chiqaruvchi, hattoki, oddiy chayqovchi bo'lmagan. Bu albatta, tarixiy qonuniyat.

Bular to'g'risida ushbu darslikning oldingi boblarida ancha yaxshi taxmin qilindi va izohli fikr bildirildi. Har qanday kapitalning sarflanishida va umuman, uning asosiy funksiyasi – daromad – foyda olishidir. Sof kapitalizm va aylanma daromad degani bu – umuman, faqat kapitalizm sistemasiga taalluqli emas. Bu degani, tarixda o'tgan va hozirda mavjud tuzumlarning hammasiga tegishli bo'lgan iqtisodiyot qonuni, albatta «kapital» so'ziga «izm» so'zi qo'shilib, bir butun iqtisodiy tamaddun (sivilizatsiya) tarixida birinchi bo'lib yuzaga kelgan «Kapitalizm» tuzumi bo'ldi, bu tuzumning asosiy iqtisodiy mafkurasi, ichki tuzilishi quyidagilardan iborat bo'lib, bu mafkuraning asosiy iqtisodiy tamoyillarini o'z ichiga oladi:

1. Xususiy mulkchilik.
2. Erkin tadbirkorlik va tanlab olish.
3. Shaxsiy manfaat, uning xulqining asosiy, muhim sababi.
4. Erkin raqobat.
5. Narx-navo yoki bozor tizimiga tayanch.
6. Hukumat va davlat rolining cheklanganligi.

Bulardan tashqari sof kapitalizmning xususiyati va faoliyat shakli hamma iqtisodiy tizimlar uchun xos, bular jumlasiga ilg'or texnologiya va ishlab chiqarish vositalaridan katta miqyosda foydalanish, ixtisoslashish, pulni ishlatish, bular har qanday iqtisodiyotda resurslarni samarali qo'llash va foyda olishdir.

Hammasining maqsadi Aristotel (Arastu) aytganidek: «boylik orttirishda, foyda ketidan quvishning chegarasi bo'lmaydi yoki xrematistikani («xrema» grekcha mulkchilik degan so'z). Ko'paytirmok uchun harakat qilinadi». Buning qisqacha ma'nosi kimda-kim pul aylanmasi bilan shug'ullansa, u o'zining kapitalini ko'paytirishga cheksiz intiladi. Bu yerda yana K.Marksning o'rinli fikricha, *hatto* cherkov 1% foydani rad qilgandan ko'ra, tezda o'zining 39 ramzidan 38 tasini rad qiladi.

Demak, foyda, daromad topishning chegarasi yo'q. Ishlab chiqarish bor joyda va umuman, har qanday ish yurgazish faoliyatida kapital, omad, foyda, foiz, renta, ish haqi kabi iqtisodiy kategoriyalar hamma vaqt mavjud bo'ladi. Bu yerda ish haqidan tashqari hammasi me'yoridan ortiq, keladigan daromad, desa bo'ladi. Yalpi foydani taqsimlash, bu eng avval, foydadan «chetga» ketadigan summa ajratiladi. Bunga birovning yeridan yoki bino imoratidan foydalanganligi uchun ijara haqi, hamda qarzga olingan pul vositalariga foiz to'lanadi. Bulardan tashqari, korxonalar yoki tadbirkor davlat budjetiga va mahalliy hokimiyat organlariga soliq, to'laydi, muhtojlarga yordam berish va boshqa fondlarga pul ajratadi. Foydadan qolgan qismi sof foydani tashkil etadi. Bundan korxonalar va firmalarning ishlab chiqarish va ijtimoiy talablarida foydalaniladi, shu jumladan, jamg'armaga, tabiatni himoya qilish va kadrlar tayyorlashga korxonalar ishchilarining ijtimoiy talabini qondirishga va boshqa maqsadlarga sarflanadi. Nihoyat, sof foydadan o'ziga tegishli, shaxsan tadbirkorlik daromadini oladi. Korxonalar va firmaning yalpi foydasi chegirib tashlangan yalpi xarajatlardan qolgan yalpi daromadlarga tengdir.

### **Asosiy tushunchalar**

**Daromad.** 1. Qandaydir faoliyat natijasida olinadigan pul yoki boshqa qimmatbaho narsalar. 2. Ishlab chiqarish xo'jalik faoliyati natijasida realizatsiya qilingan mahsulot va xizmatlar o'rtasidagi olinadigan farq. 3. Mulk egalari qimmatbaho qog'ozlardan foizda ifodalaniib to'laydigan dividend yoki foizlar.

**Foyda.** Tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishga ketgan xarajatdan, bu tovar va xizmatlarning sotuvidan kelgan daromad qismi.

Foyda xo'jalik faoliyatida yaratilgan mahsulotlarni realizatsiyasidan keladigan tushum va ishlab chiqarish omillarining shu faoliyati uchun qilingan

sarf-xarajatlari o'rtasidagi farqning pulda ifodalangan summasi hisoblanadi. Ajratiladigan hamda ko'rsatiladigan to'liq, umumiy foyda yalpi foydadan soliq va boshqa to'lovlardan qoladigan sof foyda. Narx (sotuvdan kelgan foyda) va buxgalteriya xarajati o'rtasidagi farqi sifatida hisoblangan buxgalteriyalik foyda va muqobil xarajatda hisoblanadigan iqtisodiy foyda. Odatda, iqtisodiy foyda buxgalterlik foydasidan tadbirkorning o'ziga tegishli xarajatlarining o'rnini to'ldirish uchun ketgan va tannarxida hisoblanmagan, foydalanmagan miqdorda kam bo'ladi, ba'zan ularni imkoniyatdan foydalanmagan kamchiliklarga kiritadi, bundan tashqari balansda ko'rsatilmagan xarajatlarda bo'ladi. Korxonaning pirovard moliyaviy faoliyat natijasini hisobga olish uchun (foyda yoki zarar) mo'ljallangan. «Foyda va zarar». Kredit foydada, zarar debet hisobida ko'rsatiladi.

### **Mavzuning na'munali savollari**

1. Bozor iqtisodiyotida taqsimlash mohiyati.
2. Foydaning iqtisodiy tabiati.
3. Kapitalga foiz to'lash.
4. Kapital va uni har xil talqin qilish.

### **Seminar darslarida muhokama qidish uchun savollar**

1. Hozirgi zamonda bozor iqtisodiyotida taqsimlash va uning ijtimoiy-iqtisodiy muammolari.
2. Foyda va uni har xil talqin qilish.
3. Foiz, uning mohiyati. O'zbekiston Markaziy bankining foiz siyosati.

### **Mustaqil ta'lim uchun savollar**

1. Foydani qiymat harakati sifatida aniqlashda cheklanish mumkinmi? Foydani faqat kapitalizm yoki bozor iqtisodi bilan baholash qonunga to'g'ri keladimi? Siz qanday ta'riflar edingiz?
2. Siz «ekspluatatsiya» terminini qanday tushunasiz? Inson tarixida ekspluatatsiya bo'lganmi?



## **27 BOB. ISH HAQI VA MEHNAT MUNOSABATLARI**

Milliy iqtisodiyotning ijtimoiy-mehnat munosabatlari mehnat bozorini shakllantirish bo‘lib, uning tarkibida aholi daromadlarining o‘zgarishi, daromad olish yo‘sinlari; fuqarolarning ijtimoiy muhofazasini ta‘minlashga qaratilgan tadbirlar majmuini o‘tkazish va yangi tamoyillardagi ijtimoiy soha tarmoqlarini rivojlanishi muhim o‘rin tutadi.

### **27.1. Mehnat bozorining shakllanishi**

Yangi iqtisodiy tizimga o‘tish mehnat munosabatlari yangicha xarakterining shakllanishi bilan uzviy ravishda bog‘liq. Mehnat bozorining tarkib topishi uning asosi hisoblanadi. U tarkib topib borgani sayin ishchi kuchini qayta ishlab chiqarish usuli va xususiyati, jamiyatdagi ijtimoiy ta‘minlanganlik tamoyillari o‘zgarib boradi. Qayta qurishlar va avvalambor, davlat korxonalarini xususiylashtirish natijasida mulkka egalikning nodavlat ko‘rinishlari ustuvorlik qilib boradi. Davlat mulkining xususiyati ham tubdan o‘zgaradi. Shu tarzda mehnat bozorining tashkil topishi uchun zamin va shart-sharoitlar vujudga keladi.

**Mehnat bozorining mazmuni va xususiyatlari.** Ishlab chiqarishni amalga oshirish uchun ishlab chiqarish omillariga ega bo‘lmoq zarur. Vazifa har xil ishlab chiqarish sharoitida, iqtisodiyotning o‘zida ham mehnat va kapitalning kerakli nisbatda birlashishini ta‘minlashdan iborat. Bu vazifa mexanizmini hal etish yo‘li har xil bo‘lishi mumkin, shuningdek, iqtisodiy tizim bilan ham bog‘liq. Bozor tizimida mazkur vazifa bozor yordamida hal etiladi.

**Mehnat bozori** – bozor munosabatlari sohasi bo‘lib, unda mehnatga talab va taklif shakllanadi, mehnat taqsimoti ta‘minlanadi va mehnat faoliyatining turli ko‘rinishlari, narxi belgilanadi. Mehnat bozori – ishlab chiqarish omillari bozorlaridan biridir. Aynan mehnat bozori orqali eng muhim milliy resurs – mehnat, korxonalar, tarmoqlar, mintaqalar va kasbkorlar o‘rtasida taqsimlanadi. Mehnat bozori mazmun-mohiyati ta‘rifiga turli yondashuvlar mavjud. Tor talqinga ko‘ra mehnat bozori faqat mehnatga talab va taklif duch keladigan va mehnatning bahosi belgilanadigan muomala sohasini qamrab oladi. Ish beruvchi va ish qidirib yurganlar mehnat bozorining sub‘ektlari hisoblanadi.

Keng talqinga muvofiq; mehnat bozori bozor iqtisodiyotida amal qiluvchi ijtimoiy munosabatlar tizimi sifatida tushuniladi. U mehnatning takror ishlab chiqarilishi va almashuvi, foydalanilishini ta'minlaydi, bu talab va taklif nisbati bilan belgilanadi. Mana shu yondashuvga ko'ra mehnat bozoriga nafaqat mehnatning almashuv (oldi-sotdi) sohasi, shu bilan birga, ishchi kuchini takror ishlab chiqarish va mehnatdan foydalanish sohalari ham kiradi.

Mehnat bozorida sotuvchilar va xaridorlar faoliyat ko'rsatadi, ular yakka tartibda yoki jamoa bo'lib (kasaba uyushmalari va tadbirkorlarning ittifoqlari orqali) shartnoma munosabatlariga kirishadilar, mehnatni sotish va undan foydalanishning narxi va boshqa shartlarini belgilaydilar. Bu borada mehnat bozori boshqa bozorlardan istisno emas. Shy bilan birga, u o'ziga xos bozor, chunki tovar-mehnatning o'zi hamdir, uni o'z egasi – odamdan ajratib bo'lmaydi. Ayni vaqtda odam oldi-sotdining predmeti hisoblanmaydi, chunki sotilayotgan va sotib olinayotgan narsa xodimning o'zi emas, uning mehnat qilish qobiliyatidir. Aks holda uning o'zi tovarga aylanar, bu uning ozod fuqaro emas, qul yoki krepostnoy ekanligini anglatgan bo'lardi.

Hozirgi zamon iqtisodiyot nazariyasi tovar-mehnatning paydo bo'lishi va faoliyat ko'rsatishi uchun zarur bo'lgan shart -sharoitlar haqidagi masalani maxsus o'rtaga qo'ymaydi. Ushbu muammoni tarixiy nuqtai-nazardan ko'rib chiqadigan bo'lsak, mehnatning tovar sifatida mavjudligining ob'ektiv asoslari haqidagi masalani chetlab o'tib bo'lmaydi. Rivojlangan tovar ishlab chiqarishi uchun ikki xil ma'nodagi erkin xodim-shaxsan erkin va o'zining, shaxsan o'ziga qarashli ishlab chiqarish vositalaridan erkin xodim zarur. Erkinlikniig birinchi turi bo'lmasa, xodim ozod insondan qulga, tovar egasidan tovarning o'ziga aylanadi. erkinlikniig ikkinchi xili bo'lmasa, xodim ishchi kuchini (mehnatini) emas, o'z ishlab chiqarish omillaridan foydalanish natijalarini sotayotgan bo'lib chiqadi.

Boshqa iqtisodiy nazariyalardan farqli ravishda marksizmda mehnat emas, ishchi kuchi yoki jismoniy va ma'naviy qobiliyatlar yig'indisi sifatida tushuniladigan mehnat qilish qobiliyati tovar sifatida qabul qilinadi, bunday qobiliyatga organizm, jonli inson shaxsi ega, bu qobiliyatni har safar u qandaydir iste'mol qadriyatlarini ishlab chiqarilayotganda ishga soladi. Ayni vaqtda narx-navo va mehnat qiymati kategoriyalarining mavjudligi inkor etilmaydi, ammo ular narx-navo va ishchi kuchi qiymatining o'zgacha (ya'ni mazmun-mohiyatini buzuvchi ko'rinishda aks ettiruvchi) ko'rinishlari hisoblanadi. Mehnat bozorida kechayotgan jarayonlarni tushunish uchun bunday chegaralash jiddiy ahamiyatga ega emas. Muhimi, shuni yodda to'tish kerakki, tovar – mehnat va odamdan ayri emas (agar ishchi kuchi tovar sifatida e'tirof etilsa, uni shaxsdan ajratib bo'lmasligi yanada oydinlashadi).

Mehnatning sotuvchisi uchun, u mehnat jarayonini amalga oshirayotganligi bois, mehnatining narxigina emas, mehnat sharoitlari, uning tashkil etilishi, ishlab chiqarishda jarohat olish xavfi, birgalikdagi mehnat jarayoni qatnashchilarining o‘zaro munosabatlari, ijtimoiy qulaylik darajasi, rahbarlar bilan munosabatlari va hokazolar ham muhimdir. Tovar sifatidagi mehnat egasining mehnat munosabatlaridagi «adolat» haqida o‘z-tasavvuri bor. Buning ustiga u o‘z tashkilotlarini (jumladan, kasaba uyushmalarini) tashkil etishga, bozorga aloqasi bo‘lmagan usullar bilan (ish tashlashga qadar) mehnatga haq to‘lash va boshqa masalalar haqidagi o‘z tasavvurlarini himoya qilishga qodir.

Mehnatning og‘ir-engilligi, shart-sharoitlari, uning jozibadorligi va jamiyatdagi mavqei shu qadar jiddiyki, ular o‘z-o‘zidan bozor omillaridan farqli ravishda ish haqi o‘rtasidagi jiddiy tafovutlarga olib kelishi mumkin. Tovar-mehnat narxidagi farq mehnat bozoridagi vaziyatdan ham kelib chiqadi.

Shunday qilib, tovar sifatidagi mehnatni uning egasi-odamdan ajratib bo‘lmaydi, yollash vaqtida bozorga aloqasi bo‘lmagan turli omillar boshqa bozorlarga qaraganda muhim rol o‘ynaydi.

Tovar – mehnatning makondagi har qanday kuch ishi xodimning ham kuch ishini anglatadi. Bu esa, ko‘pincha qator qo‘shimcha muammolar bilan – oilaning roziligi, yangi yashash joyida bolalarning o‘qishni davom ettirish imkoniyati turar joyga ega bo‘lish va hokazolar bilan bog‘liq. Ma‘muriy-huquqiy cheklashlar (ro‘yxatga olish tartibi, milliy, diniy yoki jinsiy alomatlariga ko‘ra kamsitish va h.k) ham bo‘lishi mumkin. Bunday cheklashlar naqadar kam bo‘lsa, mehnat bozori yanada rivojlangan bo‘lishi mumkin. Ammo ularni batamom yengib bo‘lmaydi, shuning uchun mehnat bozorlari yorqin ifodalangan segmentar xususiyatiga ega. Shunga ko‘ra bozorlarni milliy va mintaqaviy (mahalliy), tarmoq va kasb-korga ko‘ra, mulkka egalik ko‘rinishlari, ijtimoiy-demografik guruhlarga ko‘ra farqlash qabul qilingan.

Quyidagilar mehnat bozorining asosiy elementlari hisoblanadi:

– bozor sub’ektlari: ish beruvchilar va ishlab chiqarishda band bo‘lgan xodimlar, shuningdek, band bo‘lmagan, ammo ishlashni xohlaydigan va qidirayotgan shaxslar;

– bozor institutlari, ular mehnat bozori sub’ektlari o‘rtasidagi munosabatlarni va uning infratuzilma faoliyatini tartibga soladi;

– bozor infratuzilmasi: aholini ish bilan ta‘minlash xizmatlari, kasbga yo‘naltirish, xodimlarni tayyorlash va qayta tayyorlash, ish bilan ta‘minlash jamg‘armalari, reklama firmalari va hokazolar.

Mehnat bozori barcha elementlarining mavjudligi va ularning hamkorligi uning aniq maromda faoliyat ko'rsatishining zarur sharti hisoblanadi. Bu mehnat bozori o'z asosiy vazifalarini bajarishi uchun shart- sharoitlarni yaratadi. Quyidagilar ularning sirasiga kiradi:

- narx-navoni hosil qiluvchi ish haqining miqdori belgilanadi;
- axborotlar – mehnat bozori sub'ektlariga talab va taklifning darajalari haqida, u yoki bu kasb, ixtisoslik, malaka va hokazolar haqida ma'lumot beradi;
- taqsimotchilik – ishchi kuchi o'zaro muvofiqligi ta'minlanib, ish joylari bo'yicha taqsimlanadi.

## **27.2. Ish haqi va uning vazifalari**

Mehnat bozorining eng muhim vazifasi narx-navoni hosil qilish. Talab va taklifning o'zaro hamkorligi natijasida ish haqi belgilanadi. Ish haqi – bu mehnat narxining puldagi ifodasidir. Boshqa sharoitlar teng bo'lgan taqdirda, u mehnatning eng ko'p mahsulotiga tengdir. Ish haqining va mehnat miqdorining o'zgarib turishi mehnatga talab va taklifni muvozanat holatiga keltiradi. Ammo ish haqining tabiati faqat shular bilan cheklanmaydi. Ish haqi mehnat narxining shunchaki ko'rinishi emas, u tovar - mehnatning o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadigan qator omillarning boshqacha ko'rinishi hamdir. Ushbu xususiyatlar, yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, bozor tamoyillaridan emas, mehnatni qo'llash sohalari va shart-sharoitlaridan, shuningdek, qator boshqa omillar birlashishidan kelib chiqadigan mehnatga haq to'lashdagi farqni taqozo etadi.

Ish haqining yana bir tomoni bor – bu xodimlarning hayoti uchun zarur vositalarni qayta ishlab chiqarish shaklidir. Boshqa sharoitlar teng bo'lgan taqdirda ish haqi darajasi shunday bo'lishi kerakki, u xodimlarni va ularning oila-a'zolarini takror ishlab chiqarishi zarur. Bu shuni anglatadiki, mehnat haqi hisobiga (boshqa manbalarni istisno qilgan taqdirda) xodimlarning fiziologik ehtiyojlari qondirilishiga sarf-xarajatlar, bilim olish, sog'likni saqlash ehtiyojlari, boshqa ijtimoiy zarur sarf-xarajatlar qoplanadi.

Shunday qilib, ish haqi ikki xil tabiatga ega. Bir tomondan – u mehnat narxining shakli bo'lsa, boshqa tomondan – xodimlarni takror ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan hayotiy vositalar jamg'armasining shaklidir.

Mehnat haqi darajasini turli xodimlar mehnatiga haq to'lashdan farqlay olish kerak. Mehnat haqi darajasi pirovard oqibatda ijtimoiy mehnat unumdorligining darajasi bilan belgilanadi: jamiyatda mehnat unumdorligi darajasi naqadar yuqori bo'lsa, ijtimoiy mahsulot hajmi shu qadar yuqori, mehnat birligiga to'g'ri keladigan mahsulot ulushi shu qadar katta, ish haqi shu

qadar yuqori bo‘ladi. Mazkur umumiy, sof ko‘rinishda olingan aloqa, nafaqat bir mamlakatning o‘zidagi, turli tarixiy davrda mehnatga haq to‘lash darajasidagi farqningina emas, mamlakatlarda mehnatga haq to‘lashdagi farqni ham ko‘p jihatdan izohlaydi.

Turli tarmoqlar, korxonalar, sohalar xodimlarining mehnat haqi o‘rtasidagi tafovut mehnat unumdorligi bilan bog‘liq. Ushbu omillarning kelib chiqishi turlicha. Birinchidan, ular mehnat sharoitining xususiyatlaridan kelib chiqadi. Noxush, xavfli, sog‘liq uchun zararli sharoitlar odatda yuqoriroq ish haqi to‘lashishini taxmin qiladi. Ikkinchidan, iqlimiy shart-sharoitlar, hududning markazdan olisligi bilan farq qiluvchi mintaqalardagi takror ishlab chiqarish sharoitlari ana shu omillar uchun tovon haqi to‘lanishini talab qiladi. Uchinchidan, tarixiy, ijtimoiy-madaniy elementlar ham jiddiy ta’sir o‘tkazadi. Jumladan, agar har xil farqlar inobatga olinadigan bo‘lsa, mablag‘ ishlab topish bo‘yicha oilaviy munosabatlar tarkibi – oila daromadi bir boquvchining mablag‘ topishiga yo‘naltirilganligi yoki oila barcha a‘zolarining ishlab chiqarishga keng jalb etilganligi alohida ahamiyatga ega.

Mehnat haqidagi tafovutlarni belgilovchi boshqa qator omillar mavjud. Ularning orasidan iqtisodiyot nazariyasida kamsitish omilini alohida ajratib ko‘rsatiladi. Bunda jinsi, yoshi, millati va hokazolar bilan farq qiluvchi shaxslarga bir xil bo‘lmagan ish haqi taklif qilinadi.

Inson kapitaliga sarf-xarajatlar mehnat haqi darajasi va nisbatlaridagi farqni belgilovchi turg‘un omil hisoblanadi.

Inson kapitali – o‘qitish va bilim berish natijasida odamlar to‘plagan bilimlar zaxirasidir. U odamlarga, ularning bilim olishiga ma’lum investitsiyalarini taxmin qiladi. Bilim olish yuqoriroq unumdorlik bilan moddiylashadi, mehnat faoliyatining qator turlarini oliy darajadagi bilimsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Bularning hammasi barqaror sharoitlarda rivojlanayotgan jamiyatda ma’lumotli shaxslar mehnatiga yuqoriroq haq to‘lashning omili hisoblanadi.

Mehnatga haq to‘lashning vaqtbay va ishbay turlari ajratib ko‘rsatiladi.

Vaqtbay ish haqi – mehnatga ishlangan vaqtning davomiyligidan kelib chiqib haq to‘lashdir. U xodim mehnatiga haq to‘lashning nisbatan tabiiy ko‘rinishi hisoblanadi, chunki ish haqi zamirida mehnat haqi yotadi, mehnat haqining o‘lchovi esa vaqt hisoblanadi. Ish haqi stavkasi bir soatli ish uchun to‘lanadigan mehnat narxini tashkil etadi. Vaqtbay ish haqi to‘lanayotganda ish beruvchi uchun mehnat ustidan ta’sirchan nazoratni tashkil etish, mehnat jarayonini tartibga soluvchi texnologiyalarni o‘zlashtirish, ishga yollayotgan vaqtda kadrlarni sinchiklab tanlab olish g‘oyatda muhimdir.

Donabay (ishbay) ish haqi – ishlab chiqarilgan mahsulot miqdoriga ko‘ra, mehnatga haq to‘lashdir. Ish haqining bu ko‘rinishi vaqtbay ish haqidan kelib chiqadi: ishlab chiqarilayotgan bir dona mahsulotning narxi soatbay stavkaning aniq maromda mehnat qilinganda bir soatda ishlab chiqarilgan mahsulot nisbatiga teng. Ammo bunday vaziyatda ham xodimni pirovard oqibatda bir narsa: ishlagan vaqti – haftasiga, oyiga, yiliga haq; olishi ko‘proq qiziqtiradi. Mehnatga ishbay haq to‘lash – unumli mehnatni rag‘batlantiradi. Bu bir tomondan – mahsulot ishlab chiqarishni ko‘paytiradi, ikkinchi tomondan – mahsulot sifatining pasayishiga olib kelishi mumkin. Shulardan birinchisi ish beruvchining manfaatlariga javob beradi, ikkinchisi esa, javob bermaydi.

Turli mamlakatlarda ish haqining yuqoridagi ko‘rinishlaridan turlicha foydalaniladi. Jumladan, xodimlarning sakson foizdan ko‘piga vaqtbay ish haqi to‘lanadi. O‘zbekistonda esa mehnatga ishbay haq; to‘lashning turli variantlari ustuvorlik qiladi. Vaqtbay ish haqidan foydalaniladigan sohalarda esa, dastavval soatbay stavka emas, davlat tomonidan belgilanadigan eng kam oylik ish haqi olinadi.

Nominal va real ish haqini bir-biridan farqlashadi.

Nominal ish haqi – bu ma‘lum vaqt (soat, kun, hafta, oy, yil mobaynida) xodim oladigan pul mablag‘i yoki mehnat natijasidir.

Real (haqiqiy) ish haqi – bu ana shu nominal ish haqiga xodim xarid qilishi mumkin bo‘lgan ne‘matlar miqdoridir. Real ish haqi indeksini aniqlash uchun nominal ish haqi indeksini iste‘mol narxi indeksiga bo‘lish zarur. Hqiqiy ish haqi nafaqat nominal ish haqining miqdoriga, shu bilan birga, xodim xarid qiladigan ne‘matlarning narxi darajasiga bog‘liq bo‘lib, xodimning xarid qobiliyatini tavsiflaydi. Real va nominal ish haqi dinamikasi odatda bir-biriga to‘g‘ri kelmaydi, ular bir-biriga qarama - qarshi bo‘lishi ham mumkin.

Har bir xodim uchun nafaqat uning boshqa toifadagi mutlaq miqdori, uning boshqa toifadagi xodimlar ish haqiga nisbati, shuningdek, nisbatning dinamikasi ham muhimdir. Shuning uchun xodimlar biror toifasi ish haqining kamayishi (ko‘payishi) haqida gapirilganda so‘z ish haqi pul ifodasining pasayishi (ko‘payishi) haqida ham, uning xarid narxlariga yoki boshqa toifadagi xodimlarning ish haqiga nisbati haqida ham borishi mumkin.

Raqobat sharoitida ayrim firmalar ayrim xodimlar kabi ish haqining umum qabul qilgan darajasini mo‘ljal qilib olishga majburdirlar. Ayni vaqtda bozor ayriboshlovining har bir qatnashchisi nisbatan ko‘proq daromad olishga intiladi, bu nafaqat mamlakatdagi, tarmog‘dagi, korxonadagi ish haqi darajasining belgilangan ob‘ektov asoslariga, shu bilan birga shaxsning

fazilatlariga: kuch-g'ayratiga, mehnatsevarligiga, malakasini oshirishga intilishi va hokazolarga bog'liq.

Mehnat haqini belgilovchi barcha omillarning o'zaro hamkorligi jarayonida ish haqining asosiy vazifalari ro'yobga chiqadi.

Ish haqining birinchi vazifasi – takror ishlab chiqarish. U ish haqi ehtiyojlarni qondirishi va xodimni hamda uning oila-a'zolarini qayta tiklash uchun yetarli bo'lishini taxmin qiladi.

Ikkinchi vazifasi – rag'batlantirish: ish haqi mehnat jarayoniga jalb etadi va mehnatning samarali bajarilishini rag'batlantiradi.

Uchinchi vazifasi – taqsimotchilik: ish haqi yordamida har bir xodimning qayerda mehnat qilishi belgilanadi, mehnat sohalari, tarmoqlar, korxonalar va hokazolar o'rtasida qayta taqsimlanadi.

Ish haqining iqtisodiyotdagi vazifasi va roli g'oyatda serqirra. Mehnat haqining makroiqtisodiyotdagi rolini alohida ajratib ko'rsatish mumkin. Ish haqi – aholi daromadining asosini tashkil etadi. Iste'mol ehtiyojining darajasi kamayib borgan sayin iqtisodiy o'sish chegaralari torayib boradi va aksincha, ko'payib borayotgan ish haqi iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi. Ammo mehnat unumdorligi o'sishiga nisbatan ish haqining haddan tashqari o'sishi uzoq vaqt kechadigan bo'lsa, bu makroiqtisodiy beqarorlikka olib kelishi, budjet kamomadi va inflyatsiya kuchayishini rag'batlantirishi mumkin. Bu demak, mehnat haqining davlat tomonidan puxta o'ylab boshqarilishi – hozirgi zamon iqtisodiy siyosatining muhim yo'nalishidir.

O'tish davri iqtisodiyotida ish haqining o'zgarishlari, uning shakllanishi va vazifalari ma'lum xususiyatlarga ega.

**Birinchi**dan, O'zbekistonning o'tish davri iqtisodiyoti uchun ishlab topiladigan barcha mablag'lar tarkibida mehnat haqi rolining kamayishi xos. Aholining pul daromadlari tarkibi va tuzilishida mehnat haqining ulushi 2011 yildagi 70,2% dan 2020 yilga 66,2% gacha kamaydi. **Ikkinchi**dan, ish haqining kamayishi evaziga ishchi kuchining qayta tiklanishi real imkoniyatlaridan uzilishi ro'y bermokda. Bu avvalambor, real ish haqining turg'un darajasi kamayib borishida namoyon bo'lmokda.

Mehnat haqi xodimlarni qayta tayyorlashga haqiqiy sarf-xarajatlardan uzilib qolganligini mehnat haqi va daromadlar tabaqalashuvi keskin kuchayganligi ham ko'rsatadi. Shu bilan birga, pul daromadlaridagi jiddiy tafovut barcha yo'nalishlarda: korxonalar ichida, tarmoqlar va mintaqalar o'rtasida, jamiyatning turli qatlamlari o'rtasida qaror topdi.

Ish haqi darajasiga ko'ra xalk xo'jaligi tarmoqlari ikki guruhga bo'lingan. Agar xom ashyo tarmoqlaridagi ish haqi sanoatdagi o'rtacha ish haqidan ikki baravar va undan ziyodroqqa ko'payib ketgan bo'lsa, mishinasozlik va yengil

sanoatda mehnatga sanoatdagi o‘rtacha ish haqidan 1,5 –2 baravar kam haq to‘lanmoqda. Bu mehnat narxi uning qiymatidan uzilib qolganligidagina emas, texnologiya jarayonini belgilovchi sanoatning asosiy tarmoqlari mehnat salohiyatining keskin ahvolidan dalolat beradi. Maorif va fan sohasidagi tamoyillar ham shunday ta’riflanadi.

Mehnat haqining takror ishlab chiqaruvchilik roli haqida gapirilar ekan O‘zbekiston uchun bir qator yangi jarayonlarni nazarda tutish muhimdir. Tekin xizmatlarni pulli xizmatlarga o‘tkazish shular jumlasiga kiradi (bu sog‘liqni saqlash, maorif, uy-joy bilan ta’minlash va boshqa sohalarga ham taalluqlidir). Aholiga pulli xizmat ko‘rsatishning tariflari ham jadal oshib bormoqda. O‘tish davri iqtisodiyoti uchun har ikkala holat ham xos, ammo ayni vaqtda «bir-biri bilan tutash idishlar» tamoyili amal qilishi kerak: «ijtimoiy ish haqi» bitta bepul qismining kamayishi (ya’ni jamiyatning ishchi kuchini qayta yetishtirishga ob’ektiv zarur jami xarajatlariniig kamayishi) tegishli ravishda uning boshqa qismi ko‘payishi bilan kuzatilishi kerak. Amaliyotda esa, mazkur tamoyil tan olinmayapti, bu mehnat narxining hayotiy vositalar jang‘armasi qiymatidan ortda qolishini kuchaytirmay iloji yo‘q.

O‘zbekistonda tarkib topayotgan mehnat bozori shunday sharoitlarda faoliyat ko‘rsatmokedaki, uning faoliyat ko‘rsatuvchi muhim elementlari – ishchi kuchining narxi aholi jon boshiga iste’mol darajasi – ishchi kuchini qayta yetishtirish uchun zarur bo‘lgan haqiqiy hayotiy ne‘matlarning qiymatiga muvofiqlashtirilmagan, bu mehnat bozorining talab va taklif kabi muhim tarkibiy qismlarining shaklan buzilishiga olib keladi.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan mehnat resurslarini takror ishlab chiqarishga moliyaviy xarajatlarning darajasi va mexanizmi o‘zgarishlari, inflyatsiya jarayonlari va hokazolar bilan kechayotgan iqtisodiy o‘zgarishlar mazkur tamoyilni yanada chuqurlashtirib yubordi. Mehnat bozorining bandlik va kasbiy-malaka tarkibi nisbatlarining shakllanish tamoyillariga asoslangan o‘z-o‘zini idora qilish mexanizmi rolining pasayishi ana shuning oqibati bo‘ldi. U xodimlarni faoliyat sohalari, xo‘jalik tarmoqlari bo‘yicha taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonini, xodimlarning korxonalar va hududlar o‘rtasidagi harakatini idora etishni murakkablashtirdi.

### **27.3. O‘tish davri iqtisodiyotida ishsizlikning xususiyatlari**

Talab va taklifning doimo bir-biriga to‘g‘ri kelmasligi bozor iqtisodiyotining xususiyatidir. Mehnat bozorida bu ishsizlikning tebranib turishida namoyon bo‘ladi. Ishsizlik, ya’ni mehnat bozorida ishsiz va ishga joylashishga intiluvchi shaxslarning doimo mavjudligi bozor tizimi rivojlanishining butun tarixiga xos doimiy xususiyatdir.



Ishsizlik darajasini o'lchashning turli usullari mavjud, jumladan, Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) ma'lum yosh intervali chegarasida bo'lgan, tadqiqot davrida: a) ishda band bo'lmagan; b) ish bajarishga tayyor bo'lgan; v) ish qidirayotgan barcha shaxslarni ishsizlar sirasiga kiritadi. Ishsizlikning bunday ta'rifi davlat ish bilan ta'minlash xizmatida rasmiy ro'yxatdan o'tish faktini uning mezonlari qatoriga kiritmaydi.

XMT ta'rifi bilan bir qatorda ko'pgina mamlakatlarda «ro'yxatga olingan ishsizlik», deb ataluvchi tushunchadan foydalaniladi. Bu holda davlatning ish bilan ta'minlash xizmatlarida ro'yxatda turish ishsizlikning asosiy mezonidir. O'zbekistonning «Aholi bandligi to'g'risida»gi qonuniga ko'ra, ish joyi va ish haqi olish imkoni bo'lmagan, o'zlariga mos ish topish maqsadida ish bilan bandlik xizmatlarida ro'yxatga olingan, ish qidirayotgan, ish boshlashga tayyor fuqarolar ishsiz, deb e'tirof etiladi. XMT ta'rifiga asoslangan ishsizlik darajasiga beriladigan bahoning mustaqilligi, ma'muriy yo'sindagi omillarga (masalan, ishsizlarning ro'yxatga olinish tartibini belgilovchi qonun hujjatlarining kuchaytirilishi yoki yumshatilishiga) qaram emaslik ta'rifining afzalligi hisoblanadi. Shu bilan birga, XMT ta'rifi ish izlash tushunchasini birmuncha keng talqin etadi.

So'nggi yillarda g'arb mamlakatlarida asr boshiga nisbatan ishsizlik darajasi ancha o'sdi va o'sishda davom etmoqda. Masalan, AQShda 1900 – 1914 yillarda ishsizlik 4,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, 1973 –1992 yillarda 6,9% ga yetdi. Ishsizlikning o'sish tamoyillari g'arbiy Yevropa mamlakatlarida ham kuzatilmokda: ularning ko'pchiligida so'nggi yillarda bu ko'rsatkich 10% ga yetdi va undan ham oshib ketdi, bu ishsizlikni muhim ijtimoiy muammoga aylantirdi.

Sobiq ittifoqida to'liq ish bilan bandlik va iqtisodiyot kamomadi sharoitida ishchi kuchining tovar ko'rinishi, mehnat bozori bo'lmagan bozorga o'tish mehnat resurslaridan foydalanish sohasida yangicha vaziyatni vujudga keltirdi va ishsizlikning paydo bo'lishiga olib keldi.

Ishsizlikning bir nechta sabablari bor. Bu avvalom bor, har qanday bozorga xos bo'lgan talab va taklifning nomutanosibligidir. Mehnatga talabning kamayishi yoki ko'payishi muqarrar ravishda ishsizlar sonining ko'payishi yoki kamayishiga ta'sir etadi. Ishlab chiqarishning tarkibiy o'zgarishlari, korxonalar ahvolidan vakti -vaqti bilan yomonlashib turishi, ularning sinishi bozor sharoitlarida uchrab turadi, bu albatta, ish bilan bandlik va ishsizlik darajasining tebranishiga olib keladi.

Mehnat bozoriga xodimlarning oqib kelishi ham (mehnat taklifi) o'zgaradi. Ishsizlikni keltirib chiqaruvchi yanada chuqurroq omillar ham bor. Kapitalni ko'paytirishga doimiy intilish daromad olish borasidagi

cheklanishlarga duch keladi. Mehnat narxining oshishi muqarrar ravishda daromadlilik va kapitalning ko'payish tezligini kamaytiradi. Bu mehnatni tejoychi texnologiyalar joriy etilishini talab qiladi va pirovard natijada, mazkur sohada mashg'ul bo'lganlarning ish haqi kamayishiga olib keladi. Bunday qarama-qarshilikni ish haqini kamaytirish yo'li bilan yumshatish mumkin bo'lsa ham, bu chora jiddiy cheklangan va u ishsizlik mavjudligining ana shu tub sabablarini bekor qila olmaydi. O'zbekistonda ishlab chiqarishning sezilarli darajada pasayishi, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar turg'un voqelik sifatida ishsizlikning paydo bo'lishiga olib keldi. Shu bilan birga, rasman ro'yxatga olingan ishsizlar soni keskin ko'paygani yo'q, agar 2000 yilda 35,4 ming kishi ishsiz bo'lgan bo'lsa, 2021 yilda 1441,9 ming kishi ishsiz hisoblangan. Mazkur ko'rsatkichlar ish bilan bandlikning haqiqiy ahvolini aks ettirmaydi. Ular jami ishsizlar sonining bir qisminigina qamrab oladi, chunki ishi (daromadli mashg'uloti) bo'lmagan, ish izlayotgan va darhol ishga kirishishga tayyor bo'lgan barcha shaxslarni hisobga olmaydi. Ular aksincha, umuman ish qidirmayotgan shaxslarni hisobga olishi mumkin. Mazkur mezonlarga javob beradigan, ammo ro'yxatdan o'tmagan ishsizlarning boshqa bir qismi rasman ro'yxatga olingan ishsizlardan anchagina ko'p. Ro'yxatga olingan ishsizlar darajasining qisqarishiga 1996 yildagi ishsizlarni ro'yxatga olish tartibini g'oyatda kuchaytirgan qonunlardagi o'zgarishlar, ish bilan bandlik xizmatlari moliyaviy imkoniyatlarining susayishi ham ta'sir etdi. Bu ishsizlik bo'yicha to'lanadigan nafaqalarning ko'p emasligini va nafaqalarning surunkali to'lanmaslik hollarini keltirib chiqardi.

O'tish davri iqtisodiyoti sharoitlarida ishsizlikning o'sishiga ta'sir etuvchi omillar keskin kuchaydi: mehnat bozorining shakllanishi ishlab chiqarishning pasayishi va xalq xo'jaligi tarkibiy tizimining keskin o'zgarishi bilan birga kuzatildi. Aynan shu omillar bozorga o'tish 1 davrining dastlabki bosqichida belgilovchi omillar hisoblanadi. Ishsizlikning turli ko'rinishlari ana shu o'zgarishlarga har xil munosabat bildiradi. Friksion yoki chig'iriqli ishsizlik o'tish davri iqtisodiyotidagi ishsizlikning umumiy tarkibida kamroq solishtirma vaznga ega, chunki mehnat bozoridagi talab va taklifning muvozanati bu o'rinda turg'un hisoblanmaydi, aslida buning aksi kuzatiladi. O'tish davri iqtisodiyotiga mehnat bozori tarkibiy tuzilishidagi beqarorlik va doimiy buzilishlar xos.

Davriy ishsizlik amaliy faollikning davriy susayishi bilan bog'liq bo'lib, ishlab chiqarishning yalpi pasayishi oqibatida mehnatga talablar majmui pasayishi munosabati bilan ishsizlikning umumiy darajasiga jiddiy ta'sir o'tkaziladi.

Ishsizlik va ish bilan bandlik dinamikasiga tarkibiy ishsizlik ayniqsa, ko‘proq ta’sir etadi. Bu ko‘rinish ishlab **chiqarishning** tarkibiy o‘zgarishlari bilan uzviy bog‘liq, u talab tarkibi va bozorda taklif etilayotgan ishchi kuchi tarkibi o‘rtasidagi mutanosiblikni buzadi. Ana shu sabablarga ko‘ra mazkur ko‘rinishda doimo ishsizlik xavfi kuzatiladi. Bo‘shab borayotgan ishchi kuchidan boshqa o‘sayotgan tarmoqlarda foydalansa bo‘ladi, ammo yangi kasb-korga moslashish uchun vaqt va sarf-xarajatlar kerak. O‘tish davri iqtisodiyoti sharoitlarida va moliyaviy ta’minlash imkoniyatlari qisqargan bir vaqtda tarkibiy ishsizlik xavfi (ayniqsa, bozor shakllanishining dastlabki bosqichlarida) kuchayib boradi.

Ishsizlikning mazkur shakli doirasida mintaqaviy omil katta ahamiyat kasb etadi. Ayrim mintaqalarda ishsizlikning kuchayishini migratsiya keltirib chiqarishi mumkin. Ammo migratsiya talay vaqtni talab qiladi, ana shu davr mobaynida mintaqada ishsizlik kuzatiladi, boshqa mintaqalarda esa, ishchi kuchi yetishmaydi. Basharti ilgari mintaqada biror mahsulotni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan bo‘lsa, so‘nggi vaqtda shu mahsulot va uni ishlab chiqarish keskin qisqargan bo‘lsa, vaziyat yanada chigallashadi.

Ishsizlikning yuqori darajasi harbiy sanoat majmui korxonalariga, o‘tish davrida ayniqsa, inqirozga yuz tutgan sanoat tarmoqlari – yengil, to‘qimachilik, mashinasozlik tarmoqlari ko‘proq bo‘lgan hududlarga shuningdek, ishchi kuchi an’anaviy mo‘l bo‘lgan mintaqalarga (Farg‘ona vodiysi) xosdir.

O‘zbekiston sharoitida mintaqalarning iqtisodiy islohotlar boshlanishidan avvalgi mavkei bilan izohlanuvchi mintaqaviy mehnat bozorining tabaqalashuvi ham alohida ahamiyatga ega. Mintaqalarning sovet ittifoqi davrida tarkib topgan demografik, iqtisodiy, ijtimoiy-ruhiy, siyosiy xususiyatlari ularning iqtisodiyoti yangicha sharoitlarga ko‘nikishining turlicha darajalarini belgiladi, ulardagi ish bilan bandlik va ishsizlik darajalarining tabaqalashuvi shu bilan izohlanadi.

Uy - joy bozori yetarli darajada rivojlanmagan va aholi migratsiyasi bilan bog‘liq jiddiy yetishmovchiliklar sharoitida mintaqaviy mehnat bozorlari o‘rtasidagi turg‘un farqlar saqlanib turibdi, ular juda sustkashlik bilan yo‘qolib bormoqda.

Aytib o‘tilgan jarayonlar natijasida hududlarning shunday guruhi tashkil topdiki, ularda ishsizlik ko‘lami keng. Jumladan, ishsizlikning darajasi respublika bo‘yicha o‘rtacha 10,5 % atrofida tebranib turgan bo‘lsa, O‘zbekistonning 6 mintaqasida 11% va undan ziyodroqni tashkil etadi. Toshkent, Navoiy ishsizlik darajasi past viloyatlar qatoriga kiradi. Jizzax,

Qashqadaryo, Samarqand, Surxondaryo, Sirdaryo, Xorazm viloyatlari mehnat bozorlarida keskin vaziyat yuzaga kelgan<sup>10</sup>.

Bundan tashqari mintaqaviy ishsizlik darajasi bilan mintaqadagi ishsizlikning o'rtacha davomiyligi o'rtasida ijobiy bog'liqlik mavjud. Shunday qilib, yuksak darajadagi ishsizlik turg'unligicha qolishda davom etmoqda, bu shu borada eng yomon ko'rsatkichlarga ega mintaqalarning ahvolini yanada mushkullashtiradi.

O'zbekistondagi ishsizlik dinamikasi boshqa qator o'ziga xos sharoitlar ta'siriga moyil. Ishchi kuchining ishlab chiqarishdan siqib chiqarilishini kuchaytiruvchi sabablar qatoriga demografik omillarni ham kiritishi mumkin. Aholi umumiy soni qisqarib borayotgan bir vaqtda yaqin yillarda mamlakatdagi mehnat resurslari miqdori birmuncha ko'payadi, chunki mehnatga layoqatli, avvalgi son jihatdan ko'pchilikni tashkil etuvchi avlod mehnat yoshiga yetadi. Buning natijasida mehnat bozoridagi vaziyat g'oyatda keskinlashishi mumkin, bu qo'shimcha ish joylari tashkil etilishini talab qiladi. Shu bilan birga qarshilik ko'rsatuvchi omillar ham kuchga to'lib bormoqda, ishlab chiqarishning pasayishiga barham berildi. Ijtimoiy o'sish ishsizlikning tarkibiy ko'rinishlarini qisqartirish uchun imkoniyatlar yaratmoqda.

#### **27.4. O'tish davri iqtisodiyotidagi ish bilan bandlikniig o'ziga xos xususiyatlari**

Mehnat munosabatlarining o'zgarishi nafaqat ishsizlikning paydo bo'lishi va o'zgarishlari bilan, shu bilan bir qatorda, bandlik sohasidagi jiddiy o'zgarishlar bilan ham ta'riflanadi. Aynan shu **sohada** ishlab chiqarishdagi haqiqiy mehnat munosabatlari amalga oshiriladi, mehnat taqsimoti nisbati shakllanadi. Ish bilan bandlik sohasidagi o'zgarishlar iqtisodiyotdagi umumiy jarayonlarni, mehnat bozoridagi o'zgarishlarni ham o'ziga xos tarzda aks ettiradi. O'zbekistonning o'tish davri iqtisodiyoti uchun xos bo'lgan ish bilan bandlikning umumiy jarayonlari orasidan quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin.

**Ish bilan bandlikning tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq ko'rinishinin jadal rivojlanishi.** Bozor tizimi shakllanishining ob'ektiv tamoyillari mulkka egalik shakllarining o'zgarishlari, yangi bozor institutlarining paydo bo'lishi, tadbirkorlik faoliyatining yangi tashkiliy ko'rinishlari paydo bo'lishi keltirib chiqargan ish bilan bandlikning tarkibiy siljishlarida yaqqol o'z aksini topmoqda. O'tish davri iqtisodiyotining asosiy

---

<sup>10</sup> O'zbekistonda mehnat va bandlik. Statistika to'plam. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Toshkent – 2021 y. B.127.

xususiyati – iqtisodiyotning xususiy sektorida ishlovchilar sonining o‘shidir. 1992 yildan 1999 yilgacha O‘zbekistonda shu sohada band bo‘lganlar ulushi iqtisodiyotda mashg‘ul bo‘lganlarning jami soni 19,5% dan 45,3% gacha ko‘paydi. 2020 yilda bu ko‘rsatkich 81,2% ga yetdi<sup>11</sup>. Ana shu davrda aralash korxonalarda band bo‘lganlar ulushi esa, 1,5 baravardan ziyodroqqa ko‘paydi. Ikkilamchi faoliyatni hisobga olganda ushbu o‘zgarishlar yanada chuqurroq xususiyat kasb etadi, chunki ushbu faoliyat odatda tadbirkorlik sohasida amalga oshadi. Ish bilan bandlikning chakana ko‘rinishlari va tadbirkorlik faoliyati tomonga tarkibiy o‘zgarishi umuman iqtisodiyotda ijtimoiy - mehnat munosabatlari xususiyatining tez o‘zgarishi uchun zamin yaratadi.

**Ish bilan bog‘liq tarmoq tarkibining o‘zgarishi.** O‘zbekistonning o‘tish davri iqtisodiyoti uchun xos bo‘lgan ishlab chiqarishning pasayish jarayonlari (bu jarayonlar sanoatning bir qator tarmoqlarida, investitsiyalar sohasida juda tez kechadi) ishchi kuchining tarmoqlar bo‘yicha, taqsimotiga ta’sir o‘tkazmay qo‘ymadi. Natijada, 90-yillarda ish bilan bandlikning tarmoqlar bo‘yicha ulushi savdo, uy-joy, kommunal xo‘jaligi, maishiy xizmat, moliya va sug‘urta, boshqarish organlari hamda bozor iqtisodiyotini shakllantirish va unga xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq boshqa qator tarmoqlar foydasiga o‘zgardi. Jumladan, savdo va umumiy ovqatlanishda band bo‘lganlar ulushi 1992 yildagi 7,9% dan 2020 yilga kelib 12,9%<sup>12</sup> gacha ko‘paydi.

Ayni vaqtda sanoatda, qurilishda ishlovchilar sonining yaqqol kamayishi kuzatildi. 1992 – 2020 yillar mobaynida sanoatda band bo‘lganlarning ulushi mamlakatda ish bilan band bo‘lganlar o‘rtacha yillik miqdorida 13,6% ga, qurilishda esa, 9,8% ga yetdi<sup>13</sup>. Ayni vaqtda ish bilan band bo‘lganlar sonining eng ko‘p qisqarishi mashinasozlik va yengil sanoat tarmoqlarida kuzatildi. Ishchi kuchining iqtisodiyot tarmoqlari bo‘ylab harakati ish bilan bandlikning kasbiy-malaka tarkibidagi o‘zgarishlarni belgilaydi. Qishlok xo‘jaligida band bo‘lganlar ulushi barqarorlashib, aholiga xizmat ko‘rsatish bilan mashg‘ul bo‘lganlar ulushi sezilarli darajada ko‘paygan bir vaqtda, industrial mehnat bilan band bo‘lganlar solishtirma vaznining kamayishi yuz beradi.

Mazkur tamoyillarni bir xilda baholab bo‘lmaydi. Xizmat ko‘rsatish sohasida ish bilan bandlikning o‘shishi va uning industriya sektoridagi qisqarishi umumjahon tamoyillariga to‘g‘ri keladi. Respublika iqtisodiyoti

---

<sup>11</sup> O‘zbekistonda mehnat va bandlik. Statistika to‘plam. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. Toshkent – 2021 y. B.31.

<sup>12</sup> O‘zbekistonda mehnat va bandlik. Statistika to‘plam. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. Toshkent – 2021 y. B.40.

<sup>13</sup> O‘zbekistonda mehnat va bandlik. Statistika to‘plam. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. Toshkent – 2021 y. B.40.

yangilanib borayotganidan, to'lov qobiliyatiga ega talabning sanoatdan xizmat ko'rsatish sohasiga o'tib borayotganligidan dalolat beradi. Ammo qishloq xo'jaligida band bo'lganlarning shu sohada ishlovchilar mutlaq soni birmuncha kam bo'lgan vaqtdagiga nisbatan ko'payishini, yuqori texnologiyali ishlab chiqarishda, fan sohasida mashg'ul bo'lganlar miqdorining qisqarishini ijobiy baholab bo'lmaydi.

### **Mehnat munosabatlaridagi ziddiyatlar va to'liqsiz ish bilan bandlik.**

Ishlab chiqarish hajmlarining keskin kamayishi vaqti-vaqti bilan iqtisodiy ahvolning keskinlashuvi, turg'un tanazzul hodisalarini keltirib chiqaradi. Ular ijtimoiy-mehnat munosabatlari barqarorligiga oshkora xavf soladi. Majburiy ishsizlik o'rnini to'ldirish uchun davlat mexanizmlari va resurslari bo'lmagan bir vaqtda ish joyini yo'qotish xavfi o'tish davri iqtisodiyoti ziddiyatlarini kuchaytiradi. Ana shu ziddiyatlarni hal etish usullaridan biri bo'lmish to'liqsiz ish bilan bandlikning turli ko'rinishlari yoki «yashirin ishsizlik» hisoblanadi. O'tish davri iqtisodiyotidagi to'liqsiz ish bilan bandlik xodimlar bandligining shunday bir ko'rinishiki, iqtisodiy faoliyatning tarkib topgan samaradorligi sharoitida ularning mehnati tovarlarni ishlab chiqarish va xizmatlarni amalga oshirishning ma'lum hajmini ta'minlash uchun ortiqcha hisoblanadi.

To'liqsiz ish bilan bandlikning ikki xil ko'rinishi mavjud – majburiy-korxonalarining ma'muriyati keltirib chiqargan, haq to'lanmaydigan (yoki qisman haq to'lanadigan) ta'tillar va to'liqsiz ish vaqti tartibi. To'liqsiz ish bilan bandlikning jadal o'sishi odatda, korxonalarining sinishini va xodimlarning yalpi ishdan bo'shatilishini taxmin qiluvchi qattiq kredit-moliya siyosati amalga oshirilishi bilan rag'batlantiradi. Nisbatan yuqori ish orqali bandlikni saqlab kolish bilan birga kam samarali ishlab chiqarishlarni qo'llab-quvvatlash buning muqobilidir.

Umuman, to'liqsiz ish bilan bandlik bir tomondan iqtisodiyotdagi turg'unlik hodisalarini konservatsiyalash omillaridan biri sifatida namoyon bo'lib, samarasiz ish joylari katta miqdorining saqlanib turishi rasman ish bilan band bo'lgan aholi real daromadlarining kamayishi, yuqori unum bilan mehnat qilish omillarining o'z kuchini yo'qotishi, ishlab chiqarishdagi tarkibiy siljishlarning qiyinlashishi rentabelli bo'lmagan ishlab chiqarishni imtiyozli moliyaviy ta'minlash hisobiga inflyatsiyani rag'batlantirish va boshqalar bilan bog'liq. Ikkinchi tomondan, u oshkora ishsizlikning muqobili sifatida namoyon bo'lib, ikdisodiy tushkunliklarga ko'nikishga, korxonalarining mehnat imkoniyatlarini saqlab kolishga xizmat qiluvchi o'ziga xos mexanizm, beqarorlik sharoitlarida ishlab chiqarish quvvatining zaxiradagi ko'rinishi hisoblanadi.

## **Haqiqiy turmush darajasi pasayishining o‘rnini to‘ldirish shakllari** **va ikkilamchi ish bilan bandlik**

Ikkilamchi ish bilan bandlik ikki yoki undan ko‘p ish joylarida band bo‘lish yoki asosiy ish joyida qo‘shimcha vazifalarni bajarishda namoyon bo‘ladi. Yollanma xodimlar hayotining past darajasi, to‘liqsiz ish bilan bandlik va ish haqining o‘z vaqtida to‘lanmasligi daromadlar darajasini saqlab turish maqsadida ikkilamchi ish bilan bandlikka intilishni keltirib chiqaradi. Ikkilamchi ish bilan bandlikning boshqa sabablari ish joyining pulga aloqasi bo‘lmagan tavsiflari bilan bog‘liq. Qiziqarliroq kafolatlangan ishni izlash, kerakli tanish-bilishlarni, aloqalarni orttirishga intilish va hokazolar shular jumlasidandir.

Ikkilamchi ish bilan bandlik O‘zbekistonning mehnat bozorida jiddiy rivoj topdi. Ushbu hodisa ko‘lamlari turli ma‘lumotlarga ko‘ra ish bilan band aholining 10% dan tortib 20% gacha tashkil etadi va bu ko‘rsatkich o‘sib bormoqda. Bu Yevropa Iqtisodiy Hamkorligi mamlakatlaridagiga qaraganda ancha yuqori, shu mamlakatlarda 1992 yilda savol berilganlarning atigi 3% ga yaqini yana boshqa bir ish bilan band ekanligini aytgan, AQSh da esa, bu ko‘rsatkich 1980 yilda 4,9% ni tashkil etgan.

Qo‘shimcha ish ko‘rinishidagi faoliyat turlari orasida boshqa korxonada qo‘shimcha vazifani bajarish, aholiga qurilish, ta‘mirlash, tikuvchilik sohasida xizmat ko‘rsatish, kasbi bo‘yicha shartnoma tuzib ishlash, ayniqsa, keng tarqalgan. Ayollarga qaraganda erkaklar, yoshlar va qariyalarga qaraganda mehnatga qobiliyatli aholining o‘rtacha guruhi (25–40 yoshdagilar) ko‘proq qo‘shimcha mehnat faoliyati bilan mashg‘uldirlar. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ma‘lumot darajasi yuqori bo‘lgan shaxslar qo‘shimcha daromad manbaini tezroq topishadi, asosiy ish joyidagi maosh qanchalik katta bo‘lsa, qo‘shimcha daromad ham shu qadar katta bo‘ladi. Ma‘lumot darajasi past shaxslarda buning aksi kuzatiladi, ya‘ni xodimlarning asosiy ish joyidagiga nisbatan yuqori raqobatbardoshligi qo‘shimcha mashg‘ulotida ham ko‘proq imtiyoz beradi. Ayni vaqtda ko‘nikish imkoniyati past bo‘lgan shaxslarda qo‘shimcha daromad manbaini topish imkoniyati keskin kamayadi. Shunday qilib, ikkilamchi ish bilan bandlik mehnat bozorining tanazzul holatiga reaksiyalardan biri hisoblanadi. Uning rivojlanishi mehnat sohasida kechayotgan islohotlarga moslashuvni aks ettiradi. Bu demak, agar to‘liqsiz ish bilan bandlik ishsizlikni kamaytirsam, ikkilamchi ish bilan bandlik daromadlar kamomadini qisman to‘ldiradi va ijtimoiy- mehnat safarbarligi vujudga kelishiga xizmat qiladi. Faqat iqtisodiyotning barqaror rivojlanishigina ikkilamchi ish bilan bandlik ko‘lamining sezilarli kamayishi uchun zamin yaratadi.

**Norasmiy ish bilan bandlikning rivojlanishi.** Norasmiy ish bilan bandlik, ya'ni huquqiy rasmiylashtirilmagan mehnat munosabatlari bilan shug'ullanish, ro'yxatga olinmagan korxonada bandlik yoki huquqiy rasmiylashtirilmagan mustaqil iqtisodiy faoliyat so'nggi yillarda O'zbekiston mehnat bozorining xususiyatlaridan biri bo'lib koldi, uning ko'lamlarini aniqlash mushkul. Ammo ba'zi ma'lumotlarga ko'ra ish bilan bandlikning ana shunday ko'rinishiga qariyb 0,5 mln. kishi jalb etilgan. Aholiga qurilish, ta'mirlash, tikuvchilik bo'yicha xizmatlarni ko'rsatish, ko'chalardagi savdo-sotiq kabi faoliyat turlarida norasmiy ish bilan bandlik ayniqsa, keng yoyilgan. Norasmiy ish bilan bandlik ishsiz va ishlayotgan aholi o'rtasida ko'proq o'quvchilar, uy bekalari o'rtasida kamroq tarqalgan. Ishlaydigan aholi ichida norasmiy faoliyatga ko'proq ishchilar, kamroq darajada xizmatchilar va rahbarlar jalb etilgan.

Bir tomondan norasmiy ish bilan bandlik aholi turmush darajasi pasayishiga to'sqinlik qilib, mehnat bozorining ish bilan bandlik sohasidagi mavjud institutlarga ko'nikishning o'ziga xos mexanizmi vazifasini o'tab, ijtimoiy amortizator rolini o'ynaydi. Ikkinchi tomondan, norasmiy ish bilan bandlik O'zbekiston iqtisodiyotida ijtimoiy va huquqiy himoyasizlik zonasini kengaytiradi, jinoiy hodisalarning vujudga kelishi va keng tarqalishi uchun turg'un zamin yaratadi. Norasmiy, iqtisodiy faoliyat daromadlarning yashirilishiga olib keladi va davlatning budjet mablag'ini kam olishni keltirib chiqaradi.

Ko'pincha u iqtisodiyotning ochiq sektoridan bir chekkada faoliyat ko'rsatmaydi, u bilan chirmashib ketadi. Buning natijasida ish beruvchi bozor darajasidan bir muncha yuqori bo'lgan ish haqi bilan ta'minlashi mumkin, ammo uni mehnat qonunlari nuqtai nazaridan mutlaqo nazorat qilib bo'lmaydi. Bunga «**qora naqdina**» haq to'lanadigan mehnat munosabatlari tizimi misol bo'lib xizmat qila oladi. Bunday vaziyat pirovard oqibatda xodimlarning o'z ahvolini ham jiddiy yomonlashtiradi. Norasmiy ish bilan bandlikni, iqtisodiyotdagi yashirin faoliyatni qisqartiruvchi institutlar muhitini vujudga keltirish samarali ijtimoiy mehnat munosabatlarini rivojlantirishning muhim yo'nalishidir.

### **27.5. Mehnat bozoridagi ishchi kuchining safarbarligi**

Mehnat bozoridagi ko'pgina jarayonlar kechishining xarakteri va xususiyatlari xodimlarning safarbarlik darajasi bilan izohlanadi. **Mehnat safarbarligi** – bu xodimlarning o'zgarib borayotgan ishlab chiqarish sharoitlariga, mehnat vazifalarining, mehnat qilish joylarining almashuviga moslashish, malakani oshirishga, yangi kasblarni o'zlashtirishga tayyor turish



qobiliyatidir, shuningdek, mehnat resurslari iqtisodiy va geografik bo'shliqda ko'chishining real jarayonlari majmuidir.

Aholining bozor iqtisodiyotidagi safarbarlik darajasi quyidagi omillar bilan belgilanadi:

– iqtisodiyot rivojlanishining dinamikasi va xarakteri bilan yangi ish joylari vujudga keltirilayotgan ko'tarilish davrida xodimlarning harakati uchun potensial bo'shliq kengayadi, bu safarbarlikni oshiradi. Iqtisodiy tushkunlik davrida ish joylari qisqaradi. Ishsizlik ko'payadi, ya'ni yangi ish joylarini izlash imkoniyatlari kamayadi. Ish joyini yo'qotish xavfi kuchayadi, bu mehnat safarbarligiga to'sqinlik qiladi;

– ilmiy-texnika taraqqiyoti bilan. Ishlab chiqarish texnik va texnologik darajasining uzloqsiz o'sib borishi, mehnat sifatida talablarning o'zgarishi xodimlarni vazifalar o'zgarishiga tezroq moslashishga, yangi kasblarni o'zlashtirishga, malakani oshirishga majbur qiladi;

– iqtisodiyotning tarkibiy o'zgarishlari. Iqtisodiyot yangi sektorlari, tarmoqlarining paydo bo'lishi va o'sishi, boshqalaridagi tushkunlik ishchi kuchiga talabning tarkibiy o'zgarishlarini keltirib chiqaradi. Ishchi kuchining tarmoqlararo harakatiga xizmat qiladi;

– investitsiya darajasi bilan. Kapital investitsiyasining o'sishi ishlab chiqarish hajmlarining kengayishiga, mehnatga talabning oshishiga, yangi ish joylarining tashkil etilishiga olib keladi. Bu demak, xodimlar harakatining iqtisodiy maydonini kengaytiradi;

– inflyatsiyaning o'zgarishi bilan. Yuksak darajadagi inflyatsiya real daromadlar qisqarishini keltirib chiqaradi, ikkilamchi ish bilan bandlik sohasida qo'shimcha daromadlarni izlashga majbur qiladi. Bu ko'pincha yangi kasb-korlar va mehnat sohalarining o'zlashtirilishi bilan kuzatiladi;

– ehtiyojning o'sishi bilan. Ham moddiy, ham ma'naviy-ijtimoiy ehtiyojlarning o'sishi malakani oshirishga, yangi kasb-korini o'zlashtirishga, obro'liroq va yuqori haq to'lanadigan ish joylariga o'tishga intilishni keltirib chiqaradi;

– ishchi kuchini qayta yetishtirish shart-sharoitlarining buzilishi bilan. Ish haqining eng kam turmush darajasidan ham kamayib ketishi, yashash sharoitlari va real daromadlardagi farq, bilim olish va maxsus tayyorgarlik;

– tayyorgarlik imkoniyatlaridagi farq, aholining mamlakat hududi bo'ylab notekis joylashganligi aholini ko'chishga da'vat etuvchi omillar hisoblanadi.

Yuzaki qaraganda safarbarlik alohida shaxslarning ish joyi va turmush sharoitlarini o'zgartirishida namoyon bo'ladi. Ammo u o'zining mohiyati, namoyon bo'lish shakllari va mexanizmiga ko'ra turli-tuman elementlarning,

mehnat resurslari ko‘rinishlari va harakat turlarining murakkab majmuidan iborat. Iqtisodiy safarbarlikning quyidagi to‘rini ajratib ko‘rsatishadi:

- sektorlar ichidagi safarbarlik – aholining davlat korxonalari va iqtisodiyotning nodavlat sektorlari ichidagi harakatini o‘z ichiga oladi;

- tarmoqlararo safarbarlik – xodimlarning bir yoki turli tarmoqlar korxonalari o‘rtasida ko‘chishining imkoniyati hamda ko‘chishning o‘zi;

- kasb-malaka safarbarligi – xodimning ham shu korxonada, ham boshqa ish joyiga o‘tish vaqtidagi kasbi, vazifasi, malakasining o‘zgarishi bilan bog‘liq;

- hududiy safarbarlik yangi yashash joyiga ko‘chib o‘tish bilan tavsiflanadi.

Safarbarlik yo‘nalishidan kelib chiqib, bir yerdan boshqa yerga ko‘chishda xodimning maqomi o‘zgarmay qolsa (masalan, kasbi va daromadi o‘zgarmagani holda yangi ish joyiga ko‘chganida) gorizontal va vertikal (maqomida o‘zgarish ro‘y berganida) bo‘lishi mumkin.

Vertikal safarbarlik xodimning maqomi o‘zgarishi bilan kechishi, bu daromadlarning ko‘payishida, malakasining oshishida, obro‘li kasbni egallashida, mansab jihatdan ko‘tarilishida ifodalanishi mumkin. Bunday holda o‘sib borayotgan safarbarlik haqida borishi mumkin. Aksincha, xodimning maqomi pasayishi bilan birgalikda kuzatiluvchi ish joyining o‘zgartirilishi pasayib borayotgan safarbarlikdan dalolat beradi. Korxonalar, tarmoqlar, mintaqalar ichida, ishchilarning bir ish joyidan bo‘shab boshqa joyga yollanishi, ya‘ni tashqi mehnat bozoriga chiqishga harakati, tashqi safarbarlik sifatida tavsiflanadi. Ichki yoki firma ichidagi safarbarlik ichki bozorda namoyon bo‘ladi. Bu xodimlarning korxonada ichidagi turli malakaga ega ish joylari, mansab maqomi, tarkibiy bo‘linmalar, ish bilan bandlik tarkibi o‘rtasidagi harakatidir.

Safarbarlikning barcha ko‘rinishlari va shakllari bir-biri bilan uzviy bog‘liq. Ularning o‘rtasidagi chegara harakatda bo‘ladi, ba‘zan ular shartli bo‘lishi ham mumkin. Bu ayniqsa, o‘tish davri iqtisodiyoti uchun xos.

O‘zbekistonda mehnat safarbarligi turlarining serqirraligi mulkka egalikning turli shaklidagi korxonalar o‘rtasidagi, yollanma mehnat sohalari o‘rtasidagi, tadbirkorlik faoliyati bilan mustaqil faoliyat, oshkora va yashirin ish bilan bandlik o‘rtasidagi harakat kabi ko‘chib o‘tishlarda ham namoyon bo‘ladi. Bundan tashqari, safarbarlik faoliyat sohasini kengaytiradi, safarbarlik bilan ishchi kuchining bir yerga bog‘liqligi o‘rtasida yangi oraliq shakllari, masalan, ish haqi saqlanmagani holda majburiy ta‘tilga chiqarilgan xodimning rasmiy ish bilan bandligi, iqtisodiyotning norasmiy sektoridagi ishi bilan bandlik kabilar vujudga keladi.

Xodimlarning yollanish va ularning korxonalaridan ketib qolish koeffitsiyentlari yig'indisi sifatida belgilanuvchi ishchi kuchi oborotining koeffitsiyenti mehnat safarbarligining asosiy ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston o'tish davri iqtisodiyoti uchun bu ko'rsatkich barcha ish bilan mashg'ullarning 44–48% ni tashkil etadi. Bu Sharqiy Markaziy Yevropaning ko'pgina mamlakatlaridagi shu xildagi ma'lumotlardan yuqori, uni OESR mamlakatlaridagi oborot darajasi bilan qiyoslash mumkin. Buning ustiga rasmiy ma'lumotlar faqat yirik va o'rtacha korxonalarni qamrab oladi, ikkilamchi va norasmiy ish bilan bandlikni qayd etmaydi. Bu demak, aslida ishchi kuchining oboroti bundan ham yuqori, bu O'zbekiston iqtisodiyotidagi ishchi kuchining anchagina yuksak safarbarligidan dalolat beradi.

Ammo ishchi kuchi oborotining bu ko'rsatkichi mehnat bozoridagi ijobiy o'zgarishlarning haqiqiy ifodasi hisoblanmaydi. O'zbekiston iqtisodiyotidagi ishchi kuchi oboroti hali ham kam samarali. Bu yangi ish joylarining oshkora yetishmasligi oqibatida xodimlarning mavjud ish joylari oralig'idagi harakati ko'pincha samarasiz kechishi bilan bog'liq ish bilan bandlik tarkibiy tuzilishining taraqqiyotiga xizmat qilmaydi. Bundan tashqari yuksak safarbarlikni mutlaqlashtirib bo'lmaydi. O'zbekiston mehnat bozori ko'pgina segmentlardan (mintaqalar, kasb-kor, malaka darajasi, ish staji va hokazo) tarkib topgan, ularning oralig'idagi harakat g'oyatda mushkullashtirilgan, natijada, kam safarbar xodimlar yomonrok ish joylariga bog'lanib qoladi.

Mehnat safarbarligi ishchi kuchini taqsimlash qayta taqsimlash va yangilash vazifalarini bajara borib, uning shakllanishi va foydalanilishi o'rtasidagi bog'lovchi bo'g'in sifatida namoyon bo'ladi. U keng ma'noda iqtisodiy o'zgarishlarning debochasi, umuman, jamiyat ijtimoiy-mehnat munosabatlari va hayotdagi o'zgarishlarning salmoqli omili hisoblanadi. O'tish davri iqtisodiyotida ishchi kuchining safarbarligi uning iqtisodiy va ijtimoiy ahvolidagi muhim tarkibiy qismiga, uning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligi shartiga aylanadi.

**Mehnat bozorini davlat tomonidan tartibga solish usullari.** Davlat va kasaba uyushmalari mehnat bozorini tartibga soluvchi asosiy sub'ektlar hisoblanadi. Buning ustiga davlat boshqa bozorlarga qaraganda mehnat bozorida hamisha faolroq harakat qiladi. Bu tushunarli, ishchi kuchining egalari fuqarolardir, davlat ularning manfaatlarini himoya qilishga da'vat etilgan. Har safar bozor o'z samarasini ko'rsatmagan yoki u adolat haqidagi jamiyatda keng yoyilgan tasavvurlarga to'g'ri kelmaydigan oqibatlarga olib kelgan hollarda davlat bozor munosabatlariga aralashadi. Davlat boshqaruvi bozordagi ko'ngilli bitimlar yordamida erishiladigan bozor munosabatlaridan farqli ravishda, rasmiy yo'l-yo'riqlar va tavsiyanomalarga asoslanadi.

Tugal ko‘rinishdagi mehnat munosabatlarining davlat boshqaruvi tizimi urushdan keyingi yillarda tarkib topdi. Mazkur jarayonda xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) ning konvensiyalari va tavsiyanomalari jiddiy rol o‘ynadi, uning ishida hukumat, kasaba uyushmalari va tadbirkorlarning vakillari ishtirok etadi. XMT a‘zosi bo‘lgan mamlakatlar uchun konvensiya qoidalari davlat darajasida ratifikatsiya qilingan takdirdagina majburiy huquqiy kuchga ega. XMT tavsiyanomalari ratifikatsiya qilinmaydi, lekin milliy qonunlarni ishlab chiqishda muhim rol o‘ynaydi.

Ish haqi, ish bilan bandlik, mehnat tartibi va shart-sharoitlarini idora qilish mehnat bozoridagi davlat faoliyatining asosiy yo‘nalishlari hisoblanadi. Ish haqining tartibga solinishi quyidagi asosiy ko‘rinishlar orqali amalga oshiriladi: eng kam ish haqining belgilanishi ish haqiga qator qo‘shimcha to‘lovlarni tartibga solish; narx-navo oshib borishi munosabati bilan ish haqini indeksatsiyalash; ish haqi va narx-navoni muzlatib kuyish; shaxsiy daromadlarga soliq solish; iqtisodiyotning turli sohalardagi ish haqining darajasi va davlat organlarining firmalarga turli uslubiy yordami.

Eng kam miqdordagi ish haqi – bu ishchi eng kam daromadining o‘ziga xos ijtimoiy kafolati bo‘lib, qashshoqlik ko‘lamini qisqartirishga da‘vat etilgan.

«Eng kam miqdordagi ish haqi to‘g‘risida»gi XMT konvensiyasi eng kam ish haqining miqdorini belgilovchi mezonlar qatorida quyidagilarni tilga oladi:

1) xodim va uning oila-a‘zolarining mamlakatdagi umumiy ish haqi darajasi, turmush qiymati, ijtimoiy to‘lovlar, boshqa ijtimoiy guruhlarning daromadlari hisobga olingan ehtiyojlarini;

2) unumdorlik va ish bilan bandlik darajalarini o‘z ichiga olgan iqtisodiy mulohazalarni;

AQSh kongressi eng kam ish haqi miqdorini 1938 yilda joriy etgan. U biron-bir boshqa ish haqi yoki turmush darajasining qandaydir standartiga nisbatan emas, bir soatli ishning nominal ifodasi sifatida belgilangan. Ish haqi umumiy darajasi oshib borgani sayin uning eng kam miqdori ham ko‘payib boradi. Jumladan, 1938 yildan to 1981 yilgacha u 0,25 dollar dan 4,25 dollargacha ko‘paydi, ya‘ni 17 baravar oshdi. Yana shuni ta‘kidlash kerakki, u har safar qayta ishlash sanoatidagi o‘rtacha bir soatli ish haqining 37% idan 53% gacha miqdor chegaralarida, qator mamlakatlardagi ish haqi eng kam miqdorining o‘rtacha ish haqiga foiz nisbati orqali belgilanadi (odatda bu ulush 33% dan 40% gacha tashkil etadi).

O‘zbekistonda eng kam oylik ish haqi qonun yo‘li bilan belgilanadi. Ijtimoiy kafolat vazifasini bajarish uchun eng kam ish haqi eng past ehtiyojlarni inobatga oluvchi eng kam turmush minimumi qiymatidan kam

bo'lmashligi kerak. 1999 yilda O'zbekistonda bunday ish haqi turmush minimumidan 10 baravar kam edi. Eng kam ish haqiga muhim ijtimoiy kafolat vazifalarini qaytarish uchun eng kam maoshning, ijtimoiy to'lovlar va transfertlar hisobga olingan turmush minimumi o'rtasidagi asoslangan nisbatni ushlab turish zarur.

Eng kam ish haqi masalasi hamisha jamiyatda munozara markazida bo'lib kelgan. Ayni vaqtda shuni ta'kidlash kerakki, ijtimoiy to'lovlar miqdorini eng kam ish haqiga qattiq bog'lab qo'yish iqtisodiyot barqaror faoliyat ko'rsatayotgan sharoitdagina o'zini oqlaydi. Ishlab chiqarish qisqarib borayotgan O'zbekiston sharoitida bunday bog'liqlik butun tizimni mo'rt qilib quyadi. Bir qator olimlar ijtimoiy to'lovlarni hisoblash uchun fuqarolarning tegishli toifalari (pensionerlar, talabalar, bolalar va boshqalar) uchun eng kam iste'mol budjeti qiymatini olishni taklif qilmokdalar.

Qator mamlakatlarda ish haqiga ba'zi qo'shimcha to'lovlar qonun bilan idora qilinadi. Qo'shimcha to'lovlar birinchi navbatda ish haqi sifatida mehnat uchun to'lanadi. Xuddi shunday qonun hujjati O'zbekistonda ham bor. Davlat bunday choralarga yo'l qo'yib, birinchidan, normal ish vaqtdan keyingi ish davomiyligini iqtisodiy cheklaydi, ikkinchidan, tadbirkorlarni qo'shimcha xodimlarni yollashga va shunday qilib ishsizlikni kamaytirishga rag'batlantiradi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ish haqini albatta, indeksatsiyalash ish haqining xarid qobiliyatini saqlab turish uchun zarur. Indeksatsiya tartibi turli mamlakatlarda bir-biridan jiddiy farq qiladi. Uning eng kam tarqalgan ko'rinishi muayyan davrda narx-navo indeksi o'zgarganligini inobatga olib, ish haqini avtomatik ravishda ko'paytirish – ish haqining sirg'aluvchan darajasi, deb atalmish daraja hisoblanadi. Belgiya, Gretsiya, Daniya, Italiya va Gollandiyada indeksatsiya milliy xarakterga ega bo'lib, milliy bitimlarda qayd etiladi, bunday bitimlar davlat organlari, tadbirkorlik tashkilotlari va kasaba uyushmalari o'rtasida uchyoqlama tuziladi. Bunda davlat bitimlarining huquqiy kuchi kafolat vazifasini o'taydi. Eng kam ish haqi miqdorining oshirilishi davr o'tishi bilan (har chorakda yoki har yili), yoxud bosqichma-bosqich, ya'ni narx-navo indeksining oldindan belgilangan chegaralariga yetilganda (masalan, 3% dan oshganda) ro'y beradi.

Yaponiya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Shveysariya kabi mamlakatlarda ish haqining indeksatsiyasi tadbirkorlar bilan kasaba uyushmalari o'rtasida jamoa shartnomalarini tuzish yo'li bilan tarmoqlar va firmalar darajasida o'tkaziladi. Qator mamlakatlarda – Avstriya, Germaniya, Norvegiya, Portugaliya, Shvetsiya, Rossiyada indeksatsiya'ning rasmiy mexanizmidan foydalaniladi, bunda narx-navo o'sishini hisobga oluvchi ish haqining

kafolatlangan, avtomatik tarzda oshirilishiga duch kelmaysiz. Shunga qaramay bu holda ham ish haqi haqiqiy darajasining o'sishi bilan aloqasi yaqqol kuzatiladi

Iqtisodiyotdagi tanazzul holatlarida va narx-navo ham, ish haqi ham tinmay oshib borayotgan bir vaqtda davlat unisini ham, bunisini ham mo'zlatib qo'yishi mumkin. Bu chora inflyatsiyaga qarshi xususiyatga ega, u qator mamlakatlarda muvaffaqiyat chikdi. Ammo uni amalga oshirish uchun kuchli, obro'li hukumat kerak bo'ladi.

Shaxsiy daromadlarni idora qilishda soliqlar ta'sirchan vosita hisoblanadi. Ko'pchilik mamlakatlarning soliqlar tizimida daromadlarning kam ta'minlanganlar foydasiga qayta taqsimlanishini taxmin qiluvchi ijtimoiy adolat tamoyilini o'tkazish lozim, deb hisoblanadi. O'zbekistonning amaldagi soliq tizimida mazkur tamoyil hozir o'tkazilayotgani yo'q. 2001 yildan boshlab daromad solig'ining 3,3% li yagona stavkasi joriy etilgan. Bundan tashqari eng kam ish haqidan ko'proq maoshdan ham (eng kam ish haqidan daromad solig'i undirilmaydi), turmush minimumidan kam bo'lgan maoshdan ham daromad solig'i olinadi. Eng kam ish haqi turmush minimumidan sezilarli darajada ortda qolayotgan va xodimning fiziologik hayot kechirishi uchun yo'naltirilgan sharoitlarda, hech bo'lmaganda yashash minimumi daromad solig'ini to'lashdan ozod qilishning mezoniga aylanishi kerak.

**Ish bilan bandlikka ta'sir o'tkazish choralari termasi birmuncha rang - barang.** Avvalo, bu iqtisodiy o'sishni va investitsiyalar jarayonini rag'batlantirishning barcha chora-tadbirlaridir. Davlat yangi xodimlarning ishga qabul qilinishini to'g'ridan-to'g'ri rag'batlantirishi ham mumkin, agar u ish haqiga ish beruvchining sarf- xarajatlari bir qismini qoplasa. Bu holda ana shu mablag'lar ish haqiga subsidiyalar, deb ataladi. Agar davlat soliq to'lashda imtiyozlar berilsa, bunda ular ish bilan bandlikni rag'batlantiruvchi soliq imtiyozlari, deb nomlanadi. Har ikki chora ishga yollashning barcha hollarida yoki firmalarda ish bilan bandlik darajasi ko'paygan vaqtda qo'llaniladi.

Ish bilan bandlik bo'yicha subsidiyalar umumiy, yoxud saylanma, aniq maqsadga qaratilgan bo'lishi mumkin. Ikkinchi holda gap fuqarolarning ma'lum guruhlarini odatda, boshqalar bilan teng imkoniyatga ega bo'lmaganlar: yoshlar, mehnat qobiliyati cheklangan shaxslar, kam malakali xodimlarni ishga yollashni rag'batlantirish haqida bormoqda. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan mamlakatlarda davlatning ish bilan bandlik xizmatlari faoliyat ko'rsatadi, ular ish izlashda maslahat va axborot berish yordamini ko'rsatadi, ishsizlarni o'kitadi, ularga nafaqa beradi, o'z ishini boshlayotgan ishsizlarni qo'llab-quvvatlaydi. O'zbekistonda ish bilan bandlik xizmati shu rolni bajarishga da'vat etilgan. Ishchi kuchi safarbarligini oshirish

uchun (shu jumladan, mintaqalararo migratsiyani ham) davlat subsidiyalar va kreditlar ajratishi mumkin.

Ish bilan bandlik sohasidagi siyosat O‘zbekistonda hali yetarli darajada samarali emas. Bu ishsizlikning avvalambor, oshkora ko‘rinishi uning ta’sir ob’ekti ekanligida o‘z ifodasini topmokka. Ishsizlarning barcha toifalarini, jumladan, «yashirin ishsizlar»ni qo‘llab-quvvatlash vazifasini o‘z zimmasiga olmaydi. 2001 yilda ana shu maqsadlar uchun aholining ish bilan bandligi jamg‘armasiga ajratilgan resurslar kam ekanligi oldindan ma’lum edi. Fuqarolarni ish bilan bandlik xizmatlarida ro‘yxatga qo‘yish qoidalarining murakkablashtirilgani davlatning ish bilan bandlik sohasidagi roli cheklanganligini ochib tashladi. Ish bilan bandlik turli hududlarda turlicha ekanligi, ish bilan bandlik jamg‘armalariga mablag‘ o‘tkazishdan bo‘yin tovlash, ishsizlik yuqori darajada bo‘lgan mintaqalarga mablag‘larni qayta taqsimlashning ta’sirchan mexanizmi yo‘qligi ahvolni mushkullashtirdi. Ish bilan bandlikka davlat ta’sirining yuqori darajasi aholining ish bilan bandlik jamg‘armasini shakllantirishdan voz kechish va 2001 yildan boshlab pul mablag‘larini ana shu maqsadlarga budjetda jamlash bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Ish bilan bandlikka yordam berishning samarali dasturlarini ishlab chiqish va joriy etish, ishsizlarga kasbga qayta yo‘naltirish yo‘li bilan yordam berish, yangi shart-sharoitlarga moslashtirish ham istiqbolli ahamiyatga ega.

Kamsitishlarga qarshi qaratilgan va migratsiya haqidagi qonun hujjatlari ish bilan bandlikka sezilarli ta’sir etmokka. Mehnat sohasida irqi, tanasining rangi, e’tiqodi, jinsi yoki millati bilan bog‘liq kamsitish O‘zbekistonda sobiq ittifoq davridayoq taqiqlangan edi. Boshqa mamlakatlarda bunday chora-tadbirlar anchagina keyin qabul qilindi. Masalan, AQSh da bir xil mehnat uchun erkak va ayolga haq to‘lashdagi farq 1963 yilga kelib bekor qilindi va fuqarolarning huquqlari to‘g‘risidagi qonun 1964 yilga kelib qabul qilindi. Mazkur qonun ish beruvchilarning xodimlarni yollash va ishdan bo‘shatish vaqtida yuqoridagi alomatlar bo‘yicha kamsitishlarni taqiqladi.

Migratsiyaga nisbatan qo‘laganda kamsitish haqida gapirish mumkin. Migratsiyaga nisbatan ikki qarama-qarshi nuqtai nazar mavjud. Ulardan biriga ko‘ra xorijdan qo‘shimcha ishchi kuchining oqib kelishi (ishchi kuchi odatda, rivojlangan mamlakatlarga oqib keladi). Iqtisodiy o‘ssish uchun qo‘shimcha imkoniyatlar beradi. Ikkinchi nuqtai nazarga qaraganda, xorijdan kelgan ishchi kuchi mahalliy aholidan ish joylarini tortib oladi, mamlakatni past malakali xodimlar bilan to‘ldirib yuboradi, millatlararo muammolarni keltirib chiqaradi. Mazkur nuqtai nazar chet elliklarning mamlakatga kirib kelishi uchun to‘siqlar kuchaytirilishiga olib keladi. Bunday to‘siqlar ba’zan kuchayadi, ba’zan

susayadi. Migratsiyadan keladigan umumiy foyda u yetkazadigan zarardan oshib ketadimi, yo‘qmi ma’lum shart - sharoitlarga bog‘liq.

Emigratsiya oqibatlariga immigratsiya oqibatlari qarama-qarshidir. Mamlakat mehnat resurslarini yo‘qotadi va ular ishlab chiqarishi mumkin bo‘lgan mahsulotlardan ayrilib qoladi. O‘tish davri iqtisodiyoti hukm surayotgan qator mamlakatlarda (shu jumladan, O‘zbekistonda ham) «aqlarning ketib qolishi» kuzatilmokda: olimlar, konstruktorlar, kompyuterchilar, tibbiyot xodimlari va hokazolar jo‘nab ketayapti. Davlat eng yuqori malakali kadrlardan ajralib qolmoqda, ularning o‘rniga o‘rinbosarlarini tayyorlash uchun qo‘shimcha mablag‘lar sarflashga majbur bo‘lmokda. Shu bilan bir qatorda agar mamlakatda ishchi kuchi haddan tashqari ortiqcha bo‘lsa, uning xorijga o‘tib ishlashi foydalidir. Chunki mehnat bozorida muvozanatga erishilishini ta’minlaydi. Ana shu shar-sharoitlarni inobatga olib, mamlakat nafaqat immigratsiyani, shu bilan birga, emigratsiyani ham tartibga solib turishi zarur.

Ish bilan bandlik sohasidagi davlat faoliyatining yana bir yo‘nalishi maorif va kasb-hunar tayyorgarligi, odamlar kapitaliga investitsiyalardir. Ushbu yo‘nalish strategik ahamiyatga ega bo‘lib, ijtimoiy yo‘naltirilgan davlatning asosiy belgisi hisoblanadi.

Odamlarni maorif tizimiga jalb qilish o‘z-o‘zidan bozorda mehnat taklifini kamaytiradi, buning ustiga mehnat bozorida talab katta bo‘lgan kasb-kor egalari tayyorlashni talab qiladi. Mehnat unumdorligi bilim saviyasiga bog‘liq. Bu demak, mahsulotning jahon bozoridagi raqobatbardoshligi ham shu bilan belgilanadi.

**Mehnat shart-sharoitlarini tartibga solishda davlat xodimlar hayotlarini yoki oilalarining hayotini xavf ostida qoldirmaslik kerak, degan g‘oyadan kelib chiqadi.** Shuning uchun u davomiyligi maromida bo‘lgan mehnat sharoitlarining majburiy me‘yorlarini joriy etishi; ish beruvchilarga ishchilarni texnika xavfsizligi vositalari bilan ta’minlashni, ishchilarga esa, xohish-istaklaridan qat’i nazar, ana shu vositalardan foydalanish majburiy, deb tavsiya etishi mumkin. Ishga necha yoshdan qabul qilish mumkinligi masalasi ham qonun yo‘li bilan tartibga solinadi: XMT konvensiyasi bo‘yicha majburiy maktab ma’lumotini olgan yoshlar (har holda 15 yoshdan kam emas) ishga qabul qilinishi mumkin.

O‘zbekistonda mehnatkashlarning sog‘lig‘ini saqlash va xavfsiz sharoitlarda mehnat qilish huquqi qonunlar bilan mustahkamlangan. Ammo ularga deyarli amal qilinmaydi. Mamlakatda ish beruvchilarni sog‘liqni saqlash va xavfsiz mehnat sharoitlarini ta’minlash bo‘yicha samarali chora-tadbirlarni ko‘rishga da’vat etuvchi iqtisodiy va huquqiy mexanizmlar hali



yaratilgan emas. Bundan tashqari mehnat muhofazasi sohasida amal qilayotgan iqtisodiy va huquqiy munosabatlar tizimi davlatga va ish beruvchilarga mehnatni muhofaza qilish borasida suiste'mollarga yo'l qo'yish imkonini beradi.

Jahon tajribasining guvohlik berishiga ko'ra, mehnat muhofazasining samarali milliy tizimi yaratilishi mehnat muhofazasining davlat dasturi ishlab chiqilishi, o'zaro muvofiqlashtirilgan huquqiy institutlar tizimi shakllanishi, murakkab ijtimoiy infratuzilma (texnika va mehnat sharoitlari ekspertizasi, tibbiy diagnostika va davolash, ijtimoiy va kasbiy rehabilitatsiya)ning rivojlantirilishi bilan bog'liq. Bu hamisha murakkab moliyaviy huquqiy, tibbiy, texnik va tashkiliy masalalarning hal etilishni talab qiladi. Davlatning mehnat bozoridagi faoliyati u serqirra xususiyatga ega. U amalga oshirilmas ekan, shuni nazarda tutish kerakki, davlat faoliyati bozor mexanizmini cheklashi bois, uning xarakteri qarama-qarshi xususiyatga ega. Davlat faoliyati iqtisodiy samaradorlik bilan ziddiyatga kirishmasligi, davlatning bozor mexanizmiga aralashuvi minimal me'yordan oshmasligi lozim.

Mehnat bozorini tartibga soluvchi boshqa bir sub'ekt **kasaba uyushmalari** hisoblanadi. Ularning asosiy vazifasi o'z a'zolarining pul bilan bog'liq; va pul bilan bog'liq bo'lmagan shart-sharoitlarini yaxshilashdan iborat. Jahon amaliyoti guvohlik berishiga ko'ra, kasaba uyushmalari ikki xil bo'ladi: mashg'ulot turidan kat'i nazar ma'lum bir tarmoq xodimlarini birlashtiruvchi tarmoq kasaba uyushmasi va bir kasbdagi xodimlardan tarkib topgan sex kasaba uyushmasi. Kasaba uyushmalari mehnat bozorida bitimlar tuzilayotgan vaqtda yollanma xodimlar manfaatlarini himoya qilib, o'z xodimlarining yuqori ish haqi va boshqa xil mukofotlar olishiga, qulay mehnat sharoitlarida ishlashiga, ish bilan bandlik kafolatlariga va hokazolarga erishadilar.

Shu o'rinda eng muhimi – ish beruvchilar bilan bitimlarni ishlab chiqishdir. Ular bitim, yoxud jamoa shartnomasi, deb nomlanadi. Ularda qayd etilgan qoidalar har ikki tomon (ish beruvchi va xodimlar) uchun majburiydir.

Kasaba uyushmalari ish beruvchilarga ta'sir o'tkazishning yana bir qudratli vositasi – ish tashlashlar o'tkazish huquqiga ega. Ish tashlash ishlab chiqarish jarayonining to'la yoki qisman to'xtatilishni taxmin qiladi. Ish tashlash hammaga – xodimlarga ham (ish haqi olishmaydi), ish beruvchilarga ham (foyda va xaridorni boy berishadi), umuman jamiyatga ham (zarur mahsulot olinmaydi) zarar keltiruvchi so'nggi choradir.

Kasaba uyushmalarining faoliyatiga qarama-qarshi nuqtai nazarlar mavjud. Ulardan biriga ko'ra, kasaba uyushmalari – bozor kuchlarini cheklash va xaridorga (ish beruvchiga) o'z irodasini o'tkazish imkonini beruvchi

monopoliyaning bir ko‘rinishidir. Ikkinchi nuqtai nazarga ko‘ra, ular mehnatkashlarning moddiy ahvoli va ijtimoiy muhofazasini yaxshilashga muhim rol o‘ynaydi.

To‘g‘ri, kasaba uyushmalarining talablari ba‘zan samaradorlik manfaatlariga zid bo‘ladi. Ammo yana bir narsa, shak-shubhasiz kasaba uyushmalari xodimlarning umumiy nuqtai nazarini ish beruvchilarga yetkazish yo‘li bilan eng maqbul yechimlar topishga xizmat qilishi mumkin. Ustiga-ustak jamoa shartnomalari tuzilganidan so‘ng kasaba uyushmalari ana shu shartnomalarni bajarishda yordam beradilar va shu yo‘l bilan mehnat unumdorligi o‘shiga xizmat qiladilar.

Mehnat munosabatlari xarakteridagi o‘zgarishlar manfaatlarni muvofiqlashtiradi, mehnat bozorida samarali yechimlar ishlab chiqilishini taxmin qiladi, bunga ko‘pincha ijtimoiy sherikchilik evaziga erishiladi.

### **27.6. Ijtimoiy sherikchilik**

Ijtimoiy sherikchilik nazariyasi va amaliyoti urushdan keyingi yillarda G‘arbda tarkib topdi (avvalambor, gap G‘arbiy Yevropa va Skandinaviya mamlakatlari haqida bormoqda). So‘nggi yillarda sherikchilik amaliyotini o‘zlashtirish O‘zbekistonda ham kechmokda.

Mehnat bozorida bitimlar (boshqa har qanday bozorda bo‘lgani kabi) shartnoma, ahdnoma, bitim (ushbu atamalarning hammasi aslida sinonimlardir) ko‘rinishida rasmiylashtiriladi. Shartnoma og‘zaki va yozma, oz yoki ko‘p darajada puxta ishlab chiqilgan bo‘lishi mumkin. Ammo aynan shartnoma ko‘rinishi bozor munosabatlari uchun tabiiy hisoblanadi. U bitimning ko‘ngilliligiga, murosa izlash kerakligiga, xaridor va sotuvchining qarama-qarshi manfaatlarini (mehnat bozorida – ish beruvchi va yollanma xodim manfaatlarini) uyg‘unlashtirilishi lozimligiga ishora qiladi.

Ijtimoiy sherikchilik mehnat bozorida munosabatlarning shartnomali xususiyatini saqlab qoladi va rivojlantiradi, shu bilan birga, butun tarix mobaynida ana shu bozorda tarkib topib kelgan shartnoma munosabatlaridan sifat jihatidan farq qiladi. Endi gap ish beruvchi va yollanma xodimning manfaatlarini shunchaki muvofiqlashtirish imkoniyati haqida emas, ana shu manfaatlar umumiylikning mavjudligi haqida bormoqda. Bunday umumiylikning ob‘ektiv asosi – iqtisodiy o‘sh va uning natijalarini ish beruvchi bilan xodim o‘rtasida taqsimlashdir. Sherikchilik tufayli mehnat bozorida munosabatlar xususiyati o‘zgarib bormoqda. Ijtimoiy sherikchilik manfaatlar umumiylikni qayd etar ekan, ishlab chiqarishni rivojlantirishdan faqat ish beruvchi emas, xodim ham manfaatdor ekanligini, bu demak, bunday rivojlanish yo‘lini ular birgalikda izlashlari, ularni amalga oshirish borasida

hamkorlik qilishlari, shu asosda hayotga o'z manfaatlarini to'laroq joriy etishlari lozimligini anglatadi.

Ijtimoiy sherikchilik nazariyasi va amaliyoti sinfiy kurash mafkurasi va amaliyotiga qarama-qarshi turadi. Ular uzoq tarixiy davr mobaynida shakllanadigan, sinfiy ko'rash yetkazadigan yo'qotishlar ko'lami (ayniqsa, bu kurash ashaddiy xususiyat kasb etganda), shuningdek, qarama-qarshi mafkuralarning cheklanganligi ma'lum bo'lganida shakllanadigan yangicha fikrlash tarzini taxmin qiladi. Shu bilan birga, ijtimoiy sherikchilikka rosmiyan erishish uchun ishlab chiqarishning yuksak rivojlangan darajada bo'lishining zarurligi ayondir. Ijtimoiy sherikchilik – aralash iqtisodiyot ijtimoiy yo'nalishining muhim tarkibiy qismidir.

Ijtimoiy sherikchilikni amalga oshirish va usullarini takomillashtirish «uchpartiyalilik» g'oyasiga olib keldi, unga ko'ra ijtimoiy sherikchilik uch sub'ektning: davlat, ish beruvchi va xodimning hamkorligi bilan ta'minlanadi. Ish beruvchi va xodim o'rtasidagi muzokaralarda davlatning bevosita ishtirok etishi shart emas (agar u ishtirok etgan bo'lsa, uch tomonlama bitim rasmiylashtiriladi). Ammo davlat organlari muzokaralarda bevosita ishtirok etmasa ham davlat barcha hollarda «o'yin qoidalari»ni ishlab chiqaradi, tegishli mo'ljallarni belgilaydi, hakam va erishilgan bitimlarning kafolati rolini ado etadi.

Ushbu bitimlar turli: umummilliy, mintaqaviy, tarmoq, alohida firma darajasida tuzilishi mumkin. Bunda xodimlar nomidan kasaba uyushmalari yoki xodimlar tomonidan ma'qullangan vakillar, ish beruvchilar nomidan esa, ularning ittifoqlari yoki uyushmalari ish yuritadi.

Ijtimoiy sherikchilik va uch tomonlama hamkorlikning asosiy sub'ektlarini qonun yo'li bilan rasmiylashtirish O'zbekistonda 1992 yil O'zbekiston Respublikasi mehnat munosabatlari tizimiga kirganidan so'ng boshlandi. Ijtimoiy sherikchilikni rivojlantirish uchun bosh bitimlar mehnat haqi darajalari, nisbatlari, tabaqalashuvi bo'yicha aniq kelishuvlarni o'z ichiga olishi, bitimlarga kiritilgan qoidalarining bajarilishi uchun tomonlarning mas'uliyati qonun yo'li bilan mustahkamlangan bo'lishi kerak.

Hozir ko'pgina korxonalarda (ayniqsa, xususiy korxonalarda) jamoa shartnomalari umuman tuzilmaydi, mavjud shartnomalar ham yuzaki xarakterga ega, bunday ahvolning sabablari har xil. Ijtimoiy sherikchilikning huquqiy bazasini shakllantirish nihoyasiga yetkazilmaganligi, sherikchilik sub'ektlarining borasidagi noaniqlik shular jumlasidandir. Masalan, ish beruvchilar va xodimlar (kasaba uyushmalaridan kay biri, kasaba uyushmalari bo'lmagan holda qanday vakolat organi) nomidan aniq kim ish yuritishi hali ham qonun yo'li bilan aniqlangan emas. Ammo muhimi, ijtimoiy sherikchilik

qatnashchilarini rasmiy aniqlashda emas, mehnat munosabatlari sub'ektlarini unga muvofiqligi darajasidadir.

Iqtisodiyotni rivojlantirish uchun mehnat bozori munosabatlari barcha sub'ektlarining mas'uliyatini aniqlash va idrok etishning murakkab jarayoni kechmoqda.

Mehnat bozorining oyoqqa turishi hozir o'zining asosiy bosqichiga kirib boryapti, mehnat bozori asosiy sub'ektlari, mexanizmlari va boshqa barcha zarur institutlarining shakllashishi aslida shu bosqichda yakunlanishi kerak. Ana shu institutlar qatoridan ijtimoiy sherikchilik, ijtimoiy mehnat munosabatlarini rivojlantirish masalalari o'zaro kelishib, nizosiz hal etilishi uchun tomonlarning o'zaro mas'uliyali tizimi muhim o'rin egallaydi.

### **Qiqacha xulosa**

Ish haqi – bu ishchining mehnati va ish kuchidan foydalanganligi uchun to'langan mehnat haqi yoki ishlab chiqarishning eng asosiy omili bo'lgan mehnatning narxi. Uning o'lchami butunlay bir qator omillar bilan aniqlanadi, bulardan yettitasini ajratish mumkin.

1. Ish kuchining qiymati – bu insoning yashash hayotini ta'minlovchi vositalarining qiymati va ishchining mehnat qobiliyati.

2. Mehnatning miqdori va sifati – bu alohida ishchining ish haqining darajasini aniqlaydi. Bozor iqtisodiyotida yollangan mehnat munosabatlariga mehnat bo'yicha yondashish.

3. Mehnat unumdorligining o'sishi – bu deganimiz mehnatga haq to'lash ham yuqori darajada bo'lishi kerak. Albatta, mehnat unumdorligi o'zining to'langan haqiga qarganda tezroq o'sishi shart.

4. Ishchining malakasi va mehnat xarakteri – masalan, qo'shimcha uzoq muddatli bilim olishni talab qiladigan, murakkab mehnat yuqori darajada ish haqi to'lashni talab qiladi.

5. Mehnatga haq to'lashning asosiy etibori kelgusi omilga – ish haqining umumlashgan darajasiga qaratilgan. Hozirgi vaqtda mehnatkash kishiga ish haqining barcha summasi individual ko'rinishda to'lanadi. Uning bir qismi (bir qator mamlakatlarda juda ham) davlatning ijtimoiy iste'mol fondlari orqali minimal pensiya ta'minoti va muhtojlikda yashovchilarga yordam, tekin yoki imtiyozlar, tibbiy va umumta'lim xizmatlari va boshqalar ko'rsatiladi.

6. Bir xil mamlakatlarda ish haqi to'lashga ta'sir etadigan omillar, jumladan, millati, jinsi va dini kabilar uchrab turadi. Albatta, ish haqi stavkasining bunday belgilarga qarab tabaqalashgan, demokratik jamiyatda ishchilarga ish haqini to'lashda kamsitish, tahqirlash kabilar yo'l qo'yilmaydigan xatoliklardir.

7. Mehnat bozorida kon'yunktura ham ko'p lahzalarni aniqlab beradi: ish kuchiga talab va taklif o'rtasidagi o'zaro nisbatlar, bo'sh lavozimlarni egallashda davogarlarni o'rtasida raqobatning keskinlashuvi va boshqalar.

### **Asosiy tayanch atamalar**

Ish haqi.

Nominal ish haqi.

Real ish haqi.

Ishbay ish haqi.

Vaqtbay ish haqi.

Mehnat bozori.

### **Ma'ruzalar bo'yicha na'munaviy savollar**

1. Ish haqining iqtisodiy mazmun va mohiyati.
2. Ish haqining shakllari va turlari.
3. Ish haqini aniqlaydigan omillar.

### **Seminar darslarida muhokama qilish uchun savollar**

1. Ish haqi ishlab chiqarish omillarida mehnatning narxi sifatida.
2. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ish haqining o'zgarishi va uning xususiyatlari.
3. Nominal va real ish haqidagi farqlar.
4. Ish haqining mehnat va kapitalning iqtisodiy mazmuni va mohiyati.

### **Mustaqil ta'lim uchun savollar**

1. Ish haqining iqtisodiy mazmunini aniqlab beradigan omillar.
2. Inson kapitali va uning ish haqiga iqtisodiy ta'siri.
3. Ish haqini tartibga solishda davlatning roli.
4. Mehnat bozori va uning xususiyatlari.

## **28 BOB. AGRAR MUNOSABATLAR VA AGROBIZNES**

Qishloq xo‘jaligini isloh qilish va oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash masalalari, hech shuhbasiz, biz uchun eng muhim vazifalardan biri bo‘lib qoladi. Eng avvalo, agrosanoat kompleksi va uning lokomotivi, ya‘ni harakatga keltiruvchi kuchi bo‘lgan ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklarni izgil rivojlantirishga katta e‘tibor qaratiladi.

### **Shavkat Mirziyoyev**

1980 – 90 yillar orasida davlatning agrar ishlab chiqarish tizimi o‘zining imkoniyatlarini tugatdi. Ishlab chiqaruvchilarni oldingi hajmda pul bilan ta‘minlashga endi imkoniyat bo‘lmay qoldi, buning uchun kerakli resurslar tugallandi, kelajakda ularning paydo bo‘lishiga umid qilmoq foydasiz bo‘lib qoldi. Agro oziq-ovqat sohasini tubdan isloh qilish zarurati paydo bo‘ldi.

Hozirgi vaqtda agrar islohotning har qanday yo‘nalishida mamlakatda mavjud qishloq xo‘jaligiga ham, qishloq aholisining aqliy yo‘nalishiga ham jamiyat va xo‘jaliklarning qayta qurilishiga va muvofiqlashuvi konsepsiyasiga butunlay asoslangan iqtisodiy, huquqiy, tashkiliy texnologik, ijtimoiy va mafkuraviy choralari tasavvur etadi.

Shu bilan birga, agrar islohot – bu agrar munosabatlarning o‘zgarishi jarayonlari, agrosanoat ishlab chiqarishning barcha tizimining transformatsiyalashuvi, agrar tuzilishni jiddiy qayta qurish va xo‘jalik, ishlab chiqarishining iqtisodiy va huquqiy usullaridir.

Bu yerda asosiy agrar sohasidagi ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, oziq-ovqat xavfsizligini va ishlab chiqariladigan mahsulotning ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardoshligini ta‘minlashdan iboratdir.

Qishloq xo‘jaligi korxonalarini isloh qilishdagi maqsadlarda quyidagilar ajratiladi:

Agrar sohada yerdan ishlab chiqarish vositalaridan uzoqlashib, begonalashib ketishiga bardosh berib ustunlik bilan o‘nga yaqinlashish va hatto ishchilarning, dehqon-fermerlarning mulkchilik bilan qo‘shilib ketishi, bular asosida yangicha, ko‘proq qishloq xo‘jaligi korxonalari ichidagi mexanizmlarning samaradorligiga erishish sabablarini shakllantirish bilan bog‘liqdir.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini nafaqat ishlab chiqarish, balki katta ishlov berishga va realizatsiya qilish maqsadlariga qaratilgan, ularning bo‘limi hamda xo‘jaliklarini kuchli ravishda bozorga mo‘ljallashdan iboratdir.

Bozor sharoitlarda minimal va maksimal foyda olish maqsadiga muvofiq ishlab chiqarishda tizimli qayta qurishni amalga oshirish lozim.

Mamlakatimizda mustaqillikka erishilgan 1991– 1993 yillardan boshlab qishloq xo‘jaligini isloh qilish konsepsiyasida islohotning pirovard maqsadi sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- qishloqni ijtimoiy qaytadan qurish, aholining hayot darajasini ko‘tarish, dehqonlarning haqiqiy mulkchilikka ega bo‘lish bilan bog‘liq madaniyat va ma‘naviyatlarini tiklash;
- davlatning qaram bo‘lmagan mustaqil oziq-ovqat yetishtirishni ta‘minlash va samarali raqobatbardosh agrosanoat majmuasini shakllantirish;
- muvozanatdagi ekologiya‘ni qo‘llab-quvvatlash va tiklash;
- agro tizimni tubdan almashtirish;
- oziq-ovqat majmuasida ancha ko‘proq samarali ishlab chiqarish munosabatlarini tiklash;
- agro oziq-ovqat sohasiga buyudjet talabini kamaytirish.

### **28.1. Agrar islohotlarning asosiy bo‘g‘inlari**

Agrar islohotlarning amalda asosiy bo‘g‘inlari quyidagilardir:

- er islohoti;
- qishloq xo‘jaligida mulkchilikni xususiylashtirish, jamoa va har xil turdagi xo‘jalik bilan birga transformatsiyalashuvi;
- ASMning har xil (qishloq xo‘jaligi uchun ishlab chiqaruvchi vositalarini va tayyor mahsulotlarni qayta ishlab chiqarish va realizatsiya qilishdir) sohalarida mulkchilikni xususiylashtirish;
- qishloq tovar ishlab chiqaruvchilarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashda narx belgilashni, soliqqa tortishni, kreditlashni, sug‘urtalashni o‘z ichiga oldigan bozor xo‘jaligi mexanizmlarini yaratishdir.

#### **Yer islohoti**

Agrar islohotlarning asosiy tarkibiy qismi bo‘lgan yer haqidagi gap yuritadigan bo‘lsak, yer islohotini yerga bo‘lgan munosabatlar jarayoni sifatida yer uchastkalariga egalik qilishni, foydalanishini va tasarruf etish munosabatlarini o‘zgartirish maqsadida yer resurslaridan foydalanishda, iqtisodiy samaradorlikni, ekologik xavfsizlikni oshirishda, yerdan foydalanuvchilarni va mulkchilik huquqini himoya qilishni, yer oborotlarini tartibga solishni ta‘minlashni o‘z ichiga oldi.

**Yerga bo‘lgan munosabatlar** – bu fuqarolar, huquqiy shaxslar, o‘z-o‘zini boshqaruvchi mahalliy organlar va yerga egalik qilish, foydalanish va

tasarruf etish bo'yicha davlat hukumatining tashkilotlari orasidagi munosabatlarni anglatadi.

Yerga bo'lgan mulkchilik munosabatlari barcha agrar tizimidagi munosabatlarning yetakchi markazi (shu bilan bir qatorda, xo'jalik shakllari va dehqonlarning hamda ularning birlashmalarning hayotiy faoliyati uchun zarur, ayriboshlov, taqsimlash va iste'mol sohasidagi munosabatlarni o'z ichiga oladi) bo'lib hisoblanadi.

Yer islohoti yerga egalik qilish va yerdan foydalanish islohotlarini o'z ichiga oldi.

**Yerga egalik qilish islohoti** – bu yerning bitta yer egasidan boshqasiga qayta taqsimlashni (harakatini) bildiradi. Shu bilan birga, yerdan samarali foydalanish tamoyillari saqlanadi (erning unumdorligini qo'llab-quvvatlashda ishlab chiqarishning o'sishi).

**Yerdan foydalanish islohoti** – bu yerda dehqonlarga foydali bo'lishi uchun shunday xo'jalik yuritish qoidalarini o'rnatish taxmin qilinadi. Ya'ni xo'jalik yurituvchilar bilan ularning munosabatlari o'zaro foydali va iste'molchilar uchun maksimal ravishda qulay bo'lishi kerak.

Bu yerda islohot mexanizimi bo'lib ishlab chiqaruvchilar o'zlarining ishlab chiqargan mahsulotlariga ishlab chiqarishda foydalaniladigan vositalariga va nihoyat yerga bo'lgan munosabatlar qoidalarini bosqichma-bosqich ko'paytirishlari shart bo'ladi.

Hozirgi vaqtda yangicha yerdan foydalanish tizimi shakllandi, ya'ni bu yerga mulkchilikning har xil shakllari bilan bog'liq uchta yetakchi sohalarining mavjudligi bilan xarakterlidir.

**Davlatga oid**, ya'ni buning asosiysi yerga davlatning mulkchiligi tashkil etadi.

**Nodavlat qishloq ho'jaligi tashkilotlari** asosida xususiy, umumiy birgalikda yoki umumiy hissali mulkchiliklari yotadi.

**Aholi xo'jaliklari** bu yerda xususiy yakka tartibda mulkchilik yoki umrbod merosga o'tish bilan egalik qilishdir.

Davlat sektorining qishloq xo'jalik yerlarida salmog'i (doimiy qishloq xo'jaligi mahsulotlarini olish uchun foydalaniladigan yer uchastkalari) 1991 yil boshidan 50% dan 15–20% gacha 2000 yil boshlariga kamaytirildi. Nodavlat qishloq xo'jaligi tashkilotlari 2000 yillarda 70% dan oshib ketdi. Qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanuvchi aholi xo'jaligi sektori 1991 yilda 2%dan 2000 yillarda 20% gacha oshdi.

O'zbekiston fuqarolarning katta qismi yer uchastkalari olish huquqiga ega bo'ldi. 2 milliondan ko'proq oilalarda har xil huquqiy asoslarda yer uchastkalariga ishlov berish imkoniyatlari yaratildi. Mamlakatda 20 mln.ga



yaqin kishilar qishloq xo‘jaligi korxonalarining yer badaliga ega bo‘ldi. Yer tufayli oilalarning notural va puldagi doromadlari o‘sib kelmoqda. Ijaraga bergan yer hissasi, ijara to‘lovini olib keladi. Shunday qilib, yerga bo‘lgan xususiy mulkchilik amalga oshirilmogda.

### **Agrar sohani isloh qilish muvaffaqiyatli shartlari**

Asosiy tashkiliy huquqiy xo‘jalik shakllari bo‘yicha yerdan foydalanish tuzimlari o‘zgarimoqda.

Albatta, qishloq xo‘jaligini isloh qilish yer islohoti bilan chegaralanib qolmaydi faqat yer munosabatlarini tartibga solish yetarli emas. Sababi, yer faqat qishloq xo‘jaligidagi manbalardan bittasi, garchand juda ham ahamiyatli. Huquqiy normalar talabiga muvofiq ijtimoiy adolatlilikni va yerning boshqa mezonlarini taqsimlash mumkin. Ammo baholash masalasini texnikaviy ta‘minotni hal qilmasdan, servis xizmatini tuzatmasdan, infrotuzilmani yaratmasdan hech narsaga erishib bo‘lmaydi.

Yer masalasini hal etishga o‘rinish shunga muvofiq agro oziq-ovqat sektorining boshqa muammolarining rivojlanishini tartibga solmasdan barbod bo‘lishiga olib keladi. Qishloq xo‘jaligining ishlab chiqarish nuqtai nazaridan qaraganida uning asosi yer, ammo uning samarali rivojlanishining yagona omili emas. Buning uchun ham yetarli kapital, zamonaviy texnika va texnologiya, biologik asos, ishlab chiqarish va ijtimoiy infrotuzilma hamda yerga ega bo‘ladigan qo‘lidan ish keladigan, layoqatli yoshdagi manfaatdor tajribali ishchi kerak.

Agrar islohotlar mexanizmining tarkibiy qismi bo‘lib, dehqonlarning huquqiy holatini va bozor sub’ektlarining boshqa aholini o‘zgarishi asta-sekin muvofiqlashadi. Agar bu jarayonlar barobar ketmasa, unda dehqonning katta erkin xo‘jaliklarga ega bo‘lgan sherikchilari undan katta foyda olish maqsadida qishloq xo‘jaligi uchun umumiy mahsulot ishlab chiqarishda uni imkoniyati boricha majburlaydi.

### **28.2. Agro sanoat majmuasida turli tuman shaklda xo‘jalik yuritish**

**Xo‘jalik yuritish shakllari.** Islohotlarning boshlanishida asosiy muammo qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini asosan, ishlab chiqaruvchi sobiq ittifoqdan meros qolgan kolxoz va savxozlar bo‘lib, ularni bozor sub’ektlariga moslashtirish kerak edi. Mustaqillikka erishgandan keyin o‘sha vaqtda qabul qilingan qarorlarga muvofiq mamlakatning barcha kolxoz va savxozlarni tezda qayta tashkil etmoq shart edi. Bular quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- ishlab chiqargan barcha jamoalari amalda o‘sha vaqtgacha yerlarni va fondlarni jamoa mulki qilib olganlar. Bunday yerga egalik qilish tekin va shak-shubhasiz amalga oshirilgandi.

- barcha qo‘lga olingan fondlar, ishchilar, injinerlar orasida badal sharti bilan birga bab-barobar boshqa mol-mulkklar esa, aniq mezonlar bo‘yicha (qiymati va xo‘jalikda ishlagan) bo‘linishi kerak edi.

- badalga ega bo‘lgan har bir kishi tanlab olish huquqiga yoki o‘zining badalini notural olishga va o‘zining xo‘jaligini o‘zi erkin olib berishga yoki bu badalni jamoa xo‘jaligi bilan uning ishchisi bir bo‘lib, birga olishi mumkin edi.

Agrar tizimida qayta tashkillashtirish natijasida shunday xo‘jalik shakllarini tasavvur etish boshlandi:

- mamlakat darajasida davlat korxonalarining shakli;
- savxozlar yerga va mol –mulkka davlat mulki maqomi bilan;
- sovxozlar yerga va mol-mulkka davlat mulki bilan birgalikda unumli mulkka ega bo‘lish maqomi bilan;

- kolxozlar;
- ochiq turdagi hissadorlik jamiyatlari;
- yopiq turdagi hissadorlik jamiyatlari;
- mas’uliyati cheklangan jamiyatlar;
- aralash o‘rtoqchilik;
- kollektiv qishloq xo‘jaligi korxonasi;
- qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarish kooperativlari;
- dehqonchilik (fermer) xo‘jaligi;
- dehqonchilik (fermer) xo‘jaligi, o‘rtoqchilik kooperativ birlashmalari.

Bu institutsion qayta o‘zgarishlar (kollektivlashgan korxonalarni nisbatan maydalashtirish) ba’zi vaqtlarda shunday vaziyatlarga olib kelishi mumkinki, ya’ni egallab turgan maydoni va yer – suv tarkibi, moddiy-texnika bazasi bo‘yicha yangi paydo bo‘lgan xo‘jalik shakllari optimal ravishdla ixtisoslashgan, fondlar bilan jihozlangan, ish bilan ta’minlangan va boshqa ishlab chiqarish parametrlari bilan to‘g‘ri kelmasligi mumkin. Hozirgi vaqtda ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar bu salbiy oqibatlarga, yirik tovarli korxonalarining tashkiliy ishlab chiqarish va iqtisodiy-ijtimoiy infratuzilmalarning, xo‘jalik yuritishda ro‘y beradigan ichki aloqalarning muvozanatsizligiga va ishlab chiqarish samaradorligining pasayib ketishiga, mayda raqobatlashuviga qobiliyatsiz xo‘jalik shakllari paydo bo‘lishining buzishga olib keladi.

Islohotlar jarayonida institutsional o‘zgarishlar ko‘p ukladli, ya’ni uch guruhli tashkiliy iqtisodiy tuzilishni xarakterlaydigan shakllarga olib keladi. Bu korxonalar davlatga oid xususiy va aralash shakldagi mulkdorlardir. Bu ko‘rsatilgan guruhlarining har biri turli xo‘jalik shakllarini o‘z ichiga oladi.

O‘tish davri iqtisodiyotida har xil ukladlarning o‘zaro harakati ko‘pincha raqobatbardoshlik sifatida xarakterlanadi. Ular asosan parallel holatida bir-

biriga to'g'ri kelmaydigan raqib sifatida ko'rib chiqiladi. Shu bilan birga, komplemental bo'lgan qishloq xo'jalik korxonalarini va oilaviy xo'jaliklarning bir-birini to'ldiruvchilari e'tiborga olmaydi. Bozor munosabatlari bilan chambarchas bog'langan elementlardan biri bo'lib, ichki iste'molda esa, boshqa xo'jaliklarni mo'ljallangan iqtisodiy-ijtimoiy tizimlarini tasavvur etadi.

Qishloq xo'jalik korxonalarini va oilaviy xo'jaliklarning o'zaro bir-birini to'ldirishi birinchidan, ishlab chiqaruvchi kuchlarining rivojlanishiga yordam beradi; ikkinchidan, har bir ishlab chiqaruvchi birliklarning «jo'ziy» joylarini to'g'irlashga ijozat berishi mumkin. Bu yerda asosiy xulosa: xo'jalik sub'ektlarini isloh qilish bilan birga, ular o'rtasidagi ishlab chiqarish va iqtisodiy aloqalarni ham isloh qilishga to'g'ri keladi.

1. Komplemental – jamiyatning to'liq a'zosi (o'rtoqlik, kompaniyaga oid) o'zining barcha holati bilan cheksiz mas'uliyatga olib boradi.

### **Davlat korxonalarini**

Hozirgi vaqtda agror sektorda davlat korxonalarining ulushi 10–15% ga to'g'ri keladi. Davlat mulki bilan korxonalarini qayta tashkillashtirish munosabatida ularning barqaror qisqarishi sezilmoqda. Bozor sharoitida qo'llanilayotgan qayta tashkillashtirish choralari amaliyotda davlat sektorining qisqarishiga, ammo davlatning barcha tashkiliy ishlarini boshqarishga olib kelmoqda. Bu o'z navbatida ijobiy natijalarga nafaqat mahsulot ishlab chiqarish qobiliyati va fan-texnika tarqqiyoti, balki qishloqning rivojlanishida barcha ijtimoiy muammolarni hal qilishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Albatta, davlat mulkini bekor qilish dargumon mumkindir, sababi, bir tomondan u bugungi kundagi jamiyatning ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish darajasiga va xarakteriga to'g'ri keladi, boshqa tomondan esa ishlab chiqarishning va noishlab chiqarishning barcha turlari bo'lmagan faoliyatlar tijorat asosida amalga oshirilishi mumkin.

### **Shaxsiy yordamchi xo'jaliklar**

O'zbekistonning agrar iqtisodiyotida XX asrning oxirlarida va XXI asrning boshlarida shaxsiy yordamchi xo'jaliklarning (ShYoX) rivojlanishi deyarli xarakterlangan edi. Hozirgi kundagi ma'lumotlarga ko'ra, qishloq xo'jaligi aholisining 80–90% uchun daromadlarining asosiy manbasi shaxsiy yordamchi xo'jaliklar bo'lmoqda. Dehqon xo'jaligi ijtimoiy-iqtisodiy fenomen sifatida. Ko'pchilik olimlar dehqon xo'jaligida bir butunlikda olingan (qandaydir ijtimoiy qatlam sifatida), o'zining mavjudlik davrida har xil keskin joni qattiqlikda va vujudga kelishida qarshilik ko'rsatadigan, hayron qoladigan qobiliyat bilan murakkab ijtimoiy-iqtisodiy fenomen bo'ladilar.

1. Fenomen (grekcha «phainomenon» – bo'lmoq, paydo bo'lish) falsafiy hodisa- narsalarning tashqi obrazi, insonning bevosita sozlari qabul qila olishi.

2. Noyob odatdagidek bo‘lmagan hodisa, his-tuyg‘u tajribasi bilan payqaladigan hodisani anglatuvchi tushuncha.

Xo‘jalik yuritish, boshqarishda – bu iqtisodiy faoliyat shakli bo‘lib, bunda ishlab chiqarish ongli -ma‘noli ukladda, namunali turmushni qurish va mukammallashtirish maqsadi bularni bir butun birlashtirmoqda. Dehqonning namunali hayoti, ya‘ni qishloq xo‘jaligi iqtisodiy, demografik, madaniy va ekologik birgalikni tasavvur etishni ifodalaydi. Qishloq xo‘jaligida kuchli ijtimoiy-iqtisodiy, ma‘naviy va ekologik muammolar bundagi o‘zaro harakatlarga ancha e‘tiborsizlikda tug‘ilgan.

Dehqon xo‘jalik yuritishi ,uning boshqarish shakllarini erkin tanlab olish imkoniyatiga ega bo‘lishi shart, ya‘ni bular tabiiy-iqtisodiy sharoitlarning madaniy va tarixiy an‘analarining bir xil bo‘lmaganliklari sababli har xil bo‘lishi mumkin. Iqtisodiyot fani qishloq xo‘jaligini, umuman, agrar sektorni madaniyat kontekstida xo‘jalik dunyosi sifatida ko‘rib chiqadi, ya‘ni har bir xalqda va har qanday tarixiy davrda xo‘jalik yurituvchi jamiyatning tarkibiy qismi boshqa xalqlar va davrlarga qaraganda ular o‘rtasidagi munosabatlarda bo‘lishi kerak. Iqtisodiyot nazariyasi bu xususiyatlarini almashtirmog‘i, sezishi va tutmog‘i shart. Xo‘jalik xalq hayotining bir tomoni bo‘lib va xalq idrokining boshqacha paydo bo‘lishi hamda dunyoni bilish mumkinligi bilan bog‘liqdir. Bizni iqtisodiyot va statistika adabiyotlarimizda fuqarolarimizning shaxsiy xo‘jaligi va oilaviy dehqon xo‘jaligiga aniq mezon yo‘q. Hozirgi vaqtda xo‘jalik yuritish shaklidagi «shaxsiy yordamchi xo‘jalik» atamasini bir xil iqtisodiyot adabiyotlarida «**oilaviy mehnat dehqon xo‘jaligi**», deb nomlanadi. Bir guruh mualliflar hozirgi sharoitda oilaviy qishloq xo‘jaligi korxonalarini uchta harkaterli xususiyatini ajratadi:

- **Agrar firmalar** – mahsulot ishlab chiqarishga qaratilgan.
- **Mehnat xo‘jaligi** – oila mehnati kuchidan foydalanib, ish haqi olmoq.
- **Iste‘molchiga oid xo‘jalik** – iste‘molchi tovar va xizmatlariga talab qo‘ymoq.

**Shaxsiy yordamchi xo‘jaligi** o‘zining yoki ijaraga olgan ko‘chmas va (yoki) harakatdagi mol-mulkka ega bo‘lgan oila va oila a‘zolarining shaxsiy mehnatidan foydalanishga asoslangan qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini olib borish shakli. Shaxsiy yordamchi xo‘jaligini olib borishning asosiy maqsadi:

- shaxsiy yordamchi xo‘jalik a‘zolarining oziq-ovqatga bo‘lgan shaxsiy iste‘molini qondirish uchun qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish.
- Pul daromadini olish uchun ularni huquqiy va jismoniy shaxslarga sotish.
- Foydalanmoq.

Shaxsiy yordamchi xo‘jalikning quyidagi turlarini ajratish mumkin: – **iste’molchining xarakteriga oid** (o‘z oilasining shaxsiy talabini yoki qisman shahardagi qarindoshlarining talabini qondirish uchun mahsulot ishlab chiqarish);

– **mayda sanoatchilarga oid** (daromadlarni ko‘paytirish uchun qo‘shimcha mahsulotlarni sotish);

– **tovarga oid** (ShYoX harakatining asosiy maqsadi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini bozorga ishlab chiqarish).

Bu xo‘jalikning iste’molchi xarakteriga oid tovarga oidligiga qarab qishloq xo‘jaligidagi ijtimoiy mehnat muammolari har xil tarzda hal etilmoqda.

O‘zbekistonda hozirgi vaqtda aytarli darajada shaxsiy yordamchi xo‘jaliklar harakat qilmoqda. Mamlakat iqtisodiyotining agrar sektorida ShYoX jiddiy rol o‘ynamoqda.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining dastlabki kunlaridan boshlab qishloq xo‘jaligini rivojlantirish strategiyasi aniq-ravshan belgilab olindi. Mazkur strategiya zamirida qishloq xo‘jaligini diversifikatsiya qilish, paxta yakka hoqimligiga barham berish, yurtimiz aholisini oziq- ovqat mahsulotlari, birinchi navbatda, g‘alla-don bilan ta‘minlash, ya‘ni oziq- ovqat mustaqilligiga erishi vazifasi mujassam edi.

1998 yilda qishloqda faol inistitutsional o‘zgarishlar boshqichi boshlandi. Agrar islohotlar hamma joyda bozor munosabatlarini joriy etish va xususiy mulk shaklini rivojlantirishga qaratildi.

Zarar ko‘rib ishlayotgan hamda samarasi past jamoa va kooperativ xo‘jaliklari tugatilib, ularning yerlari hususiy fermer xo‘jalikliriga uzoq muddatli ijaraga yoki umrbod meros huquqi bilan dehqon xo‘jalikliriga berildi.

28.1 - jadval

**Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tarkibi<sup>14</sup> (%da)**

	2011	2015	2020
Barcha toifadagi xo‘jaliklar	100	100	100
Fermer xo‘jaliklari	34,7	30,7	28,2
Dehqon (shaxsiy yordamchi xo‘jaliklar)	63,0	66,9	67,4
Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	2,3	2,4	4,4

Oxirgi yillarda jadvalda ko‘rinishicha, qishloq xo‘jaligida ishlab chiqariladigan mahsulotlarning 67,4 shaxsiy yordamchi xo‘jaligiga to‘g‘ri

<sup>14</sup> O‘zbekiston Respublikasi yillik statistik to‘plam. 2011-2020. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. Toshkent 2021. B.143.

keladi. Qishloq xo‘jaligi korxonalarining ulushi ham o‘shish tendensiyasiga ega.

Qishloq xo‘jaligidagi korxonalarining hajmi kamayishi vaqtida aholi yordamchi xo‘jaliklari barqaror mahsulot ishlab chiqarishni kuchaytirmoqda.

### **Shaxsiy yordamchi xo‘jaliklarning vazifalari**

ShYoX yordamida kelgusi vazifalar hal etilmoqda.

- pasayish davrida – ShYoX aholini oziq-ovqat vazifalar hal etilmoqda;
- yangicha xo‘jalik yuritish sharoitida ShYoXning aholi bandligini va o‘z-o‘zi bandligini ta‘minlashda asosiy yo‘nalishlardan biri sifatida ko‘rib chiqish mumkin. Shu bilan birga, davlatning ishsizlikka qarshi ko‘rashishida budjet mablag‘larini sarflash uchun tejamkor bo‘lishi ham kerak.
- qishloq joylarda o‘zlariga xos madaniyatni va hayotni saqlab qolish va bu hududlarning ustidan ijtimoiy nazorat qilish.

### **28.3. Xo‘jalik shakllarining ixtisoslashuvi**

Har qanday agrar oziq-ovqat xo‘jalik shakllarining majmuasi o‘ziga xos ixtisoslashuvida mavjuddir. Don o‘rish va texnik ishlab chiqarishda asosiy jamoat xo‘jaliklarga tegishlidir, ShYoX esa, kartoshka, sabzavot, meva boshqalarni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Hozirgi kunda bir vaqtgacha olimlar tomonidan dehqonlar xo‘jaligini tushkunlikka uchragan holatdan olib chiqishga amaliy tasavvurlari o‘zining ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Ya‘ni xo‘jaliklar sotish uchun ikki yoki uchta bozor mahsulotlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan bo‘lsa, faqat shundagina ko‘tarilishi va mustahkam bo‘lishi mumkin.

### **Shaxsiy yordamchi xo‘jaliklarning samaradorligi**

ShYoXning samaradorlik muammosi ikki jihatga ega: ijtimoiy-iqtisodiy. O‘z navbatida **ijtimoiy** jihatdan ishlab chiqarishning samarali o‘shishi iqtisodiy rivojlanishning katta yo‘nalishiga va aholining farovonligini ta‘min etadi. **Iqtisodiy** jihati esa, xalq xo‘jaligi resurslarning ularga erishishi uchun minimal zarurligida maksimal pirovard natijaga erishishini aks etiradi. Bu ikki jihat aniq qarama-qarshilikda turadi. Vaziyatlar yuzasidan:

- ShYoXning ishlab chiqarishdagi potensialini o‘shishi. ShYoX ko‘pincha kelajakda rivojlanishning har xil baholanishi mavjuddir. Bir tomondan ShYoX boshqa shakldagi xo‘jalik yuritishga qaraganda afzallikka ega. ShYoXning imkoniyati haqida ularning yalpi ichki mahsulotda (YaIM) barqaror ulushini aytish mumkin. Bu induvudual qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish tizimining yuqori darajada moslashuvchanlik qobiliyatiga guvohlik qiladi;

- oila xo‘jaligi hamma vaqt mehnatga yuqori darajada erishishni xarakterlaydi. Uni agrar islohot bir aniq darajada amalga oshirishga yordam berdi. ShYoXda shaxsiy iqtisodiy manfaat agrar ishlab chiqarishda miqdoriy va sifatli o‘shish omilining parametri bo‘lmoqda. Ishchi o‘zi uchun mehnat qilganda u boshqaga emas, o‘z mehnat natijasiga qiziqish tug‘diradi. Buning oqibatida ishlab chiqarilgan barcha mahsulotga o‘zi ega bo‘ladi. Maksimal harakat ShYoX xo‘jalik shaklida manfaatga ijozat beradi, bir shaxs qo‘lida mulkdor – ham xo‘jalik egasi, ham ishlovchi birlashadi;

- shaxsiy xo‘jalikda ishlab chiqarilgan mahsulotlar ancha qismi davlat budjetining qo‘llab-quvvatlanishisiz davlat investitsiyasiz o‘tmoqda;

- qishloq xo‘jaligi u shunday sohaki, bu yerda hatto mukammallashgan texnika faqat mehnatni yengillashtirishi mumkin, ammo insonning o‘rnini bosa olmaydi. Bu yerda misollar ko‘p, qishloq xo‘jaligida oilaviy pudrat yer mahsulotlarining unumdorligini va chorva mahsuldorligini oshirishda ijtimoiy xo‘jalik miqdori bilan taqqoslanganda ikki barobar ko‘payganligi ma‘lum bo‘lgan.

Boshqa tomondan shunday nuqtai nazar ham mavjud, bunga muvofiq uning ahamiyati va ijtimoiy-iqtisodiy oqibati ShYoX iqtisodiy holatining o‘zgarishi butun iqtisodiyotni, qisman uning agrar sektorini ham tanazzul xarakterlaydigan tashvishli ko‘rsatkichi sifatida baholanadi. Boshqa MDH kabi O‘zbekiston uchun mayda sanoatchilarga xos bo‘lgan ishlab chiqarish qiyinroq yo‘nalishdir. Bizning qishloq xo‘jaligimiz yirik sanoatchilarga xos bo‘lishiga chaqiradi;

- qishloq xo‘jaligi yalpi mahsulotining tuzilishida ShYoX salmog‘ining o‘shishi qo‘l bilan bajariladigan texnologiyalardan foydalanishni kengaytiradi. Qishloq xo‘jaligida aholining barcha qatlamining og‘ir qo‘l mehnati bilan bandlikka olib keladi. Mehnatning murakkabli va butunlay buning uchun talab qilingan malaka oshirish siyosati qishloq xo‘jaligi uchun pasaytirilmoqda. Bu o‘z navbatida islohotlarning tarkibi sifatida texnika taraqqiyotiga yordam bera olmaydi. Bo‘sh vaqtning keskin pasayishi og‘ir jismoniy mehnat kuchining takror ishlab chiqarishning normal holatini buzadi, shaxsning o‘zaro mos holda rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi;

- kishilarning iqtisodiy manfaatining kollektiv xo‘jaligida yoki ShYoX ishlari o‘rtasida ikqilanish qishloq xo‘jaligidagi bandlikka ta’sir ko‘rsatadi. Yashash sharoiti sezilarli darajada ShYoXda ish yuritish vaqtini ko‘paytirishni talab qiladi va hatto ShYoXda ishlash kolektiv xo‘jalikda ishlashdan afzal ko‘rinadi. Bunday variantlar ham ishlab chiqarishga, ham shaxsiylikka ta’sir ko‘rsatadi;

- ShYoXdagi takror ishlab chiqarish kelgusi omillar bilan o‘zini tutadi:
  - qishloq korxonalarini tomonidan yordam yo‘qligi;
  - demograafik vaziyatlarning murakkabligi: qishloq joylarda oila a‘zolari miqdorining qisqarishi;
  - ijtimoiy infrotuzilmaning buzilishi oqibatida qishloq aholisi o‘rtasida kasallanishining o‘sishi;
  - ShYoX ijtimoiy va huquqiy holatining pastligi. Haligacha ShYoXning qonuniy holati aniqlanmagan, o‘z navbatida esa, bu segmentni davlatning qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish dasturiga kiritish rasman to‘siq bo‘lmoqda.

ShHYo rivojlanishining imkoniyatli yo‘nalishi kollektiv ishlab chiqarish bilan korporatsiya yoki integratsiyalashuvining mumkinchiligidir. Bugungi kunda ShYoX kollektiv xo‘jaliklar bilan o‘zaro harakatining mukammalashuvi dehqonlarning uy-joylarini qo‘llab-quvvatlanishining asosiy shaklidir.

2020 yilda ShYoXlar tomonidan kartoshkaning 77,6%, sabzavotlarning 62,4%, meva va rezavorlarning 56,2%, uzumning 56,4%i yetishtirilgan.

### **Fermer xo‘jaligi**

Kollektiv xo‘jaliklardan bo‘shatilgan ishchilarning katta qismi faqat ShYoXda band bo‘lmoqda. Demak, ShYoXlar haqiqatan yordamchi xo‘jalik bo‘lib qolishda to‘xtaydi. Bu oilaviy dehqon xo‘jaligi (dehqon, uy-joy, hovli) bo‘lib qolmoqda.

ShYoX yirik kollektiv xo‘jalik va xususiy dehqon xo‘jaligi (fermer) orasidagi holatni egallamoqda. Yuqori darajada ko‘p tovar mahsulot beradigan xo‘jalik (ularning salmog‘i 15–20%) mustaqil fermer xo‘jaligiga transformatsiyalanmoqda.

Fermer xo‘jaligi yirik oilaviy qishloqcha tipi sifatida shakllantirilishi mumkin.

Bugungi kunda fermer xo‘jaligining qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishda salmog‘i uncha katta emas, moddiy va moliyaviy resurslarining yetishmasligi sharoitida uning yuqori samaradorligi haqida gapirish to‘g‘ri kelmaydi. Fermer (dehqon) xo‘jaligida barcha texnikalarining 10% ga yaqin va 7,5% yer to‘plangan, ammo ular faqat 4–5% qishloq xo‘jaligi mahsulotini beradilar.


Fermerlik xo‘jaligi harakatini rivojlantirish uchun davlat tomonidan katta imtiyozlar berildi, xususiy fermer xo‘jaliklarining ekin maydonlarini maqbullashtirish, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, paxtaning tezpushar va serhosil navlarini yaratish, shuningdek, paxta navlarini har bir hududning tuproq-iqlim sharoiti va suv bilan ta‘minlanishi darajasini inobatga olgan holda rayonlashtirish bo‘yicha keng miqyosdagi ishlar amalga oshirildi.



Agrar sohadagi islohotlar natijasida xususiy fermer xo‘jaligining to‘liq iqtisodiy va moliyaviy mustaqilligini ta’minlaydigan va ularga meros huquqi bilan uzoq muddatga ijaraga berilgan qishloq xo‘jaligi yer resurslaridan maqsadli, oqilona va samarali foydalanishni rag‘batlantiradigan huquqiy shart-sharoit va kafolatlar yaratildi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksida fermer xo‘jaliklariga yer maydonlarini 50 yil muddatga ijaraga berish mustahkamlab qo‘yilgan.

Hozirgi vaqtda qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarishni moliyalashning bozor tamoyillariga to‘liq javob beradigan va fermer xo‘jalikliri uchun qishloq xo‘jalik mahsulotlarini sotishdan tushgan o‘z daromadlari hisobidan barcha xarajatlarni qoplashda moliyaviy mablag‘lardan foydalanish usuli va shaklini tanlashda ularning mustaqilligini ta’minlaydigan ishonchli tizim yaratildi.

Agrar sohadagi islohotlar qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida sezilarli ijobiy o‘zgarishlarga erishish – ishlab chiqarish hajmining o‘shishi, qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligi va chorva mahsuldorligining oshishi uchun zamin bo‘lmoqda.



### **28.1-chizma. Yalpi qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqarishda dehqon va fermer xo‘jaliklirining ulushi (%).**

O‘zbekiston olimlari tomonidan mustaqillik yillarida yuzdan ortiq ingichka va o‘rta tolali «Buxoro – 6», «S – 6524», «Namangan – 77», «An – Bayovut – 2», «Buxoro - 8», «Buxoro–102» kabi serhosil paxta navlarining yaratilishi hosildorlikni sezilarli darajada oshirish imkonini bermoqda. Ushbu navlar tezpisharligi, turli kasallik va qishloq xo‘jalik zararkunandalariga chidamliligi, yuksak tola sifati bilan ajralib turadi va jahon bozorida ularga

talab katta bo‘lmoqda. Qishloqda xususiy fermer xo‘jaligining talablari asosida barcha turdagi zarur xizmatlarni ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘lgan zamonaviy ishlab chiqarish va bozor infratuzilmasi jadal rivojlanadi. Shu davr mobaynida qishloqlarda 1424 ta mini bank, 1414 ta muqobil MTP, 2324 ta yoqilg‘i-moylash materiallari va mineral o‘g‘itlar sotish shahobchalari, 1711 ta suvdan foydalanuvchilar uyushmasi, 300 ta konsalting markazlari va boshqa infratuzilmalar tashkil etildi.

### 28.2-jadval

#### Qishloq xo‘jaligi ekinlari yalpi hosili<sup>15</sup> (ming tonna)

	2011	2015	2020
don ekinlari	7 054,0	8 173,5	7 636,0
paxta	3 500,0	3 361,3	3 064,0
kartoshka	1 855,1	2 586,8	3 143,8
sabzavotlar	6 828,8	9 390,0	10 431,1
poliz ekinlari	1 294,8	1 853,6	2 134,4

### 28.3-jadval

#### Qishloq xo‘jaligi yerlarining yerdan foydalanuvchilar bo‘yicha taqsimlanishi<sup>16</sup> (ming gektar)

	2011	2015	2021
<b>dehqon xo‘jaliklari</b>			
Qishloq xo‘jaligining barcha yerlari	500,6	500,4	530,9
Haydaladigan yerlar	421,7	420,7	437,1
Bog‘lar va uzumzorlar	78,9	79,8	93,8
Pichanzor va yaylovlar	-	-	-
<b>Fermer xo‘jaliklari</b>			
Qishloq xo‘jaligining barcha yerlari	5324,1	5248,8	4876,3
Haydaladigan yerlar	3603,0	3514,7	3184,1
Bog‘lar va uzumzorlar	286,8	293,4	281,9
Pichanzor va yaylovlar	1387,1	1407,5	1377,5

Qishloq xo‘jaligini isloh etish borasida aniq maqsadga qaratilgan ishlar natijasida quyidagi yutuqlarga erishildi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining yalpi hajmida asosan dehqon xo‘jaliklarida qoramollar sonining oshishi hisobidan chorva mahsulotlarining ulushi 1990 yildagi 36,6% dan 2020 yilda

<sup>15</sup> O‘zbekiston Respublikasi yillik statistik to‘plam. 2011-2020. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. Toshkent 2021. B.145.

<sup>16</sup> O‘zbekiston Respublikasi yillik statistik to‘plam. 2011-2020. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. Toshkent 2021. B.139-140.

50,5% ga yetdi, bu esa, go'sht ishlab chiqarish hajmining 789,1 ming tonnadan 2526,2 ming tonnaga (3 barobar ko'p), sutning 3034,2 ming tonnadan 11009,9 ming tonnaga (3 barobar ko'p), tuxumning 1231,8 million donadan 7825 million donaga (6 barobar ko'p) ko'payishi uchun samarali ta'sir ko'rsatdi;

– g'alla maydonlarini kengaytirish va hosildorligin oshirish natijasida boshqoli don yetishtirish hajmi 1990 yilgi 2038,2 ming tonnadan 2020 yilda 7566,6 ming tonnaga yetdi;

– 2020 yilda kartoshka – 3143,5 ming tonna, poliz mahsulotlari – 2134,4 ming tonna, meva – 2864 ming tonna, uzum – 1639,2 ming tonna yetishtirildi; – qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlashga ixtisoslashgan zamonaviy mini texnologiyalar bilan jihozlangan korxonalar tashkil etildi.

28.4 -jadval

### **Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish<sup>17</sup> (ming tonna)**

	<b>2011</b>	<b>2015</b>	<b>2020</b>
Don ekinlari	7054,0	8173,5	7636,0
paxta	3500,0	3361,3	3064,0
kartoshka	1855,1	2586,8	3143,8
sabzavotlar	6828,8	9390,0	10431,4
poliz	1294,8	1853,6	2134,4
Go'sht (tirik vaznda)	1564,2	2033,4	2519,6
sut	6766,2	9027,8	10976,9
Tuxum (mln.dona)	3441,7	5535,4	7781,2
jun	28,7	36,0	35,4
Qorako'l terilari (ming dona)	1022,3	1032,0	1152,1

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini yanada barqaro rivojlantirish, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, ularning unumdorligini oshirish va shu asosda qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligini ko'paytirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish maqsadida melioratsiya tizimlarini qurish va rekonstruksiya qilish chora-tadbirlarini amalga oshirishga kompleks yondashuvni ta'minlashga qaratilgan. 2008 – 2012 yillarda sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash davlat dasturi qabul qilindi. Mellioratsiya ishlarini moliyalashtirishning ishonchli mexanizmini ta'minlash maqsadida, Sug'oriladigan yerlarning melliorativ holatini yaxshilash jamg'armasi tashkil etildi. Yerlarning unumdorligini oshirish borasidagi ishlarni moliyalashtirish yo'li bilan qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilariga davlat yordamini ko'rsatish mazkur jamg'armaning asosiy vazifasidir.

<sup>17</sup> O'zbekiston Respublikasi yillik statistik to'plam. 2011-2020. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Toshkent 2021. B.145, 154.

Quyidagilar qishloq xo‘jaligida olib borilayotgan islohotlarning sifat natijasi tariqasida namoyon bo‘ladi:

– ishlab chiqarish samaradorligi oshdi – asosiy qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligi va chorva mahsuldorligi o‘sdi;

– xususiy fermer xo‘jaliklarida rentabellik ortdi va oziq-ovqat mahsulotlarini barqaror tarzda ishlab chiqarish masalasida mamlakatimiz oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlaydigan darajada ijobiy o‘zgarishlar yuz berdi.

#### **28.4. Qishloq xo‘jaligi kooperatsiyasi**

Dehqon xo‘jaligining harakat qilishida muqarrar ravishda qishloq xo‘jaligining kooperatsiyalashuviga olib keladi. Iqtisodiyot fani adabiyotlarida hozirgacha olimlar o‘rtasida «qishloq xo‘jaligi kooperatsiyasi», «xizmat ko‘rsatuvchi qishloq xo‘jaligi kooperativi» degan atamalarni talqin qilish bo‘yicha birdamlik bilan fikrdoshlik yo‘lga qo‘yilmagan.

Bir qator iqtisodchilar «kooperatsiya» so‘zining ahamiyatiga suyanib, (lotincha cooperation – hamkorlik) juda ham keng ma‘noda hamkorlikni ifoda etmoqdalar.

Boshqa olimlar kooperativ bu tadbirkorlikning mustaqil tashkiliy huquqiy shakli sifatida alohida o‘ziga xos xususiyatga egaligiga (ochiq a‘zolik, o‘zini-o‘zi boshqaruvchi, a‘zolarining teng huquqligi, rahbarlarning tanlovi va bo‘ysinishi va boshqalar) alohida qaralmoqda.

Ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish kooperatsiyalariga ajratiladi.

Ishlab chiqarish kooperativlari faoliyatining asosida ishlab chiqarish vositalarini kollektiv foydalanish, shu jumladan, yerni hamda ishlab chiqarish jarayonlarini umumlashtirmoq yotadi.

Kooperativ a‘zolarining asosiy yashash manbalari bunday kooperativlarda ishlash mehnatdan keladigan, tushadigan daromadlari bo‘ladi. Ishlab chiqarish kooperativlarning sherikchilar sifatida faqat jismoniy shaxslar chiqishi mumkin.

Kooperativlarga xizmat ko‘rsatuvchilar quyidagi faoliyat turlari bilan shug‘ullanadilar.

1. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarni qayta ishlash, saqlash va sotish;
2. Ishlab chiqarishni ta‘minlovchi, xizmat ko‘rsatuvchi (erlarga ishlov berish ekishga oid ishlarni yig‘im-terimga oid va boshqalarni olib berish kabilar). Bunday ishlab chiqarishga xizmat ko‘rsatish bilan yaratilgan mashina texnologik stansiyalar shug‘ullanadilar.

3. O‘zlarining kooperativ a‘zolarini kreditlash va sug‘urtalash hamda boshqa xizmat ko‘rsatish ishlari.

Kooperativlarga xizmat ko'rsatish a'zosi sifatida jismoniy va huquqiy shaxslar chiqishi mumkin.

### **Tarixiy ma'lumot**

«Iste'molga oid kooperativ» atamasi tarixdan ham chet davlatlarda ham o'zimizda iste'molchilar o'zlarining talab-ehtiyojini zaruratini qondirish maqsadida tomonidan kooperativlarni belgilashda foydalanish uchun belgilangan. Qoida bo'yicha bu iste'molga oid tovarlarni sotib olish edi. Bu yerda gap ishlab chiqarish sohasida emas, balki iste'mol qilish sohasi to'g'risida ketmoqda.

### **28.5. Qishloq kooperatsiyasi krediti**

Iste'molga oid kooperativlarning shakllaridan biri qishloq xo'jaligi kooperativ kreditlashdir. Hozirgi vaqtda bizning mamlakatimizda bozor iqtisodiyotining bugungi kun talablariga muvofiq barcha kredit tizimi mavjud, aynan qishloq xo'jaligiga xizmat qiladigan kredit tizimi ham mavjud. Ammo yetarli darajada emas, masalan, davlat tomonidan katta ahamiyat berishga bank kreditlari qisman qishloq tovar ishlab chiqaruvchilari uchun olingan ssudalarini o'z vaqtida to'lamaganligi tavakkalligini yomonlashtirish, og'irlashtirishga olib keladi va past daromad operatsiyalari oqibatining sifati bo'lib hisoblanadi. Shu bilan birga, qishloq kooperatsiya krediti katta rol o'ynaydi.

### **Qishloq kooperatsiyasi krediti tajriba sifatida**

Chet ellarda qishloq kooperativ kreditlash natijasida qishloq tovar ishlab chiqaruvchilarini kreditlash tizimining asosiy qismiga aylandi. Masalan, hozirgi vaqtlarda Niderlandiyada kooperativ kreditlash ulushi 90%, Fransiyada agrar sektorni kreditlash 70%, Yaponiyada 50%gacha, AQShda 26%gacha, Shvetsiyada, Finlyandiyada, Ispaniya, Portugaliya, Avstraliya, Italiya, Gretsiyada 30 dan – 50%gacha to'g'ri keladi. Qishloqlarni bunday shaklda kreditlash bugungi kunda katta muvafiqiyat bilan rivojlanib kelayotgan (Tailand, Indoneziya, Bangladesh va boshqalar) mamlakatlarda hamda o'sish iqtisodiyoti bilan rivojlanayotgan (Polsha, Sloveniya, Bolgariya) mamlakatlarda foydalanilmoqda.

O'zbekistonda qishloq kooperativ kreditlarning tiklanishini qishloqlarni moliya kreditlari bilan ta'minlash muammolarini hal qilishning yangicha noananaviy o'sish sifatida qarash qonuniylikdir.

2000 yildan boshlab O'zbekistonning barcha viloyatlarida, jumladan, Andijon, Farg'ona, Namangan, Samarqand, Buxoro, Navoiy, Jizzax, Sirdaryo, Surxondaryo, Qashqadaryo, Xorazm, Toshkent viloyatlarida hamda

Qoraqalpog‘iston Respublikasida ancha katta miqdorda kooperativlarni kreditlash tizimi harakat qilmoqda.

Qishloq kooperativ kreditlashning asosiy vazifalari quyidagicha:

1. Kooperativlarning qarzigina oid fondlarni shakllantiruvchi kooperativ a‘zolarining pul vositalari qo‘shilishi natijasida yaratilgan kapital;

2. Kooperativ a‘zolarining o‘zlari va bunga jalb etilgan vositalari hisobidan qarz berish;

3. Kooperativ a‘zolarining erkin pul mablag‘larini jamg‘arish.

Kapitalining shakllanishi majburiy (kooperativ a‘zolarining barchasi uchun teng va kooperativ faoliyatida qatnashish huquqini berish) va qo‘shimcha payokllarini ma‘lum vaqtga belgili miqdorda beriladigan oziq-ovqat to‘lash hisobiga ro‘y beradi. Kooperativ kreditlarni yig‘ilgan pul resurslari yig‘indisi buning uchun jalb qilingan qarz vosita asosi bo‘lib hisoblanadi. Payokli to‘lovlarni majburiy to‘lash (agar kooperativdan chiqishdigan bo‘lsa, to‘liq hajmda qaytariladi). Har bir kooperativ qo‘shimcha payokli to‘lovga ijozat beradi. Bu o‘z navbatida o‘zining to‘lagan payokli to‘lovi kelib chiqqan holda katta qarz edi. Faqat kooperativ payokllari kreditlardan foydalanish mumkin. Kirish to‘lovi (tashkiliy va joriy xarajatlarga sarflanadi) kooperativdan chiqishda qaytarilmaydi.

Kooperativ kreditlari o‘zining birinchi bosqichlarida harakat qilishidagi qisqa muddatli qarzlarni afzal ko‘radi. Payokllarga kredit asosan, ishlab chiqarish vositalarini – texnika va asbob-uskunalarini sotib olishga hamda binolarni sotib olishga yoki qurishning aylanma vositalariga beriladi. Kreditlar qo‘shilmagan moliyaviy zarurlarni hal etishda (vaqtincha ishni yo‘qotish, kasal bo‘lish, uni ta‘mirlash, ish haqining kechishi, ijtimoiy to‘lovlar va boshqalar) yordam beradi. Shu bilan birga, qishloq kooperativ kreditlarning faoliyati tarmoqlar agrar sektorida ishlab chiqarish samaradorligining o‘shishiga yordam beradi. Umuman, qishloq xo‘jaligining bozor iqtisodiyoti sharoitida uning xo‘jaliklari orasidagi kooperatsiyalarda ro‘y beradigan gorizontal, vertikal holatlariga hamda ishlab chiqarishga yordamchi va har xil mayda xunarmandchiliklarga qaratish lozim. Bular o‘z navbatida xo‘jaliklar faoliyatida iqtisodiy ko‘rsatkichlarni qishloq xo‘jaligi korxonalarining qo‘shimcha daromad manbalari hisobiga raqobatchilikni kuchaytirishni yordam beradi.

## **28.6. Davlatning agrosanoat majmualarini tartibga solish**

ASM davlatning tartibga solish zarurati. Hozirgi zamondagi tendensiyalar shundayki, bular har xil yo‘nalishlardagi omillarning to‘qilish usullari ro‘y beradi: bir tomondan rag‘batlantiruvchi, ikkinchi tomondan –agrosanoat

integratsiyasini va kooperatsiyalarning rivojlanishini to'xtatib turishi. Shu bilan birga, ushbu jarayonlarni davlat qo'llab-quvvatlab turishining zarurligi.

ASM yangi shakldagi rivojlanishi davlat tomonidan mayda dehqonchilik xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlab turishining zarurligi hamda qishloq joylarda ish o'rinlarini yaratish (masalan, qishloq yo'llarini va qishloq telekommunikatsiyalarini qurish dasturlarini moliyalashtirish yo'li bilan). Masalan, AQShda mayda oilaviy fermalar yo'qolib ketishi hukumatni juda ham tashvishga solindi, mayda fermerlarning yashashi uchun faol yordam bera boshladi (bu shunga qaramasdan mayda fermerlar ishlab chiqarish madaniyatining hosildorligi yiriklarga qaraganda uchdan bir qismi past bo'ldi). Oilaviy dehqon xo'jaligi nazariyasiga muvofiq, ba'zi davlatlarda XX asrning boshlarida faol ravishda olimlar tomonidan dehqonchilik muammolarini davlat o'zining barcha mahalliy organlari bilan birga hal qilishi ishlab chiqildi.

Shaxsiy va davlat xo'jaliklarini birlashtirish quyidagi sharoitlarni yaratishga qaratilgan:

- Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini shaxsiyatparast sektorlarda ishlab chiqishni rivojlantirishni rag'batlantirish;

- Kerakli joylarning ehtiyojlari uchun uni sotib olishni kafolatlash;

- Budjetni to'ldirish;

- Ishlamaydigan fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish.

Shu bilan birga, ko'pchilik iqtisodchilar tomonidan bu yerda asosan, inson va uning manfaati, ya'ni «ijtimoiy rentabellik» qo'yildi. Bunday agrar muammolarini hal qilishga yondashuv – inson manfaatining ustunligini tasdiqlash, haligacha o'zining muhimligini yo'qotmadi va bizning nazarimizda **davlatning hozirgi zamondagi agrar siyosatining asosiga qo'yilishi shart.**

**ASM davlatning tartibga solish mexanizmlari.** Birinchi navbatda, ASM yangi xo'jalik shakllari rivojlanishining huquqiy asosini yaratish zarurligi. Hozirgi zamon sharoiti ShYoXning agrar tarkibidagi huquqiy holatlarini ifodalash, bu yerda ham mamlakat bo'yicha, ham uning hududlari va viloyat-tumanlari darajasida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashdagi rolini ko'rsatishi shart. Buning uchun ShYoX uchun ham qonunlar qabul qilinishi lozim.

Agrar budjet bugungi kunda bu yirik qishloq korxonalari manfaati bilan taqsimlanadi. Fermer xo'jaligini moliyalashtirish juda kam hajmda amalga oshiriladi, ShYoXlarga esa, umuman, qoidaga binoan budjet vositalari ko'rsatilmaydi.

ShYoXning ahamiyatini qishloq aholisining yashash sharoiti nuqtai nazaridan budjetda bu sektorning ulushini ko'tarishni aks ettiradi, ya'ni bu

uning qishloq xo'jaligining yalpi mahsulotini ishlab chiqarishdagi ulushini taqqoslaydi. ShYoXlar egalarini imtiyozli kreditlashga kirishni ta'minlash ham kerak. Boshqacha aytganda, moliyaviy oqimlarning harakat qilish tizimiga kiritish shart.

Lizing orqali qishloq xo'jaligini qurish mahsulotlari kabi ASM yangicha xo'jalik yuritish shakllarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat dasturini ishlab chiqish va qabul qilish maqsadida, bu o'z navbatida oilaviy dehqon xo'jaligining texnikaviy qoloqligini bardosh bilan yengishga yordam beradi.

ShYoX sektori uchun konsalting markazlarini, kichik biznes maktablarini yaratishga yordam berish, bu yerda qishloq xo'jaligi aholisining yangicha xo'jalik yuritish metodlariga o'qitish bo'yicha, yangicha tumanlashgan yuqori sort qishloq xo'jaligi ekinlarini, yuqori mahsulotli chorva mollarini va parrandaralarini o'stirishni tarqatish, chorva mollarining va o'simliklarining kasalligiga qarshi kurashlar va boshqalar ko'rib chiqiladi.

Umumdavlat darajasida seleksiya'ni tanlash va chatishtirish yo'li bilan o'simliklar navini, hayvonlar zotini yaxshilash, yangi navlar, zotlar chiqarish va himoya qilish, bular bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish, kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash lozim.

Davlatning ta'siri o'z navbatida davlatning pirovard mahsulotlarini sotib olishi, kreditlar va soliqlar orqali qishloq xo'jaligi mahsulotlariga talab bir qator moliyaviy nazoratlar barcha to'lov qoidalari bilan mablag'larning o'tishi tarmoqlararo kerakli samarani chaqiradi.

Hozirgi vaqtda davlatning ASM tartibga solishda juda ham kerakli prinsipial ravishda yangicha strategiyani yaratish zarur bo'lmoqda. Buning asosida faol ravishda bozor jarayonlarida nafaqat davlat tartibga soluvchi, balki davlat mulkdor ham bo'lish konsepsiyasi yotishi shart. ASMda davlat sektorining o'ziga, asosan yirik, vertikal integratsiyalashgan ilmiy ishlab chiqarish kompaniyasi – davlat xoldinglari tashkiliy ravishda rasmiylashtirilishi muhimdir.

Hozirgi zamon agrar oziq-ovqat majmuasi tobora o'sib boradigan texnologiyalardan foydalanish ularning oldingi qatorda shakllanishini va rag'batlantirilishini talab qiladi. Bunday ishlab chiqarish sharoitlarini ta'minlash nisbatan faqat yirik yetarli katta ishlab chiqarish resurslariga ega, doimo o'ta sifatli yaxshilanishini amalga oshiradigan korxonalaridir. Shuning uchun davlatga korxonalarining kapital qo'yilmalari, qishloq xo'jaligining ilmiy-texnik siyosatini ifodalaydigan majburiyat yotadi.

Davlat sektorining moliyaviy sohasidagi samarali faoliyatini ta'minlash maxsus tijorat banklarini davlat mulkining ustunligi bilan yaratilishiga yordam



beradi. Bu banklar ASM aniq sektorida hisob-kitoblarni olib borishda o'ziga mas'uliyatni olishi shart.

Shu bilan birga, qishloq xo'jaligi iqtisodiy munosabatlaridan foydalanishda qo'llaniladigan renta munosabatlarini ko'rib chiqamiz.

### **28.7. Yer rentasining turlari**

Yer rentasining har xil turlari ma'lum: differensial, absolyut va monopol rentalar.

#### **A. Differensial renta I va II**

Yerning cheklanganligi hamma vaqt yerga monopoliyaning yuzaga kelishiga, ya'ni yerga ob'ekt sifatida xo'jayinlik qilishga olib keladi. Bu deganimiz, ya'ni har qanday yer uchastkasi ob'ekt sifatidagi xo'jalik aniq mulkdor tomonidan monopollashgan, ya'ni bu yerga begonaning kapitalini sarflashga yo'l qo'ymaydi. Yerga monopol xo'jalik qilish qishloq xo'jaligida o'ziga xos baho belgilashni shartlaydi. Qishloq xo'jaligida har qanday sharoitda unumdor yerlar katta foyda olib keladi va barcha tadbirkorlar bu yerga ishlov berishga vositalarini yo'naltirishga o'rinadilar, sababi aholining talabini qondirish uchun faqat unumdor yerlarda ishlab chiqarilgan mahsulotlar yetarli emas, shuning uchun unumdorligi kam yerlardan foydalanish ham zarurdir. Aynan shu munosabat bilan qishloq xo'jaligi mahsulotlariga narx-navoni ishlab chiqarish sarf-xarajatlari kamroq, unumdor yoki yomon yerlarni xo'jalik aylanmasiga jalb etish zarurdir. Bu yerda o'rtacha va yaxshi yerlarda, hamda yerning shunday sifati joyida joylashgani sababli bozorga nisbatan joylashganligi natijasi sifatida qo'shimcha foyda paydo bo'ladi.

Differensial renta I – bunday rentaning yuzaga kelishi yerning unumdorligi va joylashgan joyi har xilligi bilan bog'langan. Ammo qo'shilgan foyda sifatining bir xilligi bilan yer yuzaga kelishi mumkin, ya'ni yerning sifatini yaxshilash maqsadida investitsiya natijalari bilan.

Differensial renta II – bunday renta yerga qo'shimcha investitsiya mehnat unumdorligining o'sishini chiqarish natijasida yuzaga keladi. Bu ikki shakldagi differensial rentalar orasidagi farqi quyidagilardan iborat:

Birinchiidan, differensial renta I ekstensiv tipda xo'jalik yuritish asosida yuzaga keladi, ya'ni yer maydoniga kengaytirilgan ishlov berishda, differensial renta esa, faqat intensiv tip asosida ishlab chiqarishda yoki yangi texnika va texnologiyalarni joriy etishda yuzaga keladi.

Ikkinchiidan, differensial renta I to'liq yer egasi tomonidan, renta II esa, qisman ijarachi tomonidan o'zlashtiriladi, ya'ni shaxs tomonidan vaqtincha yerni ijaraga olinadi.

## **B. Absolyut yer rentasi**

Yerda monopol xo‘jalik qilishdan tashqari yerga monopol xususiy mulkchilik qilish ham mavjud.

Yerga xususiy mulkchilik yerning unumdorligiga, joylashgan joyi va yer uchastkalariga investitsiyalar berish bilan bog‘lanmagan holda absolyut rentani tug‘diradi.

Absolyut rentaning mavjudligi mahsulotlarning qimmatlashuviga olib keladi: sanoat mahsulotlarini ham, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ham. Bu muqarradir, sababi, hech bir mulkdor yerni tekin foydalanishga bermaydi. Qanday yer bo‘lmasin (yaxshimi yoki yomonmi), u yer egasi uchun daromad manbaidir. Shuning uchun yerni ijaraga bera turib, u qandaydir aniq vaqtga ijarachi bilan shartnoma tuzadi, shu vaqt davomida yer egasi absolyut renta olishga majbur. Bu rentani to‘lash uchun esa, doimiy ishlab chiqarish xarajatlarini kiritish zarur. Shu jumadan narxning o‘shishini ham. Bizning mamlakatda yerga mulkchilik islohoti olib borilishi, muqarrar ravishda absolyut rentaning yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi, chunki yer xususiy mulkchilik ob‘ekti hisoblanadi. Shunday qilib, barcha narxlar ..... tortib to aviauchishlargacha o‘shib boradi. Endi bugungi kun bilan rohatlaning, ertani kun murakkabroq bo‘ladi.

Differensial va absolyut rentadan tashqari monopol rentagacha ham o‘rin bor. U nafaqat qishloq xo‘jaligida, balki sanoatda ham yuzaga keladi. Yerning xususiyati shundayki, u unday yoki bunday mahsulotlarning asosiy shart-sharoitlarini aks ettiradi. Misol, kimlar neft mahsulotlarini ishlab chiqarib boshqa kontinentlarning iste‘molchilari uchun monopol narxlarni belgilaydi. Yoki Bushning mashhur jo‘jalari. Ularni ishlab chiqarish narxi sotish narxiga qaraganda ancha past.

Shunday qilib, sotish narxi bilan o‘zlarining ishlab chiqargan narxi o‘rtasidagi farqi monopol renta sifatida yuzaga keladi. Ishlab chiqarishga va aniq mahsulotga qanday qilib monopol hoqimlik o‘rnatiladi? Bunday hoqimlik monopol yoki diktatorli narxida namoyon bo‘ladi. Bu yerdan monopol foyda ham olish boshlanadi.

### **28.8. Agrosanoat majmuining iqtisodiyot tarkibidagi o‘rni**

Agrosanoat majmui (ASM) mamlakat iqtisodiyotida alohida o‘rin egallaydi. U asosiy xalq xo‘jaligi majmualari, ya‘ni butun jamiyat hayoti va faoliyatini qo‘llab-quvvatlash shart-sharoitlarini belgilovchi majmualar va tarmoqlar sirasiga kiradi. Basharti, odamlarning oziq-ovqat, yoqilg‘i, elektr quvvatiga bo‘lgan birlamchi ehtiyojini qondirish to‘xtab qolsa yoki haddan tashqari kamayib ketsa, to‘g‘ridan-to‘g‘ri aholining qirilib ketish xavfi paydo

bo'ladi. Shuning uchun, iqtisodiyotning turidan qat'i nazar, tarmoqlar va majmualarning ma'lumotlariga alohida e'tibor berish va ularni qo'llab-quvvatlash nihoyatda zarur. Bu demak, shu sohalaridagi sarf-xarajatlar va ulardagi ishlab chiqarish hajmi tarmoqlararo munosabatlar tizimi orqali butun milliy ishlab chiqarishning samaradorligiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir o'tkazadi. O'zbekiston va boshqa davlatlarning o'tish davri iqtisodiyotida asosiy tarmoqlarga alohida e'tibor berilayotgani ularda hamon aholi va davlat resurslarining katta qismi band ekanligi bilan bog'liq.

**Agrosanoat majmui (ASM)** ga ishlab chiqarishning hamda tashkil etilishi va rivojlantirilishi pirovard maqsadda qishloq xo'jalik xom-ashyosidan iste'mol mahsulotini ishlab chiqarishga bo'ysundirilgan ishlab chiqarish xizmatining barcha turlari kiradi. Ana shu mezon ma'lumotlaridan kelib chiqib, ASM tarmoqlarining uch guruhini ajratib ko'rsatish mumkin.

**Birinchi guruh** — traktorsozlik va qishloq xo'jaligi mashinasozligi, oziq-ovqat sanoati mashinasozligi; agrokimyó (mineral o'g'itlarni ishlab chiqarish va mikrobiologiya sanoati); ozuqa-em sanoati, qishloq xo'jaligiga moddiy-texnik xizmat ko'rsatish tizimi, melioratsiya va qishloq qurilishi.

**Ikkinchi guruh** — o'simlikshunoslik, chorvachilik, baliq ovlash va baliq yetishtirish.

**Uchinchi guruh** — oziq-ovqat sanoati, muzlatish, saqlash, ixtisoslashgan transport xo'jaligi, pirovard mahsulotni iste'molchiga yetkazib berish bilan shug'ullanuvchi savdo va boshqa korxonalar, tashkilotlar, shu jumladan, ulgurji bozorlar, chakana savdo va umumiy ovqatlanish.

Aytib o'tilgan guruhlarining har biriga yana fan hamda kadrlar tayyorlashning tegishli tarmoqlarini kiritish zarur. Agrosanoat majmuida ishlab chiqarish fondlarining choragidan ko'pi jamlangan va yalpi mahsulotning qariyb 15 %i yaratiladi. Xalq xo'jaligi majmuining qariyb 30%i agrar sektor bilan qayta ishlab chiqarish aloqasidadir. Qishloq xo'jaligi xom ashyosidan mamlakatda ishlab chiqariladigan iste'mol buyumlari termasining taxminan 75%i yaratiladi. Oziq-ovqat mollari chakana tovar oborotining taxminan yarmini tashkil etadi. 1990 yillarning o'rtalariga kelib, YaM hajmiga nisbatan mavjud baholarga qaraganda, ASM mahsulotlarining 4,8%i (ASMni ishlab chiqarish vositalari bilan ta'minlaydigan) tarmoqlar hissasiga, yana 1,4%i traktor va boshqa qishloq xo'jaligi mashinalari remonti hamda qishloq qurilishi mahsulotlari bilan qo'shib hisoblaganda; 41,8% i qishloq va o'rmon xo'jaligi hissasiga; 34,3%i oziq-ovqat, un-yorma, ozuqa va yengil sanoat (shu o'rinda qishloq xo'jaligi xom ashyosini dastlabki qayta ishlash sohasi nazarda tutiladi) hissasiga; 12,5%i tayyorlov va umumiy ovqatlanish hissasiga to'g'ri kelgan. ASM da mashg'ul bo'lgan yillik o'rtacha xodimlarning 16,7%i

tarmoqlarning birinchi blokiga (qishloq xo‘jaligi texnikasi remonti va qurilishi qo‘shiladi). 66,4%i qishloq xo‘jaligiga (xo‘jaliklarda band bo‘lgan aholi va dehqon-fermer xo‘jaliklarida band bo‘lganlar), 16,9 %i ASMning uchinchi blokiga to‘g‘ri kelar ekan.

### **28.9. ASMni qayta tashkil etishning natijalari va ziddiyatlari**

O‘zbekistonda olib borilgan agrar va iqtisodiy islohotlarning muhim strategik maqsadlaridan biri xo‘jalik yuritishning ma‘muriy taqsimot usullarini ko‘proq iqtisodiy usullar bilan almashtirishdan iborat bo‘ldi. Bu maqsad iqtisodiyotni rivojlantirish ehtiyojlariga javob berar edi. Jumladan, davlat rolini o‘zgartirish, davlat mulki ko‘lamini qisqartirish, iqtisodiyotning asosiy manfaatdor va javobgar sub‘ekti bevosita ishlab chiqaruvchi bo‘lib qoladigan tizimni shakllantirish taxmin qilinardi. Agrar islohotlarning yana bir salmoqli, birinchi maqsad bilan bog‘liq strategik maqsadi agrar sohada bozor munosabatlarini rivojlantirish uchun zarur ko‘p ukladli iqtisodiyotni yaratishdan iborat edi. Bularning hammasi qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini rivojlantirish, uning iqtisodiy samaradorligini oshirish va mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash uchun baza bo‘lib xizmat qilishi kerak edi. Qayta o‘zgartirishning ijobiy natijalari qatorida, birinchi navbatda, dehqon xo‘jaliklari sektori tashkil etilganini, yerdan foydalanuvchi fuqarolar safi (shaxsiy tomorqa xo‘jaliklari, bog‘dorchilik, polizchilik uchastkalar egalari va hokazolar) kengayganini qayd etish lozim. Dehqonchilik ukladining qayta tashkil etilishi, yerga egalik qilish va yerdan foydalanish sohasida dehqon huquqlarining kengaytirilishi, shak-shubhasiz, ijobiy jarayon bo‘ldi. Xo‘jalik yuritish rang-barang shakllarining kengaytirilishi agrar sektor tarkibida dehqon xo‘jaliklari bilan bir qatorda mas‘uliyati cheklangan shirkatlarning, yangi turdagi kooperativlar, uyushmalar, dehqon xo‘jaliklari va hokazolarning vujudga kelishi ham ijobiy hal bo‘ldi.

Ishlab chiqarishning yo‘nalishi, tarkibi va hajmini belgilaydigan, ishlab chiqarilgan mahsulotlarni o‘z bilganicha idora qiladigan qishloq xo‘jaligi korxonalarining huquqlari sezilarli darajada kengayib bormoqda. Xususiy mulk ob‘ekti sifatidagi yerga davlatning mutlaq monopoliyasi o‘rniga mulkchilik va yerdan foydalanishning turli-tuman shakllari vujudga keldi.

Yerda mehnat qiladiganlarning yer olish imkoniyatlari kengaydi. Bu yerga ratsional egalik munosabatlarining zarur sharti hisoblanadi.

Ana shu o‘zgarishlarning hammasiga birdan-bir maqsad, deb qarash kerak emas, ular ishlab chiqarishni rivojlantirish mehnat unumdorligini va agrosanoat ishlab chiqarishi samaradorligini oshirishning sharti bo‘lib xizmat qilishi lozim. Aynan ana shu asosiy pozitsiyalar bo‘yicha agrar sohadagi

islohot istalgan natijalarni bergani yo‘q, aksincha, qishloq xo‘jaligi va butun agrosanoat majmui hozir davomli tanazzul holatidadir.

Yalpi qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish 1999 yilda 1990 yilga nisbatan 41,7%ga qisqardi. Ana shu davrda aholi xo‘jaliklarida ishlab chiqarish 15%ga ko‘payganiga qaramay, bu qishloq xo‘jaligi korxonalarida ishlab chiqarish qisqarib ketganligining o‘rnini to‘ldira olgani yo‘q. Qishloq xo‘jaligi korxonalarida 1999 yilgi ishlab chiqarish hajmi 1990 yilga nisbatan 37%ni tashkil etdi xolos. Bu hol, jadvaldan ko‘rinib turganidek, chorvachilik mahsulotlari hajmining jiddiy (umuman, qishloq xo‘jaligi bo‘yicha taxminan ikki barobar) qisqarishi bilan kuzatildi

ASM ishlab chiqarishning ijtimoiy-iqtisodiy tarkibi tuzilishida jiddiy o‘zgarishlar ro‘y berdi. 1990 yilda yirik qishloq xo‘jaligi korxonalarida –jamo va davlat xo‘jaliklari hissasiga qishloq xo‘jaligi yalpi mahsulotlarining 74%, aholi xo‘jaliklari (shaxsiy sektor) hissasiga 26%i to‘g‘ri kelar edi. 1999 yilda qishloq xo‘jaligi korxonalarining qishloq xo‘jaligi yalpi mahsulotlaridagi hissasi 40,3% gacha qisqardi, yakka ishlab chiqaruvchilarning ulushi 59,7% ga qadar ko‘paydi (jumladan, ana shu mahsulotning 57,2% xususiy tomorqa xo‘jaliklari va bog‘dorchilik-polizchilik uchastkalarining egalari tomonidan, 2,5% dehqon-fermer xo‘jaliklari tomonidan yetishtirildi, 1990 yilda bunday xo‘jaliklar qishloq xo‘jaligi ijtimoiy-iqtisodiy tarkibidan endigina o‘rin ola boshlagan edi).

Oziq-ovqat mahsulotlari bilan savdo qiluvchi korxonalarining va umumiy ovqatlanishning aksariyat qismi xususiylashtirildi. Ishlab chiqarish va realizatsiya hajmi nafaqat qishloq xo‘jaligida, ASMning boshqa sohalarida ham sezilarli darajada qisqardi.

Ishlab chiqarishning yirik qishloq xo‘jaligi korxonalarida qisqarishi va aholi xo‘jaliklarida o‘sishi munosabati bilan yalpi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish tobora bozorga emas, aholining o‘z-o‘zini ta‘minlashiga bog‘liq bo‘lib kelmoqda. Shu bilan bir qatorda, realizatsiyaning tarkibiy tuzilishi jiddiy ravishda o‘zgaryapti: agar ilgari qishloq xo‘jaligi tovar mahsulotlarining asosiy qismi tayyorlov tashkilotlari tomonidan realizatsiya qilingan bo‘lsa, endilikda ekinchilik mahsulotlari tovar massasining aksariyati va chorvachilik mahsulotlarining talaygina qismi erkin bozor kanallari (bozorlarda, umumiy ovqatlanish korxonalarining o‘z savdo shaxobchalarida, barter bo‘yicha va hokazo) realizatsiya qilinmoqda.

Tabiiy sharoitlarning o‘zi (ishlab chiqarishning mavsumiyliigi, katta xavf-xatar bilan bog‘liqligi, kapitalning sekin aylanishi, katta hududlarda amalga oshirilishi, shu sababli monopoliyachi tarmoqlarga mustaqil qarshilik ko‘rsata olmasligi) qishloq xo‘jaligining boshqa tarmoqlar bilan bir xil ahvolda

emasligi tufayli moddiy ishlab chiqarishning boshqa tarmoqlariga qaraganda og'ir ahvolga tushib qoldi. Narx-navolar o'rtasidagi farq kuchaydi: agrar sohada iste'mol qilinadigan ishlab-chiqarishning sanoat vositalari va xizmatlar narxi oshdi.

Tuproq unumdorligini qayta ishlab chiqarish – texnika potensialining inqirozga yuz to'tishi ro'y bermoqda, ekologiya muammolari keskinlashdi. Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish hajmining qisqarishi ASMning qayta ishlovchi tarmoqlarida mahsulot ishlab chiqarishning kamayishiga olib keldi. Qishloq xo'jaligi korxonalarini to'lov qobiliyatining kuchli emasligi ularning ASM tarmoqlari birinchi guruhi mahsulotlarini xarid qilishida salbiy ifodasini topdi. Ana shu tarmoqlar ishlab chiqarish kuchlarining to'la quvvat bilan ishlashiga jiddiy ta'sir etdi.

Yer munosabatlari ziddiyatlar bilan rivojlanmoqda. Yer munosabatlarining isloh qilinishi natijasida yerga egalik va yerdan foydalanishning ijtimoiy-iqtisodiy tarkibi tuzilishi o'zgardi. Yer islohotlari o'tkazila boshlangan paytda jamoa va davlat xo'jaliklarida yerning qariyb 10% markazlashgan usulda olinar va keyinchalik dehqon xo'jaligini yuritish istagini bildirgan shaxslarga tekinga berilar edi. Kimga qancha yer berish hali belgilanmagan edi.

Keyinchalik xususiy egalikka yer olish huquqi o'rtacha tuman me'yorlari bilan cheklandi, bu me'yorlarni mahalliy hokimiyat organlari belgilar edi.

Yer maydonlarining qishloq aholisi o'rtasida taqsimlanishi qishloqda yashovchilarning barchasini yer bilan ta'minlanishi bois bir tomondan ijtimoiy adolatli chora bo'lsa, ikkinchi tomondan, yer maydonlarining xaddan ziyod parchalanib ketishiga olib kelishi tufayli iqtisodiy jihatdan samarasiz chora edi; yerdan foydalanishni xayoliga keltirmagan yoki undan samarali foydalana olmaydigan shaxslar ham yerni olish huquqini qo'lga kiritdi. Bundan tashqari yer ulushini merosga qoldirish vositasida yer qishloqda yashamaydigan shaxslar qo'lga o'tishi mumkin edi. Bu ularni rante qilib qo'yardi, bu yer islohotining zamiriga qo'yilgan ijtimoiy adolat tamoyilini ham buzardi.

Tadqiqot natijalariga qaraganda, hozir yer ulushlarining 40% idan ko'prog'i qishloq xo'jaligi korxonasining xodimi bo'lmagan shaxslarga tegishli, ularning ana shu ulushi muntazam ko'payib bormoqda.

Oldi-sotdi, meros qoldirish va hokazolar vositasida yer qishloqda yashamaydigan va qishloq xo'jaligiga hech qanday aloqasi bo'lmagan shaxslarning mulki bo'lib qolmasligi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishidan ajralib qolmasligi uchun hamda yerning ayrim shaxslar qo'lida haddan tashqari to'planib qolmasligi va yer oborotini cheklash haqidagi masala vujudga keldi.

Yerdan foydalanish tartibi va uning oboroti ma'lum darajada davlat tomonidan boshqarilishi, yer ulushi yoki xususiy mulk bo'lgan tomorqa, bog' va dala hovli uchastkasi haqida, sotib olingan yoki egasiga tekinga berilgan yer to'g'risida, egasiga yaqindagina tekkan yoki ko'p yillardan beri foydalanib kelinayotgan yer to'g'risida qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallangan yoki mo'ljallanmagan yer to'g'risida va nihoyat yirik shaharlarga va sanoat markazlariga tutashgan (bu joylarda yer ayniqsa, qimmat turadi) yoki talab bo'lmagan, olisda joylashgan yer to'g'risida borayotganidan kelib chiqib farqlanishi kerak.

Yer munosabatlarining mana shu barcha ko'rinishlari davlat tomonidan aniq idora qilinishi, nazorat ostiga olinishi lozim.

Yer ulushlari fuqarolarning xususiy mulki sifatida mustahkamlanishi faktidan kelib chiqiladigan bo'lsa, uning oborotini – oldi-sotdisi, ijaraga berilishi va hokazolarni ham har tomonlama ta'minlash zarurati vujudga keladi. Faqat shunday qilgandagina yer undan samarali va to'liq foydalanishga qodir shaxslar qo'liga o'tishi mumkin. Hozir esa, ba'zi mintaqalarda qishloq xo'jaligi korxonalarida ishlamaydigan qishloq ijtimoiy sohasi xodimlari va boshqa qishloqda yashovchilar, pensionerlar, shuningdek, shaharda yashaydigan va qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanishini hayoliga ham keltirmaydigan merosxo'rlar ulushi tobora ko'payib bormoqda, hozir ular yer ulushlari egalarining yarmini tashkil etadi. Bu yerning bozor vositasida ikkilamchi qayta taqsimlanishini dolzarb qilib qo'ymoqda, ammo mazkur jarayon turg'un va puxta ishlab chiqilgan qonun bazasi yo'qligi tufayli oldinga siljimayapti.

Tavsiya etilganidek, aksariyat qishloq xo'jaligi korxonalari xususiylashtirish va qayta tashkil etishni 1993 yilga qadar amalga oshirdi. Keyinchalik aksiyadorlarga aylangan mulk ulushlarining egalari aksiya va boshqa omonatlar bo'yicha daromad olishlari kerak edi, ammo hech qanday daromad olganlari yo'q. Sababi aksariyat qishloq xo'jaligi korxonalari zarar ko'rib ishlayotganligi bois ular o'z aksiyadorlariga dividendlarni to'lagani yo'q. Xodimlarning ulush ko'rinishidagi o'zlariga tegishli mol-mulkni olish haqidagi istaklari esa, rahbariyat tomondan rad etilar edi, ularni faqat uzoq tortishuvlar yo'li bilangina qo'lga kiritish mumkin edi, bunga hamma ham ahd qilavermasdi. Ayni vaqtda xususiylashtirish va qayta tashkil etishning dastlabki yillari kolxoz va sovxozlarda texnika va boshqa mol-mulkni keng ko'lamda hisobdan chiqarish, sotish hamda talon-taroj qilish ro'y berdi.

ASMning o'zaro bog'liq barcha bloklarida ishlab chiqarishning pasayishi, narx-navoning o'sishi va aholining xarid qobiliyati susayishi mamlakatda asosiy oziq-ovqat mahsulotlari iste'moliga ta'sir etdi. Agrosanoat majmuini

rivojlantirish qishloq ijtimoiy muammolari yechimi bilan uzviy bog‘liqdir. Qishloq ayni vaqtning o‘zida qishloqliklarning ham ish joyi, ham yashash joyidir. Qishloq xo‘jaligidagi va umuman, ASMdagi hozirgi tanazzul qishloqni ijtimoiy rivojlantirishga salbiy ta‘sir etmoqda. Qishloqdagi ko‘pgina ijtimoiy ob‘ektlar –maktablar, kasalxonalar, klublar avariya holatida, tubdan remont qilishni talab etadi. Qishloq joylaridagi yo‘l tarmoqlarining ahvoli qoniqarsiz, shu munosabat bilan olis mintaqalarning rivojlanishi kechikmoqda. Qattiq qoplamali yo‘llar bo‘lmagan tumanlarda aholi o‘limining yuqoriligi kuzatiladi, bunga sabab profilaktika tadbirlarini o‘tkazish borasidagi qiyinchiliklar va tibbiy yordamning o‘z vaqtida ko‘rsatilmashligidir. Nihoyat tarmoqlarining yomon ahvoli bozor munosabatlarining rivojlanishiga ham to‘sqinlik qilmoqda. Chunki tovarlar va aholi harakatini susaytiradi, yuk tashish tannarxi ko‘payadi.

Qishloq uy-joy fondining aksariyat qismi sifat jihatlariga ko‘ra aholi ehtiyojini qondirmaydi. Hozir qishloqlar shaharlarga nisbatan ichimlik suv bilan – 2,3 baravar, oqova tizimi bilan – 3,2 baravar, markaziy isitish bilan – 3,3 baravar, issiq suv bilan – 4,9 baravar kam ta‘minlangan.

#### **28.10. ASMdagi tanazzulning sabablari**

Xo‘jalik yuritishning bir tizimidan ikkinchisiga o‘tish, ayniqsa, qishloq xo‘jaligida nisbatan uzoq vaqtni talab qiladi. Bu davr birinchidan tayyorgarlik bosqichini; ikkinchidan, bevosita o‘zgarishlar bosqichini o‘z ichiga olishi lozim. Tayyorgarlik bosqichi davrida bo‘lajak islohotlarga huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy zamin tayyorlanadi. Keyingi davr mobaynida asta-sekin mulkka egalik shaklining o‘zgarishi, xo‘jalik faoliyatini, boshqaruvni o‘zgartirish ro‘y beradi, bozor iqtisodiyoti institutlari rivojlanadi va mustahkamlanadi, ijtimoiy munosabatlarning yangi tizimi tarkib topadi.

Shak-shubhasiz, agrar munosabatlar tizimidagi, ishlab chiqarishning tuzilishidagi, ayniqsa, birinchi bosqichdagi jiddiy o‘zgarishlar umumiy ahvolga ta‘sir o‘tkazmay qo‘ymaydi. Odatda, bunday o‘zgarishlar ishlab chiqarishda tushkinlikni keltirib chiqaradi. Shuning uchun ro‘y bergan o‘zgarishlarga bahoni vaqt o‘tgach berish kerak. Ammo ishlab chiqarishdagi hozirgi tushkunlikni va ASMdagi qiyinchiliklarni birgina islohotlarning ob‘ektiv oqibatlarini va avvalgi agrar siyosatning kamchiliklari bilan bog‘lash noto‘g‘ri bo‘ladi. ASMdagi hozirgi tanazzul holatlari ma‘lum darajada so‘nggi yillardagi islohotlarning kamchiliklari va xatoliklar bilan belgilangan.

90-yillardagi agrar sohadagi o‘zgarishlar to‘satdan, huquqiy, tashkiliy va iqtisodiy tayyorgarlik ko‘rilmay, bozor iqtisodiyotiga o‘tish asta-sekin bosqichma-bosqich amalga oshirilishi zarurligini to‘la mensimgan holda



boshlangan edi. Islohotlarning aniq konsepsiyasi yo‘qligi, xaddan tashqari siyosiy lashtirilganligi hamda turli siyosiy kuchlar va hokimiyat idoralarining agrar o‘zgarishlar borasidagi kurashi huquqiy bazadagi ziddiyatlarga va asosiy qonun hujjatlari (Yer kodeksi, yerni ijaraga berish to‘g‘risidagi va hokazo qonunlar) qabul qilinmaganligiga olib keldi, qishloq aholisining agrar munosabatlardagi tub o‘zgarishlarga tayyorligini yetarli baholamaslik ana shu o‘zgarishlarni ma‘muriy yo‘l bilan jadal o‘tkazishga intilishni kuchaytirdi. Nisbatan kam sonli dehqonlarning kolxoz va sovxozlardan chiqqanligi ana shu korxonalarining rahbariyati va mahalliy ma‘muriyatning qarshilik ko‘rsatganligi bilangina emas, moddiy madadning yetarli emasligi bilan ham izohlanar edi. Asosiy sababi esa, aksariyat dehqonlarda odat bo‘lib qolgan turmush tarzini o‘zgartirish istagi yo‘qligida, ularning konservatizmida, ularga berib qo‘yilgan ijtimoiy imtiyozlar hisobga olinmaganida (qishloq xo‘jaligi korxonasidan chiqqan taqdirda ular ana shu imtiyozlardan mahrum bo‘lishardi) edi.

Yuqoridan turib islohotlarni «o‘tkazishga» intilish oradan ko‘p vaqt o‘tmay to‘xtatilgan bo‘lishiga qaramay, ular qishloqda iqtisodiy va ijtimoiy vaziyatning yomonlashishiga olib keldi.

Agrar sektorda tarkib topgan ko‘ngilsiz ahvolning boshqa sabablari qatoriga quyidagilarni kiritish kerak:

– ishlab chiqarishning haqiqiy darajasini, bozor munosabatlariga shoshma-shosharlik va izchilliksiz o‘tishni, inflyatsiyani, sobiq ittifoq parchalanishi tufayli xo‘jalik aloqalarining umumiy tanazzul holatini. Masalan, sobiq ittifoq parchalanishiga qadar taxminan 400 korxonadan 250 tasi Rossiya hududidan tashqarida bo‘lgan, traktor va qishloq xo‘jaligi mashinasozligi murakkab va yagona xalq xo‘jaligi majmuini tashkil etar, 1455 nomdagi butlovchi agregatlar, uzellar, po‘lat, cho‘yan va rangli quymalarning, issiq shtampovka va hokazolarning katta qismi qishloq xo‘jaligi mashinasozligi uchun sobiq ittifoqning sobiq respublikalardan yetkazib berilar edi;

– qishloq xo‘jaligiga investitsiyalar va agrar sektorning davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi kamayganligini;

– davlat ishlab chiqarishni va bozorni boshqarish sohasidagi o‘z vazifalarini bajarmay qo‘yganligini;

– iqtisodiy asoslangan narx-navo, moliya-kredit va soliq siyosati yo‘qligini;

– tijorat banklari va qishloq xo‘jaligi bilan bog‘liq tarmoqlarning kuchaygan monopolizmini;

– narx-navo o‘rtasidagi farq chuqurlashib borayotganligini;

- agrar o‘zgarishlarning bir yoqmaligini, yirik tovar ishlab chiqarishni qayta tuzish, yerni qayta taqsimlash va xususiylashtirish bilan qiziqishni;
- mahalliy tovar ishlab chiqaruvchilar sust himoya qilingani, oziq-ovqat ko‘pgina turlarining importi asossiz ravishda rag‘batlantirilganini;
- islohotlarini o‘tkazish vaqtida fanning roli yetarli baholanmaganligi.

### **28.11. Inqirozni yengib o‘tishning shartlari**

Agrar sektor va mamlakat butun agrosanoat majmuining inqiroz holatidan chiqarilishi o‘zaro bog‘liq – iqtisodiy, huquqiy va tashkiliy chora-tadbirlarning ishlab chiqilishi va amalga oshirilishini talab qiladi. Agrar siyosat birinchi navbatda quyidagi shart-sharoitlarni ta‘minlashga qaratilgan bo‘lishi kerak:

- ASMDa qishloq xo‘jaligi bilan sanoat o‘rtasidagi narx-navo tengligiga rioya qilish va qo‘llab-quvvatlashga;
- fan-texnika taraqqiyoti yutuqlaridan foydalanish uchun investitsiyalar darajasini iloji boricha to‘liq ta‘minlashga;
- kooperativ ko‘rinishlari va munosabatlarini rivojlantirishga;
- islohotlarning, ayniqsa, yirik jamoa xo‘jaliklarining tadrijiy rivojlanishiga;
- bozor tamoyillarini davlat boshqaruvi va ularning ijtimoiy yo‘nalganligini ta‘minlash bilan uyg‘unlashtirishga;
- ASM bo‘yicha qishloq xo‘jaligi sohasidagi sheriklar va tijorat tuzilmalarining monopolizm sari kuchayib borayotgan harakatini yengib o‘tishga;
- oziq-ovqat bozorida barqarorlikni ta‘minlash, favqulotda vaziyatlar vujudga kelgan taqdirda aholini kafolatli ta‘minlash uchun qishloq xo‘jaligi xom ashyosi va oziq-ovqatlarning yetarli zaxirasini vujudga keltirishga.

ASMDagi davlat boshqaruvi birinchi navbatda iqtisodiy usullar bilan amalga oshirilishi hamda mamlakat oziq-ovqat bozorini, agrar sektorni monopoliyalashgan tarmoqlardan himoya qilishi lozim. O‘tish davri iqtisodiyoti shart-sharoitlariga nisbatan davlatning buyurtmachi va investor sifatidagi vazifalarini saqlab qolish va takomillashtirish, bozor infratuzilmasi rivojlanishiga yordam berish, ASMning davlat sektorini qo‘llab-quvvatlash; qishloq ijtimoiy sohasini rivojlantirish; agrar fan va qishloq xo‘jaligi uchun kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish kerak. Davlatning boshqaruvchilik roli ayniqsa, bozor iqtisodiyotiga o‘tishning hozirgi, iqtisodiy boshqaruvning samarali mexanizmlari shakllanmagan bosqichida juda muhimdir. Agrar iqtisodiyotda o‘tish davri davlat boshqaruvi va bozor dastaklari ayniqsa, ratsional uyg‘unlashtirilishini; qishloq xo‘jaligi va u bilan bog‘liq

tarmoqlardagi mikro va makro iqtisodiyot jarayonlariga davlat ta'siri nazariyasi ishlab chiqilishini va amaliyoti takomillashtirilishini talab qiladi.

Ayni vaqtda agrar sektorning o'ziga xos xususiyatlari – ishlab chiqarishning mavsumiyligi, kapitalning sekin aylanishi, tabiatning stixiyaliligi hamda qishloq xo'jaligi ekinzorlarining kattagina qismi dehqonchilikning muvaffaqiyati kafolatlanmagan zonada joylashganligi bilan bog'liq, nisbatan yuqori darajadagi ishlab chiqarish xatari e'tiborga olinishi lozim.

ASMni rivojlantirishga davlatning iqtisodiy usullar bilan faol ta'sir o'tkazishini kredit va soliq boshqaruvi, budjetdan moliyaviy ta'minlash, mehnatga haq to'lash shartlari va darajasini idora qilish, ijtimoiy rivojlantirish orqali, davlat dasturlari, buyurtmalari, samarali bojxona siyosati, sug'urta tizimi va hokazolar orqali amalga oshirish mumkin.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotishdagi inqiroz, resurslarning cheklanganligi, agrar sohadagi raxnamolik siyosati ishlab chiqarish samaradorligini oshirish vazifasiga qat'iy bo'ysundirilishini qo'llab-quvvatlashning iqtisodiy mexanizm va chora-tadbirlari majmui yanada samarali sarf-xarajatlarni va rentabelli ishlab chiqarishni rag'batlantirishga yo'naltirilishi kerak. O'z navbatida ana shu maqsadga iqtisodiy dastaklar: narx-navo, kredit, soliq va budjet subsidiyalari tizimidan korxonalarining rentabelli guruhlarini va mintaqalar bo'yicha samarali sarf-xarajatlarni rag'batlantirish uchun foydalanish yo'li bilan erishilishi mumkin.

Agrosanoat ishlab chiqarishi davlat boshqaruvi tizimida ig'vogarona tovarlar xaridi va qishloq xo'jaligi mahsulotlari kafolatlaridan to'laroq foydalanishi muhimdir.

Narx-navo siyosati sohasida narxlarning erkin tarkib topishi bilan narx-navoning davlat boshqaruvi uyg'unligi, davlat buyurtmasi bo'yicha xaridlarga kafolatlangan darajasi belgilanishi, monopoliyalashuv qattiq cheklangan holda narx-navoning talab va ehtiyojga muvofiq shakllanishi amal qilishi kerak.

Kredit-moliya siyosati sohasida kreditlardan, qishloq xo'jaligi uchun pasaytirilgan foiz stavkalaridan qat'iy aniq maqsadni ko'zlab foydalanish zarur.

Soliq siyosatida ko'p kanallilikka va bir xildagi soliq to'lovlariga barham berish kerak. Yer solig'i (er uchastkasining qayerda joylashganligi va sifatiga ko'ra tabaqalashgan) ko'rinishdagi bir kanalli tizimga o'tish ana shu siyosatning strategik yo'nalishi bo'lishi lozim. Ayni vaqtda yer solig'ining darajasi yerdan samarali foydalanishga da'vat etishi kerak.

ASMdagi boshqaruvning mutlaqo yangi tizimi bozor mexanizmlarini va davlat boshqaruvi uslublarini egallash vazifalariga javob beradi. Ana shu

maqsadda davlat vazifalarini korxonalar va tarmoqlarni boshqarishdan bozor xo‘jaligi sub’ektlari o‘rtasidagi munosabatlarni iqtisodiy boshqaruvga qayta yo‘naltirishni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

ASMning davlat boshqaruvi muhim vazifalaridan biri sifatida mamlakat qishloq xo‘jaligini himoya qilish vazifasiga ega bo‘lgan tashqi iqtisodiy yo‘nalishni ham albatta, o‘z ichiga oladi.

Tashqi savdo-sotiqdan himoya va agrar sohaga rahnamolikning darajasi va ko‘rinishlari qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi, ayrim tovarlar va tovarlar guruhlarining bozori ahvoriga, bozorning to‘yinganligiga mamlakatda ishlab chiqarilgan mahsulotning raqobatbardoshligiga bog‘liq bo‘lishi kerak. Ammo ana shu muammoni hal etish vaqtida qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilardan tashqari boshqa tomonni – iste’molchilarni ham nazarda tutish lozim, ularning manfaatlari har doim ham mamlakat tovar ishlab chiqaruvchilarining manfaatlariga to‘g‘ri kelavermaydi. Bu agrar sohaga rahnamolikning xarakteri va darajasi, har xil turli yo‘nalishdagi ko‘pgina kuchlarni hisobga olish natijasi bo‘lishi kerak, degan ma’noni anglatadi. Muammo miqdoriy chora-tadbirni va rahnamolik siyosatini o‘tkazishga sarf-xarajatlarning shunday qiyosiylikini, bunday siyosatdan keladigan daromadni topishdan iborat. Bunda bir ko‘rsatkich ikkinchisidan oshib ketmaydi, mamlakatni oziq-ovqatning asosiy turlari bilan o‘z-o‘zini ta’minlash konsepsiyasiga asoslangan oziq-ovqat xavfsizligi ta’minlanadi.

Oziq-ovqat xavfsizligi deganda, mamlakat iqtisodiyoti va agrosanoat majmui holatini tashqi va ichki shart-sharoitlardan qat’i nazar aholining oziq-ovqatlarga ehtiyojini fiziologik me’yorlarga muvofiq ravishda muntazam ta’minlash imkonini beruvchi tegishli resurslar, potensiallar va holat kafolatlari bilan ta’minlash tushuniladi. Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash mamlakat qishloq xo‘jaligining nisbatan yuqori darajada iqtisodiy jihatdan samarali emasligi, uning juda ko‘p energiya va materiallar iste’mol qilishi, bu demak, tashqi bozorda juda ham raqobatbardosh emasligi hamda mamlakatning jahon savdo-sotiq tashkilotiga (JST) kirishi haqidagi masala munosabati bilan ayniqsa, muhimdir. Chunki JST kirish mamlakatning iqtisodiyotga davlat ta’siri sohasidagi ma’lum majburiyatlari va cheklashlari bilan uzviy bog‘liqdir.

1991 yilda O‘zbekiston bo‘yicha go’sht va go’sht mahsulotlari umumiy resursidagi importning ulushi 29,5% ni, sut va sut mahsulotlari ulushi – 12,4% ni, tuxum – 3,1% ni, kartoshka – 0,6% ni, sabzavot va poliz mahsulotlari ulushi – 9,8% ni tashkil etdi. Asosiy oziq-ovqat tovarlari resursida importning solishtirma hissasi 2000 yilning boshlarida umuman, avvalgi yillarga qaraganda katta ijobiy o‘zgarishlarga olib keldi.

Davlat aholi xo‘jaliklarini (shaxsiy yordamchi xo‘jaliklar, fuqarolarning jamoa va xususiy bog‘dorchiligi) alohida g‘amxo‘rlik bilan qo‘llab-quvvatlashi kerak. Ayniqsa, hozirgi paytda, aholining talaygina qismi oldida tirikchilik muammosi ko‘ndalang turgan, yirik qishloq xo‘jaligi korxonalarida ishlab chiqarish pasayib borayotgan, dehqon xo‘jaliklari va ularning uyushmalari tashkiliy jihatdan mustahkamlanmagan bir paytda aholi xo‘jaligini qo‘llab-quvvatlash agrar siyosatning ustuvor vazifalari qatorida ilgari surilishi kerak. 1999 yilda aholi xo‘jaliklari kartoshkaning 92% ini, sabzavotlarning qariyb 77% ni, mevalarning 79% ni, go‘shtning 59%ini, shu jumladan, mol go‘shtining 66%ini va qo‘y go‘shtining 75%ini, sutning 49% ni, junning 46% ni, asalning 85% ni, tuxumning 30% ni yetishtirdi.<sup>18</sup> Ushbu raqamlar aholi xo‘jaliklarining mamlakat oziq-ovqat ta‘minotiga qo‘shayotgan ulkan hissasidan dalolat beradi.

Ta‘minot va savdo, qishloq xo‘jaligi texnikasi va hokazolardan foydalanish, qishloqda kredit operatsiyalarini rivojlantirish, aholi xo‘jaliklarini va fermer xo‘jaliklarini kooperatsiyalash muhim ahamiyat kasb etib bormoqda.

Nazarimizda, agrar siyosatni o‘tkazish vaqtida ayrim sektorlarning mamlakat oziq-ovqat fondini vujudga keltirishdagi ishtirokini to‘g‘ri hisobga olmay turib, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishdagi tushkunlikni va agrar sohadagi inqirozdan chiqish muddatlarini qisqartirishga umid qilib bo‘lmaydi.

Yirik qishloq xo‘jaligi korxonalariga nisbatan ularning o‘ziga munosib siyosatni amalga oshirish lozim. Ular kreditlarni aniq maqsadlar uchun olishlari, ajratilgan mablag‘lardan qanday foydalanilgani albatta nazorat qilinishi, olingan yordam mablag‘larini asossiz hisobdan chiqarish amaliyotiga barham berilishi kerak. Korxonalariga mablag‘lar maxsus dasturlar doirasida tanlov asosida ajratilishi lozim.

Xo‘jaliklar birinchi navbatda imtiyozlarga ega bo‘lishi kerak. Bunday korxonalar hozir tovar mahsulotlarining aksariyat qismini ishlab chiqarayotgan jami korxonalarining taxminan choragini tashkil etadi. Zarar keltirayotgan xo‘jaliklarning aksariyatiga nisbatan, iqtisodiy jihatdan umidsiz xo‘jaliklar bundan mustasno, bankrot hisoblash tajribasini emas, sanatsiya‘ni qo‘llash lozim. Ana shu davr mobaynida xo‘jalikni qayta tashkil etishning eng samarali variantlarini (mavjud ishlab chiqarish fondlari va xodimlardan foydalanish, mahalliy sharoitlardan kelib chiqib ishlab chiqarish ixtisosligini o‘zgartirish, iqtisodiy va tashkiliy jihatdan ko‘proq malakaga ega rahbarlarni topish imkonini beradigan variantlarni) tanlab olish mumkin bo‘ladi.

---

<sup>18</sup> Мол ва қўй гўшти, жун борасидаги кўрсаткичлар 1998 йил бўйича келтирилмоқда.

Yer islohoti agrar sohadagi har qanday islohotlarning o'ziga xos yo'nalishi, uning markaziy bo'g'ini hisoblanadi. Yer sohasidagi o'zgarishlar yerdan muhim tabiiy resurs sifatida ratsional foydalanilishi va muhofaza qilinishiga, tuproq unumdorligini qayta tiklash va oshirilishi uchun shart-sharoitlarni yaratishga, xo'jalik yuritishning turli ko'rinishlari teng huquqli rivojlanishini ta'minlashga da'vat etilgan.

Ammo Respublikamizda yerdan foydalanish sohasida salbiy jarayonlar ko'zga tashlanmokda. Yer eroziyasi, toshloqqa aylanishi, aynishi, sho'ralashi kuchaydi. Yerlarning quvvatsizlanishi, sug'orish inshootlarining buzilishi ro'y bermoqda. O'tloqlar va yaylovlarning holati keskin yomonlashdi. Shu munosabat bilan davlat yerdan maqsadsiz va samarasiz foydalanilishiga qarshi iqtisodiy va ma'muriy ta'sir o'tkazishga, yer bilan bog'liq chayqovchilik va poraxo'rlikning samarali mexanizmini ishlab chiqishga majburdir.

Agrar siyosatda ijara munosabatlarini, lizingni rivojlantirishga muhim o'rin ajratilishi kerak. Bu mavjud yer resurslari, ishlab chiqarish fondlari va ishchi kuchi o'rtasidagi nisbatni eng oddiy yo'l bilan, nisbatan qisqa muddatlarda optimallashtirish, yerning jamlanish jarayonini samarali xo'jalik yuritish uchun zarur bo'lgan ko'lamlarda osonlashtirish va arzonlashtirish imkonini beradi. Agar ijara haqi nisbatan yuqori bo'lmagan tarzda tuzilsa, qishloq xo'jaligi ekinzorlaridan yuqori darajada foydalanishga, ishlab chiqarishning jadallashuviga xizmat qiladi. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda davlat hozir yer munosabatlarini huquqiy jihatdan idora qilish borasida yerning egasi bo'lgan rante sifatidamas, xo'jalikni yurituvchi sub'ekt – ijarachi – fermer tomonini himoya qilmoqda, bu bilan iqtisodiy maqsadga muvofiq va jamiyat manfaatlaridan kelib chiqib, yer egalarining huquqlarini jiddiy cheklamoqda. Mazkur tamoyil yer munosabatlari zahiriga qo'yilsa yaxshi bo'lar edi. Shu narsa ayonki, ijarachining ustuvorligi hisob-kitobli, muvozanatli bo'lishi kerak, aks holda qonun bilan belgilanadigan ijarachi imtiyozlari yer egalarining yerni ijaraga berishiga ta'sir o'tkazishi, ijara haqining o'sishiga olib kelishi mumkin. Vaholanki, ijara haqi yerni ijaraga olishga bo'lgan talab va taklif bilan belgilanadi. Ijaraga oluvchi manfaatlarining ustuvorligi haqida gapirar ekanmiz, shuni ta'kidlash lozimki, hozirgi vaqtda qishloq xo'jaligi maydonlarini ijaraga olish huquqi davlat tomonidan ham anchagina puxta boshqarilmoqda. Jumladan, ko'pgina g'arb mamlakatlarida ijaraga oluvchi uchun ijaraga olingan qishloq xo'jaligi yerlaridan faqat qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi uchun foydalanish, egasi o'zgargan taqdirda yer maydonlarining parchalanmasligi, da'vogarning mehnatga, xo'jalikni yuritish uchun kerakli mablag'larga ega bo'lishi, tabiatni muhofaza qilish chora-tadbirlarga rioya etishi va boshqa shartlarni nazarda

tutadi. Shu bilan birga, yerga egalik qilish va uni ijaraga berish masalalarini ko‘rib chiqish vaqtida siyosiy va mafkuraviy maqsadlarda ularni bir-biriga qarama-qarshi qo‘yish hollari uchrab turibdi, vaholanki, yerga egalikning u yoki bu ko‘rinishiga imtiyoz berish haqidagi masalani yer egasinnig o‘zi hal qilishi lozim, muhimi, bunda uning tanlash erkinligi ta‘minlangan bo‘lishi kerak.

Yer oborotini kengaytirishda salbiy oqibatlarining oldini olish uchun faqat yerdan qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi uchun foydalanish majburiyatini olgan, shu bilan birga, maxsus bilimga, qishloq xo‘jaligida amaliy ishlash tajribasiga ega bo‘lgan shaxslarnig qishloq xo‘jaligi ekinzorlarini olish huquqi haqidagi qonun hujjatini qabul qilish, shuningdek, davlatning foydalanilmayotgan ekin maydonlarini ularning egalaridan tortib olish va yerlarni davlatning zaxira fondiga yoki qishloqdagi o‘z-o‘zini boshqarish organlariga o‘tkazish huquqini qayd etish va o‘nga qat‘iyan rioya qilish zarur.

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining tushkunligi, shu munosabat bilan qishloqda kuchayib borayotgan ishsizlik sharoitlarida ishlab chiqarish sohasida ham, xizmat ko‘rsatish sohasida ham kichik tadbirkorlikni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu faoliyat qishloq aholisining ish bilan band bo‘lishini, mehnat turlarini kengaytiradi, ishlab chiqarishning mavsumiyligini kamaytiradi, qishloqdagi oilalarning daromadi va farovonligi oshishini ta‘minlaydi. Ishchi kuchi, yer va imoratlarning nisbatan arzonligi mahalliy resurslardan yanada to‘liq foydalanilishiga, qishloq hunarmandchiligining qayta tiklanishiga, qishloqda tadbirkorlik faoliyatining kengayishiga xizmat qiladi.

### **28.12. Yerni iqtisodiy jihatdan baholash muammosi**

Iqtisodiyotni rivojlantirishning hozirgi sharoitlarida yer islohoti, yerni tovar – pul munosabatlari sohasiga kiritish ahamiyatga ega. Amaldagi qonunlar va me‘yoriy hujjatlar yerga egalik qilishning turli ko‘rinishlarini nazarda tutadi. Yerni olib sotish imkoniyati, yer resurslaridan foydalanganlik uchun haq to‘lash zarurati yerning bahosini bilishni talab qiladi. To‘g‘ri baho berish davlat sektorida ham, xususiy sektorda ham yerdan foydalanish sohasida to‘g‘ri qarorlar qabul etilishiga xizmat qiladi. Ammo aslini olganda, hozircha qishloq xo‘jaligi yerlarining bozori mavjud emas, tarkib topgan renta munosabatlari, qishloq xo‘jaligi ekinzorlarini iqtisodiy baholashning yagona mexanizmi yo‘q. Yerga iqtisodiy baho berish muammosi mamlakat adabiyotida birinchi marta qishloq xo‘jaligi ekinzorlarini birovning nomiga o‘tkazish vaqtida, zarar uchun tovon to‘lash va yerdan foydalanish samaradorligini oshirish zarurati munosabati bilan ko‘ndalang bo‘ldi.

Ma'muriy iqtisodiyot sharoitlarida, yerga xususiy egalik bo'lmagan va yer bozori tarkib topmagan vaqtda, qishloq xo'jaligi ekinzorlarini baholash usuli qishloq xo'jaligi oborotiga kiritilmagan yer fondlaridan yangi yerlarni o'zlashtirish uchun qilinadigan haqiqiy sarf-xarajatlarga, tuproqning iqtisodiy samaradorligi o'rtasidagi tafovutga, shuningdek, hosildorlik ko'rsatkichlari bo'yicha yer daromadini kapitallashtirish bazasiga asoslanar edi. Qishloq va o'rmon xo'jaligida yer ishlab chiqarishning asosiy vositasi ekanligi hisobga olinardi, bunda yerning eng muhim iqtisodiy ko'rsatkichi sifatida uning unumdorligi namoyon bo'lardi.

Iqtisodiyotdagi bozor o'zgarishlari natijasida yerni baholash masalasi yerdan foydalanganlik uchun haq to'lashni joriy etish muammolari hal etilishi va yer haqining tabaqalanishi munosabati bilan yana dolzarb o'rin egalladi. Ammo davlat bozorga o'tishda yer qiymatini belgilashning bozor uslublaridan voz kechdi. Yerning hisobga olinadigan me'yoriy narxi yer solig'ini stavkalar koeffitsiyentiga ko'paytirishdan kelib chiqib belgilanar edi. Ammo yerning me'yoriy narxi iqtisodiy baho rolini bajarmaydi. Qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallangan yerlarning bozor narxini baholash quyidagi maqsadlarda amalga oshiriladi:

- qishloq xo'jaligi ekinzorlariga bo'lgan huquqni olish yoki bировga topshirish bo'yicha bitimlarni amalga oshirish vaqtida;
- korxonalarining nizomdagi kapitaliga yer uchastkasi yoki o'nga egalik huquqi tarzidagi mulkiy badal kiritish vaqtida;
- kredit bo'yicha kafolatlar asoslilikini aniqlash uchun yer uchastkasining ipotekasi vaqtida;
- yer uchastkasi to'liq yoki qisman tortib olinganligi uchun uning egasiga beriladigan tovon pulini aniqlash vaqtida;
- yer maydonlarini xususiylashtirish vaqtida;
- qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida rentali soliq tamoyillarini amalga oshirish vaqtida yerga to'lanadigan haqni belgilash uchun;
- yerlarni muhofaza qilish va ulardan ratsional foydalanish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish vaqtida;
- qishloq xo'jaligi ekinzorlarining milliy boylik tarkibidagi qiymatini hisobga olish va boshqa maqsadlar uchun.

Qishloq xo'jaligi ekinzorlarining qiymatini baholash vaqtida umumiy ko'rinishda ko'chmas mulkka baho berishning jahon nazariyasida qabul qilingan ikki asosiy usuli: savdo-sotiqni taqqoslash usuli va daromadlilik usuli maqbuldir.



G'arb mamlakatlari amaliyotida savdo-sotiqni taqqoslash usuli yerga baho berishning asosiy va maqbul usuli bo'lib keldi va shunday bo'lib qolmoqda.

Savdo-sotiqni taqqoslash uslubini qo'llash quyidagi vazifalarni izchillik bilan bajarishdan iborat:

– nima uchun mo'ljallanganligi va foydaliligi taqqoslanayotgan ob'ektlarga aloqasi bo'lgan barcha omillar haqida ishonchli axborot olish maqsadida bozorni atroflicha tadqiq etish;

– har bir ob'ekt bo'yicha qiyosiy tahlillar o'tkazish va taqqoslashning mos birliklarini aniqlash;

– sotuv narxini aniqlash yoki taqqoslanayotganlar ro'yxatidan chiqarish maqsadida tadqiq etilayotgan ob'ektni qiyosiylik uchun tanlab olingan ob'ektlar bilan solishtirish;

– taqqoslanayotgan ob'ektlar qiymatining qator ko'rsatkichlarini bir ko'rsatkichga yoki tadqiq etilayotgan ob'ektning bozor qiymati diapazoniga keltirish.

Qiymat bog'liq bo'lgan taqqoslashning to'qqiz asosiy elementini ajratib ko'rsatishi qabul qilingan. Ular quyidagi tartibda albatta, tahlil qilinishi va muvofiqlashtirilishi kerak:

1. Olinayotgan huquqlarning turi.
2. Moliyaviy ta'minlash shartlari.
3. Savdo-sotiq shartlari.
4. Bozorning ahvoli.
5. Joylashgan yeri.
6. Jismoniy tavsiflari.
7. Iqtisodiy tavsiflari.
8. Foydalanish.
9. Qiymatning ko'chmas mulk bilan bog'liq bo'lmagan tarkibiy qismlari.

Muvofiqlashtirish foizlarda ifodalanishi mumkin, ular (keyinchalik) pul ifodasidagi mutlaq miqdorga aylantiriladi, yoxud mutlaq miqdorda hisobga olinishi mumkin (to'g'ridan-to'g'ri pul tuzatishlari). Foizlarda muvofiqlashtirish narxga nisbatan, yoxud taqqoslash ob'ektlaridan bittasining qiymatiga nisbatan qo'llanilishi mumkin.

Qishloq xo'jaligi ekin maydonlarining qiymatini hisoblash uchun savdo-sotiqni bevosita qiyosiylik usulini qo'llash ikki asosiy muammo: yer bozori yaqinda paydo bo'lganligi va u hali rivojlanmaganligi sababli qiyosiylik adigan maydonlarinnig oz miqdori; axborotlar bilan sust ta'minlanganligi bois chigallashmoqda.

Shunga qaramay, ushbu usulni muhimligi sababli qo'llash nazarimizda zarur ko'rinadi. Bu usulni qo'llash ko'pincha ekspertlarning baholaridan foydalanib olib boriladi. Ma'lumotlar cheklanganligi va yetarli emasligi sharoitida qiyosiy savdo-sotiq usulidan foydalanish zahirida ekspertlar daromad usulining o'sishi va davomi hisoblanuvchi usuldan foydalanadilar.

Baholashning daromadli usuli yoki rentani kapitallashtirish usuli birmuncha universaldir. Yer bozori bo'lmagan bir sharoitda qishloq xo'jaligi yerlarining qiymatini baholash uchun bu usulni keng qo'llasa bo'ladi. U mahsulot qiymati bilan (erdan foydalanish natijasida olinadigan) daromad olish uchun qilinadigan sarf-xarajatlar o'rtasidagi farq sifatida, baholashni pul ifodasida hisob-kitob qilishga asoslangan. Bunda mahsulot tannarxi o'nga teng bozor narxlar bilan o'lchanadi. Tannarxni hisob-kitob qilish uchun hosildorlikning bazis qiymatlaridan va yerning sifati, qayerda joylashganligi hamda ishlab chiqarishning hozirgi texnologiyasi bilan bog'liq bo'lgan asosiy qishloq xo'jaligi ekinlari bo'yicha sarf-xarajatlardan foydalaniladi. Tahlil va hisob-kitoblar asosida ko'rib chiqilayotgan qishloq xo'jaligi maxlanadi. Mamlakatning asosiy iqtisodiy-geografik hududlari bo'yicha o'simlikshunoslik mahsulotlari bozor narxi o'rtasidagi farq aytarlik katta emas.

Bu mahsulot ishlab chiqarishga qilinadigan sarf-xarajatlarga nisbatan mahsulotni tashishga qilinadigan sarf-xarajatlar birmuncha kamligi bilan bog'liq. Shu munosabat bilan mamlakatning asosiy qishloq xo'jaligi uchun yagona bo'lgan o'simlikshunoslik mahsulotlarining bozor narxlaridan foydalanish imkoniyati mavjud. Hosildorlik yoki chorvachilikning samaradorligi qiymatlariga sarf-xarajatlarga asoslanib, yerdan eng yaxshi, samarali foydalanish yo'llari: baholanayotgan qishloq xo'jaligi maydonini rivojlantirish, mahsulotni ko'paytirish, uni qayta ishlash va iste'molchiga yetkazib berish texnologiyasi variantlari belgilanadi. Bunda iqtisodiy-matematik modelning asosiy o'zgaruvchisini (hosildorlik, almashib ekish tartibi va sarf-xarajatlar, tannarx) aniqlashga qodir bo'lgan eng maqbul foydalanish variantini tanlash uchun foydalansa bo'ladi.

Qishloq xo'jaligi ekin maydonining qiymati daromadni (rentani) kapitallashtirish usuli bo'yicha bo'ladi, ya'ni:

$$V = \frac{(Z - C)}{K} .$$

Formulaga ko'ra, mahsulot narxi bilan uni olish uchun qilingan umumiy sarf-xarajatlarning kapitallashtirilgan farqi teng. Ushbu formulada **V** – yer maydoni qiymatini; **Z** – yillik qishloq xo'jaligi mahsulotining narxini; **S** –

mahsulot olish uchun qilingan umumiy sarf-xarajatlarni; **K** – renta daromadini kapitallashtirish koeffitsiyetini anglatadi.

Kapitallashtirish koeffitsiyeti kumulyativ qurilish usullari va yer maydonlarining oldi-sotdisiga doir ma'lum faktlar hamda bozor renta stavkalari bo'yicha bozor ma'lumotlariga asoslanib hisoblanadi. Kumulyativ qurilish usuliga asoslanib hisob-kitob qilinadigan kapitallashtirish koeffitsiyeti quyidagi omillarni bevosita yoki bilvosita inobatga olishi kerak:

1. Olinishi aniq bo'lgan daromad stavkasini.
2. Aktivni (er maydonini) boy berish xavfiga qo'shiladigan tuzatishi.
3. Pullash qiyinligiga qo'shiladigan tuzatishni.
4. Investitsion menejmentga qo'shiladigan tuzatishni.
5. Aktiv qiymatining bashorat qilinadigan oshishi yoki kamayishiga qo'shiladigan (ayriladigan) tuzatishni.

Odatda, hisob-kitoblarga asos (xavf-xatarsiz stavka) qilib qiymati to'la sug'urta qilingan nomli hisob-kitoblar, omonatlar bo'yicha pul evazidagi minimal kompensatsiya stavkasi qabul qilinadi. Xavf-xatarsiz stavkaga baholanayotgan yer uchastkasi xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan daromad olish beqarorligiga tuzatish qo'shiladi. Pullash imkoniyati pastligiga tuzatish aktiv darhol naqd pul mablag'lariga aylantirilishi mumkin bo'lmagan hollarda amalga oshiriladi. Kapital sarf-xarajatlarni qoplashga doir tuzatishlar aktiv qiymatining pasayishi kutilayotgan bo'lsa, kapitallashtirish koeffitsiyetining o'sishi tomoniga qilinadi. Yer maydoni qiymatining o'sishi bashorat qilinayotgan vaqtda kapitallashtirish koeffitsiyeti diskont stavkasidan (investitsiyadan olinadigan daromad) kapital o'sishining yillik foizini ayirish yo'li bilan ham hisob-kitob qilinishi mumkin.

Yer maydonlari qiymatini baholashning tajribasi asosiy muammo jahonda yaxshi ma'lum bo'lgan baholash usullarining mavjud bozor shartlariga moslashishimas, axborot ta'minotining, ya'ni baholash uchun birlamchi ma'lumotlarni olish imkoniyatlari to'liq emasligidir, deb xulosa chiqarish imkonini beradi. Mazkur muammoni hal etish va qishloq xo'jaligi yerlarini baholashning yagona mexanizmini yaratish uchun baholash kadastr ishlarini rivojlantirishning davlat konsepsiyasi zarur. Mazkur konsepsiya oldi-sotdi vaqtda maydonlarning ahvoli va iqtisodiy tavsiflari bo'yicha ma'lumotlar yig'ishni, shuningdek, yerni baholovchi professional mutaxassislar tayyorlashni majburiy shart sifatida o'z ichiga olgan bo'lardi. Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida ishlab chiqarish va qishloq xo'jaligi hamda oziq-ovqat mahsulotlaridan foydalanish majmuasi xususiyatiga egaligi agrobiznesning shakllanishi uchun asos hisoblanadi.

## **Agro biznes**

Amerikalik iqtisodchilar J.Devis va R.Goldberg agrobiznes nazariyasining asoschilaridir<sup>19</sup>. Rey Goldberg agrobiznes bo'yicha doimiy harakat qiluvchi xalqaro seminarining uzoq vaqt rahbari bo'lib kelgan.

Agrobiznesni u fermalarda mahsulot ishlab chiqarishga doir barcha operatsiyalarning qishloq xo'jaligi xom ashyolari va undan yaratilgan iste'mol buyumlarini saqlash, qayta ishlash va realizatsiya qilish operatsiyalarning shu mahsulotga talabni imkoni boricha to'liq ta'minlash sharoitlarida eng yuqori daromadga erishish maqsadiga qaratilgan majmui deb talqin etadi.

Iqtisodiyotning bozor modeli sharoitlaridagi agrobiznes – bu qishloq xo'jaligini zarur resurslar bilan ta'minlash va oziq-ovqat hamda texnika xom ashyolarini ishlab chiqarish, qayta ishlash va taqsimlashning izchil operatsiyalarini amalga oshirishni muvofiqlashtirishning o'ziga xos shaklidir.

Iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarga xos bo'lgan ASMning ishlab chiqarish tizimida noqishloq xo'jaligi sohalarining ustuvorlik qilish tamoyili agrobiznesda ularning institutlari yetakchilik ahamiyatini ham belgilaydi.

Hozirgi zamon agrobiznesining qishloq xo'jaligiga aloqasi bo'lmagan korxonalari, firmalari, birlashmalari uchun xo'jalik faoliyatining tobora yirik firmalarda (ob'ektlarda) jamlanib borishi va markazlashuvining asta-sekin kuchayib borishi qonuniydir. Jumladan, hozir AQShning 2 yirik korporatsiyasi – «John Deere» hamda «Case Corporation» fermalarga yetkazib beriladigan traktor va kombaynlarning 4/5 qismini nazorat qiladi.

12 ming oziq-ovqat kompaniyalaridan shu kompaniyalar umumiy sonining atigi 1,7 foizini tashkil etuvchi 200 yirik korporatsiyalari ulushiga AQSh shu tarmog'idagi butun qo'shimcha qiymatning 3/5 qismidan ko'prog'i to'g'ri keladi.

Bundan tashqari, mamlakat oziq-ovqat mahsulotlari savdosi jami chakana tovar oborotining 2/3 qismi ulgurji-chakana savdoning yirik ko'p sohali (10 tadan to 50 tagacha do'konlari bor) firmalarida jamlangan.

Yirik ilmiy-ishlab chiqarish birlashmalarini mujassam etgan yetakchi firmalar agrobiznesning asosiy tashkiliy shakli hisoblanadi. Ana shunday birlashmalarning har birida 5 mlr.dan to 20 mlr.dollargacha, hatto undan ham ko'p mablag'ga mahsulot realizatsiya qilish bilan mashg'ul bo'lgan 10 mingdan to 100 ming nafargacha xizmatchilarga ega.

Yirik ko'lamli ishlab chiqarishni rivojlantirish qishloq xo'jaligiga aloqasi bo'lmagan sohalarda xo'jalik sub'ektlarining aksiyadorlik ko'rinishlari ustuvorlik qilishini izohlaydi. Ammo qishloq xo'jaligiga aloqasi bo'lmagan,

---

<sup>19</sup> Davis J. and Goldberg P. A concept of agribusiness. – Boston. Mass.: Harvard Uniw, 1957

qisqa muddatda, tez tarkibiy qayta tuzilishga qodir, fan-texnika taraqqiyoti yutuqlarining o'ziga xos razvedkachilari va amalga oshiruvchilari hisoblanuvchi kichik va o'rta kompaniyalar ham agrobiznesda jiddiy, ba'zida tobora kuchayib boruvchi rolni o'ynaydi.

Agrobiznesni bevosita qishloq xo'jaligi sohasida faoliyat ko'rsatuvchi tashkiliy shakllari o'z xususiyatlariga ko'ra bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi, bu qishloq xo'jaligining tarmoq sifatidagi xususiyatlari bilan izohlanadi. Shu shakllar ichida eng ustuvori fermer xo'jaliklari: xususiy-oilaviy fermerlar, oilaviy-guruhli (sherikchilik, oilaviy korporatsiyalar va hokozolar) fermerlar hisoblanadi. Bu ishlab chiqarishni oilaviy kapital zahirida, kredit va qisman yollanma mehnatdan foydalanib, yuritish imkonini beruvchi nisbatan katta bo'lmagan xo'jalik birliklaridir. Ularning ulushi qishloq xo'jaligida yuridik o'rtacha mashg'ul bo'lganlar umumiy sonining taxminan 35%ni tashkil etadi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi bilan yirik aksiyadorlik kompaniyalari ham shug'ullanishadi.

Ammo, hatto eng yirik fermalar ham o'z ko'lami bo'yicha agrobiznesning noqishloq xo'jaligi firmalariga qaraganda o'n va yuz baravar kichik.

Bir korxonada (fermada, firmada) ishlab chiqarishning eng kam ko'lamlari doimiy kengayib borishi qishloq xo'jaligi sohasidagi agrobiznesning tashkiliy tuzilishi shakllarida hukmron tamoyil hisoblanadi. Bu fermalar umumiy soni qisqarishiga va yirik xo'jaliklar rolining oshib borishiga xizmat qiladi.

Ammo bozor iqtisodiyoti rivojlangan hozirgi zamon mamlakatlari shu bosqichda mayda va o'rta fermer xo'jaliklaridan halos bo'la olishmaydi. Bu, jumladan, qishloq xo'jaligining industrlashishi, turlarining qisqarishiga va sifatining yomonlashishiga olib kelishidan xavotirlanish bois jamiyatning ulardan manfaatdor ekanligi bilan izohlanadi.

Masalan, 1988 yil 1 yanvardan Yelida chorvachilikda o'stiruvchi gormonlarni qo'llanish taqiqlangan.

Ishlab chiqarilayotgan oziq-ovqatlar sifatiga talablarni keskinlashtiruvchi va agrar ishlab chiqarishda kimyoviy moddalarning qo'llanilishini cheklovchi qonunlar kuchga kirmoqda.

O'tkazilgan savol-javoblarga qaraganda, Germaniya aholisining 65% oziq-ovqatlarda zahar bo'lishidan xavotirlanadi, Fransiya aholisining 53% «toza» mol go'shti uchun qimmatroq haq to'lashga tayyor ekanligini bildirgan.

Mana shunday sharoitlarda qator mamlakatlarda muqobil, deb atalmish dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi dehqon va fermerlarning birlashmalari paydo bo'ldi. 30 mamlakatdagi 80 mingdan ziyod fermerlarni birlashtirgan

Xalqaro organik dehqonchilik federatsiyasi 1972 yilda tashkil etilgan edi, u hozir ham faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Kimyoviy (ekologik) sof oziq-ovqatlarni ishlab chiqarish oilaviy dehqon xo'jaliklarining saqlanib qolishi va faoliyat ko'rsatishi uchun yangi istiqbollarni ochib beradi.

Bu demak, agrobiznesning tarkibiy tuzilishi mulkchilikning va ishlab chiqarishni tashkil etishning turli ko'rinishlaridagi korxonalariga, ishlab chiqarish omillarining rivojlanish darajasidagi o'zgarishlarga, ayrim soha va tarmoqlardagi muayyan kuch-g'ayratga muvofiq xo'jalik birliklarining ko'lami va tarkibiy tuzilishi doimiy dinamikasiga asoslangan.

### **Qisqacha xulosa**

Qishloq xo'jaligi sub'ektlarining ega bo'lgan o'ziga xos iqtisodiy o'zaro munosabatlari insoniyatning boshqa faoliyat sohalarida ko'rib chiqilganlaridan farqlanadi.

Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish asosiy ishlab chiqarish vositasi bo'lgan yer bilan bog'liq. Jamiyatda bu bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarning keskinligi yerga bo'lgan mulkchilikni kasb etadi.

Har qanday jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy inqirozlar qishloq xo'jaligidagi inqirozli vaziyatlarda kuchaytiriladi, mamlakat aholisining oziq-ovqatga qaramligi import oziq-ovqat mahsulotlari darajasi bilan aniqlanadi.

Agrar munosabatlar bu – jamiyatda barcha xo'jalik yurituvchi sub'ektning o'rtasidagi qishloq xo'jalik mahsulotlarni tovar ishlab chiqarish bo'yicha ijtimoiy-iqtisodiy o'zaro munosabatlardir.

Boshqa tarmoqlardagi ishlab chiqarish vositalaridan farqi o'tgan davrlardagi mehnat natijasi, ya'ni moddiylashgan mehnat bo'lsa, yer tabiiy mahsuloti bo'lib hisoblanadi. Yer takror ishlab chiqarilmaydigan ishlab chiqarish vositasi, u o'zining joyini o'zgartira olmaydi, ya'ni jismoniy qo'zg'almaydi, uning miqdori cheklangan.

Bundan tashqari, yer ishlab chiqarish vositasi sifatida u biologik jihatdan ishlab chiqarish jarayonida qatnashadi. Shuning uchun qishloq xo'jaligidagi mehnatning natijasi ko'pincha yerning tabiiy hosildorligiga bog'liq. Yer uchastkalari o'zining hosildorligi bo'yicha har xil, bu o'z navbatida yerning hosildorligida, ishlab chiqarish sarf-xarajatlarini va yer uchastkalarining narxini farqlanishini shartlaydi.

Qishloq xo'jaligining asosiy xususiyati bu yerda mehnat va yer mehnatlari bu – predmetlarga ayniqsa, kasbga oid bilimlarni va munosabatlarning naqdligini tahmin qiladigan, hamda tabiiy-iqlim shartlarining ta'sirini ko'llab-quvvatlaydigan tirik organizm (o'simliklar va hayvonlar)dir. Qishloq

xo‘jaligida mehnat natijalari juda ham murakkab tabiiy (er – tuproq – iqlimga – biologiyaga oid) va iqtisodiy jarayonlarning chatishib ketganligini tasavvur etadi. Qishloq xo‘jaligi (agrar sohada) ishlab chiqarishida asosiy rolni vaqt – fasl omili o‘ynaydi. Qishloq xo‘jaligida ekin va yig‘im-terim payti juda ham minimal muddatga olib kelingan. Ishlab chiqarish davri bilan ishlov – dehqonchilik davri o‘rtasida o‘zilish mavjuddir. Ishlab chiqarish davriga qaraganda ishlov – dehqonchilik davri ancha qisqa, bu o‘z navbatida ishlab chiqarishning texnikadan ishchilar va dehqonlar tomonidan foydalanishning mavsumiga olib keladi. Ularning samaradorligini oshirish maqsadida har xil tarzda qayta ishlab chiqarish va yordamchi ishlab chiqarish vositalar yaratiladi. Qishloq xo‘jaligidan ishlab chiqarishning xususiyati qishloq xo‘jaligida boshqa turdagi ishlab chiqarishlar asosiy kapitalining aylanishidan farqlanishini ifoda etadi.

Asosiy kapital tarkibiga inshoot, texnika, transportlardan tashqari ishlab chiqarish fondlarining o‘ziga xos xususiyati, turi bo‘lgan ishchi va mahsuldor hayvonlar, ko‘p yillik daraxtlar kabilar kiradi. Yana shuni hisobga olish zarurki, ya’ni qishloq xo‘jaligida foydalanadigan ishlab chiqarish vositalarining 50% gacha tovar – pul munosabatlari sohasini hisobga olmasdan ishlab chiqarish jarayonlariga kiritiladi. Bular jumlasiga xo‘jaliklar ichida yaratilgan va ularning o‘zlari uchun ashyoviy shaklda foydalanadigan har xil urug‘lar, xashak, pichan, yem, har xil zaruriyatda ishlatiladigan podalar kabilar kiradilar.

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, kapitalning aylanish harakati sanoat bilan taqqoslaganda qishloq xo‘jaligida sokinlashtirilgan. Yer uchastkalarining farqlanishi (toqqa oid, botqoqlik joylar, qumli, qum bilan qoplangan) har xil texnikalardan foydalanishni talab qiladi. Har bir yetishtiriladigan ekinlarning turlari yoki boshqa qishloq xo‘jaligi ishlari uchun o‘ziga xos texnikaviy vositalar majmuasi zarurdir.

Qishloq xo‘jaligi sanoatga qaraganda transport vositalariga katta talabni ham sezadi. Shu bilan birga, shuni hisobga olish kerakki, ya’ni qishloq xo‘jaligida texnika faqat qishloq xo‘jaligi ishlarining mavsumida faol foydalaniladi. Barcha aytilganlar qishloq xo‘jaligini sanoat bilan taqqoslaganda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishning texnika vositalariga talabini bir ishchiga hisoblaganda yuqori ekanligini oldindan aniqlab beradi. Bunday tendensiya qishloq industriyasi bilan rivojlangan mamlakatlar uchun ham, qishloq xo‘jaligida yuqori mehnat unumdorligi bilan ta’minlanganligini ko‘rsatadi. Jahon amaliyotining ko‘rsatishicha, qishloq xo‘jaligida mehnatning texnika fondlari bilan ta’minlanganligi iqtisodiy rivojlangan

mamlakatlarda sanoatga qaraganda yuqori ekanligini bildiradi. Qishloq xo‘jaligining tabiatga qaramligi sug‘urta va zaxira fondlarining muhimligi nafaqat qishloq xo‘jaligining o‘zi uchun, balki boshqa tarmoqlar uchun ham hamda aholining oziq-ovqat mahsulotlariga talabini qondirishda barqarorligini qo‘llab- quvvatlash uchun ham zarurdir.

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining mavsumiyligi vaqtni sarflashda o‘lchovsizlikni keltirib chaqiradi. Bu qishloq xo‘jaligida samarali faoliyatni ta‘minlashda kreditning ahamiyatini ko‘taradi.

Shuni hisobga olish keraki, ya‘ni qishloq xo‘jaligi mamlakatning umumiy ijtimoiy ishlab chiqarish strukturasi faqat bir qismi. U milliy iqtisodiyotning nisbatan mustaqil elementini, ya‘ni qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarish turlarida ishlaydiganlar bilan ham, ularning mahsulotlarini qaytadan ishlab chiqaradigan yoki iste‘mol qiladigan tarmoqlardagi o‘zaro bog‘liqlikni tasavvur etadi. Ko‘pincha iqtisodiyot adabiyotlarida ko‘rsatilgan o‘zaro bog‘liqliklar «agrosanoat majmuasi» tushunchasi bilan aks ettiriladi. Statistika fanidan agrosanoat majmuasiga: qishloq xo‘jaligining o‘zi; qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini tayyorlash; qishloq xo‘jaligi xom ashyolarini ko‘p miqdorda ishlab chiqaradigan sanoat tarmoqlari; qishloqdagi savdo va umumiy ovqatlanish; qishloq qurilishi, qishloq xo‘jaligi mashinalarini va traktorlarini remont qiladigan sohalar kiradi (bu ushbu bobda batafsil ifoda etilgan).

Jahon iqtisodiy amaliyotini umumlashtirish shuni ko‘rsatmoqdaki, ya‘ni mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi qanchalik yuqora bo‘lsa, shunchalik qishloq xo‘jaligining o‘zida tashabbuskor aholining bandligi past va unda xizmat ko‘rsatadigan sohalarda yuqoridir.

2000 yillarning boshlarida qishloq xo‘jaligida moddiy ishlab chiqarishda umumiy bandlikka nisbatan jahonda o‘rtacha 66%; rivojlangan davlatlarda – 18%, AQSh da – 10%, Yaponiyada – 22%, sobiq ittifoq tarkibidan chiqqan mamlakatlarda – 30%, Xitoyda 74%ni tashkil etgan.

O‘sha yillarda qishloq xo‘jaligida mehnat unumdorligi foizda rivojlangan davlatlarni o‘rtacha mehnat unumdorligi 100% deb qabul qilsak: butun jahon – 6%, AQSh – 20%, Yaponiya – 37%, sobiq ittifoq tarkibidan chiqqan mamlakatlarda – 23%, Xitoyda – 4%ni tashkil etadi.

Qishloq xo‘jaligida yerning tabiiy xususiyatiga muvofiq mahsulot yaratiladi insonning mehnati o‘zining aniq ahamiyatini yo‘qotadi, deb faraz qilsak xato bular edi.

Qishloq xo‘jaligida moddiy ishlab chiqarishning boshqa tarmoqlariga qaraganda ishchi uning ko‘proq tabiiy bilimi va umumiy ishlab chiqarish madaniyati yerni – insoniyat jamiyatining asosiy boyligi sifatida saqlab qolishi va iqtisodiy ko‘rsatkichlarini aniqlab beradi.



Qishloq xo‘jaligi tirik tabiat bilan ish olib boradi. Bu yerda nafaqat keng kasbiy tayyorgarlik, balki aniq joylarning tabiiy sharoitlari ham talab qilinadi. Qishloq xo‘jaligida mehnatni tashkillashtirish moddiy xususiyatga ega. Birinchidan, bu tarmoqda markazlashgan boshqaruv o‘nga samara bermaydi, sababi ishlab chiqarishidagi o‘zgarishlarga tabiat ko‘rsatayotgan reaksiyalarni qiyinlashtiradi; ikkinchidan, qishloq xo‘jaligida boshqaruv va ijro etuvchi mehnat taqsimotining chuqurlashuvi kam oqlangan. Bu yerda boshqaruv – ijro etuvchi vazifalarni qo‘shish maqsadga muvofiq bo‘ladi, sababi qishloq xo‘jaligi ishchisi va nafaqat jismoniy ishlarni bajarishi kerak, balki qishloq xo‘jaligi ekinlarini o‘stirish texnologiyalarini bilish, o‘zgarib turadigan sharoitlarga muvofiq uni tartibga solishning uddasidan chiqishi ham kerak.

Tabiiyki, ya‘ni qishloq xo‘jaligi mehnatining asosini ishchilarning yerga bo‘lgan munosabati aniqlab beradi. Sobiq sovet sharoitida nafaqat yerni to‘liq davlatlashgan mulk sifatida xarakterlangan, balki boshqa ishlab chiqarish vositalari ham alohida kolxoz ishchilarga aniq yer uchastkalarini, hamda aniq miqdordagi mahsulotga oid hayvonlar ham biriktirib qo‘yishidan keng foydalanilgan edi.

Bu yerda asosiy xulosa shundan iboratki, qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarish samaradorligining natijasi sistemalashgan uch omilning: mehnat, yer, kapitning o‘zaro harakati bo‘lib hisoblanadi. Sistemalashgan tahlil tamoyiliga binoan shuni belgilash zarur, ya‘ni agrar munosabatlardagi asosiy element yerga bo‘lgan munosabatni tan olish, aniqrog‘i esa, yerga bo‘lgan mulkchilik munosabati to‘g‘risida aniqlik kiritishdir.

Hozirgi vaqtda butunlay anglamoq kerak, ya‘ni yerga davlat monopoliyasi nafaqat mulk ob‘ekti sifatida, balki aniqrog‘i darajada sub‘ekt sifatida xo‘jalik yuritish sobiq ittifoqda qishloq xo‘jaligining iqtisodiy samarasiz harakat qilishi asosiy sabab bo‘lgan. Bevosita tovar ishlab chiqaruvchilarning ishlab chiqarish vositalaridan va o‘z mehnatining natijasidan uzoqlashishi, begonalashishi qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida eng ko‘p salbiy oqibat bo‘ldi. Bu yerda asosiy qiziqishi va mas‘uliyat bilan aqlli ravishda yerdan tabiiy «tirik» ishlab chiqarish vositasi sifatida foydalanish talab qilinadi.

### **Asosiy tushunchalar**

Agrariya.

Yer islohoti.

Xo‘jalik yuritish shakli.

Agrar islohot

Yerni baholash usuli.

Renta munosabatlari.

### **Mavzuning na'munaviy savollari**

1. Agrar islohotning mazmuni.
2. Yer islohoti nima?
3. Agrar munosabatlardagi qisqa muddatli va uzoq muddatli vazifalarni ajratib bering.
4. Yer rentasi tushunchasi va yerni nima uchun sotish mumkin emas?

### **Seminar darslarida muhokama qilish uchun savollar**

1. Qishloq xo'jaligi deganda nimani tushunasiz?
2. Yer rentasi va uning turlarini aytib bering.
3. Yer islohoti deganda nimani tushunasiz?
4. Qishloq xo'jaligida samaraga qanday qilib erishish mumkin?

### **Mustaqil darslarda muhokama qilish uchun savollar**

1. Agrar munosabatlar deganda nimani tushunasiz?
2. Agrar islohot deganda nimani tushunasiz?
3. O'zbekistonda yerga mulkchilik qanday munosabatda?
4. Shaxsiy yordamchi xo'jaliklarini (ShYoX) asosiy samaradorligining mazmuni nimada?

## **29 BOB. KICHIK BIZNESNING MOHIYATI VA XUSUSIYATLARI**

Kichik biznes (KB) yoki kichik tadbirkorlik bu ko'p sonli mayda mulkdorlar qatlamini o'z ichiga oladi, ya'ni o'zining ommaviyligi bilan ma'lum darajada davlatning ijtimoiy-iqtisodiy va qisman siyosiy salohiyatining rivojlanishini aniqlab beradi.

Bozor munosabatlarining shakllanishini va rivojlanishini erkin hamda teng huquqli va turli xil shakldagi mulkdorlarining rivojlanishini hamda ular ichidagi har xil sektorlar mavjud bo'lishini taxmin qiladi. Iqtisodiyotning xususiy sektorlarini ko'rib chiqishda, undagi uch guruh korxonalar to'g'risida gap yuritish mumkin, ya'ni umum qabul qilingan atamalar bo'yicha ularning hajmiga qarab: yirik, o'rtacha, kichik korxonalar, deb ataladi. Bu korxonalarning mulkdorlarini yagona mulkchilik bilan bog'lagan umumiy xususiyat – xususiy mulkchilikni himoya qiluvchi, **rivojlantiruvchi**, saqlab koluvchi korporativ manfaat birlashtiradi. Bu o'z navbatida iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishda juda katta ahamiyatga ega.

Shu bilan birga, tadbirkorlikni butunlay turli-tuman bo'lib, ularniig har bir guruhi o'zining ichki manfaatini ko'zlaydi, davlatning olib boradigan siyosatiga, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va milliy muammolariga nisbatan munosabatlari, iqtisodiy xulqi, strategiyasi aniqlanadi. Yirik biznes asosan, mamlakatning iqtisodiy texnikaviy qudratini aniqlab beradi, xuddi shunday yirik firmalar qayta moddiy, moliyaviy, mehnat resurslarini, malakali kadrlarni o'z ichiga oladi.

Yirik ishlab chiqaruvchilar katta darajada ommaviy, nisbatan bir xil talabga ega, katta-katta hajmdagi standartlashgan mahsulotlarni ishlab chiqarishga qaratilgan bo'ladi. Bunday ishlab chiqaruvchilar ishlab chiqarish hajmini tejash hisobiga ga erishadilar. (ishlab chiqarish miqyosida), aksincha, yirik kompaniyalar imkoniyati boricha foyda keltirmaydigan tovarlarni ishlab chiqarishga urunmaydilar, ya'ni bu chuqur mutanosiblikni chaqirishi mumkin.

O'rtacha firmalar kichik hajmdagi ishlab chiqarish bilan tavsiflandi, lekin o'z faoliyatida xususan, yetarli darajada uzoq vaqtga shakllangan ehtiyojlarni amalga oshiradi. Ixtisoslashgan o'rtacha firma tor sohalarni bilishi shart hamda shu bilan bog'liq sarf-xarajatlari orqali faqat ularining biznesi kelajakka ishonch bilan intilishi kerak. O'rtacha biznes katta o'lchamda o'zining faoliyatida ichki iqtisodiy konyunktura bilan bog'liq bo'lib va o'z guruhlarida ichida hamda mamlakatning va chet el yirik kapitali bilan raqobat ko'rashini olib borishga majbur. Bu ham o'rtacha tadbirkorlarining ichki bozorda prokteksionistik yo'llar bilan davlatning iqtisodiy siyosatini himoya qilishda va bozor munosabatlarining aniq qoidasini shakllantirishda, ya'ni o'rtacha

tadbirkorlikning milliy manfaat bilan chambarchas bog‘liqligini aniqlab beradi.

Kichik biznes (KB) sektori asosan, mahalliy bozorlarda va bevosita tovarlarni va xizmatlarni ommaviy iste‘mol qilish bilan bog‘liq xarakterdagi tadbirkorlikning rivojlangan tarmoqlarga bo‘lingan qismi bo‘lib hisoblanadi. Kichik korxonalar o‘zining unchalik katta bo‘lmagan hajmi bilan, ularining texnologiyasi, ishlab chiqarish va boshqaruvining o‘zgaruvchanligi bu bozor konyunkturasi o‘zgaruvchanligiga o‘z vaqtida ahamiyat berishiga ijozat beradi.

Yuqorida ko‘rsatilganidek, jahon amaliyotida korxonaning (firmaning) kattaligi, katta-kichikligini aniqlab beradigan yagona mezon va o‘lcham, ko‘rsatkichlari ishlab chiqilmagan. Birinchidan, bular mamlakat iqtisodiyotining tarmoqlari bo‘yicha jiddiy bo‘lingan. Ikkinchidan, kichik biznesning, umuman xilma-xilligi bo‘yicha nafaqat miqdoriy, balki sifatli mezonlaridan foydalanishni aniqlashdir. Birinchisining hisobiga ayniqsa, ko‘plab ishchilarning o‘rtacha hisobi – yillik hajmi (sotuv hajmi) va aktivlarning balanslashgan qiymatini kiritadilar.

Sifatli ko‘rsatkichlar orasida quyidagilardan foydalaniladi: uning faoliyati sohasida uncha ko‘p bo‘lmagan bozor kompaniyalar ulushi; uning erkinligi; firmani uning egalari boshqarishi. Uchinchidan, kichik biznesni yagona ifodalashda imkoni yo‘qligi va maqsadga muvofiq bo‘lmaganligi (nomuvofiq) nafaqat alohida mamlakatlarning va tarmoqlar iqtisodiyotining ob‘ektiv rivojlanish sharoitlarini jiddiy farqlashi bo‘yicha, balki bunday ifodalashga yondashish bo‘yicha maqsadga bog‘liq farqlanadi va ularning aniq ma‘lumotlarini solishtirish sxemada keltirilgan. O‘zbekistonda kichik korxonalar asosan, ifodalash bo‘yicha ma‘lumotlar kichik korxonalar to‘g‘risidagi qonunda ko‘rsatilgan. Sektor kichik korxonalar (KK) har qanday rivojlangan xo‘jalik tizimining ajratib bo‘lmaydigan, ob‘ektiv zaruriy elementi bo‘lib hisoblanadi.

Faoliyat maqsadi bo‘yicha	Faqat tijorat tashkiloti, ya’ni tashkilotning asosiy maqsadi foyda chiqarish
Tavsiya etuvchilar tarkibi bo‘yicha	Ustav kapitalida qatnashuvchilarning 25% oshmasligi; -O‘zbekiston respublikasi, uning sub’ektlari, jamiyat va diniy tashkilotlar (uyushmalar), ijtimoiy va boshqa fondlar; -Bitta yoki bir necha yuridik shaxslarga tegishli, kichik tadbirkorlik sub’ekti bo‘lmagan.

Hisobot davrida ishchilarning o'rtacha soni bo'yicha	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Sanoatda, qurilishda va transport 100 kishigacha;</li> <li>- Qishloq xo'jaligida va ilmiy tadqiqot sohasida 60 kishigacha,</li> <li>- Ulgurchi savdoda 50 kishigacha;</li> <li>- Chakana savdo va aholiga xizmat ko'rsatish 30 kishigacha;</li> <li>- Boshqa tarmoqda va faoliyatlarni amalga oshirishda 50 kishigacha;</li> </ul>
--	---

### **O'zbekistonda kichik tadbirkorlik mezoni va ko'rsatgichlari**

Bularsiz iqtisodiyot va jamiyat butunlay yaxshi yashab, rivojlanmaydi. Shunga qaramay, har qanday rivojlangan davlatning «yuzi» yirik hisoblanmish korporatsiyalar tashkil etiladi, qudratli iqtisodiy kuchi–yirik kapital fan-texnika va ishlab chiqarish salohiyatini, bozor tizimini riojlantirishga sarflanadi, shuningdek, davlatlar hayotining asosini haqiqatan ham ko'pincha ommaviy, dinamik sifatda va ishchan hayotining o'zgaruvchan shakliga ega bo'lishida kichik korxonalar asosiy o'rin tutadi.

Aynan kichik firmalar o'ziga xos asos yaratib, xo'jalikning baland «qavatlarini» tashkillashtiradi va shu bilan iqtisodiyotning butunlay arxitekturasini ifodalaydi.

#### **29.1. Kichik firmalar (KF)ning farqlovchi xususiyatlari**

Kichik firmalar jamiyat iqtisodiy hayotining mustaqil va yirik shakli bo'lib, o'ziga xos xususiyatlarga ega. Kichik firmalarining ustunligi:

- 1) ushbu bozor kon'yukturasini o'zgarishicha tezda moslashishi;
- 2) iste'molchilar bilan bevosita o'zaro aloqasi;
- 3) tovar xizmatlarini ishlab chiqarish bo'yicha tor ixtisoslashganligi, nisbatan kichik boshlang'ich kapitali bilan o'zining ishini boshlash imkoniyati borligi.

Kichik firmalarning bu barcha xususiyatlari ularning ustuvorligi bo'ladi. Lekin u qandaydir sharoitlarda uning rivojlanishini to'xtatib qoldiradigan kamchiliklari ham bo'ladi: a) kichik firmalar shart-sharoitlarining o'zgarishiga teزدan moslashishi bozor kon'yukturasiga bog'liqligini tashqi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sharoitlar ko'rsatadi; b) nisbatan uncha katta bo'lmagan kapital ishlab chiqarish hajmini, hamda shunga yarasha qo'shimcha resurslarni jalb etishni (fan-texnikalarni, moliyalarni, ishlab chiqarish, mehnat va boshqalarni) cheklaydi; uncha katta bo'lmagan kichik hajimdagi ishlab chiqarish va bandlik miqdori korxonani boshqarishni oddiylashtiradi, ammo

kichik firmalar uchun xususiyatli korxonani bitta shaxs ko‘lamida menedjer vazifasini bajarish, korxonaning ishchilari bilan alohida yuzma-yuz bo‘lish, norasmiy rahbarlik usuli, boshqalar sarf-xarajatlarining pastligi, ya’ni bularning barchasi o‘zini-o‘zi ekspluatatsiya qilishga va belgilangan muddatdan ortiq ishlashga olib kelishi mumkin.

Shunga qaramasdan rivojlangan davlatlarda kichik firmalar juda ham ko‘p muvaffaqiyatlarga ega. Ammo ko‘pchiligi halokatga uchraydi, biroq ularning miqdoran «tug‘ilishi» «halokatga uchraganlar» miqdoridan oshib ketadi. Shuni hisobga olish kerakki, iqtisodiyotda shunday vaziyatlar bo‘ladi, ya’ni kichik firmalar kattalarga qaraganda aniq afzallikka ega bo‘ladilar. Bu qanday vaziyat? Endi ana shu vaziyatlar to‘g‘risida gap yuritamiz.

1. Bir qancha kishilar kiyim-kechak, poyabzal, qimmatbaho ziynat buyumlar qo‘ying-ki individual o‘ziga xos narsalarni sotib olishni xohlaydilar. Ayniqsa, shunday andozaga xos stildagi narsalar bozori esa, hamma vaqt cheklangan, shuning uchun ishlab chiqaruvchilar ommaviy ishlab chiqarish yo‘llaridan foydalana olmaydilar.

2. Remont qilish ishlari bu ham yana bir xil xizmat ko‘rsatish, ya’ni standartlash mumkin bo‘lmagan ish – har qanday turdagi ish xususiyatiga ega. Shuning uchun ham juda ko‘p uy ta’mirleydigan, avtomobillarni, poyabzallarni, soatlarni va boshqalarni sozlaydigan kichik firmalar mavjud.

3. Kichik firmalar shaxsiy xizmatlarni bajaradi. Shuning uchun firmalar bir kishi bilan ishning bajarilishini xohlaydi. Oilaviy doktor, oilaviy advokat, mahalliy sartarosh va maxsus chakana savdo do‘konlari kabilar bunday xizmatlarga misol bo‘la oladi, sababi kishilarga individual yondashuv zarurdir.

4. Geografik omillar bozorlarning hajmini cheklaydi. Masalan, kichik hajmdagi manzilgoh – ovul, qishloqlar univermag, supermarketlar kabi chakana savdo qiladigan korxonalar, firmalarni talab qilmaydi.

5. Uncha katta bo‘lmagani juda ham qimmatbaholi tovarlar – zeb-ziynat, dabdabali yengil avtomobillar, yaxtalar, limuzinlar hamda yuqori sifatdagi sport avtomobillari sotiladigan bozorlar ham bor. Bunday tovarlarni sotib oladiganlar esa, faqat juda yuqori darajadagi daromad oladigan kishilar bo‘lishi mumkin.

Kichik firmalarning epchilligi, moslashuvchanligi bu juda ham katta tashkilotlarga nisbatan ustunligidir. Ular iste’molchilar talabiga tezda moslashuvi mumkin. Hukumatning kichik firmalarga yordam berish dasturlari har xil tarzda mavjud.

Mamlakatimizda kichik firmalarni qo‘llab-quvvatlab har-xil maslahatlar berib xizmat ko‘rsatib turuvchi bo‘limlar sanoat, savdo tashkilotlarida ham mavjuddir. Ular oldindan ishlab kelayotgan yoki endi ochiladigan mahalliy

tashkilotlarga, kichik korxonalariga o'zlarining moliyaviy va boshqa yordamini berishga hamma vaqt shaydir.

Hozirgi zamondagi rivojlangan iqtisodiyotda yangi hodisalar kuzatilmoqda, ya'ni yirik korporatsiya, tashkilotlar bir-biriga foyda keltirishmoqda.

Oxirgi paytlarda g'arb iqtisodiyotida uncha katta bo'lmagan kompaniya firma-generatikalr paydo bo'lib, ular yetakchi firmalar mahsulotlarining nusxasini ko'chirish bilan shug'ullanadilar. Ayniqsa, ular farmatsevtika, elektron va boshqa tarmoqlarda keng avj olgan.

Firma-generatik nimadan yutadilar? Birinchidan, ular oldindan ma'lum mahsulotlarning nusxasini ko'chirishadi, ilmiy tadqiqot izlanishlariga uncha katta sarf-xarajat qilmaydi. Shuning uchun ularning bunday tovarlarini ishlab chiqarishdagi sarf-xarajatlari (ko'pincha boshqacha nom bilan chiqaradigan) ancha past bo'ladi. Ikkinchidan, yirik monopoliyalar ko'pincha tovar narxini oshirib yuboradilar, kichik firmalar bunday qilolmaydilar.

Shunday qilib, kichik korxonalar iste'mol xususiyatiga teng biror tovarni ancha past narxda taklif qilib, yirik firmalar bilan raqobatlashish qobiliyatiga ega bo'ladi va ularni bozorning ancha qismidan chetlashtiradi.

Kichik firmalarning raqobatchilik o'rnini kengaytirish «mahsulotlarga qayta ishlov berish chuqurligini pasaytirish», degan nomani intilish bilan bog'liq. Buning mohiyati shundaki, hozirgi zamon yirik kotserenlari ko'pincha tarmoqlararo xarakterga ega. Ularga boshidan oxirigacha «boshqa tomonlarga» ahamiyat bermasdan, murakkab mahsulotlarni ishlab chiqarishga intilishlari o'ziga xosdir. Bu shunday yuqori darajada mehnat unumdorligi bilan farqlanmaydigan kichik ishlab chiqarish doirasida mavjudligini ko'rsatadi. Agarda kotsern shunday qatnashishlarni bekitsa hamda kichik firmalardan ko'proq arzon va sifatli komplektlarini sotib olsalar (yirik korporatsiyalar buyurtmasi bo'yicha ishlaydigan) firmalarning yalpi xarajatlari pasayadi, raqobatli o'rinlar esa, kuchayadi. Bunday xollarda kichik firmalar o'zlarining quchaytirib konserenlarinig kam mahsulot ishlab chiqaradigan bo'limlarini berkitib qo'yadigan instrument bo'lib xizmat qiladilar.

Ammo kichik firmalar nafaqat yirik firmalarning kam samarali bo'linmalari bilan raqobatlashadi, balki ular, natijada iqtisodiyotning asosiy sektori sifatida, eng qudratli kompaniyalarning yetarli darajadagi jiddiy raqobatchisi qobiliyatga ega bo'ladi. Bunga ularning nafaqat ko'p sonliligi, balki kichik tadbirkorlikning tezlik bilan yangilanishi ham imkon yaratadi. Yildan- yilga ancha ko'p sonli kichik firmalar paydo bo'lmoqda, shu bilan birga, ularning sonlari qisqarishi ham yuqoridir. Lekin ularning faqat kam qismi harob bo'lmoqda, kichik firmalarning ko'p soni shudan yirik moliyaviy yo'qotishlarsiz hamda yangi biznesni shakllantirishga tayyordirlar. Shuning

uchun kichik firmalar qoidalarga muvofiq nafaqat qisqarmoqda, balki hatto, o‘sib bormoqdalar.

## **29.2. Kichik biznesning iqtisodiy ahamiyati**

Kichik biznesning ijtimoiy ahamiyati kichik mulkdorlar guruhlarining ommaviyligi bilan ifodalanadi – bozor iqtisodiyoti rivojlangan har qanday mamlakatning ko‘proq jiddiy sifatli xarakteristikasi bu kichik korxonalar egalari va yollangan ishchilar, ularning umumiy soni va boshqalardir. Faoliyati aholining aynan mana shu guruhlari iste’molchilarning asosiy miqdoriga xizmat ko‘rsatadi, bozorning tezda o‘zgarib turgan talablariga yarasha kompleks mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqaradi. Shu bilan birga, kelgusi asosiy ijtimoiy omillarni hisobga olmoq zarur:

- kichik biznes asta-sekin mayda mulkdorlarning teng qatlamini yaratishga yordam beradi;
- kichik biznes bilan shug‘ullanish nafaqat yashash vosita, balki shaxsning ichki salohiyatini ochishga ham yordam beradi;
- iqtisodiyotning muqarrar ravishda tuzilishi fuqarolarning katta miqdorda mustaqil tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishga majburlaydi;
- kichik biznes sektori yangi ish o‘rinlarini yaratadi, bu mamlakatda ijtimoiy qizg‘inlik hamda ishsizlik darajasining pasayishini ta‘minlashi mumkin deganidir.

Har xil mamlakatlarda kichik biznesning siyosiy ta‘siri yetarli darajada yuqori, shu sababli bu ijtimoiy guruhlar allaqachon o‘rta sinflarning asosiy shakli bo‘lgan, bu o‘zining miqdori bo‘yicha ko‘proq vakili hamda aholining muqim qismining siyosiy afzalligini ifodalaydi.

Kichik biznes sektori ko‘pincha yangi mahsulot turlarini va iqtisodiyotning chuqur joylarini o‘zlashtiradi, yirik biznesning yoqimsiz tarmoqlarida rivojlanadi va boshqalar. Kichik biznesning asosiy xususiyatlari investitsiyalarni jadal va muomaladagi vositalarni o‘zlashtirish qobiliyatligidadir. Kichik biznesning yana bir xususiyati iqtisodiyotning barcha sektorlarida har xil xo‘jalik tarmoqlarining rivojlanishiga tezda yordam beradigan yangiliklarni faollashtirishdan iboratdir.

Kichik biznesga mohiyatan egiluvchanlik va yuqori darajada molsashuvda bo‘lgan bozor kon‘yunkturasi mamlakatda makroiqtisodiy jarayonlarni barqarorlashtirishga yordam beradi. Ammo kichik biznes sektoriga nisbatan daromadlarning pastligi, mehnatning yuqori intensivligi, ya‘ni texnologiyalarni yuqori tavakalligi xosdir. Bu kichik biznes sektori faoliyatida ommaviy bankrotlik, qayta ixtisoslashish yoki tanazullik oqibati



doimo yangilanishga olib keladi. Kichik biznesning yashash qobiliyatiga taalluqli narsalar to'xtalsa, unda umumjahon banking ma'lumoti bo'yicha, yangi tashkil qilingan kichik korxonalarining bir yildan o'tgan ularning mavjudligi harakat qilayotganlar orasida 50% ,uch yil o'tgach 7-8% va nihoyat, 5 yildan keyin 3% gacha qoladi. Jahon tajribasining tasdiqlashicha: kichik biznes– bozor iqtisodiyotining asosiy elementi, bozor iqtisodiyoti busiz osonlik bilan rivojlana olmaydi. U ko'pincha iqtisodiy o'sish sur'atini, yalpi milliy mahsulotning tuzilishini va sifatini ifoda etadi. Ammo u nafaqat miqdoriy ko'rsatkichlarda – bu sektor o'zining mohiyatiga ko'ra, bozor infratuzilmasining ichki elementi bo'lib hisoblanadi. Kichik tadbirkorlikning yuqori darajadagi rivojlanishi hozirgi zamon raqobatli bozor xo'jaligi modelining zaruriy, tarkibiy qismidir.

### **29.3. Davlat kichik biznesini qo'llab-quvvatlashi (jahon amaliyotida)**

Milliy manfaatga xos bo'lgan alohida muhim ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning asosiy yo'nalishi kichik biznesga bo'lgan davlat siyosati ko'pchilik chet mamlakatlar tajribasida namoyon bo'lmoqda.

Kichik va o'rta tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlaydigan konsepsiya milliy va umumevropa manfaatlariga xos jamiyat tushunchasini o'z ichiga oladi, bular asosida kichik va o'rta tadbirkorlikka nisbatan maqsadlar va muhim prinsiplar siyosatlar hamda bu siyosatning asosiy mexanizmlarini va tashkiliy tizimlarini amalga oshirish davlatlararo, davlatlar va hududlar darjasida ifodalanadi, Yevropa ittifoqining har xil davlatlari uchun kichik va o'rta tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash maqsadida va tamoyillarida yirik farqlar mavjuddir. Bu bilan bog'liq ravishda bir xil mamlakatlar, tadbirkorlikni rivojlantirish uchun iqtisodiy muhitni kichik va o'rta tadbirkorlik faoliyatini xususiylashtirishni kengaytirish, soliq tizimini va raqobat to'g'risidagi qonuniyatlarni tartibga solish va erkinlashtirish yo'li bilan yaxshilash kerak, deb hisoblaydilar.

Boshqa davlatlar shunday fikrlarni qo'llab-quvvatlaydilar, ya'ni maqsadi dasturlarni va ko'proq mo'qamallashtirilgan moliyaviy sxemalarni ishlab chiqishi, taraqqiyotparvar choralar bilan birga, kichik qo'shma korxonalarining qarzlarni qoplolmaydiganlarni bevosita subsidlash yo'li bilan qo'llab-quvvatlash yoki soliq tizimlari iqtisodiy rivojlanishini tezlashtirishga, bandlikni ko'paytirishga, raqobat bardoshligini ta'minlashga ijozat beradi.

Boshqa mamlakatlarda kichik biznesni tashkiliy tizimlarni va mexanizmlarni o'rganishni qo'llab-quvvatlash ularning har qaysi ega bo'lgan umumiy xususiyatlarini, unday yoki bunday milliy xususiyatlarga qarmasdan ochib berishga ijozat beradi. Ular O'zbekistonda kichik biznes sektorlarining

rivojlanishida va qo‘llab-quvvatlash tizimini shakllantirishda foydalanishi mumkin, ularga quyidagilar kiradi:

1) tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, barcha kompleks masalalarni, jumladan, boshqarish organlari vazifalari va mexanizmlari, ularni amalga oshirish davlat siyosati va tartib bo‘lish maqsadlari maxsus huquqiy aktlarda ifodalanadi;

2) davlatning kichik biznesga ko‘payish bo‘yicha axborotlashuv, texnologik, moliyaviy kadrlar ta‘limi dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish;

3) kichik biznesni qo‘llab-quvvatlaydigan bevosita va bilvosita choralarni birga qo‘shish;

4) kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash dasturlarini amalga oshirish bo‘yicha budjetdan har xil darajada pul mablag‘larini ajratish; soliq vositalaridan rag‘batlantirishda foydalanish, maxsus moliyaviy, kreditlash, sug‘urta va investitsiya institutlarini yaratish; har xil shakldagi va uslublardagi moliyalashtirish yo‘llarini qo‘llash;

5) tadbirkorlik sohasini qo‘llab-quvvatlashda barcha kompleks vazifalarni koordinatsiya qilib bajarishni ta‘minlashda davlat yoki aralash kapital bilan rivojlangan maxsus idoralar va tashkilotlarning borligi (AQSh da bevosita prezidentga bo‘ysinadigan kichik biznes ma‘muriyati; Yaponiya xo‘qumiyati huzuridagi kichik va o‘rta korxonalar agentlari; Janubiy Koreya va Chexiya kichik biznesni moliyalashtiruvchi davlat korporatsiyalari; Germaniyada davlat kapitali bilan maxsus kredit idoralari; Belgiya va Lyuksemburgdagi kichik sinf vazirligi va boshqalar);

6) markaziy organlarda umumiy koordinatsiya qilish vazifalarini saqlash bo‘yicha ma‘muriy-hududiy birliklar va munitsipalitet darajasida keng vakolatli delegatlar bilan davlat mahalliy va hududiy, markazlashgan organlar o‘rtasida vazifalarni ratsional taqsimlash;

7) tadbirkorlar manfaatini ifodalovchi, qarorlarni qabul qilishda ularning pozitsiyalarini hisobga olib, ta‘minlash maqsadida davlat hokimiyati har xil daraja ittifoq va birlashmalar bilan o‘zaro harakat qilishi.

Kichik biznesning rivojlanishiga naqadar katta ahamiyat berishini, xususan, 1953 yilda AQShda kichik biznes to‘g‘risida qabul qilingan qonun bo‘yicha yuzaki baho berish mumkin. Bunda tantanali sur‘atda shunday e‘lon qilingan: «erkin raqobatni himoya qilmoq va rag‘batlantirmoq nafaqat iqtisodiy farovonlik, balki mamlakat xavfsizligining asosini yaratmoqdir. Hukumat shunday o‘lchamda, ya‘ni kichik biznes korxonalari iloji boricha qo‘llab-quvvatlashni ko‘rsatmoq, ularning manfaatlarini himoya qilmoq va yordam bermoq, konsultatsiya o‘tkazmoq bilan erkin raqobatga ega

tadbirkorlikni saqlab qolish kerak», deb Kongress hisoblaydi. AQSh Kongressi kichik biznes masalalari bo'yicha o'ntadan kam bo'lmagan qonunlarni qabul qildi, shu bilan birga, ular oldingi qabul qilingan qonunlarni bekor qilmadi (ya'ni bizning amaliyotimiz uchun xarakterga ega bo'lgan), balki ularni yanada aniqroq qildi va to'ldirdi.

#### **29.4. O'zbekistonda kichik biznesning rivojlanishi**

1978 yilda sobiq ittifoqda yakka tartibdagi tadbirkorlikni tartibga soluvchi «Ittifoqda fuqarolarning yakka tartibdagi mehnat faoliyati to'g'risida» qonun qabul qilingan edi. Ma'no, mazmuni bo'yicha bu sobiq ittifoqdagi kichik tadbirkorlikning rivojlanishning boshlanishi bo'lgan. 1988 yil iyun oyidan sobiq ittifoqda tijorat to'g'risidagi qonun harakatga kiritildi. O'sha vaqtda 200 mingta odam yakka tartibda xususiy tadbirkorlik niqobi ostida tadbirkorlik bilan shug'ullana boshladi. Kooperativ tashkilotlar asosan, davlat korxonalarida huzurida bo'lib davlat mulkidan foydalangan holda ish yuritganlar.

Kichik biznesning tashkiliy tarmoqli tuzilishi, kichik korxonalarda bandlik va ishlab chiqarilgan mahsulot tovarlarini sotishdan tushgan pul tushumining tuzilishi guvohlik qiladiki, uning savdo va umumiy ovqatlanish sohalarida rivojlanishidan afzalligi to'g'risida rivojlanishlari uncha katta bo'lmagan sektordagi tarmoqlarning ustuvorligi, shu jumladan, kichik inovatsiyaviy emas.

O'zbekiston hududlari o'rtasida kichik tadbirkorlikning rivojlanishiga qaramasdan haligacha ancha-muncha farqlanadi, kichik tadbirkorlik salohiyati esa, iqtisodiy rivojlanishda o'zining ancha hissasini qo'shishi bilan ham tengsizlik harakat qiladi.

Sobiq ittifoq tarkibidan chiqqan bir qancha MDH mamlakatlarida kichik tadbirkorlikning xususiyati «xufyona sektorning» yuqori ulushi bo'lib davom etmoqda. Bularni har xil baholash bo'yicha u 30% dan 50% gacha kichik tadbirkorlik sub'ektlarining haqiqiy aylanmasi bo'lib qolmoqda. Shunday qilib, yashirish resurslarining ancha qismi umumdavlat vazifalarini bajarishda harakat qilmagan.

2000 yillarning kichik tadbirkorlikdan boshida mahsulot ishlab chiqarishni va xizmat ko'rsatishni, ularning investitsiyaviy faolligini, ularda soliq tushumlarini kuzatdim, umumevropa tendensiyalarda va bir tomondan sharoitlangan bo'lib, boshqa tomondan iqtisodiy kon'yunkturaning muvafaqqiyatli bo'lishi (import o'rnini bosadigan samara bilan, aholi talabini tiklash, inflyatsiyaning o'rtacha su'rati va boshqalar) 1998 – 1999 yillardagi qisqarishdan keyin o'rnini to'ldirish samarasi bo'ldi. Shu bilan birga, bu o'sishlar intensiv xarakterga ega bo'lib, sababi harakatiga bo'lgan kichik

korxonalarining miqdori qisqardi, bunda bo‘lganlarning soni esa, ancha-muncha ko‘paydi.

Kichik tadbirkorlik mahsulot ishlab chiqarishning, xizmat ko‘rsatish ishlarining o‘shishiga qaramasdan, ularning yalpi ichki mahsulotga qo‘shgan ulushi ularning salohiyatini ancha-muncha aks ettirmaydi.

O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlarning dastlabki yillaridan boshlab davlat ob‘ektlarini xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish bilan bir qatorda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish masalasi ham ko‘p ukladli bozor iqtisodiyotini shakllantirishning asosini tashkil etdi.

2020 yilda faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik sub’ektlarining soni har 1000 aholiga nisbatan 15,6 birlikni tashkil etdi. Hududlar bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Toshkent shahrida 32,0 birlik, Sirdaryo viloyatida 21,1 birlik, Navoiy viloyatida 21,0 birlik, Jizzax viloyatida 18,7 birlik, Toshkent viloyatida 17,4 birlikni tashkil etadi<sup>20</sup>.

Kichik tadbirkorlik respublikamizni iqtisodiy rivojlantirishning asosiy omillaridan biriga aylandi va uning 2000 – 2020 yillar davomidagi asosiy rivojlanish ko‘rsatkichlari quyidagi tendensiyalar bilan ajralib turadi:

– yalpi ichki mahsulotdagi ulushi o‘sib, 2000 yildagi 31% dan 53,9% ga yetdi;

– kichik biznes va xususiy tadbirkorlik shu bilan band aholining iqtisodiyotda umumiy band bo‘lganlar sonidagi ulushi ortib, 2000 yildagi 49,7% dan 81,2% ga yetdi;

– mazkur tarmoqning sanoat ishlab chiqarish hajmidagi hissasi 12,9% dan 27,5% ga o‘sdi.

– kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning umumiy eksport hajmidagi o‘shishi 3,4% ni tashkil etdi va 2020 yilda 20,5% gacha ko‘tarildi;

– kichik tadbirkorlik tarmog‘ining tarkibiy tuzilishi unda kichik sanoat korxonalari ulushining oshishi hisobidan yaxshilandi. Kichik tadbirkorlik sub’ektlari tomonidan 2020 yilda 100796,9 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

– avtomobilsozlik, traktorsozlik va boshqa tarmoqlar uchun mahalliy lashtirilgan butlovchi buyum va ehtiyot qismlarni ishlab chiqarish bo‘yicha faoliyat ko‘lami kengaydi.

---

<sup>20</sup> Ўзбекистон Республикасининг Ижтимоий-иқтисодий ҳолати. 2020 йил, январь-декабрь. Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси. Тошкент – 2021 й. Б.264.

**Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanish xususiyatlari<sup>21</sup> (%)**

	2000	2005	2010	2020
YaIM dagi ulushi	34,0	38,2	52,5	53,9
Sanoatdagi ulushi	12,9	10,0	21,1	27,5
Ish bilan band bo'lganlarning umumiy sonidagi ulushi	49,7	64,8	74,3	81,2
Ekspordagi ulushi	10,2	6,0	13,6	20,5

Umuman olganda, O'zbekistonda ushbu kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda bajarilayotgan ishlar yomon emas, o'zlarining rivojlanishida ancha -muncha samarali ishlarga erishdi. Ammo sobiq ittifoq tarkibidan chiqqan MDH davlatlarida kichik biznes ko'pchilik chet mamlakatlarning kichik biznesidan o'zlarining xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Ulardan ko'proq ahamiyatlisi quyidagilar:

- bitta korxonada doirasida bir nechta turdagi faoliyatni birlashtirish, ko'proq hollarda bir xil mahsulotlarning rivojlanish modeliga moslashishning imkoniyati yo'qligi;

- chet mamlakatlar kichik korxonalarining ancha ko'p qismi subpodryad, franchayzing va boshqa sharoitlarda ishlayotgan vaqtda maksimal mustaqillikka erishishga intilishi;

- umumiy texnik daromadning pastligi va innovatsiyaviy salohiyatlar bilan ancha-muncha birlashganda past texnologik (qurollanganligi) ta'minlanganligi;

- iqtisodiyotning davlat sektorlaridan shunday mutaxassislar ketishi bilan bog'liq kichik biznesda malakaviy kadrlar darajasi;

- bozor munosabatlarida boshqaruv darajasining pastligi, bilimlarning tajriba va madaniyatning yetarli emasligi;

- kichik biznesni qo'llab-quvvatlashda o'z-o'zini tashkillashtirish va infratuzilma tizimlarining rivojlanganligi.

Shu bilan birga, raqobat muhitining shakllanishi ancha ko'p mikro va makro daromaddagi omillar bilan aniqlanadi. Hozirgi vaqtda nafaqat O'zbekistonda, balki Markaziy Osiyoda va boshqa MDH mamlakalarida juda ham ziddiyatli va ishlab chiqarishning rivojlanishida uzoq vaqtli

<sup>21</sup> Муаллифлар томонидан қуйидагилар асосида ҳисоблаб чиқилган: Ўзбекистон Республикасининг Ижтимоий-иқтисодий ҳолати. 2020 йил, январь-декабрь. Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси. Тошкент – 2021 й. Б.267.; О'zbekistonda mehnat va bandlik. Statistik to'plam. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Toshkent – 2021 y. B.31.

investitsiyalarni rag'batlantirish o'z navbatida tabiiy holda, manapoliyaga qarshi choralarni, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilishda, inovatsiya va tavakallik tadbirkorlikda haqiqiy samarali foydalanishni to'xtatib turadi. Shu oraliqda tavakalchilik kichik tadbirkorlikning rivojlanishida taminlovchi muhit bo'lib hisoblanadi. Bu yerda salbiy hodisalarga shuni qo'shish kerakki, ya'ni MDH mamlakatlari eski ma'muriy-buyruqbozlik tuzumdan an'anaviy o'ziga xos sharoitlardagi bozor iqtisodiyoti tuzumiga to'g'ri kelmaydigan fe'l-atvorli korxonalar ni oldilar.

Hozirgi zamon sharoitida bozor iqtisodiyotning shakllanish xususiyatlarining chuqurlashuvida korxonalar ning murakkab holatlari shunday xarakterlanadi, birinchidan, sanoat tarmoqlarining ancha ko'p oldingi qatordagi texnologiyaga oid yuqori darajada ixtisoslashuvchi; ikkinchidan, ishlab chiqaruvchilarning alohida hududlarga birlashtirilganligi; uchinchidan, transport tariflarining keskin o'sish bilan mahalliy xo'jalik aloqalarining shartlanganligi.

Boshqa tomondan, hozirgi zamondagi MDH mamlakatlarining iqtisodiy hayoti kapitalning bir joyda to'planganligi va markazlashtirilganligi, bu o'z navbatida kichik korxonalar ni sindirishga, ularning qo'shilishiga va umuman, oligarxlarning ho'qumronligiga olib keladi. Hamma yirik korxonalar da shunday faoliyat darajasining shakllanmaganligi va ularning kichik korxonalar ni yaratishda tashabbuslar va manfaatdor xo'jalik sub'ektlari bo'lishi buning isbotidir.

### **29.5. O'zbekistonda kichik tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari**

Kichik biznes va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, mamlakat iqtisodiyotida xususiy sektor ulushini ko'paytirish, mahsulot ishlab chiqarish sohasida O'zbekiston aholisining bandligini yetarli darajada ta'minlash uchun yanada qulay sharoit yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil aprel oyidagi «Xususiy tadbirkorlik kichik biznesni rivojlantirishni yanada rag'batlantirish chora- tadbirlari to'g'risida»gi Farmoniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida 2003 yil 30 avgustda 3305-sonli Farmoni qabul qilindi. Mazkur farmonga asosan 2004 yilning 1 yanvaridan boshlab, o'rta korxonalar ham kichik korxonalar jumlasiga kiritilib, imtiyozga ega bo'lgan holda oddiylashtirilgan soliq to'lash huquqiga ega bo'ldi, 2004 yil 1 yanvardan boshlab kichik korxonalar va ulardagi ishlovchilar soniga qarab ajratiladi.

Mikrofirmalar turkimiga, odatda, quyidagi yangi tashkil etilgan va amaldagi korxonalar kiritildi:

- ishlab chiqarish tarmoqlarida band bo‘lgan xodimlarning o‘rtacha yillik soni – kishidan;
- xizmat ko‘rsatish sohasi va ishlab chiqarish tarmoqlarida – 10 kishidan;
- ulgurji, chakana savdo va umumiy ovqatlanish sohasida – 5 kishidan oshmagan korxonalar.

Shu bilan birga, individual mehnat faoliyati bilan shug‘ullanuvchi va shirkat (o‘rtoqlik)ga birlashib ishlovchi jismoniy shaxslar ham kichik biznes sub’ektlari qatoriga kiritildi.

Yuqorida qayd etilgan farmon asosida kichik korxonalar jumlasiga quyidagilar kiritildi:

- Yengil va oziq-ovqat sanoati, metallga ishlov berish va asbobsozlik yog‘ochni qayta ishlash, mebel va qurilish materiallari sanoati ishlab chiqarish tarmoqlaridagi band bo‘lgan xodimlarning o‘rtacha yillik soni 100 kishigacha bo‘lgan korxonalar (mashinasozlik, metallurgiya, yonilg‘i energetikasi va kimyo sanoati) korxonalarida – 50 kishigacha;

- Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish va ishlash, qurilish hamda boshqa sanoat ishlab chiqarish sohalari korxonalarida ishlayotgan xodimlari soni – 50 kishigacha;

- Fan-ilm sohasida xizmat ko‘rsatish, transport, aloqa, maishiy xizmat ko‘rsatish sohasi (sug‘urta kompaniyalaridan tashqari), savdo va umumiy ovqatlanish hamda boshqa ishlab chiqarishga aloqador bo‘lmagan sohalardagi xodimlarning o‘rtacha yillik soni – 25 kishigacha bo‘lgan korxonalar kiritiladi.

Shu bilan birga, kichik tadbirkorlikni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi:

- Kichik tadbirkorlikning rivojlanishi va infratuzilmaning shakllanishini qo‘llab-quvvatlash;

- Kichik tadbirkorlik moddiy-texnika va axborot resurslari, davlat moliyasini, hamda ilmiy -texnika va axborot resurslarini ishlab chiqish hamda texnologiyalardan imtiyozli foydalanishni yaratish;

- Kichik tadbirkorlik sub’ektlari va ularning faoliyatini litsenziyalash, ular mahsulotlarini sertifikatsiyalash, davlat statistikasi va buxgalteriya hisob-kitobini qisqartirilgan holatda ro‘yxatdan o‘tkazishni belgilash;

- Kichik korxonalar uchun kadrlar malakasini amalga oshirish va qayta tayyorlash, uni faol tashkil etish.

Kichik biznesni davlat moliyasi bilan qo‘llab-quvvatlash budjet vositalarini kichik biznes sohasini bevosita, ham bilvosita yo‘lga qo‘yish, iqtisodiyotning ushbu sektoriga kapital jamg‘armalarni va investitsiyalarni jalb etish uchun qulay sharoitlarni yaratish. Davlat oldida budjetdan ajratgan pul

mablag'laridan zaruriy darajada samarali foydalanishni ta'minlash asosiy vazifa bo'lmoqda. Kichik biznes sub'ektlarini bepul moliyalashtirish va bevosita kreditlash davrlari endi tamom bo'ldi. Yaqin vaqtlarda bevosita kreditlash amaliyotidan davlat kafolatlashni ta'minlashga o'tishni rejalashtirmoqda.

Tadbirkorlik uchun asosiy ahamiyatga ega bu – davlat soliq siyosatidir, u o'z navbatida tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishga yordam berishga tayyor va shu asosda moliyaviy resurslarni markazlashgan fondlarda shakllantirishni avvalam bor, barcha davlat budjetlarini shakllantirishni ko'zda tutadi. Bozor iqtisodiyotiga o'tishda soliq siyosati samarali xo'jalik yuritish shakllarini rag'batlantirishi shart, chet el investitsiyalarini va kredit resurslarini jalb etish, ishlab chiqarish darajasini va uning rentabelligin oshirish uchun sharoitlar yaratish lozim.

O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksining 7-bobi bo'yicha – soliq hisoboti soliq to'lovchilarning soliq va boshqa majburiy to'lovning har bir turi bo'yicha yoki to'langan daromadlar bo'yicha hisob-kitoblar hamda soliq deklaratsiyalarini, shuningdek, hisob-kitoblarga va sog'liq deklaratsiyalariga doir ilovalarni o'z ichiga oladigan hujjat bo'lib, u O'zbekiston Respublikasi Deklaratsiyasi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan shaklda tuziladi.

Kichik korxonalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning asosiy vazifasi shundan iboratki, ya'ni kichik korxonalarni har xil huquqiy normalar bilan ta'minlash, kichik va yirik korxonalar o'rtasidagi xo'jalik yuritish mulkchiligi sharoitlarida raqobatli bozor munosabatlarida farqlarni minimallashtirish, tadbirkorlik faoliyatidan tashabbuskorlik va mustaqillik uning erkin shakldagi tanlovi va usullari uning ro'y berishi sharoitlarida har xil imkoniyatlardan foydalanishni yaratish. O'tish davri sharoitida davlatning qo'llab-quvvatlashi uchun korxonalar va tarmoqlarning hayotiy qobiliyatini rivojlantirishni rag'batlantirish afzalligi, ularning faoliyati jamiyatning rivojlanishi yo'nalishlari va maqsadlari, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosati bilan to'g'ri kelishini tasavvur etadi.

Jahon mamlakatlarining tajribasidan chiqqan holda, O'zbekistonda kichik biznes ikkita asosiy yo'nalishlar bo'yicha yoki xizmat ko'rsatish sohasida, yoki yirik strukturalar bilan hamkorlikda, shu bilan birga, qandaydir aniq funksiyani bajarishda amalga oshirilishi va rivojlanishi mumkin.

Ushbu sohalarda iqtisodiyotning o'sha segmentida solingan ko'proq ratsional va qulayroq salohiyatlardan foydalanmoq O'zbekiston iqtisodiyotining asosiy vazifasini hal qilish uchun imkoniyat yaratadi. Aynan



davlatning barcha darajadagi qo‘llab-quvvatlash maqsadlari birinchi navbatda ushbu korxonalariga qaratilgan.

### **Qisqacha xulosa**

Hozirgi vaqtda kichik biznesni shakllantirishda va rivojlantirishda davlatning asosiy vazifalaridan biri bo‘lib hisoblanmoqda. Haqiqatan ham O‘zbekistonda kichik biznesning va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi har tomonlama bugungi kunning asosiy vazifalariga javob beradi. Aholini ish bilan ta‘minlashda bandlik siyosatini bajarishda katta ahamiyatga ega. Kichik biznesning va xususiy tadbirkorlikning YaIM ulushi bunday o‘shir sur‘atlarini boshlab beradi.

### **Asosiy tushunchalar:**

Kichik biznes.

Kichik biznesning farqlanish xususiyatlari.

Davlatning kichik biznesni qo‘llab-quvvatlashi.

Kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha chora-tadbirlar.

### **Mavzuning namunali savollari**

1. Kichik biznesning mazmun-mohiyati va asosiy xususiyatlari.
2. Kichik biznes qanday tarmoqlarda afzallikka ko‘proq erishadi?
3. Kichik korxonalarining farqlanishi xususiyatlari nimadan iborat?

### **Seminar darslarida muhokama qilish uchun savollar:**

1. Kichik biznesning mazmun-mohiyatini aytib bering.
2. Iqtisodiyotda kichik biznesning ahamiyati nimada?
3. Siz qanday kichik biznesning afzalligi va kamchiligini bilasiz?

### **Mustaqil ta‘lim uchun savollar**

1. Nima uchun kichik biznesni davlat qo‘llab-quvvatlashi zarur?
2. O‘zbekistonda hozirgi vaqtda kichik biznesning rivojlanishi va shakllanishi qanday?
3. Kichik biznesning rivojlanishi uchun nima zarur va uni qanday tashkillashtirish mumkin?

### **30 BOB. ISTE'MOLCHI XULQINING NAZARIY ASOSLARI**

Iste'molchining xulqi – bu o'z pul daromadlari, shaxsiy budjet va narxlarni hisobga olgan holda tovarlar tanlashni amalga oshiruvchi xaridorlar talabining shakllanish jarayonidir. Ma'lumki, pul daromadlari talabga to'g'ri va bevosita, narxlar esa, sotib olinayotgan tovarlar miqdoriga ta'sir o'tkazadi. Bu ta'sir iste'molchi xulqi orqali namoyon bo'lib, ularni tadbirkor narx siyosatida hisobga oladi. Tadbirkor yuqoriroq sifatli tovarga narxni qancha oshirishni va oshirish chegarasi qancha bo'lishi kerakligini yetarli darajada bo'lishi kerak. Yoki aksincha, tovarga talab pasayayotgan bo'lsa, savdo tushumini xatarga qo'ymay narxni ma'lum darajada pasaytirish lozim. Bu va shunga o'xshash savollarga javoblar ham iste'molchi xatti-harakati xususiyatlarini o'rganish bilan bog'liqdir.

Tovarlar dunyosida xaridorlar xulqi va ularning tanlovi g'oyat individual xususiyatga ega. Har bir xaridor biror narsa xarid qilganda o'z didini, moddaga va tovarlar dizayniga munosabatini hamda boshqa subektiv afzalliklarni hisobga oladi. Bu jarayonga xaridorlarning ijtimoiy- demografik omillar bo'yicha guruhlashuvi, mazkur mintaqa aholisining umumiy soni, yosh tarkibiga ko'ra taqsimlanishi; erkak va ayollar miqdori, ularning bandligi, turmush tarzi xususiyatlari va hokazolar ta'sir etishi mumkin.

#### **30.1. Sub'ektiv afzalliklarning xususiyatlari**

O'zaro ta'sir samarasi, deb atalmish sabablarga ko'ra odamlar nimani afzal ko'rishlarini hisobga olish juda qiyin. Masalan, gohida xaridorlar mulkida «taqsim qilish» samarasi kuzatiladi, unda ma'lum bir tovarni boshqalar (masalan, qo'shnilar, qarindoshlar) sotib olgani uchun xarid qilishadi. Shu bilan birga, quruq oliftachilik samarasi ham ma'lum bo'lib, bunda boshqalar afzal ko'rganiga qarama-qarshi narsa xarid qilinadi. Izlanishlar orqali maqtanchoklik samarasi aniqlangan bo'lib, o'nga ko'ra xaridor ataylab, namoyishkorona qimmat tovarlarni xarid qiladi va shu yo'l bilan o'z imkoniyatlarining yagonaligini «ko'z-ko'z qilishga» harakat qiladi.

Afzalliklarning ko'pchiligi narxni shakllantiruvchi omillarga oid bo'lmay, iste'molchilar talabini tahlil qilishda hisobga olinmaydi. Masalan, bir xil narxda kimdir nisbatan ko'proq tovar olishni afzal ko'radi; kimdir sifatsiz yoki eskirib qolgan tovarlarga nisbatan sifatlisini; kimdir ekologiya jihatdan toza tovarlarni boshqalaridan afzalroq ko'radi.

Xaridorlar afzalliklarni iste'molchilarning muayyan guruhlari bo'yicha: yoshlar, bolalar, erkaklar, ayollar va nafaqaxo'rlar guruhlari tovar assortimentlari bo'yicha (qishqi, yozgi, sanoat va oziq-ovqat, moddiy va nomoddiy xizmat va hokazo) jamlash mumkin. Ammo bu xollarda ham

tovarlar va xaridorlar guruhlari bo'yicha narxlarning harakati uchun qandaydir asoslar talab qilinadi.

### Iste'molchining afzalliklari va shaxsiy daromad

Aholining amalda barcha guruhlari tomonidan vaqtning nisbatan qisqa (masalan, hafta, oy, yil) davrlarida sotib olinadigan, turli kombinatsiyada bo'lsada, eng ko'p ishlatiladigan assortimentli tovar termalari ko'rinishidagi iste'molchi afzalliklarini guruhlashtirish mumkin.

**X** (kiyim-kechak) va **U**(oziq-ovqat) termasini o'z ichiga oluvchi bir qancha shunday variantlarni tasavvur qilamiz. Ular bir-birlaridan tovarlar kombinatsiyasi bilan farqlanadi, bu kombinatsiyalar afzalliklari bo'yicha variantlarda teng qiymatlidir (30.1-jadval).

30.1-jadval

Variantlar	<b>X</b> termasi (kiyim-kechak, dona hisobida)	<b>U</b> termasi (oziq- ovqat, dona hisobida)	Daromad (birligi)
A	7	2	10
V	6	4	10
S	5	5	10
D	4	7	10

Ammo bu holda ham variantlar va tovarlar termalarini joriy narxlar bo'yicha ular sotib olsa bo'ladigan qandaydir umumiy mahrajga keltirish kerak. Ko'rilayotgan joriy davrda bunday mahraj sifatida iste'molchilar daromadini olsa bo'ladi. Daromad (10 pul birligiga teng, deb faraz qilamiz) umuman, talabni va iste'molchilar afzalliklarini gipotetik taqsimlash omili bo'lib chiqadi.

Sotuvga taklif qilinayotgan tovarlar narxini belgilash va talabni shakllantirish nuqtai nazaridan iste'molchilar daromadi darajasi eng real, ma'lum darajada aniq hisobga olsa bo'ladigan omil sifatida chiqadi. Ammo bir xil xaridor o'z daromadini jadvalda ko'rsatilganidek yoki tovarlarning bozor narxini qo'yayotib tadbirkor istagandek taqsimlaydi. Bir pul daromadini ba'zi xaridorlar kiyim-kechak va oziq-ovqat o'rtasida taqsimlaydi va bunda u yoki bunisiga ko'proq ahamiyat beradi (**V** va **S** variantlar). Boshqalar esa, kiyim va xizmatlarni iqtisod qiladi (**A** variant) va bunda sarfni minimumigacha qisqartiradi. Uchinchi guruh xaridorlar esa, (**D** variant) o'z daromadlari miqdoriga joylasha olmaydilar va o'z xaridlariga to'lash uchun qarzga pul oladilar.

### **30.2. Budjet cheklanishlari va xarid qobiliyati**


Iste'molchi xulqi nazariyasi, avvalo, xaridorning to'lov qobiliyatini belgilovchi resurslar cheklanganligi kategoriyasini va pul daromadining imkoniyatlarini mantiqan va qonunan ko'rib chiqadi. Gap shaxsiy budjet kategoriyasi ustida bo'lib, o'nga har bir iste'molchining pul daromadlari va sarflari asos bo'lib xizmat qiladi.

Vaqtning har qanday onida iste'molchining shaxsiy daromadlari ma'lum, qayd qilingan pul summasi sifatida namoyon bo'ladi. Muhandisning oylik, xaftalik yoki yillik ish haqi; talabaning stipendiyasi; keksa fuqarolarning pensiyasi ko'rinishidagi to'lovlar; biznesmenning tadbirkorlik daromadi va hokazolar shular jumlasidan. Daromadning har bir turi mazkur davr uchun qayd qilingan pul summasi bo'lib, u oluvchining to'lov qobiliyatini belgilaydi. Miqdor jihatdan daromadlar sezilarli farq qilishi mumkin. Ammo uning kattaligi har bir xaridor xarid qobiliyatining o'ziga xos budjet cheklanishi sifatida chiqadi. Mazkur holda har bir iste'molchi individual darajada cheklangan o'z pul daromadi «resursi»ni turli tovar va xizmatlar bo'yicha cheklanmagan ehtiyojlariga moslashtirish mas'uliyatini o'z zimmasiga oladi.

#### **Budjet cheklanishlari**

Pul daromadining cheklangan resursi joriy va bo'lajak iste'mol o'rtasida, uzoq naflaniladigan va shu darhol qilinadigan tovarlar o'rtasida, qimmat tovarlar kam miqdori bilan arzon tovarlarning ko'p miqdori o'rtasida taqsimlanishi mumkin. Iste'mol uchun sarf qilinishi mumkin bo'lgan pul daromadlarining cheklanganligini budjet cheklanishlari, deb ataydilar. Shaxsiy budjetda qayd etilgan mablag' sotib olish mumkin bo'lgan tovarlar yoki iste'mol ne'matlari miqdoriga nisbatan daromadlar ehtiyojga nisbatan cheklangan bo'ladi. Pul daromadlariga sotib olinadigan tovarlar iste'mol resurslari bo'lib, ular cheksiz ehtiyojga nisbatan cheklangandir. Tovar resurslari iste'molining cheklanganligi ularni hatto aholining kam daromadli guruhlari uchun ham tekin qila olmaydi. Shu sababli har bir tovar pulda ifodalangan o'z narxiga ega. Iste'mol narxlari, pul daromadlari kabi, tovarlar termasi va turmush darajasini xaridorning shaxsiy budjeta bilan bog'langan holda cheklaydi.

Budjet cheklanishining funksiyasi chizma ko'rinishida berilgan bo'lib (30.1-chizma), avvalgi mazulardan bizga ma'lum bo'lgan egri chizik ko'rinishiga ega, u ishlab chiqarish imkoniyatlari chizig'iga o'xshaydi. Farqi shundaki, budjet cheklanishlari chizmasida resurs imkoniyatlari chizig'i mazkur daromadning xarid qobiliyati chegarasini chizadi. Shunga muvofiq uni budjet cheklanishlarining chizig'i yoki egri chiziq, deb atashadi.



**30.1-chizma. Budjet cheklanishlari chizig'i.**


Chizmadagi budjet cheklanishlari chizig'i gipotetik  $X$  tovarlar termasi (kiyim-kechak, dona) va  $Y$  tovarlar termasi (oziq-ovqat, dona) ning 10 pul birligiga teng bo'lgan, mavjud pul daromadi chegarasida amalga oshiriladigan xaridlarning uyg'unlashuvidir. Budjet cheklanishlari egri chizig'ining istalgan nuqtasi tovar termalari variantlari ichidan tanlov bo'lib, iste'molchi o'z pul daromadi, shaxsiy budjetini ular o'rtasida taqsimlagan. Xaridor pul daromadlari kattaligining har qanday o'zgarishi uning budjet cheklanishlari o'zgarishiga oshib keladi, o'z navbatida to'lov qobiliyati va tovarga talab ham o'zgaradi. Shunday qilib, boshqa teng sharoitlarda pul daromadlari usar ekan, iste'molchilarning to'lov qobiliyati (xarid qobiliyati) ham oshadi. To'lov qobiliyati oshganida pul daromadlari o'zgarmaydi, faqat iste'mol narxlarini pasayadi. Budjet cheklanishlari chizmasida bu vaziyat butun budjet chizig'ining o'ng tomonga va yuqoriga o'tishi bilan belgilanadi. Va aksincha, pul daromadlarining to'g'ridan - to'g'ri pasayishi bilan o'zgarmagan narxlarida xaridorlarning to'lov qobiliyati va talabining qisqarishi sodir bo'lmadi. Iste'molchilar pul daromadi o'zgarmagan holda tovarlar narxi va xizmatlar tarifi oshsa, xarid qobiliyatining pasayishi sodir bo'ladi. Bunday vaziyat chizmada butun budjet cheklanishlari egri chizig'ining chapga va pastga tushishi bilan ifodalanadi.

### **Daromadning nominal va real darajasi**

Iste'molchi budjet cheklanishlarining o'sishi yoki pasayishi odatda, odamlarning farovonligini belgilovchi daromadning real yoki nominal darajasi, deb ataluvchi o'zgarishlaridan iborat. Shunday qilib, nominal daromad – bu joriy tovarlar va xizmatlar narxidan qat'i nazar, iste'molchidagi mavjud pul summasidir. Agar narxlar nominali pul daromadlari o'sishidan

oshib ketsa, farovonlik darajasi pasayadi, chunki xaridorlarning budjet cheklanishlari o'sadi.

Real daromad – joriy narxlar va sotib olinishi mumkin bo'lgan tovar miqdori hisobga olingan puli summasidir. Real daromad va faroronlik asosan, ikki holda o'sadi: yo oshib boruvchi nominal daromadlar, yo tovarlarning o'zgarmas narxleri holatida. Ko'pincha bu alohida tovarlar yoki tovar guruhlariga narxlarning qisman o'zgarishi ko'rinishida ham sodir bo'ladr.



a – kiyim-kechak narxining pasayishi; b – oziq-ovqatlarga narxning oshishi;

### 30.2-chizma. Budjet chizig'i; narxlar va daromadlar o'zgarishi:

Shunday qilib, hatto alohida narxlarning o'sishi ham budjet cheklanishlarini kuchaytiradi, xarid imkoniyatlari va farovonlik darajasini pasaytiradi. Va aksincha, alohida tovarlar narxining har qanday, hatto, qisman pasayishi iste'molchi shaxsiy budjeta cheklanishlarini olib tashlaydi, farovonlik imkoniyatlarini kuchaytiradi. Bunday vaziyatlar chizmada (30.2-chizma) o'zgaruvchi narxlardagi tovarlar qo'yilgan o'q bo'lib, budjet cheklanishlari chiziq o'rning o'zgarishi sifatida ko'rsatilgan. Masalan, X (kiyim) tovar guruhi uchun narxning pasayishi oziq-ovqatga narxlar o'zgarmagan holda chizmaning gorizont o'qi bo'ylab budjet cheklanishlari chizig'ining chapga o'tishiga olib keladi. Agar shu guruh tovarlar narxi oshsa, budjet cheklanishlari chizig'i huquqiy bo'lib, o'nga o'tadi.

Xuddi shu holat kiyim-kechak narxi o'zgargan holda oziq-ovqat narxlari pasaysa yoki oshsa budjet cheklanishlari chizig'i bilan sodir bo'ladi. Xycycan, narxlarning pasayishi cheklanishlar chizig'ini Y o'qi bo'ylab o'ngdan yuqoriga o'zgartiradi; bu narxlarning o'sishi esa, budjet chizig'ini U o'qi bo'ylab pastga tushiradi va bu mahsulotlarni xarid qilish imkoniyatlari pasayganligini bildiradi.

### **30.3. Eng yuksak naflilik va iste'molchi tanlovi**

Shaxsiy budjetning cheklanganligi va turli o'zgaruvchan narxlar uni yanada ratsional taqsimlashga, xaridorni tanlashga: ba'zi tovarlarni sotib olish, boshqalaridan esa, voz kechishga majbur qiladi. Ko'p sonli muqobillardan iste'molchi shunday variantlar va tovarlar uyg'unligini tanlaydiki, ular shaxsiy budjet imkoniyatlariga mos ravishda qilingan xaridning nafliligi to'g'risidagi tassavurga to'g'ri keladi. Tovarning nafliligi tovarning iste'mol samarasi bo'lib, xaridor tomonidan unga to'langan pul bilan nisbiylashtiriladi va solishtiriladi. Shu ma'noda pul xaridor uchun sotib olinayotgan tovar nafliligining birinchi miqdor o'lchov bo'lib xizmat qiladi. Ehtiyojni qondirish uchun zarur bo'lgan va ish narxidagi tovarlar miqdori ikkinchi, yetarli darajada ahamiyatli o'lchov bo'lib chiqadi.

Agar xaridor tovar nafliligini uning narxi bilan teng, deb ishonch hosil qilsa, uning birinchi birligi xaridi eng ko'p qoniqish keltiradi. Tabiiyki, iste'molchi o'zi uchun shu qadar nafali tovarning ikkinchi, uchinchi va keyingi birliklarini ham xarid qiladi. Naflilikning umumiy hajmi oshib (borar ekan, xaridor shu tovarni sotib olishni davom ettirishi mumkin. Fakar ya'ni xaridor bir turdagi iste'mol tovarini xarid qilishni cheksiz davom ettiradimi? Masalan, narxi 2 pul birligiga teng, og'irligi 0,5 kg 1 baton xaridorning nonga bo'lgan bir kunlik ehtiyojini qondiradi. O'zgarmagan narxlarda va boshqa teng shartlarda bu xaridor kuniga 1 batondan ortiq non sotib olmaydi. Ammo narx pasaya boshlasa va 1 pul birligi bir baton uchun yetsa xaridor xarid miqdorini 2 batonga ko'paytirishi mumkin. Agar narx yana, masalan, 0,5 pul birligiga tushsa, xaridning ko'payish extimoli 3 va undan ko'proq batonga ortishi mumkin.

#### **Eng yuksak naflilik**

Tovar xaridining eng yuksak naflilik masalasi nafaqat kundalik iste'molning fiziologik chegaralariga ko'ra paydo bo'ladi. Hatto bizning oddiy misolimizdan ham ko'rinib turibdiki, sotib olinayotgan nonining har qanday keyingi birligi xaridorni tovarning o'sib boruvchi miqdorini iste'mol qilishga sarflangan pul xarajatlarining kamayib boruvchi nafliligini xis qilishiga olib keladi. Pasayayotgan naflilik samarasi nafaqat mahsulotlarga taalluqli, u boshqa barcha tovarlarni xarid qilganda ham kuzatiladi. Joriy shaxsiy iste'mol uchun bir nomdagi tovarning 1, 2, 3 va hokazo birliklarini (donasini, masalan, kiyim-kechak, televizor va video, poyabzal, avtomobil, kvartira, motosikl, kompyuter) sotib olish mumkin. Tovarlarni ro'yxatini yana davom ettirisa bo'ladi. Ammo xaridor balki ichki tuyg'u bilan yoki sog'lom fikr yuritib, o'zi uchun bir chegarani belgilaydi, unda har bir tovar uchun sarflangan pullarning qo'shimcha birligi avvalgisiga nisbatan kamroq naf qoldiradi. Yuqorida

keltirilgan misol real va har qanday iste'molchiga ma'lum bo'lgan xarid amaliyoti natijalari bilan tasdiqlanishi mumkin. Nazariyada esa, iste'molchi xatti - harakati kategoriyalarida bu samarani sotib olinayotgan tovarning kamayib boruvchi eng yuksak nafliligi deb ataydilar.

### 30.4. Tovarlar eng yuksak nafliligikning kamayib borish qonuni

Yuqorida qayd qilinganidek, eng yuksak naflilik – bu bir nomli tovarning har bir keyingi, qo'shimcha birligini olishga sarflangan pul. xarajatlardan xaridor oladigan iste'mol samarasidir. Qo'shimcha xaridlarni ko'paytirishga intilishi uchun ko'pincha **J** xarid qilinayotgan tovarlar narxining pasayishi sabab bo'lar ekan.

Umumiy naflilik darhaqiqat oshadi. Axir 2, 3 va hokazo tovardan iste'molchi oladigan umumiy effekt o'sha tovarning 1 birligiga nisbatan yuqori. Xaridning ko'payib borishidan olinadigan samara eng yuksak naflilik va narxlar nazariyasining ramzlarida quyidagi ko'rinishni kasb etadi:

$$\frac{MU_x}{P_x} = \frac{MU_y}{P_y} = \frac{MU_n}{P_n} = \text{pulning eng yuksak nafliligi}$$

Ammo tovarni sotib olishdan umumiy nafning ortishi keyinchalik asta-sekin kamayib boradi. Boshqacha qilib aytganda, har bir qo'shimcha xarid uchun pul sarflarining oshib borishi bilan garchi narx pasayib borsa ham, olinayotgan tovarning kamayib boruvchi eng yuksak naflilik qonuni amal qila boshlaydi.

Yuqorida aytilganlarni jadval yordamida tasvirlaymiz. Unda kamayib boruvchi eng yuksak naflilik shartli sonlar misolida keltirilgan (30.2-jadval)

### 30.2-jadval

#### Tovarlarning kamayib boruvchi eng yuksak nafliligi

Tovar miqdori	Umumiy foydali samara	Eng yuksak naflilik
0		
1	4	4
2	7	3
3	9	2
4	10	1
5	10	0


Eng yuksak naflilik «Umumiy foydali samara» ustunidagi keyingi va avvalgi kattaliklar o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi. Tovar xaridining ko'payishi (birinchi usto'nga qarang) ma'lum vaqtgacha – 5 tovar birligigacha



umumiy nafli samaraning ko'payishga olib keladi. Ammo eng yuksak naflilik kattaligining qiymati har bir qo'shimcha xariddan so'ng pasayib boradi va 5 tovar birligi xarid qilingach tenglashadi.

Kamayib boruvchi eng yuksak naflilik qonunini umumiy foydali samara va kamayib boruvchi naflilik egri chiziklari vositasida chizma ko'rinishida tasvirlash mumkin (30.3-a, b chizmaga qarang).

Umumiy foydali samara egri chizig'i (30.3 a - chizma) uning o'sishi tobora pasayayotganligini va o'sha nomli tovarning 5 birligini xarid qilish ekstremal nuqtasiga yetganligini ko'rsatyapti. Bu umumiy nafli samara «zinapoyaning» 10 birligiga teng. «Zinapoyalar» orqali o'tayotgan umumiy foydali samaraning egri chizig'i usha bir nomli tovarning har bir keyingi xaridi uchun iste'molchi tomonidan qilinayotgan qo'shimcha sarfning pasayib borayotgan o'ta naflligi kattaliklariga mos keladi. 30.3 b - chizmada har bir qo'shimcha xaridning eng yuksak naflligining pasayish sur'ati va dinamikasi ko'rsatilagan.



### 30.3-chizma. Yuksak naflilik kamayish qonuni.

Kamayib boruvchi eng yuksak naflilik egri chizig'i qonuniy ravishda bizga ma'lum bo'lgan tovarga individual talab chizig'ini eslatadi. Ular orasida so'zsiz o'zaro bog'liqlik bor, ammo talab individual egri chizig'ining ko'rinishini biz pastrokda ko'rib chiqamiz. Bu yerda amalga oshirilgan xaridga sarflangan pulning kamayib boruvchi eng yuksak naflligi natijasida ratsional iste'molchining xatti-harakati qanday o'zgarishi bizni qiziqtiradi. Kamayib boruvchi eng yuksak naflilik tamoyilini yengish shaxsiy pul budjeti taqsimotini o'zgartirish bilan bog'liq bo'lishi kerakligini taxmin qilish qiyin emas. Iste'molchi xaridlari va joriy iste'mol uchun pul sarflarini shunday

taqsimlash kerakki, umumiy nafli samara nafaqat pasayishi, balki maksimal bo‘lib, sarf va iste‘mol o‘rtasida muvozanatni ta‘minlashi mumkin bo‘lgan. Nazariyada bu tamoyil ratsional iste‘molchi xatti - harakati qoidasi deb, ataladi.

### 30.5. Iste‘molchi xulqi qoidasi va muvozanat sharti

Qayd etilgan shaxsiy budjet va tovarlarning o‘zgarmas joriy narxlarida iste‘molchi sog‘lom fikr qoidasiga amal qiladi. Har qanday tovarning kamayib boruvchi eng yuksak naflliligi holatida barcha xaridlarning umumiy iste‘mol samarasini maksimallashtirishga harakat qiladi. Bunday baholash sotib olinayotgan tovarlar narxidan ajralmas bo‘lgani tufayli, iste‘mol samarasini maksimallashtirish qoidasiga ko‘ra, bir qancha shartlarga amal qilish lozim. Tovarining eng yuksak naflliligi; pul sarflari birligiga mos bo‘lsa. Agar tovarlardan biri pul sarflari birligiga nisbatan kattaroq eng yuksak nafllilikka ega bo‘lsa xaridor uni ko‘proq sotib olishga harakat qiladi va bu bilan ish xarid orqali unutilib iste‘mol samarasini maksimallashtirishga intiladi. Bir vaqtning o‘zida kamroq eng yuksak nafllilikka ega bo‘lgan va pul sarfining shu birligiga olinadigan tovarlar miqdori qisqaradi: xuddi ana shu maqsadda xaridor shaxsiy budjetdan pul sarflarini boshqasiga o‘tkazadi. Ammo ana shu tovlanish jarayonida, ya‘ni bir sotib olinayotgan tovar bo‘yicha eng yuksak nafllilikning o‘rtacha ariometik kattaligini aniqlab olish mumkin.

### 30.3-jadval

#### Maksimal nafli tovar tanlovi

Tovar tanlovi muqobillari	Eng yuksak nafllilik, shartli donada	Narx (R) pul birligi	O‘rtacha eng yuksak naflliligi, MV/P
X	1000	100	10
Y	800	40	20
Z	450	30	15

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, xaridorning iste‘mol tanlovi naflliligni maksimallashtirishga yo‘nalganligi tufayli **X** va **Z** tovarga pul sarflashning ratsional emasligini bildiradi, chunki **U** muqobil tovari (uning naflliligi 20ga teng) eng katta nafllilikka ega. Iste‘molchi tanlovi qoidasiga amal qilar ekan, xaridor muvozanatga tovarning kamroq nafllisini ko‘proq nafllisiga almashtirish yo‘li bilan erishishi mumkin. Bir tovarni ikkinchisi bilan almashtirish tovarlar maksimal miqdorini qiyos qilishni talab etadi, chunki iste‘molchi undan boshqa tovarning bitta qo‘shimcha birligini olish uchun voz kechadi.

### Iste'molchining ratsional tanlovi

Iste'molchi tovar (30.3-jadval) olish uchun qilingan chiqimni nafliligini oshirish uchun  $X$  tovar xaridini kamaytirib muvozanatlashtirishi kerak. Bunday almashtirish pul chiqimining teng kattalikdagi birligiga bir xil darajadagi naflilikni ta'minlaydi. Iste'mol samarasini oshirar ekan, ratsional iste'molchi nafaqat naflilikni, balki ularning narxlarini ham qiyoslaydi. Aniqrog'i aynan narxlar sotib olinayotgan tovarlar nisbatini qiyos qilishga imkon beradi. Ushbu holatda xaridor o'z pul chiqimining birligiga teng o'ta naflilik qonuniga binoan harakat qiladi. Bunda, yuqorida aytilganidek, agar

$$\frac{MU_x}{P_x} = \frac{MU_y}{P_y} = \frac{MU_n}{P_n} \text{ unda va } \frac{MU_{x,y,\dots,n}}{P_x} = \frac{P_{x,y,\dots,n}}{P_y}$$

Bu yerda  $MU_{x,y,\dots,n}$  -  $x,y,\dots,n$  tovarning eng katta nafliligi;  $R_{x,u,\dots,n}$  -  $x,u,\dots,n$  tovarlarning narxi. Bu qoidaga amal qilib xaridor o'z pul chiqimini  $U$  tovarlar xaridi ko'proq qilishga qayta taqsimlaydi va  $X$  tovarining so'nggi birligidan voz kechadi.  $X$  narxi bizning misolimizda 100 pul birligiga teng bo'lib, u nafliroq  $Y$  tovaridan qo'shimcha 2,5 birlik sotib olish imkonini beradi va bu yanada yuqori foydali samara beradi.

Pul ifodasida bu  $Y$  iste'molining 2000 pul birligini tashkil qiladi.  $X$  tovar iqtisodidan chegirilgan 1000 pul birligiga xaridor foydali samarasi 1000 pul birligiga teng ratsional tanlovdan kelgan iste'mol nafsiga ega bo'ladi.

### Iste'mol muvozanati

O'z nafs va chiqimlarini shu tarzda muvozanatlashtirib, xaridor teng eng yuksak naflilikka chiqimlarning kattalikdagi pul birligi ko'rsatkichi bo'yicha balanslashtirilgan muvozanatga erishadi (30.4-jadval).

### 30.4-jadval

#### Iste'mol muvozanati

Tovarlar tanlovi muqobillari	Eng yuqori naflilik MV	Birlik narxi R	MV/Pj
X	1500	100	150 j
Y	600	40	150 j
Z	450	30	150 j

Ko'rinib turibdiki, naflilik funksiyasi «qo'shimcha pul chiqimlarining har bir keyingi birligiga bir xil eng yuksak naflilik» sharti bajarilganda o'sadi. Ammo har qanday tovarlarning eng yuksak nafliligi nisbati ularning narxi nisbatiga teng bo'ladi. Bunday holatda ratsional iste'molchi har qanday

tovarning eng yuqori nafliligini o'z budjetining yuqori pul chiqimlari bilan muvozanatlashtiradi va buning algebraik ifodasi quyidagi qoidaga amal qiladi:

$$XR_x + YP_y = I,$$

Bu yer da  $X$ ,  $Y$  – tovar turlari (masalan, kiyim-kechak, oziq-ovqat):  $R_u$  – bu tovar narxi;  $I$  – iste'molchining budjet daromadi (misolimizda u 10 pul birligiga teng).

Almashtirish iste'molchiga nafaqat o'ta (qo'shimcha foyda va o'ta (qo'shimcha) chiqimlarni solishtirish imkonini, balki shaxsiy daromadlari miqdoriga qarab haridni taqsimlab, balanslashtirilgan tenglikka erishish imkonini beradi.

Iste'molchi birini bonvasi bilan, o'zi uchun yanada naflirok bo'lgan, tovar bilan almashtirishning eng yuksak me'yoriasi yordamida tovarlarning maksimal miqdorini kiyoslaydi.

### 30.6. Almashtirish chegaralari me'yori

Almashtirish chegaralari me'yori – bu iste'molchilarning bir tovarning bitta qo'shimcha birligiga ega bo'lish maqsadida voz kechadigan boshqa tovarning maksimal miqdorini ko'rsatuvchi o'lchamdir. Bir tovarning iste'molidan keladigan naflilikning ortishi boshqa tovarning iste'moli kamayishini muvozanatlashtiradi. Pirovard natijada bunday almashtirishlar shaxsiy budjet pul chiqimining teng kattalikdagi birligiga naflilikning bir xil darajasini ta'minlaydi. O'z pul chiqimlarining nafliligini oshirar ekan, ratsional xaridor nafaqat o'zaro almashinuvchi tovarlarni, balki ularning narxlarini ham muvozanatlashtirishga harakat qiladi. Aniqrog'i  $I$  aynan narxlar tovarlarning o'zaro almashinish nisbatlarini muvozanatlashtirish imkonini beradi. Bir tovarning boshqasi bilan almashish chegaralari (inglizcha Marginal rate of substitution - **MRS**) o'zaro almashinuvchi tovarlar narxining nisbatiga teng. Masalan, xaridor  $X$  va  $U$  iste'moli uchun qiladigan o'z pul chiqimlari nafliligini maksimallashtirish uchun almashinadigan tovarlar bo'lsa, u quyidagi ko'rinishdagi almashish me'yoriga amal qiladi:

$MPS_{x,y} = MY_x / M_{uu} = R_x/R_u$  Natijada, ratsional iste'molchi uchun naflilikning maksimallasuvi uning budjetini shunday taqsimlashda erishiladigan har bir pul sarfi birligining eng yuksak nafliligini har bir sotib olinayotgan tovar uchun bir xil qilib qo'yadi. Agar  $X$  tovar uchun qilingan pul chiqimlarining qo'shimcha birligiga qilingan  $Y$  xarajatlarining foydaliligi  $X$  tovarga qilingan pul chiqimlar birigidan yuqori bo'lsa xaridor o'zining umumiy nafliligini  $X$  tovarni sotib olish hisobiga maksimallashtiradi va aksincha.

Asta - sekin sotib olinayotgan tovarning eng yuksak nafliligi kamayadi va iste'molchi o'nga qiladigan pul chiqimlari o'sishini qisqartirib, ularni o'zi uchun kattaroq eng yuksak naflilikka ega bo'lgan boshqa tovarlarni qayta taqsimlaydi. O'zining qayd qilingan shaxsiy budjeti pul chiqimlarini doimo qayta taqsimlar ekan, iste'molchi xarid qilinayotgan barcha tovarlar bo'yicha har bir qo'shimcha pul sarfining eng yuksak nafliligi bir xil bo'lganda muvozanatga va o'z imkoniyati darajasidagi maksimal farovonlikka erishadi.

Masalan,  $X$  tovarining eng yuksak nafliligi narxidan 2 marta,  $Y$  tovarining eng yuksak nafliligi 3 marta yuqori bo'lsa, pul chiqimlarining teng eng yuksak naflilik tamoyili buziladi. Buzilish shuning uchun sodir bo'ladiki,  $Y$  tovarga qilingan pul chiqimlarining qo'shimcha birligiga nisbatan kattaroq umumiy naflilikni keltirib chiqaradi. Shuning uchun, ratsional xaridor  $X$  tovariga qilishi mumkin bo'lgan pul chiqimlarining bir qismini (chunki uning nisbiy nafliligi  $Y$  tovarinikiga nisbatan pastrok bo'lganligi uchun)  $Y$  tovariga o'tkazadi, chunki ular nisbatan yuqori naflilik beradi. Bu tovarlar nafliligi o'rtasidagi farq xaridor ratsionalligining o'ziga xos samarasi sifatida namoyon bo'ladi. Xuddi shuning uchun ratsional xaridor o'z xarajatlari yo'nalishini o'zgartiradi va vujudga kelgan ahvolni baholaydi. Axir  $Y$  tovarning qo'shimcha xaridi ana shu tovarga qilingan pul chiqimlarining har bir qo'shimcha birligi keltiradigan eng yuksak naflilikni pasaytiradi (kamayib boruvchi naflilik qonuni amal qiladi). Ayni vaqtda  $X$  tovarini iste'mol qilishning qisqarishi oqibatida ularga sarflangan pullarning eng yuksak nafliligi ortadi. Shunday qilib iste'molchi turli tovarlarning nafliligi farqini doimo hisoblaydi va ana shu farqda aynan muvozanatning qandaydir bir real nuqtasiga yaqinlashadi va muvozanatining shu nuqtasida kolishni istaydi.

### **30.7. Befarqlik egri chiziqlari kategoriyalarida iste'molchi xulqi**

Bizga ma'lum bo'lgan iste'molchi xatti - harakati va tovarlar tanlovi kategoriyalarini boshqa nazariya –ordinalizm yordamida tahlil qilamiz. Ular befarqlik tushunchalari, chizmalar va egri chiziklari bilan berilgan. Tahlilimiz so'nggida biz shunday natijalarni olishimiz kerak. Birinchidan, befarqlik eri chiziqlarida kamayib boruvchi o'ta naflilik qonuni harakatini ko'rsatish. Ikkinchidan, budjet chizig'i va befarqlik egri chiziqlari chizmalarini birlashtirib, naflilik maksimallasuvi, iste'mol muvozanati tamoyillari va qoidasini ochib berish. Shunday qilib, ordinalizm kategoriyalari – iste'molchi xatti-harakati nazariyasida naf oladigan dalillarning boshqa usuli xolos.

## Befarqlik egri chiziqlari


Iste'molchi tomonidan xarid qilingan tovarlar u yoki bu termasining chizmadagi ifodasi befarqlik egri chiziklari yordamida ko'rsatilishi mumkin. Tahlilning bu vositasidan nazariyada cheklangan shaxsiy budjetga ega iste'molchilarning sub'ektiv afzal ko'rishlarini o'rganish uchun naflaniladi. Har bir befarqlik egri chizig'i – bu bir xil naflilikka ega bo'lgan tovarlar termasidir, shuning uchun iste'molchiga ularning qaysi birini tanlashning go'yo «farqi yo'qdek». Masalan, xaridorning ikki guruh tovarlardan: a) oziq-ovqat - befarqlik egri chizig'i b) befarqlik xaritasi va budjet chizig'i.

Befarqlik termasi egri chizig'ining ko'rinishi bizga juda yaxshi ma'lum bo'lgan talab egri chizig'ini eslatadi. Bu tasodif emas. Individual befarqlik ovqat va kiyim-kechaklardan tashkil topgan to'rt variantli tanlovi bilan tanishing.


30.5-jadval

**Tovar termalarining baravarlashuvi**

Variantlar	Oziq - ovqatlar, dona	Kiyim-kechak, dona
A	7	3
B	6	4
S	5	5
d	4	7



a – befarqlik egri chizig'i



b – befarqlik xaritasi

### 30.4-chizma. Befarqlik variantlari va termalari. Befarqlik xaritasi

Afzal kurish sub'ektiv bo'lib, biron-bir xaridor uchun variantdagi ayrim tengsizliklar qoniqarli bo'lishi mumkin, chunki ular boshqa variantlardagi o'zgacha miqdorli terma bilan muvozanatlashtirilgan. Biror mahsulotning

kamroq miqdori boshqasining ko‘proq miqdori bilan kosh anadi, natijada, har bir variantning iste‘mol samarasi amalda bir xil bo‘ladi. Demak, barcha to‘rt variant xaridor uchun bir xil qoniqish darajasini olib keladigan befarqlik termalaridir. Barcha variantlar ( $A, V, V, D$ ) jadvalda o‘ziga mos befarqlik egri chizig‘ini shakllantirib tasvirlanishi mumkin (30.4 a,b - chizmalari).

Egri chiziklaridan xaridorlarning tovarlarga bo‘lgan talabining egri chizig‘i shakllanadi. Befarqlik egri chiziklarining xususiyatlari amalda bozor talabining eng muhim xususiyatlarini namoyon qiladi. Befarqlik egri chizig‘ining xususiyatlari va o‘ziga xosliklariga quyidagilar kiradi:

*birinchidan*, xaridorlarning befarqlik egri chiziqlari salbiy egrilikka ega, chunki, u bir xil qiymatga ega va o‘zaro almashinishi mumkin bo‘lgan tovarlar nisbatini tavsiflaydi. O‘sha bitta befarqlik egri chizig‘idagi turli nuqtalar bir xil naflilikka va iste‘mol samarasiga ega bo‘lib, ularni faqat afzalliklari bo‘yicha baravarlash mumkin;

*ikkinchidan*, befarqlik egri chizig‘ining egilishlari terma «assortimenti»ning eng yuksak naflilik nisbatini ko‘rsatadi, undagi ba‘zi tovarlar gorizontal va boshqalari vertikal o‘qlarda belgilangan. Masalan, bizning jadvalimizdagi  $S$  va  $D$  nuqtalari orasidagi egri chiziqning og‘ishi taxminan 2 ga teng (bu yerda «ayiruv» belgisi aytarli ahamiyatga ega emas, biz faqat mutlaq kattaliklarni solishtirayapmiz). Bu gorizontal o‘qdagi tovarlarning o‘ta nafliligi vertikal o‘qda belgilangan tovarnikidan taxminan 2 marta yuqori ekanligini bildiradi. Ammo naflilikning umumiy hajmi solishtirilayotgan  $S$  va  $D$  variantlari chegarasidan chiqmaydi, demak iste‘molchi hech narsani yo‘qotmaydi ham, yutmaydi ham. Bir tovarning kam miqdori boshqa tovarning ko‘p miqdori bilan qoplanib, umumiy naflilik va iste‘mol samarasini muvozanatlashtiradi. Boshqacha aytganda, bir tovarning 1 birligi uchun boshqa tovarning 2 birligidan voz kechilishi bu bizga ma‘lum almashtirishning chegara me‘yoridir, ammo bu yerda befarqlik kategoriyalari bilan ifodalangan;

*uchinchidan*, befarqlik egri chizig‘ining og‘ishi turli nuqtalarda turlicha. Egri chizikdagi har bir nuqta iste‘molchi afzalliklarining har bir variantidagi tovarlar eng yuksak naflilikning nisbatidir. Shunga binoan bir tovarni ikkinchisi bilan almashtirishning chegara me‘yori befarqlik egri chizig‘ining turli tikligini belgilaydi. Egri chizikning yotiqroq ko‘rinishi uning pastga va o‘nga qarab harakatida uning qavariqligini bildiradi. Bir tovarning ikkinchisi bilan almashinishi kamayib boradi;

*to‘rtinchidan*, har bir befarqlik egri chizig‘i iste‘molning faqat bir darajasiga xos bo‘lib, u tovar termalarining turli variantlariga barobar qilingan. Boshqa har qanday befarqlik egri chizig‘i iste‘molning qandaydir boshqa

darajasiga xos holda qurilish mumkin, chunki uni tovar termalarining istalgan variantlariga o'zgartirish imkoniyati bor. Har bir variant termasidagi tovarlar turli kombinatsiya'ni bildirishi mumkin, lekin ularning hammasi bitta befarqlik egri chizig'iga taalluqlidir.

Iste'molchilar iste'molning boshqa darajasiga o'tar ekan, boshqa daraja variantlarini o'zgartirib, yangi befarqlik egri chizig'ida bo'ladilar. Masalan, iste'molning o'sgan darajasi joyini o'ngga va yuqoriga o'zgartirgan 2 yangi befarqlik egri chizig'iga muvofiq bo'ladi. Bu egri chizik o'nga kiritilgan barcha tovarlarning katta miqdori termalarining variantlarini namoyon etadi va bu eng yuksak naflilik hamda iste'mol samarasi nuqtai nazaridan faqat ancha yuqori daromad va budjetdagina bo'lishi mumkin. Agar iste'mol darajasi yanada o'ssa, uni yanada o'ngga va yuqoriga ko'tarilgan befarqlik egri chizig'i bilan ko'rsatish mumkin. Demak, iste'molning o'sib boruvchi darajasini ifodalovchi 1,2,3 befarqlik egri chiziklari befarqlik xaritasini tashkil etadi.

Iste'molning pasayadigan darajasida har bir egri chiziq chapda va pastga qarab joylashadi, undagi nuqtalar iste'molning pastroq darajali bir xil naflilikka ega termalar variantlarini ifodalaydi;

*beshinchidan*, befarqlik yordamida iste'molning o'zgaruvchi darajalaritsi ifodalash mumkinligi, befarqlik egri chiziklari kesishmasligini ham bildiradi. Har bir befarqlik egri chizig'i iste'molning qandaydir bir darajasini tasvirlaydi. Uning o'zgarishi, masalan, daromadning o'sishi yoki pasayishi sodir bo'lsa, u shunga mos ravishda o'rnini o'zgartiruvchi (ammo kesishmaydigan) befarqlik egri chiziqlari bilan tasvirlanadi.

### **30.8. Befarqlik egri chiziqlari va budjet cheklashlari**

Ma'lumki, iste'molchi tanlovining imkoniyatlari budjetdagi cheklanishlar va tovarlarning narxi bilan belgilanadi. Ko'rib chiqilgan befarqlik egri chiziklarini daromad jadvali bilan (budjetdagi cheklanishlar chizig'i bilan) birga ko'rsatsa bo'ladi.

Iste'molchi budjetga hamon o'ta shartli 10 pul birligiga teng, xarajatlar esa, yuqoridagi jadvalda keltirilgan ikki xil tovarlar bilan cheklangan, deb faraz qilaylik. Agar tovarlar narxi ma'lum bo'lsa, sotib olinayotgan tovarlar miqdori ularning narxiga ko'paytiriladi.

Bizga ma'lum budjet cheklanishlari tenglamasi shuni ko'rsatadiki, bir tovar miqdori ko'paytiruv uning narxi qo'shuv ikkinchi tovar miqdori ko'paytiruv uning narxi teng 10 pul birligiga (shunday shart bilanki, bu pul birligi mana shu tovarlarga to'liq sarflangan bo'lsa).

$$\mathbf{XRx + YPy = 1,}$$



Bu yerda  $R_x$  va  $R_u - X$  va  $U$  o'qlarida ko'rsatilgan tovarlar birligining narxi: 1 –10 pul birligiga teng daromad, shaxsiy budjet. Tovar narxlari nisbati  $R_x/R_u$  – budjet cheklanishlari chizig'ining og'ishini tavsiflaydi. Misolimizda budjet chizig'i og'ishining tengligi (10 pul birligiga teng daromaddagi) kiyim-kechak birligi narxining oziq-ovqat birligi narxiga munosabati bilan belgilanadi.

**Nafililik egri chiziklari va iste'mol muvozanati.** Xaridorlar narxdagi va budjetdagi cheklanishlarni solishtirib, bir tovarni ikkinchisi bilan almashtirar ekan, tovarlar nafiligini va o'z iste'mol samarasini shakllantirishga harakat qiladi. Yuqorida qayd qilinganidek, xaridor uchun almashtirishning chegara me'yori almashinishi kerak bo'lgan tovarlar narxining nisbatiga teng. Iste'mol afzalliklari va tanlovning real imkoniyatlari variantlarini solishtirib quyidagi vaziyatlarni qayd etamiz.

*Birinchi*dan, iste'molchi har ikki tovarning kam miqdorli termasidan ko'ra ko'p miqdorli termasini afzal ko'radi. Oziq-ovqat va kiyim-kechaklar miqdori ko'p bo'lgan vaziyat budjet chizig'ining o'ngrog'ida joylashgan va u bilan kesishmaydigan 3 befarqlik egri chizig'ida ko'rsatilgan. Ammo bu iste'molchi uchun real vaziyat emas, chunki bu terma tovarlarning narxlari iste'molchi budjet daromadining imkoniyatlaridan – 10 pul birligidan ortiqcha.

*Ikinchi*dan, 1-befarqlik egri chizig'i shunday vaziyatni ko'rsatmokdaki, unda daromad to'liq sarflanyapti va joriy iste'mol daromad darajasiga mos bo'lmagan past darajada amalga oshirilmokda. 1-befarqlik egri chizig'ining budjet chizig'i bilan kesishgan nuqtalarida tovarlar iste'moli muvozanat nuqtalariga nisbatan kamroq.


*Uchinchi*dan, izlanayotgan nafililik maksimallasuvi va iste'mol muvozanatiga 2 befarqlik chizig'i budjet chizig'i bilan kesishgan nuqtada batafsil erishiladi. Bu nuqtada iste'molchi daromaddan to'liq foydalanishi natijasida ehtiyojning maksimal darajada qondirilishi sodir bo'ladi. *Ye*– bu iste'mol muvozanati nuqtasi. Shuni yana qayd etish lozimki, iste'mol muvozanati nuqtasida 2 befarqlik chizig'ining og'ishi budjet chizig'ining og'ishiga teng.

Misolimizdagi 2 befarqlik egri chizig'ining og'ishi kiyim-kechak eng yuksak nafligining oziq-ovqat eng yuksak nafiligini nisbatiga tengdir. Bu nuqtada budjet cheklanishlari chizig'ining og'ishi kiyim-kechak narxining oziq-ovqat mahsulotlari narxi nisbatiga teng. 10 pul birligiga teng berilgan budjet cheklanishlari egri chizig'i va befarqlik egri chizig'i yordamida shuni isbotlash talab qilingan edi.

### 30.9. Iste'mol muvozanati va talab egri chizig'i

Yuqorida bayon etilgan iste'molchi xatti-harakati modeli har qanday tovarga individual talab shakllanishning asosini tashkil etadi. Buni isbot etish uchun bir jadvalda joylashtirilgan bizga yaxshi ma'lum bo'lgan iste'molchining befarqlik egri chiziklari xaritasi va budget cheklanishlari chizig'idan foydalanamiz. Budget chizig'ining o'ngga va yuqoriga qarab joy o'zgartirishi ikki holda sodir bo'ladi: yo o'zgarmay, narxlarda real daromadlar o'sganida, yo real daromadlar o'zgarmasu, narxlar pasayganida. Bunda har bir o'ngga joy o'zgartirgan budget cheklanishlari egri chizig'ida aks etadi. Bu egri chiziqning tegishli nuqtasi iste'molning yuqoriroq darajasi vujudga kelgan iste'mol muvozanatiga to'g'ri keladi. Agar real daromadlar yana o'sadigan bo'lsa, budget cheklanishi va tovar iste'moli muvozanati yana iste'molning yuqoriroq darajasi tomoniga o'tadi. Bu budget cheklanishlari va befarqlik egri chiziqning yangi tegishli nuqtasi bilan qayd etilishi kerak va bunda yanada yuqoriroq darajadagi iste'mol muvozanati vujudga keladi. o'sib boruvchi daromad ta'siri ostida iste'molning izchil o'sib borishini ko'rsatuvchi barcha nuqtalar bir chiziqqa birlashadi, bu chiziq «daromad iste'moli egri chizig'i», deb ataladi.

Real daromadlarning iste'mol bilan o'zaro bog'liqligi birinchi marta XIX asrda ingliz iqtisodchisi J.Xiks tomonidan asoslangan va jadval orqali ko'rsatilgan hamda hayot darajasi egri chizig'i, deb atalgan. Keyin nemis statisti E.Engel ishchi oilalarining budjeti tuzilishini o'rganib, oziq-ovqat va kiyim-kechak, uy-joy va kommunal xizmatlar, shuningdek, yanada yuqoriroq tartibdagi tovarlar o'rtasida daromadning taqsimlanish qonunlarini to'ldirdi.



**30.5-chizma. Egri chizig'i: a – «Iste'mol narxi» va b – «Iste'mol daromadi».**

### «Narx-iste'mol» egri chizig'i

«a» chizmasidagi tasvir daromadlar o'zgarmagan holda narxlarning qisman pasayishi qanday ta'sir etishini ifodalaydi. Masalan, agar iste'mol termasidagi bir guruh tovarlarning narxi pasaygan bo'lsa, budget cheklanishlari egri chizig'i arzonlashgan tovarlar qo'yilgan o'q bo'yicha o'ng tomonga qarab joyini o'zgartiradi. Befarqlik egri chizig'ida tasvirlangan va yuqorida keltirilgan oziq-ovqat va kiyim-kechakdan tashkil topgan iste'mol termasidagi shartli 1 dona kiyim narxi asta-sekin 1 pul birligidan 0,5ga, keyin 0,25 pul birligiga pasayadi, deb faraz qilamiz. Oziq-ovqat mahsulotlariga narxlar o'zgarmagan va qayd etilgan daromadlarga esa (bizning misolimizda 10 pul birligiga teng) iste'mol muvozanati kiyim-kechak narxlarining yanada yuqoriroq darajasida vujudga keladi (30.5a va b chizmalarga qarang).

Ikki egri chizikning budget cheklanishlari va befarqlik egri chizig'ining bir-biri bilan kesishgan nuqtasida muvozanat o'rnatilishini eslatamiz. Chizmadan ko'rinayaptiki, agar barcha hosil qilingan muvozanat nuqtalari orqali birlashtiruvchi chiziq o'tkazilsa «narx-iste'mol», deb ataluvchi yangi egri chiziqni hosil qilamiz.

«Narx-iste'mol» egri chizig'i birligi narxlar o'zgarishi bir tovarning ikkinchisiga almashishiga ta'sirini ko'rsatadi, ikkinchidan, «narx-iste'mol» chizig'i individual talab egri chizig'ini aniqlashning muhim vositasi bo'lib xizmat qiladi. Bu holda biz «narx-iste'mol» egri chizig'ining barcha nuqtalarini odatdagi vertikal o'qida narxlar, gorizonttal o'qida sotib olingan kiyimlar miqdori tasvirlangan chizmaning koordinatalariga qo'yamiz. Hosil qilingan talab egri chizig'i nafakat «narx-iste'mol» chizig'ini takrorlaydi, balki talab qonunining muhim xususiyatini – har qanday tovarning kamayib boruvchi nafilligini va narxlar harakatini ham ko'rsatadi.

Narxlar bo'yicha xarid miqdori ular o'rtasidagi bog'liqlikni ham ko'rsatadi. Har bir xaridorning individual talabini shunday batafsil hisoblash biror ma'noga ega deb faraz qilinsa, har bir tovar bo'yicha umumiy bozor talabini, har bir tovarga talabning individual egri chiziklarini bir ko'rsatkichga keltirish mumkin. B-jadval iste'molchi daromadlarining o'sishi natijasida talabning o'sishini ko'rsatadi. Budget cheklanishi chizig'i o'ngga suriladi (**M1**, **M2**, **M3**), farovonlik o'sish tamoyilini «iste'mol daromad» egri chizig'ini shakllantiradi.


### 30.10. Ayriboshlash va daromad samarasi

Ma'lumki, xaridorlarning shakllangan talabi tuzilishiga ularning daromadlari hamda tovarlar narxining qisman yoki umuman pasayishi ta'sir qiladi. Narxlarning pasayishiga munosabat ikki xil namoyon bo'ladi.

*Birinchi*dan, arzonlashgan tovarlarni sotib olish miqdori oshadi va bu bilan xaridor olmagan nisbatan qimmatroq tovar o'rnini bosadi. Xaridor avvalgilarning o'rniga olgan tovarlarga talab o'zgaradi, bu bilan tovar termalari tuzilishini o'zgartiradi. Bu bilan xaridor qayd qilingan daromadini, shaxsiy budjetini arzonroq tovarlarni ko'proq olish uchun qayta taqsimlaydi xolos. Bu ishni u jumladan, o'zgarimas narxli tovarlar xaridini kamaytirish hisobiga ham amalga oshiradi. Natijada, mavjud talab tuzilishida ham o'zgarishlar sodir bo'ladi, uning arzonlashgan tovarlarga to'g'ri keladigan tarkibiy qismi kattalashadi. Ayriboshlash samarasi – bu arzonlashgan tovar xaridining oshishi bilan talab tuzilishida sodir bo'ladigan o'zgarish bo'lib, qolgan tovarlar o'zgarimas narxlarga ega bo'lgani uchun nisbatan qimmatroq bo'lib qoladi.

*Ikkinchi*dan, narxlarning pasayishi xaridorlar real daromadlarining oshishiga mosdir. Bu ularning xarid qobiliyati oshishida namoyon bo'lib, talabni tashkil qiluvchi nisbatan o'sgan daromad va to'lov qobiliyati bilan vujudga kelgan. Bu esa, daromadning o'sishi bilan vujudga kelgan xaridor talabi tuzilishining o'zgarishidir. Xaridor uchun narxlarning har qanday pasayishi chiqimni qisqartirish imkonini beradi, demak u o'z daromadini tejashga erishadi. Daromad tejami hajmi narxlarning pasayishi kattaligiga bog'liq, ammo xaridorning ana shu kattalikka go'yo boyroq bo'lib qolishi qo'shimcha izoh talab qiladi.

Narxning pasayishi oqibatida daromadning tejalgan qismini joriy iste'mol tuzilishini o'zgartirmay saqlab kolish mumkin yoki narxlar oshguncha ko'proq tovar xarid qilib olish mumkin. Ushbu hol joriy iste'mol tovarlariga xaridor talabining oshishida o'z ifodasini topgan daromad samarasining kattaligini bildiradi.



**30.6-рчизма. Айрибoшлaш va дaрoмaд сaмaрaси (стандaрт тoвaрлaр).**

Demak, ayriboshlash samarasi va daromad samarasi xaridor talabi o'zgarishlariga dahldor bo'lib, ularning har biri uning tuzilishiga o'ziga xos ta'sir o'tkazadi. Nafaqat nazariy, balki amaliy narx tashkil qilishda bu samaralarning ta'sirini me'yoriy, ya'ni yuqori sifatli va past sifatli tovarlarga bo'lish mumkin.

Standart tovarlar qo'llangan holdagi ayriboshlash samarasi va daromad samarasi chizmasini ko'rib chiqamiz (30.6-chizma)

30.6-chizmadagi grafigimiz befarqlik egri chiziqlari va budjet cheklanishlari egri chiziqlari tasvirlangan bo'lib, ular bizni qiziqtirayotgan samaralarni ko'rsatish uchun shunday joylashtirilgan. Ular narx pasayishida sodir bo'lgan o'zgarishlarni ifodalaydi: xarid qobiliyati (daromad samarasi)ning o'sishi va arzonlashgan tovarlarning katta miqdoriga narxi o'zgarmagan tovarlarning kam miqdorini almashtirish (almashtirish samarasi). Birinchi budjet chizig'i ikki xil tovar uchun (masalan, oziq-ovqat va kiyim-kechak) shakllangan iste'mol talabiga to'g'ri keladi. Muvozanat  $A$  nuqtada joylashgan bo'lib, shu nuqtada budjet chizig'i va 1-befarqlik egri chizig'i bir biriga tutashadi. Narxning har qanday pasayishida daromad samarasi budjet cheklanishlarining butun chizig'ini o'ngga va yuqoriga suradi va 1 xarid muvozanati ancha yuqoriroq darajada budjet cheklanishlari va 2-befarqlik egri chiziklari bir-biri bilan kesishgan ( $V$  nuqtada) joylashadi. Agar faqat kiyim-kechak narxining pasayishi sodir bo'lsa, budjet cheklanishlari chizig'i (nuqtali chizig'i) daromad samarasini «bo'lishadi» va bu bilan ( $Y$  o'qi bo'ylab) narxi oziq-ovqat mahsulotlarining ( $X$  o'qi bo'ylab) narxi pasaygan kiyimlarning o'sgan miqdoriga ayriboshlash o'zgarimas kattaligini ko'rsatadi. 3-befarqlik egri chizig'i  $S$  nuqtasida iste'mol muvozanatini o'rnatgan bo'lib (b, iste'moldagi umumiy o'zgarishlarni ko'rsatadi. Bu o'zgarmagan narxdagi oziq-ovqat mahsulotlari va pasaygan narxdagi kiyimlarga ham taalluqlidir. Bu holda daromad va ayriboshlash, samaralari birga jamlangan, ular har birining kattaligi  $X$  o'qi bo'ylab kesmalar orqali ko'rsatilgan. Budjet cheklanishlari chizig'i va iste'mol muvozanati nuqtalari bilan «kesishayotgan» oziq-ovqat va kiyim-kechak o'qlarida proyeksiyalashtirilgan, ayriboshlash va daromad samaralariga mos keladigan talabdagi o'zgarishlar kattaligiga to'g'ri keladi.

### **Qisqacha xulosalar**

Insonning xaridor sifatida hech qachon hech narsaga o'zi tuymaganligi u hamisha bozorda o'zining xulqi, fe'l-atvori bilan ajralib turadi. Biror narsani xarid qilish uchun uning yonida albatta ma'lum summa bo'lishi kerak. Qimmatbaho kiyim-kechak yoki boshqa qimmat tovarlarni sotib olish ancha ko'p pulni talab qiladi. Demak, puli ko'p xaridor qimmatbaho tovarni xarid

qila oladi. Puli kam odam arzon narxdagi tovarni xarid qiladi, umuman, hech narsa xarid qilmasligi ham mumkin. Tovarlar dunyosida xaridorlar xulqi va ularning tanlov g'oyat individual xususiyatga ega. Har bir xaridor biror tovarni xarid qilayotganda o'z pulini (ko'pmi yoki ozmi), didini modaga, tovarlar dizayniga munosabatini va boshqa sub'ektiv afzalliklarini hisobga oladi. Xaridorlarning to'lov qobiliyati bozorda asosiy ahamiyatga ega, ya'ni biror narsani xarid qilish uchun iste'molchining pul daromadlari va chiqimlari asos bo'lib xizmat qiladi. Iste'molchi budjet cheklanishlarining o'sishi yoki pasayishi odatda odamlar farovonligini belgilovchi daromad real yoki nominal darajasi, deb ataladi.

Ma'lumki, xaridorlarning shakllangan talabi tuzilishiga ularning daromadlari hamda tovarlari narxining qisman yoki umuman, pasayishi ta'sir qiladi. Buni ayriboshlash samarasi va daromad samarasi, deb ham atashadi.

Demak, iste'molchining bozordagi xulqi asosan, u narsaga bog'liq, birinchisi daromadga, shaxsiy budjetga, ikkinchisi – bozordagi narx-navoga va uchinchisi – tovarlar sifatiga.

### **Asosiy tushunchalar**

Har bir iste'molchi ma'lum ma'noda iste'molchilarning bozordagi xulqini, xarid qilish qobiliyatini, alomatlari va ko'rsatkichlarini tavsiflaydi, shular jumlasiga iste'mol afzalligi, tovar va xizmatlarga talabi, iste'molning tuzilishi, daromadlardan naflanish usullari kiradi. Iste'molchilar xulqi, ularning o'z puliga–daromadiga, shaxsiy budjetiga qarab, narxlarni hisobga olgan holda tovarlar tanlovini amalga oshiruchi xaridorlar talabining shakllanish jarayonidir.

Shaxsiy daromad – jismoniy shaxslarning ma'naviy va moddiy ne'matlar xarid qilish vositasidir. Shaxsiy daromadga asosiy va yordamchi ish joylarida ishlab topilgan hamma mablag'lar, tadbirkorlik daromadi, qimmatbaho qog'ozlarga oid daromad bankka qo'yilgan pullar kiradi.

Daromad samarasi – bozordagi narxlarning mahsulotlarga o'zgarishi, iste'molchilarning real daromadiga ta'siri (xarid qilish qobiliyati), almashtirish samarasini hisobga oladimi yoki olmaydimi xarid qiladigan iste'molchi mahsulotlari miqdori.

Almashtirish samarasi – sodda qilib aytganda, arzonlashgan tovar xaridining o'sishi bilan talab tuzilishida sodir etiladigan o'zgarish bo'lib, qolgan tovarlar o'zgarmas narxlarga ega bo'lgani uchun nisbatan qimmatroqdir.

### **Mavzuning namunali savollari**

1. Iste'molchi xulqi: eng yuksak nafli ne'matlar, budget cheklanishlar.
2. Tovarlar eng yuksak naflligining kamayib borish qonuni.
3. Naflilikni maksimallashtirish qonuni va iste'molchi xulqi.

### **Seminar darslarida muhokama qilish uchun savollar**

1. Befarqlik egri chizig'i kategoriyasida iste'molchilar tanlovi.
2. Budget cheklanishlari chizmasi va befarqlik egri chizig'i.
3. Iste'mol tovarlarini ayriboshlashning eng yuksak me'yori.
4. Ayriboshlash va daromad samarasi.

### **Mustaqil ta'lim uchun savollar**

1. O'z hayotingizdan talab va taklif iqtisodiy qonuniga doir misol keltiring. Talab – bu xaridorlar vazifasi; taklif bu ishlab chiqaruvchilar, yetishtiruvchilar vazifasi, degan ifoda nimani bildiradi?
2. Daromad samarasi, ayriboshlash samarasi nimani bildiradi?
3. Raqobatli bozorda muvozanatli narx talab va taklif ta'sirida belgilanadi. Muqobil usulda narx belgilashning qanday turlari sizga ma'lum? Shulardan kaysi birini foydali, deb hisoblaysiz?

## IV BO‘LIM. MAKROIQTISODIYOT

### 31 BOB. MILLIY IQTISODIYOT VA UNING MAKROIQTISODIY O‘LCHAMLARI.

*Kishilar ancha oldindan o‘zgarmsdan qat’iy aniqlangan miqdoriy oylarda pastga burilishni namoyon etadigan statistik ko‘rsatkichlarga (yoki bir guruh ko‘rsatkichlarni) qidirmoqdalar. Bu o‘z navbatida shunga o‘xshagan barcha iqtisodiy burilishlarni sinamoqda.*

*Shunga o‘xshagan “etakchi indikator” vositasini oldindan aytish bebaho bo‘lar edi; ammo bunday mukammallashgan instrumentni topish oson emas edi.*

*Pol Samuelson*

#### **31.1. Makroiqtisodiyot tushunchasi.**

Makroiqtisodiyot bu iqtisodiyot nazariyasining iqtisodiyotni butunlay o‘rganadigan qismi bo‘lib hisoblanadi.

Milliy iqtisodiyot so‘zsiz mikroiqtisodiyot darajasida bozor aktlarining jamlangan xulqi, fe‘l-atvorini o‘z ichiga oladi, ammo bu avtomatik, arifmetik ravishda summa emas, sababi bu yerda aniq jarayonlar namoyon bo‘ladi, ya’ni bu bo‘sh ifodalangan yoki qisman mikroiqtisodiyot darajasida ko‘rinmaydi. Bu:

- milliy iqtisodiyotda faoliyatning ishga tushib ketishi va yuksalishi;
- jamiyatda pulning roli va shu bilan bog‘liq inflyatsiya;
- mamlakatda bandlik darajasi, ishsizlarning borligi ifodalangan;
- iqtisodiyotga davlatning aralashuvi.

#### **Makroiqtisodiyot tahlilda bozor xo‘jaligi yangi uchastkalarining yuzaga kelishi:**

- chet el sektori (xorijiy);
- davlat;
- markaziy bank o‘zining pul siyosati bilan;
- kasaba uyushmalari;
- ish beruvchilarning uyushmasi va boshqalar.

**Makroiqtisodiyot tahlil ob’ektlari.** Makroiqtisodiyotning shunday muammolari bo‘ladi:

- yalpi talab va taklifning o‘zaro harakati va ularning milliy yalpi mahsulot shakllanishiga ta’siri;



- iqtisodiyotda bandlik va ishsizlik
- inflyatsiya jarayonlari bilan kurashish usullari;
- iqtisodiyot o‘shining sekinligi;
- davlatning makroiqtisodiyot siyosati;
- milliy iqtisodiyotning tashqi va xo‘jalik jarayonlarining globallashtirishida o‘zaro harakati.

**Agrigatsiyalash tamoyillari.** Makroiqtisodiyotda barcha o‘lchamlar turda ko‘rib chiqiladi. Aytadigan bo‘lsak, xilma-xil assortimentli, hatto, YaMM turida bita mahsulotgacha hamda milliy daromadga, narx-navo darajasiga, inflyatsiya va jamg‘armalar hajmiga foiz stavkalariga va boshqalarga umumlashtirgan holda qaraganda milliy iqtisodiyotda jiddiy chuqur xo‘jalik aloqalarini yengillashtiradi. Guruhlarda birgalikda bozorlarning xilma-xilligiga ham shunday qaraladi:

- 1) haqiqiy moddiy boyliklar (tovar va xizmatlar) bozori;
- 2) mehnat bozori;
- 3) kapital bozori;
- 4) pul bozori;
- 5) qimmatbaho qog‘oz bozori;
- 6) xalqaro bozor (xorijiy).

**Makroiqtisodiyot ko‘rsatkichlar tizimi.** Makroiqtisodiyotning asosiy ko‘rsatkichlarini 4 ta boshlang‘ich guruhlariga kiritish mumkin:

- Milliy ishlab chiqarish hajmining xarakterlash ko‘rsatkichlari: yalpi ishlab chiqarish, yalpi milliy va ichki mahsulot, pirovard va oraliq mahsulot, sof milliy mahsulot, milliy, shaxsiy va ixtiyoriy daromad;
- Narxli ko‘rsatkichlar: narxning umumiy darajasi, inflyatsiyaning har xil indeksleri, ya’ni deflyatori;
- Moliyaviy resurslarning ko‘rsatkichlarini o‘zlashtirishni xarakterlovchi: foiz stavkasi, mamlakat markaziy bankining remoliyalashtirish stavkasi;
- Bandlik ko‘rsatkichi.

Shu bilan birga, O‘zbekiston o‘z mustaqilligining dastlabki yillarida bozor iqtisodiga o‘tishning o‘ziga xos yo‘lini tanlab, uni izchil amalga oshirish natijasida, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligidagi boshqa ko‘plab mamlakatlar farqli ravishda, ishlab chiqarish va aholi turmush darajasining keskin pasayib, davlatning ichki va tashqi qarzlari xaddan ziyod oshib ketishiga yo‘l qo‘ymaslikka erishdi. 1991-1995 yillarda O‘zbekiston yalpi ichki mahsulotining pasayishi, MDH davlatlari o‘rtasida eng kam ko‘rsatkichni – 18,8 foizni tashkil etdi. Xolbuki, bu raqam Rossiyada – 53 foiz, Belorussiyada – 54,6 foiz, Qozog‘istonda esa, 75,4 foizga teng bo‘ldi.

O‘zbekiston iqtisodiyoti 1997 – 2003 yillar davomida yiliga 3,8 – 5,2 foiz o‘shish darajasida o‘rtacha sur‘atlar bilan rivojlandi. Qulay ishchan muhit yaratish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga qaratilgan iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish jarayonlarining natijasi sifatida mamlakatimiz iqtisodiyoti 2004 yildan e‘tiboran yiliga 7 – 9 foiz darajasidagi yuqori va barqaror o‘shish sur‘atlarini namoyish qila boshladi. 2016 yildan boshlab 4-5 foiz barqaror o‘shish sur‘atlariga erishilmoqda. 2020 yilda esa o‘shish 1,7 foizga teng bo‘ldi<sup>22</sup>.

YaIM 2011 yilda 103 232,6 mlrd.so‘mga teng bo‘lgan bo‘lsa 2020 yilga kelib ushbu ko‘rsatkich 602 551,4 mlrd.so‘mga teng bo‘ldi.

Qulay ishchan muhitning yaratilishi, investitsiyalar oqimining kuchayishi nafaqat iqtisodiy o‘shish sur‘atlarini jadalashtirish, balki iqtisodiyot tarkibida muhim sifat o‘zgarishlarining yuz berishini ham ta‘minladi. Xususan, iqtisodiyotni tarkibiy o‘zgartirish bo‘yicha amalga oshirilgan siyosatning natijasi sifatida 2000 – 2020 yillarda qishloq xo‘jaligining mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 30,1 foizdan 27,1 foizga kamayib, sanoatning ulushi 14,2 foizdan 27,4 foizga, xizmatlar ulushi esa, 37 foizdan 38,8 foizgacha bir oz o‘sd.

Mamlakatimizda 1994 yilning 1 iyulidan boshlab milliy valyutaning muomalaga kiritilishi, mustaqil budjet soliq siyosatining shakllantirilishi, narxlarni erkinlashtirish jarayonining nihoyasiga yetkazilishi va shuningdek, to‘lov intizomini mustahkamlash bo‘yicha ko‘rilgan chora-tadbirlar iste‘mol narxlari inflyatsiyasini 7–8 foizga tushirish imkonini berdi, bu esa, qulay ishchan muhitni yaxshilash va investitsiyalarni rag‘batlantirishda eng muhim omillardan biri bo‘ldi.

31.1-jadval

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YaIM tarkibi<sup>23</sup>**  
(jamiga nisbatan %da)

	2011	2015	2020
<b>YaIM</b>	<b>100</b>	<b>100</b>	<b>100</b>
<b>Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi</b>	<b>33,5</b>	<b>32,1</b>	<b>27,1</b>
<b>Industrial tarmoqlar</b>	<b>22,3</b>	<b>24,8</b>	<b>34,1</b>
sanoat	17,4	19,1	27,4
qurilish	4,9	5,7	6,7
<b>Xizmatlar</b>	<b>44,2</b>	<b>43,1</b>	<b>38,8</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	8,3	8,0	6,7

<sup>22</sup> O‘zbekiston Respublikasi yillik statistik to‘plam. 2011-2020. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. Toshkent 2021. B.32.

<sup>23</sup> O‘zbekiston Respublikasi yillik statistik to‘plam. 2011-2020. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. Toshkent 2021. B.34.

tashish va saqlash, axborot va aloqa	10,3	9,5	6,9
boshqa xizmat tarmoqlari	25,6	25,5	25,3

Investitsion faollik ko'rsatkichlari keyingi yillarda ishchan muhitning qezilarli darajada yaxshilanganligi va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlari barqaror tus olayotganining yorqin dalilidir. Masalan, o'zlashtirilgan kapital qo'yilmalar hajmi 1990 – 2000 yillarda 3,8 barobar oshdi, 2011 yilda esa, 1990 yilga nisbatan 12,6 barobar ortdi, 2020 yilda esa o'zlashtirilgan investitsiyalar 20,1 mlrd.AQSh dollarini tashkil etdi.

2020 yilda respublikaning tashqi savdo aylanmasi 36 299,3 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2019 yilga nisbatan 5 451,7 mln. AQSh dollariga yoki 13,1 % ga kamaydi.

*Hech qachon yalpi milliy mahsulotni millatning farovonlik bilan chalkashtirmaslik kerak. YaIM konsepsiyasi bu shartli, bunda shu qadar yasama noto'g'ri va istisonolar ko'p, ya'ni uni har xil mamlakatlarning farovonligini solishtirish uchun foydalanib bo'lmaydi. Hamda, agarda bu yerda bir-biridan hatto vaqtincha uzoq turgan masofalarni solishtirilsa ham noto'g'ri natijalarni olish mumkin.*

*Pol Xeyne*

### **31.2. Yalpi milliy mahsulot (YaMM) va uning harakat shakllari.**

**YaMM va daromadlar hamda mahsulotlarning boshqa ko'rsatkichlari.** Makroiqtisodiy tahlil ko'plab iqtisodiy ko'rsatkichlardan foydalanishni taxmin qiladi, ular statistika ma'lumotlarida aks etadi yoki MHT (milliy hisob tizimi)ga kiritiladi. MHT doirasida ko'plab asosiy statistika majmui aniqlanadi va barcha iqtisodiy ko'rsatkichlarni qo'llashni mo'ljallaydi.

Makroiqtisodiy ko'rsatkichlardan biri yalpi ichki mahsulot sifatida paydo bo'ladi (YaIM). Uning o'sishidan iqtisodiyotning umumiy foydasini baholash, binobarin hukumat olib boruvchan iqtisodiy siyosat choralarning asossizligi yoki nisbiy yutug'ini aniqlash uchun foydalaniladi.

YaIM (yalpi ichki mahsulot) ma'lum vaqt oralig'ida muayyan mamlakat rezidentlari ishlab chiqargan pirovard mahsulot narxini o'lchaydi.

Iste'mol, jamg'arish va eksport uchun mo'ljallangan narsalar – bu tovar va xizmatlardir. Ishlab chiqarish jarayonida ishlatilgan oraliq tovar va xizmatlar (xom ashyo, materiallar, yoqilg'i, reklama xonalarni ijaraga olish uchun to'lovlar va hokazolar) narxi YaIMga kiritilmaydi. Aks holda qayta

hisob-kitob qilish kerak bo‘ladi, chunki oraliq mahsulotlar tannarxi oxirgi tovar va xizmatlar tannarxi tarkibiga kiradi.

«Yalpi» atamasi YaIMni aniqlashda ishlatiladi, ya’ni YaIMni qiymatdan chegirib olishda ishlatilgan asosiy kapital (amartizatsiya) chegirib olinmaydi.

YaIM muayyan mamlakat rezidentlari tomonidan ishlab chiqarilgani uchun ichki mahsulot hisoblanadi. Rezidentlar deb, ushbu mamlakatning iqtisodiy hududida millati va fuqaroligidan qat’iy nazar iqtisodiy qiziqish markazlariga ega, iqtisodiy birliklar (korxonalar, uy xo‘jaliklari) hisoblanadi.

YaIMni o‘lchashning uch usuli mavjud:

- a) qo‘shilgan qiymat bo‘yicha (ishlab chiqarish usuli);
- b) chiqimlar bo‘yicha (pirovard foydalanish usuli);
- v) daromad bo‘yicha (taqsimlov usuli).

YaIM avvalambor, ishlab chiqarish ko‘rsatkichidir. YaIM rezidentlar ishlab chiqarish faolligi pirovard natijasining ifodasidir.

**Ishlab chiqarish** usuli bo‘yicha YaIMni hisoblaganda har bir bosqichda ishlab chiqarilgan pirovard mahsulot qiymati yig‘indisi kelib chiqadi.

**Qo‘shilgan qiymat** – bu ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlar qiymati

Qiymati bidan ishlab chiqarish jarayonida to‘liq iste’mol qilingan tovar va xizmatlar qiymati o‘rtasidagi farqlidir (oraliq iste’mol).

YaIM mohiyatan qo‘shilgan qiymat tushunchasi hisoblanadi.

YaIM – bu barcha ishlab chiqaruvchi rezidentlarning yalpi qo‘shilgan qiymat summasi plyus qo‘shilgan qiymatda hisobga olinmagan mahsulotlarga subsidiarlari chegirib tashlangan soliqlarning bir qismi (balki hamma summasi). Makroiqtisodiyotda YaIMni qisqartirish maqsadida butun ishlab chiqaruvchilarning qo‘shilgan qiymat summasi sifatida aniqlanadi. Bunday usul YaIMni hisoblashda har xil firma va tarmoqlarning YaIMni yaratishda qo‘shgan hissasini hisoblashga ijozat beradi. Ikki marta hisoblangan oraliq mahsulotni istesno qilish muammosini hal qilishga ham ijozat etiladi.

Iqtisodiyot uchun butun qo‘shimcha qiymat yig‘indisi pirovard natijada tovar va xizmatlar qiymatiga teng bo‘lishi lozim. O‘zbekistonda hozirgi vaqtda davlat statistika qo‘mitasi ko‘proq korxonalarining statistika hisobotlariga asoslanib to‘plagan tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish haqidagi ma’lumotlardan foydalanmoqda shuning uchun YaIMni hisoblashning asosiy usuli – ishlab chiqarish usulidir.

YaIMni chiqim bo‘yicha uy xo‘jaliklari, davlatlarning tovar va xizmatlarning pirovard iste’moli, yalpi investitsiyalar, sof eksport chiqimlari yig‘iladi. Haqiqatan esa, ishlab chiqarilgan YaIMga yalpi talab yig‘indisi haqida gap ketayapti. Yig‘ma chiqimlarni bir necha komponentlarga bo‘lish mumkin.

$$\text{YaIM} = \text{S} + \text{I} + \text{G} + \text{Xn},$$

**S – shaxsiy iste'mol chiqimlari.** Ular o'z ichiga uzoq muddat qo'llaniladigan tovarlar va xizmatlarga ketadigan uy xo'jaliklari chiqimlarini oladi;

**I – yalpi investitsiyalar,** ular chiqarish kapital to'lovlari yoki asosiy ishlab chiqarish fondlariga qo'yiladigan investitsiyalarni o'z ichiga oladi; uy-joy qurishga ketadigan investitsiyalar zaxira investitsiyalar (zaxiralarning o'sishi «+» belgisi bilan, kamayishi «-» belgisi bilan belgilanadi).

Yalpi investitsiyalarni sof **investitsiyalar** va **amortizatsiyalar** yig'indisi sifatida tasavvur qilish mumkin. Sof investitsiyalar iqtisodagi kapital miqdorini ko'paytiradi. (Investitsiya atamasi makroiqtisodiyotda qat'iy ma'noda ishlatiladi, u yangi qurilishga yoki yangi uskunalarni sotib olishga ketgan sarf-xarajatlarni bildiradi).

**G – davlat tomonidan xarid qilingan tovar va xizmatlar.** Masalan, maktab, yo'llar, armiya va davlat boshqaruv apparati uchun ketgan chiqimlar. Biroq bu davlat budjetiga kiritiluvchi davlat chiqimlarining bir qismidir. Bu yerga transfert (bu davlat to'lovlari) to'lovlari ham kirmaydi.

**Xn – sof eksport va import farqi sifatida hisobga olinuvchi chetga qilinadigan tovar va xizmatlarning toza eksporti.** YaIMni hisoblaganda berilgan mamlakatlarda ishlab chiqarilgan so'nggi tovar va xizmatlarni sotib olish bilan bog'liq bo'lgan hamma chiqimlarni, jumladan, berilgan mamlakat eksporti narxi hisoblangan chet elliklar chiqimlarini hisobga olish zarur. Shu bilan birgalikda, berilgan mamlakat iqtisodiy agentlar xaridlaridan chet elda ishlab chiqarilgan tovar xizmatlarini olib tashlash kerak.

YaIMning berilgan tenglamasini ko'pincha **asosiy makroiqtisodiy o'xshashlik**, deb atashadi. YaIM to'lovchilar **S,I,G,Xn** orasidagi farqlari asosan iste'molchilar turlari orasidagi farqqa asoslangan, bu xarajatlarni amalga oshiruvchilar (uy xo'jaligi, firmalar, davlat, chet elliklar), ya'ni ne'matlarni va xizmatlarni sotib oluvchilar farqida emas. Shunday qilib, uy xo'jaligi tomonidan sotib olingan avtomobil **S** – komponentiga kiradi; agar u firma tomonidan olinganda – bu qismi asosiy fondlarga investitsiya bulardi va boshqalar. Uy qurilishiga ketgan, investitsiyalar uy xo'jalik biznesi yoki davlat tomonidan qilingan investitsiyalarni tomonlarga bo'lmasdan, YaIM qo'shilgan investitsiyalar istisno qilinardi.

YaIMga tovarlarni sotib olishga ketgan avvalgi chiqimlar, shuningdek, oraliq mahsulotlarni sotib olishga ketgan chiqimlar kiritilmaydi, bu esa, ikki marta hisob-kitob qilishning oldini oladi.

YaIM komponentlari orasida iste'mol chiqimlari eng katta (**S**), investitsiyaviy chiqimlar (**I**) eng o'zgaruvchan hisoblanadi.

Foyda bo'yicha YaIMlarni hisoblanganda birlamchisi foydalar yig'iladi. Bu foydalar qo'shimcha narxdan ishlab chiqarish rezidentlari tomonidan to'lanib, ularga quyidagilar kiradi;

– yollanma ishchilar mehnatiga to'lovlar (ish haqi, mukofotlar), qo'shimcha to'lovlar va boshqalar;

– yordam pullarini hisobdan chiqargan holda import va ishlab chiqarishga qo'yiladigan soliqlar, bu yerga QQS aksizlar savdo-sotiqqa, yerga qo'yiladigan soliqlar, mehnatga to'lov fondlari va boshqalar kiritiladi.

– yalpi foyda va yalpi aralash foydalash yoki sof foyda aralash foydaga asosiy kapitallar (amartizatsiya) iste'moli qo'shiladi, yalpi qo'shma narxning qismini tashkil etadi.

Bu esa, ishlab chiqaruvchilarda yollanma ishchilarning mehnatiga to'lovlar va ishlab chiqarish importga soliqlar to'lash bilan bog'liq bo'lgan chiqimlarni olib tashlashdan olingan foydalarni chiqarib tashlashgacha ishlab chiqarishdan olingan foydani ko'rsatadi. Bunday daromadlar birligi mulkchilikdan daromadlarni chegirib olinguncha ishlab chiqarishdan olingan foydani ko'rsatadi. Xususiy mulkdan olingan renta foizlar va boshqa foydalar boshlang'ich foydalarni keyinchalik taqsimlash davomida to'lanadi.

Uy xo'jaliklari – mayda do'konlar, fermalar, birodarliklarga tegishli korporativ bo'lmagan korxonalar foydalari aralash foydalar deyiladi. Bu korxonalarda o'z egalari yoki ular uy xo'jaliklari a'zolari mehnati qo'llanadi, bu korxonalar foydasi esa, tadbirkor foydasidan ajratib bo'lmaydigan mehnat to'lovlari elementlarini o'zida mujassam etgan.

Ishlab chiqarish va importga bo'lgan soliqlar QQS yangi talqinida davlat boshqaruvi organlarining boshlang'ich foydasi sifatida ko'riladi. (Mulkchilikka va daromadlarga solingan soliq birlamchi daromad sifatida qoralmay, qayta taqsimlanuvchi to'lovlar sifatida talqin qilinadi).

YaIM boshqacha talqinda daromadlar bo'yicha mo'ljali olinadi, ya'ni Amerika amaliyoti bo'iicha o'sha ko'rsatkich mo'ljali yoki iqtisod qo'llanmalaridagi nazariyalar bo'yicha boshlang'ich daromadning quyidagi turlari olinadi: mehnatga haq to'lash, korporatsiyalar foydasi, ishchilarga haq to'lashdan keyin qolgani (bunga dividendlar, bo'lmagan foyda va foydadan olingan soliqlar), rentalar, foizlar (davlat qarzi bo'yicha foizlaridan boshqa), kopirativ bo'lmagan korxonalar foydasi (bular xususiylarning daromadlari, deb ataladi). Bu daromadlarga ikki sabab qo'shiladi, bu daromad hisoblanmaydiganlar – bilvosita soliqlar va asosiy kapitalning ishlatilishi.

YaIMning bunday usullari ishlab chiqarish va pirovard foydalanish usullarida ishlatiladi. YaIMdan tashqari daromad va mahsulotning boshqa ko'rsatkichlari ham mavjud. YaIM – bu o'sha mamlakat rezidentlari korxonalar,

tashkilotlarining ishlab chiqarish faoliyati natijalari hisoblanadi. Lekin bu tashkilotlarning hamma ishchilari ham rezident hisoblanavermaydi. Shu sababli bu mamlakatda qiymatning bir qismi rezident emaslariga YaIMni ishlab chiqarishda qatnashgani uchun to‘lanadi. Va aksincha, o‘sha mamlakatning rezidentlari xorijdan turib foydaning bir qismini boshqa davlatning YaIM chiqarishda qatnashgani uchun olishlari mumkin, albatta, ish haqi sifatida. Boshqa mamlakatning YaIMga o‘xshash jarayon foydaning xususiylikdan tarqatilishi (foizlar, dividendlar va h.k.) sodir bo‘ladi. Bu foydaning bir qismini xorijda ishlab chiqarishda qo‘shimcha qiymatdan olishadi, ya’ni o‘sha davlatning ishlab chiqarishdan, xususiylikdan kelgan foydasidan rezident emaslariga ham to‘lash qoidasi mavjud.

Shu sababdan har bir davlatning YaIM ishlab chiqarishda qatnashgan rezidentlarining boshlang‘ich daromadi (YaMD) – yalpi milliy daromad sifatida ko‘rsatiladi.

YaMD bilan YaIM o‘rtasida quyidagicha farq mavjud: sifat jihatidan olganda YaIM davlat rezidentlari ishlab chiqargan yakuniy tovarlarning va xizmatning ko‘pligi. **YaMD** – rezidentlar olgan boshlang‘ich daromad hajmi, hajm nuqtai nazarda YaMD YaIMdan xorijdan olingan boshlang‘ich daromadlar qoldig‘i bizning rezidentlar va chetdan olinganlar, chetga jo‘natilgan va rezident emaslar daromadi jihatidan farq qiladi. Bu farqni «xorijdan olingan sof foyda», deb ham atashadi.

**YaMD = YaIM + xorijdan kelgan birlamchi foydalar qoldig‘i.**

Shunday qilib, (YaMM va YaMD) ko‘rsatkichlari butun iqtisodga taalluqli (YaIM) chiqishni, boshqasi, ya’ni (YaMD) foydani belgilaydi. Eski milliy hisoblash tizimi (MXT) tahririda foydalangan YaMD ko‘rsatkichi YaMM (yalpi milliy mahsulot) ko‘rsatkichiga o‘xshagan «ichki» va milliy atamalar shakli, ya’ni YaIMga va YaMM ko‘rsatkichlar shkalasi amaliyotida qo‘llaniladi, prinsipial farqi yo‘q. Lekin shkala atama nazariya va amaliyot chuqur rasmiylashib qolgan, shu sababli faqat YaMMni YaMDga almashtirish taklif qilingan, haqiqatan ham YaMM daromad kategoriyasi hisoblanadi, mahsulot emas. YaMD – rezidentlarning ishlab chiqarishda qatnashganliklari va mulkchilikdan olingan, birlamchi yalpi daromadlaridir (MHT – birlamchi daromadlarga, xo‘jalik sub’ektlariga qo‘shilgan qiymatlarni birlamchi taqsimlash natijasida keladigan foyda, aralash daromadlar, mulkchilikdan keladigan daromadlar, ish haqi, ishlab chiqarish va importdan chegirib olinadigan soliqlarni kiritadi).

Ichki mahsulot va milliy daromad ko‘rsatkichlari yalpi mo‘ljalda bo‘lgani kabi asli, sof asosda bo‘lishi mumkin. YaMD va YaMM ga qarab

kapitalga ahamiyat qilamiz hamda **ichki mahsulot**ga ega bo‘lamiz (SMD) ya’ni, **sof milliy daromad** olamiz.

Makroiqtisodiy tahlil paytida shaxsiy daromad ko‘rsatkichi qo‘llaniladi. U MHT bunday holda yo‘q, ammo MXT boshqa ko‘rsatkich asosida hisoblanishi mumkin.

**Shaxsiy daromad** ko‘rsatkichini ajratish yo‘li bilan sof milliy daromaddan sotsial sug‘urta uchun olinadi, korporatsiyalarning tarqatilmagan qo‘shimcha foydasidan transfert to‘lovlari uchun soliq olinadi. Jumladan, foiz turida olingan davlat qarzi bo‘yicha foizni, biznes daromadlar foizini chegirib olish va shaxsiy daromadlarni qo‘shish zarurdir.

**Ixtiyoridagi shaxsiy daromad** bu fuqarolardan oldingan daromad solig‘i summasi va boshqa o‘xshash davlatga to‘lanadigan to‘lovlar shaxsiy daromadni kamaytirish yo‘li bilan hisoblanadi. Olingan ixtiyoriy shaxsiy daromad uy xo‘jaliklariga va jamg‘armaga qo‘yiladi va ishlatiladi.

**Iste‘mol (S) ning** – YaMMning eng muhim jihati hisoblanadi. Uzoq muddatga mo‘ljallangan rejada YaMM o‘zgarishi va iste‘mol xarajatidari deyarli bir xil, lekin qisqa muddatli davrda YaMMga qaraganda iste‘mol xarajati kamroq miqdorda bo‘ladi, masalan, ikki xil xarajatni oling, uni YaMMdan farqlang, soliqlar (soliqni eng baland, deb oling) va transportlar – bu xuddi avtomat stabilizatorga o‘xshaydi: vaziyat pastga tushganda soliq tushadi, transfertlar o‘sadi, shuning uchun ham mavjud daromad YaMMga qaraganda unchalik tez qisqarmaydi.

**Jamg‘arma (S) daromad** sifatida iste‘moldan ajratiladi. Mavjud mo‘ljaldagi daromad faqat uy xo‘jaligi darajasida belgilanmaydi, balki butun iqtisod miqyosida olinadi. Mo‘ljaldagi yalpi milliy daromad YaMDni qo‘shish xoriждан sof transfertlar yo‘li bilan olinadi. YaMD yakuniy iste‘mol va milliy jamg‘arma uchun foydalaniladi.

### 31.3. Asosiy makroiqtisodiy o‘xshashlik

Asosiy makroiqtisodiy o‘xshashlik (daromad o‘xshashligi) daromad va xarajatlar tengligini bildiradi:

$$Y=C + I + G + X_n$$

Makroiqtisodiy tahlilda boshqa muhim o‘xshashliklar ham qo‘llaniladi.

Jamg‘arish va investitsiyalar o‘xshashligini quyidagicha ifodalasa bo‘ladi: Oldin yopiq iqtisodni ko‘rib chiqamiz, bunda davlat sektori mavjud emas, soliqlar ham. Bunda quyidagicha ifodalandi:

**YaMMga xarajat=Iste‘mol + Investitsiya.** Jamg‘armani aniqlash uchun yozib qo‘yamiz: **daromad yoki YaIM, daromadlar bo‘yicha o‘lchangan = jamg‘arma + iste‘mol.**



YaIMga xarajatlar va daromadlar, YaIM ishlab chiqarishdan olingan ma'lumotlar teng bo'lganda

$$C + I = S + C, \text{ yoki } I = S.$$

Bu o'xshashlik tashqi dunyo va davlat tahliliga kiritilganda qiyinlashadi.

Hamma jamg'armalar xususiy (**Sp**) ga bo'linadi, davlat (**Sq**)i qalqon dunyo jamg'armasi (**Sr**):

$$S = Sp + Sq + Sr.$$

Xususiy jamg'arma daromadlar (**Y**) summasiga teng, (**TR**) transfert, davlat qarzlari bo'yicha foizlar (**N**), soliqni hisoblamaganda (**T**) va iste'mol (**S**):

$$Sp = (Y + TR + N - T) - C$$

Davlat jamg'armasi quyidagicha aniqlanadi:

$$Sq = (T - TR - N) - G$$

Davlat jamg'armasi, agar ijobiy o'sgan bo'lsa budjetdan ortiqcha hisoblanadi. Agar salbiy bo'lsa, demak, budjetda kamyonlik borligini bildiradi (**VD**):

$$VD = -Sq.$$

Tashqi dunyo jamg'armasi (boshqa dunyolar) odatiy aniqlanish bo'yicha daromadga teng, bu daromad bizning importimiz (**IM**) hisobiga olinadi va eksportimiz ayrib tashlanadi (**X**):

$$Sr = IM - X, \text{ yoki } Sr = -Xn.$$

Tashqi dunyo mablag'i bizning tomonlarda moliyaviy aktivlarni sotib olishga chetdan olingan qarzlarni qisqartirishga va mamlakatga kapitalning oqib kelishi uchun sarflanadi.

Investitsiya va mablag'dagi birdamlik iqtisod va har bir sektor (xususiy davlat, tashqi dunyo) uchun muhim hisoblanmaydi. Masalan, investitsiya o'sishi mumkin va bu xususiy hamda davlat mablag'ining qisqarishi nitajasida, bu qisqarish esa xorijdan kapitalning oqib kelishi hisobiga amalga oshadi.

$$Sp + Sq + Sr = (Y + TR + N - T) - C + (T - TR - N) - G + (-Xn)$$

$$Sp + Sq + Sr = Y - C - G - Xn:$$

$$S = I.$$

Mablag' jamg'arish investitsiya uchun ham, moliyaviy aktivlar uchun ham qo'llanishi mumkin. Masalan, ikki xil moliyaviy aktivlar mavjud: davlat obligatsiyasi va nakd pullar. Obligatsiyalar va nakd pullar – bu davlat passivlari (majburiyatlar) va xususiy sektor aktivlari. Shunda davlat mablag'i davlat qarzlarni qoplash uchun sarflanadi yoki pul masalasining qisqarishi uchun ishlatiladi.

$$Sq = - (IM + IV),$$

bu yerda, **IM** – pul massasinin o‘zgarishi; **IV** – davlat obligatsiyasining chiqargan o‘zargan summa,

Bu davlat budjetining bir xilligi deyiladi. Agar kamyoblik sodir bo‘ladigan bo‘lsa, pul yoki obligatsiya chiqarish bilan vaziyat to‘g‘rilanadi,

$$VD = -S_q, \text{ yoki } VD = IM + IV$$

Xususiy mablag‘lar ham aktivlarning ko‘paytirishga xizmat qilish mumkin bu albatta, davlat obligatsiyasi yok nakd ko‘rinishda bo‘ladi.

$$S_q = I + IM + IVr,$$

Tashqi dunyo mablag‘i bizning davlat obligatsiyasi uchun ishlatilishi mumkin.

$$S_p = IVr$$

Uch xil jamg‘arishning summasi qo‘yidagicha ko‘rinishga ega:

$$S = I.$$

### 31.4. Nominal va real ko‘rsatkichlar. Baho indeksi

YaIM mo‘ljallangan nominal shu yilning bahosida mo‘ljallanadi, real YaIM esa doimiy o‘rtacha belgilangan baholarda hisoblanadi, bu esa mo‘ljallangan vaqtdan adashmaslik uchun va mahsulotning jismoniy hajmini hisoblashda imkoniyat yaratadi. YaIM o‘shida ikki jarayonning ahamiyati bor:

- a) real ishlab chiqarishning hajm jihatdan o‘shishi;
- b) bahoning o‘shish nuqtasi.

Baho indeksi uchun YaIM nominalini ko‘rib chiqish yordamida real YaIM mo‘ljal qilinadi:

$$realYaIM = \frac{nominalYaIM}{bahoindeksi}$$

Agar baho indeksi birdan kam bo‘lsa bunday holatda nominal YaIM o‘shish tomonga hisob qilinadi. Bu - inflirovaniya deb ataladi. Baho indeksi birdan baland bo‘lsa, bu - deflirovaniya, ya‘ni nominal YaIMni kamayish tarifiga ko‘rib chiqilishidir.

**Iste‘mol narxi indeksi** (INI) xizmat va tovar «Savatlari» bahosining o‘rtacha darajasini belgilashni bildiradi. Bu iste‘mol savati hisob yilining darajasida belgilanadi.

INI Laspeyres indeksi bo‘yicha mo‘ljal oladi yoki hisob yilining hisobotlari bo‘yicha yuritiladi:

$$P_L = \frac{\sum_{i=1}^n P_i^t \cdot Q_i^0}{\sum_{i=1}^n P_i^0 \cdot Q_i^0}$$

Bu yerda, **R** va **R** ning bahosi (0) - bazisga asoslanadi va o‘tayotgan; **Q** – bazisga asoslangan davrdagi 1 soni.

Ushbu tur indeksi bazasiga qaraganda shu ko‘rinishda og‘irlikning tizimidagi o‘zgarishlarni hisobga olmaydi. Bu natijada o‘zgarishlarga olib keladi. Shunday qilib, INI ta‘minot savati shu yil hisobidan ishlagan joyda ta‘minotdagi o‘zgarishlarniqabulqilmaydi, masalan bahoning o‘shish paytida qimmat narsani arzoniga almashtirish. Agar baho natijasi sifatida INI (INS) qo‘llaniladigan bo‘lsa, hayot qiymatining o‘shishiga olib keladi. Narx indeksi – YaIM ko‘rinmas deflyator hisoblanadi yoki Paashe indeksiga mo‘ljallanadi.

$$P_p = \frac{\sum_{i=1}^n P_i^t \cdot Q_i^t}{\sum_{i=1}^n P_i^0 \cdot Q_i^t}$$

Bu yerda, **Q** – shu davrdagi narsa soni. Agar **Q** o‘rniga YaIM keltirilgan barcha narsalar to‘plamini qo‘ysak, **R** o‘rniga uning bahosi tushadigan bo‘lsa, YaIM deflyatoriga ega bo‘lamiz. Aslida bu YaIM moliyaviy munosabatiga tengdir.

$$YiIM \text{ deflyatori} = \frac{\text{nominal YaIM}}{\text{real YaIM}}$$

Laspeyresning indeksi, Paashe indeksiga nisbatan iqtisodiyotda narx miqdorining o‘shishini kamaytiradi, fisher indeksi Laspeyres va Paashe indeksleri holatlarini bartaraf qiladi:

$$R_r = P_x P_r$$

### 31.5. Daromad va mahsulot ko‘rsatkichlarini hisoblashdagi murakkablik

YaIM ko‘rsatkichlari hisobidagi murakkablik bir necha holatlarga bog‘liq. Joriy yilda yaratilgan bir necha tovar va xizmatlar murakkab bozorga tushmaydi, shu tufayli bozor narxiga ega bo‘lmaydi. YaIM ko‘rsatkichida ular shartli ravishda hisoblangan qiymatda hisoblanadi ya‘ni, uy egalari foydalanadigan xizmatlar hisobi (yashash joyini ijaraga olganlarga o‘xshab) YaIM statiskasida “ijara to‘lovi» sifatida, ular uni o‘z - o‘ziga «to‘lovi» shartidek hisoblanadi, garchi haqiqatan to‘lovlar amalga oshirilmaydi. Davlat xizmatidagi xizmatchilar (militsiya xizmati, boshqar apparatidagilar va boshqalar) xizmati bozor qiymatiga ega emas, lekin YaIM xarajatlarida bu xizmatlar igplab chiqarishda hisoblanadi, ya‘ni davlat bu ishlar bo‘yicha xarajati, masalan, bu xizmatchilarga to‘lanadigan ish haqi.

Ancha tovar va xizmatlar uy xo‘jaligida ishlab chiqariladi va iste‘mol qilinadi, bular bozorga tushmaydi va ko‘plab YaIM ko‘rsatkichida hisoblanmaydi. Xuddi shunday, uyda va restoranda tayyorlangan ovqatlar, mutlaqo birxildir, lekin faqat restoranda tayyorlangan ovqatning qiymati YaIMda hisoblanadi. Uy xizmatchisi (xizmatkor ayol) va uy bekasi bir xil ishni

bajarishi mumkin, lekin uy bekasi mehnati hisobga olinmaydi, uy xizmatkor ayol daromad bo'yicha hisoblangan ish haqi YaIMga kiritiladi. Dunyoning barcha mamlakatlarida xufyona iqtisodiyot muammosini hisoblash bor. O'zbekistonda bu juda ham haddan tashqari aktual masala hisoblanadi, iqtisodiyotda islohotlarni o'tkazishda iqtisodiyotning bu xufyona qismi ancha o'sib bormoqda. Bu xususiy sektorlarni kengaytirishda, yangi xususiy korxonalarining paydo bo'lishida hamda xususiy sektorlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilishning yetarli emasligi bilan bog'liqdir. Bunday holatlar YaIM ishlab chiqarishni kamayib ketishiga olib keladi. O'tish davridagi iqtisodiyotda YaIM hisoblash muammosi mayda ishlab chiqaruvchilar, biznesmenlar, tadbirkorlar faoliyatini hisobga olish davrida tez-tez uchrab turadi. Yana bizni o'rab turgan muhitning ifloslanishini hisobga olishda ham murakkab muammolar mavjud.

YaIM yoki milliy daromad ko'rsatkichlarini jon boshiga hisoblashda tez-tez mamlakatlar o'rtasida solishtirish uchun foydalaniladi, masalan, yashash darajasi, millatning farovonligini baholashda, ammo bular hamma vaqt to'liq axborot berish qobiliyatiga ega emas.

Ikki mamlakat YaIMning jon boshiga bir xil ko'rsatkichiga ega bo'lishi mumkin, lekin narx miqdori har xil, demak, bir dollarga bu mamlakatlarda har xil sonlardagi tovarlar sotib olish mumkin.

Aholi jon boshiga bir xil ko'rsatkichdagi YaIM har xil ko'rsatkichlar bilan to'ldirilishi mumkin: aholining ta'lim olish darajasi, yashash tarzi, hayot davomi, oziq-ovqat kalloriyasi va boshqalar, bularning hammasini millat farovonligini baholashda hisoblash kerak. Bunday ko'rsatkichlar mamlakatlar orasida aholi daromadlarini tabaqalashtirish darajasi bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, mamlakat nisbatan daromadlarining past tabaqalashishida boshqa mamlakat bilan taqoslaganda yashash tarzi, hayot davomi va boshqalar, YaIMning jon boshiga ancha past bo'lishiga qaramasdan ta'lim olish darajasi yuqori bo'lishi mumkin.

### **31.6. O'zbekistonda YaIMning iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha tarkibi**

O'tgan XX asrning 90-yillari birinchi yarmida sobiq ittifoq respublikalaridagi aksariyat sanoat korxonalarini faoliyatining to'xtab qolishi va ularning bankrotga uchrashi xom ashyo va butlovchi qismlarga bo'lgan buyurtmalarning kattagina qismidan mahrum bo'lgan O'zbekiston sanoat korxonalarining faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Bunday vaziyat tarkibiy qayta qurishlar sanoatni diversifikatsiya qilish va eksport bozorlarini yangidan belgilab olishni ta'lab etadigan davr mobaynida sanoat ishlab chiqarishining yalpi ichki mahsulotdagi ulushining vaqtincha kamayishiga olib keldi.

Iqtisodiyot tarmoqlarini sanoat asosida tashkil etish, modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash bo'yicha 2000 – 2011 yillarda qabul qilingan chora tadbirlar mamalakatimizda sanoatning avtomobilsozlik, neft va gaz-kimyoy, temir yo'l mashinasozligi kabi yangi tarmoqlarining yaratilishi 2020 yilga kelib sanoat mahsulotlari umumiy hajmining o'sishi hamda YaIM tarkibida sanoatning ulushi 27,4 foizga yetishini ta'minladi.

Iqtisodiyotimizda yuz berayotgan sifat o'zgarishlarining yana bir muhim jihati – xizmat ko'rsatish sohasining jadal rivojlanishidir.

Mustaqillik yillarida xizmatlar tarkibida bizning iqtisodiyotimiz uchun deyarli yangi bo'lgan zamonaviy bank tizimi, audit, sug'urta, lizing, konsalting, mobil va video telefon xizmatlari, internet kabi xizmat ko'rsatish sohalari paydo bo'ldi. Agar xizmatlar ulushi 1990 yili yalpi ichki mahsulotda 33,8 foizni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'satkich 2000 yilda 37 foiz, 2020 yilga kelib esa, 38,8 foizga yetdi.

### **Qisqacha xulosa**

*1. Yalpi milliy mahsulot mamlakat rivojlanishining umumiy ko'rsatkichi sifatida.*

Yalpi milliy mahsulot – mamlakatda bir yilda ishlab chiqarilgan va foydalanilgan barcha pirovard mahsulot, tovar va xizmatlarning bozor qiymati.

Yalpi milliy mahsulotning (YaMM) o'zgartirilgan ko'rsatkichi yalpi ichki mahsulot (YaIM): agar ko'rsatkich YaMM mamlakat fuqarolari nafaqat o'zining, balki chet eldagi faoliyatini ham hisobga oladigan bo'lsa, unda yalpi ichki mahsulot – mamlakat hududidagi barcha kishilarning (rezidentlarning) fuqaroligidan qat'i nazar faoliyatini hisobga oladi. Aksariyat rivojlangan mamlakatlar uchun YaMM va YaIMning farqi uncha ko'p emas va 2–3 %dan oshmaydi, ularning ko'rsatkich dinamikasi esa, bir tomonga qaratilgan, ya'ni ularni aynan tenglashtirish uchun osonlashtirishga ijozat etadi.

YaMM dinamikasini yilma-yil tahlil qilish mamlakatning iqtisodiy rivojlanishini xarakterlashga ijozat beradi, uni aholi jon boshiga hisob-kitob qilish esa, mamlakatlararo yashash hayot darajasini taqqoslash uchun eng yaxshi ko'rsatkich bo'ladi. Iqtisodiyotning rivojlanish akti uzoq vaqt ichida narxlarning ta'siri ostida o'zgarishini noto'g'ri talqin qilmaslik uchun, YaMMning nominal va real ko'rsatkichi foydalaniladi. Nominal YaMM bozorning joriy narxida hisob-kitob qilinadi, YaMM real ko'rsatkichi esa, taqqoslab bo'ladigan, o'zgarimas narx indeksida hisoblab chiqish kerak:

Real YaIM = YaMM tarkibiga kiradigan pirovard tovar va xizmatlarning o'zgaruvchan narxi, maxsus indeksni hisobga olishni ijozat etadi, ya'ni yalpi milliy mahsulot deflyatorini:

## Formula

2. *YaMM hisoblashning sarf-xarajat usuli.* Makroiqtisodiy model doirasida resurslarning ko'rsatkichlari aylanmasi harakatida firmaning ishlab chiqarish sarf-xarajatlari va aholi daromadlarining o'sishi, asosiy makroiqtisodiy o'xshashliklari esa, ( $\dots = s+I+G+X$ ) ularning bapraravlik holatini aniqlaydi. Bu yerda o'xshashlikning chap qismi ( $\dots$ ) – bu jamiyatda ishlab chiqarilgan va bozorda sotiladigan mahsulotlardan olingan daromadlarning umumiy o'lchami, ya'ni YaMM. O'xshashlikning o'ng qismi ( $s+I+G+X$ ) – bu YaMM ishlab chiqarishda olgan sarf-xarajatdir.

Shunday qilib, ishlab chiqarilgan YaMM xarajat usulida hisoblanishi quyidagi shaklda amalga oshiriladi:

$$\mathbf{YaMM=s+I+G+X.}$$

Bu yerda,  $s$  – iste'molchi xarajati;  $I$  – investitsiya xarajati;  $G$  – davlat xarajati;  $X$  – eksport.

YaMM xarajatlar usulida hisob-kitob qilishda davlat xarajatlari ( $G$ ) tarkibidan aholining transfert – pensiya, yordamlar va boshqalar, to'lovlar chegirib tashlanadi, sababi ular davlatni joriy tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishga to'lovi hisoblanmaydi. Shunga qaramasdan, transfertlar uy xo'jaligining daromadlarini ko'paytiradi, ular YaMM ishlab chiqarishga hech qanday aks ettirilmaydi.

3. *YaMM hisoblashning daromad usuli.* YaMMning xarajatlar usulining teskari o'lchami daromad usuli deb ataladi. Buning asosida milliy daromad ( $MD$ ) yotadi. Milliy daromad – bu aholining daromadlari, ya'ni ular ega bo'lgan ishlab chiqarish omillaridan olingan barcha yig'indisi.

YaMM va  $MD$  o'lchamlarini taqqoslashda milliy daromad yalpi milliy mahsulotlardan kamroq, sababi tovarlarning hammasi aholi iste'moliga yetib bormaydi: davlatning iqtisodiyotda hisob qilinmagan manfaati bo'lib qoladi. Agar milliy daromadga, bevosita soliqlardan tashqari milliy daromad hisoblangan bilvosita soliqlar qo'shilsa, (qo'shilgan qiymat solig'i), unda sof milliy mahsulotni hisob qilish mumkin, YaMM uning tarkibida esa, nafaqat aholining omilli daromadlari hisoblangan, balki davlatning daromadlari ham:

$$\mathbf{CMM = MD+T.}$$

Bu yerda,  $CMM$  – sof milliy mahsulot;  $MD$  – milliy daromad;  $T$  – bilvosita soliq.

O'z navbatida sof milliy mahsulotga mahsulotning aholiga ham, davlat ham yetib bormaydigan mahsulot, balki firmalarning ixtiyorida qoladi va kapital chiqarish jarayonida iste'mol qilinganlarni qoplashga ketgan, ya'ni amortizatsiya ajratmalarini ( $A$ ). Unda:

$$\mathbf{CMM + A = YaMM}$$

Yuqorida qayd etilgan ikkita daromad usuldagi to'g'rilash xarajat bilan teng bo'ladi:

$$\text{YaMM} = \text{MD} + \text{T} + \text{A}$$

4. *Qo'shilgan qiymat tushunchasi.* YaMM o'lchash bo'yicha ikki marta hisob-kitob qilmaslik uchun, ya'ni bitta mahsulotni ko'p marotaba hisob qilmaslik uchun. Bunda faqat YaMM tarkibiga firma mahsuloti qo'shadigan qiymatni hisoblash kerak.

Qo'shilgan qiymat firmaning sotadigan va tashqaridan sotib olingan ishlab chiqarish omillari o'lchami orasidagi farqi sifatida ifoda etiladi. Unda barcha qolganlar oraliq mahsulot bo'ladi, ya'ni yil davomida ishlab chiqarilgan tovarlar birligi, ya'ni keyinchalik qayta ishlab chiqarish uchun foydalaniladi.

Agar firmaning bir yildagi qo'shilgan qiymatini yig'adigan bo'lsa, unda YaMM razmerini ham aniqlash mumkin. Bunday usul ishlab chiqarish usuli deb, nomlanar edi.

### **Asosiy tayanch atamalar**

1. Makroiqtisodiyot.
2. Yalpi milliy mahsulot.
3. Yalpi ichki mahsulot.
4. Sof ichki mahsulot.
5. Milliy daromad.
6. Daromadlar bo'yicha o'lcham.
7. Xarajatlar bo'yicha o'lcham.

### **Mavzuning namunaviy savollari**

1. Makroiqtisodiyot tushunchasi.
2. Yalpi ichki mahsulotning iqtisodiy mazmuni.
3. Yalpi ichki mahsulotning o'lchamlari.

### **Seminar darslarida muhokama qilish uchun savollar**

1. Makroiqtisodiyot tushunchasini aytib bering.
2. Yalpi ichki mahsulotning iqtisodiy mazmunini aytib bering.
3. Yalpi ichki mahsulot tarkibi.

### **Mustaqil ta'lim uchun savollar**

1. Yalpi ichki mahsulot iqtisodiy mazmunining shakllanishi.
2. Makroiqtisodiyot tushunchasi va yalpi milliy mahsulot.
3. Yalpi ichki mahsulotning o'lchamlari.
4. Qo'shilgan qiymat tushunchasi.

## **32 BOB. MILLIY IQTISODIYOTNING NAZARIY ASOSLARI. IQTISODIYOTNING MILLIY MODELI ASOSLARI**

Jamiyatning iqtisodiy hayoti muayyan mamlakatlarda amalga oshiriladi. Hozirgi davrida u mamlakat avvalgi tarixining mahsuli hisoblanadi. Mamlakat iqtisodiy hayotining tarixi esa, ana shu tarixning tarkibiy qismidir. Jamiyat iqtisodiy hayotining amalga oshirilayotgan modellari ana shu tarixning o'ziga xos xususiyatlarinigina o'zida mujassam etmaydi. Ularda umuman jamiyat taraqqiyotiga xos bo'lgan birmuncha umumiyroq iqtisodiy jarayonlar va qonuniyatlar, shuningdek, mazkur mamlakat tarixiy rivojlanishining xususiyatlari ham aks etadi. Bu demak, mazkur mamlakatning iqtisodiyoti sifatidagi milliy iqtisodiyot – umumiy iqtisodiy, umumjahon, mintaqaviy mamlakatlarga xos iqtisodiy jarayonlarning nihoyatda murakkab maxsulidir. Ayni vaqtda u jamiyat sivilizatsiyalashgan asoslarining tarixiy rivojlanishi bilan birgalikda olingan mamlakatlar tarixiy o'zgarishining natijasidir.

Iqtisodiy tafakkur tarixi ko'rsatishiga qaraganda, milliy iqtisodiyot va uning faoliyati tamoyillari haqidagi masala milliy xo'jalik oyoqqa turayotgan yoki mamlakatda uning rivojlanishi asoslariga daxldor tub o'zgarishlar kechayotgan sharoitlarda ayniqsa, dolzarb ahamiyat kasb etadi. XIX asr boshlaridagi Germaniya tarixi Fridrix List timsolida milliy iqtisodiyot nazariyasini ilgari surganligi tasodifiy emas. XIX asr boshlarida Germaniya iqtisodiy parchalangan, bojxona chegaralari bilan bo'lingan davlatlar birlashmasidan iborat edi. Xorij tovarlari uchun tashqi chegaralarning ochiqligi sanoat va qishloq xo'jaligining og'ir ahvolini yanada mushkullashtirar edi. Bularning hammasi Germaniyani birlashishga, milliy iqtisodiy chegaralarni va manfaatlarni himoya qilish shakllarini izlashga rag'batlantirar edi. Bularning hammasi F.Listning mashhur asarida birinchi yaxlit milliy iqtisodiyot nazariyasi vujudga kelishida o'zining nazariy ifodasini topdi<sup>24</sup>.

Buni biz sobiq ittifoqning siyosiy-iqtisodiy parchalanganidan keyin O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimovning tashabusi bilan O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligiga erishib, o'zining siyosiy iqtisodiy taraqqiyotiga ega bo'lib barcha sohada transformatsiyalashuvi, ya'ni iqtisodiy islohotlar, ishlab chiqarishni modernizatsiya va diversifikatsiya qilishni ilmiy asoslanganligini dalil qilib keltirishimiz mumkin.

Milliy iqtisodiyot haqidagi masala hozirgi sharoitda, o'tish davri iqtisodiyotida ham keskin turibdi. Deyarlik barcha mamlakatlarda iqtisodiyotning milliy modellari tanlanayotgani, mamlakatlar iqtisodiy

---

<sup>24</sup> Национальная система политической экономики / Ф. Лист; пер. с нем. В. М. Изергин. – Москва; Челябинск: Социум, 2017. – 451 с.



chegaralarini aniqlash zarurati, ularning milliy iqtisodiyoti xavfsizligi shuni taqazo etmoqda. Milliy iqtisodiyot tizimlariga va ularni o'rganishga qiziqish kuchayib bormoqda. Jumladan, integratsiya jarayonlarida mamlakatlarning yirik integratsiya birlashmalari tizimidagi o'rnini aniqlash hollarida ham shunday holatlar kechmoqda.

Milliy iqtisodiyot turli fanlar – iqtisodiy geografiya, iqtisodiy tarix xalq xo'jaligi iqtisodi, xalq xo'jaligini prognozlash va hokazo fanlar tomonidan o'rganiladi. Iqtisodiyot nazariyasi fani doirasida milliy iqtisodiyotlarni ko'rib chiqish boshqa fanlardagi yondashuvlardan jiddiy farq qiladi. Bunda mamlakatning iqtisodiy tizimi yoki uning milliy iqtisodiyot tizimi diqqat markazida bo'ladi. Iqtisodiyot nazariyasi mamlakatlar iqtisodiyotini ana shu mamlakatlarga xos bo'lgan iqtisodiy hayotining rang-barang shakllari uyg'unligida ma'lum darajada tartibga solingan iqtisodiy munosabatlar tizimi sifatida ko'rib chiqiladi. Bu har qanday iqtisodiy tizimga xos bo'lgan iqtisodiy faoliyatni (xo'jalik yuritish ko'rinishini) muvofiqlashtirish zarurati; iqtisodiy faoliyat omillari taqsimotining (mulikka egalikning) ko'rinishlari; daromadlarni taqsimlash va qayta taqsimlashning rang-barang ko'rinishlari; qayta ishlab chiqarishning xususiy va ijtimoiy tamoyillari va h.k. – biron-bir iqtisodiy tizimga mansub bir qator mamlakatlar uchun umumiy xususiyatlargagina emas, ayni vaqtda anchagina o'ziga xos jihatlarga ham ega, degan ma'noni anglatadi. O'ziga xoslikni har qanday iqtisodiyot uchun umumiy bo'lgan ana shu iqtisodiy tizim elementlarining alohida ko'rinishlari (iqtisodiyotning milliy modellari), bir vaqtning o'zida yagona milliy iqtisodiyot doirasida qayta tiklanadigan turli xil munosabatlarning tinch-totuv yashashi taqazo etadi. Bir qator milliy iqtisodiyotlarda kapitalistik munosabatlar bilan birga mayda tovar, natural va hatto patriarhal tartiblarning mavjudligi buning yorqin dalilidir (bir qator Osiyo mamlakatlari, Afrikaning aksariyat mamlakatlari iqtisodiyoti shular jumlasidandir).

Milliy tizim – takror ishlab chiqaruvchi tizim. Bu uning oddiy va kengaytirilgan takror ishlab chiqarishining ichki manbalari haqidagi masala mamlakat iqtisodiy barhayotligining markaziy masalasi, degan ma'noni anglatadi. Bu demak, ana shu munosabatlarni, iqtisodiyotning maqbul tarkibiy tuzilishini, mulikka egalik huquqi taqsimotini, iqtisodiy-moliyaviy mexanizmlarini, ijtimoiy-mehnat munosabatlari to'rini tashqi olam bilan aloqasi ko'rinishlarini, umuman, iqtisodiyotning boshqaruv tizimini, milliy iqtisodiyotning iqtisodiy chegaralarini aniqlash – milliy iqtisodiyot tizimining eng muhim elementlaridir.

Milliy iqtisodiyotning takror ishlab chiqarishni, uning mazmunidan anglashiladiganidek, jamiyat hayotining boshqa sohalari avvalambor,

odamlarning ijtimoiy turmush tarzi, ya'ni jamiyatning ijtimoiy tarkibiy tuzilishi, jamiyatdagi oilalar va individlar takror ishlab chiqarilishining tashkil etilishi turi bilan aloqadorlikda ko'rib chiqish lozim. Ijtimoiy va siyosiy munosabatlar sohalarida institutlar shakllanadi, ularning faoliyati jamiyat iqtisodiy hayotini chegaralaydi, bu milliy, aniq maqsadga yo'naltirilgan qarorlarning samaradorligi yoki samarasizligini ko'p jihatdan belgilaydi.

Jamiyat iqtisodiy tuzumini, milliy iqtisodiyot tizimini o'rganish iqtisodiy rivojlanishning mamlakat iqtisodiyotida muqarrar namoyon bo'luvchi umumiy qonuniyatlari bilan bir qatorda, jamiyat hayotining noiqtisodiy asoslaridan va mamlakat iqtisodiy hayotining turli tarzi yig'indisidan kelib chiqadigan o'ziga xos jihatlarni aniqlashga tayanishi kerak.

Iqtisodiy tizimlar iqtisodiyot va jamiyat rivojlanishining natijasi sifatida vujudga keladi va o'zgaradi. Shuning uchun milliy iqtisodiy tizimning asosiy belgilari, uning muhim jihatlari – jamiyatning u yoki bu bosqichdagi rivojlanishi mahsulidir. Shu sababli yangi tizimni tadqiq etishning birinchi tamoyili – iqtisodiyotda shakllangan va davlat hayotida o'zini turg'un namoyon etuvchi rivojlanishning qonuniy ob'ektiv tamoyillarini hisobga olishdir. Mazkur tamoyil u yoki bu davlat rivojlanishining nafaqat ijobiy, shu bilan birga, salbiy tajribasini ham hisobga olishni taxmin qiladi. Shu munosabat bilan sobiq sotsialistik tizim tajribasini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur tajribaga tarixiy anglashilmovchilik, tasodifiy hol, deb yondashish hozirgi zamon rivojlanishining umumiy qonuniyatlari va tamoyillarini chuqurroq idrok etish yo'lida g'ov bo'ladi. Mazkur tajribani insoniyat taraqqiyoti bilan uyg'unlikda, uning zaddiyatlarini bartaraf etishning bir ko'rinishi, bir usuli sifatida ko'rib chiqish esa, aksincha, real munosabatlarning qonuniyatlarini va mushkulliklarini hisobga olmaslik, ularni mensimaslik iqtisodiy tizimni yechib bo'lmaydigan ziddiyatlarga, pirovard oqibatda, hatto halokatga olib kelishini yorqin namoyish etadi. Shu nuqtai nazardan olganda, ittifoqda va boshqa davlatlarda real sotsializm hukm surgani, tarixiy fakt sifatida qiziqarlidir. Ularda tanlab olingan rivojlanishning ijtimoiy-iqtisodiy modeli real mavjud bo'lgan ijtimoiy tamoyillarni va qonuniyatlarni hisobga olmas edi, shuning uchun samaradorlikni oshirish talabalari bilan ziddiyatga kirishmay iloji yo'q edi. Avvalgi iqtisodiy tizimning yangi modeliga o'tishga 1985 yilda qilingan o'rinsh, bir qator sabablar bois, muvaffaqiyatsiz chiqdi, bu keskin oqibatlarga – avvalgisining parchalanishiga va yangi iqtisodiy tizimga o'tilishiga olib keldi. Bozor munosabatlarining tovar ishlab chiqarilishining, yangi tadbirkorlikning real rolini mensimaslik tizim besamarligining hal qiluvchi omillaridan biri bo'lganligi sotsializm tajribasidan chiqarilgan asosiy xulosalardan biridir. «Sof sotsialistik» model

qurishga o‘rinish aslida hozirgi zamon iqtisodiyoti chigalliklarini soddalashtirishga, mensimaslikka aylandi.

Iqtisodiyot murakkabliklari, uning munosabatlari rivojlanish jarayonida kuchayib boradi. Bu nafaqat ayrim mamlakatlar ichidagi nisbatan rivojlangan mamlakatlarda, davlatlararo va xalqlararo munosabatlarning kuchayishida, shu bilan birga, rang-barang iqtisodiy modellarning ko‘payib borishida o‘z ifodasini topmoqda.

Tahlilning ikkinchi tamoyili hozirgi zamon iqtisodiyotining rang-barang ko‘rinishlarini ko‘p jihatdan izohlaydi hamda u yoki bu iqtisodiy tizimning milliy va individual xususiyatlarini hisobga olishni talab qiladi. Mazkur xususiyatlarning ta’siri anchagina salmoqli. Hatto rivojlanish darajasi taxminan bir xil bo‘lgan mamlakatlarda ham iqtisodiyotning turli modellari muqarrar shakllanishi ana shundan dalolat beradi. Rivojlanishning Amerika, Germaniya, Shvetsiya, Yaponiya va boshqa modellari o‘rtasidagi farq pirovard oqibatda noiqtisodiy sabablar bilan bog‘liq. Bu sabablar o‘z navbatida u yoki bu mamlakat rivojlanishining tarixiy va milliy xususiyatlari bilan izohlanadi. Omillarning mazkur guruhi quyidagi elementlarni o‘z ichiga oladi:

–*Mamlakatlarning geografik va boshqa tabiiy xususiyatlarini.* Ularning joylashishi, resurslari, foydali qazilmalarga boyligi, hududning katta-kichikligi va hokazolar iqtisodiyot modellari shakllanishining muhim omillari hisoblanadi. Mamlakat ishlab chiqaruvchi kuchlarini rivojlantirish uzoq muddatli jarayon. U har vaqt avvalgi avlodlar to‘plagan ko‘nikmalar, bilimlar, malaka, mavjud resurslar potensialiga tayanadi. Masalan, hozirgi zamon yapon modeli shakllanishining barchaga ma’lum omili – bu hududning cheklanganligi va tabiiy resurslarga, jumladan, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish resurslariga nisbatan qashshoqligi hisoblanadi. Yaponiya iqtisodiyotining yuksak texnologiyaga asoslanganligi ko‘p jihatdan mazkur omil ta’siri bilan izohlanadi. Germaniya modelining shakllanishi ko‘p jihatdan uning Yevropa markazida joylashganligi ta’siri ostida kechadi. Rossiya iqtisodiyotining xususiyatlari ma’lum darajada hududiy omilning roli bilan bog‘liq. Kapital sarfining o‘ziga xos tarkibiy tuzilishi, mintaqaviy tafovutlar ahamiyati va hokazolar shundan kelib chiqadi.

–*Tarixiy rivojlanish xususiyatlari – milliy iqtisodiyot shakllanishining muhim omillaridan biridir.* Shu bilan birga vaqtning har bir daqiqasida mamlakatning umumiy tarixiy rivojlanishi va uning yangi tarixi turlicha ta’sir o‘tkazadi. Sobiq ittifoq hududidagi Rossiya, O‘zbekiston va boshqa davlatlarning tarixan uzoq vaqt birgalikda rivojlanganligi ular iqtisodiy hayotining barcha tamoyillarini – xo‘jalikni tashkil etish tarkibi va shakllarini, xalqaro aloqalarini va hokazolarni hal qiluvchi darajada belgilab berdi. Eng

yangi tarix – yagona davlatning parchalanishi – sobiq ittifoqning barcha davlatlari, shu jumladan, Rossiyaning ham iqtisodiy rivojlanishini yana uzoq vaqt belgilab turadi. Erkin raqobatga yo‘naltirilgan Amerikaning rivojlanish modeli o‘ziga xos jihatlari bilan ma‘lum darajada AQShning shakllanish tarixiga borib taqaladi, o‘shanda mamlakatning ulkan hududini o‘zlashtirish doimiy immigratsiya sharoitida kechar edi. Tarix omili u yoki bu iqtisodiy tadbirning radikalizmi darajasiga, ko‘pchilik hollarda esa, davlatning ma‘lum iqtisodiy qarorlariga ham jiddiy ta‘sir o‘tkazadi. Bu tashqi iqtisodiy faoliyat bo‘yicha sheriklarning tanlanishida, davlatning u yoki bu iqtisodiy guruhlariga moyilligi va hokazolarda ayniqsa, namoyon bo‘ladi.

*–Iqtisodiyot milliy modeli shakllanishining birmuncha chuqur asoslari sivilizatsiya omillari bilan belgilanadi.* Sivilizatsiya omillari mamlakatning tarkib topgan madaniy, diniy va boshqa an‘analari hamda qadriyatlarini tavsiflaydi, avloddan-avlodga o‘tib keladi, o‘zgarishlarni rag‘batlantiradi yoki cheklaydi, ularga o‘ziga xos shakl beradi. Iqtisodiy siyosatda ana shu xususiyatlarni hisobga olish, odatda, o‘zgarishlarni jadallashtirish va ma‘lum davlatning an‘analariga nisbatan to‘liq javob beradigan iqtisodiyotning milliy modelini yaratish imkonini beradi. Iqtisodiy tartib tizimi, Germaniya ijtimoiy bozor xo‘jaligining elementi sifatida, nemis madaniyatiga xos faoliyatni tartibga solishga doir tarkib topgan an‘analar bilan ko‘proq belgilanadi. Yaponiyaning madaniy va diniy an‘analari xususiyatlari mamlakatning hozirgi zamon iqtisodiyoti menejmentining o‘ziga xos tizimiga, boshqaruvning turli darajalari o‘rtasidagi nisbatning alohida xarakteriga va boshqa xususiyatlarga ega bo‘lishiga ma‘lum darajada xizmat qilgan. Sivilizatsiya omili Rossiya iqtisodiyotining xususiyatlariga doir jiddiy ta‘sir o‘tkazib kelgan va hozir ham o‘tkazmoqda.

Shu bilan birgalikda, O‘zbekiston Respublikasida Mustaqillikka erishgan kundan boshlab O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan bozor munosabatlariga o‘tish konsepsiyasiga binoan «O‘zbek modeli», deb nomlangan iqtisodiy taraqqiyot modelidir.

Shunday qilib, O‘zbekiston milliy iqtisodiyot modelining shakllanishi o‘tish davrining boshlanishiga kelib, iqtisodiyot va jamiyat rivojlanishida tarkib topgan bir qator tamoyillarning ta‘siri ostida kechmoqda. Ana shu an‘analarni mamlakatning milliy, tarixiy va madaniy xususiyatlari bilan uyg‘unlikda hisobga olish – jamiyatni qayta qurishga qaratilgan tadbirlar muvaffaqiyatining va kelajakda samarali iqtisodiy tizim yaratishning majburiy shartidir.

### **32.1. Hozirgi zamon rivojlanishining asosiy tamoyillari va ularning milliy iqtisodiyotdagi in'ikosi**

XX asr rivojlanishning jahon tajribasi sobiq sotsialistik mamlakatlar tajribasini o'z ichiga oladi, turli, avvalambor, rivojlangan davlatlarning iqtisodiyotida hozirga kelib namoyon bo'lgan bir qator turli qonuniy tamoyillarni aniqlash imkonini beradi.

**Birinchidan.** Bozor iqtisodiyoti, resurslarning bozor taqsimoti va ularning samaradorligini baholash jamiyat rivojlanishida hal qiluvchi rol o'ynashini yana bir karra isbotladi. Ushbu hal qiluvchi rol uning iqtisodiy faoliyatini muvofiqlashtirishning huqumron ko'rinishi ekanligi, jamiyatdagi ishlab chiqrish va iste'mol o'rtasidagi aloqalar xarakterini belgilashi, jamiyatda xo'jalik yuritishning asosiy ko'rinishi ekanligi bilan belgilanadi. Sobiq sotsialistik mamlakatlarda va boshqa ayrim davlatlarda tovar-pul munosabatlaridan voz kechish, ularning rolini pasaytirish borasidagi qilingan barcha o'rinishlar muvaffaqiyatsiz tugallanganligi – bozor va xo'jalik yuritishda bozor tizimi noyob rol o'ynashining yorqin dalilidir. XX asrda bozor tizimida jiddiy o'zgarishlar ro'y berganiga qaramay, uning asosiy elementlari va xususiyatlari hozirgi sharoitlarda ham saqlanib qolgan. Birinchidan, bu tashabbus ko'rsatib tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiradigan, shu tarzda kapitalistik tamoyillar rivojlanishini taxminlaydigan bozor sub'ektlarining mustaqil, o'ziga xos ahvolidir. Ikkinchidan, bozor tizimi bir-birini to'ldiradigan bozorlarning butun bir tizimi mavjud bo'lishini taxmin qiladi. Uchinchidan, bozor tizimi bozor institutlarining yaxlit tizimisiz faoliyat ko'rsata olmaydi, bozor faoliyatining huquqiy ta'minoti shular jumlasidandir. Bozor iqtisodiyoti iqtisodiy tizimning mikro va makro darajalari birligi sifatida o'zida ana shu elementlarni birlashtiradi. Ulardan birortasiga yetarli baho bermaslik mamlakat bozor xo'jaligi imkoniyatlaridan to'liq foydalanmaslikka olib keladi. Bunday o'tish davri iqtisodiyoti oldida turgan alohida vazifa – iqtisodiyotning asosi sifatida bozor tizimini tashkil etish ekanligi tushuniladi.

**Ikkinchidan.** Butun xalq xo'jaligini ongli ravishda boshqarishga bo'lgan ob'ektiv ehtiyoj barcha rivojlangan, bozor xo'jaligiga ega mamlakatlar iqtisodiy hayoti uchun fakt bo'lib qoladi. Iqtisodiyotning davlat boshqaruvi tajribasi, jamiyatda ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikni fan-texnika taraqqiyoti va hokazolarni ta'minlashdagi davlat vazifalari gap ilgariidek takroran ishlab chiqarishga ta'sir o'tkazish haqida emas, butun jamoat xo'jaligi ongli ravishda, doimo boshqariladigan yangi voqelik haqida ketayotganligidan dalolat beradi. Bunday boshqaruvning zarurligi haqidagi xulosa o'tgan asrning oxirlarida chiqarilgan edi. Ammo misol sifatida rivojlangan mamlakatlar xo'jaligini oladigan bo'lsak, ularning iqtisodiy hayotini boshqarish, liberalizm yoki

keyinchalik tarafdorlari e'lon qilgan doktrinalardan qat'i nazar, XX asrning ikkinchi yarmiga kelibgina rosmiyanamaliyotga aylandi. Yana bir narsa yaqqol ko'zga tashlanadiki, bunday boshqaruv hamon xo'jalik yuritishning xukmron ko'rinishi bo'lib qolayotgan bozor iqtisodiyotining boshqaruvi hisoblanadi. Bu yalpi iqtisodiyot boshqaruvining qaror topishi bozor iqtisodiyotining chiqarilishi yoki barham topishi, degan ma'noni anglatmasligidan dalolat beradi. Bunday boshqaruvda, iqtisodiyotning asosiy bo'g'ini biron-bir mahsulotni ishlab chiqarishga ixtisoslashuvdan tobora uzoqlashib borishi munosabati tufayli nafaqat davlatning, shu bilan birga, boshqa tuzilmalarning roli oshib boradi, mamlakat butun xalq xo'jaligini, hatto bir necha mamlakatlarning xo'jaligini qamrab oladigan jamoat uyushmalarining ko'rinishlari vujudga keladi. U yoki bu buyumni ishlab chiqarish oqibatlarini ongli ravishda hisob-kitob qilib borish asosiy bo'g'inlar uchun xo'jalik yuritishning qoidasiga aylanadi. Butun iqtisodiyotni boshqarishda davlat bilan bir qatorda nafaqat korporatsiyalar, xalqaro tuzilmalar ham tobora katta rol o'ynaydigan bo'lib boradi.

Yuqorida aytib o'tilgan fikrlardan, butun jamoat xo'jaligini doimiy ongli ravishda boshqarishdek ob'ektiv zarurat haqiqatan ham iqtisodiyot amaliyoti bilan tasdiqlanmoqda va u endilikda iqtisodiy hayotning kundalik faktiga aylandi, deb xulosa chiqarish imkonini beradi. Mazkur tamoyil o'tish davri iqtisodiyotida ham albatta amalga oshirilishi lozim.

**Uchinchi dan.** Ijtimoiy-turg'un jamiyatlarni shakllantirishga intilishi tamoyili yorqin namoyon bo'ladi, ularda barcha fuqarolarning ijtimoiy kafolatlangan darajada turmush kechirishi uchun shart-sharoitlar yaratilmoqda.

Mazkur tamoyil barcha rivojlangan davlatlarning iqtisodiy rivojlanishida o'z ifodasini topdi. U o'zining bozor evolyutsiyasiga aloqasi bo'lmagan mantiqiy rivojiga ega.

Jamiyatlarning ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishi, iqtisodiy tizimlarning rivojlanishi ichki, immanent payt sifatida jamiyat barcha a'zolarining hayoti va faoliyati uchun shart-sharoitlar ta'minlanishini hamisha o'z ichiga oladi. Jamiyat alohida a'zolarining qaysi tabaqaga, qaysi sinfga, qaysi millatga mansubligidan qat'i nazar ishlab chiqarishning odam omillarini takroriy ishlab chiqarmasdan turib, bilimi, madaniy va ilmiy potensialini yangilamay turib, nafaqat ishlayotgan, shu bilan birga, ishlayotgan a'zolari uchun munosib turmushni ta'minlamay turib, jamiyatning o'zi rivojlanishi mumkin emas.

Iqtisodiy tizimlarning rivojlanish tarixi jamiyat a'zolarining ijtimoiy-turg'un ahvoli, undagi ijtimoiy barqarorlik iqtisodiyotga hal qiluvchi darajada barqarorlik baxsh etishini tasdiqlaydi. Iqtisodiy tizimlar rivojlanishining

ijtimoiy omili iqtisodiyot taraqqiyotining va barqaror iqtisodiy o‘rningning ichki daqiqasi shart-sharoitiga aylanmoqda. Mazkur xulosa iqtisodiyotga texnokratlar yondashuviga nisbatan ziddir, u avvalgi iqtisodiy tizimlar iqtisodiyotining eng yangi tarixidagi rivojlanish tajribasi bilan isbotlangan. Iqtisodiy tizimlar rivojlanib borgani sayin inson ishlab chiqarish imkoniyatlari tabiiy, quldorlik, tabaqalarga xos cheklashlardan xalos bo‘lib boradi. Iqtisodiy tizimlarning rivojlanishi jamiyatning barcha a‘zolari o‘z imkoniyatlarini to‘liq namoyon etishi uchun tobora ko‘proq darajada shart-sharoitlar yaratib beradi. Ishlab chiqaruvchining shaxsi XIX–XX asrlardagi kapitalizm davrida hukmronlik qilgan; kapitalga qarab baho berish tamoyili rahnamoligidagi asta-sekin ozod bo‘lib bordi, rivojlangan kapitalistik mamlakatlardagi ijtimoiy muammolarni hal qilishning turli-tuman yangi usullari (bilim olishning tekinligi, ijtimoiy ta‘minot tizimining rivojlanganligi) ana shundan dalolat beradi. Sobiq sotsialistik mamlakatlarda ijtimoiy kafolatlarning rivojlangan tizimini barpo etish tajribasi insoniyat oldida turgan vazifani hal etish borasidagi o‘ziga xos tarixiy o‘rinish bo‘ldi. Boshqa qilib aytganda, ijtimoiy farovonlik, fuqarolarning ijtimoiy barqaror ahvoli XXI asrning boshlariga kelib, mehnat, kapital, texnologiya, tadbirkorlik kabi iqtisodiy rivojlanishning faol va mustaqil omiliga aylandi. Faoliyat ko‘rsatayotgan hozirgi zamon iqtisodiy tizimlarining amaliy tajribasi XX asrning ikkinchi yarmida dunyoda jamiyat ijtimoiy barqarorligini ta‘minlovchi o‘ziga xos milliy modellar shakllanganligini ko‘rsatadi. Jamiyat barcha a‘zolarining ijtimoiy farovonligi – XXI asr boshidagi hozirgi zamon rivojlangan iqtisodiyotining eng muhim tarkibiy qismi, alomati va ustuvor belgisidir.

Yuqorida bayon etilgan fikrlardan shunday xulosa kelib chiqadi: O‘zbekistonning o‘tish davri iqtisodiyoti o‘z iqtisodiy tizimining milliy, o‘ziga xos jihatlarni izlashda ijtimoiy adolatli tuzumga eltuvchi umumjahon tamoyillarini amalga oshirish yo‘llaridan voz kechmasligi, ulardan foydalanishi kerak. Muammoni soddalashtirishga, o‘tish davri iqtisodiyotining ijtimoiy-iqtisodiy yo‘nalishi mazmun-mohiyatini o‘tish davri tizimining umumiy elementi – bozor munosabatlari nuqtai nazaridan ko‘rib chiqishga o‘rinish – umumjahon tamoyillariga ham ziddir.

**To‘rtinchidan.** Hozirgi zamon davlatlarning iqtisodiyoti – ochiq iqtisodiyotdir. Bunday tamoyil turli davlatlarining butun rivojlanish tarixi mobaynida qat’iyat bilan o‘zini ko‘rsatishga harakat qilib keldi, ammo XX asrga kelibgina u tashqi iqtisodiy faoliyatda hukmron bo‘lib qoldi. Iqtisodiyotning ochiqligi sabablari uning bozor asosidan kelib chiqadi, shu bois ham jahon bozorlaridan nafaqat ayrim davlatlar, shu bilan bir qatorda, iqtisodiyotning barcha sub’ektlari raqobat munosabatlariga kirishadilar.

Iqtisodiyotning ochiqligi tobora ko‘proq darajada integratsiya jarayonlarida kuzatilmoqda, bu turli davlatlarning ichki bozorlariga o‘zaro kirib borishi, ular o‘rtasida resurslarning erkin harakat qilishi uchun yangidan-yangi imkoniyatlarni yaratadi. Sobiq sotsialistik mamlakatlarning rivojlanish tajribasi mazkur tamoyilni inkor etish samaradorlik borasidagi yo‘qotishlarga, ishlab chiqarishda raqobat omillarining susayishiga olib kelishini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, XX asrda u yoki bu mamlakatning iqtisodiyoti milliy chegaralardan tashqarida bo‘la olmasligi, takror ishlab chiqarish hamisha milliy takror ishlab chiqarish sifatida amalga oshirilishi tasdiqlandi. Bu demak, o‘tish davri iqtisodiyotlari oldida ochiq iqtisodiyotni shakllantirish bilan bir vaqtda, milliy takror ishlab chiqarish modelini izlashdek murakkab muammo paydo bo‘ladi.

Iqtisodiyot rivojlanishining yuqorida sanab o‘tilgan tamoyillari uchun XX asrda iqtisodiyotning texnologik asosida amalga oshirilgan o‘zgarishlar tufayli, jumladan, industrial rivojlanishdan posindustrial rivojlanishga o‘tilganligi tufayli keng ochildi. Posindustrial rivojlanish eski mashina texnikasiga asoslangan texnologiyalarning siqib chiqarilishi, yangi texnologiyalarning paydo bo‘lishi bilan tavsiflanadi. Biotexnologiya, informatikaning rivojlanishi, mikroelektronika va kompyuter texnikasining gurkirab taraqqiy etishi, ko‘p ilm talab qiluvchi sohalarning, yuksak texnologiyalarning sobitqadamlik bilan rivojlanishi, samarali ishlab chiqarish hiqidagi an’anaviy tasavvurlarning o‘zgarishi, xizmat ko‘rsatish sohasining gurkirab o‘sishi ishlab chiqarishga va jamiyat hayotiga qo‘yilayotgan yangi ekologik talabalar – ana shu va boshqa jarayonlar hozirgi zamon iqtisodiyotining alomatlariga aylandi.

Iqtisodiyot sohasining tub munosabatlari – xususiy mulk, tovarlar taqsimoti va hokazolarda ham yangi tamoyillar shu asosda rivojlanmoqda. Mulkka egalikning assotsiativ, Qurama va aralash ko‘rinishlarini ustuvor rivojlantirishga hamda taqsimotning iqtisodiy birliklari faoliyatini boshqarishda fuqarolar ishtirokiga asoslangan yangi ko‘rinishlarini keng yoyishga va mulkka egalik qilish uchun yanada adolatli yo‘llarni ochishga moyillik yaqqol ko‘zga tashlanadigan rang-barang ko‘rinishlari ham yangi texnologiyalar zamirida shakllanmoqda.

Hozirgi zamon iqtisodiyoti tashkil topgan tamoyillar turg‘un, qonuniy xarakter kasb etganligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ana shu tamoyillar o‘z mazmun-mohiyatiga, amal qilish shakllari va oqibatlariga ko‘ra bir-biriga qarama-qarshidir.

Bozorni rivojlantirish iqtisodiyotning davlat tomonidan boshqarilishi mavjud ko‘lamlari bilan ziddiyatga kirishadi.



Ijtimoiy-turg'un iqtisodiyot tamoyillarining amalga oshirilishi resurslarning ko'proq qayta taqsimlanishini va davlat boshqaruvini talab qiladi, bu esa, kapitalning xususiy manfaatlariga, bozorning bazaviy tamoyillariga qarama-qarshidir.

Iqtisodiyotning ochiqligi mamlakat ichidagi tovar ishlab chiqaruvchilar manfaati bilan muntazam solishtirib turilishi lozim. Ana shu boshqa ziddiyatlar hozirgi zamon davlatining eng muhim vazifalaridan biri – ularni o'zaro murosaga keltirishdan iborat ekanligini ko'rsatadi. U yoki bu davlatning muayyan shart-sharoitlarida ana shu ziddiyatlarni hisobga olish aralash iqtisodiyotning ma'lum bir modeli yaratilishiga olib keladi.

Shunday qilib, XX asrning ikkinchi yarmida rivojlangan davlatlarda iqtisodiyot tizimining yangi, XXI asrga xos turi – aralash iqtisodiyot shakllandi. Iqtisodiyotning mazkur tizimi iqtisodiyot munosabatlarining rang-barang turlarini ko'rishlarda va nisbatlarda o'z ichiga oladi. Rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiyot tizimining mazkur turi ustuvor bo'lib qoldi. Demak, O'zbekiston iqtisodiy tizimining yangi modelini shakllantirish – bu aralash iqtisodiyotning milliy modelini shakllantirish degan gap. U iqtisodiy rivojlanishning progressiv tamoyillarini o'zida mujassam etishi va ana shu elementlarni (parametrlarni) faqat O'zbekiston iqtisodiyotiga xos nisbatlarda birlashtirishi lozim.

### **32.2. O'zbekiston iqtisodiyoti o'ziga xos xususiyatlarining ob'ektiv asoslari**

Hozirgi kunda tub o'zgarishlarni boshdan kechirayotgan respublika jamiyati oldida o'tish davri o'zgarishlari jarayonining istibollari haqidagi, uning nafaqat rivojlanishning umumjahon tamoyillari bilan, shu bilan birga, o'zbek xalqining o'ziga xos qadriyatlari bilan bog'liqligi haqidagi masala nihoyat darajada keskin turibdi. Shu munosabat bilan O'zbekistonning o'ziga xos jihatlari nimalardan iborat, ular qay darajada chuqur, ularning mamlakatdagi islohotlar jarayoniga ta'siri qanday, degan savol tug'iladi.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning tajribasi o'ziga xos milliy xususiyatlarga e'tiborsizlik qanday oqibatlarga olib kelishini yaqqol ko'rsatadi. Oldindan tanlangan u yoki bu model sari tezkor harakat qilishga o'rinish O'zbekistonda islohotlar chalakam-chatti amalga oshirilishining sabablaridan biri aylanar, islohotlarning qarshi islohotlar bilan almashtirilishiga olib kelardi. Aksincha, boshqa bir qator davlatlarning umumiy tamoyillarini milliy xususiyatlar bilan uyg'unlashtirish yo'li naqadar samarali va istiqbolli ekanligini ko'rsatadi.

Albatta, O‘zbekistonning o‘ziga xos jihatlari ishora ostida qoloq va samarasiz an‘analarni saqlab qolish, jahon ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining ilg‘or jihatlarni uloqtirib tashlash xomxayollik va ortga chekinish ular edi. Ammo O‘zbekistonning rivojlanishini yoppasiga universallashtirish ham istiqbolsizdir. O‘zbekistonning ko‘p asrlik tarixi, mamlakatda islohotlarni amalga oshirish borasidagi ko‘p sonli muvaffaqiyatsizliklar, O‘zbekistonning milliy xususiyatlarini mensimaslikning o‘ziga xos kasri bo‘lganligini ko‘rsatadi. O‘zbekistonda mamalakatning iqtisodiy tizimiga jiddiy ta‘sir o‘tkazishga qodir bir qator turg‘un omillar (ularning aksariyati nihoyatda noyob) amal qilmoqda. Ana shu omillar doimiy, uzoq muddatli xarakterga ega, bu ularni O‘zbekiston iqtisodiyoti o‘ziga xos jihatlarni ob‘ektiv asoslari, deb hisoblash imkonini beradi.

***Tabiat-iqlim omili.*** Mamlakat hududining aksariyat qismida sharoitlarning og‘irligi, zonalarning har xilligi, beqaror ob-havo va hokazolar shular jumlasidandir. Xo‘jalik yuritishning bir xil, standart ko‘rinishlari, ko‘p energiya va umuman, ko‘p resurslar talab qiladigan ishlab chiqarishning maqbul emasligi, mehnat unumdorligini va mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirish, katta zaxiralarga (resurs va oziq-ovqatlarning) ega bo‘lish va ko‘pgina mintaqalarni qo‘llab-quvvatlash zarurligi yuqoridagi omillarning iqtisodiy oqibatlarini hisoblanadi.

***Iqtisodiy-geografik omil.*** «Orol» dengizi muammosi suv tanqisligi, asosiy xom ashyo markazlarining olisda joylashganligi, yetib borish qiyinligi va hokazolar shular jumlasidandir. Katta transport chiqimlari, mahsulotlarning raqobatbardoshli emasligi, iqtisodiy va siyosiy parchalanish xavfi va hokazolar ana shu omillarning iqtisodiy oqibatlarini hisoblanadi.

***Geosiyosiy omil.*** Oshkora va yashirin xavf-xatarlar mavjudligi, respublikaning janubda hamon notinchlik hukumron bo‘lgan Afg‘oniston bilan chegaradoshligi, diniy eksitremistik kuchlar huruji tabora kuchayib borayotganligi, jahon jamiyatidan munosib o‘rin egallashga intilish chegaralarni qo‘riqlashga va respublika mudofaa qobiliyatini kuchaytirishga ko‘p sarf-xarajatlar qilishini taqozo etadi.

***Ijtimoiy-madaniy omil (sivilizatsiya omili).*** O‘zbekistonning madaniy qadriyatlari tizimida tarixan shakllangan quyidagi qadriyatlar muhim o‘rin egallaydi: Shu bilan birga, O‘zbekistonning ijtimoiy-madaniy qadriyatlari milliy rivojlanishning yuqorida birmuncha ilgariroq sanab o‘tilgan ob‘ektiv omillaridan ovloqda emas, aksincha, ularni amalga oshirishda ob‘ektiv ijtimoiy zamin vazifasini o‘taydi, bu tarixan tarkib topgan barqaror an‘alarda o‘z ifodasini topadi.

O‘zbekistonning ma’naviy an’analari ma’lum darajada borliqni, uning serqirraligini atroflicha idrok etishga, uning ma’naviy o‘lchamlar bilan uyg‘unligiga, dunyoni tor iqtisodiy nuqtaiy nazarda tushunib bo‘lmasligiga yo‘naltirilgan. Boshqa diniy mazxablar bilan bir qatorda, O‘zbekiston davlatchiligining ma’naviy bazasini tashkil etuvchi islom dini qadriyatlarining ta’siri kuchayib borayotganligi ham ana shu an’anlarga xizmat qilmoqda. Mazkur an’ana fan va ijtimoiy hayot sohasidagi eng yangi yutuqlar va kashfiyotlar bilan organik ravishda uyg‘unlashib ketadi. Murakkab, ko‘p ukladli aralash iqtisodiyotlar shakllanayotgan hozirgi sharoitlarda ana shu an’anlarga murojaat etish, ularni tiklash istiqbolli va samaralidir.

Tarixdan shu narsa ma’lumki, O‘zbekiston an’anasi davlatning, ayniqsa, islohotlar davridagi, alohida roli bilan jips bog‘langan. O‘zbekistonda davlat hech qachon tor boshqaruv organi ma’nosida tushunilgan emas, davlat deganda hamisha keng ma’nodagi ma’naviy, iqtisodiy qadriyatlar majmui tasavvur qilingan. Davlat haqidagi ushbu tasavvur O‘zbekistonda turli xil avtoritar tuzumlar tomonidan ko‘p marotaba suiiste’mol qilingan, shuning uchun ham o‘zbeklarning «kuchli qo‘l»ni orzu qilishi haqidagi yuzaki stereotip shakllangan va keng yoyilgan. Shu bilan birga, tarix quyidagilardan dalolat beradi, qachonki, davlat jamiyatning biror qismi bilan qattiq jipslashib, boshqa qatlamlarga qarshi tursa, davlat tuzulmalariga ishonchsizlik kayfiyati paydo bo‘lgan, bu pirovard oqibatda tuzumning yemirilishiga olib kelgan. O‘zbek xalqi fe’l atvorining ana shu muhim xususiyati bazis va ustqurmaning o‘zaro bog‘liqligi haqidagi ma’lum safsataga aslo to‘g‘ri kelmaydi, aksincha, u o‘ziga xos ma’naviy ildizlardan madad oladi. Uning bugungi kunga ham bevosita aloqasi bor: bozor islohotlari keng qo‘llab-quvvatlanishi uchun davlat xalq ijtimoiy ahvoli ma’lum darajasining oliy ijtimoiy hakami va kafolati sifatida o‘zini ko‘rsatishi, zoti noma’lum yangi boyvachchalar, poraxo‘rlar, chayqovchilik kapitalining korchalonlari va hokazolar bilan chatishib ketgan yovuz kuchlar bilan qiyoslanmasligi kerak. O‘zbekistonning «davlat tuzumi» an’analari, «davlatchlik» mentaliteti hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, mamlakatni og‘ir ahvoldan olib chiqish ehtiyojlari bilan birlashishi mumkin. Ayni vaqtda kuchli davlat g‘oyasini O‘zbekistonda fuqarolar jamiyati barpo etilishiga yo‘l qo‘ymaslikka o‘rinish avtoritar-byurokratik rahbarlikni kuchaytirish, deb tushunmaslik kerak. Gap O‘zbekistonning «davlat xususiyatlari»ni hisobga olish zaruriyati, fuqarolar jamiyatiga o‘tishning o‘ziga xos ko‘rinishi va, jamiyatning kelajak modeli xususiyatlari haqida bormoqda, xolos. Milliy o‘ziga xoslik uchun boshqalaridan ijtimoiy tabaqalanishning yanada keskinlashishi qarama-qarshiliklarning kuchayishi,

bir hovuch iqtisodiy-siyosiy to‘dalar va guruhlarining cheksiz hukumronligi bilangina ajralib turuvchi yasama fuqarolar jamiyati ko‘proq xavf tug‘diradi.

Shu narsa muhimki, kuchli davlat g‘oyasi O‘zbekistonda hamisha jamiyatning boshlang‘ich bo‘g‘inlarida keng ma‘nodagi demokratiya va muhtoriyat tushunchalari bilan anglanib kelingan. Bu jamoalar o‘z-o‘zini boshqarishida mahallalarning jamiyat hayotida muhim rol o‘ynashida xo‘jaliklarning turli ko‘rinishlari mavjudligida mintaqaviy bozorlarning nisbatan rivojlanganligida va hokazolarda o‘z ifodasini topgan. Odamlar hayoti va faoliyatining boshlang‘ich darajasi bilan jamiyat muhofazasi va barqarorligini ta‘minlovchi davlat o‘rtasida vazifalarning o‘ziga xos taqsimoti (bu taqsimot hamisha ham izchil bo‘lmaganiga, qarama-qarshiliklar ham bo‘lganiga qaramay) tarkib topib kelgan. O‘tish davrining hozirgi sharoitlarida ham davlatning kuchli roli hamma yerda o‘z-o‘zini boshqaruv asoslarini kengaytirish va mustahkamlash jarayonlari bilan birgalikda ketishi kerak.

Kuchli ijtimoiy an‘anaarni O‘zbekiston ijtimoiy hayotining eng muhim xususiyatlaridan biri, deb hisoblash mumkin. Bu odamlarning ijtimoiy adolatni nihoyatda noziq his etishda, ezgulikka va mutlaq haqiqatga intilishida, mulkka egalik va xo‘jalik yuritishning jamoa ko‘rinishlariga moyillikda, ijtimoiy hamkorlikda-hasharlarda ,mehnatga da‘vat etuvchi ijtimoiy-ma‘naviy omillarning muhim rol o‘ynashida va bir qator faoliyatning noiqtisodiy omillarida, adolatli mukammal jamiyat qurishga yo‘nalganlikda o‘z ifodasini topgan. Shak-shubhasiz ana shu xususiyatlarni hammasi asrlar mobaynida o‘zgarmsadan qolgan emas, ular jamiyatning rivojlanishi bilan uzviy ravishda tadrijiy rivojlanib borgan. Shu bilan birga xususiy mulkchilikka va shaxsiy xususiyatlarga asoslangan tamoyillar ham kuchga to‘lib bordi. Lekin shunga qaramay, ijtimoiy ustuvorlik hech qachon O‘zbekiston hayoti mazmunini tark etgan emas.

Mazkur an‘ananing shakllanishida tabiiy-tarixiy va iqtisodiy-geografik shart-sharoitlar muhim rol o‘ynaganligi shubhasiz. O‘zlashtirilmagan hududlarning kengligi xo‘jalik ishlarining yorqin ifodalangan mavsumiyliги, jahon iqtisodiy markazlaridan va savdo yo‘llaridan olisda joylashganlik va hokazolar O‘zbekistonda mehnatni tashkil etishning jamoa ko‘rinishlari, o‘zaro yordam va hamkorlik, sabr-bardoshlik, bag‘rikenglik, rahm-shafqat, adolatparvarlik moddiy narsalarga xirs qo‘ymaslik kabi insoniy fazilatlarining shakllanishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, O‘zbekistonda islom dini qaror topishi munosabati bilan ma‘naviy-diniy omilning salmoqli rol o‘ynaganligini ta‘kidlab o‘tish lozim. Xalq ruhining tarixiy va milliy xususiyatlarini o‘zida mujassam etgan, tekinxo‘rlik, sudxo‘rlik, xudbinlik kabi illatlardan holi bo‘lgan musulmonlar

yaqinlariga nisbatan mehr-oqibatli bo'lishga, millati, irqi va e'tiqodi boshqa bo'lganlar vakillari bilan birgalikda, yuksak ijtimoiy ideallarga yo'naltirilganligi bois ,hayot tarzi va borliqni idrok etishning ijtimoiy va ma'naviy asoslarini rivojlantirib, mustahkamlab bordi.

O'zbekiston ijtimoiy an'analarining shakllanishida mahallalar muhim rol o'ynagan. Mahallalar hayotiyiligini shundan bilsa bo'ladiki, ular u yoki bu ko'rinishda asrlardan buyon turli tuzumlarda faoliyat ko'rsatib kelmoqda. O'zbek mahallarining tavsifi endilikda ko'pchilikka yaxshi ma'lum. Ularning ijtimoiy mohiyatga ega ekanligini alohida ta'kidlash kerak. Munosabatlarning jamoa ko'rinishi, o'z-o'zini boshqaruv, adolatparvarlik, o'zaro yordam ularda o'z ifodasini topgan.

Demak, O'zbekistonda kuchli ijtimoiy an'analar shakllanishining zamirida, ularni buzib ko'rsatishga o'rinishlarga qaramay, omillarning yaxlit majmui yotgan, deb tasdiqlashimiz mumkin. O'zbekistonning o'ziga xos jihatlari – an'analarining mavjudligi va milliy xususiyatlarda emas (ular boshqa mamlakatlarda ham e'tirof etiladi va hisobga olinadi), O'zbekiston an'analarining ijtimoiy mohiyatga egaligidir. O'zbekistonning ijtimoiy an'analari tug'ma xususiyatlarga ega.Ular O'zbekistonning o'ziga xos omillariga, ularning rang-barangligi va uyg'unligiga asoslanadi. Mazkur an'analarining o'ziga xos xususiyati yana shundaki, biz yuqorida ta'kidlab o'tkanimizdek, ko'pincha o'z oldiga turli pirovard maqsadlarni qo'ygan ijtimoiy oqimlarning namoyandalari shu an'analarining ifodachisi va tarafdorlari bo'lishgan. Bu, aytmoqchi, mazkur an'analar kuchi va barqarorligiga yana bir bor ishoradir. Shuning uchun ularni XIX asrning oxirlarida O'zbekistonda rivoj topgan va keng yoyilgan markscha sotsialistik tafakkur bilan bog'lash noto'g'ri bo'ladi. Mazkur an'analarining O'zbekistonda, yangi sharoitlarda rivojlanishi G'arbning rivojlangan mamlakatlarida kechayotgan jarayonlar bilan hamohangdir.

Bu demak, O'zbekiston sharoitlarida bozor tizimini shakllantirish tashkilotchilikning jamoa ko'rinishlarini keng rivojlantirish, ijtimoiy muhofazaning birmuncha yuqori darajasi, ijtimoiy adolatga erishishning bozorga aloqador bo'lmagan ko'rinishlarini nisbatan yanada kengroq yoyish bilan uyg'unlikda olib borish kerak.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, O'zbekistonning ijtimoiy an'analari Yevropa an'analaridan hamisha ustuvorlik kelishi bilan ajralib turadi, bu O'zbekistonni kelajakni postindustrial iqtisodiyoti qadriyatlariga ayniqsa, moyil keladi.

Iqtisodiyotga aloqasi bo'lmagan qadriyatlarning ko'payib borishi postindustrializmning muhim belgisiga aylanmoqda. Asta-sekin, ammo

birmuncha izchillik bilan jamiyatni iqtisodiyotdan ajratish jarayoni kechmoqda. Vaqt o'tishi bilan mazkur jarayon yanada keng ko'lam va barqarorlik kasb etishi ehtimoldan holi emas. Bu boylikning moddiy qiyofasini tark etishida (bo'sh vaqt va ijodiy asoslar tobora ko'proq uning o'lchoviga aylanib bormoqda), mahsulotlarni (ilmiy bilimlar, axborot, ma'naviy ne'matlar uning asosiy turlariga aylanib bormoqda), ishlab chiqarishda (tarkibiy tuzilishi ijtimoiy-madaniy sohaga ko'chmoqda), mehnatda (u ijodiy faoliyat qiyofasini kasb etmoqda), ehtiyojlarda (ma'orif, madaniyat, ijod, sog'lom atrof-muhit va hokazolarda ijtimoiy- ma'naviy ehtiyojlarning ustuvorlik qilishi), omillarda (shaxsning o'z ijodiy qobiliyatlarini namoyish etish omillari ustuvorligi), aloqalarda (o'zaro aloqalarni moddiylashtirish o'rniga «sub'ekt-sub'ekt» munosabatlari rolining kuchayishi), insonda (ishlab chiqaruvchi kuchdan ijodkor yaxlit shaxsga o'tish) o'z ifodasini topmoqda. Shunday qilib, iqtisodiyotga aloqasi bo'lmagan O'zbekistonning ijtimoiy-madaniy an'analari hozirgi zamon rivojlanishining tobora kuchayib borayotgan postiqtisodiy tamoyillar bilan yanada jips ekanligini ko'rsatmoqda.

Albatta, O'zbekiston iqtisodiyoti o'ziga xos jihatlarning yuqorida tilga olingan asoslari bir umrga berilgan emas, ular o'zgarishsiz qolavermaydi. Jumladan, tabiiy-iqlimiy va iqtisodiy-geografik omillar roli fan -texnika taraqqiyotining ta'siri ostida, geosiyosiy omillar roli –jahondagi siyosiy o'zgarishlar ta'siri ostida, ijtimoiy-madaniy omillar roli – odamlarning o'zaro aloqalari kengayishi, madaniyatlarning bir-birini boyitishi, axborot jamiyatining rivojlanishi ta'siri ostida o'zgaradi. Shunga qaramay, hozir ham, yaqin kelajakda ham yuqorida aytib o'tilgan omillar sezilarli rol o'ynashda davom etadi, demak, O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi qonuniy fakt sifatida ularning oqibatlari bilan ham hisoblashishga to'g'ri keladi. Tabiiyki, ularning tadrijiy rivojlanishi asosida tuzatishlar kiritiladi, ular hozirgi zamon ijtimoiy rivojlanishining umumiy tamoyillari bilan ifodalanadi.

Jumladan, O'zbekistonda ildiz otgan paternalistik an'analar, bir tomondan, fuqarolarga ijtimoiy vasiylik qilibgina qolmay, buning oqibatida paydo bo'ladigan ijtimoiy tekinxo'rlikka ham vasiylik qilish uchun umrbod vaj-korson bo'la olmaydi, ikkinchi tomondan, ulardan darhol voz kechib bo'lmaydi; fuqarolarning yangi sharoitlarga ijtimoiy ko'nikishi uchun davomli muddat kerak bo'ladi, mazkur sharoitlar O'zbekistonda mamlakatimizga xos barcha omillar majmui inobatga olinib shakllantirilmoqda.

### **32.3. Milliy iqtisodiy rivojlanish maqsadlari**

Milliy iqtisodiyotimiz oldida turgan maqsadlar rang-barang. Avvalambor, bu mamlakat ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishining birligini ta'minlashga

yo‘naltirilgan va iqtisodiyotning ijtimoiy-barqaror rivojlanishini talab qiluvchi maqsadlardir. Shu bilan birga, mazkur maqsadlar umumiy iqtisodiy tavsiflar (samaradorlik, farovonlik va ulardan kelib chiquvchi tavsiflar) bilan cheklanishi mumkin emas, vaholanki, ushbu tavsiflar iqtisodiyotning, iqtisodiy rivojlanishining, shak-shubhasiz, asosiy maqsadlari hisoblanadi. Milliy iqtisodiyotning o‘ziga xos maqsadlari quyidagilardan iborat:

*Birinchi*dan, milliy iqtisodiyot doirasida davlat uchun muhim ahamiyatga ega no-iqtisodiy maqsadlar ham amalga oshiriladi. O‘zbekiston uchun – bu mamlakatning o‘lis hududlarida hayot va faoliyat uchun shart-sharoitlarni ta‘minlash, ko‘p millatli davlatning hududiy yaxlitligini saqlab qolish, ishonchli mudofaa qudratiga va Markaziy Osiyo mintaqasida salmoqli siyosiy mavqega ega bo‘lishdir. Ular asosiy iqtisodiy maqsadlarga zid bo‘lishi, ularning amalga oshirilishi yo‘lida ma‘lum darajada to‘siq sifatida namoyon bo‘lishi mumkin, ammo mamlakat taqdiri uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgani bois, ularni rad etib bo‘lmaydi.

*Ikkinchi*dan, milliy iqtisodiy raqobatbardoshligini oshirish mamlakat iqtisodiy maqsadlarining jamlangan ifodasi hisoblanadi. Mintaqa iqtisodiyotining peshqadamlariga yaqinlashish, oldingi marralarga chiqib olish (hech bo‘lmaganda, bir qator pozitsiyalar bo‘yicha), O‘zbekistonda rivojlanishning aniq strategiyasi ishlab chiqilishi va amalga oshirilishini (iloji bo‘lsa, «rivojlanishning o‘zib ketishi strategiyasi»ni) mamlakatning iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy potensialini oshirib borishni, iqtisodiyotni istiqbolli yo‘nalishlarga moslashtirib, tarkibiy qayta qurishni, mamlakat tovar ishlab chiqaruvchilari uchun, ularni tashqi raqobatdan ongli ravishda himoya qilish maqsadida qulay shart-sharoitlar yaratishni va hokazolarni taxmin qiladi. Hamon yuqori darajada turgan ma‘rifiy va ilmiy potensial, jamiyatda qaror topgan bilim olish, bilim saviyasini oshirish va ijodiy izlanishga yo‘nalganlik hamda ko‘p jihatlari bilan postindustrializm qadriyatlari bilan chatishib ketadigan o‘zbeklarning an‘anaviy-ma‘naviy qadriyatlari O‘zbekistonning salmoqli raqobatbardoshli imtiyozlari bo‘lib qolishi mumkin va shunday bo‘lishi kerak. Millatning mushkul davrda murakkab vazifalarni hal etish uchun jipslasha olish qobiliyati, fuqarolarning vatanparvarligi ham muhim rol o‘ynashi kerak.

*Uchinchi*dan, milliy iqtisodiyot uchun mamlakatning iqtisodiy xavfsizligini ta‘minlash anchagina jiddiy muammo hisoblanadi. Mintaqada salmoqli rol o‘ynaydigan O‘zbekiston uchun bu ayniqsa dolzarb ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiy xavfsizlikni tashkil etuvchilar sirasiga ilmiy-texnologik, oziq-ovqat, harbiy sanoat, moliyaviy xavfsizliklarni va hokazolarni kiritish mumkin. Bu mazkur sohalarning turli xil tashqi salbiy omillar ta‘siri ostida

to'satdan yoki ongli ravishda dolzarblik kasb etgan voqea-hodisalarni nomaqbul darajada zarur ko'rishga yo'l qo'ymaslikni anglatadi.

*To'rtinchidan*, milliy iqtisodiyot uchun jamiyat rivojlanishi muhim jihat hisoblanadi. Jumladan, gap jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlikni saqlab turish, mamlakatdagi ko'ngildagidek demografik vaziyat, ijtimoiy-madaniy muhitni takror ishlab chiqarishni tartibga solish va hokazolar haqida, shuningdek, tabiatni asrab-avaylash xususida bormoqda. Boshqacha qilib aytganimizda, gap hozirgi jamiyat kelajak avlodlarga qanday meros qoldirishi haqidadir.

*Beshinchidan*, yirik unitar davlat hisoblanmish O'zbekiston sharoitlarida iqtisodiyotni boshqaruv va xo'jalik yuritishning federal va mintaqaviy (mahalliy) darajalari o'rtasidagi nisbat (bu, jumladan, budjet federalizmi muammolarida o'z ifodasini topadi), mulkning davlat va munitsipal ko'rinishlari chegaralanganligi va hokazolar muhim ahamiyat kasb etadi. Hal qiluvchi vazifa – mamlakatning yaxlit iqtisodiy makonini ta'minlash, uning tarkibiy qismlarga ajralib ketishiga yo'l qo'ymaslikdan iborat.

Shunday qilib, milliy iqtisodiyot doirasida bir-biri bilan uzviy bog'liq maqsadlarning butun bir majmui amalga oshiriladi, ular jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlarini o'z ichiga olsa ham, ularning sirasiga kirmaydi.

#### **32.4. O'zbekiston iqtisodiyotining o'ziga xos jihatlari**

Har qanday jamiyat hamisha rivojlanishning qaysi variantini tanlasam ekan, degan savolni oldiga qo'yadi. Real iqtisodiy jarayonlarning murakkabligi, o'tish davri iqtisodiyotida ularning bir-biriga qarama-qarshi ekanligi, bir xil emasligi jamiyat rivojlanishining progressiv tamoyillariga javob beradigan iqtisodiy siyosat yo'nalishlarini tanlashni nihoyatda mushkullashtiradi. Iqtisodiy siyosatning taklif qilinayotgan variantlari o'rtasidagi farq shu qadar kattaki, ulardan har birini 20–25 yil mobaynida izchillik bilan amalga oshirish mamlakat iqtisodiy rivojlanishining turli modellari, shu jumladan, tarixan istiqbolsizligi isbotlangan yoki boshi berk ko'chaga olib kirib qo'yadigan modellari shakllanishiga olib kelishi mumkin. Bunga hozirgi zamon iqtisodiyotining tamoyillari va qonuniyatlari bir-biriga zid ekanligi ob'ektiv asos bo'lishi mumkin. Hozirgi zamon iqtisodiyoti yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, bu bir-biriga qarama-qarshi munosabati guruhlarining, munosabatlarning bozor tizimi va butun iqtisodiyotni ongli ravishda boshqarishning; faol tadbirkorlik, ko'payib borishiga yo'naltirilgan kapital, foyda va ijtimoiy rivojlantirilgan rivojlanish zarurligining oshkoralik tamoyillari va milliy ishlab chiqarish himoyasini, ayniqsa, milliy sanoatining hali raqobatlashishga qodir bo'lmagan sektorlari himoyasini ta'minlash zaruriyatining birikmasidir.



Bozor islohotlari va ko'p asrlik an'analar o'rtasidagi ziddiyatlar O'zbekiston va qator o'tish davri iqtisodiyotlari uchun nihoyatda keskin xarakter kasb etadi. O'zbekistonning boshqa davlatlar bilan yoki davlatlar guruhi o'rtasida iqtisodiyotining mintaqadagi o'rni va roliga daxldor keskin, global qarama-qarshiliklar bo'lishi ham ehtimoldan holi emas. Hozirgi zamon texnologiyalari jahon bozorida O'zbekiston mavqeining kuchayib borishi boshqa tamoyil – O'zbekiston iqtisodiyotini boshqa davlatlar iqtisodiyoti uchun xom ashyo bazasiga aylantirishga intilish bilan to'qnash kelmoqda.

Shu munosabat bilan iqtisodiy siyosat oldida rivojlanishning qonuniy tamoyillari va milliy an'analarga bir tomonlama yondashuvning yoki hozirgi zamon aralash iqtisodiyotining real murakkabliklari va qarama-qarshiliklarini inobatga oladigan atroflicha yondashuvni tanlash vazifasi turadi. *Birinchi holda* samarasizligi oldindan ma'lum bo'lgan iqtisodiyot va iqtisodiy modelning yaratilishi muqarrar natija bo'ladi. Bir xil, masalan, faqat bozor tizimi imkoniyatlariga, bozor roliga yo'nalganlik ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishiga liberal–radikal yondashuv ochiq iqtisodiyotga olib kelishi mumkin. Fuqarolar ahvolidagi keskin tabaqalanishiga, qattiq raqobatga asoslangan va iqtisodiyotning to'liq oshkoraligi, O'zbekistonni boshqa davlatlarning xom ashyo bazasiga aylantirish tamoyili kuzatiladigan O'zbekiston iqtisodiyotining modeli buning natijasi bo'lishi mumkin. *Ikkinchi tomondan*, tadbirkorlik, bu demak, bozor xo'jaligi imkoniyatlarini bostirish, ijtimoiy soha orqali davlat boshqaruvi rolini oshirish – ijtimoiy yo'nalganlikni mutlaqlashtirish va sodda tushunishning muqarrar oqibati bo'ladi. Butun iqtisodiyotni ongli ravishda bir xil yo'nalishda boshqarish yanada oshkora oqibatlarga olib keladi. Bu holda bozor tadbirkorligi asoslariga muqarrar ravishda putur yetkaziladi, bozor tamoyillari bartaraf etiladi, iqtisodiyotni isloh qilishda ma'lum darajada orqaga chekinish ro'y beradi.

Hozirgi zamon iqtisodiyotining murakkabliklari va ziddiyatlarini, o'tish davri iqtisodiyotining milliy xususiyatlarini real hisobga olish yuqoridagi yondashuvlarning barchasiga muqobil yondashuv bo'lishi mumkin.

Davlatning iqtisodiy siyosati va iqtisodiyot sohasidagi faoliyat O'zbekistonning milliy xususiyatlarini hisobga olgan holda ijtimoiy barqaror iqtisodiyotni barpo etishga izchil yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Hozirgi zamon aralash iqtisodiyotining o'ziga xos milliy modeli hisoblanadigan faqat shunday modelgina O'zbekiston iqtisodiyotining kelajagini ta'minlash imkonini beradi.

O'zbekiston iqtisodiyoti aralash iqtisodiyot bo'lgani maqsadga muvofiqdir. *Birinchi*dan, bu iqtisodiyotning XX asrdagi mantiqiy rivojlanishiga mos keladi, ana shu rivojlanish jarayonida erkin bozor mexanizmi rivojlangan mamlakatlarda davlat boshqaruvi va xususiy mulk –

postindustrial bazis va uning omillari bilan to'ldirib borildi. *Ikkinchidan*, buni O'zbekistonning yuqorida biz fikr yuritgan o'ziga xos jihatlari taqozo etadi.

Yuqorida bayon etilgan fikrlardan shu narsa ko'rinib turibdiki, milliy iqtisodiyotning asosiy xususiyatlari quyidagi tarzda belgilanishi mumkin:

*Birinchidan*, bu rivojlangan bozor tizimining munosabatlari zamirida, uni ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydigan qilib, ongli ravishda izchil boshqarish bilan uyg'unlikda faoliyat ko'rsatadigan iqtisodiyotdir. Ayni vaqtda «standart» bozor (aralash) iqtisodiyotlariga nisbatan davlatning roli muqarrar ravishda salmoqliroq bo'ladi. Shu bilan birga ana shu rol nafaqat bozorni boshqarishning klassik bilvosita usullarida, shuningdek, bivosita ko'rinishlarida (mulk egasi sifatida, iqtisodiyotni isloh qilish va uni tarkibiy qayta qurishning tashkilotchisi sifatida va hokazo) namoyon bo'lishi kerak.

### **Qisqacha xulosa**

Ushbu bobda milliy iqtisodiyotning asosiy negizlariga uning hududiy rivojlanishiga ahamiyat berilib, O'zbekiston iqtisodiyotining o'ziga hosligi, rivojlanishi, uning oldida turgan maqsadlariga e'tibor qaratilgan. Shu bilan birga, XIX – asrning boshlarida Germaniyada Fridrix List tomonidan milliy iqtisodiyot nazariyasini oldinga surgan bo'lsa endi bizga ma'lumki, XX asrning 90–yillarida O'zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan davlatning, umummillatning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy-madaniy transformatsiyalashuviga qilingan taraqqiyparvar islohotlarida 3000 yildan ko'proq tarixga ega bo'lgan O'zbekiston har xil turdagi davlatchiligining rivojlanishida hech bir davlat arbobi va rahbari bunday ishlarni olib bormagan, albatta tarixiy o'zgarishlarda ancha muncha ijobiy rivojlanishlar ro'y bergan ammo hozirgi vaqtdagidek ravnaq topmagan.

Milliy iqtisodiyotning hozirgi zamondagi rivojlanishi salkam chorak asr ichida misli ko'rilmagan tengi yo'q taraqqiyotga olib keldi. Bu yillar davomida bosib o'tgan murakkab, shu bilan birga sharafli yo'limizga nazar tashlar ekanmiz, O'zbekistonning o'tgan davr mobaynida iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi borasida erishgan marra va natijalarini holisona baholash zaruriyati mavjud ekanligini anglaymiz.

### **Asosiy tayanch atamalar**

Milliy iqtisod.

Milliy model.

Milliy tizim.

O'zbekistonning o'ziga xos iqtisodiyoti.

O'zbekiston iqtisodiyoti rivojlanishining asosiy tamoyillari.

### **Mavzuning na'munali savollari**

1. Milliy iqtisodiyotning xususiyatlari va uning rivojlanish asoslari.
2. Milliy iqtisodiyotning o'ziga hosligi va uning asosiy bosqichlari.
3. Milliy iqtisodiyotning hozirgi zamon rivojlanishi va xususiyatlari.
4. «O'zbek modeli» va milliy iqtisodiyotning umumiyliigi.

### **Seminar darslarda muhokama qilish uchun savollar**

1. Milliy iqtisodiyot deganda nimani tushunasiz?
2. O'zbekistonni Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan taqqoslaganda qanday o'zgarishlar mavjud?
3. Jahon iqtisodiy rivojlanishida O'zbekistonning tutgan o'rni.
4. O'zbekistonda rivojlanayotgan iqtisodiy islohot, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarining o'ziga hosligi.

### **Mustaqil ta'lim uchun savollar**

1. Milliy iqtisodiyotning rivojlanish xususiyatlari.
2. O'zbekistonning o'ziga hos bo'lgan an'analari va iqtisodiy rivojlanishining sabablari nimada?
3. O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanishida «O'zbek modelining» ahamiyati va boshqa mamlakatlar bilan taqqoslaganda nimalar bilan farqlanadi?

### 33 BOB. MILLIY HISOB - KITOBLAR TIZIMI

Milliy hisob-kitoblar tizimi tushunchasi paydo bo'lishi va rivojlanish tarixi vazifalari «Milliy hisob-kitoblar tizimi» va «hisobotchilik tizimi» atamaları sinonimlar bo'lib, birinchisi hozirgi vaqtda rus tili kasbiy-statistik va ijtimoiy-siyosiy adabiyotlarda ko'p ishlatiladi. Milliy hisob-kitoblar tizimi (MHT) – bu o'zaro bog'langan makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, tasniflar va guruhlar tizimi bo'lib, ular barcha iqtisodiy jarayonlarni, sharoitlarni, bozor munosabatlariga yo'naltirilgan iqtisodiyotning takror ishlab chiqarish jarayoni va natijalarini tasniflaydi. MHT makroiqtisodiy jarayonlar to'g'risidagi axborotlarni tartibga soluvchi tizim bo'lib, shu ma'noda u mamlakat doirasidagi milliy hisobdir. Bozor iqtisodiyoti faoliyati mexanizmini tushuntiruvchi zamonaviy konsepsiyalar, kategoriyalar va tushunchalar ko'rilayotgan ko'rsatkichlar tizimining yoki hisoblar tizimining nazariy asosi hisoblanadi. Shuning uchun MHTni bozor iqtisodiyotining makrostatistik modeli, deb ham ataydilar.

MHT qator rivojlangan mamlakatlarda XX asrning 30-yillarida, rasmiy statistika doirasidagi tizim sifatida esa, ikkinchi jahon urushidan so'ng (avvalo, Angliya, AQSh, Fransiya, Germaniya va Skandinaviya mamlakatlarida) vujudga keldi. MHT ning tuzilishi makroiqtisodiy hisoblarda ikki yo'nalishni birlashtirish – milliy daromad statistikasini, bozor iqtisodiyotini tartibga solish mexanizmini modellash bilan bog'lab tekshirish natijasidir. Birinchi yo'nalish K.Klark, S.Kuznets, A.Marshall kabi yirik iqtisodchi – statistlar nomi bilan bog'liq. Ikkinchisi XX asrning eng yirik iqtisodchilaridan biri J.M.Keyns nomi bilan asosli ravishda uyg'unlashtiriladi. Makroiqtisodiy tahlil sohasidagi qator mutaxassislarning fikriga ko'ra, Keyns «milliy hisobotchilikning» «nazariy otasi» dir.

MHTning bevosita ishiga va uning keyingi rivojiga R.Stoun (Keynsning iste'dodli o'quvchilaridan biri), J.Xiks, P.Xill hamda Nobel mukofoti laureatlari sovrindorlari Ya.Tinbergen, R.Frish, V.Leontev (balansli qurilma(lar) to'rining yaratuvchisi – uning «sarflar chiqarish» uslubiga Rossiya iqtisodiy adabiyotida tarmoqlararo balansga MHTning tarkibiy qismi sifatida qaraladi) lar salmoqli hissa qo'shdilar.

MHTning soddalashtirilgan sxemalarini ishlab chiqish va mamlakatlar milliy amaliyotiga joriy qilish masalalari bilan ko'p yillar davomida xalqaro iqtisodiy tashkilotlar faol shug'ullanmoqda. MHT bo'yicha xalqaro standartlar va avvalo, BMT ning MHTsi birinchi taxminan 1952 – 53 yillarga doir; ikkinchisi 1968 yilga; uchinchisi 1993 yilga doir xalqaro statistikasi va milliy makroiqtisodiy statistikasi standartlash hamda jamlovchi iqtisodiy

ko'rsatkichlarni xalqaro qiyosiylik asosidir. Bozor iqtisodi mamlakatlarda MHT huqumat va hokimiyatning hududiy organlari tomonidan tahlil hamda siyosiy va xo'jalik qarorlarini qabul qilishda keng foydalaniladi.

Davlat iqtisodiy va ijtimoiy siyosatining barcha asosiy jihatlari (iqtisodiy o'sish, iqtisodiyotning institutsional va tarmoq tuzilmalari, aholi farovonligi va turmush sifati, inflyatsiya, budget kamomadi va davlat qarzi muammolari, tashqi iqtisodiy aloqalarning kengayishi va boshqalar) MHT ko'rsatkichlarida o'z ifodasini topadi.

MHT ma'lumotlari kon'yunkturani baholash hamda o'z xo'jalik siyosatida strategiya va taktikani ishlab chiqishda kompaniyalarga, ayniqsa, yirik biznesga foydalidir.

Izlanishlar uslubi va hisob-kitoblarning axborot bazasi sifatida MHT ilmiy-tadqiqot tashkilotlarida markazlarga va oliy maktabga ularning tahliliy va uslubiy ishlarida, huqumat organlariga tavsiyanomalarni ishlab chiqishda, bozor iqtisodiyoti sharoitida yoshlarni tahlilning muayyan usullariga o'rgatishda zarurdir. Nihoyat, MHT ma'lumotlari xalqaro hamkorlik uchun javob beruvchi xalqaro tashkilotlarga va milliy organlarga ko'rsatilgan tuzilmalar faoliyatini moliyaviy ta'minlashga mamlakat badallari (kvotalarini) belgilash uchun, tashqi iqtisodiy hamda tashqi siyosiy faoliyatni muvofiqlashtirish uchun kerakli.

Mamlakat statistikasida MHT (BMT ning milliy sharoitlarga moslashtirilgan MHT sifatida) 90-yillardan boshlab ishlab chiqila boshlandi va hozirgi vaqtda amalda bir necha o'n yilliklar davomida ishlab chiqilgan xalq xo'jaligi balansi (XXB), deb ataluvchi hisob tizimini siqib chiqardi. MHT va XXB bir-biriga nisbatan balans qurilmalari va milliy hisobotning muqobil tizimlarini tashkil etadi. MHT bozor iqtisodiyotining makrostatik modeli bo'lsa, XXB markazdan rejalashtiriluvchi iqtisodiyot mexanizmining faoliyatini aks ettirishga mo'ljallangan makroiqtisodiy ko'rsatkichlar tizimidir. XXB jahon statistikasida makroiqtisodiy hisob-kitoblarning birinchi tizimi bo'lganligiga e'tiborni qaratish adolatdan bo'ladi. Xalq xo'jaligining birinchi balansi esa, sobiq ittifoqda 1923 – 1924 xo'jalik yili uchun tuzilgan edi. U keyinchalik ishlab chiqilgan tarmoqlararo balanslarning timsoli bo'lib xizmat qilgan va Rossiyalik iqtisodchi V.Leontev tuzgan jadvalni o'z ichiga olgan.

### **33.1. Milliy hisob -kitoblar tizimi bilan xalq xo'jaligi balansi o'rtasidagi asosiy farqlar**

MHT va XXB o'rtasidagi asosiy farqlar, avvalo, iqtisodiy faoliyat sohasi iqtisodiyotning takror ishlab chiqarishi, uning tarkibiy tuzilishi, qiymatning

shakllanish, daromadlarning taqsimlanish va qayta taqsimlanish jarayonlarining turlicha talqin etilishi bilan bog‘liq.

MHT da ishlab chiqarish sohasi iqtisodiy ne‘matni ishlab chiqarish bo‘yicha faoliyat deb talqin etiladi. Shu ma‘noda iqtisodiyotning barcha tarmoqlari bir-biri bilan bog‘liq, ayni vaqtda teng huquqlidir. Ular natural moddiy shaklni kasb etuvchi yoki xizmat vazifasini bajaruvchi mahsulotni yaratadilar.

Ishlab chiqarmaydigan, faqat moddiy ishlab chiqarishda (masalan, qishloq xo‘jaligida, sanoatda, qurilishda) yaratilgan ne‘matlarni iste‘mol qiladigan sohadir, keng ma‘noda u muomala sohasini – transport va savdoni ham o‘z ichiga oladi. Ishlab chiqarishni chegaralovchi konsepsiya bo‘yicha tarmoqlar orasida farq ko‘proq texnologik xususiyatga ega. MHTdan farqli o‘laroq XXBda avval boshdanoq iqtisodiyot tarmoqlarining teng huquqli emasligi tan olinadi. Ijtimoiy ishlab chiqarish moddiy ishlab chiqarish bilan qiyoslanadi (A.Smit va K.Marks konsepsiyasi); faoliyatning moddiy boylik yaratmaydigan sohasi (maorif, sog‘liqni saqlash, madaniy-maishiy xususiyatga ega xizmatlar, fan, boshqaruv va hokazolar) hozirgi zamon sivilizatsiyasining mahsuli va ajralmas tarkibiy qismi bo‘lmish – xizmatlar sohasi iqtisodiy taraqqiyot darajasiga va aholi farovonligiga ta‘sir qilmaydi, degan xulosaga olib keladi, bu esa xatodir.

Qiymatning kelib chiqish manbalarini tushuntiruvchi konsepsiyalar bir-biridan jiddiy farq qiladi. Qiymatning hozirgi zamon nazariyasiga muvofiq qiymat ishlab chiqarish omillari – mehnat, kapital yer hisobiga vujudga keladi (ishlab chiqarish omillari sonini oshirish, masalan, tadbirkorlik faoliyatini yoki bozor iqtisodiyoti faoliyat sharoitlarini shakllantirish bo‘yicha davlat faoliyatini qo‘shish xususida bahs olib borilmoqda). MHT asosiga qo‘yilgan bu konsepsiya bozor iqtisodiyoti jarayonlarini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar tizimining tuzilish uslubiyatini izohlaydi. XXB da esa boshqa g‘oya – qiymatning mehnat nazariyasi amal qiladi, bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyot uchun uning cheklovchilik xususiyati ravshandir.

MHTda xo‘jalik operatsiyalarini tasvirlashda qiymat, moliyaviy resurslar, kapital, daromadlar va xarajatlarning yaratilishi va harakati ko‘rsatkichlari markaziy o‘rinni egallashi mantiqan to‘g‘ri. XXB da esa, urg‘u iste‘mol qiymatining yaratilishi va harakatini ro‘yxatga olishga beriladi, mantiqan bu ham to‘g‘ri, chunki u markazlashgan rejalashtirish mafkurasi bilan belgilanardi. Avvalo, moddiy resurslarni o‘rganish, takror ishlab chiqarishning qiymat jihatini tasvirlash esa, cheklangan va tobe xususiyatga ega. Bu hol bozor iqtisodiyotini modellashtirishga talablar nuqtai nazaridan mutlaqo maqbul emas.

Balans tuzilmalari makroiqtisodiy hisob-kitoblar arxitektonikasida iqtisodiyot tarkibini, xo‘jalik operatsiyalarini amalga oshiruvchi birliklar o‘rtasidagi, shu xildagi operatsiyalarning ob‘ektlari va ularning turlari o‘rtasidagi sifat tafovutlarini aks ettiruvchi guruhlar va tasniflar muhim o‘rin egallaydi. Shu ma‘noda XXBda e‘tibor markazida mulk shakli bo‘yicha guruhlar, MHTda iqtisodiyot sektorlari bo‘yicha guruhlar turadi. Bozor iqtisodiyoti uchun ishlab chiqarishni tashkil etish va faoliyatni moliyaviy ta‘minlash manbalari bo‘yicha qayd etuvchi alomat muhimroqdir.

Shunday qilib, MHTda institutsional birliklarni iqtisodiyot sektorlari bo‘yicha guruhlash g‘oyasi amalga oshirilgan. Aslida, ta‘bir joiz bo‘lsa, sektor ichida tahliliy maqsadlar uchun institutsional birliklarning yanada maydaroq guruhlarini ajratish maqsadga muvofiqdir. Tasniflar, shu jumladan, tarmoq tasniflari hisob-kitobning har ikki tizimida muhim ahamiyatga ega, shu bilan birga, ular MHT va XXB o‘rtasida turlicha bo‘lgan ko‘rsatkichlar tizimining mazmunini shakllantiradi.

Operatsiyalarni aks etirish shakli va ro‘yxatga olish borasidagi MHT va XXB o‘rtasidagi farqlar o‘ziga xos. XXB da boshlang‘ich hisob-kitob shakllaridan biri aylanma, vedomosti moslashtirilgan bo‘lib, u birinchi navbatta moddiy mahsulot, moddiy resurslar harakati (kirim - chiqim)ni aks ettirishda juda qulay. MHTda daromadlar va xarajat harakati tavsifi uchun mo‘ljallangan bugalterlik hisob-kitobining ko‘pgina tamoyillaridan foydalaniladi. Bu operatsiyalarni xatlash, qo‘sh yozuv, aktivlar va passivlar balansiga ega tamoyilli hisob-kitoblar tizimidir. Bunday shakl umuman iqtisodiyot doirasidagi aktivlar va passivlar harakatini, moliyaviy ahvolni, xo‘jalik yurutuvchi sub‘ektlar guruhlarining, sektorlarning hamda umuman, milliy iqtisodiyotning barqarorligini aks ettirishga yo‘naltirilgan.

Kategoriyalar va konsepsiyalardagi jiddiy tafovutga qaramay MHT va XXB o‘rtasida juda ko‘p umumiyliklar bor, chunki har ikki tizim ham balans tuzilmalari bo‘lib, takror ishlab chiqarish jarayonlari har tomonlama tavsiflash uchun mo‘ljallangan. Aynan shu vaziyat MHTni mamlakatimizda o‘zlashtirishning birinchi bosqichida XXB ko‘rsatkichlaridan maxsus «o‘tish kalitlari» ishlab chiqarilayotgan vaqtda hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi.

### **33.2. Milliy hisob-kitoblar tizimining umumiy tarkibiy tuzilishi**

Bizning milliy hisob-kitoblar tizimimiz milliy hisob-kitoblar bo‘yicha xalqaro standartlarning, birinchi navbatda BMT MHTsining, shuningdek, Yevropa hamjamiyati mamlakatlari tomonidan foydalanilayotgan iqtisodiy hisob-kitob Yevropa tizimining (YeSIES) bo‘yicha moslashtirilgan ko‘rinishidir. XX asrning 90 - yillari ikkinchi yarmida mamlakat statistika

MHT ni amaliyotga tatbiq etishning birinchi bosqichi tugallandi. Milliy hisob-kitoblarning soʻnggi bosqichi quyidagi:

- umuman, iqtisodiyot uchun jamlangan hisob-kitoblar;
- iqtisodiyot sektorlari uchun;
- iqtisodiyot tarmoqlari uchun;
- alohida iqtisodiy operatsiyalar uchun hisob-kitoblar bloklarini oʻz ichiga olishi lozim, deb taxmin qiladi.

**Hisob-kitoblar – makroiqtisodiy axborot.** Hisob-kitoblardan (uning ikki tomonini resurslar va foydalanishni farqlaydilar) xoʻjalik yurituvchi subʻektlar yoki institutsional birliklar tomonidan amalga oshiruvchi iqtisodiy operatsiyalarni roʻyxatga olishda foydalaniladi.

Institutsional birliklar iqtisodiyot sektorlari (institutsional sektorlar) boʻyicha guruhlanadi. Ichki iqtisodiyotni tarkibiy boʻlishi uchun quyidagi sektorlarga ajratiladi:

- moliyasiz korxonalariga (moliyasiz korporatsiyalar yoki kvazikorporatsiyalar);
- moliya muassasalariga (moliya korporatsiyalar yoki kvazikorporatsiyalari);
- hukumat muassasalariga (davlat boshqaruvidagi);
- uy xoʻjaliklariga xizmat koʻrsatuvchi notijorat tashkilotlariga;
- uy xoʻjaliklariga.

**Moliyasiz korxonalar sektori.** Uning tarkibiga uyushma xususiyatiga ega (yoki oʻnga oʻxshash, lekin uyushma maqomiga ega boʻlmagan, kvazikorporatsiyalar) deb ataluvchi ishlab chiqarish xarajatlarini koʻp yoki kam qoplovchi narxlar boʻyicha realizatsiya qilish maqsadida tovarlar ishlab chiqaradigan va moliyasiz xizmatlar koʻrsatadigan xoʻjalik yurituvchi subʻektlar kiradi. Moliyasiz korxonalar sektoriga kiruvchi birliklar oʻz xarajatini birinchi navbatda tovarni sotish va xizmat koʻrsatishdan keladigan tushum hisobiga qoplaydilar.

**Moliya muassasalari sektori.** Uning tarkibiga banklar, sugʻurta kompaniyalari, investitsiya fondlari va boshqa asosiy vazifasi moliyaviy dallollikdan iborat boʻlgan (moliyaviy resurslarni jamlaydigan va investitsiya qiladiganlar oʻrtasida) subʻektlar kiradi. Moliyaviy dallollarning koʻpchiligi oʻz xarajatlarini berilgan moliyaviy resurslar uchun oladigan foizi bilan jalb qilingan moliyaviy resurslar uchun toʻlanadigan foizlar oʻrtasidagi farq hisobiga moliyaviy taʼminlaydilar.

**Hukumat muassasalari sektori (umumiy davlat boshqaruvidagi)** u davlatning budjetidagi institutsion birliklari hisobiga shakllanadi, ularning asosiy vazifasi daromad va boyliklarini qayta taqsimlash, umuman, butun



jamiyatga hamda alohida guruhlarga (alohida shaxslarga) bozorga aloqasi bo‘lmagan xizmatlarni ko‘rsatishdan iborat. Umumiy davlat boshqaruvidagi institutsion birliklar uchun budjetdan moliyaviy ta‘minlanish, shuningdek, o‘zlari egalik qiladigan mulkdan keladigan daromad hisobiga moliyaviy ta‘minlanish hosidir.

**Uy xo‘jaliklariga xizmat ko‘rsatuvchi notijorat tashkilotlari sektori.** Bu sektorda jamoat, siyosiy, kasaba, diniy tashkilotlar ko‘rib chiqiladi, ularning asosiy vazifasi shu tashkilot ishchilariga bozorga asoslanmagan xizmatlarni ko‘rsatishdir (bu institutsion birliklar badallar, xayriyalar va mulkdan keladigan daromadlar hisobiga moliyaviy ta‘minlanadi).

**Uy xo‘jaliklari sektori.** Shunday deb atalishiga sabab, MHTda alohida uy xo‘jaligini yurituvchi xususiyatiga ega faoliyat bilan shug‘ullanuvchi, ya‘ni iste‘mol institutsion birlik sifatida tariflanadi. Bundan tashqari, mayda uyushmagan korxonalar (uy xo‘jaliklari ularga egalik qiladilar) – kichik fermalar, magazinlar, tamaddixonalar, ustaxonalar va hokazolar hamda erkin kasb egalari mazkur sektorga kiradi. Ushbu tavsiyanoma uy xo‘jaliklari va mayda uyushmagan korxonalar budjeti odatda, bir bo‘lagi bilan izohlanadi. Uy xo‘jaliklari sektoriga kiruvchi birliklar o‘z chiqimlarini mehnatga haq to‘lash, mulkdan keladigan daromadlar, qayta taqsimlanadigan tushumlar hamda shu sektorga kiruvchi uyushmagan korxonalar mahsuloti realizatsiyasidan tushumlar hisobiga moliyaviy ta‘minlaydilar.

**«Qolgan dunyo» sektori.** Tashqi iqtisodiy aloqalarni va chet malakatlar bilan moliyaviy o‘zaro munosabatlarni ifodalash uchun «Qolgan dunyo» sektori bo‘yicha hisob-kitoblar tizimi nazarda tutiladi.

Umuman iqtisodiyot uchun hamda ichki iqtisodiyot sektorlari uchun hisob-kitoblar tizimi yagona bo‘lib, eng to‘liqdir. Iqtisodiyot tarmoqlari va alohida iqtisodiy operatsiyalar uchun hisob-kitoblar ro‘yxati anchagina cheklangan. O‘z shakliga ko‘ra, MHT hisob-kitoblari buxgalterlik hisobotlariga o‘xshab ketadi. Hisob-kitoblarning katta qismi balans uslubi (balanslashuvchi pozitsiya vositasida balanslashadi. Balanslashuvchi modda keyinchalik ma‘lumot beruvchi) hisob-kitobning boshlang‘ich moddasiga aylanadi. Hisob-kitobning resurs qismiga taalluqli yozuvlar summasiga ya‘ni hisobning o‘ng qismiga tengdir.

Iqtisodiyot sektorlari uchun hisob-kitoblar. 1) joriy hisob-kitoblariga (ishlab chiqarish, daromadlarining birlamchi taqsimoti, daromadlarining pul ko‘rinishidagi qayta taqsimoti, pul ko‘rinishidagi tasarrufidagi daromatlardan foydalanish, natura ko‘rinishidagi daromadlarni qayta taqsimlash, aniqlik kiritilgan tasarrufdagi daromaddan foydalanish hisob-kitoblari); 2) jamg‘arma hisob-kitoblariga (kapital bilan bog‘liq operatsiyalar hisob-kitobi, moliyaviy

hisob-kitob, aktivlar va passivlardagi ularning hajmidagi boshqa o'zgarishlar natijasida aktiv va passivlarni qayta baholash natijasida aktivlar va passivlardagi boshqa o'zgarishlar hisob-kitobiga); 3) davr boshi va oxirida aktivlar va passivlarning balanslariga bo'linadi.

Hisob-kitoblarni muvofiqlashtirish chizmasini yozuvlar va balanslashtirish ma'lumotlarini dastlabki uch hisob-kitoblar misolida ko'rib chiqamiz.

Ishlab chiqarish hisob-kitoblari		Daromadlarning tashkil topish hisob-kitoblari	
Resurslar	Foydalanish	Resurslar	Foydalanish
1. Chiqarish	1.Oraliq iste'mol 2. Yalpi qo'shimcha qiymat (1 – 2)	1. Yalpi qo'shimcha qiymati	1. Mehnatga xaq to'lash 2.Ishlab chiqarishga boshqa soliqlar 3.Yalpi foyda, yalpi aralash daromad (1 – 2 – 3 )

### Daromadlarning boshlang'ich taqsimoti hisob-kitoblari

Resurslar	Foydalanish
1.Yalpi foyda, yalpi aralash daromad. 2.Mulkdan olingan daromadlar. 3.Ishlab chiqarishga va importga sof soliqlar. 4. Mehnatga xaq to'lash.	1.Mulkdan to'langan daromadlar. 2. Boshlang'ich daromadlar saldosi (1+2+3+4-5 )

Ishlab chiqarish – mahsulot chiqarish natijalarini o'lchashning indallosi aniqroq qilib aytganda, tovar va xizmatlarning yalpi chiqarishini, ya'ni barcha ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarning yalpi qiymatini hisoblashdir. Chiqarish hisob-kitobida u hisob-kitobning o'ng, resurs tomonida ko'rsatiladi. Agar ishlab chiqarilgan mahsulotdan oraliq iste'mol (xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning investitsiyalarsiz moddiy resurslarni xarid qilishga va joriy faoliyat uchun zarur xizmatlar haqiga sarflari) chiqarib tashlansa, yalpi qo'shimcha qiymat ko'rsatqichiga ega bo'lamiz. Bu saldo ko'rsatkichdir (chizmada saldo ko'rsatkichning nomi harf bilan ajratib ko'rsatilgan). Yalpi qo'shimcha ma'lumot beruvchi hisob-kitob – daromadlarning tashkil topishi hisob-kitobiga, resurs qismiga o'tkaziladi.

Daromadlarning tashkil topish hisob-kitobining vazifasi – yalpi qo'shimcha qiymatning tarkibiy qismlarga taqsimlanishini ko'rsatishdir. Qo'shimcha qiymatdan mehnat haqini va ishlab chiqarishning boshqa soliqlarini (ishlab chiqarish omillariga – mehnat, kapital va yerlarga soliqlarni)

chiqarib tashlash vositasida yalpi foyda (yalpi aralash daromad) aniqlanadi. Agar yalpi foyda yoki yalpi aralash daromad kattaligi (uy xo‘jaliklari sektoriga kiruvchi uyushmagan korxonalar daromadi) amortizatsiya miqdoriga kamaytirilsa, ko‘rsatkich nomidagi «yalpi» sifati «sof» sifatiga almashtiriladi «sof foyda», «sof aralash daromad» yalpi foyda yoki aralash daromadlarning tashkil topish hisob-kitobidagi saldo ko‘rsatkichdir, daromadlarning boshlang‘ich taqsimoti ma‘lumotlari hisob-kitobda esa, resurs tashkil qiluvchi ko‘rsatkichdir (demak, uning o‘ng tarafidadir). Mulkdan olingan daromadlar, ishlab chiqarish va importga soliqlar (import mahsulotlari ham qo‘shilib mahsulotga soliqlar va ishlab chiqarishga boshqa soliqlar ishlab chiqarish omillariga soliqlar) va mehnat haqiga soliqlar. Hisob-kitoblar resurs qismining boshqa ko‘rsatkichlari hisoblanadi. Boshlang‘ich daromadlar saldosi saldo ko‘rsatkich bo‘lib, u mulkdan to‘langan daromadlarni resurs ko‘rsatkichlar summasida chegirib tashlash yo‘li bilan hisoblanadi.

Shunday qilib, dastlabki uch hisob-kitoblarda mahsulot ishlab chiqarish jarayonini va daromadlarning tashkil topishi va qayta taqsimoti jarayonini tvasiflovchi operatsiyalar (umumlashtirilgan holda) ro‘yxatga olinadi. Yana joriy hisob-kitoblar daromadlarning qayta taqsimoti va tasarrufidagi daromadlardan foydalanish jarayonlarini (ya‘ni qayta taqsimot operatsiyalaridan so‘ng qolgan daromaddan foydalanishni aks etadi). Tasarrufidagi daromaddan foydalanish hisob-kitobning saldo ko‘rsatkichi orqali joriy hisob-kitob jamg‘arma hisob-kitoblari bilan muvofiqlashtiriladi, ular esa, o‘z navbatida aktivlar va passivlar balansi bilan muvofiqlashtiriladi. Ko‘rsatkichlarning bir-biri bilan bog‘lanishi va muvofiqlashtirilishi mazmur mohiyatini MHTning o‘zaro bog‘liq ko‘rsatkichlar tizimi sifatidagi tuzilish uslubiyatini keyingi bayon qilish davomida ko‘rib chiqamiz.

### **33.3. MHT o‘zaro bog‘liq ko‘rsatkichlar tizimi sifatida**

Hozirgi zamon MHTni ko‘pincha birgalikda mamlakat iqtisodiy hayotining umumiy manzarasini beruvchi o‘zaro bog‘liq axborotlar bloklarning tizimi deb aytdilar. Tizim markazida eng muhim makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar haqidagi: yalpi va ichki mahsulot (YaIM) milliy daromald va ularning eng muhim tarkibiy qismlari haqidagi ma‘lumotlar bloki turadi. Tarixan bu blok YaIM va milliy daromad hisob-kitoblari uch uslubning ishlab chiqarish taqsimot va pirovard foydalanish uslublarining integratsiyasi yo‘li bilan vujudga kelgan.

**Yalpi ichki mahsulot.** Yalpi ichki mahsulot MHTning muhim ko‘rsatkichlaridan biri bo‘lib, iqtisodiy birliklar – rezidentlar faoliyatining pirovard natijalarini tavsiflaydi. Birinchidan, YaIM – 3bu ishlab chiqaradigan

pirvard tovarlar va xizmatlarning qiymatlaridir, shuning uchun oraliq tovarlar va xizmatlar qiymati YaIMga kirmaydi, aks holda, ko‘rsatkich qayta hisobga olingan bulardi (xom ashyo qiymati, masalan, shu xom ashyo ishlatilgan tayyor mahsulotning narxida qayta hisoblanardi), ko‘rib chiqilayotgan davr mobaynida mintaqadagi mamlakatdagi pirovard iqtisodiy natijani tavsiflash talablarni qondira olmasdi.

Ikkinchidan, YaIM – bu ichki mahsulot, chunki u «rezidentlar» tomonidan ishlab chiqarilgan. «Rezidentlar» qatoriga xo‘jalik millati va fuqaroligidan qat’i nazar mazkur mamlakatning iqtisodiy hududida manfaatlar markaziga ega bo‘lgan va uning chegaralari doirasida shaxslar, tovarlar va pullar erkin harkat qilishi mumkin bo‘lgan yurituvchi barcha sub’ektlar (korxonalar va aholi) kiradi.

Nihoyat YaIM – asosiy kapital iste’moli chegirilgunga qadar hisoblangan (yalpi ichki mahsulot chegirilginidan so‘ng u sof ichki mahsulotga aylanadi). Asosiy kapital iste’mol hisobot davri davomida jismoniy va ma’naviy eskirish, tasodifdan sodir bo‘lgan ahamiyatsiz shikastlar natijasida asosiy kapital qiymatining kamayishidan iborat. Asosiy kapital iste’molini aniqlash MHT tamoyillariga muvofiq matematik modellar zahirida asosiy kapital bo‘yicha uning alohida turlarini nazarga olgan holda dinamik qatorlardan foydalanish orqali amalga oshirishi kerak. Boshlang‘ich axborotning past sifati tufayli bu vazifani bajarish qiyindir, shuning uchun statistika amaliyotida asosiy kapital iste’moli o‘rniga uning ekvivalenti bo‘lmagan «asosiy fondalar amortizatsiyasi» ko‘rilayotgan davr mobaynida ko‘rsatkich qo‘llaniladi. Shuni qayd etish lozimki, asosiy fondlarni vaqti-vaqti bilan qayta baholash hollarida buxgalterlik hisobotlarida keltiriladigan amortizatsiya haqidagi ma’lumotlardan foydalanishning maqsadga muvofiqligi ortadi.

YaIMni hisoblashning ishlab chiqarish usuli iqtisodiyotning barcha tarmoqlari bo‘yicha (yalpi ishlab chiqarish bilan oraliq iste’moli o‘rtasidagi farq sifatida) mahsulot va xizmatlarga, shu jumladan, importga subsidiyalarni chegirib tashlab va soliqlrni qo‘shib, yalpi qo‘shimcha qiymatni aniqlashdan iboratdir.

Mahsulot chiqarish (yalpi chiqarish) bozorga mo‘ljallangan va bozorga mo‘ljallanmagan chiqarishni o‘z ichiga oladi. MHTga chiqarish «asosiy narxlar», deb ataluvchi narxlarda (ishlab chiqaruvchilar narxlarida ayiruv ishlab chiqaruvchining narxiga kiritilgan mahsulot va xizmatlarga soliqlar, o‘quv mahsulot va xizmatlarga subsidiyalar) baholanadi. Bozorga mo‘ljallanmagan–amortizatsiya chegirmalarini hisobdan chiqarishlarni qo‘shgan holda ishlab chiqarish chiqimlari bo‘yicha baholanadi.

MHTga qabul qilingan ishlab chiqarish faoliyati chegaralari tarafiga muvofiq ishlab chiqarishga quyidagilar kiradi:

- ishlab chiqaruvchisi hisoblanmaydigan boshqa birliklarga tovar va xizmatlarni yetkazib berish;

- o‘zining pirovard iste‘mol yoki jamg‘arish uchun ishlab chiqarilgan tovarlar ishlab chiqaruvchilarning moddiy aylanma mablag‘lari zaxiralariga kelib tushuvchi mahsulot ham shular jumlasidan;

- o‘zining pirovard iste‘moli uchun ishlab chiqaradigan ayrim xizmatlar, ya‘ni o‘z uy-joylarida yashash bo‘yicha xizmatlar hamda haq to‘lanadigan uy xizmatkori tomonidan amalga oshiriladigan uy yumushlari.

«Hufiyona iqtisodiyot» tomonidan ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar ham aslida kiritilishi kerak. U quyidagi faoliyatni o‘z ichiga oladi:

- qonun tomonidan ta‘qiqlangan tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish va realizatsiya qilish (masalan, nakotiklarni ishlab chiqarish va tarqatish);

- mazkur faoliyat to‘rini amalga oshirish huquqiga ega bo‘lmagan birliklar tomonidan tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish, masalan litsenziyaga ega bo‘lmagan hususiy vrachlar tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar;

- daromadlarni yashirish maqsadida davlat organlaridan ataylab yashiriladigan, qonun bilan man etilmagan tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish va realizatsiya qilish.

Mahsulot chiqarish (ayniqsa) va oraliq iste‘mol ko‘rsatkichlarini hisoblash uslubiyati tarmoq xususiyati va faoliyat xarakterga bog‘liq. Masalan, bevosita moddiy ne‘matlar ishlab chiqaruvchi tarmoqlarda mahsulot chiqarish (yalpi chiqarish) ko‘rilayotgan davr uchun rezidentlar – birliklarning ishlab chiqarish faoliyati natijasi bo‘lgan moddiy ne‘matlar qiymatidir. Muomala sohasida, xususan, savdoda, chiqarish realizatsiya qilingan savdo ustamasi (qo‘shimcha savdo narxi) kattaligi bilan o‘lchanadi, u esa realizatsiya qilingan tovarlarning sotuv va xarid narxlari o‘rtasidagi farqni tashkil etadi va undan qo‘shimcha qiymat solig‘i chegiriladi.

Oraliq iste‘mol xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlarning joriy ishlab chiqarish maqsadlari uchun moddiy resurslarga (investitsiyalarsiz) va xizmatlarga (transport, yuridik, moliyaviy va hokazo) ega bo‘lish uchun sarflarni tashkil etadi.

Agar jami chiqarishdan (iqtisodiyot barcha tarmoqlarining oraliq, iste‘molning umumiy hajmi chiqarib tashlansa, umuman, iqtisodiyot uchun yalpi qo‘shimcha qiymat ko‘rsatkichiga ega bo‘lamiz. Bu ko‘rsatkich asosiy narxlarda belgilanishi bois, yalpi ichki mahsulotni so‘nggi iste‘mol narxlarida o‘lchash uchun (so‘nggi xaridor narxlarida, bozor narxlarida) yalpi

qo‘shimcha qiymat kattaligiga mahsulot va xizmatlarga (importga ham) subsidiyalar chegirib tashlanib mahsulot va xizmatlarning solig‘i qo‘shiladi davlat tashqi savdo tashkilotlari tomonidan davlat budjetiga o‘tkaziladigan ichki va tashqi bozordagi eksport va import mahsulotlarining narxлари o‘rtasidagi farqqa MHTda importga sof soliq sifatida qaraladi va u ham so‘nggi iste‘mol narxiga kiradi.

Taqsimot usuli bilan aniqlashda YaIM ishlab chiqarish birliklari – rezidentlari tomonidan taqsimlangan boshlang‘ich daromadlarning (quyidagi) turlarini yollanma xodimlar mehnat haqini; ishlab chiqarish va importga sof soliqlarni (ishlab chiqarish va importga soliqlar ayiruv ishlab chiqarish va importga subsidiyalar), yalpi foyda va yalpi aralash daromadlarni o‘z ichiga oladi.

Mehnatga haq to‘lash. Yollanma xodimlar mehnatiga haq to‘lash pul va natural ko‘rinishida taqdirlash bo‘lib, u ish beruvchi tomonidan yollanma xodimga hisobot davrida bajargan ishi uchun to‘lanishi kerak. U ikki tarkibiy qismda tashqil topadi:

- ish haqidan ijtimoiy sug‘urtaga ish beruvchilarning chegirmalaridan ish haqi ishlab topilgan pullarning barcha turlarini shu jumladan, manbaidan qat‘i nazar, pul yoki natural ko‘rinishida, ya‘ni tannarx va foyda hisobiga yozilgan turli mukofotlarni (qo‘shimcha haqlarni) qonunchilikka muvofiq ishlanmagan vaqt uchun (har yilgi mehnat ta‘tili, bayram kunlari va boshqalar) xodimlarga yoziladigan pul summalarini qamrab oladi. Ish haqi yollanma xodilardan ushlab qolinadigan soliqlar va boshqa to‘lovlar chegirilishidan avval hisoblanadi. Ijtimoiy sug‘urtaga chegirmalar ish beruvchilar tomonidan yollanma xodimlar kelajakda ijtimoiy nafaqa olishlarini ta‘minlash uchun amalga oshiriladi. Ijtimoiy sug‘urtaning ikki to‘rini: haqiqiy (ish beruvchilarning uchinchi tomonga, ya‘ni aholini ijtimoiy sug‘urta qilish tashkilotlariga to‘lovlarini) va ijtimoiy sug‘urtaga shartli hisoblangan chegirmalar (ijtimoiy nafaqalarga ekvivalentlar korxonalarining o‘z mablag‘lari hisobidan bevosita xodimlariga, sobiq xodimlari yoki ularning shunga haqi bo‘lgan qaramog‘idagilarga) to‘lovlarini farqlaydilar.

**Ishlab chiqarish va importga soliqlar.** Bu majburiy, beg‘araz qaytarilmaydigan to‘lovlar bo‘lib, uni davlat boshqaruvi organlari ishlab chiqaruvchi birliklardan tovarlar va xizmatlarni import qilish yoki ishlab chiqarish omillaridan foydalanish munosabati bilan undiradi. Ko‘rsatilgan soliqlarning birinchi turiga QQS (qo‘shimcha qiymat solig‘i), aksizlar savdo – sotiqqa soliqlar, aylanma soliqlar, alohida turdagi xizmatlar uchun soliqlar, xazina monopoliyasi foydalari, import, eksport, boj to‘lovlariga soliqlar kiradi.

Ikkinchisiga esa, yerga, ishlab chiqarish vositalariga yoki ish kuchiga soliqlar kiradi.

**Ishlab chiqarish va importga subsidiyalar.** Bu joriy beg'araz qaytarilmaydigan to'lovlar bo'lib, ularni davlat tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish, sotish yoki import qilish, ishlab chiqarish omillaridan ma'lum iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda foydalanish maqsadida korxonalariga beradi. Ularga jumladan, korxonaning doimiy zararlarini davlat budjetidan qoplash kiradi, bu zararlar korxonalar ishlab chiqarayotgan mahsulotga sotuv narxi ishlab chiqarishning o'rtacha xarajatlaridan past qo'yilganligidir. Korxonada alohida guruh shaxslar (o'smirlar, nogironlar) mehnati qo'llanilishi munosabati bilan ham moliyaviy yordam beriladi.

Pirovard foydalanish uslubi bilan YaIM quyidagi komponentlar – tovar va xizmatlarning pirovard iste'moli, yalpi jamg'arish, tovar va xizmatlar eksport – importning saldo summasi sifatida aniqlanadi.

**Tovar va xizmatlarning pirovard iste'moli.** U uy xo'jaliklarning – rezidentlarning iste'mol tovarlariga va xizmatlarga harakatlarini, shuningdek, davlat boshqaruvi organlarining (budjet tashkilotlarining) va uy xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlarining shaxsiy va jamoa foydalanishi uchun chiqarilgan tovarlar va xizmatlarga xarajatlarini o'z ichiga oladi.

**Yalpi jamg'arma.** U rezident birliklari tomonidan joriy davrda ishlab chiqarilgan, ammo shu davrda iste'mol qilinmagan tovarlar va xizmatlarning sof xarididan (ishdan chiqishi uchun sof chegirmani to'lab) xarid qilinishidir. Yalpi jamg'arma asosiy kapital (asosiy fondlar) yalpi jamg'armasini, moddiy aylanma mablag'lar zaxiralarining o'zgarishni, qimmatbaho buyumlar (qiymatni saqlash uchun sotib olinadigan buyumlar, qimmatbaho metallar va toshlar; (oltin tangalar bundan mustasno) hamda sanoatda foydalanishi uchun mo'ljallangan oltin va toshlar zargarlik buyumlari; nodir buyumlar; kolleksiyalar va hokazolar) sof xaridini o'z ichiga oladi.

**Tovarlar va xizmatlar eksport va importning saldosi.** U muayyan mamlakatning boshqa barcha mamlakatlar bilan eksport-import operatsiyalarini qamrab oladi. Tovarlar eksporti va importi mamlakatdan olib chiqib ketilgan yoki mamlakatga olib kirilgan (davlat chegarasini kesib o'tuvchi) tovarlar qiymatidan iborat mamlakat bo'yicha eksport va import hajmining qiymat bahosi MHT doirasidagi makroiqtisodiy hisob-kitoblar uchun FOB (eksport va import uchun narxlarda yoki eksportchi mamlakatning frank – chegarasi bilan belgilanadi. Tashqi iqtisodiy faoliyat statistikasi hisobga oladigan tovarlar eksport -importi xayriya (iisonparvarlik yordami va sovg'a tartibida keltirilgan tovarlarni, jo'natmalarni, migrantlarning mulklarini o'z ichiga oladi.

Xizmatlar eksport-importiga transport xizmatlariga, sayohat, kommunikatsiya xizmatlari, qurilish, moliyaviy, kompyuter va axborot xizmatlari, reklamalar, buxgalterlik hisoboti, boshqaruv bo'yicha maslahatlar va boshqarish xizmatlari kiradi.

YaIMni uch usul bilan hisoblashda olingan ma'lumotlar milliy iqtisodiyotning muhim tarkibiy va takror ishlab chiqaruvchi nisbatlarini jahon xo'jalik munosablari tizimiga integratsiyalashuvi darajasini tahlil qilishda qo'llanilmoqda.

Shu bilan birga, qator hollarda bozor iqtisodiyoti mexanizmi faoliyatining ozmi-ko'pmi muhim jihatlari iqtisodiy axborotlarning quyidagi bloklari MHTning markaziy blokiga qo'shilganidan so'ng miqdoriy o'lchamga ega bo'ldi:

- Iqtisodiyot sektorlarining aktivlari va passivlari, milliy boyliklari to'g'risidagi;

- Moliyaviy resurslarning harakati, ya'ni moliya vositalari bilan operatsiyalar to'g'risidagi;

- Davlat budjeti ma'lumotlari bilan muvofiqlashtirilgan davlat boshqaruvi organlarining daromadlari va sarflari to'g'risidagi;

- To'lov balansi bilan muvofiqlashtirilgan tashqi iqtisodiy aloqalar to'g'risidagi;

- Tarmoqlararo aloqalar (MHT ning tarkibiy qismi bo'lib qolgan tarmoqlararo balans) to'g'risidagi axborot bloklari shular jkmlasidandir.

MHT bu – qiymat, daromad va xarajatlarning harakatini, mamlakat iqtisodiyot sektorlari, xo'jalik yurituvchi sube'ktlar guruhlarining moliyaviy ahvoli tavsifini aks ettirishga ma'lum darajada moslashtirilgan ko'rsatkichlarning o'zaro bog'liq tizimidir. Buni MHTning ayrim asosiy ko'rsatkichlari o'rtasidagi o'zaro aloqalar chizmasida ko'rsatishimiz mumkin:

1. YaIM pirovard foydalanish (so'nggi xaridor) narxlarida.
2. Asosiy kapital iste'moli.
3. Sof ichki mahsulot pirovard foydalanish narxlari (1 – 2 ).
4. Chet eldan olingan boshlang'ich daromadlar saldosini.
5. Yalpi milliy daromad (1 + 4).
6. Chet eldan olingan joriy transferlar saldosini.
7. Tasarrufdagi yalpi milliy daromad (5+6).
8. Milliy pirovard iste'mol.
9. Milliy jamg'arma (7 – 8).
10. Chet eldan olingan kapital transferlari saldosini.
11. Investitsiyalarni moliyaviy ta'minlashning umumiy manbalari (9+10).
12. Yalpi jamg'arma YaIM dan foydalanish elementi sifatida.



13. Yer va boshqa ishlab chiqarilmagan aktivlarni xarid qilish uchun xarajatlar (sotuvi chegirib tashlanganda).
14. Sof kreditlashtirish (sof qarz olish (11 – 12 – 13)).

Chizmada boshlang‘ich ko‘rsatkich – YaIM yakunlovchi ko‘rsatkich esa, «sof kreditlashtirish,sof qarz olish». Umuman, iqtisodiyot uchun so‘nggi ko‘rsatkich investitsiyalarni moliyaviy ta‘minlash manbalari umumiy miqdori – 11- band bilan (milliy jamg‘arma qo‘shuv kapital transferlari saldos, ya‘ni boshqa mamlakatlardan kapital xususiyatiga ega beg‘araz tushumlar saldos) – va investitsiyalarning yuqorida sanab o‘tilgan tarkibiy qismlari o‘rtasidagi farqqa tengdir. Umuman, iqtisodiyot uchun sof kreditlashtirish – bu boshqa mamlakatlar yetkazib bergan resurslar ko‘rsatkichidir, sof kreditlashtirish mazkur mamlakat «rezidentlari» qo‘lga kiritgan moliyaviy aktivlarning shu mamlakat «rezidentlari» qabul qilgan moliyaviy majburiyatlardan oshib ketgani sifatida amalga oshirilishi mumkin. Qarz olish (umuman, iqtisodiyot uchun) – bu mazkur mamlakat «rezidentlari» tomonidan chet eldan keltirish sharti bilan vaqtincha olingan resurslar hajmiga tengdir (investitsiyalarni moliyaviy ta‘minlash manbalarining investitsiya dasturlariga oshib ketgan hollarda).

Birlashgan va sektor hisob-kitoblaridan tashqari (xorij bilan moliyaviy iqtisodiy aloqalarni aks ettirish uchun «Qolgan dunyo» hisob-kitoblarini ko‘shgan holda), MHT da eng muhim iqtisodiy operatsiyalar uchun hisob-kitoblar guruhi nazarda tutilgan, ular orasida tovarlar va xizmatlarning hisob-kitoblari muhim o‘rinlardan birini egallaydi (quyida uning chizmasi keltirilgan).

#### **Tovarlar va xizmatlar hisob-kitobi**

Resurslar	Foydalanish
Tovar va xizmatlarni yalpi ishlab chiqarish	Oraliq iste‘mol Pirovard iste‘mol
Tovar va xizmatlar importi	Yalpi jamg‘arma
Mahsulotlarga sof soliqlar	Tovar va xizmatlar eksporti
Jami resurslar	Hammasi bo‘lib foydalanilgan resurslar

Tovarlar va xizmatlar hisob-kitobi resurslar va foydalanish balansi guruhiga kiradi (shu xildagi balans tuzilmalarida resurslar chapda resurslardan foydalanish esa – o‘ngda joylashadi. Bu guruh tarmoqlararo balans bilan («xarajatlar – ishlab chiqarish» jalvali bilan) yakunlanadi.

Resurslar va foydalanish balanslari tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish va ulardan foydalanishning har tomonlama batafsil tavsifini beradi

hamda ishlab chiqarish jarayonida qo‘shimcha qiymatning tashkil topishini ta’riflaydi. Ular ham statistik ham tahliliy maqsadlarga xizmat qiladi. Bu balanslar turli axborot manbalaridan (davlat statistika hisoboti chakana kuzatuv ma’lumotlari va hokazolardan) olingan tovarlar va xizmatlar oqimlari to‘g‘risidagi statistik ma’lumotlar qiyosiylikini tekshirish imkoniyatini ta’minlaydi. Bunday balanslar MHTdagi ko‘plab iqtisodiy ko‘rsatkichlarni hisoblash va ularni bir -biri bilan bog‘lash uchun xizmat qiladilar. Resurslar va ulardan foydalanish balanslaridan (birinchi navbatda tarmoqlararo balansdan) ishlab chiqarish jarayonidagi o‘zaro aloqalarni batafsil tahlil qilish, tashqi savdoning rolini narx-navoning shakllanishini, takror ishlab chiqarishning qiymat tuzilishini o‘rganishda, doimiy narxlarda asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni baholashda tahlil vositasi sifatida foydalaniladi. Tarmoqlararo balanslar asosida mahsulotning iste’moli va oraliq pirovard iste’moli o‘rtasidagi nisbatni, milliy iqtisodiyotga eksport va importning ta’sirini fan-texnika taraqqiyotining ijtimoiy ishlab chiqarishdagi texnologik aloqalarga ta’sirini qiymat nisbatlariga narx-navoning ta’siri mexanizmini tahlil etish va bashorat qilish uchun makroiqtisodiy modellar quriladi.

### **Qisqacha xulosalar**

Milliy hisob-kitoblar tizimini (MHT) yalpi milliy mahsulotning (YaIM) hamda bosqichlardagi harakatini ya’ni uni ishlab chiqarish, taqsimlash, qayta taqsimlash va pirovard foydalanishni aniq ko‘rsatadi.

Milliy hisob-kitoblar standart tizimi BMT ning statistika komissiyasi tomonidan ishlab chiqilgan 1953 - yildan qo‘llanib kelinadi. Hozirgi MHTni ishlab chiqishda Nobel mukofoti sovrindorlari – amerikalik iqtisodchi Saymon Kuznets va ingliz iqtisodchisi Richard Stounlar muhim hissa qo‘shdilar. MHTni tuzishga Buyuk Britaniyada (1964 y.), Fransiyada (1949 y.), AQSh da (1947 y.) o‘rinlar bo‘ldi. Sobiq ittifoqda 60-yillarda yig‘ma moliyaviy balansni tuzish ishlari olib borildi, undan amaliyotda foydalanish Rossiyala 90 - yillarning boshiga to‘g‘ri keldi. Hozirgi vaqtda milliy hisob-kitoblardan jahonning 100 dan ortiqroq davlatlarida foydalaniladi.

MHT mamlakatdagi umumiy iqtisodiy muvozanatni aks ettiradi. MHT ni yaxshiroq tushinish uchun bozor xo‘jaligi sube’ktlari tavsifini va bozor operatsiyalari tavsifini bilish zarur. Davlat xo‘jalik agentlarini belgilashning mavjud tartibi bir - biridan ancha farq qiladi, lekin umumiy tavsif shunday qabul qilingan:

1. Nomoliyaviykorxonalar yoki ishlab chiqarish firmalari.
2. Uyxoxo‘jaliklari.
3. Davlat ma’muriy idoralari.

4. Moliyaviy idoralar va tashkilotlar.

5. Chet el (shu mamlakat chegarasidan tashqaridagi xo‘jalik agentlari Bozor xo‘jaligidagi operatsiya nomlari ych katta rpyhga bo‘linadi:

1. Tovar va xizmatlar operatsiyasi (Ishlab chiqarish investitsiya, iste‘mol, import va boshqa operatsiyalar).

2. Taqsimot operatsiyalari (ish haqi, dividendlar ijtimoiy va sug‘urta to‘lovlari va boshqalar.)

3. Moliyaviy operatsiyalar (aktivlar va passivlar o‘zgarishi qimmatbaho qog‘ozlar, valyuta – kredit operatsiyalari va hokazolar) MHTning asosiy tavsifi – bu ikki marta yozish (qayd qilish) tamoyilidir. Bu demak, har qaysi operatsiya to‘lovchi va qabul qilib oluvchi tomonidan bir marta resurslar sifatida va bir marta foydalanish sifatida yoziladi (qayd qilinadi).

Yuqorida ta’kidlanganidek, MHT asosan YaIM harakatini izohlaydi. Yalpi milliy mahsulot – bu yil mobaynida davlat hususiy tadbirkorlar va iste‘molchilar sektorlarida ishlab chiqarilgan mahsulot tovar va xizmatlarning bozor qiymatidir. YaIM hajmini hisoblash va iqtisodiyot hamma sektorlarining tovar va xizmatlarni sotib olish uchun sarf - xarajatlar umumlashtiriladi (ya’ni yarim fabrikatlar qo‘shilmaydi).

Umumlashtirilgan YaIM tuzilishini ushbu formulada ifodalash mumkin:  $YaIM=S+L+G$ , bunda, S - uy xo‘jaligi xarajati, (chiqimi)

L – firmaning xarajati, G – davlat xarajati ramzlar inliz atamasibosh harflari bilan belgilangan.

YaIM – hamma makroqtisodiyot modelidan foydalanadigan bozor iqtisodiyotining asosiy ko‘rsatkichidir.

### **Asosiy tushunchalar**

Milliy hisob-kitoblar tizimi (MHT) BMTning xalqaro ma’lumotlarni butun va saralab umulashtirish, tartibga solish bo‘yicha talabiga javob beradi. Bu o‘zaro bog‘liq jarayonlar majmui bo‘lib, daromadlar hajmini iste‘mol qilishni, jamg‘arma va kapital xarajatlar miqdorini aniqlash uchun belgilangan.

Yalpi ichki mahsulot (YaIM) – yalpi milliy mahsulotning aniq ko‘rsatkichi bo‘lib, rezidentlar ishlab chiqargan hamma tovarlar xizmatlarning qo‘shimcha qiymatidir.

Rezidentlar – shu davlat hududida yashovchi fuqarolardir (chet ellik fuqarolar bundan mustasno). Agar YaIM ko‘rsatkichiga chet eldan olingan ishlab chiqarish omillari bilan shu davlatdagi chet ellik investorlar ishlab chiqarish omillaridan olgan daromadlar o‘rtasidagi farq ko‘shilsa, unda biz YaIM ko‘rsatkichini olamiz.

### **Mavzuning namunali savollari**

1. MHT tushunchasi, uning paydo bo'lishi va rivojlanishi.
2. MHT bilan xalq xo'jaligi balansi o'rtasidagi farq.
3. YaIM markaziy ko'rsatkichi sifatida – YaIM hisoblash usuli.
4. MHT – o'zapo bog'liq ko'rsatkichlar yig'indisi tizimi sifatida.

### **Seminar darslarida muhokama qilish uchun savollar**

1. MHT– bozor iqtisodiyotining makrostatistik modeli.
2. MHTni tuzishda qo'llaniladigan iqtisodiy operatsiyalar va xo'jalik sub'ektlarini guruhlash va tasniflash.
3. Ishlab chiqarish va taqsimot usulining ahamiyati va belgilanishi. YaIMni hisoblashda foydalaniladigan usullar.
4. MHT ma'lumotlarini makroiqtisodiy tahlil qilish yo'nalishlari, uning alohida bloklari va bo'limlari.

### **Mystaqil ta'lim uchun savollar**

1. Hozirgi zamon makroiqtisodiyot statistikasida milliy hisob-kitoblar tizimining o'rni.
2. Makroiqtisodiy tahlil va milliy xo'jalik boshqaruvida MHT ning ahamiyati.
3. MHTning umumiy tuzilishi qanday?
4. MHT va xalq xo'jaligi balansi o'rtasidagi asosiy farqlar nimadan iborat?
5. «Iqtisodiyotsektorlari» tushunchasi va uning MHTdagi o'rni.

### **34 BOB. MILLIY IQTISODIYOTNING NISBATLARI VA MUVOZANATI**

Umuman, milliy iqtisodiy tizimdagi muvozanatlik–bu umumiqtisodiyotning butun holati, bunda iqtisodiyotda asosiy nisbatlarning bir-biriga to‘g‘riligi, moslashuvi, muvofiqlashuvi bo‘lib, ular takror ishlab chiqarish jarayonlarining uzluksizligini o‘zgarmaydigan yoki borgan sari oshishi miqyosida ta‘minlaydi.

Iqtisodiyot fanida iqtisodiyotning beshta asosiy nisbat-mutanosibliklari ajratiladi, ularning bir-biriga moslashuvi balanslashuvga, muvozanatga erishuvni ta‘minlaydi:

1) ishlab chiqarish omillarining nisbatlari (ishlab chiqarishga hos, mehnatga oid va moliyaviy resurslardir) moddiy ne‘matlarni va xizmatlarni ishlab chiqarishi tuzilmasi va ishlab chiqarish resurslarini ishlab chiqarish hajmi hamda tuzilishi bilan bog‘laydigan iqtisodiy ko‘rsatkichlar;

2) jamg‘arma-to‘plamlar nisbati, bular to‘plamlarning me‘yorini ifoda etadigan, ya‘ni mamlakatning milliy daromadidagi o‘sha ulushini ifodalab, uning ishlab chiqarishini kengaytirishga va aniq hajmini olish uchun borishi shartligini ifoda etadi;

3) taqsimot nisbati ishlab chiqarish faoliyatidan keladigan daromadlarning barcha ishlab chiqarish omillarining egalari o‘rtasida o‘zaro nisbatlarni aniqlaydi, ifoda etadi;

4) almashuv nisbati (realizatsiya) ehtiyoj talabi bilan va ishlab chiqarishning hajmi tuzilishi va qiymati bo‘yicha taklif o‘rtasidagi o‘zaro nisbatlarni ifoda etadi;

5) tovar – pul nisbatlari, tovar va pul massasi o‘rtasidagi o‘zaro nisbatlarni ifoda etadi.

Direktiv-rejali tizimda xo‘jalik yuritish asosan yetaklovchi bo‘lib, mutanosiblik omili hisoblangan. Barcha qolganlari bunga moslashgan, muvofiqlashgan edi.

Bozor iqtisodiyotda yetaklovchi bo‘lib, almashuv nisbati hisoblanadi. Bu bozor xo‘jaligining rivojlanishida talabning ta‘sirini aniqlovchi, ifoda etuvchi rolini o‘ynaydi. Talab va taklif o‘rtasidagi muvozanatga erishish bozor sharoitida mamlakat iqtisodiyotining samarali harakat qilishida asosiy ko‘rsatkichlardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Iqtisodiyot fani statik va dinamik muvozanatlarni farqlaydi. Statik muvozanat bo‘yicha omilli nisbatlar o‘zgarmasdan qoladi, shuning uchun iqtisodiyotda muvozanat qolgan barcha nisbatlarning o‘zaroligi bilan aniqlanadi. Statik yondashuv bo‘yicha optimal muvozanat ishlab chiqarish imkoniyatlarini to‘liq foydalanishda erishiladi. Iqtisodiy tizim shunday

muvozanat qobiliyatiga erishgan statik muvozanatni samarali, deb tan oladi. Iqtisodiy tizim dinamik muvozanat bo'yicha ishlab chiqarish resurslarining o'zgaruvchan sharoitida rivojlanadi.

Dinamik muvozanat – bu iqtisodiyotning holatini bunda ishlab chiqarish imkoniyatlarining dinamikasi va iqtisodiy tizim nisbatlarining dinamikasi iqtisodiy o'sish sur'atini doimo o'zaro ta'minlashda erishadi. Iqtisodiyot, mustahkam iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashga qobiliyatli, iqtisodiyot fani dinamik muvozanat samarasini tan oldi.

Uchta tipdagi dinamik muvozanatni ajratish mumkin: resurslar unumdorligining o'sishi bo'yicha; ular unumdorligining o'zgarmasligi bo'yicha; resurslar unumdorligining pasayishi bo'yicha. Optimal bo'lib dinamik muvozanat tan olinadi, agar muvozanat ishlab chiqarish resurslar unumdorligining o'sishi bo'yicha yuzaga kelsa, faqat mana shunday holatda uzoq kelajakda ishlab chiqarish hajmining maksimaligiga erishiladi. Iqtisodiy tahlilning birinchi bosqichida bozor tizimi statik muvozanatda rivojlangan (A.Smitning, D.Rikardoning va boshqalarning siyosiy iqtisodiyoti). J.Keyns va uning izdoshlari davlatning iqtisodiyotini tartibga solish konsepsiyasini uning statik samaradorligini oshirish maqsadida ishlab chiqqan.

Neoklassik yo'nalishdagi iqtisodchilar, statik muvozanat nazariyasini ishlab chiqishni davom etkaza turib, umumiy muvozanat nazariyasini yaratdilar, uning asosi L.Valras modeli bo'ldi, statik muvozanatning matematik nisbat ifodasini tadqiqot qilishga o'ringan.

XX asrning ikkinchi yarmida fan-texnika inqilobi (FTI) ta'siri ostida g'arb mamlakatlarining iqtisodiy tizimi ishlab chiqarish resurslar unumdorligining o'sishi bo'yicha dinamik muvozanatni qo'llab-quvvatlash zarurligi sharoitida rivojlana boshladi. Shu bilan birga optimal statik muvozanat iqtisodiyot fanida faqat iqtisodiy dinamik muammolarini tahlil qilishga yordam beruvchi sifatida ko'rib chiqiladi.

Ishlab chiqarish resurslar unumdorligining o'sishi sharoitida iqtisodiyot tizimi turg'unlikdan mahrum etilgan va amaliyotda dinamik muvozanatni qo'llab-quvvatlash bozor bilan ham, davlatning tartibga solishda ham hal etilmayapti.

Direktivli-rejali tizimda muvozanat (balanslashuv eskicha talqin qilinishida) va davlat organlari faoliyatining natijasi bo'lgan edi. Rejalashtirishning asosida balanslashuv usuli yotar edi, uning mohiyati rejalashtirilgan ehtiyoj (rejalashtirilgan organlar bilan davlat uchun qo'yilgan maqsad aniqlanar edi) va naqdli ishlab chiqarish resurslarining ularni ushbu samara bo'yicha foydalanish o'rtasidagi o'zaro nisbatga erishishdan iborat edi. Bunday yondashuv bo'yicha rejali iqtisodiyotda muvozanatga erishish asosan,

statik muvozanat sifatida, uzoq davom etmaydigan statik samaradorlik bilan asosiy iqtisodiy nisbatlarning o‘zaro muvofiqlashtirilmagan, bir-biriga to‘g‘ri kelmaydigan natijalari bilan (avvalambor, ishlab chiqarishning 1- va 2-bo‘limlari, to‘lovga qobiliyatli talab va iste‘mol tovarlarini taklif qilish va boshqalar o‘rtasidagilar rivojlanib kelar edi.

Bozor islohotlarning sobiq ittifoq tarkibidan chiqqan mamalakatlarda maqsadi – iqtisodiyotini dinamik samarali bozor iqtisodiyotiga aylantirishdan iborat edi. Ammo bir qancha mamlakatlarda dinamik samarali muvozanatni avtomatik ravishda o‘rnatish haligacha yuz bermadi. Oldingi davlatning tartibga solish strukturasi buzilgan, yangicha, haqiqiy bozor bir bor, bir yo‘q bo‘lib kelmoqda. Balanslashuvning buzilishi barcha beshta turdagi makroiqtisodiyot nisbatlarida kuzatilmoqda.

Ishlab chiqarish resurslar unumdorligining o‘shishi sharoitida dinamik muvozanatga erishish og‘irlashgan, sababi FTI resurslarining samaradorligini oshirishda asosiy omil sifatida ishlab chiqarish strukturasi miqdoriy va sifatli ehtiyojlariga ishlab chiqaruvchilarning, iste‘molchilarning, aholining bandligiga va boshqalarga jiddiy o‘zgarishlar kiritadi. Ishlab chiqarish resurslar samaradorligini oshirish o‘zining orqasidan jamg‘armaga va iste‘molga daromadlarini taqsimlash, almashuv nisbatlariga zaruriy o‘zgarishlar olib kiradi.

Hozirgi vaqtda kapitalistik iqtisodiyot birinchi texnikaviy yutuqlarning realizatsiya va mehnat unumdorligining o‘shishi bilan turg‘unligini yo‘qotmoqda va beqarorlikka aylantirilmoqda. Insoniyat faoliyatining barcha sohalariga yangilik kiritilishining o‘sib borishi bilan nomutanosiblik ko‘paymoqda va makroiqtisodiy nisbatlarni o‘zaro moslashishga yo‘naltirilgan davlat tartibi ta’sirining o‘shishiga qaramasdan muvozanatga erishish uchun imkoniyatlar kamaymoqda.

Bozor iqtisodiyoti fan-texnika taraqqiyoti ishlab chiqarish resurslari samaradorligining oshishi ta’siri ostida dinamik beqarorlikka aylantirilmoqda, bu yerda muvozanat faqat lahza sifatida chiqmoqda, inqiroz ko‘rinishida ro‘y bergan takror ishlab chiqarish jarayonlaridagi qisqacha fazalar, zo‘rlik bilan erishilgan nisbatlar yuz beradi.

### **34.1. Makroiqtisodiyot muvozanat nazariyasi**

Makroiqtisodiyot muvozanatga erishish barcha bozorlarda bir vaqt ichidagi muvozanatdek, ya’ni butunlay iqtisodiy tizimning muvozanati sifatida – amaliy jihatdan murakkab amalga oshiradigan vazifadir. Uni hal etish ayniqsa, iqtisodiy o‘shishning intensiv tipidagi afzallik sharoitida og‘irlashgan,

uning uchun barcha ijtimoiy-iqtisodiy o‘zaro bog‘liqliklardagi miqdoriy va sifatli o‘zgarishlar jiddiy xarakterga ega bo‘lishi kerak.

Shu bilan birga, makroiqtisodiy muvozanatga erishish ijtimoiy-iqtisodiy tizimning samarali rivojlanishi uchun juda ham muhimdir. Ya’ni bu muammo iqtisodiy nazariya va amaliyotning e’tiborisiz tashqarida mumkin emas. Nihoyatda makroiqtisodiy muvozanatlikka erishish ishlab chiqarishda va iste’molda taklif va talabda, ishlab chiqarish sarf-xarajatlari va natijalari, moddiy-ashyoviy va pul oqimlaridan mutanosiblikni va nisbatlarni bildirar edi. Bu o‘z navbatida har bir xo‘jalik yuritish va makrotizim sub’ektlariga ularning o‘zaro moslashuvi bo‘yicha iqtisodiy manfaatlarni amalga oshirishdan darakdir.

Boshqacha qilib aytganda, makroiqtisodiy muvozanat – bu barcha ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning optimal o‘zaro nisbatini milliy iqtisodiyotda miqdoriy va sifatli o‘zaro bog‘liqligidir. Bu mamlakat eng qulay sharoit darajasida tizimning iqtisodiy va ijtimoiy samarasi harakatini umumlashtiradigan ko‘rsatkich bo‘lib xizmat qiladi. Ammo eng qulay sharoitga erishishga o‘rinish – bu ijtimoiy-iqtisodiy tizimning rivojlanishida ideal holatga erishishga intilish bo‘lib, albatta, bu amaliy jihatdan yuzaga chiqmaydigan orzulardir.

Qonuniy mulkchilik sharoitida barobar bo‘lgan iqtisodiy tizimni yaratishga o‘rinish – davlatga va markazlashgan direktiv rejalar muvaffaqiyat bilan shug‘ullanadi. Sobiq ittifoqda barcha xalq xo‘jaligi planlaridagi nisbatlar va mutanosibliklar kelishgan, bir-biriga to‘g‘rilangan edi, ammo amalda bitta plan nomutanosibliksiz bajarilmagan edi. Piroard natijada sobiq sovet iqtisodchilari mutanosibliklarga nomutanosibliklar orqali erishishni tan olgan edilar.

Shu bilan birga, makroiqtisodiy muvozanatlarning muammolarini amaliyotda hal etishning imkoniyati yo‘qligiga qaramasdan nafaqat bozor tizimida, balki direktiv-rejali tizimda ham iqtisodiyot fani bozor munosabatlari sharoitida ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarning o‘zaro bog‘liqliklarini ob’ektiv ravishda tushunib, ko‘proq muvaffaqiyatli o‘rinishlarni qo‘llamoqda. Bu tadqiqot nafaqat bilishga oid, balki amaliy xarakterga ham ega va shuni ob’ektiv ravishda tushuntirish kerakki, nisbiy o‘zaro bog‘liqlikni imkoniyati boricha miqdoriy baholab, shu bilan davlatning tartibga solishining samarasini oshirish va iloji boricha makroiqtisodiy nomutanosiblikdan ijtimoiy-iqtisodiy yo‘qotishni kamaytirish zarurdir.

Oldindan ko‘rib chiqilgan K.Marksning, L.Valrasning, J.Keynsning, V.Leontevning makroiqtisodiy modeli, iqtisodiy o‘sish omillarining makroiqtisodiy modeli – bular barchasining o‘rinishi bozor tizimida



makroiqtisodiy o‘zaro bog‘liqlikning ob‘ektiv tadqiqoti katta yoki kichik natijasi bilan amaliy xarakterga ega.

Hozirgi zamon iqtisodiyot fani makroiqtisodiy nazariyaning yalpi talab va yalpi taklifining rivojlanishiga o‘zining ulushini qo‘shdi. Ushbu muammoga e‘tiborning kuchayishi tamoman tushunarli. Ushbu kategoriyalarning mazmuni haqida ob‘ektiv tasavvur qilish, ularning o‘zaro nisbati va makroiqtisodiy muvozanati bozor iqtisodiyotining asosiy muammolaridan birini hal etishga yordam beradi – almashish, jamiyatda yaratilgan tovar va xizmatlarni realizatsiya qilish, albatta, ularni hal etmasdan kelgusi takror ishlab chiqarish sikllarini hal etish amalda imkoniyati yo‘q.

Yalpi talab va yalpi taklifning o‘zaro nisbati makroiqtisodiy muvozanatni ifoda etadi.

### **34.2. Makroiqtisodiy muvozanatning turlari**

Yuqorida qayd etilganidek, makroiqtisodiy muvozanat milliy iqtisodiyotning rivojlanishida balanslashuvni va nisbatlarni bildiradi. O‘z navbatida ishlab chiqarish bilan iste‘mol, yalpi talab va yalpi taklif, tovar massasi va uning pul elementlari, jamg‘arma va investitsiyalar, mehnat, kapitallar, iste‘mol ne‘matlari va bozor o‘rtasidagi muvofiqlikka erishishi shart. Muvozanat amalda juda ham uzoq muddatda erishishga imkoniyat yo‘q, sababi bozor iqtisodiyoti doimo harakatda, uning alohida qismlari va sohalarining rivojlanishi notekis ro‘y beradi, shuning uchun muvozanat holati buziladi. Bu ishsizlikda, inflyatsiya jarayonlarida, ishlab chiqarishning tushib ketishida, aholi real daromadlarining pasayib ketishida yuzaga keladi. Shu bilan birga, milliy iqtisodiyotning rivojlanishida doimo og‘ish va buzilish ro‘y beradi. Agar muvozanat buzilmaganda edi, unda rivojlanish ham bo‘lmas edi. Milliy iqtisodiyotning muvozanati faqat bozor muvozanatiga olib kelmaydi, sababi iqtisodiyot boshqa – siyosiy, ijtimoiy demografik omillarning ta‘sirini ham boshidan kechiradi.

Iqtisodiyotda muvozanat har xil turlarga ega bo‘ldi:

1. *Qisqa muddatli (joriy) va uzoq muddatli muvozanat.*

2. *Ideal va real muvozanat.* Ideal muvozanat iqtisodiy tizimning nazariy jihaidan istalgan, orzu qilingan optimal balansga keltirishi, uning ideal mutanosibliigi va nisbati. Unig dastlabki erishgan mukammal raqobatchiligining naqdligi va bozorning tashqi samaradorligining yo‘qligi. Ba‘zan ideal muvozanat to‘liq deb ham ataladi. Real muvozanat – bu haqiqatiy muvozanat bo‘lib, nomukammal raqobatchilik sharoitida va bozorning tashqi samarasining naqdligi bo‘yicha mavjud bo‘ladi.

3. *Qisman va umumiy muvozanat.* Qisman muvozanat – iqtisodiyot alohida tarmoq va sohalarda, alohida bozorlarda o‘rnatilgan muvozanatdir. U iqtisodiyotning ikki tomoni muvozanatini bildiradi, masalan, ishlab chiqarish va iste‘mol, xarid qilish qobiliyati va tovar massasi, talab va taklif hamda bozor tizimining alohida qismlari doirasida erishiladi, shuning uchun ham qisman muvozanat, deb ataladi. Qisman muvozanat tahlilining asosi A.Marshallning asarlarida yaratilgan. Ammo bu yerda gap butunlay milliy tizim haqida ketayotgan bo‘lsa, unda qisman muvozanat tahlili yetarli darajada emasligi bo‘ladi, shuning uchun umumiy muvozanat zarur. Umumiy muvozanat – bu yuqorida qayd etilganidek, iqtisodiy tizimning butunlay muvozanatda bo‘lishidir. U ijtimoiy maqsadlarning va bor bo‘lgan iqtisodiy imkoniyatlarning muvofiqligini ko‘zda tutadi; iqtisodiyotning barcha bor bo‘lgan resurslaridan foydalanish holatini tahlil qiladi; ya‘ni ishlab chiqarishning umumiy strukturasi iste‘molning muvofiqligini bildiradi. Umumiy iqtisodiy muvozanatning tahlili uning buzilish sabablarini aniqlamoq uchun zarurdir.

4. *Turg‘un va mutasil muvozanat.* Agar muvozanatni buzadigan tashqi to‘rtki bo‘lsa, unga o‘zining barqaror holatiga qaytishi, turg‘un muvozanat, deb ataladi. Agar iqtisodiyot tashqi ta‘sirdan keyin mustaqil ravishda o‘zini tiklay olmasa, unda muvozanat mutasil, deb ataladi.

Makroiqtisodiy muvozanat sharoitlariga quyidagilar kiradi:

1. Ishlab chiqarishning haqiqiy darajasi ishlab chiqarish hajmining imkoniyatiga teng bo‘lishi ( $Y = Y^*$ ).

2. Inflyatsiyaning haqiqiy darajasi kutiladigan inflyatsiyaga teng bo‘lishi ( $n = n_e$ ).


3. Ishsizlikning haqiqiy darajasi uning tabiiy darajasiga teng bo‘lishi ( $U = U^*$ ).

4. To‘lov balansi saldosini (qoldig‘i) nolga teng bo‘lishi ( $VR=0$ ).

Muvozanatning buzilishi o‘z navbatida yalpi ichki mahsulotning yo‘qotilishiga, aholi darajalarining pasayishiga, inflyatsiyaning, ishsizlikning o‘shishiga olib keladi.

### **34.3. Retsession va inflyatsion farq.**

Retsession farq – bu muvozanat yalpi ichki mahsulotni to‘liq balansning noinflyatsiyaviy darajasigacha ko‘tarish uchun, yalpi talabning (yalpi xarajat) o‘shishi shart bo‘lgan o‘lchamdir.



**34.1 -chizma**

Agar mahsulot ishlab chiqarishning haqiqiy muvozanatli hajmi  $Y_0$  imkoniyatli  $Y^*$  dan past bo'lsa (34.1-chizma), unda bu deganimiz, nimadir yalpi talab samarasiz, ya'ni yalpi xarajatlar resurslarning to'liq bandligini ta'minlash uchun  $AD = AS$  ning muvozanatiga erishilganiga qaramasdan yetarli emas. Yalpi talabning yetarli emasligiga iqtisodiyotga depressivli ta'sir ko'rsatadi.

**Retcession farqi** bardosh bilan yengish va resurslarning to'liq bandligini ta'minlash uchun, yalpi talabni rag'batlantirish zarur va muvozanatni  $A$  nuqtadan  $V$  nuqtagacha o'zgartirmoq kerak. Bu yerda muvozanat yalpi daromadining  $\Delta Y$  ko'payishi.

$$\Delta Y = \text{retsession farq o'lchami} \times \text{multiplikatorning avtonomlik xarajatlari o'lchamini tashkil etadi}$$


**Inflyatsion farq** – bu muvozanatli yalpi ichki mahsulotni to'liq bindlikning inflyatsiyaviy darajasigacha pasaytirish uchun, yalpi talabning (yalpi xarajat) qisqarishi shart bo'lgan o'lchamdir.

Agar mahsulot ishlab chiqarish darajasininig haqiqiy muvozanat  $Y_0$  (34.2-chizma) imkoniyatli  $Y^*$  katta bo'lsa, unda bu yalpi xarajatlar ortiqcha deganidir. Iqtisodiyot yalpi talabning ortiqchaligi inflyatsiyaviy bumni chaqiradi: narx-navo darajasi o'smoqda, shunga ko'ra firmalar o'sib kelayotgan yalpi talabga o'xshash ishlab chiqarishni kengaytira olmaydilar, sababi barcha resurslar oldindan band bo'lgan.

Inflyatsion farqni bardosh bilan yengish yalpi talabni to'xtatishni va muvozanatni  $A$  nuqtadan  $V$  nuqttagacha o'zgartirishni taxmin qiladi (resurslarning to'liq bandligida). Bu yerda muvozanatli yalpi daromadning  $\Delta V$  qisqarishini tashkil etadi.


$$\Delta V = \text{inflyatsion farq o'lchami} \times \text{multiplikatorning avtonomlik xarajatlari o'lchamini}$$

«Tejamkorlik paradoksi» – jamiyatning ko'proq tejab-tergab jamg'arma qilishga o'rinishi shunday yoki kichiqroq hajmdagi jamg'armaga aylantirmoqda. Agar jamg'armaning o'sishi investitsiyaning o'sishi bilan kuzatilmasa, unda uy xo'jaligining har qanday ko'proq hajmda tejab-tergab jamg'arma qilishga o'rinishi multiplikatsiyaviy samara bilan shartlandi.



34.2- chizma

Muvozanatli ichki mahsulotning ancha-muncha pasayishi bilan birga bog'liqlikda natijasiz bo'lishi mumkin.



34.3-chizma

Iqtisodiyot  $A$  nuqtada boshlanadi (34.3-chizma). Ishlab chiqarishning pasayishini kutishda uy xo'jaligi ko'proq jamg'arma qilishga o'rinadi: jamg'arma grafigi  $S$  dan  $S^*$  gacha o'zgaradi, investitsiya esa o'zining  $i$  darajasida qoladi. Natijada, iste'mol xarajatlari nisbatan pasayadi, bu multiplikator samarasini va yalpi daromadning  $Y_0$  dan  $Y_1$  gacha pasayishini ko'rsatadi. Sababi yalpi daromad  $Y$  pasayadi, unda jamg'arma  $V$  nuqtada  $A$  nuqtasidek, shunday qoladi.

Agar bir vaqtda jamg'armaning  $S$  dan  $S^*$  o'sishi bilan rejalashtirilgan investitsiya ham  $i$  dan  $i'$  gacha o'sadigan bo'lsa, unda mahsulot ishlab chiqarishning muvozanat darajasi  $Y_0$  va ishlab chiqarishning pasayishi yuz bermaydi. Masalan, ishlab chiqarish strukturasi investitsiyaviy tovarlar ustunlik qiladi, bu o'z navbatida iqtisodiy o'sish uchun yaxshi sharoit tug'diradi, ammo nisbatan aholining joriy iste'molini cheklaydi. Shu bilan birga, bir-biriga zid bo'lgan tanlov yuzaga keladi: yoki kelajakda joriy iste'molni nisbatan cheklash yoki uzoq muddatli iqtisodiy o'sishning sharoitini yomonlashishi hisobiga iste'molni cheklashdan bosh tortishga to'g'ri keladi.

### **Qisqacha xulosalar**

Iqtisodiy **nazariyadagi** asosiy tadqiqot qilish usuli yuqorida **aytilganlarda bu muvozanatli tahlil** usuli bo'ladi. Bular u yoki boshqa tovar bozorlarida talab va taklif muvozanati hamda talab va taklifni o'zaro bog'langan tovarlar – mehnat, kapital bozorlarida tenglashuvdir.

Endi shunday savol tug'ilishi **mumkin** – bunday muvozanat tenglashuvi makro miqdorda, **ya'ni milliy daromad, investitsiyalar, jamg'arma, bandlik va boshqalarda qo'llaniladimi?** Bu savolarga javob ijobiy bo'ladi. Bu **iqtisodiy nazariya fanining markaziy muammosi** va uning ichki mazmunini belgilovchi **jihatdir**.

**Endi buni butun iqtisodiyot miqyosida olsak, birinchi navbatda muvozanat jamiyatning daromadi va xarajati (chiqimi) o'rtasida bo'ladi.** Bunday o'ziga xoslik muvozanat yalpi **taklif yaratilgan milliy daromadda** va yalpi talab (foydalanilgan milliy **daromadda**) **o'rtasida o'z ifodasini topadi.**

Bular ishlab chiqarishning maxsuslanishida va korporatsiyalanishida muammoning kelib chiqishi va doimiy rivoji ijtimoiy mehnat taqsimotidagi taraqqiyot bilan uzviy bog'liqdir. Bundan tashqari tarmoqlar orasidagi aloqalar turli-tuman omillar ta'siri ostida doimo o'zgaradi: texnologik jarayon, ishlab chiqarilayotgan mahsulot assartimenti, talabning o'zgarishiga va hokozolar. Bu yerda ushbu aloqalarni to'xtovsiz ushlab turish zaruriyati kelib chiqadi. Nazorat jihatdan ikki holat mumkindir: **1)** yuqorida qayd etilgan omillarni

o'zgarishligi holatida iqtisodiyot sub'ektlari o'rtasida aloqalar doimiydir. 2) real dinamik holatda aloqalar to'xtovsiz o'zgarishda bo'ladilar. Bu «muvozanat– muvozanatsizlik», deb atash qabul qilingan holatdir. Bu aspektda iqtisodiyotning shunday jarayonlardan tuzilgan, bizni o'rab turgan tabiatdan hech bir jihati bilan farq qilmaydi, «muvozanat–muvozanatsizlik» bozorlarining iqtisodiy agentlari faoliyati va davlatning iqtisodiy faoliyatini ta'minlashga qaratilgan o'sha holatining haqiqiy nomidir.

Umuman, samarali taklif va talab ishlab chiqarish xizmatlariga va mahsulotlariga har qaysi o'z bozorlarida tenglashtiriladi, ya'ni xizmatlar va mahsulotlar bozorida; mahsulotlardagi samarali taklif va talab mahsuloti bozorida tenglashadi va nihoyat sotuv narxi ishlab chiqarish xizmatlari ifodasida, ishlab chiqarish xarajatlariga teng bo'ladi.

Umumiy muvozanat to'g'risidagi yangicha tadqiqot bir qator muhim qo'shimchalar qilishga ijozat beradi. Bular orasida asosiy ahamiyatga quyidagilar ega: birinchidan, iqtisodiy nazariya barqarorlashgan muvozanat bilan ish olib bormaydi, balki **doimo** uning buzilishiga, ya'ni obrazli aytganda, «muvozanat–muvozanatsizlik». Bundan uchta jiddiy xulosa chiqarish mumkin. Birinchidan, muvozanatni abstraktlashgan ideal modeli sifatida qapash kerak: bu hech qachon bo'lmagan va bo'lishi mumkin emas, lekin tadqiqotni shundan boshlash zapyp. Ikkinchidan, muvozanat dinamikali optimal muvoznatsizlikdir. Bu degani, parxning qiymatdan, natijalarining xarajatdan og'ishini bildiradi, ya'ni bu bozor iqtisodiyotining ichki o'ziga xos, uning harakatida va rivojlanishida pozitiv rol o'ynaydi. Va nihoyat uchinchidan, muvozanat muvozanatsizlik sifatida salbiy, halokatli rol o'ynaydi, iqtisodiy sub'ektlarni ularning va butun jamiyatning ichki manfaatiga qaramasdan majburlaydi.

### Asosiy tushunchalar

**Makroiqtisodiy** muvozanat – bozorda taklif qilingan yalpi mahsulot **miqdori yalpi talab** miqdoriga teng bo'lib, narxining yagona miqdoridir. Yalpi **talabning egri chizig'i AD** va taklifning **AS** va **Ye** nuqtasi iqtisodiy **muvozanat holatini qayd** qiladi.

Multiplikator agregat miqdori va uning strukturali qismi orasidagi o'zaro nisbatni xarakterlovchi koeffitsiyent. Multiplikatorning sonli ahamiyati birdan kam bo'lishi mumkin emas. Pirovard mahsulotning va buning tarkibiga kiruvchi kapital mablag'lar orasidagi o'zaro nisbat xarakterlash uchun kiritilgan.

### **Mavzuning namunali rejalari**

1. Makroiqtisodiy (umumiy) muvozanatning qisman mohiyati.

«Muvozanat–muvozcizlik»

Milliy iqtisodni iqtisodiy samarali rivojlanishi uchun makroiqtisodiy muvozanatni ta'minlashning zarurligi.

2. Yalpi talab va yalpi taklif. Yalpi talab va yalpi taklif egri chizig'i.

3. Milliy mahsulot dinamikasiga yalpi xarajatning ta'siri. Multiplikatsion jarayonlarning mazmuni. Multiplikator tushunchasi. Milliy xo'jalikning tarmoq strukturasi va multiplikator. Multiplikatorlarning amaliy ahamiyati.

### **Seminar darslarida muhokama qilish uchun savollar**

1. A.Smitning «Ko'rinmas qo'l» va «Xalqlar boyligining tabiyati va sabablari to'g'risidatadqiqot» nazariyasi boshlang'ich tadqiqot sifatida.

2. Bozor iqtisodiyotining g'arb mamlakatlarida (**Yevropa va AQSh**) shakllanishining tarixiy tajribasi.

3. O'zbekistonda bozor iqtisodiyoti shakllanishining mazmuni va asosiy davri. O'zbekiston **iqtisodiy** islohotlarining asosiy dasturi.

4. V.Pareto bo'yicha umumiy muvozanat va optimallashtirish.

5. Bozor iqtisodiyotning iqtisodiy-matematik modeli. V.Leontev modeli va uning mazmuni, uning amaliy qadriyati.

### **Mustaqil ta'lim uchun savollar**

1. Davlatiqtisodiy siyosatining negizi bozor iqtisodiyotining shakllanish davrida har qanday yo'l bilan makroiqtisodiy muvozanatga intilishi shart, bu to'g'rimi? Bu qanday mo'ljallangan maqsadga erishishga, uning tezligiga va imkoniyatiga ta'sir qiladi?

2. Valrasning tenglamasi nomukammal bozor sharoiti uchun qanday o'zgaradi?

3. Misol taklif qiling, qachon iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish tanqis bo'lsa, ishlab chiqarish omillari narxining o'sishiga olib keladi?

### 35 BOB. YALPI TALAB VA YALPI TAKLIF

Makroiqtisodiyotda model **AD-AS** iqtisodiyotda ishlab chiqarish hajmi va narx darajasining tebranishi, ularning sabab va oqibatlari o'zgarishining asosi bo'lib hisoblanadi. Buning yordamida davlat iqtisodiy siyosatining har xil variantlari yorqin tasvir etiladi.

**Yalpi talab** iqtisodiyotda ishlab chiqarilgan pirovard tovar va xizmatlarga barcha sarf-xarajatlarning yig'indisini tasavvur etadi. U iqtisodiy agentlar tomonidan yalpi ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmiga qilingan talab va iqtisodiyotda narx-navo darajasi o'rtasidagi bog'liqlikni aks ettiradi.

Ishlab chiqarish tomonidan cheklanishning yo'qligi hamda qattiq inflyatsiyaning cheklanganligida yalpi talabning o'sishi narx-navoning darajasiga uncha ko'p bo'lmagan ta'sirini ko'rsatish bilan birga ishlab chiqarishning hajmini va bandlikning ko'payishini rag'batlantiradi. Iqtisodiyotga bunday ta'sirni XX asrning 30-yillarida AQShda davlatning yalpi talabni rag'batlantirish siyosatini misol qilib ko'rsatadi.

Agar iqtisodiy to'liq bandlik holatiga yaqin bo'lsa, unda yalpi talabning o'sishi ishlab chiqarishning ko'payishini emas, narx-navoning o'sishiga olib keladi.

Yalpi talabning tuzilishida quyidagilarni ajratish mumkin:

- 1) iste'molchi tovar va xizmatlarga talab;
- 2) investitsiyaviy tovarlarga talab;
- 3) davlat tomonidan tovar va xizmatlarga talab;
- 4) chet elliklar tomonida bizning eksportga talab (yalpi talab sof eksportga, agarda birinchi ko'rsatilgan uchta tarkibiy qismga import talabi ko'rsatilgan bo'lsa).

Yalpi talabning bitta tarkibiy qismi nisbatan barqaror bo'lib asta-sekin o'zgaradigan bo'lsa, masalan, iste'molchi sarf-xarajatlari, boshqasi ko'proq dinamik ravishda bo'ladi, masalan, investitsiyaviy sarf-xarajatlar, ularning o'zgarishi iqtisodiy faollikning tebranishiga sabab bo'ladi.

Yalpi talabning **AD** egri chizig'i (ing. demand agregati) iste'molchilarning tovar va xizmatlarini narx-navoning har qanday darajasida sotib olishga tayyor ekanligini ko'rsatadi. U iqtisodiyotda ishlab chiqarishning va narx-navoning umumiy darajasida shunday birikmalarini beradi, ya'ni bu yerda tovar va pul bozorlarining muvozanatda bo'lishini bildiradi.

**AD** egri chiziq uzunasidagi harakati yalpi talabning o'zgarish narx-navo umumiy darajasi dinamikasiga bog'liqligini aks ettiradi. Bu bog'liqlikning ko'pincha oddiy ifodasini pul nazariyasining miqdoriy tenglamasidan olish mumkin:



$$MV = PY, \text{ bu yerda, } P = \frac{MV}{Y} \text{ yoki } Y = \frac{MV}{P}$$

bu yerda, **P** – iqtisodiyotda narx darajasi, ushbu holatda narx indeksi;

**Y** – ishlab chiqarishning talab qilingan haqiqiy hajmi;

**M** – iqtisodiyotda pul miqdori;

**V** – pul muomalasi tezligi.


**AD** egri chizig‘ining salbiy qiyaligi kelgusi holatda tushuntiriladi: narx darajasi **P** qanchalik yuqori bo‘lsa, pul vositalarining **M/P** haqiqiy zaxirasi shunchalik kam (**AD** egri chizig‘i pul taklif **M** va ularning muomala tezligi **V** aks ettirilishi sharoitida tuziladi), shunday qilib, talab qilingan **Y** tovar va xizmatlarning miqdori ham kam bo‘ladi.

Yalpi talab va narx darajasining o‘rtasidagi o‘lchamining teskari bog‘liqligi hamda foiz stavkasining samarasi, boylik samarasi, import xaridi samarasi bilan tushuntiriladi. Masalan, narx-navoning o‘ssishi pulga talabni kuchaytiradi. Pul taklifining o‘zgarishligi bo‘yicha ularga talabning o‘ssishi foiz stavkasini ko‘paytiradi, bu o‘z navbatida iqtisodiy agentlarning kredit olish bilan bog‘liq bo‘lgan sarf-xarajatlarini qisqartiradi, demak, yalpi talab hajmini pasaytiradi. Narx-navoning o‘ssishi hamda jamg‘arilgan moliyaviy aktlarning belgilangan qiymatini (obligatsiyalar, zaruriy hisob-kitoblar) haqiqiy sotib olish qobiliyatini pasaytiradi, bular o‘z navbatida ularning egalarini kambag‘allashtiradi va sarf-xarajatlarni qisqartirishni majburlaydi. Mamlakat ichida import tovarlariga narx-navoning barqarorligida narx-navoning o‘ssishi talabning bir qismini ichki tovarlardan import tovarlari zimmasiga olib qo‘yadi va eksportni qisqartiradi hamda iqtisodiyotda yalpi talabni pasaytiradi.

### 35.1. Yalpi talabning narxsiz omillari

Yalpi talabning narxsiz omillariga iste‘molchilarning barcha sarf-xarajatlariga ta‘sir etadigan uy xo‘jaliklari, firmalarning investitsiyaviy sarf-xarajatlari, davlat sarf-xarajatlari, sof eksport, iste‘molchilarning farovonligi, ularning kutilishi, soliqlar, foiz stavkalari, investorlarning subsidlari va kredit olishga imtiyozlari, valyuta kurslarining tebranishlari, tashqi bozorlardagi sharoitlar va boshqalar kiradi. Pul nazariyasiinning miqdoriy tenglamasi ham yalpi talabning ikkita narxsiz omillarini beradi: pul taklifi **M** va ularning muomala tezligi **V**. Narxsiz omillarning o‘zgarishi **AD** egri chizig‘ining surilish grafigida aks ettiriladi. Masalan, pul taklifining ko‘payishi (yoki ularning muomala tezligi) va iqtisodiyotda to‘lov qobiliyatiga ega talabning o‘ssishiga muvofiq, grafikda **AD** egri chizig‘ining o‘ngga surilishi (35.1-

chizma) aks ettiriladi, jahon bozorida neftga va gazga talabning pasayishi hamda shunga muvofiq eksportning qisqarishi esa, grafikda  $AD$  chapga surilishi (35.2-chizma) aks ettiriladi.



**35.1. chizma 35.2- chizma**

Ko‘pincha qandaydir narxsiz omillarning bevosita yalpi talabga ta’siri yakkayu-yagona emas va yakuniy samarani baholash uchun qo‘shimcha tahlil talab etiladi. Shunday qilib, davlatning sarf-xarajatlarini ko‘payishi bevosita yalpi talabning o‘shishiga olib keladi. Ammo bu sarf-xarajatlarning obligatsiyalarini sotish orqali moliyalashtirib, davlat pul bozoridan resurslarining bir qismini oladi, ya’ni iqtisodiyotda pul taklifining va xususiy sektorlar tomonidan ularga talabning umumiy o‘zgarishligida foiz stavkasini ko‘paytiradi.

Bu o‘z navbatida xususiy sektorlarning investitsiyaviy faoliyatini, iste’molchilarning qimmatbaho tovarlarni sotib olishda murakkablashadi, ya’ni yalpi talabning boshqa tarkibiy qismlarini qisqartiradi.

Yalpi taklif – bu iqtisodiyotda ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarning umumiy miqdori (qiymat ifodasida) bo‘lib hisoblanadi. Bu tushuncha ko‘pincha yalpi milliy mahsulotlarning ma’nodoshligi (ichki mahsulot) sifatida foydalaniladi.

Yalpi taklifning egri chizig‘i  $AS$  – iqtisodiyotda narx-navoning umumiy darajasining har xil ma’nosi bo‘yicha ishlab chiqaruvchilar tomonidan bozorda ishlab chiqarilgan mahsulotning qanday yalpi hajmi taklif qilinishi mumkinligini ko‘rsatadi.

### **35.2. Yalpi taklifning narxsiz omillari**

Yalpi taklifning narxsiz omillari bo‘lib texnologiyalardagi o‘zgarishlar, resurslarga narxlar, firmalarning soliq to‘lovi va boshqalar hisoblanadi, bular grafikada  $AS$  egri chizig‘ini surish bilan aks ettiriladi. Masalan, iqtisodiyotda nefey va fexfiy mahsulotlari narxning to‘satdan oshib ketishi sarf-xarajatlarning o‘shishiga va narx-navoning ushbu darajada taklif hajmining

pasayishiga olib keladi, bu grafikada *AS* egri chizig'ining surilishida talqin qilinadi.

Tabiat sharoitining kutilmagan yaxshi ta'siri ostida yuqori hosildorlik yalpi taklif hajmini ko'paytiradi va agrafikning *AS* egri chizig'ining o'ngga surilishida aks ettiriladi.

Klassik va Keyns maktablarida *AS* egri chizig'i har xil talqin qilinadi. Yalpi taklif o'lchamining bir xil omillarning ta'siri ostida o'zgarishini, ya'ni yalpi taklif har xil bo'lishi mumkinligini faraz qilamiz. Bu bizning yalpi talabning qisqa vaqt ichida o'zgarishining hisobga olishimizga bog'liq yoki bizni ushbu omillarning uzoq vaqt davomida ta'siri qiziqtiradi. Makro iqtisodiyotda qisqa muddatli (odatda, 2–3 yil) va uzoq muddatli davrlar o'rtasidagi farqi asosan, nominal va real o'zgaruvchanlik qoidalari bilan bog'laydi. Qisqa davr mobaynida nominal o'lchamlar (narx- navo, nominal ish haqi, nominal ish foiz stavkasi) bozorning tebranishi ta'siri ostida asta-sekin o'zgaradi. Odatda, bularning nisbatan «qat'iyli» haqida gapiradilar. Real o'lchamlar (ishlab chiqarish hajmi, bandlik darajasi, real foiz stavkasi) ko'pincha xarajatlanadigan, «egiluvchan bo'ladi». Uzoq muddatli davrlarda, aksincha, natijada, nominal o'lchamlar yetarli darajada qattiq o'zgaradi. Ularning «egiluvchan», deb hisoblaydi, real o'lchamlar esa, juda ham asta-sekin almashtiriladi, shuningdek ham tahlilning qulayligi uchun ularni ko'pincha doimiy, deb hisoblaydilar.

Klassik model iqtisodiyotning uzoq muddatli hulqini tasvirlaydi. Yalpi taklif tahlili klassik nazariyalarda kelgusi sharoitlardan kelib chiqqan holda tuziladi:

- ishlab chiqarish hajmi faqat ishlab chiqarish omillarining miqdori (mehnat va kapital) va texnologiyalarga bog'liq bo'lib, narx-navolarning darajasiga bog'liq bo'lmaydi;

- ishlab chiqarish omillarining va texnologiyalarning o'zgarishi asta-sekin ro'y beradi;

- iqtisodiyot ishlab chiqarish omillarining to'liq bandlik sharoitida harakat qiladi. Shunday qilib, ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi imkoniyatlariga teng bo'ladi.

- narx-navo va nominal ish haqi egiluvchan, ularning o'zgarishini bozorlardagi muvozanat qo'llab-quvvatlaydi.


Ushbu sharoitlarda *AS* egri chizig'i ishlab chiqarish omillarining to'liq bandlik darajasida vertikal bo'ladi.

Klassik modeldagi *AS* egri chizig'ining shakllarini tushuntirish mehnat bozorining tahlili bilan bog'langan bo'ladi. Buning sabablari mehnat asosiy

omil bo'lib hisoblanadi. Uning o'zgarishi qisqa davr mobaynida mahsulot ishlab chiqarishning darajasiga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Narx-navo o'sishining umumiy darajasi real ish haqining pasayib ketishiga olib keladi. Shunday qilib, mehnatga talab, mehnat bozorida unga bo'lgan taklifni oshirib yuboradi (tadbirkorlar va ishchilar nominal ish haqiga emas, real ish haqining o'zgarishiga o'z munosabatini bildiradi). Bu o'z navbatida nominal ish haqining o'sishini bildiradi.

Natijada, real ish haqi boshlang'ich yoki dastlabki darajaga oshiriladi, bu mehnat bozorida muvozanatni tiklaydi, oldingi bandlik darajasiga keltiradi. Shunday qilib, mahsulot ishlab chiqarish hajmi amalda o'zgarmaydi (faqat uncha ko'p bo'lmagan qisqa muddatli tebranishlar yuz berishi mumkin) nominal ish haqini to'g'irlash tezda ro'y beradi. Shuning uchun narx-navo darajasining har qanday o'zgarishi bo'yicha yalpi taklif (mahsulot ishlab chiqarish hajmi) o'zgarmasdan imkoniyatlar darajasida qolaveradi ( $V$ ).  $AS$  egri chizig'ining surilishi faqat ishlab chiqarish omillari yoki texnologiyalari o'lchamining o'zgarishi mumkin. Agar bunday o'zgarishlar yo'q bo'lsa, unda  $AS$  egri chizig'i uzoq muddatli davrda ( $LRAS$  – *longrun aggregate supply curve*) imkoniyatli mahsulot ishlab chiqarish darajasida ko'rsatilgan va yalpi taklifning har qanday tebranishi faqat narx-navo darajasida aks ettiriladi (35.3-chizma).



**35.3-chizma**

Keyns modeli iqtisodiyotning harakat qilishini qisqa vaqt ichida ko'rib chiqadi. Yalpi taklif tahlili quyidagi shartlarga asoslangan:

- iqtisodiyot ishlab chiqarish omillarining to'ldirilmagan bandlik sharoitida harakat qiladi;

- narx-navolar nominal ish haqi va nominal o'lchamlar – nisbatan qattiq bozor tebranishlariga asta-sekin munosabatda bo'ladilar;

- real o'lchamlar (mahsulot ishlab chiqarish hajmi bandlik, real ish haqi va boshqalar) ko'proq harakatchan bozor tebranishlariga tezda munosabatda bo'ladilar.

Keyns modelida *AS* egri chizig'i gorizantal (oxirgi holatda narx-navoning va nominal ish haqining qat'iyiligida) yoki ijobiy qiyalikka ega (nominal ish haqi va nisbatan harakatchan narx navoning qat'iyiligida).

Qisqa muddatli davrda nominal o'lchamlarning nisbatan qat'iyiligining sababi bo'lib: mehnat shartnomalarning uzoqligi minimal ish haqining davlat tomonidan tartibga solinishi, narx-navoni va ish haqining pog'onali xarakterda o'zgarishi (qachonki firmalar o'zlarining raqobatbardoshlariga qarab narx-navoni va ish haqini asta-sekin bo'lib-bo'lib o'zgartiradi) xom ashyolarni va tayyor mahsulotlarni yetkazib berish kasaba uyushmalarining faoliyati «menyu»samarasi boshqa shartnomalarning harakat qismi muddatida xizmat qiladi. Masalan, ishlab chiqarilgan mahsulotlarga narx-navolar bilan katologlar qayta nashr qilinishiga sarf- xarajatlar yetarli darajada yuqori va qayta nashr qilish jarayonlarining o'zi aniq vaqtni talab qilsa («menyu» samarasi), unda firmalarning bir qancha vaqt davomida qo'shimcha ishchilar sonini yaxshilashga, mahsulot ishlab chiqarishni o'stirishiga va oldingi narx-navo darajasida iste'molchilarning talabini qondirishga intilish uchun talabni ko'paytirishi kerak. Bunday ekstremal holatda mutlaqo qat'iyatli narx-navoda qisqa muddatli *AS* egri chizig'i gorizantal bo'ladi.


Agar nominal ish haqi yetarli darajada qattiq bo'lib, narx-navo esa, nisbatan egiluvchan va yalpi talabning ko'payishi bilan chaqirilgan bo'lsa, u real ish haqining pasayishiga olib keladi, ishchilarning mehnati arzonlashadi, bu o'z navbatida firmalar tomonidan mehnatga talabning o'sishiga yordam beradi. Katta miqdordagi mehnatdan foydalanish mahsulot ishlab chiqarishning ko'payishiga olib keladi. Shunday qilib, qachonki nominal ish haqi o'zgarmasa narx-navo va mahsulot ishlab chiqarish darajasi o'rtasidagi ijobiy bog'liqlik ro'y beradi. *AS* egri chizig'i bunday sharoitda ijobiy qiyalikka ega bo'ladi. Narx-navoning qisqa vaqt ichida nisbatan qat'iyatligi haqida aqlli va haqiqiy taxmin qilish biznesning aniq fe'l-atvori bilan qo'llab-quvvatlanadi. Ko'pchilik firmalarda odatdagi sharoitlarda ortiqcha quvvatlar omborxonada zaxirada tayyor mahsulotlar hamda ishdan tashqari vaqtlarda bajariladigan xizmatlarda foydalanish imkoniyatlari uchun yoki qo'shimcha ishchilarni yollashga (ayniqsa, to'ldirilmagan bandlik sharoitlarida) bo'ladi. Shuning uchun qisqa muddatli davrda talabni kengaytirishga hamma vaqt hech qanday

narx-navoni jiddiy o'zgartirmasdan sotish hajmini ko'paytirish bilan qo'shib olib borish mumkin bo'ladi.

E'tiborni shunga qaratish kerakki, ya'ni keyns modeli *AS* egri chizig'i mahsulot ishlab chiqarish darajasining imkoniyatlari boricha o'ngga surishni cheklaydi, undan keyin u to'g'ri vertikal ko'rinishni egallaydi, ya'ni haqiqatan ham *AS* egri chizig'ining uzoq muddati bilan to'g'ri keladi.

Shunday qilib, yalpi taklif hajmi qisqa muddatli davrda asosan yalpi talab o'lchamiga bog'liq bo'ladi. Ishlab chiqarish omillarining to'ldirilmagan bandligi hamda narx-navo tebranishining qat'iyatligi sharoitida yalpi talab avvalambor, mahsulot ishlab chiqarish hajmining (taklif) barchasini chaqiradi va faqat natijada narx-navo darajasida aks ettiriladi. (35.4-chizma, bu yerda **SRAS** – yalpi taklifning qisqa muddatli egri chizig'i, inglizcha Short run aggregate supply curve).

Ushbu holat tajriba ma'lumotida tasdiqlanadi. Agar iqtisodiyotda hukumat mahsulot ishlab chiqarish hajmini ko'paytirishni xohlasa, unda Keynscha yondashuvga muvofiq, fiskal va pul siyosati yordamida yalpi talabni rag'batlantirishi shart, masalan, davlat sarf-xarajatlarni ko'paytirishi, soliqlarni kamaytirishi, pul taklifini kengaytirishi va shu kabilar. (35.4-chizmaga qarang).




35.4 -chizma

### 35.3. Yalpi talab va yalpi taklif modelida qisqa muddatli va uzoq muddatli muvozanatlar.

Iqtisodiyotda narx-navo darajasi va mahsulot ishlab chiqarish hajmining muvozanatini *AD AS* egri chiziqlarining kesishgan nuqtasi ifoda etadi. Iqtisodiyotda to'ldirilgan bandlikka yaqin bo'lgan muvozanatning buzilishi bo'yicha, masalan, yalpi talabning o'zgarishi natijasida bevosita sezilishi

ketidan va qisqa muddatni aniqlash bilan barqaror uzoq muddatli muvozanat holatiga harakat qilish davom etadi. Bunday o'tish **narx-navoni to'g'irlash** orqali amalga oshiriladi (35.5- chizma).

Masalan, pul massasining o'sishi natijasida yalpi talabning o'zgarishi ( $AD_1 \rightarrow AD_2$ ) va qisqa muddatli muvozanat  $Y > Y^*$  bo'lgan  $V$  nuqtasida aniqlanishi ro'y berdi, narx-navo darajasi esa o'zgarmasdan qoldi. Yuqori darajadagi talab ta'siri ostida mahsulot ishlab chiqarish hajmi ko'paymoqda, ammo bir qancha vaqt davomida mahsulotlar eski narxlar bo'yicha realizatsiya qilinadi. Lekin asta-sekin sarf-xarajatlar o'sa boshlaydi: erkin resurslarning yetarli emasligida va ularga talabning o'sishida narx-navo ham o'smoqda. Masalan, ish haqi oshmoqda. Bu tayyor mahsulotga narx-navoning o'sishiga olib keladi. Natijada, talab o'lchami kamayadi ( $AD$  egri chizig'i bo'yicha harakati  $V$  nuqtasidan  $S$  nuqtasigacha) va iqtisodiyot oldingi ishlab chiqarish darajasiga qaytadi, ammo ko'proq yuqori darajadagi narx bo'yicha. Uzoq muddatli muvozanat  $S$  nuqtasida aniqlanadi. Shunda mahsulot ishlab chiqarish hajmi va bandlik yangi sharoitlarga ancha tezroq moslashishi amalga oshiriladi.



**35.5 -chizma**

Tajriba faktlari shuni qo'llab-quvvatlaydi-ki, ya'ni yalpi talab o'zgarishining sabablarini chaqirishga bog'liq bo'lmagan va boshlang'ich muvozanatdan og'ishi, uzoq muddatda iqtisodiyot o'z-o'zini tartibga solishi yo'lida ishlab chiqarish o'ziga ega bo'lgan omillari va texnologiyalar soni bilan imkoniyatlar darajasiga qaytadi.

To'lmagan bandlik sharoitida yalpi talab omillarining o'sishi uzoq vaqtda yalpi takliflarning ko'payishini mahsulot ishlab chiqarishning imkoniyatlarga erishguncha rag'batlantirish mumkin. Yalpi talabning keyingi ko'payishi yuqorida (35.5-chizma) ko'rsatilgan raqobatlariga olib keladi.

Shunga e'tibor qaratish kerakki, ya'ni agarda yalpi talab qisqarsa (pul taklifi kamaysa sarf-xarajatlari tushib ketsa, soliqlar oshib ketsa va boshqalar)


**AD** egri chizig‘i, narx-navoning nisbatan barqarorligida mahsulot ishlab chiqarishning qisqa muddatli davrida pasayishini ko‘rsatgunicha suriladi. Keyinchalik narx-navoning pasayishi tomonga to‘g‘irlash ( $Y < Y^*$  bo‘yicha, ishsizlikning ko‘payishi, ish haqining kamayishi va boshqa sarf-xarajatlar) asta-sekin iqtisodiyotni oldingi mahsulot ishlab chiqarish darajasiga qaytadi. Grafikda bu yangi **AD** egri chizig‘ining bo‘yi bo‘yicha  $Y^*$  darajasigacha pastga harakati bilan aks ettiriladi.

Ammo real iqtisodiyotda narx-navo o‘zining o‘sishiga qaraganda hamma vaqt shunday yengil pasaymaydi. Bu nazariy jihatdan taxmin qilishga qaraganda  $Y^*$  narx-navoning ko‘proq yuqori darajasida bo‘lib mahsulot ishlab chiqarish o‘zining boshlang‘ich darajasida tamoman qayta tiklanishi mumkin.

Shu bilan birga, yalpi talab va yalpi taklifning keskin o‘zgarishi mahsulot ishlab chiqarish hajmining va bandlikning imkoniyat darajasidan og‘ishiga olib keladi. Bu talab tomonidan masalan, pul taklifining tezda o‘zgarishi yoki ular muomalasidagi tezlik, investitsiya talablarining tezda tebranish oqibatida va boshqalarida paydo bo‘lishi mumkin. Yalpi taklifda bunday holatlar tezda narx-navoning ishlab chiqarish resurslariga iqtisodiyot resurslarining qismi tabiiy ofatlar natijasida yo‘qotish bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

**AD** va **AS** modeli yordamida bularning iqtisodiyotga ta‘sirini baholash hamda davlatning barqarorlashtirish siyosati oqibatida ularning tebranishni yengillashtirish va ishlab chiqarish hamda bandlik muozanatini oldingi darajasida tiklash. Masalan, taklifdagi salbiy shaklarga o‘xshagan noxush holatlar (neftga narxning o‘sishi) narxning umumiy darajasiga o‘sishiga chaqiradi (qisqa muddatda **AS** egri chizig‘i **SRAC** dan **SRAC** gacha tepaga suriladi) va mahsulot ishlab chiqarish hajmi pasayishi (**V** nuqta) 35.6-chizmada ko‘rsatilgan.






**35.6-chizma**

Agar hukumat va markaziy bank hech qanday chora qo'llamasa, unda iqtisodiyot yangi vaziyatga moslashadi. Ishlab chiqarishning va bandlikning darajasi bo'yicha imkoniyatlardan past bo'lsa ( $V$ ), narx-navo asta-sekin pasayishni boshlaydi. Ishlab chiqarish va bandlik darajasi esa oldingi holatga qaytariladi. Bu grafikda oldingi  $AD$  egri chizig'i bo'yicha  $V$  nuqtadan  $A$  nuqtagacha teskari harakat bilan aks ettiriladi. Ammo bunday moslashish jarayoni juda ham uzoq davom etishi mumkin. Iqtisodiyotda bundan uzoq cho'ziladigan pasayish ijtimoiy mojoralarni tug'dirishi mumkin.


O'z navbatida markaziy bank pul taklifini ko'paytirish yo'li bilan bunday pasayishlarni bartaraf etishi mumkin ( $AD$  egri chizig'ini  $AD_1$  dan  $AD_2$  gacha o'ngga surish bilan), ammo buning oqibati shok natijasida belgilangan ( $S$  nuqta) narx-navoning ko'proq yuqori darajada bo'lishini qayd etadi. Bunga o'xshagan natijalar davlat sarf-xarajatlarini ko'paytirish bilan erishiladi. Shunday qilib, davlatning iqtisodiy siyosati ma'lum taraddudlar bilan to'qnashishi mumkin: uzoq vaqtga ishlab chiqarishning va bandlikning tushib ketishi yoki narx-navoning o'sishida mahsulot ishlab chiqarishni va bandlikni saqlab qolinishi.

Iqtisodiyot adabiyotlarda  $AD$  va  $AS$  modelining boshqacha tasavvur etilishini uchratish mumkin. Agar e'tiborni ta'kidlash zarurligining vaqtincha tahlil jihatiga emas, balki iqtisodiyotning imkoniyatlarga qaratilsa,  $AS$  egri chizig'ining bukilgan shaklidan foydalanadigan, qayerda uning Keynsha va klassik kesilmalari birlashishini ko'rish mumkin. (35.7-chizma). Ba'zan astoydil harakat qiladigan variantidan foydalanilsa, qachonki,  $AS$  egri chizig'i

ijobiy og‘ishmaga ega, ya’ni qulayroq, masalan, inflyatsiya chizig‘ini ko‘rsatish va bunda inflyatsiya talabini va inflyatsiya xarajatlarini tiklash uchun. Masalan, iqtisodiyotda to‘liq bandlikka yaqin (35.8-chizmaga qarang), pul taklifining ko‘payishi bilan ( $AD_1 - AD_2$ ) chaqirilgan yalpi talabning o‘shishi nafaqat mahsulot ishlab chiqarishni ko‘paytiradi, balki aniq hollarda inflyatsiya talabiga narx-navo darajasi  $P_2$  gacha ko‘tarilishi mumkin. Ushbu fonda bor resurslardan deyarli to‘liq foydalanish sharoitida ularga narxning o‘shishi boshlanadi, u o‘z navbatida sarf-xarajatlarni ko‘paytiradi va yalpi takliflarning pasayishini chaqiradi ( $AS$  egri chizig‘i  $AS_1$  dan  $AS_2$  gacha suriladi).  $AD$  egri chizig‘ining bo‘yidagi  $V$  nuqtadan  $S$  nuqttagacha harakati inflyatsiya xarajatlarini aks ettiradi, narx darajasi  $P_3$  gacha, mahsulot ishlab chiqarish esa, o‘zining boshlang‘ich holatiga qaytadi ( $AD_2$  bo‘yicha harakati hamda narx-navoning o‘shish fonida yalpi talab o‘lchamining pasayishini bildiradi). Yalpi talabga monetarlik o‘rinish takrorlash ta’siri shunga o‘xshash natijalarga olib keladi va narx-navo darajasini yanada ko‘proq ko‘taradi. Uzoq muddatli mustahkam muvozanat imkoniyatli  $Y^*$  darajasida belgilanadi.



35.7-chizma



35.8-chizma

Model  $AD - AS$  (aniq shartlilik darajasi bilan) O‘zbekistonning va boshqa MDH mamlakatlarining o‘tish iqtisodiyotida ro‘y berayotgan jarayonlarni tahlil qilishni izohlash uchun foydalanish mumkin.

MDH mamlakatlarida xo‘jalik faoliyatining jadallashtirilgan erkinlashtirilishining oqibati yalpi talab va taklif holatida aks ettirildi: narx-navoni erkinlashtirish va iste‘mol tovarlari tanqisligining bartaraf qilinishi (shu jumladan, import tovarlari hisobiga ham) aholining pul vositalarini joriy ehtiyoj foydasiga oldindan to‘plangan jamg‘armalar hisobiga qayta taqsimlashga olib keldi. Korxonalarining naqd vositalarisiz, oldindan oddiy vosita bo‘lib rejali mahsulot oqimi hisob-kitobi haqiqiy to‘lov vositasi bo‘lgan qoldi. Bularning barchasi iqtisodiyotda yalpi talabni ko‘paytirishga olib keldi.

Grafik ravishda bu **AD** egri chizig'ini o'ngga surishda aks ettirilishi mumkin, bu o'z navbatida iqtisodiyotda narx-navoning o'sishini ko'rsatar edi.

Xo'jalik hayotini erkinlashtirish jarayonida iqtisodiyotdagi tizimli qayta qurish, xususan, talab tuzilishining o'zgarishi va nisbiy narx-navo bilan bog'lanish aniq ko'rinishda yalpi taklif holatiga ta'sir ko'rsatdi. Masalan, har xil tarmoqlarda band bo'lgan ishlab chiqarish omillari tuzilishining to'g'ri kelmasligi tufayli kelajakda tamom bo'ladigan tarmoqlarning yangi talablariga muvofiq ularni to'liq qayta taqsimlash mumkin emas edi.

Shu bilan birga, uzoq bo'magan barcha uzoq muddatli davrga harakat qiladigan ishlab chiqarish salohiyati iqtisodiyotni erkinlashtirishdan keyin foydalanish mumkin edi. Mahsulot ishlab chiqarishning imkoniyatli hajmini qisqartirishga yo'naltirilishida (uzoq muddatli yalpi taklif) bir qancha ishlab chiqarish aloqalari va sobiq ittifoqdosh respublikalar va SEV bo'yicha sherikchilik bilan savdo munosabatlarining qisqarishi omillari harakat qilgan edi. MDH mamlakatlarining o'tish davri iqtisodiyotida yetarli darajada hisobotlar ro'y berishida ishlab chiqarish salohiyatining qismlarini yo'qotish bo'ldi, shu tufayli ishlab chiqarishning pasayib ketishi yetarli darajada mustahkam va uzoq davom etdi. **AD-AS** modelida yalpi taklifning bunga o'xshagan o'zgarishlarida **LRAS** grafikli chapga surilishi mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatlarining oldingi darajasini aks ettirishi mumkin.

Agar qisqa muddatli **AS** egri chizig'i, uning ijobiy og'ishini taxmin qilinsa, **LRAS**dan chapda bo'lib va uning ta'siri ostida yuqoriga o'ngga ham surilish bo'ladi, masalan, yoqilg'i energiya resurslarining narxining o'sishi kabilar. Bularning barchasi kelajakda mahsulot ishlab chiqarish hajmining va narx-navoning pasayib ketishiga olib kelmoqda, ammo endi inflyatsiyaviy xarajatlarning natijasi sifatida bo'ladi.

Iqtisodiyotning uzoq vaqtlarda turg'unlik holati aholining asosiy qismi real daromadlarining pasayib ketishiga olib keldi, bu o'z navbatida yalpi talabning tushib ketishiga sabab bo'ldi. Mana shunday yo'nalishlarda iqtisodiyotda investitsiyaviy faollikning pasayishiga ta'sir etdi. Bu ham yalpi talabning investitsiyaviy tuzilishini qisqartirdi. Bu grafik ravishda **AD** egri chizig'ini chapga surilishini ko'rsatadi, bu ham o'z navbatida yanada ko'proq pasayib ketishini kuchaytiradi, oxirgi choralar bo'yicha qisqa muddatli davrda, shunday bo'lsa ham bir necha marta narxni pasaytiradi yoki inflyatsiyani sekinlashtiradi (agar narx pasayish tomonga eliluvchan ravishda bo'lmasa).

Shunday qilib, **AD – AS** modeli ko'rinishi sifatida foydalanish mumkin. O'tish iqtisodiyotda kelajak voqealarni barcha holatlarda baholash uchun qachonki, yalpi talab va taklif bozor mexanizmida yuz beradigan qonuniyatlarga munosiblikda ishlay boshlasa.

**Xrapovik samarasining mohiyati** – bu narx-navoning ham tovarlarga, ham resurslarga necha marta oshadigan bo‘lsa, u boshlang‘ich darajasigacha pasayishi shart emas (xrapovik – bu tartibga solib turadigan mexanizm, o‘z navbatida g‘ildiraklarni orqaga emas, oldinga qarab aylantirishni aks ettiradi), degan ma‘noni anglatadi.

Xrapovik samarasi narx-navoning yengil oshishini, shu bilan birga, uning juda ham og‘ir qiyinchilik bilan pasayishga asoslanganligini anglatadi. Shuning uchun yalpi talabning ko‘payishi narx darajasini ko‘taradi, ammo qisqa davr ichida narxning tushib ketishini ko‘tish qiyinroq bo‘ladi.

Yalpi talabning va yalpi taklifning ko‘rib chiqilgan modeli makroiqtisodiyot muammolarini ko‘proq to‘la va har tomonlama tahlil qilish uchun moslama (tramplin) bo‘ladi, ya‘ni iqtisodiyotda yuz beradigan sikllar–ishsizliklar, inflyatsiya, pul muomalasi, bank ishi, pul-kredit va fiskal siyosat, iqtisodiyotning o‘sishi va barqarorlik va boshqalarda.

### **Qisqacha xulosalar**

1. Yalpi talab (*AD*) - bu pirovard tovar va xizmatlarning miqdori (milliy ishlab chiqarishning hajmi) bo‘lib, buni davlat iste‘molchilar, tadbirkorlar va korxonalar ushbu bozor narxida ma‘lum vaqt ichida sotib olishga tayyor bo‘lishidir.

Yalpi talabga ta‘sir qiluvchi narxli omil kelgusi uch samarali tirkibiy qismlarga ajratiladi:

- 1) foizli stavka samarasi;
- 2) boylik samarasi;
- 3) importli (tovarlarni) xarid qilish samarasi.

Narxning umumiy darajasi (*R*) mamlakat tovarlariga talabni pasaytirishga chaqiradi (*AD*) va import tovarlarini jozibali qiladi, ya‘ni ularni iste‘mol qilishda o‘rinbosar tovarlar bilan almashtiradi.

2. Yalpi taklif (*AS*) – bu (milliy ishlab chiqarishning real hajmi) pirovard tovar va xizmatlar hajmi, ya‘ni mamlakatda har qanday imkoniyatli narx darajasida ishlab chiqarilgan YaMM miqdoridir. Bu yalpi taklif qonunining mohiyatini aks ettiradi: narx darajasi va yalpi taklif o‘rtasidagi o‘lchamlarning bevosita bog‘liqligi mavjuddir.

Yalpi taklifning aniqlovchi omillari resurslarga narx-navoning o‘zgarishi; ishlab chiqarish omillarining unumdorligida o‘zgarishlar; hukumat siyosatidagi o‘zgarishlar; yalpi taklifning ko‘payishini kutilishidagi o‘zgarishlar va boshqalar.

## **Asosiy tayanch atamalar**

1. Yalpi talab.
2. Yalpi taklif.
3. Xropovik samarasi.

### **Mavzuning namunaviy savollari**

1. Yalpi talab nimani bildiradi, iqtisodiyot fanida tutgan oʻrni?
2. Yalpi taklif nimani bildiradi, mahsulot ishlab chiqarishda tutgan oʻrni?
3. Siz yalpi talab va taklifda yuzaga keladigan narxsiz aniqlovchi omillarning qaysilarini bilasiz?

### **Seminar darslarida muhokama qilish uchun savollar**

1. Yalpi talab va taklifning qisqa muddatli davrda, uzoq muddatli davrini qanday talqin qilish mumkin?
2. Xrapovik samarasi nimani bildiradi?
3. AD – AS egri chiziqlaridagi oʻngga-chapga surilishlar nimani anglatadi?
4. Iqtisodiyotda makroiqtisodiy muvozanatning yalpi talab va taklif tushunchalarining farqlari nimada?

### **Mustaqil taʼlim uchun savollar**

1. Yalpi talab va Yalpi taklifning qisqa muddatli davrda, uzoq muddatli davrini qanday talqin qilish mumkin?
2. Iqtisodiyotda makroiqtisodiy muvozanatning yalpi talab va taklif tushunchalarining farqlari nimada?
3. Yalpi talab va taklifning umumiy muvozanatlikka tegishli joyi nimadan iborat?

### 36 BOB. ISTE'MOL, JAMG'ARMA VA INVESTISIYALAR

Makrodarajadagi iqtisodiy o'sish alohida korxonada darajasida bo'lgani kabi natura – buyum va pul ko'rinishlariga ega.

Muhim birlashgan yalpi talab va yalpi taklif bilan ko'rsatkichlar, yalpi iste'mol bo'ladi (inglizcha – consume - **c**).

Iste'mol bu – yalpi xarajatlarning asosi bo'lib, iste'mol manbasi ixtiyoriy daromad (**di**) hisoblanadi.

Qolgan qismlari jamg'armaga qo'yiladi (inglizcha save – **s**).

Jamg'arma bu – daromadlarning bir qismi bo'lib, iste'mol qilinmaydi (vaqtincha zaxira bo'ladi).

*Xulosa:* Iste'mol ham, jamg'arma ham bevosita daromadlar darajasiga bog'liq bo'ladi va o'zida bir xil omillarning ta'sirini sinaydi, yoki:

$$Daromad = jamg'arma + iste'mol;$$

$$Iste'mol = daromad - jamg'arma;$$

$$Jamg'arma = daromad - iste'mol.$$

Ma'lumki, jamg'armani asosan, o'rta yashash darajasi daromaddan oshib ketadigan oilalar saqlaydi. Oila qanchalik kambag'al (faqir) bo'lsa, u shunchalik jamg'armani kam saqlaydiki, umuman jamg'armasi yo'q; eng kambag'al – faqirlar jamg'armasi nolga teng, qarz bo'lib yashaydiganlar jamg'armasi salbiydir.

Iste'molning jamg'armadan farqi, u hamma oilalarda mavjuddir.

Ammo uning pastki yashash darajasi «yashash» tirikchilik darajasidan kam bo'lmasligi kerak.

Iste'mol joriy davrdagi narsalarni qoniqtirishi kerak, jamg'arma esa, kelajakni.

Hozirgi vaqtda iste'molga o'rtacha qiziqish (**ARS**) va jamg'armaga o'rtacha qiziqish (**APS**), deb farqlanadi.

O'rtacha iste'molga qiziqish (**ARS**) – bu iste'molning daromadlarga nisbatanligi bilan foizlarda ifodalanadi.

$$ARS = \frac{iste'mol}{daromad} \times 100$$

O'rtacha jamg'armaga qiziqish (**APS**) – bu jamg'armaning daromadlarga nisbatanligi yoki nisbati, foizlarda ifodalanadi:

$$APS = \frac{jamg'arma}{daromad} \times 100$$

Ixtiyordagi daromad iste'molning orasidagi aloqa **iste'mol funksiyasi (vazifasi)**, deb ataladi. Jamg'arma ixtiyoridagi daromadning bog'lanishi jamg'arma funksiyasi (vazifasi), deb ataladi.

Kishilar daromadlarining o'sishi yoki pasayishi o'zlariga bog'liq.. Shuning uchun kishilar daromadlarining qaysi qismini iste'mol qilishini va qanday qismini jamg'arma qilishini bilishi kerak.

Daromadning iste'mol qilinadigan ulushi yoki qismining o'sishi (qisqarishi), iste'molga eng yuqori darajada qiziqish deb ataladi. (**MRS**).

Boshqacha chilib aytganda, **MRS** – bu iste'moldagi har qanday o'zgarishning nisbatan daromad darajasidagi (miqdorida) va o'zgarishlarga iste'moldagi o'zgarishlarga olib keladi.

$$MRS = \frac{\text{iste'moldagi o'zgarishlar}}{\text{daromaddagi o'zgarishlar}}$$

Daromadning jamg'armaga ketadigan ulushining (qismi) o'sishi (qisqarishi), eng yuqori darajadagi jamg'armaga qiziqish, deb ataladi (**MPS**). Boshqacha qilib aytganda, **MPS** bu – jamg'armadagi har qanday o'zgarishning nisbatan daromaddagi o'zgarishidir, ya'ni uni jalb qiladigan:

$$MPS = \frac{\text{jamg'armadagi o'zgarishlar}}{\text{daromaddagi o'zgarishlar}}$$

Daromaddagi **MPS** va **MRS** summasi va miqdorlarini to'lashdan keyin bo'lgan har qanday o'zgarishlar uchun hamma vaqt birlikka teng bo'ladi, ya'ni daromadning o'sishi iste'molga yoki jamg'armaga qaytishi mumkin. Shuning uchun iste'mol qismi (**MPS**) daromaddagi hamma o'sishni o'ziga jalb qilishi kerak:

$$MRS + MPS = 1.$$

Hozirgacha iste'mol va jamg'armaning daromadga bog'liqligi ko'rib chiqilgan edi. Lekin bularga boshqa omillar ham ta'sir ko'rsatadi:

**1. Boylik.** Oilada qanchalik jamg'arilgan boylik ko'p bo'lsa (ko'chmas mulk + qimmatbaho qog'ozlar), shunchalik iste'mol miqdori ham jamg'arma miqdori ham ko'p.

**2. Narx-navo darajasi.** Narx-navo darajasining o'sishi iste'molni kamaytiradi, narx-navo darajasining pasayishi uni ko'paytiradi.

**3. Kutish.** Agarda narx-navoning oshishi va tovarlarning taqchilligi kutilayotgan bo'lsa, unda iste'mol o'sadi, jamg'arma esa, pasayadi sababi kishilar kelajakda narx – navoning ko'proq o'sishidan va tokchalarning bo'sh qolishidan «ko'proq sotib oladi».

**4. Soliq to'lovchi.** Soliqlar qisman iste'mol hisobiga va qisman jamg'arma hisobiga to'lanadi. Shuning uchun soliqlarning o'sishi iste'molni ham, jamg'armani ham kamaytiradi. Soliqlarning kamayishi ularni ko'tarilishiga sabab bo'ladi.

Iqtisodiy o'sishning natura – buyum ko'rinishi avvalgi bobda ko'rib chiqilgan bo'lib, unda iqtisodiy o'sish – milliy iqtisodiyotda band bo'lganlar

soni va mehnat unumdorligi darajasining hosilasi ekanligi ko'rsatib o'tilgan edi. Ammo yangi ish o'rinlarini tashkil etish uchun ham, ularni sifat jihatidan yangilash va mehnat unumdorligini oshirish uchun ham, eng avvalo, pul mablag'lari zarur. Ishlab chiqarishni kengaytirish qo'shimcha xarajatlarni talab qiladi, pul ularning ilk ko'rinishi sifatida namoyon bo'ladi. Ishlab chiqarishni kengaytirish uchun xo'jalik yuritishning har qanday ko'rinishi va har qanday davrida pul imkoniyatlari cheklangan bo'ladi.

Qo'shimcha qiymat korxonada ishlab chiqarishni kengaytirishning real, boshlang'ich manbai sifatida namoyon bo'ladi. Uning miqdori hamisha ma'lum bir vaqtda ishlab chiqarilgan va realizatsiya qilingan mahsulot natijasi sifatida beriladi, uni ko'paytirib bo'lmaydi. Ayni vaqtda korxonada qo'shimcha qiymatning bir qismigina mulk egalari jamg'arish yoki ishlab chiqarishni kengaytirish uchun yo'naltirilishi mumkin. Talaygina qismi ish haqi ko'rinishida yollanma xodimlar ixtiyoriga kelib tushadi va ularning shaxsiy ehtiyojlari qondirilishiga xizmat qiladi. Qo'shimcha qiymatning mana shu qismi, odatda o'zgarishsiz qoladi yoki o'tgan davrga nisbatan birmuncha oshirilgan bo'lishi mumkin.

Bu demak, korxonaning foydasi ishlab chiqarishni kengaytirish uchun pul manbai bo'lib xizmat qiladi, ammo u ham davlat soliqlarini to'lashga va asosiy kapital egasining shaxsiy iste'moliga ketuvchi ulushga teng miqdorda qisqartirilishi kerak. Ya'ni firma qo'shimcha qiymatning miqdori hamda uning iste'mol qilinuvchi va jamg'arib boriluvchi qismlarga taqsimlanishidagi nisbati pirovard oqibatda ishlab chiqarishni kengaytirish uchun korxonaning real boshlang'ich imkoniyatlarini belgilaydi.

Makrodarajada ishlab chiqarishni kengaytirish uchun pul imkoniyatlari qo'shimcha qiymat yoki milliy daromad qo'shma hajmi yig'indisi bilan belgilanishi o'z-o'zidan ayon. Alohida korxonada va mamlakat darajasida bo'lgani kabi, ishlab chiqarishni kengaytirishga milliy daromadning bir qismi yo'naltirilishi mumkin. Milliy daromadning kattaroq qismi aholi iste'molini tashkil etadi.

Jamg'arish – bu joriy davrda moddiy shart - sharoitlarni qayta ishlab chiqarishni kengaytirishga va buning hisobiga kelajakda aholi iste'moli o'sishi uchun imkoniyatlarni ko'paytirishga qaratilgan jarayondir. Oddiy ishlab chiqarishda umuman jamiyat boyligi, shu jumladan, aholining shaxsiy boyligi o'zgarmay qoladi yoki qayta taqsimlash natijasida bir ijtimoiy guruhning boyligi boshqa guruhning boyligi shu miqdorga qisqarishi hisobiga ko'payadi.

Faqat kengaytirilgan takror ishlab chiqarish keyingi har bir ishlab chiqarish bosqichida aholining daromadlarini va iste'molini ko'paytirish imkonini beradi.



Insoniyat jamiyatining ilk bosqichidan keyingi butun taraqqiyoti oila mehnati oila hayoti uchun zarur bo'lganidan ko'proq mahsulot yarata boshlagan, mehnatning bir qismi hayot vositalarini ishlab chiqarishgagina emas, ishlab chiqarish vositalarini yaratishga ham yo'naltirilishi mumkin bo'lgan vaqtdan boshlanadi.

F.Engels jamg'arishni jamiyatning eng progressiv vazifasi, deb ataydi. Dyuring taklif qilgan kommuna yaratgan qo'shimcha mahsulotni to'liq taqsimlash tizimini ko'rib chiqar ekan, F.Engels milliy daromadni kommuna a'zolari o'rtasida to'liq taqsimlash vaqtida jamg'arish unutib ko'yilgan, bu holda kommuna yil oxiriga kelib ham, 100 yil avvalgidek boshlang'ich davrdagidan boyroq bo'lmaydi, deb ta'kidlaydi.

Jamg'arish jarayoni qayta ishlab chiqarish har qanday kengayishining qonuni sifatida tavsiflanishi mumkin. Milliy daromaddagi jamg'arish miqdori va ulushini ko'paytirmay turib, mamlakat iqtisodiy o'sish sur'atlarini jadallashtirish, aholi daromadlari va iste'molini ko'tarish mumkin emas.

Jamg'arish bir sub'ekt–ishlab chiqarish vositalari egasining vazifasi hisoblanadi. Ko'rsatmali-rejali iqtisodiyotda davlat ana shu sub'ekt vazifasini bajaradi, jamg'arish maqsadlarida u qo'shimcha mahsulot safarbarligini amalga oshiradi, so'ngra kapital mablag'larni markazdan turib mamlakatning tarmoqlari va mintaqalari o'rtasida taqsimlaydi.

Bozor iqtisodiyotida jamg'arish vazifasini xususiy tadbirkor, fermer yoki uning muxtor vakili – menejer, ma'muriyat, mehnat jamoasi kengashi, aksiyadorlik jamiyati boshqaruvi, davlat boshqaruv organi yoki to'la xo'jalik yuritish huquqini qo'lga kiritgan shaxs – ijarachi amalga oshiradi.

Ishlab chiqarish vositalari egasining jamg'arish vazifasi amalga oshirilishi boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning iqtisodiy manfaatlariga ta'sir etmay qo'ymaydi. Jamg'arish – jamiyatdagi xo'jalik yuritayotgan barcha sub'ektlarning iqtisodiy manfaatlariga daxldor murakkab jarayondir.

Keyingi qayta ishlab chiqarish bosqichida ishlab chiqarishni kengaytirish va daromadni ko'paytirish uchun qo'shimcha mahsulot ulushi va hajmini ko'paytirishga intilayotgan ishlab chiqarish vositalari egasining manfaatlari, avvalambor, bevosita ishlab chiqaruvchilarning iqtisodiy manfaatlariga to'qnash keladi, bevosita ishlab chiqaruvchilarning manfaati joriy davrning o'zidayoq daromad va iste'molni ko'paytirishga qaratilgan bo'ladi. Bozor iqtisodiyotida jamg'arishning miqdorlari va sur'atlari haqidagi karorlar korxonalar yoki firma darajasida qabul qilinadi va amalga oshiriladi. Faoliyatning shu sohasida ham bozor munosabatlari hukmronligi sharoitida jamg'arish, jarayonini raqobat, erkin narxlar, talab va taklif belgilaydi.

Ammo, jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, davlat jamg'arish jarayonlarini boiqarishdan o'zini chetga ololmaydi. Mazkur sohada davlat mikrodarajada kapital sarfi siyosati bir tekis va samarali amalga oshirilishiga ijobiy ta'sir etadigan ma'lum investitsiya muhitini shakllantirishga davlat etilgan.

Davlat budjet – soliq, pul - kredit, tarkibiy tuzilish - investitsiya siyosati orqali jamg'arish jarayoniga ta'sir o'tkazish dastaklariga ega. Davlatning o'zi ham xo'jalik faoliyatining bozor mexanizmlari harakati cheklangan sohalarda – yangi texnologiyalar, ijtimoiy soha, o'zini qoplash uchun uzoq vaqt ajratilgan ob'ektlar va hokazolarda jamg'arish jarayonining asosiy sub'ekti sifatida faoliyat ko'rsatishi mumkin.

Jamg'arma fondining asosiy qismini ishlab chiqarish jamg'armalari, ya'ni iqtisodiyotning real sektori tarmoqlariga xarajatlar tashkil etadi. Ammo ishlab chiqarish kapitali ko'proq rivojlangani sayin, ishlab chiqarishga aloqasi bo'lmagan jamg'arma fondlariga – turar joylarga, kasalxonalariga, maktablarga, oliy o'quv yurtlariga, sport inshootlariga va hokazolarga sarf - xarajatlar tobora ko'payib boradi. Bu o'ziga xos iste'mol ob'ektlari odamlarning shaxsiy yoki jamoa (ishlab chiqarishga aloqasi bo'lmagan) ehtiyojlarini ta'minlaydi. Ammo ana shu «ob'ektlardan foydalanish» uzoq davrga cho'ziladi, bu o'z-o'zidan ularni kapital boyliklarga, ularning ko'rilishiga xarajatlarni – kapital mablag'larga aylantiradi.

Agar ishlab chiqarishdagi kapital mablag'lar real (ishlab chiqarish) kapitali jamgarilishini ta'minlasa, ishlab chiqarishga aloqasi bo'lmagan sohaga xarajatlar – milliy boyliklar jamlanishini ta'minlaydi.

Milliy daromadda jamg'arma fondini tashkil etuvchi pul mablag'lari asosiy kapitalning yoki asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'sishiga, oborot kapitali – moddiy oborot fondlari va zaxiralarning o'sishiga safarbar etiladi.

Jamg'arma fondi unsurlari tizimida asosiy ishlab chiqarish fondlarini o'stirish bosh rolni o'ynaydi. Iqtisodiy o'sishning sur'atlari va samaradorligiga asosiy ishlab chiqarish fondlari, ayniqsa, ularning faol qismi o'sish sur'atlari va sifati ko'proq ta'sir o'tkazadi. Bu yo'nalish iqtisodiy o'sishda zanjirli reaksiyani keltirib chiqaradi. Asosiy ishlab chiqarish kapitalining o'sishi milliy iqtisodiyotda J.Keynsning makroiqtisodiy nazariyasida foydalanilgan multiplikator samarasini keltirib chiqaradi. Buni biz quyida ko'rib chiqamiz.

Iqtisodiy o'sish sur'atlariga moddiy oborot vositalari va zaxiralarning o'sishi eng kam ta'sir o'tkazadi. Korxonani xom ashyo va materiallar bilan ta'minlash naqadar aniq tashkil etilgan bo'lsa, takror ishlab chiqarish jarayoni ularning kam zaxiralari bilan ham kechaveradi, bu mazkur jarayonni qiyinlashtirmaydi, aksincha, ishlab chiqarish samaradorligi oshishiga xizmat qiladi. Bu bilan birga, shuni nazarda tutish kerakki, asosiy ishlab chiqarish

fondlari o‘shidagi o‘zgarishlar moddiy oborot vositalari va ishlab chiqarishga aloqasi bo‘lmagan fondlar o‘shida muayyan o‘zgarishlar va sifat nisbatlari mavjud bo‘lishini taqozo etadi.

Jamg‘arishning asosiy vazifasi – har qanday takror ishlab chiqarish jarayonining pirovard maqsadini amalga oshirishga – aholining tobora o‘sib borayotgan iqtisodiy va ijtimoiy ehtiyojlari tizimini qondirishga xizmat qilishdir.

Mazkur maqsad bozor iqtisodiyotida fondini ko‘paytirish vositasida amalga oshiriladi. Shu bilan birga, ishlab chiqarilgan tovarlar aholi ehtiyojiga javob bergan taqdirdagina foyda olish mumkin.

Ishlab chiqarish vositalariga mulk egaligini amalga oshirish va rivojlantirish ham jamg‘arishning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Jamg‘arish ishlab chiqarish vositalarini ko‘paytirib borish va yangilash bilan birga, ishlab chiqarish vositalari egasining iqtisodiy manfaatlari qayta amalga oshishini va o‘zlashtirish munosabatlari rivojlanishini ta‘minlaydi.

Jamg‘arish vositasida milliy iqtisodiyot tarkibidagi tarmoq va hududiy o‘zgarishlar ta‘minlanadi, qayta ishlab chiqarish jarayoni turli sohalarining nisbatida muvozanatga erishiladi.

### **36.1. Jamg‘arish jarayonini tavsiflovchi asosiy tushunchalar**

Hozirgi zamon iqtisodiyot fani va amaliyotida makrodarajadagi ishlab chiqarishni kengaytirish tavsifi uchun bir qator, ba‘zan mazmunan bir-biriga o‘xshash, ammo atalishi bo‘yicha farq qiladigan; ba‘zan mazkur murakkab jarayonni tadqiq etishda o‘z vazifasiga ega bo‘lgan tushunchalardan foydalaniladi. Atamalardagi farqlar asosan, ko‘rsatma-rejali va bozor iqtisodiyoti faoliyatining xususiyatlari bilan, ularning mamlakat va g‘arb iqtisodiy adabiyotlarida tegishli aks etishi bilan izohlanadi. Ko‘rsatma-rejali iqtisodiyotda pul muomalalarining roli pasaytirib yuborilgan edi. Kapitalistik iqtisodiyotda pul munosabatlariga katta ahamiyat beriladi, mahsulotning natura – buyum ko‘rinishlari harakatining roli birmuncha pasaytiriladi.

Shuning uchun sobiq sovet iqtisodiyotida fondlarni kengaytirish jarayoni ko‘rib chiqilar, uni tavsiflash uchun «kapital mablag‘lar» tushunchasidan foydalanilardi.

Kapital mablag‘lar deganda, asosiy fondlarni takror ishlab chiqarish, ularni ko‘paytirish va yangilashga pul sarfini tushunishadi. Jamg‘arish – kapital mablag‘lar tushunchasidan kengroq ma‘noga ega. Bu nafaqat asosiy fondlarga, shu bilan birga, oborot fondlarini va korxonalar ishlab chiqarish zaxiralarini o‘stirishga ishlab chiqarishga aloqasi bo‘lmagan fondlarga qilingan sarf-xarajatlardir. Moliyaviy nuqtai nazardan qaraganda, qo‘shimcha

mahsulot yoki daromadning bir qismidan asosiy va oborot kapitalini kengaytirish hamda yangilashda foydalanilishini tushunadilar.

Shu bilan birga, yana bir narsani nazarda to‘tish kerakki, jamg‘arma miqdori va kapital mablag‘lar o‘rtasida farqlar bor. Jamg‘armadan farqli ravishda nafaqat qo‘shimcha mahsulot, shu bilan birga, amortizatsiya fondi mablag‘larining bir qismi kapital mablag‘larining manbai bo‘lib xizmat qiladi.

«Investitsiyalar» tushunchasi yuqorida biz ta’riflab o‘tgan tushunchalarga qaraganda kengroq ma’no ga.

Investitsiyalar – bu ishlab chiqarishning moddiy shart-sharoitlarini va uning shaxs omilini (odam kapitalini) kengaytirish va yangilash uchun yunaltiriluvchi pul ko‘rinishidagi iqtisodiy resurslardir. Investitsiya kapital mablag‘larga qaraganda kengroq tushuncha.

Investitsiya tarkibiga haqiqiy va moliyaviy investitsiyalar kiradi.

Haqiqiy investitsiyalar kapital mablag‘lar tushunchasiga o‘xshash. Amaliyotda haqiqiy investitsiyalar yoki kapital mablag‘lar ishlab chiqarishni kengaytirish va yangilashning asosiy ko‘rinishi sifatida namoyon bo‘ladi.

Moliyaviy investitsiyalar – mulk egasining nomlanishi bilan bog‘liq va mulkdan daromad olish huquqini beruvchi aksiyalarga, obligatsiyalarga va boshqa qimmatbaho qog‘ozlarga sarflanuvchi mablag‘lardir.

Moliyaviy investitsiyalar mohiyatini ishlab chiqarishni kengaytirish jarayoni nuqtai nazaridan tushunish uchun shuni e’tiborda tutish kerakki, moliyaviy investitsiyalar kapital mablag‘larning, ya’ni haqiqiy investitsiyalarning qo‘shimcha manbai bo‘lib xizmat qiladi. Shu bilan bir qatorda, moliyaviy investitsiyalar fond bozorlarida birja (chayqov) o‘yinlarining manbai bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Qo‘shimcha qiymat (korxonalarining foydasi va ular xodimlarining ish haqi) haqiqiy investitsiyalarning asosiy manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Moliyaviy investitsiyalar esa, asosan. qo‘shimcha qiymatning jamiyatda qayta taqsimlanishi natijasi hisoblanadi. Moliyaviy investitsiyalar qayta taqsimlanishi natijasida bir toifa sub’ektlar boylik orttiradi, boshqalari qimmatbaho qog‘ozlarga solingan pul mablag‘laridan mahrum bo‘ladilar.

Innovatsiya hozirgi iqtisodiy o‘shishni tavsiflovchi ob’ektiv zarur kategoriya hisoblanadi.

Innovatsiya deganda, investitsiyalarning eng yangi texnologiyalarning takror ishlab chiqarish yoki mutlaqo yangi tovarlarni ishlab chiqarish va xizmatlarga yo‘naltiriluvchi bir qismini tushunishadi.

Innovatsiyalar yoki joriy etilgan yangiliklar o‘xshash tushunchalar bo‘lib, yangi texnologiya, tovarlar va xizmatlarning kashf etilishi va amalga oshirilishinigina emas, shu bilan birga, bozorni o‘zlashtirishning yangi

usullarini, tashkiliy, tijorat va boshqaruv faoliyatidagi o'zgarishlarni ham tavsiflaydi. Joriy etilgan yangiliklar foydali iqtisodiy, ijtimoiy, texnik samara olish uchun yo'naltirilgan innovatsiya faoliyati bilan bog'liq.

Innovatsiyalar va innovatsiya faoliyati bugungi kunda investitsiyalarni amalga oshirish va iqtisodiy samarali asosda ishlab chiqarishni kengaytirishning asosiy ko'rinishini tashkil etadi.

Bozor mexanizmi fan-texnika taraqqiyotining mavjud yutuqlaridan foydalanishga yordam beradi. Basharti, foydaning istiqbolli me'yori oydin bo'lmasa, xavf-xatar darajasi yuqori bo'lsa, bozor mexanizmlari yaxshi ishlamaydi. Shuning uchun iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda ITTKI (NIOKR, ilmiy-tadqiqot tajriba konstruktorlik izlanishlari) va innovatsiyalarga xarajatlarning talaygina qismini davlat o'z zimmasiga oladi.

Farb iqtisodiy adabiyotlarida va hozirgi O'zbekistonda «investitsiyalar» tushunchasidan foydalanish o'zini to'liq oqlaydi: bozor iqtisodiyotida ishlab chiqarishni kengaytirish uchun pul mablag'larining mavjudligi muhim amaliy ahamiyatga ega. Investitsiya tovarlarga to'lov qobiliyatiga ega talablarning o'sishiga xizmat qiladi. Ammo investitsiya jarayonining natura - buyum jihatlarini inkor etish bozor iqtisodiyoti uchun (har qanday iqtisodiyot uchun bo'lgani kabi) xato bo'ladi.

Asosiy kapitalni kengaytirishning natura – buyum va pul – qiymat ko'rinishlari – bir jarayonning ikki tomonidir. Ularni bir-biriga qarama-qarshi qo'yish, ularning bir tomoniga yetarlicha baho bermaslik kabi, ishlab chiqarishni kengaytirish uchun halokatlidir. Ishlab chiqarishni kengaytirish uchun pul resurslarining umumiy mablag'i kapital yoki ishlab chiqaruvchi tovarlarni tayyorlash bilan ta'minlangan bo'lishi kerak. Investitsiyalarning moddiy ta'minotga nomutanosibliги ishlab chiqarishni kengaytirish jarayoni samaradorligini pasaytiradi. Makroiqtisodiy tahlil va davlat boshqaruvi pul resurslari bilan ularning natura-buyum ko'rinishida koplanishi o'rtasidagi mutanosiblikni amalga oshirishga yordam berishga da'vat etilgan. Bu davlatning bir tekis iqtisodiy samarali rivojlanishini ta'minlaydi.

Takror ishlab chiqarish jarayoni ikki tomonining uzviy bog'liqligini tushunish qayta qurish yillari mobaynida ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqarish vayron bo'lgan, faoliyat ko'rsatib turgan korxonalarda asosan, jismonan va ma'naviy eskirgan ishlab chiqarish fondlaridan foydalanayotgan mamlakatlar uchun amaliy muhimdir.

### **36.2. Jamg'arishning me'yori va samaradorligi**

Jamg'arish me'yori bu jamg'arma fondining foizlarda ifodalangan milliy daromad yalpi miqdoriga nisbatidir.

Jamg'arish me'yori jamg'arma fondining yalpi ijtimoiy mahsulotga, yalpi milliy mahsulotga hamda mamlakat milliy boyligi miqdoriga nisbati sifatida ham berilishi mumkin. Barcha xalqlarda jamg'arish me'yori jamg'arish jarayoni jadalligining ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi.

Makroiqtisodiy tahlil uchun jamg'arishning umumiy me'yoridan tashqari ishlab chiqarish jamg'aruvining me'yoridan foydalaniladi. Ishlab chiqarish jamg'aruvi me'yori asosiy ishlab chiqarish fondlari o'sish miqdorining milliy daromadga nisbati sifatida aniqlanadi:

$$\text{Ishlab chiqarish jamg'aruvi me'yori} = \frac{\text{asosiy fondlar o'sishi}}{\text{milliy daromad}} \times 100\%$$

Ishlab chiqarish jamg'aruvi me'yori iqtisodiy o'sishning sur'atlariga bevosita va jiddiy ta'sir etadi.

Jahon mamlakatlari iqtisodiy o'sishining tahlili jamg'arish me'yori naqadar yuqori bo'lsa, iqtisodiy o'sish sur'atlari ham shu qadar yuqori bo'lishidan dalolat beradi. Boshqacha qilib aytganda, jamg'arish me'yori bilan mamlakatlar iqtisodiy o'sishining sur'atlari o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri o'zaro bog'liqlik kuzatiladi

Jumladan, sobiq ittifoqning urushdan avvalgi yillarda va Yaponiyaning ikkinchi jahon urushidan keyingi yuksak sur'atlar bilan iqtisodiy o'sishi bu jamg'arish yuqori me'yorining (milliy daromadga nisbatan 38–40%) oqibatidir. Tabiiyki, jamg'arishning bunday yuqori me'yorini amaliyotda amalga oshirish uchun mamlakat tegishli resurslarga ega bo'lishi va zarur shart-sharoitlarni yaratishi kerak.

Umumiy va ayniqsa, ishlab chiqarish jamg'armasi yuqori me'yorining natijasi sifatidagi iqtisodiy o'sishning yuksak sur'atlariga (milliy daromad o'rtacha yillik o'sishining 12–15 foiziga) yangi ish joylarini tashkil etishga asoslangan ko'proq kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning ekstensiv turi sharoitlarida erishilishi mumkin. Bu mamlakatda texnik jihatdan yangilangan ish joylarida mehnat qilish uchun yetarli darajada tayyorlangan ishchi kuchi zahiralari mavjudligini taxmin qiladi.

Jamg'arish yuqori me'yorining oqibati sifatida iqtisodiy o'sishning yuksak sur'atlariga erishilishini ta'minlovchi ko'pgina boshqa shartlar mavjud. Ulardan biriga e'tibor bermaslikning iloji yo'q. Jamg'arishning yuqori me'yori aholining milliy daromaddagi iste'mol ulushi kamayishining muqarrar oqibati hisoblanadi.

Jamg'arish ushbu varianda muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga mamlakat aholisi ish haqining barqarorligi yoki arzimagan miqdorda ko'payib borishiga

sabr-bardoshli bo'lgan takdirdagina erishiladi. Sobiq ittifoq va Yaponiya aholisi iqtisodiy o'sish yuksak sur'atlar bilan kechayotgan vaqtda shaxsiy daromadlarning arzimagan o'sishiga qanoat qilib kelgan. Shuni ta'kidlash kerakki, Yaponiya bugun ham aholi jon boshiga milliy mahsulot ishlab chiqarish darajasi bo'yicha oldingi o'rinlardan birini egallab turganiga qaramay, aholining daromadlari darajasi bo'yicha dunyoda 37 - o'rinda turadi. Talablar yig'indisi va taklif o'rtasidagi muvozanat – ijtimoiy-iqtisodiy tizim normal holatining zarur shart- sharoiti bo'lgan bozor iqtisodiyoti uchun mantiqqa zid bunday vaziyat mamlakatning ishlab chiqarishi aksariyat eksportga yo'naltirilgan sharoitdagina vujudga kelishi mumkin. Sobiq ittifoqda esa, odamlar yo joriy iste'molni qurbon qilishar yoki ularning daromadlarni ko'paytirish haqidagi da'volari davlat mashinasi tomonidan tizginlanib turardi.

Jamg'arish me'yorini oshirib borishning ma'lum chegarasi bor, uni mensimaslik iqtisodiy o'sish sur'atlarining qisqarishiga, jamg'arish samaradorligi va butun milliy iqtisodiyotning o'sish sur'atlari hamda aholi turmush darajasi pasayishiga olib keladi. Masalan, 31 foizdan boshlab jamg'arish me'yorining qolgan barcha ko'rsatkichlari mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida keskinlikning kuchayishiga olib kelishi aniqlangan. Jamg'arishning 73 foiz va undan yuqori me'yorlari, shubhasiz ashaddiy totalitar siyosiy tizim uchun ham maqbul emasdi.

Jamg'arish me'yorini oshirib borish imkoniyatlari nafaqat qo'shimcha mahsulot me'yori bilan, shuningdek, texnik imkoniyatlar mavjudligi, fan - texnika inqilobi jahon yutuqlarini o'zlashtirish darajasi, milliy iqtisodiyot darajasi, tarkibiy tuzilishi va hokazolar bilan ham cheklangan.

Joriy iste'mol manfaatlari ham ishda jamg'arish manfaatlariga to'qnash keladi. Xoh iste'mol tomonga, xoh jamg'arish tomonga har qanday og'ish muqarrar ravishda iqtisodiy o'sish sur'atlarining pasayishiga va u keltirib chiqaruvchi oqibatlariga olib boradi. Shu munosabat bilan fan va amaliyot oldida jamg'arishning eng maqbul me'yorini topish yoki g'arb atamallari bilan aytganda, milliy daromadning ikki tabiiy qismi o'rtasida makroiqtisodiy muvozanatga erishish muammosi ko'ndalang turadi.

Jamg'arishning eng maqbul me'yori deganda, jamg'arish va iste'mol o'rtasidagi, iste'mol fondining mutlaq ko'paytirilishi jamg'arma fondi mutlaq hajmlari uzluksiz oshib borishini ta'minlaydigan nisbat tushuniladi.

70 - yillarda ittifoqda g'arb iqtisodiyot fanidagi iqtisodiy - matematik yo'nalish ta'siri ostida jamg'arishning eng maqbul me'yorlariga doir ilmiy ishlar anchagina faollik bilan olib borildi. Bu sohada muayyan yutuqlarga erishilganiga qaramay, olimlar ishlab chiqqan jamg'arishning eng maqbul

me'yorini amalga oshirishning iloji bo'lmadi. Buni tushunsa bo'ladi: jamg'arishning eng maqbul me'yorini – o'zgarib turuvchi kattalik bo'lib, o'nga bashorat qilish qiyin bo'lgan ko'pgina omillar ta'sir qiladi. Jamg'arish va iste'mol fondlari nisbatiga jamoat ishlab chiqarishi samaradorligining barcha omillari majmui, birinchi navbatda, fond yoki kapital samaradorligi koeffitsiyentining o'zgarishlari ta'sir o'tkazadi.

Ishlab chiqarilgan mahsulotning (yoki milliy daromadning) har birligiga kapital sarfi hajmining ko'payishi jamg'arish me'yorining oshib borishiga, buning oqibati sifatida – iste'mol imkoniyatlarining kamayishiga olib keladi. Kapital sarfi hajmining pasayishi (iqtisodiy o'sish sur'atlariga zarar yetkazmay) jamg'arish me'yorini qisqartirish va iste'mol fondini ko'paytirib borish imkonini beradi.

Makrodarajada jamg'arish samaradorligini baholash uchun jamg'arish samaradorligi koeffitsiyentidan foydalaniladi, bu koeffitsiyent quyidagicha hisoblab chiqiladi:

$$\text{Jamg'arish samaradorligi koeffitsiyenti} = \frac{\text{Milliy daromadning o'sishi, \%}}{\text{Jamg'arish me'yorini, \%}}$$

Jamg'arish samaradorligi koeffitsiyenti jamg'arish me'yorining har bir foiziga milliy daromad o'sishining necha foizi to'g'ri kelishini ko'rsatadi. Jamg'arish me'yorini barqaror yoki kamayib borayotganida milliy daromadning o'sish sur'atlari naqadar yuqori bo'lsa, umuman jamg'arish jarayonining samaradorligi ham shu qadar yuqori, mamlakat aholisining daromadlari, va iste'moli o'sishi uchun real imkoniyatlar ko'proq bo'ladi.

### **36.3. Investitsiyalarning manbalari**

Mikrodarajada mulkka egalikning turli ko'rinishlariga mansub korxonalar tomonidan yaratilgan qo'shimcha mahsulot (foyda), aholining omonatlari, xorijiy investitsiyalar investitsiya mablag'larining asosiy birlamchi manbalari hisoblanadi.

Jahon amaliyoti mamlakatning iqtisodiy o'sishini ichki resurslar belgilashidan dalolat beradi.

Milliy iqtisodiyotning real sektorida yaratiluvchi qo'shimcha mahsulotni mamlakat investitsiya mablag'larining asosiy, aslini olganda, yagona manbai, deb hisoblash kerak.

1991-2000 yillardagi O'zbekiston iqtisodiyoti ob'ektiv tahlil qilinganda: nima uchun O'zbekiston iqtisodiyotining moliyaviy sektoriga solingan mablag'lar, ularga investitsiyalar moddiy ishlab chiqarish tarmoqlariga



solingan mablag'lardan qariyb ikki barobar ko'p bo'lganiga qaramay mamlakat iqtisodiyotining yuksalishiga xizmat qilmadi, degan savol ko'ndalang bo'ladi. Bir qator mualliflar qanday mulohazalardan kelib chiqib - biznestomoshani, madaniyatni, fanni, maorifni iqtisodiyotning real sektori sirasiga kiritadilar? Nima uchun faoliyatning shu sohalariga investitsiyalar iqtisodiy o'sishni, O'zbekiston davlati budjetining daromadlar qismi to'lishi va mamlakat aholisi asosiy qismi daromadlarining ko'payishini ta'minlamayapti? Va nihoyat, nima uchun O'zbekiston hukumati so'nggi 2-3 yildan beri ijtimoiy-iqtisodiy inqirozdan chiqish yo'lini milliy iqtisodiyotning real sektoriga investitsiyalarni ko'paytirishda ko'rmoqda?

Mana shu savollarga javoblar iqtisodiyot real sektorining «real bo'lmagan» sektordan tub farqi uning qo'shimcha mahsulot yaratish qobiliyatida ekanligini tushunishda yashiringan. Qo'shimcha mahsulot ijtimoiy sohani rivojlantirish manbai, shuningdek, uning keyinchalik mamlakat ichida va turli mamlakatlar o'rtasida qayta taqsimlanishining real manbai bo'lib xizmat qiladi.

«Iqtisodiyot real sektori»ning mazmuni moddiy ishlab chiqarish, unumli va unumsiz mehnat tushunchalari tahliliga ob'ektiv yondashilganida namoyon bo'ladi. Mazkur holda unumli mehnatni yangi iste'mol qiymatini, qayta ishlab chiqarilgan tovarda yoki moddiy mahsulotda mavjud bo'lgan, dastavval ishlab chiqarishda foydalanilgan xom ashyo, materiallar va jonli mehnatga haq to'lash uchun sarf - xarajatlarga nisbatan kattaroq miqdori bilan farq qiluvchi, yangi naflilik yoki qadr-qiymatni yaratuvchi sifatida tushunish muhim amaliy ahamiyatga ega. Faqat moddiy ishlab chiqarishni bir tekis va samarali rivojlantirish davlat budjeti daromad qismi shakllanishining, ijtimoiy sohani moliyaviy ta'minlashning va aholining ijtimoiy soha korxonalari tijorat xizmatlariga haq to'lash uchun pul imkoniyatlari oshib borishining yagona manbai bo'lib xizmat qiluvchi qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarish, xodimlar ish haqini oshirish imkonini beradi.

Ijtimoiy tarmoqlar yoki ishlab chiqarishga aloqasi bo'lmagan sohalarning daromadlari har qanday ijtimoiy-iqtisodiy tizimda ikkilamchidir. Ijtimoiy soha xodimlari daromadlarining bog'liqligi har bir mamlakatda ishlab chiqarish tushkunlikka uchragan va iqtisodiy inqiroz davrlarida yakkol ko'zga tashlanadi. O'zbekistonda fan, san'at, maorif, sog'liqni saqlash, sport xodimlari fakirona budjetni moddiy ishlab chiqarishning ishlamayotgan tarmoqlari natijasi va juda kam soliq tushumlarining oqibati sifatida o'zlarida xis etmokdalar.

Makroiqtisodiy barqarorlikka erishilishi iqtisodiy va institutsional islohotlarning chuqurlashtirilishi hamda mamlakatimizda investitsiya

muhitining yaxshilanishi investitsiya faoliyatining sezilarli darajada kuchayishiga olib keldi va 2020 yilda O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiy va ijtimoiy sohalarini rivojlantirish uchun jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 202,0 trln. so‘m o‘zlashtirildi. Dollar ekvivalentida 20,1 mlrd. AQSh doll. o‘zlashtirilgan bo‘lib, 2019 yilga nisbatan 91,8 % ni tashkil etdi<sup>25</sup>.

36.1 - jadval

### Kapital qo‘yilmalar dinamikasi va tarkibi<sup>26</sup>

	Kapital ko‘yilmalar (mln. doll.)				Kapital qo‘yilmalar tarkibi (foiz)			
	1990	2000	2011	2020	1990	2000	2011	2020
Kapital qo‘yilmalar	833,8	3142,5	10468	20100	100	100	100	
Shu jumladan:								
Davlat budjeti, byudjetdan tashqari fondlar mablag‘lari va boshqa markazlashtirilgan manbalar	386,1	958,1	1421,0	39310,2	46,3	30,5	13,5	19,5
Markazlashmagan investitsiyalar:	447,7	1456,9	6800,0	162689,9	53,7	46,3	65,0	80,5
Korxonalar mablag‘lari	342,7	852,9	3643,8	51911,3	41,1	27,1	34,8	25,7
Aholi mablag‘lari	105,0	376,6	1947,1	18077,8	12,6	12,0	18,6	8,9
Bank kreditlari va boshqa kredit mablag‘lari	-	227,4	1209,1	28520,9	-	7,2	11,6	14,1
Xorijiy investitsiyalar va kreditlar	-	727,5	2247,0	64179,9	-	23,2	21,5	31,8
Shu jumladan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar	-	105,2	1874,7	28740,5	-	3,4	17,9	14,2

Ayniqsa, moliyalashtirish manbalari bo‘yicha investitsiyalar tarkibida tub o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Iqtisodiyotimizdagi ancha yuqori o‘shish sur‘atlari o‘shish hisobidan markazlashmagan manbalar, birinchi navbatda hususiy va to‘g‘ridan -to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar ulushi ortib bormoqda.

Agar 1990 yilda iqtisodiyotga kiritilgan investitsiyalarning 46% dan ortig‘i davlat budjeti, budjetdan tashqari fondlar va boshqa markazlashgan manbalar mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilgan bo‘lsa, 2020 yilda markazlashgan moliyalashtirish manbalarining jami kapital qo‘yilmalar hajmidagi ulushi 19,5% ga tushdi. Bu jarayonda davlat budjeti va boshqa

<sup>25</sup> Ўзбекистон Республикасининг Ижтимоий-иқтисодий ҳолати. 2020 йил, январь-декабрь. Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси. Тошкент – 2021 й. Б.137.

<sup>26</sup> Ўзбекистон Республикасининг Ижтимоий-иқтисодий ҳолати. 2020 йил, январь-декабрь. Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси. Тошкент – 2021 й. Б.137-140.

markazlashgan manbalar hisobidan yo‘naltirilgan umumiy investitsiyalar hajmi 24 barobardan ziyod ortdi.

Turli maktablarga mansub iqtisodchilarning qo‘shimcha mahsulot kategoriyasiga munosabatlarida mafkuraviy yondashuv unsurlari kuzatiladi: mazkur kategoriyani klassik siyosiy iqtisod va marksizm bilan bog‘lashadi, vaholanki, hozirgi zamon g‘arb iqtisodchilari makroiqtisodiyot nazariyasida ushbu kategoriyadan foydalanishmaydi. Bunday yondashuv ko‘rsatma - rejali va bozor iqtisodiyoti sharoitlarida milliy iqtisodiyotning faoliyat ko‘rsatish mexanizmlari xususiyatini yetarlicha tushuna bilmaslik oqibati hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida foyda (qo‘shimcha mahsulot) yaratish, moddiy - ishlab chiqarish sarf - xarajatlari ustidan, narx - navo, iste‘mol talabi, ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmlarini hisob - kitob va nazorat qilish muammolari kapitalning xususiy egasi tomonidan, ya‘ni mikrodarajada hal etiladi. Davlatga makrodarajada har bir firma faoliyatining barcha asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlarini aniqlab borish va nazorat qilish zaruratiq. Bu asosiy kapital egasining vazifasi. Bunday qilishga davlatning na zarurati, na imkoniyatlari bor.

Bozor iqtisodiyotida firma egasi davlatga hisobot berib borishga majbur emas. Yana bir narsani nazarda tutish kerakki, firma iqtisodiy faoliyatining ko‘pgina ko‘rsatkichlari uning tijorat siri hisoblanadi. Bu demak, mikrodarajadagi foyda (qo‘shimcha mahsulot) kattaligi firma egasining tashvishi hisoblanadi. Bozor iqtisodiyotida davlat pul oqimlari miqdori va dinamikasini soliqlar, kreditlar, ish haqi, muomaladagi pul miqdori va hokazolar orqali kuzatib borish hamda inobatga olish imkoniyatigagina ega.

Nima uchun makroiqtisodiyot nazariyasida, milliy hisob-kitoblar tizimida «qo‘shimcha qiymat» kategoriyasidan keng foydalanilishini tushunsa bo‘ladi.

Davlat ishlab chiqarish vositalarining yagona hukumron egasi bo‘lgan xo‘jalik yuritishning sobiq sovet modelida, milliy iqtisodiyot deganda, asli yagona egasi bo‘lgan «bahaybat korxonani»ni tushunsa bo‘lardi. Bunday sharoitda davlat o‘zini bozor iqtisodiyotidagi xususiy firmaning egasi kabi tutishi: foyda, ish haqi, narx-navo, mahsulot ishlab chiqarish va sotish, moddiy - ishlab chiqarish xarajatlari va hokazolarni aniq kuzatib borishi tabiiy.

Ko‘rsatma - rejali iqtisodiyot tizimida davlat makrodarajada qayta ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish manfaatlarini ko‘zlab, milliy xo‘jalikni ikki sohaga - moddiy (ishlab chiqarish) va ishlab chiqarishga aloqasi bo‘lmagan sohalarga bo‘lishi, jamg‘arma bilan iste‘mol o‘rtasida, ishlab chiqarish bilan ishlab chiqarishga aloqasi bo‘lmagan sohalarda o‘rtasida keyinchalik taqsimlash va qayta taqsimlash uchun yalpi foyda (qo‘shimcha mahsulot)ni aniq hisob - kitob qilib borishi lozim.

Har bir g'arb mamlakatidagi o'z tarkibida kasalxona, sport zaliga ega bo'lgan va shu tarkibiy tuzilmalarning xizmatlaridan foydalanganlik uchun haq olmaydigan xususiy firma ularga ketadigan xarajatlarni o'z foydasi hisobidan qoplashga majburdir.

Biz makroiqtisodiy ko'rsatkichlar hisob-kitobi uslubiyatidagi kamchiliklarni ko'rsatib o'tdik. Bu kamchiliklarni g'arb mutaxassisleri e'tirof etishadi, real sektor makroiqtisodiy ko'rsatkichlarini ob'ektiv aks ettirish imkoniyatlari esa, milliy hisob-kitoblar tizimi sarhisobining uslubi va uslubiyatini takomillashtirishning istiqbolli yo'nalishi bo'lib qolaveradi.

Sobiq sotsialistik mamlakatlar amaliyoti ko'rsatishiga qaraganda, ko'rsatma - rejali tizimdan bozor tizimiga o'tish moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarining vayron bo'lishi va bank, moliya, vositachi tuzilmalarning gurkirab rivojlanishi, turli xil pul topishga qaratilgan «tomosha»larning vujudga kelishi bilan tavsiflanadi.

Bunday vaziyatda ijtimoiy-iqtisodiy inqirozdan chiqish, milliy iqtisodiyotni ko'tarish va ichki investitsiya resurslarini safarbar etish manfaatlari yo'lida yaratilgan milliy daromadni moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarida qo'shimcha mahsulot yaratilishini nazarda tutuvchi uslubiyati bo'yicha sarhisob qilish borasida to'plangan tajribani yo'qotish kerak emas. Shuni ta'kidlash kerakki, sobiq sotsialistik mamlakatlar uchun hech bo'lmaganda bozor o'zgarishlarining ilk bosqichlarida, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar sarhisobining avvalgi tizimidan foydalanish amaliy ahamiyatga ega ekanligini xalqaro tashkilotlar rad etishgani yo'q.

Ijtimoiy sohaga investitsiyalar (asosiy ishlab chiqarishga aloqasi bo'lmagan fondlarning o'sishi) juda ham muhim, ob'ektiv zarur, yangi ish joylari yaratilishiga olib keladi, ammo iqtisodiy o'sishda multiplikatsiya ta'siri vujudga kelishiga sust xizmat qiladi.

Mazkur sohaga real investitsiyalar ko'pincha budjet hisobiga (ya'ni soliq tushumlari hisobiga), nisbatan kam miqdorda, shu sohada faoliyat ko'rsatayotgan tijorat tuzilmalarining foydasi hisobiga shakllanadi. Har qanday holda ham ijtimoiy soha tarmoqlariga investitsiyalarning real imkoniyati mamlakat iqtisodiyoti real sektorining rivojlanish sur'atlari bilan, ular ishlab chiqarayotgan qo'shimcha mahsulot miqdorining hajmi va me'yori bilan belgilanadi. Shu bilan birga, real sektordagi investitsiya jarayonlarining samaradorligini zamonaviy, a'lo darajada rivojlangan, yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlangan ijtimoiy xizmatlar tizimisiz ijobiy hal etib bo'lmasligini alohida ta'kidlash lozim.

Jahon tajribasi mamlakat iqtisodiyoti real sektoriga investitsiyalar samaradorligi, ular ishlab chiqarayotgan qo'shimcha mahsulot miqdori va

me'yor ijtimoiy sohaning qay darajada rivojlanganligiga va ular qilayotgan xizmatlarning sifat darajasiga uzviy bog'liq ekanligini ko'rsatadi.

Iqtisodiyot real sektorini ajratib ko'rsatish va uning qo'shimcha mahsulot yaratishdagi ahamiyatini qayd etish bilan birga, hozirgi zamon ishlab chiqarishini samarali rivojlantirishda ijtimoiy sohaning roli va vazifalarini yetarli darajada baholamaslik g'oyatda xatodir. Ijtimoiy sohaning rivojlanganlik darajasi va unda band bo'lgan mehnatning sifati aksariyat intensiv turdagi iqtisodiyot samarali rivojlanishning nafaqat oqibati, shu bilan birga, ob'ektiv shart - sharoiti sifatida namoyon bo'ladi. Bugungi kunda ijtimoiy sohaning rivojlanganlik darajasi shu sohada mashg'ul bo'lgan xodimlar tomonidan belgilanadi, ularning sifat tavsiflariga talablar g'oyatda kattadir. Fan, maorif, sog'liqni saqlash texnika-texnologiya bilan yuksak darajada jihozlangan sharoitlardagina samarali ishlashi mumkin.

Shunday qilib, hozirgi zamon ijtimoiy xizmatlar sohasi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida o'z vazifalarini samarali amalga oshirishi uchun ikki yo'nalishda: xalq maorifining barcha ko'rinishlariga va xizmatlar sohasidagi ish joylarining texnik- texnologik jihozlanishi oshirilishiga faol investitsiyalar qilinishini talab etadi.

Ijtimoiy sohaning ajratilishi va uning jadal sur'atlar bilan rivojlanishi – ijtimoiy mehnat taqsimotidagi navbatdagi jiddiy bosqichning natijasi va inson faoliyati barcha sohalaridagi taraqqiyotning shart-sharoiti bo'ldi. Ijtimoiy soha tarmoqlarining yuksak rivojlanish sur'atlari XX asrning ikkinchi yarmiga to'g'ri keladi va fan-texnika inqilobi bilan izohlanadi.

Fan-texnika inqilobi mehnatning barcha turlari xodimlarining sifat tavsiflariga yuksak talablarni qo'ydi. Fan-texnika inqilobining jahon yutuqlaridan samarali foydalana olgan mamlakatlar «insonga sarflanadigan mablag'larni» ko'paytirishlari kerak edi (amalda ham ko'paytirdilar). Ushbu sarf-xarajatlar ijtimoiy soha tarmoqlariga budjetdan moliya sarfini ko'paytirish orqaligina emas, g'arb mamlakatlari aholisining daromadi o'sishi orqali ham amalga oshirildi. Ushbu mamlakatlardagi ijtimoiy sohaga sarflangan mablag'lar fan-texnika inqilobi yetkazib berayotgan yuqori unumli texnologiyalardan samarali foydalanish hisobiga iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlari va ishlab chiqarish samaradorligi bilan o'zini to'la qopladi.

Shunday qilib, jamiyatdagi har qanday mehnat taqsimoti kabi, ijtimoiy sohaning ajratilishi boshqa sohalarda ham mehnat unumdorligi o'sishiga xizmat qildi. Ayni vaqtda, tabiiyki, ularning rivojlanish jarayonida o'zaro bog'liqlik va o'zaro aloqa, shuningdek, qarama - qarshiliklar kuchayib boradi.

Ijtimoiy soha inson va uning sifat tavsiflari (ma'lumoti, salomatligi, jismoniy chiniquanligi) orqali iqtisodiy rivojlanishning sur'atlari va

samaradorligiga faol ta'sir etadi. Moddiy ishlab chiqarish esa, ishchi kuchi sifat tavsiflarini oshirish zamirida o'z samaradorligini oshira borib, ijtimoiy sohani moliyaviy ta'minlash manbai bo'lmish aholi daromadlari va davlat budjetining o'sishiga xizmat qiladi.

Mamlakat ishlab chiqarishidagi parokandalik, tabiiy boyliklarni eksport qilish, iste'mol tovarlarni import qilishga zo'r berish ijtimoiy sohaga, ayniqsa, fan va maorifga mablag'lar sarfi «kerak emas», degan fikrni vujudga keltiradi. Ammo bu fikr xato, hozirgi zamon ijtimoiy taraqqiyotining manbalari va yo'llariga tor yondashuvdir. Mamlakat inson kapitaliga mablag' sarflash muhimligini inkor etar ekan, o'zini kelajakda samarali rivojlanishdan mahrum qiladi. Ishlab chiqarish faoliyat ko'rsatmayotgan mamlakatda ijtimoiy soha xodimlarining xizmatlariga talab yo'q. Ijtimoiy soha budjet bo'ynidagi ortikcha yukdek ko'rinadi.

Ijtimoiy sohaning iqtisodiy mohiyati, iqtisodiyotning real sektori bilan hamkorlik zarurligi va hamkorlik xususiyatlarini rivojlantirish shartlari muammosi yanada chuqurroq tadqiqotlar olib borilishini talab qiladi. Zero, ijtimoiy soha rivojlanishining iqtisodiy o'sishga ta'siri ayrim g'arb tadqiqotchilarining fikriga ko'ra, bir xil emas. Bir qator tadqiqotchilar ijtimoiy soha iqtisodiy o'sish sur'atlarini tizginlovchi ta'sir ham o'tkazadi, deb ta'kidlaydilar. Shu narsa ayonki, inson faoliyatining ikki sohasi rivojlanishida eng maqbul nisbatga erishish masalasi ko'ndalang bo'ladi.

Xo'jalik yuritishning har qanday tizimida aholi omonatlari investitsiyalarning salmoqli manbai bo'lib xizmat qiladi. Omonatlar oila pul daromadlarining umumiy miqdori bilan joriy iste'molga sarflanuvchi qismi o'rtasidagi farqni tashkil etadi. Amerikalik professor, olamga mashhur «Iqtisodiy rivojlanish» darsligining muallifi M.Todaroning ta'rifiga qaraganda: «Omonatlar ixtiyorimizdagi daromadning uy - ro'zg'or iste'moliga sarflanmaydigan va firma tomonidan taqsimlanmagan foydaning bir qismidir»<sup>27</sup>.

Omonatlar ulushi ko'pgina omillarga, shu jumladan, ruhiyatga ham bog'liq. Ammo omonatlar ulushiga iqtisodiy omillar – oila pul daromadlarining darajasi va harakati, mamlakatning iqtisodiy rivojlanganligi darajasi, aholi ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarining tarkib topgan tizimi, iste'mol tovarlariga narx-navoning o'zgarishi va hokazolar jiddiy ta'sir etadi.

Shu bilan birga, aholi daromadlarida omonatlar o'sishining iqtisodiy o'sishga ta'sirini tahlil qilish jamiyatning ko'proq tejab qolishga o'rinishi

---

<sup>27</sup> Тодаро М. Экономическое развитие. М. : Экономический факультет МГУ : Юнити,1997.

omonatlarning shu hajmda qolishi yoki undan kamroq bo‘lishiga olib keladi, deb xulosa chiqarish imkonini beradi.

Amerika darsliklarida bu voqeani mantiqqa zid tejamkorlik, deb atashadi. Uning mohiyati shundaki, investitsiyalarning va iste’molning yuqori sur’atlari (oz miqdordagi omonatlar) bir-biriga qarshilik ko‘rsatmay, bir-biriga yordam beradi. Ammo shaxs tejamkorligi ijtimoiy ofat bo‘lib chiqishi mumkin. Gap shundaki, har bir kishining o‘z omonatlarini ko‘paytirishga intilishi umuman, jamiyatdagi haqiqiy investitsiyalarning kamayishiga olib kelishi mumkin. Tejamkorlikka moyillikning kuchayishi iste’mol talabi qisqarishiga olib boradi, natijada, tovar ishlab chiqaruvchilarning ishlab chiqarishni kengaytirishga, ya’ni investitsiyalar olib kirishga qiziqishi susayadi. Bu demak, xususiy omonatlarning o‘sishi iste’mol tovarlariga talabning pasayishiga, ularning savdo-sotig‘i kamayishiga, mahsulot ishlab chiqarish sur’atlarining pasayishiga va mamlakat milliy daromadi qisqarishiga olib keladi. Ayni vaqtda iqtisodiyotning ahvoli katta ahamiyat kasb etadi.

Urushlar, inqirozlar davrida, shuningdek, xo‘jalik yuritishning eng sodda ko‘rinishlarida ish bilan to‘la bandlik sharoitlarida omonatlarning o‘sishi investitsiyalar imkoniyatini ko‘paytiradi. Ish bilan bandlik to‘liq emas, talab yetarli darajada bo‘lmagan sharoitlarda shaxsiy omonatlar umuman, iqtisodiyotdagi tejamlar va investitsiyalarni kamaytiradi.

Gap shundaki, odam iqtisod qilar ekan, iste’molni, ya’ni talabni qisqartiradi. Natijada, boshqalarning daromadlari kamayadi, chunki bir sub’ektning xarajatlari boshqa sub’ektning daromadlarini shakllantiradi.

Sobiq sovet davrida omonatlar majburiy xarakterga ega bo‘lib, davlat uchun foydali edi. Aholi iqtisod qilish bilan iste’mol tovarlarining doimiy tanqisligi hukumron bo‘lgan bozorga tazyiqni bo‘shashtiradi. Odamlar omonatlarni asosan uzoq vaqt foydalaniladigan tovarlarni (mebel, maishiy texnika, mashina va hokazolarni) sotib olish uchun shaxsiy jamg‘arma vositalari, deb karashar edi. Hamma «g‘amlab borsam», «omadim keladi» va bir kunmas-bir kun o‘zimga zarur narsani sotib olaman, deb umid qilar edi. Omonat banklari davlat muassasasi bo‘lgani bois aholining omonatlari kapital mablag‘larga, iqtisodiy o‘sishni qo‘llab-quvvatlashga safarbar etilardi. Bozorni qayta qurish yillarida O‘zbekiston investitsiyalar uchun manba sifatidagi omonatlarni bir necha marta boy berdi. Aholining ko‘p milliardli omonatlari turli xil «piramidalar», tijorat banklari va fondlarning nopok tashkilotchilari qo‘liga o‘tib ketdi. G‘arb mamlakatlarida aholining omonatlari banklar va boshqa investitsiyachi vositachilar orqali bevosita tovar ishlab chiqaruvchilarga yetkazib beriladi va ishlab chiqarishni kengaytirish maqsadlariga xizmat qiladi. O‘zbekistonda esa, ular qayta ishlab chiqarish

jarayonidan ajratib olinadi, chet mamlakatlarning banklarida qo‘nim topadi yoki ishlab chiqarishga aloqasi bo‘lmagan kuchmas mulkka aylanadi. Ushbu jarayonning avj olishiga mamlakatda ishlab chiqarishning xonavayron bo‘lishi, ko‘pgina korxonalarining o‘z zarariga ishlashi yoki bankrot bo‘lishi salbiy ta‘sir etdi. Dalillar shundan dalolat beradiki, 2000 – 2012 yillarda mamlakat ishlab chiqarishining o‘sishi va aholi shaxsiy daromadlarining ko‘payishi O‘zbekiston aholisining ham milliy, ham xorijiy valyutalardagi omonatlarining o‘shishiga xizmat qildi. Ammo 2008 yilning avgust oyidagi moliyaviy inqiroz, yirik banklarning bankrot bo‘lishi va aholining o‘z omonatlaridan ayrilib kolishi bank tizimiga ishonchni barbod qildi. O‘zbekistonning oldida hali aholi pul omonatlarini jalb etish va ulardan ham tadbirkorlar, ham aholining o‘zi uchun unumli foydalanishning yaxshi sozlangan mexanizmini tashkil etish vazifasi turibdi.

#### **36.4. Multiplikator va akselerator nazariyasi**

G‘arb o‘quv adabiyotlarida jamg‘arish jarayoni J.Keynsning makroiqtisodiyot nazariyasi nuqtai nazaridan ko‘rib chiqiladi. Mazkur jarayonning mazmuni ilgari ko‘rib chiqilgan jarayonga nisbatan jiddiy farq qilmaydi. Oxirgisi Keynsning ishlab chiqarishni kengaytirish nazariyasi hamda uning mohiyatini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Bozor sharoitlaridagi makroiqtisodiyot nazariyasining asoslarini yaratgan J.Keyns ilk bor omonatlar, iste‘mol va investitsiyalar o‘rtasidagi o‘zaro aloqani aniqlashga o‘rinadi. Davlat ana shu aloqalarga ta‘sir o‘tkazib, bozor sharoitlarida milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda muvozanatni saqlab turishga xizmat qilishi mumkin, deb isbotlaydi, u. Ana shu jarayonlarni tahlil qilish uchun Keyns keyinchalik g‘arb iqtisodiy tafakkuri tomonidan foydalanilgan va rivojlantirilgan tushunchalarni ilmiy muomalaga kiritadi. Investitsiyalarning ko‘effitsiyent- multiplikatorini, akseleratsiya tamoyilini, multiplikator - akselerator nazariyasini shu turning asosiy tushunchalari qatoriga kiritish kerak. Multiplikator va akselerator harakatini tahlil qilish, ularning miqdorini aniqlash uchun Keynsning asosiy «ruhiy» qonuni tushunchalaridan foydalaniladi. Asosiy ruhiy qonun mazmun-mohiyatini J.Keyns «bu inson tabiatiga doir bilimlarimizdan kelib chiqib, hamda tajribalarni sinchiklab o‘rganish asosida «apriori» tarzida tayanishimiz mumkin bo‘lgan qonun, odatda, odamlar daromad oshib borishi bilan o‘z iste‘molini ko‘paytirishga moyildirlar, ammo daromadning o‘sib borish sur‘atlariga mos miqdorda emas», deb ta‘riflaydi. Mazkur qonunga holisona baho beriladigan bo‘lsa, uning favqulodda ruhiy mazmunga ega ekanligi bilan kelishish mushkulroq bo‘ladi. Yuqorida biz ko‘rib chiqqanimizdek, omonatlar asosan oilaning



daromadiga, mamlakatning iqtisodiy rivojlanganlik darajasiga, iqtisodiy jarayonning bosqichiga, ish bilan bandlik, ishsizlik va hokazolarga bog'liq. Iste'mol daromad bilan bir yo'nalishda o'zgarib boradi. Iste'molga moyillik milliy daromad iste'mol qilinadigan qismining yalpi milliy daromadga nisbati sifatida, ya'ni iste'molning o'rtacha me'yori sifatida ifodalanadi, uni quyidagi nisbat bilan ifodalash mumkin:

Iste'molga o'rtacha moyillikdan farqli o'laroq g'arb iqtisodiy nazariyasida «iste'molga eng ko'p moyillik» tushunchasidan foydalaniladi.

Yuqorida keltirilgan iste'molga o'rtacha moyillikdan farqli ravishda iste'molga eng ko'p moyillik iste'moldagi o'zgarishlarning daromaddagi o'zgarishlarga nisbatini aks ettiradi. Bu quyidagi nisbat bilan ifodalanishi mumkin:

Mazkur nisbat milliy daromad ko'payishi yoki kamayishi natijasida milliy daromadning iste'mol qismi ko'payishi yoki kamayishini ko'rsatadi.

Iste'mol xarajatlari hajmi daromad bilan belgilanishi, u hamisha bir xil bo'lishi (1 yoki 100 foizga teng bo'lishi) bois, iste'molga eng ko'p moyillik koeffitsiyenta hamisha birdan kam bo'ladi. Agar iste'molga eng ko'p moyillik 1ni tashkil etca, bu daromad o'sishining hammasi iste'molga yo'naltirilganligini anglatadi. Agar iste'molga eng ko'p moyillik «0» ga teng bo'lsa, bu demak, daromad o'sishining hammasini omonatlar tashkil etadi. Agar iste'molga eng ko'p moyillik koeffitsiyenti  $1/2$  ni, yoki aytaylik,  $3/4$  ni tashkil etsa, bu daromadning o'sishi iste'mol bilan omonatlar o'rtasida teng bo'linganini yoki o'sishning 75% iste'molga, 25% omonatlarga ketganini anglatadi. Ilgari ko'rsatib o'tilganidek, omonatlar – real investitsiyaning asosiy manbalaridan biridir. Bozor iqtisodiyotida xo'jalik yuritayotgan barcha sub'ektlar daromadlarida omonatlar qismining ulushi naqadar yuqori bo'lsa, omonatlarda iqtisodiyot real sektorini kengaytirishga jalb etish mexanizmlari o'ta sozlangan bo'lsa, bu demak iqtisodiy o'sishning eng yuqori sur'atlariga erishish imkoniyati shu qadar yuqori bo'ladi.

Agar omonatlarga o'rtacha moyillik – omonatlarning daromadga nisbati bo'lsa, omonatlarga eng ko'p moyillik – daromad o'zgarishlariga ko'ra omonatlardagi o'zgarishlardir.

Basharti foydalanilgan milliy daromad iste'mol va omonatlar (jamg'armalar) ga bo'linar ekan, iste'molga eng ko'p moyillik va omonatlarga eng ko'p moyillik miqdori hamisha birga teng.

Bunda iste'molga eng ko'p moyillik teng bir ayiruv omonatlarga eng ko'p moyilliq omonatlarga eng ko'p moyillik teng bir ayiruv iste'molga eng ko'p moyillik bo'ladi.

Omonatlarga eng ko‘p moyillik iste‘molga eng ko‘p moyillikka nisbatan 1 ga qadar to‘ldiruvchi miqdor hisoblanadi.

Multiplikatorning so‘zma - so‘z tarjimasi «ko‘paytiruvchi» ma‘nosini anglatadi. Jamg‘arish jarayoniga nisbatan multiplikator ta‘sirining mohiyati shundan iboratki, investitsiyalarning ko‘payishi milliy daromad o‘shish sur‘atlarining oshishiga olib keladi, ayni vaqtda o‘shish miqdori investitsiyalarning dastlabki o‘shishidan kattaroq bo‘ladi.

Milliy daromad «K» (multiplikator-koeffitsiyent)dagi investitsiyalarning o‘shishidan kattaroq miqdorga oshadi

Boshqacha qilib aytganda, investitsiyalar multiplikatori – milliy daromad o‘shishining investitsiyalar o‘shishiga nisbatidir.

Investitsiyalar multiplikatori – omonatlarga eng ko‘p moyillikka qarama-qarshi miqdordir. Bu demak, investitsiyalar multiplikatori iste‘molga eng ko‘p moyillikka to‘g‘ridan - to‘g‘ri bog‘liq, omonatlarga eng ko‘p moyillikka esa, teskari bog‘liq.

Masalan, agar iste‘molga eng ko‘p moyillik  $\frac{3}{5}$  ga teng bo‘lsa, multiplikator quyidagiga teng bo‘ladi:

Bu investitsiyalar 1000 birlikka ko‘paytirilsa, daromadlarning umumiy o‘shishi 2500 birlikni tashkil etishini anglatadi.

Keyns omonatlar va investitsiyalar hamisha teng ekanligini, sababi haqiqiy omonatlar va investitsiyalar daromad va iste‘mol o‘rtasidagi farqqa tengligini isbotladi.

Ammo investitsiyalar darajasi va omonatlar darajasi (ya‘ni investitsiyalar manbai) ko‘pincha turli jarayonlar va shart - sharoitlar bilan belgilanadi.

Omonatlar (investitsiyalar manbai) – bu shaxsiy iste‘molga xarajatlar chiqarib tashlanganidan keyingi tasarrufda qolgan daromaddir. Muammoning murakkabligi shundaki, omonatlarni bir xo‘jalik sub‘ektlari (mehnat bilan band bo‘lgan aholi), investitsiyalarni esa, boshqa sub‘ektlar amalga oshiradilar. Tadbirkor bo‘lmagan uy xo‘jaliklari omonatlarining roli salmoqli, shu bois omonatlar jarayonining investitsiyalarga mos kelmasligi iqtisodiyot muvozanati buzilishiga olib kelishi mumkin.

Korxonalarda investitsiya jarayoni foydaning kutilayotgan me‘yori yoki ko‘zda tutilayotgan kapital mablag‘larning rentabelligiga bog‘liq. Investorlarning hisob - kitoblariga qaraganda, ana shu rentabellik past bo‘lsa kapital mablag‘lar sarfi amalga oshirilmaydi. Bundan taiqari, investor qaror ustida ishlash vaqtida hamisha kapital sarfining muqobil imkoniyatlarini inobatga oladi. Vaholanki, investitsiyalarning arzimagan miqdorga qisqarishi ham daromadlar o‘shish sur‘atining keskin va bir necha karra pasayishiga olib keladi.

Eng yuqori multiplikatsiya ta'sirini asosiy kapital o'sishiga, ayniqsa, uning faol qismi o'sishiga qilingan investitsiyalar keltirib chiqaradi.

Akseleratsiya (akselerator – tezlatgich) tamoyili deganda, investitsiyalarga talabni iste'mol tovarlarini sotishning o'sishi keltirib chiqarishidan dalolat beruvchi jarayonni tushunishadi.

Akselerator mohiyati va uning multiplikator bilan bevosita aloqasi quyidagilardan iborat: boshlang'ich investitsiya va ularning multiplikatsion ta'siri ish bilan bandlikning o'sishiga, aholi daromadlarining ko'payishiga va iste'mol tovarlariga talabning oshib borishiga olib keladi. Natijada II bo'linma tarmoqlari (xususiy iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish) kengayadi. Ular ishlab chiqarish vositalariga (investitsiya tovarlariga) talab bildiradilar. Muhimi shundaki, iste'mol tovarlariga bo'lgan talabdagi o'zgarishlar I bo'linma tarmoqlari (ishlab chiqarish vositalari)ga boshlang'ich investitsiya xarajatlariga qaraganda investitsiya tovarlariga talabda keskinroq o'zgarishlarni keltirib chiqaradi.

Akseleratsiya ko'lamlarini aniqlash uchun iste'mol talabi o'zgarishlarining investitsiya talabi o'zgarishlariga akselerativ ta'siri o'lchovidan foydalanishadi. Akseleratsiya koeffitsiyenti yoki oddiy akselerator shunday o'lchov bo'lib xizmat qiladi.

Amerikalik iqtisodchi E.Xansenning ta'rifiga ko'ra, akselerator – «raqamli ko'paytirgich bo'lib, olingan daromadning har bir dollari unga qarab investitsiyalarni ko'paytiradi».

Akseleratorning eng sodda formulasi quyidagicha:

Yangi investitsiyalarning o'sishi = akseleratsiya koeffitsiyenti (oxirgi davrdagi daromad – undan oldingi davrda olingan daromad).

Bu nisbat (akselerator) – birdan katta, chunki kapital hajmi tebranishlari iste'mol tovarlariga talab tebranishlaridan katta.

Daromadning o'sishi (multiplikator ta'siri) investitsiyalarning ko'p marotaba oshishiga olib keladi. Mabodo iste'mol tovarlariga talab ko'paysa, akseleratsiya koeffitsiyentiga muvofiq asosiy kapitalga ham talab oshadi. Shu bilan birga asosiy kapitalga talab (asosiy fondlarning o'sishi) iste'mol tovarlariga talab darajasiga emas, ana shu talab o'sishining sur'atlariga bog'liq ekanligi aniqlangan.

Iste'mol tovarlariga talab sur'ati susayib borayotganda (ayni vaqtda talab g'oyatda sekinlik bilan bo'lsa ham o'sishda davom etadi) asbob- uskunalariga (asosiy kapitalning faol qismiga) talab mutlaqo qisqarib ketadi.

Agar iste'mol tovarlariga talab o'zgarishsiz kolsa, qo'shimcha asbob - uskunalarni sotib olish zarurati kolmaydi, uni ishlab chiqaruvchi tarmoqlarga

esa ishlab turgan asbob-uskunalarni (eskirish darajasiga qarab) qo'llab-quvvatlash talabini qondirish uchun ishlash qoladi, xolos.

Multiplikator va akselerator bir - biri bilan hamkorlikda faoliyat ko'rsatadi. Multiplikatsiya ta'sirini keltirib chiqargan boshlang'ich investitsiyalar mustaqil investitsiyalar xarakteriga ega. Akseleratsiya tamoyili esa, daromadga (ya'ni savdo-sotiq hajmiga) qaram bo'lgan rag'batlantiruvchi investitsiyalar bilan bog'liq.

Mustaqil investitsiyalar iqtisodiyotni kengaytirish jarayoniga dastlabki to'rtki beradi, mehnat taqsimoti va ishlab chiqarish ko'pgina turlarining o'zaro bog'liqligi bois multiplikatsiya ta'sirini keltirib chiqaradi.

Ko'paygan daromadning natijasi hisoblanuvchi investitsiyalarni rag'batlantirish jarayoni rivojlanadi, bu daromadlarning yanada o'sishiga olib keladi.

Shunday qilib, daromadning o'zgarishi mustaqil (multiplikator) va rag'batlantiruvchi (akselerator) investitsiyalarga, ya'ni multiplikator va akseleratorning o'zaro hamkorligiga bog'liq. Ana shu hamkorlikning xarakteri amaliy faollikning kengayish va qisqarish jarayonlarini tushunish imkonini beradi.

Multiplikator - akselerator nazariyasi umuman mamlakat darajasida faoliyat ko'rsatayotgan bozor iqtisodiyoti amaliyotini umumlashtirish hisoblanadi. Shu munosabat bilan multiplikator - akselerator modeli har qanday milliy iqtisodiyot, shu jumladan, O'zbekiston milliy iqtisodiyoti uchun ham amaliy ahamiyatga ega.

Ammo ijtimoiy - iqtisodiy vaziyat nafaqat mamlakatlarga ko'ra, shu bilan birga, vaqtga qarab ham farq qiladi. Misol uchun, AQShning buyuk turg'unlikdan chiqish uchun jamoat ishlarini tashkil etishi, ya'ni davlat budjetining xarajatlar qismi hisobidan yangi ish joylarini va aholi daromadlarini tashkil etishi sezilarli darajada multiplikatsiya ta'sirini o'tkazadi. Bunday siyosat o'z-o'zini to'la oqlagan: tovarlar ishlab chiqarish g'oyatda ko'paygan, yalpi ishsizlik, past darajadagi daromadlar sharoitida tovarlarning yangidan-yangi turkumini bozorga chiqarib tashlash o'rniga yangi ish o'rinlarini va to'lov qobiliyatiga layoqatli qo'shimcha talabni tashkil etish muhimrok edi. Temir yo'llar, tug'onlar, maktab va kasalxonalar qurilishi yangi ish joylari tashkil etilishini, ishsizlik kamayib, daromadlar ko'payishini ta'minlaydi, sotilmay qolgan uyum-uyum tovarlar yangi iste'mol tovarlari qo'shilishiga olib kelmaydi. Ammo bunday siyosatni tovarlar haddan tashqari ko'p ishlab chiqarilgan va davlatning budjet mablag'lari mavjud bo'lgan taqdirdagina amalga oshirish mumkin va zarurdir.

Sobiq ittifoq sharoitlarida iqtisodiy o‘shiga milliy iqtisodiyotning ikki bo‘linmalari o‘rtasidagi nomutanosiblik va shu nomutanosiblik keltirib chiqargan iste’mol tovarlari ishlab chiqarishning doimiy va keskin tanqisligi iqtisodiyotning o‘shiga salbiy ta’sirni o‘tkazadi. Ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqarish samaradorligi past bo‘lgan bir vaqtdagi ishlab chiqarish jamg‘armasining yuqori me’yori ijtimoiy ishlab chiqarishning I va II bo‘linmalari o‘rtasida mutanosiblikka erishilishiga xizmat qilgani yo‘q.

Hozirgi O‘zbekistonda mutlaqo o‘zgacha vaziyat. Mamlakat aholisi aksariyatining past daromadlari iqtisodiy o‘sh yo‘lida to‘siq bo‘lmokda. Ish bilan bandlikni yaxshilash va aholi daromadlarini oshirish uchun asosiy ishlab chiqarish fondlarini o‘stirishga investitsiyalar qilish zarur. Faqat shu milliy iqtisodiyotda multiplikatsiya samarasini keltirib chiqarishga qodir. Ammo bozorni qayta kurish natijasida investitsiya manbalari topilmadi. Dastlabki jamg‘arish ilk kapitalizm davridagidek o‘ziga yarasha mushkul kechdi. Shu bilan bir qatorda, jamg‘arish milliy iqtisodiyotning real sektorida undan unumli foydalanish borasida birga olib borilmadi.

Pul mablag‘larini jalb qilmay va ularni iqtisodiyotning real sektoriga sarflamasdan iqtisodiy o‘sh sur‘atlarini jadallashtirish va mamlakatni ijtimoiy - iqtisodiy inqirozdan olib chiqish mumkin emas. Ko‘rsatib o‘tilganidek, investitsiya jarayonini faollashtirishning yagona ishonchli manbai – mulkka egalikning turli ko‘rinishlariga mansub mamlakat korxonalarining foyda olishidir. Basharti, mamlakat iqtisodiy o‘shiga ilk «to‘rtki» iqtisodiyotga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar tomonidan berilsa, chakki bo‘lmas edi. Ammo ma’lumki, chet el investitsiyalari inqirozdan chiqqan va samarali iqtisodiy o‘sh tamoyili ko‘zga tashlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotini afzal ko‘radilar. Masalan, 1999 yilda bevosita xorijiy investitsiyalar oqimining geografik taqsimlanishi quyidagicha: kapitalni asosiy import qiluvchilar rivojlangan mamlakatlar bo‘ldi. Jahon xorij investitsiyalari o‘shida ularning ulushi 73 foizni, shu jumladan, AQShning ulushi jahon bo‘yicha o‘shning 32 foizini va barcha rivojlangan mamlakatlar o‘shida 43 foizni tashkil etdi.

XX asrning so‘nggi yigirma yilida Xitoy, Koreya Respublikasi. Tayvan oroli, Gonkong, Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlari, ya’ni iqtisodiyoti ozmi-ko‘pmi muvaffaqiyatli rivojlanayotgan mamlakatlar kapitalning eng faol importchilari bo‘lishdi.

Hozirgi zamonda multiplikatsiya samarasini qanday qilib keltirib chiqarish mumkin? Nimadan boshlash kerak? Multiplikator va akseleratorning o‘zaro hamkorligini qanday ta’minlasa bo‘ladi? degan savollarga javob amaliy ahamiyatga ega.

1998 – 2002 yillarda iqtisodiyotda ro‘y bergan o‘zgarishlar va hukumat o‘tkazayotgan ijtimoiy - iqtisodiy siyosatda yuqoridagi savollarga ijobiy javob topiladi, deb taxmin qilish imkonini beradi. 1998 yilgi inqiroz va dollarning qariyb besh barobar qimmatlashuvi mamlakat ishlab chiqarishini jonlantirishga, ish bilan bandlikning o‘sishi va aholi daromadlarining oshishiga xizmat qildi. Neftga jahon bozorida yuqori narxlar turg‘un saqlanib turgani hisobiga davlat budjet sohasida mashg‘ul bo‘lganlar va nafaqaxurlar xarid qobiliyatini ko‘paytirishga muvaffaq bo‘lindi.

Aholi xarid qobiliyatining o‘sishi iste‘mol tovarlariga talabni oshiradi, bu avvalambor, oziq-ovqat va yengil sanoat rivojlanishini rag‘batlantiradi. II bo‘linma tarmoqlarining rivojlanishi investitsiya tovarlariga – ishlab chiqarish vositalariga talabni keltirib chiqaradi. Akselerator va multiplikatorning o‘zaro hamkorligi mamlakatda yalpi amaliy faollik yuksalishiga xizmat qiladi.

O‘zbekiston iqtisodiyotini yuksaltirishning mazkur sxemasida eng bo‘sh bo‘g‘in – bu yengil va oziq-ovqat sanoatiga asosiy xom ashyo yetkazib beruvchi mamlakat qishloq xo‘jaligi hisoblanadi.

Shu bilan bir qatorda, O‘zbekiston iqtisodiyoti mustahkamlanib borgani sayin davlat budjetining daromad qismi oshib boradi, bu demak, hukumatning faol tarkibiy siyosatni o‘tkazishi uchun iqtisodiy imkoniyatlari oshib boradi.

### **Qisqacha xulosalar**

Muhim birlashgan yalpi talab va yalpi taklif bilan ko‘rsatkichlar yalpi iste‘mol bo‘ladi (inglizcha – consume - c).

Iste‘mol bu – yalpi xarajatlarning asosi bo‘lib, iste‘mol manbasi ixtiyoriy daromad (di) hisoblanadi.

Qolgan qismlari jamg‘armaga qo‘yiladi (inglizcha save – s).

Jamg‘arma bu – daromadlarning bir qismi bo‘lib, u iste‘mol qilinmaydi (vaqtincha zaxira bo‘ladi).

Xulosa: Iste‘mol ham va jamg‘arma ham bevosita daromadlar darajasiga bog‘liq bo‘ladi va o‘zida bir xil omillarning ta‘sirini sinaydi, yoki:

Daromad = jamg‘arma + iste‘mol;

Iste‘mol = daromad – jamg‘arma;

Jamg‘arma = daromad – iste‘mol.

Ma‘lumki, jamg‘armani asosan o‘rta yashash darajasi daromaddan oshib ketadigan oilalar to‘playdi. Oila qanchalik kambag‘al (faqirlik) bo‘lsa, u shunchalik jamg‘armani kam to‘playdi yoki umuman jamg‘armasi yo‘q; eng kambag‘al – faqirlar jamg‘armasi nolga teng, qarz bo‘lib yashaydiganlar jamg‘armasi salbiydir.

Iste‘molning jamg‘armadan farqi, u hamma oilalarda mavjuddir.

Ammo uning pastki yashash darajasi yashash – tirikchilik darajasidan kam bo‘lmasligi kerak.

Iste‘mol joriy kerakli narsalarni qoniqtirishi, jamg‘arma esa kelajakni.

Hozirgi vaqtda iste‘molga o‘rtacha qiziqish (ARS) va jamg‘armaga o‘rtacha qiziqish (APS) deb farqlanadi.

O‘rtacha iste‘molga qiziqish (ARS) – bu iste‘molning daromadlarga nisbatanligi bu foizlarda ifodalanadi.

$$ARS = \frac{\text{iste'mol}}{\text{daromad}} \times 100$$

O‘rtacha jamg‘armaga qiziqish (APS) – bu jamg‘armaning daromadlarga nisbatanligi yoki nisbati, foizlarda ifodalanadi:

$$APS = \frac{\text{jamg'arma}}{\text{daromad}} \times 100$$

Ixtiyordagi daromadning iste‘molning orasidagi aloqa iste‘mol funksiyasi (vazifasi), deb ataladi. Jamg‘armaning ixtiyoridagi daromadni bog‘lanishi jamg‘arma funksiyasi (vazifasi), deb ataladi.

Kishilarning daromadlari o‘zlarining (o‘sishi yoki pasayishi) mumkin. Shuning uchun kishilar daromadlarning qaysi qismini iste‘mol qilishini va qanday qismini jamg‘arma qilishini bilishi kerak.

Daromadning iste‘mol qilinadigan ulushi yoki qismining o‘sishi (qisqarishi), iste‘molga eng yuqori darajada qiziqish, deb ataladi. (MRS).

Boshqacha qilib aytganda, MRS – bu iste‘moldagi har qanday o‘zgarishning nisbatan kamomat darajasidagi (miqdorida) o‘zgarishlarga iste‘moldagi o‘zgarishlarga olib keladi.

$$MRS = \frac{\text{iste'moldagi o'zgarishlar}}{\text{daromaddagi o'zgarishlar}}$$

Daromadning jamg‘armaga ketadigan ulushining (qismi) o‘sishi (qisqarishi), eng yuqori darajadagi jamg‘armaga qiziqish, deb ataladi (MPS). Boshqacha qilib aytganda, MPS bu – jamg‘armadagi har qanday o‘zgarishning nisbatan daromaddagi o‘zgarishidir, ya’ni uni jalb qiladigan:

$$MPS = \frac{\text{jamg'armadagi o'zgarishlar}}{\text{daromaddagi o'zgarishlar}}$$

Daromadlardagi MPS va MRS summasi va miqdorlarni to‘lashdan keyin bo‘lgan har qanday o‘zgarishlar uchun hamma vaqt birlikka teng bo‘ladi, ya’ni daromadning o‘sishi iste‘molga yoki jamg‘armaga qaytishi mumkin. Shuning uchun iste‘mol qismi (MPS) daromaddagi hamma o‘shini o‘ziga jalb qilishi kerak:

$$\mathbf{MRS + MPS = 1.}$$

Hozirgacha iste'mol va jamg'armaning daromadga bog'liqligi ko'rib chiqilgan edi. Lekin ularga boshqa omillar ham ta'sir ko'rsatadi:

1. Boylik. Oilada qanchalik jamg'arilgan boylik ko'p bo'lsa (ko'chmas mulk + qimmatbaho qog'ozlar), shunchalik iste'mol miqdori ko'p va jamg'arma miqdori ko'p.

2. Narx-navo darajasi. Narx-navo darajasining o'sishi iste'molni kamaytiradi, narx-navo darajasining pasayishi uni ko'paytiradi.

3. Kutish. Agarda narx-navoning oshishi va tovarlarning taqchilligi kutilayotgan bo'lsa, unda iste'mol o'sadi, jamg'arma esa, pasayadi sababi kishilar kelajakda narx - navoning ko'proq o'sishidan va tokchalarning bo'sh qolishidan «ko'proq sotib oladi».

4. Soliq to'lovchi. Soliqlar qisman jamg'arma hisobiga va qisman iste'mol hisobiga to'lanadi. Shuning uchun soliqlarning o'sishi iste'molni ham, jamg'armani ham kamaytiradi. Soliqlarning kamayishi ularni ko'taradi.

#### Investitsiyalar

Iste'moldan keyingi sarf -harjatlarni bu investitsiyalardir.

Investitsiya – bu uzoq vaqtga davlatning yoki xususiy kapitallarning har xil tarmoqlarga mamlakat ichida, uning tashqarisida foyda olish maqsadida qo'yilgan summadir yoki mablag'dir.

Investitsiyalar yo'nalishi:

- yalpi ishlab chiqarish, imorat va inshootlarni qurishda sarflangan mablag';

- yangi asbob- uskuna, mashina, texnika- texnologilarni sotib olishga ketadigan kapital;

- qo'shimcha xom - ashyolarni sotib olishga ketadigan kapital;

- yashash joylarni, ijtimoiy (sotsial) obektlarni qurishiga mo'ljallangan kapitallardir.

Shu yo'nalishlarga muvoq farqlar:

- asosiy kapitalga investitsiya (ishlab chiqarishga ketadi va uning qiymatini to'liq yaratilgan mahsulotga o'tkazadi);

- tovar- materiallar zaxirasiga (zapas) investitsiya;

- inson kapitaliga investitsiya (ta'lim, malaka oshirish, ishlab chiqarish jarayonida olingan ish kuchiga mujasamlangan bilim ko'nikmalari). Yana yalpi va sof investitsiyalar farqlanadi.

Yalpi investitsiya – bu eski asbob - uskunalar ta'minlashga ketgan sarf - xarajatlarni (amortizatsiya) + ishlab chiqarishni kengaytirishga, yangilashga ketgan investitsiyalar.



Sof investitsiya – bu yalpi investitsiyalardan chegirib olingan asosiy kapitalga amortizatsiyalar.

Agarda sof investitsiyalar ijobiy miqdorni egallasa, unda iqtisodiyot rivojlanadi. Agarda sof investitsiyalar miqdori nolga teng bo'lsa (yalpi xarajatlar va amortizatsiya teng bo'lsa), unda iqtisodiyot stopik ahvolda bo'ladi (harakatsizlik). Agarda sof investitsiyalar salbiy darajada bo'lsa (yalpi xarajat amortizatsiyadan kam bo'lsa), unda ish faoliyatining pasayishidan guvohlik beradi:

- foyda normasini kutish;
- bank farqlari stavkasi.

Bu yerda kelgusi kutishlarga bog'liq: agarda kutilgan foyda normasi yuqori bo'lsa, unda investitsiyalar o'sadi. Foiz stavkalari – bu firmalar pul kapitalini qarz olish uchun to'laydigan narx.

Agarda kutilgan foyda normasi (masalan, %) foiz stavkasidan oshib ketsa (7% deyiladi), unda investitsiyalashtirish foydali bo'ladi, va aksincha.

Xulosa: Investitsiyaga talab foyda normasiga bog'liq, aksincha, nisbatan foiz. Investitsiya talablari egri chizig'i xolatiga bir necha boshqa omillar ta'sir etadi:

1. Investitsiyalarning daromadlari kutilgan o'sishni beradigan omillari, bu egri chiziqni o'ngga suradi (investitsiyaga talablarni ko'paytiradi).

2. Investitsiyalarning daromadlarini kutilgan omillarning pasayishiga olib keladi, bu egri chiziqni chapga suradi (investitsiyaga talabni kamaytiradi); bu faktlarni quyidagilar o'z ichiga oladi: asbob-uskunalarni sotib olishga ketgan xarajatlar, tadbirkorlarga soliq, inflyatsiya va boshqalar. Shuning uchun o'zgarmaydigan narx-navolarni olishda joriy investitsiyalarni va o'tgan yilgi investitsiyalarni solishtirish uchun»real investitsiyalar» dan foydalanadi.

Daromadlar va investitsiyalar bog'liqligi multiplikatorlarda ifodalanadi.

Multiplikator (lot. Multiplico – ko'paytiraman) – bu investitsiyalar o'zgarishi va daromadlar miqdori orasidagi aloqalarni ko'rsatuvchi koeffitsiyentdir.

Boshlang'ich qo'shilma investitsiyalarga qaraganda, investitsiyalar o'sishida YaMM o'sishi ko'proq katta razmerda o'tadi. Bu YaMM hajmida o'sadigan, ko'payadigan samara multiplikatsion samara, deb ataladi.

Multiplikator – bu investitsiya hajmi YaMM razmerini o'sishini ko'rsatuvchi sonli koeffitsiyentdir.

Investitsiya o'sishi 10 milliard so'm bo'lsa yangi bu YaMM o'sishini 20 milliard so'mga olib keladi, deb faraz qilsak, unda multiplikator = 2 bo'ladi.

$$\text{Multiplikator MR} = \frac{\text{ko'paygan YaMM}}{\text{ko'paygan investitsiya}} = \frac{\Delta \text{YaMM}}{\Delta \text{investitsiya}}$$

$$\Delta YaM = MR * \Delta \text{investitsiya}$$

Ya'ni ko'paygan investitsiya, ko'paygan YaMMni ko'rsatadigan multiplikatoridir.

Xulosa: 1. Aholining iste'molga bo'lgan qo'shimcha sarflari qanchalik ko'p bo'lsa, multiplikator miqdori shunchalik ko'pdir, demak, ko'paygan YaMM ushbu ko'paygan investitsiya hajmidan ham ko'p.

2. Aholining qo'shimcha jamg'arma qancha ko'p bo'lsa, demak multiplikator shunchalik kam bo'ladi, demak, YaMM ushbu ko'paygan investitsiya hajmidan ham ortiqdir.

Daromadlarning o'sishi investitsiyalar o'sishiga ta'sirini ko'rsatish uchun akselerator (rivojlantirish) qo'llaniladi.

Akselerator (lot. ACCECERO – tezlashtiruvchi) – bu joriy yildagi investitsiyalarni miqdoriy nisbatini o'tgan yildagi milliy daromad o'sishida ko'rsatuvchi koeffitsiyentdir.

$$\text{Akselerator} = \frac{\Delta \text{joriy yildagi investitsiya}}{\Delta \text{MD o'tgan yildagi}}$$

U daromad o'sishining investitsiya o'sishiga ta'sirini ifodalaydi.

Makroiqtisodiy muvozanatning tahlili ajralmagan shunday yalpi talabni ko'rsatadigan iste'mol va investitsiya bilan bog'liq.

Iste'mol aholi daromadlarining bir qismi bo'lib, moddiy ne'matlarni va xizmatlarni iste'mol qilishda sarflanadi. Undan qolgan puldagi daromadlar qismi jamg'ariladi, ya'ni jamg'arma bu – aholi daromadlarining bir qismi bo'lib, u iste'mol qilinmaydi. Shunday qilib, jamg'arma = daromad – iste'mol shaklida bo'ladi. Aholining iste'mol va jamg'armasi mamlakatda bevosita milliy daromad hajmiga, narx darajasiga va bandlikka ta'sir ko'rsatadi.

Iqtisodiyot nazariyasi fanida iste'mol va jamg'arma rolini tahlil qilish uchun J.M. Keynes tomonidan iste'mol va jamg'armaning vazifalari kabi tushunchalar kiritilgan edi. Iste'mol vazifasi haqiqatan ixtiyorda qolgan daromadlari (soliq to'lovidan keyingi daromad) va iste'mol xarajatlarning o'zaro bog'liqlarini, jamg'armaning vazifasi esa, aholining haqiqatan ixtiyorida qolgan daromadlari va jamg'armaning o'zaro bog'liqligini ko'rsatadi.

Investitsiya bu – korxonalar firmalarning ishlab chiqarishni kengaytirishga, mahsulotlarning sifatini yaxshilashga, iste'mol zaxiralarini ko'paytirishga va boshqalarga, ketgan sarf - xarajatlari, ya'ni daromad olish maqsadida qo'yilgan vositalardir.

Investitsiyalarning asosiy manbalari:

Korxonalarining o'zini va qarzga olgan vositalari;

Davlatning kapital qo'yilmalari;

Chet el investitsiyalari.

Investitsiyalarning manbasi jamg'arma bo'lib hisoblanadi. Jamg'arma ulushining ko'payishi bilan iste'molning ulushi kamayib boradi.

Investitsiyalarning nolga teng bo'lgan daromadlarida amalga oshirishi avtonomiyasi birinchi investitsiyalar, deb nomlanadi.

Investitsiyalar kelgusi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

- yangi bino va inshootlarni ko'rishda;
- yangi asbob-uskunalarining, texnika va texnologiyalarni sotib olishda;
- qo'shimcha xom - ashyo va materiallarni sotib olishda;
- boshqa ijtimoiy tanlangan yashash ob'ektlarni qurishda;
- ishlab chiqarish uchun kerak bo'lmagan qimmatbaholi narsalarni sotib olishda.

### **Asosiy tushunchalar**

Iste'mol.

Jamg'arma.

Investitsiya.

### **Ma'ruzaning namunaviy savollari**

1. Iste'mol nimani bildiradi?
2. Jamg'arma qanday aniqlanadi?
3. Investitsiyaning manbasi va yo'nalishlari.

### **Seminar darslarida muhokama qilish uchun savollar**

1. Investitsiya nima bilan bog'liq va uning manbasi?
2. Iste'mol va jamg'armaning daromadga bog'liqligi nimada?
3. Investitsiya, iste'mol va jamg'arma va ularning yo'nalishlarining iqtisodiy ahamiyati.

### **Mustaqil ta'lim uchun savollar**

1. Iste'mol, jamg'arma va investitsiyalarning makroiqtisodiy muvozanatida tutgan o'rni.
2. Daromad, iste'mol, jamg'arma va investitsiyalarning asosiy vazifalari.
3. Investitsiyaning multiplikatorli, akseleratorli samaradorligi aniqlab bering.

## 37 BOB. IQTISODIY O‘SISH VA MILLIY BOYLIK

*Rivojlanishga kalit to‘rtta asosiy omilga asoslangan: aholi, tabiiy resurslar, kapital yuzaga kelishiga va taxnikaga.*


*Pol Samuelson*

### 37.1. Iqtisodiy o‘sh tushunchasi va uning ko‘rsatkichlari

Iqtisodiy o‘sh tushunchasi milliy xo‘jalikning rivojlanish xarakteristikasi va mamlakatlararo taqqoslash uchun foydalaniladi. Iqtisodiy o‘sh deganda, ma‘lum bir davr ichida (odatda, bir yil mobaynida) ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarning ko‘payishi tushuniladi. Iqtisodiy o‘sh milliy ishlab chiqarishning real hajmining qisqa vaqt ichida ko‘payishini emas, balki uning uzoq vaqtda tendensiyani va sifatli takomillashtirishni bildiradi. U iqtisodiy rivojlanishning ijobiy dinamikasi haqida guvohlik qiladi. Iqtisodiy o‘shni iqtisodiy rivojlanishdan farqlash kerak. Iqtisodiy rivojlanish ko‘proq to‘liq tushuncha bo‘lib, iqtisodiy tizimda ham tadrijiy hamda inqilobiy shakllarda yuz beradigan o‘zgarishlarni bildiradi. Iqtisodiy rivojlanish milliy xo‘jalik iqtisodiy o‘sh holatida bo‘lishi va uning pasayish holatida turishini taxmin qilishi mumkin. Shu bilan birga, ishlab chiqarishning pasayib ketish davrini, u ma‘lum vaqt ichida yalpi talab va taklif o‘rtasidagi muvozanatning tiklanishini, bozordan samarasiz ishlaydigan korxonalarining chiqib ketishini ko‘rib chiqadi. Natijada, kelajakda iqtisodiy o‘sh uchun asos yaratiladi. Biz bilamizki, ishlab chiqarishning barqaror darajasini ta‘minlash, ya‘ni iqtisodiy o‘shning mustahkam sur‘ati, jamiyatning asosiy maqsadi bo‘ladi. Iqtisodiy o‘sh aholining sifatli va yuqori darajada yashash hayotining moddiy asosi bo‘lib xizmat qiladi, ya‘ni iqtisodiy o‘shning pirovard maqsadi **iste‘mol** bo‘ladi. Xalqaro amaliyotda u milliy iqtisodiyot rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichi ham foydalaniladi.

Iqtisodiy o‘shni grafik ravishda ikki usulda tasavvur etamiz:

1. Ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig‘i doimo o‘ngga suriladi (37.1-chizma), bunda **IT** va **MU** – investitsiya va iste‘mol tovarlari mos ravishda bo‘lishi kerak. Biz bilamizki, agar iqtisodiy ishlab chiqarish imkoniyatlari chegarada tursa, unda iqtisodiy resurslardan to‘liq va samarali foydalaniladi. Mamlakatning iqtisodiy salohiyati iqtisodiy o‘shda ko‘payadi hamda investitsiya tovarlarini ham, iste‘mol tovarlarini ham ko‘proq hajmda ishlab chiqarishi mumkin.



**37.1 -chizma. Egri chiziq o‘ngga surilishi:**  
**a – ishlab chiqarish imkoniyatlari; b – yalpi taklifda.**

2. Yalpi taklif egri chizig‘i  $AS$  o‘ngga surilishida (37.1 -chizma). Bu real ishlab chiqarish hajmining ko‘payishiga olib keladi.  $Y_0$  dan  $Y_1$  gacha va narx darajasining  $P_0$  dan  $P_1$  gacha kamayishiga olib keladi.

Iqtisodiy o‘shish neytral ko‘rsatkichda donada, tonnada, metrda (jismoniy o‘shish) ham o‘lchanadi va qiymat ko‘rsatkichida ham o‘lchanadi. Asosiy qiymat o‘lchamlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

Ishlab chiqarish hajmining real o‘shish sur‘ati ( $X$ )

$$X = \frac{Y_1 - Y_0}{Y_0} \times 100\%$$

bu yerda,  $Y_1$  – YaIM real hajmi joriy yilda;  $Y_0$  – YaIMning real hajmi o‘tgan yildagisi.

Ishlab chiqarish hajmining aholi jon boshiga o‘shish sur‘ati ( $X_1$ ):

$$X_1 = \frac{Z_1 - Z_0}{Z_0} \times 100\%$$

bu yerda,  $Z_1$  va  $Z_0$  – YaIM ning jon boshiga joriy yilda real o‘shishi va o‘tgan yilda, mos ravishda shu bilan birga,

$$Z_1 = \frac{Y_1}{N}; Z_0 = \frac{Y_0}{N}$$

bu yerda,  $N$  – aholi soni.

Bu ikkita usuldagilarning har biridan foydalanayotgan iqtisodiy o‘shish ko‘rsatkichlarini inflyatsiyadan «tozalash»ni tahlil qiladi, shuning uchun ham biz YaIM real o‘shish sur‘ati to‘g‘risida gapiramiz. Birinchi ko‘rsatkich mamlakatning iqtisodiy va mudofaa salohiyatini xarakterlash uchun

foydalaniladi, ikkinchisi esa, aholining farovonlik dinamikasini va yashash darajasini tahli qilish uchun foydalaniladi.

**Iqtisodiy o‘shish tipi va uning sur‘ati.** Milliy iqtisodiyotning tarixi iqtisodiy o‘shishning asosiy ikkita tipini ifoda etadi:

1. *Ekstensiv iqtisodiy o‘shish.* Bu moddiy boyliklarni ishlab chiqarish hajmining ko‘payishi ishlab chiqarish omillarining katta miqdordan foydalanish hisobiga, ishchilar soni, yer, xom ashyo, asbob-uskunalar, ya‘ni miqdoriy parametri hisobiga shu bilan birga, ishlab chiqarishning texnologik bazasi o‘zgarasdan qoladi. Sababi, katta miqdorda g‘alla olish uchun haydalgan yerdan foydalanish va g‘alla o‘radigan kombayn kerak, korxonalarda mahsulot ishlab chiqarish uchun katta miqdorda ishlab chiqaruvchilar va boshqalarni taxmin qiladi.

2. *Intensiv iqtisodiy o‘shish.* Bu ishlab chiqarishning samarali o‘shishi bilan bog‘liq bo‘lib, mahsulot ishlab chiqarish hajmining ko‘payishini ko‘pincha mukammallashtirgan ishlab chiqarish omillarini qo‘llash hisobiga, ya‘ni ishlab chiqarish omillarining xarakteristikasi sifatini oshirish va yaxshilashni taxmin qiladi. Bu o‘z navbatida fan-texnika taraqqiyotiga erishishda ro‘y berishi ishchilarning malakasini oshirish, ko‘pincha tejamkor resurslarni qo‘llash, ya‘ni ishlab chiqarilgan mahsulotlarning sifati, mehnat unumdorligining oshishi va resurslarni tejab-tergab foydalanish hisobiga oshirishni taxmin qiladi.

Amaliyotda bu ikkita iqtisodiy o‘shish tiplarining o‘rtasida aniq chegarani o‘tkazish mumkin emas, ya‘ni bular shunday sof ko‘rinishda mavjud bo‘lmaydi. Sababi, ishlab chiqarish hajmi foydalanadigan resurslarning miqdorining ko‘payishi hamda yangi texnika va texnologiyalarning mukammallashtirishi ham ro‘y berishi mumkin. Shuning uchun odatda, ekstensiv tip afzalligi haqida yoki intensiv tip iqtisodiy o‘shishi afzalligi to‘g‘risida gapiramiz. Rivojlangan mamlakatlarda axborotlashgan iqtisodiyot sharoitida intensiv iqtisodiy o‘shish ustunlik qiladi.

Iqtisodiy o‘shish sur‘ati bo‘yicha farqlanadi: yuqori yoki past. Bularni ko‘rib chiqishda e‘tiborni yaratilgan mahsulotning sifatiga yoki uning tuzilishiga qaratish zarurdir. Agar sifatsiz mahsulot ishlab chiqarilsa yoki yaratilgan mahsulot tuzilishida ishlab chiqarish vositalarining salmog‘i ortiq bo‘lsa, aholi uchun tovarlar esa, yetarli darajada bo‘lmasa, unda iqtisodiy o‘shishning yuqori sur‘atda bo‘lishi hech qanday yaxshilikka olib kelmaydi. Iqtisodiy o‘shishning sur‘atida katta farq bo‘lmasa (2% yoki 3%) bu o‘z navbatida mahsulotning vaqtida ko‘payishini ancha o‘zgarishiga olib keladi. Iqtisodiyotda «qoida – 72» degan atama mavjud, bu mohiyatan, ya‘ni real YaIM ma‘lum sonli yilda ikki barobar ko‘payadi, iqtisodiy o‘shish sur‘atiga

bo'lingan, bu 72 yilga teng. Masalan, agar iqtisodiy o'sish sur'ati 1% teng bo'lsa, unda YaIM 72 yilda ikki marta oshadi, ishlab chiqarishning milliy hajmi 3% sur'atda o'sishi 24 yilda ikki marta oshadi va hokazo.

Bundan tashqari, esdan chiqarmaslik kerak-ki, ya'ni iqtisodiy o'sish sur'atini ko'paytirish ko'plab noqulay omillarga: atrof-muhitning ifloslanishiga, inson va tabiat o'rtasidagi muvozanatning buzilishiga olib keladi. XX asrning 70-yillarida «nolga teng iqtisodiy o'sish» bunga bog'liq, konsepsiyasi ro'y berdi, ya'ni ko'p olimlarni va siyosatchilarni har xil davlatlar uchun optimal o'sish sur'ati to'g'risida fikr yuritishga majburladi. Masalan, qoloq rivojlangan mamlakatlar uchun iqtisodiy o'sish sur'ati yuqori bo'lishi – 7dan 17% gacha, rivojlangan davlatlar uchun esa ancha past – 2 – 3% bo'lishi mumkin. Iqtisodiy o'sish sur'ati iqtisodiyotning balanslashgan mutanosib rivojlanishini ta'minlashi zarur.

Amerika iqtisodchisi Edmund Felps «kapital jamg'arilishining oltin qoidasi» deb nomlangan qoidani shakllantirdi, uning mohiyati shundan iboratki, har bir avlod kelajak avlod uchun shunday daromad ulushini jamg'arishini, ya'ni u oldingi avloddan olganini jamg'arishi lozim. Bunday holatda iqtisodiy o'sish optimal darajada bo'ladi.

**Iqtisodiy o'sishning bahosi.** Hozirgi zamon sharoitida ekstensiv o'sishning ko'pchilik manbasi g'oyat cheklangan yoki tabiiy qaytarilmasligi, bilan yoki juda ham noyob tabiiy qadriyatlarni ifoda etganligi bilan. Ekstensiv omillaridan foydalanishning oxiri qancha yaqin bo'lsa, iqtisodiy o'sishning ekstensiv tipining bahosi shunchalik yuqori. Intensiv o'sishning bahosi esa pasaymoqda. Iqtisodiy o'sishning bahosi shunday kategoriya bilan, ya'ni ishlab chiqarish samaradorligining darajasi, u ishlab chiqarish natijalarining sarf-xarajatlarga nisbati bilan ifodalanadi. Agar har bir yangi takror ishlab chiqarish siklida natija sarf-xarajatlarga nisbatan katta darajada o'sadigan bo'lsa iqtisodiy o'sish bahosi pasayib ketadi. Mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligining ko'rsatkichi bo'lib mehnat unumdorligi xizmat qiladi. Mehnat unumdorligi bitta ishchi qancha miqdorda mahsulot ishlab chiqarishga (pul ifodasida) guvohlik qiladi. Mehnat unumdorligining aksincha, ko'rsatkichi sermehnatlik buziladi, bu o'z navbatida yaratilgan mahsulot birligida qancha miqdorda mehnat sarfi to'g'ri kelishini anglatadi. Asosiy kapital samaradorli foydalanishning ko'rsatkichi bo'lib fondlarning unumdorligiga xizmat qiladi. Fondlarning unumdorlik ko'rsatkichi yaratilgan mahsulotlarning qancha miqdori (bu ham pul ifodasida) foydalanilgan ishlab chiqarish fondlarining birligi yordamida ishlab chiqarilgan. Fond unumdorligining aksincha, ko'rsatkichi fond sig'imi bo'ladi, bu asosiy kapital

qiymatining qaysi qismi yaratilgan mahsulot birligiga to'g'ri kelishini ko'rsatadi.

Material, xom ashyo resurslaridan samarali foydalanish ko'rsatkichi bo'lib material unumdorligi xizmat qiladi. Bu mamlakatda yaratilgan mahsulot qiymatining nisbati shunga mos ravishda sarflangan resurslar bilan hisob-kitob qilinadi. Material unumdorligining aksincha, ko'rsatkichi material sig'imi bo'ladi, bu material, xom ashyo resurslarining qancha qismi ishlab chiqarilgan mahsulot birligida foydalanganlikni ko'rsatadi. Iqtisodiy o'sishning intensiv tipida mehnat unumdorligi, fond unumi, material unumi kabi ko'rsatkichlar ko'payadi, shu bilan birga, sarmehnat, fond sig'imi va material sig'imi kabi ko'rsatkichlar kamaya boradi.

### **37.2. Iqtisodiy o'sish omillari**

Shu sababli iqtisodiy o'sish bevosita yalpi talab va yalpi taklif, hamda mahsulotlarni taqsimlash bilan bog'liq, unda tabiiyki, iqtisodiy o'sish omillari bo'lib bir vaqtda, talab, taklif va taqsimlash hisoblanadi. Sababi, fan-texnika taraqqiyoti natijasida radioelektronika sanoatida maishiy elektronikaga—televizorlarga, videomagnitafonlarga va boshqalarga talab ro'y beradi. Yalpi talab omillariga, yaratilgan milliy mahsulotlarni realizatsiya qilishga bog'liq.

Yangi taklif omillariga quyidagilar kiradi:

- Tabiiy resurslarning miqdori va sifati;
- Tabiiy-iqlim sharoiti;
- Mehnatga qobiliyatli aholi soni va uning malakaviy darajasi;
- Fan-texnikaning rivojlanish darajasi, ularning xalq xo'jaligi miqiyosida qo'llanilishi, ya'ni fan-texnika taraqqiyoti (FTT);
- Kapitallarning naqtligi.

Va nihoyat taqsimot omiliga quyidagilar kiradi:

- Mamlakat hududida, iqtisodiyot tarmoqlarida mehnat resurslarining samarali taqsimoti;
- Sanoat markazlari bo'yicha moliyaviy idoralarning samarali joylashuvi;
- Mamlakat hududida oliy va o'rta maxsus o'quv muassasalarining joylashuvi;
- Qayta ishlab chiqaruvchi korxonalarining xom-ashyo manbalariga yaqinligi.

Iqtisodiy o'sishga bilvosita ta'sir ko'rsatadigan bir qator omillar ham mavjuddir. Yangi talab aholining jamg'armaga va ish haqining miqdoriga moyilligi bilan bog'liq, bu o'z navbatida davlatning fiskal siyosatiga bog'liq (soliq va xarajatlar sohasida).



### **Inson omili**

Iqtisodiy o‘shishni tahlil qilish uchun ishlab chiqarish vazifasi foydalaniladi:

$$\gamma = f(K, e, T),$$

bu yerda,  $e$  – mehnat sarfi,  $T$  – ep.

Eng oddiy ishlab chiqarish vazifasi (Kobb-Duglac funksiyasi) milliy mahsulotning o‘shish sur‘atiga ta‘sir ko‘rsatuvchi ikkita omil tadqiqot qilinadi: mehnat va kapital omilni Amerika iqtisodchisi Pol Duglas va matematigi Charlz Kobb XX asrning 20-yillarida AQShda g‘alla yetishtirish haqidagi statistik ma‘lumotlar asosida shunday xulosaga kelgan, ya‘ni mehnatning 1% o‘shish sur‘atida mahsulot ishlab chiqarishdagi 1% li kapitalning o‘shish sur‘ati bilan taqqoslaganda 3 barobar ko‘p bo‘ladi, ya‘ni iqtisodiy o‘shishning omillaridan eng asosiysi aholining mehnatga qobiliyatli miqdori va uning malakasi bo‘lib hisoblanadi. Shunday qilib mehnatdan foydalanish samarasining oshishi qo‘shimcha kapitalni jalb etishga qaratilganda ancha foyda keltiradi. Shu bilan birga, inson kapitali nazariyasi hamda ijtimoiy sherikchilikda insonlarning munosabatlari va boshqalar paydo bo‘ldi, bularning maqsadi – inson omillaridan foydalanishda ko‘proq yuqori unumdorlikni ta‘minlashdir. Hozirgi vaqtda rivojlangan mamlakatlarda ishchilarning malakasini oshirish, ishchi kuchining sifatini yaxshilash raqobat kurashining asosiy omili bo‘lmoqda.

Doimo ishchilarning qobiliyatini baholashda nostandart qarorlarni qabul qilish, ishlab chiqarishning o‘zgarib turadigan sharoitlari uning moslashishi, tashabbuskorlik va uddaburonlik qobiliyatlari ro‘y bermoqda. Biz bilamizki, ishchi kuchiga kapital sarflash (ta‘lim, ijtimoiy dastur va boshqalar) shunday shaklini, ya‘ni inson kapitali kabilarni ifoda etmoqda. Inson kapitalining o‘lchami bozorning shunday to‘rtkisi bo‘lib, qisman ulish bilan ta‘minlanuvchilar va yollangan ishchilar o‘rtasida axborotlarni assimitrik taqsimlanishining kamchiligini tug‘diradi.

Iqtisodiy o‘shish deyarli ishlab chiqarish unumdorligi va ishlab bergan soatlar miqdoriga bog‘liq bo‘ladi. Endi YaIM ishlab chiqarish sifatida hisoblash mumkin:

### **YaIM- MU·S**

bu yerda, **MU**– bir kishiga o‘rtacha soatbay mahsulot ishlab chiqarish **S** – ishlab bergan soat miqdori.

1987 yili iqtisodiyot bo‘yicha Nobel mukofoti sovrindori R.Solou iqtisodiy o‘shishning bir qancha asosiy omillarini aniqlash texnikaning ulushini ishlab chiqdi. Keyinchalik bu ishni E.Denison oxiriga yetkazdi. 1985 yilda

uning «Amerikaning 1929 – 1982 yillarda iqtisodiy o‘shish tendensiyalari» deb nomlangan kitobi nashr etildi<sup>28</sup>, bunda u AQSh ishlab chiqarishda mehnat unumdorligining hisobiga 68%, 32% mehnat sarfining ko‘payganligi hisobiga iqtisodiy o‘shishning ta‘minlanganligini ko‘rsatadi. Mehnat unumdorligi fan-texnika taraqqiyoti, investitsiya, ishlab chiqarish miqiyosida tejamkorlik, ta‘lim va ishchilarni qayta tayyorlash, resurslarni taqsimlash va boshqalar bilan bog‘liq.

Shunday qilib, bilimlarni to‘plamasdan va malakasini oshirmasdan, iqtisodiy o‘shishning boshqa asosiy omillarsiz fan-texnika taraqqiyotining yutuqlarini joriy etib bo‘lmaydi.

### **Iqtisodiy o‘shishning fan-texnika taraqqiyoti omili.**

Fan-texnika taraqqiyotining yutuqlarini joriy etish yangi tovarlarni ishlab chiqarishda imkoniyatni ko‘paytiradi, yaratilgan mahsulotlarning sifatini yaxshilashga yordam beradi, shuning uchun hozirgi vaqtda iqtisodiy o‘shish omili sifatida uning roli o‘shib bormoqda. Fan-texnika taraqqiyoti – bu ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish bosqichi bo‘lib, u fanning ishlab chiqarish bilan uzluksiz birlashishini xarakterlaydi. Bu jarayonning boshlanishi XVII asrning oxirida va XIX asrning boshlarida Angliyada sanoatdagi keskin burilish bo‘ldi. U bilan yirik mashina ishlab chiqarishning paydo bo‘lishi bog‘liq, shu bilan birga, texnika va texnologik taraqqiyotning fan-texnikaga oid o‘shishini xarakterlaydi. Fan-texnika taraqqiyoti yangi, ko‘proq mukammalashgan texnologiyalarni joriy etish, yangi usullarni o‘zlashtirishni va ishlab chiqarishni shakllantirishni hamda boshqalarni o‘z ichiga oladi. U mahsulot sifatini yaxshilash va uning hajmini ko‘paytirish maqsadida yangicha iqtisodiy resurslarni kombinatsiya qilishga ijozat beradi.

Shu bilan birga, qoida bo‘yicha, yangicha, ko‘plab samarali tarmoqlar yuzaga keladi. FTT ikkita shaklda mavjud:

- Fond sig‘imiga oid, ya‘ni qo‘l mehnati mashinalashgan mehnat bilan almashadi. Natijada, mehnat unumdorligi fondlar bilan ta‘minlanishga qaraganda sekin o‘sadi;

- Fond tejashga oid, ya‘ni qo‘l mehnatiga almashuvchi mashina, yangicha, ko‘proq mukammalashgan texnika bilan almashadi.

Fond tejashga oid shakldagi FTT yuzaga kelgandan uzoq vaqt ichida fond sig‘imi texnikalari afzal bo‘lib qoladi, sababi ishlab chiqarish salohiyatidan maksimal foydalanish yo‘li bilan iqtisodiy o‘shish sur‘atini ko‘paytirish asosiy vazifa qilib qo‘yilgan.

---

<sup>28</sup> Denison Edward F. Trends in American Economic Growth, 1929-82, Brookings Institution, 1985

## Fan-texnika inqilobi

Hozirgi zamon fan-texnika taraqqiyotining shakli bo'lib fan-texnika inqilobi (FTI) hisoblanadi. Bu tushuncha birinchi marotaba ingliz olimi Jon Desmond Bernal tomonidan XX asrning 50–yillarida joriy etilgan edi. Fan-texnika inqilobi FTT da sifatli sakrashni bildiradi. Hozirgi zamon fan-texnika inqilobida ikki bosqich farqlanadi.

Birinchi bosqich XX asrning 40 – 60 –yillarida. XX asrning o'rtasi fan va texnikada keskin burilish bilan xarakterlanadi:

- 1946 yil – AQSh da EHM ixtiro etilgan, bu kibernetikaning fan sifatida rivojlanishini aks ettiradi.

- 1950 yil – sobiq ittifoqda avtomobil porshinlarini ishlab chiqarishda birinchi avtomatlashgan zavodlar ishga tushirilgan, ya'ni EHM ixtiro qilish bilan birga, ishlab chiqarishni ommaviy avtomatlashtirishning boshlanishi bo'lgan;

- 1953 yil – AQSh va Angliyada genetik kodlarni (DNK) rasshifrovka qilish, ya'ni gen injeneriyani rivojlanishiga yordam beradi.

- 1957 yil – Jahonda birinchi marta yerning sun'iy yo'ldoshi (itifoq) yaratish, ya'ni bu o'z navbatida kosmonavtikaning rivojlanishiga, raketa va kosmik texnikalarni ishlab chiqarishga to'rtki bo'ldi.

Ushbu bosqich atom energiyasini o'zgartirish va sun'iy materiallarni ishlab chiqarish imkoniyatini yaratdi.

Ikkinchi bosqich: XX asrning 70– yillaridan hozirgi vaqtgacha. U yangi texnologiyalarni mikroelektronika bilan va koipyuter texnikalarining birlashishi bo'ldi. Insonning mantiqiy va boshqarish vazifalarini mashinaga berish (Elektron texnikaning rivojlanishi). XX asrning oxiri XXI asrning boshlari axborotlashuvni iste'mol qilish va ayirboshlash, ishlab chiqarish, taqsimlash bilan xarakterlanadi. Axborot texnologiyalarini qo'llash butun iqtisodiyotni, uning tuzumini, mehnatning mazmunini va xarakterini, jamiyatning butun hayotini qayta o'zgartiradi. Hozirgi vaqtda internet va yangi texnologiya aloqalari katta ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Hozirgi vaqtda «**Nanotexnologiya inqilobi**», deb nomlagan yangi texnologiyaviy siljishlar mo'ljallanmoqda. Nanotexnologiya metrning bir milliardni ulushi o'lchami tartibida olib boriladi. Bu o'lcham, atom birligi razmeri bilan taqqoslanadi. Mikrotexnologiyadan nanotexnologiyaga o'tish ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishida sifatli sakrash moddiy manipulyatsiya alohida atomlar manipulyatsiyasiga o'tish, undan har qanday predmetni va har qanday moddani yig'ish, deb hisoblanadi. Nanotexnologiya (g'oyachilarining) mafkurachilarning aytishicha, ochlik, kasallik, atrof-

muhitni ifloslantirish yo‘q qilinadi, ya’ni insoniyat oldida turgan juda ham ko‘p muammolar hal etiladi.

Sanoat sohasidagi bir qancha nanotexnologiyaviy nazoratchilar uchun (masalan, DVD disklarni ishlab chiqarishdagi matritsalarini nazorat qiladiganlar) oddiy ish bo‘lib qoladi. Jahonning yetakchi loyihalarida alohida nanoelektron elementlar hozirgi vaqtda ishlab chiqilgan, ammo ko‘proq keng joriy etish alohida mutaxassislarning bahosi bo‘yicha XXI asrning birinchi choraklariga mo‘ljallangan.

### **37.3. Harrod-Domarlarning iqtisodiy o‘shish modeli**

Keynsning mikroiqtisodiy muvozanat modelidan kelib chiqqan holda, qisqa davr ichida jamg‘arma investitsiyaga teng, uzoq davr ichida esa, ular bir-biriga to‘g‘ri kelmaydi. Ingliz iqtisodchisi R.F.Harrod va amerika iqtisodchisi Ye.D.Domar bir vaqtda iqtisodiy o‘shishning tahlili uchun Keynsning uzoq vaqt ichida dunyoqarashi doirasida taklif qilgan (hozirgi vaqtda Harrod-Domarlarning modeli sifatida ma’lum bo‘lgan).

$$G = s : e,$$

**G** – iqtisodiy o‘shish sur‘ati;

**s** – milliy darajada jamg‘armaning ulushi;

**e** – kapital hajmning koeffitsiyenti (kapitalning mahsulot ishlab chiqarishga nisbati)

Ushbu modelga muvofiq o‘shish sur‘ati bevosita **s** ga bog‘liq, sababi sof jamg‘arma qanchalik ko‘p bo‘lsa, investitsiya shunchalik ko‘p bo‘lishi mumkin; O‘shish sur‘ati **e** ga teskari bog‘liq kapital hajmi koeffitsiyentida bo‘ladi: u qanchalik yuqori bo‘lsa, iqtisodiy o‘shish sur‘ati shunchalik past bo‘ladi.

Statistik ma’lumotlarning ko‘rsatkichi bo‘yicha. **s** va **e** hisob-kitob qilinadi, shunday qilib. Harrod-Domar iqtisodiy o‘shish sur‘atlarini ma’lum ulushlarni prognozlash ehtimolidan foydalanish mumkin. Ammo aniq instrument bo‘lib xizmat qilishi uchun bu model juda ham yuqori darajadagi agregatlashgan ko‘rsatkichga ega. Bu iqtisodiy siyosatni ishlab chiqish uchun nazariy tahlilning juda ham foydali instrumentidir.

Ilmiy tadqiqotchilar bu modelning boshqa kamchiligiga ham e’tibor qaratadilar. Ishlab chiqarish quvvatini to‘liq ta’minlash uchun o‘shish sur‘ati extimolga muvofiq bitta guruh omillari bilan aniqlanadi. To‘liq bandlikni ta’minlaydigan, o‘shish sur‘ati esa, boshqa omillar bilan aniqlanadi. Ularning bir-biriga to‘g‘ri kelishi juda ham kam holatda uchraydi va bu model uni ko‘rib chiqmaydi. «Mehnat» va «Kapital» omillarining o‘rnini egallashni taxmin qilmaydi. Shunday qilib, Harrod-Domar modellarida iqtisodiyot pichoqning

tig'ida balanslanadi. Mustahkam iqtisodiy o'sish sur'atini yaratish vazifasi bu modelning tashqarisida yotadi.

**Innovatsiya tushunchasi** ishlab chiqarishda yoki xizmat ko'rsatish sohasida joriy etiladigan ilmiy tadqiqot ixtiro etilgan ishlarning natijasi bo'lgan texnologiyalarni, mahsulotlarni kashf etilgan ob'ekt shakldagi yangiliklarni, ya'ni o'zining analoglaridan sifatli farqlanadigan (yoki umuman tengi yo'q) larni ifoda etadi.

Innovatsiya (novatorlik) tushunchasini birinchi marta ilmiy iboraga avstriya iqtisodchisi Y. Shumpeter kiritgan. Uning tushunchasi bo'yicha innovatsiya yuqorida ifoda etilganiga qaraganda ancha kengroq tushunchadir. U yozgan «Rivojlanishning shakli va mazmuni bizning tushunchamizda shunday hodisa berilgan «yangi kombinatsiyalarni amalga oshirish».

Bu tushunchalarquyidagi beshta hodisani o'z ichiga oladi:

- 1) Yangilarini tayyorlashni, ya'ni iste'molchilar uchun hali ma'lum bo'lmagan ne'matlar yoki unday yoki bunday ne'matlarning yangicha sifatini yaratish;
- 2) Yangisini joriy etishni, ya'ni ushbu sanoat tarmoqlari uchun hali noma'lum uslub ishlab chiqarish, buning asosida yangicha ixtiro etilgan ilmiy kashfiyot bo'lishi va yangicha bunga muvofiq tovarlardan tijorat usulida foydalanish ham shart emas;
- 3) Yangicha sotuv bozorlarini o'zlashtirishni, ya'ni oldindan bu bozor mavjud bo'lganmi yoki yo'qmi shunga qaramasdan bu mamlakat sanoatining ushbu tarmog'i haligacha bunday bozorlarni tasavvur etmagan.
- 4) Yangicha xom ashyo manbalarini, ya'ni yarim fabrikatlarni olish, oldindan bunday manbalar mavjud bo'lganiga qaramasdan yoki umuman ahamiyat berilmagan yoki endi faqat yaratish bo'ladi.
- 5) Qayta tashkillashtirish ishlarini olib borish, masalan, monopol holatni ta'minlash (korxonalarni yaratish yordamida) yoki boshqa korxonalarining monopol holatini sindirish va boshqalar.

**Novator** – inson. Shumpeter shunday degan, ya'ni tadbirkorlik qobiliyati – bu iqtisodiy o'sishning omili, shu bilan birga, ular standartga muvofiq bo'lmagan qarorlarning manbasi bo'lib. ya'ni bozor talabining o'zgarishidan kelib chiqqan holda, ishlab chiqarishning qayta tuzulishini uning miqyosini to'g'irlashni ta'minlaydi. Shunday qilib, tadbirkor novator sifatida iqtisodiy rivojlanishni jadallashtiradi. Iqtisodiy rivojlanishning innovatsiya tipi har xil darajadagi ishchilarning o'ziga xos sifatini talab qiladi. Novator o'ziga xos tipdagi fikrga ega bo'lishini, muammolarni yangicha ko'rish qobiliyatiga ega

bo'lishini shunday turdagi faoliyatlarni amalga oshirish uchun qobiliyatli novator inson zarurdir.

**V.Leontevning milliy iqtisodiyotning iqtisodiy o'sishga tarmoqlararo balanslashuvi modeli. Iqtisodiy o'sishning universal modeli.** Iqtisodiy o'sishni tadqiq qilish muqarrar ravishda uning universal modelini yaratishga olib kelishi shart edi, bu o'z navbatida iqtisodiyotni ishonchli boshqarishga asos bo'lib xizmat qilishi mumkin edi. Bunday modellarning asosicha, iqtisodiy rivojlanishning barcha tomonlarini o'z ichiga oladigan, tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishda faqat sarf-xarajatlar va natijalar sifatida chiqadigan qiymat va natural oqimlar tizimini qo'yish mumkin edi. Bu vazifa iqtisodiy jihatdan ham, matematik jihatdan ham ko'proq murakkab edi. Buning birinchi hal bo'lishini biz Fr. Kenening 1758 yilda nashr etilgan «Iqtisodiyot jadvali» dan topamiz. U birinchi marta iqtisodiyot fanida milliy xo'jalikni o'zining balanslashuvi tizimi sifatida tasavvur etgan. Kene shunday taxmin qilgan, ya'ni faqat qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish jarayoni bo'lib, bu yerda qo'shimcha qiymat yaratiladi. U buning ostida qishloq xo'jaligining umumiy mahsuloti bunda iste'mol qilingan mahsulotdan oshib ketganini tushungan. Shunday qilib, qishloq xo'jaligidan mahsulot oqimlari iqtisodiyotning boshqa, ya'ni ushbu mahsulotlarni sotib oladigan sohalariga yuborilgan. Kene jadvali amaliyotda ahamiyatga ega bo'lmagan, ammo bu sezilarli darajada – qo'yilgan vazifalarni yechishga birinchi o'rinish bo'lgan.

V.Leontevning «xarajatlar – natijalar» modelini yaratgan. Haqiqatan ham «xarajatlar – natijalar» modelini yaratishda hal qiluvchi qadam tashlagan, 1925 yilda Rossiyani tark etgan, keyinchalik AQSh fuqarosi bo'lgan.

V.Leontev yaxshi matematik va iqtisodiy tayyorgarlikka ega bo'lib, milliy xo'jalik oqimlarining moddiy va qiymat asosini shaxmatli jadval shaklida tasavvur etishni uddalagan. Bu modelning xususiyati shundan iboratki, ya'ni oqimlarning soni cheklanmagan, bularning barchasi hisoblash vositalari uchun zarur va axborotlar hajmiga bog'liq bo'lgan. Dunyoning ko'p mamlakatlarida tarmoqlararo balanslashuv ijtimoiy mahsulotni ishlab chiqarish va taqsimlash bir necha yuz tarmoqlarga ajratilgan holda tuzib chiqiladi, u iqtisodiyotning bosib o'tgan yo'llarini baholaydi, uning rivojlanishini prognozlashga jazm etadi. Ushbu tarmoqlararo balanslashuvni ishlab chiqqani uchun muallif 1975 yil iqtisodiyot fani bo'yicha A.Nobel mukofoti sovrindori, M.V.Lomonosov nomidagi MGUning faxriy doktor unvoniga hamda boshqa juda ko'p unvon va mukofotlarga sazovor bo'lgan.

Tarmoqlararo balans (TAB) to'rtta kvadrantdan iborat: 1). ishlab chiqarilgan mahsulotlarning moddiy sarf-xarajatlar ko'rsatkichi; 2). pirovard mahsulotlarning noishlab chiqarish sohalaridagi iste'moli, jamg'arma va

eksport ko'rsatkichlari; 3). sof mahsulot (mehnat haqi, foyda, soliqlar) ko'rsatkichlari; 4). Sof mahsulotni qayta taqsimlash. Jadvalning ustunlarida narx-navoni ifodalashda yalpi mahsulotlar sarf-xarajatlarining shakllanishi ifoda etilgan bo'lib, satrlari bo'yicha gorizontalida ushbu mahsulotlarning taqsimoti ifodalangan. Ushbu ma'lumotlardan foydalanib sarf-xarajatlarning salmog'ini yengil aniqlash mumkin. Buning uchun ustun yoki satrlaridan tanlab olingan ko'rsatkichlar yalpi mahsulot miqdoriga bo'linadi. Shunday yo'l bilan mashina qurish zavodi mahsulotining hajmini sarflangan elektroenergiya miqdoriga bo'lib, mashina qurish zavodining qilgan elektroenergiya iste'mol salmog'ini bilib olamiz.

Tarmoqlararo balansning sxemasi sifatida o'quv darsliklarida qabul qilingan standart bo'yicha belgilangan namunali sxemalar keltirilgan. Balansning bunday sxemasini tenglama ko'rinishida tasavvur qilish mumkin:

$$X_1 = a_{11}X_1 + a_{12}X_2 + \dots + a_{1i}X_i + \dots + a_{1n}X_n + Y_1$$

$$X_2 = a_{21}X_1 + a_{22}X_2 + \dots + a_{2i}X_i + \dots + a_{2n}X_n + Y_2$$

.....

$$X_i = a_{i1}X_1 + a_{i2}X_2 + \dots + a_{ii}X_i + \dots + a_{in}X_n + Y_i$$

$$X_n = a_{n1}X_1 + a_{n2}X_2 + \dots + a_{ni}X_i + \dots + a_{nn}X_n + Y_n$$

Bu yerda,  $a$  – bevosita xarajat koeffitsiyenti, ya'ni bitta tarmoqning mahsulot hajmi, boshqa tarmoqlarning iste'moli uchun yaratilgan mahsulot birligi;  $X$  – shunga muvofiq tarmoqlarning mahsulot hajmi;  $Y$  – ushbu tarmoqning mahsulot hajmi.

#### 37.4. Iqtisodiy o'sishning chegarali muammolari

Oxirgi vaqtlarda iqtisodiy o'sishning yangicha paradigmasi ham belgilandi. Mamlakatda bunday o'sishning yaqindagina lokomotivi bo'lgan xom ashyo resurslarini eksport qilish shart bo'lib, ularning asosi – yonilg'i-energetik majmualar hisoblangan edi. Bunday yo'nalishlar iqtisodiyotga xom-ashyoviy xarakter berib hamda texnik va texnologik qoloqlikni konservatsiya qilar edi. Buning ustiga matbuot va boshqa ommaviy axborot vositalari shunday neft-gaz sotishdan olingan dollar ishlab chiqarishda texnika va texnologiyalarning o'zgaraydigan darajadiligini saqlab qolish imkoniyatini yaratishni qayd qilaredi. Bunday sharoitlar iqtisodiyotdagi islohot, modernizatsiya va diversifikatsiyalarni ob'ektiv ravishda qaytarib bo'lmaydigan holda kuch-quvvatdan qoldirardi. Uzoq vaqtga mo'ljallangan innovatsiyaviy faoliyat ko'pincha foydali pozitsiya bo'lar edi.

Iqtisodiy o'sish iste'mol tarmoqlarining salohiyati sur'atini oshirish yo'li bilan ham ro'y berishi mumkin. Ular o'z navbatida pirovard mahsulotlarni realizatsiya qiladi va «yirik» pullarni to'playdi.

### **37.5. Milliy boylikning mohiyati va uning tarkibiy qismlari**

Xalq boyligi mamlakat iqtisodiy qudratining eng muhim ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, jamiyat tomonidan uning butun ishlab chiqarish faoliyati davomida jamg'argan iste'mol qiymatlarining butun majmuasini puldagi ifodasidir. Milliy boylikning o'sishi kengaytirilgan qayta ishlab chiqarishning asosiy va xalq hayotining moddiy sharoitlarini yaxshilashning jiddiy omilidir.

Milliy boylik «Inson hayotini ob'ektlashtirish» sifatida belgilanadi. Uning muhim qismi – buyumli boylik, ya'ni jamg'arilgan moddiy boyliklarning majmuidir. Bundan tashqari, mehnat natijalari ham bo'lib, ular buyum shaklida hisobga olinmagan, shunga qaramay unga millatning boyligi sifatida qaraladi, masalan, mavjud aholi darajasi, ishlab chiqarish tajribasi va boshqalar.

Demak, ijtimoiy boylik – jamiyatga qarashli moddiy va madaniy ne'matlar majmuidir. Ularga birinchi navbatda xo'jalik aylanmasiga jalb etilgan tabiiy resurslar (o'zlashtirilgan yerlar, yer osti boyliklari, o'rmonlar) kiradi. Shu bilan birga, jamiyat boyligiga tabiatda bo'lmagan kishilar mehnat faoliyatining turli-tuman mahsullari ham kiradi. Jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyoti tobora mehnat bilan yaratilgan mahsulotlarning miqdori va sifatiga bog'liq bo'lib bormoqda. Shuning uchun bunday taraqqiyot inson ehtiyojlari barcha turlarining buyuklashuviga olib keladi.

Milliy boylik, degan tushuncha iqtisodiy nazariya fanida keng ma'noda ishlatilib kelinadi. Milliy boylik, degan tushunchani iqtisodiyot faniga Adam Smit kiritgan. Karl Marks ijtimoiy boylik g'oyasini asoslab bergan. Milliy boylik yoki ijtimoiy boylik umumiy iqtisodiy kategoriya bilan birga talqin qilinadi.

Har qanday jamiyatning ishlab chiqarishi harakat qilgan joyda albatta, milliy boylik vujudga keladi. Shuning uchun ham har qanday jamiyat o'zining ichki tuzumidan qat'i nazar, ma'lum darajadagi boylikka tayanadi. Milliy boylik – millat yoki elat boyligi bo'lmay, muayyan jamiyatning boyligidir. Shu jihatdan uni ijtimoiy boylik, deb qarash mumkin. Milliy boylik ishlab chiqarish faoliyatining mahsulidir. Milliy boylik, deb asrlar osha hamma avlodlar mehnati bilan yaratilgan va jamiyatda jamg'arilib kelingan moddiy va madaniy-ma'naviy ne'matlar, avloddan avlodga o'tgan tabiat in'omlari, to'plangan bilimlar, malaka va mahoratlar majmuiga aytiladi.

Demak, milliy boylik jamiyat ixtiyoridagi barcha moddiy ne'matlar uning milliy boyligini tashkil etadi. Milliy boylik o'zining yuzaga kelishi va rivojlanishiga qarab ikki qismga: a) mehnat natijalari asosida yaratilib va ko'payib boradi, bular barcha moddiy ne'matlardir; b) moddiy ne'matlar ishlab



chiqarishga tortilgan (tabiiy resurslar) tabiiy boyliklarga bo‘linadi. Bular – jamiyat tasarrufidagi yer, suv, kanallar, suv omborlari, o‘rmonzorlar, yer osti va yer usti qazilma boyliklaridan iborat bo‘lib, ular milliy boylikning moddiy ne‘matlar qismini yaratishning asosiy manbai bo‘ladi.

Bular O‘zbekiston Respublikasining quyidagi foydali qazilma boyliklardan iborat:

Mamlakatimiz yerlari turli foydali qazilma boyliklariga ega. qariyb 90 turdagi mineral xom ashyo borligi aniqlangan. Oltin, mis, qo‘rg‘oshin, rux volfram, radioaktiv elementlar, tabiiy gaz, neft va boshqa foydali qazilma boyliklar miqdori bo‘yicha ko‘pgina davlatlar orasida yetakchi o‘rinda turadi. Respublikada tuzlar, alyuminiy xom ashyosi, qoplama bezak va qimmatbaho toshlar, ba’zi kamyob elementlarning katta zaxiralari aniqlangan. O‘zbekiston qurilish materiallari va yoqilg‘i energetika resurslariga ham boy.

Neft qazib olish O‘zbekistonda dastlab 1904 yilda Farg‘ona vodiysining Chimyon hududida boshlangan, keyinchalik esa, shu hududda Xo‘jaobod, Janubiy Olamushuk, Shimoliy Olamushuk, Polvontosh, Xo‘ja Usmon, Hartum kabi boshqa konlar ham ochilgan. Bu yerdan olinadigan neftning tarkibida zararli aralashmalar (oltingugurt) kam.

1959 yilda Farg‘ona neftni qayta ishlash zavodining birinchi tizimi ishga tushirilgan. Ko‘pgina neft konlari Surxondaryo, Qashqadaryo, Buxoro viloyatlarida ochilgan (Kakaydi, Lalmikor, Ko‘kdumaloq, Muborak va boshqalar), 1933 yilda ochilgan Minbuloq (Namangan viloyati) neft koni va Ust-yurtda yangidan ochilayotgan neft konlarining zaxiralari aniqlanmoqda.

Gaz konlari O‘zbekistonda keng tarqalgan. Uchqir, O‘rta buloq, Chaqmoqli, Qoravulbozor, Setyalantepa gaz konlari ketma-ket ochildi. Hozirgi davrda eng katta gaz koni Qashqadaryo viloyatida joylashgan Sho‘rtangdir.

O‘zbekistonda ko‘mirning uchta yirik (Angren koni – Toshkent viloyatida, Sharg‘un va Baysun konlari – Surxondaryo viloyatida) va bir qancha mayda konlar ochilgan. Uchchala ko‘mir koni ham yuza qatlamlarida joylashgan. Ohangaron daryosi vodiysida joylashgan Angren qo‘ng‘ir ko‘mir koni 1933 – 34 yillarda ishga tushirilgan. Ko‘mir qatlami qalin, ko‘pqatlamli, karer yo‘li bilan qazib olinadi. Bu yerda ko‘mirning miqdori 2 mlrd. tonnaga yaqin. Agar yiliga 10 mln. tonnadan qazib olinsa, Angren ko‘miri 200 yilga yetadi.

Sharg‘un ko‘mir koni Xisor tog‘ining janubiy yon bag‘rida 600 – 800 metr balandlikda joylashgan, bir qatlamli, 1943 yilda o‘zlashtirila boshlagan, o‘rtacha qalinligi 4,63 metr, majmui, 12,5 metr. Boysunda ham ko‘mir konlari topilgan va o‘zlashtirilgan.

Metall qazilma boyliklari. Respublikada turli genetik tipdagi temir ruda konlari va ruda to‘plamlari borligini bildiruvchi magnit anomaliyalari bor (Tepabuloq titan-magnit koni, Syurenota, Shabraz, Mingbuloq va boshqa konlar). Cho‘kindi konlari trios, bo‘r va uchlamchi davr qatlamlari orasidan topilgan (temirning miqdori 20–40%). Marganetsning ekegalstion-cho‘kindi konlari O‘zbekistonning g‘arbiy qismida–Zarafshon, Zirabuloq, qoratepa, Lolabuloq va boshqa konlarda, cho‘kindi konlari esa, shimoliy va shimoliy-sharqiy qismda, gidroterial to‘plamlari Chotqol tog‘larida joylashgan. Marganetsning rudadagi miqdori 8–28%. Xromning magmatik konlari ofiolit mintaqalari bilan bog‘liq. Xrom to‘plamlari Tomditov va Sulton Uveys tog‘laridan topilgan.

Mis konlari O‘zbekistonda misporfir farmatsiyaga mansub bo‘lib, O‘rta Tyan-Shan, ayniqsa, Qurama tog‘lari uchun xos. Olmaliq atrofida qalmoqqir, Sarichek va boshqa konlar bor. O‘zbekistonda boshqa mis rudasi farmatsiyalaridan oltin va platina bilan birga uchrovchi ham kopirittitan-magmatit magmatik konlari, past magmatik kontaktli va skarnli, poligen, gidrotermal skarn-xalqoperit-magnetit va boshqa konlar mavjud.

Qo‘rg‘oshin va rux konlari janubiy-g‘arbiy Hisor tog‘larida joylashgan. Rudaning asosiy minerallari – pirit, sfalerit, xalkoperit. Noruda minerallari-kvars, sargipit, xloritlar, karbonatlar. Oltin va kumush minerallari ham aralashgan. Skarn-qo‘rg‘oshin – rux gruruhi asosan, Tyan-Shanda, Chotqol–Qurama tog‘idagi Lashkarak polimtal konidan qadimda kumush, qo‘rg‘oshin qazib olingan. Ular sanoat asosida qo‘rg‘oshin konidan olinadi va Olmaliq kon-metallurgiya kombinatida qayta ishlanadi. Shimoliy-Nurota va Xonbandi tog‘ tizmasi yonbag‘rida ham konlar bor. Temirli konlar Qurama tog‘larida uchraydi.

Nodir metall rudalari konlari ham mavjud. Janubiy va O‘rta Tyan-Shanda volfram konlari (Langar, Qoratepa, Qo‘ytosh, Ingichka, Yaxton, Chochtepa, Sargardon va boshqalar) topilgan. Asosan Ingichka va Qo‘ytosh konlaridan foydalaniladi. Molibden rudalari Hisor, Qurama va Chotqol tizilmalarida uchraydi Olmaliqda mis-porfir rudalaridan yo‘laka ajratib olinadi

Qalayning yuzdan ortiq ruda to‘plami va bir necha kichik koni ma’lum. Shulardan Qarnob koni 50-yillardan ishga tushirilgan. Vismut rudalari Chotqol-Qurama tog‘larida topilgan.

Simob va surma tarkibi rudalar ko‘p joylarda uchraydi.

Respublikada qimmatbaho metallardan oltinning bir necha endogen va ekzogen konlari va ruda to‘plamlari bor. Eng yirik konlari Markaziy Qizilqum (Muruntov, Qaqqatos)da, genetik jihatdan gidrotermal (aksari qismi) va skarni tipda Muruntov va Qaqqatos konlari tokembriy va quyi paleozoy jinslarida ,

Olmaliq guruh konlari intruziyalarida joylashgan. Tarkibida oltin bo'lgan rudalar G'arbiy O'zbekiston (Rabinjon) va Chotqol –Qurama tog'larida ham mavjud. O'zbekistonda kumush konlari Qurama tizmasida joylashgan.

Alyuminiy xom ashyoli boksit rudalar O'zbekistonda paleozoy va mezozoy qatlamlarida ko'p uchraydi, lekin alohida konlari yo'q. Paleozoy boksitlari qizilqum (Tomditov), Nurota va Janubiy Farg'onada topilgan.

Alunit rudalari va konlari Qurama, Chotqol va Hisor tog'larida uchraydi.

Kaolin (oq gul) xom ashyosining yirik koni Angrenda topilgan (qatlam qavati 2 m.dan 46m. gacha).

*Kon-kimyo ashyolari. Mineral tuzlar.* O'zbekiston osh tuzi va kaliy tuzlariga juda boy; magniy va natriyning sulfid tuzlari esa, bir oz kamroq uchraydi.

Oltingugurt Farg'ona vodiysida Qizilarcha, Andijon, Qurshob hududlarida, Ust-yurtda paleogen, neogen davri yotqiziqlarida uchraydi. Yirik koni To'bekatanda. Fosforit konlari Ovminzatov, Bukantov, Toshqazgan, Quljuqtov va Boysun tog'idan topilgan va uning 95% mineral o'g'it sifatida ishlatiladi. Hidro-mineral resurslari, yer osti suvlari keng miqyosda o'rganilmoqda.

Milliy boylikning moddiy ne'matlar qismi o'zining ijtimoiy ishlab chiqarishda foydalanish jihatiga ko'ra ikki qismga bo'linadi:

A) ishlab chiqarish vositalari;

B) iste'mol buyumlari.

Ishlab chiqarish vositalari o'z tarkibiy rivojlanishiga ko'ra asosiy fondler va aylanma fondlarga bo'linadi.

1. *Asosiy ishlab chiqarish fondlariga* bevosita yoki bilvosita ko'p marotaba ishlab chiqarish jarayonida qatnashadigan va shunga qaramasdan o'zining natural shaklini saqlab qoladigan, sekin ishdan chiqadigan va o'zining qiymatini yaratilgan mahsulotga qisman o'tkazadigan fondlar kiradi:

1. Bino-imoratlar.

2. Inshootlar.

3. Harakatga o'zaytadigan tizim qismlari.

4. Mashina va asbob-uskunalar.

Shu jumladan:

a) kuch uzaytadigan mashinalar va asbob-uskunalar;

b) ishga oid mashinalar va asbob-uskunalar;

s) o'lcaydigan va tartibga soladigan priborlar va tuzilish va laboratoriya asbob-uskunalari;

g) hisoblash texnikasi;

e) boshqa mashinalar va asbob-uskunalar.

5. Transport vositalari.
6. Instrumentlar
7. Ishlab chiqarish va xo‘jalik inventarlari.
8. Ishga oid va oziq-ovqatga oid hayvonlar.
9. Ko‘p yillik o‘simliklar.
10. Yer resurslarini yaxshilash bo‘yicha kapital mablag‘lar.
11. Boshqa asosiy fondlar.

Bu yuqorida ko‘rsatilgan asosiy ishlab chiqarish fondlari o‘z navbatida o‘ziga xos guruhlariga ham bo‘linadi (masalan, «bino-imorat» guruhiga, ishlab chiqarishdagi sexlar binosi, ustaxonalar, omborlar, boshqa ishlab chiqarish bivaoo‘quv binolari, tibbiyot, ilmiy va madaniy idoralar, uy-joylar va boshqalar).

2. *Nomoddiy ishlab chiqarish asosiy fondlari.* Nomoddiy ishlab chiqarish asosiy fondlari – yashash joylar va madaniy-maishiy maqsad uchun iste‘mol sohasida foydalanadigan inshootlar. Nomoddiy ishlab chiqarishdagi asosiy fondlar kabi ko‘p marotaba foydalanadi, qisman-qisman ishlab chiqarish qobiliyatini yo‘qotadi.

3. *Oborot fondlar va tovar zaxiralari.* Oborot fondlar va zaxiralarga, xom-ashyo, yarim fabrikatlar, iste‘moldagi yoqilg‘ilar, ishlab chiqarishda tugallanmagan qurilishlar – bu qismi ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan zaxiralar. Bulardan tashqari zaxiralar korxonalarining tayyor mahsulotini, ya‘ni iste‘mol buyumlarini ishlab chiqaradigan va ulgurji hamda chakana savdoga yuboriladigan tovarlarni ham o‘z ichiga oladi.

4. *Shaxsiy mol-mulk.* Aholining mol-mulki – bu mebellar, uy xo‘jaligi buyumlari, kiyim-kechaklar va boshqalar.

Milliy boylik miqdori pul vositasida o‘lchanadi. Umuman milliy boylik tarkibiga shu ma‘lum hududda, masalan, O‘zbekiston Respublikasining 447,4 ming km.kv joyda joylashgan hamma jonli va jonsiz predmetlar yig‘indisi kiradi.

### **Qisqacha xulosalar**

Umuman har qanday davlatning iqtisodiy o‘sishi – bu iqtisodiy rivojlanish mezonidir. Bu asosan, yalpi milliy mahsulotning, yalpi ichki mahsulot (YaIM) yoki milliy daromadning absolyut, yohud aholining jon boshiga o‘sishi bilan ifodalanadi.

Iqtisodiy o‘shish ikki turi o‘zaro bog‘liq, ya‘ni ekstensiv va intensiv tipdagi ko‘rsatkichlar bilan o‘lchanadi. Ulardan tashqari iqtisodiy o‘shish ikki xil darajada – mikro va makroiqtisodiy darajada yuz beradi.

Iqtisodiy o'sishiga, ya'ni mamlakatning yalpi milliy mahsulotning, yalpi ichki milliy mahsulotning va ularning asosiy ko'rsatkichi bo'lgan milliy daromadning absolyut va aholi jon boshiga o'sishiga qarab jamiyatning iqtisodiy ahvoriga baho berish mumkin bo'ladi. Agar iqtisodiy o'sish yuz bersa, mamlakatda iqtisodiy jonlanish, yuksalish yuz beryapti, deb aytsa bo'ladi. Agar iqtisodiy o'sish bo'lmasa, jamiyatning ishlab chiqarsish ahvoli pasayib ketsa, tenglik mavjud bo'lib, natijada umuman, iqtisodiy ahvoli yomonlashadi, ishsizlar soni ko'payadi, narx-navo yanada oshadi, davlat pul birligi qadrsizlanadi, inflyatsiya yuz beradi.

Yuqorida aytib o'tganlardan tashqari, iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi investitsiya va innovatsiya resurslari ham o'z vaqtida, o'z samarasini berib turishi lozim, bu resurslar mahsulot ishlab chiqarishni rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, qoplash va jamg'arma fondlariga ajratiladi.

Umuman, iqtisodiy o'sish milliy boylikning rivojlanishiga va ko'payishiga olib keladi, uning asosiy mezonini bo'lib hisoblanadi va aksincha, mamlakatning milliy boyligi, ya'ni yer osti va yer ustidagi boyliklari qanchalik ko'p bo'lsa, shunchalik iqtisodiy o'sish yuz beradi, shuning uchun mamlakatning milliy boyligi, ya'ni har qanday jamiyatning ixtiyorida takror ishlab chiqarish jarayonlaridagi tabiiy resurslar va shu jamiyatning o'tmishdagi va hozirgi zamondagi avlodlarining mehnati natijasida yaratilgan moddiy boyliklar yig'indisiga milliy boylik, deb ataladi.

### **Asosiy tushunchalar**

Iqtisodiy o'sish.

Ekstensiv tipdagi iqtisodiy o'sish.

Iqtisodiy sikl.

Krizis fazasi.

Turg'unlik fazasi.

Jonlanish fazasi.

Yuksalish fazasi.

### **Mavzuning namunali rejalari**

1. Iqtisodiy o'sish resurslaridan to'liq foydalanmaslik va ishsizlik.
2. Resurslarning miqdoriy va sifat o'zgarishi.
3. Hozirgi zamon ishlab chiqarish muqobili va kelajakdagi o'sish.

### **Seminar darslarida muhokama qilish uchun savollar**

1. Iqtisodiy o'sish tiplarining farqi nimada?
2. Ishlab chiqarish omillarining cheklanganligi va milliy boylik.

3. Milliy boylik va uning tarkibiy tuzilishi.
4. Ishlab chiqarish resurslaridan to'liq va samarali foydalanish.

### **Mustaqil ta'lim uchun savollar**

1. Iqtisodiy o'sish nima va uning qanday o'lchami bor?
2. Iqtisodiy o'sish nima bilan cheklangan?
3. Nima uchun iqtisodiy o'sish ishlab chiqarish tarkibiga bog'liq bo'ladi?
4. Milliy boylik iqtisodiy o'sishning o'zaro iqtisodiy bog'liqligi nimada?

## **38 BOB. IQTISODIYOTNING SIKLLILIGI VA MAKROIQTISODIY BEQARORLIGI**

### **38.1. Iqtisodiy sikllikning mohiyati va sabablari**

Bozor iqtisodiyotining asosiy belgilaridan biri uning siklligi bo‘lib, ya‘ni iqtisodiy faolligining davriy tebranishida ishlab chiqarishning muntazam ravishda pasayib va yuksalib ketishining ko‘proq va kamroq takrorlanib turishida ifodalanadi.

Ma‘lumki, ishlab chiqarishning pasayib ketishi bozor iqtisodiyotining paydo bo‘lishigacha dunyoning alohida mamlakatlarida va hududlarida ro‘y bergan. Ular asosan, noiqtisodiy omillar (tabiiy, siyosiy, demografik, ijtimoiy), shundan, qurg‘oqchilik, toshqin, suv bosish, zilzila, urush, epidemiya, inqilobiy harakatlar natijasida yuz bergan. Shunga o‘xshagan favquloddagi vaziyatlar ko‘pincha keng miqyosda xo‘jalikdagi vayrongarchilikda tus olgan, ularni to‘xtatish uchun yillar va hatto o‘n yillar talab qilingan. Jamiyatning iqtisodiy hayoti hozirgi ko‘ngacha qayd etilgan omillarning barchasini salbiy ta‘siridan sezilarli darajada xavfsizlanmagan.

Ammo oxirgi ikki asrlar davomida yuzaga kelayotgan va iqtisodiyot bozor tizimining xarajat qilish tamoyillari va asosiy qonuniyatlari sifatida iqtisodiy sikllikning har xil shaklida rivojlanishi davom etmoqda.

#### **Iqtisodiy sikllikning tadqiqot qilish vazifalari**

Iqtisodiy sikllik asosiy makroiqtisodiy muammolar jumlasiga kiradi, u bozor iqtisodiyoti sub‘ektlarining barchasiga bevosita yoki bilvosita ta‘sir etadi: uy xo‘jaligiga, firmalarga (korxonalariga) va davlatga. Bu muammo o‘zining murakkabligi va ko‘p qirrali mehnatlari bilan uning tadqiqoti bir yarim asrdan ko‘proq davom etishiga qaramasdan munozarali bo‘lib kelmoqda.

Iqtisodiy faollikning qisqa va uzoq vaqtlarda o‘zgarishini iqtisodiy tebranishning umumiy nazariyasiga har xil variantlarda birlashtirishga o‘rinishni tushuntirish yetarli darajada keng tarqatishga ega.

Shu bilan birga, aniq yo‘nalishlar va hozirgi zamon iqtisodiy nazariya doirasida olimlar xo‘jalik kon’yunkturasi tebranishlarini o‘rganmoqda:

- ushbu tebranishning asosiy tamoyillarini va omillarini aniqlash maqsadida;
- mamlakat va hududlarning xo‘jaliklarini alohida tarmoqlarini va sektorlarining rivojlanishini prognozlash uchun;
- bozor muhitida harakat qiladigan firmalarning xulqi, fe‘l-atvorining strategiyasini va taktikasini ishlab chiqish uchun;

- davlatning iqtisodiyotiga ta'sirini sikllikka va inqirozga qarshi investitsiyaviy va strukturali, tashqi iqtisodiy va nihoyat, bandlik siyosati va iqtisodiy o'sish kabi makroiqtisodiy siyosat yordamida chora-tadbirlarni aniqlash uchun.

### **Iqtisodiy sikllik tushunchasi**

Iqtisodiy sikllik – bu bozor iqtisodiyoti rivojlanishining ob'ektiv shaklidir. Bu milliy iqtisodiyot miqyosida bitta makroiqtisodiy mutanosiblikdan boshqasiga harakatidir. Haqiqattan ham bozor iqtisodiyotining o'z-o'zini tartibga solish usullaridan biri, shu jumladan uning tarmoqli tuzulishining o'zgarishi ham. Sikllik bir vaqt ichida nihoyatda milliy xo'jalikka va butun jahon xo'jaligiga davlat ta'sirining sezilishidir. Bu o'z navbatida xo'jalik kon'yukturalarining munozarali pasayib va yuksalib turishidagi almashuvi to'liqlanish harakati (ish faolligi). Aynan sikllik makroiqtisodiy mutanosiblik buzilishining asosiy shakllari sifatida chiqadi.

Sikllikni bozorning makroiqtisodiy beqarorlik belgisi, deb hisoblab, shuni e'tiborga olish kerakki, ya'ni ular iqtisodiyot mutanosiblik holatining nafaqat buzilishining davriy takrorlanish jarayonida organik birligi uni ifodalaydi, balki uning keyingi tabiiy tiklanishini ham. Bozor tizimi iqtisodiy istirobsiz (inqirozsiz) rivojlanishi mumkin bo'lmaydi. Uning o'ziga xos tadbirkorlik faoliyatining harakat qilib turishi makrodarajada ro'y beradi. U ijtimoiy takror ishlab chiqarishning torayishi va kengayishi, birlashishi shubhasiz bozor hayotining bir maromda va harakatda bo'lishini taxmin etadi. Shu orada, har qanday rivojlanayotgan tizimga (gap tabiat, jamiyat, inson organizmi yoki iqtisodiyot haqida ketayapti) ob'ektiv ravishda o'ziga xos bo'lgan sikllilik bo'ladi. Endi iqtisodiy inqirozlarga nima tegishli bo'lsa, unda iqtisodiyot «kasal» vaqtida, ular shunday kasallik vaqtidagi o'tish holatini yuzaga keltiradi, bu yerda muqarrar ravishda jonlanish va yuksalish vaziyatlari paydo bo'ladi. Tasodifan uzoq bo'lmagan bozor tizimining asosiy vazifalaridan biri butunlay tozalash, sog'lomlashtirmoq bo'ladi. Shu bilan birga, davriy kuzatuvchan murakkab jarayonlar o'rin egallaydi, ya'ni bozorning sikllilik sog'lomlanishi. U hozirgi vaqtda O'zbekistonda aralash iqtisodiyot sharoitida bozor mexanizmlariga, raqobatli o'zini tartibga solish sifatida (o'zini sog'lomlashtirishga) hamda davlatning makroiqtisodiyot siyosatiga ham suyanadi.

Bozor iqtisodiyotining sikllik rivojlanishining boshlanish nuqtasini bir qancha shartli ulishi bo'yicha 1825 yildan hisoblash mumkin, ya'ni Angliyada birinchi ortiqcha ishlab chiqarish inqirozi ro'y bergan. U iqtisodiy kon'yunkituraning davriy tebranishining boshlanishini belgilab berdi. U yetarli muntazam ravishda XIX asr jarayonida o'rtacha 8–10 yil oralig'ida takrorlanib



turdi. Asta-sekin boshqa kapitalistik mamlakatlar sikllik oqimiga tortildi. XIX asrda eng chuqur ayniqsa, uzoq davom etgan jahondagi iqtisodiy inqiroz 1873 – 1878 yillarda bo‘lgan. XX asrning 1929–1933 yillardagi iqtisodiy pasayish o‘zining chuqurligi bo‘yicha buyuk turg‘unlik, deb nomlangan barcha rekordlardan o‘tib ketdi. O‘sha davrda kapitalistik mamlakatlar sanoatlarida ishlab chiqarishning unumiy hajmi 46% ga, tashqi savdo aylanmasi – 67% ga qisqardi, ishsizlar soni 26 mln. kishiga yetdi, moddiy ishlab chiqarish sohasidagi barcha bandlikning deyarli to‘rtinchi qismi) aholining real daromadlari esa, 58% ga kamaydi. O‘sha vaqtdan boshlab iqtisodiy sikllikni o‘rganish diqqat bilan qaraydigan o‘ziga xos ob‘ekt bo‘lib kelmoqda.

### **Iqtisodiyotning sikllik rivojlanish tamoyillari**

Haqiqattan ham iqtisodiy sikllik asosida nima yotadi? Xalq xo‘jaligining to‘liqinsimon rivojlanishini qanday sabablar tug‘diradi, bu yerda shuni aytish o‘rinli (ayniqsa, ikkinchi jahon urushidan keyin), ya‘ni alohida mamlakatlarda sikllik o‘zining bir xil davom etishini «to‘g‘riligini», dunyo miqyosida esa, o‘zining harakatini teng va baravar, ancha ilgari yo‘qotdi.

Avvalambor, uni belgilab o‘tmoq zarur, ya‘ni sikllik murakkab ko‘p omilli jarayonligini o‘z ichiga oladi va uning sabablarini tadqiqot qilish muqarrar ravishda ko‘p miqdordagi nazariy konsensiyalarni chaqiradi. Masalan, nemislarning iqtisodchisi G.Shmolders inqirozni tug‘diradigan 200 tadan ko‘p har xil omillarni hisoblagan. Agarda sikllik rivojlanish va inqiroz sabablarini o‘rganishga asoslangan ko‘proq asosiy nazariy holatlarni ajratishga o‘rinib ko‘rilsa, unda avvalambor, uchta asosiy yo‘nalishlarni ko‘rib chiqish kerak.

### **Sikllik va fan-texnika taraqqiyoti**

Iqtisodiy sikllikning birinchi yo‘nalishi fan-texnika taraqqiyoti, fan-texnika revolyutsiyasi davri bilan bog‘laydi. Ushbu yo‘nalishlar katta (ko‘p) yoki kichik (kam) darajada fan-texnika taraqqiyoti o‘zining har xil shakllidagi ta‘siri ostida turgan mohiyati bo‘yicha, ishlab chiqarishning asosiy omillarining evolyutsiyasi (er, kapital, mehnat va tadbirkorlik qobiliyatlari) aniqlanadi.

XIX asrning 60-yillarida iqtisodchi-olimlar birinchi bo‘lib kapitalning transformatsiyalashuvi davriy inqirozlarning bevosita sabablari sifatida ekanligiga e‘tibor qaratilgan. Avvalambor, iqtisodiyotdagi strukturali o‘zgarishlar asosiy kapitalning ommaviy yangilanish jarayonlari bilan bog‘langan, o‘z navbatida uning ko‘pincha faol elementlari bo‘lgan – sanoat asbob-uskunalarinig o‘rtacha muddatda harakat qilishiga shartlanganligidir. Ushbu jarayonlar fan va texnika taraqqiyotining oqibatida yangilanganini iqtisodiyot fanida iqtisodiy sikllikning moddiy asosi, deb nomlanadi.

Inqirozning o‘zini ular kapitalizmning asosiy ziddiyatlarini vaqtincha va xususiy shakli natijasi ya’ni ishlab chiqarishning o‘sib kelayotgan umumiy xarajatlari va uning natijalarini xususiy shaklda o‘zlashtirish o‘rtasidagi ziddiyat sifatida ko‘rib chiqqan (ya’ni ishlab chiqarish vositalariga xususiy mulkchilikni). Ulardan bir xillari ushbu ziddiyatlar faqat kapitalizmni sotsializm bilan almashtirishda to‘liq hal bo‘lishi mumkin, deb hisoblangan.

Ammo hozirgi davrda bozor iqtisodiyoti dinamik ravishda rivojlanishni davom ettirib aralash, davlatning tartibga sonli shaklida, jamoa xususiy mulkchilikning kengayishi mulkchilikning bir-biriga aralashish oqibatida uni saunallashtirish jarayonlarining kuchayishi, davlat mulkining naqtligida kapitalni demokratlashtirish namoyon bo‘lmoqda. Shu bilan birga, xususiy biznes ijtimoiy mas’uliyatining o‘sib borishi va bozor tizimi iqtisodiyotining umumiy ijtimoiy yo‘nalishi sezilmoqda.

XX asrda iqtisodchilar davriy inqirozlarni nafaqat asosiy kapitalning alohida elementlarining, balki aylanma kapitalning yangilanishi bilan ham bog‘lanishlarini boshlagan (xususan, tovar zaxiralarining) ingliz iqtisodchisi J.Kitchin qisqa ikki yarim yildan to‘rt yilgacha davom etadigan kichik sikllik konsepsiya’ni oldinga surdi. Sikllik jarayonlarga piravarid natijada, fan-texnika taraqqiyoti bilan chaqiradigan yangilanish jarayoni nuqtai nazaridan yondashuv, kelgusida hatto uzoq vaqt ichida iste’mol qilinmaydigan ne’matlarga (engil avtomobil, mebel, muzlatgich, televizor va boshqalar) kiradigan uy xo‘jaliklarining asosiy fondlariga ham tarqatilgan edi.

Ushbu yo‘nalishlar doirasida murakkab sharoitlarda sobiq sovet iqtisodiyot fonida shakllangan rus iqtisodchisi **N.D.Kondratev tomonidan ishlab chiqilgan iqtisodiy faollikning uzin** to‘lqinlashuv nazariyasi juda ham qiziqarli tassavurni ifoda etadi. Bu nazariya uning bir necha asarlarida<sup>29</sup> asoslangan edi. Kondratev XVIII asrning oxirida Angliyada, Fransiyada va AQShda ochiq iqtisodiy rivojlanish tadqiqotini olib borib Jahon xo‘jaligida uchta katta sikllikni aniqlab berdi. I – 1787 yildan 1814 yilgacha (to‘lqinlikning ko‘tarilishi) va 1814 yildan 1851 yilgacha (to‘lqinlikning pasayishi); II – 1851 yildan 1875 yilgacha (yuksalish) va 1875 yildan 1896 yilgacha (pasayish); III – 1896 yildan 1920 yilgacha (to‘lqinlikning yangi ko‘tarilishi) «Kondratev sikllikning» o‘rtacha davom etishi 50–60 yil bo‘ladi, buning asosiga esa, muallif fan-texnika taraqqiyotining sakrash yo‘li bilan borishni xarakterlab, ishlab chiqarishning texnika va texnologiyasida davriy

---

<sup>29</sup> Н.Д.Кондратьев. «Мировое хозяйство и его конъюнктуры во время и после войны»; Кондратьев Н. Д. Спорные вопросы мирового хозяйства и кризиса. (Ответ нашим критикам.) Социалистическое хозяйство. 1923. № 4–5. С. 50–86.; Н.Д.Кондратьев. Большие циклы конъюнктуры. М.: Издательство: Юрайт, 2016

inqilobni qo'ydi. «Uzoq to'liqlar»ning paydo bo'lishi yirik innovatsiyalarning «tutam»lari bog'lanishi (masalan, avtomobillarning, samolyotlarning ichki o't olish dvigatelini ixtiro qilinishi va boshqalar) iqtisodiy faolikka bir qancha o'n yilliklarda hozirgacha ularning ta'siri bo'lmaganiga ichki to'rtki beradi. Ammo Kondratevning dunyoqarashi o'sha vaqtlarda iqtisodiyot fanini mafkuralashtirish sharoitlarida yetakchi kapitalistik mamlakatlarning real dinamikasini oldindan bichib-to'qimasdan, tahlil qilishga o'rinib ko'rish to'g'ri kelmadi. 1938 yilda iste'dodli olim kapitalistik nazariyani madh etuvchi sifatida represiya qilinib, Gulagda vafot etgan, faqat 1987 yilda vafotidan keyin oqlangan. Yaqinda uning tanlangan asarlari nashr qilindi. XX asrning 30-yillari oxirida avstriya iqtisodchisi Y.Shumpeter **siklni har xil davom etishining umumiy nazariyasini** oldinga surdi, bu o'zining birligida makroiqtisodiy tebranishning aniq kengligini ta'min etardi. Bu nazariya iqtisodiyot taraqqiyotining fan-texnika omillariga ham tayanardi. Shumpeter o'zining ma'lum «Ish faoligining siklligi. Kapitalistik jarayonlarning nazariy, tarixiy va statistik tahlili» kitobida iqtisodiy dinamikaning uchta siklli sohasi, deb nomlangan konsepsiyasini taklif etilib, buning doirasida N.D.Kondratevning yarim asri sikllari, K.Juglyarning o'n yillik sikllari va J.Kitchinning ikki yillik sikllarini birlashtirilgan edi. U bularning o'zaro bog'liqligini tavsiflab, ya'ni ko'proq davom etadigan sikl albatta, kichikroq davrda davom etadigan rivojlanishni qamrab oladi. Natijada, har bir uzoq to'liqlarning tebranishi kelgusi tartibdagi to'liqlar uchun muvozanatning yaqinligini yaratadi, deb xulosa qiladi. Shu bilan birga, sikllikning asosiy harakatlantiruvchi kuchi tadbirkorlarning investitsiyaviy faoliyati, asosiy kapitalga investitsiyaning ko'pchilik qismini yuborish bo'ladi. Bu ishlab chiqarishni tashkillashtirishga yangi texnologiyalarni va yangi shakllarni joriy etishda, shunday qilib, yangi mahsulotlarning va yangi bozorlar ochilishining paydo bo'lishida namoyon bo'ladi. Innovatsiyalarning keng tarqatilishi ishlab chiqarishning yuksalishini chaqiradi, bundan keyingi pasayish esa, iqtisodiy «gum-gumlar» bilan tug'ilgan xo'jalik hayotida o'zgaradigan sharoitlarga o'ziga xos moslashuv sifatida chiqadi.

Shumpeter «sharoitlarning tez o'zgaruvchanligida uzoqqa mo'ljallangan investitsiyalarni amalga oshirish tavakkal mashqdek, nafaqat otishni tasavvur etadi, balki uning usti siltash bilan harakat qilishni ham»<sup>30</sup>, deb aytgan.

---

<sup>30</sup> Шумпетер Й.А. Теория экономического развития. Капитализм, социализм и демократия. — М. : Эксмо, 2008. — 864 с.

Ammo bozor iqtisodiyotining faqat shunday tipdagi harakati unga kelgusida dinamik o'sishni ta'minlaydi. Bunga o'xshagan xulosalarni chiqarish uchun muallif aksincha, quyidagi masalani keltiradi «Tormoz bilan ta'minlangan avtomobil tormozi bo'lmagan avtomobil bilan solishtirilganda tezroq yurishi mumkin». Undan tashqari tadbirkorlik innovatsiyani realizatsiya qilishda Shumpeter xo'jalikning aylanishiga qo'shimcha iqtisodiy resurslarni jalb qilish imkoniyatini ta'minlashda asosiy rolni tasodifan kreditga bermagan.

### **Sikllik va pul-kredit omillari**

Bozorning siklligini o'rganish sabablari doirasida ikkinchi yo'nalish bo'lib sikllikning pul-kredit nazariyasining birligi chiqadi. Bunga amerika iqtisodchisi I.Fisherning konsepsiyasini kiritish mumkin, u inqirozni pulga bo'lgan talab bilan uning taklif o'rtasidagi muvozanatning buzilishi natijasini ko'rib chiqdi, pul muomilasining o'zini tartibga solishni esa bozor kon'yunkturasi tebranishiga ta'sir etuvchi asosiy mexanizm, deb hisobladi. Pul-kredit omillari 1974 yilda Nobel mukofoti iqtisodiyot bo'yicha sovrindori F.Xayekning monetar nazariyasi siklli e'tiborining epitsentri ham bo'lgan. Uning nazarida asosiy o'rinli investitsiyalashning ortiqcha yoki yetarliligi emas muammolarining iqtisodiy pasayishni hal qiluvchi sabablari sifatida esa bank intizomining olib borayotgan pul-kredit ekspansiya siyosati egallaydi. Shunday qilib, «gum-gum»dan inqirozga o'tishni chaqiradigan bevosita omil banklarning kelgusida kreditlarni kengaytirishdan bosh tortishi bo'ladi, investitsiya loyihalarini amalga oshirishga qo'shimcha pul yuborish Xayekning fikricha «Qarz berish siyosatini» faqat keyinga surish mumkin.

XX asrning 70-yillaridan boshlab amerika iqtisodchisi 1976 yilda Nobel mukofotining xizmat ko'rsatgan sovrindori bo'lgan M.Fridmanning pul konsepsiyasi sikli katta ommalashtirishga ega bo'ldi. Ushbu konsepsiyaga muvofiq sikllik dinamikasida asosiy rolni beqaror pul taklifi o'ynadi, bu yerda asosiy aybdor davlatning o'zi bo'ladi. Davlatning sikllikka qarshi muomaladagi pul massasini tez tebranishiga olib keladigan siyosatining o'rniga uni qattiq tartibga soladigan yiliga 3–4% o'sish sur'ati taklif etiladi.

XX asrning oxirgi o'n yilliklarida qayd etilgan yo'nalishlar oqimida sezilarli darajada har xil pul oqimlarining tahlili o'rin egallaydi. Unday tahlillarning xarakterlaridan birini 1995 yilda Nobel mukofoti sovrindori amerika iqtisodchisi R.Lukasning hozirgi zamon iqtisodiyotidagi sikllik qo'shilmagan pul shoki bilan bog'liqligi tushunchalarini misol qilish mumkin.

Uning nazariyasida davlatning iqtisodiyotga ta'sir ko'rsatadigan chora-tadbirlariga qaramasdan inqirozni tug'diradigan har xil shokli vaziyatlarni ig'vo qilishga qobiliyati yetarli darajada xo'jalik sub'ektlarining (tadbirkorlarining) huquqi, fe'l-atvori muammolari asoslangan holda suriladi.

Yana shuni qayd qilmoq o‘rinli, ya’ni aynan falaj omillari (tasodifiy yoki kutilmagan, ichki yoki tashqi) pul-kredit sohasida ro‘y beradigan o‘tgan davrda va bugun ham shunday iqtisodiy sikllar moliyaviy iztirob kabi sikllarni tabiiy yo‘lidir ishda asosiy rol o‘ynashni davom etkazmoqda. Rossiyaning taniqli olimi A.V.Anikin o‘zining oxirgi kitobida: «Bozor iqtisodiyoti moliyaviy iztirobsiz mavjud bo‘lmaydi»<sup>31</sup> degan fikrni bayon etadi. Balki bu taraqqiyot bahosidir, bu insoniyat oxirgi ikki yuz yillikda moddiy sivilizatsiyaning kuchli dinamikasi uchun to‘lanadigan bahodir. Shu bilan birga, tarixdan ma’lumki, uzluksiz inqirozlar bo‘lmaydi, ya’ni bozor iqtisodiyotida inqirozdan chiqishga imkoniyatlar ham yaratiladi. Iqtisodiy sikllikning elementi bo‘lgan, nafaqat moliyaviy inqirozlar haqida, balki katta inflyatsiya haqida, iqtisodiyot ustidan ommaviy kuch ko‘rsatib zo‘rlilik qilish davri haqida, moliyaning urushlar bilan tug‘dirilgan to‘s-to‘polon, tartibsizlik haqida ketayapti. Tarixda darsu-saboqlar dunyoga, hayotga doim umid bilan qarash, kelajakka ishonish bilan xulosa qilingan».

### **Sikllik va bozor tuzilishining qarama-qarshiligi**

Va nihoyat, sikllik tebranishni faktga asoslanganligini ochib beradigan uchinchi yo‘nalish – bozor tuzilishining qarama-qarshilikda o‘zgarishi tahliliga suyanadigan har xil o‘zaro nisbatlar. Bu nazariyalarda (albatta, ularning birinchi va ikkinchi yo‘nalishlar konsepsiyasi bilan aniq o‘zaro bog‘ligida) bir tomondan yangi talab, boshqa tomondan esa, yangi taklif dinamikasini ko‘rib chiqish haqida gap ketayapti. Bu yerda asosiy e’tibor qoida bo‘yicha talabning ham, taklifning ham hajmini tebranish tezligi va tuzilishining intensivligida omillarning har xil darajada ta’sirini aniqlashga qaratilgan.

Bu qayd etilgan nazariyalar orasida, mohiyati bo‘yicha makroiqtisodiyot nuqtai nazaridan umumlashtirilgan yo‘nalishlarga, ayniqsa, Keyns talqin qilgan iqtisodiy sikllikka to‘xtab o‘tishga to‘g‘ri keladi. J.M.Keyns keyinchalik uning izdoshlari R.Xarrod va J.Xiks kabi ingliz va amerika olimlari, P.Samuelson va A.Xansenlar sikllikni milliy daromad, iste’mol, jamg‘arma va investitsiyalar dinamikasi o‘rtasidagi o‘zaro harakatlar nuqtai nazaridan tadqiqot qildilar.

Keyns sikllik konsepsiyasini juda ham qisqacha izohlash shunday tasdiqlashda xulosa qilinadi, ya’ni birinchi navbatda, sikllikning o‘zi uy xo‘jaligini xususiy iste’mol qilish, ya’ni xususiy investitsiya va davlat iste’molini qamrab oladigan samarali ya’ni talabning tebranishi bilan

---

<sup>31</sup> А. В. Аникин. История финансовых потрясений. От Джона Ло до Сергея Кириенко. М. : ЗАО "Олимп-Бизнес", 2000. 378 стр.

shartlangan. Iste'mol, jamg'arma, investitsiyalar va milliy daromad miqdori o'rtasida mustahkam aloqalar ro'y beradi, bular ikkita asosiy: (milliy daromadning) va akseleratorning investitsiyalarini o'sish sur'ati milliy daromadlarning o'sish sur'atiga nisbatlari) koeffitsiyet bilan aniqlanadi. Aynan bu konsepsiya sikllikning bir qator matematik modelining asosida yotdi, bu yerda birinchilar qatorida Samuelson – Xiks modellari bo'lgan edi. Buning iqtisodiy mazmuni shundan iboratki, ya'ni u real amaliyotdan olingan koeffitsiyentlarning ahamiyatini bir qator makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning o'zaro nisbatini aks ettiruvchi, ya'ni talabning muqarrar ravishda tebranishini dallilab berdi. Sikllikning mexanizmi joriy investitsiyalarning hajmini hisob-kitob qilish yordamida multiklikatsiya samarasi ularning milliy iqtisodiyotga (YaMM) ta'siri misolida ko'rib chiqilgan.

Hozirgi zamon bozor iqtisodiyoti uchun davlatning faol aralashishi yetarli darajada xarakterli. Shunday qilib sikllikning har xil yangi nazariyasi (ham keyincha, ham monitar, ham institutsional oqimlar doirasida katta yoki kichik iqtisodiy tebranishlarni davlat o'zining makroiqtisodiyot siyosatini, uning haqiqiy kamchiliklarini va xatoliklarini hisobga olgan holda natijasini tushuntirishga o'rinmoqda.

Yuqorida ko'rib chiqilgan rang-barang, xilma-xil sikllik nazariya va inqirozlardan umumiy xulosa qilish zarurligi quyidagilardan iborat: makroiqtisodiy muvozanatning buzilishi nuqtai nazaridan va kelgusida tiklashda (ijtimoiy takror ishlab chiqarishning kengaytirish va torayishi) har qanday aniq sikllik (milliy yoki jahon) va har qanday aniq inqiroz tabaqalashtirilgan uning ichki va tashqi omillari tug'dirgan tahlilni talab qiladi.

### **38.2. Sikllik rivojlanishning fazalari**

Iqtisodiy sikllik alohida davrlarga va fazalarga bo'linadi. Iqtisodiyotning sikllik rivojlanishida ikkita asosiy tasniflash fazasi mavjud: to'rtta fazali va ikkita fazali-modeli.

#### **Iqtisodiyot siklligining to'rtta fazali modeli**


Sikllikning to'rtta fazali tuzilishi, odatda, tasniflash, deb nomlangan, kelgusi vazifalarni o'z ichiga oladi:

- inqiroz;
- turg'unlik (yoki harakatsizlik);
- jonlanish;
- yuksalish;

Bularning har biri aniq belgilangan miqdoriy xarakteristika va sifatli o'ziga xos xususiyatni ifoda etadi.

Sikllikning asosiy miqdoriy parametri bo‘lib shunday hajmli ko‘rsatkichlar, ya’ni ichki mahsulot (YaIM) va yalpi milliy daromad (YaMD) kabilar chiqadilar. O‘tgan vaqtlarda bular jumlasiga birinchi o‘rinda sanoatda ishlab chiqarish hajmi turar edi. Ammo hozirgi vaqtda YaIM yig‘indisida sanoat ishlab chiqarishning ham, barcha moddiy ishlab chiqarishning ham ular ulushining jiddiy qisqarishini hisobga olgan holda, ko‘proq YaIMning butunlay darajasi o‘zgarishini ko‘rib chiqish afzalroq bo‘ladi. Bu albatta, ya’ni ushbu ko‘rsatkich ichida alohida uni tuzuvchi dinamikani ko‘rsatmaydi. Aynan ishlab chiqarilgan mahsulotlar umumiy hajmining o‘zgarishi moddiy tarmoqlarda va ham nomoddiy sohalarda tasnifiy sikllikni to‘rtta fazaga bo‘lishga asos bo‘lib xizmat qiladi (38.1-chizma).

*Birinchi fazada (inqiroz)* ishlab chiqarishning pasayishi (qisqarishi)ni eng kichik darajasigacha yuz beradi. Inqiroz davrida ishlab chiqarishning asosiy omillariga talab qisqaradi hamda iste’mol tovarlariga va xizmatlariga, realizatsiya qilinmagan mahsulotlarning hajmi o‘sib boradi. Sotilgan tovarning kamayishi, narxlarning pasayishi, korxonalarining foydasi, uy xo‘jaligi va davlat budjetining daromadlari, ssuda foizi o‘sadi (pul qimmatlashadi), kreditlar qisqaradi. To‘lamalikning ko‘payishi kredit aloqalarini buzadi, tez sur‘at bilan aksiya boshqa baholi qog‘ozlarning kurslari tushib ketadi, bu o‘z navbatida fond birjalarida vahimalik keltirib chiqaradi, firma korxonalarida ommaviy bankrotlik ro‘y beradi va tezda ishsizlik o‘sadi.



I – inqiroz, II – turg‘unlik, III – jonlanish, VI – yuksalish.

A – birinchi (inqirozdan oldingi) ishlab chiqarishning maksimal yuksalish nuqtasi;

V – ishlab chiqarishning maksimal pasayish nuqtasi;

A<sub>1</sub> – ikkinchi yuksalish nuqtasi bunda ishlab chiqarish hajmi inqirozga o‘shish nuqtasi;

A<sub>2</sub> – ishlab chiqarish hajmining ikkinchi maksimal yuksalishning ikkinchi nuqtasi.

### **38.1-chizma. To‘rt fazali iqtisodiy sikllikning tasniflash modeli.**

*Ikkinchi fazada (turg'unlik)* ishlab chiqarishning pasayishi bir oz to'xtab turadi, ammo iloji boricha o'sish bo'lmaydi. Turg'unlik davrida iqtisodiyotda harakatsizlik yaqinlashadi, investitsiyaviy va iste'molga talabning qisqarishi to'xtaydi, realizatsiya qilinmagan mahsulotlar hajmi kamayadi, ommaviy ishsizlik narxining past darajasida saqlanib qoladi. Ammo asosiy kapitalning yangilanish jarayoni boshlanadi, ishlab chiqarishning ko'proq hozirgi zamon texnologiyasi joriy etiladi, asta-sekin kelajak uchun dastlabki iqtisodiy o'sishga shunday nomlangan o'sish nuqtasining ro'y berishida shart-sharoitlar shakllanadi.

*Uchinchi fazada (jonlanish)* ishlab chiqarishning inqirozgacha bo'lgan darajasigacha eng yuqori hajmining ko'payishi seziladi. Jonlanish davrida ishlab chiqarish omillariga va iste'mol ne'matlariga talab ko'payadi, asosiy kapitalning yangilanish jarayoni jadallashtiriladi, ssuda foizi pasayadi (pul arzonlashadi), tayyor mahsulot sotilishi va narxining o'sishi ro'y beradi, ishsizlik qisqaradi.

*To'rtinchi fazada (yuksalish)* ishlab chiqarishning o'sishi inqirozgacha bo'lgan darajaning chetiga chiqib ketadi va iqtisodiyot «gum-gum»gacha o'sib boradi. Ushbu sharoitda sikllik rivojlanishning uchta fazasi (inqiroz, turg'unlik va jonlanish) ishlab chiqarishning ko'proq yuqori miqdoriy belgisiga ko'tarilishi yo'lida o'ziga xos «o'pirilish»ni tasavvur qiladi. Sezilarli darajada, har qanday sikllik o'zining har bir fazasida aniq davom etishga ega. Shunday qilib, xatto sikllikning sof miqdoriy xarakteristikasini bunga kiradigan fazalari bilan birga iqtisodiyotning sakrab ro'y beradigan dinamikasini alohida mamlakatlarda va bir guruh mamlakatlarda ham aniqlashga ijozat etadi. Yuksalishning jadallashuv davrida yalpi talabning, ishlab chiqarishning va sotuvning, asosiy kapitalning yangilanish dinamikasida ma'lum bo'ladi. Ushbu fazada yangi korxonalarni qurish va eskilarini modernizatsiya qilish ro'y beradi, foiz vstavkalari pasayadi, narx-navo o'sadi va foydalar uy xo'jaligini daromadlari va davlat budjeti ko'payadi. Ishsizlik siklligi o'zining minimumigacha kamayadi.

To'rtta fazaning har biri o'ziga xos va yetarli xususiyati bilan farqlanadi.

### **Iqtisodiy sikllikning ikki fazali modeli**

Sikllik fazasining tuzilishini tasvir qilishda hozirgi zamon iqtisodchilimlar odatda klassiklardan farqlanadigan boshqacha variantlardan foydalanadilar.

Ushbu variantda sikllik quyidagi elementlarga bo'linadi:


- cho'qqi (mahsulot ishlab chiqarish eng yuksak hajmga yetadi);
- qisqarish (mahsulot ishlab chiqarish hajmi pasayadi);



• tagi (real mahsulot ishlab chiqarish eng kam hajmdagi nuqtasiga yetadi);

• yuksalish (mahsulot ishlab chiqarish davrida o‘shish seziladi).

Iqtisodiy sikllikning bunday tuzilishda piravard natijada faqat ikkita asosiy fazalarga ajratiladi: yuqoriga ko‘tariladigan va pasayib boradigan, ya’ni mahsulot ishlab chiqarishning yuksalishi va uning qisqarishi (38.2-chizma)



I – pasayish to‘lqini (ishlab chiqarishning qisqarishi);

II – yuksalish to‘lqini (ishlab chiqarishning ko‘tarilishi):

### 38.2-chizma. Hozirgi zamon ikki fazali iqtisodiy sikllik modeli.

Chizmada ko‘rsatilgan ishlab chiqarish (YaIM) hajmining  $V$  va  $F$  cho‘qqisi bilan va pastki nuqtasida (tagi)  $D$  pasayishida to‘lqinsimon egri chizig‘i sikllik tebranishini aks ettiradi. Ikkita nuqtaning o‘rtasidagi, bir xil tebranish bosqichida turgan vaqtincha masofa (bu yerda  $V$  va  $F$  nuqtalari o‘rtasidagi) o‘z navbatida ikkita fazadan iborat pasayib boradigan ( $V$  va  $D$  gacha) va yuqori ko‘tariladigan ( $D$  dan  $F$  gacha) sikllikning bir davri sifatida aniqlanadi.

Shu bilan birga, sikllik tebranishining egri chizig‘i to‘g‘ri chiziq aylanasida joylashgan bo‘lib, shunday eskicha trend, deb nomlanib uzoq vaqtda, ya’ni ichki mahsulotning iqtisodiy o‘shish tendensiyasi va ijobiy qiyalikka egaligini ko‘rsatadi (trendning to‘g‘ri chizig‘i katta vaqt janubi-g‘arbdan shimoli-sharqqa yo‘nalishiga qarab yuradi). Intensiv tebranish to‘g‘risida aytganda, unda trend chizig‘idan cho‘qqi va tag nuqtasining surilishi o‘lchamida aniqlanib, ularning tebranishida o‘lchanadi (grafikda bu  $BG$  va  $FL$  masofasi). Iqtisodiy sikllik tebranish amplitudalariga bog‘liqligidan kelib chiqqan holda, iqtisodiy sikllikning o‘zini uchta asosiy turlarini farqlash qabul qilingan: birinchidan, tebranish masofaning vaqti kelganda o‘xshash

siklliklarining kamayishini xarakterlaydi. Ikkinchidan, tebranish masofalarining ko'payishi bilan tarqalib ketuvchi siklliklar. Uchinchidan, tebranish masofasining doimiy bir necha vaqtlar davrida o'zgarasligi.

Yana shuni aytish lozimki, sikllikning aniq elementlarini ko'rib chiqish davrida iqtisodiyot adabiyotlarida yetarli darajada har xil, ba'zan mazmuni bo'yicha sikllikning aniq klassik fazalaridan farqlanadigan atamalardan foydalaniladi. Jo'z'iy bir xollarda bu shunday sikllikning past fazalari bilan bog'liq «turg'unlik», «retsessiya», «stagnatsiya» va «stagflyatsiya» kabi tushunchalarga tegishlidir. «Turg'unlik» tushunchasi ostida masalan, uzoq vaqt bir necha yil davom etadigan ishlab chiqarishning pasayib ketishi, ya'ni yuqori darajada ishsizlikning kuzatilishi tushuniladi. Endi 1929 –1933 yillardagi jahon inqirozi «Buyuk turg'unlik» nomini olgan. «Retsessiya» ostida ishlab chiqarishning olti yoki undan ko'proq oylarda ketma-ket pasayib ketishi tushuniladi. Iqtisodiyotda ishlab chiqarishning pasayib ketishi davrlari harakatsiz hodisalarni ko'pincha «stagnatsiya», deb ataladi, inqiroz jarayonlarining tasodifan jadallashgan inflyatsiya bilan chatishib ketishi (narx-navoning o'sishi) esa, duragay chatishma «stagflyatsiya» tushunchasi bilan belgilanadi.

### 38.3. Inqirozning asosiy shakllari

Iqtisodiyotning boshlang'ich sikllik fazasi inqiroz, deb ataladi. Aynan o'sha fazasida yetarlicha katta xilma-xillik shakli xos bo'lgan. Bu yerda bevosita asosiy shakli sifatida ortiqcha ishlab chiqarishning sikllik inqirozi chiqadi va bu to'g'risida biz qayd etganmiz.

Ammo bozor iqtisodiyotida ushbu shakl bilan baravar shunday oraliqdagi, qisman, tarmoqli va strukturali-tuzilishga oid kabi inqirozlar o'rin egallaydi.

**Oraliqdagi inqiroz** faqat jonlanish va yuksalish fazalarining oqimini to'xtatadi va yangi sikllikning shakllanishini chaqirmaydi. U inqirozning ortiqcha ishlab chiqarish siklliligiga qaraganda o'zining kichikroq chuqurligi va davom etishi bilan farqlanadi va qoida bo'yicha mahalliy xarakterga ega.

**Qisman inqiroz** – iqtisodiyotning barchasini emas, faqat iqtisodiy faollikning aniq sohalarini qamrab oladi. Ushbu shakllarga, masalan, **tarmoqli inqiroz** sanoatning, qishloq xo'jaligining, qurilishning, transportning va boshqalarning iloji boricha alohida tarmoqlarida ro'y beradi.

Va nihoyat, **strukturali inqiroz** milliy iqtisodiyotning alohida strukturasiga tarqaladi, shu bilan birga. uning davom etishi hamma vaqt bitta sikllik bilan chegaralanib qolmaydi. Strukturali inqirozga odatda. shunday energetika , xom ashyo va h.k. kabilar kiradi.

Inqirozlar shakllarining murakkab chatishib ketishi shubhasiz o'nga ta'sir ko'rsatuv omillarini o'rganish va inqiroz vaziyatlaridan chiqish yo'llarini qidirish uchun ham qo'shimcha qiyinchiliklar tug'diradi. Ammo inqiroz barcha sharoitlarda bozor iqtisodiyotining rivojlanishida mutlaqo yopiq, ilojsiz ahvol bo'lmaydi, sababi, u ob'ektiv va sub'ektiv omillarni uni bardosh bilan yengib chiqish uchun zaruriy sharoitlarni yaratilishi bilan ta'minlanganligida harakat qilish qobiliyatiga ega.

Bozor o'zining tartiblanishi va davlatning tartibga solish mexanizmlarini birlashtirishi harqanday inqirozdan chiqish uning shubhasiz salbiy oqibatlariga qaramasdan ham potensial, ham real imkoniyatlarni tahlil qiladi.

**Valyuta inqirozi.** Valyuta sohasida ziddiyatlashtirishning kuchayishi valyuta kurslarining keskin tebranishlarida ro'y beradi, valyuta zaxiralarning tezda o'zining miqyosi bo'yicha aralashishi, valyutaning revalvatsiya va devolvatsiya, xalqaro valyuta likvidligining og'irlashuvi – valyuta sohasida ziddiyatlarning keskin kuchayishi ro'y beradi.

**Pul-kredit inqirozlari** – takror ishlab chiqarishda nomutanosiblikni chaqirishda pul-kredit sohalarida ziddiyatlarning va iztiroblarning davriy takrorlanib turadigan portlashlarida yuz beradi.

**Agrar inqirozlar** – bu qishloq xo'jalik mahsulotlarining ortiqcha ishlab chiqarilishi natijasida realizatsiya qilinmagan zaxiralarning o'sishiga, narx-navoning tushib ketishiga, ishlab chiqarish hajmining qisqarishiga, ishlab chiqaruvchilarning harob bo'lishiga olib kelishi bilan bog'liq.

**Tashqi qarzlari inqirozi** – bu bir xil yoki bir guruh mamlakatlar o'zlarining xalqaro majburiyatlarini, olgan kreditlarini va foizlarini to'lab olmasligi hamda bajara olmasligi natijasida yuz beradi.

### **Inqiroz – bozor iqtisodiyotining mavjudligi usuli sifatida**

Bozor iqtisodiyoti o'z-o'zida rivojlanadigan bo'lib, o'zi «paypaslab» (siypalab, silab) rivojlanish yo'lida qobiliyatlidir. Bu uning tartiblanish g'oyasiga sira ham qarshilik ko'rsatmaydi. Ammo xuddi shunday u muvozanatdan uzoq chetga chiqib ketishi mumkin. Har qanday inqiroz (kon'yukturali, sikllik, strukturali va boshqalar) uning mavjudligi qobiliyatini tasavvur etadi. Shunga muvofiq u uchun mustahkam barqarorlik holatiga aylanishdir. Aynan shunday harakat qilish ««iqtisodiy mo'jiza» – «shiddatli xilma-xillik o'sishi» imkoniyati joylashgan.

### **Transformatsiyalashuv inqirozlari**

XX asrning oxirgi o'n yilliklarida bozor xo'jaligi tizimi yo'lini qurishga kirishgan mamlakatlar uchun, iqtisodiy tebranishga xos xususiyatlar xarakterlidir.

Polshaning taniqli iqtisodchi-olimi G.Kolodko «Shok terapiyasi Postsotsialistik katta o'zgarish siyosiy iqtisodi» (2000), fundamental tadqiqot muallifi, kitobning so'z boshida: «XX asrning oxirida jahon iqtisodiyotining asosiy chegarasi postsotsialistik katta qurish jarayonini qamrab oluvchi xodisa bo'ldi. Bunday dabdabali o'zgarishlar o'zining umumiy murakkabligida Yevropa va Osiyoning 30 dan ko'proq mamlakatlarini barcha insoniyatning to'rtinchi qismi bo'lgan bir yarim milliardli aholisini o'z ichiga oldi. Bu jarayonlarning hayotiy oqibati nafaqat ushbu xalqlar uchun, balki butun jahon hamjamiyati ahamiyatiga ega bo'ldi»<sup>32</sup>, deb yozadi.

Bu «buyuk o'sish»ning markazlashgan sotsialistik iqtisodiyotidan bozorga o'tishning ko'p tomoniga tegmasdan, birinchi navbatda, e'tiborni shubhasiz shunday farqlarga qaratamiz, ya'ngi dunyoning deyarli barcha mamlakatlari, o'zlarining xo'jalik tizimining murakkab jarayonlarini qamrab olgan ishlab chiqarishning pasayishini boshdan kechirdilar va yoki bu jarayon davom etmoqda, ya'ni inqiroz va turg'unlik holatida bo'ldilar.

### **O'zbekiston iqtisodiyotining transformatsiyalashuv inqirozi**

O'zbekiston iqtisodiyoti XX asr 90 - yillarining boshlarida chuqur va davom etuvchi inqirozni boshdan kechirdi.

Nima uchun sobiq ittifoq tarkibidan chiqqan mamlakatlar uzoq davom etgan ishlab chiqarishning pasayib ketishiga duchor bo'ldi, sababi nimda edi?

**Bunday o'zaro bog'langan savollarga javob berish** uchun muammolarni tarixiy nuqtai nazardan qarashga o'rinib ko'ramiz, avvalambor oldingi markazlashgan planli tizim ishlab chiqarishning olg'a qarab rivojlanishida qandaydir tebranishlarga duchor bo'lganmi.

Sobiq ittifoqning iqtisodiyoti bir qator iqtisodiy o'sish bilan birga bir qancha sezilarli darajada ishlab chiqarishning pasayib ketishini boshdan kechirdi. Bunga 1923–1924 yillardagi asossiz narx-navoning o'zgarishi bilan bog'liq sanoatdagi inqiroz; 1927–1928 yillardagi zo'rlik bilan agrar munosabatlarning halokatli tug'ilishda qishloq xo'jaligidagi inqiroz; 1932 yildagi ochlik; 1941–1942 yillardagi chuqur harbiy inqiroz; 1952–1953 yillardagi ishlab chiqarishning pasayishi; 1963 yildagi xalq xo'jaligining barcha tarmoqlaridagi inqiroz; 1972 yildagi turg'unlik keyingi 80-yillarning oxirida – 90-yillarning boshlaridagi ishlab chiqarishning ketma-ket pasayib ketishi – bular uzoq davom etgan umumiy samarasiz davlatlashgan tizimning umumiy samarasizligi va uni ob'ektiv ravishda asosan transformatsiyalashuvning talab qilinishidir.

---

<sup>32</sup> От шока к терапии : Полит. экономия постсоц. преобразований / Гжегож В. Колодко. - М.: Журн. Эксперт, 2000. - 389 с.

Sobiq sovet iqtisodiyotining tinchlik sharoitida inqirozli va rivojlanish jarayonlarining asosiy sabablari xarakteri uchun, davlatning iqtisodiy siyosatini hisobga olish mumkin. Ma'muriy buyruqbozlik- yordamidagi davlat monopolizmida hamma vaqt ijobiy natijaga erishish bo'lmagan. Bu ayniqsa, gipertrofiyaga oid miqyosda harbiy-sanoat kompleksining oldidagi xalq xo'jaligining fuqarolik tarmoqlariga tegishlidir. Markazlashgan sikllik sifatida ko'rib chiqish mumkin emas, sababi, bunda muntazam tez-tez takrorlanib turish belgisi yo'q.

Endi XX asrning 90-yillaridagi inqirozga nima tegishli deganda, ya'ni bozorning qayta o'zgarishi pasayishi va turg'unlik davri, unda u birinchi navbatda, uchta omilning oqibati bo'lgan: birinchidan, mamlakat iqtisodiyotining tubdan noqulay sharoitida faoliyat yuritishi (bunga ishlab chiqarishning qisqarishi, hamda sobiq sovet iqtisodiy sathida, o'tgan vaqtlarda yagona xalq xo'jaligi majmuasining parchalanishi); ikkinchidan, ijtimoiy va xo'jalik jarayonlari ommaviy-davlat boshqaruvining o'pirishini bartaraf etishga; uchinchidan, ochiq bozor xo'jaligi mexanizmlarini juda qiziqish bilan yaratilishining kechiktirilganligiga qaramasdan zamonaviy bozor iqtisodini (albatta, aralash va ijtimoiy yo'naltirilgan) butunlay tizimni yaratish.

O'zbekistonda XX asrning 90-yillari o'rtalarida ishlab chiqilgan islohotlarning amalga oshirilishi va ularning zamon talabiga javob berishi natijasida mamlakatimiz iqtisodiyoti inqirozdan chiqa boshladi. Milliy iqtisodiyotning dinamik yuksalishi jonlanishi bevosita shakllanayotgan bozor strukturasi va xo'jalik mexanizmlariga hamda aniq davlatning tartibga solish shakllariga tayanishi bo'ldi.

Hozirgi bozor iqtisodiyotining butun tizimini yaqinlashuvi jarayonida normal sikllikning ichki va tashqi omillari O'zbekistonning iqtisodiy taraqqiyot yo'lida olg'a intilish harakati umumiy trendga organik ravishda qamrab olinadi.

Iqtisodiy dinamikada pozitiv o'zgarishlarga erishish va mustahkamlanish uchun jamiyatning iqtisodiy hayotini ham mini, ham makrodarajada har tomonlama va izchil, ko'pincha samarali zamonaviy shakllarini tashkillashtirishdan foydalanishni talab etadi.

#### **38.4. Yetarlicha iste'mol qilmaslik nazariyasi**

Shaxsiy iste'mol qilish o'lchamga erisha olmaydigan iqtisodiy inqirozlarni qayta ishlab chiqarishni birlashtiradigan konsepsiya. Uning a'lochisi Shveysariya iqtisodchisi de-Sismondi bo'lgan. A.Smitning aqidasi kelib chiqqan holda, bunga muvofiq, yalpi milliy mahsulotning qiymati har xil sinfdagilarning daromad summasiga to'g'ri kelishi kerak.

Sismondi taxmin qilishicha, ya'ni bozorning o'lchami shaxsiy iste'mol o'lchami bilan ifodalanadi hamda shaxsiy iste'molning qisqarishi kapitalistik jamiyatning mahsulotlarni realizatsiya qilishga imkoniyatsizligida shartlanadi va ortiqcha mahsulotning yuzaga kelishiga olib keladi. Sismondi iste'molining qisqarishini va shunga muvofiq bozorning torayishida ishchi kuchi ahvolidagi yomonlashuvi, ishlab chiqarishning texnika, mashinalar qo'llash natijasida ularni ishdan hamda ishsizlikning o'sishi va ish haqining pasayishi shu bilan birga, mayda dehqonlarning va hunarmandlarning harob bo'lishi kabi omillar bo'ladi, deb hisoblagan. Sismondi iqtisodiy inqirozlarni ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi ziddiyatlar bilan bog'liqligini ko'rsatgan. U iste'mol ishlab chiqarishning zaruriy oqibati bo'lmasligini, ya'ni aksincha, kapitalistik tizimning muqarrar ravishda bozorlarning haddan tashqari tovarlar bilan ta'minlanishi bilan bog'liq, deb hisoblagan. Nemis iqtisodchisi K.I.Rodbertus-Yagetsov yetarli iste'mol qilmaslik nazariyasining vakili bo'lgan. U iqtisodiy inqirozlar iste'molning yetarli emasligiga asoslanganini tasdiqlagan, bu kamchilikni milliy daromadlarning tengsiz taqsimlanishini va ish haqining milliy daromaddagi ulushining yetarli emasligini ko'rsatib bergan. Uning fikricha, iqtisodiy inqirozlarning tug'ilishi, pirovard natijada ishlab chiqarish unumdorligining o'sishida, milliy mahsulotda, ish haqi qismining kamayib borishidalgini isbot qilgan.

Monetar nazariya esa, o'z navbatida bozor iqtisodiyotida iqtisodiy jarayonlarni boshqarish nazariyasi makro darajada pul masalalarining hajmi yordamida tartibga solinishini qayd etadi.

### **Qisqacha xulosalar**

Umuman, har qanday davlatning iqtisodiy o'sishi – bu iqtisodiy rivojlanish mezonidir. Bu asosan, yalpi milliy mahsulotning, (YaIM), yalpi ichki mahsulot yoki milliy daromadning absolyut yoki aholining jon boshiga o'sishi bilan ifodalanadi.

Iqtisodiy o'sish ikki o'zaro bog'liq, ekstensiv va intensive tipdagi ko'rsatkichlar bilan o'lchanadi. Ulardan tashqari iqtisodiy o'sish ikki xil darajada – mikro va makroiqtisodiy darajada yuz beradi.

Iqtisodiy o'sishiga, ya'ni mamlakat yalpi milliy mahsulotining, yalpi ichki milliy mahsulotning va ularning asosiy ko'rsatkichi bo'lgan milliy daromadning absolyut va aholi jon boshiga o'sishiga qarab jamiyatning iqtisodiy ahvoriga baho berish mumkin bo'ladi. Agar iqtisodiy o'sishi yuz bersa, mamlakatda iqtisodiy jonlanish, yuksalish yuz beryapti, deb aysta bo'ladi. Agar iqtisodiy o'sish bo'lmasa, jamiyatning ishlab chiqarish ahvoli pasayib kesta, tenglik mavjud bo'lib, natijada umuman, iqtisodiy ahvoli

yomonlashadi, ishsizlar soni ko‘payadi, narx-navo yanada oshadi, davlat pul birligi qadrsizlanadi, inflyatsiya yuz beradi.

Yuqorida aytib o‘tganlardan tashqari iqtisodiy o‘sishni ta‘minlovchi investitsiya va innovatsiya resurslar ham o‘z vaqtida, o‘z samarasini berib turishi lozim, bu resurslari mahsulot ishlab chiqarishni rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, qoplash va jamg‘arma fondlariga ajratiladi.

Umuman, iqtisodiy o‘shish milliy boylikning rivojlanishiga va ko‘payishiga olib keladi, uning asosiy mezonini bo‘lib hisoblanadi va aksincha, mamlakatning milliy boyligi, ya‘ni yer osti va yer ustidagi boyliklari qanchalik ko‘p bo‘lsa, shunchalik iqtisodiy o‘shish yuz beradi, shuning uchun mamlakatning milliy boyligi, ya‘ni har qanday jamiyatning ixtiyorida takror ishlab chiqarish jarayonlaridagi tabiiy resurslar va shu jamiyatning o‘tmishdagi va hozirgi zamondagi avlodlarining mehnati natijasida yaratilgan moddiy boyliklar yig‘indisiga milliy boylik, deb ataladi.

### **Asosiy tushunchalar**

Iqtisodiy sikllik.

Yetarlicha iste‘mol qilmaslik.

Pul kredit sohasidagi inqiroz.

Valyuta inqirozi.

Davriylik, oraliq intizom.

### **Mavzuning namunali savollari**

1. Iqtisodiy sikllik tushunchasi.
2. Iqtisodiy sikllik va makroiqtisodiy beqarorlik.
3. Hozirgi zamon jahon moliyaviy inqirozi.

### **Seminar darslarida muhokama qilish uchun savollar**

1. Iqtisodiy sikllikning mazmunini aytib bering.
2. Iqtisodiy tsikllikning nazariy turlari.
3. Makroiqtisodiy beqarorlik.

### **Mustaqil ta‘lim uchun savollar**

1. Iqtisodiy sikllikning mazmuni va mohiyati?
2. Iqtisodiy sikllikning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari?
3. Makroiqtisodiy beqarorlikning nazariyasi va amaliyotda yuzaga kelishi?

## **39 BOB. AHOLI. BANDLIK. MEHNAT BOZORI. ISHSIZLIK VA UNING TURLARI**

*Ish o‘rinlari bu noyob ne‘mat deb adashib keng tarqalgan haqiqatda bular shunaqa emas. Hozirgacha bizning ishlab chiqarilgan boyliklarga ehtiyojimiz qoniqarsiz bo‘lguncha, hamma vaqt kishilar uchun foydali ishlarni topish mumkin.*

*Pol Xeyne*

### **39.1. Aholi milliy xo‘jalikni rivojlantirishning omili sifatida**

Aholi milliy xo‘jalikni rivojlantirishning omili sifatida siyosiy iqtisod bo‘yicha mamlakatimizdagi darsliklarda aholi sonini to‘ldirish muammolariga deyarlik e‘tibor berilmagan. Ularda asosan ishlab chiqarish jarayonining omili sifatida ishchi kuchini qayta tiklash masalalari qarab chiqilgan. 1959–1960 yillardan boshlab ilmiy-tadqiqot adabiyotlarida mehnat resurslari taqchilligining tahliliga katta e‘tibor berila boshlandi. Ammo mehnat resurslariga doir statistika ma‘lumotlari yopig‘ligicha qolaverdi, bu shu muammoni ilmiy ishlab chiqish darajasini oshirishga to‘sqinlik qilar edi. Muammoni tadqiq etishga bunday munosabat amaliyotning bunga talabi yo‘qligi bilan izohlanar edi: xo‘jalik yuritishning mazkur sohasida ham markaziy hukumat odatda, kat‘iyatli karorlarni qabul qilardi.

G‘arb iqtisod fani va o‘quv adabiyotlari aholi muammolariga katta qiziqish bilan qaraydi. Buni rivojlangan bozor iqtisodiyoti ehtiyojlari talab qiladi. Aholining soni, tarkibiy tuzilishi iste‘mol talabiga ta‘sir o‘tkazadi, davlatning mehnat bozorida strategiyasini, investitsiya va ijtimoiy siyosatini belgilaydi. Rossiyaning bozor iqtisodiyotiga o‘tishi umuman mamlakat, shu jumladan, mintaqalar aholisini qayta tiklash muammosi tadqiqotiga munosabatni o‘zgartirishga majbur qilmoqda.

Iqtisod fani aholini iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning muhim omili deb, ayni vaqtda shu xildagi taraqqiyotning ob‘ekti deb qaraydi. Bunday yondashuv voqelikning ifodasi hisoblanadi: aholi – mamlakat mehnat resurslarining yagona manbai, uni qayta tiklash haqida g‘amxo‘rlik qilish har qanday davlatning asosiy vazifalaridan biridir. Mamlakat aholisining soni va tarkibiy tuzilishi haqidagi statistika ma‘lumotlari naqadar to‘liq va haqqoniy bo‘lsa, iqtisodchilarning ish bilan bandlik, investitsiyalar, daromadlarni qayta taqsimlash va hokazolar borasidagi davlat siyosatini belgilashga doir tavsiyalari amaliyotda shu qadar foydali bo‘lishi mumkin.

Aholi soni va uning tarkibiy tuzilishi o‘zgarishlarining amaliy ahamiyatini



e'tiborga olib, iqtisodiy rivojlangan barcha mamlakatlar aholi nufuzli jarayonlarini rejalashtirishga o'rinmoqdalar. Ana shu mamlakatlarning tajribasi, rejalashtirishning muvaffaqiyati aholi sonining o'zgarishi sabablariga aniq tashxis qo'yilishiga, qayta ro'yxatga olishning sifati va o'z vaqtida o'tkazilishiga, aholi fe'l-atvorini modellashtirishda matematik usullardan foydalanilishi, uning dinamikasiga ta'sir o'tkazuvchi asosiy omillar – biologik, madaniy ijtimoiy va iqtisodiy omillar hisobga olinishiga bog'liq ekanligini ko'rsatmoqda. Ammo modellashtirish o'z-o'zidan bunday harakatning fe'l-atvori omillarini ochib bera olmaydi, busiz, atrof-muhit ta'sirini hisobga olmay turib, hayotiy demografik siyosatini o'tkazib bo'lmaydi. Bu o'rtada teskari aloqa ham mavjud aholi – iqtisodiy va ijtimoiy rejalashtirishning barcha bosqichlari va darajalarida: xalqaro, milliy, mintaqaviy darajalarda uning asosiy omilidir. Ammo aholi nufuzini bashorat qilish, odatda, hayot tomonidan tasdiqlanmaydi.

Shu munosabat bilan aholi sonining o'sish sabablari va oqibatlarini tadqiq etish hamda u haqdagi munozaralar tobora keng miqyos kasb etib bormoqda. Mazkur muammoga e'tibor XX asrning ikkinchi yarmida ayniqsa, kuchaydi. Bu dunyoning aksariyat mamlakatlarida iqtisodiy o'sish sur'atlari kuchayib borishi munosabati tufayli tabiiy resurslarning tugash xavfi va yer shari aholisining jadal ko'payib borish sur'atlari bilan izohlanadi. Mazkur muammo aholi nufuzi bo'yicha Rimdagi (1954), Buxarestdagi (1974) va Mexikodagi jahon konferensiyalarida ko'rib chiqildi, shu konferensiyalar davomida insoniyat manfaatlari yo'lida aholi soni o'sishini va resurslar boshqaruvini yaxshilashning siyosiy vositalarini ishlab chiqishga o'rinishlar qilindi.

XX asrning 60–70-yillarida aholining, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda jadal sur'atlar bilan ko'payib borishining oqibatlaridan, rivojlangan mamlakatlarda shaxsiy iste'molning o'sishidan «neomaltuziancha xavotir» kuzatildi Bu tashvish Rim klubining ma'ruzasida o'z ifodasini topdi. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarning aholisi tez ko'payib borishi, ularga ocharchilikning xavf solishi bilan bog'liq bashoratlar noxush edi.

Ammo so'nggi o'n yillikda aholi bilan bog'liq vaziyat o'zgardi: tug'ilish darajasining kamayib borishi, ya'ni aholi soni o'sish sur'atlarining pasayish holatlari paydo bo'ldi.

Hozir aholi sonining o'sishi va uning tarkibiy tuzilishi dinamikasi o'zgarishlarining bir nechta qonuniyatlari aniqlangan va ular amal qilmoqda, milliy darajadagi iqtisodiy strategiyani ishlab chiqish vaqtida ularni inobatga olishga to'g'ri kelmokda.

*Birinchi*dan, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi oshib borgani sayin aholining tabiiy ko'payish sur'atlari pasayishi kuzatilmoqda.

Mamlakatning iqtisodiy rivojlanganlik darajasi ko'p sonli o'zaro bog'liq omillar bilan belgilanishi bois, aholi sonining o'sishiga ham bundan kam bo'lmagan omillar ta'sir etadi. Aholi daromadlarining o'sishi aholi madaniy saviyasining oshishi sog'liqni saqlash yaxshilanib borishi, oilada bolalar tug'ilishi ongli ravishda boshqarilishi bilan izohlanuvchi qadriyatlarning o'zgarishi ana shu jarayonga ta'sir o'tkazuvchi asosiy omillar sirasiga kiradi. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda xotin-qizlarning ijtimoiy ishlab chiqarishda bandligi oshib borishi ham shu yo'nalishda amal qilmoqda, xotin-qizlar bilim darajasining oshishi, ijtimoiy xizmat sohasida yangi ish o'rinlarining tashkil etilishi, ularning mehnatiga haq to'lash borasidagi kamsitishlarning tugatilishi shunga xizmat qildi. Rivojlangan mamlakatlarda tegishli qonunlarning qabul qilinishi va ularga og'ishmay amal etilishi xotin-qizlarning mehnat faoliyati bilan shug'ullanish huquqini amalga oshirish vositasi bo'ldi.

*Ikkinchidan*, butun dunyoda tug'ilish va aholi soni tabiiy o'sish sur'atlarining eng ko'p darajada pasayishi rivojlanayotgan mamlakatlar hisobiga ro'y berdi. Bunday tamoyil paydo bo'lishining asosiy sababi tug'ilish darajasi eng yuqori bo'lgan mamlakatlarning deyarlik hammasida oila sonini milliy ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning tarkibiy qismi sifatida rejalashtirishni amalga oshirishga intilishi bo'ldi.

Mazkur mamlakatlarning hukumatlari va jamoatchiligi aholi soni ustidan maxsus nazoratni rad etuvchi hamda mamlakatdagi iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlar o'z-o'zidan aholi sonining o'zgarishlariga olib keladi, degan taxminga asoslangan makroiijtimoiy modeldan voz kechishdi. 90-yillarga kelib, rivojlanayotgan mamlakatlarning yetakchilari o'rtasida ustuvorlik qilgan oila sonini rejalashtirish dasturlariga adovat susaydi. Tug'ilish ustidan nazoratga sog'likni saqlashni, ijtimoiy ta'minotni, maorifni yaxshilashga qaratilgan siyosatning bir qismi, deb qaraladigan bo'ldi.

Rivojlangan mamlakatlarda shu yillarda oila sonining qisqarishiga ta'sir etuvchi ikki model amalga oshirildi. «Vositaviy model»aholini uning oilani boshqarish qobiliyati nuqtai nazaridan ko'rib chiqadi va ana shu jarayonga ta'sir o'tkazuvchi tashqi chora-tadbirlar majmuini nazarda tutadi. «Itoatsizlik modeli» e'tiborni og'machi guruhlariga (o'smirlar, pauperlar va hokazolarga) qaratadi, ularga nisbatan har xil usullardan – ruhiy, iqtisodiy (rag'batlantirish va majburlash) usullaridan va hokazolardan foydalanadi.

Natijada, so'nggi 10–15 yil mutaxassislar tomonidan jahon aholisining o'sishidagi tarixiy burilish nuqtasi, deb ta'riflandi. Bu davr jahon aholisining o'sish sur'atlari qisqarishi bilan tavsiflanadi. Tug'ilishni boshqarish siyosati ayniqsa, Xitoyda va Janubiy Amerika mamlakatlarida samarali bo'ldi.

*Uchinchidan*, mamlakatning iqtisodiy rivojlanishidagi aholi sonining ahamiyatiga baho berishda o'zgarish ro'y berdi. Aholisining tabiiy o'sish darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishining tahlilidan shu narsa ma'lum bo'ldiki, qashshoqlik qisman bog'liq ekan. Odam va texnologiya resurslaridan turlicha foydalanilishi bilan aholining o'sishi rivojlanish yo'lida to'siq bo'lib xizmat qilishi shart emas, deb hisoblashadi mutaxassislar. Odamlarning boylik yaratishdek ishlab chiqarish qobiliyatlariga yetarli baho berilmasdi. Aholining «tazyiqi» iqtisodiy o'sishga va ijtimoiy o'zgarishlarga xizmat qilishi mumkin. Yangi industrial mamlakatlarning, Xitoyning tajribasi shundan dalolat beradi.

*To'rtinchidan*, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda tug'ilish va aholi soni tabiiy o'sishining pasayish tamoyili ko'zga yaqqol tashlanib qoldi. G'arbiy Yevropa mamlakatlari uchun XX asrning 20-yillaridan boshlab aholi nufuzi dinamikasining tebranib turishlari xos. Ikkinchi jahon urushi vaqtidagi aholi soni o'sishining pasayishi urushdan keyingi tug'ilishning «avj olishi» bilan almashindi. 50 - yillarning o'rtalaridan boshlab tug'ilishni rag'batlantirish siyosati tufayli uning yanada oshib borishi kuzatildi 60-yillarning oxiridan boshlab ana shu mamlakatlarda tug'ilishning pasayishi, aholi soni o'sishining o'zgarish tamoyili ko'zga tashlandi, ularning ayrimlarida esa tug'ilishdan ko'ra o'lim ko'proq ro'y bermoqda, ya'ni aholi sonining mutlaq qisqarishi kuzatilmoqda (Germaniya, Avstriya, Bolgariya, Vengriya, Daniya va boshqa mamlakatlarda).

*Beshinchidan*, barcha iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar, birinchi navbatda Yevropa mamlakatlari aholining keksayib borish jarayonini boshidan kechirmoqda, bu jarayon yaqin o'n yilliklarda yanada kuchayadi. Mutaxassislarning fikriga qaraganda, 2025 yilga kelib Yevropa mamlakatlarida aholining to'rtidan bir qismini 65 va undan katta yoshdagi shaxslar tashkil etadi. Aholining o'rtacha yoshi turg'un sur'atlar bilan oshib bormoqda. Bu aholi iqtisodiy faol qismi tobora keksayib borayotganligi, yoshi 65 dan oshgan shaxslar orasida qariyalar ulushi oshib borayotganligi bilan ifodalanadi. Aholi soni tabiiy o'sishining pasayishi va uning keksayib borishi iqtisodiy o'sish va ishlab chiqarish samaradorligi uchun og'ir oqibatlarga olib kelishi mumkin, ularni inobatga olmaslik xato bo'ladi. Avvalambor, shuni inobatga olish kerakki, ana shu jarayonlar ortidan aholi iqtisodiy faolligi sur'atlarining pasayishi (ba'zi mamlakatlarda esa, mutlaq kamayishi) kuzatiladi Bunday vaziyatda aholi va mehnat resurslarining tabiiy o'sishi yuksak darajada bo'lgan mamlakatlardagi iqtisodiy o'sishning istiqbollari Yevropa mamlakatlariga qaraganda ko'proq umid baxsh etadi.

Aholining keksayib borishi nisbatan qisqarib borayotgan faol aholi

zimmasidagi iqtisodiy yukni oshiradi. Bunday vaziyat (ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar o'zgarib qolsa) avlodlar o'rtasidagi ziddiyatlarga olib kelishi mumkin, bu ularni ko'ra bilish va oldini olish choralarini izlanishni taqozo etadi.

G'arb tadqiqotchilari iqtisodiy faol aholining keksayib borishi oqibatlaridan yangi ixtisoslikni egallash qobiliyatining va yangi texnologiyalarga moslashishning pasayishini ajratib ko'rsatishadi (ishlab chiqarish samaradorligi nuqtai nazaridan keksayish salbiy ta'sir o'tkazadi, sababi vaqt o'tishi bilan ish haqi miqdori oshib boradi, yosh o'sishi bilan esa mehnat unumdorligi pasayib boradi). Tadqiqotchilar shu munosabat bilan korxonalar va yaxlit mamlakatlarning iqtisodiy faol aholi keksayib borishi natijasida raqobatbardoshligini yo'qotadi, degan uzoqqa boruvchi xulosalarni chiqarishadi.

Aytib o'tilgan tamoyillarni mensimay bo'lmaydi, shu bilan birga vahima qilish ham kerak emas. Avlodlar o'rtasidagi ziddiyatga keladigan bo'lsak, keyingi avlodlarning hammasi, umuman olganda, avvalgisidan bilimdonroq bo'lib bormoqda, avlodlar izchilligini to'la mas'uliyat bilan idrok etishadi. Aholining keksayishi ko'proq iqtisodiy rivojlanish darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlarga xos, bu demak, ular nisbatan unumli va iqtisodiy samarali iqtisodiyotga ega.

Iste'mol tovarlarini ishlab chiqaruvchilarga va xizmat ko'rsatuvchilarga shak-shubhasiz aholining keksayib borishini hisobga olishga to'g'ri keladi: chunki odamning yoshi oshgani sayin iste'molning tarkibiy tuzilishi ham o'zgarib boradi.


Aholi nufuzi dinamikasi va tarkibiy tuzilishidagi yuqorida qayd etib o'tilgan tamoyillar oz yoki ko'p darajada barcha iqtisodiy rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarga xos. Ammo bu ana shu jarayonlarning kechishida tafovutlar bo'lishini inkor etmaydi. Shu sababli samarali iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni ishlab chiqish uchun har bir mamlakat aholisi dinamikasi va tarkibiy tuzilishi barcha jihatlarini holisona, har tomonlama tadqiq etish zarur. Bundan tashqari, mazkur muammo mintaqalar va ijtimoiy guruhlar ko'lamida ham o'rganilishi kerak. Masalan, barcha iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarga xos bo'lgan keksayish davri, darajasi, kechish sur'atlari turli mamlakatlarda turlicha bo'lishi mumkin. Hozir Fransiya qariyalari eng ko'p mamlakat hisoblanadi (aholisining 14 foizini 65 yoshdan oshganlar tashkil etadi; 1900 yilda esa, bu ko'rsatkich 8% ga teng edi). Yaqindagina «yosh» mamlakatlar qatoriga kiruvchi Yaponiya (1960 yilda qariyalar aholining 5% ni tashkil etar edi) bugungi kunda tug'ilish keskin kamayganligi natijasida aholining jadal keksayishini boshdan kechirmoqda.

Uzoq davom etgan davr mobaynida dunyo mamlakatlaridagi aholi dinamikasi va tarkibiy tuzilishida ro'y bergan o'zgarishlarni tadqiq etish aholining o'tishi yoki aholining transformatsiyasi, deb atalgan qonuniy tamoyilni aniqlash imkonini berdi.

Aholining o'tishi – bu shunday davrki, ana shu davr mobaynida tug'ilish sur'atlari aholining oddiy qayta tiklanish darajasiga qadar pasayadi. Tahlil shuni ko'rsatadiki aytib o'tilgan natijaga erishish uchun rivojlangan barcha mamlakatlar aholi bilan bog'liq vaziyat o'zgarishining uch bosqichini boshdan kechirishgan. *Birinchi bosqich* –hozirgi rivojlangan mamlakatlarda ko'p asrlar mobaynida aholi soni o'zgarmay turgan yoki juda past sur'atlar bilan ko'paygan, bu tug'ilish bilan bir qatorda, o'lim (kasalliklar, epidemiyalar, urushlar) yuqori darajada bo'lganligining oqibatidir. *Ikkinchi bosqich* – sog'liqni saqlash, ovqatlanishning yaxshilanishiga, o'limning kamayishiga va o'rtacha umrning 40 yoshdan 60 yoshgacha ko'payishiga olib kelgan iqtisodiy rivojlanish darajasining oshishi. Ammo bu bosqichda tug'ilish yuqori darajada qolaverdi. Natijada, tug'ilishning o'limdan anchagina yuqoriligi aholi sonining avvalgi asrlarga nisbatan keskin ko'payishiga olib keldi. Ammo *uchinchi bosqich* – ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanish darajasi oshib borishining natijasi sifatida tug'ilishning kamayishi boshlandi. Bu tug'ilish va o'lim ko'rsatkichlarining bir-biriga yaqinlashib borishiga olib keldi.

Aholi transformatsiyasi ob'ektiv xususiyatga ega ekanligiga qaramay, iqtisodchilar hamon aholi o'sishining ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini baholashda ikki qarama-qarshi nuqtai nazarga ega. Aholi o'sish sur'atlarini qisqartirish zarurati tarafdorlari aholi o'sishining dunyodagi iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik rivojlanishga salbiy ta'siri mavjud, deb isbotlashadi.

O'zlarining bu nuqtai nazarlarini himoya qilish uchun ular aholisi jadal sur'atlar bilan ko'payib borayotgan mamlakatlardagi qashshoqlikni, ocharchilikni, salomatlikning yomonligini misol keltirishadi. Mazkur nuqtai nazar tarafdorlari qashshoqlik va aholi o'sishi o'rtasidagi aloqani «ilojsizlik doirasi» ko'rinishida tasavvur etadilar.



**39.1- chizma. «Ilojsizlik doirasi».**

Mazkur nuqtai nazar tarafdorlari tasdiqlashiga qaraganda, aholining o'sishi rivojlanish yo'lidagi to'siqdir. «O'sishning eng yuqori chegarasi» (Rim klubi, 1972) mualliflari hamon shu nuqtai nazarni qo'llab- quvvatlashadi. 1992 yilda nashr etilgan «O'sishning sarhadlari ortida» kitobining mualliflari aholi sonining o'sish sur'atlari pasayganiga qaramay uning ko'payib borishi hamon xatarli, muqarrar yer yuzida ro'y beradigan olamshumul fojeaga olib keladi, deb hisoblashadi.

Mazkur nuqtai nazarning qayta va qayta ikki karra ko'payish aholi va kapitalga xos, deb tasdiqlashi tanqidga sazovor. Bu mulohaza jahon iqtisodiy o'sishi amaliyotining umumlashmasi hisoblanuvchi aholi nufuzining o'tishi yoki aholi nufuzining transformatsiyasi nazariyasiga ziddir. Aynan kapitalning o'sishi va u keltirib chiqaruvchi aholi daromadlari, iste'moli, bilimi va madaniyatining, xotin-qizlar ijtimoiy ishlab chiqarishda bandligining o'sishi aholi nufuzining oddiy qayta tiklanishiga olib keladi. Yaponiyaning misoli XX asrda aholi nufuzi o'tishiga erishish uchun asrlar emas, 30–40 yil kerak bo'lganligidan dalolat beradi. Bunday natija – iqtisodiy o'sishning yuksak samarali sur'atlari hamda Yaponiya jamiyati ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanishidagi ulkan sifat o'zgarishlarining oqibatidir.

Ikkinchi nuqtai nazar tarafdorlari aholi o'sishi munosabati bilan bildirilayotgan havotirlanishlar o'ylab topilgan, deb hisoblashadi. Munozaralar ayni qizigan davrda (XX asrning 80-yillarida) amerikalik iqtisodchi Saymon erkin bozorlar va odamlarning topqirligi (u odamlarning daholigini asosiy resurs deb hisoblar edi) aholi o'sishining barcha muammolarini hal etishga qodir, deb e'lon qildi. Ana shu nuqtai nazar tarafdorlarining fikriga ko'ra, aholining o'sishi – maqsadga muvofiq, chunki ishlab chiqarish ko'lamlarini kengaytirib va ishlab chiqarish chiqimlarini kamaytirib, iste'mol talabini rag'batlantiradi.

Ikkinchi nuqtai nazar birinchisiga qaraganda hayotda ko'proq tasdig'ini topmoqda. Yaponiya, Xitoy, Koreya Respublikasi uchinchi, aralash (ekstensiv - jadal) variantni qo'llab, inson omilidan o'z iqtisodiy rivojlanishini tezlashtirish uchun foydalandilar, mazkur variant fan-texnika taraqqiyotining eng so'nggi yutuqlarini qo'llab, mehnatga qobiliyatli aholini ish bilan band qilish imkonini beradi.

Yer yuzi aholisi qashshoq, iqtisodiy rivojlanmagan mamlakatlar hisobiga ko'payib bormoqda. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, shu mamlakatlarda aholi o'sish sur'atlarini kamaytirishning asosiy yo'li – sust rivojlangan mamlakatlar aholisining daromadlarini, iste'molini, bilimi va madaniyatini oshirish imkonini beruvchi milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdir. Ekologik fojealarga keladigan bo'lsak, ularning oldini olish uchun boy-badavlat

mamlakatlarga o‘zlarining foydalarini ko‘paytirishga nisbatan da‘volarini birmuncha cheklashlariga va fan texnika tarakqiyotidan foydalanishning salbiy oqibatlarini oldini olishga sarf-xarajatlarni ko‘paytirishlariga to‘g‘ri keladi.

Sobiq ittifoq tarkibiga kirgan mamlakatlar aholisining tabiiy o‘shishi va mehnat resurslari ko‘rsatkichlari bo‘yicha bir-biridan farq qilar edi. Markaziy Osiyo respublikalari – O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston butun sovet davri mobaynida tug‘ilish bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkichga, ittifoqdagi o‘limning o‘rtacha ko‘rsatkichi ma‘lum bo‘lgani holda aholi o‘shishining eng yuqori sur‘atlariga ega edi. Ammo mazkur milliy respublikalar qo‘shimcha mahsulotning qayta taqsimlanishi, mazkur mintaqalarda kapital qurilishining va yangi ish joylari yaratilishining yuksak sur‘atlari tufayli mehnat resurslarining ortiqchaligini his etishmagan. Rossiyaning markazi, Ukraina, Belorussiya va Boltiq bo‘yida tug‘ilishning, aholi tabiiy o‘shishining va mehnat resurslari ko‘payishining past sur‘atlari hamda shu tamoyildan kelib chiqadigan barcha oqibatlar kuzatilar edi.

Sobiq ittifoqning sanoati rivojlangan hududlari ishchi kuchining surunkali taqchilligini xis etishar edi. Bu taqchillikning asosiy sababi ham iqtisodiy, ham siyosiy xususiyatga ega edi. Mamlakatda iqtisodiy o‘shish sur‘atlari ekstensiv asosda, ya‘ni yangi ish joylarini tashkil etish hisobiga ta‘minlanardi. Bu jarayon mehnat resurslarining ichki migratsiya jarayonlari ma‘muriy usullar vositasida tizginlanishi bois keskinlashib borardi. Mamlakatning deyarli barcha yirik shaharlari, ishchi kuchi o‘ta taqchil bo‘lishiga qaramay, xodimlarning erkin kirib borishi uchun yopib quyilgan edi.

Endi bu yerda sobiq ittifoqning eng katta respublikasi Rossiya Federatsiyasi bo‘lgani va sobiq ittifoqning siyosiy - iqtisodiy parchalangandan keyin uning jahon siyosiy- iqtisodiy tashkilotlari oldida javob beruvchi va qarzlarni to‘lovchi, ya‘ni davom ettiruvchi – vorisi bo‘lib qolgani uchun biz bu yerda ozgina bo‘lsa ham shu savolga to‘xtab o‘tamiz.

Rossiyaning o‘zida aholisi tabiiy o‘shishining umumiy pasayish tamoyili kuzatilishiga qaramay, bir qator milliy hududlarda to‘rt va undan ko‘p bolasi bor oilalar salmog‘i sezilarli edi.

XX asrda Rossiya aholisi nufuzi bilan bog‘liq fojealarni ikki marta boshidan kechirdi. Birinchi jahon urushi natijasida faqat 1926 yilga kelibgina aholining urushdan avvalgi sonini qayta tiklashga muvafaq bo‘lindi, ikkinchi jahon urushidan keyin esa, bunga 1955 yilga kelibgina erishildi (39.1-jadval). Butun XX asr mobaynida dunyo aholisi soni to‘rtbaravar, shu jumladan, rivojlangan g‘arb mamlakatlarida 2,4 baravar, rivojlanayotgan mamlakatlarda besh baravar ko‘paydi. Boshqacha qilib aytganda, Rossiya aholisining yillik o‘rtacha o‘shish sur‘ati rivojlangan g‘arb mamlakatlarinikiga qaraganda past

edi.

Aholi nufuzi dinamikasi asosiy ko'rsatkichlarining tahlili bugungi kunda tug'ilishning shunchaki qisqarayotganidan emas, keskin qisqarayotganidan, o'limning yana ko'paya boshlaganidan dalolat beradi.

100 yillik davr mobaynida O'zbekistonda aholi sonining mutlaq qisqarishi ikki bora kuzatildi: ikkinchi jahon urushi yillarida va bozor iqtisodiy munosabatlariga o'tish yillarida. Mutaxassislarning bashorat qiluvchi baholariga ko'ra Rossiyaning aholisi qisqarib borishga mahkum etilgan.

Shu bilan birga, ta'kidlash kerakki, aholi sonining o'zgarishlariga doir bashoratlar, yuqorida aytib o'tilganidek, ko'pincha noto'g'ri bo'lib chiqadi. Rossiya aholisining kamayish tamoyili, basharoti mamlakat iqtisodiyoti to'la quvvat bilan «ishga tushib ketsa», aholining daromadlari ko'paysa, ijtimoiy xizmat ko'rsatish yaxshilansa, davlat esa mamlakat aholisining tabiiy va migratsion o'sishiga yo'naltirilgan samarali aholi nufuzi siyosatini amalga oshirsa ruyobga chiqmay qolishi mumkin.

**O'zbekiston aholisi sonining XX asrda 10 yilliklarga bo'lib olgandagi va XXI asring birinchi 10 yilligidagi dinamikasi**, aholi nufuzi dinamikasi ko'rsatkichlarining tahlili bugungi kunda tug'ilishning shunchaki ko'payayotganidan emas, balki keskin ko'payayotganidan, o'limning yana kamaya boshlaganidan dalolat beradi.

Nufuz qonuni ishlab chiqarish jarayonida ishga layoqatli aholining maxsus dinamikasini, undan foydalanish xarakterini ifoda etuvchi qonundir.

Har qanday tarixan ishlab chiqarish usullariga (ibtidoiy jamoa tuzumi, quldorlik jamiyati tuzumi, feodolizm, kapitalistik va sotsialistik tuzumlar) haqiqatan ham o'ziga hos xarakterga ega bo'lgan nufuz qonuni harakat qilgan. Nufuz qonuni T. Maltus ifoda etgandek apstrakat biologik hodisa emas, balki ijtimoiy hodisa bo'lib harakat qilgan. Bu qonunning mazmuni yuqorida aytib o'tilgan jamiyat quruluşliriga bog'liq, sababi tug'ulish (tug'ish), o'lim kabi jarayonlar ijtimoiy - iqtisodiy sabablar bilan shartlangan. Nufuz qonunining mohiyati to'liq bandlikni mehnat resurslaridan aql-idrokka asoslangan holda foydalanishdan iboratdir. Bular mehnat qilish qobiliyatiga ega bo'lgan aholini ishlab chiqarish tarmoqlari va sohalari o'rtasida taqsimlashni o'z ichiga oladi, hamda mamlakat hududi bo'yicha ushbu ishlab chiqarish kuchlari darajasining rivojlanishi uchun mutanosiblikda joylashtirish kerak. Ishlab chiqarishning yuqori darajadagi o'sish sur'atining natijasida uning strukturasi o'zgarishlar har qanday jamiyatning rivojlanish bosqichlarida o'zgarmasdan qoladi.

Shu bilan birga, tug'ilishning optimal darajasi ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligi, aholining madaniyati va ular o'zlarining ehtiyojlarini ko'proq to'liq qondirish bilan bog'liqdir.



### **39.2. Ishchi kuchini qayta tiklash**

Ishchi kuchi deganda, mamlakatning iqtisodiy hayotida ishtirok etuvchilarning hammasi, shu jumladan, qurolli kuchlardagi xizmatchilar, ishsizlar tushiniladi, uy bekalari, talabalar va mehnatga layoqatsiz yoshdagi shaxslar bundan mustasno.

Ishchi kuchini qayta tiklash deganda, shu atamaning muayyan ma'nosini olganda, mamlakat xodimlarida mehnatga layoqatlilikni qayta tiklash jarayoni tushuniladi. Ishchi kuchini qayta tiklash xodimning – bu umumta'lim, kasbiy va ijtimoiy-iqtisodiy tavsiflarining, nafaqat uning qobiliyatlari shu bilan birga, ehtiyojlarining sintezidir.

Xodimning mehnatga layoqatini qayta tiklash xo'jalik yurituvchi barcha sub'ektlarning manfaatlari doirasiga kiradi. Mazkur muammoning yechimi oilaga, (uy xo'jaligiga) xodimning o'ziga, tovar egasiga, ishchi kuchiga, tadbirkorga va davlatga bog'liq.

Avvalambor, shuni nazarda tutish kerakki, bozor iqtisodiyoti kadrlar tayyorlash sohasini ham talab va taklif qonuniyatiga tobe qiladi. Shu bilan birga, nazarda tutish kerakki, maorif sohasi bozor o'lchovlariga to'la mos kelmaydi. Davlatdan ayrim holda ham mazkur soha davlat vazifalarini bajarishda davom etmoqda, shu sababli davlat nazoratidan chetda qolishi mumkin emas.

XX asrning ikkinchi yarmida ishchi kuchiga talabning shakllanishi mehnatning ilmiy va kasbiy qobiliyatlari darajasiga talabning oshib borishi asosiy tamoyil bo'lib qoldi. Ushbu tamoyil iqtisod fanida odam kapitali nazariyasini shakllantirish va milliy iqtisodni rivojlantirishda shu kapitalga sarf-xarajatlarning ulkan ahamiyatida o'z ifodasini topdi. Shunday qilib, K.Marksning mashina va dastgohlar muntazam yangilanib turadigan sharoitlarda mashinalar ishlab chiqarishining o'sishi ishchi kuchi malakasining saviyasi pasayishiga olib keladi, degan xulosasi o'z tasdig'ini topmadi.

Murakkab kompyuter texnologiyalari va sun'iy zakovat paydo bo'lganidan so'ng ba'zi jamiyatshunoslar odamning ishlab chiqish jarayonidagi ahamiyati pasayadi, degan fikrni bildirishgan edi. Tajriba kompyuterlar insonning ba'zi vazifalarini o'z zimmasiga ola bilishini ko'rsatdi. Ammo bu – mehnatga layoqatli aholi o'z malakasini yo'qotishini anglatmaydi. Kompyuterlar inson ongining jami xususiyatlarini qayta tiklay olmaydi. «Aqlli» mashinalar soni ko'payib borishi va ularni ixtiro qilish muntazam taraqqiy etishi g'oyatda murakkab muammolarni hal etishga da'vat etilgan, har tomonlama bilimdon ijodiy shaxslar sonini ko'paytirishga talabni ham oshirib bormoqda. Kundalik ko'ngilga tekkan operatsiyalarni bajarishdan ozod bo'lgan odamlar his-tuyg'u va insoniy munosabatlarni talab qiluvchi

vazifalarni bajara boshlaydilar.

Hozirgi zamon ishlab chiqarishining ishchi kuchiga talabi dinamikasidagi tamoyillarga holisona baho berish har tomonlama ko'nikmalarga ega, tez o'zlashtirish va ko'nikishning yuksak qobiliyatlari bor, yuqori malakali xodimlarga talab oshib bormoqda, deb xulosa chiqarish imkonini beradi. Mehnat qobiliyatining o'sishiga, bilimlarni egallash va qo'llash borasidagi intensivlikning oshishiga talab tamoyili yaqqol ko'zga tashlanadi. Menejerlardan va yollanma xodimlardan tobora ko'proq bilimdonlik, keng qobiliyatlar talab qilinmoqda, iqtisodiyot borgan sari nisbatan kam «mashinali - tezkor» va tobora ko'p «bilimli - tezkor» bo'lib bormoqda. Ishchi kuchini qayta tiklashda bilim va kasbiy tayyorgarlik darajasi ahamiyati oshib borishining umumiy tamoyilida ishchi kuchiga talabning tarkibiy tuzilishidagi farqlar yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Rivojlanishning postindustrial bosqichida turgan, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda, ayniqsa, AQShda ishchi kuchini qayta tiklashda oliy va eng oliy bilim muammosiga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar ichida birinchi bo'lib AQSh zakovat kapitalining yuksak qiymatini va «aqlarni jalb etish»dan iqtisodiy foyda olish mumkinligini aniqladi.

*O'zbekiston uchun* va industrilashtirish nafaqat qishloq xo'jaligida, real sektorning boshqa tarmoqlarida ham tugallanmagan boshqa mamlakatlar uchun XXI asrning boshlarida ishchi kuchini qayta tiklash muammosi muqarrar ravishda ikki yo'nalishda: birinchidan oliy va eng oliy ma'lumotli ishchi kuchini shakllantirish yo'li bilan, ikkinchidan, texnikumlar va hunar-texnika bilim yurtlari orqali malakali ishchi kuchini tayyorlash yo'li bilan hal etilishi kerak. Bozor talablari o'rta bo'g'in ishchi kuchini tayyorlash tizimini barbod qildi. 2000–2001 yillardagi iqtisodiy faollikning dastlabki alomatlari ommaviy kasb mutaxassislari – ishlab chiqarishning barcha sohalarida quruvchilar, elektrklar, texniklar yetishmasligini oshkor qildi. O'rta malakali mutaxassislar taqchilligi Rossiyaning nafaqat markaziy, shu bilan birga, o'rta va kichik shaharlarida ham sezilmoqda. Shu masalani hal etish uchun MDH mamlakatlaridan va olis xorijiy mamlakatlaridan xodimlar jalb etilmokda. «Agar biz malakali ishchi kuchini vujudga keltirmas ekanmiz, ish o'rinlarimizni begona ishchilarga topshirishimizga to'g'ri keladi», deb ta'kidladi Rossiya Federatsiyasining maorif vaziri.

Jahon amaliyotini umumlashtirish tajribasi shundan dalolat beradiki, raqobat kurashida xodimlarning kasbiy tayyorgarlik darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlar yutib chiqadi. Sobiq ittifoq sun'iy yer yo'ldoshining uchirilishi AQShda kadrlar tayyorlashda sovet tizimining Amerika tizimidan ustuvorligining oqibati sifatida qabul qilindi – shu munosabat bilan

amerikaliklar diqqat-e'tiborni ommaviy ta'limga safarbar etish haqida qaror qabul qildilar.

Islohotlar Rossiyada ishchi kuchining qayta tiklanishiga salbiy ta'sir o'tkazmay qolmadi. Islohotlar oqibatida yuqori malakali mutaxassislarning ish bilan bandligi sohasida eng katta yo'qotishlar bo'ldi. Mutaxassislarning o'z xizmat sohalaridan ketishining ikki asosiy yo'lini ko'rsatib o'tish mumkin. Birinchidan, ilmiy va texnik xodimlarning xorijga ketib qolishi; ikkinchidan, mayda tijoratga berilish («chayqovchilik», «gerbalayf» va hokazolar), moliya va qo'riqchilik tuzilmalariga ketib qolish shular jumlasidandir.

1992 – 1993 yillardagi inqirozdan so'ng mutaxassislarning eng faol va yuksak malakali qatlami aksariyat yirik mudofaa korxonalaridan «yuvib chiqarildi». Odamlar turmushning yangi sharoitlariga moslashishdi, yillar mobaynida, ayniqsa, yuksak texnologiyalar sohasida orttirgan malakalarini yo'qotishdi. Shu sababli, yuksak texnologiyalarning talaygina qismini qayta tiklash endi qiyin bo'ladi.

Ishchi kuchi yuqori sifatli mehnat potentsiali miqdorining boy berilishi va kasbiy qobiliyatlarining yo'qotilishi milliy iqtisodiyot vayron bo'lganligining, ishlab chiqarish mutaxassislarni talab qilmayotganligining oqibati hisoblanadi.

Yaponiya, Koreya Respublikasi butun aholining bilim darajasini va mehnat faoliyatining barcha sohalari mutaxassislari kasbiy tayyorgarligini keskin oshirib, odam kapitaliga sarf-xarajatlardan, «ishlayotgan» milliy iqtisodiyotda undan foydalanib, yuksak samaraga erishdi.

Insonga sarflangan kapital mablag'lar qanchalik *muhim* bo'lmasin, insonning mehnatga layoqatiningina shakllantiradi, jonli mehnatsiz ularni amalga oshirib bo'lmaydi, bu demak, qiymatni vujudga keltirmaydi, hatto uni asrab qolmaydi.

Islohotlar davomida O'zbekiston bu sohada boshqa mamlakatlarga qaraganda, shubhasiz, imtiyozga ega bo'lishiga qaramay, eng qimmatbaho resurslarning biridan foydalanmadi.

Rossiyadagi bozor o'zgarishlari ishchi kuchini qayta tiklash jarayonida yangidan-yangi muammolarni va ziddiyatlarni keltirib chiqarmokda. Eng keskin muammolardan biri – pulli va tekin ta'lim berish xizmatlarining nisbatidir. O'zbekistonda kadrlar tayyorlashning tijoratga aylanib borishi jadal sur'atlar bilan ro'y bermokda, aholi aksariyat qismi daromadlarining o'sish sur'atlari bilan yaqqol ziddiyatga kirishmokda. Jamiyat daromadlar darajasi bo'yicha keskin tabaqalashayotgan bir sharoitda ta'limga xarajatlarning davlat budjetidan uy xo'jaliklari budjetiga ko'chirilish tamoyili ta'lim tizimining bir tomondan tabaqalashgan, aslzodalar uchun mo'ljallangan, boshqa tomondan bozor ehtiyojlariga joriy xizmat ko'rsatish sohasiga aylanishining real xavfini

vujudga keltirmokda.

«Bilim iqtisodining rivojlanishiga hech narsa, ijtimoiy to‘siqlar yoki kamsitishlar to‘sqinlik qila olmaydi. Ijtimoiy to‘siqlar bilim olish vositalari yo‘lidagi g‘ovdir. Bilimlar iqtisodi – albatta «ochiq eshiklar» iqtisodidir. Odamlarning qobiliyatlari va iste’dodlari cheksiz rang-barangligi sharoitida u o‘sadi va gullab-yashnaydi. Bilim olish, ularni qo‘llash va boyitishning barcha uchun umumiy imkoniyatlari davlat ijtimoiy -iqtisodiy qudratining asosiy mezonidir». Ingliz professorining ana shu xulosasi sobiq sovet voqeligi sinovidan o‘tgan. Sobiq sovetlar davlatida, bir avlod umri mobaynida, barcha ijtimoiy qatlamlar uchun bepullik va ochiqlik zamirida umumiy va maxsus ta’limning yuksak darajasiga erishildi, bu hatto eng *qoloq* milliy respublikalarda ham iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotning poydevori bo‘lib xizmat qildi. Ta’limning hozirgi tizimini shakllantirishda bozor mexanizmlari emas, davlat bozor iqtisodida xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning manfaatlariga javob beradigan ishchi kuchini qayta tiklash jarayonining asosiy kafolatidir.

### **39.3. Ish bilan bandlik va mehnat bozori**

Mamlakat aholisi umumiy sonidan mehnat qilish qobiliyatiga ega aholini ajratishadi. Bu o‘z ishchi kuchini mehnat bozorida taklif qilishi mumkin bo‘lgan, mehnat qilish qobiliyatiga ega yoshdagi (15 yoshdan to 65-70 yoshgacha; bu ko‘rsatkich turli mamlakatlarda turlicha bo‘lishi mumkin) shaxslardir. Mehnat qilish qobiliyatiga ega kishi mehnat bozoriga nisbatan quyidagi uch holatdan birida bo‘lishi mumkin: 1) agar ishlayotgan bo‘lsa, band, deb hisoblanadi; 2) ishsiz deb hisoblanadi; 3) ishlamaydi, ammo faol ish izlaydi.

Ish bilan bandlar va ishsizlarning yig‘indisi iqtisodiy faol aholini tashkil etadi. Agar kishi mehnat qilish qobiliyatiga ega yoshda bo‘lsa ham ishlamayotgan va ish izlamayotgan bo‘lsa, u iqtisodiy faol emas. deb hisoblanadi va mehnat bozoridan tashqarida turadi.

Mehnat qilish qobiliyatiga ega yoshdagi ishlayotgan yoki ta’tildagi shaxslar ish bilan band, deb hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyotida har kim mehnat qilish yoki dam olishni o‘zi tanlashga xaqlidir. Shu bilan birga yetarli darajada rivojlangan bozor iqtisodiyot sharoitida davlat barcha fuqarolarning mehnatda ishtirok etish orqali oilani qayta tiklash uchun zarur bo‘lgan daromad olish huquqini amalga oshirishini kafolatli ta’minlashi shart. Ijtimoiy muhofaza tizimi har qanday sharoitda ham o‘z tirikchiligini minimum miqdorda ta’minlashga qodir bo‘lmagan shaxslarni himoyasiga olishi kerak.

Mehnat bozori tovar ko‘rinishidagi ishchi kuchining harakati jarayonida

o‘z sub’ektlari o‘rtasida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar tizimi sifatida ta’riflanishi mumkin. Turli milliy xususiyatlariga qaramay, insonning shaxsiy va iqtisodiy erkinligi, uning nafaqat ish joyini, shu bilan birga, turmush tarzini tanlash imkoniyati, mehnat bozori uning majburiy sharti hisoblanadi.

Ishlab chiqarish vositalari (bu demak, ish joylari ham) xususiy mulk bo‘lganligi bois mehnat bozorida asosan ikki sub’ekt – yollanma xodim (tovarning egasi – ishchi kuchi) va ish beruvchi (kapitalning va u tashkil qilgan ish joylarining egasi) harakat qiladi. Ammo shu vaziyatda ham davlat ishtirok etmaydigan sub’ekt bo‘lib qololmaydi. U mehnat bozori ikki asosiy sub’ektining munosabatlariga faol aralashadi, mehnat munosabatlari haqidagi qonunlarni chiqaruvchi va mehnat nizolarida hakam sifatida ishtirok etadi.

Bundan tashqari bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat ko‘p yoki oz miqdorda mulkka egalik qiladi, ish joylarini tashkil etadi, bu demak, mehnat bozorining faol sub’ekti sifatida faoliyat yuritadi.

O‘zbekistonning mehnat bozoridagi davlat va chakana tadbirkorlikning o‘rni haqida, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish natijasida shu sohada ro‘y bergan o‘zgarishlar haqida quyidagi raqamlarga asoslanib mulohaza yuritish mumkin: birinchidan 1980 yilda barcha ish joylarining 90,4% davlatga qarashli edi. Atigi 9,6% xususiy mulk egalariga taalluqli bo‘lgan. 1991 yilga kelib mulkning xususiy va aralash shaklidagi; ish joylari 23,5%ni, davlat tasarrufidagi ish joylari 75,5%ni tashkil etdi. 2001 yilda davlatning ish joylari ulushi 38% ga qadar qisqardi, xususiy mulk egalarining ish joylari 46% gacha ko‘paydi, mulkka egalikning aralash shakllarida ish bilan bandlik vujudga keldi – u 15%ni tashkil etdi.

Har qanday bozorda bo‘lgani kabi mehnat bozoridagi muvozanat mehnatga bo‘lgan talab va uning taklifi o‘rtasidagi mutanosiblikni anglatadi. Ammo ishchi kuchi – o‘ziga xos tovar bo‘lgani sababli, mehnat bozoridagi muvozanatni tushunishda yakdillik mavjud emas. Mehnat bozoridagi muvozanatga eng katta nafililik nazariyotchilari va ularning izdoshlari – neoklassik maktab vakillarining yondashuvi ayniqsa, qattiq tanqidlarga sabab bo‘lmoqda. Shu yo‘nalish iqtisodchilari mehnat bozoridagi muvozanatga tovarlar va xizmatlar bozoridagi muvozanat haqidagi umumiy tasavvurlardan kelib chiqib yondashishgan (hozir ham shunday). Neoklassik yondashuvga muvofiq mehnat bozoridagi muvozanat mehnatning narxi – ish haqi bilan mehnatga talab o‘rtasidagi aloqaning natijasi hisoblanadi. Ish haqining pasayishi, tovar bozorida bo‘lgani kabi, mehnatga talabni oshiradi, bu demak, ish bilan bandlikni ko‘paytiradi; ish haqining oshishi taklif qilinadigan mehnatni ko‘paytiradi, bu talabning o‘shishini tizginlaydi.

Ammo mehnat bozori o‘z xususiyatlariga ega, tovar va xizmatlar

bozoridagi talab va taklif qonunini unga nisbatan qo'llash xato bo'ladi. Ish haqi, agar uni tovarning narxi sifatida qabul qiladigan bo'lsak, ishchi kuchidir – u odatda tovarga xos bo'lgan qayishqoqlikka ega emas.

Mehnat bozoridagi ishchi kuchiga talab va taklif o'z hajm va sifat tavsiflariga ega, asosan, ular bir-biriga mos kelmaydi. Ularning nisbati mehnat bozoridagi ahvolni tavsiflaydi, bu ahvol ko'p sonli omillar ta'sirida shakllanadi va aholi turli guruhlarini yollanma xodim sifatidagi tengsiz ahvolini aks ettiradi. Ishchi kuchiga talab va taklifning ahvoliga nafaqat demografik, ijtimoiy, ma'naviy omillar, shu bilan birga, mehnat bozorining o'ziga xos xususiyatlari ham sezilarli ta'sir o'tkazadi, shu bois ishchi kuchiga talab va taklifning nisbati unda tovarlar yoki kapitallar bozoridagi kabi bilvosita ko'rinishda namoyon bo'lmaydi.

Mehnat bozorining o'ziga xos xususiyatlari yollovchilar va yollanma xodimlarning ahvoli teng emasligida; mehnat bozori sub'ektlarining yuksak darajada uyushganligida, bir tomonini yollanma xodimlarning kasaba uyushmalari, ikkinchi tomonini esa, tadbirkorlarning tashkilotlari va uyushmalari tashkil etishida; mehnat bozorining yollanib ishlayotganlarni bozor ofatlarining bevosita ta'siridan himoya qiluvchi jamoa mehnat bitimlari, mehnat haqidagi qonunlar bilan boshqarilishida; ishchi kuchi –o'ziga xos tovar ekanligi munosabati bilan mehnat bozorining kayishqoq emasligida namoyon bo'ladi. Mehnat bozorining kayishqoq emasligi bois unda hamisha talab va taklifning umumiy va tarkibiy nomutanosibliigi vujudga keladi, bu ishsizlikning paydo bo'lishida ifodalanadi.

Mehnat bozori keng yoki tor ma'noda ko'rib chiqilishi mumkin. Birinchi holda, bozor ishchi kuchin butun qayta tiklash jarayoniga ta'sir etadi; ikkinchi holda, u – ishchi kuchini yollash bilan bog'liq uning bir bosqichi xolos. Mehnat bozorini keng ma'noda tushunilganda xodimlarga mehnatga talab va taklifning darajasi, uning shart-sharoitlari haqida axborot berish; xodimlarni bozorda talab mavjud bo'lgan mehnat potensialini rivojlantirishga yo'naltirish; mehnat resurslarining tarmoqlar, mintaqalar, mulk egaligining ko'rinishlari va hokazolar o'rtasida bir- biriga o'tib turishini rag'batlantirish; ish haqi darajasini shakllantirish; firmalar o'rtasidagi raqobat orqali mehnat sharoitlari yaxshilanishini rag'batlantirish; bozor omillari siquvi ostida bo'shaganlarning mehnat resurlari zaxirasini tashkil etish va ularni keyinchalik ishga joylashtirish; barcha sohalarda yanada samarali faoliyat ko'rsatishga qodir bo'lgan ishchi kuchining yuksak sifat tavsiflarini shakllantirishni uning takror ishlab chiqarish vazifalari qatoriga kiritish mumkin.

Keng ma'noda tushunilgan mehnat bozorini shakllantirish, ishchi kuchini qayta tiklash bo'yicha yuqorida aytib o'tilgan vazifalarning mehnat bozori

tomonidan sifatli amalga oshirilishi – xo‘jalik yuritishning bozor tizimini davomli rivojlantirish natijasidir. Rossiyada bugungi kunda keng ma‘noda tushuniladigan mehnat bozorini shakllantirish endigina boshlandi.

Mehnat bozori tovari – ishchi kuchiga narxning shakllanish xususiyatlari bilan ham farq qiladi. Gap shundaki, mehnat bozoridagi ishchi kuchining iste‘mol qiymatini aniqlash anchagina mushkul. Xodimning malakasi, ishchi kuchining narxi ana shunga bog‘liq, bu malakani xodim hamisha ham mehnat bozorida paydo bo‘lishdan oldin orttirmaydi. Ko‘pincha xodim malakani ish jarayonida orttiradi. Ishchi kuchining narxi shuningdek, mehnatga munosabatga, uning unumdorligiga, ish sifatiga, ya‘ni xodim yollanganidan so‘ng ko‘zga tashlanadigan tavsiflarga bog‘liq.

Mehnat bozori nafaqat ish haqining kam harakatliligi sababli, shuningdek, xodimlarning kasbiy tayyorgarligi tafovutlar va shu tafovutlar bilan izohlanuvchi qiyinchiliklar, aksariyat hollarda xodimlarni bir kasbiy guruhdan ikkinchi kasbiy guruhga o‘tkazishning amalda iloji yo‘qligi bois, boshqa tovar bozorlariga nisbatan kam samaralidir.

Iqtisodiy faol aholini imkoni boricha ish bilan ta‘minlash hozirgi zamon davlatining eng muhim vazifalaridan biri bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qolmoqda.

Mehnat bozori va milliy iqtisodiyotning o‘zgarib borayotgan tarmoq va mintaqaviy tarkibiy tuzilishlari ehtiyojlariga javob beradigan ishchi kuchini tayyorlash mehnat bozorida muvozanatga va samarali ish bilan bandlikka erishishning eng samarali yo‘nalishi hisoblanadi.

#### **39.4. Ishsizlik: uning mazmuni va ko‘rinish shakllari (turlari)**

Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) ning ta‘rifiga ko‘ra ishsizlik – bu mamlakatda muayyan yoshga to‘lgan, ish bilan band bo‘lmagan, ayni vaqtda mehnat qilishga yaroqli va ko‘rib chiqilayotgan davrda ish qidirayotgan shaxslar kontingenti mavjudligidir.

Odatda, ishsizlik ishlashni istovchilarning umumiy sonidagi ish bilan band bo‘lmaganlarning solishtirma miqdori sifatida aniqlanadi. Shu munosabat bilan ko‘ngilli ishsizlikni va majburiy ishsizlikni bir- biridan farqlash kerak. Bozor iqtisodi sharoitlarida har qanday mamlakatda mehnat qilish qobiliyatiga ega, ammo ishlashni istamaydigan fuqarolar bo‘ladi. Odamlarning bu toifasi odatda, statistika tomonidan hisobga olinmaydi. Majburan ishlamayotgan, ishlashni istaydigan, ish qidirayotgan, ammo ish topa olmayotganlarni ishsizlar qatoriga kiritishadi.

Ishsizlikning juda ko‘p tasniflari mavjud. Ammo ularning birortasini ham benuqson, deb bo‘lmaydi. Hozirgi zamon iqtisodiy adabiyotlarida

ishsizlikning 60 – 70 ga yaqin turlari va ularning tavsiflari berilgan. Bunday rang-baranglik ishsizlikni tadqiq etishga yondashuvlar bir xil emasligi bilan hamda tadqiqotchilarning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlari bilan izohlanadi. Masalan, ishsizlik sabablarini tadqiq etishda bir tasnifdan, uni qisqartirish usullarini aniqlashda boshqasidan foydalanilishi mumkin.

Ishsizlikning tasnifiga ish bilan bandlik haqidagi statistika axborotlarini olish erkinligi, uning haqqoniyligi va to‘liqligi jiddiy ta’sir etadi. Empirik tadqiqotlarda tasnifga ko‘pincha ijtimoiy savol- javoblar va saylanma tadqiqotlarga tayanuvchi «statistik» yondashuvlar ustuvorlik qiladi. Nazariy yo‘sindagi maqolalarda sub’ektiv baholarga moyil «tahliliy» tasniflar ko‘proq uchraydi.

Butun dunyoda qabul qilingan tasnifga muvofiq ishsizlik to‘rt asosiy turga: chig‘iriqli, mavsumiy, tarkibiy, davriy turlarga bo‘linadi. Ana shu tasnif zahirida ishsizlikning davomiyligi, uni izohlaydigan asosiy sabablar yotadi.

Chig‘iriqli (lotincha frictio - ishqalanish, ishqalanish ta’siri ostida harakat qiluvchi so‘zidan olingan) ishsizlik ish joyining yoki istiqomat joyining o‘zgarishi bilan bog‘liq odamlar doimiy ko‘chishining oqibati hisoblanadi. Ishsizlikning mazkur turi bozor iqtisodiyotida axborotning mukammal emasligi hamda xodim va ish beruvchi bir-biriini topishi uchun vaqt yetishmasligining natijasidir.

Sobiq sovet davri atamalari bo‘yicha ishsizlikning bu turi kadrlar ko‘nimsizligi, deb atalardi. Ishsizlikning shu ko‘rinishi bilan muntazam ko‘rash olib borilishiga, mehnat va migratsiya qonunlarining og‘irligiga, shaharlarda propiskadan o‘tish mumkin emasligiga qaramay, bunday ishsizlik doimiy hisoblanar edi. Har bir xodim qisqa vaqt ishsizlikning shu ko‘rinishida bo‘lishi mumkin. Ammo uning o‘rnini ikkinchisi, uchinchisi va boshqalar egallaydi. Aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak, bu ishsizlikning muvaqqat - doimiy turidir.

Hatto mehnat bozorida talab va taklifning muvozanatiga erishilgan taqdirda ham hamisha yangi ish joyini topgan yoki topishga tayyor vaqtinchalik ishsizlar bo‘ladi. Ishsizlikning bu ko‘rinishi ish bilan bandlikning eng yaxshi shart-sharoitlarini izlanayotgan xodimlarni va korxonalarni tavsiflaydi.

Axborot tarqalishining va xodimlar ko‘chishining sarf-xarajatlar talab qilmaydigan hozirgi zamon usullarida mazkur jarayon ko‘z ochib yumguncha kechishi mumkindek ko‘rinadi. Ammo bunday bekamu ko‘st sharoitlarning yaratilishi hayotiy emas. Iqtisodiyot rivojlanishining dinamikasi hamda mehnat bozorida talab va taklif o‘zgarishlari sifatida chig‘iriqli ishsizlik muqarrardir. Chig‘iriqli ishsizlikning ko‘lami ishchi kuchining ko‘chish tezligi



va bo'sh o'rinlar miqdoriga, ish qidirayotgan kishilarning va taklif qilayotgan korxonalarining bir-birini topish tezligi va samaradorligiga bog'liq.

Bunday ishsizlikning o'ziga xos jihatlari quyidagilar: u barcha aholi nufuzli guruhlarida, faoliyat sohaslarida va mintaqalarda odamlarning katta miqdorini qamrab oladi; har bir odam uchun nisbatan uzoq vaqt davom etmaydi; bu ishsizlikning ma'lum soni har qanday sharoit uchun muqarrar.

Chig'irli ishsizlikning mohiyati davlat xizmatlarining uni pasaytirish usullarini belgilaydi. Bu, birinchi navbatda, ish bilan bandlik haqidagi axborotlarni takomillashtirish, ishchi kuchi ko'ngilsiz ko'chishlarining sabablarini bartaraf etishdir.

Mavsumiy ishsizlik – ishlab chiqarish va ish bilan bandlikdagi mavsumiy o'zgarishlar sababli mehnatga talabning o'zgarishlari natijasidir. Ishsizlikning bu to'rini ko'pincha chig'irli ishsizlikka o'xshatishadi. Ammo mavsumiy ishsizlik uni chig'irli ishsizlikdan farqlovchi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ana shu xususiyatlarning inobatga olinishi uning ko'lamlarini o'z vaqtida qisqartirishga, mavsumiy ishlab chiqarish bilan bog'liq mintaqalardagi ijtimoiy keskinlikni yumshatishga ta'sir o'tkazishga qodir.

Tarkibiy ishsizlik bu – mavjud ish joylari bilan maxsus tayyorlangan va ishlashni istaydigan ishchi kuchi o'rtasidagi nomutanosiblik oqibati hisoblanadi. Ishchi kuchiga talab va taklif o'rtasidagi nomutanosiblik ishlab chiqarish va ish joylarining tashkil etilishi, maxsus tayyorlanishi, geografik joylashishi, yosh tavsiflari bilan izohlanadi. Tarkibiy ishsizlik maxsus tayyorgarlikni va yuqori malakali xodimlarni talab qiladigan ishlab chiqarishning yangi ko'rinishlari yaratilgan, mavjud ishchi kuchi ana shu talablarga javob bermaydigan xollarda vujudga keladi. Tarkibiy ishsizlik milliy iqtisodiyotdagi (tarmoq va hududiy) tarkibiy o'zgarishlarning oqibatlari hisoblanadi. U jiddiy ilmiy texnika o'zgarishlari davrida ko'payadi va murakkablashadi.

Tarkibiy ishsizlikning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardir: chig'irli ishsizlikdan farqli ravishda, u texnologiya siljishlari, iqtisodiyotning an'anaviy tarmoqlaridagi tushkunlik, harbiy ishlab chiqarishning qayta ixtisoslashishi yoki ish joylarining mintaqaviy ko'chishi ta'sir o'tkazgan xodimlarni qamrab oladi; ishsizlikning bu turi uzoq muddatli xususiyatga ega.

Tarkibiy ishsizlikning tabiati davlatning uni cheklashga doir ma'lum iqtisodiy siyosati zarur ekanligini taqozo etadi.

Mamlakatda va mintaqalarda iqtisodiy faoliyatning ma'lum sohaslarini rivojlantirish, shuningdek, ishchi kuchi ixtisosligi sohasidagi; mamlakatning rivojlanmayotgan mintaqalaridan ishsizlarni ko'chirish; iqtisodiyotning davlat sektorida ish o'rinlari bilan ta'minlash dasturlari shular jumlasidandir.

Davriy ishsizlik (ba'zan uni talab yetarli darajada emasligining ishsizligi yoki keynsiancha ishsizlik, deb atashadi) milliy iqtisodiyotdagi talabning barcha ishlashni xohlovchilar uchun yetarli miqdorda ish o'rinlarini yaratishga qodir emasligi oqibatida vujudga keladi. Ish o'rinlari va ishchi kuchi nomutanosibligining oqibati hisoblanuvchi chig'irli va tarkibiy ishsizlikdan farqli ravishda, davriy ishsizlik – umuman, mamlakat iqtisodiyotida iqtisodiy o'sish sur'atlari pasayganligi sababli ish o'rinlarining yetishmasligi natijasidir. Davriy ishsizlik iqtisodiy davrlar harakati bilan bog'liq: ko'tarilish davrida u sezilarli ravishda kamayadi, tanazzul va tushkunlik davrida keskin ko'payadi.

Ammo davriy ishsizlik birgina iqtisodiy rivojlanishning davriyligi oqibatidagina vujudga kelmaydi, u surunkali iqtisodiy turg'unlik natijasida ham paydo bo'ladi. Bu holda uni «uzoq muddatli stagnatsiya», deb atashadi.

Davriy ishsizlikning xususiyatlari umumiy iqtisodiy davrlar bilan bog'liq ish bilan bandlikning har yilgi jiddiy tebranishlari mavjudligidan iborat; chig'irli ishsizlik kabi davriy ishsizlik butun iqtisodiyot ko'lamida yoyilgan; odatda (ammo bu shart emas), davriy- ishsizlikning davomiyligi tarkibiy ishsizlikning davomiyligidan ko'proq vaqt davom etadi.

Davriy ishsizlikka qarshi ko'rashish uchun milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda barqarorlikka va ish joylariga talablar majmui oshishiga xizmat qiluvchi davlat dasturlari ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi talab qilinadi.

Ishsizlikning yuqorida ko'rsatilgan asosiy turlaridan tashqari iqtisodiy adabiyotlarda yoshlar ishsizligi, yashirin ishsizlik, konvertli ishsizlik, texnologik ishsizlik, joriy va boshqa turdagi ishsizlik, tushunchalariga duch kelish mumkin. Ammo ular yuqorida bayon etilgan ishsizlik to'rt (uch) to'rining qismlarigina xolos.

Ishsizlikning umumiy ko'lamini aniqlash murakkab emas. Ammo uni turlarga ajratish qiyin, bil'aks ishsizlikning har bir to'rini pasaytirish o'ziga xos usullarni taqozo etishi bois zarurdir.

60 - yillarning oxirida monetarizm asoschisi M. Fridman iqtisodiy fanga «tabiiy ishsizlik» va «ishsizlikning tabiiy me'yori», degan tushunchalarni kiritdi. Bu tushunchalar e'tirof etilgan, endilikda ishsizlikning tabiiy me'yori yoki ishsizlikning tabiiy darajasi barcha mamlakatlarda hisob-kitob qilib boriladi.

Ishsizlikning tabiiy darajasi deganda, uning barcha kamchiliklarga, talab va taklifning tebranishlariga, ish joylari haqidagi axborotni olish osonligi va hokazolarga qaramay, tovarlar va mehnat bozorlarining amaldagi tarkibiy tuzilishini aks ettiradigan darajasi tushiniladi.

Tabiiy ishsizlik miqdoriga chig'irli (mavsumiy bilan birgalikda) va

tarkibiy ishsizlik kiritiladi. Bunda ishsizlik me'yori quyidagi nisbat vositasida aniqlanadi:

$$\frac{\text{chig'irli + tarkibiy ishsizlik}}{\text{ishsizlikning tabiiy me'yori}} \times 100\%$$

### **Mehnat qilish qobiliyatiga ega yoshdagi aholi**

Tabiiy ishsizlikning darajasi ko'p sonli omillarga: mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining darajasiga, eng kam ish haqi darajasiga, ishsizlar va kambag'allarga beriladigan nafaqa miqdoriga, kasaba uyushmasi harakati qay darajada rivojlanganligiga, aholining mehnatga munosabatlari va hokazolarga bog'liq.

Hozirgi zamon iqtisodiyotida ishsizlikning tabiiy me'yori o'sish tamoyiliga ega. Hozir teng ishsizlikning tabiiy me'yori 5 – 6 foizga teng deb e'tirof etiladi.

Rossiyada ishsizlikning haqiqiy darajasi uning tabiiy darajasidan 2- 3 barobar ko'p. Mamlakat sanoatining yemirilishi ayniqsa, ana shu toifa xodimlarida aks etdi. Oliy maxsus ma'lumotga ega xodimlar jiddiy tarkibiy o'zgarishlarga va ishchi kuchiga yalpi talabning pasayishiga birmuncha kam yo'qotishlar bilan moslashishdi. Bozor o'zgarishlarining barcha yillari mobaynida oliy maxsus ma'lumotli xodimlar mamlakat ishsizlari jami miqdorining 10 foiziga yaqinini tashkil etib keldi.

Ishsizlikning haqiqiy me'yori uning tabiiy me'yoridan ko'p yoki kam bo'lishi mumkin. Tafvutlar ishlab chiqarish yuksalgan va iqtisodiy inqiroz kuchaygan davrlarda, ya'ni milliy iqtisod amaliy ahvolining tebranish baland va past darajalarda kuzatiladi. Inqiroz davrida ishlab chiqarishning pasayishi ishsizlar sonining keskin ko'payishiga, ya'ni davriy ishsizlikning o'sishiga olib keladi. Davriy ishsizlikning mavjudligi mamlakat ishlab chiqarish quvvatlaridan to'liq foydalanilmayotganligidan dalolat beradi. Davriy ishsizlik mavjud bo'lgan vaqtdagi ishlab chiqarishning olingan hajmi uning yashirin imkoniyatlaridan pastroq bo'lib chiqadi (bu ham to'liq ish bilan bandlikning milliy daromadi, deb ataladi).

Ishlab chiqarishning yashirin hajmi yoki ish bilan bandlikning milliy daromadi hamda haqiqiy olingan ishlab chiqarish miqdorlari va davriy ishsizlik vaqtidagi milliy daromad o'rtasidagi farqni kon'yunktura tuzilishi deb atashadi.

Amerikalik iqtisodchi A.Ouken kattagina davr mobaynidagi daliliy ma'lumotlarni birlashtirib, davriy ishsizlik miqdori bilan kon'yunktura tuzilishi o'rtasida barqaror aloqa mavjudligini aniqladi. Ana shu ma'lumotlar

asosida aniqlangan qonuniyat iqtisodiy nazariyada Ouken qonuni, deb nomlangan.

Ouken qonunining mazmun-mohiyati: davriy ishsizlik bir bandga o‘sganida kon’yunktura tuzilishi (bo‘lishi mumkin bo‘lgan va milliy daromad va uning haqiqiy miqdori o‘rtasidagi farq) Ouken parametri bo‘yicha

$$(N_p - N_f)/N_p = R_0 (B_f - B_e) \text{ ko‘payadi.}$$

Ouken A. (1928 – 1980) Amerikalik iqtisodchi 60-yillarda J.Kennedi va L.Jonsonning iqtisodiy siyosat bo‘yicha asosiy maslahatchisi bo‘lgan. Asosiy asari «Narx-navo va sifat. Makroiqtisodiy tahlil»<sup>33</sup>. Bu asarda u ish haqi qayishqoq emasligini hamda uning yollanma xodimlar va tadbirkorlar manfaatiga muvofiq ekanligini isbotlaydi.

Bunda  $N_p$  – yashirin milliy daromad;  $N_f$  – haqiqiy milliy daromad;  
Okuyen parametri;  $B_f$  – haqiqiy ishsizlik  $B_e$  – tabiiy ishsizlik.

Okuyen qonuniga ko‘ra davriy ishsizlik o‘shining har bir foiz bandi mamlakat milliy daromadining 2–5% ga kamayishi bilan bog‘liq.

Makroiqtisod bo‘yicha bir qator darsliklarda ishsizlik bilan mamlakat daromadlarining yo‘qotishlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatuvchi Okuyenning egri chizig‘i keltiriladi.

Ishsizlikning «ijobiy» va «salbiy» jihatlar bo‘yicha turli qarashlar mavjud. Xususiy tadbirkorlikning iqtisodiy manfaatlarini himoya qiluvchi iqtisodchilar ishsizlik bu – mamlakat uchun ne‘mat, deb isbotlaydilar. O‘z nuqtai nazarlarini ular, ishsizlik bu: 1) ishchi kuchining erkin zaxirasi, undan ishlab chiqarishni kengaytirish uchun istalgan vaqtda foydalansa bo‘ladi; 2) u kasaba uyushmalarining ish haqini oshirish haqidagi talablarini cheklaydi; 3) ish haqini yo‘qotishdan havotirlanish doimo saqlanib turadi, bu xodimni mehnat sifatini oshirib borishga va mehnat tartibini buzmaslikka majbur qiladi.

Ana shu sabablarga tayanib, shu nuqtai nazar vakillari 2–4% doirasidagi ishsizlikning domiy mavjudligini bozor iqtisodiyoti aniq maromda rivojlanishining ob‘ektiv zarur sharti, deb hisoblashadi.

Ishsizlikka aholining aksariyat qismi va yalpi jamiyat manfaatlaridan kelib chiqib qaraydigan boshqa yo‘nalish vakillari ishsizlik hozirgi zamon jamiyatiga ulkan moddiy, ijtimoiy va ma‘naviy zarar keltiradi, deb isbotlashadi. Ularning nuqtai nazariga ko‘ra, ishsizlik mamlakat iqtisodiy imkoniyatlaridan to‘liq foydalanmasligini anglatadi va katta yo‘qotishlarga olib keladi. Buni biz Ouken qonunida yaqqol ko‘ramiz.

Ishsizlikning mavjudligi aholi daromadlari, iste‘moli va jamg‘armalari kamayishini anglatadi, bu ishlab chiqarishning hamda tovar va xizmatlar

---

<sup>33</sup> Okun Arthur M. Prices and Quantities: A Macroeconomic Analysis', 1981

taklifining pasayishiga olib keladi. Ishsizlik ayrim turlarining uzoq vaqt davom etishi xodimlarning malakasini yo'qotishiga aholining daromadlari va maqomi nisbatan past bo'lgan toifasiga o'tishiga sabab bo'ladi. Tabobat fani xulosasiga ko'ra, ishsizlik millatning ruhiy salomatligiga putur yetkazadi. Jinoyatchilikning ko'payishi va mamlakatda ijtimoiy keskinlikning kuchayishi ishsizlik o'sib borishining muqarrar oqibati hisoblanadi.

Ishsizlik turlarini o'rganish vaqtida biz ishsizlikning faqat tashqi, yuzaki sabablarini: mavsumiylik, tarkibiy o'zgarishlar, davriylikni ko'rib chiqqan edik. Shu hodisa yanada chuqur va holisona tadqiq etiladigan bo'lsa, ishsizlik bozor iqtisodi tizimining tabiatida mavjud ekanligini e'tirof etishga to'g'ri keladi. Avvalambor, shuni nazarda tutish kerakki, foyda miqdori va me'yorini imkoni boricha ko'paytirish niyatida bo'lgan bozor iqtisodiyoti hamisha ishlab chiqarish chiqimlarini kamaytirishga intiladi, chiqimning rivojlangan iqtisodiyotdagi asosiy qismlaridan biri – xodimlarning ish haqi. Uni kamaytirish cheklanganligi bois, tadbirkorlar mehnatni yaxshiroq tashkil etishga, yangi texnikadan foydalanish, qolgan xodimlarning mehnat unumdorligini oshirish hisobiga xodimlar sonini qisqartirishga harakat qiladilar.

Eng halokatli – davriy ishsizlik yuqorida ta'kidlanganidek, iqtisodiyot rivojlanishining davriy xususiyati, ya'ni bozor iqtisodiyotining tub mohiyati bilan bog'liq ekanligi ko'rsatib o'tilgan edi.

Ishsizlikning xo'jalik yuritish bozor tizimi bilan ichki bog'liqligiga qaramay, davlat ishsizlik va u keltirib chiqaradigan yo'qotishlarga qarshi choralarni ko'rmoqda va ularning usullarini takomillashtirib bormoqda.


Pigu va uning izdoshlari ish haqining pasayishiga ishsizlikka qarshi ko'rashning asosiy usuli, deb qarashgan.

Ishsizlikka qarshi ko'rashning keynsiancha usullari ijtimoiy ishlarning tashkil etilishiga budget xarajatlarini ko'paytirishdan iborat edi. Bu qisqa davrda, ishlab chiqarishdagi tushkunlik endigina ko'zga tashlana boshlagan, ishsizlik hali avj olmagan davrga mos edi. Ishsizlikka qarshi ko'rash keynsiancha usullarining strategik jihatlari talabni jonlantirishga qodir: investitsiya jarayonlarini faollashtiradigan, bu demak, iste'mol talabini ham faollashtiradigan, tovarlarni xarid qilishga davlat buyurtmasining ko'payishiga olib keladigan chora-tadbirlarni amalga oshirishdan iboratdir. XX asrning 70 - yillaridagi surunkali tanazzul sharoitlarida ishlab chiqarishning tushkunligi va ishsizlikning ko'payishi monetaristik nazariyaning shakllanishiga olib keldi. Bu nazariyaning tarafdorlari davlat xarajatlarini, ijtimoiy to'lovlarni keskin qisqartirishni tanazzulni pasaytirishning, barcha muammolarini hal etishning asosiy usuli, deb hisoblashardi. Monetaristlar foizning hisob-kitob stavkasini

ko'paytirishni, bozorda faqat baquvvat ishlab chiqaruvchilarni qoldirib, kreditni qimmatga tushadigan va olishni qiyin qilib qo'yishni tavsiya etishgandi.

Angliya hukumatidagi Keynsning izdoshlari ishsizlik va inflyatsiyaga qarshi ko'rashning iqtisodiy siyosatini ishlab chiqish vaqtida «Fillips egri chizig'i»dan foydalanishga o'rinishgan.

Ingliz iqtisodchisi Fillips 1958 yilda «Buyuk Britaniyada ishsizlik va ish haqini o'lchash darajasi o'rtasidagi nisbat», deb nomlangan birgina maqolani e'lon qilgan. Shu iqtisodchi taxminan 100 yil (1862–1957) mobaynidagi ish haqi va ishsizlik haqidagi daliliy ma'lumotlarni birlashtirib, ana shu o'zgaruvchan miqdorlar o'rtasidagi teskari proporsional bog'liqlik mavjudligini aniqladi. Ma'lum bo'lishicha, nominal ish haqining o'sish sur'atlari past bo'lgan vaqtda ishsizlik ko'rsatkichlari yuqori bular ekan. Ish haqi o'sgani sayin ishsizlik kamayib boradi.



**39.2 - chizma. Fillips egri chizig'i.**

Fillips o'zi kashf etgan qonuniyatga ehtiyotkorlik bilan yondashish zarur, deb ogohlantirgan edi, sababi mazkur o'zaro aloqada inflyatsiya jarayonlarining notekisligi yoki mehnat unumdorligi o'sishining ko'rsatkichlari o'z aksini topmagan edi. Angliya hukumati Fillips egri chizig'idan foydalanib, inflyatsiyaga qarshi siyosatini ishlab chiqishga o'rindi. Ana shu maqsadlarda koordinata o'qi bo'ylab Fillipsdagi kabi ish haqi stavkalari emas, inflyatsiya ko'rsatkichlari, ya'ni tovarlar va xizmatlar narxining o'sishi qo'yib chiqildi (39.2-chizma).

Ishsizlikni inflyatsiya bilan birlashtiruvchi inflyatsiya hodisasi XX asrning 70-yillarida barcha mamlakatlarda kashf etildi va doimiy xarakter kasb etdi.

Har bir mamlakat o'z ijtimoiy - iqtisodiy siyosatini ishlab chiqishga

intiladi: ishsizlarni himoya qilish bo'yicha ijtimoiy dasturlar qabul qilinadi, aholi daromadlarini indeksatsiya qilish amalga oshiriladi va hokazo tadbirlar ko'riladi.

### **Qisqacha xulosa**

Ushbu bobda ko'rib chiqilgan aholining ishga yaroqli bo'lgan qismi, ya'ni ishchi kuchini hosil qilishdir. Uning ish bilan bandligini hamda har qanday jamiyatda sodir bo'ladigan ishsizlik ko'rib chiqildi.

### **Asosiy tayanch so'zlar**

Aholi.  
Nufuz qonuni.  
Ishchi kuchi.  
Mehnat bozori.  
Bandlik.  
Ishsizlik.

### **Mavzuning namunaviy savollari**

1. Aholishunoslik deganda nimani tushunamiz?
2. Yalpi ishchi kuchi tushunchasi.
3. Bandlik va ishsizlik hamda ularning iqtisodiy mazmuni.

### **Seminar darslarda muhokama qilish uchun savollar**

1. Aholishunoslik va yalpi ishchi kuchini takror hosil qilinish.
2. Yalpi ishchi kuchi tushunchasi.
3. Bandlik va ishsizlik ularning farqini gapirib bering.

### **Mustaqil ta'lim uchun savollar**

1. Aholishunoslik – demografiya tushunchalari.
2. Yalpi ishchi kuchini takror hosil qilish.
3. Bandlik va ishsizlikning mazmuni.

## **40 BOB. MILLIY - IJTIMOYIY TAKROR ISHLAB CHIQRISH. MILLIY - IJTIMOYIY ISHLAB CHIQRISHNING MAZMUNI VA MUTANOSIBLIK**

Milliy takror ishlab chiqarish – bu ishlab chiqarish, uning takror natijalari, mutanosib shakl va munosabatlarining birgalikda doimo yangilanib va takrorlanib turishidir. Takror ishlab chiqarish jarayonida mohiyati ijtimoiy mahsulot va insonlarning dunyoqarashi aylanma daromad, xarajatlar ham doimo yangilanib turadi, yakka tartibdagi takror ishlab chiqarish va firmalar, uy xo‘jaligi o‘rtasidagi bog‘liqlik iqtisodiy mutanosiblik va iqtisodiy jarayon hamda sub‘ektlar o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlar ham yangilanib turadi.

Jamiyat hech qachon talabni kamaytirmaydi va izma-iz takror ishlab chiqarish – doimiy va to‘xtamas talabning shartlarini bajarib turadi. Va ular oddiy, kengaytirilgan va toraytirilgan takror ishlab chiqarish, deb farqlanadi. Oddiy takror ishlab chiqarish – bu ishlab chiqarish va iste‘mol qilishda yangilanish oldingi masshtabdagi talab degani. Kengaytirilgan takror ishlab chiqarish – ishlab chiqarish mahsulotining va iste‘mol ko‘paytirish hajmini mo‘ljallaydi. Qoraytirilgan takror ishlab chiqarish yoki iste‘mol kamaytirilgan hajmda, talabda takror ishlab chiqarish ma‘lum qisqa muddatda yo‘lga qo‘yilishi (masalan, krizis davrida) mumkin, agar bu jarayon uzoq cho‘zilsa, mamlakat imkoniyat darajasini izdan chiqarishi, xalq turmush tarzining yomonlashuviga olib kelishi mumkin. Iqtisod uchun eng o‘ziga xosi – bu kengaytirilgan takror ishlab chiqarishdir. Faqat mana shu ishlab chiqarish – ehtiyojni uzaytiradi, ishlab chiqarishning mukammallashishi uchun zamin tayyorlaydi, yangi texnologiyani qo‘llanishini jamiyatning, sotsial va iqtisodiy muammolarini yechishni yo‘lga qo‘yadi.

Takror ishlab chiqarishning xarakterli xususiyatlaridan biri, uning o‘zgarish xususiyatini vaqti-vaqti bilan tahlil qilib turishdir. Iqtisodiyotda kengaytirilgan ishlab chiqarishning o‘zgaruvchan xakteri to‘laligicha olib qarasa, o‘ziga xos tomonlari anchagina: jumladan, ishlab chiqarishning va iste‘molning o‘suvchan davri yoki pasayishi krizis bilan bog‘lanib ketadi.

Buning hammasi takror ishlab chiqarishning to‘lqinsimon tabiat yoki oddiy kengaytirilgan va toraytirilgan takror ishlab chiqarishning o‘zgarish xususiyatlari haqida gapirishni taqozo etadi.

Takror ishlab chiqarishning turli xil to‘lqinsimon harakatlari mavjud. Iqtisodiyot tez-tez davriy tebranishlarga duchor bo‘lib turadi. Iqtisodiyot davriyligi doimiy mavjud bo‘ladigan jarayon sifatida XIX asrda paydo bo‘lgan. Ishlab chiqarishning 8–10 yillik davriy pasayishi, uning salbiy o‘sishi so‘ngra yuksalishi maxsus tekshiruvda bo‘lishini va iqtisodiyot fanining izlanishlar olib borishini taqozo qiladi. Iqtisodiyot rivojlanish davriyligining



mavjudligi kapitalizmning ziddiyatligi va asosiy kapitalning yangilanishi bilan bog‘liq bo‘ldi (K.Marks; umumiy talabning tebranishi multiplikator bilan akseleratorning o‘ziga xos qo‘shilishi (P.Samuelson - D.Xiks); pul talvasasi bilan (D.Xiks) siyosiy jarayonlarning, masalan, saylovlar bilan bog‘liq tebranish; iqtisodiy siyosat xatolarining takrorlanib turishi va h.k. Kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning uzoqqa cho‘zilishining to‘lqinsimonsimon tebranishi yoki iqtisodiy ahvolning davriyligi yana boiqa xarakter kasb etadi. Bularning asosida iqtisodiyotda uzoq muddatli o‘zgarishlarni aniqlovchi omillar etadi. N.D.Kondratevning «Iqtisodiy faollikning uzun to‘lqinlari» nomli tadqiqoti iqtisodiyotning yangi texnologik tamoyillariga o‘z bog‘liqligini ko‘rsatadi. Iqtisodiyot tarixida xuddi shunday o‘zgarishlarni yuzaga keltiruvchi shakl va shunday o‘zgarishlarni chaqiruvchi ko‘pi aniqlangan. Xuddi shunday notekisliklarni iqtisodiyotda tugirlashda ogoxdantiruvchi ahamiyatni kasb etuvchi – bu iqtisodni davlat tomonidan boshqarilishidir.

Iqtisodiyotning alohida olingan tarkibiy qismlarida sodir bo‘ladigan jarayonlar, milliy takror ishlab chiqarish nazariyasini o‘rganuvchi sabab bo‘lib xizmat qilmaydi. Bu jarayonlar xalq xo‘jaligining muammolarini o‘rganish nuqtai nazar sifatida qabul qilindi. Firma va uy xo‘jaligiga taalluqli iqtisodiy darajalarning individual jihatlari va shularga kiruvchi mexanizmlar takror ishlab chiqarishning muhim jihatlari va shularga kiruvchi mexanizmlar takror ishlab chiqarishning muhim jihatlari ham yuqorida aytilgan fikrlar qatoriga kiradi.

Agar makroiqtisodiyot iqtisodiyot sub’ektlari o‘rtasidagi pul harakati va moliya resurslarini tahlil qilar ekan, iqtisodiyotning moddiy tuzilishini to‘g‘ridan - to‘g‘ri o‘rganmaydi, chunki milliy ijtimoiy takror ishlab chiqarish nazariyasining diqqat markazida mutanosibli, muammolari natural - moddiy va tomonlar qiymati birgalikda turadi. Bu prinsipiiallik xalq xo‘jaligida, biron davrni ko‘rib chiqishda, mutanosiblikni tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy takror ishlab chiqarish nazariyasi resurslarni tarmoqlar qanday taqsimlash xalq xo‘jaligining setorlar yoki bo‘limlari orqasida va bu taqsimlashlar pul yoki moliya oqimi orqali qo‘shib tarqatiladimi, shularni birinchi o‘ringa qo‘yadilar.

Milliy ijtimoiy takror ishlab chiqarish iqtisodiy o‘sish omillarini va manbalarini iqtisodiyot tarmoqlarining ahvoli, tashqi iqtisodiy aloqalar investitsiyasi va iqtisodiyotning boshqa muammolarini nafaqat shu davlatning ixtiyoridagi cheklangan resurslarni qo‘llash, iqtisodiyotga foyda keltirish nuqtai nazaridan, balki hamda iqtisodiyotga ko‘proq keng yondashuvlar bilan qo‘shib ko‘rib chiqadi. Asosan, milliy iqtisodiyotning muhim jihatlarni ko‘rib

chiqishda iqtisodiyotning samarali o'sishi va iqtisodiy rivojlanishning ichki manbalarning shakllanish jihatlari bilan foydaning o'rtasidagi keskin bog'liqlik mavjudki hamda milliy iqtisodiyotning mamlakat iqtisodiy xavfsizligini, iqtisodiy rivojlanishni va taraqqiyotini ta'minlashdagi o'rni asosan muhim hisoblanadi.

#### **40.1. Milliy takror ishlab chiqarish natijalari**

Milliy-iqtisodiy takror ishlab chiqarish murakkab iqtisodiy tizimdir. Shunga muvofiq buning natijalari bir yoki bir necha ko'rsatkichlar bilan aniqlanmaydi. Milliy takror ishlab chiqarish natijalariga – mahsulot, doimiy bandlik inflyatsiyalar kabi makroiqtisodiyot ko'rsatkichlarining o'sishi darajasinigina ko'rsatib bo'lmaydi, balki takror ishlab chiqarishning barcha ko'rsatkichlar o'zgarishi kiradi.

Ushbu natijalar tizimida, birinchidan, **ijtimoiy mahsulotlarning ko'rsatkichlari** ajratiladi. Milliy takror ishlab chiqarishda ijtimoiy mahsulot shakli tizimda xarakterlanadi, bu tizim: yalpi milliy mahsulot (YaMM); yalpi ichki mahsulot (YaIM); sof milliy mahsulot (SMM); jamiyatning turli daromad shakli (milliy daromad, shaxsiy daromad v.h.k.)ni o'z ichiga oladi. Hisob - kitob tarmoqlararo balansga yana ikki mahsulot shakli ajratiladi – mahsulotlar aro va yakuniy ijtimoiy mahsulot, umumiy (yalpi) ijtimoiy mahsulot summasiga kiruvchi ijtimoiy mahsulot yoki barcha korxonalar summasiga kiruvchi mahsulotlar.

Zamonaviy statistika shuni ham hisobga oldiki, tarmoqlararo iste'mol materiallari va xom ashyo aylanmasini bildiruvchilar qayta hisob - kitobga kiradi va shu ma'noda bular ijtimoiy jamoat hisobiga buysunmaydi. Pirovard mahsulotni qayta ishlashda iste'mol qiymatidagi so'nggi summa hisoblanadi, bu ichki yalpi iste'mol mahsulotiga kirib, jamiyatning talablarini qondiradi. Mahsulotning paydo bo'lish nuqtai nazaridan pirovard mahsulot barcha tarmoqlarning qo'shilgan qiymat summasiga tengdir.

Statistika metodologik tamoyillari sobiq sotsialistik mamlakatlarda moddiy ishlab chiqarish qarashlaridan kelib chiqadi va mahsulotning boshlang'ich shakli o'rni hamma korxonalar mahsulotining summasi sifatida umumiy ijtimoiy mahsulotni ko'rib chiqishgan. Boshqa yana bir shakli moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarida yangi paydo bo'lgan qiymat summasi sifatida jamiyatning milliy daromadi hisobga olingan.

**Ikkinchidan**, shuni ta'kidlash kerakki, yillik va milliy takror ishlab chiqarishning ko'p yillik yig'ilib kelgan natijalariga ahamiyat qilingan. Hozirgi paytda ishlab chiqarish rivojiga va turmish tarziga ko'p yillik natijalar ta'siri ko'proqdir. Bu o'z-o'zidan bo'lmagan albatta, mahsulot hajmi bir yil

davomida faqat o'sha davrda ishlab chiqilgan iste'molchilar ne'matlari bilan belgilanmaydi, balki oldin mavjud bo'lganlar (shaxsiy mulk asosiy jamg'armalar) ham hisobga olinadi. Ishlab chiqarish samaradorligi, o'sishi to'g'ridan - to'g'ri ma'lumotli qatlamga ham bog'liqdir, ular jamiyatning ilmiy salohiyati hisoblanishadi. Mana shuning uchun ham takror ishlab chiqarishda ko'p yillik tajriba natijalariga alohida ahamiyat qaratishadi.

**Uchinchi**dan, iqtisodiyot tizimi jamiyatning sotsial jihatdan oyoqqa turishini, rivojlanishini ta'minlashi kerak, bu esa, mulkulchilik va **sotsial rivojlanish fuqarolarning iqtisodiy va sotsial ahvolini**, ularning jamiyatdagi o'rni - e'tiborini bildiradi. Ushbu ko'rsatgichlar tizimi yalpi ichki mahsulotning milliy daromadning qo'llanilishini uy - joy xo'jaligida aniq, yaxshi natijalarga olib keladi. Milliy takror ishlab chiqarishda faqatgina bu iqtisodiy ko'rsatgichlar bilangina chegaralanib qolmaydi, balki yuqorida aytib o'tganimizdek insoniyat taraqqiyotiga taalluqli barcha jarayonlar e'tibordan qolmasligi kerak.

#### **40.2. Ijtimoiy takror ishlab chiqarishning asosiy muammolari**

Mamlakat iqtisodiyoti ijtimoiy mehnat ta'minotining rivojlangan tizimi sharoitida mavjuddir, ishlab chiqarish va ta'minot o'rtasidagi bog'liqlik har bir iqtisodning boshlang'ich va umum bog'lovchisi hisoblanadi. Bu tushunarli bo'lmasayam, ta'minot bilan hammasi tugaganida, ishlab chiqarishning ma'nosi bo'lmasdi. Shunday nazar solsangiz ishlab chiqarish birgina ishlab chiqarish bo'lib tuyuladi, agar u ta'minlanib tursa, ishlab chiqarish ta'minoti vujudga keladi. Takror ishlab chiqarishning individual tarmoqlarida ishlab chiqaruvchini qoniqtirishi kerak emas, balki ijtimoiy ta'minotni, boshqa tarmoqlar ta'minotini ham qoniqtirish kerak. Lekin bu ishlarning hammasi sifatli bo'lishi talab qilinadi, hamda iste'mol qiymatining belgilangan turlari mavjud bo'lishi, hajm jihatidan ham yetarli, unga ketadigan xarajatlar ijtimoiy zaruratga javob berishi, mahsulot hajmi esa, olinadigan daromadga mos kelishi kerak. Bu muammoga ehtiyoj nuqtai nazari bilan qaralsa, takror ishlab chiqarishning qo'shib ketishi jihatidan umumiyligi doimiy bir muammoni keltirib chiqaradi, ya'ni tez o'suvchanligi bilan ma'lum bo'lgan ehtiyoj aishlab chiqarish o'rtasidagi muvofiqlikni qanday ta'minlash muammosi turadi.

Shunday qilib, **mutanosiblik muammosi** ishlab chiqarish bilan ehtiyoj o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlash, hajm va ishlab chiqarish tizimi o'rtasidagi muammo bir taraf bo'lsa, jamiyatdagi daromad bilan xarajat boshqa tarafdin har qanday xo'jalikning, har qanday iqtisodiyot muammosi hisoblanadi. Agar takror ishlab chiqarishning tarixiga yondashsak bu muammoning turli xil

turlanishlarining guvohi bo‘lamiz, ularning hammasi faqatgina xalq xo‘jaligi nuqtai nazaridan qaralmasdan, balki xalq ehtiyoji ham hisobga olingan.

Bozor iqtisodiyoti davrida ushbu muammo ijtimoiy mahsulotlarni sotish muammosi bo‘lib shakllanadi, chunki bunday paytda takror ishlab chiqarishda mutanosiblik yuzaga kelishi va natural formada emas, balki qiymatga ham katta ahamiyat beriladi. Bu muammo real bozor iqtisodi xo‘jaligida umumiy talab va jamiyatning umumiy taklifi tarzida paydo bo‘ladi. Bu mutanosiblik faqatgina hajm jihatidan emas, balki tizim jihatidan mutanosiblikni saklashi kerak.

Mahsulotni sotish muammosi makroiqtisodiy siyosat yo‘li bilan amalga oshiriladi: aniq ijtimoiy mahsulotning o‘shishi, ish bilan ta‘minlanganlikning yuqori darajasi va eksport - import muvozanati shular jumlasidandir.

Shunday savol tug‘iladi: yuqorida aytib o‘tilgan yo‘llarning taqsimot muammosi qanday o‘zaro munosabatga ega? Ushbu savolga javob berishdan oldin takror ishlab chiqarishning asosiy muammolarini bir - bir ko‘rib chiqish kerak. Agar buni iqtisodiy munosabatlarning aniq doirasi miqyosida ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, unda makroiqtisodiyot bor bo‘yiga tarkibiy qismlarga ajralib ketadi. Xullas, umumiy takliflar mahsulot va iqtisodiyotning turli tarmoqlari ko‘rsatgan xizmatlar tarzida, bahoning umumiy darajasiga va ishlab chiqarish imkoniyatlariga qarab namoyon bo‘ladi. Umumiy talab, nazarda tutilgan ehtiyoj bozor iqtisodiyoti davrida ishlab chiqaruvchi va ehtiyojmandlardan tushuvchi daromad shaklida paydo bo‘ladi. Tizim va yalpi talabning kattaligi bahoga, aholi daromadiga, soliq va boshqa omillarga bog‘liqdir.

Umumiy talabning hisob - kitobini to‘g‘rilamoq va umumiy taklif agar iqtisodiyotda takror ishlab chiqarishda hamma faktorlardan foydalanish mumkin bo‘lsa, xalq xo‘jaligi tarmog‘i ta‘minlab tursa va ish joylari ta‘minlangan bo‘lsa yuqori darajalarga yetish mumkin. Buning uchun baho qiymati hamda bozor iqtisodiyoti pul - krediti barqaror (stabil) bo‘lishi ko‘zda tutiladi. Bozor iqtisodiyoti davrida u yo bu muammolarni barcha sohada stabil holatni vujudga keltirishda hammasini muvofiqlashtirib turuvchi davlat siyosati muhim rol o‘ynaydi.

### **40.3. Ijtimoiy takror ishlab chiqarishning davriyligi**

Agar ijtimoiy mahsulot doimo takror ishlab chiqqilaversa, jamiyat boylikka ega bo‘ladi va aholining to‘xtovsiz talabini ham qondirib boradi. Takror izlab chiqarishning to‘xtamasligi bu – to‘xtovsiz jamiyatning hayot sharoitini e‘tibordan qoldirmaslikdir.

Milliy takror ishlab chiqarishning davriyligini **ijtimoiy mahsulotning takror ishlab chiqarilishi va milliy boylik birligi tashkil etdi.**

Ijtimoiy mahsulot va milliy boylik – boshqa-boshqadir, lekin ularni bog‘lab turadigan narsa ishlab chiqarish jarayonidir. Chetdan qaraganda chiqarilayotgan mahsulot to‘lqinsimoni va milliy boylik o‘rtasidagi ajrimlik bo‘lib namoyon bo‘ladi. Boylik doimo vaqti kelganda aniqlanadi, mahsulot esa, vaqtdan oldin tayyor bo‘lishi kerak. Takror ishlab chiqarish jarayonida bir-biridan farqlanadigan boshqa farqlar ham mavjud. Mahsulot ishlab chiqariladi va talab-ehtiyojlarga tarqalib ketadi, boylik esa iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida band etilgan. Mahsulot – to‘g‘ri natija, boylik – vositadir. Eng so‘nggi manba bo‘lib mahsulot xizmat qiladi. Mahsulot har safar ishlab chiqarishni tark etib tursa, boylik xom ashyo, mehnat ashyolari shaklida qoladi. Boylik jamiyatning barcha jabhalarida uchraydi. Milliy boylik bir vaqtning o‘zida natija hamda keyingi jarayon uchun datlabki shart bo‘lib xizmat qildi. Ishlab chiqarishning dastlabki sharti faqat to‘plangan boylik hisoblanmay, balki jamiyat hisobiga kiruvchi boshqa tabiiy va boshqa resurslar ham nazarda tutiladi.

**Milliy boylik** – bu jamiyatda moddiy va nomoddiy ne‘matlar zaxirasiga ega bo‘lish, ijtimoiy takror ishlab chiqarish va talabni qondirishdir. Takror ishlab chiqarishda milliy boyliklarning doimiy ajralib turmasligining ob‘ektiv sababi uning takror ishlab chiqarishning turli jabhalarida doimiy bandligi. **Birinchidan**, mehnat qurollarining uzoq muddat xizmat qilishi nomoddiy ishlab chiqarishga mo‘ljallangan narsalar (aholiga uzoq muddat xizmat qiladigan narsalar, uy - joy binolari va h.k.) doimo yig‘ilib borib, keyinchalik takror ishlab chiqarishning turli jabhalarida, ishlab chiqarishning uzluksizligini ta‘minlashda va iste‘molda ishtirok etadi. **Ikkinchidan**, kerak narsalarning mavjudlik zaxirasi mavsumiy mahsulotlar ishlab chiqarishda kerak bo‘ladi (masalan, qishloq xo‘jaligida) va boshqa tarmoqlarning doimiy davriyligini ta‘minlovchi mahsulotlarni ishlab chiqarishda zarurdir. **Uchinchidan**, ishlab chiqarilgan mahsulotlar talab - ehtiyojga qarab ishlab chiqarishdan tushadi va zaxiraning mavjudligi mahsulotning to‘xtovsiz harakatini ta‘minlaydi. Va nihoyat, yig‘ilib qolgan zaxiralar favqulotda kutulmagan buzilishlar takror ishlab chiqarish jarayonlariniigme‘yoriy holatini ta‘minlashda zarur va takror ishlab chiqarishning uzluksizligi uchun ham xizmat qiladi. Milliy boylikka quyidagi asosiy qismlar kiradi: moddiy boylik va nomoddiy boylik.

Jamiyat ixtiyoridagi yig‘ilgan va to‘plangan moddiy boyliklarning ishlab chiqarish vositalari va iste‘mol kreditlari shaklida har bir istalgan vaqtida hisobga olinadi hamda tabiiy resurslar hisoblanadi. Moddiy milliy boyliklar ikki qismdan iborat: mehnat bilan yaratilganlar va takror ishlab chiqish

natijasida bir necha avlodlar bilan jamg'arilgan ijtimoiy boyliklar va tabiiy boyliklarning barcha turi kiradi. Agar milliy boylikning birinchi qismi – bu takror ishlab chiqilgan mehnat boyligi bo'lsa, ikkinchi qismi esa, takror ishlab chiqarilgani mehnat bilan barpo qilinmaydi, takror ishlab chiqarilmaydi.

**Tabiiy boyliklar** mehnat bilan to'planmasa ham ammo iqtisodiy jihatdan boylik bilan ajralmas hisoblanib qayta ishlab chiqarsa bo'ladi. Bu shu bilan tushuntiriladiki, ishlab chiqarishda tabiiy boyliklar element (er, suv, va turli zaxiralar) ijtimoiy mahsulotlarni yaratishga xizmat qiladi va jamiyatda yashovchilarni ta'minlaydi. Biroq tabiiy resurslarning xususiyati shundaki, ular tabiiy mahsulotlar namoyoni, ishlab chiqarishga moyil bo'lmagan tabiat qonunlari va jarayonlarini mahsulidir.

Nomoddiy boyliklar jamiyatning moddiy bo'lmagan, ruxiy boyliklarini o'z ichiga oladi: masalan, fan tarakqiyoti, madaniyat, ma'naviyat, ta'lim - tarbiya, san'at va.h.k. Moddiy va nomoddiy boyliklar ishlab chiqarish jarayonida birlashadilar va bir vaqtning o'zida, ish jarayonida ular mustahkamlanib, boyib boradilar.

Statistik ma'lumotlarda keltirilishicha mamlakatning umumiy iqtisodiy daromadiga kiruvchi va moliya qoidalarida kichraytirilgan qiymati belgilanganlar milliy boylikka taalluqlidir. Iqtisodiy faol hajmiga moliyaviy ishlab chiqarilgan (asosiy jamg'arma, moddiy aylanma ashyolar, qimmatli narsalar) va ishlab chiqarilmagan aktivlar, bundan tashqari moddiy (er, yer osti boyliklari, tabiiy biologik va yer osti suv resurslari) va nomoddiy (kashfiyotlarni qo'llash, shartnomalar hamda moliyaviy aktivlar) (tanga tilla, valyuta, zayyomlar) kiradi. Boyliklar qiymati, moddiy ishlab chiqarilmagan boyliklar aktivlari (tabiiy resurslar) nomoddiy va ninasli aktivlar hozirgi paytda statistik ma'lumotlar tarkibiga kirmaydi.

Takror ishlab chiqarishning uzluksizligi boylik va mahsulot takror ishlab chiqarishning bir butun jarayoni qilib kiritilgan. Takror ishlab chiqarishsiz yoki uning doimiy kamayib borishi natijasida boylik yig'ilmaydi, asosiy fondlar hajmi to'ldirilmaydi, texnik jihatdan yangilanmaydi. Natijada, bir narsalar eskira boradi va oxir-oqibatda buzilib tugaydi. Shunday qilib, ishlab chiqarish kelgusi davrlarda o'zining oldingi holatidan qaytadan kelishi mumkin emas. Boylikning yig'ilishi uchun ijtimoiy mahsulot o'sishi kerak va kelgusida ne'matlarni va xizmatlarni iste'mol qilishi yanada ko'payish yuz beradi.

Bu qonuniyat boylik orttirishning barcha tizimi elementlariga kiradi, jumladan, bu narsa nomoddiy va tabiiy boyliklar uchun ham taalluqlidir. Xuddi moddiy boylik kabi nomoddiy boyliklar ham ma'nan yemirilib boradi. Fan, madaniyat va millatga oid boyliklar ham to'planib borishi kerak. Tabiiy

boyliklarni milliy foydalanishda faqat o'sish nazarda tutilmaydi, balki bu xarajat, foydaning kamayishi xatto, iqtisodiy, sotsial rivojlanishning buzilishi natijasiga ham olib keladi.

Rossiyada inqiroz natijasida takror ishlab chiqarishning milliy boyliklar bilan bog'liq ishlab chiqarish jamg'armalarida va umuman iqtisodiy sohada ahvol ancha yomonlashdi. Ishlab chiqarishda 70% dan ortiq mashinalar 10 yildan ortiq ishlatilgan. Yangi koeffitsiyenti 5,8 foizga qisqardi. Ishlab chiqarish mashinalarining o'rtacha yoshi 16 yoshga yetgan, hatto 32 yoshli mashinalar ham mavjud edi.

Asosiy jamg'armalar ishlab chiqarishdagi yeyilib tugashning 52,4% ni tashkil etadi. Korxonalarining bunday jihozlari bilan yangi, zamonaviy mahsulot chiqarib bo'lmaydi.

Shunday qilib, faqat milliy boyliklarni takror ishlab chiqarish va ijtimoiy mahsulotning uzluksizligi o'rtasidagi birdamlik takror ishlab chiqarish rivojini ta'minlaydi. Bularning buzilishi muqarrar ravishda takror ishlab chiqarishni noqulay oqibatlariga olib keladi.

#### **40.4. Takror ishlab chiqarishning sxema va modellari**

Milliy takror ishlab chiqarish qanday amalga oshishi takror ishlab chiqarishning asosiy nazariyalaridan hisoblangan va hisoblanadi. Bu muammoning maxsus qayta qurilishi shuning uchun ham muhimki, uni tahlil qilish takror ishlab chiqarishning bir butun, yaxlit mexanizmini tushinishga yordam beradi. Takror ishlab chiqarish modeli takror ishlab chiqarish haqida ba'zi bir omillar ta'sirida turli soddalashgan, abstrak tasavvurlar bersa ham eng muhim bog'liqliklarni ko'rsatgichlarda keltirib o'tadi.

Milliy ishlab chiqarishning sxematik tasavvuri masalasi ko'p yillik tarixga ega. Milliy takror ishlab chiqarishning bir qancha ma'lumotlari, o'zaro, prinsipial yondashuvlari mavjud.

Xuddi shuningdek, birinchi tarixiy o'rinish, birinchi tadqiqot Fransua Kene tomonidan amalga oshirilgan edi. U bu muammoni bir soha, deb olib, dehqonchilik haqidagi qabul qilingan qoidalardan kelib chiqib o'zining mashhur «Iqtisodiy jadval», degan ishda jamiyatda takror ishlab chiqarish jarayonida mavjud bo'lgan boshqa asosiy sohalarning o'zaro bog'liqligini yoritib berishga urinib ko'rgan. Bu takror ishlab chiqarishdagi aytsa arzigulik tomonlari haqida tasavvurga ega qiladi. Bu hisob - kitobga daromad harakati va takror ishlab chiqarishda aylanma harakat masalalariga nazariy yondashib, bahorning o'zgarish qiymati, tashqi bozordagi mavhumlashtirish, oddiy takror ishlab chiqarish kabilarni yoritib berdi. U faqat dehqonchilikni tan olib, fermerlarning o'z vaqtida almashishga, qatnashishni organil ravishda ko'rsatib

dehqonchilikka egalik ishlab chiqarish va oddiy takror ishlab chiqarishni shakllantirish qoidalari haqida gapirdi. Shu jadvalga binoan dehqonlar, yer egalari (ishlab chiqaruvchi sinf) o'zlariga kerak bo'lgan ish qurollarini olishadi, xususiyy yer egalari «sof mahsulot», sanoatchilar esa, kerakli xom ashyo va yangi ish yuritish uchun kerakli jihozlar olishi kerak bo'lgan.

Takror ishlab chiqarishning xarakterini yorituvchi keyingi o'rinish 100 yildan keyin K.Marks tomonidan ijtimoiy **takror ishlab chiqarishning** sxemasida amalga oshirilgan. K.Marksning yondashuviga muvofiq ijtimoiy ishlab chiqarish tabiiy shakllarga bo'linadi. I bo'linma – ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqarish, II bo'linma – iste'mol predmetlarini ishlab chiqarish, har bir bo'limda oshirilgan qiymat (s) va yangidan yaratilgan qiymat shaklida bo'yiga ( $v + m$ )  $r$ v– ish haqi va  $m$  – qo'shimcha qiymat.

K.Marksning oddiy takror ishlab chiqarish sxemasi quyidagicha keltiriladi:

$$- 6000 s + 3000 (v + sh) = 9000;$$

$$- 3000 s + 1500 (v + sh) = 4500;$$

Oddiy takror ishlab chiqarish qoidasi bo'yicha takror ishlab chiqarishning : **I** ( $v + m$ ) = **II** s asosiy kridalariga bo'ysunish lozim. Bunday holatda ishlab chiqarishning barcha vositalari I bo'linmada keltirilgan yangidan yaratilgan qiymat, II bo'linma ishlab chiqarishda vositalarning o'rnini qoplashga ketadi. Shu bilan birgalikda, I bo'linma doirasida ishlab chiqarishga ketgan vositalarning o'rnini qoplashga sarflanadi, II bo'linma ham ushbu narsalar o'rnini qoplaydi. Natijada bo'limlarning almashuvi ishlab chiqarish predmetlariga bo'lgan talabni qondiradi.

**Kengaytirilgan takror ishlab chiqarishda** takror ishlab chiqarish qoidalari quyidagicha **I** ( $v + sh$ ) > **Ps**, ya'ni yangi yaratilgan ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqaruvchilar haqi bo'limdagi mavjud ishlab chiqarish vositalariga nisbatan ko'proq bo'lishi kerak.

Takror ishlab chiqarishning balansli modeli K.Marksning sxemasiga tayangan bo'lsa ham, ba'zi bir tomonlari bilan farq qiladi va takror ishlab chiqarishning maxsus bo'lingan modellari sirasiga kiradi. Bu ishlab chiqilgan modellarning ustuvorligi sobiq ittifoq iqtisodiyot faniga taalluqlidir. Balansli usulning foydalanish birinchi xalq xo'jaligi rejalarini ishlash jarayonlarida xalq xo'jaligi balansida takror ishlab chiqarishning balansli modeli o'z samarasini ko'rsatdi. Bu usul o'z jadval tizimi orqali butun ijtimoiy takror ishlab chiqarish imkoniyatlarini to'laligicha ko'rsatdi, bunga albatta, takror ishlab chiqarishning ijtimoiy mahsulotlarini balanslarini, milliy daromadni, mehnat resurslarini, boshqa jadvallarning milliy boyluklari ham qo'shib ko'rsatilgan.



**Tarmoqlararo balans** – takror ishlab chiqarishning xilma - xil balansli modellaridan hisoblanadi. Bu takror ishlab chiqarishning mustaqil sxemasi sifatida ko‘rib chiqiladi. Tarmoqlararo balansning birinchi variant jadvali 1923 –1924 yillarda xalq xo‘jaligi balansi paytida ko‘rib chiqilgan. Keyinchalik tarmoqlararo balans asosida iqtisodiyotni tekshiruvlarida ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etdi. Bu ishning mualliflaridan biri – g‘arbda Vasiliy Leontev hisoblanadi. Bu modelning asosiy belgisi – ishlab chiqarishni tahlil qilish va mahsulotlardan pirovard foydalanishda tarmoqlararo tizim orqali o‘zaro harakatdir.

Bu yerda,  $X_{ts} x_{in}$ –tarmoqning ishlab chiqarishga ketgan xarajati, boshqa tarmoqning mahsuloti;  $Q S_p$  – shaxsiy iste‘mol;  $I$  – investitsiya;  $G$  – davlat sotib olish;  $E$  – sof eksport;  $Y$  – tarmoqning pirovard yakuniy mahsuloti;  $X$  – tarmoqning yalpi mahsuloti;  $A$ –amortizatsiya;  $W$  – ish haqi;  $R$  – foyda;  $VA$  – har bir tarmoqqa ko‘shilgan qiymat.

Tarmoqlararo balans sxemasida (TAB) to‘rtta kvadrant ajratiladi. Shularning uchta asosiy. TAB shunday kelib chiqdiki, har bir tarmoq bir vaqtning o‘zida ham ishlab chiqaruvchi, ham mahsulot iste‘molchisi hisoblanadi. Natijada, xalq xo‘jaligida ishlab chiqarish vositalarining tarmoqlararo oqimlari yuzaga kela boshlaydi, bu oqimlar oraliq mahsulot namayoni bo‘ladi (I kvadrant). Shu bilan birgalikda, har bir tarmoq o‘zining mahsulotini ishlab chiqadi, bu mahsulotlar pirovard iste‘molga ketadi. Barcha tarmoqlar tomonidan pirovard iste‘mol uchun ishlatilgan summa jamiyatning yalpi mahsulotiga xizmat qiladi (II kvadrant). Barcha tarmoqlarning oraliq va pirovard mahsuloti yig‘ilishi yalpi umumiy ijtimoiy mahsulotga teng yoki barcha xalq xo‘jaligidagi korxonalar mahsulotlar summasiga teng.

III kvadrant (TAB) daromadlarni tarmoqlarga taqsimlash bilan shug‘ullanadi.

Bu milliy iqtisodiyotdagi qo‘shilgan qiymat summasini bildiradi. Har bir tarmoqda jamlangan amortizatsiyalashga ish haqi, foydalar hamda bilvosita soliqlar, tarmoqlarda qo‘shilgan qiymatni belgilaydi. Moddiy har bir (vertikaliga I kvadrant) va tarmoqning qo‘shilgan qiymat (vertikaliga III kvadrant) tarmoqning yalpi mahsulotini ko‘rsatadi. Shunday qilib, tarmoqlararo balans modeli tabiiy shaklda iqtisodiyot asosiy proporsiyalar qanday ta‘minlanishini ko‘rsatadi va makroiqtisodiy ko‘rsatgichlarni yuzaga chiqaradi.

**Takror ishlab chiqarishning makroiqtisodiyot modeli**, II yordam qismida ko‘rilgan va boshqa tamoyillardan kelib chiqadi. Takror ishlab chiqarish sxemasidan farqli ularoq, daromadning aylanma oqimi va iqtisodning sub’ektlari orasidagi xarajatlari asosiy diqqat-e‘tiborda turadi.

**Milliy hisoblash tizimi (MXT)** takror ishlab chiqarishning zamonaviy modeli hisoblanadi, u makroiqtisodiyot nazariyasi qoidalariga asoslanadi va BMT tomonidan qabul qilingan xalqaro hisob tizimiga tayanadi. MXT hisobidagi hisob-kitob takror ishlab chiqarish proporsiyalari haqidagi qarashlarni chuqurlashtirishga imkoniyat yaratadi.

#### **40.5. Takror ishlab chiqarishda mutanosiblik**

Iqtisodda mutanosiblik turli-tumandir. Ularning klassifikatsiyalanishi turli mezonlar bilan shakllanadi.

**Birinchidan**, ishlab chiqarish bilan iste'mol o'rtasida umumiy mutanosiblik bo'lishi kerak. Bu mutanosiblik iqtisodda turli xil paydo bo'lish shakllariga ega. Ijtimoiy mahsulot tarkibi – bu ishlab chiqarish vositasi o'rtasidagi mutanosiblik va yil davomidagi xizmatlardir. Bunday mutanosiblik YaMM (yalpi milliy mahsulot) tarkibida ham mavjud va ayniqsa, uy xo'jaliklari ta'minotiga ketadigan qismida davlat korxonalari xarajatida, maxsus tovarlar olish uchun mo'ljallangan, nokommersiya tashkilotlari taqsimotida, uy xo'jaligiga xizmat qilishda, xullas, yalpi jamg'arishga mo'ljallangan narsalarda mavjuddir.

Qoplash va jamg'arish orasidagi mutanosiblik umumiy takror ishlab chiqarishning muhim mutanosibligi hisoblanadi, bu mahsulotning ma'lum qismini bildiradi, bular iste'mol kdlish asosiy fondlarni qoplashga, uy jihozlari va boshqa har xil shakldagi jamg'armalarni yig'ishga yo'naltirilgan.

**Ikkinchidan**, bu mutanosiblik iqtisodning **soha** va **sektori** o'rtasidagi mutanosiblikdir. Bu mutanosiblikning yalpi mahsulotdagi ifodasi tovar va xizmatlar mutanosibligini kasb etadi. Xizmat ko'rsatish tizimi o'zgardir, ayniqsa, moliya, kredit, sug'urta sohalari o'sdi. Sotsial sohada ham o'zgarishlar bo'ldi: ta'lim sohasi, madaniyat, sog'liqni saklash, uy-joy xo'jaligi fuqarolarning hayotini yaxshilovchi xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlari ham shular jumlasiga kiradi.

Xohlagan davlatning iqtisodiyotda tarmoqlararo sektorlarning alohida ajralishi muhim ahamiyatga ega. Bunda turli xil klassifikatsiyalar bo'lishi mumkin. Pirovard mahsulot ishlab chiqarishda tarmoqlarning bosqichma-bosqichligi nuqtai nazaridan komplekslarning qismga ajratilishini aytish mumkin. Issiqlik energetika, agrar-sanoat komplekslarini, investitsiya kompleksini, iste'molga mo'ljallangan narsalarni ishlab chiqish komplekslarini aytib o'tish mumkin. Bu komplekslarning chegarasi aniqlangan, ular o'zaro kesishadilar. Ularni tahlil qilish milliy iqtisodiyot tizimlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Uchinidan,** iqtisodiyotda takror ishlab chiqaruvchi vazifani bajaradigan ijtimoiy mahsulot qismlari orasidagi munosabatlar – maxsus mutanosib guruhlardir. Shunday mutanosibliklar sirasiga kiruvchi yalpi milliy mahsulotlarning oraliq elementlari o‘zaro munosabatini misol keltirish mumkin. Bunday mutanosibliklarni tahlil qilish takror ishlab chiqarish jarayoni haqida boy ma’lumotlar beradi.

Mutanosiblikning asosiy guruhi – bu xalq xo‘jaligi tarmoqlararo mutanosiblikdir, bular xalq xo‘jaligining asosiy tizimini tashkil etadi, iqtisodiyot zvenolarini birlashtiradi, ya’ni ular texnologik jihatdan, mahsulotning o‘xshashligi jihatidan bir-biriga o‘xshashdir.

#### **40.6. Iqtisodiy o‘shishning mutanosiblik o‘zgarishi xususiyati**

Sobiq sotsializm davlatchiligida o‘ziga xos ko‘rinishga ega bo‘lgan mutanosiblik shakllangan va bu qator bir-biriga o‘zaro qarama-qarshi faktorlarni kelib chiqishiga sabab bo‘lgan.

**Birinchi.** Bu omillar mamlakatning industrial markazlashgan yo‘l bilan rivojlanib, resurslarni to‘plashi, sanoatning rivojlanishida ishlab chiqarish jamg‘armalarining yig‘ilib borishi natijada sobiq ittifoqda kuchli industrial baza vujudga kelgan edi, lekin bu bazalarda barcha ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqarish tarmoqlarning juda katta ulushi bo‘lgan.

**Ikkinchi.** Xalq xo‘jaligining oyoqda turishida issiqlik energetikasiga bo‘lgan ehtiyoj kuchayishi sababli soha rivojlandi va mamlakatning o‘z issiqlik energetika bazasi vujudga keldi, natijada, boshqa hamkor bo‘lgan davlatlariga foydalanish uchun ko‘mak berish darajasi ham o‘sd. Issiqlik tarmoqlaridan, xom ashyo shaklida iqtisodiy yopiq sobiq sovet davlatidan chiqadigan mahsulotlar hisobiga valyuta to‘plana boshladi. Natijada, og‘ir sanoat rivojlanib xalq xo‘jalik sanoat tizimini o‘zgartirib yubordi. Issiqlik energetikasi 1990 yilda butun kapital jamg‘armasining 12,8 foizini, issiqlik energetikasi va boshqa xom ashyo tayyorlash bilan bog‘liq tashkilotlarda esa, 50% kapital to‘plandi.

**Uchinchi.** Xalq xo‘jaligida defarmatsiya mavjud bo‘lib, xalq xo‘jaligi tizimida harbiy-sanoat kompleks rivojlangan, ya’ni mamlakatning 50% dan ortiq mashina qurilishi ana shu harbiy sanoatga taalluqli edi. Mahsulot xarakteri jihatidan va boshqa omillarni hisobga olib aytadigan bo‘lsak, ishlab chiqarishning sanoat tizimi xalq xo‘jaligining tayanchi edi.

**To‘rtinchi.** Xalq xo‘jaligining o‘zgarishiga duchor bo‘lishi ishlab chiqarish vositalarining yetarlicha baholanmasligi bo‘ldi, asosiy e’tibor xalq xo‘jaligidagi jamg‘arma bo‘ldi. Yalpi kapital jamg‘armada asosiy vositalarning o‘rnini qoplash doimo pasayib bordi, bu esa, iqtisodiyotni ikki

sektorga bo'lishga olib keldi – barcha mablag' eski tartibda yangi texnologiyali tashkilotlar barpo etishga sarflandi. Natijada, murakkab texnologik tizim vujudga keldi – katta solishtirma og'irlikka ega bo'lgan, eskirgan texnologiya va ishlab chiqarish vositalari yo'q qilindi.

Ushbu tizimli natijasida takror ishlab chiqarish va iqtisodiyot tizimining ko'zga tashlanadigan xususiyati, bu – iqtisodiy foydaning kamayib ketishi, miqdorning oshishi va iqtisodiy rivojlanishda intensivlik kamayib ketdi. Shu kabi 80 yillarda iqtisodiy rivojlanish susayibgina qolmay, balki 90 yillarning boshlariga kelib iqtisodiyot krizisga uchradi, bu albatga, kutulmagan siyosiy qarorlarning natijasi edi. O'z-o'zidan ma'lum bo'ldiki, xalq xo'jaligining tizimini o'zgartirmay turib, foyda olish foizini o'stirib bo'lmay qoldi.

Takror ishlab chiqarish mutanosibligini yuzaga keltirish va xalq xo'jaligi tizimini o'zgaritirish juda ham murakkab jarayon. Buning uchun uzoq investitsion davr va uncha-muncha kapital jamg'armasi kerak bo'ladi, bu esa ozgina vaqt ichida amalga oshmaydi. Iqtisodiyotning o'tish davrida har qanday iqtisodiy siyosat krizisga olib kelishi mumkin, faqat inersiyagina buni saqlab qolishi mumkin. O'zbekiston iqtisodiyoti ham boshqa strukturalarning krizisi bilan yonma-yon bo'ldi, tizimlarda, omillarda murakkablashgan qayta qurish boshlandi – SEV va sobiq ittifoq tarqalib ketdi. Bu esa, yana ham krizisning kuchayishiga sabab bo'ldi.

Takror ishlab chiqarish mutanosibligining buzilishi va xalq xo'jaligi tizimi o'zgarishlari 2000 yilgacha ishlab chiqarishning to'xtovsiz pasayishi, yalpi ichki mahsulot va iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari mahsulotlari kamayishi sharoitida sodir bo'ldi. Bu sharoitda siyosatning foyda olish tizimi ishlab chiqilmagan edi. Milliy siyosatning bu ko'rinishida sanoat sohasiga umuman e'tibor kamayib ketgandi. Iqtisodiyotga e'tiborning susayganligi sharoitida ochiqchasiga ura-urachilik bilan ish qilindi, natijada, takror ishlab chiqarishning mutanosibligi buzildi va hatto, xalq xo'jaligi tizimi ishdan chiqdi.

Xalq xo'jaligi tizimida «og'irlashish» sodir bo'ldi. Issiqlik energiyasi sohasida boshidanoq tashqi savdo va bahoga ko'ngilchanlik bilan qaraldi. Inflyatsiyaga nisbatan issiqlik xom ashyo mahsulotlari narxi balandlashdi, valyutaga mahsulot chiqarishdan ko'proq foyda kelganligi sababli so'mga e'tibor kamaydi. Bir vaqtning o'zida qayta ishlovchi sanoat va qishloq xo'jaligida ahvol yomonlashdi, natijada, import kirib kela boshlab, ichkarida mahsulot ketishi qiyinlashdi. Natijada issiqlik energetikasi kompleksi import hisobidan buyurtmalarni bajaradigan bo'ldi. Davlat foyda budjeti esa, soliqlar hisobiga o'sib bordi. Natijada, iqtisodiy o'sishning mutanosibligi tizimining asosiy disbalanslari vujudga keldi.

Bunday pasayish ancha noteks davom etdi va bunga kamroq duchor bo'lgan sohalar issiqlik - energetikasi hamda rangli metallurgiya bo'ldi. 1994 yilga kelib o'sish kuzatila boshlandi. Yana sanoat bo'yicha o'rtachadan sustroq pasayish qora metallurgiya, kimyo va neft sanoatida sodir bo'ldi, bu yerda o'rtachadan balandroq natijalar mahsulot ishlash bo'yicha kuzatila boshlandi. Bu tarmoqlarning hammasi ham o'sish davrida mo'ljalni eksport uchun olishgandi. Ichki bozorga mo'ljal qilgan sohalar asosan, pastga tushib ketishdi, faqat bu oziq - ovqat sanoatida unchalik kuzatilmadi. Har doim ko'proq mahsulot chiqaradigan tarmoqlar darajasi ancha susayib ketdi.

Shunday qilib, ishlab chiqarish hom ashyosi, mahsulotlararo va yakuniy mahsulot o'rtasida mutanosiblik o'zgardi, sanoat ishlab chiqarish tizimida «og'ir ahvol» vujudga keldi.

Shularga muvofiq issiqlik-quvvati kompleksi hisobi oshib, investitsiya komplekslari va mashinasozlik hisobi pasayib bordi.

**Jamg'arish qisqarish bilan zararni koplash jarayoni sekinlashdi.** Islohotlar davrida ma'lumotlari jihatida noxush bo'lgan ikkita takror ishlab chiqarish jarayoni bir-biriga o'xshash bo'ldi.

Yuqorida aytilgandek, jamg'arilgan boylikning o'rnini qoplab turish oldingi ishlab chiqarish hajmini saklab qolish uchun xizmat qiladi. Eng ko'zga tashlanarlisi, islohotlar davrida resurslar kamaydi, normativ muddatini o'tgan jamg'armaga o'rin almashish uchun yetishmovchilik bo'ldi. Bo'lganlari ham jamg'arish uchun emas, balki pul jamg'arishga qaratildi va bu pullar ishlab chiqarishga sarflanmadi. Ishdan chiqqan asosiy fondlar tezlikda investitsiyani ko'tarishni talab qiladi. Chunki ishlab chiqarish va noishlab chiqarish potensialini saklab qolish kerak edi. Bu makroiqtisodiy siyosatni tashvishga soldi, afsuski, bir vaqtning o'zida chetdan olingan qarzlar ham to'lanishi kerak edi.

Shunday qilib, O'zbekiston milliy iqtisodiyoti takror ishlab chiqarish muammosiga duchor keldi – texnikalarni yangilash va investitsiyani yo'lga qo'yib sof jamg'arma uchun harakat qilib iqtisodiyotni oyoqqa turgazish shart edi. Buning o'zi ham yetarli emasdi. Balki chet el kapitalini jalb etish, iqtisodiyotni jamg'arish yo'li bilan oyoqqa turgazish kabi murakkab masalalar turardi.

**Eksportga mo'ljallangan sektor aniq oqsayotgan vaqtda yer osti qazilma boyliklari asosida tashkil etildi.** O'n yillar davomida O'zbekiston iqtisodiyotida milliy xo'jalik modeli mavjud bo'ldi, shu paytda an'anaviy, milliy bozor doirasida tashqi savdoga mo'ljal olib iqtisodiyot shakllana boshladi. Bu ikki doiraning o'zaro munosabati qiyinroq kechdi: ichki va dunyoviy narx-navoning yaqinlashishi va ayni paytda iqtisodning pasayishi

qoida bo'yicha, «ikki iqtisod» resurslarga yo'l topish xo'jalikka xukumron bo'lish uchun shartlasha boshlaydi, (valyuta kursi siyosati, issiqlik energetikasi tarmoqlari mahsulotlariga soliq va h.k). Ekspert - mo'ljal sektori energiya xom ashyo bazali kompleksga egalik qila boshladi, aniq sanoat sektori esa, chet el hamkorlari bilan konkurensiyaga uchrab, ahvoli og'irlashgandi. Ichki sektor raqobatga bardosh beraolmaydigan mahsulotlar ishlab chiqarardi.

Natijada, bir yo'nalishda (eksport - mo'ljal sektori) investitsiya, soliqlarni hisobga olgan holda pala-partish bo'lgan daromad to'planib qoldi. Bu sektor rivojlanishi uchun yetishmovchiliklarni boshdan kechirardi.

1998 yildan iqtisodiyotning oyoqqa tura boshlashi eksport-mo'ljal hisoblangan issiqlik-energetikasi sektorining ustunligini biroz pasaytirdi. Investitsiyani aniq sektorga mo'ljal qilish juda ham tez amalga oshmasdi. To'lov rentasi va ularni davlat tomonidan yirik texnologik tarmoqlarni rivojlantirish va aniq sektorda iqtisodni modernizatsiya qilish uchun sarflash boshlandi.

**Pirovard iste'molning o'sish miqdori ijtimoiy mahsulot tizimida aholi va davlatning aniq iste'moli kamayishi jarayonida sodir bo'lishi.** Murakkab takror ishlab chiqarish jarayoni milliy takror ishlab chiqarishda ijtimoiy mahsulotning pirovard iste'moli sezilarli o'zgarishi, o'sishi kuzatildi. Bu esa, jamiyatning pirovard mahsulotining o'sishiga olib keldi. Ushbu jarayonlar aholi daromadi va hayot tarzining pasayishi hisobiga bo'ldi. YaIMda pirovard mahsulot hisobi o'sdi. Bu tomondan yalpi jamg'arma natijalari pasaydi, boshqa tomondan esa, ijtimoiy mahsulotning solishtirma bahosi ishlab chiqarish umumiy hajmi orqasida mustahkamlandi.

Yana shuni ham aytish kerakki, ishlab chiqarishdagi yalpi ichki mahsulotda takror ishlab chiqarish jarayoni siljiy boshladi.

Yangi davrda taraqqiyot ijtimoiy o'sish yalpi ijtimoiy mahsulot o'sishini, sifatini taqozo etadi. Bu uy xo'jaligi va davlatning aniq iste'moli hisobida ijtimoiy taraqqiyot o'sadi. Boshqa rivojlangan davlatlarning malakasidan kelib chiqib, aytish mumkinki, ana shunday siyosatigina sotsial iqtisodiyotni baquvvat qiladi. Ma'lum bir maqsadni ko'zlagan sanoat siyosat yangi davrda O'zbekiston iqtisodiyotining talabga javob beradigan o'sishligini tasdiklashi kerak va takror ishlab chiqarish mutanosibligi sotsial-iqtisodning mustahkamligini ta'minlashi lozimdir.

### **Qisqacha xulosalar**

Har qanday davlatning milliy iqtisodiyoti – bu ijtimoiy, tashkiliy, fan-texnikaviy murakkab xo'jalik tizimdir. U harakat qilish jarayonida alohida-alohida salohiyatlardan tuzilgan yalpi iqtisodiyot salohiyatlarga ega bo'ladi.

Bularning orasida tabiiy resurslar, ishlab chiqarish, mehnat, fan-texnika rivoji maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu sababli, milliy iqtisodiyotning asosiy xususiyatlaridan biri – bu uning doimo harakatda bo'lib xom ashyoviy shakldan tayyor mahsulot shakliga aylanishi, ya'ni doimo takrorlanib turishidir hamda barcha jamiyat a'zolarining talabini iste'mol qilish bilan qondirishdir.

Ijtimoiy ishlab chiqarish natijasida milliy iqtisodiyot yaratiladi. Ijtimoiy mahsulot o'zining harakat shaklida bir necha o'zaro bog'langan bosqichlardan o'tadi, ya'ni ishlab chiqarish, taqsimlash, almashuv va nihoyat iste'mol jarayonlaridir. Albatta, birinchidan bu yerda ishlab chiqarishning ustunligi – aniqrog'i, bu degani iqtisodiy resurslar imkoniyatlarining cheklangan, kamyob, noyob sharoitida yaratilgan moddiy boyliklarni, ne'matlarni, xizmatlarni taqsimlash, ayriboshlash va iste'mol qilinishidir, bular iqtisodiyotning boshlang'ich nuqtasidir. Bu ishlab chiqarish jarayonida tugatiladi, ya'ni har qanday ijtimoiy mahsulot ishlab chiqarishda yuzaga keladi va iste'mol bilan tugatiladi. Boshqacha aytganda, moddiy boyliklarning iqtisodiy harakatida ishlab chiqarish doimo boshlang'ich nuqta, iste'mol esa, oxirgi nuqta hisoblanadi. Demak, jamiyatda ishlab chiqarishni ham, iste'molni ham to'xtamaslik lozim. Shunday qilib, ishlab chiqarish uzluksiz davom etadigan jarayon sifatida, ya'ni ishlab chiqarilgan mahsulotlarni, moddiy boyliklarni, ne'matlarni, xizmatlarni taqsimlashni, ayriboshlash va iste'molni o'z ichiga oladigan jarayon – bu takror ishlab chiqarish jarayonidir.

### **Asosiy tayanch tushunchalar:**

**Takror ishlab chiqarish** – bu ishlab chiqarish va uning natijalari, mutanosiblik shakl va munosabatlarining birgalikda doimo yangilanib va takrorlanib turishidir.

**Oddiy takror ishlab chiqarish** – bu ishlab chiqarish va iste'mol qilishda yangilanish, oldingi masshtabdagi talab deganidir.

**Kengaytirilgan takror ishlab chiqarish** – *bu ishlab chiqarilgan mahsulotning va iste'molning yangilanib hajmini ko'paytirishni mo'ljallaydi.*

**Takror ishlab chiqarishda mutanosiblik turlari** – *ishlab chiqarish bilan iste'mol o'rtasidagi mutanosiblik.*

Takror ishlab chiqarish tarkibidagi mutanosiblik bu ma'lum bir davr ichida ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqarish va moddiy ne'mat hamda xizmatlar o'rtasidagi mutanosiblik jamg'arish va qoplash o'rtasidagi mutanosiblik, ya'ni asosiy fondlarning iste'molini, qoplash maqsadiga ketayotgan mahsulotlar va har xil shakldagi jamg'arma ulushlari o'rtasidagi mutanosiblik iqtisodiyotning sohalari va sektorlari o'rtasidagi mutanosiblik ya'ni, bu tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ishlab chiqarish o'rtasidagi

mutanosiblik: yana bir asosiy mutanosiblik bu ijtimoiy sohalar o'rtasidagi mutanosiblik bular ta'lim-maorif, madaniyat, sog'liqni saqlash, kommunal xo'jalik va fuqarolarning ijtimoiy hayot sharoitini bevosita ta'minlamaydigan xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlari va sohaları o'rtasidagi mutanosiblik.

### **Mavzuning namunali rejalari**

1. Milliy iqtisodiyotda takror ishlab chiqarishning mohiyati va mazmuni.
2. Takror ishlab chiqarish asosiy turlari va ularning farqlari.
3. Takror ishlab chiqarishdagi asosiy mutanosiblik.

### **Seminar larslarila muhokama uchun savollar**

1. Milliy iqtisodiyot va undagi ishlab chiqarish va takror ishlab chiqarishning asosiy belgilari.
2. Takror ishlab chiqarishning asosiy turlari va ular orasidagi farq nimada?
3. Takror ishlab chiqarishdagi asosiy mutanosibliklarning bozor iqtisodiyotidagi muhimligi nimada?

### **Mystaqil ta'lim uchun savollar**

1. Milliy iqtisodiyot nima?
2. Takror ishlab chiqarishning asosiy maqsadlarini aytib bering.
3. Takror ishlab chiqarish turlari va ularning kelib chiqish sabablari nimada?
4. Bozor iqtisodiyoti sharoitida takror ishlab chiqarishning xususiyatlari.



## **41 BOB. PUL-KREDIT TIZIMI. BANKLAR VA ULARNING BOZOR IQTISODIYOTIDAGI ROLI**

*Iqtisodiyot fani bir vaqt ichida narxning sudralish inflyatsiyasi bo'yicha ishlab chiqarish va bandlikning sustlik holatiga tushib qolishi kabi muammolarni hal etish va uni aniqlash uchun yanada ishlashi kerak. Shu bilan birga bizga bir vaqt ichida to'liq bandlikka ega bo'lish va shunday narx-navoga oid barqarorlikni hal etish, daromadlar sohasi siyosati bo'yicha, bizning monetar va fiskal siyosatimiz xarid qilish qobiliyatimizni ta'minlash uchun ekspertlar nisbatan yagona bir fikrga kelishmadilar.*

*Pol Samuelson*

Biz yuqorida ko'rib chiqilgan pulning mohiyatini, uning evolyutsiyasini va asosiy funksiyalarini tushundik. Ushbu bobda pul-kredit tizimi va davlatning pul-kredit siyosati ko'rib chiqiladi. Shundan kelib chiqqan holda, davlatning pul-kredit siyosati mazmuni muomalada pul massasining tartibga solinishi bo'lib, oldin biz pul massasining ifodasini, u qanday agregatlardan iborat va pul bozorida muvozanat qanday o'rnatilishini bilamiz. Pul-kredit tizimi – bu davlatning pul va kredit tizimi, shunday qilib endi pul tizimining mohiyatini, uning asosiy turlarini va elementlarini aniqlaymiz. Asosiy e'tiborni kredit tizimiga qaratamiz, shuning uchun kredit mohiyatini, uning bozor iqtisodiyotidagi turlarini va rolini ko'rib, chiqamiz, O'zbekistonning ikki darajali bank tizimini, AQShning markazlashmagan bank tizimini tahlil qilamiz va nihoyat, davlat pul-kredit siyosatining asosiy maqsadlari va yo'nalishlarini bilib olamiz.

### **41.1. Pul muammolari va pul bozorida muvozanat**

Pul muammolari tovar muammolarining tarkibiy qismi, ammo u o'zining maxsus xususiyatlariga va qonuniy xarajatlariga ega. Qachonki, pul tovar almashuvida vositachi bo'lganida unda tovar almashuvi tovar muomalasiga aylanadi.

**Pul massasi va pul agregatlari.** Iqtisodiyotda «pul» atamasi naqd va naqdsiz pul vositasi summasida ifodalanib, qisqacha pul massasi sifatida nomlanib foydalaniladi. Pul massasi pul agregatlaridan iborat bo'lib, pul likvidlik darajasi bilan bog'langan holda, uning alohida komponentlarini birlashtiradi. O'zbekiston amaliyotida pul muomalalari kundagi pul massasi agregatlariga ajratiladi:


Pul-kredit siyosati avvalambor iqtisodiy pasayishini, ishsizlikni va inflyatsiyani bartaraf etishga yo'naltirilgan. Shu bilan birga davlat pul massasi (pul taklifi), yalpi talab va yalpi taklif, hisob-kitob tariflari yoki moliyalashtirish tariflari (ya'ni markaziy bank tijorat banklariga kredit bo'yicha scuda foizlari berish normasi) kabi ko'rsatkichlar, richaglar va boshqalarga ta'sir ko'rsatadi. Birinchi navbatda pul massasining tuzilishi va hajmini tartibga solishga to'g'ri keladi.

Bir necha marta aytilganidek, muomaladagi pul miqdori yasama bo'lishi mumkin emas. Pul qadrining tushib ketishi, narx-navoning oshib ketishi va boshqa iqtisodiy barqarorlikning buzilishlariga yo'l qo'yimaslik uchun pul va tovar massalari o'rtasida tenglikni saqlash (pul muomalasi qonuni) kerak. Ushbu qonunining talabi aniq matematik ravishda shunday atalgan (inglizcha Fisher equation of exchange) amerika iqtisodchisi Irving Fisherining (1867-1947) almashtirish tengligida ifoda etiladi. Tenglikning formulasi va uning xulosasi rasmda tasavvur etilgan.

Yuqoridagilardan ma'lumki, mamlakatda pul massasining muomalasi (**M**) chiqarilgan tovar va xizmatlar (**PQ**) narxiga mos kelishi shart, shu bilan birga bir xil pul belgilari tovar almashinuvi yiliga bir necha marta (**V**) xizmat qiladi (ya'ni, demak pul ham shuncha marta kam talab qilinadi).

Masalan, agarda bir yil mobaynida chiqarilgan tovar va xizmatlarning qiymati (**PQ**) 200 pul birligiga teng bo'lsa (raqamlar shartli), pul esa o'rtachcha yiliga 5 marta aylanadi (**V=5**), unda pul massasi (**M**) 40 pul birligiga teng bo'lishi shart (**200:5**). Agarda u ko'proq bo'lib qolsa, unda mamlakatda to'lashga qodir talab tovar taklifi qiymatidan oshib ketadi va narx-navo tenglikni tiklash uchun yuqoriga chiqib ketadi. "Almashuv tengligi bilan bog'liq bo'lgan pul massasi nimani o'z ichiga oladi?" degan savol tug'iladi.

Albatta, banklarda pul mablag'lari yig'imining ko'payishi bilan ular orqali hisob-kitobning kengayishi va kreditning juda tez rivojlanishi pul massasining strukturasi haddan tashqari murakkablashdi. Bugungi kunda mamlakatlarda pul muomalasi tizimining rivojlanishi ish bilan naqd pul ulushi umumiy oborotdako'p emas. Bitimlarning asosiy qismi naqd pulsiz, ya'ni bank depozitlarini, cheklarini plastik (kredit) kartalarini va boshqa moliyaviy instrumentlaridan foydalanish bilan bajarilmoqda.



	<b>M</b> ◀ muomaladagi pul massasi (pul taklifi)	▶ pullar
	<b>V</b> ◀ pul muomalsining tezligi	▶ tezlik
	<b>P</b> ◀ mahsulot birligining o‘rtacha narxi	▶ narxi
	<b>Q</b> ◀ yil maboynida ishlab chikarilgan mahsulotning umumiy hajmi	▶ miqdori

#### 41.1-chizma. Irving Fisherning ayirboshlash tengligi

Shulardan kelib chiqqan holda iqtisodchilar har xil maqsadlar uchun pul massasining har xil uzun qatorli pul agregati deb atalgan ko‘rsatkichlarini ajratmoqda. Bunday agregatlar nomerlash yo‘li bo‘yicha oshadi ( $M_0, M_1, M_2, M_3, M_4 \dots$ ) va moliyaviy aktivlarning unday yoki bunday turlarini o‘z ichiga olish kengligida hamda ularning likvidlik darajasi qobiliyati farqlanadi. Ko‘proq bu yerda birinchi to‘rtta pul agregatlari foydalaniladi (rasmga qarang). Endi bu yerda eng yuqori likvidlik elementiga ega agregat  $M_1$ , sababi naqd pulni olib qo‘yib yoki chek yozib berib (agregat  $M_0$ ) o‘zining bankga qo‘yilgan va talab qilib olinadigan (chek hisobi bo‘yicha) pulidan har qanday shaxs darhol va amalda uni yo‘qotmasdan to‘lashi va o‘ziga kerak bo‘lgan tovar va xizmatlarni olishi mumkin.

Keyingi ko‘rsatkich agregat  $M_2$  agregat  $M_1$  ning tarkibiy qismidan boshqa shunday kamroq likvidli vositalarni, ya’ni cheksiz pullar va mayda zarur hisoblar, chet el valyutasidagi depozitlar va boshqa kabilarni o‘z ichiga oladi. Endi bunga o‘xshagan instrumentlarni bir narsa sotib olish yoki to‘lovlar uchun bevosita foydalanib bo‘lmaydi, shuning uchun ularni “deyarli pul” yoki kvazi pullar (lotinchada quasi - nimadir, o‘xshash, kabi, emish) deb ataladi.

Ko‘proq likvidli aktivlar ( <b>pullar</b> )		YUqori likvidli aktivlar (“ <b>deyarli pullar</b> ”)			
Naqd pullar	Chekli bankka qo‘yilgan pullar	Cheksiz qo‘yilgan pullar	Mayda zarur qo‘yilgan pullar	Davlat zaymlari obligatsiyasi	Yirik zarur qo‘yilgan pullar

← $M_0$ →

← $M_1$ →

← $M_2$ →

← $M_3$ →

### 41.2-chizma. Asosiy pul agregatlari strukturasi.

Nihoyat, oxirgi ko‘proq ishlatiladigan jamlangan pul ko‘rsatkichlari bu – agregat  $M_3$  dir.  $M_2$  elementlariga qo‘shimcha u yirik zarur qo‘yilgan pullarni, davlat zaymlarining obligatsiyalarini va boshqa qimmat baholi qog‘ozlarni o‘z ichiga oladi. Bunday vositalar yanada kamroq likvidlidir.

Shunday qilib, hozirgi zamondagi pul massalari tushunchasini juda ham uzoqroq cho‘zish mumkin (bir qancha ma’lumotlarga ko‘ra  $M_7$  gacha cho‘zish mumkin). Amaliyotda davlatning pul-kredit siyosati juda ham ahamiyatli orientir bo‘lib xizmat qiladi. Ammo ko‘proq holatlarda yetarli bo‘lib  $M_1$  – agregati xizmat qiladi, bu ko‘pincha moliyaviy aktivlarning, ya’ni to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bevosita muomala vositasi sifatida tovar va xizmatlarning harakatida asosiy bo‘lib foydalaniladi, yani quyidagicha kursatish mumkin:


- $M_0$  = naqd pullar;
- $M_1 = M_0$  + chekli qo‘yilmalar (aholi vositalari va korxonalarining hisobida va joriy schetlaridagi);
- $M_2 = M_1$  + bankdagi tezda jamg‘arma qo‘yilmalari;
- $M_3 = M_2$  + depozit sertifikatlari + davlat zaym obligatsiyalari.

O‘zbekistonda naqd pullarning ( $M_0$ )  $M_2$  pul ulushi 36%ni tashkil etdi, boshqa davlatlarnikiga qaraganda, 2,5–3% dan ko‘proq. Shu bilan birga, oxirgi yillarda agregat  $M_2$  ancha, 5–6 marotaba ko‘paydi.

#### **Banklar qanday qilib pul yaratadi**

Hukumat iqtisodiyotni makrotartibga solishda hisobga oladigan yana bir vaziyat – bu banklarning pul taklifini ko‘pytirishda pul “yaratish” qobiliyati. Bu shundayki, bank tizimi bilan rivojlangan mamlakatlarda depozitli-kredit pul massasi hajmining tez sur‘at bilan o‘sib ketishi kuzatilmoqda (ya’ni bankdagi o‘sha pullar qo‘yilgan pullar sifatida hisoblanadi, o‘unday ekan bu pullarni kreditga ham berish mumkin ekan). Mana endi: banklar pul “yaratadi”, qachonki ular pul qo‘yilmalarni qabul qiladi, hamda o‘sha summadan majburiy

zaxira talabaiga binoan pul ajratadi, qolgan depozit massani ssuda berish uchun foydalaniladi. Natijada banklarning shunday operatsiyalarni ketma-ket qaytarilishda shunday nomlangan kredit ekspansiyalari (ya'ni kengaytirish, tarqatish) yuzaga keladi. Shu sababli "yangi" (qo'shilgan) pullar hosil bo'ladi. Bunday pul taklifining multiplikatsiyaviy mexanizmini shunday qisqartirilgan misolda ko'rish mumkin (rasmga qarang).



### 41.3-chizma. Banklar qanday qilib pul taklifini ko'paytiradi

Masalan, birinchi bank 100 pul birligini qo'yilma qildi, shu bilan birga markaziy bank zahira kapitali = 20 %. Unda majburiy zaxiralarning talabidan keyin 20 pul birligi o'lchamida (20 % 100 pul birligidan), bank 80 pul birligi ssuda beradi (100-20).

Kimlar tomonidan olingan ssuda har xil schetlarni to'langanligi orqali, natijada ikkinchi bankning depozitiga aylanadi. Bu bank zaxiraga 16 pul birligi ajratib (20 % 80 pul birligidan), 64 pul birligi (80-16) kredit beradi. Bu pul summasi shunday o'zining barcha hisob-to'lov operatsiyalaridan o'tib, endi uchinchi bankning pul qo'yilmasi bo'lib qoldi. Shunday qilib hozirgi bankdan bankka o'tishda "eriydigan" boshlang'ich pul summasi bank schetlarida hech qanday qoldiqsiz erib ketmaydi.

Natijada shunga o'xshagan "ketma-ket reaksiyalar"da boshlang'ich pullar bir necha marta o'sib ketadi. Hatto bizning iqsqacha misolimizda faqat uchinchi bankgacha yuborilgan pul "yangi" pul summasi kam ham ko'p ham emas 144 pul birligini (80+64) tashkil qiladi. Pul massasining o'sish maksimal koeffitsiyenti esa yoki yana pul multiplikatori deyiladi, bu o'z navbatida zaxira kapitali normasining aksincha o'lchami bo'lib hisoblanadi.

Endi bizning misolimizda u 5ga teng (sababi talab qilingan zaxira norma 20 % ga yoki ulushda 1/5 ga teng). Ya'ni birinchi bankda chiqarilgan 80 pul birligi kredit puli pirovard hisobda 400 pul birligini "yaratishi" mumkin, bular endi (80x5 "yangi pul"), shunday qilib umumiy pul massasini 500 pul birligi (100+400) gacha ko'payishi mumkin edi. Bankning bunday pul-kredit multiplikatsiyasidagi samaradorlik davlat tomonidan uning monetar (pulli) siyosatida hisobga olinadi, chunki qachonki iqtisodiyot haddan tashqari chegarada ishlasa u inflyatsiyani chaqirishi mumkin.

Banklar katta foyda orqasidan quvib xo'jalik kon'yukturasiining "qizib" ketishiga e'tibor bermasdan ortiqcha kredit berib yuborishi mumkin. Natijada tovar va xizmatlarga o'sib kelayotgan talab ularning erishgan taklifidan oshib, narx-navo ham ko'tarilib ketadi. Davlatning mumkin chora-tadbirlari bilan bunday voqealarning rivojlanishi asosan shunday nomlangan "arzon" va "qimmat" pul siyosati bilan bog'langan.

O'z navbatida bunday siyosat keynschilar azariyalariga moyillik bilan taklif qilingan, ya'ni bu jamiyatda pul-kredit resurslarini egiluvchan manyovr taktikasidan iborat. Aynan: bu resurslarning taklifi yoki ko'payadi (arzon pul siyosati yoki kredit ekspansiyasi), yoki qisqaradi (qimmat pul siyosati yoki kreditning cheklanishi). Shu bilan birga har xil voqealar ketma-ket bo'lib har xil pirovard maqsadlar ishlatiladi. Endi pulning arzonlashishi kredit ko'payishini, iqtisodiyotga yalpi sarflarning va investitsiyasini rag'batlantiradi hamda ishlab chiqarishniva bandlikning ko'payishining ko'tarilishiga yo'naltiriladi. Ushbu vaqtda pulning qimmatlashishi esa aksincha kreditning qisqarishiga, sarf-harajatlar va investitsiyaning shu bilan birga haddan tashqari tovarlarga talabni va inflyatsiyani kamayishiga yordam beradi.

Jadvaldan ko'rinib turibdiki pul taklifining ko'payishi: (1) davlatning banklarda, boshqa korxonalaridan va aholidan (muomalaga "ortiqcha" pullarning tushishi natijasida) davlat obligatsiyalarini sotib olishi; (2) tijorat banklarining o'rnatilgan normada pul zahirasiining kamayishi (natijada ularning kredit resurslari o'sadi); (3) markaziy bankning tijorat banklarini kreditlash bo'yicha hisob stavkalarining pasayishi (natijada tijorat banklari markaziy bankdan arzonlashgan kredit olib, o'zlari firmalarga va aholiga ko'proq hamda kamroq kredit beradilar)lar orqali erishadi.

O‘z navbatida pul taklifi qisqarishi qarama-qarshi choralar bilan ta’minlanadi: (1) davlat o‘z obligatsiyalarini sotadi (bo‘sh pullarni “bog‘lab”), (2) bank zaxiralarining normasini ko‘paytiradi va (3) hisob stavkasini ko‘taradi. Shu bilan birga kredit berish imkoniyatlari kamayadi, kredit bo‘yicha ssuda foizi o‘sadi, ularning osonligi pasayadi, investitsiyalar va yalpi harajatlar jamiyati qisqaradi, tovar va xizmatlarga yalpi talab pasayadi, narx-navo va inflyatsiya esa muvoffaqiyatli pastga tushadi.

**Pul muomalasi qonuni.** Marks ta’limotiga ko‘ra, pul funksiyasini oltin bajarganda, pulning zaruriy muomala uchun miqdori, stixiyali ravishda tartibga solinar edi: agarda pul uning ehtiyojiga qaraganda ko‘p bo‘lsa, unda oltin muomaladan chiqadi va yaratuvchi jamg‘arma funksiyasini bajarar edi. Agarda pulga bo‘lgan ehtiyoj oshganda, unda oltin jamg‘armadan qaytib muomala sohasiga o‘tar edi. Oltin erkin almashadigan, banknot muomalasida ham shunday bular edi. Oltin almashmaydigan qog‘oz pullarning muomalasida esa, ularning muomala uchun zarur bo‘lgan miqdori, davlat tomonidan tartibga solinishi shart edi.

**Pul muomalasi qonuni.** Pul va tovar muomalasi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikka hamda pul aylanish tizimini ifoda etadi:

$$M = \frac{p \cdot Q}{V}$$

**M** – mamlakatda bir yil ichida muomala uchun zaruriy pul miqdori;

**rQ** – realizatsiya qilinadigan tovarlar narxi;

**V** – pul muomalasining tezligi.

Keyinchalik biz ko‘rsatilgan o‘zaro bog‘liqlikka pul miqdori tenglik nazariyasi asoslanishini ko‘ramiz.

**Pul bozoridagi muvozanat.** Pul bozoridagi muvozanatni pulning talab va taflif modeli asosida ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq. Agarda pul taklifi unga bo‘lgan talabdan ko‘proq bo‘lsa, unda pul qiymati pasayadi. Pulning qiymati uning sotib olish qobiliyati bilan, ya’ni bitta pul birligiga sotib olish mumkin bo‘lgan tovar va xizmatlarning hajmi bilan o‘lchanadi:


$$PM = \frac{t}{p}$$

**$p_M$**  – pulning narxi, ya’ni uning sotib olish qobiliyati;


**R** – iste’molchi narxi indeksi ifodasi, narx (INI). INIning o‘zgarishda misol, 7% ga ko‘payishi – 1 so‘mning qiymati 7% ga pasayishini bildiradi.

**Pul taklifi** – pulning muomalada bo‘lgan umumiy miqdori bilan ifodalanadi. U qoida bo‘yicha vertikal to‘g‘ri chiziqda (40.2-chizma), grafik ko‘rinishda ifodalanib, bu yerda faraz qilishimizcha, Markaziy bank o‘sha

vaqtning o'zida foiz stavkasi bilan bog'liq bo'lmagan (pul «narxlari»)  $r$  –pul miqdorini ( $Mr$ ) muomalaga chiqaradi.



**41.4-chizma. Pul bozoridagi muvozanat.**




**41.5-chizma. Pul taklifining o'sishi bo'yicha pul bozoridagi muvozanat.**

- Haqiqiy hayotda ushbu mamlakatning oldida turgan pul-kredit siyosati maqsadlari pul taklifiga bog'liq. Pulga talab egiluvchan chizig'i (41.4-chizma, **MD**) pastga egilgan bo'ladi, sababi pulning qiymati qanchalik kichik bo'lsa, uning bitimlar uchun talab qilingan miqdori shunchalik katta bo'ladi. Pul bozoridagi muvozanat **F** (41.4-chizmaga qarang) nuqtasida belgilandi. U bir necha omillar ta'siri ostida doimo o'zgarib turadi.


Faraz qilaylik, bo'lgan pul taklifi o'zgarib turadi, o'nga bo'lgan talab esa, o'zgarmasdan qoladi. Agarda pul taklifi o'sadigan bo'lsa (41.5- chizma) unda **MS** egiluvchan chizig'i **MS** hamda o'ngga suriladi, foiz stavkasi **R1** dan **R2** gacha pasayadi, **F1** nuqtasigacha o'zgaradi. Ammo foiz stavkasi doimo surilishi mumkin emas. Talab egiluvchan va sizda foizining minimal normasi nuqtasining tegishli likvidli tuzoq-qopqon, deb ataladi (41.6- chizma). Ushbu nuqta orqasidagi pul bozorining muvozanatda bo'lishi mumkin emas, sababi pul taklifining o'sishida ssuda foizi normasi pasaymaydi. Muomaladagi pul miqdorining ko'payishi esa, inflyatsiyaga olib keladi. Likvidlik qopqondan chiqish imkoniyati faqat davlatning kuchi bilan faol moliya siyosatidan foydalanish orqali amalga oshadi .

Agarda pulga bo'lgan talab ko'payadigan bo'lsa, taklif esa, o'zgarmasdan qoladi (41.7-chizma), unda o'zgaruvchan chiziq **MD** holatida o'ngga suriladi, foiz stavkasi esa **G1** dan **G2** gacha ko'payadi. Buni YaIM normal o'sish natijasida yuz berishini ko'rish mumkin: pulga talab va foiz stavkasi ko'payadi, ya'ni uning narxi taklifning o'zgarmasligi evaziga o'sadi.





41.6-chizma. Likvidli qopqon.



41.7-chizma. Pulga talab o‘shishi bo‘yicha pul bozoridagi muvozanat

#### 41.2. Pul tizimi. O‘zbekistonning pul tizimi

**Pul tizimi, uning turlari.** Pul tizimi – bu mamlakatda pul muomalasini tashkil qilish shakli bo‘lib, tarixiy milliy qonuniyat bilan mustahkamlangan.

Pul tizimi ikki turga ajratiladi:

1. Metall muomalasi tizimi, bunda pul qiymatbaho metalldan tuziladi va o‘zining barcha funksiyalarini bajaradi, kredit pullar esa, metallga almashiladi. Pulning metall tizimi sharoitidagi muomalasi barqaror sotib olish qobiliyati bilan ta‘minlangan. Ammo negativ tomoni ham bor: vaqti-vaqti bilan to‘lov vositasi yuz berardi. XX asrning 30-yillarida AQShdan boshqa mamlakatlarda qog‘oz pullarning oltinga almashishi man etilgan edi (dollarning oltinga almashishi 1971 yilda to‘xtatildi).

2. Kredit va qog‘oz pullarning muomala tizimi, bu yerda oltin muomaladan chiqarilib, XX asrning 30-yillarida harakat qila boshladi. Buning uchun kelgusi xususiyatlar xarakterli edi:

- oltinning ichki va tashqi muomaladan chiqarilishi (u oltin rezervlarida qoladi). Bunda oltin xazina vazifasini bajarishni davom ettirdi;

- banklarning kredit tizimi asosida naqd va naqdsiz pul belgilari chiqariladi;

- naqdsiz pullar aylanishining rivojlanishi va naqd pullarning qisqarilishi;

- davlat tomonidan pul-kredit mexanizmlarining yaratilishini tartibga solish.

Hozirgi vaqtda O‘zbekistonning pul tizimi «O‘zbekiston Markaziy banki to‘g‘risidagi Qonuni»ga muvofiq harakat qilmoqda. O‘zbekiston hududida muomaladagi naqd pullar banknot va money hamda naqdsiz pullar kredit idoralarining hisobida vosita turida turmoqda. To‘lov hujjati sifatida naqdsiz hisoblar uchun O‘zbekiston Markaziy banki tasdiqlagan to‘lov topshiriqlari, hisob cheki, akkreditivlar, to‘lov-talab topshiriqlarlar foydalanilmoqda.

**Pul tizimi elementlari.** Iqtisodiyotda pul tizimining kelgusi elementlari ajratilgan:

1. *Pul birligining nomi.* Har qanday davlatda pul birligining nomi qonun bilan belgilanadi. Pul birligi mayda, proporsional qismlarga bo‘lingan, misol, AQShning 1 dollari 100 tsentga, inglizlarning 1 funt sterlingi 100 ...ga, Rossiyaning 1 rubli 10 kopeykaga, O‘zbekistonning 1 so‘mi 100 tiyinga teng hisobida amalda ishlatiladi.

2. *Narx masshtabi.* Hozirgi vaqtda narx masshtabi o‘zining iqtisodiy ma’nosini yo‘qotgan. Hozir u stixiyali ravishda tuzilgan va tovarlarning qiymatini narx vositasida o‘lchash uchun xizmat qiladi.

3. *Muomalada turgan pul va pul belgilari turlari.* Pul belgilarining asosiy turlariga quyidagilar kiradi:

- *Banknotalar* – Markaziy bank tomonidan chiqariladigan pul belgilari turlari veksellar hisobi asosida. Markaziy bank idorasida turgan veksellar bilan ta’minlangan banknotlar oltin bo‘lgan. Banknotlar ikkita bo‘lib ta’minlanganligi ularning ishonchli va maustahkamligini ko‘rsatadi. Banknotlar qat’iy ifodalangan munosiblikda chiqarilgan bo‘ladi. Endi AQShda – 1, 2, 5, 10, 20, 50, 100 dollar, Buyuk Britaniyada – 5, 7, 10, 20 va 50 funt sterling, Rossiyada – 1, 3, 5, 10, 25, 50, 100, 200, 500, 1000 va 5000 rublda, O‘zbekistonda – 1, 3, 5, 10, 25, 50, 100, 200, 500, 1000, 5000 so‘mda, yevrozona mamlakatlarida – 5, 10, 20, 50, 100, 200, 500 yevroda. Jahon mamlakatlarining banknotlari ushbu darslikning ilovasida batafsil berilgan.

- *Xazina biletlari* bu davlatning bevosita xazinasidan qog‘oz pullar bo‘lib, ular qoidaga muvofiq, davlat budjetining defitsitligini yopish uchun chiqarilgan. Ular hech qachon qimmatbaho metallar bilan ta’minlanmagan hamda oltinga yoki kumushga ayirboshlanmagan. Oltin standarti yo‘q qilingandan keyin xazina biletlar, banknotlar o‘rtasidagi farqlar yo‘qolgan. Hozir O‘zbekistonda naqd pullar banknot va tanga turida harakat qiladi.

- *Mayda turdagi tangalar* – qonun asosida belgilangan metallar sletkasi (quyilma) shaklida-og‘irligida, maydalangan pul sifatida xizmat qiladi.

4. *Emission tizim ham pul tizimi* elementlariga kiradi. U qonun asosida belgilangan qog‘oz pullar va kredit muomalasi tartibida chiqarilgan. Bank

biletleri, kredit va qog'oz pullari turida Markaziy bank tomonidan xazina biletleri va tangalar shaklida ishlab chiqariladi.

5. *Pulni tartibga solish* – davlatning pul massasi hajmiga ta'sir ko'rsatadigan chora-tadbirlar.

### **41.3. Kredit tizimi va uning tarkibi**

Kredit tizimi bu kreditlash tamoyillariga muvofiq, pul vositalariga beriladigan va akumlyatsiya qilinadigan, kredit institutlari birligini yaratadilar. U quyidagilardan iborat:

- bank tizimi;
- maxsuslashgan moliya-kredit institutlari (investitsiyalar, sug'urta kompaniyalari, pensiya va xayriya fondlari, kredit kooperativlari va boshqalar.

Asosiy e'tiborni biz bank tizimiga qaratamiz, ammo avvalambor, kredit ifodasini ko'rib chiqamiz.

**Kredit va uning turlari.** Kredit bu korxonalar, tashkilotlar va aholining bo'sh pul vositalarini mobilizatsiya qilish bo'yicha yig'ilgan va ularning tezligi, qaytarib berilishi va to'lovlar sharoitida ifodalangan pul munosabatlari tizimidir. Kreditlash tamoyillariga quyidagilar kiradi:

- 1) Kredit tezligi, ya'ni kredit ma'lum bir vaqtga beriladi.
- 2) Kreditning to'lanilganligi. Agarda qandaydir shaxsdan oladigan bo'lsa, unda kredit foiz to'laydi – kredit stavkasini; agarda qandaydir shaxs o'zining pulini bankka qo'yadigan bo'lsa, unda qo'ygani uchun u depozit bo'yicha foiz oladi. Kredit va dona stavkasi orasidagi farq bank marjasi, deb ataladi. Bank marjasi banklarning asosiy daromadlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Bank foydasi bank xizmati uchun komission yig'im hisobiga ham shakllanadi.

3. Kreditning qaytarib olinishi shuni bildiradi, ya'ni kredit qat'iy qo'rsatilgan vaqtda qaytarilishi shart bo'ladi. Kredit o'z vaqtida qaytarib olinishi uchun bank kafolat sifatida kafolat, majburiyat qabul qiladi. Shu bilan birga, bank kreditni ta'minlamasdan yoki blankovogo kreditni berish to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin.

4. Kreditning maqsadli xarakteri, ya'ni kredit aniq ehtiyoj uchun beriladi. Kreditni bir qancha belgilari bo'yicha klassifikatsiya qilish mumkin:

- vaqti bo'yicha kredit qisqa mudatli 1 yilgacha (30, 60, 90 kunlarga berilishi mumkin), o'rta muddatli – 1yildan 5-7 yilgacha, uzoq muddatli – 7 yildan ko'proq bo'lishi mumkin;

- razmeri bo'yicha mayda, o'rta va yirik kredit bo'lib farqlanadi. Bank uchun bu har qaysisining imkoniyatiga qarab individual ravishda belgilanadi;

- ta'minlangani bo'yicha davlat, bank va tijorat kreditlari bilan farqlanadi;

- qarzga oluvchilar turi bo'yicha personallar (xususiy beriladi) qishloq xo'jaligiga sanoat, davlatga va boshqalar uchun kredit berilishi mumkin;

- foydalanishi bo'yicha kreditlar iste'molchilarga, investitsiyalarga, vaqtincha moliyaviy qiyinchiliklarni to'g'rilashga, eksport va importga, qimmatbaho qog'ozlar bilan operatsiyalar va boshqalarga bo'linadi.

Kreditlarning roli doimiylikni, takror ishlab chiqarish jarayonlarida uzilib qolmasligini moddiy qimmatbaholi narsalarning va pul vositalarining aylanmasini jadallashtirish, muomaladagi naqd pullarni cheklangan ravishda foydalanishni ta'minlashda yuzaga keladi.

**O'zbekistonning bank tizimi.** Bank tizimi yuqorida biz qayd etgandek, kredit tizimining asosiy tarkibiy elementi bo'lib hisoblanadi. Bank bu pul vositalarini va ularni o'z nomidan qaytarib olish sharti bilan joylashtirib, to'lovligi va tezligi bilan jalb etish uchun yaratilgan moliyaviy idora bo'lib hisoblanadi. Barcha mamlakatlarda banklar hamda ularning filiallari huquqiy shaxs bo'ladi. Bulardan tashqari, yana vakolatli, agentlik va alohida shunday turga ega bo'lmagan banklar ham mavjuddir.

Hozirgi vaqtda O'zbekistonda ikki darajadagi banklar tizimi harakat qiladi:

1. Birinchi darajadagi O'zbekiston Markaziy banki yoki O'zbekiston banki, buning asosiy funksiyasi quyidagilardan iborat:

- pul emissiyasi;

- pul muomalalarini tartiblash hamda rasmiy pul-kredit va valyuta-pul siyosatini realizatsiya qilish;

- moliyaviy qonunlarni bajarishda moliya-kredit idoralari faoliyatining nazoratini amalga oshirish;

- kreditning oxirgi instaniyasi sifatida tijorat banklariga kreditlar berish;

- hukumat agentlik funksiyasini bajaruvchilarga kiruvchilar davlatning qimmatbaho qog'ozlarini chiqaruvchi va ularni to'lovchi, hukumat hisob-kitob boshqarmasi, davlatning chet el moliyaviy operatsiyasini amalga oshiruvchilar va boshqalar.

2. Ikkinchi darajadagi bank tizimi tarkibiga tijorat banklari kiradi. Ular aksioner (hissadorlik) jamiyati, mas'uliyati cheklangan jamiyat, chet el kapitali qatnashishi bilan, chet el va boshqa shakllarda yaratilishi mumkin. Tijorat banklari o'zlarining operatsiya turlari bo'yicha universal va maxsus bo'ladilar. Tijorat banklarining asosiy turlariga quyidagilar kiradi:

- depozit banklar, ularning asosiy faoliyati depozitlarni qabul qilish va qisqa muddatga kreditni berish bilan bog'langan;

- investitsion banklar, o‘zlarining va qimmatbaho qog‘ozlardagi qarzga olingan vositalarni joylashtirish hamda uzoq muddatga kredit berish bilan shug‘ullanadilar;

- ipoteka banklari, uzoq muddatga ko‘chmas mulk kafolati ostida kredit beradilar;

- xalq banklari va kredit jamiyatlari va boshqalar.

**Bank operatsiyalari.** Bank operatsiyalari aktivli, passivli va balanslashmagan, ya’ni kreditli passivlilarga bo‘linadi.

Aktiv operatsiyalari har xil xarakterga ega bo‘lgan kreditlarni beradi, ya’ni pul vositalarini joylashtiradilar.

Passiv operatsiyalar asosan, pul qo‘yilmalarini jalb etishga, boshqa banklardan kredit olishga va o‘zlarining qimmatbaho qog‘ozlarini emissiya qilishga qaratiladi. Agarda o‘zining kapitali (ustav, aksiyadorlik) – faqat bank ochishda boshlang‘ich nuqta bo‘lsa, unda passiv operatsiyalari natijasida oladigan qarz vositalari bank faoliyatining asosi bo‘ladi.

Balanslashmagan operatsiyalarni quyidagicha guruhlash mumkin:

- birinchi guruhi an’anaviy moliya va birja xizmatlarini tartiblaydilar (aksiya plakatlarini, konsultatsiyalarni, qo‘shimcha yordam berish va boshqalarni boshqaradi);

- ikkinchi guruhga kiradigan xizmatlarni kafolat bizneslari, deb nomlash mumkin. Bu yerda birinchidan, banklarning vositachiligi to‘g‘risida, ya’ni banklar vositachi sifatida chiqariladi, ikkinchidan, ularning operatsiyalarida bevosita qatnashish to‘g‘risida gap ketyapti. Bu xizmatlar bank faoliyatining diferentatsiyasini aks ettiruvchi hamda banklarning va birjalarning ishlarini bir-biriga yaqinlashuvi to‘g‘risida guvoh bo‘ladilar. Bu ko‘rsatilgan operatsiyalar orasida f‘yucherlik operatsiyasini ularning vaqtini belgilab qo‘yish bilan kelgusi shartnomalarning oldi-soltdi shartlarini; opsionni – bu operatsiya kelgusi bitimni amalga oshirishda huquq beradi; operatsiya nifni – bu agarda qimmatbaho qog‘ozlarni realizatsiya qilishda qiyinchiliklar tug‘ilsa, bank ularni sotib olishga yoki teng baholi kredit berishga olgan majburiyati to‘g‘risidagi bank va qimmatbaho qog‘ozlar emitenti o‘rtasida o‘rtacha vaqtga tuzilgan shartnoma, deb aytish mumkin;

- uchinchi guruhga svonlar kiradi – bu ikkita qarzdorlar o‘rtasida qarzdorlik majburiyatlarini bir-biri bilan ayirboshlashni bildiradi. Svonlar ma’lum kapital bozorlarida qachonki qiziqqan tomonlarning afzalligi borligida foydalaniladi, misol, har xil valyutalarni ayirboshlash majburiyatlarini bajarish paytida.

Umuman, ikki darajali banklar tizimi bilan birga markazlashgan mono bank tizimi (misol, sobiq itifoqda, Davlat banki, Qurilish banki va boshqa savdo banki kabi banklarning uchta birligi bo‘lgan) hamda markazlashmagan

bank tizimi – AQShning federal rezerv tizimi (FRT) mavjuddir. Buni batafsil ko‘rib chiqamiz.

**AQShning federal rezerv tizimi.** AQShning federal rezerv tizimi 1913 yilda yaratilgan. FRT 12 okrugdan iborat bo‘lib, ularning har biri o‘zining federal rezerv bankiga ega. FRTda ro‘yxatda bo‘lgan banklar, FRTning bank a‘zosi bo‘lib hisoblanadi. 1980 yildan boshlab pul nazorati to‘g‘risida qonun chiqarilgan edi. Ushbu qonunga muvofiq, mamlakat banklarining barchasiga rezervlar darajasi to‘g‘risidagi talab majburiyati tarqatilgan (bungacha FRT bu rezerv talabini faqat o‘zining bank a‘zolariga qo‘yishi mumkin bo‘lgan edi). Bu qonunga muvofiq, barcha banklarga o‘zlarining hisob-kitoblarini ham FRTga ulashga va FRTning ruxsati bo‘yicha undan kredit olishga ruxsat berilgan edi. Shaklan banklar haligacha FRT a‘zosi yoki a‘zo emas shakllariga bo‘linadi, ammo bu farqlanish hech qanday ahamiyatga ega emas.

FRT shaklan AQShning xazinachi instruksiyasiga yoki boshqa ma‘muriy organlarga bo‘ysunmaydigan mustaqil tashkilot (budget taqchilligini moliyalashtirishda hukumat pul emissiyasini minimallashtirish uchun foydalanishi mumkin).

FRT har qanday boshqa Markaziy bank kabi quyidagi asosiy funksiyalarni bajaradi:

1). Pul va moliya tizimi ishining barqarorligini ta‘minlaydi. FRT ushbu funksiyani bajarishi bilan birga, banklarning banki hamda bank tizimi ishining nazoratchisi sifatida harakat qiladi. Funksiyani bajarishda banklarning banki deganimiz, ya‘ni tijorat banklari o‘zlarining depozitlarini FRTda ushlaydi va bir-biriga to‘lovlarni ushbu depozitlar yordamida amalga oshirishni bildiradi. FRT kreditlash rolini o‘ynaydi, moliyaviy tahdid bo‘lsa boshqalarga va firmalarga kreditlar ajratadi. FRT bank tizimi ishining ustidan nazoratini kreditlar berish va rezervlarni saqlash amaliyoti yordamida amalga oshiradi (biz bilamizki, FRT barcha banklar uchun majburiy rezerv normasini belgilaydi), lekin depozitlar bo‘yicha tijorat banklariga to‘laydigan foiz stavkalarini FRT 1986 yildan buyon nazorat qilmaydi.

2). Pul-kredit siyosatini olib boradi. Buning asosiy yo‘nalishlarini biz kelgusi paragrafda ko‘rib chiqamiz.

#### **41.4. Davlatning pul-kredit siyosati**

Mamlakatning Markaziy banki mikroiqtisodiyotda markaziy o‘rinlaridan birini egallaydigan pul-kredit siyosatini tartibga solish yoki monetar siyosatini olib borish bilan birga, muomaladagi pul miqdoriga ta‘sir ko‘rsatadi. Butunlay iqtisodiy ahvoliga ta‘sir ko‘rsatadigan pul va pul-kredit siyosati jarayonini o‘rgatadigan hamda pul-kredit siyosati asosida pul nazariyasi yotadi.

Pul nazariyasida ikki har xil yondashuv mavjud, ya'ni modernizatsiyalashgan keynscha nazariya va hozirgi zamon miqdoriy pul nazariyasi.

Keynschilar ham, monetaristlar ham YaIM hajmiga pul taklifining ta'sir qilishini tan oladilar. Ammo ular bu ta'sirning ahamiyatini har xil baholaydilar, mexanizmning o'zi ham shunday, ya'ni keynschilar nuqtai nazarida pul-kredit siyosatining asosida foiz stavkasining ma'lum darajasi, monetaristlar nuqtai nazarida esa, pulga taklif va talab ko'payishi shart edi.

**Keynscha pul nazariyasi.** Keynscha pul nazariyasining asosiy qoidalari:

1. Bozor iqtisodiyoti o'zining ko'p «provallari» bilan omonat mustahkam bo'lmagan tizim bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun davlat doimo iqtisodiyotni tartibga solishda har xil instrumentlardan foydalanadi, shu jumladan, pul-kredit mexanizmlaridan ham.

2. Pul taklifi va nominal YaIM sabab-oqibat zanjirining bog'liqligi shunday: pul taklifining o'zgarishi foiz stavkasi darajasining o'zgarishiga sabab bo'ladi, ya'ni bu o'z navbatida investitsiyaga, talabning o'zgarishiga va investitsiyalarning multifikatsiya samarasi orqali nominal YaIM o'zgarishiga olib keladi.

3. Keynscha nazariya asoslangan asosiy nazariy tenglama bu ma'lum bo'lgan asosiy makroiqtisodiy ayniyat bo'ladi:

$$Y = C + G + I + X_n$$

4. Keynschilar ta'kidlaganidek, ya'ni nominal YaIM va pul taklifi o'rtasidagi sabab-oqibatlarining bog'liqligi yetarli darajada yirikdir. Lekin pul-kredit siyosatini o'tkazishda eslatish zarur, ya'ni:

- Markaziy bank ma'lum axborotga ega bo'lishi shart, misol, investitsiya talablariga foiz stavkalarining o'zgarishi va shunga muvofiq YaIM miqdori qanday o'zgaradi, ya'ni investitsiya multiplikatori qanday ta'sir ko'rsatadi;

- muomaladagi pulning investitsiyalarning o'sishi sur'ati va ishlab chiqariladigan mahsulotlar o'rtasida ma'lum vaqtincha mavjud;

- pulga talabning o'zgarmasligida pul taklifining ko'payishi iqtisodiyotni likvidli qopqonga kiritishi mumkin, ya'ni qachonki pul taklifining ko'payishiga foiz stavkasi ahamiyat bermasa. Bunday holatda muomaladagi pul miqdorining o'sishi va nominal YaIM o'rtasidagi sabab-oqibatning bog'liqlik zanjiri uzilib ketadi.

Yuqorida qayd etilganlar bilan, birga Keynschilar monetar siyosatni iqtisodiyotni barqarorlashtirishda, misol, fiskal yoki budjet siyosatiga qaraganda, samarasiz vosita, deb hisoblaydilar.

**Pulning miqdoriy nazariyasi (monetar yondashuv).** XX asrning 70-yillarida iqtisodiyot fonida nooklassik yo'nalish rivojlana boshladi, shu

jumladan, uning hozirgi zamon shakli bo'lgan monetarizm bunga ko'proq ega bo'ldi. Hozirgi zamon monetarizmining asosiy nazariyotchisi Amerika iqtisodchisi, Nobel mukofoti sovrindori M.Fridman edi.

**Hozirgi zamon monetarizmining asosiy holati ulushi shunday:**

1. Monetarizm shunday ishonchga asoslanadi, ya'ni bozor iqtisodiyoti – ichki mustaqil tizimligiga. Bunday barcha salbiy holatlarning kelib chiqishi iqtisodiyotga davlatning aralashuvi, buni minimal darajaga tushurish kerak.

2. Muomaladagi pulning massasi va nominal YaIM hajmi o'rtasidagi o'zaro bog'liq investitsiyalar YaIM o'rtasidagiga qaraganda ko'proq ko'rinib turadi. Monetaristlar ta'kidlaganidek, bu yerda muomaladagi pul miqdori va milliy iqtisodiyot doirasida sotilgan tovar va xizmatlarning umumiy hajmi o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik mavjud. Bu borliq Irving Fitorning almashuv tenglamasi yoki pulning miqdoriy nazariyasi tenglamasi bilan ifodalanadi: u bog'liq Irving Fitorning almashuv tenglamasi yoki pulning miqdoriy nazariyasi tenglamasi bilan ifodalanadi:

$$M \cdot V = p \cdot Q$$

**M** – muomaladagi pul miqdori; **V** – pulning muomala tezligi; **p** – tovar va xizmatlarning o'rtacha narxi; **Q** – ma'lum bir vaqtda milliy iqtisodiyot doirasida ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarning miqdori.

Ko'rsatilgan narx darajasi va bir yilda ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarning miqdori (**pQ**) nominal YaIM hajmini ifoda etadi.

Bu almashuv tenglamasidan kelib chiqadi:

$$M = \frac{p \cdot Q}{V}$$

Agarda pulning muomaladagi tezligi (**V**) doimiy bo'lsa, unda muomaladagi pulning miqdori to'g'ridan-to'g'ri nominal YaIM hajmiga mutanosibdir.

3. I.Fisher tenglamasidan kelib chiqqan holda, ya'ni **V** va **Q** ning doimiyligida pul taklifining o'zgarishi narxga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etadi; pul taklifining ko'payishida ularning sotib olish qobiliyati pasayadi, ya'ni narxi o'sadi. Lekin agarda pul taklifining ko'payishi YaIM hajmining kengayishi bilan bir vaqtda yuz bersa, unda narxning o'sishi yuz bermaydi.

4. M.Fridman uzoq muddatli pul-kredit siyosatiga balanslashda «pul qoidasini» ya'ni «muomalada pul massasining doimiy o'sishi asosini qo'llab-quvvatlashning zarurligini» oldinga surdi. Bu uzoq davrdagi o'sish miqdori (foizda) YaIM uzoq muddatli yil bo'yicha o'rtacha o'sish sur'atiga (foiz) yil bo'yida o'rtacha qo'yilgan inflyatsiya sur'atiga tenglashadi. Iqtisodiyotda ish faolligini rag'batlantirish uchun M.Fridman yiliga 3–5% muomaladagi pul



massasining qat'iy nazorat ostida ko'payishini faraz qiladi. Agarda pul takliflarining ko'payishi yiliga 3–5% dan ko'p bo'lsa, unda inflyatsiyani aylantirish yuz beradi, agar muomaladagi pul massasining o'sishi 3–5 % dan past bo'lsa, unda YaIM o'sishi sur'ati pasayadi. M.Fridmanning pul qoidasi AQShning va Buyuk Britaniya'ning pul-kredit siyosatining XX asrning 70-yillarida asosi bo'ldi. Endi shunday atalgan targetirovaniya siyosati, ya'ni yilma-yil muomaladagi pul massasining ko'payishiga ma'lum cheklanishning kiritilishi, ochiq natijaga olib keldi: inflyatsiya darajasi yiliga 10% dan 5% gacha qisqardi, YaIM o'sishi sur'ati esa, yiliga 3–5%ni tashkil etdi. O'zbekistonda pul-kredit siyosatini qat'iy olib borishda M.Fridmanning «pul qoidasi»ning alohida tamoyillaridan yetarli darajada yaxshi foydalanildi.

Bunga quyidagilarni kiritish mumkin:

- O'zbekiston banki budjet xarajatlarini va budjet taqchilligini pul emissiyasi hisobiga bекitish huquqiga ega emas;
- pul massasining o'sish chegarasini YaIMning real o'sishga belgilaydi;
- pul-kreditni tartibga solishda bozor iqtisodiyoti metodlaridan foydalanadilar.

Pul-kredit siyosatining hozirgi zamon nazariy modellari keynscha va monetarizm sintezini ifoda etadi, bunda bu nazariyaning har bir ratsional momentlari hisobga olingan. Uzoq davrda pul-kredit siyosatida monetar yondashuvi ustuvor bo'ladi. Qisqa davrda davlat iqtisodiyotining tez-tez manyovir qilinishi bevosita foiz stavkasiga ta'sir etadi.

**Pul-kredit siyosatining asosiy maqsadi va metodlari.** Pul muomalasini tartibga solishni chaqiruvchi pul-kredit siyosati sub'ekti bo'lib, bu mamlakatning markaziy va tijorat banklari, ob'ekti bo'lib esa, pul bozoridagi talab va taklif hisoblanadi. Davlatning pul-kredit siyosatining oliy maqsadi bu narx-navoning barqarorligini, bandlikning samaradorligini, YaIM hajmining real o'sishini va to'lov balansini ta'minlashni xulosa qiladi. Bu maqsadlarga erishish tadbirlari juda ham asta-sekin amalga oshiriladi va ular ko'p yillarga hisoblangan. Shu bilan bog'liq bo'lgan joriy pul-kredit siyosatlari ko'pincha aniq va erishiladigan maqsadlarga yo'naltiriladi, misol, pulning muomalada bo'lgan miqdoriga, majburiy rezervlar miqdorining darajasini aniqlashga, tijorat banklarining moliyalashtirish bo'yicha stavkalarini o'zgartirishga va boshqalarga ishlatiladi.

Pul-kredit siyosatlari doirasida pul-kredit tizimini tartibga solishda bevosita va bilvosita metodlarni qo'llaydilar. Bevosita metodlar ma'muriy chora-tadbirlar Markaziy banking har xil shakldagi harakteriga ega bo'lib, pul komponentlari hajmining o'sishi, kreditlar limiti, foiz stavkalarini tartibga solishga va boshqalarga tegishlidir. Bu metodlar hozirgi zamon bozor

iqtisodiyotida faqat mamlakatning, ayniqsa, og‘ir davrlarida qisqa vaqtda instrumenti sifatida foydalanish mumkin, bilvosita metodlar pul-kredit sohasini tartibga solishda bozor mexanizmlari yordamida iqtisodiyotga ta‘sir ko‘rsatadi. Bularni pul-kredit siyosatlarining asosiy instrumentlar, deb ataydilar. O‘tish davri iqtisodiyotida, ayniqsa, birinchi bosqichdagi qayta tiklashda bevosita va bilvosita metodlaridan ham foydalanadilar.

**Pulli (bankka oid) multiplikator.** Pul-kredit siyosatini ko‘rib chiqishdan oldin, biz banklar pul «qiladilar», ya‘ni qanday qilib pul massasining muomaladagi ko‘payishi yoki kamayishi, pulni qo‘shimcha emissiya qilinmasdan bular yuzaga keladi, vaholanki, bu shularni aniqlashtirishimiz kerak. Bu jarayon multiplikatsion samaralar harakati oqibatida paydo bo‘ladi.

Pul multiplikatori bu pul massasining birinchi qo‘yilmalari bilan solishtirganda necha barobar ko‘payishini ko‘rsatadigan koeffitsiyent hisoblanadi. Bu miqdor majburiy rezervlar normasiga aksincha mutanosiblikda bo‘ladi:

$$M_m = \frac{1}{r_r}$$

– pul multiplikatori; – banklarning birlik ulushida majburiy rezervlar normasi (pul vositasi summasi, buni tijorat banklari Markaziy bankda foizsiz majburan saqlaydi), ya‘ni agarda majburiy rezervlar normasi 20%, unda ..... 0,2% ga teng). Shu bilan birga, multiplikator u bilan bog‘liq bo‘lib, bunda kishilar o‘zlarining pul vositalarini naqd pulda va bank depozitiga bo‘lishiga moyil bo‘ladi.

Faraz qilaylik, pul qo‘yuvchi (mijoz 1) bank 1ga 100 ming so‘m olib keldi. Endi mijoz bitta bankdan ssuda olib, bu pullarni tovar sotib olish uchun to‘liq sarf qildi, sotuvchi esa, bu pulni tovar uchun ularni to‘liq o‘zining hisobiga boshqa bankka qo‘yadi. Majburiy rezervlar normasi 20 % bo‘ladi. Unda bank 1–100 ming so‘mni olib, 20 ming so‘mni majburiy rezerv turida qoldirishi shart. 80 ming so‘mni esa, mijoz 2 ga ssudaga beradi. Mijoz 280 ming so‘mni kreditga olib, shu summaga tovar sotib oladi. Sotuvchi bu pulni olib, uni bank 2 o‘zining hisobiga qo‘yadi. Bank 280 ming so‘mni olib, 20% (16 ming so‘mni) majburiy rezervlar turida qoldiradi, 64 ming so‘mni esa, mijoz 3 ga kredit beradi, u ham bu summaga tovar oladi, sotuvchi esa ularni bank 3 ga o‘zining hisobiga qo‘yadi. Bank 3 buni majburiy rezerv qilib, 20% (12,8 ming so‘m) qoldiradi, qolgan (51,2 ming so‘mni) mijoz 4 ga kredit qilib beradi. Shunday qilib, pul massasi 500 ming so‘mgacha ko‘payadi. Pul multiplikatori bu misolda:  $1/0,2=5$  teng bo‘ladi. Banklar kreditdan foydalanib pul «qiladi».

**Pul-kredit siyosatining asosiy instrumentlari.** Qanday qilib Markaziy bank muomaladagi pul miqdoriga ta'sir qilishi mumkin? Hozirgi zamon bozor iqtisodiyotida muomaladagi pul massasini tartibga solishda quyidagi instrumentlardan foydalanadi (pul-kredit siyosatining yo'nalishi):

1. *Ochiq bozordagi operatsiyalar.* Hozirgi vaqtda mikroiqtisodiy amaliyotida bu pul-kredit siyosatining asosiy ingrendiyentidir. Markaziy bank ochiq bozorda davlatning qimmatbaho qog'ozlarini sotish yoki sotib olishni, pulning davlat kredit tizimiga yoki ularni qo'yish sharti bilan amalga oshirishi mumkin. Ochiq bozordagi operatsiyalarni odatda, Markaziy bank tomonidan yirik banklar guruhlar va boshqa moliya-kredit idoralari bilan olib boradilar. Shunday bo'lsa ham, pul bozorida muomaladagi pul massasining ortig'i ko'rinib turadi. Unda Markaziy bank ochiq, qimmatbaho qog'ozlarni tijorat banklariga qayta to'lash bilan sotadi. Banklar qimmatbaho qog'ozlarni sotib oladilar, pullarni esa, Markaziy bank oladi. Banklarda pul kamroq bo'ladi, YaIM bilan bularning taklifi kamayadi (bank multiplikatori orqali) va natijada, foiz stavkasi ko'tariladi. Investitsiyalar qisqarishi YaIMning o'sishini investitsi multiplikatorlariga teng mutanosiblikda kamayishiga olib keladi. Bunday siyosatlar iqtisodiyotning «qizib ketishi»da, ya'ni buni «sovitish» hamda narx-navoni o'sib ketishiga yo'l qo'ymaslik uchun olib boriladi. Bunday mexanizmlar aksincha holda ham ishlashi mumkin. Agarda pul bozorida pul vositalarining yetishmasligi sezilarli bo'lsa, unda Markaziy banklardan o'zi uchun foydali narxda qimmatbaho qog'ozlarni sotib olishni boshlaydi. Banklarda pul miqdori ko'payadi, ularning taklifi o'sa boshlaydi (pul multiplikator harakat mexanizmlari orali) va foiz stavkasi kamaya boradi. Investitsiyalar ko'payadi, bu YaIM ko'payishiga olib keladi. Bunday siyosat iqtisodiyotning «sovub ketishi»ga olib keladi va bunday holatni «kredit ekspansiya»si, deb ataydilar. Natijada pul massalarinig qo'shimcha miqdori hisobiga iqtisodiyot «qizitiladi».

2. *Hisob stavkalarining remoliyalashtirish yoki diskontli siyosatning o'zgarishi.* Moliyalashtirish stavkasi bu oxirgi instansiyalarda kreditlar sifatida Markaziy bankka chiqishda tijorat banklariga kreditlar berishda oladigan foydadir. Hisob stavkasi Markaziy bank tijorat banklarining vakillarini hisoblashdagi foizi. Remoliyalashtirish stavkasi markaziy bank tomonidan belgilanadi. Buning kamayishi tijorat banklari uchun kreditlar o'ziga jalb etuvchi bo'ladi, banklarning pul miqdori ko'payadi. Aksincha, remoliyalashtirish stavkasini ko'paytirish kreditlarni foizsiz qiladi, shuning uchun banklar odatda, bergan ssudani muddatidan oldin qaytarib olishni talab qiladi. Pul taklifi ham ko'payadi. 2005–2007 yillarda Bonlar remoliyalashtirish stavkasi bilan bozor stavkasi orasidagi farqi yuqori darajada

emas edi. Agarda u ko‘proq past bo‘lganda unda banklar Markaziy bankdan arzonroq kredit olishga harakat qiladi, ya’ni bu vositalar kattaroq daromad keltiradigan qimmatbaho qog‘ozlarni sotib olishar edi. Monitar siyosat instrumentlari orasida diskont siyosati o‘zining ahamiyati bo‘yicha ochiq bozordagi operatsiyalardan keyin ikkinchi o‘rinni egallar edi va odatda, Markaziy bank faoliyati bilan birga ochiq bozorda o‘tkazilardi.

3. *Rezervlarning majburiy darajalarining o‘zgarishi.* Agar Markaziy bank rezervlari majburiy ulushining o‘zgarishiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatma bersalar, unda ularning ko‘payishini pul taklifining (bank multiplikatori harakati orqali) qisqarishiga, qisqarishi esa, qo‘payishiga olib keladi. Mutaxassislarning fikri bo‘yicha, bu instrument juda ham kuchli hisoblanadi, ammo majburiy rezervlar normasi tez-tez o‘zgarmaydi, sababi Markaziy bank tijorat banklarinig mahkam saqlab qolishga qiziqadi.

Ushbu pul-kredit an’anaviy yo‘nalishlar siyosatidan tashqari Markaziy bank yana naqd pul massasini, naqd pul muomalasini, emissiyasini, ularning muomalasini tashkil etishini va muomaladan olishni tartibga solishini boshqaradi. Shu bilan birga, Markaziy bank valyutani tartibga solishni amalga oshiradi. Bu deganimiz, valyuta bosqichlarini va tashqi to‘lovlarni hamda milliy valyutaning kursini boshqarish deganimizdir. Valyutani tartibga solishning samarali tizimi valyuta intervensiyasi deyiladi. Markaziy bank oltin valyuta rezervlari hisobiga chet el valyutalarini sotib oladi yoki sotadi. Markaziy bank chet el valyutasini sotish bilan uning taklifini ko‘paytiradi. Bu o‘z navbatida milliy valyuta kursini oshirishga olib keladi. Milliy valyutaning kursini pasaytirish uchun u chet el valyutasini sotib oladi va shu bilan birga unga bo‘lgan talabni ko‘paytiradi.

Ushbu bobda biz pul-kredit tizimini va davlatning pul-kredit siyosatini o‘rgandik, pul massasi ifodasi va u qanday agregatlardan iborat, pul bozorida muvozanat qanday belgilanishini bildik, pul tizimining mohiyatini, uning asos tizimini va elementlarini tushundik, kreditning mohiyatini va uning turlarini aniqladik, O‘zbekistonning ikki darajali bank tizimini va AQShning federal rezerv tizimini ko‘rib chiqdik. Asosiy e’tibor pul-kredit siyosatining yo‘nalishlariga va maqsadlariga qaratildi.

### **Qisqacha xulosa**

1. Pul-kredit tizimi deganda, mamlakatda shunday tarixan qabul qilingan va qonuniy mustahkamlangan pul muomalasining va tashkil etilganligini tushunish kerak. Pul tizimining asosiy elementlariga– milliy pul birligi; davlat tomonidan mahsulot – tovarlarning qiymatini o‘lchov sifatida qabul qilingan, narx-navo, pul birligi sifatida qabul qilingan pul belgisini, ya’ni mahsulot –

tovarlarning qiymati o‘lchov birligini; pul emissiyasini tuzish; valyuta pariteti; pul instituti bo‘lgan tizimlarni jumladan, mamlakatda pul muomalasini tashkillashtiradigan davlat va nodavlat idoralari, tashkilotlari kiradi.

2. Kredit tizimi bir tomondan kreditga oid hisob-kitoblar munosabatini va kreditlashtiradigan hisob-kitoblar shaklini hamda metodlarini tasavvur etadi, boshqa tomonidan – bu kreditlash va hisob-kitobni amalga oshiradigan, moliya-kredit institutlarini yig‘indisidir.

3. Kredit tizimi nafaqat banklarni albatta, bular asosiy element hisoblanadi, balki iqtisodlashgan moliya - kredit idoralarni ham: pensiya fondlarini, sug‘urta va investitsiya kompaniyalarini, xalq banki kabi idoralarni, qimmatbaho qog‘ozlarni ishlab chiqaradigan va joylashtiradigan investitsiyaviy banklarni tasavvur etadi.

4. O‘zbekiston Respublikasida Milliy Markaziy bank juda ham katta ko‘lamda tartibga soluvchi va nazorat qiluvchi vazifalarni bajaradi. U katta ijtimoiy-iqtisodiy mas‘uliyatli ishlarni olib boradi va juda ham keng vakolatlarni ijro etishga ega.

Markaziy bank tijorat banklarining zaxirasi normalarini yoki minimal depozit majburiyatlarini (likvidlik vositalarini) o‘lchaydi, bular o‘z navbatida doimo tijorat banklarida saqlanishi shart. Bu minimal likvidlik vositalarini markaziy bank faol tijorat banklari foiziga belgilaydi.

### **Asosiy tushunchalar**

Pul tizimi tushunchasi.

Kredit tizimi.

Bank tizimi.

### **Mavzuning namunali savollari**

1. Pul massasi nimani bildiradi va ular qanday agregatlardan tuzilgan?
2. Pul muomalasi qonunining mohiyati.
3. Pul miqdori nazariyasi qanday tenglamalarni ifoda etadi?

### **Seminar darslarida muhokama qilish uchun savollar**

1. Pul tizimining mohiyati va turlari.
2. Sizga qanday pul tizimlari ma‘lum?
3. Pul tizimining asosiy elementlarini ayting.
4. Kredit va bank tizimining mohiyati nimadan iborat?

### **Mustaqil ta‘lim uchun savollar**

1. Pul - kredit tizimining mohiyati.
2. Kredit bank tizimi va O‘zbekistondagi ahamiyati.
3. Pul – kredit bank tizimining bozor iqtisodiyotidagi roli.

## **42 BOB. MOLIYA TIZIMI VA DAVLATNING MOLIYAVIY SIYOSATI**

*Hech bir millat fiskal siyosatining namoyon bo'lishi uchun qochib qutulishi mumkin emas.*

*Pol Samuelson*

Ushbu bobda biz moliya tizimi va davlatning moliya siyosati doirasi bilan bog'liq savollarni ko'rib chiqamiz. Buning uchun boshlanishida moliyaning qanday ifodalanishini, uning funksiyalarini va mavjudligining zarurligini qarab chiqamiz. Keyin moliya tizimining tarkibiy tuzilishi hamda davlatning budjet va moliya siyosati va ularning ikki o'zaro bog'langan yo'nalishlarini ko'rib o'tamiz.

### **42.1. Moliyaning mohiyati va zarurligi.**

Pul-tovar munosabatlarning saqlanishi moliyaning mavjudligini bildiradi hamda qayerda tovar-pul munosabatlari bor bo'lsa, ishlab chiqarish, taqsimlash va yaratilgan mahsulotlardan foydalanish moliya yordamida amalga oshiriladi. «Moliya» atamasi XIII–XV asrlarda Italiyaning savdo-sotiq shaharlarida paydo bo'lgan. O'sha vaqtlarda ilgaridan davlat, pul, pul-tovar munosabatlari mavjud edi. Boshlanishda ushbu atama har qanday pul to'lovini bildirardi. Keyinchalik bu atamaning mazmuni o'zgargan. Moliya nimani bildiradi? Moliya deganda pulni tushunish kerak. Ammo moliya bu pul emas. Moliyaviy munosabat bu pul munosabati bo'lib, ammo har qanday pul munosabatlari moliyaviy munosabatlar bo'lib ifodalanmaydi. Bularga shaxsiy iste'molni va chakana savdo oborotidagi ayirboshlashga xizmat qiladigan vositalar, alohida kishilar orasidagi oldi-sotdi jarayonlari, savdo qilish aktlari, merosga qoldirish asosida pul olish kabilar kirmaydi. Moliya xatolashmasdan boshqa pul munosabatlari orasida ajratiladigan shunday belgilarga ega: bular hamma vaqt pul munosabatlarini tartibga solishda huquqiy aktlar bilan ifodalanadi. Nomoliyaviy pul munosabatlari huquqiy aktlar bilan tartibga solinmaydi. Moliya iqtisodiyoti kategoriyalari sifatida markazlashgan va markazlashmagan pul vositalari fondlarining aytilishi, shakllanishi va foydalanishi bilan bog'langan ishlab chiqarish (pul munosabatlari) munosabatlarini ifoda etadi, ya'ni moliyaviy munosabatlar ikki sohani qamrab oladi. Birinchisi bu davlatning budjet tizimida va budjetdan tashqari fondlarida akkumulyatsiya qilingan, davlatning markazlashgan pul fondlari shakllanishi va foydalanishi bilan bog'langan iqtisodiyot pul munosabatlaridir. Ikkinchi soha – korxonalarining pul fondlari doiraviy aylanishlarini ifoda qiladigan pul munosabatlaridir. Shunday qilib, moliyatashtirish o'zining yuzaga kelishi manbai bo'yicha quyidagilarga ajratiladi:

- *markazlashgan moliyalash*. Bu davlatning barcha moliyaviy tizimini markazlashgan zvenosining tarkiblashgan pul vositasidir. Markazlashgan moliya soliq tizimi orqali milliy daromadning bir qismini qayta taqsimlanish yo‘li bilan yuzaga keladi;

- *markazlashmagan moliyalash*. Bu barcha moliya tizimining asosi bo‘lgan korxonalarining moliyasidir.

Moliyaviy munosabatlar quyidagi sub’ektlar orasida yuzaga keladi:

- davlat va korxonalar orasida – soliqlarni budjet tizimiga to‘lashda va sarf-xarajatlarni moliyalashtirishda;

- korxonalar orasida – qimmatbaho tovar va materiallarni sotib olish jarayonida hamda tovar va xizmatlarni realizatsiya qilishda;

- korxonalar rahbarlari va ishchilar o‘rtasida, misol: ish haqini to‘lashda;

- korxonalar va yuqori tashkilotlar o‘rtasida markazlashgan fondlarni yaratishda va ularni taqsimlashda;

- davlat bilan alohida fuqarolar va budjetdan tashqari fondlar o‘rtasida – budjetga to‘lovlarni kiritishda, peniya, nafaqa, stipendiyalarni olishda;

- budjet tizimining alohida zveniyalari o‘rtasida;

- sug‘urta tashkilotlari va korxonalar hamda aholi o‘rtasida – sug‘urta badallarini to‘lashda va sug‘urta to‘lash vaqti kelganda zararlarni qoplashda.

Yuqorida qayd etilganlardan ko‘rinib turibdiki, pul va moliya orasiga tenglik belgisini qo‘yib bo‘lmaydi. Mamlakatning milliy daromadi pul fondlarining asosiy moddiy manbasi bo‘lib chiqadi. Shuning uchun uning o‘sishi – moliyaviy resurslar hajmini ko‘payishi asosiy shartdir.

Moliyaning asosiy iqtisodiy funksiyalari mohiyati uning asosiy bajaradigan funksiyalarida aks ettiriladi, ya’ni funksiyalarning bajaradigan ishlari tushuniladi. Moliyaning kelgusi funksiyalari quyidagicha farqlanadi:

1. Moliyaning taqsimlash funksiyasi xo‘jalik sub’ektlarining zaruriy moliyaviy resurslar bilan ta’minlashda yuzaga keladi. Milliy daromadni taqsimlashda va qayta taqsimlashda moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish sohalarining daromadlari shakllanadi.

2. Nazorat qilish funksiyasi milliy daromadning qismini kerakli fondlar bo‘yicha taqsimlanishini va ularning maqsadlari bo‘yicha sarf-xarajatlarning tayinlanganligi ustida bo‘ladi. Moliyaviy nazoratning maqsadi – moddiy mehnat va moliyaviy resurslarning xo‘jalik va behuda sarf qilinishini tergaydi. Bu funksiyalar moliyaviy organlar yordamida bajariladi. Moliyaviy nazoratlar kim tomonidan amalga oshirilishiga qarab, u umumdavlatga, bir idoraga qarashli, xo‘jaliklar ichida, jamoatda mustaqil bo‘lishi mumkin. Bizning mamlakatimizda moliyaviy nazoratni shakllantirishda asosiy rolni O‘zbekistonning Moliya vazirligi va Soliq qo‘mitasi o‘ynaydi. Nazorat

funksiyasi buxgalteriya, statistika yoki tasdiqlangan davlat metodikasi orqali realizatsiya qilinadi.

3. Rag'batlantirish funksiyasi davlatning moliyaviy richaglari yordamida korxonalarining va butun tarmoqlarning jamiyatga kerakli yo'nalishlari bo'yicha rivojlanishiga ta'sir o'tkazishi mumkin ekanligidan iborat bo'ladi. Aniq moliyaviy richaglarga quyidagilar kiritiladi:

- budjet bo'yicha (korxonalar va tarmoqlarning rivojlanishi pul ajratilishi yoki ajratmasligi mumkin);

- soliq bo'yicha (soliqlarning past stavkasi xo'jalik faoliyatini rag'batlantirishi haddan tashqari yuqori bo'lsa, unga putur yetkazilishi mumkin);

- eksport-import bojlari, tariflari (bular past imtiyozli bo'lishi mumkin, ular yuqori bo'lsalar, eksport-import operatsiyalari foydasiz qiladi).

Bu uchta moliya funksiyasi bir vaqtda harakat qiladilar: bular milliy daromadlarni taqsimlab, ishlab chiqarishni rag'batlantiradi va shu bilan birga uni nazorat ostiga oladilar. Agarda moliyaning ahvoli inqiroz sifatida xarakterlansa, unda bu iqtisodiyotni inqiroz qamrab olgan, deb bilamiz. Bunga misol qilib, 2008 yildagi Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozni ko'rsatishimiz mumkin.

## **42.2. Davlatning moliya tizimi va uning tarkibi.**

Milliy iqtisodiyot doirasidagi moliyaviy munosabatlarning yig'indisi moliyaviy tizim bo'lib ifodalanadi. U davlat moliyasini (markazlashgan moliya), xo'jalik sub'ektlar moliyasini va fuqarolar moliyasini o'z ichiga oladi. Moliya tizimining har bir zvenosi aniq vazifalarni bajaradi.

1. Davlat moliyasining vazifali moliya resurslarini davlat fondlarida yoki hududiy organlar hokimiyatida to'playdi va ularni jamiyatning kerakli joylarini moliyalashtirishga yo'naltirishadi.

2. Xo'jalik sub'ektlari moliyasining oldida o'zlarining pul fondlarini shakllantirish va ularni pul bosqichlarini samarali boshqarish asosida foydalanish vazifalari turadi.

3. Fuqarolar moliyasining vazifasiga daromadlarni shakllantirish va ulardan foydalanish kiradi.

**Davlat moliyasining tarkibiy tuzilishi.** Davlat moliyasining marazlashgan tarkibiy tuzilishi asosiy elementi uchta darajada (O'zbekiston budjet kodeksi bo'yicha) bajariladi:

- davlat budjeti va davlatning budjetdan tashqari fondlari;
- viloyatlar sub'ektlarining budjeti (viloyat budjeti);
- mahalliy byujet (shahar, tuman va qishloqlar byujeti).



Budjetning har xil tamoyillari turli darajadagi budjetlar orasida o‘zaro munosabatlarni qurishi mumkin. 1991 yilgacha sobiq ittifoqning budjetining o‘zaro munosabatlari demoktarik tsentralizm tamoyiliga asoslangan edi. O‘zbekiston SSR boshqa ittifoqdosh respublikalar budjeti sobiq ittifoq budjeti tarkibiga kirgan edi. Mamlakatning barcha budjetlari – qishloq va poselka budjetlari uning tarkibida edi.

Hozirgi vaqtda O‘zbekistonda har xil darajadagi budjetlarning o‘zaro munosabati fiskal tamoyili asosida qurilgan, past darajadagi budjetlar avtonom harakatda bo‘lib, ya’ni o‘zlarining daromad va xarajatlarini yuqori darajadagi budjetlariga qo‘shmaydi. Bu yerda budjetlar orastdagi pul vositalarini qayta taqsimlash imkoniyatlari man etilmagan. O‘zaro byujetlar munosabati bir tomonlama xarakterda bo‘lib, davlat budjetidan tortib hududiy budjetlargacha va hududiy budjetlardan mahalliy budjetlargacha o‘zaro munosabatdadir. Bu ko‘pchilik hollarda hududiy va mahalliy budjetlar yetarli darajada daromadlar manbaiga ega emas. Har xil darajadagi budjetlarning aniq balanslashuviga erishishi uchun davlat subvensiya kabi moliyaviy instrumentlarga harakat qiladi, ya’ni qat’iy markazlashgan pul vositalaridan hamda dotatsiyaga bu past darajadagi budjet kamomadini minimallashtirib, daromadlarni to‘ldirishga yo‘naltirgan pul vositalarining qat’iy summasi; kredit resurslari – foiz to‘lash yoki foizsiz qoplash asosida beriladigan vositalar kabi moliyaviy instrumentlarga intiladi. Davlat budjetining daromad va xarajatlari hamda boshqa sub’ekt budjetlari yig‘indisi mamlakatning boshqa hududlar budjetini birlashtirishni, to‘plashni yuzaga keltiradi.

Markazlashgan moliya davlat budjetini, budjetdan tashqari fondlarni, davlat kreditini, mol-mulk shaxsiy sug‘urta fondlarini o‘z ichiga oladi.

**Davlat budjeti.** Davlat budjeti davlatning joriy yil uchun asosiy moliyaviy rejasi bo‘lib, qonun kuchiga egaligini ifoda etadi. U qonunchilik organlari hokimiyatida tasdiqlanadi. Davlat budjeti moddiy mazmuni bo‘yicha davlat pul vositalarining markazlashgan fondi, ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati bo‘yicha hukumatning o‘z funksiyasini bajarish uchun milliy daromadni qayta taqsimlashdagi asosiy quroli bo‘lib hisoblanadi. XX asrda davlat budjetidan foydalanishning nazariyasi va amaliy yaratuvchi J.M.Keyns bo‘ladi. U budjet kamomadini, iqtisodiyotni rag‘batlantirishni rasmiylashtirgan. Budjetda korxonalar va fuqarolar pul daromadlarining bir qismi jamg‘ariladi. Budjet vositalari hisobiga mudofaa, boshqaruv, jamiyatni tartibga solishni va davlatning xavfsizligini saqlash hamda ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, san’at va boshqalar moliyalashtiriladi.

**Davlat budjeti quyidagi funksiyalarni bajaradi:**

- milliy daromadning bir qismini qayta taqsimlashini;

- davlatning iqtisodiyotini tartibga solishni va rag‘batlantirishni;
- ijtimoiy siyosatni moliyaviy ta‘minlashni;
- FTT – rag‘batlantirishni;
- markazlashgan pul vositasi fondlarining yuzaga kelish va foydalanish ustidan nazorat qilishni.

Davlat budjeti daromad va xarajatlar tarkibini ifoda etadi. Daromadlarning xarajatlardan oshib ketishi budjet profitsiti, xarajatlarning daromadlar ustidan oshib ketishini budjet kamomadi deyiladi.

O‘zbekiston davlat budjetining asosiy daromad va xarajat statyalarini ko‘rib chiqamiz.

*Davlat budjetining xarajatlar statyasi:*

- davlat hukumat va boshqaruv organlarini saqlashni;
- huquqni saqlash organlari saqlashni;
- ijtimoiy-madaniy rivojlantirishni va fanni moliyalashtirish;
- milliy mudofaa;
- tashqi iqtisodiy faoliyat;
- davlat qarzi xizmati;
- boshqa darajadagilarga moliyaviy yordam;
- boshqa xarajatlar.

*Davlat budjetining daromadlar statyasi:*

- soliq daromadlari (foyda solig‘i, jismoniy shaxslar daromad solig‘i, QQS aksizlar, tashqi faoliyat solig‘i va boshqalar);
- soliqsiz daromadlar (tashqi iqtisodiy faoliyatdan tushum davlat mulkini sotish, davlat zaymlari);

Budjet sohasidagi islohotlarning dastlabki bosqichida asosiy vazifa mustaqil davlatimizning o‘z budjet tizimini shakllantirishdan iborat bo‘ldi. Bu, birinchi navbatda, Davlat budjetining barqaror daromadlarini shakllantirish va uning zarur xarajatlarini moliyalashtirishni ta‘minlaydigan stavka qonuniy va me‘yoriy baza yaratilishini talab qilar edi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini bosqichma-bosqich o‘zgartirish va erkinlashtirish, ilgari davlat zimmasida bo‘lgan bir qancha vazifalarning xususiy sektorga o‘tkazilishi Davlat budjeti xarajatlarini optimallashtirish, yangi sanoat yo‘nalishlarining rivojlantirilishi hamda xususiy sektor moliyaviy holatining mustahkamlanishi, shuningdek, uning mamlakat iqtisodiyotidagi roli va ulushining ortishi budjet daromadlarini bir necha barobar oshirish imkonini berdi.

Natijada, davlat budjeti kamomadini keskin kamaytirishga erishildi. O‘zbekiston o‘z mustaqilligini e‘lon qilgan 1991 yilda Davlat budjetining kamomadi uning umumiy xarajatlariga nisbatan 44% dan ziyodni tashkil qilar

edi. 2005 yildan boshlab Davlat budjetimiz profitsit bilan bajarib kelinmoqda, bu esa, makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Budjetning xususiyati bu barqarorlashtirish fondining yaratilishi. Bu butun iqtisodiyot uchun sug'urta qilinishini anglatadi. Bunga iqtisodiyotning tarmoq va sohalarning rivojlanishidan qo'shimcha kelayotgan poshlina va boshqalardir. Moliya vazirligi analitiklarining hisobi bo'yicha oxirgi yillarda barqarorlashtirish fondi hajmining o'sishi va boshqalar sezilarli darajada ko'zga tashlanmoqda. Davlat budjetining xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- YaIM o'sishi;
- mudofaa xarajatlarining o'sishi;
- terrorizm va diniy ekstremizmga qarshi kurash;
- budjet sektoridagilarga ish haqining o'sishi;
- ijtimoiy soliqlarning pasayishi.

**Davlat kreditlari.** Markazlashgan moliyaning maxsus elementi bo'lib, davlat krediti (zaym) chiqadi, bu aholining va huquqiy shaxslarning vaqtincha bo'sh vositalarini davlat tomonidan iqtisodiy va ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirishda foydalanishini ifoda etadi. Davlatning mamlakat ichida joylashtirgan zaymi, ichki zaym (kredit), boshqa davlatlarda – tashqi zaym, deb ataladi. Davlat zaymlari muomalaga davlat qimmatbaho qog'ozlarini (DQO – davlatning qisqa davrdagi obligatsiyasi, ROZ – respublika obligatsiya zaymi, DXBZ – davlatning xalq banki zaymi va boshqalar) chiqarish yo'li bilan amalga oshiriladi. O'zbekistonda bular moliya vazirligi tomonidan bajariladi.

Zaymlarning vositasini jalb etish vaqtidan kelib chiqqan holda, bular qisqa vaqtga (1 yilgacha), o'rtacha vaqtga (1 yildan 5 yilgacha) va uzoq davrlarga (5 yildan ko'proq) mo'ljallab chiqariladi. Davlat zaymlarining o'lchamiga mamlakatning qarz summasi ham kiritiladi. Qarzlarning ichki va tashqi, deb farqlanadi. Ichki qarz – bu qarz davlatning o'z xalqiga va tashqi qarz – bu chet davlatlarga qarzi hisoblanadi.

**Sug'urta fondi.** Sug'urta fondi – bu ofat, faloqatlar, og'ir ahvollarda, tabiiy hodisalar natijasida tartibsiz ravishda sodir bo'ladigan zararlar o'rnini to'ldirish uchun belgilangan fondlardir. Bu yerda oldi-sotdi ob'ekti bo'lib sug'urta himoya qilinganligi chiqadi. Sug'urta majburiy va ko'ngilli bo'lishi mumkin. Sug'urtaning asosiy funksiyalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- pul vositalarining shakllanishi (tavakkalchilik uchun to'lov, sug'urta kompaniyalar olgan);
- huquqiy va jismoniy shaxslarga zararini to'latish;
- sug'urta holatlarini ogohlantirish va sug'urta zararlarini imkoniyati boricha minimallashtirish;

- mamlakatning investitsiya salohiyatini shakllantirish: vaqtincha bo'sh pul vositalarini ishlab chiqarishga, ko'chmas mulk, banklarni, qimmatbaho qog'ozlarni va boshqalarni investitsiya qilish. Bu yerda mamlakatimizdagi sug'urta bozorining hozircha juda ham kichkinaligini hamda moliyaviy kompaniyalar pul vositalarining iqtisodiyotga investitsiya qilishining manbasi kamroqligini hisobga olinadi.

**Korxonalar moliyasi.** Korxonalar moliyasi, moliyaviy munosabatlarning ikkinchi sohasi (markazlashgan) va barcha moliyaviy tizimning asosi bo'lib ifodalanadi. Markazlashmagan pul vositasi fondi korxonalarining daromadlari va jamg'armalaridan yig'iladi. Korxonalar moliyasi o'zining davlat, boshqa korxonalar ishchilari oldida turgan majburiyatlarini bajarish uchun pul vositalarini shakllantirish, taqsimlash va foydalanish bilan bog'liq bo'lgan pul munosabatlarni ifodalaydi. Korxonalar so'zsiz foyda olish maqsadida tijorat hisobi shartida faoliyatini amalga oshiradi. Davlat, korxonalarining foydao ishlariga qiziqish bilan, tadbirkorlik uchun yaxshi sharoit yaratishga intiladi.

### **42.3. Davlatning moliyaviy siyosati va uning asosiy yo'nalishlari**

**Moliyaviy siyosat tushunchasi.** Moliyaviy siyosat mamlakat qabul qilgan qonunlar asosida moliya resurslarini safarbar qilish, ularni taqsimlash va foydalanish bo'yicha davlat tadbirlarini ifoda etadi. Moliya siyosatining yo'nalishi mamlakatning xalq xo'jaligining iqtisodiy ahvoli bilan bog'liqdir. Inqirozlar davrida yoki uyg'unlikda rag'batlantiruvchi moliyaviy siyosat olib boriladi, bu o'z navbatida davlat xarajatlarini, soliq yoki bu choralarni kombinatsiya etishni pasaytirishni tavsiya qiladi.

Yuksalish davrida iqtisodiyotning «qizib ketishida» – osoyishtalik bilan moliyaviy siyosat olib boriladi. Bu davlat xarajatlarini kamaytiradi, soliqlarni ko'paytiradi yoki ko'rsatilgan chora-tadbirlarni kombinatsiya qilishni tavsiya etadi.

Moliyaviy siyosat davlat faoliyatida ikki o'zaro bog'langan yo'nalishlardan iborat:

- 1) budjet siyosati (budjetni tartibga solish sohasi bo'yicha);
- 2) fiskal siyosat (soliq va davlat xarajatlar sohasi bo'yicha);

**Davlatning budjet siyosati.** Budjet siyosati bu davlat budjetining daromadlarini va xarajatlarini boshqarish bo'yicha hamda budjet kamomadi bo'yicha chora-tadbirlaridir, iqtisodiyotda davlatning kelgusi budjet siyosati konsepsiyasi belgilaydi.

**Budjet** sohasidagi islohotlarning dastlabki bosqichida asosiy vazifa mustaqil davlatimizning o'z budjet tizimini shakllantirishdan iborat bo'ldi. Bu, birinchi navbatda, Davlat budjetining barqaror **daromadlarini shakllantirish** va

uning zarur **xarajatlarini** moliyalashtirishni **ta'minlaydigan** stavka qonuniy va me'yoriy baza yaratilishini talab qilar **edi**. Shu maqsadda 2000 yilda «Budjet tizimi to'g'risida»gi qonun qabul qilindi, unda Davlat budjetini rejalashtirish, ijro etish va nazorat qilish jarayonlari belgilanib, turli vazirlik va idoralar, respublika va mahalliy hokimiyat idoralarining roli va mas'uliyat sohalari aniq chegaralab qo'yildi. Shuningdek, bu borada qator qonun va qonunosti hujjatlari ham qabul qilindi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini bosqichma-bosqich o'zgartirish va erkinlashtirish, ilgari davlat zimmasida bo'lgan bir qancha vazifalarning xususiy sektorga o'tkazilishi Davlat budjeti xarajatlarini optimallashtirish, yangi sanoat yo'nalishlarining rivojlantirilishi hamda xususiy sektor moliyaviy holatining mustahkamlanishi, shuningdek, uning mamlakat iqtisodiyotidagi roli va ulushining ortishi budjet daromadlarini bir necha barobar oshirish imkonini berdi.

Mustaqillik yillarida davlat budjeti xarajatlarining tarkibi sifat jihatidan o'zgardi. Hozirgi vaqtda davlat xarajatlari tarkibida kuchli ijtimoiy siyosat va aholini ijtimoiy himoya qilishni amalga oshirishni moliyalashtirish asosiy o'rin tutadi.

Ayni vaqtda tadbirkorlik sub'ektlari investitsiya faolligining sezilarli darajada o'sishi, bank tizimi kredit imkoniyatlarining barqaror kengayib borishi hamda uzoq muddatli imtiyozli xorijiy investitsiya va kreditlarning jalb qilinishi hisobidan yalpi kapital mablag'larining jadal o'sishi investitsiyalarga yo'naltiriladigan Davlat budjeti xarajatlari ulushini kamaytirish imkonini berdi.

Markaziy boshqaruv idoralarining avvalo, iqtisodiy va ijtimoiy masalalarni yechish, budjet tashkilotlari, kommunal xo'jaligi va obodonlashtirish ishlarini moliyalashtirish borasidagi bir qancha vakolat va vazifalarning bosqichma-bosqich mahalliy boshqaruv organlariga o'tkazilishi, ularni zarur daromad bazasi bilan ta'minlash va budjetlararo munosabatlarni takomillashtirishni talab etdi.

Hududlarning fiskal tarzda markazlashuvini cheklashni ta'minlash, boshqacha aytganda, ularning daromad salohiyatini yuksaltirish, mintaqalarga muayyan soliq tushumlarini biriktirib qo'yish va budjetlararo munosabatlarning samarali mexanizmlarini joriy qilish (boshqariladigan soliqlar va mahalliy budjetlarning ayrim xarajatlarini respublika budjeti ishtirokida moliyalashtirish) yo'li bilan bosqichma-bosqich amalga oshirildi.

Yaqin oralarda bunday budjet moliya siyosatining maqsadi bo'lib hisoblanardi, mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi barqarorligini ta'minlab berish shart edi. Lekin budjetning bunday ahvoli davlatning fiskal siyosatining

samaradorlik darajasini ancha kamaytirardi yoki umuman yo‘qatardi. Misol, iqtisodiyotda uzoq vaqt ichida ishsizlar ko‘payib, aholining daromadi pasayib ketishi yuz berardi. Buning natijasida soliqlar tushishi avtomatik ravishda qisqarib ketardi. Agarda moliyaviy siyosatning maqsadi yilma-yil balanslashgan budjet bo‘lsa, unda hukumatning yoki soliq stavkasini ko‘tarishi yoki davlat xarajatlarini kamaytirish yoki bu ikki chora-tadbirning kombinatsiyasidan foydalanishi shart edi. Bu ko‘rsatilgan tadbirlarning oqibatida yana yalpi talabning qayta qisqarishi bulardi, demak, ko‘proq darajada ishlab chiqarishning pasayishi va ishsizlikning ko‘payishi yuz berar edi. Yilma-yil budjetni balanslashtirishga intilish inflyatsiyani ham rag‘batlantirishi mumkin, bu sharoitda pul daromadlarini ko‘paytirish soliq tushumlarini ham ko‘paytiradi. Budjet daromadlarining xarajatlaridan oshib ketmasligi uchun hukumat yoki soliq stavkalarini kamaytirishi, yoki xarajatlarini ko‘paytirishi bo‘lmasa, ikki chora-tadbirlarning kombinatsiyasidan foydalanishi shart. Buning oqibati faqat inflyatsiya sur‘atini tezlashtirish bo‘ladi.

Budjet siyosatining ikkinchi konsepsiyasining asosini yilma-yillik emas, iqtisodiy sikllik harakatida balanslashgan budjet yaratadi, ya’ni budjetni balanslashtirishga intiladi. Inqiroz davrida soliq kamayadi va davlat xarajatlari ko‘payadi, ya’ni vaqtincha budjet kamomadi yuzaga keladi. Yuksalish vaqtida soliq ko‘payadi, davlat xarajatlari esa, pasayadi. Yuzaga kelgan byujet davlat profitsiti pasayish davrida yuzaga kelgan kamomadni yopishda foydalanish mumkin bo‘ladi. Ammo uzoq va chuqur pasayish juda ham qisqa vaqtdagi yuksalish bilan almashishi mumkin. O‘sha yuksalish davrida yuzaga kelgan budjet profitsiti inqiroz davrida yuzaga kelgan kamomadni qoplay olmaydi. Shunday qilib, budjet kamomadi siklligiga o‘rin bo‘ladi.

Budjet siyosatining uchinchi konsepsiyasi budjet balanslashuvida emas, balki iqtisodiyotning balanslashuvini ta’minlashga asos bo‘ladi. Shu bilan birga, iqtisodiyotda mustahkamlangan profitsit ham ko‘rinishi mumkin, ya’ni iqtisodiy barqarorligi va uning mahkam rivojlanishi asosiy vazifa, budjetning balanslashuvi esa, ikkinchi darajali bo‘lishi mumkin.

O‘zbekiston budjet siyosati uzoq vaqtlar ichida birinchi konsepsiyaga asoslangan edi: davlat siyosatining kamomadsiz bo‘lishi majburiy talab etardi. Hozirgi vaqtda mamlakatimiz rahbari katta darajada ikkinchi konsepsiya holatiga iqtisodiy sikllik holatida budjetning balanslashuvini mo‘ljallamoqda.

Davlatning moliya siyosatining ikkinchi yo‘nalishi fiskal siyosati bo‘lishidan kelib chiqqan holda, avvalambor, buni ko‘rishdan oldin biz soliq tizimi ifodasining turlarini, funksiyalarini va boshqalarni ifodalaymiz.

#### 42.4. Soliqning mohiyati va uning funksiyalari.

Soliq bu huquqiy va jismoniy shaxslarning amalga oshiradigan budjetga majburiy to'lovidir. Soliq tizimining asosiy elementlariga quyidagilar kiradi:

- soliq ob'ekti soliq solishga kiritilgan mol-mulk yoki daromad;
- soliq sub'ekti soliq to'lovchi, ya'ni jismoniy yoki huquqiy shaxslar;
- soliq manbasi soliq to'lashga qaratilgan daromad;
- soliq stavkasi soliq ob'ekti birligidan soliq miqdori;
- soliq imtiyozi soliq to'lashdan to'liq yoki qisman ozod etilishi.

Bu jarayonda iqtisodiy o'sishni ta'minlash va xo'jalik faoliyatini jadallashtirish hisobidan budjetning yalpi daromadlarida qo'shilgan qiymat solig'i tushumi barqaror ravishda oshib bordi.

Bundan tashqari, 1991 yildan bugungi kungacha stavkalarni pasaytirish bilan bir qatorda soliqlar unifikatsiya qilindi, ya'ni birxillashtirildi hamda bir qator bir-birini takrorlaydigan, kam samara beradigan soliq va majburiy to'lovlar bekor qilindi.

Sanoatning eksportga yo'naltirilgan yangi tarmoqlarini jadal rivojlantirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash maqsadida mamlakatimizning amaldagi qonunchiligi xo'jalik sub'ektlariga daromad solig'i, mol-mulk solig'i va bojxona to'lovlari bo'yicha keng miqyosda imtiyozlar yaratib bermoqda.

Soliqlar quyidagicha tartibga olinishi mumkin:

1. *Kadastrli, kadastr – bu jadval, ma'lumotnoma.* Bu yerda soliq ob'ekti aniq belgilar bo'yicha guruhlariga bo'lingan. Bu guruhlarning turlari va ularning belgilari maxsus ma'lumotlarga yoziladi – kadastrlar. Har bir guruh uchun o'zining soliq stavkalari belgilangan. Ushbu usul shunday xarakterlanadi, ya'ni soliq miqdori ob'ektning daromadlariga bog'liq emas. Misol, transport solig'i ko'rsatilgan stavkada transport vositalari dvigatellarining quvvatidan kelib chiqqan holda belgilanadi, uning ekspluatatsiya qilinishiga ahamiyat berilmaydi.

2. *Deklaratsiya asosida.* Deklaratsiya – bu hujjat bo'lib, bunda soliq to'lovchi daromadlar hisobini va undan to'laydigan soliqlarni keltiradi. Soliq to'lovchini daromadlarini olganidan keyin amalga oshiradi (misol, soliq va foyda).

3. *Daromad manbaiga qarab.* Bu soliq daromadlarini to'laydigan shaxs tomonidan amalga oshiriladi, ya'ni soliq to'lash daromadlarini olguncha amalga oshiriladi. Misol, jismoniy shaxslarning daromadlari solig'i: korxonalar ishchining ish haqi soliq summasini ajratib olib, uni budjetga o'tkazadi, qolgan summasi ishchiga to'lanadi.

Soliqlarning roli ularning funksiyalarida ifodalanadi. Soliqlarning quyidagi funksiyalari farqlanadi:

- *fiskal funksiyasi* – pul vositalarini budjetga akkulyatsiya qiladi. Soliqlarning davlat budjeti daromad qismini shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. 2013 yil davlat budjetlari daromadlarida soliqlarning ulushi 65% tashkil etdi. Davlatning fiskal siyosati bilan biz quyida batafsil tanishib chiqamiz;

- *tartibga solish funksiyasi*. Soliq stavkalari bilan davlat imtiyozlar, jarimalar bilan, soliq to‘lash shartlarini o‘zgartirib, bitta soliqni kiritib va boshqasini ma’n etib, ishlab chiqarishning ma’lum tarmoqlarini rivojlanishi uchun sharoit yaratadi. Misol, kichik tadbirkorlikni rivojlantirish uchun va xalq iste’moli tovarlarini, qurilish materiallarini, tibbiyot texnikalarini va boshqalar shunday ishlab chiqarish kabi sohalar faoliyati soliq to‘lashga imtiyozlarini ko‘rib chiqadi. Soliq to‘lash tizimi yordami bilan davlat fan-texnika tarqqiyotini ishchilar joyi miqdorini ko‘paytirib, ishlab chiqarishning kengayishiga kapitallarini va boshqalarni rag‘batlantiradi;

- *qayta taxsimlash funksiyasi*. Soliqlar yordamida davlat korxonalar va tadbirkorlar foydalarining fuqarolar daromadlarining bir qismini ishlab chiqarish va sotsial infratuzilmalarining rivojlanishiga (misol, avtomobil temir yo‘llarni qurishga), uzoq vaqtda kapital sig‘imli tarmoqlarga investitsiyalarni qoplay oladilar, (elektrostansiyalarni qurishga), noishlab chiqaruvchi shaxslarni qo‘llab-quvvatlashga o‘zlarining daromadlarga ega bo‘lmagan (studentlarga, o‘quvchilarga, pensionerlarga, harbiy xizmatdagilarga va boshqalarga) taqsimlaydi.

**Soliq to‘lash tamoyillari.** A.Smit har qanday iqtisodiy tizimda foydalanish mumkin bo‘lgan soliq to‘lashning asosiy tamoyillarini shakllantiradi:

1). Davlat fuqarolari hukumatni saqlashda o‘zlarining oladigan daromadlariga muvofiq qatnashishi shart.

2). Alohida sub’ektning majburiy to‘laydigan soliq summasi aniq bo‘lishi shart.

3). Har qanday soliq o‘z vaqtida olinishi va shunday yo‘l bilan to‘lovchiga qulay bo‘lishi shart.

4). Har qanday soliq o‘ylab chiqilgan va ishlab chiqilgan bo‘lishi shart, ya’ni chinovniklarning ish haqi ushbu soliqqa tushadigan vositalarning ko‘pchilik ulushini yutib yubormasligi lozim.

Shunday qilib, soliq solinishiga tushadigan mol-mulk yoki daromad ikki marotaba soliq olinishidan himoyalaniishi shart.

**Soliq turlari.** Soliqlar bir necha belgilarda klassifikatsiya qilinadi:



1). Soliq to'lash yo'llari bevosita va bilvosita farqlanadi. Bevosita soliqlar bevosita soliq sub'ektlari tomonidan to'lanadi va to'g'ridan-to'g'ri to'lov qobiliyatiga mutanosib bo'ladi. To'g'ri soliqlarga jismoniy shaxslar daromad solig'i, qimmatbaho qog'ozlar bilan yer solig'i va boshqalar kiradi. Bilvosita soliqlar narx-navoga qo'shilgan soliq orqali olinadi va iste'molchilar solig'i bo'lib hisoblanadi. Bilvosita soliqlarga: aksizlar, qo'shilgan qiymat solig'i, litsenziya to'lovlari kabilar kiradi.

2). Soliqlar o'zlarining foydalanishiga qarab umumiy va maxsus (maqsadli) soliqlarga bo'linadi. Umumiy soliqlar davlat budjetiga umumdavlat taqdirlarini moliyalashtirishga tushadilar, misol, jismoniy shaxslar daromad solig'i yoki foyda solig'i. Maxsus soliqlar qat'iy ma'lum tayinlanishga ega, misol, mineral xom ashyo asoslarini takror ishlab chiqarish solig'i, o'rmon solig'i.

3). Soliq vositalari qaysi organlar idorasiga tushishi bog'liqligiga qarab, davlat organlari solig'i, hududiy organlar solig'i va mahalliy organlar solig'i, deb farqlanadi.

Davlat soliqlari qonuniy aktlar bilan belgilanadi.

O'zbekiston Soliq Kodeksiga muvofiq quyidagilar kiradi:

- 1) Qo'shilgan qiymat solig'i (QQS);
- 2) Aksizlar;
- 3) Jismoniy shaxslar daromad solig'i;
- 4) Yagona ijtimoiy soliq;
- 5) Atrof-muhitning ifloslanishi uchun soliq;
- 6) Foyda solig'i;
- 7) Davlat poshlinasi;
- 8) Bojxona poshlinasi;
- 9) Meros qilish va sovg'a tartibida o'tadigan mol-mulk solig'i;
- 10) Spirtli ichimliklarni ishlab chiqarish huquqiga litsenziya berish uchun yig'imlar va boshqalar.

Hududiy soliqlar va yig'imlarga quyidagilar kiradilar:

- 1) Korxonalar mol-mulk solig'i;
- 2) O'rmon solig'i;
- 3) Biznes o'yinlari solig'i;
- 4) Almashuv daromad solig'i;
- 5) Transport solig'i.

Mahalliy soliq va yig'imlar:

- 1) Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'i;
- 2) Yer solig'i;

3) Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslardan yig'im;

4) Savdo qilish huquqi uchun yig'im;

5) Vino-aropq mahsulotlarini savdo qilish huquqi uchun yig'im va boshqalar.

Bu borada takroriy soliqqa tortishga yo'l qo'ymaslik hamda xo'jalik sub'ektlari uchun soliq yukini kamaytirish maqsadida ilgari daromad solig'i to'lashda soliqqa tortiladigan bazaga kiritilgan ish haqi xarajatlari va boshqa bir qator xarajatlar daromad solig'i bo'yicha soliqqa tortish bazasidan chiqarildi.

Soliq islohotlari amalga oshirilgan yillar mobaynida soliq yukining kamaytirilishiga qaramasdan, soliq va boshqa majburiy to'lovlar tushumining barqaror o'sishini ta'minlashga erishildi.

Mustaqillik yillarida soliq tizimini isloh qilish bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida to'lanayotgan soliqlar tarkibida ijobiy o'zgarishlar ro'y berdi.

Jumladan:

- tabiiy resurslardan, birinchi navbatda, yer osti boyliklaridan foydalanish bilan bog'liq soliqlar ulushi sezilarli darajada oshdi;

- umumiy soliq tushumlari hajmidan jismoniy shaxslarning daromad solig'i ulushi ko'paydi;

- daromad (foyda) solig'i ulushi qariyb ikki barobar pasaydi va bu soliq stavkasining 5 barobardan ortiq pasayishi hamda soliqqa tortish bazasidan chiqarib tashlanadigan xarajatlar ro'yxatining kengayishi bilan bog'liq ;

- soliq ijtimoiy to'lov ulushi sezilarli darajada kamaydi, bu uning stavkalari 1,5 barobardan ortiq pasayishi bilan bog'liq;

- soliq stavkalari ikki barobar pasaytirilgan bir paytda, kichik biznes sub'ektlari tomonidan to'lanayotgan soliqlar ulushi ko'paydi.

O'zbekistonda soliq qonunchiligini takomillashtirish, soliq yukini bosqichma-bosqich kamaytirib borish, soliq to'lovchilarni ularning xo'jalik faoliyatiga asossiz aralashuvlardan himoya qilishni kuchaytirish bo'yicha chora-tadbirlar qurish bilan bir vaqtda, soliqda tortish tizimini takomillashtirish va soddalashtirish borasida tizimli ishlar olib borilmoqda.

Mustaqillik yillarida yurtimizda keng miqyosdagi soliq islohotlari amalga oshirildi. Buning natijasida bozor iqtisodiyoti talablariga javob beradigan, davlat budjetini to'ldirishni va zarur davlat xarajatlarini moliyalashtirishni ta'minlaydigan va shuningdek, aholi daromadlari o'sishini, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, uning yangi tarmoqlari, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantiradigan zamonaviy soliq

tizimi yaratildi. Iqtisodiyotda soliq yukining bosqichma-bosqich kamaytirilishi – olib borilayotgan soliq islohotlarining muhim, natijasi, yuqori iqtisodiy o‘shish sur‘atlarinn ta‘minlashning eng muhim omillaridan biri bo‘ldi.

#### **42.5. Davlatning fiskal siyosati.**

Fiskal siyosati – bu davlatning xarajatlar va soliqlar siyosati bo‘lib, ya‘ni hukumatning xarajatlar va soliqlarni tartibga solish bilan bog‘liq tizim edi. Hukumatning xarajatlar va soliqlar fiskal siyosatining instrumenti bo‘lib hisoblanadi. Hukumat xarajatlariga biz bilishimizcha, davlat budjeti hisobiga quriladigan yo‘llar, maktablar, tibbiyot idoralari, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini, harbiy texnikalarni sotib olish, tashqi savdo ishlari, ijtimoiy sohalarni saqlash, fondlar, san‘atni qo‘llab-quvvatlash va boshqalar kiradi.

Davlat fiskal siyosatining asosiy richaglari bo‘lib quyidagi o‘zgarishlar hisoblanadi:

- soliq stavkalari;
- soliq to‘lash asoslari;
- soliq turlari;
- ularning miqdorlari;
- davlat xarajatlari o‘lchamlari va ularning yo‘nalishlari.

Iqtisodiy nazariyada keynscha maktab va «iqtisodiy taklif» nazariyasi tarafdorlari davlatning fiskal siyosati metodlarini o‘tkazishda har xil ko‘rib chiqqanlar.

Keynschilar e‘tiborni biz bilamizki, mamlakatning iqtisodiy rivojlanishini rag‘batlantirish sifatida samarali yalpi talabni yaratishga qaratishgan. Yalpi talab o‘shishining asosiy omili va shunga binoan ishlab chiqarish hajmini real o‘shishini ular soliqlarning qisqarishi, bu esa, qisqa vaqt ichida budjetga tushumlarning qisqarishiga olib keladi, deb hisoblaydilar. Buning oqibatida budjet kamomadining yuzaga kelishi yoki yuz beradi. Keynscha nazariyasiga muvofiq, an‘anaviy bo‘lgan fisal siyosatining ikki yo‘nalishi mavjuddir.

*Birinchi yo‘nalish* – disraksion siyosat, bu hukumatning qabul qilgan qarorlari asosida olib boriladi. Bu davlatning inflyatsiya va bandlikka, YaIM hajmiga real ravishda ta‘sir yetkazish maqsadi bilan soliq va davlat xarajatlari darajasini bilib turib tartibga solishidir. Davlatning xarajatlari yalpi talabga, investitsiyaga hamda multiplakatsion samarani egallagan investitsiya kabilarga ta‘sirni o‘tkazadi. Davlat xarajatlarining o‘zgarishi natijasida davlat xarajatlarining multiplikatori YaIM hajmining qanday o‘zgarishini o‘rgatadi:

$$M_C = \frac{\Delta Y}{\Delta C}$$

**M<sub>g</sub>** – davlat xarajatlari multiplikatori;

$\gamma$  – YaIM hajmi;

**G** – davlat harajatlari.

Soliq ham YaIM ulushiga ta'sir o'tkazadi. Soliq stavkalarining ko'payishi iste'mol daromadlarining qisqarishiga olib keladi, bu degani, xarajatlarning qisqarishi hamdir. Yalpi talab kamayadi va YaIM real hajmining ham kamayishidir. Davlat xarajatlarining va investitsiyalar kabi soliqlarning o'zgarishi, multiplikatsion samarasiga olib keladi. Soliq multiplikatori – soliqlar o'zgarishining ta'siri ostida YaIM necha barobar o'zgarishini ko'rsatuvchi koeffitsiyent.

$$M_T = \frac{\Delta Y}{\Delta T}$$

$M_T$  – soliq multiplikatori;

**T** – soliqlar;

$\gamma$  – YaIM hajmi;

Soliq multiplikatori investitsiya multiplikatoridan va davlat xarajatlaridan kamroq, shu sababli soliqlarning qisqarishida nafaqat iste'mol ko'payadi, balki jamg'arma ham. Davlat xarajatlarining va investitsiyalarning birlik o'sish sur'atlari esa, YaIM miqdoriga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Diskretsiyon fiskal siyosat, umumoliyaviy siyosatdek iqtisodiyotni barqarorlashtirishni tartibga solish uchun ikki yo'nalishda foydalanadi: iqtisodiy pasayishni rag'batlantirish va yuksalishda (42.2- jadval).

42.2- jadval


### Fiskal siyosatining diskretsiyonli har xilligi

Pasayish, turg'unlik	Keragidan ortiqcha talab bilan chaqirilgan, inflyatsiya, yuksalish
Rag'batlantiruvchi fiskal siyosat	O'zini tiyish fiskal siyosat
Davlat xarajatlarining ko'payishi	Davlat xarajatlarining pasayishi
Soliqlarning pasayishi	Soliqlarning ko'payishi
Budjetning kamomad yo'nalishi harakatlari	Budjet profitsitlari yo'nalishlarining harakati

Fiskal siyosati ikkinchi yo'nalishining qurilgan stabilizatorlari, ya'ni o'zini-o'zi tartibga soluvchi tex-mexanizmlarining ishlash rejasi bo'ladi. Bunga progressiv soliq to'lanish tizimi (daromad qancha ko'p bo'lsa, soliq stavkasi shuncha ko'p bo'ladi); davlat transfert tizimi (ishsizlik bo'yicha nafaqalar tizimi, ijtimoiy to'lovlar, aholining kam ta'minlangan qatlamlarini qo'llab-quvvatlash dasturlari va boshqalar) kiradi. YaIM hajmining o'sishida

solih tushumlarining mutanosib o'sish sur'atlari seziladi, bu o'z navbatida aholining sotib olish qobiliyatlari pasayadi hamda iqtisodiy o'sish ushlab turiladi. Milliy ishlab chiqarishning pasayishi yuz bersa, solih tushumlari kamayadi. Bu aholining sotib olish qobiliyatlarini ko'paytiradi, yalpi talab ko'payadi va iqtisodiyot pasayishi ushlab turiladi. Transport to'lovlari esa, iqtisodiyot yuksalish vaqtida qisqaradi, pasayish vaqtida esa, o'sib boradi. Qurilgan stabilizatorlar faqat sikllarning tebranishini pasaytiradi, ammo ularni to'liq yo'qotishi mumkin bo'lmaydi. Bu muammolar diskretsiyon siyosat yordamida hal bo'ladi.

«Iqtisodiy taklif» nazariyasi tarafdorlarining keynschilardan farqi solih stavkalarining pasayishi yalpi taklifning ko'payishiga olib keladi, deb hisoblaydilar. Soliqlarning pasayishi aholining va tadbirkorlarning daromadlarining o'sishiga yordam beradi, demak, ishlab chiqarishning kengayishiga ham oqibatda bu davlat budjetiga tushumlarni ko'payishiga olib keladi. Bu bog'liqlik «Laffer samarasi» nomini oldi. Laffer egiluvchanligi solih stavkali dinamikasi va davlat budjet daromadlari orasidagi bog'liqlikni ko'rsatadi.(42.1-chizma).



**42.1-chizma. Laffer egri chizig'i.**

Solih stavkali % stavkalarining ma'lum chegaralargacha ko'payishida (50%) davlat daromadlari ko'payadi, keyinchalik esa kamayishi boshlanadi (ishlov faolligi pasayadi, tadbirkorlarning bir qismi "hufyona" iqtisodiyotga

ketadi). Endi 100% soliq to'lashda davlat daromadlari nolga teng bo'ladi. Misol, soliqlarning 20 va 80% budgetiga daromad bir xil bo'ladi. Albatta, qisqa vaqt ichida soliqlarning pasayishi so'zsiz davlat budgetiga soliq tushumlarining kamayishiga olib keladi, ammo uzoq vaqt ichida davlat budgetiga soliq tushumlari iqtisodiy o'sish natijasida ko'payadi, ya'ni «iqtisodiy taklif» nazariyasining tarafdorlari taklif bo'yicha fiskal siyosatini o'tkazish metodlari uzoq vaqt ichidagi samaradorlikka hisoblangan.

Ushbu bobda davlatning moliya tizimi va moliyaviy siyosat ko'rib chiqildi. Boshlanishda biz iqtisodiy kategoriya sifatida moliya mohiyatini ularning asosiy funksiyalarini hamda moliya munosabatlarining sub'ekti kim bo'lishini tushundik. Keyinchalik moliya tizimi tushunchasi bilan tanishdik va uning asosiy bo'g'inlarini ajratib chiqdik. Shu bilan birga, biz batafsil markazlashgan moliya tizimini ko'rib chiqdik, bu yerda asosiy e'tiborni davlat budjeti, budjetdan tashqari fondlarga, mol-mulk va shaxsiy sug'urtalash kabi fondlarga qaratdik. Moliya siyosatini ko'rib chiqishda ikki o'zaro bog'langan yo'nalishlarga budget siyosati (budgetni tartibga solish sohasida) va fiskal siyosatiga (soliqlar va davlat xarajatlari sohasida) alohida e'tibor berildi.

Asosiy e'tibor budget siyosatining har xil konsepsiyalariga, soliqlarning mohiyatiga, ularning O'zbekistondagi funksiyalariga va turlariga hamda moliyaviy siyosatning har xil metodlarda o'tkazilishiga qaratildi.

### **Qisqacha xulosalar**

Har qanday davlatda moliya tizimi – bu asosiy iqtisodiy tizimi bo'lib, butun mamlakat miqyosidagi xo'jalikni moliyaviy kompleks bilan ta'minlashga xizmat qiladi, u faoliyatida to'rtta funksiyani amalga oshiradi: taqsimlovchi, nazorat qiluvchi, rag'batlantiruvchi va fiskal siyosatiga oid funksiyalar. Bunda asosiy rolni davlat moliyasi, asosan to'plovchi sifatida davlat budjeti ahamiyatga ega. Davlat budjetining manbalari bu soliq va nosoliq to'lovlari bo'lib xizmat qiladi, shu jumladan, daromad solig'i va bilvosita soliqlar. Bularning ulushiga davlat budjeti tutadigan daromadlarning 80 – 90% to'g'ri keladi.

Soliq to'lov normasi soliq stavkasi hisoblanadi. Bilvosita soliqlar hozirgi vaqtda bir necha turda bo'lib, bular jumlasiga – aksizlar, fiskal monopol solig' hamda bojxona poshlinasi kiradi.

Bularning orasida asosiysi bu aksiz solig'i, ya'ni tovarlar narxiga va xizmatlar tarifi ustiga quyilgan quyilmalar va qo'shilgan qiymat solig'idir.

Davlat budjetining chiqim – xarajat qismi paydo bo'ladi, bular ham aktiv va passiv nomidan yuz beradi.

## **Asosiy tushunchalar**

Moliya – pul vositalari fondini yaratish va foydalanish jarayonida iqtisodiy munosabatlarni aks ettiruvchi iqtisodiy kategoriya.

Moliya tizimi – bu moliyaga kiradigan bo‘g‘inlar yig‘indisi bo‘lib, ular quyidagilardan iborat: 1. Moliya sistemasiga kiradigan mahalliy budjetlar. 2. Budjetdan tashqari maqsadga muvofiq fondlar. 3. Korxonalar, uyushmalar, tashkilotlar, idoralar iqtisodiy tarmoqlar moliyasi. 4. Mulkiy va tarixiy sug‘urtalar. 5. Kredit (davlat va banklar).

Soliq – yuridik va jismoniy shaxslarning majburiy to‘lovi, soliq bevosita va bilvosita turlariga ajratiladi. Soliq belgilashda aniqlanadi: 1. soliq to‘lovchilar; 2. soliq to‘lov ob‘ekti; 3. soliq bazasi; 4. soliq stavkasi; 5. soliq to‘lash vaqti va tartibi.

### **Mavzuning namunali savollari:**

1. Moliya: umumiy tushunchalar, vazifalar. Davlatning moliyaviy sistemasi tuzilishi tamoyillarini O‘zbekiston moliya sistemasining o‘ziga xos xususiyatlari.
2. Soliq to‘lov tizimining nazariy jihatlari, tamoyil shakllari, soliqlarning asosiy turlari, O‘zbekistonning hozirgi soliiq tizimi.
3. Davlatning moliya sistemasi va uni realizatsiya qilish. Budjet tanqisligi va hozirgi iqtisodiy sistemadagi davlat qarzi.

### **Seminar darslarni muhokama qilish uchun savollar**

1. Moliyaning mohiyati va vazifalari. Moliya resurslari, moliya mexanizmi.
2. O‘zbekistonda yangicha moliyalashtirishga o‘tishi. Sug‘urtalash va uning turlari.
3. Davlat moliyasi, soliqlar va ularning vazifalari. Davlat budjeti.
4. Budjetning xarajat (chiqim) va daromad qismi budjet tanqisligi.

### **Mustaqil ta’lim uchun savollar**

1. Soliq to‘lash tizimida qanday asosiy o‘zgarishlarni tavsiya etish mumkin?
2. Hukumat xarajati ikki turga ajratiladi: tovar xizmatlar va transport to‘lovlar xarajati. Bular orasidagi xarajatlarni tushuntirib bering va misol keltiring.
3. O‘zbekistonda *soliq* to‘lov sistemasini va stavkalarini tushuntirib bering.

## 43 BOB. INFLYASIYA, INFLYASIYAGA QARSHI CHORALAR TIZIMI

**Inflyatsiyaning** mohiyati. Inflyatsiya narxlarining umumiy o‘**sishida** namoyon bo‘ladigan talab va taklifning balansi (umumiy muvozanatning tuzilish shakli tushuniladi) inflyatsiya davrida barcha narxlar o‘**sadi**, degan so‘z emas. Ba‘zi tovarlarning narxlari o‘**sishi**, boshqalari esa, barqaror bo‘lishi mumkin. Bu proporsiyalarning asosida talab va taklif o‘rtasidagi turli nisbiy va turlicha egiluvchanlik yotmoqda. Inflyatsiya narxlarining uzluksiz umumiy o‘**sishi** sifatida xarakterlash mumkin. Bunday holda uni belgilovchi asosiy so‘zlar quyidagilardir: uzluksiz, ya‘ni narxlar oshishi barcha bozorlarni qamraydi va bu butun iqtisodiyot uchun xarakterlidir. Pullar qay ahvolga tushadi? Ular qadrsizlanadi, ularning xarid quvvati tushib ketadi.

Ammo narxlarning har qanday oshishi inflyatsiyaning ko‘rsatkichi bo‘lib xizmat qilmaydi. Narxlar mahsulot sifati yaxshilanganligi, ishlab chiqarish omillarining cheklanganligi, jamoa ehtiyojlarining o‘zgarishi tufayli ham oshishi mumkin.

### 43.1. Inflyatsiyani o‘lchash

Narxlar indeksleri. Makroiqtisodiyotda indekslar xususan, narxlar indekslaridan keng foydalaniladi. Ular orasida keng tarqalganlari quyidagilardir: turmush qiymati indeksi (iste‘mol tovarlari indeksi), ulgurji narxlar indeksi (ishlab chiqarish maqsadidagi tovarlar narxlarining indeksleri) va YaMM deflyatori.

Ularning barchasi ma‘lum vaqt mobaynida narxlar o‘rtacha darajasining nisbatan o‘zgarishini ifoda etadi. Odatda, asos qilib olingan yil narxlarini 100% deb olib, qolgan yillar narxi ana shu 100% ga nisbatan baholanadi.

Turmush qiymati indeksi. Turmush qiymati indeksi yordamida iste‘mol tovarlarning qayd qilingan «bozor savati» narxlari o‘zgartiriladi. AQShda bunday indeks mehnat statistikasi byurosi tomonidan har oy hisoblab chiqiladi. Iste‘mol savatida o‘rtacha har bir oilasi tomonidan ma‘lum vaqt davomida (oy, yil) olinadigan tovarlarning va xizmatlarning 400 turi hisobga olinadi.

$$\text{Narx indeksi} = \frac{\text{Mazkur davrda «bozor savati» ning narxi}}{\text{Asos qilib olingan davrda «bozor savati» ning narxi}}$$

Agar AQSh da avval asos qilib olingan davr sifatida 1967 yil olingan bo‘lsa, hozir esa, 1982 yil olinadi. Bu shu bilan bog‘liqki, jamiyat rivojlanishi bilan inson ehtiyojlari ham o‘zgaradi, demak, «Iste‘mol savati» ning tarkibi ham o‘zgaradi.



1996 yilda AQSh da turmush qiymati indeksi 129% ni tashkil etdi. Bu nimani bildiradi? Bu tovar va xizmatlarning o'sha termasi uchun 1982 yildagiga nisbatan iste'molchilar hozir 1,29 marta ko'proq to'lamoqdalar, ya'ni narxlar 14 yilda 29% ga oshdi.

Turmush qiymati indeksidan minimal ish haqini hisoblashda foydalaniladi va ish haqini darajasi unga bog'liq bo'ladi. Rivojlangan mamlakatlarda yarim yilda bir marta ish haqini korrektirovka qiladilar. Inflyatsiya o'sishining 1% ga ish haqining o'sishi 0,5 % ni tashkil etadi.

**Ulgurji narxlar indeksi.** Ulgurji narxlar indeksini hisoblashda (ishlab chiqarishga mo'ljallangan tovarlar narxi indeksi) ishlab chiqarishda ishlatiladigan oraliq tovarlarning ma'lum miqdori narxlarning o'zgarishi ko'rib chiqiladi. Ulgurji narxlarning o'zgarishi xom ashyoga, yarim fabrikatlarga, materiallarga, ulgurji bozordagi mahsulotlarning so'nggi turlariga narxlar dinamikasini ifoda etadi. Ko'rib chiqilgan ikki indeks bir-biri bilan uzviy bog'liq, chunki sanoat tovarlari va xizmatlari ulgurji narxlarining o'sishi chakana narxlarning o'sishiga olib keladi.

**YaMM deflyatori.** Narxlarning umumiy darajasini o'lchash uchun ko'pincha yalpi milliy mahsulot narxlar indeksi YaMM deflyatori ishlatiladi. Uning savatiga jamiyatda ishlab chiqilgan so'nggi tovarlar va xizmatlarning hammasi kiradi, ya'ni YaMM deflyatori tovar va xizmatlarning alohida guruhiga qamramay, jamiyatdagi narxlar o'zgarishi yanada to'liq aks ettiradi.

$$\text{YaMM deflyatori} = \frac{\text{Nominal YaMM}}{\text{Real YaMM}} \times 100\%$$

bu yerda, nominal YaMM – mazkur yildagi (ya'ni bu yil) joriy narxlar bo'yicha sarflar; real YaMM – asos qilib olingan yil narxlari bo'yicha bu yil sarflar, real YaMM faqat narxlarning o'sishi hisobiga yalpi milliy mahsulot qanchalik o'sganini ko'rsatadi.

### 43.2. Inflyatsiya turlari

Namoyon bo'lish nuqtai nazaridan «ochiq» va «yashirin» inflyatsiyani farqlaydilar.

**Ochiq inflyatsiya.** U bozor iqtisodiyoti mamlakatlari uchun xarakterli bo'lib, bu yerda talab va taklifning o'zaro harakati narxlarning ochiq cheklanmagan o'sishiga turtki bo'ladi. Garchi ochiq inflyatsiya bozor jarayonlarini buzsada, har holda u narxlarning ishlab chiqaruvchi va xaridorlarga kapitallarni qoidali joylashtirish sohalarini ko'rsatuvchi signal rolini saqlaydi.

**Yashirin inflyatsiya.** Bu inflyatsiya narx va daromadlar ustidan ma'muriy buyruqbozlik nazorati iqtisodiyotiga xosdir. Narxlar ustidan qattiq nazoratning o'rnatilishi inflyatsiyaning narxlar o'sishda ochiq namoyon bo'lishga yo'l qo'ymaydi. Bunday vaziyatda yashirin harakatga ega bo'ladi. Tashqi jihatdan narxlar barqaror bo'lib qolaveradi, ammo pul massasi ortar ekan, ularning ko'pligi tovarlar defitsitiga olib keladi.

Uzoq vaqt davomida sobiq ittifoq iqtisodiyoti uchun yashirin inflyatsiya xarakterli bo'lib, u aholining qoniqmagan talablari va jamg'armalari o'sishida ifodalandi. 1969 yili daromadlarning o'sishida jamg'armalar me'yori 50% ni, 1976 yili 79% ni, 1984 yili esa 100% ni tashkil etdi. Ko'pincha jamg'armalar majburiy, inflyatsion tuzilish esa, 40% ni tashkil qildi. Defitsit navbatlarni, soyadagi iqtisodiyotni vujudga keltirardi, mehnatga rag'batlar zaiflashadi.

Yashirin inflyatsiya natijasida tovar defitsiti ko'rinmas inflyatsiya jarayonini ko'rinarli tomoni bo'lib qoladi, chunki tovarlarning o'sha miqdoriga pul belgilarining ko'pligi to'g'ri keladi. Bozor iqtisodiyotida bu disproporsiyadan chiqishning tabiiy yo'li pul narxlarining o'sishi ko'rinishida bo'ladi. Yashirin inflyatsiya holatida pul belgilarining faqatgina bir qismi haqiqiy puldir, deb aytish mumkin. Xaridorlar o'z pullarining ahamiyatini tasdiqlash uchun kamyob tovarlarni topishga harakat qiladi. Inflyatsiya sharoitlarida «qora bozor» lar paydo bo'ladi. «Qora bozor» bir jihatdan tovarlarning haqiqiy narxlarini ko'rsatadi. Narxlarning o'zgarmasligi to'g'risidagi illyuziya sotuvchilar va xaridorlarni adashtirib iqtisodiy farovon ko'rinishinigina barpo etadi. Narxlarning o'suvchi sur'ati inflyatsiyaning boshqa ko'rinishidir. Shu nuqtai nazardan inflyatsiyaning uch ko'rinishini ajratish mumkin:

- **o'rtacha**, bunda narxlar yiliga 10% dan oshadi. Pul qiymati saqlanadi, nominal narxlarda shartnomalarni imzolash xavfi yo'q. G'arbda o'nga iqtisodiyotning me'yordagi rivojining elementi sifatida qaraydi, chunki u alohida va ortiqcha bezovtalik uyg'otmaydi;

- **yuguruvchi** (galopiruyushaya) inflyatsiya – bunda narxlar o'sishi yiliga ikki va undan ortiq qiymatli raqam bilan o'lchanadi, shartnomalar narxlarning o'sishiga «bog'lanadi», pullar jadallik bilan moddiylashadi. Inflyatsiyaning bu turi xalq xo'jaligi uchun xavfli hisoblanadi va inflyatsiyaga qarshi choralarni talab qiladi;

- **giperinflyatsiya** – narxlar astranomik sur'atlar bilan o'sadi, narxlar va ish haqi o'rtasidagi farqlar fojiali tus oladi, jamiyatning eng ta'minlangan qatlamlarining ham, hatto farovonligi buziladi, yirik korxonalar foydasiz, zarar keltiradigan bo'lib qoladi; u xo'jalik mexanizmini harakatsiz qilib qo'yadi, chunki pullarni tovarga aylantirish maqsadida pullardan qochish

effekti keskin kuchayadi. Iqtisodiy aloqalar buzilib, barter ayirboshlashga o'tish amalga oshiriladi.

Giperinflyatsiya sharoitlarida muvaffaqiyatli biznes olib borish deyarli mumkin emas. Gap faqat omon qolish strategiyasi ustida bo'lishi mumkin. Omon qolish retsepti shunday: avtonomlik va o'ziga yetarlik, ishlab chiqarishni soddalashtirish, tashqi aloqalarni qisqartirish, ichki xo'jalik yuritishning asos bo'luvchi elementlarini tabiiylashtirishdir.

**Barqarorlashtirilgan va barqarorlashtirilmagan inflyatsiya.** Narxlar o'suvini barqarorlashtirish darajasiga ko'ra inflyatsiya ikki turga bo'linadi: barqarorlashtirilgan va barqarorlashtirilmagan inflyatsiya. Barqarorlashtirilgan inflyatsiyada turlicha tovar guruhlarining narxi bir-biriga nisbatan o'zgarmas bo'lib qoladi, muvozanatlashmaganda esa, turli tovarlarning narxlari bir-biriga nisbatan va xususan turli proporsiyalarda doimo o'zgaradi. Barqarorlashtirilgan muvozanat biznes uchun qo'rqinchli emas. Faqat vaqti-vaqti bilan tovarlar narxini oshirishga to'g'ri keladi. Daromadlikni yo'qotish xavfi narxlarni oshirish zanjirida oxiridav turuvchi tadbirkorlargagina xosdir. Bu odatda, intensiv tashqi koorparatsion aloqalarga asoslangan, ular mahsulotning narxi tashqi proporsiya narxlari oshishining barcha summasini ifodalaydi va aynan ular o'ta qimmat mahsulotni so'nggi qiymat mahsulot iste'molchiga o'tkazishni to'xtatib qolish xavfida bo'ladi.

- Rossiya va Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlarida barqarorlashmagan inflyatsiya ko'proq harakat qiladi. Xom ashyoga narxlarining o'sishi oldinda boradi. Komplektlashtiruvchi komponentlarning qiymati murakkab asbob narxidan yuqori bo'ladi.

Inflyatsiyani muvozanatsizligi – biznes uchun katta kulfatdir. Agar kelajak bashorat (prognoz)lari va narxlar o'sishining liderlari bo'lgan tovarlar guruhlari kelajakda ham lider bo'lib qolishiga ishonch bo'lmasa, bu yana ham yomon. Kapitalni joylashtirish sohasini ratsional tanlash, investerlash variantlarining daromadligini hisoblab chiqish va solishtirishning iloji yo'q. Bunday sharoitda sanoat rivojlana olmaydi. Industrial taraqqiyot normal tuyuladi. Shunday vaqtda qisqacha dallollik operatsiyalarni amalga oshirish mumkin.

**Kutilayotgan va kutilmagan inflyatsiya.** To'rtinchi mezon nuqtai nazaridan kutilayotgan va kutilmagan inflyatsiya farqlanadi. Kutilayotgan inflyatsiya, deganda avvaldan aytilgan va bashorat qiladigan inflyatsiya tushuniladi. Kutilmagani esa, buning aksi bo'lib, kutilmaganda sodir bo'ladi. Muvozanatlashgan va kutilayotgan inflyatsiya kombinatsiyasi iqtisodiyotga aytarli zarar yetkazmaydi. Muvozanatlashmagan va kutilmagan inflyatsiya ayniqsa, xavflidir hamda moslashishning katta xarajatlarini talab qiladi.

### 43.3. Inflyatsiya jarayon sifatida

**Inflyatsiya sabablari.** Narx oshishi va ortiqcha pullarning paydo bo'lishi – bu faqat inflyatsiyaning tashqi namoyon bo'lishi; milliy xo'jalik proporsiyalarining buzilishi, ya'ni umumiy muvozanatning buzilishi inflyatsiya sodir bo'lishining chuqur sababidir.

Jahon iqtisodiy adabiyotida milliy xo'jalikni disbalansga va inflyatsiyaga olib keluvchi uch asosiy kuchni farqlaydilar:

- qog'oz pullar emissiyasiga tashqi savdo, non ishlab chiqarish va avvalo, harbiy va zamonaviy davlat funksiyalari bilan bog'liq sarflarga davlat monopoliyasi;

- ish haqi u yoki bu darajasining o'lchami va davomiyligini beruvchi kasaba uyushmasi monopoliyasi;

- narxlar va o'z xarajatlarini belgilashda katta firmalarning monoplizmi.

Mana shu uch sabab o'zaro bog'liq va har biri o'zicha talab va taklifni o'sishi yoki tushib ketishiga olib kelishi mumkin hamda bunda ularning muvozanati bo'ziladi. Inflyatsiyaga qarshi ko'rashga konkret choralar ishlab chiqarishda inflyatsiya manbalarining ahamiyati muhimdir.

Bozor iqtisodiyotiga xarakterli bo'lgan ko'plab boshqa hodisalar kabi inflyatsiyaga bir xil baho berib bo'lmaydi. Inflyatsiyaning salbiy oqibatlari mamlakatimizda yaxshi ma'lum. Shu bilan birga, inflyatsiya iqtisodiy o'suvga to'rtki bo'lishi faktlarining uchrashishi qiyinroq. Shuning uchun iqtisodiyotning bozorchasini tartibga solishga xos bo'lgan boshqa ko'pchilik jarayonlar kabi inflyatsiyaga bosilishi, yo'q qilinishi kerak bo'lgan absolyut yomonlik sifatida qarash kerak emas. U davlat tomonidan jamiyat foydasi va iqtisodiy rivoji uchun qurol sifatida ishlatilishi mumkin.

Inflyatsiya narxlar va fond me'yorining oshishiga turtki bular ekan, avval kon'yukturani jonlashtirish omili sifatida chiqadi, ammo chuqurlashib borar ekan, u harakatlantiruvchidan to'xtatuvchiga aylantiradi va bu bilan mamlakatdagi ijtimoiy, iqtisodiy barqarorlikni kuchaytiradi.

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda sudraluvchi inflyatsiya iqtisodiy o'suvining normal omili sifatida qaraladi. Biroq yuguruvchi va *ayniqsa, giperinflyatsiya* negativ hodisa sifatida qabul qilinadi, chunki u ulkan ijtimoiy-iqtisodiy xarajatlarga olib keladi.

Inflyatsiyaga qarshi kurash makroiqtisodiy vazifadir. Hukumat oldida turgan asosiy vazifa: inflyatsiyani radikal choralar vositasida tugatish kerak yoki moslashish lozim. Turli mamlakatlar buni o'zlaricha hal qiladilar. AQSh, Buyuk Britaniya inflyatsiyaga qarshi faol ko'rashadilar, boshqa mamlakatlar esa, moslashuvi uchun davlat choralari kompleksini ishlab chiqadi.


**Inflyatsiya mexanizmi.** Inflyatsiya mexanizmini ko‘rib chiqish uning ikki tipiga murojaat qilamiz: 1) talab inflyatsiyasi, unda talab va taklif muvozanati talab tomonidan buziladi va ikkinchidan, taklif inflyatsiyasi unda talab va taklif disbalansi ishlab chiqarish harakatlarining o‘shish natijasida sodir bo‘ladi.

AD-AS modeliga qaytamiz (birgalikdagi talab - birgalikdagi taklif). Inflyatsion jarayonlarning boshlanishi uchun birgalikdagi talab birgalikdagi taklifdan ortiqcha bo‘lishining o‘zi yetarli, shekilli. Bunday vaziyat qachon mumkin bo‘ladi?

- a) AS birgalikdagi talab keskin ortadi, birgalikdagi taklif esa, o‘zgarmaydi;
- b) birgalikdagi taklif doimiy birgalikdagi talabda pasayadi;
- v) birgalikdagi talabning kengayishi birgalikdagi taklif o‘shishidan ortiq bo‘ladi.

#### 43.4. Talab inflyatsiyasi va taklif inflyatsiyasi

**Talab inflyatsiyasi.** Birgalikdagi taklif doimiy bo‘lganda birgalikdagi talab o‘ssa yoki birgalikdagi talabning o‘shishi taklifning kengayishidan ortsa, talabning inflyatsiyasi sodir bo‘lishi mumkin, talabning inflyatsiyasini gohida bir jumla bilan tushuntiradilar: «Haddan tashqari katta pullar miqdori juda kam miqdordagi tovarlar orqasidan quvadi». Ammo birgalikdagi talab bilan bir tomondan va ishlab chiqarish hajmi, bandlik va narxlar darajasi o‘rtasidagi boshqa tomondan, nisbat ancha murakkabdir.




#### 43.1-chizma. Narx darajasi va bandlik.

Egri chiziqning birinchi kesmasidan umumiy xarajatlar ( $S+I+S_1+NX$ ) shu qadar kamki, yalpi milliy mahsulot hajmi o‘z maksimal darajasidan orqada qoladi. Ishsizlik darajasi yuqorida ishlab chiqarish quvvatlarining katta ulushi harakatsizdir.

Faraz qilamiz, birgalikdagi talab o'sa boshladi, bu ishlab chiqarishning o'sishiga, ishsizlikning kamayishiga olib keladi, narxlar darajasi juda sekinlik bilan orta boshlaydi (bu shu bilan tushuntiriladiki, harakatga solinmagan mehnat va moddiy resurslarning ulkan miqdori mavjud: axir kechagi ishsizlar darhol ish haqini oshirishni talab qilmaydilar).

Talab o'sib borgan sari iqtisodiy egri chiziqlarning ikkinchi kesmasiga kiradi: ishlab chiqarish o'sadi, narxlar o'sadi. Ishlab chiqarish kengayib borishi bilan zaxiralar tugab boradi, zarur iqtisodiy resurslarni topish tobora qiyinlashadi. Axir malakali ishchi kuchini jalb qilish yuqoriroq haq to'lashni talab qiladi va bu tabiiy ravishda xarajatlarning hamda narxlarning oshib borishiga olib keladi.



**43.2-chizma. Inflyatsiya talabi.**

Uchinchi kesma to'liq bandlik bilan harakatlanadi, maksimal yalpi mahsulotga erishildi, ya'ni iqtisodiy talabning o'sishiga hajmning ortishi bilan javob bera olmaydi. Ortib borayotgan birgalikdagi talab faqat bir narsaga – narxlarning ortishigagina olib kelishi mumkin.

Talab inflyatsiyasining shartlari:

- omillar ish haqining va bandlikning o'sishi bo'lgan aholi talabining o'sishi;

- davlat sarflarining o'sishi (harbiy va ijtimoiy buyurtmalarining o'sishi).

Faraz qilamizki, iqtisodiyot to'la bandlik va ishlab chiqarish quvvatlarining yuklanganligiga yaqin. Aholi, korxonalar, davlatlar iste'moli xarajatlarning o'sishi birgalikdagi talab egri chizig'ini yuqoriga suradi, narxlar o'sadi.

**Taklif inflyatsiyasi.** Ishlab chiqarish resurslaridan yetarli foydalanilmagan sharoitlarda ishlab chiqarish xarajatlarning ortishi natijasida vujudga kelgan narxlarning o'sishi taklifning inflyatsiyasini bildiradi. U gohida shunday ishlab chiqarish xarajatlari *inflyatsiyasi*, deb ham ataladi.

Keyingi vaqtda narxlar birgalikdagi talab pasayganda o‘sgan inflyatsiya turi jahon amaliyotida tez-tez uchraydi.


Xarajatlar o‘sishi bilan bog‘liq inflyatsiya nazariyasi narxlarning oshishini shunday faktorlar bilan tushuntiradiki, unga ko‘ra bir mahsulot birligiga xarajatlarning ortishi to‘g‘ri keladi. Mahsulot birligiga xarajatlarning oshishi foyda va mahsulotlar hajmini qisqartiradi. Natijada, tovarlar va xizmatlar taklifi kamayadi va narxlar oshadi. Demak, bu sxemaga ko‘ra talab emas, balki xarajatlarning narxlari oshmoqda.

Ish haqi va narxlarning xom ashyo va yoqilg‘i tashuvchilarning qiymatlashishi hisobiga o‘shish taklif inflyatsiyasining asosiy manbalaridir.

Taklif inflyatsiyasini tasvirlaymiz (43.3-chizma).

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, taklif narxining ortishi (xarajatlarning ortishi) taklif egri chizig‘ini vertikal yuqoriga suradi.

Natijada, ma‘lum vaqtdan so‘ng talab va taklif muvozanati (balans) yana sozlanadi, ammo endi yuqoriroq narxga muvofiq keluvchi nuqtada.



**43.3-chizma. Inflyatsiya taklifi**

**Stagfilyatsiya.** Bu shunday vaziyatki, narxlar umumiy darajasining ortishi ishlab chiqarishning qisqarishi bir vaqtda sodir bo‘ladi, ya‘ni narx ishlab chiqarish hajmining turli yo‘nalishlarida o‘zgaradi.

*Iqtisodchilar stagfilyatsiyaning sababini turlicha tushuntiradilar.*

**Bir nuqtai nazar:** tarkibiy nomukammallikning mavjudligi. Yaxshi yo‘lga qo‘yilgan bozor mexanizmiga ega iqtisodiyotda bir tovar narxlarining pasayishiga olib keladi, ya‘ni bozor muvozanatiga amal qilish kerak, yetarli darajada raqobat bo‘lmasa, narxlarning pasayish yo‘nalishida ularning «qat‘iyligi» kuzatiladi

**Boshqa nuqtai nazar:** stagfilyatsiyaga monopoliyalar va ularning bozor ustidan hukmronligi olib keladi. Axir monopolist firmaning talab egri chizig‘i tovarga talab egri chizig‘i bilan mos keladi. Demak, sotilishi mumkin bo‘lgan mahsulot miqdori narx tushib borishi davomida ortadi va ko‘pincha monopolistga kamroq ishlab chiqarib, qimmatroq sotish foydaliroq.

**Inflyatsiya sabablari.** Inflyatsiya tendensiyalari XX asr o'rtalarida industrial rivojlangan mamlakatlarda shakllangan bozor mexanizmi faoliyatiga organik jihatdan xosdir. Uning amalga oshishiga ikki omil: moliyaviy va pul-kredit tizimining prinsipial qayta qurilishi va iqtisodiyotning oligopolistik shakllanishi sabab bo'ldi.

Tadbirkorning foyda orqasidan narxlarning oshirish yordamida quvishni erkin raqobat cheklar edi. Pul muomalasining va narxlar tashkil qilishning nisbiy barqarorligi bu davrdagi oltin tangali standartni ham ta'minlardi. Banknotlarni oltinga erkin almashtirishi pullarning qadrlanishiga yo'l qo'ymasdi. Bundan tashqari banklar muomalaga o'zlaridagi oltin zaxiralariga qat'iy ravishda muvofiq keladigan banknotlarnigina chiqara oladilar.

Iqtisodiy rivojining hozirgi bosqichiga o'tilishi narxlar harakatidagi yo'nalishini keskin o'zgartiradi. Pul muomalasidan oltin almashtirmaydigan qog'oz pullar bilan to'liq siqib chiqarildi, pul-kredit mexnizmiga mos pul massasining shishib ketishi qulay sharoitlarni yaratadi va bunga davlat sarflarining qat'iy ravishda o'sib borishi va davlat budjetining surunkali kamyobligi turtki bo'ldi.

Iqtisodiyotning ko'pchilik tarmoqlari uchun oligoplastik tizim tipik bo'lib, bunday sharoitlarda yirik tadbirkorlar o'z bozor va ayniqsa, narx siyosatida o'zaro harakat qilish imkoniyatiga egadir. Bu bir xil mahsulot chiqaruvchi tarmoqdagi eng yirik ishlab chiqaruvchi tomonidan belgilanadigan narxlar ustiga qo'yiladigan narxlarni shakllantirishda, orientatsiya qilishda namoyon bo'ladi.

Tovar narxlarining o'sishida yangi, XX asrga xos bo'lgan tendensiya rivojlana boshlandi. Ammo asrning birinchi o'n yilligida narxlarning o'sishi muntazam ravishda qayta ishlab chiqarishning siklik inqirozlari davrida narxlarning keskin tushib ketishlari bilan to'xtatib qo'yilardi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida amalda barcha bozor iqtisodiyoti **mamlakatlarda** narxlarning o'sishi kuzatildi Bu inflyatsion **jarayonlarni** iqtisodiy asosi ikkinchi jahon urushi davomida ishlab chiqaruvchi kuchlarning buzilishi bo'ldi. Ishlab chiqarishdagi o'zgarishlar moliya va pul muomalasi sohasini chetlab o'tmaydi: budjet defitsitining o'sishi, davlat qarzining o'sishi va qog'oz pullarning ulkan emissiyasi kuzatiladi

Urushdan so'ng narxlar o'sishining umumiy tendensiyasi saqlanib qoldi. Narxlar doimiy sur'atda ham o'sib bordi. Ammo narxlar o'sishining intensivligi hamma vaqt ham bir xil bo'lmagan: 50 – 60 - yillardagiga nisbatan to 70 – 80- yillarning boshlaridagi «uruvchi» inflyatsiyagacha.

70 – 80- yillarda inflyatsiyaning muhim omili ishlab chiqarishda o'sish sur'atlari pasayishining qat'iy tendensiyasi bo'ldi va bu asosan, tarkibiy



inqirozlarga olib kelgan edi. O'sha yillarda inflyatsiyaning o'sishi tashqi omillar – dollar devolivatsiyasi va jahon bozorida xom ashyo narxlarining ortishi ta'sir qildi.

**Zamonaviy inflyatsiya.** Zamonaviy inflyatsiyaning qator xususiyatini qayd etish mumkin:

*Birinchi*dan, agar avvallari inflyatsiya bir yoki bir qancha mamlakatlar iqtisodiyotini qamragan bo'lsa, endi narxlarning o'sishi lokal emas, balki butun jahon xarakteriga ega.

*Ikkinchi*dan, inflyatsiya turli mamlakatlarda turli sur'atlar bilan, notekis, sakrab rivojlanmoqda. Inflyatsiya sharoitlarining tezligi ichki omillar bilan belgilanib, ularning harakat siklining u yoki bu fazasiga bog'liq ravishda hamda iqtisodiyotni tartibga solish bo'yicha davlat aralashuvining darajasiga tegishli holatda yo kuchayishi yoki zaiflanishi mumkin bo'ladi.

*Uchinchi*dan, zamonaviy inflyatsiya uzluksiz va surunkali xarakterga ega. Avvallari ayrim mamlakatlarda inflyatsiya davrlari pul muomalasining nisbiy barqarorlashuv davrlari bilan o'rin almashardi. Hozirgi vaqtda esa, narx sanoat siklining barcha fazalarida, hatto iqtisodiy inqirozi davrida bir oz bo'lsada pasaymay, o'smoqda.

*To'rtinchi*dan, inflyatsiyaning xarakteri o'zgardi. 80 – yillarning o'rtalarigacha endi «sudraluvchi» emas «yuguruvchi» inflyatsiya ustun bo'ladi. Ayniqsa, Lotin Amerikasi mamlakatlarida u keng ko'lamga ega bo'ladi. Inflyatsiya 1989 va 1990-yillarda bu regionda o'z maksimumiga erishadi, bu davrda uning darajasi 1200% ni alohida mamlakatlarda esa, 5000 – 8000% ni (Nikaragua, Peru, Argentina, Braziliya) tashkil etdi.

Shu bilan 80-yillarning o'rtalaridan rivojlangan kapitalistik mamlakatlarda inflyatsiya sur'atlarining pasayganligini qayd etish lozim. Uning sabablari nima?

1. Jahon iqtisodiyoti siklik rivojining xususiyatlari, 1980-1992 yillardagi jahon iqtisodiy inqirozidan keyingi cho'zilib ketgan dipressiya. Inqirozdan keyingi iqtisodiyotning sekin-asta tiklanishi ommaviy ishsizlik, tovar va xizmatlarga talabning qisqarishiga olib keldi va bu qandaydir darajada narxlarni o'sishini to'xtatib turar edi.

2. Ishlab chiqarish mehnati dinamikasidagi siljishlar. Ichki va tashqi bozorda raqobat ko'rashining kuchayish sharoitlarida mehnat unumdorligini o'sishi va ishlab chiqarish xarajatlarining qisqarishi monopoliyalar tomonidan narxlarning oshirilishiga ob'ektiv chegaralar qo'ydi va bu bilan inflyatsiyani chekladi.

3. Moliya sohasidagi yangi hodisalar. 70-yillarning o'rtasiga nisbatan 80-yillarda qator mamlakatlarda budjet defitsitlarining nisbatan pasayishi sodir

bo'ldi va bu ma'lum darajada davlat moliyasi inqirozining inflyatsion effektini ma'lum darajada neytrallashtirdi. Shunday qilib, agar 70-yillarda nominal YaMM dan o'rtacha defitsit OESR mamlakatlarda 1,8% ni tashkil etgan bo'lsa, 1993 yilda u, 1,2% ga baholandi.

4. 80-yillarda kredit eksponziyasining bir muncha tormozlanishi markaziy banklar rasmiy hisob stavkalarining keskin oshishi sanoati rivojlangan mamlakatlarda foiz stavkalarining umumiy o'sishiga olib keladi va bu o'z navbatida ssuda kapitaliga talabni kamaytirdi. Natijada, zamonaviy inflyatsiya jarayonida kredit eksponziyasining roli bir muncha bo'shshdi.

5. Jahon bozorida energiya xom ashyo tovarlariga narxlarning pasayishi. 1996 yilga kelganda xom ashyo tovarlariga narxlar indeksi (1980 yil–100%) 65% gacha tushdi, shu jumladan, neft 55% ga. Bu rivojlangan kapitalistik mamlakatlarda ishlab chiqarish xarajatlarining pasayishiga olib keladi.

Ammo bularning barchasi inflyatsiyaning yengilganini bildirmasdi. Hozirgi vaqtda iste'mol tovarlarga narxlarning o'sishi 60-yillardagi ko'rsatkichdan ortiqdir. Bundan tashqari inflyatsiya sur'atlarining pasayishi qat'iy emas: vaqti-vaqti bilan ularning oshishi sodir bo'ladi. Masalan, AQSh va YaMM ning o'rtacha yillik deflyatori 1980–1985 yillar uchun 2,6%, 1986–1990 yillar uchun 1,4% ni, 1991–1995 yillarda 4,1% ni, 1996–2000 yillarda 6,6% ni, 2001–2005 yillarda 7,3%, 2006–2010 yillarda 5,2%, 2011–2012 yillarda 3,4% ni tashkil etdi.

#### **43.5. Inflyatsiya oqibatlari**

Bozor iqtisodiyotiga xos boshqa ko'pchilik hodisalar kabi inflyatsiyaga ham baho berib bo'lmaydi. Inflyatsiyaning salbiy oqibatlari mamlakatimizda yaxshi ma'lum. Shu bilan birga, inflyatsiya iqtisodiy taraqqiyotga turtki bo'lishi kamroq ma'lum. Shuning uchun iqtisodiyotni bozorchasiga tartibga soluvchi boshqa ko'pgina jarayonlar kabi inflyatsiyaga absolyut yomonlik sifatida qaramaslik va shuning uchun bug'ish yoki yo'q qilish kerak emas. U davlat tomonidan jamiyat foydasi va uning iqtisodiy rivoji uchun foydalaniladigan instrument sifatida ishlatilishi kerak. Inflyatsiya muammolariga ilmiy yondashish oddiy yondashishdan shunisi bilan farq qiladiki, u inflyatsiyani nazoratdan chiqish xavfini to'g'ri xulosalab, tavsiyalar ishlab chiqadi va milliy iqtisodiyot faoliyatining aniq tarixiy, milliy davlatchilik sharoitlarini baholaydi.

Inflyatsiya narxlar va foyda me'yorining oshishiga turtki bular ekan, boshida kon'yukturani jonlashtirish omili sifatida namoyon bo'ladi, ammo chuqurlashib borish davomida harakatlantiruvchi holatdan to'xtab, mamlakatlardagi sotsial-iqtisodiy beqarorlikni kuchaytiradi.

Rivojlangan bozor iqtisodiyoti mamlakatlarda sudraluvchi inflyatsiya iqtisodiy taraqqiyotning normal omili sifatida qaraladi, ammo yuguruvchi, ayniqsa, giperinflyatsiya salbiy hodisa sifatida qaraladi, chunki u ulkan ijtimoiy-iqtisodiy xarajatlarga olib keladi. U kapitalni real ishlab chiqarish sohasidan muomala sohasiga jalb qiladi va bu yerda tezroq aylanadi hamda ulkan foydalar olib keladi; pul muomalasi qonunining buzilishi mamlakatdagi tovar aylanishini buzilishiga olib keladi; iste'mol talabining deformatsiyasiga (buzilishiga), pullarning ularga bo'lgan real ehtiyojidan qat'i nazar har qanday tovarlardan, pullardan qochishga olib keladi; talab va taklif nisbatining normal tarkibini buzadi; chayqov savdosini kuchaytiradi; kredit va uning tizimiga salbiy ta'sir qiladi; pul tizimining chuqur buzilishini keltirib chiqaradi.

Shunday qilib, inflyatsiya ham ishlab chiqarish sohasida ham muomala sohasida barcha bo'g'inlardagi takror ishlab chiqarish jarayonining buzilishiga sabab bo'ladi.

Shu bilan birga, inflyatsiya nafaqat mamlakat ichidagi iqtisodiy o'sishga to'sqinlik qiladi. Balki xalqaro valyuta munosabatlariga ham salbiy ta'sir qiladi.

*Birinchi*dan, narxlarning o'sishi, valyutaning ichki qadrsizlanishini uning xarid quvvatining tushishini bildiradi. Valyutaning qadrsizlanishini valyuta dempingini jahon narxlaridan past narxlardagi yoppasiga eksportni tug'diradi.

*Ikkinchi*dan, inflyatsiya jahon narxlari darajasini oshiradi. Inflyatsiya ta'siri ostida jahon bozoridagi narxlar o'sish sur'ati bo'yicha nafaqat ichki narxlar o'sish sur'ati tenglashadi balki ulardan ortadi, MVF eksportlari ularni neftga eksport narxlarining o'sishi bilan bog'laydilar.

*Uchinchi*dan, narxlarning o'sishi eksport mahsulotlarni raqobatbardoshligini bo'shashtiradi. Milliy ishlab chiqarishning raqobatbardoshligiga to'sqinlik qilar ekan, inflyatsiya bu bilan tashqi savdoda kamyoblikni kuchaytiradi. To'lov balanslarini muvozanatlashtirishni qiyinlashtiradi.

*To'rtinchi*dan, valyutalar xarid qobiliyatining notekis tushishi valyuta kurslarining noekvivalentligini kuchaytiradi. Valyutalarning rasmiy va bozor kurslari nomuvofiqligiga olib keladi va bu valyuta kurslari barqarorligini haddan tashqari qiyinlashtiradi va bu kurslar nisbatlarini qayta ko'rishni zarur qiladi. Ammo har bir shunday o'zgarish (devalvatsiya yoki revalvatsiya) nafaqat valyuta kurslari muvozanatligi sabablarini tugatmaydi, balki aksincha, uni yanada chuqurlashtiradi, kuchaytiradi va bu bilan ko'plab yangi ziddiyatlarni tug'diradi.

Shunday qilib, inflyatsiya nafaqat ichki muammodir, balki xalqaro valyuta munosabatlaridagi asosiy buzuvchi kuchdir.

### 43.6. Inflyatsiyaga qarshi siyosat

Inflyatsiyaga qarshi siyosat va maxsus inflyatsiyaga qarshi dastur ishlab chiqilishi iqtisodiyotni barqarorlashtirishning zarur elementidir. Bunday dasturning asosida inflyatsiyani belgilovchi sabab va omillari tahlili, iqtisodiy siyosat choralari to'plami yotishi kerak bo'lib, ular inflyatsiya darajasini zarur chegaralar darajasiga yo pasaytirishi yoki yo'q qilishi kerak.

Inflyatsiya sharoitlarida xo'jaliklarni boshqarishda ikki xil yondashish mumkin: biri moslashuv siyosatini izlash, ya'ni inflyatsiyaga moslashish, ikkinchisi esa, inflyatsiyani inflyatsiyaga qarshi choralar bilan tugatishiga o'rinib ko'rish.

**Moslashish siyosati** — bu siyosat asosida shu yotadiki, bozor iqtisodiyotining barcha sub'ektlari uy xo'jaliklari, firmalar, davlatlar o'z harakatlarida inflyatsiyani hisobga oladilar (avvalo, pullarning xarid quvvati pasayishi natijasida ko'rilgan zararlarni hisobga olish orqali). Jahon amaliyotida pullar xarid qobiliyatining pasayishidan ko'rilgan zararlar o'rnini qoplashning ikki usuli mavjud, eng ko'p tarqalgan usul — foiz stavkasini indeksatsiya qilish. Odatda, bu operatsiya foiz stavkasini inflyatsion mukofot stavkasi kattaligini ortishiga olib keladi. Inflyatsiya o'rnini qoplashning boshqa usullari — investitsiyaning boshqa summasini indeksatsiya qilish bo'lib, u vaqti-vaqti bilan ma'lum, avvaldan aytilgan indeks harakatiga muvofiq korrekcirovka qilinadi.

Uy xo'jaliklari inflyatsiya qo'shimcha daromad manbalarini izlash orqali moslashishga harakat qiladilar. Xodimlar o'zlarini inflyatsiyadan shartnoma ish hakini inflyatsion korrekcirovkasini kiritish orqali himoya qiladilar, oila byutjetini noelastik tovarlar va xizmatlar tomoniga qayta ko'rash, pullarning tovar moddiy boyliklariga zudlik bilan moddiyLashtirish moslashishning boshqa usullari hisoblanadi.

Inflyatsiya sharoitida firmalar ham o'z iqtisodiy siyosatlarini o'zgartiradilar. Bu investitsiyalarni tezroq qaytarish mumkin bo'lgan qisqa muddatli loyihalarni amalga oshirishga harakat qilishda namoyon bo'ladi. O'z aylanma mablag'ining yopishmasligi firmalarni aksiya va oblegatsiyalar chiqarish, lizing va faktoriylarni moliyaviy ta'minlashning yangi tashqi manbalarini izlashga majbur qiladi. Bu o'z mablag'lariga nisbatan qarz mablag'larining o'sishiga, korxonalarining moliyaviy va bankrotlik xavflarining ortishiga olib keladi. *Zaxiralarni* boshqarish sohasida firmalar chayqov zaxiralarni shakllantirishga harakat qiladi. Ular debitorlik ustidan

kreditorlik qarzini ortishiga harakat qiladilar va bunda banklardagi hisoblarida o'zgina miqdor pullarini saqlaydilar.

Inflyatsiya sharoitlarida firmalar foydani ishlatish siyosatini o'zgartirishga majburdir. Bir tomondan, firma faoliyatiga iqtisodiy qiziqishni rag'batlantirish maqsadida menedjmentlar moddiy rag'batlantirishga qaratilgan mablag'larni oshirishga majburdirlar. Boshqa tomondan esa, inflyatsiya sharoitlarida daromadlar oqimi kamayganligi tufayli hamda sarflar oqimi o'sganligi uchun firma egalari o'z kapitallarini yig'ishga yo'l qo'yishni istamas ekanlar, sof foydaning tobora katta qismini ishlab chiqarishni rivojlantirishga yo'naltirishga majburdirlar.

Tarix hukumatning moslashish siyosatini ko'plab variantlarini biladi. XX asrning 60–70-yillarida Angliya va boshqa mamlakatlarida «To'xta, olg'a» (stop – vpered) siyosati joriy qilingan edi, ya'ni oldinga qarab o'ta ehtiyotkorlik bilan harakat qilish. Ammo bu siyosat samarasiz bo'lib chiqdi, chunki narxlarni ushlab turish mehnat unumdorligi va aholi turmush darajasining pasayishi bilan tugagan.

Boshqa siyosatning asosida esa narx va ish haqi o'rtasidagi nisbatni nazorat qilish yotadi. Bu siyosat qisqa muddatli rejada ijobiy samara beradi, (masalan, AQShda 1951–1952 yillarda Finlyandiyada 1967–1977 yillarda), ammo uzoq muddatli bu siyosat o'zlashmadi, mashhur bo'lmadi.

Inflyatsiyani keyingi ancha ta'riflash tarafdorlari, «tarkibi inflyatsiya» va «taklif iqtisodiyoti» nazariyalari vakillari o'z dasturlarida davlatni yanada faolroq ta'sirini nazarda tutar ekan, ish haqi va narxlarning o'sishini vaqtincha muzlatish, tadbirkorlikni soliq bilan rag'batlantirish, muhim tarmoqlar va ishlab chiqarish hayotini qo'llab-quvvatlashni o'z dasturlariga kiritgandi.

**Inflyatsiyaga qarshi choralar.** Inflyatsiya sharoitlarida davlat siyosatining boshqa varianti inflyatsiyaga qarshi choralardan foydalanishda bozor kuchlari o'yinida davlat aralashuvini kamaytirishdir.

Sof monetaristik xarakterdagi ortadoksal dastur davlatning xo'jalik faolligini yig'ishtirish bilan bir qatorda, bozor yurituvchilari uchun keng faoliyat maydonini nazarda tutadi. Bunday dastur uchun misol tariqasida O'zbekistonda qabul qilingan inflyatsiyaga qarshi dasturni keltirish mumkin: ichki va jahon bozorlarida firmalar sharoitlarini liberallashtirish, ish haqi o'suvini cheklash va milliy valyutaning o'suvchi kursini qo'llab-quvvatlashda erkin narxlar.

Amaliyotda esa, turli g'arb mamlakatlarida yuqori inflyatsiya bilan ko'rashishda aralashish dasturlaridan foydalaniladi va ularda turli darajada har ikki dasturning tavsiyalari ishlatiladi.

R.Reygan prezidentligi davrida AQShda amalga oshirilgan asosiy iqtisodiy choralarni ko'rib chiqamiz. Inflyatsiyaga qarshi siyosat ijtimoiy dasturlarning va davlat xo'jalik sarflarining sezilarli qisqarishini davlat budjeti difitsitini tugatishini va qat'iy cheklangan pul kredit siyosatini izchil amalga oshirishni nazarda tutadi. Dasturning maqsadi –yuqori inflyatsiya va ishsizlikka qarshi kurash, deb e'lon qilingan edi. Shunday qilib, «regonomika» «Taklif iqtisodiyoti», monetarischa va keysiancha konsepsiya va uslubni o'zida jamlagandi. Natijada yuguruvchi inflyatsiya ilmiy texnik taraqqiyotning jadallashtirilishi va mehnat unumdorligi oshirilganda yiliga 4-6% darajasiga tushirilgan edi.

Bozor iqtisodiyotdagi mamlakatlar hammasi amalda inflyatsiyani boshdan kechirdi. Ularning tajribasini o'rganish ko'plab savollarga javob beradi.

O'zbekistondagi inflyatsiya o'ziga xos xususiyatlariga ega: bu o'z-o'zidan sozlanadigan, o'z-o'zidan tartiblanadigan bozor iqtisodiyot tizimining yo'qligidir. O'zbekistondagi inflyatsiyaning ko'p sabablari va omillari umuman, iqtisodiyotga tegishli emas. *Shu bilan birga, inflyatsiya darajasi 2010 yilda 8% bo'lgan bo'lsa, 2013 yili esa, bu ko'rsatkich 7% ni tashkil etdi.* Tabiiyki, inflyatsiyaning bu qadar keskin pasayishi, avvalo, ish haqi va aholi daromadlarining amalda o'sishiga, bank tijorat stavkalarining pasayishiga va shunga mos ravishda iqtisodiyotning real tarmoqlariga ajratiladigan kreditlar hajmining jiddiy ortishiga zamin yaratdi.

### **Qisqacha xulosalar**

Pul ham tovarlarek narxga ega, lekin agarda tovarlar narxi pul miqdorida ifodalansa, unda pul narxi tovarlar miqdorida ifodalanadi (qaysiki, ifodalangan sonda pullar belgilarini sotib olish mumkin). Mana shuning uchun ham uning narxi «sotib olish qobiliyati», degan nomni olgan.

Pulning xarid qilish qobiliyati o'zgarib turadi. U o'sishi yoki pasayishi mumkin. Bu tovarlarga narxning o'zgarib turishiga bog'liq –agar ular o'sib ketsa, unda shu summadagi pulga kam tovarlar sotib olish mumkin va pulning xarid qilish qobiliyati pasayadi; yoki tovarlar narxi pasaysa, unda shu summadagi pulga ko'p tovarlar xarid qilish mumkin va pulning xarid qilish qobiliyati o'sadi.

Shunday qilib, pul xarid qilish qobiliyatiga tovarlar va xizmatlar narxining miqdoriga aksincha munosabatda bo'ladi.

Pulning xarid qilish qobiliyati narxning o'sishi, pasayishi «inflyatsiya», deb ataladi (pulning xarid qilish qobiliyatining tovarlarga narxning pasayishi bilan o'sishi «deflyatsiya», deb ataladi).

Inflyatsiyaning qobiliyatini tushunish uchun uning uch holatini hisobga olish kerak:

1. Inflyatsiya – bu butun iqtisodiyotni hamma tovarlarga narxni qamrab oluvchi makroiqtisodiy jarayon; bu degani, narxning inflyatsiyaviy o‘shishi alohida bozorlar doirasida narxning manevr qilib, talab va maqsadida farq qilish.
2. Inflyatsiya deganda narxning hamma o‘shishi nazarda tutilmaydi, bu shunday, pulning xarid qilish qobiliyatini pasaytiradi, pulning qadsizlanishiga olib keladi.
3. Inflyatsiya maqsadga muvofiq tovar muomalasi va jamg‘arma uchun zarur pul miqdorining ko‘payishini ifoda etadi. Deflyatsiya esa, uning kamayishini bildiradi.

### **Asosiy tushunchalar**

**Inflyatsiya** – har bir pul birligining xarid qilish qobiliyatini pasayishidir.

**Ochiq inflyatsiya** – u bozor iqtisodiyoti mamlakatlari uchun xarakterli bo‘lib, bu yerda talab va taklifning o‘zaro harakati narxlarning ochiq cheklanmagan o‘shishiga turtki bo‘ladi.

**Yashirin inflyatsiya** – bu inflyatsiya narx daromadlar ustidan ma‘muriy buyruqbozlik nazorati iqtisodiyotiga xosdir.

### **Mavzuning namunali rejalari**

1. Inflyatsiya: mohiyati va turlari.
2. Inflyatsiya iqtisodiy kategoriya sifatida. Inflyatsiya turlari: o‘rtacha, sakratuvchi, giperinflyatsiya. Inflyatsiya turlari: yashirin, ochiq.
3. Inflyatsiya sabablari va mexanizmi.
4. Inflyatsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari.

### **Seminar darslarida muhokama qilish uchun savollar**

1. Inflyatsiya miqdorini o‘lchash. Narxlar indeksi, hayot qiymat indeksi, YaMM defsitatori, inflyatsiya miqdori.
2. O‘zbekistondagi inflyatsiyaning xususiyati. Iqtisodiyotning islohot qilish modellarini liberallashtirish. Xalq xo‘jaligini strukturali balanssizlanishi. Ishlab chiqarishning monopollashuvi.

### **Mustaqil ta‘lim uchun savollar**

1. Inflyatsiya nima va uni qanday o‘lchash mumkin?
2. Inflyatsiyaning sababi nimada?
3. Inflyatsiya jarayonlarining rivojlanish mexanizmi qanday?
4. Talab va taklif inflyatsiyalari nimalar bilan xarakterlanadi?

## 44 BOB. QIMMAT BAHOLI QOG'OZ BOZORI

*Garchand, nazariy jihatdan fond birjasi xususiy tashkilot, haqiqatdan ham u ulkan milliy ahamiyatga ega bo'lgan ijtimoiy vazifani bajaradi.*

*Otto Kan*

Ushbu mavzu qimmat baholi qog'ozlar bozorining yoki fond bozorining raqobat qilishiga bag'ishlandi. Bu bobga biz qimmat baholi qog'ozlar bozori va uning maxsus funksiyasiga, birlamchi qimmat baholi qog'ozlar bozorining ikkilamchi bozoridan qarab chiqamiz hamda qimmat baholi qog'ozlarning asosiy turlarini aniqlaymiz. Asosiy e'tiborni «prilavkadan» sotishga va fond birjasiga qaratamiz.

### 44.1 Qimmat baholi qog'ozlar bozorining asosiy tushunchasi.

Qimmat baholi qog'ozlar bozori yoki fond bozori – bu moliya bozorining (uning boshqacha tarkibiy qismi pul bozori) tarkibiy qismidir. U qimmat baholi qog'ozlarni chiqarish bo'yicha va uni muomila qilishda qatnashuvchilar orasidagi iqtisodiy munosabatlar yig'indisini ifoda etadi. Qimmat baholi qog'ozlar bozorining asosiy vazifasi sotuvchilar va xaridorlarni qoniqtiruvchi bahodagi jamg'armalarning investitsiyaga «toblanishi» bo'ladi. Iqtisodiyot fani nuqtai nazarida qimmat baholi qog'ozni qatiyal shakli sifatida mavjudligini qarab chiqish mumkin, u ikki turda daromat olib kelishi bilan, ya'ni investitsiyaviy (dividend yoki foizga) va kurs bo'yicha (ya'ni qimmat baholi qog'ozni bitta narxda sotib oluvchi va uni boshqacha yuqoriroq narxda qayta sotilishi natijasida olingan) uning qaytadan taqsimlanishi hamda bozorda, muomalada bo'lishini yengillashtiradi. Qimmat baholi qog'ozlarni chiqarish protsedurasi emissiya deb, qimmat baholi qog'ozlarni chiqaruvchi shaxslarni esa, emitenitlar, deb ataladi. Emitenitlar bo'lib huquqiy shaxslar yoki ijro etuvchi organlar hoqimiyati yoki mahalliy o'zini -o'zi boshqaruvchi organlar bo'lishi mumkin. Qimmat baholi qog'ozlarni chiqarish deganda bir xil sharoitdagi emissiyaga ega bo'lib va bir xil hajmdagi hujjatga egalikni ta'minlovchilarning qimmat baholi qog'ozlarning yig'indisi tushiniladi. Qimmat baholi qog'ozlar egalarini investorlar, deb ataladi.

**Qimmat baholi qog'oz bozorining maxsus vazifalari:** qimmat baholi qog'oz bozori qanday, bozor talablarini bajarsa (axboratlashuv, tartibga soluvchi, rag'batlantiruvchi va boshqalarni) hamda shunday maxsus vazifalarni amalga oshiradi.



### **Bularga quyidagilar kiradi:**

1. Qayta taqsimlash vazifasi – bu qimmat baholi qog‘oz bozorining asosiy vazifasi:

- Bozor faoliyatining tarmoqlari va sohalari o‘rtasida pul vositalarini qayta taqsimlash.

- Jamg‘armalarni nomoddiy ishlab chiqarish sohasidan ishlab chiqarish sohasiga o‘tkazish.

- Davlat budjeti

2. Narx va moliyaviy tavakkalchilikni sug‘urtalash yoki yurgazish vazifalariga, fyucher va opsiyon shartnomalar tufayli imkoniyat yaratish.

3. Qimmat baholi qog‘oz bozori iqtisodiyotning makro va mikro darajadagi ahvoliga «barometr» bo‘lib xizmat qiladi. Iqtisodiyot holatining makro darajadagi indikatori birja indeksleri, mikro darajada esa, fond birjasidagi alohida firmalarning qimmat baholi qog‘ozi kotirovkasi bo‘ladilar.

### **Qimmat baholi qog‘oz bozorining tartibi va infratuzilmasi**

Iqtisodiyot nazariyasi fanida qimmat baholi qog‘ozlar bozorining tartibini ko‘rib chiqishda quyidagi mezonlar ajratiladi:

1. Qimmat baholi qog‘oz bozorining harakat qilish sohasiga qarab quyidagilar bo‘ladi:

- Xalqaro
- Milliy
- Hududiy

2. Qimmat baholi qog‘ozlarning muomila usuliga qarab kelgusi qimmat baholi qog‘ozlar bozoriga ajratiladi:

- Tashkillashtirilgan (birjasi).
- Tashkil qilinmagan («ko‘cha bozori») yoki «prilavkadan» savdo qilish.

3. Emissiyaga nisbatan ajratiladi:

- Birlamchi qimmat baholi qog‘oz bozori, ya’ni qimmat baholi qog‘ozni sotib oluvchi uning birinchi egalidir. Birlamchi bozorning asosiy xususiyati bu investorlar uchun axborotning batafsil ochilishidir.

Qimmat baholi qog‘ozlar birlamchi bozorda nominal yoki auksion narxda sotiladi.

- Ikkilamchi qimmat baholi qog‘ozlar bularning birlamchi egalari tomonidan qayta sotilishi yuz beradiyu, ikkilamchi bozorning asosiy xususiyati uning likvidli, ya’ni bu qimmat baholi qog‘ozlar bo‘yicha bitimining hajmi qimmat baholi qog‘ozlar taklifi hajmiga nisbatan aniqlanadi. Qimmat baholi qog‘ozlar ikkilamchi bozorda bozor kursi bo‘yicha sotiladi.

1. O‘zbekistonda qimmat baholi qog‘ozlar bozori segmenti bo‘yicha ikki qismga bo‘linadi:

- Respublika hokimiyati organlari va respublika sub‘ektlari tomonidan chiqarilgan davlat qimmat baholi qog‘ozlari O‘zbekistonda bunda DKO – davlatning qisqa muddatli obligatsiyalari, DZ – davlat zayomi obligatsiyalari, O‘BO – O‘zbekiston banklari obligatsiyalaridir. Respublikaning sub‘ektlari tomonidan chiqarilgan qimmat baholi qog‘ozlar bozoridan ko‘pincha rivojlangan obligatsiya bozorlari bo‘lib, Toshkent va viloyatlarning markaziy shaharlarida chiqarilganlari hisoblanadi.

- Munitsipal qimmat baholi qog‘ozlar bo‘lib, mahalliy o‘z-o‘zini boshqaruvchi organlar tomonidan chiqarilgan hisoblanadi.

Bular shahar va tuman bo‘lishi mumkin, ya’ni qarzdorlik majburiyati bo‘yicha chiqaruvchi xuqiqiga egadir. Munitsipal qimmat baholi qog‘ozlarni investirlash davlat qimmat baholi qog‘ozlarni investirlashga solishtirganda u kattaroq tavakkalchilik bilan bog‘langan, sababi hozirgi zamonda ko‘pincha kattaroq shaharlar asosan qarzga yashaydilar. Munitsipal obligatsiyalar hamma mamlakatlarda chiqarilmaydi, bu boshqacha yo‘l bilan resurslarni shahar budjetiga jalb etish bilan bog‘langan, ya’ni bank kreditlarini olish bilan.

- Korporatsiyaviy qimmat baholi qog‘ozlarni, korxonalar va banklar chiqaradilar. Bunga aksiyalar, obligatsiyalar va veksellar kiradi.

Rivojlangan mamlakatlarda ularning emissiyasi korxonalar jalb etgan moliyaviy resurslar asosiy manba bo‘lib hisoblanadi. O‘zbekistonda hozirgi vaqtda korporativ qimmat baholi qog‘ozlar bozorining kapitallashtirish darajasi hozirda juda past – 1mlrd so‘mni tashkil etishi mumkin.

- Har xil sun‘iy qimmat baholi qog‘ozlar. Ular emissiya bo‘lmagan qimmat baholi qog‘ozlar bo‘lib hisoblanadi va ular likvidlik qarzdorlikni ta‘minlashni talab qiladi, ya’ni likvidlik zaxiradan tovarlarni qarzga olishi kompaniyalarning kapital bozoridan vositalarni jalb etishi mumkin.

Qimmat baholi qog‘ozlar bozorining samarali harakati qimmat baholi qog‘ozlar bilan tuziladigan bitimlarning yillik komplekt xizmatlarini, ularga qilinadigan hisob kitob huquqini tabminlaydigan infratuzilmalarsiz mumkin emas.

Qimmat baholi qog‘ozlar infratuzilmasiga quyidagilar kiradi:

- Qimmat baholi qog‘ozlar aylanmasini huquqiy va normativ ta‘minlash.

O‘zbekistonda qimmat baholi qog‘ozlar bozori faoliyati O‘zbekistonning fuqorolik kodeksi bilan, mamlakatning «Qimmat baholi qog‘ozlar to‘g‘risidagi» qonun bilan, mamlakatning «Davlatning ichki qarzi to‘g‘risida»

qonun bilan, Hukumatning«Qimmat baholi qog‘ozlar ijro etuvchi huquqiy organlari obekti» qarorlari bilan tartibga solinadi.

- Davlatning tartibga soluvchi organlari va nazoratchilari (Moliya vazirligi, moliya bozori bo‘yicha xizmatchilar) hamda bozorni nazorat qiluvchi organlar (o‘z-o‘zini tartibga soluvchi tashkilotlar, ularga fond bozori qatnashchilari milliy assotsiyasi – FBQMA, MFBAQ va MFA ro‘yxatga oluvchilarning professional asotsiatsiyasi – ROPA);

- Qimmat baholi qog‘ozlarni hisob-kitob huquqi tizimi, bu ro‘yxatga olish depozitar va kliring hisob faoliyatini o‘z ichiga oladi.

- Qimmat baholi qog‘ozlar bozorining professional qatnashchilari tashkiloti – bular doimo qimmat baholi qog‘ozlar bilan savdo qilishlarni tashkillashtiradigan birja va savdo tuzilmalari (O‘zbekiston fond birjasi, dillerlar, brokerlar va boshqalardir);

- Qimmat baholi qog‘ozlar bozorini axborotlar bilan ta‘minlovchilar, bunga nashr etadigan, moliyaviy savollarni taqdim qiladigan, reyting agentlari maxsus bank ma‘lumotlari va boshqalar kiradi.

#### **Qimmat baholi qog‘ozlar infratuzilmasiga quyidagilar kiradi**

- Qimmat baholi qog‘ozlar aylanmasini huquqiy va normativ ta‘minlab beruvchi (moliya vazirligi, Markaziy bank).

- Qimmat baholi qog‘ozlarni hisoblash va hisob-kitob qilish huquqi tizimi, ya‘ni ro‘yxatga olish, depozitlar va hisob-kitob qilish faoliyatini o‘z ichiga oladiganlar.

- Qimmat baholi qog‘ozlar bozorinnig qatnashuvchilari bo‘lgan kasbiy tashkilotlar, ya‘ni bularga birjalar va savdo tuzilmalari, ular o‘z navbatida doimo qimmat baholi qog‘ozlar oldi-sottisini o‘tkazishni tashkillashtiradi.

- Qimmat baholi qog‘ozlar axborotlar bilan ta‘minlaydigan moliyaviy masalalarni reyting agentlari ixtisoslashgan ma‘lumotlarni va boshqalarni yorituvchi nashriyotlar.

#### **44.2. Qimmat baholi qog‘ozlar indeksi**

Qimmat baholi qog‘ozlar indeksleri to‘g‘risidagi savollar ularning reytingi bilan bog‘liq. Qimmat baholi qog‘ozlar indekslaridan eng mashhuri – bu Dou Djons indeksi bo‘lib hisoblanadi. Har xil mamlakatlarda qimmat baholi qog‘ozlarning milliy indeksi mavjuddir. Endi Germaniyaning qimmat baholi qog‘ozlari indeksi sanoati DAKSKN, Yaponiyaning indeksi – NIKKYeY, Rossiyaning indeksi – RTS, O‘zbekistonning indeksi va boshqalar, deb ataladilar.

Qimmat baholi qog'ozlar reytingi investitsiyalashning ishonchini va shartini aniqlaydigan bankka qo'yuvchi pul kishilar uchun o'ziga xos indikator bo'lib xizmat qiladi.

Hozirgi zamonda qimmat baholi qog'ozlar reytingini aniqlaydigan har xil tuzumlar mavjud. Jahonda eng yirik reyting agenti «Mudis» (Standard Poor va Moodys) bo'lib hisoblanadi. Ular alohida mamlakatlarnikini ham sanoat tarmoqlarininkini ham, shu bilan birga, elementlarning moliyaviy ko'rsatkichlari tahlili asosida butunlay mamlakatlarning hamda qimmat baholi qog'ozlar bozorining kon'yunkturalarini prognozlash va tahlil reytingini ham aniqlab beradi.

Shu bilan birga, reytinglar doimo yangilanib turiladi, 2002 yildan boshlab Rossiyaning va O'zbekistonning «Gazprom» «YuKOS», «Surgutneft», «Lukoil», «Sibirneft», «Norilnikel» RAO «YeES», MTSI Rossiyaning sberbanklari, O'zbekistonning ikkita banki – Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy bankni va «G'allabank» ning kiridit berish qobiliyati bo'yicha reytingi ijobiy baholandi va Yevropadagi yirik kompaniyalarning ro'yxatiga kiritilgan, birinchi ko'rsatilgan to'rttasi esa, jahondagi 500 ta yirik kompaniyalarning kapitallashtirish bo'yicha ro'yxatiga kiritilgan. 2004 yil ularga RAO «YeES», «Norilnikola» va ITS qo'shildi. Yana bir tanilgan xalqaro reyting agentligi «Fitch» esa, mamlakatimizning «Paxta bank», «Hamkor bank», «O'zsanoatqurilish bank» va «Asaka bank» kabi banklariga «barqaror» reytingini berdi. Qimmat baholi qog'ozlar kursi banklarning foizli stavkalariga ham bog'liq. Jahondagi foizli stavkalar barchasining asosida Londondagi birjalar sotuvchilarining stavkalari – LIBOR stavka yotadi. Bu stavka kimlar kreditlarini taklif qilayotgan bo'lsa o'shalarniki. Shu bilan birga, Londondagi banklararo xaridorlar stavkari LIBID ham bor. Bank foizi LIBOR stavkasi yig'indilari sifatida bank marji (masalan aksiyalarning , tovarlarning sotib olinadigan xaridorgir va sotilgan «savdoga» oid narxlari o'rtasidagi farqi) va komissiya (vositachilik) bilan bog'liq bo'lgan foizlarda aniqlanadi.

### **44.3. Qimmat baholi qog'ozlar turlari**

Qimmat baholi qog'ozlar ancha ko'p belgilar bilan tasniflanadi. Emitentlar bo'yicha (davlatga oid, munitsinal va korporativga oid), muomala muddati bo'yicha (qisqa muddatli, o'rta muddatli va uzoq muddatli), daromat olish usuli bo'yicha (jalb qilingani va jalb qilinmagani bilan), qimmat baholi qog'ozlar chiqarish operatsiyalari xarakteri bo'yicha (fondlarga oid, tijoratlarga oid va tovarli) va boshqalar. Biz qimmat baholi qog'ozlarning tasnifini ushbu qimmat baholi qog'ozlarga berilgan huquqlarga bog'liqliklarini

ko‘rib chiqamiz. Shuning uchun barcha qimmat baholi qog‘ozlar mezonlarini quyidagi turlarga bo‘lish mumkin.

1. Mulkchilik haqida guvohnoma.
2. Zayomlar haqida guvohnoma.
3. Kelajakdagi bitimlar uchun shartnomalar (yasama qimmat baholi qog‘ozlar).

#### **44.4. Mulkchilik haqida guvohnoma**

Mulkchilik haqida guvohnomalarga aksiyalar kiritiladi. Aksiya – bu qimmatbaholi qog‘oz hissadorlik jamiyati harakat shaklidagi korxonalarining kapitalida qatnashgan ulushini tasdiqlaydi. U dividend ko‘rinishda foydasining bir qismi hissadorlik jamiyatining umumiy majlisida ovoz berish huquqiga ega (imtiyozli aksiyalardan tashqari).

Quyidagi emissiya aksiyalar usuli mavjud:

1. Reyestrlarni olib berish. Bu yerda mulk unvoni bo‘lib reyestir kitobiga yozilish, mulkchilikka kirish lahzasi esa, reyestirga yozilish lahzasi hisoblanadi. O‘zbekistonda aksiyadorlik jamiyati 200–500 hissadorlarga ega bo‘lsa, tashqi reyestirlashga ega bo‘lishi kerak. Reyestirda emissteniyalar barcha emissteniy aksiyalarini chiqarish, ro‘yxatga olingan shaxslar va boshqalar haqida axborot bo‘lishi kerak.
2. Sertifikatlash. Bu yerda mulkchilik unvoni va lahzasi bo‘lib aksiyalarni hujjat sifatida berish hisoblanadi.
3. Aralash usuli.

Aksiyalarni quyidagi usullarda joylashtirishi mumkin:

- Oshkora joylashtirish, reklama berish vaqtida aksiyalarni barcha xohlovchilarga sotish. Bu yerda har bir yashirin holdagi hissador boshqa hissadorlarga nisbatan mutlaqo teng sharoitda bo‘lishi shart barcha hissadorlarga aksiyalar bir xil kursda sotiladi, dividendlar bir xil vaqtda to‘lanadi va boshqalar.
- Yopiq turda obuna bo‘lish, aksiyalarni oldidan tanlab olingan hissadorlar doirasida joylashtirish. Bu yerda aksiyalarni sotish sharoitlari har xil bo‘lishi mumkin.
- Auksionli, bu yerda aksiyalar asosan, davlat korxonalariga sotiladi (agar ular xususiy lashtirilmagan bo‘lsa).

Iqtisodiyoda aksiyalarning quyidagi turlari mavjud:

1. Nomiga yozilgan aksiyalar. Bunday aksiyalarning egalari korxonalarining reyestrlarida ro‘yxatda bo‘lishi shart. Aksiyalarda hissadorning familiyasi ko‘rsatilishi kerak. Ismli aksiyalarning asosiy shakli inpulirovanli

aksiya hisoblanadi. Aksiya uni chiqargan aksiyadorlik jamiyatining ruxsati bilan uchinchi shaxsga sotilishi mumkin.

2. Tarqatilgan aksiyani ko'rsatuvchi bu aksiyalar ko'pincha har xil turdagi aksiyalar hisoblanadi. Bunday aksiyalarda hissadorning familiyasi ko'rsatilmaydi va uning egasi har qayerda ro'yxatga olinmaydi, aksiyalar erkin sotilishi mumkin.

Barcha aksiyalar (ismli, ko'rsatuvchi) oddiy va imtiyozli bo'lishi mumkin. Oddiy aksiyalar hissadorlarning umumiy majlisida ovoz berishga huquq beradi, ularning egalari korxonada faoliyatining natijalaridan kelib chiqqan holda, dividend oladilar. Imtiyozli aksiyalar hissadorlarning umumiy majlisida ovoz olish huquqi natijalaridan qat'i nazar dividend olishga kafolat beradi. Agarda ma'lum vaqt ichida foyda olinmagan bo'lsa, ularga dividendlar zaxira fondlaridan to'lanadi.

Odatda, bitta aksiya bitta ovoz berish huquqiga ega, ammo ko'p ovozlilik aksiyalar ham bo'lishi mumkin. Dividendsiz aksiyalar ham bo'lib turadi. Ular qaytariladigan bo'ladi, ya'ni hissadorlik jamiyatlari ularni sotib olishi kerak. Odatda hissadorlik jamiyati ularni sotib olishi majbur emas.

Aksiya kurslari talab va takliflarning o'zaro nisbatlari bilan aniqlanadi. Aksiyalar necha pul turadigan bo'lsa, xaridor shuncha to'lashga rozi bo'lishi kerak. Aksiya kursi nominali bo'yicha nominalidan yuqori (mukofot bilan), nominaldan past (diskont bilan) bo'lishi kerak.

Dividendsiz yoki qaytarilib beriladigan aksiyalar, hissadorlarga diskont bilan (past narxda) sotiladi, aniq vaqt orqali esa, qaytarib nominali bo'yicha yoki mukofot o'rtasidagi oraliqda ularni hissadorlik jamiyatiga fond bozorida sotishi mumkin. Aksiya kurslari amaliyotda hech qachon ularning nominal qiymatiga to'g'ri kelmaydi, dividendlar esa, nominaliga bog'liq bo'ladi. Masalan, biz aksiyalarni nominal qiymati bo'yicha 1000 so'mdan sotib oldik, u o'z navbatida 10%, ya'ni 100 so'm dividend olib keladi, ammo biz uni 2500 so'm kursi bo'yicha sotib olganimizda ham 100 so'm olar edik (haqiqiy foiz atigi 4% bo'ladi). Dividentlar aksiyalar bo'yicha sof foyda hisobiga to'lanadi.

Zaym haqida guvohnoma yoki qarzga olingan qimmat baholi qog'ozlar – bu obligatsiyalar, vekselar depozitli (xalq banki) sertifikatlar bo'lib hisoblanadi

Obligatsiya – bu o'z egalariga oldindan o'rnatilgan jalb qilingan foiz stavkasi ko'rinishida daromad olish huquqi berilgan qimmat baholi qog'ozdir. Shu bilan birga, obligatsiyalarning ko'rsatilgan vaqtda nominal qiymatini to'ldirishga kafolat ham beradi.

Obligatsiyalar fond bozorida sotiladi, sotib olinadi va garovga qo'yiladi. Obligatsiyalarning majburiy bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- Nominallari.
- Foizlari.
- To‘lash vaqti.

1) Garovga qo‘yiladigan narsalar (katta obligatsiyalar). Garovga qo‘yiladigan barcha narsalar faqat investorlarni qoniqtirishi kerak, masalan, ko‘chmas mulk yoki boshqa qimmat baholi qog‘ozlar.

2) Garovga qo‘yilmaydigan narsalar (mayda obligatsiyalar).

Bular ko‘proq davlat obligatsiyalardir.

Qimmat baholi qog‘ozlarning bir ko‘rinishini boshqa bir ko‘rinishga aylantirishi (o‘zgartirish) **konvertatsiyalash**, deb ataladi. Konvertatsiyalashgan obligatsiyalar ularning egalariga qandaydir aniq sharoitlar tug‘ilganda ularni korxonalarining aksiyalariga aylantirishga kafolat beradi.

Obligatsiyalarning yana bir turi – bu foizsiz yoki kuponsiz bo‘lgan obligatsiyalar. Ular qoida bo‘yicha diskont bilan chiqariladi, sotilishi esa, mukofot bilan (inflyatsiyani hisobga olish bilan). Investorlarni ko‘rsatilgan farqlari qiziqtiradi.

Bu yerda, obligatsiyalar chiqarishda asosiy rolni ularni chiqaradigan moliyaviy tashkilotlarning obro‘si o‘ynaydi. Xalqaro moliyaviy bozorlarda shunday obligatsiyalar muomilada aylanishi yaxshi, tezroq o‘tadigan, ya’ni xalqaro banklarda eng yuqori baholarni oladigan obligatsiyalar. Eng yuqori oladiganlarga AAA (bunga faqat Jahon banki ega), bundan keyin AA va A, BBB, BB va B, SSS, SS va S va D guruhi defoliti kiradi. Bu obligatsiyalarning reytingi kredit uchun to‘lanadagan foizlar va kredit olish sharoitlari va boshqalarga bog‘liq bo‘ladi. Rivojlanib kelayotgan mamlakatlarning zaymi va obligatsiyalari «yumshoq», deb ataladi. Xalqaro moliyaviy bozorlar jargonida (tilida) kamroq obro‘ga ega bo‘lgan zaymi va obligatsiyalari «axlat»ga oid obligatsiyalar, deb ataladi.

**Defolt – (qandaydir majburiyatni bajarmaslik), to‘lamaslik, qarzni to‘lashdan bosh tortish.**

Bozor kursi obligatsiyalarining aylanish vaqtida qo‘yiladigan daromadlarning diskoniylash asosida aniqlanadi:

$$PDV_0 - d/(1+r) + d/(1+r)^2 + d/(1+r)^3 + \dots + (d + v_n)/(1+r)^t$$

Bu yerda,  $PDV_0$  - obligatsiyalarning bozor qiymati,  $d$  – obligatsiyadan har yili olinadigan daromad;  $r$  – foiz stavkasining bir raqamdagi ulushi,  $V_n$  – obligatsiyaning nominal qiymati;  $t$  – obligatsiyaning aylanish vaqti.

Yuqorida ko‘rsatilgan formula kelajakda diskontlashgan yangi tarkibidan  $V_n$  (obligatsiyalarining nominal qiymatida) farqlanadi. Ushbu tarkibning paydo bo‘lishi sababi, obligatsiyani to‘lashda obligatsiya egasiga

uning nominal qiymati qaytariladi. Biz, ya'ni ko'rib turibmiz, foizli stavkaning o'zgarishi obligatsiyalarning bozor qiymatiga juda ham katta ta'sir ko'rsatadi, foiz stavkasining o'sishi bilan obligatsiyalarning bozor kursi tushadi. Ikkinchi guruhdagi qimmat baholi qog'ozlarning zaymlar haqidagi guvohnomaning ikkinchi turi – veksel.

Veksel – bu ham qimmat baholi qog'oz bo'lib, veksel beruvchining majburiyatini tasdiqlaydigan, to'lash vaqti kelganda aniq pul birligini veksel egasiga to'lash. Veksel qonun bilan belgilangan so'zsiz mavhumli pul majburiyatini saqlaydigan qimmat baholi qog'oz. Qonun bilan belgilangan shaklni birlashtirishni bildiradigan, ya'ni vekselni yozish uchun aniq shakldagi blankalardan foydalaniladi. So'zsiz majburiyat, deganda, ya'ni veksel pulni qaytarishga hech qanday shartni saqlashi mumkin emas. Mavhumli majburiyat deganda, ya'ni veksel butun ob'ekti qatnashishi mumkin emas. Shunday qilib, veksel kim-kimga qancha qarz va qachon qarzni berish majburiyati ko'rsatilishi shart.

Veksel oddiy va ko'chirma (italyancha tratta - tratta). Oddiy veksel (solo veksel) ikki tamonning – kredit beruvchi va qarzdorlarning munosabatini ifoda etadi.

### **1. Tratta – ko'chirma vekselning tashqi savdoda asosiy hisob-kitob hujjati, ushbu hujjat bo'yicha ko'rsatilgan pulni to'lash**

Rivojlangan mamlakatlarda bankka borib vekselni diskont bilan sotish ham mumkin. O'z navbatida bank pulni belgilangan vaqtda qaytarishini kutishi mumkin, kerak bo'lsa, markaziy bankka murojat qilishi ham mumkin, u (agarda xoxlasa) vekselni diskont bilan sotib oladi. Markaziy bank tomonidan vekselni sotib olish veksellarni hisob-kitob qilish deyiladi. Markaziy bank tijorat banklaridan veksellarni sotib olishda oladigan foiz va foiz stavkasi hisob-kitobi deyiladi.

Ko'chirma veksel (tratta) – veksel oluvchi shaxsning vekselni ko'rsatilgan pul yig'indisini uchinchi shaxsga o'tkazish to'g'risidagi buyrug'ini saqlaydi. Bu o'tkazadigan ustiga yozilgan zam indossament deb nomlanadi. Veksel bo'yicha garovga qo'yilgan (agarda u bor bo'lsa) yoki yirik banklarning kafilligi aval deyiladi. Vekselning o'zi esa, avalga oid, ya'ni kafolatlangan, deb nomlanadi. Agarda vekselni rekvizitlardan (vaqti, soni, yig'indisi) biri yo'q bo'lsa, unda u blankaveksel, deb ataladi. Vekselni undagi imzoga muvofiq to'lovchining pulni to'lash roziligi aksent, deb nomlanadi.

Depozitga oid, yoki jamg'armaga oid, sertifikatlash ham qimmat baholi qog'oz bo'lib, o'z navbatida bankdagi pulni saqlash uchun guvohlik haqida va omonatga qo'yilgan pulni aniq vaqti o'tishi bilan sertifikatda ko'rsatilgan



foizda olish huquqini tasdiqlaydi. Depozitli sertifikatning jamg'arma – ommoviy sertifikati uch yil muddatgacha berilishi mumkin.

#### **44.5. Yasama qimmat baholi qog'oz**

Bu qimmat baholi qog'ozlarning uchinchi guruhi bo'lib – bu yasama qimmat baholi qog'oz yoki kelgusi bitimlarga shartnomalardir. Bunga fyuchers, forvard, opsiyonlar, varrantlar va boshqa qimmat baholi qog'ozlar kiradi.

**Fyuchers** – bu qimmat baholi qog'oz bo'lib, unda xaridorlarning sotib olish majburiyati, sotuvchilarning ushbu tovarning aniq vaqtda ko'rsatilgan narxda sotishni saqlashi ko'rsatiladi. Bunday qog'ozlarni sotish mumkin. Agarda ko'rsatilgan fyucherslar bajarilmasa, unda 40% dan 60% gacha jarima to'lanadi. Fyuchers shartnomasi tuzishda barcha bitim qoidalari birja tomonidan belgilanadi.

**Forvard** – bu fyuchersni erkin shakli. Bu ikkala tomon (xaridor va sotuvchi)larning kelgusi bitimlarga shartnomalar tuzish shartlari bo'yicha kelishish. Masalan, majburiyatlarni bajarmaganligi uchun jarima 7–8% tashkil etadi. Tovarlarini yetkazib berishda kechiktirilgani uchun birjaga qaraganda 4 marotaba kam bo'ladi va boshqalar.

**Opsiion** – bu ham qimmat baholi qog'oz bo'lib, sotuvchiga sotish, haridorga esa, ushbu tovarning aniq miqdorda va vaqtda ko'rsatilgan narxda sotib olish huquqini saqlashi ko'rsatiladi. Yoki bu huquq sotib olishdan voz kechishni bildiradi. Qimmat baholi qog'ozlarni sotib olishga opsiyonlar (koll) sotishga (put) va ikkilamchi opsiionlr (stellaj) mavjud.

**Varrant** – bu tovarlar omborxonasining aniq tovarlarni qabul qilish haqida, ushbu tovarlarni sotishda va garovga qo'yishda foydalanadigan sertifikat. Biz oldinda aytib o'tgandek, omborxona dalolati emissiyaga bog'liq bo'lmagan qimmat baholi qog'oz va likvidli garovni ta'minlashni talab etadi, ya'ni likvidli garovdagi tovar zaxirasi ostida kompaniyalar kapital bozorlaridan vositalarni jalb qilishi mumkin. Hozirgi zamonda omborxonalar dalolati yuo'yicha rivojlangan bozorlar normativ asoslarini batafsil ishlab chiqishni talab qiladi.

#### **44.6. Qimmat baholi qog'ozlar portfelini boshqarish**


Shunday qilib, investor qimmat baholi qog'ozlarni to'playdi. Shu bilan birga, bozorda yangi qimmat baholi qog'ozlar paydo bo'ldi, eskilari yo'qolmoqda, qandaydir juda ham xatarli bo'lmoqda.

Ularni qanday boshqarish mumkin ?

1989 yilda kelib chiqishi yugoslaviyalik iqtisodchi Garri Morkovets ilmiy basharoti uchun Nobel mukofoti sovrindori bo'ldi. 1942 yilda esa, u qimmat baholi qog'ozlarni boshqarish bo'yicha doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi. XX asrning 20–yillarida yirik korporatsiyalarda so'roq o'tkazildi va ma'lum bo'ladiki, ya'ni Ye.Markovich ushbu so'roqning natijasini olgandan keyin 1942 yilni basharot qilgan edi. U qimmat baholi qog'ozlar portfelini boshqarish pritsiplarini ishlab chiqdi.

- 1). Qanchalik tavakkalchilik ko'p bo'lsa, shuncha foyda ko'p bo'ladi.
- 2). Portfeldagi qimmat baholi qog'ozlarni optimal birlashtirish. Tavakkallik va konservativli qimmat baholi qog'ozlarni baravarlasmirnoq zarurdir.
- 3). Barcha optimallik bo'yicha o'sha qimmat baholi qog'ozlarni sotib olmaslik – bu o'z navbatida qimmat baholi qog'ozlarning parchalanish tamoyili. Hatto banklarga qo'yilgan omonatlar turlari bo'yicha parchalanishi, ajratilishi shart. Xalqimizda, «barcha tuxumlarni bitta yashikka joylashtirish mumkin emas», degan maqol bor.

G.Morkovits egri chiziqni chizib ko'rsatdi bu chiziq Morkovits egri chizig'i, deb nomlandi (44.1-chizma). «Oltin kesim» nuqtasiga eng kam tavakkalchilik, eng ko'p foyda bilan birlashadi. Hozirgi zamondagi investirlash konsepsiyasi portfeli yondashuv doirasida rivojlanmoqda, ya'ni qimmat baholi qog'ozlar bozorida tavakkalchilik operatsiyasining umumiy darajasi portfeldagi tavakkal aktivlarning birlashishi hisobiga ko'payishi mumkin. Tavakkalchilikni pasayishi har xil qimmat baholi qog'ozlarnig har xil daromadga egaligi hisobiga ro'y bermomda. Itvestorlarning maqsadiga qarab har xil turdagi portfellar shakllanadi:



#### 44.1.chizma - Markovits egri chizig'i.

- Portfelning daromadi bu yuqori joriy daromadlar olinishini ta'minlaydi.
- Portfelning o'sishi u investitsiyalashgan qimmat baholi qog'ozlarda vositalarning jaddalashgan holda ko'payishini ta'minlaydi.

- Balanslashgan portfel yuqori daromadli qimmat baholi qog'ozlar bilan bir qator, konservativli, ya'ni past daromadli qimmat baholi qog'ozlarni ketma-ket ulaydi.

- Aniq turdagi qimmat baholi qog'ozlardan tuzilgan ixtisoslashgan portfel.

### **3. Do'konlarda yashirin savdo qilish va fond birjalari**

Qimmat baholi qog'ozlarnig ikkinchi bozori «prilavkalaridan» yoki «ko'cha bozori» (birjadan tashqari qimmat baholi qog'ozlar aylanmasi) hamda fond birjasidagi savdo (qimmat baholi qog'ozlarning birjadagi aylanmasi) deb xarakterlanadi.

#### **Qimmat baholi qog'ozlarning birjadan tashqari aylanishi**

Qimmat baholi qog'ozlarning birjadan tashqari oldi-sotdisi to'g'ridan-to'g'ri yo'l bilan sotuvchilar va xaridorlar o'rtasida bitimlar asosida amalga oshiriladi. Obligatsiyalarning barchasi ba'zan aksiyalar ham «ko'cha bozorlarida» sotiladi. Ularni asosan yosh kompaniyalar hamda kimlar qandaydir sabablarga ko'ra birjalarga moliyaviy hisobot bermaslik uchun sotadilar. Firmalarning birjadan tashqari bozorlarga kirishi mumkin bo'lishi uchun brokerli kompaniyalar zarurdir. U ushbu turdagi qimmat baholi qog'ozlar bo'yicha ikkilamchi bozorni qo'llab-quvvatlashga kelishishi kerak. «Prilavkadan» yoki «Ko'cha bozorida» qimmat baholi qog'ozlarni sotish bo'yicha telefon orqali gaplashish yo'li bilan va kompyuter tarmoqlari orqali bir-biriga bog'lanmagan brokerlar o'rtasida amalga oshiriladi. Bu yerda qimmat baholi qog'ozlarni oldi-sotdi mexanizmi shunday: qimmat baholi qog'ozni sotib olishga (sotishga) byurtma olgandan keyin broker telefon tarmog'i (yoki kompyuter tarmog'i orqali) o'zining hamkasblarini qidiradi, u o'z navbatida, kim sotib oladi (sotadi)ganlar biladi. «Prilavkadan» savdo qilish birjalarga qaraganda uzoq vaqtni oladi, bazan ish kunining barchasi shunga ketadi, ammo o'zining aylanmasi bo'yicha birjaga qaraganda uning hajmi 10 martadan ko'proq bo'ladi, asosan obligatsiyalarni sotish hisobiga, «Ko'cha bozorida» narx esa, birjalarning tasir ostida yig'iladi.

#### **Birja va qimmat baholi qog'ozlarning birjaga oid aylanmasi**

Birja fransuz tilidan tarjima qilinganda «charm hamyon» (shunday bo'lsa ham iqtisodiyadabiyotlarda bu tushunchaning boshqacha talqini ham bor) deb ataladi.

Birjaga oid fond bozori – bu qimmat baholi qog'ozlarning tashkillashtirilgan bozori, shu bilan birga, bu yerda savdo qilish hamma vaqt birja tomonidan belgilangan qoida bo'yicha olib boriladi va faqat birja vositachilari o'rtasida puxtalik bilan boshqalar bozor qatnashchilari orasidan tanlab olinadi. Har bir birja o'zining qoidasiga ega va qimmat baholi

qog'ozlarni sotuvchilarga va xaridorlarga talab qo'yiladi, shuning uchun bitta kompaniyaning qiymat baholi qog'oz shunday birjada katirovka qilinadi. Boshqasida katirovka qilinmaydi. Fond birjalari o'z-o'zidan qiymat baholi qog'ozlar yaratadi-sotuvchilar va xaridorlar o'rtasida aloqani amalga oshiradi, turar joy beradi, texnik xizmatlar savdosi birjada an'anaviy va kompyuterlangan usullarda olib borilishi mumkin.

**Klassik fond birjasi** – bu auksion bo'lib. Bu yerda brokerlik firmalarnig vakillari o'rtasida og'zaki yo'llanmalar bilan almashuv yordamida olib boriladi. Hozirgi klassik birjalar ustunlik qiladi va ulardan yirik birja Nyu-Yorkdagi fond birjasi hisoblanadi. Avtamatlashgan fond birjalarida savdo kompyuter tarmoqlari orqali olib boriladi, bular o'z navbatida o'zlariga muvofiq fondlarga oid vositachilarni yagona kompyuterlashgan elektron savdo tizimi qiymat baholi qog'ozlar bilan ancha-muncha fond bozorlarining ko'rinishini o'zgartiradi. Kompyuterlashgan fond birjalarining xarakterli belgilari quyidagicha:

- Sotuvchilar va xaridorlarning uchrashuvi uchun jismoniy joylarning yo'qligi, ya'ni bular o'rtasida bevosita aloqa yo'q.
- Qiymat baholi qog'ozlar bilan savdo qilish jarayonlari va uning xizmati to'liq avtamatlashgan, savdo qilishga qatnashuvning roli tarmoqqa kirish qiymat baholi qog'ozlarning oldi-sotdi buyurtmalari cheklangan.

Oxirgi yillarda internet fond bozorining rivojlanishiga juda ham katta tasir ko'rsatmoqda. Bu maksimal darajada tashkiliy xarajatlarni kamaytiradi va xususiy investorlar bilan ishlashni foydali qiladi. Internetda savdo olib borish bozorga kirishni hatto kamroq summada amalga oshiradi. Fond birjalarining kompyuterlash jarayoni hozirgi vaqtda O'zbekiston uchun ham xarakterli, g'arb mamlakatlariga va AQShga qaraganda bizda ancha kech boshlandi. Bizda eng yirik fond birjasi birinchi birjasi bo'lib hisoblanadi. Kompyuter texnologiyalaridan foydalanish yagona umummilliy birja tizimini yaratishning asosidir. Endi Germaniyada sakkizta fond birjalari nemislarning Federatsiyasiga birlashgan, Fransiyada yagona tizimni yettita fond birjasi tashkil qiladi.

Fond birjalari notijorat sherikchilik shaklida yaratiladi va uning a'zosi har qanday kasbga oid qiymat baholi qog'ozlar bozori qatnashchilari bo'lishi mumkin. Birjada to'laydigan brokerlar, dillerlar – **treyderlar**, deb ataladi. Broker mijozlar hisobiga va ularning nomidan harakat qiladilar, mukofotlarni esa, vositachilik hisobidan oladilar. Unga qiymat baholi qog'ozlarni sotib olish yoki sotish muddati hamda ularni sotish minimal narxda (yoki sotib olish maksimal narxda) belgilanadi. Diller o'zining hisobiga va o'zining nomidan ishlaydi.

Birjada narxlarning o'zgarishi tendensiyasi savdoda qatnashadigan ikkita guruh ta'siri ostida ko'rsatiladi. Bular «бык» va «medvedlar», deb nomlanadi. «Быклар» narx-navoning oshishini kutadiganlar, mana shunda ular o'yin olib boradi, «Medvedlar», deb savdoda qatnashadiganlarni, ya'ni ular narxlar tushishini kutadilar va yordam beradilar. Birja xodimlari savdoning yurishini aniqlaydilar, ularni maklerlar, deb ataydilar. Qimmat baholi qog'ozlarning eng kam miqdori, ya'ni bir marotabida sotib olish mumkin bo'lishi lat deyiladi. Nyu-Yorkda lat – bu 100 aksiya, Yaponiyada 1000 aksiya fond birjasida birja tovari qimmat baholi qog'ozlar, valyuta, qimmat baholi metallar, kredit resurslari xizmat qiladi.

Fond birjasida quyidagi bitim turlari farqlanadi:

- 1). Kassaga oid – bu bitimlar «spot» yoki «KESh» bo'lib, ular operatsiyalar ro'yxatga olingandan keyin darhol bajarish kerak bo'ladi (1–2 kun ichida)
- 2). Tezda zarur bitimlar – bu bitimlar birja maslahati tomonidan belgilangan kunda tezda bajariladigan (ikki ish kunida). Ular ikki turda: qattiq (fyuchursga oid) va shartli (opsonga oid) bo'ladi.
- 3). Arbitrajga oid bitimlar – qimmat baholi qog'ozlar bitta birjada sotib olinib va bir vaqtda ularni foyda olish maqsadida boshqa birjaga sotish.
- 4). Banklararo bitimlar – bu ikki va undan ortiq birjalar vositachiligi bo'yicha amalga oshiriladigan bitimlar.

Birjaning katirovka ro'yxatiga varoq kiritiladigan qimmat baholi qog'ozlar protsedurasi listing, deb nomlanadi.

Bankning va o'rtacha kompaniyalarining qimmat baholi qog'ozlarini ro'yxatga (varoq) kiritish haqidagi tavsiyasi anderrayting, deb nomlanadi. Shu bilan birga, bank ushbu tavsiya uchun hech qanday moliyaviy javobgarlikni olmaydi.

Kamroq ma'lum bo'lgan kompaniyalar firmalarining audit natijalarini tasavvur etishlari kerak. Listing kompaniyalarga quyidagi afzalliklarni beradi:

- Kompaniyaning obo'sini ko'taradi.
- Kreditlashga yaxshi sharoit yaratadi.
- Bozorning a'lo ko'rinishi (nashr etish, moliyaviy masalalarni yoritish).
- O'zlarining aksiyalari «taqdiri»ga yengil qarashlari mumkin.
- Kreditorlar katta xohish bilan atsiyalarni garovga oladi.

Listinglarning protseduralarni o'tishda shunday omillar hisobga olinadi, emitentning obro'si, uni moliyaviy ahvoli va to'lov qobiliyati, ushbu qimmat baholi qog'ozga yashirin xaridorlar tomonidan qiziqishi, emitentning kelajakda o'sishi va uning faoliyat sohasi.

### **Listignig kamchiligiga kiritiladi:**

- Kompaniya ustidan qo‘shimcha nazorat.
- Qo‘shimcha sarf-xarajatlar.
- Agarda kompaniya kamroq ma’lum bo‘lsa, aksiyalarning kamroq katirovkasi barchaga shubhasiz bo‘lishi.

Bir necha fond birjalari ro‘yxatga kiritilmagan aksiyalar bilan savdo qiladi. Masalan, Tokio fond birjasi uch seksiyaga ega: yirik ro‘yxatdagi kompaniyalar, mayda ro‘yxatdagi kompaniyalar va barcha ro‘yxatga olinmagan kompaniyalar uchun.

Birja foydasiz assosatsiyalarni tasavvur etadi. Ammo ular zararsiz va o‘z xarajatlarini o‘zi qoplaydi. Ularning daromadlarini asosiy moddalari quyidagilar:

- Sotuvchilardan va xaridorlardan olinadigan bitimlar soliqlari.
- Ularning aksiyalarini ro‘yxatga kiritish uchun kompaniyalarning to‘lovi.
- Yangi a‘zolarining kirishi uchun to‘lovlar.

Birjalarning olgan daromadlari sarf-xarajatlar va o‘zlarining ishchilarini mukofotlashda foydalaniladi. Birja a‘zolari qimmat baholi qog‘ozlardan olinadigan bitimlarni maksimal foyda olish uchun amalga oshiradilar.

### **Qisqacha xulosa**

Ushbu bobda moliya bozorining tarkibiy qismini ko‘rib chiqdik, qimmat baholi qog‘ozlar bozorining asosiy tushunchalari bilan ham tanishib oldik, uning o‘ziga xos xususiyatlarini va infratuzilmasini hamda qimmat baholi qog‘ozlarning asosiy turlari ularga berilgan huquqqa bog‘liqligi bilan tanishdik. Qimmat baholi qog‘ozlarning ikkinchi bozorini ko‘rib chiqishda asosiy e’tibor «ko‘cha» bozoriga va asosan, fond birjasiga qaratilgan.

### **Asosiy tayanch atamalar**

- Qimmat baholi qog‘ozlar bozori.
- Fond bozori.
- Qimmat baholi qog‘ozlarning maxsus funksiyasi.
- Qimmat baholi qog‘ozlarning tuzilishi va infratuzilmasi.
- Zaym.
- Obligatsiya.
- Veksel.
- Indossamont.
- Aval.

- Depozit.
- Sertifikat.
- Fyuchers.
- Forward.
- Opsion.
- Varrat.
- Birja.

### **Mavzuning namunaviy savollari**

1. Qimmat baholi qog'ozlar bozori qanday tasavvur etiladi?
2. Iqtisodiyot nuqtai nazaridan qimmat baholi qog'ozlar mohiyati.
3. Qimmat baholi qog'ozlar tuzilishi qanday?
4. Qimmat baholi qog'ozlar infratuzilmasi.

### **Seminar darslarida muhokama qilish uchun savollar**

1. Qimmat baholi qog'ozlarning iqtisodiy tushunchasi?
2. Qimmat baholi qog'ozlar qanday belgilar bilan baholanadi?
3. Qimmat baholi qog'ozlarning asosiy turlari ularga berilgan huquqlar bog'liq?
4. Aksiya deganda nimani tushunasiz va ularning asosiy usullari, emissiya va joylashtirish?

### **Mustaqil ta'li uchun savollar**

1. Qimmat baholi qog'ozlar bozorining tushunchasini gapirib bering.
2. Qanday qimmat baholi qog'ozlar yasama turiga kiradi?
3. Qimmat baholi qog'ozlarning portfeli ularni boshqarishning asosiy tamoyillari.
4. Fond birjasi va uning faoliyati sohasi, deganda nimani bilasiz?

## **45 BOB. SOLIQLAR VA SOLIQ NAZARIYASI**

Zamonaviy iqtisodiy tizimda soliqlarning o‘rni beqiyosdir. Soliqlar davlat budjetining asosiy tushum manbasi hisoblanadi (lekin ular jamiyatning barcha damromadlari tizimiga bog‘langan va o‘rtasida turuvchi zveno hisoblanadi. Iqtisodiy shartlar bilan mavjud bo‘lgan, puxta o‘ylangan soliq tizimi va iqtisodiyot va mamlakatning milliy iqtisodiy tamoyillari asosida olinadigan davlat zarurlari qoniqtiriladi. Iqtisodiy o‘tish davrida soliqlar va soliq tizimining ahamiyati katta, jumladan, ular barcha tarmoqlar va ulardan keladigan daromadlarni nazorat qilib, ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlar o‘rtasidagi muvofiqlikni ta‘minlaydi.

### **45.1. Soliqlar tarkibi va ularning asosiy shakllari**

Soliqlarning paydo bo‘lishi davlat paydo bo‘lishi bilan bog‘liqdir: institutlarning yaratilishi moliya resurslarning jamg‘armalarini vujudga keltiradi va albatta, uning harakatlantiruvchi qurollarini yaratadi. Huddi shunday qurol bu soliqlar hisoblanadi. Resurslarning moliya bazasini vujudga keltirib, davlat funksiyalarini ta‘minlash maqsad qilib olingandi. Davlat rivojlanishi va uning funksiyalarining ortishi natijasida soliqlar ahamiyati ortib bordi, lekin u qaysi maqsadda vujudga kelgan bo‘lsa o‘sha maqsadidan chetga chiqmadi.

Soliq – bu iqtisodiy kategoriya hisoblanib, doimo (yangilanib turuvchi) mavjud bo‘lgan iqtisodiy munosabatlarni davlatlararo bildirib turuvchi vosita, bir tomondan, jismoniy va yuridik shaxslar, ikkinchi tomondan, yangi paydo bo‘lgan mahsulotni tarqatishda va shuning foydasidan bir qismini davlat ixtiyoriga o‘tkazishda xizmat qiladi. Davlat qaysi pog‘ona va tarixiy davrni boshidan kechirishidan qat’i nazar ob’ektiv jihatdan har biri alohida shaxs, (alohida akt) soliq to‘lashi shart. Ob’ektiv soliqqa turli - tuman soliqlar kirib ketadi. Asosiy soliqlarga iqtisodiy mavjud bo‘lgan faktorlar va individual takror ishlab chiqarishga asos qilib olinadi.

Soliqlarni belgilash davlat tizimining darajalariga qarab: soliq normasi, imtiyozlar tizimi va boshqa turlari o‘sha davlat qoidalaridan kelib chiqib belgilanadi. Bu yerda, asosan, mamlakatning davlat qurilishi ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan o‘sishi, o‘sha davrga mo‘ljallangan vazifalar miqyosi, xullas, barcha an‘analari nazarda tutiladi. Soliqlarning belgilanishi va uni yig‘ish soliq to‘g‘risidagi qonunni qabul qilish bilan amalga oshiriladi.

Tizimi bo‘yicha soliq munosabatlari moliya munosabatlari tizimi bilan bog‘lanadi va shart bo‘lgan (ogoxlantiruvchi), olinmaydigan, (ekvivalentsiz) teng bo‘lmaydigan to‘lov turlari mavjud.



Soliq to'lash majburiy hisoblanib soliq to'lovchiga davlat tomonidan bajarishi kerak bo'lgan majburiyatlarni qo'yishga hech qanday o'rin qoldirmaydi. Soliq to'lovchi tomonidan davlat budjetiga to'langan summa, oxir-oqibat u yoki bu formada o'zlariga qaytadi. Soliq bir jazo ko'rinishiga o'xshasada o'z ijtimoiy ko'rinishlariga egadir. Soliq to'lovchi davlat budjetidan ma'lum summani olayotganda bu haqida o'ylab ko'rsa bo'ladi. Soliqning to'lovchiga yoqmaslik tushunchasi bu xuddi bir hodisaga o'xshaydi aslida, aniq iqtisodiy munosabatlarning bir ko'rinishidir.

Soliqlar asosan, qoida bo'yicha, sarflanishi biron to'planishga yo'naltirilmaydi: bularning birontasi ham budjetdan sarflanadigan aniq summalarni qo'shilmaydi. O'zbekiston qonunchiligida istisno tariqasida mineral xom ashyo bazalari va yo'l solig'i hisoblanadi va bu davlat budjetiga tushadigan daromadning ko'p qismini tashkil etmaydi.

#### **45.2. Soliq tizimi va uning tuzilish tamoyillari**

Ma'lum davrning umumiy qarashlarini soliq tizimi birlashtirib turadi, ular har xil vazifalarni bajaradilar.

Soliq tizimi soliqlarning umumiy ko'rinishidir albatta, ularning bajarilish miqdori ma'lum qonunga birlashgandir. Soliq tizimining asosiy ko'rinishi uning tizimi va soliq mexanizmi hisoblanadi.

Soliq tizimi – bu soliqlar majmuidir, boj va boshqa to'lovlarning ma'lum vaqt davomida davlat hududida olinishidir. O'zbekiston va boshqa dunyo davlatlarida budjet daromadi yordamida shakllanadigan soliqlar asosan: tannarxga qo'shiladigan soliq aksizlar, foydadan soliq (yuridik shaxslar uchun), jismoniy shaxslardan podaxod solig'i, olinadigan, ijtimoiy fondlarga to'lovlar, sotilgan narsa solig'i, ko'chmas mulk solig'i hisoblanadi.

Soliq mexanizmi tashkiliy - huquqiy xususiyatga ega bo'lgan barcha vosita va metodlarning umumiy ko'rinishidir. Bularning barchasi soliq qonuniyati doirasida harakat qiladilar. Soliq mexanizmi yordamida davlatning soliq siyosati yurgaziladi, soliq tizimining miqdor va sifat ko'rsatgichlari shakllanadi va aniq ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni bajaradilar.

Soliq mexanizmida asosiysi bu – soliq solishdir (soliq stavkasi darajalari, imtiyoz tizimi, soliq soluvchi idoraning hisob-kitob, soliq solinshi mumkin bo'lgan ob'ektlar va soliqqa kiruvchi boshqa hisob-kitoblar). Soliq solish mexanizmi o'zgarishlari yordamida (u yoki bu soliqning hisob-kitob tartibi) ularning yangi ko'rinishlarini payqash mumkin, masalan, uning tarkibini yoki ko'rinishini o'zgartirish. Bu ba'zan, eng muhim bo'lgan soliqlarning stavkalarini o'zgartirish yo'li bilan amalga oshiriladi. Ko'pincha, dunyo jamiyatlarida bu boshqacha amal qilinadi: soliq tizimi va stavkalar

almashtiriladi, zarur bo'lgandagina tez-tez soliq imtiyozlari qayta ko'rib chiqiladi. Oxirida uning muddati belgilanadi, masalan, 2–3 yilga, ba'zi imtiyozlar o'z-o'zidan to'xtaydi, ba'zilar esa, uzaytiriladi. Soliq olish ba'zilarining o'zgarishi natijasida ham qayta ko'rib chiqiladi.

Soliq tizimining ajralib turishi quyidagicha: tamoyili (tenglik); soliq solishning to'g'ri soliq solishda aniqlik (soliq hajmi, muddati, usuli va hisob-kitob soliq to'lovchi uchun tushunarli, aniq bo'lishi kerak); to'lovni o'z vaqtida to'lash imkoniyatlari; iqtisod qilish (foyda) soliq yig'ish uchun ketadigan summa kamroq bo'lishi kerak.

Soliq tizimidagi asosiy tamoyillardan biri – bu adolatlilikdir.

Hozirgi paytda soliqni to'g'ri bilan yig'ish haqida ikki xil qarash mavjud. Birinchisi shuki, soliqlar bo'yiga va eniga teng o'lchanishi, sababki, soliq to'lovchi qo'shimcha daromad oladimi yoki ilk daromaddan to'laydimi qiynalmasligi lozim. Shu bilan birgalikda, soliq darajasi ham baland belgilanmasligi kerak, imtiyozlar hisobga olinishi shart. Yana bir qarama-qarshi tomoni borki, soliq miqdori, soliq stavkasining darajasi prinsipial ahamiyatga ega emas (ba'zan balandroq bo'lishi mumkin).

Shulardan kelib chiqib, har bir olingan ilk sharoitda to'g'ri yondashish qoidasiga amal qilinadi, bu o'sha bo'yiga va eniga soliqning tengligi qoidasiga asoslanadi, doimiy soliq stavksida daromaddan mutanosib soliq olish kridasiga asoslanadi; ikkinchi holatda – xuddi ikki qoidaning qo'shilishi: eniga qoidasiga ko'ra sub'ektlarga bog'liq bo'lgan holda, har xil sharoitda turib soliq qonunlari bo'yicha turli xil izohlanishi kerak; eniga qoidasiga ko'ra sub'ektlar bir xil sharoitda bo'lsa, soliq qonuniyatiga ko'ra bir xil izohlanishi kerak. Bu qoidalar soliq to'lovchining oladigan daromadi o'sishiga qarab o'zgarib boradi.

Rivojlangan mamlakatlarning soliq tizimida asosan, eniga va bo'yiga qoidasiga amal qiladi. Stavkalarining differensiyasi – keng yoyilgan jarayon: to'g'ridan to'g'ri formasi – olinadigan daromadning o'sishiga qarab o'suvchan soliq stavkasi (masalan, AQShda soliqlar shu tartibda ushlanadi); yopiq formasi ko'pincha imtiyoz orqali; ba'zan to'g'ridan-to'g'ri va yopiq formada bir vaqtda olinadi.

Ma'lum va mashhur bo'lgan klassik soliq qoidalari qatori boshqa maxsus (xususiy) qoidalar ham ishlab chiqilgan. Shular jumlasiga barqaror soliq qonunchiligi; bir qirrali soliq olish; soliq to'lovchilarning tashkiliy-huquqiy va xususiy shaklidan qat'i nazar, teng finans talablarini qo'yish; soliq stavkalarining eng kulay darajasini belgilash; soliq imtiyozlarining asoslanishi; soliq funksiyalarining qulayligi (to'g'ri yoki tebranib turuvchi budjet daromadlari solig'i va boshqalar).

O‘zbekiston soliq tizimiga boshqa soliq tizimlari kabi davlat tuzumi federativ bo‘lganligi sababli soliq tizimining bir butunligi prinsipi qo‘llaniladi: bu tizim o‘zining xususiyatidan kelib chiqib, butun davlat hududida bir xil olib boriladi; huquqiy davlat va mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish organlariga beriladigan soliq - vakolati, bular umumiy soliq tizimini buzmasligi kerak.

Soliq tizimi qo‘rilishi o‘zining birlik ko‘rinishi bilan soliqning barcha funktsiya va imkoniyatlarini yaratib berish kerak.

### **45.3. Soliq tizimining vazifalari**

Soliq tizimi bir butun hisoblanadi va har bir soliq o‘z vazifalariga ega. Soliq tizimining vazifalari soliqning ob‘ektiv vazifalaridan ishlab chiqiladi. Soliq nazariyasida xazina vazifasi bir xil, hammaga ma‘lum bo‘lib qolgan. Boshqa vazifalar haqida juda ko‘p qarashlar mavjud: boshqa bir vazifalarning mavjudligini inkor qilishdan boshqa, xazinadan boshqa, to‘g‘rirog‘i, nazoratli va keragidan ortiq ularning sonini ko‘paytirish mavjud. Bu keyingi paytlarda davlatlarning o‘zgarib borayapti: an‘anaviy ijtimoiy-siyosiy vazifalardan tashqari, davlatning o‘zi u yoki bu formada asosiy ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarini boshqaraveradi. Soliq tizimining ushbu vazifalari ko‘proq mashhur bo‘ldi. Aytib o‘tganimizdek, xazinani tartibga solib turuvchi makroiqtisodiy, ijtimoiy, rag‘batlantiruvchi, bo‘lib beruvchi, nazorat qiluvchi yo‘nalishlarining ahamiyati kattadir.

Xazina vazifasi davlat budjet tizimini daromad bilan quvvatlantiradi va davlatning moliya siyosati diqqat-markazida turadi va nazorat qilinadi. Davlat soliq tizimining (xazina) vazifasi tabiiy ravishda soliq kelishini maksimal darajada ko‘paytirish va shu bilan soliqning boshqa vazifalari oldida soliq siyosatini ustunroq ko‘rsatishdir.

Tartibga solib turish vazifasini olgan soliq va soliq siyosati makroiqtisodiy jarayon, umumiy talab va takliflarning o‘shish tezligini va bandlik muammolarini nazorat qiladi.

Bo‘lib berish vazifasini olgan soliq tizimi baho, daromad, aksiyalar o‘shish kursi va boshqalarga bog‘lanib turadi. Soliqlar daromadni bo‘lib berish va qayta bo‘lishda asosiy qurol hisoblanadi va bunga jismoniy hamda yuridik shaxslar daromadi kiradi. Bo‘lib berish faqatgina daromadni bo‘lish bilan kifoyalanmay, balki kapital hamda investitsiyali resurslarni ham bo‘ladi.

Ijtimoiy vazifa nomini olgan soliq tizimi ko‘p qirrali xususiyatlarga ega. O‘zbekiston Respublikasi sharoitida davlat xalq oldida an‘anaviy ravishda javobgarlikni xis qilgani uchun soliqning ijtimoiy vazifasining mohiyati kuchlidir. Ko‘plab xarajatlar Fapb davlatlarida xususiy vositalar hisobiga (ta‘lim-tarbiya, sog‘liqni saqlash, pensiya xarajatlari, ijtimoiy sug‘urta va

boshqalarga) ketadi. Soliqlarning ijtimoiy vazifasi soliq imtiyozlari mexanizmi va soliq stavkalari orqali amalga oshiriladi, bularning hammasi soliqning ichki mexanizmini harakatga ketiradi (NDS, foyda solig‘iga, jismoniy shaxslardan podoxod solig‘i olish va boshqalar).

Rag‘batlantiruvchi vazifa nomini olgan soliq tizimi eng muhim soliq yo‘nalishi hisoblanib «mehnatga moslashuvchan» vazifa ham hisoblanadi. Uni yana mikroiqtsodiy boshqaruv funksiyasi, deb ham yuritadi va bu yo‘nalish jismoniy va yuridik shaxslarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘lanadi va ularning manfaatlarini ko‘zlaydi. Rag‘batlantiruvchi vazifaga ega bo‘lgan soliq tizimi spetsifik shakl va soliq mexanizmi elementlari orqali namoyon bo‘ladi. Imtiyoz stavkasi va rag‘bat, taqiqlovchi va cheklovchi stavkalar hamda boshqa soliq mexanizmi qurollari mavjuddir.

Nazorat qilish vazifasi o‘ziga xos hisoblovchi xususiyatga ega: u takror ishlab chiqarishda davlat bilan korxonalar o‘rtasidagi soliq muomalalarini o‘rnatadi. Boshqa vazifali soliq tizimlari nazorat funksiyasiz mavjud bo‘lmaydi yoki o‘z asosiga ega emas. Nazorat vazifasi boshqa huquqiy asoslarga tayangan holda, faqat bo‘ysunish yo‘li bilan rivoj topishi mumkin.

Hozirgi O‘zbekiston soliq tizimi bozor iqtisodiyoti davrida tashkil etilgan. Bu davlat va korxonalarining o‘zaro moliyaviy muomalasiga qurilgan. Bunday munosabat, erkin korxonalarining harakati markazlashgan moliyaviy boshqarish va rejalashtirish bilan moliyaviy jihatdan bog‘lanishga majbur etadi.

1992–1999 yillarda soliq tizimi o‘zgarishsiz qolmadi, balki doimo o‘zgarish jarayonlari sodir bo‘lib turdi. Yangi o‘zgarish jarayonlariga moslashish osonlik bilan kechmadi, qarama-qarshiliklar bo‘lib turdi. O‘zbekiston soliq tizimining boshlang‘ich davr vazifalariga (1992–1995 yil) soliq tizimida yangi qonunlar qabul qilinayotgan bir davrda moslasha boshlaydi: yangi soliq va soliq yig‘ishlar, krnunlarga o‘zgarishlar bo‘lib turishi oldinga shahdam qadamlar qo‘yishga to‘siqlarni vujudga keltiradi. O‘zbekistonda bu jarayon soliq sohasida sub’ektlarning vakolat qonunlari kengayishi bilan yanada tezlashdi. Respublika soliq qonuniyatlaridagi qarama - qarshiliklar tufayli hududiy va mahalliy darajadagi qonunlar joriy qilina boshlandi. Bular «O‘zbekiston Respublikasining soliq tizimi asoslari» qonunida ko‘zda tutilmagan edi. Hududiy va maqalliy darajadagi bunday o‘zgarishlar mamlakatning soliq to‘g‘risidagi yaxlit qonunga rioya qilishga to‘sqinlik qilardi. 1996 yil 18 avgustda Respublika Prezidenti Farmoyishi bilan hududiy va mahalliy organlar 1997 yildan e‘tiboran respublika soliq qonunlariga bo‘ysunmaydigan har qanday SOLIQNI bekor qilishni e‘lon qildi.

Soliqlar tizimi xususiyatlari uchun soliq klassifikatsiyasi ishlatilishi mumkin bo'lgan qoidalaridan kelib chiqib, soliqlar bo'linishining tizimi quyidagicha bo'lishi mumkin. Soliq solish ob'ektiga qarab to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita; undirilgandan (budget tizimi bo'limi) – respublika, hududiy va mahalliy; sub'ekt to'lovidan – jismoniy va yuridik shaxslardan; biron maqsadga mo'ljallanganidan - umumiy (aniq budget xarajatlariga bog'liqliksiz) va ma'lum maqsad yo'lida; to'lov manbasidan – daromaddan, foyda va mahsulot sotuvidan; musodara qilishdan – manba va soliq deklaratsiyasidan. Har bir soliq guruhi batafsil tekshirish jarayonida ish mavzusiga qarab bo'linishi mumkin. Masalan, to'g'ri soliqlar ichida daromad solig'i ajralishi mumkin, mulklar bo'yicha, soliqlarda – aksizlar tovar guruhida, universal va boimqalar alohida turlarga bo'linadi.

Soliq klassifikatsiyasi nima foydali, nimani oldindan ko'ra olish mumkinligini va qaysi guruh qanday ish bilan shug'ullanishi kerakligini belgilab beradi. Klassifikatsiya soliq tizimining rejaviy yo'nalishini ham ma'lum maqsad yo'lida belgilaydi. Masalan, qo'shimcha soliqlar biron aniq mo'ljallangan, belgilangan vazifalarni hal etadi va dunyo soliq standartlariga tahlil mutanosibligini solishtirganda ham to'g'ri keladi.

Soliq tizimining asosiy xususiyati uning to'g'ri va qo'shimcha soliqlarga bo'linishidir.

To'g'ri soliqlar maqsad yo'nalishi bilan daromadga yo'naltirilgandir (jismoniy va yuridik shaxslar daromadi, mol-mulk, tabiiy boyliklar, foyda keltirishi mumkin bo'lgan barcha manbalar). To'g'ri soliqlar (foйда) tashkilotlardan; kapitaldan keladigan foyda solig'i; jismoniy shaxslardan daromad solig'i; yer osti boyliklaridan foydalanish solig'i; takror ishlab chiqarish xom ashyo bazasi; uglevodorodlarni topish va qo'shimcha foydasidan soliq; o'rmon solig'i; suv solig'i; transport solig'i; jismoniy shaxslar mulkidan soliq; ko'chmas mulk solig'i; yer solig'i; ehson va vorislik solig'i. Ro'yxat shunchalik uzun bo'lsa ham bularning bari sifatli soliq olishda qo'l kelmaydi. O'zbekistonda soliq solish amaliyotida ancha kamchiliklar mavjud. Ma'lumotlarga ko'ra 1999 yilda bu ko'rsatgich 44% ni tashkil etgan.

Qo'shimcha soliqlar mahsulotlar tarqatilishi yoki xizmat ko'rsatilishi yoki eksport - import kabi jarayonlarda olinadi. Soliq summasi tovar bahosiga (aksiz bo'yicha) qo'shimcha sifatida belgilanadi yoki qo'shimcha tan narxiga (yoki soliq bo'yicha qo'shiladigan bahosiga) foizlarda aniqlanadi. Sotuvdan tushgan tushim yoki sotuv tushimi (sotuvdan soliq) shaklida belgilanadi. Soliq nazariyasi bo'yicha qo'shimcha soliqlarga nisbatan bo'lgan munosabat bir xil emas. Soliq solishda qo'shimcha soliqlar o'zining talab va takliflariga nisbatan bo'lgan muvofiqlashtirish xususiyati faktorlari bilan ham ajralib turadi.

Qo‘shimcha soliqlar bahoning belgilanishiga qarab aniqlangani uchun soliq to‘lovchi ham aniq qo‘shimcha soliq to‘lovchi, deb yuritiladi. Shu bilan birgalikda, qo‘shimcha soliqlar daromad keltiruvchi budjet nuqtai nazaridan sifatli soliq turi hisoblanadi. Albatta, asosiy soliqqa nisbatan ular ancha kamdir, ular xo‘jaliklarning davriy tebranib turishiga va individual takror ishlab chiqarish ahvoriga bog‘liq. Mana shu budjet uchun asosiy manbalar hisoblanadi. Shu sababli ham qo‘shimcha soliqlar har bir mamlakatning soliq tizimida bor va muhim o‘rinlardan birini egallaydi.

#### **45.4. Soliq tizimining samaradorligi**

Milliy iqtisodiyotning barcha muammolarini, moliyaviy munosabatlarini yo‘lga qo‘yishda soliq tizimi muhim o‘rin tutadi va uning samaradorligini oshiradi.

Soliq tizimiga yuklatilgan vazifalarini tom ma‘noda ado etishda uning samaradorligiga ahamiyat qaratiladi. Soliq tizimi qachon samarali, deb aytilishi mumkin, qachonki u ta‘minot olsa:

- soliq davlat budjetiga shunday hajmda tushsinki, davlat o‘zining iqtisodiy va ijtimoiy - siyosiy vazifalarini bajara olsin; kengaytirilgan asosda takror ishlab chiqarishning yangilanishi uchun moliyaviy shartlar va eng muhim davlat vazifalarini bajarish, ma‘lum ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni yuritish har narsadan ustun bo‘lgan soliq qonunlarida aks etishi kerak.

Soliq tizimining samaradorligini baholash uchun butun bir kompleks o‘lchovlar kerak bo‘ladi. Bu vazifani bajarish va samarali o‘lchov uchun maxsus ko‘rsatmalar bo‘lmaydi. Shu sababli soliq tizimining samarasiga qarab qo‘shimcha makroiqtisodiy ko‘rsatmalar ishga kirishadi. Odatda, o‘lchov uchun yangi ichki mahsulotdan kelgan soliqni solishtirma og‘irligining o‘sishi olinadi. Yalpi mahsulotga nisbatan esa, budjet kamyobligining darajasi; iqtisodda va tarmoqlardagi moliyaviy natija va boshqalar olinadi.

Qisqa ma‘nodagi samaradorlik – bu soliqlarning o‘z vazifasini bajarishlari uchun mavjud bo‘lgan barcha imkoniyatlarni bildirib turuvchi ichki imkoniyatdir. Eng muhim ichki xususiyatlarga ega bo‘lgan va samaradorlik yo samaradorlikni oldindan belgilab beruvchi, bu – soliq solishning umumiy ko‘rsatkichi (yalpi milliy mahsulotda soliqlarning solishtirma hajmi); asosiy va qo‘shimcha soliqlarning va jismoniy hamda yuridik shaxslarning soliqlari munosabatlari; soliq qonuniyatlarining jadallik bilan ishlashi; budjet daromadining shakllanishida muhim ahamiyatligi; soliq solishda stavkalarining farqlanishi va uning asoslanishi; soliq tizimi imtiyozlari ijtimoiy-iqtisodiy siyosatda uning ustunligi va soliq to‘lashdan g‘ayri-qonuniy cheklanish; soliq qonuniyatlarining sifatli darajasi va boshqalar.

Soliq yig'ishda uning tizimida muammo mavjud bo'lib, hozirgacha umum qabul qilingan hisob-kitob metodikasi ishlab chiqilgan. Soliq yig'ishning og'irligini bildiruvchi turli ko'rsatgichlar bor. Shularning ichida eng ustunroq ma'lumotlar qatorida ichki yalpi mahsulotlar hajmiga soliq to'lovchilarga nisbatan talabchanroq bo'lishdir. Ba'zan esa, soliq to'lovchilar to'lagan barcha summa miqdori ham shu ko'rsatgichlarda keltiriladi. Soliq yig'ishning optimal darajasi – chegaralar, korxonalarining takror ishlab chiqarish imkoniyatlari, talablar bilan belgilanadi. Iqtisodning o'zi korxonalar tomonidan moliyaviy resurslarni qanchadan bo'lish qonuniyatlarini aytib turadi. Bu nafaqat siyosiy (mudofaa talabi, boshqarma mudofaasi), balki ishlab chiqarish tizimi faktorlari bilan ham belgilanadi. Hozirgi paytda O'zbekistonda budjet orqali ko'mir ishlab chiqarishga, agro ishlab chiqarish komplekslari, Uzoq shimoliy rayonlarga moliyaviy resurslar davlat tomonidan yordam sifatida ajratiladi. Ishlab chiqarish infratizimining tezlikda shakllanishi, kapitalning tez va ko'p miqdorda to'planishi va ham mamlakat iqtisodiyotida qayta ta'minlash jarayoni belgilanadi. Soliq tizimining samaradorligini ta'minlash uchun uning bu jarayoni optimal variantini tanlash kerak – soliq qurollarini «sozlash» u yoki bu vazifani hal etish uchun muhimdir. Optimal rejimda harakat qilib, uzoq vaqt davomida soliq mexanizmini o'zgarishsiz qoldirib bo'lmaydi.

Biron muhitda harakat qilayotgan soliq tizimi va hatto (tizimning) o'zi ham qotib qolgan qolipda qolmaydi. Har qanday ko'rilgan chora vaziyatdan chiqish uchun qo'llaniladi.

Bu maqsadga erishish yo'lida soliq tizimiga moslashayotgan manzil yangi soliq tizimiga moslashadi chunki, oldingi iliq tizimi o'nga samarali hisoblanmaydi. Masalan, bozor iqtisodiyotida soliqlar imtiyoz tizimi vositasida jadallik bilan iqtisodiyot rivoji uchun foydalaniladi: imtiyozning kengaytirilishi investitsiyani tezlatadi. iqtisodiyot inqirozga duchor bo'lmasligi uchun imtiyoz qisqa muddatga beriladi.

Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning muvofiqlashuvida soliq tizimining xissasi bo'lishiga qaramasdan, dunyo amaliyotida o'zining samaradorligidan qat'i nazar har bir iqtisodiy muammoni ham soliq yo'li bilan yechib bo'lmaydi. Soliqlarning ham ob'ektiv chegaralari mavjud, ular ma'lum qolip ichidagina dastak vazifasini o'tay oladi. Bu chegaralarni sun'iy yo'l bilan kengaytirib bo'lmaydi, agar shunday qilinsa, kutilmagan muammolarga duchor bo'laverasiz. Masalan, hozirgi O'zbekistonliklar sharoitida iqtisodning aniq sektorida moliyaviy imkoniyatlarni tiklash asosiy o'tkir muammolardan hisoblanadi. Lekin bu muammoni faqatgina soliq yo'li bilan hal etish aslo mumkin emas. Buning uchun iqtisodning qator jabhalari moliya, kredit, baho,

valyuta siyosati kabilar bilan kelishishi lozim. Bularning hammasi davlat ixtiyoridagi sohalardir.

Xo‘jayinlik qiluvchi sub’ektlarning paydo bo‘lishi ko‘plab faktorlarga bog‘lanadi, bularning ichida soliqlar har doim asosiy hisoblanmaydi. Bir tarafdin olganda, har qanday iqtisodiy ishlab chiqarish tizimida ko‘plab foyda keltiruvchi tarmoqlar (neftgaz, spirt – aroq, tamaki va b.q.) mavjud. Bu tarmoqlarning korxonalarini hozirgi O‘zbekiston iqtisodiyotida soliqning og‘ir yukini ko‘tarishayotgan bo‘lsa ham, ana shu tarmoqlarning o‘zlari boshqalar nazarida, jumladan, chet el investorlari e‘tiboridadir. Kam foyda keltiruvchi, chet el investorlari nazariga tushmaydigan tarmoqlar ham mavjudki, ularga qishloq xo‘jaligi, infratizim va ba‘zi bir kon sanoatlari kiradi. Bu tarmoqlarga odatda, imtiyozli soliqlar belgilangan. Shunga qaramasdan bu soliqlarni rivojlanishi uchun boshqa davlatlarda ham tarmoqlar davlat tamonidan nazorat qilinadi va ular shu sababli mavjuddirlar. Shunday qilib, soliq mexanizmining amaliyotda qo‘llanishi ba‘zi holatlarda susaytirilgan, hatto, himoyaga olingan. Bu yerda muhit, ob-havo va hududiy faktorlarning ham ta’siri mavjud.

Soliq tizimi o‘z ishini amalda qo‘llay olmas ekan, uning samarasi pasayib boradi, shu sababli iqtisodiy krizis davrida hamma narsani soliqqa yuklab, muammolarni hal etaman, deb zo‘riqtirish bilan masala hal bo‘lmaydi. Hozirgi O‘zbekiston sharoitida soliq tizimiga shu nuqtai nazar bilan yondashmayapti va samaradorlikni boshqa iqtisodiy dastaklardan axtarilayapti, jumladan, sanoat siyosati ilgari surilmoqda.

#### **45.5. Soliq ma‘muriyatchiligi**

Soliq tizimi samaradorligini vujudga keltirishda asosiy mas‘uliyat davlat zimmasiga tushadi. Iqtisodiyotning bir xilligini va davlatning moliyaviy talablarini bajarishda soliq qonunchiligi zarur, lekin yetarlicha garov bo‘la olmaydi. Yana bir, bajarilishi jihatidan shart bo‘lgan mexanizm bu – soliq qonunchiligining bajarilishini ta‘minlash. Bu hozirgi O‘zbekistonliklar uchun eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi: soliq to‘lashdan bosh tortuvchilar soni ko‘pchilikni tashkil etadi. Shu sababli budjetga keladigan daromadlar davlat miqyosida ham hududiy sharoitda aytarlik uzilish yuz bermokda. Iqtisodning o‘sishi, davlat o‘z vazifalarini bajarishda qiyinchiliklarga uchrashini aytmasa ham bo‘ladi.

Bunga sabab, ya‘ni soliqdan qochish sababi, soliqning balandligi, naqtiga ishlash, daromad topish imkoniyati borligi, daromadni yashirishdir. Shuning uchun bu muammoni yechishning birdan-bir yo‘li soliq sohasidagi qonunchilikka o‘zgartirishlar kiritish, hadeb bir xil savollarni qaytaraveramaslik, bir-biriga halaqit beradigan qarama-qarshiliklarni bartaraf



qilishdir. Doimiy soliq nazorati ham juda zarur. Yana shu jarayon soliq ma'muriyatchiligining asosini tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasining soliq ma'muriyatchiligiga ko'yidagilar kiradi:

Davlat soliq xizmati (qo'mita) va uning hududiy boshqarmalari. Eksport - import operatsiyalari vaqtida soliqchilar ishni bojxona organlari bajaradi.

#### **45.6. O'zbekistonning soliq xizmati**

Davlat soliq xizmatiga kiruvchi (qo'mita) organlar soliq qonunchiligining bajarilishida jonbozlik qilishi; soliq to'lovchilarni ro'yxat qilishi; soliq qonunining qo'llanishida tushuntirish ishlarini olib borish va bu ishlarni haq talab qilmay bajarishi; hisob-kitob varaqalarini tashkil qilish va uni to'ldirib borishi; soliqda mavjud bo'lgan sirlarni saqlash uchun mas'uldirlar. Shu kabi soliq organlari soliq to'lashi va uni tartib bilan bajarishi uchun kerakli hujjatlarni talab qilishiga haqli; banklarda soliq to'lovchi bajarishi muhim bo'lgan hisob-kitob jarayonlarini to'xtatib qo'yish huquqiga ega. Soliq to'loviga taalluqli bo'lgan barcha mol- mulklarni inventarizatsiya qilishga haqlidir.

Soliq politsiyasining vazifalari soliq qonunchiligi buzilishining oldini olishdan iborat. Soliq politsiyasi qoida buzilishlarining oldini olish maqsadida tekshirish va qidiruv ishlarini olib boradi.

Soliq nazorati soliq qonunchiligini bajarishda eng muhim vosita hisoblanadi. Soliq nazorati soliq idoralarining mutasaddi rahbarlari tomonidan olib boriladi, soliq to'lovchining hisob varaqasi tekshiriladi, to'lovchidan tushuntirish xati oladi, ish joyi yoki egallab turgan hududni tekshiruvdan o'tkazadi.

Soliq kodeksida soliq to'lovchi bilan soliq nazoratchilarining huquqlarini tenglashtirishga urinish bo'lgan, shulardan eng muhimlari quyidagilar:

*Birinchi*dan, soliq sirini topguncha beriladi, jumladan, soliq to'lovchi haqida olingan har bir ma'lumot, soliq to'lovchi o'z ixtiyori bilan ma'lum qilgani bundan mustasno; soliq to'lovchining identifikatsiya nomerini; korxonaning nizom fondini; soliq qonunlarining buzilgani va bu buzilishni nazorat qilish; ma'lumotlar, ayniqsa, soliq idoralari tomonidan yoki boshqa davlat organlari tomonidan xalqaro shartnomalar asosida taqdim etilgani; huquqni nazorat qilish organlari bilan soliq idoralari o'rtasidagi mehnat hamkorliklarini aytib o'tish mumkin.

*Ikkinchi*dan, soliq idoralarining soliq undirishda o'z boshimchalikka yo'l qo'yishlari cheklangan, soliq jarimasi soliq to'lovchidan arbitraj sud orqali undirilib olinadi.

#### **45.7. Soliq tizimining rivojlanish yo‘nalishlari va qarama -qarshliklari**

O‘zbekiston soliq tizimi shakllangan bo‘lishiga qaramay, tom ma’noda olingan umum nuqtai nazaridan qaraganda hamon o‘tish davrini o‘tayotganlar qatoriga kiradi.

Bir tarafdin bu soliq tizimi ko‘p jihatlari bilan (jumladan, soliqning ko‘rinish tarkibi, soliq undiriladigan ob‘ektlar, darajasi jihatidan dunyo miqyosiga tenglashadi va hokozolar) soliq nazariyasining tartiblariga va dunyo soliq yig‘ish qoidalariga mos keladi. Boshqa tarafdin esa, u ijtimoiy va iqtisodning holatini aks etgiradi, dunyo tendensiyalaridan boshqacharoq tomonlari esa, soliq mexanizmi ishtirokidagi munosabatlarning taqsimlangani, uning maqsadlari va soliq tizimining tuzilishi farq qilib turadi. Jumladan, O‘zbekistonliklar amaldagi xususiyati shundaki, jismoniy shaxslardan uncha ko‘p soliq olinmaydi, asosiy soliqning 90 foizgacha bo‘lgan qismi to‘lovlardan olinadi.

Shunga qaramasdan reformalar, soliq tizimida rivojlanish o‘n yillar davomida tugallangani yo‘q, iqtisodning rivojlanish va soliq tizimi siyosatining paydo bo‘lishi evaziga mamlakat miqyosida budjet tizimini, darajasini o‘stirishga harakat qilinayapti. Bu rivojlanish, yangilanishlarga urinish soliq tizimida nomutanosiblikni vujudga keltirmokda.

Soliq tizimidagi ajralib qolayotgan kamchiliklar: iqtisod sub‘ektlariga solinayotgan keragidan ortiq solilar ularni to‘lashdan bosh tortish tendensiyasini yuzaga keltirmoqda; soliq tizmida asoslanmagan imtiyoz va haddan oshishlar tengsizlikni keltirib chiqaradi. Aynan shu sabab konsolidatsiya budjetning 2000 yilgi ko‘rsatgichida 618 mlrd. so‘m yo‘qotish bo‘lgan, respublika budjetida esa, bu ko‘rsatgich 220 mlrd. so‘mni tashkil etgan; jismoniy va boshqa daromadlardan yig‘ilgan soliq bo‘yicha tizimida doimiy yetishmovchilik holati mavjud; soliq xarakteridagi to‘lovlar va qo‘shimcha soliqlarning birgina moliyaviy ko‘rsatgichlardan emas, balki (jismoniy va sotuvdan) ishlab chiqarish hajmidan ko‘plab olinishi diqqatga sazovor. Umumiy va to‘lov soliqlarini yig‘ishdagi krizis tufayli qo‘shimcha soliq solish mexanizmi murakkablashadi va xaridorlar zimmasiga yuklanadi. Bu esa, qo‘shimcha soliq tizimining kamchiliklaridan biridir. Shu bilan birga, kam foyda keltirish tufayli to‘g‘ridan-to‘g‘ri kam foyda keltiradigan, kamchiliklari mavjud zarar keltiruvchi sohaga aylanib qoladi; soliq to‘lashdan bosh tortish va u bilan bog‘liq barcha masalalar (soliq imtiyozlarini ham hisoblaganda) O‘zbekiston soliq bazasining va siyosatining eng himoyasi sust qismi hisoblanadi. Bunga sabab soliq qonuniyatining maromiga yetkazib ishlanmaganligidir. Aynan shu kamchilik legal va nolegal to‘lovlarning kamayishiga imkoniyatlar yaratib bermoqda. Ommaviy bunday holatning

vujudga kelishi bu masalani ko‘rilishi kerak bo‘lgan birinchi masalalar qatoriga olib chiqib qo‘ymokda; soliq to‘lovlarining keskin kamayishi tufayli umumiy iqtisodiy krizis vujudga kelganda soliq tizimidagi bunday kamchiliklarni qaytadan ko‘rib chiqish shart bo‘ladi.

Soliq tizimlaridagi qarama-qarshilik va uning hozirgi sharoiti qayta isloh qilishni talab etadi.

Soliq tizimining rivojlanishi iqtisodiy siyosatning maqsadlari va soliqlarning iqtisodga aylanish faktoriga hamda mamlakatning ijtimoiy rivojiga, bunga qarshilik qiluvchi muammolarni bartaraf qilishga bog‘liqdir. Bu yo‘nalishlar ichida quyidagilarni ajratish mumkin: barcha soliq to‘lovchilar uchun soliq tizimida adolat o‘rnatish kerak, soliqning ba‘zi xo‘jalik faoliyatiga va soliq yig‘ishga halaqit beruvchi ba‘zi bir salbiy ko‘rinishlarni hamda iqtisodga yordam bermaydigan soliq yig‘ish va umuman, soliq mexanizmida mavjud bo‘lgan normalardan voz kechish; soliq qonunlariga labbay, deb quloq tutuvchi soliq to‘lovchilar uchun soliqning og‘irlik qiluvchi jihatlarini yengillashtirish, respublika soliqlar bo‘yicha stavkasini kamaytirib borish va soliq qiyinchiliklarini mablag‘ to‘lovlarida yengillashtirish; mavjud tartibni bir xillashtirish, soliq yig‘ishda ish berayotgan ro‘yxatlar hisobiga uni soddalashtirish; soliq tizimining foyda keltirishini maqsad qilish, uzoq muddatga soliq to‘lovchining chalg‘imasligi uchun aniqlik yaratish; barcha jabhalardan yig‘iladigan soliqning o‘shish darajasini ta‘minlash. Soliq yig‘uvchi organlarni aniq nomlash va soliq yig‘ishdagi nazoratni jonlatirish shubhasiz bu organlar soliq to‘lovchilar ustidan foyda keltiruvchi nazoratlar o‘rnatadi. Bu maqsadlarga erishish bir vaqtning o‘zida bo‘lmaydi, albatta, qonunga yangiliklar kiritish va yangi jarayonlar rivojlanishida davom etaveradi.

#### **45.8. Iqtisodiy o‘tish davrini o‘tayotgan mamlakatlarda soliq siyosatining muhim jihatlari.**

Markazlashgan rejali iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o‘tishda yangi muammolarga duch kelinadi. Shularning ichida eng muhimi foyda keltiruvchi soliq siyosatini yo‘lga kuyishdir.

Bundan bosh maqsad unumli soliq yig‘ish va mamlakatning ijtimoiy talablarga javob berish hisoblanadi. Bunda iqtisodiy o‘tish davrini o‘tayotgan mamlakatlar ob‘ektiv va sub‘ektiv chegaralanishlar bilan hisoblashishi shart. Bu chegaralardan biri – soliqni belgilash tizimi va ba‘zi bir soliqlarni yig‘ish muammolari; soliq tizimini boshqarish imkoniyatlarining chegaralangani; ma‘lumotlarning yetarli emasligi va soliq siyosati yuzasidan tayyorlanganlikning kamligi.

Ko'pchilik mamlakatlarda olinadigan daromadga stavkalarni baland ko'yish yoki soliq bahosini oshirish muammoni hal etmoqchi bo'lishadi. Odatda, stavkaning o'sishiga ypg'y berish daromadidan soliq to'lovchilarning to'lovini ikki marta oshirishi mumkin va yana ko'p miqdordagi imtiyozlar (jumladan, soliqdan ozod qilinganlar, ta'limga va tibbiyot xizmatiga hisoblab chiqarishlar va hokazo...) yana muvozanatsiz holatga keladi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, soliqni o'stirish mumkin, ammo turli imtiyozlarni qisqartirishga to'g'ri keladi.

Daromadga olinadigan soliq stavkasining foydasi (jumladan, nominal o'sishi) baland bo'lmaganining sababi shuki, bu stavka ro'yxatiga tushganlar soni deyarli kam bo'ladi, shu sabali ko'pchilik soliq to'latishdan o'zlarini olib qochishadi. Shuni ham aytish kerakki, ko'pchilik mamlakatlarda daromaddan va foydadan olinadigan soliqlarning bir-biridan farqi kattadir: podoxod solig'i foydadan olinadigan soliqdan ortiqroqdir, natijada, ba'zi tadbirkorlar soliq to'lashdan o'zlarini olib qochishadi.

Bunday buzilishlarni hatto, dividendlarga soliq belgilab ham yo'qotib bo'lmaydi, bunday holatda dividendlarni cho'zish mumkin, faqat xarajatlarga qarab soliq to'lashlari lozim bo'ladi. Eng ko'p foyda keltirishi mumkin bo'lgan soliq siyosatini yurgazganda soliq stavkalari bilan fuqarolar daromadi va kompaniyalar foydasiga belgilangan soliqlar farqini kamaytirish mumkin.

Soliq solishning o'sib borishi imtiyoz va chegirmalar bilan bir qatorda keskin qisqarishga olib keladi, iqtisodiy o'tish davrida soliq siyosatida ikkita qoida ko'pincha buzuladi, bu aynan mutanosiblik va to'la qamrovdur. Ushbu manbada mutanosiblik tamoyillari foyda va yo'qotish o'rtasidagi muvofiqlikni to'g'rilaydi, qaysi manbadan soliq olinayotgan bo'lsa, foyda ko'rish bilan birga, soliq olinayotgan manbaning zarari ham o'ylanadi.

Adolatning saqlanishi – oddiylikka va soliq tizimining ravon ishlashiga olib keladi. Soliq tizimini isloh qilish talab qilinadi.

Amaliy tadbirlar shuni ko'rsatadiki, daromadni bo'lib berish, kerak qatlamlarga tarqatish birgina soliq tizimining hal qiluvchi ishi bo'lib qolmaydi. Xullas, soliq tizimida daromadni tarqatishda xususiy soliq siyosatigina emas, balki budjetga bog'liq davlat xarajat siyosati ham mavjud. Agar bu siyosat qatlamlari vazifani hal etmasa, unda xarajat siyosati ishga kirishadi.

Shunday qilib, iqtisodiy o'tish davridagi mamlakatlar soliq tizimi adolatga ko'rilgan bo'lsa, u hayotda xalqqa xizmat qiladi. Bu adolatni yo'lga qo'yish esa, soliq to'lashdan bosh tortish tushinchalarini bartaraf etish va soliq tizimining o'z tartiblariga qattiq rioya qilishdir.

To'la qamrov qoidasi kaysidir vaqtda daromad ko'payishi soliq tomonidan taxmin qilinsa, shunda soliq to'lovchi qaysidir to'lovdan soliq

to'lamaydigan bo'lsa, hech qanday holatda bu summa to'lovchi uchun xarajat hisoblanmaydi.

Juda ko'p holatlarda mutanosib va to'la qamrov qoidalari buzuladi va bu ko'pchilik mamlakatlarda tabiiy holatdir, bunday holatlar foyda solig'ini muvozanatdan chiqarib turadi. Shuni ham aytish kerakki, ko'p xollarda pensiya fondi uchun, xarajat va foizlar to'lovi, kapital operatsiyasi zarari, turli mukofotlar, yollangan ishchilariga to'lov – bari-bari soliqdan tadbirkorlik kridalariga binoan xarajat sifatida qaytariladi, shu bilan birga, pensiyalar, foizli daromadlar, kapital operatsiyalaridan keladigan daromadlar, mukofotlar va qo'llanmalar soliqdan ozod qilinadi. Lekin shu bilan birga to'lashdan bosh tortishning juda ko'p yo'llari mavjud. Joriy hisob-kitob har xil chegirmalarni yoki imtiyozlarni bartaraf qilishni talab qiladi (albatga, ikkalasini birdaniga emas.)

Soliq sohasida foyda o'ylanganda iqtisodiy o'tish davrini o'tayotgan mamlakatlarda ko'plab muammolarga duchor bo'ladi, bularning ko'pchiligi rivojlangan mamlakatlarda ham uchraydi. Shulardan biri – turli kompaniyalarda (tarmog'iga qarab) soliq stavkasi va yana amortizatsion chegirmalar tizimining mavjudligidir.

Juda ko'p davlatlarda harakatga keltiruvchi kuchlarga tayanib, iqtisodiyotda tarmoqlarga qarab soliq olish mavjud, bunday holatda foydadan tarmoqlarga qarab turli tabaqalanish yo'lida soliq olinadi va bu bozor mexanizmini buzishga olib keladi.

Kapitalning bahosini va investitsiyaning daromadini aniqlash uchun chegirma asosiy vosita hisoblanadi. Amortizatsiya chegirma ishlarini bir tizim shaklida bo'lishi uchun investitsiyaga sharoit yaratishi kerak. Lekin iqtisodiy o'tish davrini o'tayotgan mamlakatlar uchun bu ish murakkabroqdir. Ichki qarama-qarshiliklar investitsiyaga darrov yo'l ochmaydi.

Amortizatsiyali chegirma ishlarini yo'lga qo'yishda iqtisodiy o'tish davrini o'tayotgan davlatlar uchun quyidagi to'siqlar mavjud: aktiv guruhning ko'pligi va amortizatsiyali chegirmaning ularga muvofiq kelishi; bu chegirmalarning past shakllari (amortizatsiyaning uzoq muddati); turli guruh aktivlarining amortizatsiya chegirmasi tizimiga ma'lum o'lchamlarda eskirgan jihati bilan to'g'ri kelmasligi. Bu to'siqlarni qonuniy, soliq siyosatini isloh qilish yo'li bilan erishish mumkin.

Og'irini yengil qilmaydi, balki qo'shimcha qiymat solig'ini to'laganligi bu qo'shimcha qiymat bo'yicha soliq majburiyatlarini bajargan hisoblanadi.

Aksiz solig'ining qo'shimcha solig'i haqida aytadigan bo'lsak, iqtisodiy o'tish davrini o'tayotgan mamlakatlarda katta doiradigi mahsulotlarni aksiz solig'iga tortish asosiy vazifa hisoblanadi.

Foydali soliq tizimini yuzaga keltirish adolat tamoyillari bilan uzviy bog'liqdir.

Test stavkali soliq turli yo'llar bilan imtiyozlarga ega bo'lishning oldini oladi va soliqdan bosh tortishlarga yo'l qo'ymaydi. Yana shuni ham aytish kerakki, soliqda turli kamsitishlarni bartaraf qilish soliq soluvchilarning ham, soliq to'lovchilarning ham nuqtai nazaridan qaraganda albatta, soliq tizimini ma'lum taritbga olib keladi, soddalashtiradi, soliq to'lovchilarni soddalashtiradi.

Amortizatsiya ajratma tizimi ishining foyda keltirishi uchun aktivlarning birdaniga uch-to'rt guruh bo'yicha mahorati yetarli bo'lishi talab qilinadi. Bundan tashqari amortizatsiya ajratmasi normasini o'sha guruhdagi aktivlar faoliyati uzunligiga nisbatan balandroq qo'yish kerak. Bu nafaqatgina investitsiyani rag'batlantirish uchun balki, inflyatsiyaning ta'sirini kamaytirish uchun ham ahamiyatli.

Avvalambor, tovar ishlab chiqarishni aniqlash muhimdir. Uning vujudga kelish sabablaridan biri ijtimoiy mehnat taqsimoti hisoblanadi. Mazkur jarayon yirik ijtimoiy mehnat taqsimoti: birinchidan (qishloq xo'jaligida dehqonchilik va chorvachilikka bo'linish) va ikkinchidan (hunarmandchilikning qishloq xo'jaligidan ajralishi) bilan boshlangan edi. Keyinchalik mehnat taqsimotining iqtisodiy qonuni tobora kuchga to'lib boradi. Ana shu qonunga muvofiq mehnat faoliyatining sifat jihatidan tobora ko'proq tabaqalashishi (bo'linishi) oqibatida iqtisodiyot taraqqiy etib boradi, bu uning turlari alohida ajralib chiqishiga va tinch-totuv yashashiga olib keladi. Natijada, mehnat taqsimotining bir necha ko'rinishlari: xalqaro (mamlakatlar o'rtasida), umumiy (xalq xo'jaligining yirik tarmoqlari – deqkonchilik sanoat va hokazolar o'rtasida), xususiy (yirik tarmoqlar ichidagi yordamchi xo'jalik, ishlab chiqarish sohalariga bo'linish) va alohida (korxonada uning turli bo'linmalarga bo'linishi) ko'rinishlari vujudga keladi.

Odamlarning u yoki bu mahsulotni ishlab chiqarish uchun xo'jaliklarga ajralishi buning boshqa sabablari hisoblanadi. Mazkur tashkiliy munosabat ijtimoiy mehnat taqsimotini uzviy ravishda to'ldiradi: inson ishning qandaydir bir turini tanlaydi va uni o'zining mustaqil faoliyatiga aylantiradi. Ayni vaqtning o'ziga bu uning boshqa tovar egalariga qaramligini kuchaytiradi va har xil mahsulotlarni almashtirish, bozor orqali aloqalarini o'rnatish zaruratini keltirib chiqaradi.

Odamlarning xo'jaliklarga ajralishi ishlab chiqarish vositalari bilan mustahkam bog'liq. Ya'ni tovar ishlab chiqaruvchi – xususiy mulk egasi bo'lgan taqdirda, ajralish ayniqsa to'liq bo'ladi. Agarda biror mol-mulk ijaraga – vaqtincha egalikka va foydalanishga berilgan bo'lsa, ajralishga kamroq

darajada erishiladi, bu holda xo‘jalikni ma’lum vaqt ijarachi olib boradi. Ammo birgina xususiy mulkning o‘zi tovar-bozor xo‘jaligini vujudga keltirmaydi. Bu quldorlik va feodal tizimi davridagi natural ishlab chiqarish misolida ko‘rinib turibdi.

Shu bilan birga, mulkka egalik ko‘rinishlari tovar ishlab chiqarishning har xil turlarini keltirib chiqaradi. Mulkka egalik va ishlab chiqarish munosabatlariga bog‘liq ravishda tovar ishlab chiqarishning ikki xil turi tashkil topadi. Dehqonlar va hunarmandlarning qo‘l mehnati shug‘ullangan oddiy tovar xo‘jaligi tarixan birinchi bo‘lgan. Bu holda kam unumli bo‘lganligi sababli tovar ishlab chiqarish hukumron natural ishlab chiqarish bilan yonmayon turadi. Kapitalizm davrida esa, iqtisodiyotdagi yetakchi o‘rinlarni rivojlangan tovar xo‘jaligi egallaydi.

Klassik kapitalizm bosqichida rivojlangan tovar xo‘jaligi serqamrov xo‘jalik bo‘lib boradi. Yaratilayotgan barcha ne‘matlar bozor mahsulotlariga aylanadi. Yollanma mehnat oldi-sotdi vositasi bo‘lib qoladi. Ammo ishlab chiqarishning hozirgi bosqichida, davlatning makroiqtisodiyotdagi faol iqtisodiy roli natijasida, tovar ishlab chiqarmaydigan sektor alohida ajralib chikdi.

Amortizatsiyaning turli metodlari haqida gap ketadiganda, iqtisodiy o‘tish davrini o‘tayotgan mamlakatlar uchun qoldiqning kamayib borish usulidan foydalanilgan ma’qul, bunda alohida olingan amartizatorli chegirmalarni barcha guruhlar uchun (guruhli amortizatorlarni qo‘llash) nazarda tutilgani ma’qul. Ushbu usul hisob-kitob muammolarini tartibga soladi va daromaddan soliq olishni va xazinadan ketadigan xarajatlarning tartibini aniqlab beradi.

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy o‘tish davrini o‘tayotgan mamlakatlarda soliq imtiyozlarini qo‘llash foyda keltirmaydi. Juda ko‘p davlatlarda soliq kanikullari (ta’til) va soliq stavkalarining pasaytirilishi tadbirlari ko‘rilgan, shu yo‘l bilan soliqdan bosh tortuvchilarni qisqartiradi va soliqlarni umumiy imkoniyatlarni hisobga olgan holda kompaniyalar to‘laydi. Bunday kaniquklar, investitsiyani yaxshilaydi va iqtisodiyotning taraqqiyotiga teskari ta’sir etmaydi. Shu sababi ko‘plab davlatlarda soliq krediti va investitsiya summasi hisobidan soliqni qisqartirish kabi imtiyozlar mavjud. Lekin bu ish jarayoni ham kamchiliklardan xoli emas. Investitsiyaning ba’zi turlarini rag‘batlantirilishi ma’lum maqsad yo‘lida qilinadi. Ular amalda qisqa muddatli daromad rag‘batlarini yuzaga keltiradi.

Iqtisodiy davrni o‘tayotgan mamlakatlarda qiymatga qo‘shimcha soliq katta ahamiyat kasb etadi. Qiymatga qo‘shimcha soliqqa turli xil stavka bo‘yicha ish tutishadi, bu ijtimoiy tenglikda biroz xomtamalikni vujudga keltiradi. Xullas, har qanday qo‘shimcha soliqlar bilan bog‘liq imtiyoz

kreditlarni buzish uchun imkoniyatlar tug'diradi. Chunki bu yo'sindagi kelishuvning o'zi imtiyoz manbai hisoblanadi, imkoniyatdan sotib oluvchi ham foydalanishi mumkin. Soliq siyosati nuqtai nazaridan bunday holatni kechirib bo'lmaydi. Jumladan, oraliq iste'mol uchun soliq to'lovchi kompaniyalar mahsulotning jumladan, qo'shimcha qiymat solig'idan yengil qutilishi soliq yukini jiddiy o'zgartirmaydi, ya'ni bunga o'xshagan tovarlar qo'shilgan qiymat solig'i majburiyati hisoblanadi.

### **Qisqacha xulosa**

1). Davlatning moliyaviy munosabatlarida davlat budjetining daromad qismini har xil darajada va butunlay milliy iqtisodiyot va uning alohida sohalarinining nuqtai nazaridan qaraganda soliqlar katta rol o'ynaydi.

2). Soliqlar – maxsus soliq qonuniyatlari asosida davlat tomonidan huquqiy va jismoniy shaxslardan olinadigan majburiy to'lovdir. Soliqlar huquqiy va jismoniy shaxslarning davlat moliyaviy resurslarining shakllanishida majburiy qatnashishini ifoda etadi.

3). Davlat necha asrlardan buyon mavjud bo'lgan bo'lsa, soliqlar ham shuncha asrlar davomida mavjud bo'lib kelmoqda, o'z navbatida davlat soliq olish yo'llarini va tamoyillarini optimal ravishda qidirib kelmoqda, ya'ni soliq to'lovchi soliq to'lash uchun qanday qilib soliq yig'ishni tashkil etish, davlat xazinasiga esa, ko'proq daromad olishini.

4). Shotlandiya iqtisodchisi va faylasufi A. Smit har qanday iqtisodiy tuzumda soliq to'lovining to'rtta tamoyilini shakllantirgan: davlat fuqarolari hukumatni saqlab turishda, ular qanday qilib davlatning himoyasida, xomiylik ostida turganligi uchun shuncha muvofiq daromad to'plashda qatnashishi keraq soliq to'lashda majburiy bo'lgan alohida sub'ekt aniq (to'lov vaqti, to'lov usuli va to'lov summasi) bo'lishi shart; har qanday soliq o'z vaqtida, to'lanishi va soliq to'lovchiga qulay bo'lishi keraq har qanday soliq yaxshi o'ylangan va ishlab chiqilgan bo'lishi lozim, u xalqning cho'ntagidan o'zining davlat xazinasiga olib keladigan foydadan kamroq bo'lmog'i kerak.

### **Asosiy tayanch atamalar**

Soliq yig'ish; soliq tizimi; soliq mexanizmi; soliq klassifikatsiyasi; soliq funksiyasi; qo'shimcha qiymat solig'i; soliq turlari; aksizlar; daromad solig'i; ko'chmas mulk solig'i; bevosita va bilvosita soliqlar; soliq og'irligi; yagona ijtimoiy soliq.

### **Mavzuning namunaviy savollari**

1. Soliqlar iqtisodiy mazmunining tushunchasi.
2. Soliqlarning turlari va to'lov tamoyillari.
3. Soliq davlat budjetining asosiy manbasi.



### **Seminar darslarida muhokama qilinadigan savollar**

1. Soliqlarning iqtisodiy mazmun -mohiyatini aytib bering.
2. Soliq to'lov qoidalari, tamoyillari va turlari.
3. Soliq to'lov vaqtlari va bu bo'yicha O'zbekistondagi qonunlar.

### **Mustaqil darslarida muhokama qilinadigan savollar**

1. Soliqlarning ijtimoiy va iqtisodiy mazmun -mohiyatlari.
2. A. Smit soliq to'lov tamoyillari to'g'risida nima degan?
3. Soliq to'lovdagi o'zgarishlar, huquqiy va jismoniy shaxslarning soliq to'lovdagi majburiyatlari.
4. Soliq to'lovning vaqti va turlari. O'zbekistonda Soliq kodeksining mazmuni.

## **46 BOB. DAVLATNING IJTIMOIIY SIYOSATI**

*Ijtimoiy ta'minot bo'yicha milliy daromadlarning katta qismi davlatning sarf-harajatlari va soliqqa tortish mexanizmlari orqali nisbatan boylardan kambag'allarga "beriladi". Bunday tendensiyalar xali dadillik bilan o'zgarishlarga bardosh berolmadilar.*

*Pol Samuelson*

Mazkur bobda bozor iqtisodiyoti tarkib topgan mamlakatlardagi davlatning ijtimoiy siyosati bilan bir qatorda, bozor iqtisodiyotiga o'tilishi munosabati bilan mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosatning o'ziga xos jihatlari tahlil etilgan. Bozor munosabatlarini joriy etish bilan bir vaqtda, aholini ijtimoiy himoya qilish yuzasidan oldindan ta'sirchan choralar ko'rilishi lozim. Bu bozor iqtisodiyoti yo'lidagi eng dolzarb vazifa bo'lib keldi va bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi, degan vazifalar asosida ko'rib chiqiladi.

### **46.1. Daromadlarning shakllantirishdagi bozor mexanizmlari va davlatning kuchli ijtimoiy siyosati**

Davlatning hech qanday aralishuvisiz daromadlarning bozor taqsimoti faqat bir «adolat»ni anglatadi: ishlab chiqarish omillari barcha egalarining daromadlari talab va taklif qonunlari hamda omillarining eng yuqori unumdorligi asosida shakllanadi. Shu nuqtai nazardan qaraydigan bo'lsak, masalan, malakasiz mehnat bilan mashg'ul shaxslarning daromadi past bo'lishi g'oyatda adolatli bo'lib chiqadi, ayni vaqtda bunday mehnatga talab katta emas. Shuningdek, aytaylik, bug'doy narxi dinamikasini oldindan ko'ra bilgan brokerning daromadi yuqori bo'lishi ham adolatdan bo'lib chiqadi. Bozor mexanizmi hech qachon farovonlikning kafolatlangan darajasini ta'minlamaydi.

Shunga qaramay, XX asrda G'arbning sanoati rivojlangan mamlakatlarda farovonlikning muayyan standartlariga ega bo'lish kabi inson huquqini ta'minlash vazifasini davlat zimmasiga yuklovchi qarashlar va ilmiy g'oyalar tobora keng yoyilmoqda.

Ayniqsa, davlat tomonidan amalga oshiriladigan keng ko'lamdagi ijtimoiy tadbirlarni anglatuvchi «ijtimoiy bozor xo'jaligi» nazariyasi va amaliyoti ommalashib bormoqda.

Shunday qilib, real hayotda bozor iqtisodiyoti tarkib topgan mamlakatlarda daromadlarni taqsimlash nafaqat bozor kuchlarining erkin

o'yini natijasida, daromadlar turli oqimini davlat boshqaruvi asosida ularni qayta taqsimlash yo'li bilan amalga oshirilmoqda.

Davlatning ijtimoiy siyosati deganda nimani tushunamiz?

Davlatning ijtimoiy siyosati – davlatning jamiyat hayoti ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarini boshqarish bo'yicha faoliyati yo'nalishlaridan biridir. Davlat ijtimoiy siyosatining mohiyati ham ijtimoiy guruhlar, ham ular ichidagi jamiyat qatlamlari o'rtasidagi munosabatlarni qo'llab-quvvatlashdan jamiyat a'zolari farovonligi, turmush darajasi oshib borishi uchun shart-sharoitlarni ta'minlashdan, ijtimoiy ishlab chiqarishda ishtirok etish uchun iqtisodiy omillarni shakllantirishda ijtimoiy kafolatlarni yaratishdan iborat. Ayni vaqtda shuni qayd etish kerakki, umuman, jamoat ishlab chiqarishi shart-sharoitlarini boshqarish maqsadida davlat amalga oshirayotgan tadbirlarning tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'luvchi davlatning ijtimoiy siyosati mamlakatdagi umumiy iqtisodiy vaziyat bilan uzviy bog'liqdir.

#### **46.2. Aholining daromadlari va ularning shakllanish manbalari**

Aholi daromadlarini shakllantirish siyosati davlat ijtimoiy siyosatining muhim bo'g'inini tashkil etadi. «Daromad» tushunchasi iqtisodiy faoliyat natijasining ko'rsatkichi ma'nosini ham anglatadi. Iqtisodiy adabiyotlarda «daromad» tushunchasidan ishlab chiqarilgan mahsulot qiymatining uni ishlab chiqarishga qilingan sarf-xarajatidan oshib borishi sifatida, shuningdek, mahsulot ishlab chiqarish va uni o'zlashtirishdagi har bir sinf, ijtimoiy guruh yoki alohida olingan shaxsning ulushi sifatida foydalaniladi. Bundan keyingi tahlilimizda ana shu so'nggi sifatni ko'rib chiqamiz.

Jamiyat a'zolari daromadining darajasi ular farovonligining muhim ko'rsatkichi hisoblanadi, chunki alohida olingan shaxs moddiy va ma'naviy hayoti: dam olish, o'qish, sog'lig'ini tiklash, kundalik ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlarini belgilaydi. Aholi daromadining miqdoriga bevosita ta'sir etuvchi omillar orasida, mehnat haqi miqdoridan tashqari boshqa omillar ham bor. Chakana narx-navolar dinamikasi, ist'emol bozorining tovarlar bilan to'yinganligi va hokazolar shular jumlasidandir.

Aholi daromadining darajasi va dinamikasi baholash uchun nominal, ixtiyordagi va real daromad ko'rsatkichlaridan foydalaniladi.

**Nominal daromad (NI)** – ma'lum davr mobaynida alohida shaxslar tomonidan olingan pul miqdori.

**Ixtiyordagi daromad (DI)** – shaxsiy ist'emol va shaxsiy jamg'arma uchun foydalanish mumkin bo'lgan daromad. Ixtiyordagi daromad shaxsiy daromaddan soliqlar va majburiy to'lovlarni chegirib tashlagandan keyin qolgan daromaddir.

**Real daromad (RI)** – ixtiyordagi daromadga ma'lum davr mobaynida, ya'ni narx-navo o'zgarishlarni inobatga olib, xarid qilish mumkin bo'lgan tovarlar va xizmatlar miqdoridan iborat.

Aholining nominal pul daromadlari turli manbalar evaziga shakllanadi. Shulardan eng asosiylari: omilli daromadlar davlat yordam dasturlari yo'li bilan olinadigan to'lovlar va imtiyozlar tarzidagi pul tushumlari, moliya tizimi vositasi orqali (banklardan, omonat kassalari orqali, sug'urta muassasalaridan va hokazo) tushumlar va boshqalardir.

Yollanib ishlaydigan aholining ishlab chiqarish (mehnat) omillarining egalari mukofot tarzida oladigan mablag'lar, aholi ana shu guruhi daromadlarini hal qiluvchi qismini tashkil etadi. Mehnat haqi, korxonalaridan, shirkatlardan va hokazodan olingan mehnat haqi tarzidagi daromadlar, shaxsiy xo'jalikdan olingan daromadlar va boshqa daromadlar shular jumlasidandir. Mehnat omiliga haq to'lashning istiqbolda rivojlanish tamoyillari tahlili shundan dalolat beradiki, daromadning mazkur ko'rinishi kelajakda yana uzoq vaqt pul daromadlarining yalpi hajmi shakllanishida o'zining yetakchi rolini saqlab qoladi.

Aholi daromadlarining shakllanishiga davlat yordam dasturlari bo'yicha to'lovlar jiddiy ta'sir etadi. Ana shu manbalar hisobidan pensiya ta'minoti amalga oshiriladi, vaqtincha mehnatga layoqatsiz fuqarolar moddiy ta'minlanadi, turli xil nafaqalar (bolalarni parvarishlash, tibbiy xizmat, kam ta'minlangan oilalarning bolalariga va ishsizlarga to'lanadigan nafaqalar shular jumlasidan) to'lanadi.

Aholi daromadlaridagi transfert to'lovlar va mehnat haqi ulushining nisbati shaxsning iqtisodiy faoliyati shakllanishida, uni mehnat qilishga rag'batlantirishda muhim rol o'ynaydi.

G'arb mamlakatlarida bunday to'lovlar transfert to'lovlari iborasi bilan belgilanadi va masalan, hukumat tomonidan uy xo'jaliklariga yoki firmaga beriladigan pul to'lovlarini (yoki tovarlar berilishi, xizmatlar ko'rsatilishini) anglatadi, ularning o'rniga bevosita tovarlar va xizmatlar olinmaydi. Iqtisodiy islohotlarni o'tkazishdan maqsad – tez orada iqtisodiy mustaqillikka erishish, aholi turmush darajasini yaxshilash, O'zbekistonning yuksak taraqqiy topgan davlatlar qatoridan o'rin olishiga erishmoqdir. Har birimiz ana shu ezuq-niyatni dilga tugib yashamog'imiz, ishlamog'imiz shart.

Mamlakatimizda aholini ijtimoiy jihatdan muhofaza qilish va uning moddiy ta'minoti masalasiga jiddiy ahamiyat berib kelinmoqda. Chunki biz tabiatan bolajon xalqmiz, respublika aholisining deyarli yarmini bolalar va yoshlar tashkil etadi. Umuman olganda, bizda har bir ishlovchining qaramog'ida o'rtacha 5–6 nafardan jon bor.

Daromadlar yalpi summasining shakllanishida mehnat haqining ustuvor rol o‘ynashi tadbirkorlik, tashabbuskorlik kabi fazilatlarning rivojlanishiga olib keladi. Davlat yordamchi dasturlari bo‘yicha to‘lovlar ko‘paygan hollarda ba‘zan ishlab chiqarish faoliyatiga passiv munosabat, boqimandalik kayfiyati shakllanadi.

Aholining moliya-kredit tizimi orqali oladigan pul daromadlari quyidagi ko‘rinishlarda ifodalanadi:

1. Davlat sug‘urtasi bo‘yicha to‘lovlar.
2. Yakka tartibdagi uy-joy qurilishi uchun, yosh oilalar ro‘zg‘orini butlash uchun, matlubot shirkatlari a‘zolariga (masalan, bog‘ qurilishi uchun) bank beradigan yordam qarzlari.
3. Jamg‘arma kassalaridagi omonatlar bo‘yicha yil yakuniga ko‘ra qo‘shiladigan foizlar.
4. Aksiya, obligatsiyalar qiymatining oshishi, zayomlarga yutuqlar chiqishi, qoplanishidan olinadigan daromadlar.
5. Lotereyalarga chiqadigan yutuqlar.
6. Tovarlarini kreditga sotib olish natijasida hosil bo‘ladigan vaqtincha erkin mablag‘lar.
7. Turli xil tovon to‘lovlar (mayib bo‘lgani, zarar ko‘rgani va hokazolar uchun).

Boshqa pul tushumlarini aholi buyumlarining vositachi va boshqa do‘konlar orqali sotilishidan tushadigan pulla tashkil etadi.

Aholi majburiy to‘lovlarni moliya tizimi orqali har xil soliqlar va yig‘imlar tarzida amalga oshiradi. Soliq to‘lovlari va yig‘imlarni jamlash orqali davlat o‘z resurslari ma‘lum qismini shakllantirish huquqini ro‘yobga chiqaradi. Bu resurslardan keyinchalik pul mablag‘larini qayta taqsimlash, kam ta‘minlangan fuqarolarga yordam berish orqali davlatning ijtimoiy-siyosati amalga oshiriladi. Kam ta‘minlangan fuqarolar manfaatlarini himoya qilish, farovonlikning eng past darajasidan pastga tushib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida davlat soliq olmaydigan daromadlar minimumini belgilaydi. Ayni vaqtda yuqori daromadlar uchun soliqlarning progressiv, yanada yuqoriroq stavkalari joriy etiladi.


Iqtisodiy nazariya soliqlarni ikki guruhga – bevosita va bilvosita soliqlarga ajratadi. Bevosita soliqlar – asosan, daromad soliqlaridir; bilvosita soliqlar esa, iste‘mol uchun soliqlar tarzida namoyon bo‘ladi. Bevosita soliqlar mehnat haqi va boshqa omilli daromadlar hisoblanadigan daromadlardangina undiriladi, ular to‘g‘ri davlat xazinasiga borib tushadi. Bilvosita soliqlar (yoki aksizlar) odatda, tovarlarning narxida «yashiringan» bo‘ladi, vaholanki, ayrim mamlakatlarda ularni do‘konda xarid qilinayotgan paytda ochiq deklaratsiya

qilish amalda qo‘llaniladi. Shunday qilib, aholidan soliq undirish daromadlarni shakllantirish va taqsimlashning mustaqil mexanizmi, ijtimoiy siyosatning yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Daromadlar ko‘payib borayotganligi sababli aholidan olinadigan soliqlar va yig‘imlar hajmi ham muntazam oshib bormoqda. Soliqlar o‘rtasida daromad solig‘i hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Bundan tashqari mulk solig‘i, meros solig‘i, qishloq xo‘jaligi solig‘i, oilasi kam sonli fuqarolar to‘laydigan soliq, savdo-sotiq solig‘i va hokazolar undiriladi.

### 46.3. Daromadlar tengsizligi. Ijtimoiy adolat. Ijtimoiy muhofaza tizimi va uning rivojlanishi

«Ishlab topilgan» va davlat dasturlari kanallari orqali olingan daromadlar shakllanishining tomoyillari umumiy bo‘lishiga qaramay, olinayotgan daromadlarning teng bo‘lmagan sharoiti saqlanib qolmoqda, bu esa, aholi turli qatlamlari va guruhlarining turmush darajasi teng emas, degan ma‘noni bildiradi. Daromadlar taqsimotidagi tengsizlikni o‘lchab bo‘ladimi?

Iqtisodiy nazariyada jamiyat yalpi daromadi aholining turli guruhleri o‘rtasida notekis taqsimlanayotganligini aks ettiruvchi ko‘rsatkich sifatida **Lorens egri chizig‘idan** (46.1-chizma) foydalaniladi.



Horizontal chiziq bo‘ylab aholi guruhleri foiz hisobida joylashtirilgan, vertikal chiziq bo‘ylab esa, ana shu guruhlar olayotgan daromad foiz hisobida ko‘rsatilgan. Bosharti daromadlar taqsimotida mutlaq tenglik bo‘lganida, aholining 20 foizi jamiyat jami daromadning 20 foizini, aholining 40 foizi – daromadning 40 foizini, aholining 80 foizi daromadning 80 foizini va hokazo

olgan bular edi. Bu demak, **OYE** chizig‘i daromadlar taqsimotidagi mutlaq tenglikni ko‘rsatadi.

Mutlaq tengsizlik aholining 20 foizini ham, 40 foizi ham, 60 foizi ham hech qanday daromad olmayotganligini ko‘rsatadi, qatordagi (**OG**‘ chizig‘i) eng oxirgi yakkayu-yagona kishi bundan mustasno, u jami daromadning 100 foizini o‘zlashtiradi. **OYE** egri chizig‘i–bu mutlaq tengsizlik chizig‘idir.

Daromadning hayotdagi haqiqiy taqsimoti **OAVSDYe** chizig‘i bilan ko‘rsatigan. Ana shu chiziq, boshqacha qilib aytganda, Lorensning egri chizig‘i **OYE** chizig‘idan qanchalik og‘sa, daromadlar taqsimotidagi tengsizlik shunchalik oshib boraveradi. Agar biz shtrixlangan maydonni **OG**‘Ye uchburchagining maydoniga bo‘lsak, daromadlar taqsimotidagi tengsizlik darajasini aks ettiruvchi ko‘rsatkichni olamiz. Agar grafikning shtrixlangan qismi maydonini **T** harfi bilan belgilasak, quyidagi tenglamani olishimiz mumkin:

$G = \frac{T}{OPE}$ , bundan, **G**– daromadlarining tengsizlik darajasini o‘lovchi ko‘rsatkichdir.

Iqtisodiy nazariyada ushbu ko‘rsatkich, italiyalik iqtisodchi va statistikachi Korrado Djini (1884–1965)ning nomi bilan Djini koeffitsiyenti deb ataladi. Lorensning egri chizig‘i bissiktrisan– naqadar ko‘p og‘sa, **T** shakli maydoni shu qadar katta bo‘lishi ko‘rinib turadi, bu demak, Djini koeffitsiyenti ham 1ga yaqinlashib boraveradi. Ana shu koeffitsiyentning bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlardagi kattaligini MDH davlatlaridagi kattalik bilan taqqoslash diqqatga sazovor. Jumladan, 80-yillarning boshlanishida bu koeffitsiyent Yaponiyada–0,270ga, Shvetsariyada–0,291ga, GFRda– 0,295ga, AQShda – 0,329ga, Braziliyada – 0,565 ga teng edi. MDH da o‘rtacha aholi jon boshiga olingan daromadlar haqidagi ma‘lumotlar asosida hisoblab chiqilgan **G** koeffitsiyenti quyidagicha bo‘lgan: 1992 yil yanvar– 0,238, fevral– 0,221, mart– 0,226, aprel– 0,217, iyul– 0,289.

Daromatlarni taqsimlashdagi tengsizlik ko‘rinib turibdiki, bozor iqtisodiyoti qaror topgan mamlakatlarda ham, bizning mamlakatimizda ham mavjud.

Daromadlarning shakllanishini tenglashtirish tamoyillariga amal qilinganda mamlakat ist‘emol bozorining yetarli darajada bir xil emasligi, ya‘ni aholining barcha guruhleri uchun tovarlarning barcha turlarini xarid qilish imkoniyati bir xil emasligi, natura imtiyozlarining turli ko‘rinishlari mavjudligi mamlakatda tengsizlikni keltirib chiqarayotgan qo‘shimcha manbalar sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shuni yodda tuish kerrakki, mehnatga ko‘ra taqsimot, deb atalmish tamoyil vaqt o‘tishi bilan «jamlangan mulk», deb

ataluvchi taqsimot tamoyilini amalga oshirish uchun zaminni vujudga keltiradi. Mamlakatimiz aholisi o'rtasida taqsimotning bunday shakliga munosabat bir xil emas. Daromadlarni, mulkni shakllantirishning bunday yo'li davlat tomonidan himoya qilindi, shu sababli jamiyat bunga salbiy munosabatda bo'lishi kerak emas. Aholining salbiy munosabati kapital, mulk shakllanishi yoki jamiyatning bunday yo'li davlat tomonidan noqonuniy ko'rinishlari esa, bozor xo'jaligi qaror topishining ilk bosqichlari uchun xosdir. Daromadni mehnat qilib topish va baravarlashuvchi yondashuv daromadlarni shakllantirishning asosiy tamoyili bo'lgan mamlakatlarda daromad manbalarining qonuniy ko'rinishlari tushunchasi juda tor ma'noda talqin etildi, daromad, mulkning jadal o'sish imkoniyatlari cheklab qo'yiladi. Aholining katta hajdagi va tez ko'payib borayotgan xususiy mulkka va kapitalga qat'iy salbiy munosabati shu bilan izohlanadi. Xo'jalik yuritishning bozor tizimi qaror topishi va shu asosda mulkdorlar qatlamining shakllanishi jamlangan mulk bo'yicha taqsimot tamoyili ta'sirini muqarrar ravishda kuchaytiradi. Ayni vaqtda aholi jami daromadlarining shakllanishi daromadlar tabaqalashuvining kuchayishiga va jamiyatning ijtimoiy tabaqalashuviga, nafaqat boylar, shu bilan birga, kambag'allar qatlami vujudga kelishiga olib keladi. Bu ijtimoiy keskinlikni bartaraf etish uchun davlatning faol aralashuvi talab qilinadi.

Qashshoqlik kabi keskin ijtimoiy muammoni hal etish davlat faoliyatining yo'nalishlaridan biri bo'lib, u o'zi uchun yaxshi hayotni ta'minlay olmaganlarni hech bo'lmaganda tirikchilik minimumi darajasida qo'llab-quvvatlash hamda qashshoqlik darajasidan pastda yashayotganlar sonini qisqartirish bilan (iqtisodiy vositalar bilan) bog'liq. Aks holda, qashshoqlar sonining o'sishi ijtimoiy portlashlarga va jamiyat hayotidagi beqarorlikka olib kelish xavfi bor. Qashshoqlar sonini qisqartirish bozor iqtisodiyotiga o'tgan mamlakatlarda davlat ijtimoiy siyosatining asosiy vazifalaridan biridir.

Yana shuni ta'kidlash kerakki, ist'emol darajasidagi farq xodim mehnatining ichki xususiyatlariga va uning sifatiga aloqasi yo'q, boshqa omillarga bog'liq bo'lishi ham mumkin. Birinchi navbatda ana shunday omillar qatoriga oila a'zolarining soni, oiladagi ishlovchilar va boqimandalar sonining nisbati, sog'lig'ining ahvoli, geografik va iqlimiy sharoitlar va hokazolar kiradi.

Davlat milliy daromadini qayta taqsimlashdan kuzatiladigan asosiy maqsad ana shu tafovutlarni kamaytirishdan va jamiyatning barcha a'zolari moddiy hayoti uchun yanada qulay sharoitlarni yaratishdan iborat. Oziq-ovqat va xizmatlarni taqsimlash, transfert to'lovlari hamda daromadlarni barqarorlashtirishga doir davlat dasturlari ana shu maqsadni amalga



oshirishning ko‘rinishlaridir. Daromadlarni barqarorlashtirish davlat dasturlari turli mamlakatlarda bor. Ammo ularning shakllanish tarzi har xil.

Bunday dasturlar mablag‘larning bir qismi davlat budjeti orqali shakllanadi va markazlashgan usulda foydalaniladi. Mablag‘larning boshqa qismi foyda hisobidan korxonalar va jamg‘armalarning o‘zida tashkil topadi. (Sobiq sotsialistik mamlakatlarida bunday dasturlar mablag‘larning qariyb 70 foizi davlat budjeti hisobidan va faqat 25–30 foiz korxonalarining foydasi hisobidan shakllanar edi).

Davlat dasturlarining kanallari orqali jamiyatning yosh a‘zolarini tarbiyalash, qariyalarni va mehnatga layoqatsizlarni moddiy ta‘minlash, bilim olishni (qisman) ta‘minlash, sog‘liqni saqlash ehtiyojlari qondirilmoqda. Ushbu ehtiyojlarning qay darajada qondirilishi mazkur sharoitda qaror topgan iqtisodiy taraqqiyot darajasi va jamiyatda tarkib topgan qadriyatlar, ko‘rsatmalar bilan belgilanadi.

Yordam dasturlari yo‘li bilan mablag‘larni taqsimlash uch yo‘nalish bo‘ylab amalga oshirilmoqda:

Birinchi yo‘nalish – aholi olayotgan tushumlarning bir qismi mehnatga bog‘liq ekanligi, ammo ayni vaqtda qondirilgan ehtiyoj hajmining e‘tiborga olinishi bilan tavsiflanadi.

Ikkinchi yo‘nalish– o‘tkazilayotgan to‘lovlarning muayyan xodimning mehnati bilan hech qanday aloqasi yo‘qligi, ana shu to‘lovlarni qondirish uchun yo‘naltirilayotgan ehtiyojlar hajmi hisobga olinishi bilan tavsiflanadi. Ana shu to‘lovlar ko‘p bolali xodimlarning bolalariga, yolg‘iz onalarga, ixtisoslashgan davolanishga nafaqalarni, bolalar muassasalarida bolalarni boqish uchun, maktab internatlari uchun dotatsiyalarini qamrab oladi. Bunday dotatsiya miqdori bolalarning soni va ota-onalarning daromadi darajasiga bog‘liq.

Uchunchi yo‘nalish – xususiyatlari mablag‘larning asosiy qismi alohida imtiyozlar va xizmatlar tarzida, bevosita natura holida, noishlab chiqarish sohasining tegishli muassasalari orqali yetib borishi bilan belgilanadi. Taqsimlanayotgan mablag‘larning bu qismi o‘ziga xos «qo‘shimcha» daromadlarni shakllantiradi: ular oila budjeti orqali o‘tmaydi, ulardan oilaning boshqa ehtiyojlari uchun foydalanib bo‘lmaydi. Bunday daromadlar shaxs mehnati me‘yorlari hisobga olinmasdan taqsimlanadi va to‘la-to‘kis jamiyatning ma‘lum muayyan tarixiy daqiqadagi manfaatlari hamda imkoniyatlari bilan taqsimlanadi. Masalan, bepul tibbiy yordam olish uchun bunga ko‘proq muhtoj bo‘lgan, tez-tez kasal bo‘ladigan yoki og‘ir hastaligi bo‘lgan, tibbiy xizmat haqini to‘lay olmaydigan kishilar murojaat etadilar.

Shuningdek, maktab muassasalari xizmatidan esa, maktab yoshidagi bolalari ko'proq kishilar foydalanadilar.

Boshqacha so'z bilan aytganda, yordam dasturlari yo'li bo'yicha to'lovlar mehnatidagi farq bilan emas, mehnat jarayonidan tashqarida turuvchi sabablar keltirib chiqargan daromadlar darajasidagi farqni yumshatishga, mehnatga qobiliyatni shakllantirish, shaxsni rivojlantirish, yanada yuqori umumta'lim va madaniy darajaga erishish, ko'pchilik foydalanadigan sog'liqni saqlash, pensiya ta'minoti nuqtai nazaridan eng muhim hisoblanuvchi qator ehtiyojlarning qondirilishiga xizmat qilishiga da'vat etilgan. Ammo taqsimotning ushbu ko'rinishi umuman jamiyatning va uning alohida olingan har bir a'zosining manfaatlariga dahldor bo'lganligi sababli, bu sohadagi davlat siyosati g'oyat darajada faol bo'lishi lozim.

Davlatning qayta taqsimlash jarayoniga haddan ziyod faol aralashuvi, daromadlarni taqsimlashtirish jamiyatda amaliy faollikni pasayishiga va umuman, ishlab chiqarish samaradorligining qisqarishiga olib keladi. Ikkinchi tomondan, aholi daromadlarini boshqarishda davlat rolining susayishi daromadlar tabaqalashuvining o'sishiga, ijtimoiy keskinlikka, ijtimoiy ziddiyatlarning avj olishiga, pirovard oqibatda ishlab chiqarishning tushkunligiga, samaradorlikning pasayishiga olib keladi. Davlatning jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni boshqarishga aralashuvining eng maqbul ko'lamiga erishish samaradorlik bilan ijtimoiy adolat o'rtasidagi ziddiyatning bartaraf etilishi bilan bog'liq. Samaradorlik bilan ijtimoiy adolat o'rtasidagi ziddiyat, bizning nazarimizda inson hayoti va faoliyatning iqtisodiy va ma'naviy sohalarini tutashgan jabhada yotadi, ularning har qaysisi o'z qonuniyatlariga ko'ra rivojlanishiga qaramay, bir-biri bilan mustahkam uzviy bog'langan. Xo'jalikning bozor munosabatlari qaror topgan mamlakatlarda iqtisodiy qonunlar bir xil bo'lishiga qaramay, ularda iqtisodiy jarayonlar har bir mamlakat uchun o'ziga xos bo'lgan, xo'jalik yuritish tartibining o'ziga xos sabablarini shakllantiruvchi jamiyatning ma'naviy va ahloqiy qadriyatlarini, milliy an'analari, tarixiy xususiyatlari zamirida rivojlanadi. Jumladan, Shvetsiyada xususiy shaxslarning daromadidan va korporatsiyalarning foydasidan undirilayotgan soliqlarning g'oyatda baland stavkasi AQSh uchun maqbul emas. Ularning joriy etilishi Amerika iqtisodiyotini falokatga olib kelgan bular edi.

To'lovlarning, soliq stavkalarining, daromadlar hajmining eng maqbul me'yorlarini qanday qilib aniqlash mumkin?

Iqtisod fanining o'zi, o'z fani doirasidan chiqmagani holda, aholi daromadlarini tabaqalashtirish darajasi chuqurliklarini, uning odamlar xulq-atvoriga ta'sirini tadqiq etish bilan shug'ullanadi. Ammo fan mazkur

tabaqalashtirishning jamiyat uchun eng maqbul darajasini aniqlashga qodir emas, sababi, ular jamiyatining nafaqat iqtisodiy, shu bilan bir qatorda, siyosiy, ijtimoiy, tarixiy, milliy, axloqiy va hokazo normalari ta'siri ostida shakllanadi. Shuning uchun, iqtisod fani nuqtai nazaridan (ijobiy tahlil doirasida) maqbul bo'lgan narsa, har doim ham u yoki bu jamiyatning axloqiy normalariga to'g'ri kelmasligi mumkin va aksincha. Iqtisodchilar va boshqa sohadagi olimlar o'rtasida ijtimoiy adolat tushunchasini, uni amalga oshirish tamoyillarini aniqlash borasida yakdil nuqtai nazarning yo'qligi buning isbotidir. Ularning rang- barangligi quyidagi jadvalda aks etgan:

46.1-jadval

1. Egalitar nazariyasi	Jamiyatning barcha a'zolari ne'matlarni teng olishayapti.
2. Roulschilar nazariyasi	Eng kam ta'minlangan shaxslarning foydaliligi maksimallashtirilmoqda.
3. Utilitar nazariyasi	Jamiyat barcha a'zolarining foydaliligi maksimallashtirilmoqda.
4. Bozor nazariyasi	Adolat bozor tomonidan o'rnatiladi.

Mazkur jadval ma'lumotlarini tushuntiramiz.

Egalitar tomoyil jamiyatda daromadlarni taqsimlashda tengsizlikning yo'qligini anglatadi. Axir «egalitar» so'zi (fransuzcha egalite so'zi – tenglik ma'nosini beradi) bekorga «tenglashtiruvchi» degan ma'noni anglatmaydi.

Ikkinchi tamoyil hozirgi zamonda amerika faylasufi Jon Roulsning nomi bilan bog'liq. Uning fikriga qaraganda, daromadlarning shunday tabaqalashuvi adolatli hisoblanadiki, bu tabaqalashuv jamiyatning eng kambag'al a'zolarining yanada yuqori mutlaq turmush darajasiga erishishga yordam berishi lozim, shundagina nisbiy iqtisodiy tengsizlikka yo'l qo'yilishi mumkin.

Uchunchi tamoyilning ildizi ingliz iqtisodchisi, utilitarizm g'oyasining asoschisi Iyeremiya Bentanning ta'limotiga borib taqaladi. Davlatning asosiy vazifasi jamiyatning imkoni boricha ko'proq a'zolari uchun eng katta baxtni ta'minlash hisoblanadi, deb taxmin qilgan edi, I.Bentam. Ammo I.Bentam o'zining taxmin ta'limotida, turli odamlarning naflilik vazifasi bir xil emas, boshqacha qilib aytganda, ma'lum miqdordagi ne'matlarga ega bo'lish natijasiga huzurlanish qobiliyati turli odamlarda har xil, huzur, degan fikirdan kelib chiqar edi. Ko'proq darajada naflilikni olishga qodir kishigina jamiyat boyliklaridan kattaroq ulush olishi kerak, deb hisoblaydi u. Shunday qilib, umumiy naflilik boyliklar jamiyat a'zolari o'rtasida teng taqsimlanganida emas, balki proporsional ravishda, (naflilikning turli vazifalariga muvofiq ravishda) taqsimlanishi natijasiga maksimallashtiriladi.

Va nihoyat, daromadlarning bozor nazariyasi bo'yicha taqsimoti har bir ishlab chiqarish omili egasining daromadi ana shu omil natijasida olingan eng ko'p mahsulotga muvofiq bo'lishini taxmin qiladi. Shunday qilib, mazkur holda daromadlar taqsimotidagi jiddiy tengsizlikka yo'l qo'yiladi.

Daromadlarni qayta taqsimlashning ijtimoiy adolat tamoyili har bir jamiyatda ma'naviy qadriyatlardan, mamlakatlarning bundan avalgi butun tarixiy rivojlanishi mobaynida shakllanib kelgan milliy andozalaridan kelib chiqib tanlanadi.

Mamlakatning iqtisodiy rivojlanganlik darajasi iste'mol darajasi va ko'lamlarini, bu demak, ko'p jihatdan odamlar ehtiyojining shakllanish sharoitlarini ham belgilaydi.

Ana shu vaqtda shuni ta'kidlash kerakki, ijtimoiy muhofaza tizimi aholining kam ta'minlangan qatlamlarini yoki jamoat ishlab chiqarishidan chetda qolganlarni (o'qituvchilarni, pensionerlarni, nogironlarni) qo'llab-quvvatlash bilangina belgilanmaydi. U jamoat ishlab chiqarishida ishtirok etuvchi shaxslarni, birinchi navbatda yollanib ishlayotganlarni ham himoya qiladi. Himoya mehnatni (ish haftasining davomiyligi, mehnat ta'tillarining davomiyligi va ta'tilga chiqish tartibi, mehnat muhofazasi va hokazolarni) va mehnatga haq to'lashni (ish haqining eng kam stavkalarini belgilash va hokazolarni) qonunlar yo'li bilan belgilash, xodimlarning ishga kirish va ishdan bo'shash vaqtidagi huquqlarini belgilash orqali ham amalga oshiriladi. Ijtimoiy himoya tizimining bu tomoni ham mamlakatning iqtisodiy jihatdan qay darajada rivojlanganligi, siyosiy kuchlarning nisbati va ijtimoiy ongning darajasi bilan belgilanadi.

Daromadlardagi tengsizlikni ma'lum darajada bozor narx-navo mexanizmining ob'ektiv faoliyati keltirib chiqarganligini unutmaslik kerak. Daromadlar tabaqalashuvini butunlay tugatishga intilish bozor mexanizmining o'zini butunlay yakson qilish niyatini anglatgan bular edi.

Qayta taqsimlash jarayonlarining ko'lami turli mamlakatlarda bir emas, ammo ko'pchilikning e'tirof etishiga qaraganda, uning ko'lami Shvetsiyada ayniqsa, katta. Masalan, ana shu mamlakatdagi daromadning ishlab chiqarish omillari bo'yicha taqsimlanishini olib, uy xo'jaliklarini 10 guruhga taqsimlasak (ya'ni aholining 10 foizini, 1-rasmda 20 foizi olingan edi), quyidagi manzara hosil bo'ladi: eng yuqoridagi 10 foizli sinf (guruh) uy xo'jaliklarining yalpi daromadi 10 foiz quyi aholining daromadidan 100 barobar ko'p ixtiyor bo'ladi. Ammo ixtiyorda qoladigan daromadni oladigan bo'lsak (ya'ni soliqlar to'lanib, transfert tushumlari olinganidan keyingi daromadni), uy xo'jaliklarining eng yuqori va eng quyi guruhlari o'rtasidagi farq keskin kamayganligini ko'ramiz: daromadlar farqi avvalgi 100 barobarini

emas, atigi 4 barobarni tashkil etadi. Mamlakatda qayta taqsimlashning ko‘lami ana shunday. Bunday hol hatto shved iqtisodchilarida ham ma‘lum shubhalarni uyg‘otadi: masalan, Shvetsiyada o‘tkazilgan tadqiqotlarning natijalariga qaraganda, mehnat haqi o‘rtasidagi farqlarning qisqarishiga (soliqlar to‘langanidan so‘ng) ko‘p jihatdan mehnat bozori dinamikasining susayishi sabab bo‘ladi.

Shunday qilib, davlatning bozor xo‘jaligidagi ijtimoiy siyosati g‘oyatda nozik vosita bo‘lishi lozim, bir tomondan u ijtimoiy barqarorlikka va ijtimoiy keskinlikni yumshatishga xizmat qilishga da‘vat etilgan bo‘lib, ikkinchi tomondan esa, tadbirkorlik va yollanma mehnat yuksak samaradorligining omillarini aslo obro‘sizlantirmasligi kerak.

#### **46.4. Ijtimoiy infratuzilmaning barqaror rivojlanishi**

Ta‘lim, sog‘liqni saqlash sohaları va uy-joy siyosatida amalga oshirilgan islohotlar va ushbu sohaga davlat xarajatlarining samarali moliyalashtirilishi natijasida ijtimoiy infratuzilmaning barqaror faoliyat ko‘rsatishi va rivojlanishi ta‘minlandi.

#### **Ta‘lim**

O‘zbekistonda olib borilayotgan islohotlarning eng muhim maqsadi yurtimizda sog‘lom va barkamol, bilimli, yuksak ma‘naviy-axloqiy fazilatlarga ega bo‘lgan avlodni shakllantirishdan iboratdir.

Ta‘limning barcha bosqichlarida o‘quv dasturlari qayta ko‘rib chiqildi va zamonaviy xalqaro talablarga mos xolga keltirildi. Zamonaviy darslik va o‘quv qo‘llanmalarini tayyorlash, o‘quvchilar uchun ulardan keng foydalanish imkoniyatlarini yaratish bo‘yicha ulkan ishlar amalga oshirildi. O‘qituvchilar tarkibini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, ularning yuksak malaka talab etadigan mehnatini rag‘batlantirish tizimi yaratildi.

2004–2010 yillarda maktab ta‘limini rivojlantirish umummilliy davlat dasturi amalga oshirildi. Bu davr mobaynida 7800 tadan ziyod umumta‘lim maktabi yangidan qurildi, ta‘mirlandi va rekonstruksiya qilindi, ularning umumiy soni esa 9806 taga yetdi, 8 mingdan ortiq ta‘lim muassasasi kapital ta‘mirlandi, gaz va suv bilan ta‘minlandi, markazlashtirilgan kanalizatsiya tarmoqlariga ulandi.

#### **Qisqacha xulosalar**

Ushbu bobda tadqiqot qilingan mavzu O‘zbekiston Prezidenti tomonidan ishlab chiqilgan iqtisodiy islohotlar asosida o‘rganilib, mamlakatimizdagi kuchli ijtimoiy siyosatning amalga bajarilishi natijasida xalqimiz hayotining

farovonlashib borayotganligini namoyon etishdir. Bu yerda davlat tomonidan yilma-yil ish haqining va boshqa daromadlarning oshirib borilishi, kam ta'minlangan oilalarning kuchli ijtimoiy himoya qilinishi, narx-navoning barqaror ravishda erkinlashishi taxlil qilib berilgan.

Aholining moliya-kredit tizimi orqali oladigan pul daromadlari har xil turda ko'rsatilgan:

1. Davlat sug'urtasi bo'yicha to'lovi.
2. Yosh oilalarga individual yashash joylarini qurish uchun beriladigan ssuda.
3. Bankka qo'yilgan jamg'armalarning yil yakuni bo'yicha foizlar.
4. Aksiya, obligatsiyalar qiymatining ko'payishidan keladigan daromadlar va boshqalar.
5. Har xil kompensatsiyalar bo'yicha to'yicha to'lovlar.

Umuman, davlatni kuchli ijtimoiy himoya qilish siyosati, jamiyat a'zolarining ijtimoiy -iqtisodiy hayot sharoitini tartibga solish yo'li bilan yuksak farovon hayotni ta'minlashdan iborat.

### **Asosiy tushunchalar**

Nominal daromad (N) – alohida shaxslarni aniq bir vaqt davrida oladigan pul miqdori.

Real daromad (RL) – narx -navo miqdorining o'zgarib turishini aniq bir vaqt davrida tasarruf etilgan daromadlarga sotib oladigan tovar va xizmatlar miqdori bilan ifodalanadi.

Tasarruf etilgan daromadlar (DL)– daromad shaxsiy ist'emol va shaxsiy jamg'arma uchun foydalanadigan daromad bo'lishi mumkin. Bu daromad nominal daromadga nisbatdan soliq va majburiy to'lovlar summasidan kam.

Egalitarga oid adolat – bu tenglik ma'nosiga ega bo'lib, xususiy mulkchilikda yuz beradigan ziddiyatlarni tenglash yo'li bilan yo'qotish.

Roulschi nazariyasiga oid adolat – kamroq ta'minlangan shaxslarning foydaligini maksimallashtirish.

Manfaatparastlik – faqat o'ziga xos foydani ko'rish yoki jamiyatning a'zolarini ham umumiy foydalikda maksimallashtirish .

Bozorga oid adolat orqali tiklanadi.

### **Mavzuning namunali rejasi**

1. Bozor iqtisodiyoti sharoitida daromadlar tengsizligining vujudga kelish sabablari.
2. Aholi daromadlari va ularni shakllanish manbalari.
3. Daromadlar tengsizligiga ta'sir qiluvchi omillar.

### **Seminar darslarda muhokama qilish uchun savollar**

1. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ish vaqti, foyda, foiz va rentaning shakllanishi.
2. Kuchli ijtimoiy siyosat va uning O‘zbekistondagi xususiyatlari.
3. Aholi ist’emolining miqdori va sifat o‘zgarishlari.

### **Mustaqil ta’lim uchun savollar**

1. Bozor iqtisodiyotiga xos taqsimot qonunining amal qilish xususiyatlari.
2. Ekvivalentlik va noekvivalentlik taqsimoti.
3. Kuchli ijtimoiy siyosat va uning O‘zbekistondagi xususiyatlari.
4. Bozor iqtisodiyoti va adolatli jamiyat qurish.

## **47 BOB. AHOLI DAROMADLARI**

Ijtimoiy-mehnat munosabatlaridagi tub o'zgarishlar nafaqat mehnat bozorining shakllanishi, shu bilan birga, daromadlarning taqsimlanish tizimi bilan ham belgilanadi. Aholining daromadlari fuqarolar ijtimoiy-iqtisodiy ahvolidagi muhim ko'rsatkichi hisoblanadi. Daromadlarning taqsimlanish xususiyatlari esa, iqtisodiy tizimning ijtimoiy yo'nalganligini ko'p jihatdan tavsiflaydi.

### **47.1. Aholi daromadlarining shakllari**

Aholining daromadlari – bu aholi tomonidan ma'lum bir davrda olingan hamda iste'mol va jamg'armalar uchun mo'ljallangan pul va natura ko'rinishidagi mablag'lap yig'indisidir.

Buyum shakli bo'yicha daromadlar pul va tabiiy daromadlarga bo'linadi. Aholining pul daromadlari – bu ishlovchilarning mehnatiga to'langan haq ko'rinishida kelib tushgan barcha pul mablag'laridir: pensiyalar, stipendiyalar, turli nafaqalar va boshqa ijtimoiy to'lovlar; shaxsiy mulkdan omonatlar bo'yicha foizlar, dividendlar, rentalar ko'rinishidagi daromadlar; aksiyalarni, qimmatbaho qog'ozlarni, shaxsiy yordamchi xo'jalik mahsulotlarini, turli buyumlarni va boshqa tovarlarni sotishdan kelgan tushumlar; ko'rsatilgan xizmat uchun haq hamda sug'urta to'lovlari, olingan qarzlarni, chet el valyutasini sotishdan olingan daromadlar va boshqalar shular jumlasidandir.

Aholining natural ko'rinishidagi daromadlari – bu qishloq xo'jaligi mahsulotlari: dehqonchilik, chorvachilik, parrandachilik mahsulotlari; turli buyumlar, xizmatlar va tomorqalardan, bog'-poliz uchastkalardan, shaxsiy hovlilardan, uy xo'jaliklaridan olinadigan natura ko'rinishidagi mahsulotlar; shaxsiy va oilaviy iste'mol uchun tabiat ne'matlarini (tovar ko'rinishiga ega bo'lmagan) g'amlab qo'yishdan keladigan barcha tushumlar hamda mehnatga haq to'lashning barcha tushumlar hamda mehnatga haq to'lashning barcha turlari va tovar ko'rinishidagi barcha ijtimoiy to'lovlardir.

Daromadlar inson hayoti va faoliyatida muhim rol o'ynaydi, chunki iste'mol darajasi va tarkibiy tuzilishi bevosita daromadlar miqdoriga (hajmiga) bog'liq. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, xodimlarni va ularning oila a'zolarini, barcha fuqarolarni takror tayyorlash daromad darajasiga bog'liq. Yalpi daromadlar aholi moddiy ta'minlanganligining ko'rsatkichi hisoblanadi. Bu qiymat ko'rsatkichi bo'lib, pul daromadlarini, shaxsiy yordamchi xo'jaliklaridan kelgan moddiy tushumlar qiymatini, federal hamda mahalliy budjetlar, korxonalarining ijtimoiy jamg'apmalari mablag'lari hisobidan foydalanilgan bepul xizmatlarning qiymatlarini o'z ichiga oladi.

Aholining pul daromadlari boshlang'ich va tasarrufidagi daromadlarga



taqsimlanadi. Aholining boshlang'ich daromadlari ishlab chiqarish omillariga egalikdan olingan barcha tushumlarni o'z ichiga oladi. Aholi tasarrufidagi daromadlar – qayta taqsimlash jarayonlarining natijasidir. Ular majburiy to'lovlar va yig'malar miqdoriga kamaygan boshlang'ich daromadlar va ijtimoiy to'lovlar yig'indisidan iborat. Tasarrufdagi daromadlarga moddiy ijtimoiy to'lovlar hisobga olinib, tuzatishlar kiritib boriladi. Aholining tuzatish kiritilgan tasarrufidagi daromadlari tasarrufdagi daromadlarni va moddiy to'lovlar qoldig'ini o'z ichiga oladi.

Aholi daromadlarining tarkibi haqida gap borganda, qarzga olingan mablag'larni ham inobatga olish kerak, bu aholi pirovard va umumiy daromadlari ko'rsatkichlarida o'z ifodasini topadi. Aholining pirovard daromadlari – bu tasarrufdagi daromadlar qo'shuv aholining sof qarzlari. Sof qarzar fuqarolarga iste'mol maqsadlari uchun kredit tashkilotlari va korxonalar tomonidan berilgan qarzar bo'yicha qoldiqlarning o'zgarishlarini aks ettiradi. Aholi jon boshiga pul daromadi – bu mamlakat aholisining soniga bo'lingan pirovard daromadlar yig'indisidir. Aholining umumiy daromadlari tuzatish kiritilgan tasarrufdagi daromadlarni va sof qarzlarni o'z ichiga oladi.

Aholining daromadlari iste'mol narxlari darajasiga ham *bog'liq*, shuning uchun ham nominal va real tasarrufdagi daromadlarni bir-biridan farqlash lozim. Nominal daromadlar pul daromadlari darajasini narxlardagi o'zgarishlarni hisobga olmay tavsiflaydi, ya'ni olingan pirovard daromadlarning barcha mablag'arini o'z ichiga oladi. Real tasarrufdagi daromadlar narxlarda griflar indeksi inobatga olinib hisoblanadi. Iste'mol narxlari indeksi aholining nominal daromadlari xarid qobiliyatiga ta'sir etadi, u o'z navbatida pirovard daromadlarining kun kechirish minimumi miqdori bilan nisbati orqali ifodalangan aholining tovar va xizmatlarni xarid qilish imkoniyatlarini aks ettiradi. Iste'mol narxlari indeksi oshib borgani sayin kun ko'rish minimumi qiymati ham oshib boradi. Bu demak, aholi pirovard daromadlarining xarid qobiliyati pasayib boradi.

## **47.2. Iqtisodiyotning o'tish davrida daromadlar va turmush darajasining o'zgarish tamoyillari**

O'zbekistonda aholi daromadlarini shakllantirishning davlat tizimidan va barcha aholini davlat tomonidan kafolatlangan ijtimoiy ta'minlash tizimidan fuqarolar daromadlarini shakllantirishning bozor tamoyillariga o'tish muqarrar ravishda daromadlarning butun tizimida jiddiy o'zgarishlarni keltirib chiqardi. Bu o'zgarishlar ishlab chiqarish hajmining pasayishi, an'anaviy xo'jalik aloqalarining barbod bo'lishi va davlat mulkining xususiyashtirilishi bilan qo'shib ketdi. Bularning hammasi iqtisodiyotning o'tish davrida aholining

daromadlari va turmush darajasida bir qator noqulayliklarni keltirib chiqardi.

•Mehnat haqining roli pasayib, xufyona daromadlar ko‘payib borgan bir vaqtda aholi daromad manbalarining o‘zgarishi. Bu tamoyilik jarayon bilan belgilanadi. Bir tomondan, xususiy mulk va tadbirkorlik faoliyati tomonidan daromadlarning ob‘ektiv va haqli ravishda ko‘payib borishi oqibatida pul daromadlarini hisoblashda mehnat haqining ulushi muqarrar ravishda kamayib borgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, mehnatga haq to‘lashning oshkora ko‘rinishlari ulushi kamayib bordi, bu umuman, iqtisodiyot sohasidagi, jumladan mehnat bozoridagi ko‘ngilsiz tamoyillardan guvohlik beradi.

•Daromadlarning tengsizligi va jiddiy ravishda tabaqalashuvi. O‘zgarishlar barqaror tengsizlik yoki jamiyatda daromadlar jiddiy tabaqalashuvining yorqin ifodalangan ko‘ngilsiz tamoyili shakllanishiga olib keldi. Daromadlarning ijtimoiy-iqtisodiy tabaqalashuvi bir qator sabablar: mehnatga haq to‘lashdagi ob‘ektiv tafovutlar, faoliyatning u yoki bu turi ustuvor ravishda ijtimoiy qo‘llab-quvvatlanishi, tadbirkorlik sohasidagi daromadlarning anchagina yuqoriligi va hokazolar bois muqarrar edi: shu bilan bir qatorda, respublikamizda va MDHning boshqa mamlakatlari iqtisodiyotida kechayotgan jarayonlar tengsizlikning toyatda keskin ko‘rinishi-daromadlarning tengsizligi bilan tavsiflanadi.

Bu, birinchidan, aholi eng qashshoq va eng boy qatlamlarining daromadlari o‘rtasidagi tafovutda o‘z ifodasini topdi.

Shunday qilib, amalga oshirilgan o‘zgarishlar natijasida bir-biridan jiddiy farq qiluvchi, daromadlar darajasi, ne‘matlarni iste‘mol qilish darajasi va tuzilishi bo‘yicha aslida qarama-qarshi qutblarda turuvchi gypylap shakllandi, bu jamiyatdagi haddan tashqari ijtimoiy tengsizlikni kamaytirishga qaratilgan jahon progressiv tamoyillariga ziddir.

**Aholi aksariyat qismi turmush darajasi va turmush sifatining pasayishi** mamlakat iqtisodiyoti o‘tish davrining yana bir ko‘ngilsiz tamoyilidir. Bu iqtisodiyot o‘tish davriga xos umumiy ko‘ngilsiz jarayonlarning oqibati hisoblanadi. Uning eng muhim jihatlari real ish haqining pasayishi hamda aholi tomonidan moddiy ne‘matlarni iste‘mol qilish va xizmatlardan foydalanishning kamayishidir. Kun kechirish uchun zarur bo‘lgan narsalarning eng oz miqdori – bu inson sog‘ligini saqlash, uning hayoti va faoliyati uchun zarur bo‘lgan moddiy ne‘matlar va xizmatlarning eng kam tarkibi hamda iste‘mol uchun zarur narsalar tarkibining eng kam ko‘rsatkichidir.

Kun kechirish uchun zarur bo‘lgan narsalarning eng oz miqdori («kun kechirish minimumi»), O‘zbekiston Statistika davlat qo‘mitasining «Statistika bo‘yicha uslubiy qoidalariga ko‘ra, parxezdagilar uchun cheklanishlar hisobga

olingan va kaloriyalarning zarur eng kam miqdorini ta'minlovchi oziq-ovqat mahsulotlarining natura holidayi termasidan, shuningdek, nooziq-ovqat tovarlari va xizmatlarga xarajatlardan, soliqlar va budjet tomonidan eng kam daromadli oilalar uchun ana shu maqsadlarga xarajatlar tarkibi bo'yicha tegishli majburiy to'lovlardan iborat. Kun kechirish uchun zarur bo'lgan narsalarning eng oz miqdori eng muhim ne'matlar va xizmatlarning yo'l qo'yish mumkin bo'lgan eng kam darajadagi iste'moli me'yorlaridan foydalanib, eng kam daromadlarni mutlaq o'lchash ko'rsatkichi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida kun kechirish uchun zarur bo'lgan narsalarning eng oz miqdori hisob-kitob qilish bo'yicha uslubiy tavsiyanomalarga muvofiq quyidagilardan iborat: ham o'rtacha aholi jon boshiga, ham aholining turli ijtimoiy nufuzli gypyhli (mehnatga layoqatli erkaklar va ayollar, pensionerlar uchun alohida, 6 yoshgacha hamda 7 yoshdan 15 yoshgacha bolalar uchun alohida) mo'ljallangan eng oz miqdordagi mahsulotlar savatidan. Ushbu mahsulotlar termasi iste'molning eng oz miqdorlari asosida O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tomonidan Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkilotining ishtirokida hisoblab chiqilgan. Eng oz miqdordagi mahsulotlar savati tabiiy-iqlimiy zonalar bo'yicha tabaqalashgan.

Daromadi kun kechirish minimumidan kam bo'lgan aholining ulushi yuqori ekanligiga emas, eng kam ish haqining miqdori va budjet sohasida amal qilayotgan ta'rif setkasi 1 razryadining stavkasi hamon kun kechirish minimumidan anchagina oz ekanligi turmush darajasining pasayganidan dalolat beradi. Bu nafaqat mehnatga layoqatsiz shaxslar (nogironlar, yetim bolalar), shu bilan birga, ishsizlar ham kam haq to'lanadigan vazifalarda ishlayotganlar ham past turmush darajasiga ega ekanligini anglatadi. Agar qishloq xo'jaligi va yengil sanoat xodimlarining o'rtacha oylik ish haqi kun kechirish uchun zarur minimumdan arzimagan darajada ko'pligi inobatga olinadigan bo'lsa, iqtisodiyot butun-butun tarmoqlar xodimlarining turmushi barqaror past turmush darajasi zonasida ekanligi ma'lum bo'ladi.

Turmush darajasi va sifatini o'lchashning yana bir ko'rsatkichi inson rivojlanishining indeksi hisoblanadi. Bu indeks uch parametrdan – bo'lajak hayotning o'rtacha kutilayotgan davomiyligi (umrning bazaviy uzunligi)dan, bazaviy ilmlilik ko'rsatkichi (15 yosh va undan katta yoshdagilar orasida savodlilar ulushi hamda ta'lim bilan qamrab olishning to'liqligi ko'rsatkichi)dan va aholi jon boshiga real yalpi ichki mahsulot ko'rsatkichidan kelib chiqib hisoblanadi. 1990 yildan beri BMT tomonidan hisoblab chiqilayotgan mazkur indeks turli mamlakatlardagi turmush sifatining qiyosiy tavsifini beradi.

BMTning ma'ruzasi natijalariga ko'ra, 1995 yilda O'zbekiston 173

mamlakat reytingida ancha yuqori o'rinni egallar edi. Bu uni «inson rivojlanishining o'rtacha darajasi»ga ega mamlakatlar qatoriga kiritish imkonini berardi. Amalga oshirilgan o'zgarishlarning ziddiyatlari natijasida O'zbekistonning reytingi pasayganini qayd etish kerak.

Aholi talaygina qismi turmush darajasi pasayib borishi bilan bog'liq barqaror tamoyil iqtisodiy rivojlanishining mazkur omili ta'sirini bartaraf etish imkonini beradigan maxsus chora-tadbirlar qabul qilinishini taqozo etadi, samarali va adolatli ijtimoiy siyosatni amalga oshirish masalasini o'rta qo'yadi.

### **47. 3. Qashshoqlik muammosi**

Iqtisodiyotning o'tish davri sharoitlarida jamiyatning ijtimoiy kam himoya qilingan qatlamlari paydo bo'lishi va ko'payib borishi munosabati bilan shu davrda aholi bir qismining qashshoqligi keskin va surunkali muammoga aylanmoqda.

Qashshoqlik so'zining odatdagi ma'nosi oilaning olayotgan daromadlari yordamida oziq-ovqat, kiyim-kechaq boshpanaga bo'lgan asosiy ehtiyojlarini qondirishga qodir emasligi tushuniladi. Qashshoqlikka bunday ta'rif XIX asr oxirlarida Angliyada berilgan bo'lib, XX asrning birinchi yarmida ham nazariyada, ham ijtimoiy siyosatda ustuvorlik qilib keldi. Qashshoqlik haqidagi tassavurning kengayib borishi uning turli talqinlarini vujudga keltirdi. Qashshoqlik ko'lamlariga turli baholar mavjudligini izohlovchi muhim sabablardan biri qashshoqlik tushunchasi ta'rifiga turli yondashuvlar mavjudligi hisoblanadi. Qashshoqlikning talaygina konsepsiyalari mavjud, shularning ichidan uchta asosiysi – mutlaq, nisbiy va sub'ektiv konsepsiyalarni ajratib ko'rsatish mumkin.

Qashshoqlikning mutlaq konsepsiyasi qondirilishi kerak bo'lgan eng oz miqdorini va ana shu ehtiyojlarni qondirish uchun talab qilinadigan resurslar hajmini qiyoslashga asoslanadi. Agar odamlarning daromadlari ehtiyojlar eng oz miqdori qiymat bahosidan past bo'lsa, hayotiy muhim ehtiyojlar yetarli darajada qondirilmayotgan bo'lsa, ular qashshoq, deb hisoblanadi.

Ehtiyojlar eng oz miqdorining aniqlanishiga sub'ektiv omil ehtiyojlar eng oz miqdori ta'rifining ishlab chiqilishi uchun mas'ul bo'lgan ekspertlarning tasavvurlari ta'sir etadi, ularning tasavvurlari bunday ta'rifga ta'sir etmay qo'ymaydi. Albatta, ehtiyojlarning eng oz miqdori sohasidagi ekspertlarning tasavvurlari ko'p jihatdan shu davrda jamiyatda mavjud bo'lgan turmush darajasi bilan izohlanadi.

O'zbekiston Respublikasida qashshoqlikning bo'sag'asi kun ko'rish uchun zarur bo'lgan narsalarning eng oz miqdori darajasi bilan belgilangan.

Ana shu darajadan past pul daromadpariga ega bo'lgan aholi qashshoq hisoblanadi.

**Qashshoqlikning nisbiy konsepsiyasi** zarur daromadning eng oz miqdorini median darajasining ulushi (yoki o'rtachasi), uy xo'jaliklari teng qiymatli daromadi taqsimotining ulushi sifatida belgilaydi. Qashshoqlikning mutlaq darajasidan farqli ravishda uning nisbiy darajasi yalpi daromadlar ko'payib borgan sayin oshib boradi, shuning uchun bunday yondashuvdan bir mamlakatning o'zida turli davrlardagi ijtimoiy- iqtisodiy rivojlanishni qiyoslash maqsadida foydalaniladi. Ayni vaqtda agar ba'zi hollarda tegishli davlat siyosatini o'tkazish vaqtida mutlaq qashshoqlikning chegarasi yengib o'tilsa, nisbiy qashshoqlik konsepsiyasi aholining nisbatan qashshoq deb hisoblanuvchi ma'lum bir qismi hamisha mavjud bo'lishini taxmin qiladi.

Rasmiy statistika qashshoqlikning nisbiy konsepsiyasiga muvofiq qashshoqlar ulushini aniqlashi mumkin, bunga davlat statistika qo'mitasi e'lon qilayotgan ma'lumotlar, aholining jon boshiga daromadi hajmi yordam beradi.

**Qashshoqlikning sub'ektiv konsepsiyasi** XX asrning 70-yillarida Gollandiyaning Leyden universiteti iqtisodchilari va statistikachilari tomonidan ishlab chiqilgan edi. Qashshoqlikni aniqlashga bunday yondashuv sotsiologik tadqiqotlarda ishtirok etuvchi odamlarning o'zi nimani qashshoqlik deb, nimani qashshoqlik emas, deb hisoblash borasida anchagina malakali hakam hisoblanishadi, degan farazga asoslanadi. Leyden universiteti uslubiga muvofiq umuman, butun mamlakat aholisini o'zida aks ettirgan uy xo'jaliklarini saylanma ravishda tadqiq etish asosida, aholining fikriga ko'ra «kun kechirish» imkonini beradigan daromad hajmi belgilanadi.

Olib borilayotgan tadqiqotlar, bir tomondan sub'ektiv fikri bilan ular turmushining daromad, ehtiyoj va hokozolar kabi ob'ektiv o'lchamlari o'rtasida uzviy aloqa mavjudligini ko'rsatadi. Boshqa tomondan qashshoqlik bo'sag'asidan past daromadga ega bo'lgan odamlarning bir qismi o'zini qashshoq deb hisoblovchi odamlarning bir qismiga agar ularning daromadlari, masalan, kun kechirish minimumiga asoslangan qashshoqlik chegarasi bilan solishtiriladigan bo'lsa, yaxshigina ta'minlangan, deb qaralishi mumkin.

Yuqorida sanab o'tilgan qashshoqlikni aniqlashga doir barcha yondashuvlar daromadlarning baholanishiga asoslangan. Ammo daromadlar darajasining bahosi qashshoqlikning ishonchli o'lchami hisoblanmaydi. Bu O'zbekiston Respublikasi misolida yaqqol ko'zga tashlanadi. Masalan, aholining rasmiy kun kechirishi uchun zarur bo'lgan narsalarning eng oz miqdori darajasidan kam daromadga ega bo'lgan ulushi O'zbekiston Respublikasi Statistika davlat qo'mitasi hamda Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining rasmiy ma'lumotlariga ko'ra 1997 yilda 20–25

foizni tashkil etgan. Bu ma'lumotlar budget tadqiqotlari zahirida, aholi daromadlari va xarajatlari balansiga asoslanib, daromadlarga qo'shimcha baho berish usulidan foydalanib olingan. Statistika davlat qo'mitasining budget tadqiqotlari ma'lumotlari bo'yicha, balans usuli bilan qayta baholash o'tkazilmay turib, aholining kun kechirish minimumidan past daromadga ega bo'lgan qismi aholining jami 30–35 foiziga yetgan bo'lardi. Sotsiologik savol-javob ma'lumotlariga qaraganda, ularning ulushi uy xo'jaliklarining 40 foiziga va aholining 50 foiziga yetishi mumkin.

Qashshoqlik ko'rsatkichlarini hisob-kitob qilish uchun daromadlar haqida aholi takdim etgan ma'lumotlardan foydalanilganda uy xo'jaliklari o'z daromadlarini kamaytirib ko'rsatgan bo'lishlari mumkinligini ham inobatga olish zarur. Bunday pasaytirib ko'rsatishlar anchagina salmoqli: mamlakat bo'yicha uy xo'jaliklarining o'rtacha daromadlari ularning xarajatlariga nisbati qariyb 80 foizni tashkil etadi, ya'ni uy xo'jaliklari daromadlarining 20 foizga yaqinini ko'rsatishmaydi.

Rasmiy statistikada xufyona daromadlarni baholash muammosi quyidagi tarzda hal etiladi: yashirib qolingani ish haqi yakuniy hisobot usuli bilan, rasman ro'yxatga olingan daromadlar bilan uy xo'jaliklarining barcha ehtiyojlariga sarf-xarajatlarining umumiy yig'indisi o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

Statistika davlat qo'mitasi aholi daromadlarini katta aniqlik bilan aks ettirish uchun, uy xo'jaliklari xarajatlarini faqat olgan daromadlari hamda zayomlar, kreditlar va o'z jamg'apmalapi ko'rinishida jalb qilingan mablag'lar hisobidan amalga oshirishlariga asoslanib, daromadlar ko'rsatkichlarini xarajatlar va jalb qilingan mablag'lar asosida hisob-kitob qilishga o'tdi.

Hufyona daromadlar muammosi **deprivatsiyalarni va iste'moldan (muxtojlikka qarab) istisnolarni baholash asosida qashshoqlik darajasini belgilash konsepsiyasini** tobora dolzarb qilib bormoqda. Mazkur konsepsiya resurslari jamiyat uchun o'rtacha darajadan kam bo'lgan, umum tomonidan qabul qilingan turmush darajasidan, odatlar va faoliyat turlaridan rosmiyan chiqarib tashlangan uy xo'jaliklarining qashshoqlar sirasiga kiritishiga asoslangan. Mazkur yondashuv qashshoqlikni ijtimoiy jihatdan yanada kengroq idrok etishdan kelib chiqadi. U oilaning daromadlari darajasi hamda tovarlar va xizmatlar bilan ta'minlanganligi, odamlar tasarrufida bo'lgan mablag'lar ularga o'zlari mansub bo'lgan jamiyat hayotida to'laqonli ishtirok etish imkonini berish-bermasligi nuqtai nazaridan tahlil etilishi sababli «qashshoqlikning fuqarolik -huquqiy nazariyasi» degan nom oldi. Masalan, ozig'-ovqat jismoniy sihat-salomatlikni ta'minlabgina qolmay ijtimoiy muomala muhiti bo'lib xizmat qiladi. Madaniy-maishiy tovarlar bilim olish va

ma'naviy rivojlanish uchun shart-sharoitlar yaratadi, agar ular bo'lmasa, insonning to'laqonli hayoti va faoliyati imkoniyatlari cheklanadi. Qashshoqlikning mazkur konsepsiyasi daromadlar oqimini (ma'lum vaqt davomidagi pul daromadlari miqdorini), shu bilan birga, zaxiralarni (oilalarning uzoq muddat foydalaniladigan tovarlar bilan ta'minlanganligi darajasini, turar-joyining sifatini), shuningdek, soliq solish xizmatlaridan foydalanishni, ilm olish, ta'lim va madaniy rivojlanish imkoniyatlarini hisobga olishi sababli ham inson rivojlanishiga baho berish nuqtai nazaridan muhimdir.

Qashshoqlikning boshqa tavsiflaridan ham foydalaniladi. BMT hujjatlarida inson qashshoqligi tushunchasi – uzoq, sog'lom va bunyodkorlik bilan hayot kechirish, savodli bo'lish, me'yorida ovqatlanish, erkinlik va tevarak-atrofdagilarning e'zozidan huzur olish kabi muhim ehtiyojlarni qondirish uchun imkoniyatlar va shart- sharoitlar yo'qqligi qayd etilgan. Shu o'rinda besh yoshgacha vazni me'yoridan kam bo'lgan bolalarning ulushi (rivojlanayotgan mamlakatlarda bu ko'rsatkich 30 foizni tashkil etadi, Janubiy Osiyoda esa, uning ulushi 50 foizga yetadi); aholining savodsizligi darajasi, shu jumladan, ayollarning savodsizligi (barcha rivojlanayotgan mamlakatlarda bu ko'rsatkich 38 foizni, janubiy Osiyoda 63 foizni, Arab mamlakatlarda 56foizni, Ekvatorial Afrikada 52 foizni tashkil etadi) shu o'rinda ko'rsatkich bo'lib xizmat qiladi.

Daromadlar bo'yicha qashshoqlik – eng oz miqdordagi zarur daromadlar yoki xarajatlarning yo'qligidir. 90-yillardagi iqtisodiy o'sishga qaramay, rivojlanayotgan mamlakatlar aholisining qariyb uchdan bir qismi daromadlar bo'yicha qashshoklik janubiy Osiyoda, ayniqsa, keng yoyilgan. Shu mintaqada aholining 45 foizi qashshoq hisoblanadi. Ekvatorial Afrikada bu ko'rsatkich biroz kam – 40 foizni tashkil etadi. O'ta qashshoqlik (faqirlik) oziq-ovqatga bo'lgan hatto eng oz miqdordagi ehtiyojni qondira olmaslik sifatida ta'riflanadi. Qashshoqlik majmui-nisbatan mavhum tushuncha, odatda uni muhim oziq-ovqatlarga va boshqa narsalarga ehtiyojlarni qondira olmaslik deb ta'riflashadi, shu bilan birga. muhim ehtiyojlar doirasi turli mamlakatlarda bir-biridan keskin farq qiladi.

Mamlakat iqtisodiyotining o'tish davri uchun xos bo'lgan qashshoqlikning yuksak darajasi uni ijtimoiy maqbul darajagacha pasaytirish va aholining eng kambag'al qatlamlarini qo'llab-quvvatlashdek murakkab vazifani o'rta qo'yadi. Qashshoqlik muammosini hal etishning birinchi murakkab tomoni, avvalabor, mazkur hodisaning mazmun-mohiyati bilan bog'liq.

*Birinchi*dan, mamlakatlarda qabul qilingan qashshoqlikni baholash usuliga ko'ra uning chegaralari barqaror emas, ko'p sonli omillarga bog'liq

inflyatsiya va ishsizlik darajasining tebranishlari, yalpi milliy mahsulot harakati, aholining real daromadlari, hisob-kitob usullaridagi o'zgarishlar, aholining kambag'al qismi sirasiga kiritiluvchi shaxslarning fe'l-atvoriga ta'sir etishi mumkin bo'lgan idoralarning qarorlari va hokazolar shular jumlasidandir. Muhtojlik darajasida yashayotgan O'zbekiston aholisi miqdori va ulushining o'zgarishlari ana shundan dalolat beradi.

*Ikkinchidan*, qashshoqlikni hisob-kitob qilishning qabul qilingan uslubi fuqarolar haqiqiy ahvolini atroflicha hisobga olish imkonini bermaydi. Yuqorida aytib o'tilgan daromadlarning yashirilishidan tashqari uy xo'jaliklarining haqiqiy mulkiy maqomini hisobga olish muammosi mavjud. 2000 yildagi o'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra, daromadlar bo'yicha qashshoq hisoblanuvchi uy xo'jaliklarining 70 foizidan ko'pi tomorqa uchastkalariga, 22 foizidan ortig'i avtomobillarga, kambag'al uy xo'jaliklarining 30 foizidan ko'pi ikkinchi turar joyga ega bo'lgan. Ko'pincha mulkiy imkoniyatdan qo'shimcha daromad olish uchun foydalaniladi.

*Uchinchidan*, iqtisodiy tadqiqotlar qashshoqlik darajasi bir qator favqulodda va tasodifiy omillarga – tabiiy ofatlarga, korxonalarining xonavayron bo'lishi, qurolli to'qnashuvlar va hokazolarga bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Bundan tashqari qashshoqlik va shaxs hayotidagi iqtisodiy bosqichlar o'rtasida aloqa mavjudligi aniqlangan.

Yosh mutaxassislar tajriba orttirib borganlari sayin ularning imkoniyatlari kengayib boradi, pul daromadlari ko'payadi, pensiyaga chiqqanlaridan keyin esa, pul daromadlari kamayadi. Shuning uchun u yoki bu bosqichdagi turmush darajasi butun hayot davomida olingan daromadlarga (pensiya uchun mablag'lar jamg'apib borilishiga, bilim olishga kreditlar va hokazolarga) ko'p jihatdan bog'liq. Daromadlarning davriy va doimiy tebranishlari mavjud. Ana shu va boshqa omillar fuqarolarning haqiqiy ahvolini jiddiy ravishda shakllantiradi, oilalarning bir qismi doimiy ravishda mulkiy ahvoriga ko'ra bir toifadan ikkinchi toifaga o'tib turishi mumkin. Demak qashshoqlikning chegaralari ma'lum darajada shartli bo'lib, o'zgarib turadi.

Mamlakatimiz sharoitlarida qashshoqlikka qarshi ko'rashning ikkinchi murakkab tomoni jamiyatning moliyaviy imkoniyatlari cheklanganligi bilan bog'liq. Kambag'al aholini «O'zbekistonda kun kechirish uchun zarur bo'lgan narsalarning eng oz miqdorlari to'g'risida»gi va «Davlatning ijtimoiy yordami to'g'risida»gi qonunlarda ko'zda tutilganidek respublika va mahalliy darajalarda qo'llab-quvvatlash choralarining amalga oshirilishi ijtimoiy maqsadlarga moliyaviy xarajatlar ko'paytirilishini talab qiladi, bu xarajatlarni ana shu maqsadlarga jami budjetda avval ajratilgan mablag'lar hajmi bilan qiyoslash mumkin.



Agar, masalan, adresli nafaqa oluvchilar doirasi «qashshoqlikning ma'muriy chegarasi», deb atalmish chegara ortida turgan (daromadi kun kechirish minimumining 50 foizidan kam bo'lgan) o'ta kambag'al uy xo'jaliklari bilan chegaralanadigan bo'lsa va ularning iste'moli kun kechirish minimumini 50 foiz darajasiga yetkazish vazifasi o'rtaga qo'yilsa, O'zbekistondagi aholi sog'lig'ini saqlash monitoringi ma'lumotlariga ko'ra har oyda 2,3 milliard so'm hajmidagi yoki bir yilga hisoblaydigan bo'lsak 25 milliard so'm hajmidagi qo'shimcha xarajatlar qilishga to'g'ri kelar edi. Bunday xarajatlarni moliyaviy ta'minlash uchun budjetdagi ijtimoiy siyosatga ko'zda tutilgan jami xarajatlar hajmini bir yarim baravar ko'paytirish, yoxud ana shu modda bo'yicha boshqa barcha ijtimoiy dasturlarga moliyaviy xarajatlarni yarmidan ko'piga qisqartirish kerak bo'ladi.

Ehtiyojlarni tekshirish vaqtida eng qashshoq uy xo'jaliklari o'z daromadlarini pasaytirib ko'rsatish ehtimoli hisobga olinadigan bo'lsa, (ularning qashshoqligi haqiqiy xarajatlar daromadlari bo'yicha hisob-kitob qilinadigan bo'lsa), budjetda har oydagi qo'shimcha xarajatlar 2000 yilning oxirida 5,7 milliard so'mni tashkil etishi mumkin edi. Bir yillik hisob-kitoblar bunda 2000 yil uchun budjetda ijtimoiy siyosatga ajratilgan jami xarajatlardan oshib ketgan bo'lar edi.

2007–2008 yilgi inqirozdan so'ng ijtimoiy vaziyatning yomonlashganligi ijtimoiy ehtiyojlarga haqiqiy xarajatlar keskin kamayganligi bilan qo'shilib, aholini ijtimoiy himoya qilish mavjud tizimining qashshoqlik va tengsizlikning o'sishiga qarshilik ko'rsatish qobiliyatiga salbiy ta'sir etgan joylari ham bo'ldi. Ijtimoiy to'lovlar asosiy turlari hajmining mukamallashuvi, shuningdek, ana shu to'lovlarning o'z vaqtida amalga oshirilganligi ijtimoiy himoya tizimidagi ijobiy o'zgarishlarga olib keldi. Ana shu ijobiy o'zgarishlar oqibatlarini aholining uch eng ko'p sonli toifasi – bolali oilalar, ishsizlar va pensionerlar ahvoriga ijobiy ta'sir etdi. So'ngi yillarga kelib ahvolning bir muncha yaxshilanganligi qashshoqlik muammosi keskinligini umuman bartaraf etdi.

Bu demak jamiyatning qashshoqlikni sezilarli darajada qisqartirish yoxud kambag'al aholini jiddiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha imkoniyatlari hozirgi sharoitlarda uning ixtiyorida bo'lgan 5 resurs bilan cheklangan.

Qashshoqlikka qarshi ko'rash borasida vujudga keluvchi uchinchi mushkullik yordam ko'rsatish mexanizmi bilan bog'liq. Kambag'al fuqarolarni qo'llab-quvvatlash samarali mexanizmining yaratilishi moliyaviy imkoniyatlar qattiq cheklangan sharoitlarda kambag'al oilalarga adresli yordam ko'rsatilishini talab qiladi. Muhtojlikni to'g'ridan-to'g'ri baholashning o'zi qimmatga tushadigan chora-tadbirlar hisoblanadi. U mulkiy ahvol va haqiqiy pul daromadlari haqidagi rivojlangan axborotlar tizimiga,

ko'rsatiladigan yordamning miqdori haqidagi qarorni qabul qilish jarayoniga va hokazolarga asoslanadi. Yordam berish tartibini aniqlash uchun bilvosita usullardan foydalanish mumkin. Ammo ular mukammal emas va albatta, haqiqiy muhtoj uy xo'jaliklarining bir qismini qashshoqlik bo'yicha nafaqa olish huquqiga ega bo'lganlar hisobidan chiqarib tashlashi mumkin.

Demak, qashshoqlikka qarshi kurash moliyaviy imkoniyatlarning cheklanganligi, qashshoqlikning real chegaralarini aniqlash va aholining chindan ham kambag'al qismiga yordam berishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish bilan bog'liq qator muammolarga duch keladi. O'tish davri iqtisodiyotlarida ana shu muammolar iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlar beqarorligi hamda ana shu mamlakatlarda aholining kambag'al qismi keskin ko'payganligi sababli rivojlangan mamlakatlarga qaraganda yanada murakkablashadi. BMTning Yevroosiyo va MDH mamlakatlari bo'yicha mintaqaviy byurosi ma'lumotlariga ko'ra, 90-yillarda iqtisodiyotning o'tish davri hukm surayotgan mamlakatlarda qashshoqlar soni 150 million kishiga yetgan. Deyarlik barcha mamlakatlarda shu hodisalarning asosi bir xil – ishlab chiqarishning pasayishi, aholining real daromadlari kamayishi, ishsizlik daromadlar borasidagi tengsizlik, boyliklarning va mulkning qayta taqsimlanishi, yetarli darajada bo'lmagan ijtimoiy to'lovlar shular jumlasidandir.

Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning tajribasi qashshoqlikni qisqartirish strategiyasi davlat siyosatining turli yo'nalishlarini o'z ichiga olishi lozimligini ko'rsatadi.

Aholining ijtimoiy himoya qilinmagan, bozor rad etayotgan guruhlar (qariyalar, nogironlar va hokazolar) ga nisbatan ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy ne'matlardan keng foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash siyosati o'tkazilishi kerak. Mehnatga layoqatsiz har qanday shaxs, daromadi miqdoridan qat'i nazar soliq solish xizmatlaridan foydalanish, zarur bo'lgan hollarda farovonligini saqlash bo'yicha ijtimoiy nafaqa olish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak.

Afsuski, u yoki bu sharoitlar ta'siri ostida qashshoqlar kategoriyasiga mehnatga layoqatli shaxslar ham tushib qoladi. Mehnatga layoqatli aholi qashshoqligining asosiy sababi ishsizlik hisoblanadi, shuning uchun samarali ish bilan bandlik imkoniyatlarini kengaytirish va har bir shaxsni hayot uchun zarur mablag'larning tipg'yn manbai bilan ta'minlash tizimini tashkil etish lozim. Kasb-hunar ta'limi va malaka oshirish kambag'allarning mehnat unumdorligi oshishiga olib kelishi kerak. Ana shunda qashshoqlar iqtisodiy rivojlanishdan foydalanibgina qolmay, unga o'z hissalarini ham qo'shadilar. Aholining ijtimoiy kam ta'minlangan qatlamlarini qo'llab-quvvatlash chora-

tadbirlari ayni vaqtning o'zida mehnatga ishtiyoqning saqlanishi va kuchayishi bilan qo'shib olib borilishi zarur. Masalan, ayniqsa hufyona iqtisodiyot gullab-yashnagan sharoitlarda nafaqa va imtiyozlarga muhtojlikni tekshirish, aholining chindan ham muhtoj guruhlarini aniqlash va mavjud to'lovlarni ularning foydasiga qayta taqsimlash ana shunday chora-tadbirlar sirasiga kiradi. Aholining kam daromad oladigan va kam himoya qilingan guruhlarini qo'llab-quvvatlashda nodavlat tashkilotlari va jamg'apmalap katta rol o'ynashi mumkin.

O'tish davri iqtisodiyotlarida qashshoqlik muammosi yanada keng va murakkabroqdir. U, birinchidan, ijtimoiy turg'unlik va barqarorlikka yo'naltirilgan milliy iqtisodiy rivojlanish modelining tanlanishi haqidagi, ikkinchidan, faoliyatining asosiy yo'nalishlari qatorida

qashshoqlikni qisqartirishni ham nazarda tutadigan ijtimoiy himoyaning yagona tizimi ishlab chiqilishi hakidagi masalalarning hal etilishi bilan bog'liq.

Mehnatga xaq to'lash tizimini takomillashtirish bo'yicha uzoq muddatga mo'ljallangan. O'zaro chuqur bog'langan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi, yalpi ichki mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarishning yuqori sur'atlarida barqaror o'sib borishi, budget sohasi xodimlarining ish haqi, pensiya, stipendiya va nafaqalar miqdorining muntazam qayta ko'rib chiqilishi, ta'lim, sog'liqni saqlash va ilm-fan sohalari xizmatchilarining mehnatini rag'batlantirish, aholi turmush darajasini tubdan yaxshilashga qaratilgan boshqa chora-tadbirlar, ayniqsa, oxirgi yillarda xalqimiz hayotning sifat jihatdan izchil yuksalib borishini ta'minlanmoqda.

### **Qisqacha xulosalar**

1). Bozor iqtisodiyoti sharoitida insonning yoki oilaning asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari – bu ularning daromadlaridir. Daromadning inson ehtiyojlarini ta'minlanganlik darajasi uning siyosiy ishonchini ifoda etadi.

Daromad ma'lum qandaydir davr (odatda bir yil) ichida olgan ish haqi yoki pulning umumiy yig'indisini tasavvur etadi. Pul yig'indisida olingan daromad nominal daromad deyiladi. Bozor iqtisodiyotida nominal daromad – ish haqini dividendlarni, tadbirkorlik va biznes faoliyatidan tushgan daromadlarni, har xil transpert to'lovlarni (har xil ijtimoiy yordam pullarini, pensiyalarni) o'z ichiga oladi.

2). Hayot darajasi – bu aholining hayoti zaruriy moddiy va ma'naviy taminlanganligini yoki bu ne'matlar bilan ehtiyojlarining qondirilganlik darajasini bildiradi.

3). Daromadlarning va hayot darajasining tabaqalanishi sharoitida juda keskin ijtimoiy muammo, ya'ni kambag'allik, faqirlik muammosi yuzaga keladi.

Buni qanday aniqlash mumkin? Bu yerda shubhasiz oilaviy daromadlarning shunday chegarasini belgilash mumkin. Daromadlar juda ham past bo'lsa, demak, aholining takror ishlab chiqarilishi ta'minlanmagan yoki tirikchilik minimum darajasida (kambag'allikning boshlanishi) bo'ladi. Aholining barcha guruhlarning «kambag'allikning boshlanishi»dan past yashovchilari kambag'al, faqir, deb hisoblanadi. Kambag'allikka nafaqat sof iqtisodiy omil sifatida qarash kerak. Bu yana kambag'allik yana davom etadigan keskin va chuqur xarakterlanuvchi ijtimoiy hodisadir. Kambag'allik uzoq vaqtda resurslarning yo'qligi, oldingi jamg'armalar bilan o'rni to'ldirilmaydigan, zaruriy tovar va xizmatlarni sotib olishdan voz kechishdir.

4). Kambag'allik, faqirlik chegarasini tushunishda farqlar mavjud. Insonlarning oziq-ovqatga, kiyim-kechakka va yashash joylariga fiziologik ehtiyojlarini aniqlash asosida ularning yashash hayoti, iste'mol savati, tovarlarning qiymati insonning ehtiyojlarini qondirish uchun mutlaqo kambag'al - faqirlikni tasavvur etadi.

### **Asosiy tayanch atamalar**

Daromad.

Qashshoqlik.

### **Mavzuning na'munali savollari**

1. Daromad tushunchasini aniqlash, real va nominal daromadlar farqi.
2. Kambag'allik - faqirlik muammolari va uning yechimi.
3. Ijtimoiy himoya qilishda davlat qanday rol o'ynaydi.

### **Seminar darslarida muhokama qilish uchun savollar**

1. «Yashash darajasi», «inson salohiyatining indeksi», «inson rivojlanish indeksi» tushunchalarini xarakterlab bering.
2. Ijtimoiy ta'minotni samarali moliyalashtirishning qanday manbaalari imkoniyat beradi?
3. Daromadlar kambag'allik - faqirlik muamolarini yechish omili sifatida.

### **Mustaqil ta'lim uchun savollar**

1. Aholi daromadlari tushunchasi.
2. Real va nominal daromadlarning iqtisodiy mazmuni.
3. Davlatning ijtimoiy himoya siyosati va uning O'zbekistondagi xususiyatlari.
4. Daromad va yordamchi vositalarni aytib bering.

## **ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

### **Me‘yoriy-huquqiy hujjatlar**

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. 8 dekabr 1992 yil. 2017 yil 6 aprel № O‘RQ-426.<https://lex.uz/ru/docs/20596>
2. O‘zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlik va tadbirkorlik faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonuni. 1999 yil 14 aprel, 755-I-son. <https://lex.uz/ru/docs/66268>
3. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasida mulkchilik to‘g‘risida”gi qonunining 4-moddasi. 1990 yil 31 oktabr, 152-XII-son. <https://lex.uz/ru/docs/111466>
4. O‘zbekiston Respublikasining “Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida”gi 2021 yil 1 apreldagi O‘RQ-680-son Qonuni
5. O‘zbekiston Respublikasining “Yer solig‘i to‘g‘risida”gi 1993 yil 6 maydagi 831-XII-son Qonuni
6. O‘zbekiston Respublikasining “Ijara to‘g‘risida”gi 1991 yil 19 noyabrdagi 427-XII-son Qonuni
7. O‘zbekiston Respublikasining “Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi 1993 yil 6 maydagi 839-XII-son Qonuni

### **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari**

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent, O‘zbekiston, 2017. 592 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. 15.01.2017
3. Mirziyoyev, Shavkat. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi.- Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022. -416 bet.

### **O‘quv adabiyotlari**

4. Fiziokraty. Izbrannyye ekonomicheskkiye proizvedeniya. Fransua Kene, Ann Rober Jak Tyurgo, P. S. Dyupon de Nemur. 2008. 1200 str.
5. A.Smit. «Issledovaniye o prirode i prichinax bogatstva narodov». M.: Direkt-Media, [https://biblioclub.ru/index.php?page=book\\_red&id=560822014](https://biblioclub.ru/index.php?page=book_red&id=560822014).
6. John Stuart Mill. Principles of Political Economy. 1848
7. S. Fisher, R. Dornbush, R. Shmalenzi. Ekonomika (ECONOMICS). M.: DYeLO Ltd, 1995. – 864 s.
8. Galperin V. M., Ignatev S. M., Morgunov V. I. Mikroekonomika. V 2-x tomax. Institut "Ekonomicheskaya shkola", Sankt-Peterburg, 2004.
9. Xayman D.N. Sovremennaya mikroekonomika: analiz i primeneniye. T.1-2.- M.: Finansy i statistka, 1992.

10. Davis J. and Goldberg P. A concept of agribusiness. – Boston. Mass.: Harvard Univ, 1957
11. Natsionalnaya sistema politicheskoy ekonomii / F. List; per. s nem. V. M. Izergin. – Moskva; Chelyabinsk: Sotsium, 2017. – 451 s.
12. Todaro M. Ekonomicheskoye razvitiye. M. : Ekonomicheskiy fakultet MGU : Yuniti, 1997.
13. Denisop Edward F. Trends in American Economic Growth, 1929-82, Brookings Institution, 1985
14. N.D.Kondratev. «Mirovoye xozyaystvo i yego kon'yunktury vo vremya i posle voyny»;
15. Kondratev N. D. Spornyye voprosy mirovogo xozyaystva i krizisa. (Otvét nashim kritikam.) Sotsialisticheskoye xozyaystvo. 1923. № 4–5. S. 50–86.;
16. N.D.Kondratev. Bolshiyé sikly kon'yunktury. M.: Izdatelstvo: Yurayt, 2016
17. Shumpeter Y.A. Teoriya ekonomicheskogo razvitiya. Kapitalizm, sotsializm i demokratiya. — M. : Eksmo, 2008. — 864 s.
18. A. V. Anikin. Istoriya finansovykh potryaseniy. Ot Djona Lo do Sergeya Kiriyenko. M. : ZAO "Olimp-Biznes", 2000. 378 str.
19. Ot shoka k terapii : Polit. ekonomiya postsots. preobrazovaniy / Gjegoj V. Kolodko. - M. : Journ. Ekspert, 2000. - 389 s.
20. Okun Arthur M. Prices and Quantities: A Macroeconomic Analysis', 1981

### **Qo‘shimcha adabiyotlar**

21. O‘zbekiston Respublikasining Ijtimoiy-iqtisodiy holati. 2020 yil, yanvar-dekabr. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. Toshkent – 2021 y. 494 bet.
22. O‘zbekistonda mehnat va bandlik. Statistika to‘plam. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. Toshkent – 2021 y. B.150.
23. O‘zbekiston Respublikasi yillik statistika to‘plam. 2011-2020. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. Toshkent 2021. 290 bet.
24. Top-50 naiboleye pribylnykh kompaniy mira v 2021 godu. <https://globalstocks.ru/materialyi/rejtingi/top-50-naibolee-pribyilnyih-kompaniy-mira/>
25. 20 samykh pribylnykh i 10 ubytochnykh kompaniy s gosdoley v Uzbekistane. <https://www.gazeta.uz/ru/2021/05/06/profit-and-loss/>
26. Delovoy mir, 1992, №19.

## Mundarija

<b>III-BO‘LIM.</b>	<b>MEZOIQTISODIYOT</b>	
<b>21 BOB.</b>	<b>TADBIRKORLIK FAOLIYATI VA UNING TASHKIL ETISH SHAKLLARI</b>	
21.1.	Tadbirkorlikning mohiyati va uning tashkil etish shakllari	3
21.2.	Ishlab chiqarish omillaridan foydalanish	5
21.3.	Tadbirkorlik faoliyatining sabab va maqsadlari	6
21.4.	Tadbirkorlikning tadrijiy ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishi	8
21.5.	Tadbirkorlik faoliyatining shakllari	11
21.6.	Tadbirkorlik muhiti	15
21.7.	Tadbirkorlik omillari	16
21.8.	Tadbirkorlikning vazifalari	18
21.9.	Tadbirkorlikni tashuvchilar	20
21.10.	Tadbirkorlikning tashkiliy shakllari	21
21.11.	Tadbirkorlik faoliyatining qatnashchilari	26
	Qisqacha xulosalar	35
	Asosiy tushunchalar	36
	Ma’ruzalar bo‘yicha namunaviy savollar	36
	Seminar darslarida muhokama qilish uchun savollar	36
	Mustaqil o‘qish uchun savollar	36
<b>22 BOB.</b>	<b>TADBIRKORLIK KAPITALI VA UNING AYLANISHI</b>	
22.1.	«Kapital» tushunchasining mazmun-mohiyati va uning tabiatiga qarashlarning tadrijiy rivojlanishi	37
22.2.	Korxonalar kapitalining (ishlab chiqarish fondlarining) davriy aylanishi	45
22.3.	Korxonalar kapitali (ishlab chiqarish fondlari)ning tarkibiy tuzilishi. Asosiy kapitalning jismoniy va ma’naviy eskirishi	51
	Qisqacha xulosalar	54
	Asosiy atamalar	54
	Mavzuning namunaviy savollar	55
	Seminar darslarida muhokama qilish uchun savollar	55
	Mustaqil ta’lim uchun savollar	55
<b>23 BOB.</b>	<b>MENEJMENTNING USLUBIY ASOSLARI</b>	
23.1.	Menejmentning mohiyati	56

23.2.	Menejment tushunchalarining mazmuni	57
23.3.	Menejmentning maqsadi va vazifalari	61
23.4.	Menejmentning o‘ziga xos belgilari va bosqichlari	62
23.5.	Menejer va uning vazifalari	63
23.6.	«Tadbirkorlik», «biznes», «tadbirkorlik tizimi» tushunchalarining mohiyati va mazmuni	64
	Qisqacha xulosalar	68
	Asosiy tushunchalar	69
	Mavzuning namunaviy rejalari	69
	Seminar darslarida muhokama qilish uchun savollar	69
	Mustaqil o‘qish uchun savollar	69
<b>24 BOB.</b>	<b>MARKETING – BOZORGA YO‘NALTIRILGAN ISHLAB CHIQRISH FALSAFASI</b>	
24.1.	Marketing, uning mohiyati, vazifalari va qoidalari	70
24.2.	Marketingning asosiy tamoyillari	71
24.3.	Marketingning vazifalari	74
24.4.	Raqobat turlari	75
24.5.	Raqobat kurashining to‘rt asosiy ishtirokchisi	76
	Qisqacha xulosalar	83
	Asosiy tushunchalar	83
	Mavzuning namunaviy rejalari	84
	Seminar darslarida muhokama qilish uchun savollar	84
	Mustaqil o‘qish uchun savollar	84
<b>25 BOB.</b>	<b>KORXONA (FIRMA) SARF-XARAJATLARI VA FOYDASI</b>	
25.1.	Xarajatlarning mohiyati va tarkibiy tuzilishi	85
25.2.	Qisqa muddatli va uzoq muddatli davr	88
25.3.	Xarajatlarni minimallashtirish: ishlab chiqarish omillarini tanlash	90
25.4.	O‘rta muddatli davrda ishlab chiqarish xarajatlari dinamikasi	92
25.5.	Uzoq muddatli davrda firmaning investitsiyali faoliyati	93
	Qisqacha xulosalar	97
	Asosiy tushunchalar	98
	Mavzuning namunaviy rejalari	98
	Seminar darslarida muhokama qilish uchun savollar	98
<b>26 BOB.</b>	<b>DAROMADLAR VA ULARNI TAQSIMLASH</b>	
26.1.	Foydaning iqtisodiy tabiati	99



26.2.	Kapitalga foiz: mohiyati, dinamikasi omillari	102
26.3.	Kapital	104
26.4.	Resurslarning joriy qiymatini aniqlash – diskontlash	106
26.5.	Foiz dinamikasi va uning omillari	107
26.6.	O‘zbekiston davlatning moliyaviy siyosatida foiz stavkalari	108
	Qisqacha xulosalar	109
	Asosiy tushunchalar	110
	Mavzuning namunaviy savollari	111
	Seminar darslarida muhokama qilish uchun savollar	111
	Mustaqil o‘qish uchun savollar	111
<b>27 BOB.</b>	<b>ISH HAQI VA MEHNAT MUNOSABATLARI</b>	
27.1.	Mehnat bozorining shakllanishi	112
27.2.	Ish haqi va uning vazifalari	115
27.3.	O‘tish davri iqtisodiyotida ishsizlikning xususiyatlari	119
27.4.	O‘tish davri iqtisodiyotidagi ish bilan bandlikniig o‘ziga xosxususiyatlari	123
27.5.	Mehnat bozoridagi ishchi kuchining safarbarligi	127
27.6.	Ijtimoiy sherikchilik	137
	Qisqacha xulosalar	139
	Asosiy tayanch atamalar	140
	Ma’ruzalar bo‘yicha namunaviy savollar	140
	Seminar darslarida muhokama qilish uchun savollar	140
	Mustaqil o‘qish uchun savollar	140
<b>28 BOB.</b>	<b>AGRAR MUNOSABATLAR VA AGROBIZNES</b>	
28.1.	Agrar islohotlarning asosiy bo‘g‘inlari	142
28.2.	Agro sanoat majmuasida turli tuman shaklda xo‘jalik yuritish	144
28.3.	Xo‘jalik shakllarining ixtisoslashuvi	149
28.4.	Qishloq xo‘jaligi kooperatsiyasi	155
28.5.	Qishloq kooperatsiyasi krediti	156
28.6.	Davlatning agrosanoat majmualarini tartibga solish	157
28.7.	Yer rentasining turlari	160
28.8.	Agrosanoat majmuining iqtisodiyot tarkibidagi o‘rni	161
28.9.	ASMni qayta tashkil etishning natijalari va ziddiyatlari	163
28.10.	ASMdagi tanazzulning sabablari	167
28.11.	Inqirozni yengib o‘tishning shartlari	169
28.12.	Yerni iqtisodiy jihatdan baholash muammosi	174

	Qisqacha xulosalar	181
	Asosiy tushunchalar	184
	Mavzuning namunaviy savollari	185
	Seminar darslarida muhokama qilish uchun savollar	185
	Mustaqil o‘qish uchun savollar	185
<b>29 BOB.</b>	<b>KICHIK BIZNESNING MOHIYATI VA XUSUSIYATLARI</b>	
29.1.	Kichik firmalar (KF)ning farqlovchi xususiyatlari	188
29.2.	Kichik biznesning iqtisodiy ahamiyati	191
29.3.	Davlat kichik biznesini qo‘llab-quvvatlashi (jahon amaliyotida)	192
29.4.	O‘zbekistonda kichik biznesning rivojlanishi	194
29.5.	O‘zbekistonda kichik tadbirkorlikni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash chora – tadbirlari	197
	Qisqacha xulosalar	200
	Asosiy tushunchalar	200
	Mavzuning namunaviy savollari	200
	Seminar darslarida muhokama qilish uchun savollar	200
	Mustaqil o‘qish uchun savollar	200
<b>30 BOB.</b>	<b>ISTE’MOLCHI XULQINING NAZARIY ASOSLARI</b>	
30.1.	Sub’ektiv afzalliklarning xususiyatlari	201
30.2.	Budjet cheklanishlari va xarid qobiliyati	203
30.3.	Eng yuksak naflilik va iste’molchi tanlovi	206
30.4.	Tovarlar eng yuksak nafliligikning kamayib borish qonuni.	207
30.5.	Iste’molchi xulqi qoidasi va muvozanat sharti	209
30.6.	Almashtirish chegaralari me’yori	211
30.7.	Befarqlik egri chiziqlari kategoriyalarida iste’molchi xulqi	212
30.8.	Befarqlik egri chiziqlari va budjet cheklashlari	215
30.9.	Iste’mol muvozanati va talab egri chizig‘i	217
30.10.	Ayriboshlash va daromad samarasi	218
	Qisqacha xulosalar	220
	Asosiy tushunchalar	221
	Mavzuning namunaviy savollari	222
	Seminar darslarida muhokama qilish uchun savollar	222
	Mustaqil o‘qish uchun savollar	222

<b>IV BO'LIM.</b>	<b>MAKROIQTISODIYOT</b>	251
<b>31 BOB</b>	<b>MILLIY IQTISODIYOT VA UNING MAKROIQTISODIY O'LCHAMLARI.</b>	
31.1.	Makroiqtisodiyot tushunchasi	223
31.2.	Yalpi milliy mahsulot (YaMM) va uning harakat shakllari	226
31.3.	Asosiy makroiqtisodiy o'xshashlik	231
31.4.	Nominal va real ko'rsatkichlar. Baho indeksi	233
31.5.	Daromad va mahsulot ko'rsatkichlarini hisoblashdagi murakkablik	234
31.6.	O'zbekistonda YaIMning iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha tarkibi	235
	Qisqacha xulosalar	236
	Asosiy tayanch atamalar	238
	Mavzuning namunaviy savollari	238
	Seminar darslarida muhokama qilish uchun savollar	238
	Mustaqil o'qish uchun savollar	238
<b>32 BOB.</b>	<b>MILLIY IQTISODIYOTNING NAZARIY ASOSLARI. IQTISODIYOTNING MILLIY MODELI ASOSLARI.</b>	
32.1.	Hozirgi zamon rivojlanishining asosiy tamoyillari va ularning milliy iqtisodiyotdagi in'ikosi	244
32.2.	O'zbekiston iqtisodiyati o'ziga xos xususiyatlarining ob'ektiv asoslari	248
32.3.	Milliy iqtisodiy rivojlanishning maqsadlari	253
32.4.	O'zbekiston iqtisodiyotining o'ziga xos jihatlari	255
	Qisqacha xulosalar	257
	Asosiy tayanch atamalar	257
	Mavzuning namunaviy savollari	258
	Seminar darslarida muhokama qilish uchun savollar	258
	Mustaqil o'qish uchun savollar	258
<b>33 BOB.</b>	<b>MILLIY HISOB-KITOBLAR TIZIMI</b>	
33.1.	Milliy hisob-kitoblar tizimi bilan xalq xo'jaligi balansi o'rtasidagi asosiy farqlar	260
33.2.	Milliy hisob-kitoblar tizimining umumiy tarkibiy tuzilishi	262
33.3.	MHT o'zaro bog'liq ko'rsatkichlar tizimi sifatida	266
	Qisqacha xulosalar	273

	Asosiy tushunchalar	274
	Mavzuning namunaviy savollari	275
	Seminar darslarida muhokama qilish uchun savollar	275
	Mustaqil o‘qish uchun savollar	275
<b>34 BOB.</b>	<b>MILLIY IQTISODIYOTNING NISBATLARI VA MUVOZANATI</b>	
34.1.	Makroiqtisodiyot muvozanat nazariyasi	278
34.2.	Makroiqtisodiy muvozanatning turlari	280
34.3.	Retsession va inflyatsion farq	281
	Qisqacha xulosalar	284
	Asosiy tushunchalar	285
	Mavzuning namunaviy savollari	286
	Seminar darslarida muhokama qilish uchun savollar	286
	Mustaqil o‘qish uchun savollar	286
<b>35 BOB.</b>	<b>YALPI TALAB VA YALPI TAKLIF</b>	
35.1.	Yalpi talabning narxsiz omillariga	288
35.2.	Yalpi taklifning narxsiz omillari	289
35.3.	Yalpi talab va yalpi taklif modelida qisqa muddatli va uzoq muddatli muvozanatlar	293
	Qisqacha xulosalar	299
	Asosiy tayanch atamalar	300
	Mavzuning namunaviy savollari	300
	Seminar darslarida muhokama qilish uchun savollar	300
	Mustaqil o‘qish uchun savollar	300
<b>36 BOB.</b>	<b>ISTE’MOL, JAMG’ARMA VA INVESTISIYALAR</b>	
36.1.	Jamg‘arish jarayonini tavsiflovchi asosiy tushunchalar	306
36.2.	Jamg‘arishning me‘yori va samaradorligi	308
36.3.	Investitsiyalarning manbalari	311
36.4.	Multiplikator va akselerator nazariyasi	319
	Qisqacha xulosalar	325
	Asosiy tushunchalar	330
	Mavzuning namunaviy savollari	330
	Seminar darslarida muhokama qilish uchun savollar	330
	Mustaqil o‘qish uchun savollar	330
<b>37 BOB.</b>	<b>IQTISODIY O‘SISH VA MILLIY BOYLIK</b>	
37.1.	Iqtisodiy o‘shish tushunchasi va uning ko‘rsatkichlari	331
37.2.	Iqtisodiy o‘shish omillari	335

37.3.	Harrod-Domarlarning iqtisodiy o‘shish modeli	339
37.4.	Iqtisodiy o‘shishning chegarali muammolari	342
37.5.	Milliy boylikning mohiyati va uning tarkibiy qismlari	343
	Qisqacha xulosalar	347
	Asosiy tushunchalar	348
	Mavzuning namunaviy savollari	348
	Seminar darslarida muhokama qilish uchun savollar	348
	Mustaqil o‘qish uchun savollar	349
<b>38 BOB.</b>	<b>IQTISODIYOTNING SIKLLILIGI VA MAKROIQTISODIY BEQARORLIGI</b>	
38.1.	Iqtisodiy sikllikning mohiyati va sabablari	350
38.2.	Sikllik rivojlanishning fazalari	357
38.3.	Inqirozning asosiy shakllari	361
38.4.	Yetarlicha iste’mol qilmaslik nazariyasi	364
	Qisqacha xulosalar	365
	Asosiy tushunchalar	366
	Mavzuning namunaviy savollari	366
	Seminar darslarida muhokama qilish uchun savollar	366
	Mustaqil o‘qish uchun savollar	366
<b>39 BOB.</b>	<b>AHOLI. BANDLIK. MEHNAT BOZORI. ISHSIZLIK VA UNING TURLARI</b>	
39.1.	Aholi milliy xo‘jalikni rivojlantirishning omili sifatida	367
39.2.	Ishchi kuchini qayta tiklash	376
39.3.	Ish bilan bandlik va mehnat bozori	379
39.4.	Ishsizlik: uning mazmuni va ko‘rinish shakllari (turlari)	382
	Qisqacha xulosalar	390
	Asosiy tayanch so‘zlar	390
	Mavzuning namunaviy savollari	390
	Seminar darslarida muhokama qilish uchun savollar	390
	Mustaqil o‘qish uchun savollar	390
<b>40 BOB.</b>	<b>MILLIY - IJTIMOYIY TAKROR ISHLAB CHIQRISH. MILLIY - IJTIMOYIY ISHLAB CHIQRISHNING MAZMUNI VA MUTANOSIBLIK</b>	
40.1.	Milliy takror ishlab chiqarish natijalari	393
40.2.	Ijtimoiy takror ishlab chiqarishning asosiy muammolari	394

40.3.	Ijtimoiy takror ishlab chiqarishning davriyligi	395
40.4.	Takror ishlab chiqarishning sxema va modellari	398
40.5.	Takror ishlab chiqarishla mutanosiblik	401
40.6.	Iktisoliy o‘tishning mutanosiblik o‘zgarishi xususiyati	402
	Qisqacha xulosalar	405
	Asosiy tushunchalar	406
	Mavzuning namunaviy savollari	407
	Seminar darslarida muhokama qilish uchun savollar	407
	Mustaqil o‘qish uchun savollar	407
<b>41 BOB.</b>	<b>PUL-KREDIT TIZIMI. BANKLAR VA ULARNING BOZOR IQTISODIYOTIDAGI ROLI</b>	
41.1.	Pul muammolari va pul bozoridagi muvozanat	408
41.2.	Pul tizimi. O‘zbekistonning pul tizimi	416
41.3.	Kredit tizimi va uning tarkibi	418
41.4.	Davlatning pul-kredit siyosati	421
	Qisqacha xulosalar	427
	Asosiy tushunchalar	428
	Mavzuning namunaviy savollari	428
	Seminar darslarida muhokama qilish uchun savollar	428
	Mustaqil ta’lim uchun savollar	428
<b>42 BOB</b>	<b>MOLIYA TIZIMI VA DAVLATNING MOLIYAVIY SIYOSATI</b>	
42.1.	Moliyaning mohiyati va zarurligi	429
42.2.	Davlatning moliya tizimi va uning tarkibi	431
42.3.	Davlatning moliyaviy siyosati va uning asosiy yo‘nalishlari	435
42.4.	Soliqning mohiyati va uning funksiyalari	438
42.5.	Davlatning fiskal siyosati	442
	Qisqacha xulosalar	445
	Asosiy tushunchalar	446
	Mavzuning namunaviy savollari	446
	Seminar darslarida muhokama qilish uchun savollar	446
	Mustaqil ta’lim uchun savollar	446
<b>43 BOB.</b>	<b>INFLYASIYA, INFLYASIYAGA QARSHI CHORALAR TIZIMI</b>	
43.1.	Inflyatsiyani o‘lchash	447
43.2.	Inflyatsiya turlari	448

43.3.	Inflyatsiya jarayon sifatida	451
43.4.	Talab inflyatsiyasi va taklif inflyatsiyasi	452
43.5.	Inflyatsiya oqibatlari	457
43.6.	Inflyatsiyaga qarshi siyosat	459
	Qisqacha xulosalar	461
	Asosiy tushunchalar	462
	Mavzuning namunaviy savollari	462
	Seminar darslarida muhokama qilish uchun savollar	462
	Mustaqil ta'lim uchun savollar	462
<b>44 BOB.</b>	<b>QIMMAT BAHOLI QOG'OZ BOZORI</b>	
44.1.	Qimmat baholi qog'ozlar bozorining asosiy tushunchasi	463
44.2.	Qimmat baholi qog'ozlar indeksi	466
44.3.	Qimmat baholi qog'ozlar turlari	467
44.4.	Mulkchilik haqida guvohnoma	468
44.5.	Yasama qimmat baholi qog'oz	472
44.6.	Qimmat baholi qog'ozlar portfelini boshqarish	472
	Qisqacha xulosalar	
	Asosiy tushunchalar	477
	Mavzuning namunaviy savollari	477
	Seminar darslarida muhokama qilish uchun savollar	478
	Mustaqil ta'lim uchun savollar	478
<b>45 BOB.</b>	<b>SOLIQLAR VA SOLIQ NAZARIYASI</b>	
45.1.	Soliqlar tarkibi va ularning asosiy shakllari	479
45.2.	Soliq tizimi va uning tuzilish tamoyillari	480
45.3.	Soliq tizimining vazifalari	482
45.4.	Soliq tizimining samaradorligi	485
45.5.	Soliq ma'muriyatchiligi	487
45.6.	O'zbekistonning soliq xizmati	488
45.7.	Soliq tizimining rivojlanish yo'nalishlari va qarama – karshliklari	489
45.8.	Iqtisodiy o'tish davrini o'tayotgan mamlakatlarda soliq siyosatining muhim jihatlari	490
	Qisqacha xulosalar.	495
	Asosiy tayanch atamalar	495
	Mavzuning namunaviy savollari	495
	Seminar darslarida muhokama qilish uchun savollar	496
	Mustaqil ta'lim uchun savollar	496

<b>46 BOB.</b>	<b>DAVLATNING IJTIMOIIY SIYOSATI</b>	
46.1.	Daromadlarning shakllantirishdagi bozor mexanizmlari va davlatning kuchli ijtimoiy siyosati	497
46.2.	Aholining daromadlari va ularning shakllanish manbalari	498
46.3.	Daromadlar tengsizligi. Ijtimoiy adolat. Ijtimoiy muhofaza tizimi va uning rivojlanishi	501
46.4.	Ijtimoiy infratuzilmaning barqaror rivojlanishi	508
	Qisqacha xulosalar	508
	Asosiy tushunchalar	509
	Mavzuning namunaviy savollari	509
	Seminar darslarida muhokama qilish uchun savollar	510
	Mustaqil ta'lim uchun savollar	510
<b>47 BOB.</b>	<b>AHOLI DAROMADLARI</b>	
47.1.	Aholi daromadlarining shakllari	512
47.2.	Iqtisodiyotning o'tish davrida daromadlar va turmush darajasining o'zgarish tamoyillari	512
47.3.	Qashshoqlik muammosi	515
	Qisqacha xulosalar	522
	Asosiy tushunchalar	523
	Mavzuning namunaviy savollari	523
	Seminar darslarida muhokama qilish uchun savollar	523
	Mustaqil ta'lim uchun savollar.	523
	<b>ADABIYOTLAR RO'YXATI</b>	524



**H. Mamedov, N. Muminov, A. Umarov, Ismailov, A.**

# **IQTISODIYOT NAZARIYASI**

**(darslik)**

**II tom**

**“Bookmany print” nashriyoti**

Nashriyot tasdiqnoma raqami № 022246. 28.02.2022-y.

Bosishga ruxsat etildi: 31.10.2022.

“Times New Roman” garniturası. Qog‘oz bichimi: 60x84 <sup>1</sup>/<sub>16</sub>

Nashriyot bosma tabog‘i 31. Shartli bosma taboq 31,2.

Adadi 100 nusxa. ofset bosma usulida bosildi.

Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-b uy.

“BOOKMANY PRINT” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-b uy.

E-mail: [bookmany\\_print@mail.ru](mailto:bookmany_print@mail.ru)



t.me/ Bookmanyprint ☎ +998 99 180 97 10